ISSN 2091-5659

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚОНУНЧИЛИК ТЎПЛАМИ

СОБРАНИЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

№ 12

2026 йил 23 - 28 март

Расмий нашр

Официальное издание

Ўзбекистон Республикаси қонунчилик тўплами беш бўлимдан иборат:

биринчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси қонунлари ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг қарорлари эълон қилинади;

иккинчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармон ва қарорлари эълон қилинади;

учинчи бўлимда Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари эълон қилинади;

тўртинчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг қарорлари жойлаштирилади;

бешинчи бўлимда вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларининг Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида давлат рўйхатидан ўтказилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари эълон қилинади.

МУНДАРИЖА

БИРИНЧИ БЎЛИМ

262. «Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2026 йил 24 мартдаги ЎРҚ-1123-сон Қонуни

263. «Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига атроф-муҳит, ҳайвонот ва ўсимлик дунёсининг муҳофазасини кучайтиришга, табиий ресурслардан оқилона фойдаланишни таъминлашга қаратилган қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2026 йил 25 мартдаги ЎРҚ-1124-сон Қонуни

264. ««Шахсга доир маълумотлар тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиришлар ва қўшимча киритиш ҳақида» Ўзбекистон Республикасининг 2026 йил 26 мартдаги ЎРҚ-1125-сон Қонуни

265. «Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига Ўзбекистонда исломий банк фаолиятини жорий этишга қаратилган қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2026 йил 27 мартдаги ЎРҚ-1126-сон Қонуни

266. «Ҳуқуқий эксперимент тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2026 йил 27 мартдаги ЎРҚ-1127-сон Қонуни

ИККИНЧИ БЎЛИМ

267. «Атмосфера ҳавоси сифатини яхшилашга қаратилган «Тоза ҳаво» умуммиллий лойиҳасини амалга ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 25 мартдаги ПФ-46-сон Фармони

268. ««Яшил макон» умуммиллий лойиҳаси самарадорлигини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 25 мартдаги ПФ-47-сон Фармони

269. «Спорт соҳасини молиялаштириш механизмларини такомиллаштириш ва соҳага тадбиркорлик субъектларини жалб қилишни кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 24 мартдаги ПҚ-107-сон қарори

270. «Аҳолини куз-қиш мавсумларида қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари билан барқарор таъминлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 25 мартдаги ПҚ-108-сон қарори

271. ««Овжазсой-Мовий тоғлар», «Писком», «Фарғона» миллий табиат боғларини ташкил этиш ва «Поп» миллий табиат боғи ҳудудини кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 25 мартдаги ПҚ-109-сон қарори

272. ««Эко-маданият» умуммиллий лойиҳаси доирасида экологик таълим, илм-фан ва тарғиботни жадаллаштиришга оид комплекс чора-тадбирлар тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 25 мартдаги ПҚ-110-сон қарори

273. «Халқаро шартномани тасдиқлаш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 26 мартдаги ПҚ-112-сон қарори

274. «Халқаро шартномаларни тасдиқлаш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 26 мартдаги ПҚ-113-сон қарори

275. «Халқаро шартномани тасдиқлаш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 27 мартдаги ПҚ-115-сон қарори

276. «Халқаро шартномани тасдиқлаш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 27 мартдаги ПҚ-116-сон қарори

277. «Жазони ижро этиш муассасаларидаги ёшларни замонавий касбларга ўқитишга оид чора-тадбирлар тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 27 мартдаги ПҚ-117-сон қарори

УЧИНЧИ БЎЛИМ

278. «Автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро ташишнинг рухсатнома тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2026 йил 25 мартдаги 114-сон қарори

БЕШИНЧИ БЎЛИМ

279. “Alkogol va tamaki mahsulotlariga yangi namunadagi aksiz markalarini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining qarori *(Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 27-mart ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3796-son)*

280. “O‘zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (1-sonli BHS) “Hisob siyosati, hisob baholaridagi o‘zgarishlar va xatolar”ni tasdiqlash haqida” O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining buyrug‘i *(Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 27-mart ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3797-son)*

281. “O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining buyrug‘i *(Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 27-mart ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3798-son)*

282. “O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining buyrug‘i *(Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 27-mart ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3799-son)*

283. “Фуқаро авиациясида тиббий кўрикдан ўтказиш ва тиббий хулоса бериш тартиби тўғрисидаги Ўзбекистон Республикасининг авиация қоидаларини тасдиқлаш ҳақида” Ўзбекистон Республикаси Транспорт вазирлиги ҳузуридаги Фуқаро авиацияси агентлиги директорининг буйруғи *(Адлия вазирлиги томонидан 2026 йил 27 мартда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3800-сон)*

284. “Ихтирога патент бериш учун талабномани тузиш, топшириш ва кўриб чиқиш қоидаларини тасдиқлаш тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг буйруғи *(Адлия вазирлиги томонидан 2026 йил 27 мартда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3801-сон)*

285. “Фойдали моделга патент бериш учун талабномани тузиш, топшириш ва кўриб чиқиш қоидаларини тасдиқлаш тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг буйруғи *(Адлия вазирлиги томонидан 2026 йил 27 мартда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3802-сон)*

БИРИНЧИ БЎЛИМ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚОНУНЛАРИ

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

12 (1240)-сон
262-модда

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING
QONUNI

Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида

Қонунчилик палатаси томонидан 2025 йил 23 декабрда қабул қилинган
Сенат томонидан 2026 йил 5 февралда маъқулланган

1-боб. Умумий қоидалар

1-модда. Ушбу Қонуннинг мақсади

Ушбу Қонуннинг мақсади жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги муносабатларни тартибга солишдан иборат.

2-модда. Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисидаги қонунчилик

Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисидаги қонунчилик ушбу Қонун ва бошқа қонунчилик ҳужжатларидан иборатдир.

Агар Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномасида Ўзбекистон Республикасининг жисмоний тарбия ва спорт тўғрисидаги қонунчилигида назарда тутилганидан бошқача қоидалар белгиланган бўлса, халқаро шартнома қоидалари қўлланилади.

3-модда. Асосий тушунчалар

Ушбу Қонунда қуйидаги асосий тушунчалар қўлланилади:

антидопинг қоидалари – Бутунжаҳон антидопинг кодекси ва миллий антидопинг қоидалари;

жисмоний реабилитация – одам организмининг бузилган ёки вақтинча йўқотилган функцияларини ҳамда ногиронлиги бўлган шахсларнинг ижтимоий ва касбий фаолиятга бўлган қобилиятини жисмоний тарбия ва спорт воситалари ҳамда усулларидан фойдаланган ҳолда тиклаш (тузатиш ва компенсация қилиш);

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

жисмоний тарбия – маданиятнинг инсонни жисмоний тарбиялаш, жисмоний ривожланиш ва жисмоний тайёргарлик орқали жисмоний ҳамда интеллектуал жиҳатдан камол топтириш, унинг қобилиятини ва ҳаракат фаоллигини такомиллаштириш, соғлом турмуш тарзи кўникмаларини шакллантириш, ижтимоий мослаштириш мақсадида жамият томонидан яратиладиган ҳамда фойдаланиладиган қадриятлар, нормалар ва билимлар йиғиндисидан иборат бўлган қисми;

жисмоний тарбиялаш – юксак маданиятга эга бўлган ҳар томонлама етук ҳамда жисмонан соғлом инсонни шакллантириш мақсадида шахсни тарбиялашга, унинг жисмоний имкониятларини ривожлантиришга, жисмоний тарбия ва спорт соҳасида малака ва билимларини оширишга қаратилган жараён;

жисмоний тарбия ёки спорт тадбири ташкилотчиси – ўз ташаббуси билан жисмоний тарбия ёки спорт тадбири ўтказаётган ва (ёки) бундай тадбирни тайёрлаш ҳамда ўтказишни ташкилий, молиявий ва моддий жиҳатдан таъминлашни амалга ошираётган юридик ёки жисмоний шахс;

жисмоний тарбия-соғломлаштириш иншооти – оммавий жисмоний тарбия тадбирлари ва жисмоний тарбия-соғломлаштириш машғулотларини ўтказиш учун мўлжалланган, ўзига қўйиладиган норма ва талабларга жавоб берадиган ёпиқ ёки очиқ турдаги иншоот;

жисмоний тарбия тадбирлари – аҳолини жисмоний тарбия машғулотларига жалб этишга ва аҳоли ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантиришга қаратилган тадбирлар;

оммавий спорт – спортнинг ташкил этилган ва (ёки) мустақил машғулотларга, шунингдек оммавий жисмоний тарбия ва спорт тадбирларини ўтказиш орқали аҳолини жисмоний тарбиялашга, соғломлаштиришга, камол топтиришга ҳамда жисмоний тарбия ва спорт машғулотларига жалб этишга доир қисми;

профессионал спорт – спортнинг спорт мусобақаларини ташкил этиш ва ўтказишга доир қисми бўлиб, спортчилар уларда ўзининг асосий фаолияти сифатида иштирок этганлиги ва уларга тайёргарлик кўрганлиги учун мукофот ва (ёки) иш ҳақи олади;

спорт – одамларнинг муайян қоидалар бўйича ташкил этилган, уларнинг жисмоний ва интеллектуал қобилиятини таққослашдан иборат бўлган ҳаваскорлик асосидаги ва (ёки) профессионал асосдаги фаолияти, шунингдек ушбу фаолиятга тайёргарлик кўриш ҳамда бу фаолият жараёнида одамлар ўртасида юзага келадиган муносабатлар;

спортчи – танлаган спорт тури ёки спорт турлари билан мунтазам шуғулланадиган, доимо ўзининг спорт маҳоратини ошириб борадиган ва спорт тадбирларида қатнашадиган жисмоний шахс;

спорт дисквалификацияси – спорт турининг қоидаларини ёки спорт мусобақалари тўғрисидаги қоидаларни (низомларни, регламентларни) ёхуд антидопинг қоидаларини бузганлик учун спортчини, тренерни, спорт ҳакамини ва спорт соҳасидаги бошқа мутахассисларни спорт мусобақаларида иштирок этишдан четлаштириш;

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

спорт иншооти – спорт тадбирлари, спорт турлари бўйича ўқув машғулотлари ва ўқув-машғулот йиғинларини ўтказиш учун мўлжалланган, белгиланган нормалар ва талабларга жавоб берадиган ёпиқ ёки очиқ турдаги ихтисослаштирилган иншоот;

спорт мусобақаси – спортчилар ёки спорт жамоалари ўртасида спорт тури (спорт турлари) бўйича энг яхши иштирокчини (иштирокчиларни) аниқлаш мақсадида тасдиқланган қоидалар асосида ўтказиладиган беллашув;

спорт тадбири – тасдиқланган қоидалар асосида ташкил этилган, жисмоний фаоллик ва рақобатга асосланган мусобақа, шунингдек соғлом турмуш тарзини тарғиб қилишга, спортчиларнинг маҳорати ва салоҳиятини намоён этишга ҳамда аҳолини спортга жалб этишга қаратилган тадбир;

спорт тури – спорт мусобақаларига ўзига хос тарзда тайёргарлик кўрилиши билан ажралиб турувчи, спорт мусобақаларини ўтказишга ва уларда иштирок этишга доир талаблар ва шартлар белгиланадиган қоидаларга (низомга, регламентга) эга бўлган жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги фаолият тури;

спорт турининг тармоғи – фарқловчи белгиларга эга бўлган ҳамда битта ёки бир нечта спорт мусобақалари дастурлари турларини ўз ичига оладиган спорт турининг қисми;

спорт федерацияси (уюшмаси) – мамлакатда муайян спорт турини (турларини) ривожлантиришни, оммалаштиришни, спорт тадбирларини ташкил этиш ва ўтказишни, шунингдек Ўзбекистон Республикасининг спорт терма жамоаси аъзолигига номзодларни саралашни ва тавсия этишни ўз фаолиятининг асосий мақсади сифатида белгилаган, тегишли тартибда Спорт федерациялари (уюшмалари) реестрига киритилган нодавлат нотижорат ташкилоти;

спортнинг техник ва амалий турлари – спорт натижаларига эришиш учун спортчи томонидан умумий жисмоний машқлар мажмуасидан ташқари, спорт техникасидан, мосламаларидан ёки техникавий воситалардан фойдалана билиш ҳамда уларни бошқариш соҳасидаги кўникмалар ва маҳорат қўлланиладиган, шунингдек ҳар хил спорт турларидан олинган, амалий аҳамиятга эга бўлган машқлар бирикмасидан фойдаланиладиган спорт турлари. Спортнинг техник ва амалий турлари ёшларни Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларида хизмат қилишга тайёрлашнинг таркибий қисмидир;

спортнинг ҳарбий-амалий турлари – асоси ҳарбий хизматчилар ҳамда махсус хизматни ўтаётган шахслар томонидан ўз хизмат вазифаларини бажариши билан боғлиқ махсус ҳаракатлардан (шу жумладан усуллардан) иборат бўлган спорт турлари;

Ўзбекистон Республикасининг спорт терма жамоалари – халқаро спорт мусобақаларига тайёргарлик кўриш ҳамда уларда Ўзбекистон Республикаси номидан иштирок этиш учун турли ёш тоифалари бўйича спортчилардан, тренерлардан, жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги бошқа мутахассислардан иборат жамоалар;

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

ҳаваскорлик спорти – спортнинг аҳолини ихтиёрийлик асосида спортга жалб этиш орқали одамлар соғлиғини мустаҳкамлашга қаратилган қисми.

4-модда. Жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий йўналишлари

Жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий йўналишлари қуйидагилардан иборат:

жисмоний тарбия ва спортни ривожлантиришни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш;

ҳар кимнинг жисмоний тарбия ва спорт билан эркин шуғулланишга бўлган ҳуқуқини таъминлаш;

жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги давлат ҳамда жамоатчилик бошқарувини уйғунлаштириш;

жисмоний ва юридик шахсларнинг жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги ҳуқуқларининг кафолатларини белгилаш;

жисмоний тарбия ва спорт соҳасида камситишга ҳамда зўравонликка йўл қўймаслик;

жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш ҳамда аҳолини соғлом турмуш тарзига кенг жалб этиш;

Олимпия ва Паралимпия ҳаракатини ривожлантириш, спортчилар захирасини яратиш, шунингдек халқаро мусобақаларда спортчиларнинг иштирокини таъминлаш;

жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланувчи шахсларнинг, шунингдек жисмоний тарбия ва спорт тадбирлари иштирокчилари ҳамда томошабинларининг ҳаёти ва соғлиғи хавфсизлигини таъминлаш;

ногиронлиги бўлган шахслар, шунингдек ижтимоий ҳимояга муҳтож аҳоли ўртасида жисмоний тарбия ва спортни ривожлантиришга кўмаклашиш;

Ўзбекистоннинг миллий спорт турларини ва халқ ўйинларини ривожлантириш ҳамда оммалаштириш учун шарт-шароитлар яратиш;

жисмоний тарбия ва спортни ривожлантиришнинг узлуксизлиги ва узвийлигини таъминлаш;

халқаро ҳамкорликни амалга ошириш.

5-модда. Жисмоний тарбия ва спорт субъектлари

Жисмоний тарбия ва спорт субъектлари жумласига қуйидагилар киради:

Ўзбекистон Республикаси Спорт вазирлиги;

Ўзбекистон Миллий олимпия қўмитаси;

Ўзбекистон Миллий паралимпия қўмитаси;

спорт федерациялари (уюшмалари) ҳамда жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги бошқа нодавлат нотижорат ташкилотлари;

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

жисмоний тарбия ва спорт ташкилотлари;

спортнинг техник ва амалий турларини ривожлантирувчи ташкилотлар;

жисмоний тарбия ва спорт соҳасида фаолиятни амалга оширувчи таълим ташкилотлари;

жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги илмий тадқиқотларни амалга оширувчи ташкилотлар;

жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланувчи жисмоний шахслар, спортчилар, тренерлар, спорт ҳакамлари, спорт агентлари ҳамда жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги бошқа мутахассислар, шунингдек жисмоний тарбия ва спорт тадбирларининг иштирокчилари ҳамда томошабинлари;

ушбу Қонунга мувофиқ бошқа жисмоний ва юридик шахслар.

2-боб. Жисмоний тарбия ва спорт соҳасини давлат томонидан тартибга солиш

6-модда. Жисмоний тарбия ва спортни ривожлантиришни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш

Жисмоний тарбия ва спортни ривожлантиришни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш:

спортчиларнинг спорт тадбирларида, шу жумладан спорт мусобақалари ва ўқув-машғулот йиғинларида иштирок этишини таъминлаш;

Ўзбекистон Миллий олимпия қўмитаси, Ўзбекистон Миллий паралимпия қўмитаси, спорт федерациялари (уюшмалари) ҳамда жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги бошқа нодавлат нотижорат ташкилотлари фаолиятига молиявий жиҳатдан кўмаклашиш;

жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш, аҳоли ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантириш учун шарт-шароитлар яратиш;

жисмоний тарбия ва спорт ташкилотлари томонидан моддий-техника ва ахборот ресурсларидан, шунингдек илмий-тадқиқотга оид ва техник ишланмалар ҳамда технологиялардан фойдаланиш учун шарт-шароитлар яратиш;

давлат мулкида бўлган жисмоний тарбия-соғломлаштириш ва спорт иншоотларини сақлаш;

спорт иншоотларини қуриш, мавжудларини таъмирлаш ва реконструкция қилиш;

жисмоний тарбия ва спорт ташкилотлари фаолиятини ривожлантириш учун зарур шарт-шароитлар яратиш;

жисмоний тарбия ва спорт воситаларидан аҳолининг, шу жумладан ногиронлиги бўлган шахсларнинг соғлиғини мустаҳкамлаш мақсадида фойдаланиш учун шарт-шароитлар яратиш;

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

ногиронлиги бўлган шахсларнинг Паралимпия ўйинларида ҳамда ногиронлиги бўлган шахслар ўртасидаги бошқа спорт тадбирларида иштирок этишини ривожлантиришга ва таъминлашга кўмаклашиш;

спорт тадбирларини, оммавий спорт ва жисмоний тарбия-соғломлаштириш тадбирларини ташкил этиш;

жисмоний тарбия ва спорт ташкилотларининг халқаро ҳамкорлигига кўмаклашиш;

жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги дастурларни, илмий-услубий тизимларни ҳамда комплекс илмий тадқиқотларни молиялаштириш йўли билан амалга оширилади.

7-модда. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги ваколатлари

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси:

жисмоний тарбия ва спорт соҳасида ягона давлат сиёсатининг амалга оширилишини таъминлайди;

жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги давлат дастурларини ва мақсадли дастурларни тасдиқлайди ҳамда уларнинг амалга оширилишини таъминлайди;

спорт ва оммавий жисмоний тарбия тадбирларининг календарь режасини шакллантириш, шунингдек спорт турлари бўйича Ўзбекистон Республикасининг спорт терма жамоаларини шакллантириш тартибини белгилайди;

халқаро ва республика миқёсидаги спорт ҳамда оммавий жисмоний тарбия тадбирларининг календарь режасини, шунингдек спортнинг техник ва амалий турлари бўйича спорт ва оммавий жисмоний тарбия тадбирларининг календарь режасини тасдиқлайди;

жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги ваколатли давлат органининг, бошқа республика ижро этувчи ҳокимият органларининг фаолиятини мувофиқлаштиради ҳамда йўналтиради;

жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги мутахассисларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тартибини белгилайди;

жисмоний тарбия ва спорт мусобақалари ҳамда тадбирларини ўтказиш қоидаларини белгилайди;

спорт унвонлари, спорт разрядлари ва малака тоифаларини бериш тартибини тасдиқлайди;

спорт мусобақаларида ғолиб ва совриндор бўлган спортчиларни ҳамда уларни тайёрлаган тренерларни ва терма жамоалар аъзоларини рағбатлантириш тартибини белгилайди.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қонунчиликка мувофиқ бошқа ваколатларни ҳам амалга ошириши мумкин.

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

8-модда. Жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги ваколатли давлат органининг ваколатлари

Ўзбекистон Республикаси Спорт вазирлиги жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги ваколатли давлат органидир (бундан буён матнда ваколатли давлат органи деб юритилади).

Ваколатли давлат органи:

жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги ягона давлат сиёсатини амалга оширади;

жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги давлат дастурларини ҳамда мақсадли дастурларни ишлаб чиқади ва амалга оширади;

жисмоний тарбия ва спорт тўғрисидаги қонунчиликка риоя этилиши устидан мониторинг ва назоратни, шунингдек жисмоний тарбия ва спортнинг ривожланиш таҳлилини амалга оширади;

жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасидаги норматив ҳужжатларнинг ишлаб чиқилиши ва тасдиқланишини ўз ваколатлари доирасида ташкил этади;

спорт таълим ташкилотларини ҳамда бошқа жисмоний тарбия ва спорт ташкилотларини ташкил этиш бўйича таклифлар киритади ва уларнинг фаолияти ташкил этилишини таъминлайди;

спорт турлари бўйича ягона спорт таснифини, шунингдек ушбу тасниф тўғрисидаги низомни тасдиқлайди;

спорт турларини ва спорт турининг тармоқларини эътироф этиш, уларни спорт турлари реестрига киритиш, реестрни юритиш ва ундан чиқариш тартибини белгилайди;

Спорт федерациялари (уюшмалари) реестрини шакллантириш, юритиш, реестрдан чиқариш тартибини белгилайди;

халқаро ва республика миқёсидаги спорт ҳамда оммавий жисмоний тарбия тадбирларининг календарь режасини шакллантиради ҳамда манфаатдор ташкилотлар билан биргаликда уларнинг молиялаштирилиши ва ўтказилишини таъминлайди;

жисмоний тарбия-соғломлаштириш ёки спорт иншоотлари қабул қилиб олинаётганда ва спорт мусобақалари ўтказилишидан олдин уларнинг белгиланган стандартларга мувофиқлигини текширади;

Ўзбекистон Республикаси спорт терма жамоаларининг таркибларини тасдиқлайди, Ўзбекистон спорт делегацияларини жамлайди, уларнинг тайёргарлик кўришини ҳамда халқаро спорт мусобақаларида ва оммавий жисмоний тарбия тадбирларида иштирок этишини таъминлайди;

Олимпия ва Паралимпия ҳаракатини ривожлантириш, халқаро мусобақаларда спортчиларнинг иштирокини таъминлаш бўйича зарур чора-тадбирларни белгилайди;

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

спорт ва оммавий жисмоний тарбия тадбирларини ташкил этади ҳамда ўтказади;

жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги мутахассисларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ҳамда уларнинг малакасини оширишни ташкил этади;

жисмоний тарбия-соғломлаштириш ва спорт учун мўлжалланган товарларни ишлаб чиқариш жараёнининг жисмоний тарбия ва спорт соҳасига оид стандартларга мувофиқ ташкил этилишига кўмаклашади;

янги жисмоний тарбия-соғломлаштириш ва спорт иншоотлари барпо этилишини ҳамда мавжудларининг таъмирланишини ва реконструкция қилинишини ташкил этишга кўмаклашади;

жисмоний тарбия ва спорт бўйича илмий, ўқув ва оммабоп адабиётлар, спорт турлари бўйича дастурлар тайёрланиши ва нашр этилишини, шунингдек жисмоний тарбия ва спорт соҳасида мультимедиа ва рақамли технологиялар маҳсулотлари ишлаб чиқилишини ташкил этади;

спортни оммалаштиришни ва аҳолини соғлом турмуш тарзига кенг жалб этишни ташкил этади;

жисмоний тарбия ва спортнинг оммалаштирилишини республика ижро этувчи ҳокимият органлари, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, жисмоний тарбия ва спорт ташкилотлари, оммавий ахборот воситалари билан биргаликда ташкил этади;

жисмоний тарбия ва спорт соҳасида халқаро ҳамкорликни амалга оширади.

Ваколатли давлат органи қонунчиликка мувофиқ бошқа ваколатларни ҳам амалга ошириши мумкин.

9-модда. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги ваколатлари

Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги:

жисмоний тарбиядан соғлиқни мустаҳкамлаш, касалликларнинг олдини олиш ва даволаш воситаси сифатида фойдаланади;

мамлакатда спорт тиббиётини ўрганиш ва ривожлантириш соҳасида илмий-тадқиқот ишларини олиб боради, дастурларни ишлаб чиқади ва амалга оширади;

аҳолининг жисмоний жиҳатдан камол топиш ҳолати таҳлилини ўтказади ва тегишли давлат органларига таклифлар киритади;

жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланаётган шахсларнинг тиббий мониторингини ташкил этади;

спортчиларнинг спорт мусобақаларига тайёргарлик кўришини тиббий жиҳатдан таъминлашда иштирок этади;

давлат спорт таълим муассасалари спортчиларининг белгиланган тартибда тиббий кўрикдан ўтказиб борилишини таъминлайди;

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

спорт тиббиёти соҳасидаги ходимларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини оширишни ташкил этади;

спортчилар ва бошқа мутахассислар спорт жароҳатларини олганда уларга тиббий ёрдам кўрсатилишини ташкил этади, шунингдек уларни жисмоний реабилитация қилиш бўйича тадбирлар ўтказади;

аҳолининг жинси ва ёши тоифасига қараб, жисмоний машқлар дастурини шакллантиришга доир услубий тавсияларни ишлаб чиқишда иштирок этади;

жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқиш ҳамда амалга оширишда иштирок этади;

соғломлаштириш марказларини, даволаш-жисмоний тарбия диспансерларини ташкил этади.

Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги қонунчиликка мувофиқ бошқа ваколатларни ҳам амалга ошириши мумкин.

10-модда. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлигининг жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги ваколатлари

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги:

ўрта махсус, профессионал ва олий таълим ташкилотларида жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланиш ташкил этилишини таъминлайди;

ўрта махсус, профессионал ва олий таълим ташкилотларида ўқув-тарбия жараёнининг соғломлаштиришга йўналтирилган бўлишини, шунингдек соғлом турмуш тарзи нормаларини жорий этиш учун шарт-шароитлар яратилишини таъминлайди;

ўрта махсус, профессионал ва олий таълим ташкилотлари талабалари ўртасида жисмоний тарбия ва спорт тадбирларини ташкил этади;

жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ҳамда уларнинг малакасини оширишда иштирок этади;

жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги ўқув-услубий адабиётларни тайёрлашда иштирок этади;

ўрта махсус, профессионал ва олий таълим ташкилотларида спорт клублари фаолияти йўлга қўйилишини таъминлайди ҳамда уларнинг спорт клублари ўртасида спорт мусобақаларини тизимли равишда ўтказиб боради;

Бутунжаҳон талабалар ўйинларида олий таълим ташкилотлари талабаларининг иштирокини таъминлайди;

ўрта махсус, профессионал ва олий таълим ташкилотлари спорт иншоотларининг моддий-техника ва ресурс базаси сақланиши ҳамда ривожлантирилишини таъминлайди;

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

жисмоний тарбия ва спорт соҳасида илмий ва инновацион лойиҳаларни амалга оширишга инвестиция ва грантларни жалб этиш, илмий ва инновацион фаолиятни молиялаштириш бўйича чора-тадбирларни амалга оширади;

ўқувчилар ва талабаларга соғлом турмуш тарзини, спорт билан шуғулланишнинг муҳимлиги, жисмоний ва маънавий комилликка интилиш тушунчасини сингдиришга, уларни салбий таъсирлардан ҳимоя қилишга ҳамда зарарли одатлардан халос этишга доир чора-тадбирлар мажмуини амалга оширади;

жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқиш ҳамда амалга оширишда иштирок этади;

ўқувчилар ва талабаларни жисмоний тарбиялашнинг замонавий шакллари ҳамда усулларини, жинси ва ёшига қараб уларга спорт кўникмаларини сингдиришнинг илмий асосланган тизимларини ишлаб чиқишни ҳамда уларни жорий этишга кўмаклашишни ташкил этади.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги қонунчиликка мувофиқ бошқа ваколатларни ҳам амалга ошириши мумкин.

11-модда. Ўзбекистон Республикаси Мактабгача ва мактаб таълими вазирлигининг жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги ваколатлари

Ўзбекистон Республикаси Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги:

мактабгача таълим ва умумий ўрта таълим ташкилотларида жисмоний тарбия ва спортни ривожлантиришни ҳамда спорт инфратузилмасини мустаҳкамлашни таъминлайди;

мактабгача таълим ва умумий ўрта таълим ташкилотларида жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланишни ташкил этади;

болалар ва ўқувчи ёшлар ўртасида жисмоний тарбия ва спорт тадбирларини ташкил этади;

жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги ўқув-услубий адабиётларни тайёрлашда иштирок этади;

умумий ўрта таълим ташкилотларида мактаб спорт клублари фаолияти йўлга қўйилишини таъминлайди;

умумий ўрта таълим ташкилотларининг мактаб спорт клублари ва ўқувчилари ўртасида спорт мусобақаларини тизимли равишда ўтказиб боради;

жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ҳамда уларнинг малакасини оширишда иштирок этади;

мактабгача таълим ва умумий ўрта таълим ташкилотларининг моддий-техника базасини ривожлантириш чораларини кўради;

болаларга спортга нисбатан муҳаббатни сингдиришга, ўсиб келаётган авлодда спорт билан шуғулланиш, соғлом турмуш тарзини олиб бориш, жисмоний ва маънавий комилликка интилиш муҳимлиги

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

тушунчасини шакллантиришга, болаларни салбий таъсирлардан ҳимоя қилишга ва зарарли одатлардан халос этишга доир чора-тадбирлар мажмуини амалга оширади;

жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқиш ҳамда амалга оширишда иштирок этади;

болаларни жисмоний тарбиялашнинг замонавий шакллари ҳамда усулларини, болаларнинг жинси ва ёшига қараб уларга спорт кўникмаларини сингдиришнинг, спортга қобилиятли болаларни ихтисослаштирилган спорт таълим муассасаларида ўқитиш учун танлаб олишнинг илмий асосланган тизимларини ишлаб чиқишни ҳамда уларни жорий этишга кўмаклашишни ташкил этади.

Ўзбекистон Республикаси Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги қонунчиликка мувофиқ бошқа ваколатларни ҳам амалга ошириши мумкин.

12-модда. Маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги ваколатлари

Маҳаллий давлат ҳокимияти вакиллик органлари:

тегишли ҳудудда жисмоний тарбия ва спорт соҳасини ривожлантиришга ажратиладиган маҳаллий бюджет маблағларини кўриб чиқади, тасдиқлайди, уларнинг ижро этилиши устидан назоратни амалга оширади;

тегишли ҳудудда жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги ҳудудий дастурларни тасдиқлайди, уларнинг ижро этилиши устидан назоратни амалга оширади;

тегишли ҳудуддаги жисмоний тарбия ва спорт соҳасига масъулларнинг ҳисоботларини эшитади;

жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқишда ҳамда амалга оширишда иштирок этади.

Маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органлари:

жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги давлат дастурларини ҳамда мақсадли дастурларни ишлаб чиқишда ҳамда амалга оширишда иштирок этади;

жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги ҳудудий дастурларни ишлаб чиқади ҳамда амалга оширади;

жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқишда ҳамда амалга оширишда иштирок этади;

ҳудудларда жисмоний тарбия ва спорт тўғрисидаги қонунчиликнинг ижро этилишини ташкил этади;

жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги тадбирларнинг маҳаллий бюджетдан молиялаштирилишини таъминлайди;

жисмоний тарбия ва спорт ташкилотларини ташкил этишга кўмаклашади ҳамда уларнинг фаолиятини қўллаб-қувватлайди;

жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги давлат-хусусий шерикликни ривожлантиришга кўмаклашади;

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

аҳолини жисмоний тарбия ва спортга жалб этиш ишларини ташкил этади;

жисмоний тарбия ва спорт тадбирларини ташкил этиш ҳамда ўтказишга, жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги мутахассисларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини оширишга кўмаклашади;

жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш учун фуқароларнинг иш жойи, яшаш жойи ҳамда дам олиш жойида шарт-шароитлар яратади;

жисмоний тарбия-соғломлаштириш ва спорт учун мўлжалланган товарлар ишлаб чиқарилишини, соҳага оид хизматлар ривожлантирилишини ташкил этишга кўмаклашади.

Маҳаллий давлат ҳокимияти органлари қонунчиликка мувофиқ бошқа ваколатларни ҳам амалга ошириши мумкин.

13-модда. Фуқароларнинг, фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг, нодавлат нотижорат ташкилотларининг ҳамда фуқаролик жамияти бошқа институтларининг жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги тадбирларда иштирок этиши

Фуқаролар, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, нодавлат нотижорат ташкилотлари ҳамда фуқаролик жамиятининг бошқа институтлари:

жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги давлат дастурларини, ҳудудий дастурларни ҳамда бошқа дастурларни амалга оширишда иштирок этади;

жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги жамоатчилик назоратини амалга оширади;

жисмоний тарбия ва спортни ривожлантиришга, аҳоли ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантиришга қаратилган тушунтириш ишларини амалга оширишда иштирок этади.

Фуқаролар, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, нодавлат нотижорат ташкилотлари ҳамда фуқаролик жамиятининг бошқа институтлари жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги бошқа тадбирларда ҳам иштирок этиши мумкин.

3-боб. Жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги фаолиятни ташкил этиш

14-модда. Жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги мутахассислар

Спортчилар, тренерлар, спорт ҳакамлари ҳамда Ўзбекистон Республикаси Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги томонидан ваколатли давлат органи билан биргаликда касблари ва лавозимларининг таснифланган рўйхати белгиланадиган бошқа мутахассислар жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги мутахассислардир.

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

Спортчи, тренер ва спорт ҳаками касблари ва лавозимларига доир малака талаблари ваколатли давлат органи томонидан белгиланади, жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги бошқа мутахассисларнинг касблари ва лавозимларига доир малака талаблари қонунчиликка мувофиқ белгиланади.

15-модда. Ҳаваскорлик спорти ва профессионал спорт

Фуқаролар ҳаваскорлик спорти, шунингдек профессионал спорт билан спортчи, тренер, спорт ҳаками сифатида шуғулланиш ёки қонунчиликда тақиқланмаган жисмоний тарбия ва спорт соҳасига оид бошқа фаолият турлари билан шуғулланиш ҳуқуқига эга.

Ҳаваскорлик спорти ва профессионал спорт соҳасидаги корхоналар, муассасалар ва ташкилотларнинг ташкил этилиши ҳамда фаолият кўрсатиши тартиби қонунчиликда белгиланади.

16-модда. Оммавий спорт мусобақалари

Оммавий спорт мусобақалари аҳолини оммавий спортга жалб этиш мақсадида «Беш ташаббус олимпиадаси», «Беш ташаббус паралимпиадаси» ва бошқа оммавий спорт тадбирлари шаклида ўтказиб борилади.

Оммавий спорт мусобақалари ваколатли давлат органи билан келишилган ҳолда ушбу мусобақалар ташкилотчилари томонидан белгиланадиган тартиб асосида ўтказилади.

17-модда. Спорт синовлари

Спорт синовлари аҳоли ўртасида жисмоний тарбия ва спортни оммалаштириш ҳамда аҳолининг жисмоний фаоллигини баҳолаш мақсадида ўтказилади.

Спорт синовлари натижалари ваколатли давлат органининг ахборот тизимига киритиб борилади.

Спорт синовларини ўтказиш тартиби Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади.

18-модда. Ўзбекистон олимпия ҳаракати. Ўзбекистон Миллий олимпия қўмитаси

Ўзбекистон олимпия ҳаракати Халқаро олимпия ҳаракатининг таркибий қисми бўлиб, унинг мақсади олимпия ҳаракати принципларини оммалаштиришдан, жисмоний тарбия ва спортни ривожлантиришга кўмаклашишдан, спорт соҳасидаги халқаро ҳамкорликни мустаҳкамлашдан, Олимпия ўйинларида ҳамда Халқаро олимпия қўмитаси шафелигида ўтказиладиган бошқа халқаро спорт тадбирларида иштирок этишдан иборатдир.

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

Ўзбекистон олимпия ҳаракати ўз фаолиятини Ўзбекистон Республикасининг қонунчилигига, Халқаро олимпия қўмитасининг Олимпия хартиясига ҳамда ўз уставига мувофиқ амалга оширувчи Ўзбекистон Миллий олимпия қўмитаси томонидан бошқарилади. Давлат Ўзбекистон Миллий олимпия қўмитасига ўз уставида белгиланган мақсадларини амалга оширишига ҳар томонлама кўмаклашган ҳолда, Ўзбекистон олимпия ҳаракатини тан олади ва қўллаб-қувватлайди.

Ўзбекистон Миллий олимпия қўмитаси:

олимпия ҳаракати принципларини оммалаштиради, юксак ютуқларга эришиладиган спортни ва оммавий спортни ривожлантиришга кўмаклашади;

Халқаро олимпия қўмитасининг Олимпия хартиясига мувофиқ Олимпия ўйинларида ҳамда Халқаро Олимпия қўмитаси шафелигида ўтказиладиган бошқа халқаро спорт тадбирларида Ўзбекистон Республикасининг манфаатларини ифода этади;

спортчиларни Олимпия ўйинларида ҳамда Халқаро Олимпия қўмитаси шафелигида ўтказиладиган бошқа халқаро спорт тадбирларида иштирок этишга тайёрлашнинг зарур даражасини таъминлашга қаратилган дастурларни ва чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ҳамда амалга оширишда иштирок этади;

спортда допингнинг олдини олишга ҳамда унга қарши курашишга, шунингдек жисмоний тарбия ва спорт соҳасида ҳар қандай шаклдаги камситишлар ва зўравонликларнинг юзага келишига йўл қўймасликка кўмаклашади;

Халқаро олимпия қўмитасининг ҳамда Ўзбекистон Миллий олимпия қўмитасининг олимпия рамзларидан, шиоридан, байроғидан, мадҳиясидан, «олимпия», «олимпиада» деган номлардан фойдаланишга бўлган ҳуқуқларини Ўзбекистон Республикаси ҳудудида ҳимоя қилиш чораларини таъминлайди.

Ўзбекистон Миллий олимпия қўмитаси ўз ваколатларини ваколатли давлат органи, спорт федерациялари (уюшмалари) ҳамда бошқа ташкилотлар билан ҳамкорликда амалга оширади.

Олимпия ўйинларида ва Халқаро олимпия қўмитаси шафелигида ўтказиладиган бошқа халқаро спорт тадбирларида Ўзбекистон Республикаси спорт терма жамоаларининг чиқишлари Ўзбекистон Республикаси Давлат байроғи остида ўтказилади.

Ўзбекистон Миллий олимпия қўмитаси қонунчиликка мувофиқ бошқа ваколатларни ҳам амалга ошириши мумкин.

19-модда. Ўзбекистон паралимпия ҳаракати. Ўзбекистон Миллий паралимпия қўмитаси

Ўзбекистон паралимпия ҳаракати Халқаро паралимпия ҳаракатининг таркибий қисми бўлиб, унинг мақсади паралимпия ҳаракати принципларини оммалаштиришдан, ногиронлиги бўлган шахслар ўртасида жисмоний тарбия ва спортни ривожлантиришга кўмаклашишдан, спорт

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

соҳасидаги халқаро ҳамкорликни мустаҳкамлашдан, Паралимпия ўйинларида ҳамда Халқаро паралимпия қўмитаси шафелигида ўтказиладиган бошқа халқаро спорт тадбирларида иштирок этишдан иборатдир.

Ўзбекистон паралимпия ҳаракати ўз фаолиятини Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига, Халқаро паралимпия қўмитасининг Паралимпия хартиясига ҳамда ўз уставига мувофиқ амалга оширувчи Ўзбекистон Миллий паралимпия қўмитаси томонидан бошқарилади. Давлат Ўзбекистон Миллий паралимпия қўмитасига ўз уставида белгиланган мақсадларини амалга оширишига ҳар томонлама кўмаклашган ҳолда, Ўзбекистон паралимпия ҳаракатини тан олади ва қўллаб-қувватлайди.

Ўзбекистон Миллий паралимпия қўмитаси:

паралимпия ҳаракати принципларини оммалаштиради, юксак ютуқларга эришиладиган спортнинг паралимпия турларини ҳамда ногиронлиги бўлган шахслар ўртасида оммавий спортни ривожлантиришга кўмаклашади;

Халқаро паралимпия қўмитасининг Паралимпия хартиясига мувофиқ Паралимпия ўйинларида ҳамда Халқаро паралимпия қўмитаси шафелигида ўтказиладиган бошқа халқаро спорт тадбирларида Ўзбекистон Республикасининг манфаатларини ифода этади;

спортчиларни Паралимпия ўйинларида ҳамда Халқаро паралимпия қўмитаси шафелигида ўтказиладиган бошқа халқаро спорт тадбирларида иштирок этиш учун тайёрлашнинг зарур даражасини таъминлашга қаратилган чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ва амалга оширишда иштирок этади;

спортнинг паралимпия турлари бўйича допингнинг олдини олишга ҳамда унга қарши курашишга, шунингдек жисмоний тарбия ва спорт соҳасида ҳар қандай шаклдаги камситишлар ва зўравонликларнинг юзага келишига йўл қўймасликка кўмаклашади;

Халқаро паралимпия қўмитасининг ҳамда Ўзбекистон Миллий паралимпия қўмитасининг паралимпия рамзларидан, шиоридан, байроғидан, мадҳиясидан, «паралимпия», «паралимпиада» деган номлардан фойдаланишга бўлган ҳуқуқларини Ўзбекистон Республикаси ҳудудида ҳимоя қилиш чораларини таъминлайди.

Ўзбекистон Миллий паралимпия қўмитаси ўз ваколатларини ваколатли давлат органи, спорт федерациялари (уюшмалари) ҳамда бошқа ташкилотлар билан ҳамкорликда амалга оширади.

Паралимпия ўйинларида ва Халқаро паралимпия қўмитаси шафелигида ўтказиладиган бошқа халқаро спорт тадбирларида Ўзбекистон Республикаси спорт терма жамоаларининг чиқишлари Ўзбекистон Республикаси Давлат байроғи остида ўтказилади.

Ўзбекистон Миллий паралимпия қўмитаси қонунчиликка мувофиқ бошқа ваколатларни ҳам амалга ошириши мумкин.

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

20-модда. Сурдлимпия, махсус олимпия, кўзи ожизлар спорти ва бошқа адаптив спорт турлари

Ўзбекистон сурдлимпия ҳаракати Халқаро сурдлимпия ҳаракатининг таркибий қисми бўлиб, унинг мақсади сурдлимпия ҳаракати принципларини оммалаштиришдан, ногиронлиги бўлган шахслар ўртасида жисмоний тарбия ва спортни ривожлантиришга кўмаклашишдан, спорт соҳасидаги халқаро ҳамкорликни мустаҳкамлашдан, Сурдлимпия ўйинларида ҳамда Халқаро карлар спорти қўмитаси шафелигида ўтказиладиган бошқа халқаро спорт тадбирларида иштирок этишдан иборатдир.

Ўзбекистон махсус олимпия ҳаракати Халқаро махсус олимпия ҳаракатининг таркибий қисми бўлиб, унинг мақсади махсус олимпия ҳаракати принципларини оммалаштиришдан, ногиронлиги бўлган шахслар ўртасида жисмоний тарбия ва спортни ривожлантиришга кўмаклашишдан, спорт соҳасида халқаро ҳамкорликни мустаҳкамлашдан, халқаро махсус олимпия ўйинларида ҳамда тегишли халқаро спорт ташкилотлари шафелигида ўтказиладиган бошқа халқаро спорт тадбирларида иштирок этишдан иборатдир.

Ўзбекистон кўзи ожизлар спорти ҳаракати Халқаро кўзи ожизлар спорти ҳаракатининг таркибий қисми бўлиб, унинг мақсади кўзи ожизлар спорти ҳаракати принципларини оммалаштиришдан, кўзи ожиз шахслар ўртасида жисмоний тарбия ва спортни ривожлантиришга кўмаклашишдан, спорт соҳасида халқаро ҳамкорликни мустаҳкамлашдан, халқаро кўзи ожизлар спорти мусобақаларида ҳамда тегишли халқаро спорт ташкилотлари шафелигида ўтказиладиган бошқа халқаро спорт тадбирларида иштирок этишдан иборатдир.

Сурдлимпия, махсус олимпия, кўзи ожизлар спорти ва бошқа адаптив спорт турларини ривожлантириш Ўзбекистон адаптив спорт турлари ассоциацияси ҳамда спортнинг сурдлимпия, махсус олимпия ва кўзи ожизлар спорти турлари бўйича нодавлат нотижорат ташкилотлари томонидан ташкил этилади.

21-модда. Спорт федерациялари (уюшмалари)

Спорт федерацияси (уюшмаси) мамлакатда муайян спорт турини (турларини) ривожлантириш, оммалаштириш, спорт тадбирларини ташкил этиш ва ўтказиш, тегишли спорт тури (турлари) бўйича спортчиларни тайёрлаш ишларини амалга оширади, халқаро миқёсдаги барча спорт мусобақалари ва тадбирларида Ўзбекистон Республикаси манфаатларини ифода этади.

Спорт федерацияси (уюшмаси) ўзи ривожлантирадиган спорт тури (турлари) бўйича Ўзбекистон Республикасининг чемпионатлари ва кубоклари мусобақалари ўтказиб борилишини ташкил этади.

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

Спорт федерациясининг (уюшмасининг) расмий номи нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисидаги қонунчиликда белгиланган талабларга мувофиқ бўлиши ҳамда унда спорт федерацияси (уюшмаси) фаолиятининг ҳудудий соҳаси, шунингдек спорт федерацияси (уюшмаси) қайси спорт турини (турларини) ривожлантириш мақсадида ташкил этилган бўлса, ўша спорт тури (турлари) кўрсатилиши лозим.

Спорт федерацияларининг (уюшмаларининг) ташкил этилиши, фаолияти, қайта ташкил этилиши ва тугатилиши, ушбу Қонунда назарда тутилган ўзига хос хусусиятлар инобатга олинган ҳолда, нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисидаги қонунчиликка мувофиқ амалга оширилади.

22-модда. Спорт федерациялари (уюшмалари) реестри

Спорт федерациялари (уюшмалари) реестри ваколатли давлат органи томонидан юритилади.

Қуйидаги мезонларга мувофиқ бўлган нодавлат нотижорат ташкилотлари белгиланган тартибда Спорт федерациялари (уюшмалари) реестрига киритилади:

уларнинг ривожлантирадиган спорт тури (турлари) бўйича халқаро спорт ташкилотига аъзо эканлиги (бундан миллий ва адаптив спорт турлари мустасно);

улар ривожлантирадиган спорт тури (турлари) бўйича спорт тури қоидаларининг мавжудлиги;

уларнинг Спорт федерациялари (уюшмалари) реестрига киритилган спорт федерациялари (уюшмалари) номларидан фарқланадиган номга эга эканлиги;

улар ривожлантирадиган спорт турининг (турларининг) бошқа спорт тури (турлари) белгиларидан фарқланиши;

улар ривожлантирадиган спорт тури (турлари) бўйича Спорт федерациялари (уюшмалари) реестрига бошқа спорт федерацияси (уюшмаси) киритилмаганлиги.

Спорт федерациялари (уюшмалари) реестрига, истисно тариқасида, Ўзбекистон Республикаси Президенти ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг ҳужжатлари билан спорт турини (турларини) ёки спортнинг алоҳида йўналишларини ривожлантириши белгиланган спорт федерациялари (уюшмалари) тўғридан-тўғри киритилади. Бунда спорт федерацияларини (уюшмаларини) реестрдан чиқариш бўйича қоидалар мазкур қисмда кўрсатиб ўтилган спорт федерацияларига (уюшмаларига) нисбатан татбиқ этилмайди.

Спорт федерациялари (уюшмалари) реестрида қуйидаги маълумотлар кўрсатилади:

спорт федерацияларининг (уюшмаларининг) номлари;

спорт федерациялари (уюшмалари) томонидан ривожлантириладиган спорт тури (турлари);

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

спорт федерациялари (уюшмалари) раҳбар органларининг шахсий таркиби тўғрисидаги маълумотлар;

спорт федерацияларининг (уюшмаларининг) халқаро спорт ташкилотига аъзолиги тўғрисидаги маълумотлар.

Спорт федерациялари (уюшмалари) реестрида кўрсатилган маълумотлар очиқ бўлади ва ваколатли давлат органининг ахборот тизимига жойлаштирилади.

Спорт федерациялари (уюшмалари) реестрига ваколатли давлат органи томонидан белгиланган тартибда бошқа маълумотлар ҳам киритилиши мумкин.

23-модда. Спорт федерацияларининг (уюшмаларининг) ҳуқуқ ва мажбуриятлари

Спорт федерациялари (уюшмалари) қуйидаги ҳуқуқларга эга:

спорт турини ёки спорт турининг тармоғини Спорт турлари реестрига киритиш юзасидан таклиф киритиш;

спорт тури (турлари) бўйича Ўзбекистон Республикаси спорт терма жамоаларининг халқаро спорт мусобақаларида иштирок этишини ташкил этиш;

спорт турини (турларини) ривожлантириш учун қонунчилик ҳужжатларида тақиқланмаган турли манбалардан молиявий ва бошқа турдаги ёрдам олиш.

Спорт федерациялари (уюшмалари) қонунчиликка мувофиқ бошқа ҳуқуқларга ҳам эга бўлиши мумкин.

Спорт федерациялари (уюшмалари):

спорт турини (турларини) ривожлантириши ва оммалаштириши;

спорт тури (турлари) бўйича спорт турлари қоидаларини ваколатли давлат органига давлат тилида тақдим этиши ҳамда ўз расмий веб-сайтида жойлаштириши;

спорт турини (турларини) ривожлантириш бўйича комплекс мақсадли дастурларни ишлаб чиқиши;

спортчилар, тренерлар ва ўтказилаётган спорт мусобақалари тўғрисидаги маълумотларни ваколатли давлат органининг ахборот тизимига киритиб бориши;

спорт турини (турларини) ривожлантириш ва оммалаштириш бўйича амалга оширилаётган чора-тадбирлар тўғрисидаги ҳисоботларни ваколатли давлат органига тақдим этиши;

спорт тури (турлари) бўйича Ўзбекистон Республикасининг спорт терма жамоаларини шакллантириш, шунингдек спорт ва оммавий жисмоний тарбия тадбирларининг календарь режасини шакллантириш бўйича ваколатли давлат органига белгиланган тартибда таклифлар киритиб бориши;

спорт тури (турлари) бўйича ҳар қандай шаклдаги камситишлар ва зўравонликларга йўл қўймаслиги;

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

антидопинг қоидаларига мувофиқ допингнинг олдини олиши ва унга қарши курашиш чораларини кўриши шарт.

Спорт федерацияларининг (уюшмаларининг) зиммасига қонунчиликка мувофиқ бошқа мажбуриятлар ҳам юклатилиши мумкин.

24-модда. Жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги фаолият. Нодавлат жисмоний тарбия ва спорт ташкилотлари реестри

Жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги фаолият жисмоний тарбия ва спорт ташкилотлари, якка тартибдаги тадбиркорлар, ўзини ўзи банд қилган тренерлар ҳамда бошқа жисмоний ва юридик шахслар томонидан амалга оширилади.

Жисмоний тарбия ва спорт ташкилотлари халқаро спорт ташкилотларининг аъзоси бўлиши мумкин.

Жисмоний тарбия ва спорт ташкилотлари чет давлатларнинг спорт ташкилотлари билан муносабатларда халқаро спорт ташкилотлари томонидан тасдиқланган қоидаларга (низомларга, регламентларга) ва Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномаларига риоя этади.

Ваколатли давлат органи томонидан Нодавлат жисмоний тарбия ва спорт ташкилотлари реестри юритилади.

Нодавлат жисмоний тарбия ва спорт ташкилотлари реестрига спорт клублари, спорт таълим ташкилотлари, жисмоний тарбия ва спорт соҳасида фаолият юритувчи бошқа юридик шахслар ва якка тартибдаги тадбиркорлар ҳамда ўзини ўзи банд қилган тренерлар киритилади.

Нодавлат жисмоний тарбия ва спорт ташкилотлари реестрига киритилган жисмоний ва юридик шахслар расмий спорт мусобақаларида ўз номидан иштирок этиши, шунингдек Ўзбекистон Республикасининг спорт терма жамоаларига номзод бериши мумкин.

Нодавлат жисмоний тарбия ва спорт ташкилотлари реестрини шакллантириш, юритиш ҳамда реестрдан чиқариш тартиби Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади.

25-модда. Спорт клуби

Спорт клуби спорт фаолияти билан шуғулланиш, спорт турларини ривожлантириш ва оммалаштириш, шунингдек спортчиларни мусобақаларга тайёрлаш мақсадида ташкил этилади.

Спорт клуби, идоравий мансублиги ва мулкчилик шаклидан қатъи назар, юридик шахс мақоми билан ёки юридик шахс мақомисиз ташкил этилиши мумкин.

Юридик шахс мақомига эга бўлган спорт клуби қонунчиликка мувофиқ давлат рўйхатидан ўтказилади.

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

26-модда. Спорт лигаси

Спорт лигаси спорт мусобақаларини ташкил этиш, ўтказиш ва бошқариш фаолиятини амалга ошириш мақсадида, идоравий мансублиги ҳамда мулкчилик шаклидан қатъи назар, юридик шахс мақоми билан ёки юридик шахс мақомисиз ташкил этилади.

Юридик шахс мақомига эга бўлган спорт лигаси қонунчиликка мувофиқ давлат рўйхатидан ўтказилади.

Спорт лигаси спорт тури (турлари) бўйича профессионал спорт мусобақаларини ташкил этиш ҳамда ўтказиш учун профессионал спорт мусобақасини ташкил этиш ва ўтказиш қоидаларини (низомини, регламентини) қонунчиликда белгиланган тартибда тасдиқлайди.

Профессионал спорт мусобақасини ташкил этиш ва ўтказиш қоидалари (низоми, регламенти) очиқ маълумот сифатида спорт лигасининг Интернетдаги расмий веб-сайтига жойлаштирилади. Бунда мазкур қоидалар (низом, регламент) қонунчиликка мувофиқ бўлиши керак.

Спорт лигасининг фаолият юритиш тартиби, шунингдек спорт лигалари томонидан профессионал спорт мусобақаларини ташкил этиш ва ўтказиш тартиби Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади.

27-модда. Ўзбекистон миллий спорт турлари ва халқ ўйинлари

Ўзбекистон миллий спорт турлари ва халқ ўйинлари миллий ижтимоий-маданий йўналишга эга бўлган ҳамда Ўзбекистон Республикаси ҳудудида ривожланаётган спорт ва ўйин турларидир.

Ўзбекистон миллий спорт турлари ва халқ ўйинлари Ўзбекистон Республикасининг жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги маданий меросининг ажралмас қисми, аҳолида ватанпарварлик ва Ватанга муҳаббат, халқаро майдонда мамлакатнинг обрў-эътиборини юксалтиришга интилиш туйғуларини тарбиялаш пойдеворидир.

Давлат органлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, жисмоний тарбия ва спорт ташкилотлари, шунингдек бошқа ташкилотлар:

Ўзбекистон миллий спорт турларини ва халқ ўйинларини ривожлантиришга ҳар томонлама кўмаклашади ҳамда уларни аҳоли ўртасида ёйиш учун зарур шарт-шароитлар яратади;

Ўзбекистон миллий спорт турларининг ва халқ ўйинларининг халқаро майдондаги обрў-эътиборини мустаҳкамлашга кўмаклашади.

Ўзбекистон миллий спорт турларини ва халқ ўйинларини Спорт ва оммавий жисмоний тарбия тадбирларининг календарь режасига киритиш тартиби қонунчиликда белгиланади.

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

28-модда. Жисмоний тарбия ва спорт тадбирларини ташкил этиш ҳамда ўтказиш

Жисмоний тарбия ёки спорт тадбирлари ташкилотчилари бу тадбирларни ўтказиш шартларини, шу жумладан жисмоний тарбия ва спорт тадбирларини ташкил этиш ҳамда ўтказишни молиялаштириш шартларини белгилайди, бундай тадбирларни ташкил этиш ва ўтказиш учун масъул бўлади.

Жисмоний тарбия ва спорт тадбирлари ташкилотчилари қуйидаги ҳуқуқларга эга:

жисмоний тарбия ва спорт тадбирининг номи ва рамзларидан фойдаланиш;

жисмоний тарбия ва спорт тадбирларини ўтказиш жойида товарлар, ишлар ва хизматлар рекламасини жойлаштириш;

жисмоний тарбия ва спорт тадбирларида фойдаланиладиган спорт экипировкаси, спорт ускуналари ва анжомларини ишлаб чиқарувчиларни белгилаш;

жисмоний тарбия ва спорт тадбирларини ёритиш;

жисмоний тарбия ва (ёки) спорт тадбирини тўхтатиш ва бекор қилиш, уларни ўтказиш вақтини ўзгартириш ҳамда уларнинг якунларини тасдиқлаш.

Жисмоний тарбия ва спорт тадбирларининг номларидан, улар асосида тузилган сўз бирикмаларидан ҳамда мазкур тадбирлар рамзларидан учинчи шахсларнинг фойдаланиши жисмоний тарбия ва спорт тадбирлари ташкилотчилари билан ёзма шаклда тузиладиган келишувлар асосида амалга оширилади, бундан ушбу номлардан, улар асосида тузилган сўз бирикмаларидан ва мазкур тадбирлар рамзларидан ахборот мақсадида ёхуд оммавий ахборот воситаларида жисмоний тарбия ва спорт тадбирларини ёритиш ҳуқуқини олган учинчи шахслар томонидан ушбу ҳуқуқлардан фойдаланиш ҳоллари мустасно.

Оммавий ахборот воситаларида жисмоний тарбия ва спорт тадбирларининг жисмоний тарбия ёки спорт тадбирлари ташкилотчилари томонидан тасдиқланган, тўғри кўрсатилган номларидан фойдаланилиши керак. Бунда мазкур номлар реклама ҳисобланмайди.

Жисмоний тарбия ва спорт тадбирларини ёритиш ҳуқуқидан учинчи шахслар фақат жисмоний тарбия ёки спорт тадбирлари ташкилотчиларининг ёзма рухсатлари билан ёхуд учинчи шахслар томонидан ушбу ҳуқуқларнинг бундай тадбирлар ташкилотчиларидан сотиб олинганлиги тўғрисидаги ёзма шаклдаги келишувлар асосида фойдаланиши мумкин.

Жисмоний тарбия ва спорт тадбирлари тўғрисидаги қоидаларнинг (низомларнинг, регламентларнинг) мазмунига нисбатан қўйиладиган умумий талаблар ваколатли давлат органи томонидан белгиланади.

Фақат расмий спорт мусобақалари Ўзбекистон Республикаси чемпионати ёки кубоги мақомига ҳамда номига эга бўлиши мумкин.

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

Расмий спорт мусобақаларини ўтказишга фақат ушбу Қонуннинг 30-моддасига мувофиқ тасдиқланган спорт турлари қоидаларига асосан йўл қўйилади.

Ўзбекистон Республикаси ҳудудида халқаро спорт тадбирлари тегишли спорт федерацияси (уюшмаси) ҳамда ваколатли давлат органи билан келишилган ҳолда ўтказилиши мумкин.

29-модда. Спорт турларини ва спорт турининг тармоқларини эътироф этиш. Спорт турларининг реестри

Ўзбекистон Республикасида белгиланган тартибда эътироф этилган спорт турлари ва спорт турининг тармоқлари Спорт турлари реестрига киритилади.

Спорт турини ёки спорт турининг тармоғини эътироф этиш учун у спорт турига ёки спорт турининг тармоғига мос белгига, спорт тури қоидаларига, машғулот ўтказишнинг ўзига хос хусусиятлари ва услубиятига, спорт инфратузилмасига, фойдаланиладиган спорт анжомлари ва жиҳозларига эга бўлиши ҳамда спорт машғулотлари ва спорт мусобақаларини ўтказиш талабларига жавоб берадиган спорт инфратузилмаси мавжуд бўлиши, шунингдек спортчиларнинг иштирок этишига, одамнинг жисмоний ва ақлий ривожланиш қобилиятини ҳамда ҳаракат фаоллигини такомиллаштиришга, соғлом турмуш тарзини шакллантиришга хизмат қилиши керак.

Спорт турини ёки спорт турининг тармоғини эътироф этиш ушбу спорт тури ёки спорт турининг тармоғи маъмурий-ҳудудий бирликларнинг (Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри) камида еттитасида ривожланган бўлиши керак, бундан ваколатли давлат органи томонидан белгиланган спорт турлари ёки спорт турининг тармоқлари мустасно.

Спорт турларини ёки спорт турининг тармоқларини эътироф этиш спорт федерацияларининг (уюшмаларининг), жисмоний тарбия ва спорт ташкилотларининг аризаси асосида ваколатли давлат органи томонидан амалга оширилади.

Олимпия ва Паралимпия ўйинлари дастурига киритилган спорт турларини ёки спорт турининг тармоқларини, шунингдек Ўзбекистон Республикаси Президенти ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг ҳужжатларида назарда тутилган ҳолларда спорт турларини ёки спорт турининг тармоқларини эътироф этиш ваколатли давлат органи томонидан, истисно тариқасида, тўғридан-тўғри эътироф этилади ва Спорт турлари реестрига киритилади.

Ғайриинсоний ва инсон қадр-қимматини камситувчи спорт турлари ёки спорт турининг тармоқлари Ўзбекистон Республикасида спорт турлари ёки спорт турининг тармоқлари сифатида эътироф этилиши мумкин эмас.

Спорт турлари реестри ваколатли давлат органи томонидан юритилади.

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

30-модда. Спорт турлари қоидалари

Спорт турлари реестрига киритилган спорт турларининг қоидалари халқаро спорт ташкилотлари томонидан тасдиқланган қоидаларга мувофиқ қўлланилади, бундан ҳарбий-амалий, Ўзбекистон миллий спорт турлари ва халқ ўйинлари мустасно.

Ҳарбий-амалий, Ўзбекистон миллий спорт турлари ва халқ ўйинлари қоидалари қонунчиликда белгиланган тартибда ишлаб чиқилади.

31-модда. Спорт унвонлари, спорт разрядлари, малака тоифалари. Спорт турлари бўйича ягона спорт таснифи

Ўзбекистон Республикасида қуйидаги спорт унвонлари, спорт разрядлари, малака тоифалари белгиланади:

а) спорт унвонлари:

халқаро тоифадаги Ўзбекистон спорт устаси ёки халқаро гроссмейстер;

Ўзбекистон спорт устаси ёки Ўзбекистон гроссмейстери;

б) спорт разрядлари:

Ўзбекистон спорт усталигига ёки Ўзбекистон гроссмейстерлигига номзод;

биринчи спорт разряди;

иккинчи спорт разряди;

учинчи спорт разряди;

ўсмирлар учун биринчи спорт разряди;

ўсмирлар учун иккинчи спорт разряди;

ўсмирлар учун учинчи спорт разряди;

в) спорт ҳакамларининг малака тоифалари:

халқаро тоифали спорт ҳаками;

миллий тоифали спорт ҳаками;

биринчи тоифали спорт ҳаками;

иккинчи тоифали спорт ҳаками;

учинчи тоифали спорт ҳаками;

спорт бўйича ҳакам;

г) тренерларнинг малака тоифалари:

халқаро тоифали тренер;

олий тоифали тренер;

биринчи тоифали тренер;

иккинчи тоифали тренер;

д) йўриқчи-услубчиларнинг малака тоифалари:

олий тоифали йўриқчи-услубчи;

биринчи тоифали йўриқчи-услубчи;

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

иккинчи тоифали йўриқчи-услубчи.

Спорт унвонларини, спорт разрядларини ва малака тоифаларини бериш тартиби Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан тасдиқланади.

Спорт турлари бўйича ягона спорт таснифи Спорт турлари реестрига киритилган спорт турлари бўйича тегишли спорт унвонлари ва спорт разрядларини бериш учун бажарилиши зарур бўлган нормалар ҳамда талабларни, шунингдек уларни бажариш шартларини белгилайди.

Спорт турлари бўйича ягона спорт таснифи тўғрисидаги низомда мазкур нормалар, талаблар ва шартларнинг мазмуни, шунингдек спорт турлари бўйича спорт унвонлари ва спорт разрядларини бериш тартиби белгиланади.

Спорт турлари бўйича ягона спорт таснифи ва у тўғрисидаги низом ваколатли давлат органи томонидан тасдиқланади.

32-модда. Халқаро ва республика миқёсидаги спорт ҳамда оммавий жисмоний тарбия тадбирларининг календарь режаси

Халқаро ва республика миқёсидаги спорт ҳамда оммавий жисмоний тарбия тадбирларининг календарь режаси Ўзбекистон Республикаси ҳудудида ўтказиладиган халқаро ва республика миқёсидаги расмий спорт ёки оммавий жисмоний тарбия тадбирлари рўйхатини, шунингдек Ўзбекистон Республикаси спорт терма жамоаларини халқаро спорт тадбирларига тайёрлаш ҳамда уларнинг иштирок этишини таъминлаш бўйича тадбирлар рўйхатини белгиловчи ҳужжатдир.

Спорт ва оммавий жисмоний тарбия тадбирлари халқаро ва республика миқёсидаги спорт ҳамда оммавий жисмоний тарбия тадбирларининг календарь режасига спорт турларининг ўзига хос хусусиятлари ҳисобга олинган ҳолда киритилади.

Халқаро ва республика миқёсидаги спорт ҳамда оммавий жисмоний тарбия тадбирларининг календарь режаси тегишли календарь йил бошлангунига қадар тасдиқланади.

Халқаро ва республика миқёсидаги спорт ҳамда оммавий жисмоний тарбия тадбирларининг календарь режасига киритилган спорт ва оммавий жисмоний тарбия тадбирлари расмий спорт ва оммавий жисмоний тарбия тадбирлари ҳисобланади.

33-модда. Спортчининг ҳуқуқ ва мажбуриятлари

Спортчи қуйидаги ҳуқуқларга эга:

спорт турини ёки спорт турларини танлаш;

танланган спорт тури ёки спорт турлари бўйича спорт мусобақаларида ушбу спорт турлари қоидалари ҳамда спорт мусобақалари

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

тўғрисидаги қоидаларда (низомларда, регламентларда) белгиланган тартибда иштирок этиш;

Спорт турлари бўйича ягона спорт таснифи нормалари ва талабларини бажарганда спорт унвонлари ва спорт разрядларини олиш;

жисмоний тарбия ва спорт ташкилотлари ҳамда бошқа ташкилотлар билан қонунчиликда белгиланган тартибда шартномалар тузиш;

ўз ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ифодалаш ҳамда ҳимоя қилиш учун касаба уюшмаларига ва бошқа бирлашмаларга бирлашиш;

танланган спорт тури бўйича спорт федерациялари (уюшмалари) томонидан ўз ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларининг ҳимоя қилинишини талаб қилиш;

жисмоний тарбия ва спорт ташкилотларининг қарорлари, улар мансабдор шахсларининг ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) устидан бўйсунув тартибида юқори турувчи органларга ёки мансабдор шахсларга ёхуд судга белгиланган тартибда шикоят қилиш.

Спортчиларнинг айрим тоифалари қонунчиликда белгиланган тартибда стипендия ва имтиёзли пенсия олиш ҳуқуқига эга.

Спортчи қонунчиликка мувофиқ бошқа ҳуқуқларга ҳам эга бўлиши мумкин.

Жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги давлат ташкилотлари ва спорт федерациялари (уюшмалари) спортчилар учун зарур шарт-шароитлар яратилишини ва уларнинг соғлиғи муҳофаза қилинишини таъминлаши шарт.

Спортчи:

жисмоний тарбия ва спорт тадбирларида иштирок этиш ҳамда ўқув машғулотлар пайтида, шунингдек спорт объектларида бўлганда хавфсизлик талабларига риоя этиши;

антидопинг қоидаларига риоя этиши;

адолатли кураш принципига риоя этиши, шунингдек рақиблари, спорт ҳакамларига ва томошабинларга ҳурмат билан муносабатда бўлиши;

ўзи иштирок этаётган жисмоний тарбия ёки спорт тадбирлари тўғрисидаги қоидаларга (низомларга, регламентларга) ҳамда жисмоний тарбия ёки спорт тадбирлари ташкилотчиларининг қонуний талабларига риоя этиши;

санитария қоидаларига, нормаларига ва гигиена нормативларига, тиббий талабларга риоя этиши, белгиланган тартибда ва муддатларда тиббий текширувлардан ўтиши шарт.

Спортчининг зиммасига қонунчиликка мувофиқ бошқа мажбуриятлар ҳам юклатилиши мумкин.

34-модда. Спортчи паспорти

Спортчи паспорти ягона намунадаги ҳужжат бўлиб, спортчининг жисмоний тарбия ва спорт ташкилотига мансублигини ҳамда спорт малакасини тасдиқлайди.

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

Спортчи паспортида қуйидагилар кўрсатилади:

спортчининг фамилияси, исми, отасининг исми;

жинси;

туғилган санаси;

спортчи мансуб бўлган жисмоний тарбия ва спорт ташкилоти;

спортчи томонидан танланган спорт тури;

спорт унвонлари ва спорт разрядлари берилганлиги тўғрисидаги маълумотлар;

спорт унвонлари ва спорт разрядларини бериш учун зарур нормалар ҳамда талаблар бажарилганлигини тасдиқловчи маълумотлар;

спортчи тиббий текширувдан ўтганлиги тўғрисидаги белги;

спорт мусобақаларида эришилган натижалар;

спортчининг спорт дисквалификацияси тўғрисидаги маълумотлар;

давлат мукофотлари ва бошқа шаклдаги рағбатлантиришлар тўғрисидаги маълумотлар;

тренери (тренерлари) тўғрисидаги маълумотлар;

танланган спорт турининг ёки спорт турларининг ўзига хос хусусиятлари билан боғлиқ бошқа маълумотлар.

Спортчининг жисмоний тарбия ва спорт ташкилотига мансублиги спортчи ҳамда жисмоний тарбия ва спорт ташкилоти ўртасида тузиладиган шартнома асосида ва (ёки) спортчининг жисмоний тарбия ва спорт ташкилотига аъзолигини белгиловчи бошқа ҳужжатлар асосида аниқланади.

Спортчи паспорти унинг амал қилиш муддати чекланмаган ҳолда ваколатли давлат органининг ахборот тизими орқали электрон шаклда берилади.

Спортчи паспортини бериш, алмаштириш (янгисини бериш) ва ҳисобга олиш тартиби Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади.

35-модда. Тренер

Тренер спортчиларни тайёрлаш ҳамда уларнинг мусобақаларга тайёргарлик кўришини ташкил этиш, уларга назарий ва амалий билимларни бериш, шунингдек уларни жисмоний жиҳатдан камол топтиришни амалга оширувчи жисмоний шахсдир.

Тренерлик фаолияти билан тегишли спорт тури бўйича малака сертификатига эга бўлган шахслар шуғулланиши мумкин.

Тренерлик фаолияти ваколатли давлат органи томонидан белгиланган тартибда эътироф этилган спорт тури бўйича жисмоний тарбия ва спорт тўғрисидаги қонунчиликка, шунингдек халқаро спорт ташкилотларининг қоидаларига (низомларига, регламентларига) мувофиқ амалга оширилади.

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

Ўзбекистон Республикаси спорт терма жамоаларининг тренерларини лавозимга тайинлаш ва лавозимидан озод этиш қонунчиликка мувофиқ амалга оширилади.

Тренерлик фаолиятини амалга оширишда қуйидагиларга йўл қўйилмайди:

зўравонликни, диний экстремизмни, давлат тузумига, мамлакатнинг тинчлиги ва хавфсизлигига, унинг аҳолисига қарши қаратилган бошқа ҳаракатларни тарғиб қилишга;

жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланувчиларнинг шаъни ва қадр-қимматини камситишга;

ўқув машғулотлари жараёнида спортга алоқаси бўлмаган бошқа фаолиятни олиб боришга;

тақиқланган воситаларни, тамаки ва алкоголь маҳсулотларини истеъмол қилишга ҳамда уларни истеъмол қилишни тарғиб этишга.

Тренер қуйидаги ҳуқуқларга эга:

тренерлик фаолиятини амалга ошириш;

қайта тайёрлаш ва малака ошириш курсларида ўқиш;

спорт мусобақаларида, жисмоний тарбия тадбирларида иштирок этиш.

Тренер қонунчиликка мувофиқ бошқа ҳуқуқларга ҳам эга бўлиши мумкин.

Тренер:

жисмоний тарбия ва спортни ҳамда соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиши;

ўқув-машғулотларида хавфсизлик, санитария қоидаларига, нормаларига ва гигиена нормативларига риоя этиши;

тренерга нисбатан қўйилган талабларга қатъий риоя этиши;

касбий малакасини узлуксиз ошириб бориши шарт.

Тренернинг зиммасига қонунчиликка мувофиқ бошқа мажбуриятлар ҳам юклатилиши мумкин.

Тренерлик малака сертификатини бериш ва тренерлик фаолиятини амалга ошириш тартиби Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади.

36-модда. Спорт ҳаками

Спорт тури қоидаларига ва спорт мусобақаси тўғрисидаги низомга (регламентга) риоя этилишини таъминлаш учун ваколат берилган жисмоний шахс спорт ҳакамидир.

Спорт ҳакамининг фаолияти жисмоний тарбия ва спорт тўғрисидаги қонунчиликка, шунингдек халқаро спорт ташкилотларининг қоидаларига (низомларига, регламентларига) мувофиқ амалга оширилади.

Спорт ҳаками халқаро спорт ташкилотлари томонидан тасдиқланган қоидаларга (низомларга, регламентларга), спорт тури қоидаларига ҳамда спорт мусобақаларининг қоидаларига (низомларига, регламентларига) мувофиқ спорт мусобақаларига ҳакамлик қилади ҳамда уларга риоя этилишини таъминлайди.

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

Спорт ҳаками қуйидаги ҳуқуқларга эга:

спорт мусобақаларида ҳакамлик қилиш;

спорт мусобақаларида ҳакамлик қилганлик учун ҳақ (даромад) олиш;

жамоат бирлашмаларига бирлашиш;

спорт мусобақасида ҳакамлик қилишда спорт мусобақаси ташкилотчисидан тегишли шарт-шароитлар яратилишини талаб қилиш.

Спорт ҳаками қонунчиликка мувофиқ бошқа ҳуқуқларга ҳам эга бўлиши мумкин.

Спорт ҳаками:

халқаро спорт ташкилотлари томонидан тасдиқланган қоидаларни (регламентларни, низомларни), спорт тури қоидаларини ҳамда спорт мусобақалари қоидаларини (низомларини, регламентларини) билиши ва уларнинг талабларига қатъий риоя этиши;

юксак маданиятни ва ҳамжиҳатликни намуна қилиб кўрсатиши, шунингдек қўполлик, тартибсизликнинг, иштирокчилар (спортчилар, тренерлар, вакиллар, томошабинлар) томонидан спорт турлари қоидалари бузилишининг олдини олиш чораларини кўриши шарт.

Спорт ҳакамининг зиммасига қонунчиликка мувофиқ бошқа мажбуриятлар ҳам юклатилиши мумкин.

Спорт ҳаками жисмоний тарбия ва спорт тўғрисидаги қонунчилик, шунингдек халқаро спорт ташкилотлари қоидалари (низомлари, регламентлари) бўйича талабларни бажармаган ҳолларда, унинг хатти-ҳаракатлари тегишли спорт федерациялари (уюшмалари) ҳузурида ташкил этиладиган спорт ҳакамлари ҳайъатларида кўриб чиқилади.

Спорт ҳаками малака тоифасини бериш ва спорт ҳаками фаолиятини амалга ошириш тартиби Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади.

37-модда. Спорт агенти

Спорт агенти спортчи, тренер ёки спорт клуби номидан шартнома асосида фаолият кўрсатувчи, шартномалар ҳамда трансфер келишувларини тузишда воситачилик қилувчи ва уларнинг шартларига риоя этилишини кузатиб борувчи шахсдир.

Спорт агентининг фаолияти жисмоний тарбия ва спорт тўғрисидаги қонунчиликка, шунингдек халқаро спорт ташкилотларининг қоидаларига (низомларига, регламентларига) мувофиқ амалга оширилади.

Спорт агенти қуйидаги ҳуқуқларга эга:

спортчилар, тренерлар ва спорт клублари билан агентлик шартномаларини тузиш;

спортчилар, тренерлар ва спорт клублари номидан ҳамда уларнинг манфаатларини кўзлаб шартнома асосида фаолият кўрсатиш;

шартномалар тузишда спортчиларнинг, тренерларнинг ва спорт клубларининг манфаатларини ифодалаш;

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги фаолият билан шуғулланадиган ҳомийлар, реклама берувчилар билан ҳамкорлик қилиш;

спортчилар, тренерлар ва спорт клублари манфаатларини ифода этганлик учун ҳақ (даромад) олиш.

Спорт агенти қонунчиликка мувофиқ бошқа ҳуқуқларга ҳам эга бўлиши мумкин.

Спорт агенти:

халқаро спорт ташкилотлари томонидан тасдиқланган қоидаларни (регламентларни, низомларни), спорт тури қоидалари ҳамда спорт мусобақаларининг қоидаларини (низомларини, регламентларини) билиши ва уларнинг талабларига қатъий риоя этиши;

тузилган шартномаларга мувофиқ спортчиларнинг, тренерларнинг ва спорт клубларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларига риоя этилишини кузатиб бориши ҳамда ҳимоя қилиши керак.

Спорт агентининг зиммасига қонунчиликка мувофиқ бошқа мажбуриятлар ҳам юклатилиши мумкин.

Спорт агенти фаолиятини амалга ошириш тартиби Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади.

38-модда. Ўзбекистон Республикаси Миллий антидопинг агентлиги

Ўзбекистон Республикаси Миллий антидопинг агентлиги (бундан буён матнда Миллий антидопинг агентлиги деб юритилади) спортда допингнинг олдини олишни ва унга қарши курашишни ҳамда допинг назоратини амалга оширади.

Миллий антидопинг агентлиги:

Бутунжаҳон антидопинг кодекси асосида миллий антидопинг қоидаларини тасдиқлайди;

антидопинг қоидаларига мувофиқ допинг назоратини амалга оширади;

Бутунжаҳон антидопинг агентлиги томонидан йиллик тасдиқланадиган спортда тақиқланган субстанциялар ва (ёки) усулларнинг рўйхатини Ўзбекистон Республикасида эълон қилади;

допинг назоратини ўтказиш тартибини белгилайди;

допинг назоратидан ўтказиладиган спортчилар рўйхатини тузади;

жисмоний тарбия ва спорт тўғрисидаги қонунчиликка ва антидопинг қоидаларига мувофиқ бошқа вазифаларни амалга оширади.

39-модда. Спортда допингнинг олдини олиш ва унга қарши курашиш

Антидопинг қоидаларида назарда тутилган бир ёки бир нечта қоидабузарлик, шу жумладан спортда фойдаланиш тақиқланган субстанциялар ва (ёки) усуллар (бундан буён матнда тақиқланган субстанция ва (ёки) тақиқланган усул деб юритилади) рўйхатига

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

киритилган субстанциядан ва (ёки) усулдан фойдаланиш ёки фойдаланишга уриниш спортда допинг деб эътироф этилади.

Спортда допингнинг олдини олиш ва унга қарши курашиш антидопинг қоидаларига мувофиқ амалга оширилади.

Спортчилар ва бошқа шахслар томонидан антидопинг қоидаларининг бузилишига, спорт мусобақасида қатнашаётган жониворларга нисбатан тақиқланган субстанция ва (ёки) тақиқланган усулнинг қўлланилишига йўл қўйилмайди.

Допингга қарши таъминот спортда допингнинг олдини олиш ва унга қарши курашишга қаратилган тадбирларни ўтказишдан иборат.

Спортда допингнинг олдини олиш ва унга қарши курашиш чора-тадбирлари қуйидагиларни ўз ичига олади:

допинг назоратини ўтказишни;

спортчиларнинг, тренерларнинг, жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги бошқа мутахассисларнинг антидопинг қоидаларини бузганлик учун жавобгарлигини белгилашни;

тақиқланган субстанциялар ва (ёки) тақиқланган усуллар қўлланилишининг олдини олишни;

допинг назоратини ўтказувчи мутахассисларнинг малакасини оширишни;

жисмоний тарбия ва спорт соҳасида фаолиятни амалга оширувчи таълим ташкилотларининг қўшимча таълим дастурларига антидопинг қоидалари, спортда допингнинг спортчилар соғлиғи учун оқибатлари, антидопинг қоидаларини бузганлик учун жавобгарлик тўғрисидаги бўлимларни киритишни;

оммавий ахборот воситаларида допингга қарши тарғибот олиб боришни;

спортда допингнинг олдини олишни ва унга қарши курашишга қаратилган илмий тадқиқотлар ўтказишни;

спортчиларнинг иш қобилиятини тиклаш воситалари ва усулларини ишлаб чиқиш бўйича илмий тадқиқотлар ўтказишни;

допинг назоратини ўтказиш тартибида назарда тутилган допинг назоратини ўтказиш шартларини бузганлик учун жисмоний тарбия ва спорт ташкилотларининг жавобгарлигини белгилашни;

спортда допингнинг олдини олишни ва унга қарши курашиш соҳасида халқаро ҳамкорликни амалга оширишни;

антидопинг қоидаларида белгиланган бошқа ҳар қандай фаолиятни амалга оширишни.

Спортда допингнинг олдини олиш ва унга қарши курашиш чораларини кўриш учун спорт федерациялари (уюшмалари):

Бутунжаҳон антидопинг кодексини, миллий антидопинг қоидаларини ҳамда тегишли халқаро спорт федерациялари (уюшмалари) томонидан тасдиқланган антидопинг қоидаларини ўз расмий веб-сайтларида давлат тилида жойлаштириши;

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

спорт мусобақаси даврида ҳамда мусобақадан ташқари даврда Миллий антидопинг агентлигига допинг-тест ўтказиш мақсадида спортчилар рўйхатини шакллантириш учун зарур бўлган маълумотларни тақдим этиши;

ушбу Қонунга, Бутунжаҳон антидопинг кодексига, миллий антидопинг қоидаларига ҳамда тегишли халқаро спорт федерациялари (уюшмалари) томонидан тасдиқланган антидопинг қоидаларига мувофиқ бошқа талабларни бажариши шарт.

40-модда. Спорт мусобақалари натижаларига қонунга хилоф равишда таъсир кўрсатишнинг олдини олиш ва унга қарши курашиш

Спортчининг, тренернинг, спорт ҳакаминининг ёки спорт мусобақалари бошқа иштирокчиларининг ёхуд ташкилотчиларининг спорт мусобақалари натижаларини ёки унинг боришини қасддан ўзгартириш мақсадида қонунга хилоф равишда моддий қимматликлар олиши ёки мулкий манфаатдор бўлиши ёхуд шу мақсадда ушбу шахсларга моддий қимматликлар бериш ёки уларни мулкий манфаатдор қилиш, шунингдек уларга руҳий, психологик, жисмоний ёки бошқача тарзда ноқонуний таъсир кўрсатиш спорт мусобақалари натижаларига қонунга хилоф равишда таъсир кўрсатиш ҳисобланади.

Спорт мусобақалари натижаларига қонунга хилоф равишда таъсир кўрсатишнинг олдини олиш ҳамда унга қарши курашиш жисмоний тарбия ва спорт тўғрисидаги қонунчиликка, шунингдек спорт федерациялари (уюшмалари) томонидан тасдиқланган қоидаларга мувофиқ амалга оширилади.

Спорт мусобақалари натижаларига қонунга хилоф равишда таъсир кўрсатишнинг олдини олиш ва унга қарши курашиш чора-тадбирлари қуйидагиларни ўз ичига олади:

спорт мусобақалари натижаларига қонунга хилоф равишда таъсир кўрсатганлик учун жавобгарликни белгилашни;

спорт мусобақалари тўғрисидаги тегишли низомларда спортчи, тренер, спорт ҳаками, спорт соҳасидаги бошқа мутахассисларнинг ўзаро манфаатлари тўқнашувининг олдини олиш ва бартараф этишга доир қоидаларни, шунингдек спорт мусобақалари натижаларига қонунга хилоф равишда таъсир кўрсатишни тақиқлаш бўйича талабларни назарда тутишни;

спорт мусобақалари натижаларига қонунга хилоф равишда таъсир кўрсатишнинг олдини олиш ҳамда унга қарши курашишда жисмоний тарбия ва спорт субъектларининг ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар билан ҳамкорлигини таъминлашни;

оммавий ахборот воситаларида спорт мусобақалари натижаларига қонунга хилоф равишда таъсир кўрсатишнинг олдини олишга ва унга қарши курашишга қаратилган тарғибот ишларини олиб боришни;

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

спорт мусобақалари натижаларига қонунга хилоф равишда таъсир кўрсатишнинг олдини олиш ва унга қарши курашишга қаратилган илмий-амалий тадқиқотлар ўтказишни ҳамда қонунга хилоф равишда таъсир кўрсатилиши ҳолларини аниқлашга қаратилган услубий қўлланмалар ишлаб чиқишни;

спорт мусобақалари натижаларига қонунга хилоф равишда таъсир кўрсатишнинг олдини олиш ва унга қарши курашиш соҳасидаги халқаро ҳамкорликни амалга оширишни.

Спорт мусобақалари натижаларига қонунга хилоф равишда таъсир кўрсатиш қонунчиликка мувофиқ жавобгарликка сабаб бўлади.

4-боб. Таълим тизимида, фуқароларнинг иш жойида, яшаш жойида ҳамда бошқа жойларда жисмоний тарбия ва спорт

41-модда. Таълим тизимида жисмоний тарбия ва спортни ташкил этиш

Таълим тизимида жисмоний тарбия ва спортни ташкил этиш қуйидагиларни ўз ичига олади:

асосий таълим дастурлари доирасида давлат таълим стандартлари билан белгиланган ҳажмларда жисмоний тарбия ва спорт бўйича мажбурий машғулотлар, шунингдек қўшимча таълим дастурлари доирасида қўшимча (факультатив) жисмоний машқлар ва спорт машғулотлари ўтказишни;

таълим олувчиларни жисмоний тарбия ва спорт машғулотларига жалб этиш учун шарт-шароитлар яратишни, шу жумладан ёшларнинг жисмоний тарбия ва спорт тайёргарлиги бўйича тадбирлар мажмуини ўтказиш учун спорт жиҳозлари ва анжомлари билан таъминлашни;

таълим олувчиларда уларнинг индивидуал қобилиятини ҳамда соғлиғи ҳолатини ҳисобга олган ҳолда, жисмоний тарбия ва спорт кўникмаларини шакллантиришни;

иқтидорли болалар ва ёшларни аниқлашни, танлашни ва профессионал спортчи сифатида тайёрлашга йўналтиришни;

ўқув машғулотлари пайтида жисмоний тарбия тадбирларини амалга оширишни;

таълим олувчиларнинг жисмоний тарбияси ташкил этилиши устидан тиббий назорат олиб боришни;

ота-оналарда ёки уларнинг ўрнини босувчи шахсларда болаларининг соғлиғи ва уларнинг жисмоний тарбиясига нисбатан масъулиятли муносабатни шакллантиришни;

болалар ва ёшларнинг жисмоний тайёргарлигини ҳамда жисмоний ривожланишини ҳар йили мониторинг қилишни;

таълим олувчилар иштирокида спорт тадбирларини, шу жумладан мактабгача ва мактаб таълими тизимининг таълим муассасалари

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

ўқувчилари, профессионал таълим ташкилотлари ўқувчилари ҳамда олий таълим ташкилотлари талабалари иштирокида спорт мусобақалари ўтказилишини ташкил этишни.

42-модда. Фуқароларнинг иш жойи, яшаш жойи ҳамда дам олиш жойида жисмоний тарбия ва спортни ташкил этиш

Иш берувчилар, уларнинг бирлашмалари ва ходимлар ёки уларнинг вакиллик органлари ўртасидаги жамоа шартномалари, келишувлари ва меҳнат шартномаларига:

ходимларга жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланиш ҳамда ходимларнинг жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланишига боғлиқ бўлган бошқа тадбирларни ўтказиш учун зарур шарт-шароитлар яратиш тўғрисидаги;

ходимларга ва уларнинг оила аъзоларига ушбу қисмнинг иккинчи хатбошисида назарда тутилган чора-тадбирларни амалга ошириш учун спорт объектлари, спорт жиҳозлари ва анжомларидан фойдаланиш имкониятини яратиш ҳақидаги қоидалар киритилиши мумкин.

Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари фуқароларнинг яшаш жойи ва дам олиш жойи бўйича жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш учун зарур шарт-шароитлар яратади, шу жумладан жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги мутахассисларни жалб этиш чораларини кўради.

Санаторий-курорт муассасалари, дам олиш уйлари ва туристик базалар раҳбарлари фуқароларнинг соғлиғини мустаҳкамлаш, касалликларнинг олдини олиш ва даволаш мақсадида фуқароларнинг даволаниши ҳамда дам олиши жараёнида жисмоний тарбия компонентларидан фойдаланиш учун шарт-шароитлар яратади.

Иш берувчилар ходимларнинг жисмоний тарбия ва спорт билан фаол шуғулланиши, шу жумладан иш вақти давомида ёки иш вақтидан кейин ихтиёрий равишда жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланиши учун зарур шарт-шароитлар яратиши мумкин.

43-модда. Адаптив жисмоний тарбия ва спорт. Ногиронлиги бўлган шахсларни жисмоний реабилитация қилиш

Адаптив жисмоний тарбия жисмоний тарбиянинг ногиронлиги бўлган шахсларни жисмоний реабилитация қилишнинг комплекс воситаларидан фойдаланувчи қисмидир.

Адаптив спорт спортнинг ногиронлиги бўлган шахсларни жисмоний реабилитация қилишга ҳамда ижтимоий мослаштиришга қаратилган қисмидир.

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

Адаптив жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш спорт билан шуғулланишнинг устуворлиги, оммалашуви ҳамда очиқлиги принципларига асосланади.

Ногиронлиги бўлган шахсларни адаптив жисмоний тарбия ва спорт усулларидан фойдаланган ҳолда жисмоний реабилитация қилиш ҳамда ижтимоий мослаштириш жисмоний тарбия ва спорт ташкилотларида, таълим ташкилотларида, шу жумладан реабилитация марказларида, ногиронлиги бўлган шахсларнинг спорт клубларида амалга оширилади.

Таълим муассасаларида таълим олаётган ногиронлиги бўлган шахслар учун машғулотлар бундай таълим олувчиларнинг шахсий қобилиятлари ҳамда соғлиғининг ҳолати ҳисобга олинган, адаптив жисмоний тарбия ва спорт воситаларидан фойдаланилган ҳолда ташкил этилади.

Ваколатли давлат органи Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари ҳамда ногиронлиги бўлган шахсларнинг жамоат бирлашмалари билан биргаликда ногиронлиги бўлган шахсларнинг жисмоний тарбия ва спорт ташкилотлари воситасида жисмоний тарбия, жисмоний камол топтириш ва жисмоний тайёргарлик тизимига уйғунлашувига кўмаклашади.

Ваколатли давлат органи Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, жисмоний тарбия ва спорт ташкилотлари, шунингдек ногиронлиги бўлган шахсларнинг жамоат бирлашмалари ногиронлиги бўлган шахслар иштирокида жисмоний тарбия ва спорт тадбирлари ўтказилишини ташкил этади.

44-модда. Жазони ижро этиш муассасаларида жисмоний тарбия ва спорт

Жазони ижро этиш муассасалари маҳкумларнинг жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланишини белгиланган тартибда ташкил этади.

Жазони ижро этиш муассасалари маъмурияти жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланиш учун зарур шарт-шароитлар яратади ҳамда спорт турлари қоидаларига мувофиқ спорт тадбирларини ташкил этади.

5-боб. Спорт захирасини тайёрлаш

45-модда. Юқори малакали спортчиларни ва спорт захирасини тайёрлаш

Юқори малакали спортчиларни ва спорт захирасини тайёрлаш спорт таълим ташкилотларида жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги мутахассислар томонидан амалга оширилади.

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

Юқори малакали спортчиларни ва спорт захирасини тегишли спорт экипировкаси, спорт жиҳози ва анжоми, биологик ва тиббий-тикловчи препаратлар билан таъминлаш, шунингдек тиббий хизмат (профилактика, даволаш) кўрсатишни ташкил этиш белгиланган тартибда амалга оширилади.

Юқори малакали спортчиларни ва спорт захирасини тайёрлаш спорт турининг ўзига хос хусусиятлари инобатга олинган ҳолда тегишли спорт тури бўйича тренерлар ва бошқа мутахассислар томонидан амалга оширилади.

46-модда. Спорт захирасини тайёрлаш босқичлари

Спорт захирасини тайёрлашда спортчиларни тайёрлашнинг қуйидаги босқичлари белгиланади:

спорт-соғломлаштириш (адаптив спорт турлари учун коррекция) босқичи;

бошланғич тайёргарлик босқичи;

ўқув-машғулот босқичи;

спорт маҳоратини такомиллаштириш (спорт камолотига эришиш) босқичи;

олий спорт маҳорати босқичи.

Ушбу модданинг биринчи қисмида кўрсатилган босқичлар таркиби Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади.

47-модда. Спортчилар тайёрлашни амалга оширувчи жисмоний тарбия ва спорт ташкилотлари ҳамда таълим ташкилотлари

Спортчилар тайёрлаш мақсадида ўқув-машғулот жараёни бўйича, шу жумладан юқори малакали спортчиларни ва спорт захирасини тайёрлаш бўйича фаолиятни амалга оширувчи жисмоний тарбия ва спорт ташкилотлари ҳамда таълим ташкилотлари фаолият кўрсатади. Ўқув-машғулот жараёнини ташкил этиш ўқув-машғулот ва бошқа спорт тадбирларини ўтказишни, шунингдек спорт тадбирларида спорт экипировкаси, спорт жиҳози ва анжоми, тиббий хизмат, йўлкира, овқатланиш масалаларини ҳамда қонунчиликда белгиланган бошқа ташкилий масалаларни ўз ичига олади.

Ўқув-машғулот жараёнини ташкил этиш ҳамда юқори малакали спортчиларни ва спорт захирасини тайёрлаш спорт федерациялари (уюшмалари), спорт клублари, бошқа жисмоний тарбия ва спорт ташкилотлари, якка тартибдаги тадбиркорлар ва ўзини ўзи банд қилган тренерлар томонидан амалга оширилади.

Ушбу модданинг биринчи қисмида кўрсатилган таълим ташкилотлари жумласига жисмоний тарбия ва спорт соҳасида фаолиятни амалга оширувчи таълим ташкилотлари киради.

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

Ушбу модданинг учинчи қисмида кўрсатилган таълим ташкилотлари жумласига кирмайдиган таълим ташкилотларида спортчиларни тайёрлаш мақсадида спорт турлари бўйича шундай тайёргарликни чуқурлаштирилган ўқув-машғулот жараёни асосида амалга оширадиган таркибий бўлинмалар, ихтисослаштирилган гуруҳлар ва спорт клублари ташкил этилиши мумкин.

48-модда. Спорт турлари бўйича спортчиларни тайёрлашга доир ўқув дастурлари

Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида фаолиятни амалга оширувчи спорт таълим ташкилотларида спортчиларни тайёрлаш ваколатли давлат органи томонидан тасдиқланган намунавий ўқув дастурларига мувофиқ олиб борилади.

Спортчиларни тайёрлашнинг намунавий ўқув дастурлари ўқув-машғулот жараёнини амалга оширувчи жисмоний тарбия ва спорт ташкилотлари фаолиятини тартибга солувчи қонунчиликка мувофиқ ишлаб чиқилади ҳамда жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги тегишли илмий тадқиқотлар натижаларига ҳамда жисмоний тарбия ва спорт тадбирларини ўтказиш амалиётига асосланади.

Спортчиларни тайёрлашнинг намунавий ўқув дастурлари ваколатли давлат органи томонидан тасдиқланади.

Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида фаолиятни амалга оширувчи таълим ташкилотларида ўқув-машғулот фаолиятини спортчиларни тайёрлашга доир ўқув дастурларидан фойдаланмасдан ташкил этишга йўл қўйилмайди.

Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида фаолиятни амалга оширувчи таълим ташкилотларида спортчиларни тайёрлашда рақамли технологиялардан фойдаланилиши мумкин.

49-модда. Жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги педагогик фаолият

Тегишли маълумотга ва касбий тайёргарликка эга бўлган шахсларнинг жисмоний тарбия ва спорт соҳасида, шу жумладан даволаш жисмоний тарбияси соҳасида педагогик фаолият билан шуғулланишига қонунчиликда белгиланган тартибда йўл қўйилади.

6-боб. Ўзбекистон Республикасининг спорт терма жамоалари ва уларни шакллантириш

50-модда. Ўзбекистон Республикасининг спорт терма жамоалари

Ўзбекистон Республикасининг спорт терма жамоалари асосий ва захира таркиблардан ташкил топади.

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

Ўзбекистон Республикасининг спорт терма жамоалари таркибига кирувчи жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги мутахассислар рўйхати тегишли спорт федерациялари (уюшмалари) билан келишилган ҳолда ваколатли давлат органи томонидан тасдиқланади.

Ўзбекистон Республикасининг спорт терма жамоаларини республика бюджети маблағлари ҳисобидан моддий-техникавий таъминлаш, шу жумладан спорт экипировкаси билан таъминлаш, илмий-услубий, тиббий-биологик, тиббий жиҳатдан, допингга қарши таъминлаш ваколатли давлат органи томонидан белгиланган тартибда Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги билан келишилган ҳолда амалга оширилади.

51-модда. Ўзбекистон Республикасининг спорт терма жамоаларини шакллантириш

Ўзбекистон Республикасининг спорт терма жамоаларига номзодлар рўйхатлари ҳар йили спорт федерациялари (уюшмалари) томонидан шакллантирилади ва ваколатли давлат органи томонидан тасдиқланади.

Ўзбекистон Республикасининг спорт терма жамоаларига номзодлар рўйхатларини шакллантиришнинг умумий принциплари ва мезонлари, ушбу рўйхатларни тасдиқлаш тартиби ваколатли давлат органи томонидан белгиланади.

Халқаро спорт мусобақаларида иштирок этишга тайёргарлик кўриш ва иштирок этиш учун Ўзбекистон Республикасининг спорт терма жамоалари Ўзбекистон Республикасининг спорт терма жамоаларига номзодларнинг тегишли рўйхатига киритилган шахслар орасидан спорт федерациялари (уюшмалари) томонидан шакллантирилади.

7-боб. Жисмоний тарбия ва спортнинг моддий, тиббий, молиявий ҳамда бошқа таъминоти

52-модда. Жисмоний тарбия-соғломлаштириш ва спорт иншоотлари

Жисмоний тарбия-соғломлаштириш ва спорт иншоотлари хусусий ёки оммавий мулк бўлиши мумкин.

Жисмоний тарбия-соғломлаштириш ва спорт иншоотларини хусусийлаштириш тартиби қонунчиликда белгиланади.

Маҳаллий давлат ҳокимияти органлари ўз ҳудудида жисмоний тарбия-соғломлаштириш ва спорт иншоотларининг режалаштирилиши, лойиҳалаштирилиши, қурилиши ҳамда фойдаланишга топширилиши устидан назоратни амалга оширади.

Таълим ташкилотларининг, корхоналарнинг, турар жой даҳаларининг асосий жисмоний тарбия-соғломлаштириш ва спорт иншоотлари билан энг кам таъминланиш нормативлари қонунчиликда белгиланади.

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

Жисмоний тарбия-соғломлаштириш ва спорт иншоотларида фуқароларнинг айрим тоифаларига қонунчиликда белгиланган тартибда имтиёзли асосда хизматлар кўрсатилиши мумкин.

Таълим ташкилотларини, аҳоли яшаш масканларини зарур жисмоний тарбия-соғломлаштириш ва спорт иншоотлари мажмуини барпо этмасдан қуришга ва реконструкция қилишга, шунингдек жисмоний тарбия-соғломлаштириш ва спорт иншоотларини шу ҳудуд доирасида уларга тенг иншоотларни барпо этмасдан тугатишга йўл қўйилмайди.

Спорт объектлари бўлмаган айрим ер ва сув ҳудуди участкаларида, шунингдек ҳаво ҳудуди участкаларида ушбу участкаларни қонунчиликда белгиланган тартибда муайян муддатга спорт объектлари (трассалари) сифатида расмийлаштирган ҳолда жисмоний тарбия ва спорт тадбирларини ўтказишга қонунчиликда белгиланган тартибда йўл қўйилади.

Ваколатли давлат органи Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланадиган тартибда Спорт иншоотлари реестрини юритади.

53-модда. Жисмоний тарбия ёки спорт тадбирларининг тиббий таъминоти

Жисмоний тарбия ёки спорт тадбирларининг ташкилотчилари бу тадбирлар иштирокчиларини тиббий ёрдам билан таъминлашни амалга ошириши шарт.

54-модда. Жисмоний тарбия ва спортни молиялаштириш

Жисмоний тарбия ва спортни молиялаштириш қуйидагилар ҳисобидан амалга оширилади:

Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджетининг маблағлари;

тадбиркорлик фаолияти ва бошқа хўжалик фаолиятидан олинадиган даромадлар;

жисмоний тарбия ва спорт соҳасида пулли хизматлар кўрсатишдан келиб тушадиган маблағлар;

юридик ва жисмоний шахсларнинг ҳомийлик ва хайрия маблағлари;

жисмоний тарбия ва спорт жамоат бирлашмалари иштирокчиларининг аъзолик бадаллари;

спорт турлари бўйича махсус жамғармаларнинг маблағлари;

спорт рамзлари, тимсолларидан фойдаланганлик учун тўловлар;

чет эл инвестициялари маблағлари;

халқаро ва хорижий ташкилотларнинг грантлари ҳамда техник кўмак маблағлари;

қонунчиликда тақиқланмаган бошқа манбалар.

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

55-модда. Спортчи ва тренерларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш

Давлат томонидан спортчи ҳамда тренерларга бир марталик ва ойлик тўлов (стипендия, нафақа ва бошқалар) шаклидаги қўллаб-қувватлаш чоралари тақдим этилиши мумкин.

Ушбу моддада кўрсатиб ўтилган қўллаб-қувватлаш чоралари қонунчиликда белгиланган спорт мусобақаларида ғолиб ва совриндор бўлган спортчилар, шунингдек уларни тайёрлаган тренерларга тақдим этилади.

Спортчилар ва тренерларга бир марталик ва ойлик тўлов (стипендия, нафақа ва бошқалар) шаклидаги қўллаб-қувватлаш чораларини тақдим этиш тартиби ҳамда уларнинг миқдорлари қонунчилик ҳужжатлари билан белгиланади.

56-модда. Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида хавфсизлик нормалари ва қоидаларига риоя этилишини, фуқароларнинг соғлиғи, шаъни ва қадр-қиммати муҳофаза қилинишини таъминлаш

Жисмоний тарбия ёки спорт тадбирларини ўтказадиган ташкилотлар ушбу тадбирлар ўтказиладиган жойларнинг техника хавфсизлиги қоидаларига ва санитария қоидаларига, нормаларига ва гигиена нормативларига мувофиқ лозим даражада жиҳозланишини таъминлайди.

Жисмоний тарбия ёки спорт тадбирлари уларнинг иштирокчилари ва томошабинлар соғлиғига, шаъни ва қадр-қимматига зиён етказилмайдиган тарзда ўтказилиши керак.

Спортчиларнинг шаъни ва қадр-қиммати камситилишига олиб келадиган, шунингдек уларнинг спорт жароҳатлари олишига сабаб бўладиган тайёргарлик услубларидан фойдаланишга йўл қўйилмайди.

Жисмоний тарбия ёки спорт тадбирларида иштирок этиш вақтида соғлиғига зиён етказилган спортчилар, тренерлар ҳамда спорт ҳакамларига қонунчиликка мувофиқ тиббий, ижтимоий ва касбий реабилитация таъминланади.

Муассасалар ва ташкилотларнинг вояга етмаган спортчилар билан ўзаро муносабатлари белгиланган тартибда фақат уларнинг ота-онасининг ёки ота-онаси ўрнини босувчи шахсларнинг ёхуд улар тарбияланаётган ихтисослаштирилган муассасаларнинг розилиги ва иштирокида амалга оширилади.

Спорт мусобақаларида иштирок этувчи шахслар қонунчиликда белгиланган тартибда суғурта полисига эга бўлиши шарт.

57-модда. Спорт жиҳози, анжоми ва спорт кийим-боши

Спорт жиҳози, анжоми ва спорт кийим-боши тегишли стандартларга, техник регламентларга, нормаларга ва талабларга мувофиқ бўлиши керак.

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

58-модда. Жисмоний тарбия ва спортнинг илмий-услубий ҳамда техник таъминоти

Жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги илмий-тадқиқот ишларини ташкил этиш ҳамда ўтказишни таълим муассасалари ва таркибида илмий марказлар ташкил этиладиган бошқа ташкилотлар, илмий-тадқиқот институтлари, белгиланган тартибда ташкил этилган ҳамда ўз фаолиятини давлат буюртмалари ва бошқа буюртмалар асосида олиб борадиган лабораториялар амалга оширади.

Таълим муассасалари ва бошқа ташкилотлар жисмоний тарбия воситалари билан аҳоли соғлиғини мустаҳкамлашга қўмаклашадиган аниқ дастурларни ишлаб чиқади ҳамда амалиётга жорий этади, спорт захираларини ва Ўзбекистон Республикасининг спорт терма жамоаларини халқаро спорт тадбирларига тайёрлашни илмий жиҳатдан таъминлашни такомиллаштиради.

Ваколатли давлат органи, бошқа давлат органлари ва ташкилотлари таълим муассасалари ва ташкилотларига жисмоний тарбия ва спорт соҳасида илмий-тадқиқот ишларини олиб боришда, шунингдек долзарб илмий-тадқиқот ишларига давлат буюртмалари ҳамда бошқа буюртмаларни шакллантиришда кўмаклашади, илмий-тадқиқот ишларининг якунларини таҳлил қилади ва уларнинг фаолиятига ёрдам кўрсатади.

8-боб. Якунловчи қоидалар

59-модда. Жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги халқаро ҳамкорлик

Жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги халқаро ҳамкорлик халқаро ҳуқуқнинг умум эътироф этилган принциплари ва нормалари, шунингдек Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари ва қонунчилиги асосида амалга оширилади.

60-модда. Низоларни ҳал этиш

Жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги низолар қонунчиликда белгиланган тартибда ҳал этилади.

61-модда. Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисидаги қонунчиликни бузганлик учун жавобгарлик

Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисидаги қонунчиликни бузганликда айбдор шахслар белгиланган тартибда жавобгар бўлади.

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

62-модда. Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларини ўз кучини йўқотган деб топиш

Қуйидагилар ўз кучини йўқотган деб топилсин:

1) Ўзбекистон Республикасининг 1992 йил 14 январда қабул қилинган **«Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»**ги 513–XII-сонли Қонуни (Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 йил, № 3, 160-модда);

2) Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг 1992 йил 14 январда қабул қилинган **«Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунини амалга киритиш ҳақида»**ги 514–XII-сонли Қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 йил, № 3, 161-модда);

3) Ўзбекистон Республикасининг 1994 йил 6 майда қабул қилинган **«Ўзбекистон Республикасининг айрим қонунларига ўзгартишлар ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»**ги 1086–XII-сонли Қонуни (Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1994 йил, № 5, 161-модда);

4) Ўзбекистон Республикасининг 2000 йил 26 майда қабул қилинган **«Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартишлар ва қўшимчалар киритиш ҳақида»**ги 76–II-сонли Қонуни (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2000 йил, № 5–6, 147-модда);

5) Ўзбекистон Республикасининг 2005 йил 15 сентябрда қабул қилинган **«Баъзи давлат бошқарув органларининг қайта ташкил этилганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартишлар киритиш тўғрисида»**ги ЎРҚ–5-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2005 йил, № 9, 309-модда) **1-моддаси**;

6) Ўзбекистон Республикасининг 2015 йил 4 сентябрда қабул қилинган **«Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида»**ги ЎРҚ–394-сонли Қонуни (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2015 йил, № 9, 340-модда);

7) Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 26 декабрда қабул қилинган **«Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»**ги ЎРҚ–416-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2016 йил, № 12, 383-модда) **5-моддаси**;

8) Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 13 июнда қабул қилинган **«Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек айрим қонун ҳужжатларини ўз кучини йўқотган деб топиш тўғрисида»**ги ЎРҚ–436-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2017 йил, № 6, 300-модда) **4-моддаси**;

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

9) Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 3 январда қабул қилинган **«Айрим давлат органлари фаолияти такомиллаштирилиши, шунингдек фуқароларнинг ҳуқуқлари ва эркинликларини ҳимоя қилиш кафолатларини таъминлашга доир қўшимча чора-тадбирлар қабул қилиниши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»**ги ЎРҚ–456-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2018 йил, № 1, 1-модда) **4-моддаси**;

10) Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 23 июлда қабул қилинган **«Баъзи давлат органлари ва ташкилотларининг фаолияти такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»**ги ЎРҚ–486-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2018 йил, № 7, 431-модда) **2-моддаси**;

11) Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 3 декабрда қабул қилинган **«Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»**ги ЎРҚ–653-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2020 йил, № 12, 691-модда) **2-моддаси**;

12) Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 21 апрелда қабул қилинган **«Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартишлар киритиш тўғрисида»**ги ЎРҚ–683-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2021 йил, 4-сонга илова) **13-моддаси**;

13) Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 12 октябрда қабул қилинган **«Лицензиялаш, рухсат бериш ва хабардор қилиш тартиб-таомиллари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни қабул қилинганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида»**ги ЎРҚ–721-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2021 йил, № 10, 968-модда) **1-моддаси**;

14) Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 17 майда қабул қилинган **«Ўзбекистон Республикасида тиббий-ижтимоий хизматлар тизими такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартишлар киритиш тўғрисида»**ги ЎРҚ–770-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2022 йил, № 5, 464-модда) **3-моддаси**;

15) Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 3 ноябрда қабул қилинган **«Стандартлаштириш тўғрисида»**ги ЎРҚ–800-сонли Қонуни (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2022 йил, № 11, 1061-модда) **28-моддаси биринчи қисмининг 1-банди**;

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

16) Ўзбекистон Республикасининг 2023 йил 20 январда қабул қилинган **«Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»**ги ЎРҚ–815-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2023 йил, № 1, 2-модда) **1-моддаси**;

17) Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 7 сентябрда қабул қилинган **«Маъмурий ислоҳотлар доирасида таълим соҳасида давлат бошқаруви такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»**ги ЎРҚ–957-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2024 йил, № 9, 958-модда) **2-моддаси**.

63-модда. Ушбу Қонуннинг ижросини, етказилишини, моҳияти ва аҳамияти тушунтирилишини таъминлаш

Ўзбекистон Республикаси Спорт вазирлиги ва бошқа манфаатдор ташкилотлар ушбу Қонуннинг ижросини, ижрочиларга етказилишини ҳамда моҳияти ва аҳамияти аҳоли ўртасида тушунтирилишини таъминласин.

64-модда. Қонунчиликни ушбу Қонунга мувофиқлаштириш

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси:

ҳукумат қарорларини ушбу Қонунга мувофиқлаштирсин;

ушбу Қонун 7-моддаси биринчи қисмининг саккизинчи хатбошисида назарда тутилган жисмоний тарбия ва спорт мусобақалари ҳамда тадбирларини ўтказиш қоидаларини ушбу Қонун расмий эълон қилинган кундан эътиборан уч ой ичида ишлаб чиқсин ва тасдиқласин;

ушбу Қонун 24-моддасининг еттинчи қисмида назарда тутилган Нодавлат жисмоний тарбия ва спорт ташкилотлари реестрини шакллантириш, юритиш ҳамда реестрдан чиқариш тартибини ушбу Қонун расмий эълон қилинган кундан эътиборан уч ой ичида ишлаб чиқсин ва тасдиқласин;

ушбу Қонун 26-моддасининг бешинчи қисмида назарда тутилган спорт лигасининг фаолият юритиш тартибини, шунингдек спорт лигалари томонидан профессионал спорт мусобақаларини ташкил этиш ва ўтказиш тартибини ушбу Қонун расмий эълон қилинган кундан эътиборан уч ой ичида ишлаб чиқсин ҳамда тасдиқласин;

ушбу Қонун 37-моддасининг еттинчи қисмида назарда тутилган спорт агенти фаолиятини амалга ошириш тартибини ушбу Қонун расмий эълон қилинган кундан эътиборан уч ой ичида ишлаб чиқсин ва тасдиқласин;

республика ижро этувчи ҳокимият органлари ушбу Қонунга зид бўлган ўз норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини қайта кўриб чиқишлари ва бекор қилишларини таъминласин.

QMMB: 03/26/1123/0271-son
25.03.2026-y.

65-модда. Ушбу Қонуннинг кучга кириши

Ушбу Қонун расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

Ушбу Қонуннинг 24-моддаси тўртинчи – еттинчи қисмлари, 26, 37-моддалари мазкур Қонун кучга кирган кундан эътиборан уч ой ўтгач амалга киритилади.

Ўзбекистон Республикасининг Президенти **Ш. Мирзиёев**

Тошкент шаҳри,
2026 йил 24 март
№ ЎРҚ–1123

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING
QONUNI

Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига атроф-муҳит, ҳайвонот ва ўсимлик дунёсининг муҳофазасини кучайтиришга, табиий ресурслардан оқилона фойдаланишни таъминлашга қаратилган қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш тўғрисида

Қонунчилик палатаси томонидан 2025 йил 23 сентябрда қабул қилинган
Сенат томонидан 2025 йил 19 декабрда маъқулланган

Мамлакатимизда кейинги йилларда атроф-муҳитни, ҳайвонот ва ўсимлик дунёсини муҳофаза қилиш, экологик вазиятни яхшилаш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш, чиқиндиларнинг инсонлар соғлиғига зарарли таъсирининг олдини олиш бўйича чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Бироқ кўрилаётган чора-тадбирларга қарамай атроф-муҳитни, ҳайвонот ва ўсимлик дунёсини муҳофаза қилиш, табиий ресурслардан фойдаланиш соҳасидаги ҳуқуқбузарликлар салмоғи ортиб бормоқда.

Шу муносабат билан атроф-муҳитни, ҳайвонот ва ўсимлик дунёсини муҳофаза қилиш, табиий ресурслардан фойдаланиш соҳасида жисмоний ва юридик шахсларнинг масъулиятини ошириш, ушбу соҳада содир этилган ҳуқуқбузарликлар учун жавобгарликни кучайтириш зарурияти юзага келмоқда.

Мазкур Қонун билан бир қатор қонун ҳужжатларига атроф-муҳитга таъсир кўрсатаётган айрим фаолият турлари билан шуғулланувчи юридик шахслар зиммасига атроф-муҳитни ифлослантирувчи манбаларнинг мониторингини юритиш бўйича қўшимча мажбуриятлар юклатилишини, атроф-муҳит, ҳайвонот ва ўсимлик дунёси муҳофаза қилинишини, табиий ресурслардан фойдаланиш соҳасидаги ҳуқуқбузарликлар учун жиноий ҳамда маъмурий жавобгарлик чоралари кучайтирилишини, шу жумладан махсус автоматлаштирилган фото- ва видео қайд этиш дастурий-техник воситалари орқали қайд этилган экологик ҳуқуқбузарликлар, чиқиндилар тўплаш майдончаларидан ва уларнинг кўриқланмайдиган иншоотларидан чиқиндиларни қонунга хилоф равишда тўплаганлик ва олиб чиқиб

кетганлик учун шахсларнинг маъмурий жавобгарлиги белгиланишини назарда тутувчи қўшимча ва ўзгартиришлар киритилмоқда.

Шунингдек давлат ўрмон фондига кирмайдиган дарахтларни кўчириб ўтқазиш учун рухсатнома бериш тартиби жорий этилмоқда.

Ушбу Қонун атроф-муҳитни, ҳайвонот ва ўсимлик дунёсини муҳофаза қилиш соҳасидаги қонунчиликнинг ижро этилишини таъминлашга, мамлакатимизда экологик вазиятни яхшилашга, табиий ресурслардан оқилона фойдаланишни таъминлашга хизмат қилади.

1-модда. Ўзбекистон Республикасининг 1992 йил 9 декабрда қабул қилинган **«Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида»**ги 754–XII-сонли Қонунига (Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993 йил, № 1, 38-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1995 йил, № 6, 118-модда; 1997 йил, № 4–5, 126-модда; 1999 йил, № 1, 20-модда; 2000 йил, № 5–6, 153-модда, № 7–8, 217-модда; 2002 йил, № 9, 165-модда; 2003 йил, № 9–10, 149-модда; 2004 йил, № 5, 90-модда; 2005 йил, № 1, 18-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2006 йил, № 10, 536-модда; 2011 йил, № 1, 1-модда, № 9, 247-модда; 2013 йил, № 4, 98-модда; 2014 йил, № 9, 244-модда; 2017 йил, № 6, 300-модда, № 9, 510-модда; 2018 йил, № 4, 224-модда; 2019 йил, № 9, 591-модда, № 11, 792-модда; 2021 йил, 4-сонга илова, № 10, 968-модда; 2023 йил, № 12, 1011-модда; 2024 йил, № 2, 104-модда, № 8, 831-модда) қуйидаги қўшимча ва ўзгартиришлар киритилсин:

1) **28-модда**:

қуйидаги мазмундаги **тўртинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Атроф-муҳитга таъсир кўрсатишнинг I ва II тоифаларига мансуб фаолият турлари билан шуғулланувчи юридик шахслар атроф-муҳитни ифлослантирувчи манбаларнинг мониторинги доирасида ифлослантирувчи манбаларда ўрнатиладиган автоматик мониторинг станциялари маълумотларини Атроф-муҳит давлат мониторинги тизимининг ягона геоахборот маълумотлар базасига реал вақт режимида киритиши шарт»;

тўртинчи қисми бешинчи қисм деб ҳисоблансин;

2) **34-модда**:

биринчи қисми «(ифлослантирувчи моддаларни чиқарганлик, оқизганлик ва чиқиндиларни жойлаштирганлик)» деган сўзлардан кейин «ҳамда иссиқхона газлари ажратмалари» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

саккизинчи қисми «чиқиндилар жойлаштирганлик» деган сўзлардан кейин «шунингдек иссиқхона газлари ажратмалари» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

ўнинчи қисми қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Табиатдан махсус фойдаланганлик учун тўловлар бўйича имтиёзлар қонунчилик билан белгиланади, бундан атроф-муҳитни ифлослантирганлик учун компенсация тўловлари ҳамда давлат ўрмон фондига кирмайдиган дарахтлар ва буталарни кесганлик учун тўловлар ва уларни кўчириб ўтқазиш билан боғлиқ мажбуриятлардан озод қилиш бўйича имтиёзлар мустасно»;

қуйидаги мазмундаги **ўн биринчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Атроф-муҳитга ифлослантирувчи моддаларни чиқарганлик ва оқизганлик ҳамда чиқиндиларни жойлаштирганлик, шунингдек иссиқхона газлари ажратмалари учун компенсация тўловларидан ҳамда давлат ўрмон фондига кирмайдиган дарахтлар ва буталарни кесганлик, кўчириб ўтқазганлик учун компенсация тарзида экишдан озод қилиш қонун билан белгиланади»;

ўн биринчи қисми ўн иккинчи қисм деб ҳисоблансин;

3) **47-модда**:

қуйидаги мазмундаги **ўн иккинчи хатбоши** билан тўлдирилсин:

«атроф-муҳит давлат мониторинги тизимининг ягона геоахборот маълумотлар базасидан фойдаланиш талабларини бузганликда»;

ўн иккинчи хатбошиси ўн учинчи хатбоши деб ҳисоблансин;

4) қуйидаги мазмундаги **50^1-модда** билан тўлдирилсин:

«50^1-модда. Атроф-муҳит давлат мониторинги тизимининг ягона геоахборот маълумотлар базасидан фойдаланиш талабларини бузганлик учун молиявий санкциялар

Атроф-муҳит давлат мониторинги тизимининг ягона геоахборот маълумотлар базасига маълумотларни киритмаганлик, тўлиқ киритмаганлик ёки нотўғри маълумот киритганлик учун атроф-муҳитга таъсир кўрсатишнинг I ва II тоифаларига мансуб фаолият турлари билан шуғулланувчи юридик шахсларга нисбатан базавий ҳисоблаш миқдорининг юз бараваридан уч юз бараваригача миқдорда жарима тарзида молиявий санкция қўлланилади.

Ушбу модданинг биринчи қисмида назарда тутилган молиявий санкция юридик шахслар аниқланган ҳуқуқбузарликлардаги айбини тан олганда Ўзбекистон Республикаси Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги томонидан қўлланилади, низо мавжуд бўлган ҳолларда ёки юридик шахс Ўзбекистон Республикаси Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлигининг қарорини олган кундан эътиборан бир ой ичида молиявий санкция суммасини ихтиёрий равишда тўламаган ҳолларда, молиявий санкцияни қўллаш тўғрисидаги масала суд томонидан ҳал этилади».

2-модда. Ўзбекистон Республикасининг 1994 йил 22 сентябрда қабул қилинган 2012–XII-сонли Қонуни билан тасдиқланган **Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексига** (Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1995 йил, № 1, 3-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1996 йил, № 9, 144-модда; 1997 йил, № 2, 56-модда, № 9, 241-модда; 1998 йил, № 5–6, 102-модда, № 9, 181-модда; 1999 йил, № 1, 20-модда, № 5, 124-модда, № 9, 229-модда; 2000 йил, № 5–6, 153-модда; 2001 йил, № 1–2, 23-модда, № 9–10, 165-модда; 2002 йил, № 9, 165-модда; 2003 йил, № 1, 8-модда, № 9–10, 149-модда; 2004 йил, № 1–2, 18-модда, № 9, 171-модда;

Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2005 йил, № 9, 314-модда, № 12, 417, 418-моддалар; 2006 йил, № 6, 261-модда, № 12, 656-модда; 2007 йил, № 4, 158, 166-моддалар, № 6, 248-модда, № 9, 416, 422-моддалар, № 12, 607-модда; 2008 йил, № 4, 187, 188, 189-моддалар, № 7, 352-модда, № 9, 485, 487, 488-моддалар, № 12, 640, 641-моддалар; 2009 йил, № 1, 1-модда, № 4, 128-модда, № 9, 329, 334, 335, 337-моддалар, № 12, 470-модда; 2010 йил, № 5, 176, 179-моддалар, № 9, 341-модда, № 12, 471, 477-моддалар; 2011 йил, № 1, 1-модда; 2012 йил, № 4, 108-модда, № 9/1, 242-модда, № 12, 336-модда; 2013 йил, № 4, 98-модда, № 10, 263-модда; 2014 йил, № 1, 2-модда, № 5, 130-модда, № 9, 244-модда, № 12, 343-модда; 2015 йил, № 6, 228-модда, № 8, 310, 312-моддалар, № 2, 452-модда; 2016 йил, № 4, 125-модда, № 9, 276-модда, № 12, 383, 385-моддалар; 2017 йил, № 3, 47-модда, № 6, 300-модда, № 9, 506, 510-моддалар; 2018 йил, № 1, 4-модда, № 4, 218, 224-моддалар, № 7, 430-модда, № 10, 679-модда; 2019 йил, № 1, 3, 5-моддалар, № 3, 161-модда, № 5, 259, 267, 268-моддалар, № 7, 386-модда, № 8, 471-модда, № 9, 592-модда, № 11, 787-модда, № 12, 880-модда; 2020 йил, № 1, 4-модда, № 3, 204-модда, № 7, 449-модда, № 10, 593-модда, № 11, 651-модда, № 12, 691-модда; 2021 йил, № 1, 5, 14-моддалар, № 2, 142, 144-моддалар, № 3, 217-модда, 4-сонга илова, № 8, 800, 803-моддалар, № 10, 966, 968, 973-моддалар, № 12, 1193-модда; 2022 йил, № 2, 81-модда, № 3, 215, 216-моддалар, № 4, 337-модда, № 5, 464, 466-моддалар, № 6, 575-модда, № 10, 981-модда; 2023 йил, № 3, 184, 185, 187, 188-моддалар, № 4, 265-модда, № 5, 319-модда, № 10, 798-модда, № 11, 921-модда; 2024 йил, № 1, 8-модда, № 2, 111-модда, № 3, 245-модда, № 8, 818-модда, № 9, 954, 964-моддалар, № 10, 1070, 1071, 1073, 1077, 1079, 1083-моддалар, № 11, 1186-модда, № 12, 1280, 1287-моддалар; 2025 йил, № 2, 196-модда, № 3, 376, 377-моддалар, № 5, 643, 647-моддалар, № 8, 968-модда) қуйидаги ўзгартиришлар ва қўшимча киритилсин:

1) **196-модда**:

биринчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«базавий ҳисоблаш миқдорининг уч юз бараваридан беш юз бараваригача миқдорда жарима ёки беш йилгача муайян ҳуқуқдан маҳрум қилиш ёхуд уч юз олтмиш соатдан тўрт юз саксон соатгача мажбурий жамоат ишлари ёки икки йилдан уч йилгача ахлоқ тузатиш ишлари билан жазоланади»;

иккинчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«муайян ҳуқуқдан маҳрум қилиб, уч йилдан беш йилгача озодликни чеклаш ёки уч йилдан беш йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади»;

2) **197-модданинг санкцияси** қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«базавий ҳисоблаш миқдорининг икки юз бараваридан уч юз бараваригача миқдорда жарима ёки уч юз олтмиш соатдан тўрт юз саксон соатгача мажбурий жамоат ишлари ёки икки йилдан уч йилгача ахлоқ тузатиш ишлари ёхуд уч йилдан беш йилгача озодликни чеклаш ёки уч йилдан беш йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади»;

3) **198-модда**:

биринчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«базавий ҳисоблаш миқдорининг юз бараваридан икки юз бараваригача миқдорда жарима ёки уч юз олтмиш соатгача мажбурий жамоат ишлари ёхуд уч йилгача ахлоқ тузатиш ишлари билан жазоланади»;

иккинчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«базавий ҳисоблаш миқдорининг беш юз бараваридан олти юз бараваригача миқдорда жарима ёки уч юз олтмиш соатдан тўрт юз саксон соатгача мажбурий жамоат ишлари ёхуд икки йилдан уч йилгача ахлоқ тузатиш ишлари ёки уч йилдан беш йилгача озодликни чеклаш ёхуд уч йилдан беш йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади»;

учинчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«базавий ҳисоблаш миқдорининг беш юз бараваридан олти юз бараваригача миқдорда жарима ёки уч юз олтмиш соатдан тўрт юз саксон соатгача мажбурий жамоат ишлари ёки икки йилдан уч йилгача ахлоқ тузатиш ишлари ёхуд уч йилдан беш йилгача озодликни чеклаш ёки уч йилдан беш йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади»;

4) қуйидаги мазмундаги **198[1]-модда** билан тўлдирилсин:

«198[1]-модда. Қонунга хилоф равишда ўрмон фонди ерларини бериш, улардан фойдаланиш, уларда бино-иншоотлар қуриш

Қонунга хилоф равишда ўрмон фонди ерларини бериш, улардан фойдаланиш, шундай қилмишлар учун маъмурий жазо қўлланилганидан кейин содир этилган бўлса, –

базавий ҳисоблаш миқдорининг уч юз бараваридан тўрт юз бараваригача миқдорда жарима ёки икки йилдан уч йилгача озодликни чеклаш ёхуд уч йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

Ўрмон фонди ерларида қонунга хилоф равишда бино-иншоотлар қуриш, шундай ҳаракатлар учун маъмурий жазо қўлланилганидан кейин содир этилган бўлса, –

базавий ҳисоблаш миқдорининг тўрт юз бараваридан беш юз бараваригача миқдорда жарима ёки уч йилдан беш йилгача озодликни чеклаш ёхуд уч йилдан беш йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

Ушбу модданинг биринчи ва иккинчи қисмларида назарда тутилган ҳаракатлар:

а) такроран;

б) кўп миқдорда зарар етказган ҳолда;

в) бир гуруҳ шахслар томонидан олдиндан тил бириктириб содир этилган бўлса, –

беш йилдан етти йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади.

Етказилган моддий зарарнинг ўрни уч карра миқдорида қопланган тақдирда, озодликни чеклаш ва озодликдан маҳрум қилиш тариқасидаги жазо қўлланилмайди, бундан ушбу модданинг учинчи қисмида назарда тутилган ҳоллар мустасно».

3-модда. Ўзбекистон Республикасининг 1994 йил 22 сентябрда қабул қилинган 2015–XII-сонли Қонуни билан тасдиқланган **Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексига** (Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1995 йил, № 3, 6-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1995 йил, № 9, 193-модда, № 12, 269-модда; 1996 йил, № 5–6, 69-модда, № 9, 144-модда; 1997 йил, № 2, 56-модда, № 4–5, 126-модда, № 9, 241-модда; 1998 йил, № 3, 38-модда, № 5–6, 102-модда, № 9, 181-модда; 1999 йил, № 1, 20-модда, № 5, 124-модда, № 9, 229-модда; 2000 йил, № 5–6, 153-модда, № 7–8, 217-модда; 2001 йил, № 1–2, 23-модда, № 9–10, 165, 182-моддалар; 2002 йил, № 1, 20-модда, № 9, 165-модда; 2003 йил, № 1, 8-модда, № 5, 67-модда, № 9–10, 149-модда; 2004 йил, № 1–2, 18-модда, № 5, 90-модда, № 9, 171-модда; 2005 йил, № 1, 18-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2005 йил, № 9, 312-модда, № 12, 413, 417, 418-моддалар; 2006 йил, № 6, 261-модда, № 9, 498-модда, № 10, 536-модда, № 12, 656, 659-моддалар; 2007 йил, № 4, 158, 159, 164, 165-моддалар, № 9, 416, 421-моддалар, № 12, 596, 604, 607-моддалар; 2008 йил, № 4, 181, 189, 192-моддалар, № 9, 486, 488-моддалар, № 12, 640, 641-моддалар; 2009 йил, № 1, 1-модда, № 9, 334, 335, 337-моддалар, № 10, 380-модда, № 12, 462, 468, 470, 472, 474-моддалар; 2010 йил, № 5, 175, 179-моддалар, № 6, 231-модда, № 9, 335, 339, 341-моддалар, № 10, 380-модда, № 12, 468, 473, 474-моддалар; 2011 йил, № 1, 1-модда, № 4, 104, 105-моддалар, № 9, 247, 252-моддалар, № 12/2, 365-модда; 2012 йил, № 4, 108-модда, № 9/1, 242-модда, № 12, 336-модда; 2013 йил, № 4, 98-модда, № 10, 263-модда; 2014 йил, № 1, 2-модда, № 5, 130-модда, № 9, 244-модда, № 12, 341, 343-моддалар; 2015 йил, № 6, 228-модда, № 8, 310, 312-моддалар, № 12, 452-модда; 2016 йил, № 1, 2-модда, № 4, 125-модда, № 9, 276-модда, № 12, 383, 385-моддалар; 2017 йил, № 4, 137-модда, № 6, 300-модда, № 9, 510-модда, № 10, 605-модда; 2018 йил, № 1, 1, 4, 5-моддалар, № 4, 224-модда, № 7, 430, 431, 432-моддалар, № 10, 671, 673, 679-моддалар; 2019 йил, № 1, 1, 3, 5-моддалар, № 2, 47-модда, № 3, 161, 165, 166-моддалар, № 5, 259, 261, 267, 268-моддалар, № 7, 386-модда, № 8, 469, 471-моддалар, № 9, 591, 592-моддалар, № 10, 674, 676-моддалар, № 11, 787, 791-моддалар, № 12, 880, 891-моддалар; 2020 йил, № 1, 4-модда, № 3, 203, 204-моддалар, № 7, 449-модда, № 9, 539, 540-моддалар, № 10, 593, 596-моддалар, № 11, 651-модда, № 12, 691-модда; 2021 йил, № 1, 5, 7, 12, 13, 14-моддалар, № 2, 142-модда, № 3, 217-модда, № 4, 290, 293-моддалар, 4-сонга илова, № 8, 800, 802, 803-моддалар, № 9, 903-модда, № 10, 966, 967, 968, 973-моддалар, № 11, 1066-модда; 2022 йил, № 1, 1, 2-моддалар, № 2, 80, 81-моддалар, № 3, 215, 216-моддалар, № 4, 337-модда, № 5, 464, 467-моддалар, № 8, 787-модда, № 10, 981, 984-моддалар, № 12, 1188-модда; 2023 йил, № 3, 184, 185, 188, 189-моддалар, № 4, 265, 266, 268-моддалар, № 5, 319, 320-моддалар, № 7, 533, 534, 535, 537, 539-моддалар, № 8, 634-модда, № 10, 798-модда, № 11, 921, 923, 924-моддалар, № 12, 1004-модда; 2024 йил, № 1, 5, 7, 8, 9-моддалар, № 2, 102, 111, 115, 116-моддалар, № 3, 243, 245-моддалар, № 6, 530, 532-моддалар, № 7, 629-модда, № 8, 826, 829, 831-моддалар, № 9, 954, 964, 965-моддалар, № 10, 1070, 1071, 1073, 1077, 1078, 1083, 1084-моддалар, № 11, 1187, 1188, 1189-моддалар, № 12, 1279, 1280, 1282,

1286, 1287-моддалар; 2025 йил, № 1, 5, 8-моддалар, № 2, 187, 188, 196, 198, 201-моддалар, № 3, 368, 376-моддалар, № 4, 517, 521-моддалар, № 5, 643, 644-моддалар, № 6, 729-модда, № 7, 828, 829, 832-моддалар, № 8, 968, 971-моддалар) қуйидаги қўшимча ва ўзгартиришлар киритилсин:

1) қуйидаги мазмундаги **17^4-модда** билан тўлдирилсин:

«17^4-модда. Махсус автоматлаштирилган фото- ва видео қайд этиш техника воситалари орқали қайд этилган экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва табиатдан фойдаланиш соҳасидаги ҳуқуқбузарликлар учун шахсларнинг маъмурий жавобгарлиги

Ушбу Кодекс 70-моддасининг биринчи қисмида, 70^1, 72, 77-моддаларида, 79-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларида, 81, 82, 83-моддаларида, 84-моддасининг биринчи ва иккинчи қисмларида, 88-моддасида, 90-моддасининг биринчи қисмида, 91-моддасида, 91^1-моддасининг биринчи, иккинчи ва учинчи қисмларида, 92-моддасида назарда тутилган маъмурий ҳуқуқбузарликлар махсус автоматлаштирилган фото- ва видео қайд этиш техника воситалари орқали қайд этилган тақдирда, маъмурий жавобгарликка ҳуқуқбузарликни содир этган шахс ёки транспорт воситасининг мулкдори ёхуд мазкур транспорт воситасидан фуқаролик-ҳуқуқий муносабатлар асосида белгиланган тартибда фойдаланган шахс тортилади.

Ушбу модданинг биринчи қисмида назарда тутилган маъмурий ҳуқуқбузарликнинг қонунчиликка мувофиқ юридик шахсга тегишли бўлган транспорт воситасидан фойдаланиб содир этилганлиги махсус автоматлаштирилган фото- ва видео қайд этиш техника воситалари орқали қайд этилган тақдирда, маъмурий жавобгарликка юридик шахснинг транспорт воситасидан фойдаланиш учун масъул бўлган шахси ёки мазкур транспорт воситасидан фуқаролик-ҳуқуқий муносабатлар асосида белгиланган тартибда фойдаланган шахс тортилади.

Агар маъмурий жавобгарликка тортиш тўғрисидаги қарор устидан берилган шикоятни кўриб чиқиш жараёнида тегишли транспорт воситасига ҳуқуқбузарлик қайд этилган пайтда эгалик қилган шахс аниқланса ёхуд мазкур транспорт воситаси бошқа шахсларнинг ғайриқонуний хатти-ҳаракатлари натижасида транспорт воситаси мулкдорининг эгалигидан чиқиб кетганлиги аниқланса, транспорт воситасининг мулкдори ўзига тегишли транспорт воситасидан фойдаланиб содир этилган, махсус автоматлаштирилган фото- ва видео қайд этиш техника воситалари орқали қайд этилган экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва табиатдан фойдаланиш соҳасидаги ҳуқуқбузарликлар учун маъмурий жавобгарликдан озод этилади.

Тадбиркорлик субъектлари ва аҳоли томонидан юборилган экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва табиатдан фойдаланиш соҳасида содир этилган ҳуқуқбузарликлар ҳақидаги фотосуратлар ва видеоёзувлар махсус автоматлаштирилган фото- ва видео қайд этиш техника воситалари орқали қайд этилган ҳуқуқбузарликлар ҳолатлари акс эттирилган фотосуратлар ва видеоёзувларга тенглаштирилади»;

2) **70[1]-модда**:

биринчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг эллик бараваридан юз бараваригача, мансабдор шахсларга эса – бир юз эллик бараваридан икки юз бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

иккинчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«маъмурий ҳуқуқбузарликни содир этиш қуроли бўлган ашёни ёки маъмурий ҳуқуқбузарликнинг бевосита ашёсини мусодара қилиб, фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг юз бараваридан бир юз эллик бараваригача, мансабдор шахсларга эса – икки юз бараваридан уч юз бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

3) **72-модда**:

биринчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг ўн беш бараваридан йигирма бараваригача, мансабдор шахсларга эса – йигирма беш бараваридан эллик бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

иккинчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«мансабдор шахсларга базавий ҳисоблаш миқдорининг йигирма беш бараваридан эллик бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

учинчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг беш бараваридан ўн бараваригача, мансабдор шахсларга эса – йигирма беш бараваридан ўттиз беш бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

тўртинчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг ўн беш бараваридан йигирма беш бараваригача, мансабдор шахсларга эса – етмиш беш бараваридан юз бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

4) **74-модда**:

биринчи қисмининг диспозицияси «шунингдек» деган сўздан кейин «аҳоли пунктларидаги ва туман (шаҳар) марказларидаги ариқларни, ирригация тизимларини кўмиб ташлаш» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

иккинчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг уч бараваридан беш бараваригача, мансабдор шахсларга эса – етти бараваридан ўн бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

учинчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг етти бараваридан ўн бараваригача, мансабдор шахсларга эса – ўн беш бараваридан йигирма бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

5) **77-модда**:

биринчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг уч бараваридан беш бараваригача, мансабдор шахсларга эса – ўн бараваридан ўн беш бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

иккинчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг етти бараваридан ўн бараваригача, мансабдор шахсларга эса – ўн беш бараваридан йигирма беш бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

учинчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг етти бараваридан ўн бараваригача, мансабдор шахсларга эса – ўн беш бараваридан йигирма беш бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

тўртинчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг ўн беш бараваридан йигирма беш бараваригача, мансабдор шахсларга эса – ўттиз бараваридан эллик бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

6) қуйидаги мазмундаги **77[1]-модда** билан тўлдирилсин:

«77[1]-модда. Қонунга хилоф равишда ўрмон фонди ерларини бериш ва уларда бино-иншоотлар қуриш

Қонунга хилоф равишда ўрмон фонди ерларини бериш ёки уларда бино-иншоотларни қуриш, –

фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг эллик бараваридан юз бараваригача, мансабдор шахсларга эса – бир юз эллик бараваридан икки юз бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

7) **79[1]-модданинг санкцияси** қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг етти бараваридан ўн бараваригача, мансабдор шахсларга эса – ўн беш бараваридан йигирма беш бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

8) **81-модда**:

биринчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг ўн бараваридан ўн беш бараваригача, мансабдор шахсларга эса – йигирма бараваридан ўттиз бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

иккинчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг йигирма бараваридан ўттиз бараваригача, мансабдор шахсларга эса – эллик бараваридан етмиш беш бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

9) **82-модда**:

биринчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг ўн беш бараваридан йигирма беш бараваригача, мансабдор шахсларга эса – ўттиз бараваридан эллик бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

иккинчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг ўн беш бараваридан йигирма беш бараваригача, мансабдор шахсларга эса – ўттиз бараваридан эллик бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

учинчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг ўттиз бараваридан эллик бараваригача, мансабдор шахсларга эса – етмиш беш бараваридан юз бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

10) **83-модданинг санкцияси** қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг ўн бараваридан ўн беш бараваригача, мансабдор шахсларга эса – йигирма бараваридан ўттиз бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

11) **84-модда**:

биринчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг ўн беш бараваридан йигирма беш бараваригача, мансабдор шахсларга эса – эллик бараваридан етмиш беш бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

иккинчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг йигирма беш бараваридан эллик бараваригача, мансабдор шахсларга эса – етмиш беш бараваридан юз бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

12) **85-модда**:

биринчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«мансабдор шахсларга базавий ҳисоблаш миқдорининг ўттиз бараваридан эллик бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

иккинчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«мансабдор шахсларга базавий ҳисоблаш миқдорининг эллик бараваридан юз бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

13) **86-модда**:

биринчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«мансабдор шахсларга базавий ҳисоблаш миқдорининг ўттиз бараваридан эллик бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

иккинчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«мансабдор шахсларга базавий ҳисоблаш миқдорининг эллик бараваридан юз бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

14) **86^1-модда**:

биринчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг уч бараваридан беш бараваригача, мансабдор шахсларга эса – ўн бараваридан ўн беш бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

иккинчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг етти бараваридан ўн бараваригача, мансабдор шахсларга эса – ўн беш бараваридан ўттиз бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

15) қуйидаги мазмундаги **86^2-модда** билан тўлдирилсин:

«86^2-модда. Атроф-муҳит давлат мониторинги тизимининг ягона геоахборот маълумотлар базасидан фойдаланиш талабларини бузиш

Автоматик мониторинг станцияларини, шунингдек чанг-газ тозалаш қурилмаларини ўрнатиш тўғрисидаги қонунчиликда назарда тутилган мажбуриятларни бажармаслик, Атроф-муҳит давлат мониторинги тизимининг ягона геоахборот маълумотлар базасига автоматик мониторинг станцияларини интеграция қилмаслик, ушбу базага маълумотларни киритмаслик, ўз вақтида ёки тўлиқ киритмаслик, нотўғри маълумотларни киритиш, –

мансабдор шахсларга базавий ҳисоблаш миқдорининг йигирма бараваридан ўттиз бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади.

Худди шундай ҳуқуқбузарлик маъмурий жазо чораси қўлланилганидан кейин бир йил давомида такрор содир этилган бўлса, –

мансабдор шахсларга базавий ҳисоблаш миқдорининг ўттиз бараваридан эллик бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

16) **87-модда**:

биринчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«мансабдор шахсларга базавий ҳисоблаш миқдорининг ўн бараваридан ўн беш бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

иккинчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«базавий ҳисоблаш миқдорининг бир бараваридан уч бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

учинчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг уч бараваридан беш бараваригача, мансабдор шахсларга эса – ўн беш бараваридан йигирма бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

17) **88-модда**:

биринчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг бир бараваридан уч бараваригача, мансабдор шахсларга эса – беш бараваридан ўн бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

иккинчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг уч бараваридан беш бараваригача, мансабдор шахсларга эса – ўн беш бараваридан йигирма бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

учинчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг уч бараваридан беш бараваригача, мансабдор шахсларга эса – йигирма бараваридан ўттиз бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

тўртинчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг беш бараваридан етти бараваригача, мансабдор шахсларга эса – ўттиз бараваридан эллик бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

18) **91-модда**:

биринчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг етти бараваридан ўн бараваригача, мансабдор шахсларга эса – ўн беш бараваридан йигирма беш бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

иккинчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг ўн беш бараваридан йигирма беш бараваригача, мансабдор шахсларга эса – эллик бараваридан етмиш беш бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

19) **91[1]-модда**:

биринчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг уч бараваридан беш бараваригача, мансабдор шахсларга эса – эллик бараваридан юз бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

иккинчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг ўн бараваридан ўн беш бараваригача, мансабдор шахсларга эса – юз бараваридан бир юз эллик бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

учинчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг эллик бараваридан юз бараваригача, мансабдор шахсларга эса – икки юз бараваридан уч юз бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

тўртинчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«маъмурий ҳуқуқбузарликни содир этиш қуроли бўлган ашёни мусодара қилиб, фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг юз бараваридан бир юз эллик бараваригача, мансабдор шахсларга эса – бир юз эллик бараваридан икки юз эллик бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

20) **91^2-модданинг санкцияси** қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг уч бараваридан беш бараваригача, мансабдор шахсларга эса – ўн беш бараваридан ўттиз бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

21) қуйидаги мазмундаги **91^4-модда** билан тўлдирилсин:

«91^4-модда. Чиқиндилар тўплаш майдончаларидан ва уларнинг қўриқланмайдиган (модулли) иншоотларидан қайта ишланадиган тоифага мансуб чиқиндиларни қонунга хилоф равишда тўплаш ва олиб чиқиб кетиш

Чиқиндилар тўплаш майдончаларидан ва уларнинг қўриқланмайдиган (модулли) иншоотларидан қайта ишланадиган тоифага мансуб чиқиндиларни қонунга хилоф равишда тўплаш ва олиб чиқиб кетиш, –

базавий ҳисоблаш миқдорининг бир бараваридан уч бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

22) **96-модда**:

биринчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг беш бараваридан ўн бараваригача, мансабдор шахсларга эса – ўн беш бараваридан ўттиз бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

иккинчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг ўн бараваридан ўттиз бараваригача, мансабдор шахсларга эса – ўттиз бараваридан эллик бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

23) **111-модда**:

биринчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«базавий ҳисоблаш миқдорининг етти бараваридан ўн бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

иккинчи қисмининг санкцияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«базавий ҳисоблаш миқдорининг ўн беш бараваридан йигирма беш бараваригача миқдорда жарима солишга ёки ўн беш суткагача маъмурий қамоққа олишга сабаб бўлади»;

24) **159-модда**:

биринчи қисмининг диспозициясидаги «иккинчи ва учинчи қисмларида» деган сўзлар «иккинчи, учинчи ва тўртинчи қисмларида» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

қуйидаги мазмундаги **тўртинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Кўп квартирали уйга туташ тупроқли ва (ёки) яшил қопламали ер участкасини ўзбошимчалик билан бетонлаштириш, шунингдек ушбу ер участкасига қурилма ёки конструкциялар ўрнатиш, –

фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг эллик бараваригача, мансабдор шахсларга эса – юз баравари миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

тўртинчи қисми бешинчи қисм деб ҳисоблансин;

бешинчи қисми қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Ушбу модданинг учинчи қисмида (тўсиқ конструкцияларга оид қисмида) ва тўртинчи қисмида назарда тутилган ҳуқуқбузарликларни биринчи марта содир этган шахс, агар у кўп квартирали уйдаги тўсиқ конструкцияларнинг амалга оширилган ўзгартирилишини ёки уларни реконструкция қилиш туфайли йўл қўйилган бузилишларни, кўп квартирали уйга туташ ер участкасида ўзбошимчалик билан қурилган иморатларни (иншоотларни), бетонлаштирилган жойларни, ўрнатилган қурилма ёки конструкцияларни, шунингдек уларнинг оқибатларини ихтиёрий равишда бартараф этса, жавобгарликдан озод этилади»;

25) **161-модданинг санкцияси** қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг бир бараваридан уч бараваригача, мансабдор шахсларга эса – беш бараваридан ўн бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

26) **163[1]-модда биринчи қисмининг санкцияси** қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг беш бараваридан ўн бараваригача, мансабдор шахсларга эса – ўттиз бараваридан эллик бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади»;

27) **245-модданинг учинчи қисмидаги** «иккинчи ва учинчи қисмларида, 163, 163[1]-моддаларида» деган сўзлар «иккинчи, учинчи ва тўртинчи қисмларида, 163, 163[1]-моддаларида» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

28) **261-модда**:

биринчи қисмидаги «70-моддасида (бундан ер қаъридан фойдаланишда ишларни олиб бориш хавфсизлиги мустасно), 70[1]-моддасининг биринчи қисмида, 71-моддасида (табиатни муҳофаза қилишга оид қисмида), 72-моддасида (бундан ер ости сувларига доир қисми мустасно), 74-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларида, 75-моддасида (бундан ирригация тармоқларидан олинадиган сувларни ҳисобга олиш мустасно, шунингдек давлат сув кадастрини юритишнинг белгиланган тартибини бузганлик учун), 77-моддасининг биринчи ва иккинчи қисмларида, 78-моддасида, 79-моддасининг биринчи, иккинчи, тўртинчи ва бешинчи қисмларида, 79[1], 80, 81, 82, 83, 84-моддаларида, 85-моддасида (бундан санитария-гигиена қоидаларини бузиш деб ҳисобланувчи, атмосфера ҳавосига зарарли физикавий таъсир кўрсатиш, биологик организмларни атмосфера ҳавосига чиқариб ташлаш мустасно), 85[1], 86, 86[1], 87, 88, 89-моддаларида (бундан атмосфера ҳавосига зарарли физикавий таъсир кўрсатиш мустасно), 89[1]-моддасида, 90-моддасининг биринчи қисмида, 91-моддасида, 91[1]-моддасининг биринчи, иккинчи ва учинчи қисмларида, 91[2], 91[3], 92, 93, 95-моддаларида, 96-моддасида

(давлат экологик экспертизасига оид қисмида), 148-моддасида (бундан ажратилган минтақаларда ва ёғоч кўприклардан 100 метргача бўлган масофада олов ёққанлик, ёғоч кўприклар ва тахта тўшамали кўприкларда чекканлик учун маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишлар мустасно)» деган сўзлар «70-моддасининг биринчи қисмида (бундан ер қаъридан фойдаланишда ишларни олиб бориш хавфсизлиги мустасно), 70^1-моддасининг биринчи қисмида, 71-моддасида (табиатни муҳофаза қилишга оид қисмида), 72-моддасида (бундан ер ости сувларига доир қисми мустасно), 74-моддасининг биринчи, учинчи, тўртинчи ва бешинчи қисмларида, 75-моддасида (бундан ирригация тармоқларидан олинадиган сувларни ҳисобга олиш мустасно, шунингдек давлат сув кадастрини юритишнинг белгиланган тартибини бузганлик учун), 77-моддасининг биринчи ва иккинчи қисмларида, 77^1-моддасида, 78-моддасида, 79-моддасининг биринчи, иккинчи, тўртинчи ва бешинчи қисмларида, 79^1, 80, 81, 82, 83, 84-моддаларида, 85-моддасида (бундан санитария-гигиена қоидаларини бузиш деб ҳисобланувчи, атмосфера ҳавосига зарарли физикавий таъсир кўрсатиш, биологик организмларни атмосфера ҳавосига чиқариб ташлаш мустасно), 85^1, 86, 86^1, 86^2, 87, 88, 89-моддаларида (бундан атмосфера ҳавосига зарарли физикавий таъсир кўрсатиш мустасно), 89^1-моддасида, 90-моддасининг биринчи қисмида, 91-моддасида, 91^1-моддасининг биринчи, иккинчи ва учинчи қисмларида, 91^2, 91^3, 91^4, 92, 93, 95-моддаларида, 96-моддасида (давлат экологик экспертизасига оид қисмида), 148-моддасида (бундан ажратилган минтақаларда ва ёғоч кўприклардан 100 метргача бўлган масофада олов ёққанлик, ёғоч кўприклар ва тахта тўшамали кўприкларда чекканлик учун маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишлар мустасно), 159-моддасининг тўртинчи қисмида (кўп квартирали уйга туташ тупроқли ва (ёки) яшил қопламали ер участкасини ўзбошимчалик билан бетонлаштиришга оид қисмида), 161-моддасида» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

иккинчи қисмининг иккинчи, **учинчи** ва **тўртинчи хатбошилари** қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Ўзбекистон Республикаси Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлигининг Давлат бош экология инспектори ҳамда унинг ўринбосарлари, Қорақалпоғистон Республикаси Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлигининг, вилоятлар ҳамда Тошкент шаҳар экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши бошқармаларининг давлат бош экология инспекторлари ҳамда уларнинг ўринбосарлари – фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг икки юз бараваригача, мансабдор шахсларга эса – уч юз бараваригача миқдорда;

Ўзбекистон Республикаси Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлигининг, Қорақалпоғистон Республикаси Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлигининг, вилоятлар ҳамда Тошкент шаҳар экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши бошқармаларининг давлат катта экология инспекторлари – фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг бир юз эллик бараваригача, мансабдор шахсларга эса – икки юз бараваригача миқдорда;

Ўзбекистон Республикаси Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлигининг, Қорақалпоғистон Республикаси Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлигининг, вилоятлар ҳамда Тошкент шаҳар экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши бошқармаларининг, туман (шаҳар) экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш бўлимларининг давлат экология инспекторлари, давлат қўриқхоналарининг, мажмуа (ландшафт) буюртма қўриқхоналарининг, табиат боғларининг, юридик шахс шаклидаги давлат буюртма қўриқхоналари ва давлат табиий питомникларининг, давлат биосфера резерватларининг қўриқлаш ходимлари, давлат ўрмон хўжаликларининг, давлат ўрмон-ов хўжаликларининг, ихтисослаштирилган давлат ўрмон хўжаликларининг, давлат ўрмон ишлаб чиқариш корхоналарининг давлат инспекторлари ва миллий табиат боғларининг ходимлари – фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг юз бараваригача, мансабдор шахсларга эса – бир юз эллик бараваригача миқдорда жарима солишга»;

29) **261^1-модда** чиқариб ташлансин;

30) **266^4-модданинг биринчи қисмидаги** «159-моддасининг биринчи қисмида (кўп квартирали уйлардаги турар жойларни сақлаш ва улардан фойдаланиш қоидаларини, кўп квартирали уй-жой фондидан техник фойдаланиш қоидалари ва нормаларини бузишга оид қисмида), иккинчи ва учинчи қисмларида» деган сўзлар «159-моддасининг биринчи қисмида (кўп квартирали уйлардаги турар жойларни сақлаш ва улардан фойдаланиш қоидаларини, кўп квартирали уй-жой фондидан техник фойдаланиш қоидалари ва нормаларини бузишга оид қисмида), иккинчи, учинчи ва тўртинчи қисмларида (кўп квартирали уйга туташ тупроқли ва (ёки) яшил қопламали ер участкасида ўзбошимчалик билан қурилма ва конструкцияларни ўрнатишга оид қисмида)» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

31) **287-модданинг**:

5-бандидаги «70^1, 77, 79, 81, 82, 83, 84, 90, 90^1, 91» рақамлари «70-моддасининг биринчи қисмида, 70^1, 77, 79, 81, 82, 83, 84, 90, 90^1, 91, 91^1» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

5^1-банди чиқариб ташлансин;

32) **289-модданинг учинчи қисмидаги** «Ўзбекистон Республикаси Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш давлат қўмитаси органларининг, Ўзбекистон Республикаси Ўрмон хўжалиги давлат қўмитаси органларининг» деган сўзлар «Ўзбекистон Республикаси Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги органларининг» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

33) **290-модданинг еттинчи қисмидаги** «Ўзбекистон Республикаси Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш давлат қўмитаси» деган сўзлар «Ўзбекистон Республикаси Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

34) **291-модда биринчи қисмининг**:

«**в**» **банди** қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«в) ушбу Кодекснинг 60-моддасида, 70-моддасининг биринчи қисмида, 70^1, 78, 79, 81, 82, 84, 90, 90^1, 91, 91^1, 92, 94-моддаларида назарда тутилган маъмурий ҳуқуқбузарликлар содир этилганда – Ўзбекистон Республикаси Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги органларининг мансабдор шахслари томонидан»;

«**в[1]**» **банди** чиқариб ташлансин.

4-модда. Ўзбекистон Республикасининг 1996 йил 27 декабрда қабул қилинган **«Атмосфера ҳавосини муҳофаза қилиш тўғрисида»**ги 353–I-сонли Қонунига (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 йил, № 2, 52-модда; 2003 йил, № 9–10, 149-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2006 йил, № 10, 536-модда; 2013 йил, № 4, 98-модда; 2017 йил, № 9, 510-модда; 2019 йил, № 3, 164-модда; 2020 йил, № 9, 539-модда; 2021 йил, 4-сонга илова; 2024 йил, № 2, 104-модда) қуйидаги қўшимча ва ўзгартиришлар киритилсин:

1) **24-модда**:

қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Атроф-муҳитга таъсир кўрсатишнинг I ва II тоифаларига мансуб фаолият турлари билан шуғулланувчи юридик шахслар атмосфера ҳавосига ифлослантирувчи моддаларни чиқарувчи устувор манбаларни автоматик станциялар билан жиҳозлаши, уларни Атроф-муҳит давлат мониторинги тизимининг ягона геоахборот маълумотлар базасига интеграция қилиши ҳамда ушбу базага маълумотларнинг тўғри, тўлиқ ва ўз вақтида киритилишини таъминлаши шарт»;

иккинчи қисми учинчи қисм деб ҳисоблансин;

2) **25-модданинг иккинчи қисмидаги** «ва биологик организмларни чиқарганлик» деган сўзлар «биологик организмларни ва иссиқхона газларини чиқарганлик» деган сўзлар билан алмаштирилсин.

5-модда. Ўзбекистон Республикасининг 2002 йил 5 апрелда қабул қилинган **«Чиқиндилар тўғрисида»**ги 362–II-сонли Қонунига (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2002 йил, № 4–5, 72-модда; 2003 йил, № 5, 67-модда, № 9–10, 149-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2007 йил, № 12, 604-модда; 2011 йил, № 1, 1-модда, № 9, 247-модда; 2017 йил, № 9, 510-модда; 2018 йил, № 4, 40-модда, № 10, 671-модда; 2019 йил, № 9, 591-модда, № 11, 792-модда; 2021 йил, 4-сонга илова; 2023 йил, № 12, 891-модда) қуйидаги қўшимча ва ўзгартиришлар киритилсин:

1) **13-модданинг иккинчи қисми**:

қуйидаги мазмундаги **учинчи хатбоши** билан тўлдирилсин:

«белгиланмаган жойга ташлаган чиқиндисини олиб чиқиб кетиши ёки қонунчиликда белгиланган тартибда чиқиндиларни олиб чиқиб кетиш билан боғлиқ харажатларнинг ўрнини қоплаб бериши»;

учинчи хатбошиси тўртинчи хатбоши деб ҳисоблансин;

2) **15-модданинг биринчи қисми**:

қуйидаги мазмундаги **ўн тўққизинчи хатбоши** билан тўлдирилсин:

«белгиланмаган жойга ташлаб кетган чиқиндисини олиб чиқиб кетиши ёки қонунчиликда белгиланган тартибда чиқиндиларни олиб чиқиб кетиш билан боғлиқ харажатларнинг ўрнини қоплаб бериши»;

ўн тўққизинчи хатбошиси йигирманчи хатбоши деб ҳисоблансин.

6-модда. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 14 июлда қабул қилинган **«Лицензиялаш, рухсат бериш ва хабардор қилиш тартиб-таомиллари тўғрисида»**ги ЎРҚ–701-сонли Қонунига (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2021 йил, № 7, 661-модда; 2022 йил, № 4, 340-модда, № 5, 465-модда; 2023 йил, № 2, 103-модда, № 3, 185-модда, № 7, 533-модда, № 9, 710-модда, № 11, 921, 923-моддалар; 2024 йил, № 1, 5, 7-моддалар, № 2, 105, 112-моддалар, № 7, 628-модда, № 8, 819-модда, № 9, 957, 958-моддалар; 2025 йил, № 1, 3, 6-моддалар, № 2, 189, 197-моддалар, № 3, 376-модда, № 4, 519, 520, 521-моддалар, № 5, 644, 645-моддалар) қуйидаги ўзгартиришлар киритилсин:

1) **2-илованинг 71** ва **72-позициялари** қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«

71.	Давлат ўрмон фондига кирмайдиган дарахтлар ва буталарни кесиш ва (ёки) кўчириб ўтқазиш учун рухсатнома	Давлат ўрмон фондига кирмайдиган дарахтлар ва буталарни кесиш ва (ёки) кўчириб ўтқазиш	Ўзбекистон Республикаси Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги
72.	Ўсимлик дунёси объектларидан махсус фойдаланиш учун рухсатнома	Ўсимлик дунёси объектларидан махсус фойдаланиш	Ўзбекистон Республикаси Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги, Ўрмон ва яшил ҳудудларни кўпайтириш, чўлланишга қарши курашиш агентлиги

»;

2) **4-илова II бўлимининг 62-позицияси** қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«

62.	Давлат ўрмон фондига кирмайдиган дарахтлар ва буталарни кесиш ва (ёки) кўчириб ўтқазиш учун рухсатнома	100

».

7-модда. Ўзбекистон Республикаси Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги ҳамда бошқа манфаатдор ташкилотлар ушбу Қонуннинг ижросини, ижрочиларга етказилишини ҳамда моҳияти ва аҳамияти аҳоли ўртасида тушунтирилишини таъминласин.

8-модда. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси:

ҳукумат қарорларини ушбу Қонунга мувофиқлаштирсин;

республика ижро этувчи ҳокимият органлари ушбу Қонунга зид бўлган ўз норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини қайта кўриб чиқишлари ва бекор қилишларини таъминласин.

9-модда. Ушбу Қонун расмий эълон қилинган кундан эътиборан уч ой ўтгач кучга киради.

Ушбу Қонун 1-моддасининг 1, 3 ва 4-бандлари, 3-моддасининг 15-банди, 28-банди олтинчи хатбошиси, 4-моддасининг 1-банди 2026 йил 1 июлдан эътиборан амалга киритилади.

Ўзбекистон Республикасининг Президенти **Ш. Мирзиёев**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI
KANSELYARIYA
1

Тошкент шаҳри,
2026 йил 25 март
№ ЎРҚ–1124

QMMB: 03/26/1125/0278-son
27.03.2026-y.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING
QONUNI

«Шахсга доир маълумотлар тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиришлар ва қўшимча киритиш ҳақида

Қонунчилик палатаси томонидан 2026 йил 20 январда қабул қилинган
Сенат томонидан 2026 йил 5 февралда маъқулланган

Кейинги йилларда мамлакатимизда замонавий рақамли иқтисодиётни ривожлантиришга ҳамда шахсга доир маълумотларни ҳимоя қилиш соҳасини янада такомиллаштиришга қаратилган кенг кўламли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Шу билан бирга шахсга доир маълумотларни сақлаш ва уларга ишлов беришнинг алоҳида шартларини, шахсга доир маълумотлар базаларини рўйхатдан ўтказиш тартибига оид нормаларни янада такомиллаштириш зарурияти юзага келмоқда.

Мазкур Қонун билан «Шахсга доир маълумотлар тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига Ўзбекистон Республикаси ҳудудида сақланиши лозим бўлган шахсга доир маълумотларнинг рўйхатини аниқлаштирувчи, ушбу маълумотлар базалари Шахсга доир маълумотлар базаларининг давлат реестрида рўйхатдан ўтказилиши лозимлигини, шунингдек шахсга доир маълумотларнинг Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан ташқарида сақланишига ҳамда уларга ишлов берилишига оид шартларни белгиловчи ўзгартиришлар ва қўшимча киритилмоқда.

Ушбу Қонун шахсга доир маълумотларнинг самарали ҳимоя қилинишини таъминлашга хизмат қилади.

1-модда. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 2 июлда қабул қилинган **«Шахсга доир маълумотлар тўғрисида»**ги ЎРҚ–547-сонли Қонунига (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2019 йил, № 7, 385-модда; 2021 йил, № 1, 13-модда, 4-сонга илова; 2023 йил, № 11, 923-модда) қуйидаги ўзгартиришлар ва қўшимча киритилсин:

QMMB: 03/26/1125/0278-son
27.03.2026-y.

1) **3-модда иккинчи қисмининг**:

иккинчи хатбошиси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«жисмоний шахс томонидан шахсга доир маълумотларга шахсий ва маиший мақсадларда ишлов бериш»;

тўртинчи хатбошиси «давлат сирларини ташкил этадиган маълумотлар» деган сўзлардан кейин «ҳамда мудофаа ва миллий хавфсизлик масалаларига тааллуқли маълумотлар» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

2) **20-модданинг биринчи қисми** қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Ушбу Қонун 27^1-моддасининг иккинчи қисмига мувофиқ Ўзбекистон Республикаси ҳудудида сақланиши шарт бўлган шахсга доир маълумотлар базалари Шахсга доир маълумотлар базаларининг давлат реестрида рўйхатдан ўтказилиши лозим»;

3) **27^1-модда** қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«27^1-модда. Шахсга доир маълумотларни сақлаш ва уларга ишлов беришнинг алоҳида шартлари

Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг шахсга доир маълумотлари ушбу Қонуннинг асосий принциплари таъминланган ҳолда сақланиши лозим.

Қуйидаги шахсга доир маълумотлар Ўзбекистон Республикаси ҳудудида сақланиши шарт:

жисмоний шахсларнинг биометрик маълумотлари;

жисмоний шахсларнинг генетик маълумотлари;

Ўзбекистон Республикаси ҳудудида ўз фаолиятини амалга ошираётган телекоммуникациялар операторларидаги уларнинг хизматларидан фойдаланувчи жисмоний шахсларнинг маълумотлари.

Ушбу модданинг иккинчи қисмида назарда тутилмаган шахсга доир маълумотлар қуйидаги шартлардан бири бажарилган тақдирда, Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан ташқарида сақланиши ва уларга ишлов берилиши мумкин:

чет давлатни шахсга доир маълумотларнинг бир хил ҳимоя қилинишини таъминловчи давлат сифатида тан олиш;

оператор томонидан ваколатли давлат органи тасдиқлайдиган талабларга жавоб берувчи стандарт шартномавий шартлар ёки мажбурий корпоратив қоидалар қабул қилиниши ва уларга риоя этилиши;

рўйхати ваколатли давлат органи томонидан тасдиқланадиган шахсга доир маълумотларни бошқариш ва сақлаш соҳасидаги халқаро стандартларга оператор томонидан риоя этилиши.

Шахсга доир маълумотлар бир хил ҳимоя қилинишини таъминловчи чет давлатлар рўйхати Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади».

2-модда. Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги ва бошқа манфаатдор ташкилотлар ушбу Қонуннинг ижросини, ижрочиларга етказилишини ҳамда моҳияти ва аҳамияти аҳоли ўртасида тушунтирилишини таъминласин.

QMMB: 03/26/1125/0278-son
27.03.2026-y.

3-модда. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси:

ҳукумат қарорларини ушбу Қонунга мувофиқлаштирсин;

республика ижро этувчи ҳокимият органлари ушбу Қонунга зид бўлган ўз норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини қайта кўриб чиқишлари ва бекор қилишларини таъминласин.

4-модда. Ушбу Қонун расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

Ўзбекистон Республикасининг Президенти **Ш. Мирзиёев**

Тошкент шаҳри,
2026 йил 26 март
№ ЎРҚ–1125

QMMB: 03/26/1126/0279-son
28.03.2026-y.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING
QONUNI

Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига Ўзбекистонда исломий банк фаолиятини жорий этишга қаратилган қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш тўғрисида

Қонунчилик палатаси томонидан 2025 йил 11 ноябрда қабул қилинган
Сенат томонидан 2026 йил 5 февралда маъқулланган

Кейинги йилларда мамлакатимизда замонавий банк хизматларини жорий этишга ва халқаро тажрибани инобатга олган ҳолда банк тизимини ривожлантиришга қаратилган кенг кўламли ишлар олиб борилмоқда.

Шу билан бирга молиявий хизматлар қамровини кенгайтириш ва халқаро исломий молия стандартларига мувофиқ янги турдаги банк хизматларини жорий этиш зарурияти юзага келмоқда.

Ушбу Қонун билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига исломий банк фаолиятини амалга оширишнинг ҳуқуқий асосларини белгиловчи қўшимча ва ўзгартиришлар киритилмоқда.

Мазкур Қонун мамлакатимизда исломий банк хизматларини босқичма-босқич жорий этишга, яширин иқтисодиёт улушини камайтиришга ва исломий банк фаолиятини ривожлантириш учун йўналтирилган хорижий инвестицияларни жалб этишга хизмат қилади.

1-модда. Ўзбекистон Республикасининг 1995 йил 21 декабрда қабул қилинган **«Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки тўғрисида»**ги 154–I-сонли Қонунига (Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 11 ноябрда қабул қилинган ЎРҚ–582-сонли Қонуни таҳририда) (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2019 йил, № 11, 790-модда; 2021 йил, 4-сонга илова, № 10, 968-модда; 2022 йил, № 3, 217-модда, № 4, 340-модда; 2023 йил, № 11, 923-модда; 2024 йил, № 9, 965-модда; 2025 йил, № 2, 189, 194-моддалар, № 4, 519, 520-моддалар, № 6, 730-модда) қуйидаги қўшимча ва ўзгартиришлар киритилсин:

1) **20-модда**:

қуйидаги мазмундаги **бешинчи хатбоши** билан тўлдирилсин:

«кредит ташкилотлари учун исломий молия стандартларини тасдиқлайди»;

QMMB: 03/26/1126/0279-son
28.03.2026-y.

бешинчи – ўттиз биринчи хатбошилари тегишинча **олтинчи – ўттиз иккинчи хатбошилар** деб ҳисоблансин;

ўн иккинчи хатбошиси «банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи» деган сўзлардан кейин «ва исломий банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

қуйидаги мазмундаги **йигирманчи хатбоши** билан тўлдирилсин:

«Марказий банкда Исломий молия фаолияти билан боғлиқ масалаларни мувофиқлаштирувчи Марказий банкнинг исломий молия кенгашини (бундан буён матнда Марказий банкнинг исломий молия кенгаши деб юритилади) ташкил этиш ва тугатиш тўғрисида қарорлар қабул қилади, шунингдек унинг фаолиятига доир талабларни белгилайди»;

йигирманчи – ўттиз иккинчи хатбошилари тегишинча **йигирма биринчи – ўттиз учинчи хатбошилар** деб ҳисоблансин;

2) **31-модданинг иккинчи қисми** «Марказий банк томонидан белгиланган бошқа воситаларни» деган сўзлардан кейин «шу жумладан исломий молия стандартларига мувофиқ бўлган воситаларни (бундан буён матнда исломий молия воситалари деб юритилади)» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

3) **33-модда** қуйидаги мазмундаги **тўртинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Марказий банк исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банкларнинг ликвидлилигини фавқулодда қўллаб-қувватлаш учун исломий молия воситаларидан фойдаланишга ҳақли»;

4) **60-модда биринчи қисмининг йигирма иккинчи хатбошиси** «банкнинг молиявий операциялари бўйича фоизларни» деган сўзлардан кейин «ҳамда исломий молия операциялари бўйича устама ва (ёки) фойдадан олинадиган улуш миқдорини» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

5) **61-модданинг биринчи қисми**:

қуйидаги мазмундаги **тўққизинчи хатбоши** билан тўлдирилсин:

«исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банкларда исломий молия стандартларига мувофиқ бўлган бошқарув тизимини ташкил этишга доир талабларни»;

тўққизинчи – ўн бешинчи хатбошилари тегишинча **ўнинчи – ўн олтинчи хатбошилар** деб ҳисоблансин;

ўн олтинчи хатбошиси «муҳим аҳамиятга эга ходимларини» деган сўзлардан кейин «ҳамда исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банкларнинг исломий молия масалаларини мувофиқлаштирувчи исломий молия кенгаши (бундан буён матнда банкнинг исломий молия кенгаши деб юритилади) аъзоларини» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

6) **67-модданинг биринчи қисмидаги** «бошқаруви аъзоларига, шунингдек банкларнинг муҳим аҳамиятга эга ходимларига» деган сўзлар «бошқаруви аъзоларига, банкларнинг муҳим аҳамиятга эга ходимларига, шунингдек банкларнинг исломий молия кенгаши аъзоларига» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

QMMB: 03/26/1126/0279-son
28.03.2026-y.

7) **67^2-модданинг иккинчи қисми** «уч ойгача бўлган муддатга кредит бериши» деган сўзлардан кейин «ёки исломий молия воситаларини қўллаши» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

8) қуйидаги мазмундаги **10^1-боб** билан тўлдирилсин:

«**10^1-боб. Марказий банкнинг исломий молия кенгаши**

67^3-модда. Марказий банк исломий молия кенгашининг фаолияти

Марказий банкда беш нафар аъзодан иборат бўлган Марказий банкнинг исломий молия кенгаши ташкил этилади.

Марказий банкнинг исломий молия кенгаши Марказий банк назорат қилиши керак бўлган шахслар томонидан амалга ошириладиган исломий молия фаолиятини мувофиқлаштирувчи коллегиал орган ҳисобланади.

Марказий банк исломий молия кенгашининг фаолияти Марказий банк бошқаруви томонидан тасдиқланган низом асосида амалга оширилади.

Марказий банк исломий молия кенгашининг аъзолари Марказий банк бошқаруви томонидан тайинланади.

Марказий банк исломий молия кенгашининг ваколатлари ва фаолияти регламенти, унинг ҳуқуқий мақоми, шунингдек ушбу Кенгаш аъзоларига нисбатан талаблар Марказий банк бошқаруви томонидан белгиланади.

67^4-модда. Марказий банк исломий молия кенгашининг вазифалари

Марказий банкнинг исломий молия кенгаши:

исломий молия стандартларини ишлаб чиқади;

исломий молия фаолияти бўйича норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини ишлаб чиқишда Марказий банкка кўмаклашади;

исломий молия соҳасига оид баҳс-мунозараларга сабаб бўлувчи масалалар юзасидан тушунтиришлар ва изоҳлар беради;

исломий молия фаолияти билан боғлиқ низолар бўйича хулосалар беради.

Марказий банкнинг исломий молия кенгаши Марказий банк томонидан тасдиқланган низомга мувофиқ бошқа вазифаларни ҳам бажариши мумкин».

2-модда. Ўзбекистон Республикасининг 1995 йил 21 декабрда қабул қилинган 163–I-сонли ва 1996 йил 29 августда қабул қилинган 256–I-сонли қонунлари билан тасдиқланган **Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодексига** (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1996 йил, 2-сонга илова, № 11–12; 1997 йил, № 2, 56-модда, № 9, 241-модда;

QMMB: 03/26/1126/0279-son
28.03.2026-y.

1998 йил, № 5–6, 102-модда; 1999 йил, № 1, 20-модда, № 9, 229-модда; 2001 йил, № 1–2, 23-модда, № 9–10, 182-модда; 2002 йил, № 1, 20-модда, № 9, 165-модда; 2003 йил, № 1, 8-модда, № 5, 67-модда; 2004 йил, № 1–2, 18-модда, № 5, 90-модда, № 9, 171-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2006 йил, № 4, 154-модда, № 9, 494, 498-моддалар; 2007 йил, № 1, 3, 5-моддалар, № 4, 156, 164-моддалар, № 8, 367-модда, № 9, 416-модда, № 12, 598, 608-моддалар; 2008 йил, № 4, 192-модда, № 12, 640-модда; 2009 йил, № 9, 337-модда; 2010 йил, № 9, 335, 337, 340-моддалар; 2011 йил, № 12/2, 363, 364, 365-моддалар; 2012 йил, № 4, 106, 109-моддалар, № 12, 336-модда; 2013 йил, № 10, 263-модда; 2014 йил, № 5, 130-модда, № 12, 343-модда; 2015 йил, № 8, 310, 312-моддалар; 2016 йил, № 4, 125-модда; 2017 йил, № 4, 137-модда, № 9, 510-модда, № 12, 773-модда; 2018 йил, № 1, 4-модда, № 4, 224-модда, № 7, 433-модда, № 10, 673-модда; 2019 йил, № 3, 161, 166-моддалар, № 5, 267-модда, № 10, 671-модда, № 12, 880, 886-моддалар; 2020 йил, № 1, 3, 4-моддалар, № 10, 593-модда; 2021 йил, 4-сонга илова, № 8, 801-модда, № 10, 968-модда; 2022 йил, № 2, 79-модда, № 3, 217, 218-моддалар, № 4, 340-модда, № 5, 464-модда, № 6, 570, 577-моддалар, № 11, 1061, 1062-моддалар; 2023 йил, № 10, 795-модда, № 11, 921-модда; 2024 йил, № 2, 111, 114-моддалар, № 6, 530-модда, № 9, 960-модда, № 11, 1193-модда; 2025 йил, № 2, 188, 194-моддалар, № 3, 370-модда, № 4, 519, 520, 522-моддалар, № 6, 730-модда, № 8, 968-модда, № 10, 1152-модда) қуйидаги қўшимча ва ўзгартиришлар киритилсин:

1) **312-модда иккинчи қисмининг иккинчи жумласи** «закалат олган тараф жавобгар бўлса» деган сўзлардан кейин «қонунчиликда бошқача қоида белгиланган бўлмаса» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

2) **759-модданинг биринчи қисми** қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Банк омонати шартномаси бўйича биринчи тарафдан (омонатчидан) қабул қилиб олган ёки унинг номига келган пул суммасини (омонатни) қабул қилиб олган иккинчи тараф (банк) шартномада назарда тутилган шартлар асосида ва тартибда омонат суммасини фоизлар ёхуд бошқа даромадлар билан ёки уларсиз қайтариш мажбуриятини олади, бундан қонунда назарда тутилган ҳоллар мустасно»;

3) **762-модданинг олтинчи қисми** «омонат юзасидан фоизлар» деган сўзлардан кейин «ёхуд бошқа даромадлар» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

4) **763-модданинг**:

номи қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«**763-модда. Омонатга тўланадиган фоизлар ва (ёки) бошқа даромадлар**»;

биринчи қисми «миқдорда фоизлар» деган сўзлардан кейин «ва (ёки) бошқа даромадлар» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

QMMB: 03/26/1126/0279-son
28.03.2026-y.

учинчи қисми «тўланадиган фоизлар» деган сўзлардан кейин «ва (ёки) бошқа даромадлар» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

тўртинчи қисми қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Банк фоизлар ва (ёки) бошқа даромадлар миқдорини камайтирган тақдирда, уларнинг янги миқдори улар камайтирилганлиги ҳақида омонатчиларга хабар берилганидан кейин қўйилган омонатларга нисбатан қўлланилади. Агар банк омонати шартномасида бошқа муддат назарда тутилган бўлмаса, ушбу хабарга қадар қўйилган омонатларга нисбатан камайтирилган фоизлар ва (ёки) бошқа даромадлар миқдори тегишли хабар берилган пайтдан бир ой ўтганидан кейин қўлланилади»;

бешинчи қисми «белгиланган фоизлар» деган сўзлардан кейин «ва (ёки) бошқа даромадлар» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

5) **859-модданинг биринчи қисми** «ишончли бошқарувчи фойда олувчига» деган сўзлардан кейин «қонунчиликда бошқача қоида белгиланган бўлмаса» деган сўзлар билан тўлдирилсин.

3-модда. Ўзбекистон Республикасининг 1996 йил 25 апрелда қабул қилинган **«Банклар ва банк фаолияти тўғрисида»**ги 216–I-сонли Қонунига (Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 5 ноябрда қабул қилинган ЎРҚ–580-сонли Қонуни таҳририда) (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2019 йил, № 11, 788-модда; 2020 йил, № 1, 1-модда; 2021 йил, 4-сонга илова, № 10, 968-модда; 2023 йил, № 4, 267-модда, № 11, 923-модда; 2024 йил, № 2, 105, 111-моддалар, № 9, 965-модда; 2025 йил, № 2, 189, 194-моддалар, № 4, 520-модда, № 6, 730-модда) қуйидаги ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсин:

1) **3-модда**:

учинчи хатбошиси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«**банк** – банк ҳисобварақларини очиш ва юритиш, тўловларни амалга ошириш, омонатларга (депозитларга) пул маблағларини жалб этиш, ўз номидан кредитлар (қарзлар) бериш бўйича банк фаолияти сифатида аниқланган операциялар мажмуини амалга оширувчи тижорат ташкилоти бўлган юридик шахс. Агар ушбу Қонунда бошқача қоида назарда тутилмаган бўлса, ушбу Қонуннинг банкларга нисбатан белгиланган қоидалари исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банкларга нисбатан ҳам татбиқ этилади»;

қуйидаги мазмундаги **саккизинчи** ва **тўққизинчи хатбошилар** билан тўлдирилсин:

«**исломий банк фаолияти** – банклар ва банк фаолияти тўғрисидаги қонунчиликка ҳамда исломий молия стандартларига мувофиқ амалга ошириладиган банк фаолияти;

исломий молия стандартлари – исломий молиялаштиришни амалга ошириш стандартларини белгиловчи халқаро ташкилотларнинг қоидаларига ҳамда миллий қонунчиликка мувофиқ Марказий банк ва (ёки) бошқа ваколатли орган томонидан қабул қилинган исломий молияга оид қоидалар тўплами»;

QMMB: 03/26/1126/0279-son
28.03.2026-y.

саккизинчи – ўн олтинчи хатбошилари тегишинча **ўнинчи – ўн саккизинчи хатбошилар** деб ҳисоблансин;

ўнинчи хатбошисининг иккинчи жумласи «микромолия банкларига» деган сўзлардан кейин «ва исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банкларига» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

2) **5-модданинг биринчи қисми**:

бешинчи хатбошисидаги «фоизлилиги» деган сўз «тўловлилиги» деган сўз билан алмаштирилсин;

қуйидаги мазмундаги **йигирма учинчи хатбоши** билан тўлдирилсин:

«исломий молия операцияларини амалга ошириш»;

3) қуйидаги мазмундаги **5^1** ва **5^2-моддалар** билан тўлдирилсин:

«**5^1-модда. Банкнинг исломий молия операциялари**

Банкнинг исломий молия операциялари жумласига қуйидагилар киради:

фойдани тақсимлаш шарти асосида мижозни молиялаштириш ёки пул маблағларини инвестициявий омонатларга жалб этиш;

вакиллик шартномаси орқали пул маблағларини бериш ёки инвестициявий омонатларга жалб этиш;

товарни насияга сотиш орқали мижозни молиялаштириш;

товарлар учун олдиндан ҳақ тўлаш орқали мижозни молиялаштириш;

биргаликдаги фаолиятни (шерикчилик) амалга ошириш ёки юридик шахсларнинг устав капиталида иштирок этиш орқали мижозни молиялаштириш;

мол-мулкни исломий ижарага бериш (сотиб олиш ҳуқуқи билан).

Исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банклар умумқабул қилинган халқаро банк амалиётига мувофиқ Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига зид бўлмаган бошқа исломий молия операцияларини ҳам амалга ошириши мумкин.

Ушбу модданинг биринчи ва иккинчи қисмларида назарда тутилган исломий молия операциялари исломий молия стандартларига мувофиқ амалга оширилиши шарт.

5^2-модда. Банк фаолиятини амалга ошириш

Ўзбекистон Республикасида банк фаолиятини амалга оширишга ушбу Қонунда белгиланган тартибда ташкил этилган ва Марказий банк томонидан бериладиган тегишли лицензияга эга бўлган юридик шахслар ҳақлидир.

Ўзбекистон Республикасида банк фаолияти банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензия ва (ёки) исломий банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензия (бундан буён матнда банк фаолиятига доир тегишли лицензия (лицензиялар) деб юритилади) асосида амалга оширилади. Мазкур лицензиялар амал қилиш муддати чекланмаган

QMMB: 03/26/1126/0279-son
28.03.2026-y.

ҳолда берилади ва лицензияларни ёки уларга доир ҳуқуқларни бошқа шахсларга ўтказиш тақиқланади.

Ушбу Қонун 5-моддаси:

биринчи қисмининг иккинчи – йигирма иккинчи хатбошиларида кўрсатилган молиявий операциялар мажмуини фақат банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензияга эга бўлган банк;

биринчи қисмининг иккинчи, учинчи ва тўртинчи, олтинчи – ўн учинчи, ўн бешинчи – йигирма учинчи хатбошиларида кўрсатилган молиявий операциялар мажмуини фақат исломий банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензияга эга бўлган банк;

биринчи қисмида кўрсатилган молиявий операциялар мажмуини банк фаолиятига доир тегишли лицензияга (лицензияларга) эга бўлган банк амалга оширишга ҳақли.

Банк фаолиятига доир тегишли лицензиясиз (лицензияларсиз) амалга ошириладиган банк фаолияти ғайриқонуний деб ҳисобланади ва жавобгарликка сабаб бўлади. Бундай фаолият натижасида олинган даромад Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджетига олиб қўйилади.

Амалга оширилиши учун қонунчиликка мувофиқ алоҳида лицензиялар ёки рухсатномалар олиниши талаб этиладиган фаолият банклар томонидан тегишли ҳужжатлар олинганидан кейин амалга оширилади»;

4) **6-модда биринчи қисмининг иккинчи хатбошиси** «бундан исломий молия стандартларига мувофиқ омонат (депозит) суммасини тўлиқ қайтариш мажбуриятини назарда тутмаган ҳолда ушбу Қонун 5^1-моддаси биринчи қисмининг иккинчи ва учинчи хатбошиларида кўрсатилган молия операциялари асосида жалб этилган пул маблағлари (инвестициявий омонатлар (депозитлар) мустасно» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

5) **7-модда**:

учинчи қисмининг тўртинчи хатбошиси «кредитларнинг кредит портфелидаги» деган сўзлардан кейин «ва (ёки) кўрсатилган исломий молия операцияларининг молиялаштириш портфелидаги» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

қуйидаги мазмундаги **ўнинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ушбу модданинг биринчи қисмидаги бевосита савдо фаолиятини амалга оширишга оид ҳамда тўртинчи қисмидаги юридик шахсларни ташкил этишга ва (ёки) юридик шахсларнинг устав фондларидаги (устав капиталларидаги) улушларни ёки акцияларни олишга оид чекловлар, агар бундай фаолият ва операциялар исломий молия операциялари сифатида амалга оширилса, исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банкларга нисбатан татбиқ этилмайди»;

6) **11-модда**:

иккинчи қисмидаги «Банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензияга» деган сўзлар «Банк фаолиятига доир тегишли лицензияга (лицензияларга)» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

қуйидаги мазмундаги **учинчи** ва **тўртинчи қисмлар** билан тўлдирилсин:

QMMB: 03/26/1126/0279-son
28.03.2026-y.

«Исломий банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензияга эга бўлган банклар ўзининг фирма номида ёхуд хизмат кўрсатиш белгисида «исломий» атамасидан ёки мазкур атама қўшиб ясалган сўз бирикмаларидан фойдаланиш ҳуқуқига эга, бундан бир вақтнинг ўзида исломий банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензияга ва банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензияга эга бўлган банклар мустасно.

Банк фаолиятига доир тегишли лицензияга (лицензияларга) эга бўлмаган юридик шахслар ўзининг фирма номида ёхуд хизмат кўрсатиш белгисида «банк» атамасидан ёки мазкур атама қўшиб ясалган сўз бирикмаларидан, шу жумладан исломий банк фаолиятини амалга оширишни англатувчи сўздан, сўз бирикмаларидан фойдаланишга ҳақли эмас»;

7) **14-модда**:

қуйидаги мазмундаги **тўртинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банкнинг уставида ушбу модданинг иккинчи ва учинчи қисмларида назарда тутилганидан ташқари қуйидагилар қўшимча равишда кўрсатилиши керак:

исломий молия операцияларини амалга ошириш;

исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банкнинг исломий молия масалаларини мувофиқлаштирувчи исломий молия кенгаши (бундан буён матнда банкнинг исломий молия кенгаши деб юритилади) аъзоларининг сони, уларнинг ваколатлари ва вазифалари;

банкнинг исломий молия кенгашини ташкил этиш тартиби ва унинг аъзоларига нисбатан қўйиладиган талаблар»;

тўртинчи ва **бешинчи қисмлари** тегишинча **бешинчи** ва **олтинчи қисмлар** деб ҳисоблансин;

8) **15-модданинг**:

учинчи – олтинчи қисмлари чиқариб ташлансин;

еттинчи, **саккизинчи** ва **тўққизинчи қисмлари** тегишинча **учинчи**, **тўртинчи** ва **бешинчи қисмлар** деб ҳисоблансин;

тўртинчи қисми чиқариб ташлансин;

бешинчи қисми тўртинчи қисм деб ҳисоблансин;

9) **16-модда**:

биринчи қисмининг ўн тўртинчи хатбошиси «банкнинг кредит» деган сўзлардан кейин «(молиялаштириш)» деган сўз билан тўлдирилсин;

қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банкни ташкил этишга доир дастлабки рухсатномани олиш учун ариза берувчи ушбу модданинг биринчи қисмида назарда тутилган ҳужжатларга қўшимча равишда қуйидагиларни тақдим этади:

банкнинг исломий молия кенгаши, исломий молия масалалари бўйича махсус бўлинмаси ва исломий молия бўйича ички аудити тўғрисидаги низомлари лойиҳаларини;

исломий молия стандартларига мувофиқлик сиёсати лойиҳасини;

QMMB: 03/26/1126/0279-son
28.03.2026-y.

банкнинг исломий молия кенгаши аъзолари тўғрисидаги ҳамда исломий молия кенгаши аъзоларининг ушбу Қонун 36-моддасининг талабларига мувофиқлигини баҳолаш учун зарур бўлган ахборотни»;

иккинчи – ўнинчи қисмлари тегишинча **учинчи – ўн биринчи қисмлар** деб ҳисоблансин;

бешинчи қисмидаги «биринчи қисмида» деган сўзлар «биринчи ва (ёки) иккинчи қисмларида» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

олтинчи қисмининг иккинчи жумласидаги «олтинчи қисмида» деган сўзлар «еттинчи қисмида» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

еттинчи қисмидаги «биринчи қисмида» деган сўзлар «биринчи ва иккинчи қисмларида» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

саккизинчи қисмидаги «олтинчи қисмига» деган сўзлар «еттинчи қисмига» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

ўн биринчи қисмининг тўртинчи хатбошиси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«илгари баҳолашдан ўтган ва ушбу Қонуннинг 36-моддаси талабларига жавоб берган банкнинг кузатув кенгаши, бошқаруви аъзолари ва (ёки) банкнинг исломий молия кенгаши аъзоларидан бири эндиликда ушбу модда талабларига мувофиқ бўлмаганда, шунингдек банк кузатув кенгаши, бошқаруви ва (ёки) банк исломий молия кенгашининг янги тайинланган аъзолари тўғрисида ахборот тақдим этилмаганда»;

10) **19-модданинг**:

биринчи қисми:

қуйидаги мазмундаги **олтинчи хатбоши** билан тўлдирилсин:

«ташкил этиладиган банк исломий молия кенгашининг аъзолари Марказий банкнинг малака талабларига мувофиқ эмаслиги»;

олтинчи хатбошиси еттинчи хатбоши деб ҳисоблансин;

еттинчи хатбошисидаги «олтинчи қисмига» деган сўзлар «еттинчи қисмига» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

бешинчи қисмидаги «саккизинчи қисмида» деган сўзлар «тўққизинчи қисмида» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

11) **20-модданинг**:

номи қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«**20-модда. Банкни давлат рўйхатига олиш ва банк фаолиятига доир тегишли лицензия (лицензиялар) бериш**»;

биринчи қисми:

биринчи хатбошисидаги «лицензия олиш» деган сўзлар «банк фаолиятига доир тегишли лицензия (лицензиялар) олиш» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

иккинчи хатбошисидаги «лицензия бериш» деган сўзлар «банк фаолиятига доир тегишли лицензия (лицензиялар) бериш» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

QMMB: 03/26/1126/0279-son
28.03.2026-y.

қуйидаги мазмундаги **олтинчи** ва **еттинчи хатбошилар** билан тўлдирилсин:

«ногиронлиги бўлган шахслар учун банк биноларида шаҳарсозлик нормалари ва қоидаларида белгиланган талабларга мувофиқ қулай шарт-шароитлар яратилганлиги бўйича Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги соҳасида назорат қилиш инспекциясининг хулосаси;

агар ариза бир вақтнинг ўзида банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензия ҳамда исломий банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензия бериш учун тақдим этилса, ушбу Қонун 20^1-моддаси биринчи қисмининг еттинчи ва тўққизинчи хатбошиларида кўрсатилган ҳужжатлар»;

олтинчи хатбошиси саккизинчи хатбоши деб ҳисоблансин;

иккинчи қисмидаги «лицензия бериш» деган сўзлар «банк фаолиятига доир тегишли лицензия (лицензиялар) бериш» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

учинчи қисмидаги «лицензия бериш» деган сўзлар «банк фаолиятига доир тегишли лицензия (лицензиялар) бериш» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

бешинчи қисмидаги «Лицензия берилганлиги» деган сўзлар «Банк фаолиятига доир тегишли лицензия (лицензиялар) берилганлиги» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

олтинчи қисмидаги «лицензия берилганлиги» деган сўзлар «банк фаолиятига доир тегишли лицензия (лицензиялар) берилганлиги» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

еттинчи қисми қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Банк фаолиятига доир тегишли лицензиянинг (лицензияларнинг) қалбаки ҳужжатлардан фойдаланган ҳолда олинганлиги факти аниқланган тақдирда банк фаолиятига доир тегишли лицензия (лицензиялар) Марказий банк томонидан чақириб олинади»;

12) қуйидаги мазмундаги **20^1-модда** билан тўлдирилсин:

«20^1-модда. Банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензияга эга бўлган банкка исломий банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензияни бериш

Банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензияга эга бўлган банк исломий банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензияни олиш учун Марказий банкка қуйидаги ҳужжатларни тақдим этиши керак:

исломий банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензияни бериш тўғрисидаги аризани;

банк акциядорлари умумий йиғилишининг исломий банк фаолиятини йўлга қўйиш тўғрисидаги қарорини;

QMMB: 03/26/1126/0279-son
28.03.2026-y.

банкнинг ушбу Қонун 14-моддасининг тўртинчи қисмида кўрсатилган талаблар инобатга олинган уставини;

банкда банкнинг исломий молия кенгаши, исломий молия масалалари бўйича махсус бўлинмаси ва исломий молия бўйича ички аудити ташкил этилганлиги тўғрисидаги маълумотни;

ушбу Қонун 16-моддасининг иккинчи қисмида кўрсатиб ўтилган ҳужжатларни;

банкнинг исломий банк фаолиятига масъул бўлган раҳбар ходими Марказий банкнинг малака талабларига мувофиқлиги тўғрисидаги маълумотларни;

исломий банк фаолияти бўйича бозор таҳлили, молиялаштириш режалари, маҳсулот ва хизматлар, молиявий прогнозлар ва таваккалчиликларни бошқариш масалаларини ўз ичига олган уч йиллик бизнес-режани;

исломий банк фаолияти доирасида амалга ошириладиган молиявий операциялар бўйича бухгалтерия ҳисобини алоҳида юритиш имконияти яратилганлигини тасдиқловчи ҳужжатларни.

Банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензияга эга бўлган банкка исломий банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензияни бериш ҳақидаги қарор ариза барча зарур ҳужжатлар билан олинган кундан эътиборан икки ойдан ошмаган муддатда қабул қилинади.

Марказий банк тегишли қарор қабул қилинган санадан эътиборан уч иш куни ичида ариза берувчи банкни қабул қилинган қарор ҳақида ёзма шаклда, шу жумладан ахборот-коммуникация тизими орқали электрон шаклда хабардор қилади.

Банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензияга эга бўлган банкка исломий банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензия берилганлиги учун қонунда белгиланган миқдорда давлат божи ундирилади.

Банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензияга эга бўлган банкка исломий банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензия берилганлиги тўғрисидаги ахборот Марказий банкнинг расмий веб-сайтида эълон қилинади»;

13) **21-модда**:

номи қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«**21-модда. Банкни давлат рўйхатига олишни ва банк фаолиятига доир тегишли лицензия (лицензиялар) беришни рад этиш**»;

биринчи қисми:

биринчи хатбошиси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Банкни давлат рўйхатига олишни ва банк фаолиятига доир тегишли лицензия (лицензиялар) беришни рад этиш учун қуйидагилар асос бўлади»;

QMMB: 03/26/1126/0279-son
28.03.2026-y.

қуйидаги мазмундаги **олтинчи хатбоши** билан тўлдирилсин:

«ногиронлиги бўлган шахслар учун банк биноларида шаҳарсозлик нормалари ва қоидаларида белгиланган талабларга мувофиқ қулай шарт-шароитлар яратилганлиги бўйича Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги соҳасида назорат қилиш инспекциясининг хулосаси мавжуд эмаслиги»;

қуйидаги мазмундаги **иккинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензияга эга бўлган банкка исломий банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензия беришни рад этиш учун қуйидагилар асос бўлади:

банкнинг барқарор молиявий ҳолатга эга эмаслиги;

банкнинг исломий молия кенгаши аъзолари ва исломий банк фаолиятига масъул бўлган раҳбар ходими Марказий банкнинг малака талабларига мувофиқ эмаслиги;

сўнгги икки йил ичида банкда ушбу Қонуннинг 54 ва (ёки) 55-моддаларида кўрсатилган қоидабузарликлар аниқланганлиги;

ушбу Қонуннинг 20^1-моддасида белгиланган маълумот ёки ҳужжатлар тақдим этилмаганлиги ёки уларнинг Марказий банк талабларига мувофиқ эмаслиги»;

иккинчи – олтинчи қисмлари тегишинча **учинчи – еттинчи қисмлар** деб ҳисоблансин;

14) **22-модданинг еттинчи қисмидаги** «кузатув кенгаши ва бошқаруви аъзолигига» деган сўзлар «кузатув кенгаши ва бошқаруви, банкнинг исломий молия кенгаши аъзолигига» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

15) **24-модда биринчи қисмининг учинчи хатбошисидаги** «кузатув кенгаши ва бошқаруви аъзоларининг» деган сўзлар «кузатув кенгаши ва бошқаруви, банк исломий молия кенгаши аъзоларининг» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

16) **25-модда учинчи қисмининг иккинчи хатбошисидаги** «кузатув кенгаши ва бошқаруви аъзолигига» деган сўзлар «кузатув кенгаши ва бошқарувининг, банк исломий молия кенгашининг аъзолигига» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

17) **27-модда учинчи қисмининг тўртинчи хатбошисидаги** «кузатув кенгаши аъзоларининг» деган сўзлар «кузатув кенгаши, шунингдек банк исломий молия кенгаши аъзоларининг» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

18) **34-модда**:

қуйидаги мазмундаги **бешинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банкнинг кузатув кенгаши банкда исломий молия стандартларига мувофиқ бўлган самарали бошқарув тизимини йўлга қўйиш учун жавобгардир»;

бешинчи, **олтинчи** ва **еттинчи қисмлари** тегишинча **олтинчи**, **еттинчи** ва **саккизинчи қисмлар** деб ҳисоблансин;

QMMB: 03/26/1126/0279-son
28.03.2026-y.

19) **35-модда** қуйидаги мазмундаги **тўртинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банк бошқаруви исломий банк фаолиятининг исломий молия стандартларига мувофиқ амалга оширилишини таъминлаш учун жавобгардир»;

20) қуйидаги мазмундаги **35[1]-модда** билан тўлдирилсин:

«**35[1]-модда. Банкнинг исломий молия кенгаши**

Банкнинг исломий молия кенгаши банкдаги исломий банк фаолияти исломий молия стандартларига мувофиқ тарзда амалга оширилишини мувофиқлаштирувчи коллегиал орган ҳисобланади.

Банкнинг исломий молия кенгаши вазифалари жумласига қуйидагилар киради:

банк исломий молия операцияларининг исломий молия стандартларига мувофиқлигини таъминлаш ҳамда мувофиқлик билан боғлиқ масалалар ва мурожаатлар бўйича хулосалар тақдим этиб бориш;

исломий молия операциялари билан боғлиқ шартномалар, ички ҳужжатлар ва ҳисоботлар лойиҳаларини кўриб чиқиш ҳамда маъқуллаш;

исломий банк фаолияти, шу жумладан исломий молия операциялари ва улар билан боғлиқ бўлган шартномалар ҳамда ҳужжатлар бўйича банк томонидан амал қилиниши шарт бўлган ва қонунчилик ҳужжатларига зид бўлмаган қарорларни қабул қилиш;

исломий банк фаолияти билан боғлиқ таваккалчиликларни бошқариш ҳамда ички назорат тизимини жорий этишда банкнинг кузатув кенгаши ва бошқарувига ўз хулосалари орқали кўмаклашиш.

Банкнинг исломий молия кенгаши банкнинг уставига асосан бошқа вазифаларни ҳам бажариши мумкин.

Банкнинг исломий молия кенгаши аъзолари Марказий банк билан келишилган ҳолда ҳамда банкнинг кузатув кенгаши тавсияси асосида акциядорларнинг умумий йиғилиши томонидан сайланади ва уларнинг аъзолиги тугатилади.

Банкнинг исломий молия кенгаши аъзолари сони уч нафардан кам бўлмаслиги керак.

Банкнинг ҳал қилувчи эгаликка эга бўлган акциядорлари ва муҳим аҳамиятга эга ходимлари банкнинг исломий молия кенгаши аъзоси бўлишига йўл қўйилмайди.

Банкнинг исломий молия кенгаши банкдаги исломий банк фаолиятининг исломий молия стандартларига мувофиқлигини баҳолайди ва баҳолаш натижалари бўйича банк акциядорларининг умумий йиғилишига бир йилда камида бир маротаба ҳисобот тақдим этади.

Банк исломий молия кенгашининг вазифалари банк акциядорларининг умумий йиғилишига ёки банкнинг бошқа бошқарув органига юклатилиши мумкин эмас»;

QMMB: 03/26/1126/0279-son
28.03.2026-y.

21) **36-модда**:

иккинчи қисмидаги «кузатув кенгаши ва бошқаруви аъзолари» деган сўзлар «кузатув кенгаши ва бошқаруви, банкнинг исломий молия кенгаши аъзолари» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

қуйидаги мазмундаги **учинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Банкнинг исломий молия кенгаши камида уч нафар аъзодан иборат бўлиб, уларга нисбатан қўйиладиган талаблар Марказий банк томонидан белгиланади»;

учинчи, **тўртинчи** ва **бешинчи қисмлари** тегишинча **тўртинчи**, **бешинчи** ва **олтинчи қисмлар** деб ҳисоблансин;

тўртинчи қисмининг биринчи жумласидаги «бошқарувнинг аъзолигига» деган сўзлар «бошқарувининг, банк исломий молия кенгашининг аъзолигига» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

олтинчи қисмидаги «бошқарувининг аъзоларини» деган сўзлар «бошқарувининг, банк исломий молия кенгашининг аъзоларини» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

22) **37-модданинг иккинчи қисмидаги** «бошқаруви аъзосининг» деган сўзлар «бошқаруви, банк исломий молия кенгаши аъзосининг» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

23) **39-модда биринчи қисмининг биринчи хатбошисидаги** «ходимларини мукофотлаш» деган сўзлар «ходимларини, банкнинг исломий молия кенгаши аъзоларини мукофотлаш» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

24) **53-модда**:

биринчи қисмидаги «бошқаруви аъзоларига» деган сўзлар «бошқаруви, банкнинг исломий молия кенгаши аъзоларига» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

тўртинчи қисмининг саккизинчи хатбошисидаги «бошқарувнинг аъзоси» деган сўзлар «бошқарувнинг, банк исломий молия кенгашининг аъзоси» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

25) **54-модда**:

қуйидаги мазмундаги **йигирма биринчи хатбоши** билан тўлдирилсин:

«банк томонидан исломий банк фаолиятини амалга оширишда исломий молия стандартлари талабларига риоя этилмаганлиги»;

йигирма биринчи – йигирма тўртинчи хатбошилари тегишинча **йигирма иккинчи – йигирма бешинчи хатбошилар** деб ҳисоблансин;

йигирма учинчи хатбошисидаги «бошқарув аъзолари» деган сўзлар «бошқаруви, банкнинг исломий молия кенгаши аъзолари» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

26) **55-модданинг**:

бешинчи хатбошисидаги «бошқарув аъзолари» деган сўзлар «бошқарув аъзолари, шунингдек банкнинг исломий молия кенгаши аъзолари» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

олтинчи хатбошисидаги «муҳим аҳамиятга эга ходимлари томонидан» деган сўзлар «муҳим аҳамиятга эга ходимлари, шунингдек банкнинг

QMMB: 03/26/1126/0279-son
28.03.2026-y.

исломий молия кенгаши аъзолари томонидан» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

27) **57-модданинг бешинчи хатбошисидаги** «бошқарувининг аъзосидан» деган сўзлар «бошқарувининг, банкнинг исломий молия кенгаши аъзосидан» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

28) **58-модда биринчи қисмининг тўртинчи хатбошиси** «муҳим аҳамиятга эга ходимидан» деган сўзлардан кейин «ёки банкнинг исломий молия кенгаши аъзосидан» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

29) **59-модданинг тўртинчи хатбошиси** «муҳим аҳамиятга эга ходимидан» деган сўзлардан кейин «ёки банкнинг исломий молия кенгаши аъзосидан» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

30) **62-модданинг**:

номи ва **биринчи қисми** қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«**62-модда. Кредитлар, депозитлар бўйича фоиз ставкалари, банкнинг молиявий операцияларига оид воситачилик ҳақи ва бошқа даромадлар миқдори**

Кредитлар, депозитлар бўйича фоиз ставкалари, банкнинг молиявий операцияларига оид воситачилик ҳақи миқдори, шунингдек исломий молия операциялари бўйича устама ва (ёки) фойдадан олинадиган улуш миқдори банк томонидан мустақил белгиланади»;

иккинчи қисмидаги «воситачилик ҳақи миқдорини ва ушбу шартномаларнинг амал қилиш муддатларини» деган сўзлар «воситачилик ҳақи миқдорини, исломий молия операциялари бўйича устама ва (ёки) фойдадан олинадиган улуш миқдорини ҳамда ушбу шартномаларнинг амал қилиш муддатларини» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

31) **74-модда** қуйидаги мазмундаги **олтинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Исломий банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензияга эга бўлган банкларда амалга оширилаётган исломий банк фаолиятининг исломий молия стандартларига мувофиқлиги юзасидан ҳар йили камида бир маротаба исломий молия бўйича ташқи аудит текшируви ўтказилиши лозим»;

32) **75[1]-модданинг биринчи қисми** қуйидаги мазмундаги **олтинчи – ўнинчи хатбошилар** билан тўлдирилсин:

«микромолия ташкилоти – фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятига;

фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки – фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банк фаолиятига;

фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банк – фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятига;

фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки – микромолия ташкилоти фаолиятига;

банк – фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банк фаолиятига»;

QMMB: 03/26/1126/0279-son
28.03.2026-y.

33) **75^2-модда**:

номи ва **биринчи қисми** қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«**75^2-модда. Микромолия ташкилоти фаолиятини микромолия банки фаолиятига ёки фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятига ўзгартириш**

Микромолия ташкилоти фаолиятини микромолия банки фаолиятига ёки фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятига ўзгартириш орқали микромолия банкини ташкил этиш банклар ва банк фаолияти тўғрисидаги қонунчиликда белгиланган банк фаолиятига рухсат бериш шартларига мувофиқ амалга оширилади»;

иккинчи қисми «микромолия банки фаолиятига» деган сўзлардан кейин «ёки фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятига» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

қуйидаги мазмундаги **учинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Микромолия ташкилоти ўз фаолиятини фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятига ўзгартириши учун унинг ўз фаолиятидаги исломий молия стандартларига мувофиқ бўлмаган активлар ва мажбуриятлардан халос бўлиши талаб этилади»;

учинчи – тўққизинчи қисмлари тегишинча **тўртинчи – ўнинчи қисмлар** деб ҳисоблансин;

тўртинчи қисми:

иккинчи хатбошиси «микромолия банки фаолиятига» деган сўзлардан кейин «ёки фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятига» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

қуйидаги мазмундаги **тўртинчи хатбоши** билан тўлдирилсин:

«ариза микромолия ташкилоти фаолиятини фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятига ўзгартириш учун тақдим этилган тақдирда, қўшимча равишда ушбу Қонун 16-моддасининг иккинчи қисмида назарда тутилган ҳужжатларни»;

тўртинчи хатбошиси бешинчи хатбоши деб ҳисоблансин;

бешинчи қисмидаги «бешинчи хатбошиларида назарда тутилган ҳужжатларни, шунингдек ушбу модданинг учинчи қисмида» деган сўзлар «еттинчи хатбошиларида назарда тутилган ҳужжатларни, шунингдек ушбу модданинг тўртинчи қисмида» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

олтинчи қисми «микромолия банки фаолиятига» деган сўзлардан кейин «ёки фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятига» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

саккизинчи қисмининг тўртинчи хатбошиси «микромолия банки фаолиятига» деган сўзлардан кейин «ёки фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятига» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

ўнинчи қисми қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш ва ўзини ўзи банд қилган шахсларнинг даромад олишга йўналтирилган фаолияти учун берилган

QMMB: 03/26/1126/0279-son
28.03.2026-y.

кредитларнинг кредит портфелидаги ва (ёки) кўрсатилган исломий молия операцияларининг молиялаштириш портфелидаги улуши етмиш фоиздан кам бўлган микромолия ташкилоти фаолиятини ўзгартириш орқали ташкил этилган микромолия банки мазкур кредитларининг ва (ёки) исломий молия операцияларининг улушини ўз фаолиятини ўзгартирган кундан эътиборан икки йил ичида етмиш фоизга етказиши шарт»;

34) **75^3-модда**:

номи қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«**75^3-модда. Микромолия банки фаолиятини банк фаолиятига ёки фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятини фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банк фаолиятига ўзгартириш**»;

биринчи қисмининг биринчи ва **иккинчи хатбошилари** қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Микромолия банки фаолиятини банк фаолиятига ёки фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятини фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банк фаолиятига ўзгартириш:

микромолия банки фаолиятини банк фаолиятига ёки фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятини фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банк фаолиятига ўзгартиришга доир Марказий банкнинг дастлабки рухсатномасини олиш»;

иккинчи қисми:

биринчи хатбошиси «банк фаолиятига» деган сўзлардан кейин «ёки фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятини фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банк фаолиятига» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

иккинчи хатбошиси «банк фаолиятига» деган сўзлардан кейин «ёки фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятини фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банк фаолиятига» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

қуйидаги мазмундаги **бешинчи хатбоши** билан тўлдирилсин:

«ариза фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятини фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банк фаолиятига ўзгартириш учун тақдим этилган тақдирда, қўшимча равишда ушбу Қонун 16-моддасининг иккинчи қисмида назарда тутилган ҳужжатларни»;

бешинчи хатбошиси олтинчи хатбоши деб ҳисоблансин;

учинчи қисмининг биринчи хатбошиси «банк фаолиятига» деган сўзлардан кейин «ёки фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятини фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банк фаолиятига» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

QMMB: 03/26/1126/0279-son
28.03.2026-y.

тўртинчи қисмининг иккинчи жумласи «банк фаолиятига» деган сўзлардан кейин «ёки фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятини фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банк фаолиятига» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

бешинчи қисми «банк фаолиятига» деган сўзлардан кейин «ёки фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолияти фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банк фаолиятига» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

35) **75^4-модда**:

номи қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«**75^4-модда. Банк фаолиятини микромолия банки фаолиятига ёки фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банк фаолиятини фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятига ўзгартириш**»;

биринчи қисми «микромолия банки фаолиятига» деган сўзлардан кейин «ёки фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банк фаолиятини фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятига» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

иккинчи қисмининг:

биринчи хатбошиси «микромолия банки фаолиятига» деган сўзлардан кейин «ёки фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банк фаолиятини фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятига» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

иккинчи хатбошиси «микромолия банки фаолиятига» деган сўзлардан кейин «ёки фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банк фаолиятини фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятига» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

бешинчи хатбошиси «бошқаруви аъзолари» деган сўзлардан кейин «банкнинг исломий молия кенгаши аъзолари – исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки учун» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

учинчи қисми биринчи хатбошисининг иккинчи жумласи «микромолия банки фаолиятига» деган сўзлардан кейин «ёки фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банк фаолиятини фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятига» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

тўртинчи қисми «микромолия банки фаолиятига» деган сўзлардан кейин «ёки фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банк фаолияти фақат исломий банки фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятига» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

бешинчи қисмининг биринчи жумласи «микромолия банки фаолиятига» деган сўзлардан кейин «ёки фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятига» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

QMMB: 03/26/1126/0279-son
28.03.2026-y.

36) **75^5-модданинг**:

номи қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«**75^5-модда. Микромолия банки фаолиятини ёки фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятини микромолия ташкилоти фаолиятига ўзгартириш**»;

биринчи қисми «Микромолия банки фаолиятини» деган сўзлардан кейин «ёки фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятини» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

иккинчи ва **учинчи қисмлари** қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Микромолия банки фаолиятини ёки фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятини микромолия ташкилоти фаолиятига ўзгартириш учун ариза берувчи микромолия банки фаолиятини ёки фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятини микромолия ташкилоти фаолиятига ўзгартириш тўғрисида қарор қабул қилинган кундан эътиборан ўн иш куни ичида Марказий банкка «Нобанк кредит ташкилотлари ва микромолиялаштириш фаолияти тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни 20-моддасининг биринчи ва учинчи қисмларида назарда тутилган ҳужжатларни тақдим этади.

Микромолия банки фаолиятини ёки фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятини микромолия ташкилоти фаолиятига ўзгартириш учун тақдим этилган ҳужжатларни кўриб чиқиш нобанк кредит ташкилотлари ва микромолиялаштириш фаолияти тўғрисидаги қонунчиликда нобанк кредит ташкилотларини ҳисоб рўйхатидан ўтказиш учун тақдим этилган ҳужжатларни кўриб чиқиш учун назарда тутилган тартибда амалга оширилади»;

тўртинчи қисми «микромолия банки фаолиятини» деган сўзлардан кейин «ёки фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятини» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

бешинчи қисми қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Микромолия банки микромолия банкининг фаолиятини ёки фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки исломий микромолия банкининг фаолиятини микромолия ташкилоти фаолиятига ўзгартиришга розилик бериш тўғрисидаги Марказий банкнинг қарори асосида рўйхатдан ўтиш учун қонунчиликда назарда тутилган ҳужжатларни давлат хизматлари марказига тақдим этади»;

саккизинчи қисми «Микромолия банки фаолиятини» деган сўзлардан кейин «ёки фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолиятини» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

37) **77-модда**:

биринчи қисмининг иккинчи хатбошиси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«агар банк лицензияни олганидан кейин ўн икки ой ичида банк фаолиятини ва (ёки) исломий банк фаолиятини амалга оширишни

QMMB: 03/26/1126/0279-son
28.03.2026-y.

бошламаган, бу фаолиятдан тўғридан-тўғри воз кечган ёки молиявий операцияларни, шу жумладан исломий молия операцияларини уч ойдан ортиқроқ муддат давомида амалга оширмаган бўлса»;

қуйидаги мазмундаги **тўртинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Банк фаолиятига доир тегишли лицензияга (лицензияларга) эга бўлган банкдан:

исломий банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензия чақириб олинса, банк ўз фаолиятини банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензия асосида давом эттиради;

банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензиянинг чақириб олиниши банкнинг исломий банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензиясининг ҳам чақириб олинишига олиб келади, бундан банкни фақат исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банкка ўзгартириш натижасида Марказий банк томонидан банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензиянинг чақириб олиниши ҳолати мустасно»;

тўртинчи – еттинчи қисмлари тегишинча **бешинчи – саккизинчи қисмлар** деб ҳисоблансин.

4-модда. Ўзбекистон Республикасининг 2011 йил 4 октябрда қабул қилинган **«Кредит ахбороти алмашинуви тўғрисида»**ги ЎРҚ–301-сонли Қонуни (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2011 йил, № 10, 271-модда; 2013 йил, № 4, 98-модда; 2015 йил, № 8, 312-модда; 2019 йил, № 3, 166-модда; 2020 йил, № 1, 1, 3-моддалар; 2021 йил, 4-сонга илова, № 10, 968-модда; 2022 йил, № 3, 216-модда, № 4, 340-модда; 2024 йил, № 2, 105-модда; 2025 йил, № 3, 369-модда) **8-моддасининг иккинчи қисми** қуйидаги мазмундаги **еттинчи хатбоши** билан тўлдирилсин:

«кредит бюроси биносида ногиронлиги бўлган шахслар учун шаҳарсозлик нормалари ва қоидаларида белгиланган талабларга мувофиқ қулай шарт-шароитлар яратилганлиги бўйича Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги соҳасида назорат қилиш инспекциясининг хулосаси».

5-модда. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 30 декабрда қабул қилинган ЎРҚ–599-сонли Қонуни билан янги таҳрирда тасдиқланган **Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодексига** (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2019 йил, 12-сонга 1-илова; 2020 йил, № 3, 198-модда, № 10, 593-модда, № 11, 652-модда, № 12, 690, 691-моддалар; 2021 йил, № 1, 6-модда, № 4, 294-модда, 4-сонга илова, № 8, 800-модда, № 9, 901-модда, № 10, 968, 969, 972, 973-моддалар, № 12, 1199-модда; 2022 йил, № 2, 79-модда, № 3, 215, 216-моддалар, № 5, 461, 464, 467-моддалар, № 6, 570-модда, № 7, 664, 666-моддалар, № 12, 1190-модда; 2023 йил, № 6, 444, 446-моддалар, № 7, 540-модда, № 12, 1011-модда; 2024 йил, № 2, 106, 110, 111-моддалар, № 4, 346-модда, № 5, 458, 459-моддалар, № 8, 822, 831-моддалар, № 9, 958-модда, № 10, 1076-модда,

QMMB: 03/26/1126/0279-son
28.03.2026-y.

№ 11, 1190-модда, № 12, 1283, 1284, 1296, 1297-моддалар; 2025 йил, № 2, 188, 194-моддалар, № 4, 519, 520, 521, 522-моддалар, № 5, 644, 645-моддалар, № 6, 729, 731-моддалар, № 8, 971-модда, № 10, 1153-модда) қуйидаги қўшимча ва ўзгартиришлар киритилсин:

1) **18-модданинг биринчи қисми** қуйидаги мазмундаги **5-банд** билан тўлдирилсин:

«5) исломий молия операцияларига солиқ солишнинг ўзига хос хусусиятлари»;

2) **41-модданинг**:

тўртинчи қисми «фермер хўжалиги бошлиғига» деган сўзлардан кейин «шунингдек банк ва микромолия ташкилотларидаги исломий қимматли қоғозларга (сертификатларга) эга бўлган шахсларга» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

бешинчи қисми «даромад (уни расмийлаштириш усулидан қатъи назар)» деган сўзлардан кейин «исломий молия фаолиятидан олинган даромад» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

3) **49-модданинг иккинчи қисми** «форвард контрактлари» деган сўзлардан кейин «ҳамда исломий қимматли қоғозлар (сертификатлар)» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

4) **54-модда**:

биринчи қисми қуйидаги мазмундаги **3^1-банд** билан тўлдирилсин:

«3^1) исломий молия фаолияти доирасида банклар ва микромолия ташкилотлари билан исломий молия стандартларига мувофиқ тузилган молиявий ижара (исломий ижара) шартномасининг муддати тугагач, ижарачи молиявий ижара объектини мулк ҳуқуқини ўтказиш бўйича алоҳида шартнома ва унда белгиланадиган шартлар асосида қабул қилиб олиш ҳуқуқига эга бўлса»;

қуйидаги мазмундаги **тўртинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Солиқ солиш мақсадида исломий молия фаолияти доирасида банклар ва микромолия ташкилотлари томонидан исломий молия стандартларига мувофиқ тузилган молиявий ижара (исломий ижара) шартномаларига ҳам молиявий ижара ва лизинг шартномалари сифатида қаралади ҳамда уларга нисбатан ушбу Кодекс қоидалари қўлланилади»;

5) **60-модда**:

қуйидаги мазмундаги **ўн учинчи** ва **ўн тўртинчи хатбошилар** билан тўлдирилсин:

«**исломий молия фаолияти** – қонунчиликда белгиланган тартибда, исломий молия стандартлари асосида банклар ва микромолия ташкилотлари томонидан амалга ошириладиган фаолият;

исломий молия операциялари – қонунчиликка мувофиқ исломий молия стандартлари асосида банклар ва микромолия ташкилотлари томонидан амалга ошириладиган операциялар»;

QMMB: 03/26/1126/0279-son
28.03.2026-y.

6) **77-модданинг биринчи қисми** қуйидаги мазмундаги **7-банд** билан тўлдирилсин:

«7) бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги қонунчиликка мувофиқ исломий молия фаолиятидан ва исломий қимматли қоғозлардан олинган даромадларнинг алоҳида ҳисобини юритиш тартиби»;

7) **297-модда**:

саккизинчи қисми «бундан ушбу модданинг тўққизинчи қисмида кўрсатилган ҳол мустасно» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

қуйидаги мазмундаги **тўққизинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Кредит ташкилотлари томонидан олинган даромадларни эътироф этиш санаси Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари ва (ёки) бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги қонунчилик талабларига мувофиқ ҳисобга олинади»;

тўққизинчи – ўн иккинчи қисмлари тегишинча **ўнинчи – ўн учинчи қисмлар** деб ҳисоблансин;

8) **410-модданинг учинчи қисми** «бундан ушбу Кодекснинг 480^6-моддасида назарда тутилган ҳоллар мустасно» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

9) **461-модда иккинчи қисмининг 6-банди** «бундан исломий молия операциялари бўйича банклар ва микромолия ташкилотлари билан тузилган оддий ширкат шартномаси доирасида амалга оширилаётган фаолият мустасно» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

10) **XXI бўлим** қуйидаги мазмундаги **71^2-боб** билан тўлдирилсин:

«71^2-боб. Исломий молия операцияларига солиқ солишнинг ўзига хос хусусиятлари

480^3-модда. Умумий қоидалар

Агар ушбу Кодекснинг мазкур бобида бошқача қоида назарда тутилмаган бўлса, исломий молия операцияларига солиқ солишда ушбу Кодекс қоидалари қўлланилади.

480^4-модда. Исломий молия операцияларига қўшилган қиймат солиғи солиш

Қуйидагилар қўшилган қиймат солиғи солишдан озод қилинади:

1) исломий қимматли қоғозлар (сертификатлар) билан боғлиқ операциялар. Исломий қимматли қоғозлар билан боғлиқ операциялар жумласига қимматли қоғозларни сақлаш, қимматли қоғозларга бўлган ҳуқуқни ҳисобга олиш, қимматли қоғозларни ўтказиш ҳамда уларнинг реестрини юритиш, қимматли қоғозлар савдосини ташкил этиш бўйича операциялар киради, бундан уларни тайёрлаш бўйича хизматлар мустасно;

2) исломий молия фаолияти доирасида ишончли бошқарув (воситачилик) шартномалари асосида банк ва микромолия ташкилоти

QMMB: 03/26/1126/0279-son
28.03.2026-y.

томонидан ишончли бошқарувнинг муассисига (комитентга) пулли асосда кўрсатилган хизматлар;

3) исломий молия фаолияти доирасида мол-мулкни молиявий ижарага (исломий ижарага) беришда ушбу мол-мулкни молиявий ижарага (исломий ижарага) бериш бўйича барча ижара тўловлари суммаси ва сотиб олиш нархи ўртасидаги ижобий фарқ;

4) банклар ва микромолия ташкилотлари томонидан исломий молия фаолияти доирасида тузиладиган шартномалар бўйича мижозга (харидорга) реализация қилинадиган товарларга қўйиладиган устама.

480[5]-модда. Исломий молия операцияларига фойда солиғи солиш

Исломий молия фаолияти доирасида жами даромадлар таркибига қуйидаги даромадлар киритилади:

1) исломий молия фаолияти бўйича мукофот тарзидаги даромад;

2) исломий суғурта ва исломий қайта суғурта ташкилотининг суғурта, қайта суғурта қилиш шартномалари бўйича даромади.

Ушбу Кодекс 299-моддаси тўртинчи қисмининг қоидалари исломий молия операциялари доирасида бериладиган қарзларга нисбатан татбиқ этилмайди.

Исломий молия фаолияти доирасида мижозларнинг тўловларни кечиктириши натижасида ундирилган жарималар, пенялар ҳисобидан хайрия қилинган маблағлар фойда солиғи базасини аниқлашда чегириб ташланадиган харажатлар жумласига киради.

480[6]-модда. Исломий молия операциялари доирасида бошқа солиқлар солиш

Жисмоний шахсларнинг исломий молия фаолияти билан шуғулланувчи банк ва микромолия ташкилотларига воситачилик (топшириқ), ишончли бошқарув ёки шерикчилик асосида маблағ тақдим этиш тўғрисидаги шартномаларга мувофиқ олинган даромадларига жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи солинмайди.

Исломий молия фаолияти доирасида кўчмас мулкларни молиявий ижарага (исломий ижарага) берувчи банклар ва микромолия ташкилотлари мол-мулк солиғи тўловчилари деб эътироф этилади.

Исломий молия фаолияти доирасида молиявий ижара (исломий ижара) шартномасига мувофиқ молиявий ижарага (исломий ижарага) берилган (олинган) кўчмас мулк объектлари бўйича ижарага берувчи банклар ва микромолия ташкилотлари ер солиғи тўловчиси деб эътироф этилади».

6-модда. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 6 январда қабул қилинган **«Давлат божи тўғрисида»**ги ЎРҚ–600-сонли Қонунига (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2020 йил, № 1, 1-модда, № 3, 201-модда, № 5, 298-модда, № 10, 593-модда,

QMMB: 03/26/1126/0279-son
28.03.2026-y.

№ 12, 691-модда; 2021 йил, № 1, 13-модда, 4-сонга илова, № 7, 661-модда, № 8, 800, 803-моддалар, № 10, 968-модда; 2022 йил, № 2, 76-модда, № 3, 214, 216-моддалар, № 4, 340-модда, № 5, 463, 464, 467-моддалар, № 12, 1186-модда; 2023 йил, № 2, 103-модда, № 3, 186-модда, № 4, 265, 269-моддалар, № 6, 444, 445-моддалар, № 7, 538-модда, № 9, 710-модда; 2024 йил, № 1, 5, 6, 7-моддалар, № 2, 101, 105, 107, 108, 111, 112-моддалар, № 7, 628-модда, № 8, 819, 823, 831-моддалар, № 9, 958-модда, № 10, 1076, 1079-моддалар, № 11, 1191-модда, № 12, 1279, 1280, 1285-моддалар; 2025 йил, № 1, 4, 6-моддалар, № 2, 188, 189, 195, 197-моддалар, № 4, 519, 520-моддалар, № 5, 648-модда, № 7, 828-модда, № 8, 968, 970-моддалар, № 10, 1153-модда) қуйидаги қўшимчалар киритилсин:

1) **11-модда** қуйидаги мазмундаги **20-банд** билан тўлдирилсин:

«20) шахслар – исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банк ёки исломий молиялаштиришга оид хизматлар кўрсатувчи микромолия ташкилоти мол-мулкни келгусида исломий молия стандартлари асосида мижозга реализация қилиш учун мулк ҳуқуқи асосида ўз номига ўтказганда»;

2) **илованинг 20-банди** қуйидаги мазмундаги «**а^1**» **кичик банд** билан тўлдирилсин:

«

	а^1) исломий банк фаолияти	ташкил этилаётган банк устав капитали энг кам миқдорининг 0,1 фоизи

».

7-модда. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелда қабул қилинган **«Давлат харидлари тўғрисида»**ги ЎРҚ–684-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2021 йил, № 4, 289-модда; 2024 йил, № 2, 111-модда, № 11, 1288-модда; 2025 йил, № 2, 188-модда, № 4, 519-модда, № 6, 730-модда) **2-моддаси** қуйидаги мазмундаги **тўртинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Ушбу Қонуннинг талаблари устав фондида (устав капиталида) давлат улуши 50 фоиз ва ундан ортиқ бўлган кредит ташкилотлари томонидан исломий молия фаолияти доирасида мижозга топшириш ва ликвидлик жалб қилиш мақсадида амалга ошириладиган харидларга нисбатан татбиқ этилмайди».

8-модда. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 14 июлда қабул қилинган **«Лицензиялаш, рухсат бериш ва хабардор қилиш тартиб-таомиллари тўғрисида»**ги ЎРҚ–701-сонли Қонунига (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2021 йил, № 7, 661-модда; 2022 йил, № 4, 340-модда, № 5, 465-модда; 2023 йил, № 2, 103-модда, № 3, 185-модда, № 7, 533-модда, № 9, 710-модда, № 11, 921, 923-моддалар; 2024 йил, № 1, 5, 7-моддалар, № 2, 105, 112-моддалар, № 7, 628-модда, № 8, 819-модда, № 9, 957, 958-моддалар; 2025 йил, № 1, 3, 6-моддалар, № 2, 189, 197-моддалар, № 3, 376-модда, № 4, 519, 520,

QMMB: 03/26/1126/0279-son
28.03.2026-y.

521-моддалар, № 5, 644, 645-моддалар, № 10, 1155-модда) **1-илова** қуйидаги мазмундаги **13[1]-позиция** билан тўлдирилсин:

«

13[1].	Исломий банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензия	Исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банк фаолияти;	Ўзбекистон Республикаси Марказий банки
		исломий банк фаолиятини амалга оширувчи микромолия банки фаолияти.	

».

9-модда. Ўзбекистон Республикасининг 2025 йил 18 февралда қабул қилинган **«Банклардаги омонатларни ҳимоя қилиш кафолатлари тўғрисида»**ги ЎРҚ–1031-сонли Қонунига (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2025 йил, № 2, 194-модда) қуйидаги қўшимча ва ўзгартиришлар киритилсин:

1) **3-модданинг**:

еттинчи хатбошиси «лицензияни» деган сўздан кейин «ва (ёки) исломий банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензияни» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

тўққизинчи хатбошиси «банк ҳисобварағи шартномасини» деган сўзлардан кейин «ёхуд инвестициявий омонат шартномасини» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

2) **5-модда биринчи қисмининг саккизинчи хатбошиси** «кредит» деган сўздан кейин «ва (ёки) исломий молия» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

3) **10-модда биринчи қисмининг йигирманчи хатбошиси** «кредит» деган сўздан кейин «ва (ёки) исломий молия воситаларини» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

4) **14-модданинг**:

учинчи қисми қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензияга ва (ёки) исломий банк фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензияга (бундан буён матнда банк фаолиятига доир тегишли лицензия (лицензиялар) деб юритилади) эга бўлган банкнинг кафолатлаш тизимида иштирок этиши шарт»;

тўртинчи қисмидаги «лицензия» деган сўз «банк фаолиятига доир тегишли лицензия (лицензиялар)» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

бешинчи қисмидаги «лицензия» деган сўз «банк фаолиятига доир тегишли лицензия (лицензиялар)» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

5) **17-модда**:

иккинчи қисмининг биринчи жумласидаги «лицензия» деган сўз «банк фаолиятига доир тегишли лицензия (лицензиялар)» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

QMMB: 03/26/1126/0279-son
28.03.2026-y.

тўртинчи қисмидаги «лицензияси» деган сўз «банк фаолиятига доир тегишли лицензияси (лицензиялари)» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

6) **18-модданинг учинчи қисмидаги** «лицензия» деган сўз «банк фаолиятига доир тегишли лицензия (лицензиялар)» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

7) **19-модда**:

саккизинчи қисмидаги «лицензиянинг» деган сўз «банк фаолиятига доир тегишли лицензиянинг (лицензияларнинг)» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

тўққизинчи қисми қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Банк фаолиятига доир тегишли лицензия (лицензиялар) чақириб олинган тақдирда жорий чорак учун календарь бадал мазкур чорак бошидан банк фаолиятига доир тегишли лицензия (лицензиялар) чақириб олинган санага қадар ўтган кунлар сонига мутаносиб равишда ҳисобланади»;

ўн биринчи қисмининг иккинчи жумласидаги «Лицензия» деган сўз «Банк фаолиятига доир тегишли лицензия (лицензиялар)» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

8) **20-модда тўртинчи қисмининг**:

учинчи хатбошисидаги «лицензия» деган сўз «банк фаолиятига доир тегишли лицензия (лицензиялар)» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

тўртинчи хатбошисидаги «лицензия» деган сўз «банк фаолиятига доир тегишли лицензия (лицензиялар)» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

9) **22-модда**:

қуйидаги мазмундаги **учинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Жамғарма маблағлари ушбу модданинг иккинчи қисмида назарда тутилган активларга исломий молия стандартларига мувофиқ инвестиция қилиниши мумкин»;

учинчи – еттинчи қисмлари тегишинча **тўртинчи – саккизинчи қисмлар** деб ҳисоблансин;

тўртинчи қисми «кредит» деган сўздан кейин «ва (ёки) исломий молия воситалари» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

10) **23-модданинг**:

номи «**кредити**» деган сўздан кейин «**ва (ёки) исломий молия воситалари**» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

биринчи қисми «кредит» деган сўздан кейин «ва (ёки) исломий молия воситаларини» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

иккинчи қисми «кредит» деган сўздан кейин «ва (ёки) исломий молия воситаларини» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

тўртинчи қисми қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Жамғарма маблағларининг тақчиллигини қоплаш учун Агентликка Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджетидан ажратилган бюджет ссудаси ва (ёки) Марказий банк кредитлари бўйича фоиз ставкаси ёки бошқа даромадлар миқдори Ўзбекистон Республикаси номидан чиқарилган ва Ўзбекистон Республикасида муомалада бўлган, ўхшаш тўлаш муддатига

QMMB: 03/26/1126/0279-son
28.03.2026-y.

эга бўлган қарз воситалари бўйича фоиз ставкасидан ёки бошқа даромадлардан юқори бўлиши мумкин эмас»;

бешинчи қисми «кредитини» деган сўздан кейин «ва (ёки) исломий молия воситаларини» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

11) **25-модданинг учинчи қисми** қуйидаги мазмундаги **саккизинчи хатбоши** билан тўлдирилсин:

«исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банклардаги инвестициявий омонатлар»;

12) **34-модданинг биринчи қисми**:

қуйидаги мазмундаги **бешинчи хатбоши** билан тўлдирилсин:

«исломий банк фаолиятини амалга оширувчи банкнинг исломий молия масалаларини мувофиқлаштирувчи исломий молия кенгаши аъзолари»;

бешинчи ва **олтинчи хатбошилари** тегишинча **олтинчи** ва **еттинчи хатбошилар** деб ҳисоблансин;

13) **35-модда иккинчи қисмининг иккинчи хатбошисидаги** «лицензия» деган сўз «банк фаолиятига доир тегишли лицензия (лицензиялар)» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

14) **7-бобнинг номи** қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«**7-боб. Манфаатлар тўқнашуви ҳамда Агентликнинг мансабдор шахсларини ва ходимларини ўз вазифаларини бажариши чоғида ҳуқуқий жиҳатдан ҳимоя қилиш**»;

15) **44-модданинг биринчи қисми** қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Кенгаш аъзолари, бош директор, Агентлик ходимлари, шунингдек ушбу Қонунга ёки Марказий банкнинг норматив-ҳуқуқий ҳужжатларига мувофиқ ўз ваколатларини амалга ошириш учун Агентлик томонидан жалб этилган бошқа шахслар, шу жумладан уларнинг ваколатлари тугатилганидан кейин ёки улар Агентликда ишлашини якунлаганидан кейин фақат ўз вазифаларини бажариши чоғида инсофсизлик билан содир этилган ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) учун жавобгар бўлади».

10-модда. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки ва бошқа манфаатдор ташкилотлар ушбу Қонуннинг ижросини, ижрочиларга етказилишини ҳамда моҳияти ва аҳамияти аҳоли ўртасида тушунтирилишини таъминласин.

11-модда. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси уч ой муддатда:

ҳукумат қарорларини ушбу Қонунга мувофиқлаштирсин;

республика ижро этувчи ҳокимият органлари ушбу Қонунга зид бўлган ўз норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини қайта кўриб чиқишлари ва бекор қилишларини таъминласин.

QMMB: 03/26/1126/0279-son
28.03.2026-y.

12-модда. Ушбу Қонун расмий эълон қилинган кундан эътиборан уч ой ўтгач кучга киради.

Ўзбекистон Республикасининг Президенти **Ш. Мирзиёев**

Тошкент шаҳри,
2026 йил 27 март
№ ЎРҚ–1126

QMMB: 03/26/1127/0280-son
28.03.2026-y.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING
QONUNI

Ҳуқуқий эксперимент тўғрисида

Қонунчилик палатаси томонидан 2025 йил 1 июлда қабул қилинган
Сенат томонидан 2025 йил 18 декабрда маъқулланган

1-боб. Умумий қоидалар

1-модда. Ушбу Қонуннинг мақсади

Ушбу Қонуннинг мақсади ҳуқуқий экспериментни ташкил этишга, ўтказишга, унинг натижаларини баҳолашга ва жорий этишга доир муносабатларни тартибга солишдан иборат.

2-модда. Ҳуқуқий экспериментнинг қўлланилиш соҳаси

Ҳуқуқий эксперимент давлат бошқаруви соҳасида, ижтимоий, иқтисодий ва ушбу Қонун билан чекланмаган бошқа соҳаларда қўлланилиши мумкин.

Инсоннинг Конституция ва қонунларда мустаҳкамлаб қўйилган ҳуқуқлари ҳамда эркинликларини чеклайдиган, бекор қиладиган ёки инсоннинг ҳолатини бошқача тарзда ёмонлаштирадиган ҳолларда ҳуқуқий эксперимент ўтказилишига йўл қўйилмайди.

3-модда. Ҳуқуқий эксперимент тўғрисидаги қонунчилик

Ҳуқуқий эксперимент тўғрисидаги қонунчилик ушбу Қонун ва бошқа қонун ҳужжатларидан иборатдир.

4-модда. Асосий тушунчалар

Ушбу Қонунда қуйидаги асосий тушунчалар қўлланилади:

ваколатли орган – норматив-ҳуқуқий ҳужжат қабул қилиш ҳуқуқига эга бўлган орган ёки мансабдор шахс (бундан норматив-ҳуқуқий ҳужжат қабул қилиш ваколатига эга бўлган вазирлик ва идоралар ҳамда маҳаллий давлат ҳокимияти органлари мустасно);

QMMB: 03/26/1127/0280-son
28.03.2026-y.

масъул орган – ҳуқуқий экспериментни ўтказиш ва унинг натижаларини баҳолаш учун масъул этиб белгиланган давлат органи ёки ташкилоти;

экспериментал-ҳуқуқий норма – ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилинган норматив-ҳуқуқий ҳужжат билан белгиланган, ижтимоий муносабатларни тартибга солишга қаратилган, муайян ҳудудда ва (ёки) шахслар доираси бўйича чекланган ҳолда, белгиланган вақт оралиғида синовдан ўтказиладиган ҳуқуқий норма;

ҳуқуқий эксперимент – норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг ёки ҳуқуқий норманинг самарадорлигини амалда муайян ҳудудда ва (ёки) шахслар доираси бўйича чекланган ҳолда, белгиланган вақт оралиғида синовдан (тажрибадан, апробациядан ва шу кабилардан) ўтказиш билан боғлиқ чора-тадбирлар мажмуи;

ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилинган норматив-ҳуқуқий ҳужжат – ижтимоий муносабатларни тартибга солишга қаратилган умуммажбурий қоидаларни белгилайдиган, амалда муайян ҳудудда ва (ёки) шахслар доираси бўйича чекланган ҳолда, белгиланган вақт оралиғида синовдан ўтказиладиган норматив-ҳуқуқий ҳужжат.

5-модда. Ҳуқуқий экспериментнинг асосий принциплари

Ҳуқуқий экспериментнинг асосий принциплари қуйидагилардан иборат:

қонунийлик;

жисмоний ва юридик шахсларнинг ҳуқуқлари ҳамда қонуний манфаатларини, жамият ва давлат манфаатларини ҳимоя қилиш ҳамда уларнинг устуворлиги;

жамоат хавфсизлигини, экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилишнинг устуворлиги;

очиқлик ва ошкоралик;

асосланганлик;

долзарблик.

6-модда. Қонунийлик принципи

Ҳуқуқий экспериментни ташкил этиш, ўтказиш, унинг натижаларини баҳолаш ва жорий этиш Ўзбекистон Республикаси Конституциясига, ушбу Қонунга ва бошқа қонун ҳужжатларига мувофиқ амалга оширилади ҳамда давлат органлари ва ташкилотлари, шунингдек ҳуқуқий экспериментнинг бошқа иштирокчилари уларга оғишмай риоя этиши ҳамда уларни бажариши шарт.

Ушбу Қонун ва бошқа қонун ҳужжатлари талабларини аниқ ва бир хилда бажаришдан ҳамда уларга риоя этишдан ҳар қандай четга чиқиш, уларнинг сабаблари қандай бўлишидан қатъи назар, қонунийликни бузишдир ва у белгиланган жавобгарликка сабаб бўлади.

QMMB: 03/26/1127/0280-son
28.03.2026-y.

7-модда. Жисмоний ва юридик шахсларнинг ҳуқуқлари ҳамда қонуний манфаатларини, жамият ва давлат манфаатларини ҳимоя қилиш ҳамда уларнинг устуворлиги принципи

Ҳуқуқий экспериментни ташкил этишда, ўтказишда, унинг натижаларини баҳолашда ва жорий этишда жисмоний ва юридик шахсларни камситишга, бошқа жисмоний ва юридик шахсларга зарар етказган ҳолда бир жисмоний ва юридик шахсга имтиёзлар ёки преференциялар тақдим этишга, уларнинг ҳуқуқлари ҳамда қонуний манфаатларини, шунингдек жамият ва давлат манфаатларини бузишга йўл қўйилмайди.

8-модда. Жамоат хавфсизлигини, экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилишнинг устуворлиги принципи

Ҳуқуқий экспериментни ташкил этишда, ўтказишда, унинг натижаларини баҳолашда ва жорий этишда жамоат хавфсизлигини ҳамда аҳолининг санитария-эпидемиологик осойишталигини бузишга, экологияга ва атроф-муҳитга зарар етказишга йўл қўйилмайди.

9-модда. Очиқлик ва ошкоралик принципи

Ҳуқуқий экспериментни ташкил этиш, ўтказиш, унинг натижаларини баҳолаш ва жорий этиш очиқ ҳамда ошкора амалга оширилади.

10-модда. Асосланганлик принципи

Ҳуқуқий экспериментни ўтказишнинг мақсадга мувофиқлиги ва зарурлиги таҳлил қилиниши ҳамда ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилинадиган норматив-ҳуқуқий ҳужжат ёки экспериментал-ҳуқуқий нормалар орқали юзага келиши мумкин бўлган эҳтимолий оқибатлар асосланган бўлиши керак.

Ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилинадиган норматив-ҳуқуқий ҳужжатни ташаббус қилишга, тайёрлашга ва қабул қилишга фақат ушбу норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг оқибатларини норма ижодкорлигининг бошқа усуллари билан аниқлаш имкони мавжуд бўлмаганда йўл қўйилади.

11-модда. Долзарблик принципи

Ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилинадиган норматив-ҳуқуқий ҳужжат ёки экспериментал-ҳуқуқий норма жамият ва давлат учун долзарб аҳамиятга эга бўлган масалани тартибга солишга қаратилган бўлиши керак.

QMMB: 03/26/1127/0280-son
28.03.2026-y.

12-модда. Ҳуқуқий экспериментнинг мақсади

Ҳуқуқий экспериментнинг мақсади эксперименталь-ҳуқуқий нормаларни муайян соҳага жорий этишдан, ушбу нормаларнинг самарадорлигини таҳлил қилишдан ҳамда уларнинг натижасида юзага келган ёки келиши мумкин бўлган эҳтимолий оқибатларни ўрганиш ва баҳолаш орқали самарали ҳуқуқий нормаларни амалиётга жорий этишдан иборат.

13-модда. Ҳуқуқий экспериментнинг шартлари

Ҳуқуқий экспериментни ташкил этишда, ўтказишда, унинг натижаларини баҳолашда ва жорий этишда қуйидаги шартларга амал қилинади:

эксперименталь-ҳуқуқий нормаларни қўллашда юзага келиши мумкин бўлган салбий оқибатларнинг олдини олиш ва уларни камайтириш чораларини кўриш;

эксперименталь-ҳуқуқий нормалар ҳуқуқий экспериментни жорий этиш мақсадлари доирасида синовдан ўтказилаётганлигини асослаш;

эксперименталь-ҳуқуқий нормаларни турлича талқин қилинмайдиган ёки ноаниқликка йўл қўйилмайдиган даражада тушунарли тарзда баён этиш;

ҳуқуқий экспериментни ўтказишда иштирокчиларнинг тенглигини таъминлаш, шунингдек етарлича асосланмаган имтиёзлар, давлат ёрдами берилишига ва чекловлар белгиланишига йўл қўймаслик;

ҳуқуқий экспериментнинг оқилоналиги ва манфаатдор тарафларда белгиланган талабларни бажариш имконияти мавжудлиги;

эксперименталь-ҳуқуқий нормалар билан белгиланаётган янги талабларга мослашиш учун етарли вақт берилиши;

ҳуқуқий экспериментни ўтказиш шарт-шароитлари ва молиялаштириш манбалари аниқ ҳамда етарли бўлиши;

ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилинадиган норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини, ҳуқуқий экспериментни ўтказиш дастурини ва ҳуқуқий эксперимент якунлари бўйича ҳисоботни жамоатчилик муҳокамасидан ўтказиш;

ҳуқуқий эксперимент ва унинг натижалари ҳақида Ҳуқуқий экспериментнинг ягона реестри, оммавий ахборот воситалари, Интернет жаҳон ахборот тармоғи, шу жумладан расмий манбалар ҳамда ижтимоий тармоқлар орқали жамоатчиликни хабардор қилиш;

фақат кучга кирган, ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилинган норматив-ҳуқуқий ҳужжатни ёки эксперименталь-ҳуқуқий нормани ҳуқуқий экспериментдан ўтказиш;

ҳуқуқий экспериментни тегишли муносабатларни ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солувчи ўзаро тенг ёки юқорироқ юридик кучга эга бўлган ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилинган норматив-ҳуқуқий ҳужжат билан ўтказиш;

QMMB: 03/26/1127/0280-son
28.03.2026-y.

ҳуқуқий эксперимент қайси даражадаги норматив-ҳуқуқий ҳужжат билан ўтказилган бўлса, унинг натижаларини ўша даражадаги ёки ундан юқорироқ юридик кучга эга бўлган норматив-ҳуқуқий ҳужжат билан жорий этиш.

14-модда. Ҳуқуқий экспериментнинг муддатини, ҳудудини ва (ёки) шахслар доирасини белгилаш

Ҳуқуқий экспериментнинг муддати ҳуқуқий экспериментни ташкил этиш, ўтказиш, унинг натижаларини баҳолаш ва жорий этиш учун оқилона сарфланадиган вақт ҳисобга олинган ҳолда олти ойдан уч йилгача бўлган муддатга белгиланади. Ҳуқуқий эксперимент кўрсатилган муддат тугаганидан кейин давом эттирилиши мумкин эмас.

Ҳуқуқий экспериментнинг ҳудуди ҳуқуқий экспериментнинг мазмунидан ҳамда у ўтказиладиган маъмурий-ҳудудий бирликнинг ўзига хос хусусиятларидан ва табиатидан келиб чиққан ҳолда белгиланади.

Ҳуқуқий экспериментнинг шахслар доираси ҳуқуқий экспериментнинг мазмунидан ва унда иштирок этадиган шахсларнинг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиққан холда белгиланади.

Ҳуқуқий экспериментнинг муддатини, ҳудудини ва (ёки) шахслар доирасини белгилашда тегишли маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органлари билан маслаҳатлашувлар ўтказилади.

Тегишли маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органлари ҳуқуқий экспериментда иштирок этишга, шу жумладан ҳудудларни ҳуқуқий эксперимент ўтказиладиган ҳудудлар рўйхатига киритишга ёки ундан чиқариш бўйича асослантирилган таклифлар тақдим этишга ҳақли.

15-модда. Ҳуқуқий экспериментнинг ягона реестри

Ҳуқуқий экспериментнинг ягона реестри ҳуқуқий экспериментни ташкил этиш, ўтказиш ва унинг якунлари бўйича амалга оширилган ишлар тўғрисидаги маълумотларни ўз ичига олади.

Ҳуқуқий эксперимент ўтказилишини назарда тутувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжат ва ҳуқуқий экспериментни ўтказиш дастури қабул қилинганидан кейин бир иш куни ичида ваколатли орган томонидан қуйидаги маълумотлар билан бирга Ҳуқуқий экспериментнинг ягона реестрига киритилади:

ҳуқуқий экспериментни ўтказишнинг мақсади ва вазифалари;

ҳуқуқий экспериментнинг муддати, ҳудуди ва (ёки) шахслар доираси;

масъул органлар ва уларнинг вазифалари;

ҳуқуқий экспериментнинг ўтказилишини назорат қилувчи давлат органлари;

ҳуқуқий экспериментнинг самарадорлиги ва натижадорлигини баҳолашга нисбатан қўйиладиган талаблар ёки мезонлар, шу жумладан баҳолашдан ўтказиладиган кўрсаткичлар.

QMMB: 03/26/1127/0280-son
28.03.2026-y.

Ҳуқуқий экспериментнинг ягона реестри ва ундаги маълумотлар барча фойдаланиши учун очиқдир. Бунда ўтказилаётган ҳуқуқий эксперимент юзасидан жисмоний ва юридик шахслар томонидан фикр-мулоҳазалар ва (ёки) таклифлар билдириш имконияти яратилади.

Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги Ҳуқуқий экспериментнинг ягона реестри оператори ҳисобланади.

2-боб. Ҳуқуқий экспериментни тартибга солиш ҳамда фуқаролик жамияти институтларининг ҳуқуқий экспериментда иштирок этиши

16-модда. Ваколатли органнинг ҳуқуқий экспериментни ташкил этиш ва ўтказиш бўйича ваколатлари

Ваколатли орган:

норматив-ҳуқуқий ҳужжатни ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилиш тўғрисида;

ҳуқуқий экспериментнинг кўламини кенгайтириш, муддатини узайтириш, уни тўхтатиб туриш ёки муддатидан олдин тугатиш ҳақида;

ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилинган норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг ёки тегишли экспериментал-ҳуқуқий нормаларнинг амал қилишини вақт бўйича, муайян ҳудудда ва (ёки) шахслар доираси бўйича чекланмаган ҳолда қабул қилиш тўғрисида ёки қабул қилиш мақсадга мувофиқ эмаслиги ҳақида қарор қабул қилади.

Ҳуқуқий эксперимент Ўзбекистон Республикасининг қонунлари, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг қарорлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари ва қарорлари ҳамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари билан ўтказилади.

Ваколатли орган қонунчиликка мувофиқ ҳуқуқий экспериментни ташкил этиш ва ўтказиш бўйича бошқа ваколатларни ҳам амалга ошириши мумкин.

17-модда. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг ҳуқуқий экспериментни ташкил этиш ва ўтказиш бўйича ваколатлари

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси:

ҳуқуқий экспериментни ташкил этиш ва ўтказишда вазирликлар ҳамда идораларнинг фаолиятини мувофиқлаштиради;

ҳуқуқий экспериментнинг ўз вақтида, тўлиқ ва сифатли ташкил этилиши ва ўтказилишини таъминлайди;

масъул органни белгилайди;

QMMB: 03/26/1127/0280-son
28.03.2026-y.

ҳуқуқий эксперимент ўтказилишига тўсқинлик қилаётган муаммоларни ҳал этиш ва омилларни бартараф қилиш юзасидан тегишли давлат органларининг ҳамда ташкилотларининг зиммасига вазифалар юклатади, уларга ортиқча бюрократик тўсиқларни бартараф этишга доир кўрсатмалар беради;

ҳуқуқий экспериментни ташкил этиш ва ўтказиш бўйича вақтинчалик низомни қабул қилади ҳамда давлат органлари ва ташкилотларига услубий жиҳатдан кўмаклашади.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қонунчиликка мувофиқ ҳуқуқий экспериментни ташкил этиш ва ўтказиш бўйича бошқа ваколатларни ҳам амалга ошириши мумкин.

18-модда. Масъул органнинг ҳуқуқий экспериментни ўтказиш ва унинг натижаларини баҳолаш бўйича ваколатлари

Масъул орган:

ҳуқуқий экспериментни ўтказиш ва унинг натижаларини баҳолаш бўйича зарур чоралар кўради;

ҳуқуқий экспериментни ўтказиш ва унинг натижаларини баҳолаш юзасидан давлат ташкилотларига, корхоналар ва муассасаларга мурожаат қилади, маълумотлар олади ҳамда таклифлар билан чиқади;

ҳуқуқий экспериментни ўтказишга ва унинг натижаларини баҳолашга доир йиғилишлар, давра суҳбатлари, учрашувлар ва бошқа тадбирларни ташкил этади;

манфаатдор тарафлар ўртасида ҳуқуқий эксперимент билан боғлиқ масалалар бўйича сўровномалар ўтказади, шунингдек ҳуқуқий экспериментни ўтказиш ва унинг натижаларини баҳолаш юзасидан статистик маълумотларни йиғади ҳамда маълумотлар базасини шакллантиради;

ҳуқуқий экспериментни ўтказиш бўйича экспертларни, илмий-таҳлилий ишларни амалга ошириш учун илмий ва бошқа ташкилотларни, шунингдек олимлар ва мутахассисларни белгиланган тартибда, шу жумладан шартнома асосида жалб қилади;

манфаатдор давлат органлари ва ташкилотлари билан биргаликда ҳуқуқий экспериментга доир стандартларни, қоидаларни қонунчиликда белгиланган тартибда ишлаб чиқади ҳамда тасдиқлайди;

ҳуқуқий экспериментни ўтказиш ва унинг натижаларини баҳолаш учун шарт-шароитлар яратиш юзасидан таклифлар ишлаб чиқади;

ҳуқуқий эксперимент иштирокчиларининг ҳуқуқларини ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш чораларини кўради;

ҳуқуқий экспериментни таҳлил қилади, мониторинг ва ўрганиш ишларини амалга оширади ҳамда унинг натижаларини баҳолайди.

Масъул орган қонунчиликка мувофиқ ҳуқуқий экспериментни ўтказиш ва унинг натижаларини баҳолаш бўйича бошқа ваколатларни ҳам амалга ошириши мумкин.

QMMB: 03/26/1127/0280-son
28.03.2026-y.

19-модда. Фуқаролик жамияти институтларининг ҳуқуқий экспериментда иштирок этиши

Фуқаролик жамияти институтлари, шу жумладан жамоат бирлашмалари ва бошқа нодавлат нотижорат ташкилотлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, оммавий ахборот воситалари ўз ваколатлари доирасида:

давлат органларининг ёки улар ҳузуридаги ишчи гуруҳларнинг, комиссияларнинг ва жамоатчилик-маслаҳат органларининг мажлисларида кўриб чиқиш учун ҳуқуқий экспериментни ўтказиш дастурларини ва ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилинадиган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини, тегишли лойиҳаларга доир таклифларни киритиши;

ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилинадиган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини ташаббус қилишда, кўриб чиқишда ва тайёрлашда иштирок этиши;

ҳуқуқий экспериментни ташкил этиш, ўтказиш, унинг натижаларини баҳолаш ва жорий этиш устидан жамоатчилик назоратини амалга ошириши;

ҳуқуқий эксперимент тўғрисидаги қонунчиликни такомиллаштиришга доир таклифлар киритиши мумкин.

Фуқаролик жамияти институтлари ва фуқаролар масъул орган томонидан ўтказиладиган сўровномаларда, давра суҳбатларида ва экспертлар йиғилишларида иштирок этиши, ушбу институтлар ва фуқароларнинг таклифлари мажбурий тартибда кўриб чиқилиши ҳамда натижалари ҳуқуқий эксперимент якунлари бўйича тайёрланган ҳисоботда акс эттирилиши керак.

3-боб. Ҳуқуқий экспериментни ташкил этиш, ўтказиш, унинг натижаларини баҳолаш ва жорий этиш

20-модда. Ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилинадиган норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини тайёрлашни ташаббус қилиш

Ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилинадиган норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини тайёрлашни ташаббус қилишга фақат, башарти:

кўтарилаётган масалаларни ёки муаммоларни тартибга солишда мақбул ечимларни танлаш учун зарур бўлган маълумотларни бошқа усуллар ёрдамида, шу жумладан тартибга солиш таъсирини баҳолаш орқали олиш мумкин бўлмаса;

ушбу Қонун билан тақиқланмаган муносабатларни яхшилашга, енгиллаштиришга, соддалаштиришга ва самарадорликни оширишга қаратилган бўлса, йўл қўйилади.

QMMB: 03/26/1127/0280-son
28.03.2026-y.

Ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилинадиган норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини тайёрлашни ташаббус қилиш қонунчиликка мувофиқ норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ташаббус қилиш ҳуқуқига эга органлар (шахслар) томонидан амалга оширилади.

Ҳуқуқий эксперимент тартибида Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг ҳамда унга ўзгартириш ва қўшимчалар киритилишини назарда тутувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг лойиҳасини тайёрлашни ташаббус қилишга йўл қўйилмайди.

Жисмоний ва юридик шахслар тегишли давлат органларига ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилинадиган норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси тўғрисида таклифлар киритишга ҳақли.

21-модда. Ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилинадиган норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини тайёрлаш ва қабул қилиш

Ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилинадиган норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини тайёрлаш жараёнида:

ҳуқуқий экспериментни ўтказиш дастури ишлаб чиқилади;

тартибга солиш таъсири баҳолашдан ўтказилади ва баҳолаш натижалари тўғрисида ҳисобот тайёрланади;

ҳуқуқий, коррупцияга қарши ва бошқа зарур экспертиза ўтказилади.

Ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилинадиган норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси ушбу Қонунда белгиланган ўзига хос хусусиятлар инобатга олинган ҳолда «Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида»ги, «Қонунлар лойиҳаларини тайёрлаш ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатасига киритиш тартиби тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси қонунларида ҳамда бошқа қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда тайёрланади ва қабул қилинади.

22-модда. Ҳуқуқий экспериментни ўтказиш дастури

Ҳуқуқий экспериментни ўтказиш дастурида қуйидагилар кўрсатилиши керак:

ҳуқуқий экспериментни ўтказишнинг мақсади ва вазифалари;

ҳуқуқий экспериментнинг муддати, ҳудуди ва (ёки) шахслар доираси ва уларни танлаш асослари. Бунда ҳуқуқий эксперимент ўтказиладиган ҳудудни танлашда ўтказиладиган ҳуқуқий экспериментнинг самарадорлигини таҳлил қилиш ҳамда натижада юзага келган ёки келиши мумкин бўлган эҳтимолий оқибатларни ўрганиш ва баҳолаш имконияти юқори эканлиги инобатга олинади;

ҳуқуқий экспериментни ўтказишнинг асосий босқичлари ва унинг муддатлари;

QMMB: 03/26/1127/0280-son
28.03.2026-y.

ҳуқуқий экспериментни ўтказиш учун зарур чора-тадбирлар, зарур бўлган ҳолларда ҳуқуқий экспериментни ташкил этиш ва ўтказиш бўйича вақтинчалик низомни ишлаб чиқиш муҳимлиги;

ҳуқуқий экспериментни ўтказиш учун зарур бўлган ресурслар, шу жумладан молиялаштириш манбалари ва уларнинг миқдори;

ҳуқуқий эксперимент иштирокчилари ва улар бажариши керак бўлган талаблар;

масъул органлар ва уларнинг вазифалари, шу жумладан моддий-техникавий, молиявий ҳамда бошқа ресурслар билан таъминлаш бўйича вазифалари;

шахснинг мол-мулкига, давлат мудофаасига ва (ёки) хавфсизлигига, қонун билан ҳимоя қилинадиган бошқа қадриятларга зарар етказилиши хавфини баҳолаш ҳамда бундай хавфларни камайтириш чоралари;

ҳуқуқий эксперимент вақтида берилган ваколатлар, ҳуқуқлар ва имкониятлардан фойдаланиш тартиби;

ҳуқуқий экспериментнинг назорат қилиниши, шу жумладан назорат функцияларини амалга оширувчи органлар, шунингдек назорат функцияларини амалга ошириш, ҳуқуқий экспериментни ўтказиш дастурининг қоидаларига риоя этилишини текширишни ташкил этиш ва ўтказиш тартиби;

ҳуқуқий экспериментнинг самарадорлиги ва натижадорлигини баҳолашга қўйиладиган талаблар ёки мезонлар, шу жумладан баҳолашдан ўтказиладиган кўрсаткичлар;

эксперимental-ҳуқуқий нормалар ҳамда амалдаги қонунчилик ҳужжатлари билан тартибга солиш ўртасидаги фарқлар тўғрисида ҳуқуқий эксперимент иштирокчиларини хабардор қилиш усуллари;

ҳуқуқий эксперимент жараёни ва унинг натижалари, шу жумладан эксперимental-ҳуқуқий нормалар ҳамда амалдаги қонунчилик ҳужжатлари билан тартибга солиш ўртасидаги фарқлар тўғрисида оммавий ахборот воситалари, Интернет жаҳон ахборот тармоғи, шу жумладан расмий манбалар ва ижтимоий тармоқлар орқали хабардор қилиш усуллари.

Ҳуқуқий эксперимент ўтказиш дастурида бошқа зарур маълумотлар ҳам кўрсатилиши мумкин.

Ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилинадиган қонун ҳужжатлари бўйича ҳуқуқий экспериментни ўтказиш дастури Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг қарорлари билан тасдиқланади.

Ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилинадиган қонуности ҳужжатлари бўйича ҳуқуқий эксперимент ўтказиш дастури тегишли ваколатли органнинг қарори билан тасдиқланади.

23-модда. Ҳуқуқий экспериментни ўтказиш

Ҳуқуқий эксперимент муайян ҳудудда ва (ёки) шахслар доираси бўйича чекланган ҳолда, белгиланган вақт оралиғида ўтказилади.

QMMB: 03/26/1127/0280-son
28.03.2026-y.

Ҳуқуқий эксперимент экспериментал-ҳуқуқий нормалар асосида ҳуқуқий экспериментнинг тартиб-таомилларини жорий этиш ва уларнинг натижаларини баҳолаш орқали амалга оширилади.

Ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилинадиган норматив-ҳуқуқий ҳужжатда қуйидагилар кўрсатилиши шарт:

ҳуқуқий экспериментни ўтказишнинг мақсади ва вазифалари;

экспериментал-ҳуқуқий нормаларнинг барқарор амалга оширилишини таъминловчи кафолатлар, шу жумладан ҳуқуқий ва молиявий кафолатлар;

ҳуқуқий экспериментнинг шаффофлигини ва унинг натижаларининг ишончлилигини таъминлашга қаратилган кўрсатмалар ҳамда тавсиялар;

ҳуқуқий экспериментнинг муддати, ҳудуди ва (ёки) шахслар доираси.

Масъул орган тегишли ваколатли органга ҳуқуқий экспериментни ўтказиш ва унинг натижаларини баҳолаш ҳолати бўйича ҳар чоракда ҳисоботлар тақдим этади.

24-модда. Ҳуқуқий экспериментнинг натижаларини баҳолаш

Масъул орган ҳуқуқий экспериментни ўтказиш дастурида белгиланган муддатларда ва тартибда ҳуқуқий эксперимент жараёнларини мониторинг қилиш орқали унинг натижаларини баҳолаб боради.

Ҳуқуқий эксперимент мониторинги қуйидагиларни ўз ичига олади:

экспериментал-ҳуқуқий норманинг у қўлланилган соҳага нисбатан таъсирини аниқлашни;

сўровлар юбориш, сўровномалар ўтказиш, фикр-мулоҳазаларни йиғиш ва ҳуқуқни қўллаш амалиётида синовдан ўтган экспериментал-ҳуқуқий норманинг самарадорлилик даражасини бошқа усуллар орқали аниқлашни;

экспериментал-ҳуқуқий норма жорий этилганидан кейин қандай ижобий ва салбий оқибатларга олиб келишининг таҳлилини;

жисмоний ва юридик шахсларнинг экспериментал-ҳуқуқий норма юзасидан давлат органларига ҳамда ташкилотларига мурожаатлари таҳлилини;

экспериментал-ҳуқуқий нормани қўллаш амалиёти юзасидан ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг ёки назорат қилувчи органларнинг ушбу соҳадаги назорати таҳлилини;

мурожаатлар ҳамда қабул қилинган қарорлар даврийлигини ҳисобга олган ҳолда суд амалиёти ва статистикасининг таҳлилини;

оммавий ахборот воситаларидаги ва Интернет жаҳон ахборот тармоғидаги, шу жумладан ижтимоий тармоқлардаги маълумотларнинг таҳлилини;

экспериментал-ҳуқуқий норманинг ҳуқуқни қўллаш амалиёти бўйича статистика маълумотларини тўплашни ва бошқаларни.

Ҳуқуқий экспериментнинг мониторинги ва унинг натижаларини баҳолаш ҳуқуқий экспериментни ўтказиш дастурида белгиланган назорат қилиш ҳамда натижаларни баҳолаш бўйича услубий воситалар орқали амалга оширилади.

QMMB: 03/26/1127/0280-son
28.03.2026-y.

Ҳуқуқий экспериментнинг мониторинги ва унинг натижаларини баҳолаш ҳуқуқий эксперимент якунлари бўйича ҳисоботда тўлиқ кўрсатилиши шарт.

25-модда. Ҳуқуқий экспериментнинг натижаларини жорий этиш

Ҳуқуқий экспериментнинг натижаларини жорий этиш ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилинган норматив-ҳуқуқий ҳужжатни ёки тегишли экспериментал-ҳуқуқий нормаларни уларнинг амал қилишини вақт бўйича, муайян ҳудудда ва (ёки) шахслар доираси бўйича чекланмаган ҳолда қабул қилиш тўғрисида ижобий хулосага келинганда амалга оширилади.

Ваколатли орган ҳуқуқий эксперимент якунлари бўйича ҳисобот асосида ҳуқуқий эксперимент натижаларини жорий этиш ҳақида қарор қабул қилади.

26-модда. Ҳуқуқий экспериментни ўтказишни тўхтатиб туриш ва тугатиш

Ҳуқуқий эксперимент қуйидаги ҳолларда ваколатли орган томонидан тўхтатиб турилади:

ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилинган норматив-ҳуқуқий ҳужжат доирасида иш олиб борилмаганда;

ҳуқуқий экспериментни ўтказишда молиявий маблағларнинг мақсадсиз ва самарасиз сарфланиши, шунингдек турли хил суиистеъмолчилик ҳоллари юзага келганда.

Ҳуқуқий эксперимент қуйидаги ҳолларда ваколатли орган томонидан тугатилади:

ҳуқуқий эксперимент бўйича муддатидан олдин ижобий натижага эришилган, деган хулосага келинганда;

ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилинган норматив-ҳуқуқий ҳужжат ёки унинг бир қисми Ўзбекистон Республикасининг Конституциясида ёки қонунларида белгиланган тартибда бекор қилинганда;

экспериментал-ҳуқуқий нормаларни қўллаш оқибатида юзага келган хавф-хатарларнинг олдини олиш ва уларни камайтириш имкони бўлмаганда.

4-боб. Ҳуқуқий эксперимент якунларини расмийлаштириш

27-модда. Ҳуқуқий эксперимент якунлари бўйича ҳисобот

Ҳуқуқий эксперимент якунланганидан кейин масъул орган томонидан ҳуқуқий эксперимент натижалари бўйича ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилинган норматив-ҳуқуқий ҳужжатни ёки экспериментал-ҳуқуқий нормаларни уларнинг амал қилишини вақт бўйича, муайян ҳудудда ва (ёки) шахслар доираси бўйича чекланмаган ҳолда қабул қилиш

QMMB: 03/26/1127/0280-son
28.03.2026-y.

тўғрисида ёки қабул қилиш мақсадга мувофиқ эмаслиги ҳақида ўттиз иш куни ичида ҳуқуқий эксперимент якунлари бўйича ҳисобот тайёрланади.

Ҳуқуқий эксперимент якунлари бўйича ҳисоботда қуйидагилар кўрсатилади:

ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилинган норматив-ҳуқуқий ҳужжатни ёки экспериментал-ҳуқуқий нормаларни қўллаш амалиёти, ҳуқуқий экспериментнинг ижобий ва салбий оқибатлари, бундай ҳужжатнинг ёки экспериментал-ҳуқуқий нормаларнинг қўлланилишига таъсир ўтказган ижтимоий ҳамда бошқа омиллар, ҳуқуқий эксперимент ўтказилиши муносабати билан қилинган харажатларнинг ва олинган даромадларнинг таҳлили;

ўтказилган ҳуқуқий экспериментнинг самарадорлиги, фойдалилиги ва тежамкорлиги тўғрисидаги маълумотлар;

ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилинган норматив-ҳуқуқий ҳужжатни ёки экспериментал-ҳуқуқий нормаларни уларнинг амал қилишини вақт бўйича, муайян ҳудудда ва (ёки) шахслар доираси бўйича чекланмаган ҳолда қабул қилиш мақсадга мувофиқлигининг ёки қабул қилиш мақсадга мувофиқ эмаслигининг асослари;

ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилинган норматив-ҳуқуқий ҳужжат ёки экспериментал-ҳуқуқий нормалар уларнинг амал қилишини вақт бўйича, муайян ҳудудда ва (ёки) шахслар доираси бўйича чекланмаган ҳолда қабул қилинганидан кейин юзага келадиган ижобий ва салбий оқибатларнинг, харажатлар ва даромадларнинг ҳуқуқий эксперимент жараёнида эришилган натижалар ҳақидаги маълумотлар билан асослантирилган прогнози.

Ҳуқуқий эксперимент якунлари бўйича ҳисобот манфаатдор давлат органлари ва ташкилотлари билан келишилади.

Ҳуқуқий эксперимент якунлари бўйича ҳисобот Ҳуқуқий экспериментнинг ягона реестри, оммавий ахборот воситалари, Интернет жаҳон ахборот тармоғи, шу жумладан масъул органнинг расмий нашрлари ва расмий веб-сайтлари ҳамда ижтимоий тармоқлар орқали жамоатчиликка етказилиши шарт.

Ҳуқуқий эксперимент якунлари бўйича ҳисобот тегишлилигига қараб ваколатли органга киритилади.

28-модда. Ҳуқуқий эксперимент натижаси юзасидан қарор қабул қилиш

Ҳуқуқий эксперимент натижаси юзасидан ваколатли орган ҳуқуқий эксперимент якунлари бўйича ҳисобот асосида қуйидаги қарорлардан бирини қабул қилади:

ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилинган норматив-ҳуқуқий ҳужжатни ёки экспериментал-ҳуқуқий нормаларни уларнинг амал қилишини вақт бўйича, муайян ҳудудда ва (ёки) шахслар доираси бўйича чекланмаган ҳолда қабул қилиш мақсадга мувофиқлиги тўғрисида;

QMMB: 03/26/1127/0280-son
28.03.2026-y.

ҳуқуқий эксперимент тартибида қабул қилинган норматив-ҳуқуқий ҳужжатни ёки экспериментал-ҳуқуқий нормаларни уларнинг амал қилишини вақт бўйича, муайян ҳудудда ва (ёки) шахслар доираси бўйича чекланмаган ҳолда қабул қилиш мақсадга мувофиқ эмаслиги тўғрисида;

ҳуқуқий экспериментни ўтказиш муддатини узайтириш тўғрисида, бунда мазкур муддат ушбу Қонун 14-моддасининг биринчи қисмида назарда тутилган муддат доирасида узайтирилиши мумкин;

ҳуқуқий эксперимент натижаларини инобатга олган ҳолда қонунчиликни такомиллаштириш ҳақида;

ҳуқуқий эксперимент натижаларини инобатга олган ҳолда норматив-ҳуқуқий ҳужжатни ўз кучини йўқотган деб топиш тўғрисида.

29-модда. Ҳуқуқий эксперимент доирасида берилган имтиёзларнинг ва қабул қилинган маъмурий ҳужжатларнинг эксперимент якунларига кўра амал қилиши

Ҳуқуқий эксперимент доирасида жисмоний ва юридик шахсларга берилган имтиёзлар ҳамда қабул қилинган маъмурий ҳужжатлар, агар қонунчилик ҳужжатларида ушбу имтиёзлар ва маъмурий ҳужжатлар ўз кучини йўқотиши назарда тутилмаган бўлса, ҳуқуқий экспериментнинг амал қилиши муддатида сақланиб қолади.

Ҳуқуқий эксперимент якунланганидан кейин ҳуқуқий эксперимент доирасида берилган имтиёзларнинг ва қабул қилинган маъмурий ҳужжатларнинг амал қилиши муддатини узайтиришга йўл қўйилмайди.

5-боб. Якунловчи қоидалар

30-модда. Ҳуқуқий эксперимент натижаларини эълон қилиш

Ҳуқуқий эксперимент натижалари Ҳуқуқий экспериментнинг ягона реестрида, оммавий ахборот воситаларида, Интернет жаҳон ахборот тармоғида, шу жумладан масъул органнинг расмий нашрларида ва расмий веб-сайтларида ҳамда ижтимоий тармоқларда эълон қилиниши керак.

31-модда. Ҳуқуқий экспериментни молиялаштириш манбалари

Ҳуқуқий экспериментни ўтказишни молиялаштириш Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети маблағлари ва қонунчиликда тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан амалга оширилади.

32-модда. Ҳуқуқий экспериментга доир қонунга хилоф ҳаракатлар ва қарорлар устидан шикоят қилиш

Жисмоний ва юридик шахслар ҳуқуқий эксперимент давомида ўз ҳуқуқлари ҳамда қонуний манфаатлари бузилганлиги устидан

QMMB: 03/26/1127/0280-son
28.03.2026-y.

қонунчиликда белгиланган тартибда масъул органга ёки ваколатли органга ёхуд бевосита судга шикоят қилиши мумкин.

Юқори турувчи органга ёки мансабдор шахсга шикоят қилиниши бундай шикоятни судга бериш ҳуқуқини истисно этмайди.

33-модда. Ҳуқуқий эксперимент тўғрисидаги қонунчиликни бузганлик учун жавобгарлик

Ҳуқуқий эксперимент тўғрисидаги қонунчиликни бузганликда айбдор шахслар белгиланган тартибда жавобгар бўлади.

34-модда. «Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартириш киритиш

Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 20 апрелда қабул қилинган **«Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида»**ги ЎРҚ–682-сонли Қонуни (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2021 йил, № 4, 288-модда; 2022 йил, № 3, 213-модда, № 8, 788-модда, № 10, 983-модда; 2023 йил, № 8, 629-модда, № 11, 923-модда; 2024 йил, № 2, 109-модда, № 9, 955-модда, № 10, 1075, 1076-моддалар; 2025 йил, № 4, 516-модда) **34-моддасининг матни** қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Ҳуқуқий эксперимент норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг ёки ҳуқуқий норманинг самарадорлигини амалда муайян ҳудудда ва (ёки) шахслар доираси бўйича чекланган ҳолда, белгиланган вақт оралиғида синовдан (тажрибадан, апробациядан ва шу кабилардан) ўтказиш билан боғлиқ чора-тадбирлар мажмуидир.

Ҳуқуқий экспериментни ташкил этишга, ўтказишга, унинг натижаларини баҳолашга ва жорий этишга доир муносабатлар «Ҳуқуқий эксперимент тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни ва бошқа қонун ҳужжатлари билан тартибга солинади».

35-модда. Ушбу Қонуннинг ижросини, етказилишини, моҳияти ва аҳамияти тушунтирилишини таъминлаш

Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ва бошқа манфаатдор ташкилотлар ушбу Қонуннинг ижросини, ижрочиларга етказилишини ҳамда моҳияти ва аҳамияти аҳоли ўртасида тушунтирилишини таъминласин.

36-модда. Қонунчиликни ушбу Қонунга мувофиқлаштириш

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси:

ҳукумат қарорларини ушбу қонунга мувофиқлаштирсин;

республика ижро этувчи ҳокимият органлари ушбу Қонунга зид бўлган ўз норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини қайта кўриб чиқишлари ва бекор қилишларини таъминласин.

QMMB: 03/26/1127/0280-son
28.03.2026-y.

37-модда. Ушбу Қонуннинг кучга кириши

Ушбу Қонун расмий эълон қилинган кундан эътиборан уч ой ўтгач кучга киради.

Ўзбекистон Республикасининг Президенти **Ш. Мирзиёев**

Тошкент шаҳри,
2026 йил 27 март
№ ЎРҚ–1127

ИККИНЧИ БЎЛИМ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ФАРМОН ВА ҚАРОРЛАРИ

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI

2026 yil «25» март ПФ–46 -son

Атмосфера ҳавоси сифатини яхшилашга қаратилган “Тоза ҳаво” умуммиллий лойиҳасини амалга ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида

Иқлим ўзгаришининг жадаллашиши, урбанизация, саноат ва транспортнинг ривожланиши натижасида атроф-муҳитга антропоген юкламани қисқартириш ҳамда атмосфера ҳавоси ифлосланишининг олдини олиш, шунингдек, экологик тоза ва ресурс тежамкор технологияларни жорий этишни рағбатлантириш мақсадида **қарор қиламан**:

I. Мақсадлар

1. Қуйидагилар 2026–2030 йилларда атмосфера ҳавоси сифатини яхшилашга қаратилган **“Тоза ҳаво” умуммиллий лойиҳасининг асосий мақсадлари** этиб белгилансин:

(а) атмосферага чиқариб ташланаётган ифлослантирувчи моддалар **миқдорини 10,5 фоизга камайтириш**;

(б) атроф-муҳитга таъсири бўйича **I ва II тоифага кирувчи корхоналарда** автоматик мониторинг станциялари ва чанг-газ тозалаш ускуналари **ўрнатилишини таъминлаш**;

(в) саноат объектларидан чиқадиган **ташламаларни ушлаб қолиш улушини 32 фоизга етказиш**;

(г) PM2,5 бўйича миллий меъёрлардан ошиш кузатилган **кунлар сонини камайтириш**;

(д) транспорт воситаларидан атмосфера ҳавосига чиқарилаётган ифлослантирувчи моддалар ҳажмини **10 фоизга қисқартириш**.

2. Қуйидагилар:

(а) Атмосфера ҳавоси сифатини яхшилашга қаратилган “Тоза ҳаво” умуммиллий лойиҳасининг мақсадли кўрсаткичлари **1-иловага** мувофиқ;

(б) Атмосфера ҳавоси сифатини яхшилашга қаратилган “Тоза ҳаво” умуммиллий лойиҳасини Тошкент шаҳрида амалга ошириш дастури **2-иловага** мувофиқ;

(в) Атмосфера ҳавоси сифатини яхшилашга қаратилган “Тоза ҳаво” умуммиллий лойиҳасини Тошкент шаҳрида амалга ошириш дастурининг мақсадли кўрсаткичлари **2а-иловага** мувофиқ;

(г) Тошкент шаҳрида 2030 йилгача яшил ҳудудлар тизимини ривожлантириш ва бу борада аҳоли эҳтиёжларини таъминлашнинг мақсадли кўрсаткичлари **2б-иловага** мувофиқ тасдиқлансин.

3. Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитасининг (кейинги ўринларда – Экология қўмитаси) **Тошкент шаҳрида экологик вазиятни яхшилаш юзасидан кечиктириб бўлмайдиган чора-тадбирларни амалга ошириш бўйича махсус комиссия** фаолиятини **2027 йил 1 мартгача узайтириш** ҳамда унинг номини **Экологик вазиятни яхшилаш юзасидан кечиктириб бўлмайдиган чора-тадбирларни амалга ошириш бўйича республика махсус комиссиясига** ўзгартириш бўйича таклифига розилик берилсин.

4. Экология қўмитаси манфаатдор вазирлик ва идоралар, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ҳамда вилоятлар ҳокимликлари билан биргаликда:

(а) 2026 йил 1 июлгача **Фарғона**, **Андижон** ҳамда **Наманган** вилоятлари;

(б) 2026 йил 1 августгача **Тошкент**, **Сирдарё**, **Жиззах** ва **Самарқанд** вилоятлари;

(в) 2026 йил 1 октябргача **Қашқадарё**, **Сурхондарё**, **Навоий** ва **Бухоро** вилоятлари;

(г) 2026 йил 1 декабргача **Қорақалпоғистон Республикаси** ҳамда **Хоразм вилоятида "Тоза ҳаво" умуммиллий лойиҳасини** амалга оширишга қаратилган норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаларини ишлаб чиқсин.

5. Белгилансинки, мазкур Фармоннинг 4-бандида назарда тутилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари ишлаб чиқилиб, белгиланган тартибда қабул қилингунига қадар "Тоза ҳаво" умуммиллий лойиҳасини ҳудудларда амалга ошириш **Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси** ҳамда **вилоятлар халқ депутатлари кенгашлари томонидан тасдиқланган дастурларга мувофиқ амалга оширилади**.

II. Энергетика, саноат ва қишлоқ хўжалиги тармоқларида экологик ислоҳотларни амалга ошириш

6. Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга мувофиқ **2026 йил 1 апрелдан бошлаб** Тошкент шаҳрида янги саноат зоналарини ташкил қилишга муддатсиз мораторий жорий қилинади (бундан хизмат кўрсатиш ёки молиявий хизматларга ихтисослашган зоналар мустасно).

7. Белгилаб қўйилсинки, иссиқлик ва электр энергиясини ишлаб чиқариш ҳамда саноат корхоналарида чанг-газ тозалаш ва **энергия самарадор ускуналар** ўрнатиш мақсадида қуйидаги чоралар кўрилади:

(а) 2026 йил 1 октябрдан бошлаб Халқаро стандартлаштириш ташкилотининг экологик менежмент, иссиқхона газларини бошқариш, экологик хавфсизлик ва яшил энергия **халқаро сертификатларини** олиб, маҳсулотининг **30 фоизини муқобил энергия** ҳисобига ишлаб чиқарган корхоналарнинг сертификатни олиш харажатларининг **50 фоизигача** бўлган қисми Экология қўмитаси ҳузуридаги **Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари** ҳисобидан қоплаб берилади;

(б) 2026 йил 1 майгача Тошкент шаҳри ҳамда унга туташ ҳудудларда жойлашган иссиқлик ва электр энергиясини ишлаб чиқариш корхоналарида устувор (турғун) манбалар бўйича **мажбурий тартибда** автоматик мониторинг станциялари ва автоматик кузатув постлари ўрнатилади ҳамда ушбу қурилмалардан олинадиган маълумотлар Экология қўмитасининг **ягона геоахборот маълумотлар базасига интеграция қилинади**;

(в) атроф-муҳитга таъсири бўйича **I ва II тоифага кирувчи корхоналар** томонидан ўрнатилган автоматик мониторинг станциялари Экология қўмитасининг ягона геоахборот маълумотлар базасига **интеграция қилинмаган** тақдирда, уларга нисбатан атроф табиий муҳитни ифлослантирганлиги ва чиқиндиларни жойлаштирганлиги учун компенсация тўловлари **ўн бараварга оширилган** ҳолда қўлланади;

(г) 2026 йил 1 июлдан бошлаб иссиқхоналарни иссиқлик билан таъминлашда иссиқхоналардаги мувофиқлик сертификати мавжуд бўлмаган ҳамда ёниш жараёни назорат қилинмайдиган қозонлардан фойдаланиш амалиёти бекор қилинади.

8. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳамда Энергия самарадорлиги миллий агентлиги томонидан Япония халқаро ҳамкорлик агентлигининг (JICA) **100 миллион АҚШ доллари** миқдоридаги қарз маблағларини ҳамда Европа тикланиш ва тараққиёт банкининг (ЕТТБ) **200 миллион АҚШ доллари** миқдоридаги давлат кафолатисиз кредитини жалб қилиш бўйича келишувга эришилганлиги маълумот учун қабул қилинсин.

9. Белгилансинки, мазкур Фармоннинг **8-бандида** назарда тутилган маблағлар тижорат банклари орқали саноат корхоналарига яшил технологиялар, чанг-газ тозалаш ускуналари, автоматик мониторинг станциялари, энергия самарадор ускуналар ва локал сув тозалаш иншоотларини сотиб олиш учун имтиёзли кредитлар ажратишга йўналтирилади.

10. Вазирлар Маҳкамаси ва Савдо-саноат палатаси **2026 йил 1 майдан бошлаб 2026 йил 1 декабргача** атроф-муҳитга таъсири бўйича I ва II тоифага кирувчи корхоналарда **яшил технологиялар**, **чанг-газ тозалаш ускуналари**, **автоматик мониторинг станциялари**, **энергия самарадор ускуналар** ва **локал сув тозалаш иншоотларни** ўрнатиш режасини тасдиқласин ҳамда ижросини таъминласин.

11. Белгилансинки, Экология қўмитаси:

(а) чанг-газ тозалаш ускуналари самарадорлигини махсус лаборатория синовлари асосида доимий равишда **мониторинг** қилиб боради;

(б) мониторинг натижаларига кўра **ижобий хулоса** берилган чанг-газ тозалаш ускуналари **реестрини** шакллантиради ва ўзининг расмий саҳифасида эълон қилади.

III. Қурилиш соҳасида атмосфера ҳавосини муҳофаза қилиш ва экологик талабларни кучайтириш

12. Белгилансинки, **2026 йил 1 июндан бошлаб**:

(а) қурилиш объектларида (якка тартибдаги уй-жойлар бундан мустасно) қуйидаги экологик талабларни жорий қилиш мажбуриятлари киритилади:

(i) қурилиш объектларини **фон мониторинг станциялари билан жиҳозлаш** ва Экология қўмитасининг ягона геоахборот маълумотлар базасига интеграция қилиш;

(ii) онлайн назорат қилиш учун **қурилиш майдони бўйлаб ва чиқиш нуқталарида онлайн камералар ўрнатиш** ва Экология қўмитасининг ягона геоахборот маълумотлар базасига интеграция қилиш;

(iii) ҳуқуқбузарлик содир этган қурилиш ташкилотларининг “Шаффоф қурилиш” миллий ахборот тизимидаги **рейтинг балларини камайтириш** амалиётини жорий қилиш;

(б) қурилиш объектлари бўйича лойиҳа-смета ва шаҳарсозлик ҳужжатларини экспертизадан ўтказишда мажбурий равишда **экологик экспертиза хулосасини** тақдим этиш тартиби жорий қилинади;

(в) янги қуриладиган, баландлиги ер юзасидан **12 метрдан ва (ёки) умумий майдони 500 метр квадратдан** ортиқ бўлган бино ва иншоотларни (якка тартибдаги уй-жойлар бундан мустасно) лойиҳалаштиришда уларга туташ ҳудудларнинг кўкаламзорлаштириш (дарахтлар, буталар, бошқа ўсимликлар ва ниҳолларни экиш) майдонлари лойиҳа учун ажратиладиган ер участкалари умумий майдонининг **30 фоизидан** кам бўлишига йўл қўйилмайди.

13. Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимлиги 2026 йил 1 декабрга қадар бир ҳудудда **камида 1 гектар майдонда** дарахт баргларини йиғиш, уларни **биологик усулда чиритиш (компостлаш)** орқали олинган органик моддалардан **компост сифатида ва мулчалашда фойдаланиш тизими**ни жорий этсин.

14. Тошкент шаҳар ҳокимлиги, Экология қўмитаси, Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги 2027 йил 1 майга қадар хорижий компания ва илмий-тадқиқот институтларини жалб қилган ҳолда Тошкент шаҳрининг **2035 йилгача мўлжалланган** экологик ва сув ресурсларини бошқариш, улардан оқилона фойдаланиш бўйича мастер режасини ишлаб чиқиш чораларини кўрсин.

15. Белгилаб қўйилсинки:

(а) экологик ва **қурилиш экспертиза** хулосалари олинишида **“шамол гули” коридорлари** ҳаракатланишини инобатга олиш мажбурий ҳисобланади;

(б) ҳудудларнинг **бош режалари лойиҳаларида** “шамол гули” коридорлари ҳаракатланишини инобатга олган ҳолда **“шамол йўлаклари” тасдиқланади**;

(в) жисмоний ва юридик шахслар томонидан дарё ва сойлар ўзанини тозалаш жараёнида ёки ноқонуний равишда қум-шағал қазиб олиш натижасида бузилган **сув фонди ерларини** тиклаш (реабилитация, рекультивация ва кўкаламзорлаштириш ишлари) қонунбузарлик содир этган шахсларнинг маблағлари ҳисобидан амалга оширилади.

IV. Транспорт тизимини экологик жиҳатдан такомиллаштириш

16. Белгилансинки:

(а) 2026 йил 1 майдан бошлаб ҳар ойнинг 10 ва 25 саналарида **“Автомобилсиз кун”, “Автомобилсиз ҳафта”** акциялари ўтказиб борилади. Бунда:

(i) мазкур акциялар доирасида **давлат фуқаролик хизматчилари** томонидан хизмат автотранспорт воситаларидан фойдаланиш қатъиян тақиқланади;

(ii) ушбу саналар иш кунларига тўғри келганда ҳайдовчиларнинг иш ҳақи сақлаб қолинади;

(б) 2026 йил 1 августдан бошлаб аҳолига қўшимча қулайликлар яратиш мақсадида **“trade-in” дастури** доирасида эскирган автотранспорт воситаларини топширган жисмоний ва юридик шахсларга янги транспорт воситаларини харид қилиш учун автокредит фоизининг **бир қисмини** қоплаб бериш амалиётини йўлга қўйилади.

17. Энергетика вазирлиги **2026 йил 1 ноябрга қадар** республикадаги барча нефтни қайта ишлаш заводларини 2028 йил 1 ноябрга қадар “Евро-4”, 2030 йил 1 мартдан бошлаб “Евро-5” экологик тоифа талабларига мувофиқ бўлган **мотор ёқилғиларини ишлаб чиқаришни назарда тутган ҳолда модернизация қилиш ҳамда уларни ривожлантириш дастури**ни ишлаб чиқиб, Вазирлар Маҳкамасига тасдиқлаш учун киритилишини таъминласин.

18. Экология қўмитаси **2026 йил якунига қадар “Экологик транспорт” тизими доирасида** Тошкент шаҳрининг ҳудуди **“қизил”, “сариқ”** ва **“яшил”** зоналарига ажратиб чиқилишини таъминласин.

19. Ички ишлар вазирлиги **2026 йил якунига қадар** Тошкент шаҳридаги барча автотранспорт воситаларига экологик тоифасини тасдиқловчи экологик стикерлар берилишини таъминлаш бўйича тегишли чора-тадбирларни амалга оширсин.

V. Табиий чангнинг олдини олишга қаратилган тезкор чора-тадбирлар

20. Экология қўмитаси:

(а) бир ой муддатда Жаҳон банкининг **“Ўзбекистонда барқарор ўрмон ландшафтларини тиклаш”** лойиҳаси доирасида кўзда тутилган маблағларнинг бир қисмини **Тошкент шаҳри** атрофида **“яшил белбоғ” барпо этиш лойиҳасига йўналтириш** бўйича қарор лойиҳасини киритсин;

(б) 2026 йил 1 апрелдан бошлаб чанг бўронларининг олдини олиш учун **Сурхондарё** ва **Сирдарё** вилоятларида **“яшил девор”**лар барпо этишни бошласин.

21. Экология қўмитаси Тошкент шаҳар ва Тошкент вилояти ҳокимликлари билан биргаликда **2026 йил 1 апрелдан бошлаб** Экология қўмитаси ҳузуридаги Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси, ҳомийлик маблағлари ва қонунчилик билан тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан қуйидаги боғларни барпо этишни бошласин:

(а) Мирзо Улуғбек туманидаги Фанлар академиясининг Ядро физикаси институти ва унга туташ бўлган **250 гектарда дендрология боғи** (Ёқилғи-энергетика ва кимё саноати соҳаси кадрларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш маркази ҳамда “Ўзбекистон-Корея кимё технологиялари инновация маркази”ни ташкил қилишга мўлжалланган ер майдони бундан мустасно);

(б) Марказий Осиё атроф-муҳит ва иқлим ўзгаришини ўрганиш университети (Green University) қаршисидаги Тошкент ва Қибрай туманларидаги **83 гектарда дендрология боғи**.

22. Тошкент шаҳар ҳокимлиги Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги, Экология қўмитаси билан биргаликда **2026 йил якунига қадар** Чилонзор тумани Лутфий маҳалласи Боғистон кўчасида жойлашган Тошкент шаҳри онкология шифохонаси ўрнидаги **4,36 гектарда яшил жамоат парки** ташкил этилишини таъминласин.

23. Тошкент шаҳар ҳокимлиги Сув хўжалиги вазирлиги ҳамда Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги билан биргаликда 2026 йил якунига қадар **Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари ҳисобидан** Тошкент шаҳрида **4 та сунъий кўл** ва (ёки) **сув ҳавзаларини ташкил этиш ишлари**ни амалга оширсин.

24. Тошкент шаҳар ҳокимлиги Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги ва Экология қўмитаси билан биргаликда **2026 йил 1 апрелдан бошлаб** тегишлилиги бўйича:

(а) Тошкент шаҳрида фаолият олиб бораётган давлат олий таълим муассасаларининг бюджетдан ташқари маблағлари ҳисобидан ўз ҳудудида камида **1 та, жами 15 та фаввора қуриш ишлари**ни амалга оширсин;

(б) қонунчиликда тақиқланмаган манбалар ҳисобидан Тошкент шаҳрининг **ҳар бир туманида** шаҳарсозлик нормаларидан келиб чиқиб камида биттадан фаввора барпо этиш чораларини кўрсин.

25. Экология қўмитаси Фанлар академияси ҳамда Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги билан биргаликда ижобий синовдан ўтган хорижий тажрибани ўрганган ҳолда **сунъий ёмғир ёғдириш ва сунъий шамол технологиясини** белгиланган тартибда босқичма-босқич жорий қилиш чораларини кўрсин. Бунда **2027 йил 1 октябрга қадар** пойтахтнинг атмосфера ҳавосини яхшилаш мақсадида Тошкент шаҳри ва Тошкент вилоятида намлик паст бўлган ҳудудга керакли асбоб-ускуналар ўрнатилсин.

VI. Фармон ижросини ташкил этиш, таъминлаш ва назорат

26. Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги Ўзбекистон Миллий телерадиокомпанияси билан биргаликда ушбу Фармоннинг мақсад ва вазифалари, амалга оширилаётган чора-тадбирларнинг бориши ва натижаларини оммавий ахборот воситаларида ва интернет тармоғида кенг ёритиш ишларини ташкил қилсин.

27. Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим ҳужжатларига **3-иловага** мувофиқ ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсин.

28. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси **икки ой муддатда** экологик хусусиятга эга статистика ҳисоботларини йиғиш ва маълумотларини тарқатишни Экология қўмитаси билан келишиш тартибини жорий қилиш бўйича амалдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга ўзгартириш ва қўшимчалар киритишни назарда тутувчи ҳужжат ишлаб чиқсин.

29. Мазкур Фармоннинг ижросини самарали ташкил қилишга масъул ва шахсан жавобгар этиб Бош вазири ўринбосарлари А.Ж. Раматов ва Ж.А. Қўчқоров, Ўзбекистон Республикаси Президентининг экология масалалари бўйича маслаҳатчиси – Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси раиси А.А. Абдухакимов ҳамда Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши Раиси, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимлари белгилансин.

30. Фармон ижросини муҳокама қилиб бориш, ижро учун масъул идоралар фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси раҳбари С.Ш. Мирзиёева зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикаси Президенти **Ш. Мирзиёев**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI
KANSELYARIYA
1

Тошкент шаҳри

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 25 мартдаги ПФ–46-сон Фармонига
1-илова

Атмосфера ҳавоси сифатини яхшилашга қаратилган “Тоза ҳаво” умуммиллий лойиҳасининг ҳудудлар кесимидаги МАҚСАДЛИ КЎРСАТКИЧЛАРИ

Т/р	Ҳудудлар номи	Мақсадли кўрсаткич номи	2026 йилда	2027 йилда	2028 йилда	2029 йилда	2030 йилда
1.	Қорақалпоғистон Республикаси	Атмосферага чиқариб ташланаётган ифлослантирувчи моддалар миқдорини 10,5 фоизга камайтириш	2	3.8	5.5	6.8	8
2.	Андижон вилояти		2.5	5	7.5	9	10.5
3.	Бухоро вилояти		2.5	5	7.5	9	10.5
4.	Жиззах вилояти		2	3.8	5.5	6.8	8.0
5.	Қашқадарё вилояти		2.5	5	7.5	9	10.5
6.	Навоий вилояти		2.5	5	7.5	9	10.5
7.	Наманган вилояти		2	3.8	5.5	6.8	8
8.	Самарқанд вилояти		2	3.8	5.5	6.8	8
9.	Сирдарё вилояти		2	3.8	5.5	6.8	8
10.	Сурхондарё вилояти		2	3.8	5.5	6.8	8
11.	Тошкент вилояти		3	6	9	11.5	13
12.	Фарғона вилояти		2.5	5	7.5	9	10.5
13.	Хоразм вилояти		2	3.8	5.5	6.8	8
14.	Тошкент шахри		3.5	7.0	10	12.5	14

15.	Қорақалпоғистон Республикаси	Ялпи ички маҳсулот бирлигида иссиқхона газлари эмиссиясини 2010 йилги кўрсаткичларга нисбатан қисқартириш, %	10	15	20	25	30
16.	Андижон вилояти		10	15	20	25	35
17.	Бухоро вилояти		10	15	20	25	35
18.	Жиззах вилояти		10	15	20	25	35
19.	Қашқадарё вилояти		15	20	25	35	40
20.	Навоий вилояти		15	20	25	35	40
21.	Наманган вилояти		10	15	20	25	35
22.	Самарқанд вилояти		10	15	20	25	35
23.	Сирдарё вилояти		10	15	20	25	35
24.	Сурхондарё вилояти		10	15	20	25	35
25.	Тошкент вилояти		15	20	25	35	40
26.	Фарғона вилояти		10	15	20	25	35
27.	Хоразм вилояти		10	15	20	25	30
28.	Тошкент шахри		15	20	25	35	40

29.	Қорақалпоғистон Республикаси	Атроф-муҳитга таъсир кўрсатувчи I ва II тоифадаги саноат корхоналарида чанг ва газни тозалаш қурилмаларини ўрнатиш ҳамда модернизация қилиш, %	30	40	50	60	70
30.	Андижон вилояти		30	40	50	60	70
31.	Бухоро вилояти		30	40	50	60	70
32.	Жиззах вилояти		30	40	50	60	70
33.	Қашқадарё вилояти		30	40	50	60	70
34.	Навоий вилояти		30	40	50	60	70
35.	Наманган вилояти		30	40	50	60	70
36.	Самарқанд вилояти		30	40	50	60	70
37.	Сирдарё вилояти		30	40	50	60	70
38.	Сурхондарё вилояти		30	40	50	60	70
39.	Тошкент вилояти		30	40	50	60	70
40.	Фарғона вилояти		30	40	50	60	70
41.	Хоразм вилояти		30	40	50	60	70
42.	Тошкент шахри		30	40	50	60	70

43.	Қорақалпоғистон Республикаси	Саноат объектларидан чиқадиган ташламаларни ушлаб қолиш улушини, %	10	17	22	26	28
44.	Андижон вилояти		12	20	27	31	34
45.	Бухоро вилояти		11	19	26	29	33
46.	Жиззах вилояти		9	16	21	24	27
47.	Қашқадарё вилояти		12	20	27	32	34
48.	Навоий вилояти		13	22	29	33	38
49.	Наманган вилояти		11	18	24	28	30
50.	Самарқанд вилояти		11	18	24	28	30
51.	Сирдарё вилояти		9	16	21	24	26
52.	Сурхондарё вилояти		9	16	21	24	26
53.	Тошкент вилояти		13	23	30	35	38
54.	Фарғона вилояти		12	21	28	32	35
55.	Хоразм вилояти		10	17	22	26	28
56.	Тошкент шахри		14	24	32	37	40

57.	Қорақалпоғистон Республикаси	PM2,5 бўйича миллий меъёрлардан ошиш кузатилган кунлар сонини камайтириш, %	4	9	13	17	20
58.	Андижон вилояти		6	13	18	24	28
59.	Бухоро вилояти		4	10	14	19	22
60.	Жиззах вилояти		4	8	12	15	18
61.	Қашқадарё вилояти		5	11	16	20	24
62.	Навоий вилояти		5	11	16	20	24
63.	Наманган вилояти		6	13	18	24	28
64.	Самарқанд вилояти		5	12	17	22	26
65.	Сирдарё вилояти		3	7	10	14	16
66.	Сурхондарё вилояти		4	10	14	19	22
67.	Тошкент вилояти		6	14	21	27	32
68.	Фарғона вилояти		6	14	20	26	30
69.	Хоразм вилояти		4	9	13	17	20
70.	Тошкент шахри		7	16	23	30	35

71.	Қорақалпоғистон Республикаси	Транспорт воситаларидан атмосфера ҳавосига чиқарилаётган ифлослантирувчи моддалар ҳажмини 10 фоизга қисқартириш	1	2.5	4.5	7	10
72.	Андижон вилояти		1.5	3.5	5.5	8	10
73.	Бухоро вилояти		1.2	3	5	7.5	10
74.	Жиззах вилояти		1	2,5	4,5	7	10
75.	Қашқадарё вилояти		1,3	3,2	5,2	7,8	10
76.	Навоий вилояти		1,2	3	5	7,5	10
77.	Наманган вилояти		1,5	3,5	5,5	8	10
78.	Самарқанд вилояти		1,3	3,2	5,2	7,8	10
79.	Сирдарё вилояти		1	2,3	4,2	6,8	10
80.	Сурхондарё вилояти		1	2,5	4,5	7	10
81.	Тошкент вилояти		1,8	4	6,5	8,7	10
82.	Фарғона вилояти		1,6	3,7	5,8	8,2	10
83.	Хоразм вилояти		1	2,5	4,5	7	10
84.	Тошкент шахри		2	4,5	7	9	10

**Кўрсаткичлар йилдан йилга ўсиб бориши ҳисобга олинган ҳолда белгиланган.*

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 25 мартдаги ПФ–46-сон Фармонига
2-илова

Атмосфера ҳавоси сифатини яхшилашга қаратилган “Тоза ҳаво” умуммиллий лойиҳасини Тошкент шаҳрида амалга ошириш ДАСТУРИ

Т/р	Чора-тадбир номи	Амалга ошириш муддати	Молиялаштириш манбаи	Ижро учун масъуллар
	I. Энергетика, саноат ва қишлоқ хўжалиги тармоқларида экологик ислоҳотларни амалга ошириш			
1.	Тошкент шаҳри ва унга Тошкент вилоятининг туташ ҳудудларида жойлашган кўмир билан ишлайдиган ижтимоий объектларни электр энергия орқали иссиқ сув билан таъминлаш ва иситиш тизимларини жорий этиш.	2026–2027 йиллар давомида	Хўжалик субъектлари маблағлари	Энергетика вазирлиги, Тошкент шаҳар ҳокимлиги, Тошкент вилояти ҳокимлиги
2.	Тошкент шаҳри ва унга Тошкент вилоятининг туташ ҳудудларида жойлашган ва **кўмир билан ишлайдиган саноат корхоналарида**: (а) турғун устувор манбаларига **95 фоиз** самарадорликка эга **чанг-газ тозалаш ускуналарини** ўрнатиш; (б) турғун устувор манбалари (тутун чиқувчи қувурларга) ташланмаларининг миқдорини аниқловчи **датчик** ва **автоматик мониторинг станцияларини** ўрнатиш ва Экология қўмитасининг ягона геоахборот маълумотлар базасига интеграция қилиш; (в) ҳар бир корхонада санитария муҳофазаси зоналарида **фон мониторингини** амалга ошириш учун автоматик мониторинг станцияларини ўрнатиш ва Экология қўмитасининг ягона геоахборот маълумотлар базасига интеграция қилиш.	2026 йил 1 декабрь	Хўжалик субъектлари маблағлари	Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги, Энергетика вазирлиги, Бош прокуратура, Тошкент шаҳар ҳокимлиги, Тошкент вилояти ҳокимлиги, Экология қўмитаси

Т/р	Чора-тадбир номи	Амалга ошириш муддати	Молиялаштириш манбаи	Ижро учун масъуллар
3.	Тошкент шаҳри ва Тошкент вилоятига туташ ҳудудлардаги **иссиқлик ва электр энергиясини** ишлаб чиқариш корхоналарида: (а) турғун устувор манбалари (тутун чиқувчи қувурларга) ташланмаларининг миқдорини **аниқловчи датчик** ва **автоматик мониторинг станцияларини** ўрнатиш ва Экология қўмитасининг ягона геоахборот маълумотлар базасига интеграция қилиш;	2026 йил 1 сентябрь	Халқаро молия институтлари маблағлари	Энергетика вазирлиги, “Иссиқлик электр станциялари” АЖ, “Veolia energy Tashkent” МЧЖ,
	(б) ҳар бир корхонада санитария муҳофазаси зоналарида фон мониторингини амалга ошириш учун атмосфера ҳавосининг устувор шамол йўналишлари ва ҳудудий хусусиятлардан келиб чиқиб, камида 1 та автоматик мониторинг станциясини ўрнатиш.	2026 йил 15 сентябрь		Энергетика вазирлиги, Бош прокуратура, Тошкент шаҳар ҳокимлиги, Тошкент вилояти ҳокимлиги, Экология қўмитаси
4.	Тошкент шаҳри ва Тошкент вилоятига туташ ҳудудлардаги табиатга зарар етказиш бўйича **I ва II тоифадаги корхоналарда**: (а) турғун устувор манбаларига **95 фоиз** самарадорликка эга **чанг-газ тозалаш ускуналарини** ўрнатиш; (б) турғун устувор манбалари (тутун чиқувчи қувурларга) ташланмаларининг миқдорини аниқловчи **датчик** ва **автоматик мониторинг станцияларини** ўрнатиш ва Экология қўмитасининг ягона геоахборот маълумотлар базасига интеграция қилиш; (в) ҳар бир корхонада санитария муҳофазаси зоналарида **фон мониторингини** амалга ошириш учун автоматик мониторинг станцияларини ўрнатиш ва Экология қўмитасининг ягона геоахборот маълумотлар базасига интеграция қилиш; (г) **локал сув тозалаш** иншоотларини ўрнатиш бўйича молиялаштириш манбалари акс этган ҳолда **ярим йилга мўлжалланган манзилли дастурни** қабул қилиш.	2026 йил 1 ноябрь	Хўжалик субъектлари маблағлари	Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, “UzAssets” АЖ, Энергетика вазирлиги, Экология қўмитаси

Т/р	Чора-тадбир номи	Амалга ошириш муддати	Молиялаштириш манбаи	Ижро учун масъуллар
5.	1. “Тошкент иссиқлик электр станцияси” АЖда қисман **мазут ёқилғисида фаолият олиб борувчи 1-сон энергоблокнинг чанг-газ тозалаш ускунасини** қабул қилиш далолатномасини расмийлаштириш.	2026 йил 1 июль	Ўз маблағлари	Энергетика вазирлиги
	2. “Тошкент иссиқлик электр станцияси” АЖда **қисман мазут ёқилғисида фаолият олиб борувчи 2-сон энергоблокни 1-блок учун ўрнатилган чанг-газ тозалаш ускуналарига** улаш чораларини кўриш.	2026 йил 1 апрель	Ўз маблағлари	
	3. “Тошкент иссиқлик электр станцияси” АЖда **мазут ёқилғисида фаолият олиб борувчи 7-сон энергоблокларни консервация қилиш**.	2026 йил 1 июль		
	4. “Тошкент иссиқлик электр станцияси” АЖда қисман мазут ёқилғисида фаолият олиб борувчи **9, 10**-сон энергоблокларни фильтр ускуналари билан жиҳозлаш.	2026 йил 1 декабрь	Ўз маблағлари *(лойиҳа-смета ҳужжатларига асосан)*	
	5. “Тошкент иссиқлик электр станцияси” АЖда қисман мазут ёқилғисида фаолият олиб борувчи **8**-сон энергоблокни консервация қилиш.	2026 йил 1 декабрь		
	6. Тошкент иссиқлик электр станцияси” АЖда қисман мазут ёқилғисида фаолият олиб борувчи **11–12**-сон энергоблокларни фильтр ускуналари билан жиҳозлаш.	2027 йил 1 декабрь	Ўз маблағлари, давлат бюджети ва қонунчиликда тақиқланмаган бошқа маблағлар	
	7. “Тошкент иссиқлик электр станцияси” АЖда қисман мазут ёқилғисида фаолият олиб борувчи **3, 4, 5–6**-сон энергоблокларни консервация қилиш.	2028 йил 1 декабрь		
	Бунда мазкур ишларни жадаллаштириш мақсадида таъминотчилар билан лойиҳалаш ва қуриш ишларини **бир вақтда** олиб боришга рухсат бериш.			
6.	1. “Янги Ангрен иссиқлик электр станцияси” АЖда **кўмир ёқилғисида фаолият олиб борувчи 2-сон энергоблокда 2 та фильтрни таъмирлаш** ишларини якунлаш.	2026 йил 1 октябрь	Ижрочи маблағлари ва қонунчиликда тақиқланмаган бошқа маблағлар	Энергетика вазирлиги
	2. “Янги Ангрен иссиқлик электр станцияси” АЖда **кўмир ёқилғисида фаолият олиб борувчи 5-сон энергоблокда 2 та чанг-газ тозалаш электр фильтрларни** мукаммал таъмирлаш.	2026 йил 1 октябрь		
		2026 йил		

Т/р	Чора-тадбир номи	Амалга ошириш муддати	Молиялаштириш манбаи	Ижро учун масъуллар
	3. “Янги Ангрен иссиқлик электр станцияси” АЖда **кўмир ёқилғисида фаолият олиб борувчи 1, 4-сон энергоблокларда фильтрларни** мукаммал таъмирлаш.	1 октябрь		
7.	“Ангрен иссиқлик электр станцияси” АЖ Ангрен шаҳрида **иссиқлик таъминотини янгидан ташкил этиш бўйича (шу жумладан, давлат-хусусий шериклик асосида) аниқ ҳисоб-китоблар** билан таклифлар киритиш. Бунда марказий қозонхонани қуришни “Ангрен ИЭС” АЖ ҳудудида ташкил этиш, “Ангрен ИЭС” эски қозонхонасидан шаҳар иссиқлик таъминоти учун ишлатишдан воз кечишни, **янги қозонхонада ишлаб чиқарилган иссиқлик энергиясини шаҳар иссиқлик таъминоти учун ишлатишни** назарда тутиш.	2027 йил 1 февраль	Маблағ талаб этилмайди	Энергетика вазирлиги, “Иссиқлик таъминоти” АЖ, Тошкент вилояти ҳокимлиги
8.	Тошкент шаҳридаги атроф табиий муҳитга ва инсонлар соғлигига жиддий хавф туғдириши мумкин бўлган **корхоналарни шаҳар ҳудудидан ташқарига кўчириш** масаласини ўрганиш ва хулоса бериш. Бунда: (а) атроф табиий муҳитга ва инсонлар соғлигига жиддий хавф туғдираётган корхоналар фаолиятини ўрганиш; (б) Тошкент вилоятининг аҳоли истиқомат қилмайдиган ва саноатга ихтисослашган ҳудудлардан ер майдони ажратиш; (в) мазкур корхоналарни кўчириш билан боғлиқ харажатларни қоплаб бериш бўйича **ҳаракатлар режасини** ишлаб чиқиш назарда тутилади.	2026–2027 йиллар 2026 йил 1 ноябрь 2026 йил 1 декабрь 2027 йил 1 январь	Саноатни ривожлантириш жамғармаси ҳамда Тошкент шаҳар ва Тошкент вилояти маҳаллий бюджети маблағлари	Экология қўмитаси, Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Тошкент шаҳар ҳокимлиги, Тошкент вилояти ҳокимлиги
9.	Саноат зоналари ҳудудида ҳудудида “**яшил белбоғ**”лар яратиш.	2026 йил 1 декабрга қадар	Корхоналар маблағлари	Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари

Т/р	Чора-тадбир номи	Амалга ошириш муддати	Молиялаштириш манбаи	Ижро учун масъуллар
10.	Тошкент шаҳри ва унга туташ ҳудудларда иссиқхона хўжаликлари жойлашган ҳудудларда геотермал иситиш тизимларини жорий этиш имкониятлари бўйича ер участкалари ва ерости сув захиралари, ерости сувларини муҳофаза қилиш ва улардан оқилона фойдаланиш масаласини чуқур таҳлил қилиш ва таклиф киритиш.	Икки ой муддатда	Маблағ талаб этилмайди	Энергетика вазирлиги, Тоғ-кон саноати ва геология вазирлиги, Экология қўмитаси
II. Қурилиш соҳасида атмосфера ҳавосини муҳофаза қилиш ва экологик талабларни кучайтириш				
11.	Тошкент шаҳрида амалга оширилаётган қурилиш объектларидан ҳамда Янги Тошкент шаҳри қурилиши натижасида шаклланадиган **қурилиш чиқиндиларини тўплаш, олиб чиқиб кетиш ва қайта ишлаш инвестиция лойиҳасини** хорижий инвесторларни жалб қилган ҳолда амалга ошириш.	2026 йил 1 декабрь	Маблағ талаб этилмайди	Тошкент шаҳар ҳокимлиги, Экология қўмитаси
12.	Қурилиш ишлари натижасида ҳаво ифлосланишини камайтириш ҳамда объектлар қурилишида чанг-тўзонларнинг олдини олиш бўйича **Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги соҳасида назорат қилиш инспекциясининг ваколатларини кенгайтириш**. Бунда: (а) қурилиш ва бузиш ишлари натижасида юзага келадиган чанг ифлосланишининг олдини олиш бўйича қоидаларни ишлаб чиқиш; (б) объектлар қурилишининг тегишли босқичларда чанг кўтарилишининг олдини олиш бўйича тадбирлар (фасад тўрлари, чиқинди қувурлари, чиқинди билан ишлаш тизими, ва ҳ.к.) жорий этилмаганлиги юзасидан инспекция томонидан таъсирчан чора кўриш ваколатларини кенгайтириш бўйича таклиф тайёрлаш; (в) қоидаларни тасдиқлаш ва таклифларни амалга ошириш бўйича тегишли ҳужжат лойиҳасини ишлаб чиқиш; (г) ҳужжат лойиҳасини кўриб чиқиш учун Вазирлар Маҳкамасига киритиш.	2026 йил 1 декабрь	Маблағ талаб этилмайди	Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги соҳасида назорат қилиш инспекцияси, Экология қўмитаси

Т/р	Чора-тадбир номи	Амалга ошириш муддати	Молиялаштириш манбаи	Ижро учун масъуллар
13.	Объектлар бўйича (якка тартибдаги уй-жойлар бундан мустасно) лойиҳа-смета ва шаҳарсозлик ҳужжатларини экспертизасидан ўтказишда мажбурий равишда экологик экспертиза хулосасини тақдим этиш талабини жорий этиш. Бунда мазкур хулосаларни “Шаффоф қурилиш” миллий ахборот тизими орқали тақдим этилишини кўзда тутиш.	2026 йил 1 ноябрь	Маблағ талаб этилмайди	Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги, Экология қўмитаси
14.	Тошкент шаҳрининг ёз-куз мавсумида асосий йўл четларига **сув сепиш** ва **қум-чангни** йиғиш учун ҳаво ҳарорати қуруқ ва иссиқ пайтларда эрталаб соат **6.00 да ва кечки пайт 18.30 да** ҳафтада **3 кун** мунтазам **режа-график** асосида махсус техникаларни жалб қилган ҳолда шаҳар туманларнинг марказий кўчалари, Тошкент ҳалқа йўлларида сув сепиш тажрибасини тиклаш (ёғингарчилик, совуқ ва қорли кунлар бундан мустасно).	2026 йил 1 апрель	Маблағ талаб этилмайди	Тошкент шаҳар ҳокимлиги
15.	Ариқлар тизимини тиклаш. Бунда умумий узунлиги **61,3 км** бўлган ариқларни қуриш (тиклаш): (а) Ягона шаҳар ариқ тизими операторини яратиш; (б) ариқ тизимини рақамлаштириш, Истанбул шаҳри мисолида “Smart Canal System” мониторинг тизимини жорий этиш; (в) “pay-per-km” модели бўйича ариқларга хизмат кўрсатиш бўйича ДХШ лойиҳасини синов тариқасида жорий этиш; (г) сувдан қайта фойдаланиш тизимини яратиш, техник сувни қайта ишлаш ва ундан кўчаларни ювиш учун, суғориш, фавворалар ҳамда боғлар ва яшил ҳудудларни суғориш учун ариқ сувларидан қайта фойдаланиш бўйича ДХШ тажриба лойиҳасини амалга ошириш.	1-босқич 2026-2027 йиллар	Халқаро молия институтлари маблағлари	Тошкент шаҳар ҳокимлиги, Кадастр агентлиги, Экология қўмитаси, “Ўзсувлойиҳа” АЖ
16.	Янги қуриладиган бино ва иншоотларни (якка тартибдаги уй-жойлар бундан мустасно) лойиҳалаштиришда уларга туташ ҳудудларни кўкаламзорлаштириш (шу жумладан вертикал кўкаламзорлаштириш) (дарахт, бута, бошқа ўсимлик ва ниҳолларни экиш) майдонларининг камида тартибини ишлаб чиқиш.	2026 йил 1 октябрь	Маблағ талаб этилмайди	Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги, Экология қўмитаси

Т/р	Чора-тадбир номи	Амалга ошириш муддати	Молиялаштириш манбаи	Ижро учун масъуллар
17.	Сунъий ёмғир ёғдириш технологиясини қўллаш. Бунда: (а) хорижий тажрибани ўрганган ҳолда сунъий ёмғир ёғдириш технологиясини тегишли тартибда босқичма-босқич жорий қилиш; (б) биринчи босқичда пойтахтнинг атмосфера ҳавосини яхшилаш мақсадида Тошкент шаҳри ва Тошкент вилоятида намлик паст бўлган ҳудудга керакли асбоб-ускуналарни ўрнатиш.	2027 йил 1 октябрь	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология қўмитаси, Тошкент шаҳар ҳокимлиги
18.	Пойтахтнинг дренаж тизимини йўлга қўйиш режасини амалга ошириш. Бунда: (а) 150 километр ёпиқ дренаж тизимини барпо этиш ер усти оқимларини суғоришга, шу жумладан, туташ ҳудудларга йўналтириш; (б) 197 километр канал ва коллекторларни таъмирлаш.	2026 йил 1 сентябрь	Маблағ талаб этилмайди	Тошкент шаҳар ҳокимлиги, “Ўзсувлойиҳа” АЖ, маҳалла фуқаролар йиғинлари
19.	1. Кўп-квартирали уйларнинг **томларини базальт қопламаси** билан қоплаш бўйича йўриқнома ишлаб чиқиш ва қурувчи компаниялар орасида тарғибот қилиш. 2. Кўп-квартирали уйларнинг **томларини базальт қопламаси** билан қоплаш бўйича ҳар бир ҳудудда **камида иккита** кўп квартирали уйларда эксперимент ўтказиш. 3. Янги қурилаётган кўп квартирали уйларнинг томларини базальт қопламаси билан қоплаш **тартибини** шаҳарсозлик тўғрисидаги қонунчиликка ва техник жиҳатдан тартиб солувчи норматив ҳужжатларга **жорий қилиш**. 4. Ҳудудлардаги **“Янги Ўзбекистон”** массивларидаги мавжуд кўп квартирали **уйларнинг томларини базальт** қопламалари билан **тўлиқ қоплаш** бўйича комплекс чоралар кўриш.	Икки ой муддатда Уч ой муддатда 2026 йил июль 2026 йил август	Бошқарув компаниялари маблағлари, маҳаллий бюджет маблағлари, қонунчиликда тақиқланмаган бошқа манбалар	Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари

Т/р	Чора-тадбир номи	Амалга ошириш муддати	Молиялаштириш манбаи	Ижро учун масъуллар
	III. Транспорт тизимини экологик жиҳатдан такомиллаштириш			
20.	Тошкент шаҳрида автотранспорт воситаларининг атмосфера ҳавосига таъсирини камайтириш бўйича комплекс чора-тадбирлар кўриш. Бунда: (а) шаҳар кўчалари ва тураржой массивларида велосипед инфратузилмасини, жумладан, алоҳида велосипед йўлакларини босқичма-босқич кенгайтириш ҳамда велосипед тўхташ жойларини ташкил қилиш; (б) шаҳар аҳолиси зичлиги юқори бўлган ҳудудларда транспорт оқимини оптималлаштириш мақсадида катта ҳажмли ва юк ташишга мўлжалланган автотранспорт воситалари ҳаракатини белгиланган вақт интервалларида чеклаш ёки тартибга солиш; (в) Тошкент шаҳар жамоат транспорти тизимини ривожлантиришга доир амалдаги ҳужжатларни қайта кўриб чиқиш асосида 2035 йилгача мўлжалланган комплекс “йўл харитаси”ни ишлаб чиқиш, жамоат транспортини устувор йўналиш сифатида ривожлантириш, экологик тоза транспорт турлари улушини ошириш.	2026 йил иккинчи ярим йиллигидан бошлаб	Тошкент шаҳрини ривожлантириш жамғармаси маблағлари	Тошкент шаҳар ҳокимлиги, Ички ишлар вазирлиги, Транспорт вазирлиги
21.	Йўловчиларга қулай, сифатли ва хавфсиз транспорт хизматларини кўрсатиш мақсадида Тошкент шаҳар жамоат транспорти ҳаракат таркибини **замонавий 200 дона электробуслар билан янгилаш**. Бунда: (а) Иқтисодиёт ва молия вазирлиги томонидан давлат кафолатини тақдим этиш; (б) автобусларни жойлаштириш учун йўналишлар тармоғини белгилаш; (в) автобусларни зарядлаш қурилмаларини ўрнатиш; (г) автобусларни автосаройлар ўртасида тақсимлаш ва йўналишларга жойлаштириш.	2026–2027 йиллар	Давлат кафолати остидаги хорижий кредитлар	Тошкент шаҳар ҳокимлиги, Транспорт вазирлиги
22.	Тошкент вилоятидан пойтахтга кунлик қатновчи **275 минг** нафар йўловчиларга қулайлик яратиш ва Тошкент шаҳар йўналишлар тармоғини аҳоли ва янги тураржой объектларидан келиб чиққан ҳолда кенгайтириш	2026 йил 1 декабрь	Тадбиркорлик субъектлари маблағлари	Тошкент шаҳар ҳокимлиги, Транспорт вазирлиги,

Т/р	Чора-тадбир номи	Амалга ошириш муддати	Молиялаштириш манбаи	Ижро учун масъуллар
	мақсадида **1 минг дона янги автобуслар харид қилиш**. Бунда: (а) автобусларни харид қилиш учун кредитларни жалб қилиш механизмини жорий қилиш; (б) салоҳиятли тадбиркорларни жалб қилиш; (в) янги йўналишлар тармоғини ишлаб чиқиш; (г) автобус харидларини амалга ошириш ва йўналишларга бириктириш.			Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги
	IV. Табиий чангнинг олдини олишга қаратилган тезкор чора-тадбирлар			
23.	1. Жаҳон банкининг **“Ўзбекистонда барқарор ландшафтларни тиклаш”** лойиҳаси доирасида республикага ажратилаётган маблағларнинг бир қисмини **Тошкент шаҳри атрофида “яшил белбоғ” барпо этиш лойиҳаси**га **йўналтириш** ва келгусида ушбу маблағларни Тошкент шаҳри маҳаллий бюджетига қайтариш орқали битимга ўзгартириш киритиш бўйича Жаҳон банки билан музокаралар ўтказиш. 2. Музокаралар ижобий бўлганда: (а) Тошкент шаҳри атрофи ҳамда Тошкент вилояти ва Сирдарё вилояти ҳудудларида “яшил белбоғ” барпо этиш бўйича ер майдонларини аниқлаш; (б) аниқланган ер майдонларда “яшил белбоғ” барпо этиш бўйича хулосалар асосида лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқиш; (в) лойиҳа ҳужжатларини ишлаб чиқишда ҳудуднинг тупроқ-иқлим шароитига мос дарахт ва бута турларини танлаш, дарахт ва буталар сонини аниқлаш ва экиш схемаларини белгилаш; (г) Тошкент шаҳри атрофида “яшил белбоғ”лар барпо этиш бўйича Тошкент вилояти ва Тошкент шаҳар ҳокимликларининг ер ажратиш бўйича қарорларини қабул қилиш.	2026 йил 1 май Келишув асосида	“Ўзбекистонда барқарор ландшафтларни тиклаш” лойиҳаси ва Тошкент шаҳри маҳаллий бюджети маблағлари	Экология қўмитаси, Тошкент шаҳар ҳокимлиги Тошкент шаҳар ҳокимлиги, Тошкент вилояти ҳокимлиги, Сирдарё вилояти ҳокимлиги, Ўрмон агентлиги
24.	Тошкент шаҳри Мирзо Улуғбек туманидаги Фанлар академиясининг Ядро физикаси институти ва унга туташ бўлган **250 гектар ер майдонида дендрология боғини** ташкил қилиш. Бунда:		Умуммиллий экологик муаммоларни	Тошкент шаҳар ҳокимлиги , Фанлар академияси,

Т/р	Чора-тадбир номи	Амалга ошириш муддати	Молиялаштириш манбаи	Ижро учун масъуллар
	(а) Тошкент шаҳар ҳокимлиги томонидан, зарурат бўлганда, тегишли ер участкалари тоифасини ўзгартириш, уларни ўрнатилган тартибда туман ҳокимлиги захирасига қайтариш ва Экология қўмитасига доимий фойдаланиш ҳуқуқи асосида ўтказиб бериш; (б) Экология қўмитаси томонидан ҳудуднинг тупроқ-иқлим шароитига мос дарахт ва буталар турларини танлаш, дарахт ва буталар сонини аниқлаш ҳамда лойиҳа ҳужжатларини ишлаб чиқиш; (в) ишлаб чиқилган лойиҳа асосида дендрология боғини ташкил қилиш ишларини бошлаш.	2026 йил 1 апрель Тегишли ҳудуд Экология қўмитасига ўтказиб берилгандан сўнг бир ой муддатда	бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Кадастр агентлиги, Қишлоқ хўжалиги вазирлиги Экология қўмитаси, Ўрмон агентлиги
25.	Тошкент шаҳри Чилонзор тумани Лутфий маҳалласи Боғистон кўчаси Тошкент шаҳри онкология шифохонаси ўрнидаги **4,36 гектар ер майдонида яшил жамоат паркини** ташкил қилиш. Бунда: (а) Тошкент шаҳар ҳокимлиги томонидан зарурат бўлганда тегишли ер участкалари тоифасини ўзгартириш, уларни ўрнатилган тартибда туман ҳокимлиги захирасига қайтариш ва Экология қўмитасига доимий фойдаланиш ҳуқуқи асосида ўтказиб бериш; (б) Экология қўмитаси томонидан ҳудуднинг тупроқ-иқлим шароитига мос дарахт ва буталар турларини танлаш, дарахт ва буталар сонини аниқлаш ҳамда лойиҳа ҳужжатларини ишлаб чиқиш; (в) ишлаб чиқилган лойиҳа асосида яшил жамоатчилик паркини ташкил қилиш ишларини бошлаш.	2026 йил 1 апрель Тегишли ҳудуд Экология қўмитасига ўткандан сўнг бир ой муддатда 2026 йил 1 майдан бошлаб	Қонунчиликда тақиқланмаган манбалар	Тошкент шаҳар ҳокимлиги, Фанлар академияси, Кадастр агентлиги, Қишлоқ хўжалиги вазирлиги Экология қўмитаси Экология қўмитаси, Ўрмон агентлиги

Т/р	Чора-тадбир номи	Амалга ошириш муддати	Молиялаштириш манбаи	Ижро учун масъуллар
26.	Марказий Осиё атроф-муҳит ва иқлим ўзгаришини ўрганиш университети (Green University) қаршисидаги ҳамда **Тошкент ва Қибрай туманларига тегишли 83 гектар ер майдонида дендрология боғини** ташкил қилиш. Бунда:			
	(а) Тошкент вилояти ҳокимлиги **65 гектар** ер участкаларини ўрнатилган тартибда Экология қўмитасига доимий фойдаланиш ҳуқуқи асосида ўтказиб бериш;	2026 йил 1 май	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Тошкент вилояти ҳокимлиги
	(б) Тошкент шаҳар ҳокимлиги унинг ҳузуридаги “Manzarali Bog‘dorchilik va Gulchilik” МЧЖга тегишли **18 гектар** ер участкаларини ўрнатилган тартибда Экология қўмитасига доимий фойдаланиш ҳуқуқи асосида ўтказиб бериш;	2026 йил 1 май		Тошкент шаҳар ҳокимлиги
	(в) дендрология боғи майдонини кенгайтириш мақсадида қўшимча **25 гектар** ер участкаларини ажратиш чораларини кўриш;	2026 йил 1 август		Тошкент вилояти ҳокимлиги
	(г) ташаббус сифатида дендрология боғида вазирлик ва идораларнинг участкаларини ташкил этиш ва улар томонидан боғ яратилишини молиялаштириш;	2026 йил апрель	Ташаббускорлар маблағлари	Геология ва тоғ-кон саноати вазирлиги ва Рақамли технологиялари вазирлиги, манфаатдор вазирлик ва идоралар
	(д) ишлаб чиқилган лойиҳа асосида дендрология боғини ташкил қилиш ишларини бошлаш.	2026 йил май		Экология қўмитаси, Ўрмон агентлиги

Т/р	Чора-тадбир номи	Амалга ошириш муддати	Молиялаштириш манбаи	Ижро учун масъуллар
27.	Тажриба-синов тариқасида мамлакатимизнинг барча ҳудудларида дарахт баргларини йиғиш, уларни **биологик усулда чиритиш (компостлаш)** орқали олинган органик моддалардан **тупроқ унумдорлигини ошириш, намликни сақлаш ҳамда ўсимликларнинг соғлом ўсишини таъминлаш мақсадида** компост ва мулчалаш усулидан фойдаланиш тизимини жорий этиш.	2026 йил 1 декабрга қадар	Маблағ талаб этилмайди	Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари, Қишлоқ хўжалиги вазирлиги
28.	Трансчегаравий экологик вазиятни яхшилаш бўйича шошилинч чора-тадбирларни амалга ошириш мақсадида чегара ҳудудида маслаҳат учрашувини ўтказиш бўйича Қозоғистон Ҳукумати билан музокаралар ташкил этиш.	2026 йил 1 июль	Маблағ талаб этилмайди	Ташқи ишлар вазирлиги, Экология қўмитаси
V. Мониторинг ва назорат тизими				
29.	Республиканинг барча ҳудудларида ўрнатилиши режалаштирилган атмосфера ҳавоси ифлосланишининг фон мониторинги учун ўрнатиладиган **347 та** автоматлаштирилган станцияни зарур бўлган коммуникация тармоқлари ва бошқа турдаги барча воситалар билан таъминлаш.	2026–2027 йиллар мобайнида	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология қўмитаси, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
30.	Тошкент вилояти ва шаҳри учун **5 та** мобил таҳлилий лаборатория харид қилиш. Бунда: (а) мобил лабораторияларни харид қилиш лойиҳасини ишлаб чиқиш. (б) Тошкент шаҳар таҳлилий лабораторияси учун 3 дона ва Тошкент вилояти таҳлилий лабораторияси учун 2 дона мобил лабораторияларни харид қилиш.	2026 йил 1 сентябрь	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси Маблағлари	Экология қўмитаси

Т/р	Чора-тадбир номи	Амалга ошириш муддати	Молиялаштириш манбаи	Ижро учун масъуллар
31.	Ҳаво сифатини ўлчовчи кўп функцияли, замонавий ва универсал 25 дона махсус ускунани *(testo)* белгиланган тартибда сотиб олиш.	Икки ой муддатда	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология қўмитаси
32.	**1.** Тошкент шаҳридаги атмосфера ҳавоси сурункали ифлосланишига сабаб бўлиб келаётган **I** ва **II** тоифадаги йирик корхоналар хатловини ташкил этиш. **2.** Хатлов натижалари юзасидан атмосфера ҳавосини доимий ифлослантириб келаётган йирик саноат корхоналарига **71 та** автоматик мониторинг станцияларини ва фильтр сотиб олиш.	2026 йил 1 июль	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология қўмитаси
33.	Атмосфера ҳавоси сифатининг кескин ёмонлашиши ҳолатларида амал қилиниши лозим бўлган ҳаракатлар тартиби (алгоритми)ни ишлаб чиқиш, бунда: (а) ҳаво сифати хавфли даражага етганда аҳолини SMS-хабарлар, оммавий ахборот воситалари ва рақамли платформалар орқали тезкор огоҳлантириш ҳамда хавф даражалари бўйича расмий маълумот бериш тартибини жорий этиш; (б) аҳолини ҳимоя қилиш чоралари сифатида очиқ ҳавода бўлишни чеклаш, айниқса, болалар, кексалар ва сурункали касалликлари бор шахслар учун уйда қолиш бўйича тавсиялар бериш, таълим муассасаларида очиқ ҳаво машғулотларини вақтинча бекор қилиш, оммавий тадбирларни чеклаш ҳамда заруратга кўра давлат ташкилотларида иш режимини ўзгартириш ёки масофавий шаклга ўтказиш чораларини белгилаш; (в) саноат, энергетика, қурилиш ва транспорт соҳаларида тезкор таъсир чораларини қўллаб, жумладан, ифлосланиш манбалари бўйича оператив	Бир ой муддатда	Маблағ талаб этилмайди	Экология қўмитаси, Рақамли технологиялар вазирлиги, Соғлиқни сақлаш вазирлиги, Транспорт вазирлиги, Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги, тегишли вазирлик ва идоралар

Т/р	Чора-тадбир номи	Амалга ошириш муддати	Молиялаштириш манбаи	Ижро учун масъуллар
	назорат тадбирларини ўтказиш, энергетика корхоналарида мазут ёқишни чеклаш (экстремал ҳарорат ҳолатлари бундан мустасно), саноат корхоналарида ташланмаларни вақтинча камайтириш ёки тўхтатиш, қурилиш ишларини чеклаш, транспорт ҳаракатини қисқартириш ва фаввораларни ишлатиш, дарахтлар ва йўл четларини сув сепиш орқали чангни бостириш каби чоралар ва бошқаларни назарда тутиш. Атмосфера ҳавоси сифати ёмонлашиши билан боғлиқ ҳолатларни ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солиш, олдини олиш ва оқибатларини камайтиришга қаратилган ташкилий-ҳуқуқий механизмларни назарда тутувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини киритиш.	2026 йил 30 декабрь		
34.	Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси ҳузуридаги “Экологик мониторинг миллий маркази” давлат муассасасининг (кейинги ўринларда – Мониторинг маркази) асосий вазифалари ва фаолияти йўналишларини янада такомиллаштириш мақсадида: хўжалик маблағлари ҳисобидан қўшимча маъмурий-бошқарув ва техник ходимларни жалб қилиш ваколатини бериш; Қорақалпоғистон Республикаси Экология ва иқлим ўзгариши қўмитаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳар экология ва иқлим ўзгариши бош бошқармалари таркибидаги лабораторияларни ҳудудий бўлинмалар таркибидан барча штат бирликлари, тегишли жиҳозлар, мол-мулк ҳамда товар-моддий бойликлари билан Мониторинг маркази таркибига ўтказиш; Ўзбекистон Республикасида атроф табиий муҳитнинг давлат мониторинги тизимини атроф-муҳит ҳолатини моделлаштириш ва прогнозлаштириш, кимёвий моддаларни ўрганиш, рақамли технологияларни жорий қилиш орқали янада такомиллаштириш юзасидан норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини киритиш.	Икки ой муддатда	Маблағ талаб этилмайди	Экология қўмитаси

Т/р	Чора-тадбир номи	Амалга ошириш муддати	Молиялаштириш манбаи	Ижро учун масъуллар
35.	"Ўзбеккосмос" агентлиги томонидан **қуйидагиларни аниқлаш имконини берувчи тизимни йўлга қўйиш**: (а) яшиллик қопламининг (дарахт қоплами) жорий ҳолати; (б) дарахтларнинг кислород эмиссияси; (в) дарахт кесиш ҳолатлари; (г) ифлослантирувчи моддалар (метан, сульфат диоксид, азот, карбон монооксид) чиқиши; (д) шаҳар ҳудудидаги иссиқлик чиқиши энг юқори бўлган иссиқ нуқталари.	2026 йил 1 июль	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	"Ўзбеккосмос" агентлиги, Экология қўмитаси, Ички ишлар вазирлиги, Тошкент шаҳар ҳокимлиги
36.	Атмосфера ҳавоси ифлосланиши юқори бўлган ҳудудларда ташламалар чеклаш тизимини жорий этиш. 1. Ҳудудларнинг йўл қўйиладиган антропоген юклама меъёрини аниқлаш, жами рухсат этилган ташламалар ҳажмини белгилаш, **умумий квотани босқичма-босқич қисқартириш**, ташламалар кадастрини юритиш бўйича илмий асосланган услубиётларини ишлаб чиқиш. 2. Атмосфера ҳавоси ифлосланиши юқори бўлган ҳудудларда ташламалар чеклаш тизимини жорий қилиш юзасидан норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини киритиш.	2026 йил 1 июль 2026 йил 1 декабрь	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология қўмитаси, Санитария-эпидемиологик осойишталик ва жамоат саломатлиги қўмитаси
37.	Автотранспорт воситаларидан чиқаётган газларнинг ифлослантирувчи моддалари миқдори ўрнатилган меъёрлардан ошиб кетмаслигини ўрганиш мақсадида Ички ишлар ходимларини тегишли **ўлчов воситалари билан таъминлаш** ва улардан фойдаланиш юзасидан Ички ишлар органлари ходимлари учун ўқув курсларини ташкил қилиш.	2026 йил 1 июль	Ижрочилар маблағлари	Ички ишлар вазирлиги, Экология қўмитаси
38.	Юридик ва жисмоний шахсларининг экология соҳасида масъулиятини ошириш ва содир этилган ҳуқуқбузарликлар учун жавобгарлик чораларини кучайтириш. Бунда:	2026 йил 1 декабрь	Маблағ талаб этилмайди	Экология қўмитаси, Адлия вазирлиги

Т/р	Чора-тадбир номи	Амалга ошириш муддати	Молиялаштириш манбаи	Ижро учун масъуллар
	(а) **“Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида”ги** Қонунга иссиқхона газлари ажратмалари ташлаганлик учун компенсация тўловларини жорий қилиш; (б) ўзларига бириктирилган ҳудудларда тозаликни таъминламаганлик, чиқиндиларни олиб чиқиб кетиш чораларини кўрмаганлик ва ободонлаштириш ишларини амалга оширмаганлик учун янги турдаги жавобгарликларни белгилаш назарда тутилади.			
39.	Ҳаво ифлосланишининг **одам организмига таъсирини** ўрганиш. Бунда: (а) атмосфера ҳавосининг ифлосланиши билан аҳоли ўртасидаги касалланиш ҳолатлари (нафас олиш тизими, юрак-қон томир тизими, аллергик касалликлар) ўртасидаги боғлиқликни илмий жиҳатдан ўрганиш; (б) юқори хавфли гуруҳлар (болалар, қариялар, ҳомиладор аёллар) учун махсус тавсиялар ишлаб чиқиш; (в) ҳаво ифлосланишига нисбатан аҳоли саломатлигига таҳдид даражасини баҳолайдиган хавф индикаторларини яратиш ва уларни соғлиқни сақлаш тизимига интеграция қилиш.	2026 йил 1 ноябрь	Маблағ талаб этилмайди	Соғлиқни сақлаш вазирлиги, Экология қўмитаси

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 25 мартдаги ПФ–46-сон Фармонига
2а-илова

Атмосфера ҳавоси сифатини яхшилашга қаратилган “Тоза ҳаво” умуммиллий лойиҳасини Тошкент шаҳрида амалга ошириш дастурининг МАҚСАДЛИ КЎРСАТКИЧЛАРИ

Т/р	Мақсадли кўрсаткич номи	Ўлчов бирлиги	Назорат қилиш даражаси	Базавий кўрсаткич		2026 йилда	2027 йилда	2028 йилда	2029 йилда	2030 йилда
				Кўрсаткич	Сана					
1.	Атмосфера ҳавосига ифлослантирувчи моддалар ташламалари миқдорини 2025 йилги кўрсаткичларга нисбатан камайтириш (саноат ва транспорт)	фоиз	Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси	*	*	2	4	6	8	10
2.	Ялпи ички маҳсулот бирлигида иссиқхона газлари эмиссиясини 2010 йилги кўрсаткичларга нисбатан қисқартириш	фоиз	Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси	+20,86	2022 йил ҳолатига	10	15	20	25	35
3.	Ифлослантирувчи моддаларни атмосферага чиқарувчи манбаларнинг чанг-газ тозаловчи ускуналар билан жиҳозланганлик даражасини ошириш (2025 йилга нисбатан солиштирганда)	бирлик	Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси	1 542	2024 йил ҳолатига	40	50	75	75	100

4.	Тошкент шаҳрида қурилиш ишларини олиб боришда чанг бостириш ва ювиш ҳамда мониторинг тизимлари (Экология қўмитаси билан интеграция қилинган фон мониторинг станциялари ва онлайн камера) билан жиҳозлаш (2025 йилга нисбатан солиштирганда)**	фоиз	Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги	-	-	40	50	60	70	80
5.	Иссиқхона хўжаликлари объектларини кўмирдан электр ва бошқа экологик тоза муқобил ёқилғи турларига ўтказиш (2025 йилга нисбатан солиштирганда)***	фоиз	Қишлоқ хўжалиги вазирлиги, Тошкент шаҳар ҳокимлиги, Тошкент вилояти ҳокимлиги	-	-	30	40	50	60	70
6.	Тошкент шаҳри ва унга туташ ҳудудлардаги иссиқхона ҳамда иссиқлик ва электр энергиясини ишлаб чиқариш корхоналарида энергия самарадор ускуналарни ўрнатиш (2025 йилга нисбатан солиштирганда)	фоиз	Энергия самарадорлиги миллий агентлиги	-	-	30	50	70	80	100

7.	Ташламалар ҳосил бўлиши билан боғлиқ ишлаб чиқариш жараёнлари модернизацияланган саноат корхоналари улуши (2025 йилга нисбатан солиштирганда)*	фоиз	Тошкент вилояти ва Тошкент шаҳар ҳокимлиги	-	-	30	45	55	75	85
8.	Аҳоли турар жойларини иситиш учун газ ва электр (шу жумладан, қайта тикланувчи энергия манбаларидан) энергиялари билан таъминлаш даражасини ошириш (2025 йилга нисбатан солиштирганда)*	фоиз	Тошкент вилояти ва Тошкент шаҳар ҳокимлиги	-	-	20	30	40	50	60

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 25 мартдаги ПФ–46-сон Фармонига
2б-илова

Тошкент шаҳрида 2030 йилгача яшил ҳудудлар тизимини ривожлантириш ва бу борада аҳоли эҳтиёжларини таъминлашнинг
МАҚСАДЛИ КЎРСАТКИЧЛАРИ

Т/р	Туман номи	Умумий майдон *(га)*	Мавжуд яшил майдонлар NDVI асосида *(га)*	30 фоиз яшилликка эришиш учун зарур майдон *(га)*	Дарахт экиш зарур бўлган майдон *(га)*	2026 йилда	2027 йилда	2028 йилда	2029 йилда	2030 йилда
1.	Бектемир	3312	950,5	993,6	43,1	12,9	8,6	8,6	6,5	6,5
2.	Чилонзор	3053	876,2	915,9	39,7	11,9	7,9	7,9	6,0	6,0
3.	Миробод	1673	480,2	501,9	21,7	6,5	4,3	4,3	3,3	3,3
4.	Мирзо Улуғбек	5907	1695,3	1772,1	76,8	23,0	15,4	15,4	11,5	11,5
5.	Шайхонтоҳур	2691	772,3	807,3	35,0	10,5	7,0	7,0	5,2	5,2
6.	Олмазор	3375	968,6	1012,5	43,9	13,2	8,8	8,8	6,6	6,6
7.	Сергели	5055	1450,8	1516,5	65,7	19,7	13,1	13,1	9,9	9,9
8.	Учтепа	2808	805,9	842,4	36,5	11,0	7,3	7,3	5,5	5,5
9.	Яккасарой	1400	401,8	420	18,2	5,5	3,6	3,6	2,7	2,7
10.	Янгиҳаёт	4420	1268,5	1326	57,5	17,2	11,5	11,5	8,6	8,6

11.	Яшнобод	5672	1627,9	1701,6	73,7	22,1	14,7	14,7	11,1	11,1
12.	Юнусобод	4101	1177,0	1230,3	53,3	16,0	10,7	10,7	8,0	8,0
Жами:		**43 467**	**12 475,03**	**13 040,1**	**565,1**	**169,5**	**113,0**	**113,0**	**84,8**	**84,8**

Изоҳ: 2030 йилгача белгиланган яшил ҳудудларни ривожлантириш бўйича мақсадли кўрсаткичларга эришишни таъминлашда қуйидаги вазирлик ва идоралар масъул ижрочи ташкилотлар этиб белгиланади:

Тошкент шаҳар ҳокимлиги, Тошкент шаҳридаги барча туман ҳокимликлари, туманлар ободонлаштириш бошқармалари, Автомобиль йўллари қўмитаси, "Ўзбекистон темир йўллари" АЖ, Ўзбекистон маҳаллалари уюшмаси, Экология қўмитаси, Ўрмон ва яшил ҳудудларни кўпайтириш, чўлланишга қарши курашиш агентлиги.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 25 мартдаги ПФ–46-сон Фармонига
3-илова

Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим ҳужжатларига киритилаётган ўзгартириш ва қўшимчалар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2007 йил 17 декабрдаги ПФ–3942-сон Фармони билан тасдиқланган Фахрий унвонлар учун ҳар ойлик тўловлар миқдорларининг рус тилидаги матни қуйидаги мазмундаги 36-позиция билан тўлдирилсин:

“

36.	“Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган эколог” («Заслуженный эколог Республики Узбекистан»)	1,6

”.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 30 сентябрдаги “Хизматлар соҳасини қўллаб-қувватлашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ–6318-сон Фармонида:

(а) 1-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“Йўловчи ташиш учун мўлжалланган ва ишлаб чиқарилганига 2 йилдан ошмаган автобус, электробус, троллейбус ҳамда микроавтобусларни 2027 йил 31 декабрга қадар Ўзбекистон Республикасига импорт қилишда божхона божининг ноль ставкаси қўлланилсин ҳамда утилизация йиғимини беш йилга бўлиб-бўлиб тўлашга рухсат берилсин”;

(б) 2-банд ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 31 майдаги “Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасини трансформация қилиш ва ваколатли давлат органи фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ–81-сон Фармонида:

(а) 8-бандниng “б” ва “в” кичик бандлари қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“б) 2026 йил якунига қадар республика ҳудуди бўйича атмосфера ҳавосининг табиий ифлосланиши юқори бўлган ҳудудларни прогнозлаш ва аҳолини барвақт огоҳлантириш тизими синов тариқасида жорий этилади;

в) 2027 йил 1 январдан бошлаб Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳудудида ўрнатиладиган автоматлашган кичик станциялар маълумотлари атроф табиий муҳит давлат мониторинги тизимининг ягона геоахборот маълумотлар базасига интеграция қилиш орқали визуаллаштирилиб, расмий веб-сайтларда реал вақт режимида мунтазам янгилаб борилади”;

(б) 11-банд ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 19 июндаги “Давлат фуқаролик хизматини янги ёндашувлар асосида ташкил этиш ҳамда профессионал ва натижадорликка йўналтирилган давлат хизматчилари корпусини шакллантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ–95-сон Фармонида:

(а) 4-иловада:

(i) қуйидаги мазмундаги 12^1 позиция билан тўлдирилсин:

“

12^1.	Ўзбекистон Республикаси Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси

”;

(ii) 23-позиция чиқариб ташлансин;

(iii) 62–64-позициялар қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“

62.	Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси ҳузуридаги Ўрмон ва яшил ҳудудларни кўпайтириш, чўлланишга қарши курашиш агентлиги
63.	Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси ҳузуридаги Гидрометеорология хизмати агентлиги
64.	Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси ҳузуридаги Чиқиндиларни бошқариш ва циркуляр иқтисодиётни ривожлантириш агентлиги

”;

(б) 8-иловада:

(i) 1-илова қуйидаги мазмундаги устун билан тўлдирилсин:

“

Экология ва иқлим ўзгариши органларининг махсус унвонлари
III даражали эколог
II даражали эколог
I даражали эколог
III даражали экология маслаҳатчиси

II даражали экология маслаҳатчиси
I даражали экология маслаҳатчиси
III даражали давлат экология маслаҳатчиси
II даражали давлат экология маслаҳатчиси
I даражали давлат экология маслаҳатчиси

”.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 16 февралдаги “Мамлакат тараққиётининг 2030 йилгача мўлжалланган устувор йўналишлари доирасида ислоҳотларни изчил давом эттириш ва янги босқичга олиб чиқишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ–21-сон Фармонига 6-илованинг 22-позицияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“

22.	Ўзбекистон Республикасида Экологик таълимни ривожлантириш концепцияси *(Вазирлар Маҳкамасининг 434-сонли қарори, 27.05.2019 й.)*	2026 йил декабрь	Ижро учун асосий масъул – Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси	
			Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, манфаатдор вазирлик ва идоралар	Марказий Осиё атроф-муҳит ва иқлим ўзгаришини ўрганиш университети (Green University), Оила ва гендер илмий-тадқиқот институти

”.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 27 июлдаги “Туризм йўналишидаги ислоҳотларни янада жадаллаштириш ва соҳада давлат бошқаруви тизимини самарали ташкил қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ–238-сон қарорининг 5-бандидаги “2026” рақами “2029” рақами билан алмаштирилсин.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 24 сентябрдаги “Чанг бўронларига қарши курашиш ва атмосфера ҳавоси сифатини яхшилаш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ–338-сон қарорининг 4-банди учинчи хатбошисидаги “2026” рақами “2027” рақами билан алмаштирилсин.

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 14 августдаги “Қорақалпоғистон Республикасини ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришга қаратилган чора-тадбирларни янада жадаллаштириш тўғрисида”ги ПҚ–248-сон қарорига 6-илованинг 14-позицияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“

14.	“Сайгачий” мажмуа (ландшафт) буюртма қўриқхонасида сайғоқларнинг популяциясини ошириш ва Қозоғистондан Ўзбекистонга сайғоқларнинг миграциясини қайта тиклаш.	1. Сайғоқларнинг миграциясини тиклаш ҳамда популяциясини ошириш бўйича ишчи гуруҳни ташкил қилиш. 2. Ишчи гуруҳни Қозоғистон Республикасига хизмат сафарига юбориш. 3. “Сайгачий” мажмуа (ландшафт) буюртма қўриқхонасига камида 500 та сайғоқни олиб келиш, Қозоғистон Республикаси билан Шалқар – Бейнеу темир йўл линиясида сайғоқлар ўтиши учун йўлаклар барпо қилиш ва чегара ҳудудида миграция йўлларини кўпайтириш бўйича икки томонлама музокаралар ўтказиш. 4. Музокаралар натижаси бўйича таклифларни Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрациясига киритиш.	Амалий чора-тадбирлар Музокара якунидан кейин икки ҳафта муддатда	2026 йил август 2026 йил октябрь	Бош вазир ўринбосари *(Ж. Ходжаев)*, Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси *(А. Абдуҳакимов)*, Давлат хавфсизлик хизмати *(Б. Курбанов)*, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши *(Ф. Эрманов)*

”.

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 18 ноябрдаги ПҚ–343-сон қарори билан тасдиқланган Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси тўғрисидаги низомнинг 18-банди қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“18. Раиснинг Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси раҳбари томонидан лавозимга тайинланадиган ва лавозимдан озод этиладиган тўрт нафар ўринбосари, шу жумладан, бир нафар биринчи ўринбосари бўлади”.

10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 5 февралдаги “Кўп квартирали уйларни бошқариш тизимини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ–48-сон қарорининг 7-бандидаги “камида” сўзи чиқариб ташлансин.

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI

2026 yil «25» mart ПФ–47-son

“Яшил макон” умуммиллий лойиҳаси самарадорлигини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида

“Яшил макон” умуммиллий лойиҳаси доирасида республикада яшил майдонларни кенгайтириш, мамлакатимизнинг ҳар бир ҳудудида ботаника ва дендрология боғларини ташкил қилиш ҳамда мавжуд яшил боғларни самарали бошқариш тизимини жорий этиш орқали уларни сақлаш, зараркунандаларга қарши курашиш тизимини яратиш ҳамда маҳаллий иқлим шароитига мос кўчатларни илмий асосланган ҳолда етиштиришни ривожлантириш мақсадида **қарор қиламан**:

I. Мақсадлар

1. Қуйидагилар ушбу Фармоннинг **асосий мақсадлари** этиб белгилансин:

(а) 2028 йилга қадар Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳрида қўшимча равишда жами майдони **100 гектардан кам бўлмаган ботаника ва дендрология боғлари**ни ташкил қилиш;

(б) халқаро стандартларга мувофиқ **2030 йилгача** Ўзбекистонда умумий яшиллик даражасини **14,2 фоиздан 30 фоизгача ошириш**, аҳоли жон бошига тўғри келадиган яшил ҳудуд майдонини **9–10 м²гача кенгайтириш**;

(в) PM2.5 ва **PM10** каби зарарли заррачаларнинг концентрациясини **20–25 фоизга** камайтириш, иқлим шароити оғир ҳудудларда ҳаво ҳароратини ўртача **1,5–2°C гача** пасайтириш имкониятини яратиш.

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

II. Ботаника ва дендрология боғларини ташкил этиш ва уларни муҳофаза қилишга қаратилган амалий чора-тадбирлар

2. Қуйидагилар:

(а) Ўзбекистон Республикасининг 2025 йил 5 майдаги ЎРҚ–1061-сон Қонунига асосан **ботаника боғларига муҳофаза этиладиган табиий ҳудуд мақоми берилганлиги** маълумот учун қабул қилинсин;

(б) Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳрида **ботаника ва дендрология боғларини ташкил этиш** учун **ажратиладиган ер участкалари** рўйхати **1-иловага** мувофиқ;

(в) ботаника ва дендрология боғларини ташкил этишнинг асосий вазифалари **2-иловага** мувофиқ тасдиқлансин.

3. Белгилансинки:

(а) дендрология боғлари мақомига кўра **ботаника боғларига** тенглаштирилади;

(б) ботаника ва дендрология боғларини ташкил этиш мақсадида ажратиладиган ер майдонлари, истисно тариқасида, қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши нобудгарчилиги ўрнини қоплаш бўйича компенсация тўловларидан озод қилинади.

4. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари Қишлоқ хўжалиги вазирлиги, Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси (кейинги ўринларда – Экология қўмитаси), Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш қўмитаси ҳамда Кадастр агентлиги билан биргаликда **икки ой муддатда** ушбу Фармоннинг **1-иловаси**га мувофиқ ер участкалари:

(а) маҳаллий ҳокимликлар захирасига қайтарилишини;

(б) белгиланган тартибда Марказий Осиё атроф-муҳит ва иқлим ўзгаришини ўрганиш университетига (Green University) доимий фойдаланиш ҳуқуқи билан ажратилишини таъминласин.

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

5. Экология қўмитаси манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда:

(а) икки ой муддатда ботаника ва дендрология боғларини ташкил этиш концепцияларини ишлаб чиқиб, тасдиқласин;

(б) уч ой муддатда дендрология боғларига **муҳофаза этиладиган табиий ҳудуд** мақомини беришни назарда тутувчи қонун лойиҳасини ишлаб чиқсин.

6. Белгилансинки:

(а) ботаника ва дендрология боғлари Экология қўмитаси тасарруфида бўлади ҳамда **умумдавлат аҳамиятига молик** объект ҳисобланади;

(б) ботаника ва дендрология боғлари Марказий Осиё атроф-муҳит ва иқлим ўзгаришини ўрганиш университети (Green University) ва **“яшил” техникумларнинг** тажриба, экспериментал ва ўқув-тажриба, илмий ҳамда ўқув мақсадлари учун фойдаланиладиган объектлари ҳисобланади;

(в) ботаника ва дендрология боғларининг ер участкаларини **хусусийлаштириш** ёки **бегоналаштириш**, **иккиламчи ижарага бериш**, уларнинг **ҳудудларини қисқартириш қатъий тақиқланади;**

(г) ботаника ва дендрология боғларини лойиҳалаш, ташкил этиш ва уларни эксплуатация қилиш жараёнларида халқаро экологик стандартлар, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш бўйича умумэътироф этилган экологик меъёрлар ва миллий қонунчилик талабларига қатъий риоя қилиниши таъминланади.

7. Ботаника ва дендрология боғларини ташкил этиш билан боғлиқ **харажатлар қуйидаги манбалар ҳисобидан амалга оширилади**:

(а) Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси (кейинги ўринларда — Махсус жамғарма);

(б) “Яшил макон” умуммиллий лойиҳаси учун Давлат бюджетидан ажратиладиган маблағлар;

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

(в) халқаро ва хорижий ташкилотларнинг грант маблағлари, жисмоний ва юридик шахсларнинг ҳомийлик хайриялари ҳамда қонунчилик ҳужжатлари билан тақиқланмаган бошқа манбалар. Бунда ботаника ва дендрология боғларини барпо этиш учун халқаро консультантлар, олимлар, экспертлар ва мутахассисларни жалб этиш харажатлари ҳам инобатга олинади.

8. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда ботаника ва дендрология боғлари майдонининг чегараларига қадар ташқи муҳандислик тармоқлари ва транспорт коммуникацияларини ташкил этиш, жумладан, электр энергияси, газ ва сув таъминоти, йўллар ва телекоммуникация тармоқлари бўйича ишларни тегишлилиги бўйича Қорақалпоғистон Республикаси республика бюджети, вилоятлар ва Тошкент шаҳар маҳаллий бюджетлари маблағлари ҳисобидан амалга оширсин.

9. Белгилансинки:

(а) ботаника ва дендрология боғларини ташкил этиш мақсадида лойиҳаларни амалга ошириш доирасида импорт қилинган товарлар, дарахт, бута кўчатлари ва уруғлари, махсус ва технологик асбоб-ускуналар, бутловчи қисмлар:

(i) мажбурий мувофиқликни баҳолаш тартиботларидан ўтишдан;

(ii) божхона божи тўловларидан (божхона расмийлаштируви учун йиғимлар бундан мустасно);

(б) ботаника ва дендрология боғлари ҳудудида илмий ташкилотларнинг илмий тажриба, экспериментал ишлар ва янги навларнинг селекцияси билан боғлиқ тадбирларни ўтказиш ҳамда бошқа илмий ва ўқув мақсадлари учун фойдаланиладиган экин ва дарахтзорлар эгаллаган ер участкалари ер солиғидан озод қилинади.

10. Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга мувофиқ, эксперимент тариқасида:

(а) ботаника ва дендрология боғларини ташкил этишда жисмоний ва юридик шахсларга ушбу боғлардаги участкалар ва (ёки) улар

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

ҳудудидаги ноёб дарахтларни ўз номига шартнома асосида бириктириб қўйишга (тамғалашга) рухсат этилади;

(б) ботаника ва дендрология боғлари спортчи, санъаткор, тадбиркор ва бошқа ташаббускорлар маблағлари ҳисобига ташкил этилганда боғнинг кираверишида уни ташкил этишда иштирок этган шахслар номлари битилган лавҳа ўрнатилади;

(в) ботаника ва дендрология боғларини ташкил этишда молиявий ва амалий ёрдам кўрсатган шахсларга **меценат мақоми берилади**;

(г) кўчатчилик хизматлари билан шуғулланувчиларга ботаника ва дендрология боғларининг **ер участкаларини ноёб дарахт кўчатларини экиш** ва **парвариш қилиш** учун белгиланган тартибда ижара ҳуқуқи асосида беришга рухсат этилади. Бунда ижарачилар ер участкаларидан фақат дарахтларни **реклама** ва **экспозиция** сифатида намойиш қилиш учун фойдаланиш ҳамда келгусида дарахтларни ботаника ва дендрология боғларига қолдириш мажбуриятини олади.

11. Белгилансинки, **2027 йил 1 январдан бошлаб** ботаника ва дендрология боғларининг самарали фаолият кўрсатиши ва барқарор ривожланишини таъминлаш мақсадида республиканинг ҳар бир ҳудудидан **мазкур боғларга "яшиллик элчиси" сифатида бириктирилади**.

12. "Яшиллик элчилари"нинг асосий вазифалари **3-иловага** мувофиқ тасдиқлансин.

13. Вазирлар Маҳкамаси (А.Ж. Раматов, Ж.А. Ходжаев) Экология қўмитаси билан биргаликда 2028 йилга 1 ноябрга қадар Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари фаолиятини мувофиқлаштирган ҳолда мазкур Фармоннинг 1-иловасида назарда тутилган **ботаника** ва **дендрология боғлари**нинг ер майдонларини камида **100 гектаргача етказиш** чораларини кўрсин.

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

III. Яшил боғларни барпо этиш, уларни сақлаш ва парвариш қилиш тизимини такомиллаштириш

14. Ўрмон ва яшил ҳудудларни кўпайтириш, чўлланишга қарши курашиш агентлиги (кейинги ўринларда – Ўрмон агентлиги) тизимидаги **“Яшил ҳудуд”** давлат унитар корхонаси Ўрмон агентлиги ҳузуридаги **“Яшил боғларни бошқариш ўрмон илмий-тажриба маркази”** давлат муассасасига (кейинги ўринларда – Марказ) айлантириш орқали қайта ташкил этилсин. Бунда:

(а) “Яшил ҳудуд” давлат унитар корхонасининг ҳудудлардаги ташкилотлари негизида Марказнинг Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳрида юридик шахс мақомига эга бўлган ҳудудий бошқармалари фаолияти йўлга қўйилади;

(б) Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари Марказнинг ҳудудий бошқармаларига келгусида яшил боғларни сақлаш ва парвариш қилиш ишлари давомида нобуд бўлган кўчатлар ўрнини қоплаш мақсадида ташкил қилинадиган кўчатхона учун қишлоқ хўжалигига мўлжалланган суғориладиган ерлардан 3–5 гектар ер майдонлари ажратади;

(в) Марказ **“Яшил ҳудуд”** давлат унитар корхонасининг ҳуқуқ ва мажбуриятлари бўйича вориси ҳисобланади.

15. “Яшил боғларни бошқариш ўрмон илмий-тажриба маркази” давлат муассасасининг асосий вазифалари ва функциялари ҳамда фаолиятининг устувор йўналишлари **4-иловага** мувофиқ тасдиқлансин.

16. Давлат активларини бошқариш агентлиги Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари билан биргаликда **икки ойда муддатда** Марказ ва унинг ҳудудий бошқармаларини бўш турган биноларга жойлаштиришни таъминласин.

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

IV. Дарахт ва буталарнинг касаллик ва зараркунандаларига қарши курашиш тизимини яратиш

17. Белгилансинки:

(а) Марказ таркибида алоҳида юридик шахс ташкил этмаган ҳолда ҳудудлардаги **Дарахт касалликлари ва зараркунандаларига қарши курашиш хизмати** ташкил этилади. Бунда давлат ўрмон хўжаликларидаги мавжуд биолабораториялар Марказ балансига беғараз ўтказилади;

(б) Марказ ва унинг ҳудудий бошқармаларида фаолият олиб бораётган ходимлар меҳнатига ҳақ тўлаш, бириктирилган боғларни самарали бошқариш, сақлаш ва ривожлантириш харажатлари **2026 йил** учун тегишлилиги бўйича Қорақалпоғистон Республикаси республика бюджети, вилоятлар ва Тошкент шаҳар маҳаллий бюджетларидан ушбу мақсадларга ажратилган маблағлар, Махсус жамғармага ажратилган маблағлар ҳамда қонунчиликда тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан қопланади.

18. Экология қўмитаси **уч ой муддатда**:

(а) Иқтисодиёт ва молия вазирлиги билан биргаликда **2027 йилда** Марказ фаолиятини молиялаштириш бўйича умумлаштирилган таклифни Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрациясига киритсин;

(б) Марказ ва унинг ҳудудий бошқармаларининг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш мақсадида Махсус жамғармадан харид қилинадиган махсус ва қишлоқ хўжалиги техникалари рўйхатини тасдиқласин.

19. Қуйидагилар Марказ тасарруфига ўтказилади:

(а) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 30 декабрдаги ПФ–46-сон Фармони билан тасдиқланган 2022–2024 йилларда Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятларда яшил боғларни барпо этиш дастурига асосан ташкил этилган яшил боғлар;

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

(б) “Очиқ бюджет” ахборот портали орқали жамоатчилик фикри асосида шаклланган “Менинг боғим” лойиҳаси доирасида 2024–2025 йилларда барпо этилган ва келгуси йилларда барпо этиладиган яшил боғ ва яшил жамоат парклари;

(в) Давлат бюджети ва унга тенглаштирилган манбалар ҳисобидан ташкил этилган ва маҳаллий ҳокимликларнинг захирадаги ер участкаларида жойлашган яшил боғлар.

20. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари тегишли вазирлик ва идоралар билан биргаликда:

(а) бир ой муддатда Марказ тасарруфига ўтказилиши белгиланган мавжуд боғларни хатловдан ўтказиш, балансда сақловчи ва парвариш учун масъуллар иштирокида лойиҳа-смета ҳужжатларида белгиланган тадбирларнинг тўлиқ ҳажмда амалга оширилишини таъминлаган ҳолда топшириш-қабул қилиш далолатномаларига асосан Марказга топширилишини;

(б) икки ой муддатда топшириш-қабул қилиш далолатномаларига асосан ўтказилган боғларга тегишли ер участкалари жамоат эҳтиёжлари учун доимий фойдаланиш ҳуқуқи билан Марказга ажратилишини;

(в) 2026 йил 1 майдан бошлаб Экология қўмитасининг талабига асосан Марказга келгусида барпо этиладиган боғларни белгиланган тартибда топшириш ва уларга тегишли ер участкалари ажратиб борилишини таъминласин.

21. Белгилансинки, Марказ тасарруфидаги боғлар ва кўчатхоналар ташкил этиш учун бириктирилган ер участкалари дарахтзорлар сифатида солиқ солиш объекти ҳисобланмайди.

V. Яшил майдонларни кенгайтириш бўйича янги ташаббуслар

22. Ҳудудларда ботаника ва дендрология боғларини ташкил қилиш, яшиллик даражасини ошириш ҳамда мавжуд яшил боғларни асраб қолиш бўйича чора-тадбирлар режаси **5-иловага мувофиқ** тасдиқлансин.

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

23. Транспорт вазирлиги Экология қўмитаси, вазирлик ва идоралар билан биргаликда **уч ой муддатда** қуйидагиларни назарда тутувчи **“Яшил чипта” тизимини жорий қилсин**:

(а) самолёт, поезд, метро ва такси йўналишларида маршрутнинг **карбон изини** (таъсирини) аниқлаш ва фойдаланувчиларга маршрутнинг табиатга таъсирини **“яшил чипта” сотиб олиш орқали компенсация қилиш** имконини бериш;

(б) ишлаб чиқариладиган, сақланадиган, ички ва **ташқи бозорда реализация қилинадиган** маҳсулотлар учун ишлаб чиқариш, сақлаш ва логистика жараёнларидаги **карбон изини ҳисоблаб**, харидорга маҳсулотнинг атроф-муҳитга таъсирини ихтиёрий равишда **компенсация қилиш имкониятини яратиш**;

(в) карбон изини (таъсирини) Экология қўмитаси томонидан тасдиқланган **қўлланмага** мувофиқ автоматик равишда аниқлаш;

(г) “яшил чипта” олиш орқали табиатга етказилган зарар компенсациясидан тушган маблағларни **Махсус жамғармага** ўтказиш ҳамда фақат дарахт кўчатларини экиш ва уларни парваришлаш тадбирларига йўналтириш.

VI. Амалий ва молиявий чора-тадбирлар

24. Экология қўмитасига “Яшил макон” умуммиллий лойиҳасини амалга оширишда ўз ҳиссасини қўшаётган шахсларни қуйидагича **рағбатлантириш ваколатлари** берилсин:

(а) камида **100 та** дарахт кўчатларини эккан шахсга ёки дарахт экиш учун “Яшил хайрия жамғармаси” платформасига камида **10 миллион** сўм ҳадя қилган шахсга “**Экофаол фуқаро”** мақомини бериш;

(б) камида **мингта** дарахт кўчатлари экилишини ташкил қилган ёки “Яшил хайрия жамғармаси” платформасига камида **100 миллион сўм** ҳадя қилган тадбиркорлик субъектларига **“Экоҳамкор”** мақомини бериш. Бунда тадбиркорлик субъектлари:

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

(i) уларга ушбу мақомдан ўз фаолиятини реклама қилишда фойдаланиш ҳуқуқи берилади;

(ii) Экология қўмитаси томонидан тасдиқланмаган тақдирда экофаолият ва экоакцияларни ташкил қилиш ҳолатларини реклама қилиш реклама қонунчилигини бузиш деб ҳисобланади ва қонунчиликда белгиланган жавобгарликка сабаб бўлади;

(в) эллик мингдан кам бўлмаган дарахт кўчатлари экилишини таъминлаган ёки "Яшил хайрия жамғармаси" платформасига камида **5 миллиард сўм** ҳадя **қилган шахсларга меценат** мақомини бериш;

(г) Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳрида камида **5 та яшил боғ** ва **яшил жамоат паркини** ўз ҳисобидан барпо қилган шахсларга **"Келажак бунёдкори" давлат мукофотини** бериш бўйича таклиф киритиш.

25. Экология қўмитаси **икки ой муддатда** ботаника ва дендрология боғлари ҳамда яшил боғлар барпо этилишига давлат-хусусий шериклик асосида тадбиркорларни жалб қилиш механизмлари бўйича таклиф киритсин.

VII. Фармон ижросини ташкил этиш, таъминлаш ва назорат

26. Экология қўмитаси манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда **икки ой муддатда** қонунчилик ҳужжатларига ушбу Фармондан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар тўғрисида Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритсин.

27. Мазкур Фармоннинг ижросини самарали ташкил қилишга масъул ва шахсан жавобгар этиб Бош вазир ўринбосарлари А.Ж. Раматов ва Ж.А. Ходжаев, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши Раиси, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимлари ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг экология масалалари бўйича маслаҳатчиси – Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси раиси А.А. Абдухакимов белгилансин.

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

28. Фармон ижросини муҳокама қилиб бориш, ижро учун масъул ташкилотлар фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикаси Президенти **Ш. Мирзиёев**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI
KANSELYARIYA
1

Тошкент шаҳри

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 25 мартдаги ПФ–47-сон Фармонига
1-илова

Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳрида ботаника ва дендрология боғларини ташкил этиш учун ажратиладиган ер участкалари
РЎЙХАТИ

Т/р	Фойдаланиш мақсади	Туман (шаҳар) номи	Ердан фойдаланувчилар номи	Контур рақами	Жами ер майдони (га)	шундан		Амалдаги ер тоифаси
						Суғориладиган (га)	Суғорилмайдиган (га)	
Республика бўйича жами								
Қорақалпоғистон Республикаси					**57,63**	**57,63**		
1.	**Дендрология боғи**	Нукус шаҳри “Шадли авул” МФЙ	Нукус шаҳар ҳокимлиги захирасида	654, 667, 668, 664, 706, 707	35,14	35,14	–	Захира ерлар
2.	**Ботаника боғи**	Нукус шаҳри “Шадли авул” МФЙ	Нукус шаҳар ҳокимлиги захирасида	624, 629, 632, 630, 641,634	22,49	22,49	–	Захира ерлар
Андижон вилояти					**25,9**	**25,9**		
3.	**Дендрология боғи**	Олтинкўл тумани С.Ашуров массиви	“Жалилбой саховати” фермер хўжалиги	134	10,7	10,7	–	Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар
		Олтинкўл тумани С.Ашуров массиви	“Водий олтин” фермер хўжалиги	156	19,6	19,6		
		Жами:			**36,6**	**36,6**	–	

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

Т/р	Фойдаланиш мақсади	Туман (шаҳар) номи	Ердан фойдаланувчилар номи	Контур рақами	Жами ер майдони (га)	шундан		Амалдаги ер тоифаси
						Суғориладиган (га)	Суғорилмайдиган (га)	
4.	**Ботаника боғи**	Избоскан тумани Шарқ юлдузи массиви	Боғдорчилик ф/х	37	38,4	38,4		Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар
Бухоро вилояти					**200**	**200**		
5.	**Дендрология боғи**	Бухоро тумани	Бухоро экология ва сервис техникуми	майдони 1178к. 1180к. 1181к. 1188к. “Идрис Саид Миришкор” ФХга қарашли ер майдони 1179к	100	100		Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар
		Жами:			**100**	**100**		
6.	**Ботаника боғи**	Бухоро тумани	“Жаббор Камол” фермер хўжалиги	8848к. 8849к.8850к. 8854к Истам Обод Ф/Х 8825к. 8348к	100	100		Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар
		Жами:			**100**	100		
Жиззах вилояти					**100**	**24**	**76**	
7.	**Дендрология боғи**	Зомин тумани Ширин массиви	Туман ҳокимлиги захирасида	223, 238, 239	30	24	6	Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

Т/р	Фойдаланиш мақсади	Туман (шаҳар) номи	Ердан фойдаланувчилар номи	Контур рақами	Жами ер майдони (га)	шундан		Амалдаги ер тоифаси
						Суғориладиган (га)	Суғорилмайдиган (га)	
8.	**Ботаника боғи**	Зомин тумани Ширин массиви	Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш қўмитаси	325, 324, 218	70		70	Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар
Қашқадарё вилояти					**78,2**	**78,2**		
9.	**Дендрология боғи**	Қарши тумани “Ҳилол” МФЙ	Қарши туман 2-сон касб-ҳунар мактаби	18:13:44:01:01:0009 1163, 1165, 1172	25,4	25,4		Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар
		Жами:			**25,4**	**25,4**		
10.	**Ботаника боғи**	Қарши тумани “Ҳилол” МФЙ	“Sulton tex group” МЧЖ	18:13:000006800	52,8	52,8		Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар
		Жами:			**52,8**	**52,8**		
Навоий вилояти					**125,5**	**125,5**		
11.	**Дендрология боғи**	Кармана тумани “Дўрман” МФЙ	“Эргаш ота чорваси” фермер хўжалиги	346, 347, 348	31	31	–	Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар
12.	**Ботаника боғи**	Кармана тумани “Дўрман” МФЙ	“Дўрман жавоҳири” фермер хўжалиги	264. 265	32,5	32,5	–	Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар
			“Амирбек Ғолиб келажаги” фермер хўжалиги	269, 271, 272, 274, 275, 276,	60	60	–	

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

Т/р	Фойдаланиш мақсади	Туман (шаҳар) номи	Ердан фойдаланувчилар номи	Контур рақами	Жами ер майдони (га)	шундан		Амалдаги ер тоифаси
						Суғориладиган (га)	Суғорилмайдиган (га)	
				277, 278, 279, 280, 281, 282				
			“Агропилла”	272	2	2	–	
		Жами:			**94,5**	94,5	–	
Наманган вилояти					**133,87**	**133,87**		
13.	**Дендрология боғи**	Наманган вилояти Наманган тумани Соҳибкор ММТП	“Shaxribonu-2000” ф/х	119, 118, 122, 134, 114	16,2	16,2		Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар
			“Боғишамол” ф/х	114, 117	3,5	3,5		
			“Абдуллаходжаев Муҳаммад” ф/х	138	3,2	3,2		
			“Шуҳрат” ф/х	120, 137	8,0	8,0		
			“Нуриддин Дон” ф/х	142, 143, 141, 153	27,8	27,8		
		Жами			**58,7**	**58,7**		
14.	**Ботаника боғи**	Норин тумани “Юқори Чўжа” МФЙ	“Қобулжон Муштарий” ф/х	3400	24,78	24,78		Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар
				3409	38,42	38,42		
		Наманган вилояти Норин тумани “Юқори Чўжа” МФЙ Аз-Замахшарий кўчаси 1-уй	Норин тумани маиший хизмат кўрсатиш ва сервис коллежи	3398	11,97	11,97		
		Жами:			**75,17**	**75,17**		

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

Т/р	Фойдаланиш мақсади	Туман (шаҳар) номи	Ердан фойдаланувчилар номи	Контур рақами	Жами ер майдони (га)	шундан		Амалдаги ер тоифаси
						Суғорилади-ган (га)	Суғорилмайди-ган (га)	
Самарқанд вилояти					**232**	**90**	**142**	
15.	**Дендрология боғи**	Самарқанд вилояти, Ургут тумани	Қишлоқ хўжалиги	1049, 1044, 1043, 1038, 1042,1045, 1046,1047, 1039, 1040, 1041, 1042, 1063, 1064, 1065	50	50		Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар
		Самарқанд шаҳри	Шаҳар ҳокимлиги захираси ва Ўрмон хўжалиги	39.725931, 66.929070	116		116	Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар
		Жами:			**166**	**50**	**116**	
16.	**Ботаника боғи**	Самарқанд шаҳри Хишрав қўрғони 8-уй	“Яшил” техникум	39.634354, 66.89635	30	20	10	Техникумга қарашли ер майдони
		Самарқанд шаҳри Хишрав қўрғони 8-уй	Самарқанд давлат университети	14	36	20	16	Ботаника боғи
		Жами:			**66**	**40**	**26**	

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

Т/р	Фойдаланиш мақсади	Туман (шаҳар) номи	Ердан фойдаланувчилар номи	Контур рақами	Жами ер майдони (га)	шундан		Амалдаги ер тоифаси
						Суғориладиган (га)	Суғорилмайдиган (га)	
Сирдарё вилояти					**30,4**	**30,4**		
17.	**Дендрология боғи**	Мирзаобод тумани	Сирдарё давлат ўрмон хўжалиги		12,0	12,0		Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар ва ўрмон фонди ерлари
		Боёвут тумани	2-сон касб-ҳунар мактаби	75, 76	3,4	3,4		
18.	**Ботаника боғи**	Мирзаобод тумани	Сирдарё давлат ўрмон хўжалиги		15,0	15,0		Ўрмон фонди ерлари
Сурхондарё вилояти					**99,6**	**99,6**		
19.	**Дендрология боғи**	Шеробод тумани	Туман ҳокимлиги захирасида	185	38	38		Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар
20.	**Ботаника боғи**	Шеробод тумани	“Сабина” МЧЖ фермер хўжалиги	181, 184q	44	44		Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар
		Шеробод тумани	“Умид Олтин Дон” фермер хўжалиги	222	17,6	17,6		
		Жами:			**61,6**	**61,6**		
Тошкент вилояти					**48**	**48**		
21.	**Дендрология боғи**	Тошкент тумани Ширин массиви	Захира ер тоифаси-Қишлоқ хўжалиги	836, 837, 839, 840, 856, 859қ 852, 860,	33,6	33,6		Қишлоқ хўжалигига

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

Т/р	Фойдаланиш мақсади	Туман (шаҳар) номи	Ердан фойдаланувчилар номи	Контур рақами	Жами ер майдони (га)	шундан		Амалдаги ер тоифаси
						Суғориладиган (га)	Суғорилмайдиган (га)	
				863қ, 830, 831, 832, 833, 835, 862қ, 837, 838, 861қ, 740, 741, 742, 743, 744, 745, 826, 829				мўлжалланган ерлар
22.	**Ботаника боғи**	Нурафшон шаҳри “Қумовул” МФЙ	Шаҳар ҳокимлиги захирасида	101	14,4	14,4		
		Жами:			**14,4**	**14,4**	–	
Фарғона вилояти					**57,7**	**57,7**		
23.	**Дендрология боғи**	Қўштепа тумани	“Саид Зокирхон” фермер хўжалиги	3135, 3278, 3286, 3285	34,7	34,7		Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар
		Қўштепа тумани	“Ал мумтоза Мумтоз” фермер хўжалиги					
24.	**Ботаника боғи**	Қўштепа тумани	“Содиқ ҳожи барака” МЧЖ фермер хўжалиги	3532, 2556	23	23		Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

Т/р	Фойдаланиш мақсади	Туман (шаҳар) номи	Ердан фойдаланувчилар номи	Контур рақами	Жами ер майдони (га)	шундан		Амалдаги ер тоифаси
						Суғориладиган (га)	Суғорилмайдиган (га)	
Хоразм вилояти					**227,83**	**227,83**		
25.	**Дендрология боғи**	Урганч тумани “Қиёт” МФЙ	“Иброҳим Фарида” фермер хўжалиги	32, 33, 34, 35, 38, 39	42,4	42,4		Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар
			Фуқароларга тегишли дала томорқа ерлари	36, 37	12,2	12,2		
		Хива шаҳри Ангариқ маҳалласи	“Жуманиёх Бобо” ф/х	383, 384, 378	11,8	11,8		
			“Мироб Садулла” МЧЖ	386, 387	8,2	8,2		
			“Абрикос” МЧЖ	413, 415	14,7	14,7		
			“Хамидбек ўғли Абдулазиз” МЧЖ	408, 411	5,3	5,3		
			“Шуҳрат Юсупбой” МЧЖ	417, 419, 420, 367, 369	17,7	17,7		
		Хива тумани Оқёп маҳалласи	Деҳқон хўжалиги	2164	6,2	6,2		
			“Хива КЛАСТЕР” МЧЖ	2165	5,7	5,7		
			“Хива КЛАСТЕР” МЧЖ	2172	5,5	5,5		
		Жами			**129,7**	**129,7**		
26.	**Ботаника боғи**	Урганч тумани Ғойбу қишлоғи	“Ғойбулик Хондурди” ф/х	2	2,4	2,4		Қишлоқ хўжалигига
			“Эрхон” ф/х	31	18,4	18,4		

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

Т/р	Фойдаланиш мақсади	Туман (шаҳар) номи	Ердан фойдаланувчилар номи	Контур рақами	Жами ер майдони (га)	шундан		Амалдаги ер тоифаси
						Суғориладиган (га)	Суғорилмайдиган (га)	
			“Рўзмат механик” МЧЖ	634, 635	6,1	6,1		мўлжалланган ерлар
			“Зерип механик” ф/х	10	34,2	34,2		
			Захирада (фуқаролар томорқа ери)	593, 602, 603, 604, 605, 606	20,0	20,0		
		Хива шаҳри “Сангар” МФЙ	Дала томорқаси	1024	4,99	4,99		
			“Рахим ҳожи” фермер хўжалиги	1018, 1020, 1021, 1022	7,1	7,1		
			“Хива Барчиной” фермер хўжалиги	1042, 1046	2,1	2,1		
			Дала томорқаси	1041	2,84	2,84		
		Жами:			**98,13**	**98,13**		
Тошкент шаҳри					**337,3**	**337,3**		
27.	**Дендрология боғи**	Мирзо Улуғбек тумани	Ядро физикаси институти	Контур рақамисиз	250	250	–	Санитар муҳофаза ҳудуди
		Тошкент ва Қибрай туманлари		Контур рақамисиз	83	83		
		Чилонзор тумани	Лутфий маҳалласи	Контур рақамисиз	4,3	4,3		
		Жами:			**337,3**	**337,3**		

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 25 мартдаги ПФ–47-сон Фармонига
2-илова

Ботаника ва дендрология боғларини ташкил этишнинг АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ

1. Бошқа минтақа ва хорижий мамлакатлардан янги дарахт, бута ва кам учрайдиган ўсимлик турларини олиб кириш **(интродукция)** ва маҳаллий иқлимга мослаштириш **(акклиматизация)**.

2. Дарахт турларининг генофондини сақлаш, йўқолган популяцияларни тиклаш, кам учрайдиган, йўқолиб бораётган, эндемик ва Ўзбекистон Республикаси Қизил китобига киритилган дарахт турларининг **тирик коллекцияларини** яратиш.

3. Ҳудудларда **“ин-витро”** лабораторияларини ташкил этиш ва кўчатчиликка бўлган талабни тўлиқ қондириш, **селекция** билан шуғулланиш, **янги ўсимлик навларини яратиш**.

4. Ўзбекистон Фанлар академияси билан биргаликда ботаника ва дендрология боғларини замонавий услубда ташкил этиш ва улар ҳудудида экотизимга мос **ҳайвонот дунёси объектлари (қушлар, олмахон ва бошқалар)ни табиий кўпайтириш**.

5. Ўсимликларнинг морфологияси, фенологияси ва физиологиясини ўрганиш бўйича тадқиқотлар ўтказиш, талабалар ва мактаб ўқувчилари учун **амалиёт ва илмий-тажриба участкаларини ташкил қилиш**.

6. Аҳоли ўртасида **экологик маданиятни** ошириш ҳамда табиатни муҳофаза қилиш, дарахт экиш ва яшил майдонларга ғамхўрлик қилишга оид тадбирларни ташкил этиш.

7. Аҳолининг дам олиши ва саломатлигини тиклаши учун қулай шароитлар яратиш, ташриф буюриш учун инфратузилмани ривожлантириш (йўлакчалар, ўриндиқлар, дам олиш ва пикник ҳудудлари, югуриш йўлаклари, очиқ осмон остидаги кутубхона, бепул “Wi-Fi” ҳудудлари ва бошқалар).

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 25 мартдаги ПФ–47-сон Фармонига
3-илова

“Яшиллик элчи”ларининг
АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ

1. Ботаника ва дендрология боғларидаги яшил ҳудудларнинг ҳолатини мунтазам мониторинг қилиш, аниқланган камчилик ва муаммолар тўғрисида масъул давлат органига маълумот тақдим этиш.

2. Ботаника ва дендрология боғларида амалга оширилаётган кўкаламзорлаштириш, парваришлаш ва экологик тадбирларда фаол иштирок этиш, аҳоли, хусусан, ёшлар ўртасида экологик маданиятни ошириш бўйича ташаббусларни илгари суриш.

3. Ботаника ва дендрология боғларида ўтказиладиган экологик акциялар, маърифий ва маданий тадбирларни ташкил этишда ёрдам кўрсатиш.

4. Ботаника ва дендрология боғларини сақлаш ва ривожлантириш бўйича маҳаллий ҳамда халқаро грантлар, ҳомийлик маблағлари ва ижтимоий шериклик лойиҳаларини жалб этишга кўмаклашиш.

5. Давлат органлари ва маҳаллий ижро ҳокимият органлари билан ҳамкорликда Ботаника ва дендрология боғларининг экологик ва эстетик ҳолатини яхшилаш бўйича таклифлар ишлаб чиқиш.

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 25 мартдаги ПФ–47-сон Фармонига
4-илова

“Яшил боғларни бошқариш ўрмон илмий-тажриба маркази” давлат муассасасининг асосий вазифалари ва функциялари ҳамда фаолиятининг устувор йўналишлари

“Яшил боғларни бошқариш ўрмон илмий-тажриба маркази” давлат муассасасининг **асосий вазифалари** ва **функциялари** ҳамда фаолиятининг **устувор йўналишлари** қуйидагилардан иборат:

(а) ўзига бириктирилган ботаника, дендрология ва яшил боғлар (кейинги ўринларда – боғлар) ҳудудидаги дарахт, бута ва бошқа ўсимлик дунёси объектларини асраш, сақлаб қолиш, қайта тиклаш, такрор кўпайтириш ва ундан оқилона фойдаланишга қаратилган тадбирларни амалга ошириш;

(б) аҳолининг сайр қилиши, табиат билан уйғунлашган ҳолда очиқ ҳавода ҳордиқ чиқариши учун атроф-муҳит софлигини сақлаш ва яшилликни кўпайтириш бўйича зарур шароитлар яратиш;

(в) боғларда сув тежайдиган технологияларни қўллаган ҳолда суғориш ишларини ўз вақтида ташкил этиш;

(г) касалланган ёки зарарланган дарахт ва буталардаги зарарли таъсирларни ҳамда уларнинг келиб чиқиш омилларини ўрганиш;

(д) дарахт-буталарда аниқланган касаллик ва зараркунандаларга қарши механик, биологик ҳамда кимёвий усуллар асосида курашиш;

(ж) дарахтлар, буталар ва ўсимлик дунёсига мансуб бошқа ўсимлик турларининг уруғларини йиғиш, ниҳол ва кўчат етиштириш ҳамда уларни парваришлаш;

(з) уруғчилик ва кўчатчиликни ривожлантириш бўйича илғор давлатлар тажрибасини ўрганиш, уларнинг натижаларини амалиётга татбиқ этиш;

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

(и) боғларни самарали бошқариш, сақлаш ҳамда ривожлантириш йўналишида олий таълим ва илмий ташкилотлар билан ҳамкорликда тадқиқотлар олиб бориш;

(к) боғлардаги дарахт ва буталар шохлари туташгунга қадар уларнинг қатор ораларидан самарали фойдаланишни ташкил этиш.

Бунда уларнинг қатор ораларида манзарали дарахт ва бута, бир йиллик ва кўп йиллик гул кўчатларини етиштиришга рухсат берилади.

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 25 мартдаги ПФ–47-сон Фармонига
5-илова

Ҳудудларда ботаника ва дендрология боғларини ташкил қилиш, яшиллик даражасини ошириш ҳамда мавжуд яшил боғларни асраб қолиш бўйича
ЧОРА-ТАДБИРЛАР РЕЖАСИ

Т/р	Чора-тадбирлар номи	Ижро муддати	Молиялаштириш манбалари	Масъул ижрочилар
I. Республикада яшил боғларни ташкил қилиш ва парваришлаш тадбирларининг ҳуқуқий асосларини янада такомиллаштириш				
1.	2030 йилгача Ўзбекистон Республикасида яшилликни оширишга қаратилган “Яшил мувозанат – барқарор келажак” стратегиясини ишлаб чиқиш. Бунда қуйидагиларни назарда тутиш: аҳоли яшаш пунктларида экологик барқарорликни таъминлаш мақсадида халқаро стандартлар ва илғор тажрибалар асосида “яшил қоплама” миқдорини 30 фоизга етказиш; ўрмон фонди ерларида ўрмон билан қопланган ҳудудлар миқдорини кескин оширишга қаратилган амалий чора-тадбирларни амалга ошириш, қайта ўрмон барпо этиш, янги ўрмонзорлар ташкил қилиш ҳамда мавжудларини тиклаш учун илғор технологиялардан фойдаланиш; чўл ҳудудларида “яшил қоплама”лар миқдорини ошириш;	2027 йил март	*Ишлаб чиқиш учун* – маблағ талаб этилмайди *Ташкил қилиш учун* – Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси, ҳомийлик ва хайрия маблағлари	Экология қўмитаси, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги, Қишлоқ хўжалиги вазирлиги, Сув хўжалиги вазирлиги, Транспорт вазирлиги, Бош прокуратура, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари,

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

	аҳоли ва тадбиркорлик субъектларини дарахт кўчатларини экиш тадбирларига кенг жалб қилиш; яшиллик даражасини оширишга ўз ҳиссасини қўшаётган жисмоний ва юридик шахсларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш механизмларини жорий қилиш.			манфаатдор вазирлик ва идоралар
2.	“Яшил боғларни бошқариш ўрмон илмий-тажриба маркази” давлат муассасаси ва унинг филиалларини ташкил қилиш. Бунда: муассаса ва унинг филиаллари штат жадвали, техник ва ёрдамчи ходимлар сони, улар меҳнатига ҳақ тўлаш тартибини ҳамда фаолиятининг устувор вазифаларини назарда тутувчи ташкилот низомини тасдиқлаш.	Икки ой муддатда	Маблағ талаб этилмайди	Ўрмон агентлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
3.	“Яшил боғларни бошқариш ўрмон илмий-тажриба маркази” давлат муассасаси таркибида алоҳида юридик шахс ташкил этмаган ҳолда ҳудудлардаги мавжуд дарахт ва буталарнинг касаллик, зараркунандаларга қарши курашиш тизимини яратиш мақсадида **Дарахт касалликлари ва зараркунандаларига қарши курашиш хизматини** ташкил этиш. “Яшил қоплама”лар ва яшиллик барпо этилган ҳудудларда ўсимликларнинг касаллик ва зараркунандалари келиб чиқиши ва тарқалишини ўрганиш бўйича идоралараро ишчи гуруҳ тузиб, экспедиция ташкил этиш ҳамда мавжуд муаммоларни бартараф қилиш юзасидан тегишли таклифларни мувофиқлаштириш.	2026 йил июнь Ишчи гуруҳ ташкил этилгандан сўнг доимий равишда муаммоларни ўрганиб боради	Маблағ талаб этилмайди	Экология қўмитаси, Қишлоқ хўжалиги вазирлиги, Соғлиқни сақлаш вазирлиги, Ўрмон агентлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари, манфаатдор вазирлик ва идоралар

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

	Дарахт касалликлари ва зараркунандаларига қарши курашиш хизмати томонидан **2027–2028 йиллар** давомида ўрмонларнинг фитосанитар ҳолатини илмий асосда ўрганиш, ўрмонларнинг ҳолатини яхшилаш учун касалланган ва зарарланган ўрмонзорларда ўз вақтида касаллик ва зараркунандаларга қарши кимёвий курашиш, биологик препаратларни, шунингдек, стресс омилларнинг салбий таъсирини камайтирувчи биостимуляторларни қўллаш, Оролнинг қуриган туби ва оролбўйи ҳудудларида барпо этилган "яшил қоплама"ларда учраётган касаллик ва зараркунандаларнинг келиб чиқиши ҳамда тарқалишини ўрганиш, унга қарши курашиш бўйича амалга ошириладиган чора-тадбирлар дастури лойиҳасини ишлаб чиқиш. Чора-тадбирлар дастури лойиҳасини тасдиқлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрациясига киритиш.	2026 йил 1 октябрь 2026 йил 25 декабрь		
4.	Давлат таълим ташкилотлари (мактаб, академик лицей, техникум, олий таълим муассасаси ва бошқалар) ва соғлиқни сақлаш ташкилотлари (поликлиника, тиббиёт муассасалари, шифохоналар) ҳамда хавфлилик даражаси I ва II тоифага мансуб корхоналар бошқа жойга кўчирилган тақдирда, улар ўрнида яшил жамоат паркларини ташкил қилишни назарда тутувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини ишлаб чиқиш. Бунда:	2026 йил ноябрь	Маблағ талаб этилмайди	Экология қўмитаси, Давлат активларини бошқариш агентлиги, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Соғлиқни сақлаш вазирлиги, Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги,

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

	объектлар бошқа жойга кўчирилган тақдирда, ушбу муассасанинг балансида бўлган ер майдонини белгиланган тартибда инвентаризациядан ўтказиш; мазкур ер майдонидаги мавжуд объектлар (иншоотлар, қурилмалар)нинг ҳуқуқий ва техник ҳолати юзасидан баҳолаш; объектларни яшил жамоат паркларини ташкил қилиш учун Экология қўмитаси тасарруфига беғараз ўтказиш; Экология қўмитаси томонидан мазкур ер майдонларини яшил жамоат парки барпо этиш учун тадбиркорлик субъектларига, шу жумладан, давлат-хусусий шериклик механизмлари асосида ижарага бериш; ижара шартининг бир қисми сифатида ер майдонидан фойдаланишда белгиланган мақсаддан четга чиқмаслик, яшил ҳудудларни барпо қилиш ва сақлаш, жамоатчилик учун очиқ ва бепул фойдаланиш имкониятини таъминлаш шартларини қатъий белгилаб қўйиш назарда тутилади.			манфаатдор вазирлик ва идоралар
5.	Аҳолининг барча қатламларининг ҳаёти давомида дарахт экиш ва парваришлашга қўшган ҳиссасини ҳисобга олиш ва рағбатлантириб боришни назарда тутувчи “яшил балл” (green points) тизимини жорий этиш. Бунда: (а) хорижий давлатлар тажрибасини ўрганиш, айниқса, Хитой, Туркия, Германия, Жанубий Корея, Ҳиндистон каби давлатларнинг бу борада амалга оширган лойиҳалари натижадорлигига эътибор қаратиш;	2026 йил сентябрь	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология қўмитаси, Ўрмон агентлиги, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Рақамли технологиялар вазирлиги, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Адлия вазирлиги,

	(б) норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини ишлаб чиқиш, унда: аҳолининг дарахт экиш ва парваришлаш билан боғлиқ фаолиятини онлайн ҳисобга олиш ва “яшил балл” бериш тартиби; “Smart-foresty” мобил иловаси ва GIS харитасида дарахт экиш мумкин бўлган майдон хариталарини белгилаш тизими; дарахт экиш бўйича якка тартибда ёки жамоавий иштирок этиш ёки экиш ва парваришлаш тадбирлари учун буюртма бериш тартиби; экилган ҳар бир дарахтга уникал QR код ва электрон паспорт бериш; жамғарилган “яшил бал”ларни: коммунал тўловлари, солиқ, давлат хизматлари учун чегирма сифатида қўллаш; олийгоҳларга кириш ёки ўқишни тамомлашда “яшил рейтинг” орқали имтиёзлар олиш; ҳар йилги танловларда энг юқори балл тўплаган фуқароларни тақдирлаш; тўпланган балларни монетизация қилиш ва бошқа рағбатлантириш; фарзанд туғилганида ота-она, васий ёки яқин қариндошлар бола номига дарахт экиш учун ихтиёрий буюртма бериш ва туғилган болага илк “яшил балл” белгилаш механизмларини назарда тутиш.	2027 йил январь		Марказий банк

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

	Мавжуд дастурий платформалар, шу жумладан, “Smart-foresty” мобил иловасини такомиллаштириш ва маълумот манбалари билан интеграция қилиш. Тизим тажриба-синов тариқасида Самарқанд вилояти ва Тошкент вилоятида жорий этилиб, натижалари бўйича Вазирлар Маҳкамасига ахборот киритиш. Синов якунлари асосида амалиёт республика бўйлаб босқичма-босқич татбиқ этилади.	2027 йил декабрь 2027 йил январь-июнь		
6.	Ўзбекистонда ерлар деградациясига қарши курашишни назарда тутувчи 2026–2030 йилларга мўлжалланган миллий дастур лойиҳасини ишлаб чиқиш.	2026 йил декабрь	Маблағ талаб этилмайди	Қишлоқ хўжалиги вазирлиги, Сув хўжалиги вазирлиги, Кадастр агентлиги, Экология қўмитаси
7.	Жисмоний ёки юридик шахс камида мингта дарахт ва бута кўчатлардан иборат яшил боғ ва яшил жамоат паркини ташкил этса ёхуд Яшил хайрия жамғармасига камида 200 миллион сўм ҳадя қилса, “Экоҳамкор” мақомини беришни назарда тутувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини ишлаб чиқиш. Бунда: ушбу жисмоний ёки юридик шахсларга ёхуд унинг таъсисчисига ўз номини тамғалаш; жисмоний ёки юридик шахсга уларга ушбу мақомдан ўз фаолиятини реклама қилишда фойдаланиш ҳуқуқини бериш; жисмоний ёки юридик шахс фаолияти билан боғлиқ тадбирларни ўтказишга рухсат бериш;	2027 йил май	Маблағ талаб этилмайди	Экология қўмитаси, Ўрмон агентлиги, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Рақамли технологиялар вазирлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

	жисмоний ёки юридик шахсларга юқорида белгиланган ҳуқуқлардан фойдаланишда ҳар қандай қурилиш қилишни тақиқлаш. Ушбу амалиётни аҳоли ва тадбиркорлар кенг оммасига етказиш ҳамда республиканинг барча ҳудудларида жорий этиш чораларини кўриш.			
8.	5 та яшил боғ ва яшил жамоат паркини ўз ҳисобидан барпо қилган шахсларга “Келажак бунёдкори” давлат мукофотини бериш тизимини жорий этиш бўйича таклиф киритиш.	2027 йил январь	Маблағ талаб этилмайди	Ўрмон агентлиги, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Адлия вазирлиги
9.	“Яшил чипта” тизимини жорий этиш. Бунда: самолёт, поезд, метро ва такси йўналишларида маршрутнинг карбон изи (таъсирини) ихтиёрий равишда компенсация қилиш имкони бериш; компенсациядан тушган маблағларни Яшил хайрия жамғармасига ўтказиш; ушбу маблағларни фақат дарахт экиш ва парваришлаш тадбирларига йўналтиришни инобатга олиш.	2026 йил июнь	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси ва грант маблағлари	Транспорт вазирлиги, Экология қўмитаси, манфаатдор вазирлик ва идоралар
10.	Туман ва шаҳарларнинг бош режаларининг ҳамда таълим ва соғлиқни сақлаш ташкилотлари ер майдонларининг камида 30 фоизи кўкаламзорлаштириш ҳудудларига ажратилишини қатъий таъминлаш. Бунда қуйидагиларни назарда тутувчи тегишли норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш:	2026 йил май	Маблағ талаб этилмайди	Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги, Соғлиқни сақлаш вазирлиги,

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

	лойиҳаланаётган ва амалдаги транспорт йўли четлари ёки йўл ёқаларига дарахтларни белгиланган тартибда экиш; кўчатлар экиладиган майдонларни аниқлаш; дарахт ва буталар турларини тўғри танлаш; лойиҳалаш ва йил давомида парваришлаш; таълим ва соғлиқни сақлаш ташкилотлари рўйхати, уларнинг ер майдонлари тўғрисидаги аниқ маълумотларни Экология қўмитасига тақдим қилиш.			Экология қўмитаси, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари, манфаатдор вазирлик ва идоралар
11.	Яшил майдонлар жозибадорлигини ошириш мақсадида дарахт ва буталарни тўғри парваришлаш учун шакл бериш ҳамда хавфсиз баландликда ишлаш тизимини жорий этиш, шунингдек, дарахтларни тупроқ илдизи билан кўчириш, санитар ҳолатини диагностика қилиш ва мунтазам мониторингини амалга ошириш. Бунда:		Давлат бюджети маблағлари	Экология қўмитаси
	яшил майдонлар ҳолатини ўрганиш, мавжуд дарахт ва буталарнинг тури, таркиби, ёши ва санитар ҳолатини баҳолаш ҳамда ҳар бир майдон учун парвариш, шакл бериш ва хавфсиз ишлаш бўйича календарь режа ишлаб чиқиш ва амалга ошириш;	2026 йил 1 июнь		Ўрмон агентлиги, Ўсимликлар карантини ва ҳимояси агентлиги
	баландликда ишловчи ходимлар учун махсус ўқув дастурлари ва сертификатлаштириш тадбирларини амалга ошириш;	2026 йил сентябрь-октябрь	Бандликка кўмаклашиш давлат жамғармаси маблағлари	Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги
	замонавий индивидуал ҳимоя воситалари ҳамда баландликда ишлаш ускуналарини харид қилишни таъминлаш.	2026 йил декабрь		Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Ўрмон агентлиги

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

12.	Қишлоқ хўжалиги ва фермер хўжаликлари ер участкаларининг четларида иҳота дарахтзорлар барпо этиш тартиби ва мажбуриятини белгилаш. Бунда: қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш учун ерни ижарага бериш бўйича шартномада иҳота дарахтзорлар барпо этиш мажбуриятини киритиш; шартноманинг ушбу талаби 2 йил давомида бажарилмаган тақдирда, ер ижараси тўғрисидаги шартномани бекор қилиш учун асос бўлишини белгилаш; қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини жойлаштириш режасида иҳота дарахтзорларни барпо этиш учун ер участкаси ажратилишини ҳисобга олиш.	2026 йил август	Маблағ талаб этилмайди	Қишлоқ хўжалиги вазирлиги, Ўзбекистон фермерлари кенгаши, Экология қўмитаси
13.	Яшил боғ, яшил жамоат парки, “яшил белбоғ”, “яшил қоплама”, “яшил қалқон”, ҳимоя ўрмонзорлари, шунингдек, ботаника, дендрология ва галофит боғлари, полигонлар рекультивацияси, сунъий кўл ва ҳовузлар, шаҳарларнинг яшил мастер режаси ва бошқа экологик лойиҳаларнинг лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқиш учун жалб қилинадиган “Яшил лойиҳа” лойиҳалаш институтини Ягона етказиб берувчилар реестрига киритиш.	Бир ой муддатда	Маблағ талаб этилмайди	Саноат кооперацияси ва давлат харидлари агентлиги
14.	“Яшил боғларни бошқариш ўрмон илмий-тажриба маркази” давлат муассасаси томонидан Марказий Осиё атроф-муҳит ва иқлим ўзгаришини ўрганиш университети (Green University) ҳудудидаги яшил майдонлар ва унга туташ ҳудудда экспериментал ва ўқув-тажриба мақсадлари учун ташкил этилган	доимий	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли	Ўрмон агентлиги

	дендрология боғи ва “Астрономия” жамоат паркини сақлаш ва парваришлаш ҳамда моддий-техника базасини мустаҳкамлаш ишларини амалга ошириш.		жамғармаси маблағлари	
15.	Оҳангарон туманида жойлашган “Овжазсой–Мовий тоғлар” миллий табиат боғига олиб борувчи автомобиль йўлларини таъмирлаш ва реконструкция қилиш, йўл бўйи муҳандислик-коммуникация тармоқларини тартибга келтириш, йўл белгилари ва кўрсаткичларини ўрнатиш.	2026-2027 йиллар	Ижрочилар маблағлари	Тошкент вилояти ҳокимлиги, Автомобиль йўллари қўмитаси манфаатдор вазирлик ва идоралар
16.	Оҳангарон туманида жойлашган “Овжазсой–Мовий тоғлар” миллий табиат боғида қуйидаги чора-тадбирларни амалга ошириш: енгил конструкцияли замонавий ташриф марказларини (Visitor center), савдо нуқталари ва экокўргазмасини ёғоч биноларидан ташкил этиш ва уларнинг узлуксиз ҳамда самарали фаолиятини таъминлаш; эко-йўлаклар (экологик маршрутлар)ни ташкил этиш, уларни зарур инфратузилма (йўл кўрсаткичлар, дам олиш нуқталари, кузатув майдончалари, қўриқлаш постлари) билан жиҳозлаш; ҳудудни комплекс ободонлаштириш, санитария-гигиена ҳолатини яхшилаш, кўкаламзорлаштириш ишларини кенгайтириш, шунингдек, дам олиш учун мўлжалланган ҳудудлар, санитария узеллари, чиқиндиларни йиғиш ва саралаш тизимларини амалга ошириш.	2026 йил декабрь	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология қўмитаси, манфаатдор вазирлик ва идоралар

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

	Бунда, юқорида назарда тутилаётган чора-тадбирларни амалга ошириш учун пудрат ташкилотларини электрон тендер (“e-tender”) платформаси орқали танлаб олиш.			
17.	Оҳангарон туманида жойлашган “Овжазсой–Мовий тоғлар” миллий табиат боғидан ташқаридаги ер участкаларида туристик хизматлар (биохилма-хилликка таъсир кўрсатмаган ҳолда глемпинг, кемпинг ва бошқа хизматлар) мақсадида “E-auksion” электрон савдо платформаси орқали белгиланган тартибда реализация қилиш.	2026 йил май-декабрь	Маҳаллий бюджет маблағлари	Тошкент вилояти ҳокимлиги манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда
II. Ўрмонларни барпо этиш, қайта тиклаш, кенгайтириш, муҳофаза қилиш, қўриқлаш, ўрмондан қўшимча фойдаланиш				
18.	“Илм–лойиҳа–амалиёт” занжирида замонавий кўчатхоналар ташкил этиш. Бунда: ниҳол етиштиришда интенсив усулга, кўчат етиштиришда ёпиқ илдизли тизимга босқичма-босқич тўлиқ ўтиш; хорижий инвесторлар ва тадбиркорлик субъектларини кенг жалб қилиш, кўчатхоналарни тўлиқ сув тежовчи тизимлар, иссиқхоналар ва “net house” усулидаги майдонлар билан жиҳозлаш; хорижий инвесторлар билан ҳамкорликда интенсив ниҳолхона ташкил этиш, “smart” иссиқхоналар ташкил этиш, махсус контейнерларда йирик ҳажмли манзарали кўчатларни етиштириш;	2026 йил куз мавсумидан бошлаб, доимий	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси, маҳаллий бюджет маблағлари, халқаро грантлар	Ўрмон агентлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

	кўчатхоналарда ўрмон барпо этиш учун сувсизлик, қурғоқчилик ва шўрга чидамли, шу билан бирга тадбиркорлар ва аҳоли учун ноёб дарахт ва бута кўчатларини етиштириш.			
19.	Тоғ ўрмонларини кенгайтириш ва ер эрозиясига қарши курашиш. Бунда: терраса усулида ўрмон барпо этиш учун ер участкаларини танлаш ва тайёрлаш; тоғ олди ҳудудларда, жарлик ва қияликларда эрозиянинг олдини олиш мақсадида 2026 йилда 305 гектар майдонига 2028 йилгача босқичма-босқич дарахт ва бута кўчатларини экиш.	2026 йил октябрь 2026–2028 йиллар куз-қиш мавсумида	Жаҳон банки маблағлари	Ўрмон агентлиги, Жиззах, Наманган, Қашқадарё, Самарқанд, Сирдарё, Сурхондарё вилоятлари ҳокимликлари
20.	Автомобиль йўллари ва темир йўллар атрофида “яшил белбоғ”лар барпо этиш. Бунда: йўл атрофидаги бўш ва кўкаламзорлаштириш мумкин бўлган ерларни аниқлаш, аниқланган ер майдонлари учун харита ва кадастр ҳужжатларини тайёрлаш; “яшил белбоғ” лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқиш; лойиҳа-смета ҳужжатлари асосида “яшил белбоғ”лар барпо этиш; “яшил белбоғ” доирасида экилган дарахт ва буталарни мунтазам парвариш, зараркунандаларга қарши курашиш ва қуриган дарахтлар ўрнини ўз вақтида тўлдириш.	2026 йил август 2026 йил ноябрь 2027 йил баҳор мавсумида доимий	Ижрочилар маблағлари, қонунчиликда тақиқланмаган бошқа маблағлар	Автомобиль йўллари қўмитаси, “Ўзбекистон темир йўллари” АЖ, Кадастр агентлиги

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

21.	Атроф-муҳитга таъсири бўйича I ва II тоифага кирувчи саноат корхоналари ва уларга туташ ҳудудларда жами 10 миллион туп кўчатдан иборат “яшил белбоғ”лар барпо этиш. Бунда: тупроқ-иқлим шароитига мос маҳаллий ва тез ўсувчи дарахт ҳамда бута кўчатларини экиш; суғориш ва парвариш ишларини самарали ташкил этиш учун замонавий томчилатиб суғориш ва сув тежовчи технологияларни жорий этиш.	2026–2027 йиллар баҳор ва куз мавсумларида	Тадбиркорлик субъектлари маблағлари	Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, хўжалик бирлашмалари, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
22.	Болгариянинг “S.E.E. Holding Ltd.”-“Acta” компанияси билан ҳамкорликда 50 минг гектарда ўрмон барпо этиш ва 500 минг гектарда табиий тикланишга кўмаклашиш тадбирларининг дастлабки босқичини бошлаш.	2027–2028 йиллар	Инвестиция дастури асосида	Ўрмон агентлиги
23.	Экологик тоза ва органик маҳсулотлар етиштиришни йўлга қўйиш учун агроўрмончилик лойиҳаларини амалга ошириш. Бунда: доривор, асал, резаворлар етиштиришга ихтисослашган ўрмон барпо этиш лойиҳаларини амалга ошириш; “энергетик” ўрмонлар, яъни саноатбоп дарахтлар плантацияларини яратиш; ўрмон хўжаликларида органик ўғитлар захираларини яратиш, бунда биогумус ишлаб чиқаришни ташкил этиш; пистазорлар майдонини кенгайтириш, бунда эрта ҳосилга кирувчи серҳосил навларидан томчилатиб суғориш тизимини жорий қилган ҳолда плантациялар ташкил этиш;	2027 йил 1 январдан бошлаб, доимий	Жаҳон банки маблағлари	Ўрмон агентлиги, вилоятлар ҳокимликлари

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

	ўрмон фонди ерларида экотуризмни ривожлантириш.			
24.	Ўрмонларни муҳофаза қилиш ва қўриқлаш тадбирларини кучайтириш. Бунда: ўрмонларнинг ёнғин хавфи мавжуд ҳудудларига ўрмон назорат миноралари ўрнатиш: ўрмонзорлар ва бутазорларда ёнғинга қарши “йўллар” (полоса) қуриш: ёнғинлар, зараркунанда ва касалликларни аниқлаш, олдини олиш ва уларни бартараф этишда замонавий технологиялардан кенг фойдаланиш. Республика ўрмонларини ҳимоя қилиш бўйича мавжуд норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни такомиллаштириш бўйича таклиф ишлаб чиқиш.	2026 йилдан бошлаб, доимий 2026 йил декабрь	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси, маҳаллий бюджет, халқаро молия институтлари маблағлари	Ўрмон агентлиги, Фавқулодда вазиятлар вазирлиги, Экология қўмитаси, Қишлоқ хўжалиги вазирлиги
25.	2026 йилда Навоий вилоятининг Конимех ва Томди ҳамда Тошкент вилоятининг Қуйи Чирчиқ, Оҳангарон, Паркент тумани “Саксонота” ва “Тошкент” давлат ўрмон хўжаликларида қуриб битказилган ва янгидан бошланган суғориш қудуқларини давлат рўйхатидан ўтказиш.	Бир ой муддатда	Маблағ талаб этилмайди	Ўрмон агентлиги Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги соҳасида назорат қилиш инспекцияси
III. Чўлланишнинг олдини олиш ва унга қарши курашиш				
26.	Жаҳон банки ва халқаро экспертлар билан ҳамкорликда 2040 йилгача чўлланишга қарши курашиш стратегиясини ишлаб чиқиш. Бунда: қурғоқчилик таъсирини юмшатиш ва хавфини бошқариш;	2027 йил июнь	Маблағ талаб этилмайди	Экология қўмитаси, Ўрмон агентлиги, Ташқи ишлар вазирлиги, манфаатдор вазирлик ва идоралар

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

	эрта огоҳлантириш тизимини жорий этиш орқали қум-чанг бўронларини бошқариш; 2 миллион гектар ерларда “яшил қоплама”лар барпо этиш; 10 минг тонна чўл ўсимликларининг уруғларини тайёрлаш; 30 миллион дона чўл ўсимликларининг ниҳол ва кўчатларини етиштириш; шўр ва сувсизликка чидамли чўл ўсимликларидан галофит ва ксерофит боғларини ташкил этиш назарда тутилади. Шунингдек, республикада чўлланиш билан боғлиқ барча масалаларни қамраб олиш.			
27.	Ўзбекистоннинг чўл ҳудудларидаги ўрмон фонди ерларини хатловдан ўтказиш. Бунда: аэрокосмик суратлар ёрдамида ўрмон фонди ерларининг ортофотопланларини яратиш; табиий чўл-яйлов ва пичанзорларда геоботаник тадқиқотлар ўтказиш; чўлланган ва деградацияга учраган ерларнинг рақамли хариталарини ишлаб чиқиш; чўл ҳудудларида ўсимлик дунёси ареали, кўп йиллик озуқабоп ва дориворлик хусусиятларига эга ўсимликлар турлари аниқлаш; ўрмон чўл ерларини “UzKAD” электрон тизимига киритиш;	2027 йил декабрь	Ижрочилар маблағлари	Ўрмон агентлиги, Кадастр агентлиги, Космик тадқиқотлар ва технологиялар агентлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоятлар ҳокимликлари

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

	ўрмон фонди ерларининг доимий мониторингини юритиш назарда тутилади.			
28.	Тупроқ сифатини яхшилаш ва ер унумдорлигини ошириш мақсадида республика бўйича деградацияга учраган ва чўлланган ҳудудлар бўйича миллий баҳолаш мезонлари ҳамда кўрсаткичларини ишлаб чиқиш.	2026 йил декабрь	Ижрочилар маблағлари	Қишлоқ хўжалиги вазирлиги, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Экология қўмитаси, манфаатдор вазирлик ва идоралар
29.	Трансчегаравий қум-чанг бўронларини олдини олиш бўйича ягона концепция ишлаб чиқиш. Бунда давлатлараро музокаралар олиб бориш, институционал механизм, трансчегаравий қум-чанг бўронлари ҳосил бўладиган ҳудудларни аниқлаш ва хариталаш, илмий асосланган курашиш чоралари, чўл ўсимликлари уруғчилиги ва кўчатчилиги базаларини яратиш, “яшил қоплама”ларни барпо этишни жадаллаштириш.	2026 йил декабрь	Ижрочилар маблағлари	Экология қўмитаси, Қишлоқ хўжалиги вазирлиги, Ташқи ишлар вазирлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, Бухоро, Сурхондарё, Навоий, Хоразм вилоятлари ҳокимликлари
30.	Чўлланишга қарши курашиш ва чўл иқтисодиётини ривожлантириш бўйича Марказий Осиё минтақавий қўшма илмий-тадқиқот марказининг Хитой билан ҳамкорликни кучайтириш. Бунда: “Бир макон – бир йўл” ташаббуси доирасида чўл ҳудудларида яшил майдонларни кенгайтириш, илмий салоҳиятни ривожлантириш, тажрибалар алмашиш, марказ иштирокида конференция ва семинарлар	2027 йил март	Қонунчиликда тақиқланмаган манбалар, халқаро грантлар	Экология қўмитаси, Ўрмон агентлиги, Ташқи ишлар вазирлиги, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, манфаатдор вазирлик ва идоралар

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

	ташкил этиш бўйича дастур лойиҳасини ишлаб чиқиш ҳамда босқичма-босқич амалга ошириш; Марказ кўмагида амалга ошириладиган ва Ўзбекистонда чўл ҳудудлари экотизимини яхшилашга қаратилган илмий-инновацион ва йирик лойиҳалар рўйхатини шакллантириш.	2027 йил сентябрь		
31.	Уруғларни капсула кўринишида қанотсизлантириб сепиш тизимини йўлга қўйиш. Бунда: чўл ўсимликлари уруғларини агропарвоз технологияси асосида экиш тизимини йўлга қўйиш; уруғларни аниқ манзилларга учириб ташлаш орқали катта майдонларда тез ва самарали ўрмонларни тиклаш.	2027 йил ноябрь-декабрь, 2028 йил баҳор, куз-қиш мавсумида	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси ва грант маблағлари	Ўрмон агентлиги, Экология қўмитаси, манфаатдор вазирлик ва идоралар
32.	Ўрмон хўжалиги илмий-тадқиқот институти олимлари томонидан “яшил қоплама”ларни яратишда сув сақловчи гидрогел қўллаш орқали чўл ва яйлов ўсимликлари кўкарувчанлигини ошириш бўйича бажарилган илмий лойиҳа натижаларини республикамизнинг бошқа чўл ҳудудларида (Бухоро, Навоий, Хоразм вилоятлари) қўллаш ҳамда синовдан ўтказиш.	2026–2027 йиллар	Илмий ва амалий лойиҳалар доирасида	Ўрмон агентлиги, Бухоро, Навоий, Хоразм вилоятлари ҳокимликлари, манфаатдор вазирлик ва идоралар
33.	Франция тараққиёт агентлиги билан ҳамкорликда Қорақалпоғистон Республикасининг 9 та туманида кредит маблағлари ҳисобига деградацияга учраган ерларни тиклаш лойиҳасини амалга ошириш. Бунда:		Маҳаллий бюджет, халқаро молия ташкилотлари маблағ ва грантлари	Ўрмон агентлиги, Ташқи ишлар вазирлиги, Экология қўмитаси, манфаатдор вазирлик ва идоралар

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

	лойиҳа доирасида тадбирларни амалга ошириш бўйича техник-иқтисодий асосни ишлаб чиқишни якунлаш; кўзда тутилган тадбирларни амалга ошириш, жумладан, 20 минг гектар "яшил белбоғ"лар тармоғини ташкил этиш, 6 минг гектарда агроўрмончиликни барпо этиш, 2 та тренинг марказини ташкил этиш, 6 минг нафар доимий ва мавсумий иш ўринларини яратиш лойиҳасини бошлаш.	2026 йил декабрь 2027 йил апрель-декабрь		
34.	Чўлланишга қарши курашиш конвенцияси томонлар конференциясининг 17-йиғилишида Ўзбекистон делегациясининг иштирок этишини таъминлаш. Шунингдек, Чўлланишга қарши курашиш конвенцияси томонидан ташкил этилган "Марказий Осиё+Россия" давлатлараро ишчи гуруҳида "Глобал ер истиқболлари" лойиҳасини ишлаб чиқиш.	2026 йил август 2027–2028 йиллар	Халқаро молия ташкилотлари маблағ ва грантлари	Экология қўмитаси, Қишлоқ хўжалиги вазирлиги, Ташқи ишлар вазирлиги, Ўрмон агентлиги
35.	Қозоғистон Республикаси билан биргаликда Қорақалпоғистон Республикасида чўл ва яйлов озуқа ўсимликлари кўчатларини етиштириш бўйича минтақавий марказни ташкил этиш.	2027 йил давомида	Маблағ талаб этилмайди	Экология қўмитаси, Қишлоқ хўжалиги вазирлиги, Ташқи ишлар вазирлиги, манфаатдор вазирлик ва идоралар
IV. Мамлакатимизда яшиллик даражасини ошириш учун ирригация-дренаж тизимларининг барқарор ишлашини таъминлаш				
36.	Шаҳар ва туманлар кесимида "яшил" сув балансини шакллантириш ва мавжуд тармоқларни рақамлаштириш. Бунда:		Ижрочилар маблағлари, халқаро грантлар, қонунчиликда	Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги,

	ҳар бир шаҳар ва туман кесимида ерости сувлари, сув омборлари, дарё ва каналлардан келадиган сув ҳажми, ёмғир сувлари, қайта ишланган оқова сувлардан яшилликка ажратиладиган қисмини аниқлаш; мавжуд яшил майдонларнинг сувга бўлган эҳтиёжини (дарахтзор, боғлар, парклар) аниқ ҳисоблаш; яшил ҳудудларнинг сув олиш нуқталари бўйича маълумотларни геоахборот тизимларининг (ирригация-дренаж тармоқлари, насос станциялари, сув тақсимлаш иншоотлари) GPS координаталари асосида рақамлаштириш ва Ситуацион марказ платформаларига интеграция қилиш; ҳар бир ҳудуд учун қурғоқчил ва ёғингарчилик йилларига ажратган ҳолда “Яшил” сув баланси паспортини шакллантириш.	2026 йил август 2026 йил декабрь 2027 йил март 2027 йил август	тақиқланмаган бошқа маблағлар	Тоғ-кон саноати ва геология вазирлиги, Экология қўмитаси, Сув хўжалиги вазирлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
37.	Аҳоли яшаш ҳудудларида экологик барқарорликни таъминлаш ва яшил макон улушини ошириш мақсадида халқаро экологик стандартлар (ISO 14001, ISO 37120 ва бошқалар) талабларига мувофиқ ландшафт ва кўкаламзорлаштириш ишларини ташкил этиш. Бунда яшил ҳудудлар таркибида маҳаллий иқлим ва тупроқ шароитига мос ўсимлик турларини жорий этиш, сув тежовчи ва қайта тикланадиган суғориш технологияларини қўллаш, биохилмахилликни сақлаш ҳамда аҳоли учун қулай экологик муҳит яратиш чоралари амалга оширилади. Ушбу жараёнда халқаро тажриба асосида яшил ҳудудларнинг экологик самарадорлик кўрсаткичлари	доимий	Маблағ талаб этилмайди	Экология қўмитаси, Ўрмон агентлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

	баҳоланиб, миллий ва маҳаллий ривожланиш дастурларига интеграция қилинади.			
38.	Ботаника ва дендрология йўналишида табиат боғлари билан талаба ва мактаб ўқувчиларини таништириш учун **“Smart флора”** дастурини ишлаб чиқиш. Бунда: ҳар бир ўсимлик ва дарахт турларини расми, барги орқали идентификация қилиш тизимини ташкил қилиш; QR паспорти (тури, ёши, геолокация, парвариш журнали)ни жорий этиш; дастурда ўсимлик ва дарахтларнинг касаллик турлари, уларни даволаш усуллари, суғориш меъёрлари ва зараркунандаларга қарши курашиш тадбирлари бўйича маълумотлар базасини шакллантириш; маълумотлар базасини “yashilmakon.eco” платформаси билан интеграция қилиш орқали мониторинг тизимини ишлаб чиқиш.	2026–2027 йиллар	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари, қонунчилик ҳужжатлари билан тақиқланмаган маблағлар	Экология қўмитаси, Ўрмон агентлиги, Рақамли технологиялар вазирлиги, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Фанлар академияси
39.	Таълим-илм-фан ва жамоат иштирокини институционаллаштириш. Бунда: “яшил” техникумлар билан дуал таълим дастурини (амалий машғулотлар, стажировкалар, модул курсларини) яратиш; ботаника ва дендрология боғларидан мактаб ва техникум талабалари учун “Бир синф – бир дарахт” ёки “Талабалар боғи” майдонларини ажратиш ва унда экиладиган дарахт ва буталарни ўқувчи ва талабалар номига тамғалаш;	2026–2027 ўқув йилидан бошлаб доимий	Маблағ талаб этилмайди	Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги, Ёшлар ишлари агентлиги, Экология қўмитаси

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

	қизиқувчилар учун қисқа интерактив видеоматериаллар тайёрлаш ва боғларга киришда катта монитор орқали таништирув ташкил қилиш; ботаника боғларида экскурсия ва фестиваллар ташкил қилиш; маҳаллалардаги ёшлар етакчилари томонидан ҳар ойда камида бир марта ботаника ва дендрология боғларида экотадбирлар ташкил қилиш; оммавий ахборот воситалари томонидан ботаника ва дендрология боғлари фаолиятини оммага кенг ёритиш.			
V. Республикада ўрмончилик соҳасида уруғчиликни ривожлантириш ҳамда доривор ўсимликлар турларини кенгайтириш				
40.	Ноёб турдаги ўрмон ва доривор ўсимликларнинг ҳолатини ўрганиш, маданийлаштириш, уруғлик ҳамда генетик банкларини яратиш ва хариталаш йўналишларида тадқиқотлар олиб бориш. Йўқолиб кетиш хавфи остида бўлган ўрмон ва доривор ўсимликларнинг тури, таркибини аниқлаш ҳамда уларнинг тарқалиш ареалларини ўрганиш, хариталаш. Ёввойи ҳолда ўсадиган ноёб доривор ўсимликлар биоэкологиясини ўрганиш ва уларни маданийлаштириш бўйича илмий асосланган таклифлар ишлаб чиқиш. Ноёб турдаги ўрмон ва доривор ўсимликларнинг генбанкини яратиш бўйича ҳамкорликда тадқиқотлар олиб бориш.	2026–2027 йиллар	Давлат бюджети маблағлари, халқаро грантлар	Ўрмон агентлиги, Экология қўмитаси, Фанлар академияси, манфаатдор вазирлик ва идоралар
41.	Истиқболли доривор ўсимликларни “ин-витро” усулида кўпайтириш технологиясини ишлаб чиқиш ва жорий этиш.	2026–2027 йиллар	Давлат бюджети маблағлари, халқаро грантлар	Ўрмон агентлиги, Экология қўмитаси, Фанлар академияси,

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

	Истиқболли доривор ўсимликлар турларини жадал кўпайтириш бўйича илмий лойиҳа таклифларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш. "Ин-витро" усулида кўпайтирилган истиқболли доривор ўсимликлардан маданий плантациялар барпо этиш.			манфаатдор вазирлик ва идоралар
42.	Ўрмон соҳасида уруғчиликни ривожлантириш: ўрмон уруғчилиги соҳасини ўрганиш ва таҳлил қилиш асосида муаммоларни аниқлаш; ўрмон уруғчилиги соҳасини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида тегишли қарор лойиҳасини ишлаб чиқиб, вазирлик ва идоралар билан келишиш; қарор лойиҳасини Вазирлар Маҳкамасига киритиш.	2026 йил декабрь 2027 йил апрель 2027 йил июнь	Маблағ талаб этилмайди	Ўрмон агентлиги, Экология қўмитаси, Фанлар академияси, манфаатдор вазирлик ва идоралар
43.	Тошкент ботаника боғига интродукция қилинган ноёб турдаги дарахт ва бута уруғчилик генофондини яратиш. Ботаника боғида мавжуд ва интродукция қилинган ноёб турдаги манзарали, ўрмон дарахт-бута турлари уруғларини жамғариш, ниҳолларини етиштириш. Мазкур турларнинг кўчатларини ўрмон хўжаликларида экиш, кўпайтириш, кўчатчилигини йўлга қўйиш ва доимий уруғчилик майдонларини ташкил этиш.	2026–2027 йиллар	Давлат бюджети маблағлари, халқаро грантлар	Ўрмон агентлиги, Фанлар академияси, манфаатдор вазирлик ва идоралар

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

VI. Ҳудудларда ботаника ва дендрология боғларини ташкил қилиш				
44.	Лойиҳа ва пудрат ташкилотларини электрон тендер (“e-tender” платформаси) савдоларида танлаб олиш орқали Андижон, Наманган, Фарғона вилоятлари ҳокимликлари захирасидаги ерлар майдонларида замонавий дендрология ва ботаника боғларини ташкил этиш. Бунда: Андижон, Наманган ва Фарғона вилоятлари ҳокимликлари захирасидаги ер участкалари дендрология ва ботаника боғларини ташкил этиш мақсадида Экология қўмитаси тасарруфига ўтказилади ҳамда Кадастр агентлиги томонидан кадастр ҳужжатлари расмийлаштирилади; зарур ҳолларда ер тоифасини ўзгартириш бўйича Ҳукумат комиссиясига тегишли таклиф киритилади; ботаника ва дендрология боғларини ташкил этиш учун ажратилган ер майдонларининг йўл ва суғориш инфратузилмаси жойлашуви аниқланади; ботаника ва дендрология боғларини ташкил этиш учун лойиҳаси-смета ҳужжатлари ишлаб чиқилади; лойиҳа-смета ҳужжатларига асосан ботаника ва дендрология боғлари ташкил этилади.	2026–2028 йиллар 2026 йил октябрь Қонунчиликда белгиланган муддатда 2026 йил декабрь 2027 йил февраль 2028 йил декабрь	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Андижон, Наманган ва Фарғона вилоятлари ҳокимликлари, Экология қўмитаси, Ўрмон агентлиги, Қишлоқ хўжалиги вазирлиги, Кадастр агентлиги, Фанлар академияси
45.	Лойиҳа ва пудрат ташкилотларини электрон тендер (“e-tender” платформаси) савдоларида танлаб олиш орқали Бухоро, Навоий, Сурхондарё ва Қашқадарё вилоятлари ҳокимликларининг захира ер	2026–2028 йиллар	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли	Бухоро, Навоий, Сурхондарё, ва Қашқадарё вилоятлари ҳокимликлари,

	майдонларида замонавий дендрология ва ботаника боғларини ташкил этиш. Бунда: Бухоро, Навоий, Сурхондарё ва Қашқадарё вилоятлари ҳокимликлари захирасидаги ер участкалари дендрология ва ботаника боғларини ташкил этиш мақсадида Экология қўмитаси тасарруфига ўтказилади ҳамда Кадастр агентлиги томонидан кадастр ҳужжатлари расмийлаштирилади; зарур ҳолларда ер тоифасини ўзгартириш бўйича Ҳукумат комиссиясига тегишли таклиф киритилади; ботаника ва дендрология боғини ташкил этиш учун ажратилган ер майдонларининг йўл ва суғориш инфратузилмаси жойлашуви аниқланади; ботаника ва дендрология боғларини ташкил этиш учун лойиҳа-смета ҳужжатлари ишлаб чиқилади; лойиҳа-смета ҳужжатларига асосан ботаника ва дендрология боғлари ташкил этилади.	2026 йил октябрь Қонунчиликда белгиланган муддатда 2026 йил декабрь 2027 йил февраль 2028 йил декабрь	жамғармаси маблағлари	Экология қўмитаси, Ўрмон агентлиги, Қишлоқ хўжалиги вазирлиги, Кадастр агентлиги, Фанлар академияси
46.	Лойиҳа ва пудрат ташкилотларини электрон тендер (“e-tender” платформаси) савдоларида танлаб олиш орқали Жиззах, Сирдарё ва Самарқанд вилоятлари ҳокимликлари захирасидаги ер майдонларида замонавий дендрология ва ботаника боғларини ташкил этиш. Бунда: Жиззах, Сирдарё ва Самарқанд вилоятлари ҳокимликлари захирасидаги ер участкалари дендрология ва ботаника боғларини ташкил этиш мақсадида Экология қўмитаси тасарруфига ўтказилади	2027–2028 йилларда 2027 йил январь	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Жиззах, Сирдарё, ва Самарқанд вилоятлари ҳокимликлари, Экология қўмитаси, Ўрмон агентлиги, Қишлоқ хўжалиги вазирлиги, Кадастр агентлиги, Фанлар академияси

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

	ҳамда Кадастр агентлиги томонидан кадастр ҳужжатлари расмийлаштирилади; зарур ҳолларда ер тоифасини ўзгартириш бўйича Ҳукумат комиссиясига тегишли таклиф киритилади; ботаника ва дендрология боғини ташкил этиш учун ажратилган ер майдонларининг йўл ва суғориш инфратузилмаси жойлашуви аниқланади; ботаника ва дендрология боғларини ташкил этиш учун лойиҳа-смета ҳужжатлари ишлаб чиқилади; лойиҳа-смета ҳужжатларига асосан ботаника ва дендрология боғлари ташкил этилади.	Қонунчиликда белгиланган муддатда 2028 йил март 2028 йил сентябрь		
47.	Лойиҳа ва пудрат ташкилотларини электрон тендер (“e-tender” платформаси) савдоларида танлаб олиш орқали Тошкент ва Хоразм вилоятлари ҳокимликлари, Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси захирасидаги ер майдонларида замонавий дендрология ва ботаника боғларини ташкил этиш. Бунда: Тошкент ва Хоразм вилоятлари ҳокимликлари, Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси захирасидаги ер участкалари дендрология ва ботаника боғларини ташкил этиш мақсадида Экология қўмитаси тасарруфига ўтказилади ҳамда Кадастр агентлиги томонидан кадастр ҳужжатлари расмийлаштирилади; зарур ҳолларда ер тоифасини ўзгартириш бўйича Ҳукумат комиссиясига тегишли таклиф киритилади;	2027–2028 йиллар 2027 йил июнь Қонунчиликда белгиланган муддатда	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Тошкент ва Хоразм вилоятлари ҳокимликлари, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, Экология қўмитаси, Ўрмон агентлиги, Қишлоқ хўжалиги вазирлиги, Кадастр агентлиги, Фанлар академияси

QMMB: 06/26/47/0291-son
30.03.2026-y.

	ботаника ва дендрология боғини ташкил этиш учун ажратилган ер майдонларининг йўл ва суғориш инфратузилмаси жойлашуви аниқланади; ботаника ва дендрология боғларини ташкил этиш учун лойиҳа-смета ҳужжатлари ишлаб чиқилади; лойиҳа-смета ҳужжатларига асосан ботаника ва дендрология боғлари ташкил этилади.	2027 йил ноябрь 2028 йил февраль		

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI
KANSELYARIYA
1

QMMB: 07/26/107/0273-son
27.03.2026-y.

12 (1240)-сон
269-модда

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

2026 yil « 24 » март № ПҚ–107

Спорт соҳасини молиялаштириш механизмларини такомиллаштириш ва соҳага тадбиркорлик субъектларини жалб қилишни кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида

Мамлакатимизда спорт соҳасидаги субъектларнинг молиявий барқарорлигини таъминлаш, бошқаришнинг замонавий механизмларини жорий этиш, соҳани ривожлантириш учун спорт федерация (уюшма)лари ва профессионал спорт клублари бошқарувига босқичма-босқич тадбиркорларни ҳамда соҳага хусусий инвестицияларни жалб қилиш мақсадида **қарор қиламан:**

I. Асосий йўналишлар

1. Қуйидагилар мазкур қарорнинг асосий мақсадлари этиб белгилансин:

(а) спорт соҳасини молиялаштиришнинг замонавий механизмлари ва муқобил молиялаштириш манбаларини жорий этиш;

(б) спорт соҳасига ажратилаётган маблағлар йўналтирилишини марказлаштириш, бюджет маблағлари ҳажмини кенгайтириш ҳамда уларнинг самарадорлигини ошириш;

(в) спорт соҳасида бизнесни ривожлантириш мақсадида замонавий механизмларни жорий қилиш;

(г) профессионал футбол клубларида корпоратив бошқарувни жорий этиш орқали уларнинг фаолиятини тижоратлаштириш ҳамда уларга қулайликлар яратиш.

II. Молиялаштириш механизмини такомиллаштириш

2. Спорт вазирлиги, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Ўзбекистон Миллий олимпия ва паралимпия қўмиталари ҳамда Ўзбекистон футбол ассоциациясининг Спорт вазирлиги ҳузурида юридик шахс мақомига эга бўлмаган **Спорт соҳасида ташаббусларни қўллаб-қувватлаш жамғармаси** (кейинги ўринларда – Жамғарма)ни ташкил этиш тўғрисидаги таклифи маъқулансин.

QMMB: 07/26/107/0273-son
27.03.2026-y.

3. Жамғарманинг **васийлик кенгаши таркиби** иловага мувофиқ тасдиқлансин.

4. Қуйидагилар Жамғармани **молиялаштириш манбалари** этиб белгилансин:

(а) Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети маблағлари;

(б) жисмоний ва юридик шахсларнинг, шу жумладан, Ўзбекистон Республикаси норезидентларининг ҳомийлик хайриялари;

(в) халқаро молия институтлари ва хорижий ташкилотларнинг грантлари;

(г) Жамғарманинг вақтинча бўш турган маблағларини тижорат банкларига жойлаштиришдан олинадиган даромадлар;

(д) қонунчилик ҳужжатларида тақиқланмаган бошқа манбалар.

5. Олимпия ва Паралимпия ўйинларига Ўзбекистон спортчиларини тайёрлаш бўйича республика комиссиясига спорт соҳаси учун, истисно тариқасида, давлат иштирокидаги корхоналар ва уларнинг тизимидаги корхоналарни ҳар йили Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси билан келишган ҳолда ҳомий сифатида бириктириш ҳамда ҳомийлик маблағлари миқдорини белгилаб боришга рухсат берилсин. Бунда мазкур ҳомийлик маблағлари Жамғармага йўналтирилади.

6. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги **2026 йилда** Жамғармага Давлат бюджетидан **700 миллиард сўм** маблағ ажратилишини, 2027 йилдан бошлаб Спорт вазирлигининг асосланган ҳисоб-китобларига асосан зарур маблағлар Давлат бюджети параметрларида кўзда тутиб борилишини таъминласин. Бунда 2026 йилда Жамғармага ажратиладиган маблағлардан:

(а) **200 миллиард** сўм 2026 йил 1 апрелга қадар, қолган қисми **йил якунига қадар ҳар чоракда** ажратиб борилади;

(б) Ўзбекистон Миллий олимпия қўмитасига 2026 йил 1 июнга қадар **100 миллиард** сўм ажратилади;

(в) Суперлигадаги ҳар бир футбол клуби учун 2026 йилда **35 миллиард** сўмдан, 2027 йилда **30 миллиард** сўмдан ва 2028 йилда **25 миллиард** сўмдан берилади.

7. Белгилаб қўйилсинки, Олимпия ва Паралимпия ўйинларига тайёргарлик кўриш, Миллий паралимпия қўмитасини сақлаш билан боғлиқ бўлган қўшимча харажатлар учун ҳамда мамлакатимизда нуфузли халқаро спорт тадбирларини юқори савияда ўтказиш мақсадида:

QMMB: 07/26/107/0273-son
27.03.2026-y.

(а) Вазирлар Маҳкамасининг захира жамғармаси маблағлари ҳисобидан Миллий олимпия қўмитасига **55 миллиард** сўм, Миллий паралимпия қўмитасига **50 миллиард** сўм ажратилади;

(б) Вазирлар Маҳкамасининг захира жамғармаси маблағлари тегишлилиги бўйича Миллий олимпия ва паралимпия қўмиталарининг асосланган ҳисоб-китобларига мувофиқ ўрнатилган тартибда ушбу ташкилотларга ўтказиб берилади.

8. Белгилансинки, Жамғарма маблағлари қуйидаги мақсадлар учун йўналтирилади:

(а) Миллий олимпия ва паралимпия қўмиталарига:

(i) олимпия ва паралимпия спорт турларини ривожлантириш, Миллий олимпия ва паралимпия қўмиталарини сақлаш билан боғлиқ бўлган қўшимча харажатларни молиялаштириш, миллий терма жамоаларнинг Олимпия ва Паралимпия ўйинлари ҳамда бошқа нуфузли халқаро спорт мусобақаларига тайёргарлик кўриши ва уларнинг иштирокини таъминлаш;

(ii) спорт федерация (уюшма)лари фаолиятини молиявий қўллаб-қувватлаш;

(iii) республика ҳудудида олимпия ва паралимпия спорт турлари бўйича ташкил этиладиган халқаро спорт тадбирлари харажатларини қоплаб бериш;

(б) Ўзбекистон футбол ассоциациясига профессионал футбол клублари фаолиятини молиявий қўллаб-қувватлаш;

(в) спорт федерация (уюшма)ларига уларнинг фаолиятини молиялаштириш;

(г) “Янги Ўзбекистон Олимпия чўққилари” мусобақалари республика босқичи – “Президент Олимпиадаси” мусобақаларини ташкил қилишга доир (ўтказиш, жойлаштириш, тақдирлаш ва бошқалар) харажатларни молиялаштириш;

(д) профессионал футбол клубини бошқарувга олган ва спорт федерация (уюшма)сига жалб этилган тадбиркорларнинг соҳани ривожлантиришга қаратилган истиқболли лойиҳалари учун грантлар ажратиш.

QMMB: 07/26/107/0273-son
27.03.2026-y.

9. Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга кўра спорт федерация (уюшма)ларига раҳбар сифатида сайланган давлат ташкилотлари ва давлат иштирокидаги корхоналар раҳбарларига ўзлари раҳбар бўлган спорт федерация (уюшма)ларига тегишли давлат ташкилотларининг бюджетдан ташқари ҳамда давлат иштирокидаги корхоналарнинг маблағлари ҳисобидан Олимпия ва Паралимпия ўйинларига Ўзбекистон спортчиларини тайёрлаш бўйича республика комиссияси билан келишилган ҳолда маблағ йўналтиришга рухсат берилади. Бунда спорт федерация (уюшма)ларига тадбиркорларни жалб қилиш, ушбу тадбиркорларга кўмаклашиш ҳамда тегишли федерациянинг молиявий барқарорлигини таъминлаш бўйича шахсий масъулият юклатилади.

10. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари профессионал футбол клубларига кўмакчи сифатида бириктирилсин. Бунда Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши Раиси, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимлари:

(а) Ўзбекистон футбол ассоциацияси билан ҳамкорликда профессионал футбол клубларини бошқарувга оладиган тадбиркорларга ташкилий масалаларда кўмаклашади;

(б) профессионал футбол клубларига молиявий фаолиятини таъминлаш учун маҳаллий бюджетнинг қўшимча даромадлари маблағларини ажратиб боришига рухсат берилади.

11. Белгилансинки:

(а) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 21 январдаги ПҚ–22-сон қарори билан Ўзбекистон спорт курашлари ассоциацияси ҳамда Ўзбекистон кураш федерациясига ҳар йили ажратилиши белгиланган **50 миллиард** сўм маблағлар ушбу федерацияларга Жамғарма орқали йўналтирилади;

(б) Жамғарма фаолиятини ташкил этиш тартиби тасдиқлангунга қадар маблағларни ажратиш Миллий олимпия ва паралимпия қўмиталари, Ўзбекистон футбол ассоциацияси ҳамда ушбу бандда кўзда тутилган спорт федерация (уюшма)лари сўровномаларига асосан амалга оширилади;

(в) ҳар йили Жамғарманинг даромадлар ва харажатлар сметаси Васийлик кенгаши томонидан тасдиқланади.

III. Спорт соҳасида замонавий бошқарув тизимини жорий этиш

12. Белгилаб қўйилсинки, **2026 йил 1 апрелдан бошлаб** спорт соҳасини бошқаришнинг замонавий механизмларини жорий этиш мақсадида:

QMMB: 07/26/107/0273-son
27.03.2026-y.

(а) спорт федерация (уюшма)си фаолияти билан боғлиқ йиллик барча харажатларнинг камида **20 фоизи миқдорида** ҳомийлик маблағи киритган **тадбиркорни** спорт федерация (уюшма)ларининг **ижро органларига киритиш** йўлга қўйилади. Бунда:

(i) бошқарувда тадбиркорлар иштирок этадиган спорт федерация (уюшма)лари рўйхати Миллий олимпия қўмитаси томонидан Спорт вазирлиги билан келишилган ҳолда белгиланади;

(ii) тадбиркор спорт федерация (уюшма)си ижро органи аъзолигига олий бошқарув органи қарори билан киритилиши ҳамда спорт федерация (уюшма)си раҳбарлигига сайланиши мумкин;

(iii) спорт федерация (уюшма)лари бошқарувига киритилган тадбиркорлар билан спорт федерация (уюшма)сининг олий бошқарув органи томонидан бир йил муддатга ўзаро мажбуриятлар келишуви тузилади;

(iv) спорт федерация (уюшма)лари бошқарувига киритилган тадбиркорлар спорт федерация (уюшма)лари фаолиятини ривожлантириш бўйича дастурлар, стратегиялар ва йиллик сметаларни тузишда иштирок этади;

(v) тадбиркор спорт федерация (уюшма)си фаолиятини қўллаб-қувватлаш хайриялари ва краудфандинг жамғармалари тизимини йўлга қўйиш, мусобақаларга чипталар сотилишини рақамлаштириш ва турли лотерея ўйинлари, спорт объектлари ҳудудида турли кўнгилочар тадбирларни ўтказиш ёки ижарага бериш ва бошқалар ҳисобига молиялаштириш манбаларини диверсификация қилиш чораларини кўради;

(б) профессионал футбол клублари фаолияти билан боғлиқ бўлган йиллик барча харажатларнинг камида **20 фоизи миқдорида** ҳомийлик маблағи киритган **тадбиркор ёки тадбиркорлар гуруҳига** профессионал футбол клубини **ишончли бошқарувга** бериш амалиёти жорий этилади. Бунда:

(i) Ўзбекистон футбол ассоциацияси томонидан **танлов асосида ишончли бошқарувга** берилиши режалаштирилаётган профессионал футбол клублари рўйхати Ўзбекистон футбол ассоциацияси томонидан эълон қилинади ва танлов муддати **15 кун** этиб белгиланади;

QMMB: 07/26/107/0273-son
27.03.2026-y.

(ii) профессионал футбол клуби фаолиятини сақлаш харажатларига энг кўп ҳомийлик маблағи киритишни таклиф қилган тадбиркор ёки тадбиркорлар гуруҳи ғолиб деб топилади. Бунда профессионал футбол клубига **ўтган йилларда ҳомийлик қилиб келган тадбиркорларга** устунлик берилади;

(iii) танлов иштирокчиларининг ҳомийлик маблағи киритиш тўғрисидаги таклифлари қиймати бир хил бўлганда, тегишлилиги бўйича Ўзбекистон футбол ассоциацияси томонидан профессионал футбол клубини **ривожлантириш бўйича энг яхши таклиф** берган талабгор ғолиб деб эълон қилинади;

(iv) **танлов ғолиби бўлган тадбиркор** ҳамда профессионал футбол клуби таъсисчилари ўртасида **ишончли бошқариш тўғрисида шартнома** тузилади;

(v) мазкур тартиб муассислари таркибида тадбиркорларнинг улуши **50 фоиз**дан юқори бўлган профессионал футбол клубларига татбиқ этилмайди;

(vi) профессионал футбол клубини ишончли бошқарувга беришда қонунчиликда назарда тутилган инвестиция активларининг ишончли бошқарувчиларига қўйиладиган умумий талаблар татбиқ этилмайди.

13. Ишончли бошқарувга берилган профессионал футбол клубларида:

(а) клубни молиявий ва стратегик жиҳатдан қўллаб-қувватлаш ҳамда молиявий шаффофликни таъминлаш мақсадида **Кузатув кенгаши ва тафтиш комиссияси** ташкил этилади;

(б) тадбиркор Кузатув кенгашига раислик қилиши мумкин. Бунда:

(i) клуб раҳбарияти Кузатув кенгаши томонидан тайинланади;

(ii) Кузатув кенгаши клуб фаолиятини ривожлантириш бўйича дастурлар ва узоқ муддатли бизнес-режани тасдиқлайди, клуб истиқболи учун маркетинг ва трансфер сиёсатини белгилайди;

(iii) тадбиркорлар клуб фаолиятини мустақил равишда ташкил этади. Давлат идоралари ва бошқа мансабдор шахсларнинг клуб молиявий фаолиятига ноқонуний аралашувига йўл қўйилмайди;

QMMB: 07/26/107/0273-son
27.03.2026-y.

(iv) тадбиркорлар клубни қўллаб-қувватлаш хайриялари ва краудфандинг жамғармалари тизимини йўлга қўйиш, футбол ўйинларига чипталар сотилишини рақамлаштириш ва турли лотерея ўйинлари, ўйингоҳ ҳудудида кўнгилочар тадбирлар ташкил этиш ёки ижарага бериш орқали молиялаштириш манбаларини диверсификация қилиш чораларини кўради.

14. Профессионал футбол клублари ишончли бошқарувига ва спорт федерация (уюшма)ларига жалб қилинган тадбиркорлар уларнинг самарали фаолият юритиши ҳамда белгиланган мақсад ва вазифаларга эришилишига масъул ҳисобланади, шунингдек, сифат кўрсаткичларига эришиш юзасидан тегишлилиги бўйича Спорт вазирлиги, Миллий олимпия қўмитаси ва Ўзбекистон футбол ассоциациясига ҳисобот беради.

IV. Имтиёзлар

15. Белгилансинки, профессионал футбол клублари ишончли бошқарувига ва спорт федерация (уюшма)ларига жалб қилинган тадбиркорларни қўллаб-қувватлаш мақсадида улар учун:

(а) фойда солиғини ҳисоблашда юридик шахсларнинг солиқ солинадиган фойдаси **олимпия ва паралимпия спорт турлари** бўйича спорт федерация (уюшма)лари ҳамда профессионал футбол клубларининг фаолиятини молиялаштиришга йўналтириладиган ҳомийлик хайриялари шаклидаги маблағлар суммасига, бироқ солиқ солинадиган фойданинг **10 фоизи**дан ошмаган миқдорда камайтирилади. Бунда мазкур имтиёз футбол клубларига ва спорт федерация (уюшма)ларига ҳомийлик маблағлари ажратаётган барча тадбиркорлик субъектларига татбиқ этилади;

(б) **2026 йил 1 апрелдан 2029 йил 1 апрелга қадар** бўлган даврда Суперлига ва Пролигада иштирок этувчи футбол клублари футболчилари жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғини тўлашдан озод қилинади ҳамда улар учун ижтимоий солиқ ставкаси **1 фоиз** миқдорида белгиланади;

(в) мазкур бандниng “б” кичик бандида назарда тутилган имтиёзлар Олимпия ва Паралимпия ўйинларига Ўзбекистон спортчиларини тайёрлаш бўйича республика комиссияси томонидан белгиланадиган рўйхат бўйича миллий терма жамоаларни тайёрлаш учун жалб этиладиган хорижий ҳамда Ўзбекистонда туғилган ёки Ўзбекистон фуқаролигига эга бўлган, илғор хориж тажрибасини ўзлаштирган тренерлар, спорт мутахассисларига нисбатан ҳам қўлланади;

QMMB: 07/26/107/0273-son
27.03.2026-y.

(г) ликвидли гаров таъминотини (спорт федерация (уюшма)лари ва профессионал футбол клубларининг балансида бўлган бино, иншоот ва ер майдонлари бундан мустасно) ҳамда истиқболли бизнес-режаларни тақдим этган ҳолда тижорат банклари томонидан профессионал футбол клубларини сотиб олиш ёки спорт объектларини қуриш, реконструкция қилиш ва капитал таъмирлаш ишлари учун **1 йиллик имтиёзли давр билан 5 йил муддатга йиллик 14 фоиз ставкада** кредит ажратилади. Бунда:

(i) тижорат банкларининг маржаси “Тадбиркорликни ривожлантириш компанияси” акциядорлик жамияти маблағлари ҳисобидан қопланади;

(ii) профессионал футбол клублари учун спорт объектларини қуриш, уларнинг балансидаги спорт объектларини реконструкция қилиш ва капитал таъмирлаш харажатлари суммаси профессионал футбол клублари устав капиталига уларнинг бошқарув органлари қарорлари асосида бозор қийматида тадбиркор улуши сифатида киритилади;

(д) профессионал футбол клубини бошқарувга олган ва спорт федерация (уюшма)сига жалб қилинган тадбиркорларнинг ўз маҳсулот (хизмат)лари спортни оммалаштириш ва янада тарғиб қилишга йўналтирилган эфирларни трансляция қилиш давомида Ўзбекистон Миллий телерадиокомпанияси тизимидаги марказий ва ҳудудий телеканалларда реклама қилишда **50 фоизли чегирмалар берилади**.

V. Қарор ижросини ташкил этиш, таъминлаш ва назорат

16. Қуйидагилар:

(а) Давлат активларини бошқариш агентлиги Спорт вазирлиги, Ўзбекистон футбол ассоциацияси ҳамда Иқтисодиёт ва молия вазирлиги билан биргаликда **2026 йил якунига қадар**:

(i) барча профессионал футбол клубларининг мол-мулклари тўлиқ хатловдан ўтказилишини таъминласин, баланс қийматларини аниқлаш ва ҳисоботларда акс эттирилишини ҳамда фаолиятига тегишли бўлмаган мол-мулкларни тасарруф этиш бўйича таклифларни ишлаб чиқсин;

(ii) **“катта тўртлик”** туркумига кирувчи ҳамда шу каби аудит ва консалтинг ташкилотларини жалб қилган ҳолда профессионал футбол клубларининг бозор нархини баҳолаш ва улардаги давлат улушини хусусийлаштириш чораларини кўрсин;

QMMB: 07/26/107/0273-son
27.03.2026-y.

(б) **ушбу бандда кўзда тутилган** тартиб таъсисчилари хусусий корхоналар (жисмоний шахслар) бўлган профессионал футбол клубларига тавсия этилсин;

(в) Миллий олимпия қўмитасига:

(i) спорт федерация (уюшма)лари фаолиятини хатловдан ўтказиш ва йиллик молиявий фаолияти бўйича аудитдан ўтиш тизими ва молиявий ҳисобдорлигини юритиш ҳамда эълон қилиш бўйича **таклифларни тайёрлаш** учун **консалтинг компаниясини жалб этиш**;

(ii) ўтказилган аудит натижасига кўра спорт федерация (уюшма)лари тузилмаси ва регламентларини **халқаро спорт федерациялари қоидаларига мослаштириш** чораларини кўриш тавсия этилсин.

17. Ҳисоб палатаси мазкур қарор билан белгиланган молиявий маблағларнинг самарали ишлатилишини ҳамда бюджетдан ажратиладиган маблағлардан мақсадли фойдаланилишини доимий назоратга олсин.

18. Спорт вазирлиги Ўзбекистон футбол ассоциацияси билан биргаликда **2026 йил якунига қадар** Жамғарма маблағлари ҳисобидан халқаро консалтинг ташкилотини жалб қилган ҳолда профессионал футбол клублари фаолиятини халқаро футбол ташкилотлари талабларига мувофиқлаштириш бўйича қуйидагиларни назарда тутувчи таклифларни тайёрласин ва Вазирлар Маҳкамасига киритсин:

(а) клубларнинг молиявий фаолиятини юритиш ва ҳар йили мажбурий аудитдан ўтказиш, клубларнинг бюджетдан ташқари ва ҳомийлик маблағларини жалб қилиш ва тижорат фаолияти самарадорлигини баҳолаш;

(б) клубларнинг бошқарув тузилмасини замонавий корпоратив бошқариш талабларига мослаштириш ва ходимлар учун KPI кўрсаткичларини белгилаш;

(в) клублар томонидан ўз фаолияти ва молиявий кўрсаткичлари тўғрисидаги ҳисоботларни жамоатчилик учун очиқ тарзда эълон қилиш.

19. Ўзбекистон футбол ассоциациясига Давлат активларини бошқариш агентлиги билан биргаликда профессионал футбол клубларининг таъсис ва ички ҳужжатлари тўлиқ хатловдан ўтказилишини ҳамда замонавий корпоратив бошқарув тизимига мос бўлган ўзгартиришлар киритилишини ташкил қилиш тавсия этилсин.

QMMB: 07/26/107/0273-son
27.03.2026-y.

20. Спорт вазирлиги Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Миллий олимпия ва паралимпия қўмиталари ҳамда Ўзбекистон футбол ассоциацияси билан биргаликда **уч ой муддатда:**

(а) қуйидагиларни тасдиқлашни назарда тутувчи норматив-хуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини:

(i) Жамғарма фаолиятини ташкил этиш тартиби;

(ii) Профессионал футбол клубларининг фаолият юритиши тартиби. Бунда профессионал футбол клублари томонидан маҳаллий ва чет эллик футболчилар, шунингдек, клуб ходимларига иш ҳақи ва бошқа тўловлар мутаносиб миқдорларда тўланиши кўзда тутилади;

(б) қонунчилик ҳужжатларига ушбу қарордан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар тўғрисидаги таклифларни Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

21. Миллий олимпия ва паралимпия қўмиталари, Ўзбекистон футбол ассоциацияси ҳамда спорт федерация (уюшма)лари ажратилган маблағларнинг мақсадли ва самарали сарфланишини таъминласин.

22. Мазкур қарор ижросини ташкил қилиш учун Бош вазир ўринбосари Ж.А. Қўчқоров ва спорт вазири А.И. Икрамов масъул ва шахсий жавобгар этиб белгилансин.

23. Қарорнинг ижросини муҳокама қилиб бориш, ижро учун масъул ташкилотлар фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикаси Президенти

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI
KANSELYARIYA
1

Ш. Мирзиёев

Тошкент шаҳри

QMMB: 07/26/107/0273-son
27.03.2026-y.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 24 мартдаги ПҚ–107-сон қарорига
илова

Спорт соҳасида ташаббусларни қўллаб-қувватлаш жамғармаси васийлик кенгаши
ТАРКИБИ

1.	А.И. Икрамов	–	Ўзбекистон Республикаси спорт вазири – *Васийлик кенгаши раиси*
2.	О.М. Умаров	–	Ўзбекистон Миллий олимпия қўмитаси раисининг биринчи ўринбосари, *Васийлик кенгаши раиси ўринбосари*
3.	О.Р. Фазилкаримов	–	Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёт ва молия вазири ўринбосари, *Васийлик кенгаши раиси ўринбосари*
4.	Ш.Ш. Махмудов	–	Ўзбекистон Республикаси спорт вазири ўринбосари
5.	М.М. Ташходжаев	–	Ўзбекистон Миллий паралимпия қўмитаси раиси
6.	Р.С. Ирматов	–	Ўзбекистон футбол ассоциацияси биринчи вице-президенти
7.	О.О. Касимов	–	Ўзбекистон Миллий олимпия қўмитаси Бош котиби
8.	А.Я. Камилов	–	Ўзбекистон дзюдо федерацияси раиси
9.	С.Ж. Полатов	–	Ўзбекистон бокс федерацияси раисининг биринчи ўринбосари
10.	Х.М. Хусанов	–	Ўзбекистон Миллий олимпия қўмитаси департамент директори
11.	А.А. Низаметдинов	–	Ўзбекистон Республикаси Спорт вазирлиги бошқарма бошлиғи, *Васийлик кенгаши котиби*

Изоҳ: *Васийлик кенгаши аъзолари бошқа ишга ўтган тақдирда унинг таркибига ушбу лавозимларга янгидан тайинланган ёхуд тегишли функцияларни бажариш зиммасига юкланган шахслар киритилади.*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI
KANSELYARIYA
1

QMMB: 07/26/108/0281-son
28.03.2026-y.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

2026 yil « 25 » март № ПҚ–108

Аҳолини куз-қиш мавсумларида қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари билан барқарор таъминлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида

Республикада яшил иқтисодиёт тамойилларини жорий этиш, шунингдек, иссиқхоналарни табиий-иқлим шароитига қулай бўлган ҳудудларда агропарк усулида ривожлантириш орқали энергия ресурсларини тежаш мақсадида **қарор қиламан**:

I. Асосий мақсадлар

1. Қуйидагилар 2026 – 2027 йилларда республикада иссиқхоналар фаолиятини ривожлантиришнинг **асосий мақсадли кўрсаткичлари** этиб белгилансин:

(а) Сурхондарё вилояти Шеробод туманида камида **940 гектар** майдонда замонавий иссиқхона мажмуаларини жойлаштириш;

(б) энергия тежамкор ва муқобил энергия манбаларига асосланган иситиш тизимлари **улушини камида 50 фоизга** етказиш;

(в) атмосфера ҳавосига зарарли ташламалар ташлаётган тадбиркорлик субъектлари фаолиятини **босқичма-босқич камайтириш**.

II. Иссиқхоналар фаолияти самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари

2. Қишлоқ хўжалиги вазирлиги, Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси (кейинги ўринларда – Экология қўмитаси) ҳамда Сурхондарё вилояти ҳокимлигининг Сурхондарё вилояти табиий-иқлим шароитларидан унумли фойдаланиш мақсадида:

QMMB: 07/26/108/0281-son
28.03.2026-y.

(а) мазкур қарорга иловага мувофиқ Сурхондарё вилояти Шеробод туманида **“Сурхон-Агро” эркин иқтисодий зонасини** (кейинги ўринларда – “Сурхон-Агро” зонаси) ташкил этиш;

(б) “Сурхон-Агро” зонасини ривожлантириш ва бошқариш учун давлат муассасаси шаклида **“Сурхон-Агро” эркин иқтисодий зонаси дирекцияси** (кейинги ўринларда – Дирекция) фаолиятини йўлга қўйиш тўғрисидаги таклифларига розилик берилсин.

3. Белгилансинки:

(а) “Сурхон-Агро” зонасининг **фаолият кўрсатиш муддати** кейинчалик узайтириш имконияти билан **30 йилни ташкил этади**;

(б) “Сурхон-Агро” зонасининг фаолият кўрсатиш муддати мобайнида унинг иштирокчиларига эркин иқтисодий зоналар иштирокчилари учун белгиланган **алоҳида солиқ, божхона имтиёзлари** ва **бошқа преференциялар** татбиқ этилади.

4. Қуйидагилар **Дирекция фаолиятининг устувор йўналиши** ва **асосий вазифалари** этиб белгилансин:

(а) иссиқхоналарда замонавий, энергия тежамкор ва рақамли агротехнологияларни жорий этиш, **автоматлаштирилган бошқарув тизимлари, томчилатиб суғориш ва қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланишни кенгайтириш**;

(б) тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб қилиш, давлат-хусусий шериклик асосида **кластер ва кооперация моделини ривожлантириш** ҳамда молиявий қўллаб-қувватлаш механизмларини такомиллаштириш бўйича таклифлар киритиш;

(в) иссиқхона хўжаликларига **“ягона дарча”** тамойили асосида муҳандислик тармоқларига уланиш, экспорт ҳужжатларини расмийлаштириш ҳамда давлат субсидияларини олиш жараёнларини тўлиқ амалга ошириш;

QMMB: 07/26/108/0281-son
28.03.2026-y.

(г) талабгор тадбиркорлар томонидан маҳсулотларни саралаш, қадоқлаш ва совитиш омборларини ўз ичига олган **замонавий агрологистика марказини ташкил этиш** лойиҳалари амалга оширилишига кўмаклашиш.

5. Белгилансинки, Қишлоқ хўжалиги вазирлиги Дирекция фаолиятини мувофиқлаштириш бўйича масъул орган ҳисобланади.

6. Дирекция фаолиятини ташкил этиш учун зарур бўлган асбоб-ускуналар, махсус техника ва автотранспорт воситалари билан таъминлаш ҳамда биносини жиҳозлаш, мастер режа ишлаб чиқиш мақсадида Вазирлар Маҳкамасининг захира жамғармаси ва Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармасидан 5 миллиард сўмдан маблағлар ажратилсин.

7. Дирекция иссиқхоналарда ўрнатилган иситиш тизимларининг экологик нормаларга мослигини доимий мониторинг қилиш ҳамда носоз иситиш ускуналаридан фойдаланишни чеклаш бўйича Экология қўмитасига таклифлар киритиб борилишини таъминласин.

8. Белгилансинки, Дирекция доимий тарзда **ўзини ўзи молиялаштириш тамойили асосида** ташкил этилади ва унинг даромадлари қуйидаги манбалар ҳисобидан шакллантирилади:

(а) иссиқхона хўжаликларига кўрсатиладиган агротехник, етиштирилган маҳсулотларни бозорларга етказиш (саралаш, қадоқлаш, совитиш омборларида сақлаш) ва консалтинг хизматлари учун тўловлар;

(б) етиштирилган маҳсулотни ички ва ташқи бозорларда сотишдан олинадиган воситачилик (дистрибьюторлик) ажратмалари;

(в) Дирекция балансидаги бино ва иншоотларни ҳамда ер майдонларини ижарага бериш ва муҳандислик-коммуникация тармоқларини бошқаришдан тушадиган тушумлар;

(г) халқаро молия институтлари ва хорижий донор ташкилотларнинг грантлари ҳамда техник кўмак маблағлари;

QMMB: 07/26/108/0281-son
28.03.2026-y.

(д) Дирекциянинг вақтинча бўш турган маблағларини тижорат банклари депозитларига жойлаштиришдан олинган фоизлар;

(ж) 2027 йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш дастури доирасида ажратиладиган маблағлар;

(з) қонунчилик билан тақиқланмаган бошқа манбалар.

9. Сурхондарё вилояти ҳокимлиги Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Агросаноат мажмуи устидан назорат қилиш инспекцияси, Урбанизация ва уй-жой бозорини барқарор ривожлантириш миллий қўмитаси ҳузуридаги Кадастр агентлиги билан биргаликда:

(а) икки ой муддатда мазкур қарорга иловада назарда тутилган ҳудудда жойлашган қишлоқ хўжалигига мўлжалланган суғориладиган ерлар тоифасига кирувчи жами **940 гектар** ер майдонини хатловдан ўтказсин;

(б) уч ой муддатда “Сурхон-Агро” зонаси таркибига киритиладиган ерларнинг чегаралари аниқ белгиланишини ва белгиланган тартибда ажратилишини таъминласин.

10. Сурхондарё вилояти ҳокимлиги **бир ой муддатда** Сурхондарё вилояти **эркин иқтисодий зоналар ва кичик саноат зоналари маъмурий кенгаши** билан биргаликда Дирекция фаолиятини ташкил этиш чораларини кўрсин.

11. Сурхондарё вилояти ҳокимлиги, Қишлоқ хўжалиги вазирлиги **2026 йил 1 апрелдан бошлаб** “Сурхон-Агро” зонаси ҳудудидаги ер майдонларини текислаш ва тизимли равишда агротехник ишлов бериш ҳамда ирригация тармоқларини созлаш чораларини кўрсин.

III. Иссиқхоналар фаолиятини қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари

12. Белгилансинки, “Сурхон-Агро” зонаси ҳудудида фаолият олиб борадиган иссиқхона хўжаликларига қуйидаги **имтиёз ва преференциялар берилади**:

QMMB: 07/26/108/0281-son
28.03.2026-y.

(а) ер участкалари тадбиркорларга электрон онлайн аукцион орқали ижарага берилганда **5 йил давомида** ижара тўловининг **ноль** ставкаси қўлланади;

(б) иссиқхоналарни суғориш ва технологик жараёнлар учун ишлатиладиган оқова ва ерости сувлари учун тўловлардан **3 йил муддатга озод этилади**;

(в) аномал совуқ об-ҳаво шароитлари даврида (Гидрометеорология хизмати агентлигининг ҳаво ҳарорати кескин пасайиши тўғрисидаги маълумотлари асосида), истисно тариқасида, **белгиланган экологик талабларга риоя қилган ҳолда кўмир ёқишга рухсат этилади**.

13. Сурхондарё вилояти ҳокимлиги **уч ой муддатда** белгиланган тартибда захирага қайтарилган ер участкалари доимий фойдаланиш ҳуқуқи билан Дирекцияга ажратилишини таъминласин.

14. Белгилансинки:

(а) 2026 йил 1 июндан бошлаб 2028 йил 1 июнга қадар ишлаб чиқарилган маҳсулотни “Сурхон-Агро” зонаси иштирокчилари ўртасида кооперация асосида кафолатли сотиш ҳамда муҳандислик инфратузилмасига уланиш тўловларсиз амалга оширилади;

(б) Тошкент шаҳри ва Тошкент вилоятидаги тадбиркорлик субъектларига ижара ҳуқуқи асосида тегишли бўлган ер участкалари ихтиёрий равишда туман ҳокимлигининг тасарруфидаги бўш турган ер участкаси сифатида ҳисобга олинганда ушбу ер участкалари Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 3 февралдаги “Қишлоқ хўжалиги экин майдонлари унумдорлигини ошириш, тармоққа инвестициялар жалб қилиш учун қулай шарт-шароит яратиш бўйича навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ–18-сон Фармонига асосан белгиланган тартибда электрон онлайн аукцион савдоларига чиқарилади.

QMMB: 07/26/108/0281-son
28.03.2026-y.

15. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги **уч ой муддатда** 2027 йил 1 январдан бошлаб “Сурхон-Агро” зонаси ҳудудида етиштирилган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини дастлабки уч йил давомида Сурхондарё вилоятидан республиканинг бошқа ҳудудларига автомобиль ва темир йўл транспорти орқали ташиш ҳамда кейинги уч йил муддатда эса, белгиланган тарифларга 50 фоиз миқдорида чегирма қўллаш бўйича асослантирилган таклифларни Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

IV. “Сурхон-Агро” зонасида инфратузилмани яхшилаш чора-тадбирлари

16. Сурхондарё вилояти ҳокимлиги “Ҳудудий электр тармоқлари” АЖ, “Ўзсувтаъминот” АЖ ҳамда Тоғ-кон саноати ва геология вазирлиги билан биргаликда **икки ой муддатда**:

(а) мазкур қарорнинг **иловаси** билан тасдиқланган ҳудуд доирасида жойлаштириладиган объектларни ташқи муҳандислик-коммуникация тармоқларига улаш учун техник шартлар (рухсатномалар)ни қонунчиликда белгиланган тартибда қисқа муддатларда бериш;

(б) муҳандислик-коммуникация тармоқларига уланиш имкони мавжуд бўлмаган иссиқхоналар учун Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети маблағлари ҳисобидан “Сурхон-Агро” зонаси ҳудудига ташқи муҳандислик-коммуникация инфратузилмасини ўтказиш бўйича тезкор чораларни кўрсин.

17. Сурхондарё вилояти ҳокимлиги Тоғ-кон саноати ва геология вазирлиги, Сув хўжалиги вазирлиги, “Ўзсувтаъминот” АЖ билан биргаликда **уч ой муддатда:**

(а) Дирекция тасарруфига ажратиладиган 940 гектар ҳудудни сув билан таъминлаш учун мақбул ерусти сув манбасини танлаб олиш орқали қонунчиликда белгиланган тартибда сув олиш ҳуқуқини берувчи техник шартлар (рухсатномалар) расмийлаштирилишини;

QMMB: 07/26/108/0281-son
28.03.2026-y.

(б) ҳудудда сув олиш иншоотларини (қудуқларни) бурғилаш учун махсус рухсатномалар соддалаштирилган тартибда 5 иш куни муддатида расмийлаштирилиши таъминлансин.

18. Сурхондарё вилояти ҳокимлиги, Қишлоқ хўжалиги вазирлиги **бир ой муддатда** Шеробод тумани "Олтин воҳа" МФЙ ҳудудида жойлашган қишлоқ хўжалигига мўлжалланган суғориладиган ер майдонининг 971-контурида агрологистика марказини ташкил этиш учун 20 гектар қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкаларининг ер фонди тоифасини саноат, транспорт, алоқа, мудофаа ва бошқа мақсадларга мўлжалланган ерлар фонди тоифасига ўзгартириш бўйича таклифларни Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ва ўрмон фонди ерларининг ер фонди тоифаларини ўзгартириш масалаларини кўриб чиқиш бўйича Ҳукумат комиссиясига белгиланган тартибда киритсин.

19. "Ҳудудий электр тармоқлари" АЖ, "Ҳудудгазтаъминот" АЖ **уч ой муддатда** "Сурхон-Агро" зонасини энергия ресурслари билан узлуксиз таъминлаш, шунингдек, уни муҳандислик-коммуникация тармоқларига улаш ва фойдаланишга топшириш чораларини кўрсин. Бунда "Сурхон-Агро" зонасини электр энергияси ва табиий газ билан таъминловчи тармоқларни қуриш учун талаб этиладиган маблағлар Ўзбекистон Республикасининг республика бюджетидан ажратилади.

20. Сурхондарё вилояти ҳокимлиги Транспорт вазирлиги, Автомобиль йўллари қўмитаси ҳамда "Ўзбекистон темир йўллари" АЖ билан биргаликда **2026 йил 1 августга қадар** "Сурхон-Агро" зонасини асосий транспорт магистраллари билан боғловчи автомобиль йўлларини қуриш ва мавжуд йўлларни реконструкция қилиш чораларини кўрсин.

V. Маҳсулотларни импорт ва экспорт қилиш ҳажмини ошириш ва логистикани йўлга қўйиш чора-тадбирлари

21. Божхона қўмитаси Ўсимликлар карантини ва ҳимояси агентлиги билан биргаликда "Сурхон-Агро" зонасида экспорт операцияларини жадаллаштириш мақсадида **2026 йил якунига қадар "яшил йўлак"** тамойили асосида фаолият юритувчи **фитосанитария** марказини ташкил этсин.

QMMB: 07/26/108/0281-son
28.03.2026-y.

22. Қишлоқ хўжалиги вазирлиги Ташқи ишлар вазирлиги, Савдо-саноат палатаси, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ҳокимликлари билан биргаликда:

(а) икки ой муддатда Нидерландиянинг "World Horti Center" инновация ва билим маркази билан ҳамкорлик ўрнатиш мақсадида марказ вакиллари билан учрашувларни ташкил этсин ва ҳамкорлик алоқаларини йўлга қўйсин ҳамда Дирекция ҳудудига кўчирилаётган тадбиркорлар учун иссиқхона хўжалиги юритишнинг илғор стандартлари бўйича махсус ўқув дастурини Ўзбекистонда жорий этсин;

(б) жорий йил якунига қадар Нидерландиянинг **"World Horti Center"** инновация ва билим марказига камида маҳаллий **20 нафар** ҳамда Дирекциянинг **10 нафар** мутахассис ва агрономларини олиб бориб, иссиқхона хўжалиги соҳасидаги илғор инновация ва тажрибаларни ўргатишни ташкил этсин. Бунда мазкур тадбирлар билан боғлиқ харажатлар "Ўзсаноатқурилишбанк" АТБ маблағлари ҳисобидан қопланади.

23. Ўзбекистон Миллий телерадиокомпанияси, Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги, Оммавий ахборот воситалари учун контент тайёрлаш маркази оммавий ахборот воситалари билан биргаликда тизимли равишда "Сурхон-Агро" зонасида иссиқхона хўжаликлари учун берилаётган имтиёзлар ва шарт-шароитларни кенг ёритиб борсин.

VI. Қарор ижросини ташкил этиш, таъминлаш ва назорат

24. Қишлоқ хўжалиги вазирлиги манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда икки ой муддатда қонунчилик ҳужжатларига ушбу қарордан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар тўғрисида Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритсин.

25. Мазкур қарорнинг ижросини самарали ташкил қилишга масъул ва шахсан жавобгар этиб Бош вазири ўринбосар Ж.А. Ходжаев, қишлоқ хўжалиги вазири И.Ю. Абдураҳмонов ҳамда Тошкент шаҳар ҳокими Ш.Б. Умурзаков, Тошкент вилояти ҳокими З.Т. Мирзаев ва Сурхондарё вилояти ҳокими У.Б. Қосимов белгилансин.

QMMB: 07/26/108/0281-son
28.03.2026-y.

26. Қарор ижросини таъминлаш юзасидан назорат ўрнатиш ҳамда ижро учун масъул идоралар фаолиятини мувофиқлаштириш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикаси Президенти **Ш.Мирзиёев**

Тошкент шаҳри

QMMB: 07/26/108/0281-son
28.03.2026-y.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 25 мартдаги ПҚ–108-сон қарорига
илова

Сурхондарё вилояти Шеробод туманида “Сурхон-агро” эркин иқтисодий зонасини ташкил қилиш учун ажратиладиган ер майдонлари

Маҳалла фуқаролар йиғини номи	Дала контурлари сони	Ер участкасидан фойдаланувчи	Массивнинг жами ер майдони *(га)*	шундан:		Тоифаси ўзгараётган ер участкаси майдони	Тоифаси ўзгараётган ер участкаси контур рақами	Ер майдонининг ўртача бонитет бали
				суғориладиган	бошқа ерлар			
Олтин воҳа	47	Туман ҳокимлиги захирасида	940	907	33	20,0	971	36,8

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI
KANSELYARIYA
1

QMMB: 07/26/109/0282-son
28.03.2026-y.

12 (1240)-сон
271-модда

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

2026 yil «25» март № ПҚ–109

“Овжазсой – Мовий тоғлар”, “Писком”, “Фарғона” миллий табиат боғларини ташкил этиш ва “Поп” миллий табиат боғи ҳудудини кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида

Мамлакатимизда табиий ҳудудларни муҳофаза қилиш, экологик қимматга эга бўлган табиий объектлар ва мажмуаларни сақлаш, қайта тиклаш, биохилма-хилликни асраш, экологик муҳитни яхшилаш мақсадида **қарор қиламан**:

I. Мақсадлар

1. Қуйидагилар мазкур қарорнинг асосий мақсадлари этиб белгилансин:

(а) Тошкент вилояти Писком ва Қурама тоғ тизмаларидаги табиий ўрмонлар, **27 турдаги** ноёб ва глобал миқёсда йўқолиб кетиш хавфи остидаги **умуртқали ҳайвонлар** ҳамда **7 турдаги** эндемик ва **40 турдаги** Ўзбекистон Республикаси **Қизил китоби**га киритилган **ўсимликлар**ни ҳимоя қилиш;

(б) Фарғона водийсидаги **йўқолиб кетиш хавфи остидаги** Ўзбекистон Республикасининг **Қизил китобига** ва Халқаро табиатни муҳофаза қилиш иттифоқининг **Қизил рўйхатига** кирган **6 тур**даги **судралиб юрувчи**, **3 тур**даги **сут эмизувчи** ва **13 тур**даги **қушлар** ҳамда **2 тур**даги янги **Шимолий Осиё калтакесаклари** ва **Северцов қўйи**нинг аввал табиатга номаълум бўлган **популяциясини** муҳофазага олиш;

(в) табиат ёдгорликлари бўлган **“Ёзёвон”** ва **“Мингбулоқ” оқ қумлари**ни сақлаб қолиш.

QMMB: 07/26/109/0282-son
28.03.2026-y.

II. Миллий табиат боғлари фаолиятини ташкил этиш

2. Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси, Тошкент, Фарғона ва Наманган вилоятлари ҳокимликларининг қуйидаги таклифларига розилик берилсин:

(а) Тошкент вилоятида:

(i) Оҳангарон туманидаги **Оҳангарон давлат ўрмон хўжалигининг "Овжазсой" участкасидаги 9,2 минг гектар** ер майдонида давлат муассасаси шаклидаги "Овжазсой – Мовий тоғлар" миллий табиат боғини;

(ii) Бўстонлиқ туманидаги **Бурчмулла давлат ўрмон хўжалигининг 156,7 минг гектар** ер майдонида давлат муассасаси шаклидаги "Писком" миллий табиат боғини ташкил этиш;

(б) Фарғона вилояти **Ўзбекистон** ва **Сўх туманларидаги 13,9 минг гектар** давлат захира ерлари ҳамда **Фарғона ва Қўқон давлат ўрмон хўжаликларининг 8,9 минг гектар** ер майдонлари ҳисобига умумий майдони **22,9 минг гектар**дан иборат давлат табиатни муҳофаза қилиш муассасаси шаклида "Фарғона" миллий табиат боғини ташкил этиш;

(в) Наманган вилояти **Мингбулоқ** ва **Поп адирликларида 33,6 минг гектар** давлат захира ерлари ҳамда **Поп ихтисослаштирилган давлат ўрмон хўжалигининг 91,2 минг гектар** ер майдони ҳисобига "Поп" миллий табиат боғи ҳудудини **125,3 минг гектар**га кенгайтириш.

3. Белгилансинки:

(а) Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси ҳузуридаги "Муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар департаменти" давлат муассасаси "Овжазсой – Мовий тоғлар", "Писком", "Фарғона" ва "Поп" миллий табиат боғларининг (кейинги ўринларда – миллий табиат боғлари) **муассиси ҳисобланади**;

(б) қуйидагилар миллий табиат боғлари фаолиятини **молиялаштириш манбалари ҳисобланади**:

(i) Тошкент, Фарғона ва Наманган вилоятларининг маҳаллий бюджети маблағлари;

QMMB: 07/26/109/0282-son
28.03.2026-y.

(ii) Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитасининг Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари;

(iii) қонунчилик ҳужжатларида тақиқланмаган бошқа манбалар;

(в) миллий табиат боғларига давлат ўрмон хўжаликларидан ер майдонлари ўтказилганда давлат ўрмон хўжаликлари учун белгиланган штат бирликлари сони муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар учун алоҳида меъёр тасдиқлангунга қадар амал қилади;

(г) миллий табиат боғлари ҳудудида:

(i) ҳар қандай капитал қурилиш ишларини амалга ошириш, автотранспорт воситаларини (махсус ва ёнғинга қарши автотранспортдан ташқари) киритиш ҳамда ов қилиш тақиқланади;

(ii) ноёб табиат, фауна ва флора билан танишиш учун **пиёда сайрларга** (хайкинг) белгиланган тартибда рухсат берилади;

(д) зарур туристик инфратузилма ва туристик хизматлар “Овжазсой – Мовий тоғлар”, “Писком” миллий табиат боғларидан ташқари ҳудудларда ташкил этилади.

4. Қуйидагилар:

(а) “Овжазсой – Мовий тоғлар”, “Писком”, “Фарғона” ва “Поп” миллий табиат боғларига **доимий фойдаланиш ҳуқуқи асосида ажратиладиган ер участкаларининг рўйхати** 1-иловага мувофиқ;

(б) “Овжазсой – Мовий тоғлар”, “Писком”, “Фарғона” ва “Поп” миллий табиат боғларининг **қўриқхона**, **рекреация** ва **хўжалик мақсадида фойдаланиш зоналари** учун ажратиладиган ер майдонлари **рўйхати** 2-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

III. Қарор ижросини ташкил этиш, таъминлаш ва назорат

5. Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси **бир ой муддатда** миллий табиат боғларининг низомлари, тузилмалари ва штат бирликлари тасдиқланишини таъминласин.

QMMB: 07/26/109/0282-son
28.03.2026-y.

6. Тошкент, Фарғона ва Наманган вилоятлари ҳокимликлари:

(а) бир ой муддатда Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитасининг таклифи асосида миллий табиат боғларининг қўриқхона, рекреация ва хўжалик мақсадида фойдаланиш зоналарининг ҳудуди чегараларини тасдиқлаш бўйича қарор қабул қилинишини;

(б) икки ой муддатда:

(i) Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси, Кадастр агентлиги билан биргаликда мазкур қарорнинг 1-иловасидаги ер майдонларини улардаги кўп йиллик дарахтлар ва инфратузилма объектлари билан бирга тегишлилиги бўйича доимий фойдаланиш ҳуқуқи асосида миллий табиат боғларига ўтказиб берилишини;

(ii) Давлат активларини бошқариш агентлиги билан биргаликда миллий табиат боғларининг ижро этувчи аппарати учун вилоятлар марказларидан, миллий табиат боғларининг қўриқлаш постлари учун миллий табиат боғи жойлашган ер майдонларига яқин ҳудудлардан оператив бошқарув ҳуқуқи асосида бинолар бепул ажратилишини таъминласин.

7. Кадастр агентлиги, Қишлоқ хўжалиги вазирлиги **бир ой муддатда**:

(а) мазкур қарорнинг 1-иловасида белгиланган ер участкалари ўрмон фонди ерлари тоифасидан табиатни муҳофаза қилиш, соғломлаштириш ва рекреация мақсадларига мўлжалланган ерлар тоифасига ўтказилишини;

(б) Ер ресурсларининг ҳолати тўғрисидаги миллий ҳисоботга тегишли ўзгартиришлар киритилишини таъминласин.

8. Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги билан биргаликда **икки ой муддатда** муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар ходимларининг штат бирликлари меъёрлари бўйича алоҳида норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини ишлаб чиқиб, киритилишини таъминласин.

9. Мазкур қарорнинг ижросини самарали ташкил қилишга масъул ва шахсан жавобгар этиб Тошкент вилояти ҳокими З.Т. Мирзаев, Фарғона вилояти ҳокими Х.Х. Бозаров ва Наманган вилояти ҳокими Ш.Ш. Абдуразаков белгилансин.

QMMB: 07/26/109/0282-son
28.03.2026-y.

10. Қарор ижросини муҳокама қилиб бориш ва назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Президентининг экология масалалари бўйича маслаҳатчиси – экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси раиси А.А. Абдухакимов зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикаси Президенти **Ш. Мирзиёев**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI
KANSELYARIYA
1

Тошкент шаҳри

QMMB: 07/26/109/0282-son
28.03.2026-y.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 25 мартдаги ПҚ–109-сон қарорига
1-илова

“Овжазсой – Мовий тоғлар”, “Писком”, “Фарғона” ва “Поп” миллий табиат боғларига доимий фойдаланиш ҳуқуқи асосида ажратиладиган ер участкалари РЎЙХАТИ

Ҳудуд номи	Ердан фойдаланувчилар	Ер участкаси майдони *(га)*	Ер тоифаси	Ўтказиладиган ер тоифаси
“Овжазсой–Мовий тоғлар” миллий табиат боғига доимий фойдаланиш ҳуқуқи асосида ажратиладиган ер участкаларининг умумий майдони				
Тошкент вилояти Оҳангарон тумани	Оҳангарон давлат ўрмон хўжалиги	9 200	Ўрмон фонди ерлари	Табиатни муҳофаза қилиш, соғломлаштириш ва рекреация мақсадларига мўлжалланган ерлар
	Туман бўйича жами	**9 200**		
“Писком” миллий табиат боғига доимий фойдаланиш ҳуқуқи асосида ажратиладиган ер участкаларининг умумий майдони				
Тошкент вилояти Бўстонлиқ тумани	Бурчмулла давлат ўрмон хўжалиги	156 759	Ўрмон фонди ерлари	Табиатни муҳофаза қилиш, соғломлаштириш ва рекреация мақсадларига мўлжалланган ерлар
	Туман бўйича жами	**156 759**		
Вилоят бўйича жами		**165 959**		

QMMB: 07/26/109/0282-son
28.03.2026-y.

Ҳудуд номи	Ердан фойдаланувчилар	Ер участкаси майдони *(га)*	Ер тоифаси	Ўтказиладиган ер тоифаси
“Фарғона” миллий табиат боғига доимий фойдаланиш ҳуқуқи асосида ажратиладиган ер участкаларининг умумий майдони				
Фарғона вилояти Бешариқ тумани	Қўқон давлат ўрмон хўжалиги	3 563	Ўрмон фонди ерлари	Табиатни муҳофаза қилиш, соғломлаштириш ва рекреация мақсадларига мўлжалланган ерлар
	Туман бўйича жами	**3 563**		
Фарғона вилояти Данғара тумани	Қўқон давлат ўрмон хўжалиги	3 886	Ўрмон фонди ерлари	Табиатни муҳофаза қилиш, соғломлаштириш ва рекреация мақсадларига мўлжалланган ерлар
	Туман бўйича жами	**3 886**		
Фарғона вилояти, Ёзёвон тумани	Фарғона давлат ўрмон хўжалиги	1 451	Ўрмон фонди ерлари	Табиатни муҳофаза қилиш, соғломлаштириш ва рекреация мақсадларига мўлжалланган ерлар
	Туман бўйича жами	**1 451**		
Фарғона вилояти Ўзбекистон тумани	Ўзбекистон тумани ҳокимлиги захира ерлари	9 077	Захира ерлар	Табиатни муҳофаза қилиш, соғломлаштириш ва рекреация мақсадларига мўлжалланган ерлар

Ҳудуд номи	Ердан фойдаланувчилар	Ер участкаси майдони *(га)*	Ер тоифаси	Ўтказиладиган ер тоифаси
	Туман бўйича жами	**9 077**		
Фарғона вилояти Сўх тумани	Сўх тумани ҳокимлиги захира ерлари	4 903	Захира ерлар	Табиатни муҳофаза қилиш, соғломлаштириш ва рекреация мақсадларига мўлжалланган ерлар
	Туман бўйича жами	**4 903**		
Вилоят бўйича жами		**22 880**		
“Поп” миллий табиат боғи ҳудудини кенгайтириш учун доимий фойдаланиш ҳуқуқи асосида ажратиладиган ер участкаларининг умумий майдони				
Наманган вилояти Поп тумани	Поп ихтисослашган давлат ўрмон хўжалиги	91 250	Ўрмон фонди ерлари	Табиатни муҳофаза қилиш, соғломлаштириш ва рекреация мақсадларига мўлжалланган ерлар
	Поп тумани ҳокимияти захира ерлари	33 658,3	Захира ерлар	Табиатни муҳофаза қилиш, соғломлаштириш ва рекреация мақсадларига мўлжалланган ерлар
	Туман бўйича жами	**124 908,3**		
Наманган вилояти Мингбулоқ тумани	Гигант массивидаги захира ерлар	138,0	Захира ерлар	Табиатни муҳофаза қилиш, соғломлаштириш ва рекреация мақсадларига мўлжалланган ерлар

QMMB: 07/26/109/0282-son
28.03.2026-y.

Ҳудуд номи	Ердан фойдаланувчилар	Ер участкаси майдони *(га)*	Ер тоифаси	Ўтказиладиган ер тоифаси
	Истиқбол массивидаги захира ерлар	150,43	Захира ерлар	Табиатни муҳофаза қилиш, соғломлаштириш ва рекреация мақсадларига мўлжалланган ерлар
	Фарғона массивидаги захира ерлар	107,11	Захира ерлар	Табиатни муҳофаза қилиш, соғломлаштириш ва рекреация мақсадларига мўлжалланган ерлар
	Туман бўйича жами	**395,54**		
Вилоят бўйича жами		**125 303,84**		
Барча ер майдонлари		**314 142,84**		

QMMB: 07/26/109/0282-son
28.03.2026-y.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 25 мартдаги ПҚ–109-сон қарорига
2-илова

“Овжазсой – Мовий тоғлар”, “Писком”, “Фарғона” ва “Поп” миллий табиат боғларининг қўриқхона, рекреация ва хўжалик мақсадида фойдаланиш зоналари учун ажратиладиган ер майдонлари РЎЙХАТИ

Зоналарнинг номлари	Ер майдони *(га)*	Ўтказилаётган ер тоифалари
“Овжазсой – Мовий тоғлар” миллий табиат боғи		
Қўриқхона зонаси	8 700	Табиатни муҳофаза қилиш, соғломлаштириш ва рекреация мақсадларига мўлжалланган ерлар
Рекреация зонаси	200	
Хўжалик мақсадида фойдаланиш зонаси	300	
Жами ер майдони	**9 200**	
“Писком” миллий табиат боғи		
Қўриқхона зонаси	147 200	Табиатни муҳофаза қилиш, соғломлаштириш ва рекреация мақсадларига мўлжалланган ерлар
Рекреация зонаси	3 200	
Хўжалик мақсадида фойдаланиш зонаси	6 359	
Жами ер майдони	**156 759**	
“Фарғона” миллий табиат боғи		
Қўриқхона зонаси	17 300	Табиатни муҳофаза қилиш, соғломлаштириш ва рекреация мақсадларига мўлжалланган ерлар
Рекреация зонаси	1 200	
Хўжалик мақсадида фойдаланиш зонаси	4 380	
Жами ер майдони	**22 880**	
“Поп” миллий табиат боғи		
Қўриқхона зонаси	122 200	Табиатни муҳофаза қилиш, соғломлаштириш ва рекреация мақсадларига мўлжалланган ерлар
Рекреация зонаси	6 000	
Хўжалик мақсадида фойдаланиш зонаси	7 103,84	
Жами ер майдони	**135 303,84***	

Изоҳ: Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси раисининг қарорига асосан қўриқхона зонаси рекреация ва хўжалик мақсадида фойдаланиш зоналарини қисқартириш ҳисобига кенгайтирилиши мумкин.

** Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 4 мартдаги “Урмон фонди ерларида муҳофаза этиладиган табиий ҳудудларни ташкил этиш билан боғлиқ қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 93-сон қарорига мувофиқ “Поп” миллий табиат боғи 10,0 минг гектарда ташкил этилганлиги инобатга олинган.*

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI
KANSELYARIYA
1

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

2026 yil «25» март №ПҚ–110

“Эко-маданият” умуммиллий лойиҳаси доирасида экологик таълим, илм-фан ва тарғиботни жадаллаштиришга оид комплекс чора-тадбирлар тўғрисида

Мамлакатимизда аҳоли орасида экологик одатларни шакллантириш, таълим муассасалари фаолиятининг барча босқичларини халқаро стандартлар ҳамда экологик меъёрлар асосида қайта йўлга қўйиш, шунингдек, “Эко-маданият” умуммиллий лойиҳаси доирасида махсус билим ва кўникмаларга эга бўлган малакали мутахассисларни дуал таълим шаклида тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириб бориш мақсадида **қарор қиламан**:

I. Мақсадлар

1. Қуйидагилар ушбу қарорни қабул қилишдан кўзланган асосий мақсадлар этиб белгилансин:

(а) 2026-2027 йиллар давомида республиканинг ҳар бир ҳудудида ўрта бўғин кадрларини тайёрлайдиган **14 та “яшил” техникумлар фаолият**ини йўлга қўйиш;

(б) 2030 йилгача республиканинг ҳар бир ҳудудидаги **“яшил” техникумларда 10 000 нафар** ўрта бўғин кадрларини тайёрлаш учун экологик таълим ва илмни янада ривожлантириш;

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

(в) 2026/2027 ўқув йилидан бошлаб Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси (кейинги ўринларда – Экология қўмитаси) томонидан Ташқи ишлар вазирлиги, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги билан биргаликда Марказий Осиё атроф-муҳит ва иқлим ўзгаришини ўрганиш университети (Green University)га (кейинги ўринларда – Университет) Марказий Осиё давлатлари ҳамда бошқа хорижий мамлакатлардан камида **50 нафар талаба**ни жалб қилиш ҳамда 2027/2028 ўқув йилида мазкур кўрсаткични камида икки бараварга ошириш;

(г) 2026–2028 йилларда экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши соҳасида **илмий даража** олган номзодлар сонини **150 нафар**гача етказиш.

II. Экологик таълим тизимини ривожлантириш

2. Белгилансинки:

(а) **2026/2027 ўқув йилидан бошлаб** мазкур қарорнинг **1-иловасида** кўрсатилган таълим муассасалари “яшил” техникумлар сифатида қайта ташкил этилади ҳамда уларда ҳудуднинг экологик, ижтимоий ва иқтисодий шароитларидан келиб чиқиб, соҳалар учун ўрта бўғин кадрларини тайёрлаш тизими йўлга қўйилади;

(б) “яшил” техникумларнинг моддий-техника базасини яхшилаш ва таълим сифатини ошириш мақсадида улар Касбий таълим агентлиги билан келишув асосида Университетга **бириктирилади**;

(в) Университетнинг бюджет ва бюджетдан ташқари маблағлари ҳамда Экология қўмитаси ҳузуридаги Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси (кейинги ўринларда – Махсус жамғарма) маблағлари ҳисобидан “яшил” техникумларнинг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш ва педагогларни моддий қўллаб-қувватлашга рухсат берилади;

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

(г) “яшил” техникумларнинг директори ва директор ўринбосарлари Ўзбекистон Республикаси Президентининг экология масалалари бўйича маслаҳатчиси – Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси раиси томонидан **лавозимга тайинланади ва лавозимидан озод қилинади**.

3. Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга мувофиқ Университет ҳамда “Яшил” техникумлар таълим тизимининг узвийлигини таъминлаш мақсадида **2026/2027 ўқув йилидан бошлаб**:

(а) “яшил” техникумларда таълим жараёни Университет томонидан ишлаб чиқиладиган ва Касбий таълим агентлиги тасдиқлайдиган таълим дастурлари асосида ташкил этилади;

(б) “яшил” техникумларда мажбурий ва танлов фанлари Университет томонидан белгиланади;

(в) Университетнинг биринчи босқичида ўқитиладиган мутахассислик фанлари “яшил” техникумларнинг **иккинчи босқич** ўқув дастурларига махсус курс сифатида киритилади;

(г) “яшил” техникумларни муваффақиятли битирган инглиз тилидан **B2 даражага** эга бўлган битирувчиларга Университет томонидан белгиланган баллар ўртача қийматидан (GPA) келиб чиқиб, бакалавриатнинг иккинчи босқичидан ўқишни давом эттиришга рухсат берилади;

(д) “яшил” техникумларда **Экостипендия** таъсис этилади ва ҳар йили 10 нафаргача иқтидорли ўқувчиларга Махсус жамғарма маблағлари ҳисобидан меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам миқдоридан кам бўлмаган миқдорда **стипендия** тўланади.

4. Белгилансинки, Университет ва “яшил” техникумларда ўқишнинг **амалиёт билан узвий боғлиқлиги** таъминланади. Бунда:

(а) “яшил” техникумларнинг ўқувчилари учун Экология қўмитаси ва Фанлар академиясининг тизимига кирувчи ташкилотларда **ўрмон**

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

хўжаликлари, гидрометеорология станциялари, муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар, чиқинди полигонлари, ботаника ва **дендрология боғлари**, **ҳайвонот боғлари**, **Ботаника ва Зоология институтларининг** амалиёт участкалари ташкил этилади;

(б) Университетнинг **тўрт йиллик таълим дастури** асосида ўқув жараёнларида назарий ва амалий машғулотлар улуши:

(i) биринчи босқичда – 80 фоиз назарий ва 20 фоиз амалий;

(ii) иккинчи босқичда – 50 фоиз назарий ва 50 фоиз амалий;

(iii) учинчи босқичда – 30 фоиз назарий ва 70 фоиз амалий;

(iv) тўртинчи босқичда – 20 фоиз назарий ва 80 фоиз амалий бўлиши назарда тутилади;

(в) “яшил” техникумлар учун **икки йиллик таълим дастури** асосида ўқув жараёнларида назарий ва амалий машғулотлар улуши:

(i) биринчи босқичда – 50 фоиз назарий ва 50 фоиз амалий;

(ii) иккинчи босқичда – 30 фоиз назарий ва 70 фоиз амалий;

(г) ҳудудлар кесимида ташкил этиладиган ботаника ва дендрология боғларига тегишлилиги бўйича “яшил” техникумлар бириктирилади.

5. Белгилансинки, “яшил” техникумлар биноларини Университет биноси андозаси асосида тўлиқ қайта таъмирлаш ва жиҳозлаш:

(а) 2026 йилда Махсус жамғарма маблағлари ҳисобидан;

(б) 2027 йилда Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш дастурида назарда тутилган маблағлар ҳисобидан амалга оширилади.

6. Қуйидагилар:

(а) Марказий Осиё атроф-муҳит ва иқлим ўзгаришини ўрганиш университети (Green University) ва унинг тизимидаги таълим ташкилотларини ривожлантириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар режаси **2-иловага** мувофиқ;

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

(б) Марказий Осиё атроф-муҳит ва иқлим ўзгаришини ўрганиш университетида (Green University) жорий этиладиган бакалавриат таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликлари рўйхати **3-иловага** мувофиқ тасдиқлансин.

7. Белгилансинки:

(а) Университетга унинг таркибидаги таълим ҳамда илмий ташкилотлар тузилмаларига ходимларнинг тасдиқланган чекланган умумий сони ва меҳнатга ҳақ тўлаш фонди доирасида ўзгартиришлар киритиш ҳуқуқи берилади;

(б) Давлат бюджети маблағлари ҳисобидан дунёнинг нуфузли “Quacquarelli Symonds” (QS), “Times Higher Education” (THE) ва “Шанхай рейтинг” (ARWU) рейтингларида **топ-300 таликка кирган хорижий олий таълим ташкилотлари** дипломига эга бўлган ва Университет ўқув жараёнига тўлиқ ставкада жалб қилинган ўқитувчиларга **200 фоиз миқдорида** устама тўланади.

8. Ўзбекистон Республикасининг таълим муассасаларига ўқишга қабул қилиш бўйича давлат комиссияси (А. Арипов) 2026/2027 ўқув йилидан бошлаб ҳар йили давлат олий таълим муассасаларига ўқишга қабул қилишнинг давлат буюртмаси параметрлари доирасида Университет учун давлат гранти бўйича **100 та**, лекин умумий қабул квотасининг 50 фоизидан ошмаган миқдорда қабул квоталарини ажратиб борсин.

9. Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Экология қўмитаси билан биргаликда **2026 йил 1 июлга қадар 3-иловага** мувофиқ бакалавриат таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликлари амалиётга татбиқ этилиши ҳамда “Ўзбекистон янги касблар атласи” электрон платформасига киритилишини таъминласин.

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

III. Илм-фан ва инновацион фаолиятни ривожлантириш

10. Марказий Осиё атроф-муҳит ва иқлим ўзгаришини ўрганиш университети (Green University) ва унинг тизимидаги илмий ташкилотларнинг 2026–2029 йилларга мўлжалланган **илмий тадқиқотлар дастури** 4-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

11. Белгилансинки:

(а) Университетнинг сўровига асосан давлат органлари ва бошқа ташкилотлар томонидан статистик маълумотлар, таҳлилий материаллар, ҳужжат, электрон китоблар ва бошқа ахборотлар бепул тарзда ўн иш кунида тақдим этилади;

(б) Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги томонидан тизимли равишда илмий фаолиятга оид дастурлар доирасида ҳар йили экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши йўналишида **инновацион**, **амалий** ва **фундаментал** лойиҳалар танловлари ўтказилади.

12. Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги Экология қўмитаси билан биргаликда экология, атроф-муҳит, техник ва табиий йўналишлардаги **5-иловага** мувофиқ олий таълим ташкилотларида:

(а) 2026 йил 1 сентябрга қадар “Science Oasis” тамойилига асосланган **яшил трансформация ва иқлим ўзгаришлари** бўйича кафедралар ва факультетларни ташкил этсин;

(б) 2027 йил 1 ноябрга қадар барқарорлик ва экологик самарадорлик кўрсаткичларини ҳамда **“UI GreenMetric”** халқаро рейтинг тизимини баҳолаш мезонлари асосида ҳаракатлар режасини қабул қилиш ва уни сифатли амалга ошириш чораларини кўрсин.

13. Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга мувофиқ:

(а) 2026 йилдан бошлаб олий таълим ташкилотлари томонидан **яшил кампус** лойиҳалари ишлаб чиқилади ва Экология қўмитаси билан келишилади;

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

(б) 2026 йилдан бошлаб “UI GreenMetric” халқаро рейтинг тизимидан жой олган дастлабки **5 та** олий таълим ташкилотига йил якунига кўра Махсус жамғарма маблағлари ҳисобидан халқаро рейтинг олиш харажатларининг бир қисми қоплаб берилади.

IV. Эко-маданият йўналишида тарғибот-ташвиқот ишларини йўлга қўйиш

14. Экологик маданият, таълим-тарбия ва тарғиботни кучайтириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар режаси **6-иловага** мувофиқ тасдиқлансин.

15. Рақамли технологиялар вазирлиги, Спорт вазирлиги, Экология қўмитаси, Соғлиқни сақлаш вазирлигининг **2026 йил 1 майдан бошлаб**:

(а) “10 минг қадам пиёда” тажрибасини қайта тиклаш ҳамда “Соғлом турмуш тарзи” платформаси фаолиятини йўлга қўйиш;

(б) “Соғлом турмуш тарзи” платформаси учун ҳар йили Махсус жамғарма маблағлари ҳисобидан **10 миллиард сўм** ажратиш тўғрисидаги таклифларига розилик берилсин.

16. Белгилансинки, 2026 йил 1 майдан бошлаб табиатни муҳофаза қилиш соҳасида алоҳида ташаббус кўрсатган ёшлар ҳамда экоаълочи мактаб ўқувчиларини рағбатлантириш мақсадида қуйидаги даражаларда **“Ёш эколог”** кўкрак нишони таъсис этилади:

(а) мактаб ўқувчилари ўртасида **III даражали “Ёш эколог”**;

(б) техникум ўқувчилари ва олий таълим муассасалари талаба-ёшлари ўртасида **II даражали “Ёш эколог”**;

(в) халқаро ва маҳаллий миқёсда юқори натижаларга эришган ёшлар ўртасида **I даражали “Ёш эколог”**.

V. Қарор ижросини ташкил этиш, таъминлаш ва назорат

17. Экология қўмитаси:

(а) Ташқи ишлар вазирлиги, Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги ҳамда Самарқанд вилояти ҳокимлиги билан биргаликда 2026 йил якунига қадар:

(i) Самарқанд шаҳрида **Глобал экологик жамғарманинг VIII ассамблеяси ҳамда Глобал экологик жамғарма кенгашининг 71-йиғилишини** юқори савияда ўтказсин;

(ii) Самарқанд шаҳрида табиатга асосланган ечимларни илгари суриш мақсадида **“Eco Expo Central Asia 2026”** халқаро кўргазмасини ташкил этсин.

(б) Экология қўмитаси 2026 йил якунига қадар:

(i) Тошкент вилояти ҳокимлиги билан биргаликда Университет қошида **сув** ва **тупроқ** сифатини аниқлаш имконини берадиган **комплекс лабораториялар**ни ташкил қилсин;

(ii) Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши билан биргаликда Нукус шаҳрида иқлим ўзгариши масалаларини ўрганишга бағишланган инновацион, маданий ва экотаълим технологиялари, экотизимлар ва уларни қайта тиклаш бўйича инновацион ечимлар акс эттирилган доимий кўргазмаларни ташкил этишни назарда тутувчи **Иқлим ўзгариши музейи** фаолиятини йўлга қўйсин;

(iii) Университетнинг Иқлим илмий форуми (резиденцияси)га жалб қилинадиган етакчи хорижий ва маҳаллий олимларга иқлим ўзгариши, экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида илмий тадқиқотлар олиб бориши учун Махсус жамғарма ҳисобидан маблағлар ажратилишини таъминласин;

(iv) Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Ташқи ишлар вазирлиги, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги, Савдо-саноат палатаси, Фанлар академияси билан биргаликда ҳар йили август ойида Марказий Осиё даражасида **Иқлим илмий форумини** ташкил қилсин.

18. Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим қарорларига **7-иловага** мувофиқ ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсин.

19. Мазкур қарорнинг ижросини самарали ташкил қилишга масъул ва шахсан жавобгар этиб Ўзбекистон Республикаси Президентининг экология масалалари бўйича маслаҳатчиси – Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси раиси А.А. Абдухакимов белгилансин.

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

20. Қарор ижросини муҳокама қилиб бориш, ижро учун масъул идоралар фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикаси Президенти **Ш. Мирзиёев**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI
KANSELYARIYA
1

Тошкент шаҳри

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 25 мартдаги ПҚ–110-сон қарорига
1-илова

2026/2027 ўқув йилидан бошлаб экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши соҳалари бўйича ўрта бўғин кадрларини тайёрлаш тизими йўлга қўйиладиган “яшил” техникумлар (Green Technical College) РЎЙХАТИ

Т/р	Ҳудуд номи	Туман (шаҳар) номи	Касбий таълим ташкилоти номи	Янги ташкил этилаётган “яшил” техникумлар номи
1.	Қорақалпоғистон Республикаси	Элликқалъа тумани	Элликқалъа рақамли технологиялар техникуми	Қорақалпоғистон Республикаси “яшил” техникуми
2.	Андижон вилояти	Избоскан тумани	Избоскан тумани 3-сон техникуми	Андижон вилояти “яшил” техникуми
3.	Бухоро вилояти	Бухоро тумани	Бухоро тумани 2-сон техникуми	Бухоро вилояти “яшил” техникуми
4.	Жиззах вилояти	Зомин тумани	Зомин тумани 2-сон политехникуми	Жиззах вилояти “яшил” техникуми
5.	Қашқадарё вилояти	Қарши тумани	Қарши тумани 2-сон политехникуми	Қашқадарё вилояти “яшил” техникуми
6.	Навоий вилояти	Кармана тумани	Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги фанлари академияси	Навоий вилояти “яшил” техникуми
7.	Наманган вилояти	Норин тумани	Норин тумани 3-сон техникуми	Наманган вилояти “яшил” техникуми
8.	Самарқанд вилояти	Самарқанд шаҳри	Самарқанд шаҳри 5-сон техникуми	Самарқанд вилояти “яшил” техникуми
9.	Сирдарё вилояти	Боёвут тумани	Боёвут тумани 2-сон политехникуми	Сирдарё вилояти “яшил” техникуми
10.	Сурхондарё вилояти	Шеробод тумани	Шеробод тумани 3-сон техникуми	Сурхондарё вилояти “яшил” техникуми
11.	Фарғона вилояти	Қўштепа тумани	Қўштепа тумани 1-сон техникуми	Фарғона вилояти “яшил” техникуми
12.	Хоразм вилояти	Урганч тумани	Урганч тумани 4-сон техникуми	Хоразм вилояти “яшил” техникуми
13.	Тошкент вилояти	Қуйи Чирчиқ тумани	Қуйи Чирчиқ тумани 1-сон техникуми	Тошкент вилояти “яшил” техникуми
14.	Тошкент шаҳри	Шайхонтоҳур тумани	Тошкент гидрометеорология техникуми	Тошкент шаҳри “яшил” техникуми

Изоҳ:

Кармана туманидаги Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги фанлари академияси Навбаҳор туман 3-сон техникумининг фойдаланмай келинаётган бино ва иншоотларига жойлаштирилади.

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 25 мартдаги ПҚ–110-сон қарорига
2-илова

Марказий Осиё атроф-муҳит ва иқлим ўзгаришини ўрганиш университети (Green University) ва унинг тизимидаги ташкилотларни ривожлантириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар
РЕЖАСИ

Т/р	Чора-тадбирлар номи	Амалга ошириш механизми	Ижро муддати	Молиялаштириш манбаи	Масъул ижрочилар
I. Университетда таълим тизимини ривожлантириш					
1.	Университетда атмосфера ҳавоси таркибидаги газлар, қаттиқ заррачалар, оғир металлар ва органик заҳарли бирикмалар таҳлилини олиб боришга қаратилган махсус кафедра ташкил этиш.	1. Кафедра низомларини ишлаб чиқиш ҳамда уни тегишли ўқув-услубий ва меъёрий ҳужжатлар билан таъминлаш. 2. Кафедра профессор-ўқитувчилари таркибини шакллантириш ва уларнинг фаолиятини тизимли ташкил этиш. 3. Халқаро университетларда илмий даража олган камида бир нафар мутахассисни кафедра фаолиятига жалб этиш.	2026/2027 ўқув йилидан бошлаб	Маблағ талаб этилмайди	Экология қўмитаси, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги
2.	Университет ҳузурида илмий даражалар берувчи илмий кенгашлар фаолиятини ташкил этиш.	1. Университет таълим йўналишлари бўйича хорижий ва маҳаллий илмий кенгашлар фаолиятини ўрганиш. 2. Ўрганиш натижалари асосида Университет ҳузурида янги ихтисосликлар бўйича илмий даражалар берувчи илмий кенгашлар фаолиятини ташкил этиш юзасидан таклиф тайёрлаш ва Олий аттестация комиссиясига киритиш.	2026/2027 ўқув йилидан бошлаб	Университетнинг бюджет ва бюджетдан ташқари маблағлари	Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Экология қўмитаси

		3. Университетда ташкил этиладиган янги ихтисосликлар бўйича олий таълимдан кейинги таълим тизими фаолиятини йўлга қўйиш.			
3.	"Рақамли университет" тизимини йўлга қўйиш, ахборот-ресурс марказини халқаро кутубхона муассасаларининг ахборот тизимларига интеграция қилиш ишларини амалга ошириш ҳамда иқлим ўзгариши ва атроф-муҳитни ўрганиш соҳасида сунъий интеллект (AI) технологияларига асосланган экологик лаборатория ташкил этиш.	1. Ахборот-ресурс марказини рақамлаштириш ва масофадан хизмат кўрсатиш лойиҳасини яратиш мақсадида моддий-техник базани мустаҳкамлаш. 2. Соҳага оид китобларни электрон форматга ўтказиш учун Университет ахборот-ресурс марказига зарур махсус сканер асбоб ускуналарини харид қилиш. 3. Ахборот-ресурс марказини IFLA (International Federation of Library Associations) "Library", "Elsevier" ва "ScienceDirect" халқаро илмий ахборот фондлари тизимига интеграция қилиш, ушбу платформаларга аъзо бўлиш ва улардан фойдаланиш имкониятларини яратиш чора-тадбирларини кўриш. 4. Ахборот-ресурс маркази фондини ҳар йили "Amazon" платформасидаги соҳага оид камида 100 та энг сўнгги илмий адабиётлар билан янгилаб боришни таъминлаш.	2026/2027 ўқув йилидан бошлаб	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология қўмитаси, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Рақамли технологиялар вазирлиги
4.	Марказий Осиё атроф-муҳит ва иқлим ўзгаришини ўрганиш университетига (Green University) қабул қилиш бўйича 2026-2027 ўқув йили қабул мавсумига бакалавриат ва магистратура дастурлари бўйича кадр тайёрлаш учун	1. Университетга хорижий талабаларни жалб қилиш мақсадида университет дастурлари ва давлат грантлари ҳақида тарқатма материаллар, шунингдек, махсус қабул портали ва ахборот материалларини тайёрлаш.	Бир ой муддатда	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Ташқи ишлар вазирлиги, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Экология қўмитаси, манфаатдор

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

	Марказий Осиё ва бошқа хорижий давлатлар фуқароларига давлат гранти асосида қўшимча йилига камида давлат гранти бўйича 50 та квота ажратилишини таъминлаш. Бунда, хорижий талабаларга Экология қўмитаси раиси томонидан белгиланган тартибда стипендия, авиачипта ва ётоқхона харажатлари учун тўлов белгиланиши мумкин.	2. Марказий Осиё ва бошқа хорижий давлатлар фуқароларининг таълим вазирликлари билан дипломатик ваколатхоналар ёрдамида тегишли тартибда ушбу давлатлар билан икки томонлама учрашувлар ташкил этиш. 3. “Яшил” университет ҳамда хорижий университетлар ҳамкорлигини йўлга қўйиш натижасида “exchange” дастурини ривожлантириш.	2026-2027 йиллар 2026-2027 йиллар		вазирлик ва идоралар
5.	Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши, шунингдек, гидрометеорология, ўрмон ҳамда чиқинди соҳаларида 10 йилдан кўп иш фаолияти олиб бораётган ходимларнинг фарзандлари ҳамда набиралари учун бакалавриат ҳамда магистратурада таҳсил олишда қўшимча қулайликлар яратиш мақсадида мавжуд йўналишларда имтиёз тариқасида ўқиш якунигача бўлган даврда контракт тўловидан озод қилиш.	1. Экология ва иқлим ўзгариши ва унинг барча тизим ташкилотларида фаолият олиб бораётган 10 йилдан кўп иш фаолияти олиб бораётган ходимлар реестрини шакллантириш. 2. Белгиланган танловлардан ўтган ушбу ходимларининг фарзандлари ҳамда набиралари учун Университет ректори томонидан бакалавр ҳамда магистрлик даражаси имтиёзли ўқиши учун ҳар йили 100 тагача квота ажратиш.	2026/2027 ўқув йилидан бошлаб	Университетнинг бюджет ва бюджетдан ташқари маблағлари доирасида	Экология қўмитаси ва унинг барча тизим ташкилотлари

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

6.	Нукус шаҳрида иқлим ўзгариши масалаларини ўрганишга бағишланган доимий кўргазмаларни ташкил этишни назарда тутувчи Иқлим ўзгариши музейи фаолиятини йўлга қўйиш.	1. Музей фаолиятини ташкил этиш режалаштирилган объектни қуриш, реконструкция қилиш ва таъмирлаш бўйича лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқиш ва белгиланган тартибда экспертизадан ўтказилишини таъминлаш. 2. Ишлаб чиқилган лойиҳа-смета ҳужжатига асосан музей фаолиятини ташкил этиш бўйича ўрнатилган тартибда пудратчи ташкилотларни аниқлаш, пудрат шартномасини имзолаш ҳамда қурилиш-таъмирлаш ишларини бошлаш. 3. Қурилиш-таъмирлаш ишларини амалга ошириш ва музей фаолиятини йўлга қўйиш. Бунда лойиҳа ва пудрат ташкилоти электрон тендер (“e-tender” платформаси) савдоларида танлаб олиш орқали аниқланади.	2026 йил май 2026 йил июль 2026–2027 йиллар Режа-график асосида	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология қўмитаси, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши.
7.	Университет ва унинг ҳузуридаги ташкилотларда фаолият олиб бораётган профессор-ўқитувчилар, ёш олим ва тадқиқотчилар учун хизмат уйларини сотиб олиш.	1. Экология қўмитаси ва Университет томонидан ишчи гуруҳ тузиб, намунали фаолият юритаётган профессор-ўқитувчилар, ёш олим ва тадқиқотчиларнинг уй-жойга бўлган эҳтиёжини ўрганиш. 2. Университет кампусига яқин бўлган ҳудудлардаги кўп қаватли уйлардан камида 15 та хонадон сотиб олиш.	2026 йил апрель 2026–2029 йиллар	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология қўмитаси, Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги, Тошкент шаҳар ҳокимлиги
8.	Марказий Осиё атроф-муҳит ва иқлим ўзгаришини ўрганиш университетига (Green University) туташ ҳудудларда жойлашган хонадонлар ва бино-иншоотларни келишув	1. Марказий Осиё атроф-муҳит ва иқлим ўзгаришини ўрганиш университетига (Green University) туташ ҳудудларда жойлашган хонадонлар ва бино-иншоотларни келишув асосида бозор нархларида сотиб олиш юзасидан ишчи гуруҳни ташкил этиш.	2026 йил май	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси	Экология қўмитаси, Тошкент вилояти ҳокимлиги

	асосида бозор нархларида сотиб олиш ва келгусида Университет ҳудудини кенгайтириш.	2. Тегишли хонадонлар ва бино-иншоотлар эгалари билан музокаралар ўтказиш, баҳолаш ташкилотларини жалб этган ҳолда биноларни дастлабки баҳолаш ишларини ташкил этиш. 3. Хонадонлар ва бино-иншоотларни сотиб олиш бўйича келишувларга эришиш ва сотиб олиш. 4. Ҳудуддаги хонадон ва бино-иншоотларни босқичма-босқич бузиш ва кампус қуриш ишларини ташкил этиш.	2026 йил май 2026-2027 йиллар 2026 йил июль ойидан режа-график асосида	маблағлари ва қонунчилик ҳужжатлари билан тақиқланмаган маблағлар	
9.	Оролбўйи халқаро инновация маркази фаолиятини такомиллаштириш.	Оролбўйи халқаро инновация марказини Университет тасарруфига ўтказиш. Бунда: Оролбўйи халқаро инновация маркази директори мақомига кўра Университет проректори лавозимига тенглаштирилади; Оролбўйи халқаро инновация маркази ходимларига Фанлар академияси илмий ташкилотларининг тегишли лавозимлари учун белгиланган меҳнатга ҳақ тўлаш миқдорлари ва шартлари татбиқ этилади.	2026 йил июнь	Маблағ талаб этилмайди	Экология қўмитаси, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши
II. Университет кампусларини ташкил этиш, яшил техникумлар фаолиятини йўлга қўйиш ва такомиллаштириш					
10.	Университет ҳудудини кенгайтириш ҳамда кампус мажмуасини ташкил этиш чораларини кўриш.	1. Университет ҳудудини кенгайтириш ҳамда ягона кампус мажмуаси сифатида ташкил этиш муносабати билан бузилишга тушган турар ва нотурар жой объектларининг мулкдорлари билан музокаралар ўтказиш.	2026 йил июнь	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Тошкент вилояти ҳокимлиги, Экология қўмитаси, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

		2. Мулкдорлар билан музокаралар ўтказиш натижасида уларнинг розилиги олинган тақдирда, ер участкалари жамоат эҳтиёжлари учун олиниши муносабати билан 21 та уй-жой объектлари мулкдорларига компенсация тўловларини ажратиш. 3. Университет ҳудудида янги кампус биносини қуриш бўйича лойиҳа-смета ҳужжатларини тайёрлаш ҳамда белгиланган тартибда экспертизадан ўтказиш. 4. Қурилиш-таъмирлаш ишларини амалга ошириш ва Университетни ягона кампус мажмуаси сифатида ташкил этиш. Бунда лойиҳа ва пудрат ташкилоти электрон тендер (“e-tender” платформаси) савдоларида танлаб олиш орқали аниқланади.	2026 йил декабрь 2026 йил Режа-график асосида		
11.	Университет ҳудудининг яхлитлиги ва функционал самарадорлигини таъминлаш мақсадида унинг мавжуд чегараларини белгиланган тартибда кенгайтириш, ҳудуднинг режавий ечимларини такомиллаштириш, ташриф буюрувчиларнинг боғга кириб-чиқиш жараёнида юзага келиши мумкин бўлган ноқулайликларни бартараф этиш, хавфсиз ва қулай ҳаракатланишни таъминлашга қаратилган комплекс чора-	1. Университет ҳудудини кенгайтириш мақсадида Тошкент вилояти, Тошкент тумани, Дархон МФЙ, Чимкент йўли кўчаси, 1/2-уй манзилида жойлашган 3,2 гектар ер майдонини компенсация эвазига жамоат эҳтиёжлари учун олиш. 2. Дендрология боғи учун ажратилган ер майдонида жойлашган иссиқхонани белгиланган тартибда демонтаж қилиш бўйича чоралар кўриш. 3. Тошкент шаҳрида экологик вазиятни яхшилаш юзасидан кечиктириб бўлмайдиган чора-тадбирларни амалга ошириш бўйича махсус комиссия қарорига асосан Дендрология боғи учун ажратилган	2026 йил декабрь 2026 йил сентябрь 2026-2028 йиллар	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Тошкент вилояти ҳокимлиги, Экология қўмитаси Кадастр агентлиги

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

	тадбирларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш.	ер майдонига туташ ҳудудда жойлашган ташаббускор инвесторга тегишли терига ишлов бериш корхонаси бошқа ҳудудга кўчириш бўйича чоралар кўриш. Бунда тадбиркорлик субъектини бошқа худудга кўчириш ва етказилган зарарни компенсация қилиш харажатлари Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари ҳисобидан амалга ошириш.			
12.	Тошкент вилояти Бўстонлиқ тумани “Бурчмулла” МФЙ Бурчмулла кўчаси 41-уй манзилида жойлашган Университет кампусини ташкил этиш.	1. Университет кампусини ташкил этиш бўйича лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқиш ва белгиланган тартибда экспертизадан ўтказиш. 2. Университет кампус биносини ташкил этиш бўйича дастлабки қурилиш ишларини ташкил этиш. 3. Университет кампус биносини қуриш бўйича қўшимча маблағларни жалб этиш юзасидан 2027 йил Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш инвестиция дастурига киритиш. 4. Қурилиш ишларини амалга ошириш ва Университет кампусини ташкил этиш. Бунда лойиҳа ва пудрат ташкилоти электрон тендер (“e-tender” платформаси) савдоларида танлаб олиш орқали аниқланади.	2026 йил апрель 2026 йил май 2026 йил июль-август 2026 йил режа-график асосида	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология қўмитаси, Тошкент вилояти ҳокимлиги

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

13.	Тошкент вилояти Ўрта Чирчиқ тумани, Андижон вилояти Избоскан тумани, Бухоро вилояти Бухоро тумани, Қорақалпоғистон Республикаси Элликқалъа тумани, Сурхондарё вилояти Шеробод тумани ва Хоразм вилояти Урганч туманида жойлашган “яшил” техникумларни реконструкция қилиш, моддий-техника базасини мустаҳкамлаш, уларни зарур жиҳозлар билан таъминлаш.	1. Тошкент вилояти Ўрта Чирчиқ тумани, Андижон вилояти Избоскан тумани, Бухоро вилояти Бухоро тумани, Қорақалпоғистон Республикаси Элликқалъа тумани, Сурхондарё вилояти Шеробод тумани ва Хоразм вилояти Урганч туманида жойлашган “яшил” техникумларни таъмирлаш, моддий-техника базасини мустаҳкамлаш, уларни зарур жиҳозлар билан таъминлаш бўйича лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқиш, тасдиқлаш ва экспертизадан ўтказиш. 2. “Яшил” техникумларни таъмирлаш, моддий-техника базасини мустаҳкамлаш, уларни зарур жиҳозлар билан таъминлаш ишларини бошлаш. 3. Қурилиш ишларини амалга ошириш ва Университет кампусини ташкил этиш. Бунда лойиҳа ва пудрат ташкилоти электрон тендер (“e-tender” платформаси) савдоларида танлаб олиш орқали аниқланади.	2026 йил май 2026 йил июль 2026 йил режа-график асосида	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология қўмитаси, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Давлат активларини бошқариш агентлиги, Ўрмон агентлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, Тошкент, Андижон, Бухоро, Сурхондарё ва Хоразм вилоятлари ҳокимликлари
14.	Фарғона вилояти Қўштепа тумани, Наманган вилояти, Норин тумани, Қашқадарё вилояти Қарши тумани, Самарқанд вилояти Самарқанд шаҳри, Сирдарё вилояти Боёвут тумани, Жиззах вилояти Зомин тумани, Навоий вилояти Кармана тумани ва Тошкент шаҳридаги “яшил” техникумларнинг фасад ва том	1. Фарғона вилояти Қўштепа тумани, Наманган вилояти Норин тумани, Қашқадарё вилояти Қарши тумани, Самарқанд вилояти Самарқанд шаҳри, Сирдарё вилояти Боёвут тумани, Навоий вилояти Кармана тумани ва Тошкент шаҳридаги “яшил” техникумларнинг фасад ва том қисмини таъмирлаш ҳамда деразаларини алмаштириш бўйича лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқиш,	2026 йил май	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология қўмитаси, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Давлат активларини бошқариш агентлиги,

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

	қисмини таъмирлаш ҳамда деразаларини алмаштириш.	тасдиқлаш ва белгиланган тартибда экспертизадан ўтказиш. 2. Фарғона вилояти Қўштепа тумани, Наманган вилояти Норин тумани, Қашқадарё вилояти Қарши тумани, Самарқанд вилояти Самарқанд шаҳри, Сирдарё вилояти Боёвут тумани, Навоий вилояти Кармана тумани ва Тошкент шаҳридаги “яшил” техникумларнинг фасад ва том қисмини таъмирлаш ҳамда деразаларини алмаштириш ишларини ташкил этиш ва режа-график асосида босқичма-босқич якунлаш. Бунда лойиҳа ва пудрат ташкилоти электрон тендер (“e-tender” платформаси) савдоларида танлаб олиш орқали аниқланади.	2026 йил сентябрь-декабрь ойларида режа-график асосида тамомлаш		Ўрмон агентлиги Фарғона, Наманган, Қашқадарё, Самарқанд, Сирдарё, Навоий вилоятлари ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
15.	“Яшил” техникумларга бириктириладиган дендрология ва ботаника боғлари атрофини “яшил белбоғ” билан ўраш.	1. “Яшил” техникумларга бириктириладиган дендрология ва ботаника боғлари атрофини “яшил белбоғ” билан ўраш бўйича лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқиш, тасдиқлаш ва экспертизадан ўтказиш. 2. “Яшил” техникумларга бириктириладиган дендрология ва ботаника боғлари атрофини “яшил белбоғ” билан ўраш ишларини ташкил этиш ва режа-график асосида босқичма-босқич якунлаш. Бунда лойиҳа ва пудрат ташкилоти электрон тендер (“e-tender” платформаси) савдоларида танлаб олиш орқали аниқланади.	2026 йил май-декабрь ойларида режа-график асосида тамомлаш	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология қўмитаси, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Давлат активларини бошқариш агентлиги, Ўрмон агентлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши,

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

					вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
16.	Андижон, Бухоро, Сурхондарё ва Жиззах вилоятларининг “яшил” техникумларда “in-vitro” лабораториялари ташкил этиш.	1. Андижон, Бухоро, Сурхондарё ва Жиззах вилоятларининг “яшил” техникумларида “in-vitro” лабораторияларини ташкил этиш бўйича лойиҳа-смета ҳужжатлари ишлаб чиқиш, тасдиқлаш ва экспертизадан ўтказиш чораларини кўриш. 2. Лойиҳа ва пудрат ташкилотини электрон тендер (“e-tender” платформаси) савдоларида танлаб олиш орқали аниқлаш. 3 Андижон, Бухоро, Сурхондарё ва Жиззах вилоятларининг “яшил” техникумларида “in-vitro” лабораторияларини режа график асосида босқичма-босқич ташкил этиш.	2026 йил июнь 2026 йил июль 2026 йил режа-график асосида тамомлаш	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология қўмитаси, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Давлат активларини бошқариш агентлиги, Ўрмон агентлиги
17.	Навоий вилояти Кармана туманида жойлашган Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги фанлари академияси биносини экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши соҳалари бўйича ўрта бўғин кадрларини тайёрлаш тизими йўлга қўйиш мақсадида Марказий Осиё атроф-муҳит ва иқлим ўзгаришини ўрганиш университетига (Green University) ўтказиб берилишини таъминлаш.	1. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги фанлари академиясига тегишли бўлган бино-иншоотларни белгиланган тартибда Марказий Осиё атроф-муҳит ва иқлим ўзгаришини ўрганиш университетига (Green University) беғараз ўтказиб бериш. 2. Кармана туманидаги Қишлоқ хўжалиги вазирлиги ҳузуридаги Қишлоқ хўжалигида билим ва инновациялар миллий марказини Навбаҳор тумани Навбаҳор туман 3-сон техникумининг фойдаланмай келинаётган бино ва иншоотларига жойлаштириш. 3. Тегишли кадастр ҳужжатларига белгиланган тартибда ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш.	Икки ҳафта муддатда Бир ой муддатда Бир ой муддатда	Маблағ талаб этилмайди	Қишлоқ хўжалиги вазирлиги, Кадастр агентлиги, Экология қўмитаси, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Навоий вилояти ҳокимлиги

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

		4. Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши соҳалари бўйича ўрта бўғин кадрларини тайёрлаш мақсадида “яшил” техникум ташкил этиш ишларини амалга ошириш.	2026 йил сентябрь		
18.	“Яшил” техникумлар фаолиятини йўлга қўйиш ва такомиллаштириш.	1. “Яшил” техникумлар фаолиятини йўлга қўйиш ва такомиллаштириш бўйича ишчи гуруҳ тузиш. 2. Ҳудудларнинг табиий ва иқлим хусусиятларини инобатга олган ҳолда “яшил” техникумларни ташкил этиш бўйича ўқув режаларни ишлаб ишлаб чиқиш. 3. “Яшил” техникумларда тайёрланадиган касб ва мутахассисликлар таълим дастурларини ишлаб чиқиш. 4. Қабул параметрларини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш.	2026 йил июнь 2026 йил сентябрь 2026/2027-ўқув йилидан бошлаб	Университетнинг бюджет ва бюджетдан ташқари маблағлари	Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Экология қўмитаси, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
19.	“Яшил” техникумларда қабул жараёнларини ташкил этиш.	1. Экология қўмитаси ҳузуридаги тизим ташкилотлари ҳамда соҳа бўйича фаолият олиб борадиган давлат ташкилотлари ва тадбиркорлик субъектларида кадрларга бўлган эҳтиёжни ўрганиш. 2. Ўрганиш натижалари асосида қабул параметрларини шакллантириш. 3. Қабул параметрлари асосида қабул жараёнларини ташкил этиш.	2026 йил май 2026 йил июнь 2026/2027 ўқув йилидан бошлаб	Университетнинг бюджет ва бюджетдан ташқари маблағлари	Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Экология қўмитаси, Университет

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

20.	Шинжон экология ва география институтининг Марказий Осиё экология ва атроф-муҳит илмий-тадқиқот қўшма маркази фаолиятини йўлга қўйиш.	1. Университет ҳузурида Марказий Осиё экология ва атроф-муҳит илмий-тадқиқот қўшма марказини ташкил қилиш. 2. Шинжон экология ва география институти билан биргаликда Марказнинг устави ва тузилмасини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш. 3. Белгиланган тартибда Марказни давлат рўйхатидан ўтказиш. 4. Университетнинг Тошкент шаҳри Юнусобод тумани 2-мавзе Аҳмад Дониш кўчаси 28-уйда жойлашган манзилидаги кампусини капитал таъмирлаш ва реконструкция қилиш ишларини амалга ошириш. Бунда лойиҳа ва пудрат ташкилоти электрон тендер (“e-tender” платформаси) савдоларида танлаб олиш орқали аниқланади.	2026 йил апрель 2026 йил июнь 2026 йил июнь 2026 йил давомида	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология қўмитаси, Давлат активларини бошқариш агентлиги, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги
21.	Гидрометеорология, иқлим ўзгариши, гляциология, атроф-муҳит ифлосланиши мониторинги соҳаларида экспериментал ва лаборатория тадқиқотларини ривожлантириш.	1. Институт лабораторияларини таъмирлаш ва қуриш бўйича лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқиш, тасдиқлаш ва экспертизадан ўтказиш. 2. Гидрометеорология илмий-тадқиқот институтида замонавий илмий лабораториялар қуриш ишларини бошлаш. 3. Институт илмий-техник кутубхонасини қайта ташкил этиш. Бунда лойиҳа ва пудрат ташкилоти электрон тендер (“e-tender” платформаси) савдоларида танлаб олиш орқали аниқланади.	2026 йил май 2026 йил июнь 2026 йил май ойидан бошлаб режа-график асосида	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология қўмитаси

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

22.	Тошкент шаҳри, Юнусобод туманидаги “Жамоат парки” (Астрономия парки) ҳудудида типография биносини бузиш, собиқ телескоп биноси негизида кўчатхона ва маъмурий бино, генератор биноси негизида ботаника лабораторияси ҳамда гербариум барпо этиш.	1. Объектларнинг лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқиш ва белгиланган тартибда экспертизадан ўтказиш. 2. Ишлаб чиқилган лойиҳа-смета ҳужжатига асосан ўрнатилган тартибда пудратчи ташкилотларни аниқлаш ва пудрат шартномани имзолаб қурилиш-таъмирлаш ишларини бошлаш. Бунда, лойиҳа ва пудрат ташкилотини электрон тендер (“e-tender” платформаси) савдоларида танлаб олиш орқали аниқланади.	2026 йил июнь 2026 йил июль	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология қўмитаси, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Давлат активларини бошқариш агентлиги
23.	Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши соҳасида комплекс таълимни ривожлантириш мақсадида халқаро стандарт ва замонавий талабларни ҳисобга олган ҳолда Марказий Осиё атроф-муҳит ва иқлим ўзгаришини ўрганиш университетига (Green University) ҳудудида халқаро таълим бренди билан ҳамкорликда умумтаълим мактабини ташкил этиш бўйича таклиф ишлаб чиқиш.	1. Халқаро таълим ташкилотлари билан ҳамкорликнинг институционал шаклларини аниқлаш ва музокаралар олиб бориш. 2. Мактабнинг таълим модели, ўқув дастурлари ва халқаро стандартларга мувофиқ ўқитиш ёндашувларини шакллантириш, уни ташкил этишнинг ҳуқуқий, ташкилий ва бошқарув моделини белгилаш ҳамда тегишли норматив-ҳуқуқий асослар бўйича таклифлар ишлаб чиқиш.	2026-2027 йиллар	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология қўмитаси, Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги, Тошкент вилояти ва Тошкент шаҳар ҳокимлиги
24.	Астрономия боғи ҳудудидаги маданий мерос обьектларини жорий таъмирлаш.	1. Объектларнинг лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқиш ва экспертиза кўригидан ўтказиш. 2. Ишлаб чиқилган лойиҳа-смета ҳужжатига асосан ўрнатилган тартибда	2026 йил май 2026 йил июнь	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли	Экология қўмитаси, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Давлат

		пудратчи ташкилотларни аниқлаш ва пудрат шартномани имзолаб қурилиш-таъмирлаш ишларини бошлаш. 3. Лойиҳа ва пудрат ташкилотларини электрон тендер “e-tender” платформаси) савдоларида танлаб олиш орқали аниқлаш.	2026 йил май ойидан бошлаб, режа жадвал асосида	жамғармаси маблағлари	активларини бошқариш агентлиги
25.	Тошкент вилояти Тошкент тумани “Дархон” МФЙ “Чимкент йўли” кўчасида жойлашган Марказий Осиё атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгаришини ўрганиш университети биносининг илмий-тадқиқот инфратузилмасини ривожлантириш доирасида 4-босқич ишларини якунлаш ҳамда Университет ҳудудида 1 дона монументал объект ўрнатиш.	1. Объектларнинг лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқиш ва экспертизадан ўтказиш. 2. 4-босқич қурилиш-таъмирлаш ишларини якунлаш ва университет ҳудудида 1 дона ҳайкални жойлаштириш. Бунда, лойиҳа ва пудрат ташкилоти электрон тендер (“e-tender” платформаси) савдоларида танлаб олиш орқали аниқланади.	2026 йил май 2026 йил июнь-июль	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология қўмитаси
26.	“Яшил ташриф” экоавтобус лойиҳасини ташкил этиш.	1. Экологик-маърифий ташрифлар учун мос бўлган экоавтобусни харид қилиш, уни техник ва экологик талабларга мувофиқ жиҳозлаш ҳамда эксплуатацияга киритиш. 2. Экоавтобус орқали муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар, экологик объектлар ва таълим муассасаларига режали ташрифлар жадвалини тасдиқлаш ва мунтазам рейсларни ташкил этиш.	2026 йил май 2026 йилдан доимий	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология қўмитаси, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги,

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

		3. Ташрифлар давомида экологик тарғибот, маърифий экскурсиялар, ахборот материаллари тарқатиш ҳамда интерактив машғулотлар ўтказиш. 4. Экоавтобус фаолияти натижаларини рақамли ҳисобот ва мониторинг тизими орқали баҳолаш, қамров ва самарадорлик кўрсаткичлари бўйича таҳлил қилиш.			Ўзбекистон маҳаллалари уюшмаси, Ёшлар ишлари агентлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
27.	Экология қўмитаси тизимида фаолият юритаётган мутахассислар ҳамда экология ва иқлим ўзгариши йўналишларида “Эл-юрт умиди” жамғармаси орқали хорижда магистратура ва докторантура дастурлари бўйича таълим олган стипендиатлар орасидан ҳар йили камида 5 нафарини БМТнинг экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида фаолият юритаётган халқаро ташкилотларига юборишни ташкил қилиш.	1. Ҳар йили Экология қўмитаси тизимида фаолият юритаётган мутахассислар ҳамда “Эл-юрт умиди” жамғармаси орқали хорижда магистратура ва докторантура дастурлари бўйича таълим олган стипендиатларни белгиланган тартибда саралаб олиш. 2. Саралanган номзодлар орасидан камида 5 нафар ходимни БМТнинг экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида фаолият юритаётган халқаро ташкилотларига юборишни ташкил қилиш. 3. Топшириқ доирасида ишга жойлаштирилган лойиҳа қатнашчиларининг ойлик иш ҳақлари ва турар-жой билан боғлиқ харажатларини қоплаб бериш.	2026-2027 йиллар	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология қўмитаси, “Эл-юрт умиди” жамғармаси
28.	Сув ва тупроқ сифатини аниқлаш имконини берадиган комплекс лабораторияларни ташкил этиш.	1. Амалдаги эҳтиёжларни таҳлил қилиш ҳамда сув, ҳаво ва тупроқ сифатини аниқлашга қаратилган комплекс	2026 йил давомида	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш	Экология қўмитаси, Тошкент вилояти ҳокимлиги,

		лабораториялар учун техник талабларни ишлаб чиқиш. 2. Лаборатория биноларини тайёрлаш ва уларни комплекс лаборатория сифатида ташкил этиш бўйича ташкилий-техник чоралар кўриш. 3. Сув, ҳаво ва тупроқ сифатини аниқлаш имконини берувчи замонавий лаборатория ускуналари билан жиҳозлаш ишларини амалга ошириш. 4. Лабораториялар фаолиятини миллий ҳамда халқаро стандартлар талабларига мувофиқ йўлга қўйиш. 5. Олинган мониторинг натижаларини ягона ахборот тизимига интеграция қилиш ва доимий маълумот алмашинувини таъминлаш чораларини кўриш. Бунда лойиҳа ва пудрат ташкилоти электрон тендер (“e-tender” платформаси) савдоларида танлаб олиш орқали аниқланади.		давлат мақсадли жамғармаси ва қонунчиликда тақиқланмаган бошқа маблағлар	Давлат активларини бошқариш агентлиги, Ўзбекистон техник жиҳатдан тартибга солиш агентлиги, манфаатдор вазирлик ва идоралар
III. Университет таркибидаги илмий-тадқиқот институтлари фаолиятини йўлга қўйиш ва такомиллаштириш					
29.	Университет ва унинг таркибидаги илмий-тадқиқот институтларининг республиканинг йирик саноат корхоналари ва маҳаллий ҳокимликлар билан алоқаларини кучайтириш.	1. Университет ва унинг таркибидаги илмий-тадқиқот институтлари ҳамда республиканинг йирик саноат корхоналари ва маҳаллий ҳокимликлар ўртасида ҳамкорлик шартномалари ва меморандумларни имзолаш. 2. Хўжалик шартномалари асосида корхоналарнинг экологик муаммоларини ҳал қилишга амалий ёрдам бериш.	2026 йил май 2026 йил майдан доимий	Саноат ва ишлаб чиқариш корхоналари, маҳаллий ҳокимликларнинг бюджетдан ташқари маблағлари	Экология қўмитаси, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

30.	Нуфузли халқаро илмий ташкилотлар ва марказлар билан ҳамкорликда PhD ва DSc (double degree) дастурларини ишлаб чиқиш.	1. Илмий ташкилотлар томонидан ўзининг фан йўналишлари бўйича хорижий нуфузли олий таълим ва илмий ташкилотлар билан ҳамкорликда PhD ва DSc (double degree) дастурларини ишлаб чиқиш бўйича музокаралар олиб бориш. 2. Нуфузли халқаро илмий марказлар билан ҳамкорликда PhD ва DSc (double degree) дастурларини ишлаб чиқиш. 3. Илмий ташкилотлар томонидан ўзининг фан йўналишлари ихтисосликлари бўйича йўналишларни жорий этиш.	2026-2028 йиллар	Маблағ талаб этилмайди	Экология қўмитаси, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Фанлар академияси
IV. Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида фаолият кўрсатаётган ходимларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини такомиллаштириш					
31.	Профессионал экологларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини оширишнинг узвийлигини таъминлаш.	Давлат ташкилотлари ва саноат корхоналарида фаолият юритаётган эколог мутахассисларнинг мажбурий тартибда малакасини ошириш, вазирлик ва идораларда Экологик дипломатия бўлимлари ходимлари ҳамда давлат улуши 50 фоиздан юқори бўлган ташкилотларга экологларни ишга олиш тартибини жорий қилишни назарда тутувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини ишлаб чиқиш.	2026 йил декабрь	Маблағ талаб қилинмайди	Экология қўмитаси, манфаатдор вазирлик ва идоралар
32.	Ихтисослаштирилган ўқув курсларини ташкил этиш.	1. Соҳалар бўйича ўқув режа ва дастурларни ишлаб чиқиш ва такомиллаштириб бориш ҳамда белгиланган тартибда тасдиқлаш. 2. Тингловчилар контингентини шакллантириш.	2026 йил режа-график асосида	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология қўмитаси, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва

		3. Тасдиқланган ўқув режа ва дастурлар асосида малака ошириш курсларини ташкил этиш. 4. Давлат таълим талаблари асосида ҳар икки йилда бир марта мажбурий тартибда малака ошириш курсларида ўқитиш.			Тошкент шаҳар ҳокимликлари
33.	Гидрометеорология илмий-тадқиқот институтининг “Аранчи” ва “Кумбел” ноёб илмий объектлари фаолиятини такомиллаштириш.	1. Ўрта Чирчиқ тумани “Навоий” ҚФЙ, “Аранчи” МФЙ Аранчи-3 кўчаси 31-уй манзилида жойлашган “Аранчи” ноёб илмий объекти учун 0,68 гектар ер майдонларини доимий фойдаланиш ҳуқуқи билан ажратиш. 2. Паркент туманида аҳоли пунктидан 35 км узоқликда, денгиз сатҳидан 2308 метр баландликда жойлашган “Кумбел” ноёб илмий объекти учун 0,78 гектар ер майдонларини доимий фойдаланиш ҳуқуқи билан ажратиш.	2026 йил июль	Маблағ талаб этилмайди	Тошкент вилояти ҳокимлиги, Экология қўмитаси
34.	Гидрометеорология илмий-тадқиқот институти фаолиятини янада такомиллаштиришга қаратилган Вазирлар Маҳкамаси қарори лойиҳасини ишлаб чиқиш.	1. Қарор лойиҳасини ишлаб чиқиш. 2. Қарор лойиҳасини манфаатдор вазирлик ва идоралар билан белгиланган тартибда келишиш. 3. Қарор лойиҳасини Вазирлар Маҳкамасига киритиш.	2026 йил август	Маблағ талаб этилмайди	Экология қўмитаси
35.	Ҳудудларда йўналишлар бўйича аҳолининг экологик маданиятини шакллантириш борасида семинар-тренинглар ташкил этиш.	1. Йўналишлар бўйича семинар-тренинг дастурларини ишлаб чиқиш. 2. Режа-дастур асосида ҳудудларда семинар-тренинглар ташкил этиш.	2026 йил июнь ойидан доимий	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология қўмитаси, манфаатдор вазирлик ва идоралар

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 25 мартдаги ПҚ–110-сон қарорига
3-илова

Марказий Осиё атроф-муҳит ва иқлим ўзгаришини ўрганиш университетида (Green University) жорий этиладиган бакалавриат таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликлари
РЎЙХАТИ

Т/р	Бакалавриат таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликлари
I. Бакалавриат таълим йўналиши	
2026/2027 ўқув йилидан бошлаб	
1.	Атроф-муҳит ва барқарор бошқарув
2.	Яшил иқтисодиёт
3.	Юриспруденция
2027/2028 ўқув йилидан бошлаб	
4.	Барқарор туризм ва экотуризмни бошқариш
5.	Барқарор қишлоқ хўжалиги ва озиқ-овқат тизимлари
6.	Атроф-муҳит муҳандислиги ва қайта тикланувчи энергия
2028/2029 ўқув йилидан бошлаб	
7.	Иқлим ўзгариши ва барқарор ривожланиш
8.	Чўлланишга қарши курашиш ва чўл иқтисодиёти
2029/2030 ўқув йилидан бошлаб	
9.	Гидрометеорология ва сув ресурсларини бошқариш
II. Магистратура мутахассисликлари	
2026/2027 ўқув йилидан бошлаб	
1.	Барқарор ривожланиш
2.	Барқарор молия
3.	Экология ҳуқуқи
4.	Циркуляр иқтисодиёт

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

Т/р	Бакалавриат таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликлари
5	Атроф-муҳит муҳофазаси
6	Барқарор туризм
2027/2028 ўқув йилидан бошлаб	
7.	Яшил лойиҳалар бошқаруви
8.	Атроф-муҳит муҳандислиги
2028/2029 ўқув йилидан бошлаб	
9.	Барқарор шаҳарсозлик
10.	Иқлимга чидамли ўрмон хўжалиги
11.	Барқарор энергия алмашинуви
2029/2030 ўқув йилидан бошлаб	
12.	Атроф-муҳит соҳасида оммавий коммуникация
13.	Экология ва сунъий интеллект технологиялари

Изоҳ. *ушбу рўйхатдаги бакалавриат таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликларига Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги томонидан Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси билан келишган ҳолда ўзгартириш ва қўшимчалар киритилиши мумкин.*

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 25 мартдаги ПҚ–110-сон қарорига
4-илова

Марказий Осиё атроф-муҳит ва иқлим ўзгаришини ўрганиш университети (Green University) ва унинг тизимидаги илмий ташкилотларнинг 2026–2029 йилларга мўлжалланган илмийтадқиқотлар
ДАСТУРИ

Т/р	Чора-тадбир номи	Амалга ошириш механизми	Ижро муддати	Молиялаштириш манбаи	Масъул ижрочилар
I. Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида 2026–2027 йиллар давомида амалга оширилиши режалаштирилган лойиҳалар					
1.	Марказий Осиё, шу жумладан, Ўзбекистон Республикасида жойлашган тоғ музликлари деградациясини ўрганиш ҳамда уларнинг эриш хавфини бошқаришга қаратилган **экогеоинжиниринг** лойиҳасини амалга ошириш.	Экогеоинжиниринг лойиҳаси доирасида қуйидаги тадқиқотларни амалга ошириш: 1. Тоғ музликлари масса балансини аниқлашга қаратилган доимий экспедицияларни ташкил этиш. 2. Ерни масофадан туриб зондлаш, учувчисиз учадиган аппаратлар ва космик технологиялар ёрдамида музликлар мониторингини олиб бориш. 3. Сунъий муз устунларини яратишга қаратилган геоинжиниринг технологияларини ишлаб чиқиш. 4. Тоғ музликлари жойлашган дарёлар ҳавзаларида сунъий ёмғир ва қор ёғдириш технологияларини қўллаш асосида музликлар массаси йўқотилишини камайтириш.	2026 йил давомида	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология қўмитаси, Гидрометеорология илмий-тадқиқот институти

2.	Экологик мақсадлар учун олиниши керак бўлган экологик оқим **(environmental flow)** миқдорини республикамиз дарёларида белгилашнинг илмий асосларини яратиш.	1. Мавжуд гидрологик, гидроэкологик ва гидробиологик маълумотлар йиғиш ҳамда тизимли таҳлил қилиш. 2. Дарё экотизимларининг экологик эҳтиёжлари, био-хилмахилликни сақлаш, сув сифатини барқарорлаштириш ва табиий гидрологик режимларни қўллаб-қувватлаш омилларини ҳисобга олган ҳолда илмий-услубий ёндашувларни ишлаб чиқиш. 3. Республика дарёларида экологик мақсадлар учун зарур бўлган экологик оқим миқдорини белгилашнинг илмий асосларини яратиш.	2026–2027 йиллар	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология қўмитаси, Университет
3.	Айдар–Арнасой кўллар тизимида қисқа ва узоқ истиқболда сув ҳажми ва экологик ҳолатини моделлаштириш.	1. Айдар–Арнасой кўллар тизимида қисқа ва узоқ истиқболда сув ҳажми ҳамда экологик ҳолатни моделлаштириш мақсадида дастлаб мавжуд гидрологик, гидрокимёвий ва гидроэкологик маълумотларни тўплаш ва таҳлил қилиш. 2. Шу асосда сув кирими ва чиқими, иқлим омиллари, буғланиш, биоген моддалар оқими ҳамда антропоген таъсирларни ҳисобга олган ҳолда математик ва гидрологик моделлар ишлаб чиқиш. 3. Моделлаштириш жараёнида турли сценарийлар (иқлим ўзгариши, сув бошқаруви, хўжалик фаолияти таъсири) бўйича қисқа ва узоқ муддатли прогнозлар тайёрлаш.	2026 йил давомида	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология қўмитаси, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Университет, Атроф-муҳит ва табиатни муҳофаза қилиш технологиялари илмий-тадқиқот институти

II. Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида 2027–2029 йиллар давомида амалга оширилиши режалаштирилган лойиҳалар					
4.	Минтақавий “ICON-CLM” иқлим модели ёрдамида Ўзбекистоннинг яқин (2030 йилгача) ва ўрта келажакдаги (2040 йилгача) иқлим сценарийларини ишлаб чиқиш.	1. “ICON-CLM” минтақавий иқлим моделини Ўзбекистон ҳудуди учун мослаштириш. 2. Модел кириш (бошланғич ва чегаравий шартлар) маълумотларини DWD дан олиш жараёни ва моделни физик параметризациялашни йўлга қўйиш. 3. Ўзбекистон иқлимининг яқин (2040 йилгача) ва ўрта (2060 йилгача) келажакдаги ҳолатини прогнозлаш. 4. Иқлимни прогнозлаш натижаларини манфаатдор ташкилотларга тақдим этиш.	2027–2029 йиллар давомида	Илмий фаолиятга оид дастурларни амалга ошириш учун Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги томонидан ўтказиладиган танловлар натижалари бўйича ажратиладиган грантлар маблағлари	Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Экология қўмитаси
5.	Атмосфера ҳавосига чиқарилаётган эмиссиялар миқдорини соҳалар бўйича ҳисоблаш методикасини такомиллаштириш (Тошкент шаҳри мисолида).	1. Тошкент шаҳридаги барча эмиссия манбалари (саноат, транспорт, энергетика, қурилиш ва б.) турларини аниқлаш. 2. Ҳар бир соҳа бўйича амалдаги эмиссияни ҳисоблаш усулларини таҳлил қилиш ва камчиликларини аниқлаш. 3. Халқаро методикалар билан таққослама таҳлил ўтказиш. 4. Маҳаллий шароитга мос эмиссия коэффициентларини ишлаб чиқиш. 5. Транспорт воситалари бўйича ёқилғи тури, қуввати, ҳаракат интенсивлиги ва бошқа кўрсаткичлари асосида ҳисоблаш коэффициентларини аниқлаш.	2026–2027 йиллар	Илмий фаолиятга оид дастурларни амалга ошириш учун Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги томонидан ўтказиладиган танловлар натижалари бўйича ажратиладиган грантлар маблағлари	Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Экология қўмитаси

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

		6. Саноат корхоналарида реал ишлаб чиқариш қувватлари, жорий ҳолати ва ёқилғи турига асосланган эмиссия ҳисобини такомиллаштириш. 7. Автоматлаштирилган маълумот йиғиш ва қайта ишлаш тизимини такомиллаштириш бўйича тавсиялар ишлаб чиқиш. 8. Такомиллаштирилган методикаларни синовдан ўтказиш.			
6.	Саноатлашган шаҳарлар атмосфераси ҳавосининг ифлосланишини ва унинг аҳоли саломатлигига таъсирини баҳолаш.	1. Амалий лойиҳа талабномасини ишлаб чиқиш ва лойиҳа танловини эълон қилиш. 2. Тошкент вилоятидаги саноатлашган шаҳарлар атмосфера ҳавосининг ифлосланишини ўрганиш. 3. Тошкент вилоятидаги саноатлашган шаҳарлар аҳолисининг касалланиши бўйича сўровнома ва тадқиқотлар ўтказиш. 4. Саноатлашган шаҳарларда атмосфера ҳавоси ифлосланиши ва аҳоли саломатлиги орасидаги боғлиқликларни аниқлаш. 5. Саноатлашган шаҳарларда атмосфера ҳавоси ифлосланишининг аҳоли саломатлигига таъсирини камайтириш бўйича тавсиялар ишлаб чиқиш.	2027–2028 йиллар	Илмий фаолиятга оид дастурларни амалга ошириш учун Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги томонидан ўтказиладиган танловлар натижалари бўйича ажратиладиган грантлар маблағлари	Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Экология қўмитаси
7.	Саноат оқова сувларини селектив тозалаб, суғориш сувларини олиш технологиясини	1. Амалий лойиҳа талабномасини ишлаб чиқиш, лойиҳа танловини эълон қилиш ва молиялаштириш.	2027–2028 йиллар	Илмий фаолиятга оид дастурларни амалга ошириш	Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги,

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

	яратиш.	2. Саноат оқова сувларидан ўрнатилган тартибларда намуналар олиш ва таркибларини ўрганиш. Оқова сувлар таркибидаги ўсимликлар учун озуқа элементлар миқдорларини аниқлаш. 3. Саноат оқова сувларини оғир металлардан ва бошқа ифлослантирувчилардан турли усулларда тозалашнинг мақбул усулини танлаш. 4. Тозалаш жараёнида тозаланган сувлар таркибида ўсимликлар учун озуқа моддаларни сақлаб қолиш бўйича тадқиқотлар олиб бориш. 5. Тадқиқот натижалари асосида саноат оқова сувларидан озуқа элементларига бой суғориш сувларини олиш технологиясини яратиш.		учун Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги томонидан ўтказиладиган танловлар натижалари бўйича ажратиладиган грантлар маблағлари	Экология қўмитаси
8.	Тоғ ва тоғолди ҳудудларида тупроқ деградацияси ҳамда сув балансини тартибга солувчи маданий ўрмонларни **замонавий ёпиқ илдиз тизимли контейнер ("блок кассета", "Зип-Лок")** усулида барпо этиш технологиясини ишлаб чиқиш.	1. Чотқол тоғ тизмаси қияликларида маданий ўрмонларни замонавий ёпиқ илдиз тизимли контейнер ("блок кассета", "Зип-Лок") усулида барпо этиш технологиясини синовдан ўтказиш. 2. Сув танқис бўлган тоғ қияликларида ёпиқ илдиз тизимли кўчатлар кўкарувчанлигини оширишда нам сақловчи нано елимларни синовдан ўтказиш.	2027–2028 йиллар	Илмий фаолиятга оид дастурларни амалга ошириш учун Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги томонидан ўтказиладиган танловлар натижалари бўйича ажратиладиган грантлар маблағлари	Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Экология қўмитаси

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

9.	Ўрмон хўжаликлари кўчатхоналарида япроқбаргли ва игнабаргли кўчат ҳамда ниҳолларнинг асосий касаллик ва зараркунандаларига қарши курашишнинг уйғунлашган янги ҳимоя технологиясини ишлаб чиқиш.	1. Кўчатхоналарда етиштирилаётган япроқбаргли ва игнабаргли кўчат ҳамда ниҳолларга зарар келтирувчи касаллик ва ҳашаротларнинг тури таркибини аниқлаш, зарар келтириш даражасини ўрганиш. 2. Зарарли организмларни тавсифлаш асосида уларга қарши курашишда уйғунлашган янги ҳимоя технологиясини ишлаб чиқиш. 3. Самарали кураш технологиясини ишлаб чиқиш орқали амалиётда сифатли ва стандарт кўчатлар етиштиришни йўлга қўйиш.	2027–2028 йиллар	Илмий фаолиятга оид дастурларни амалга ошириш учун Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги томонидан ўтказиладиган танловлар натижалари бўйича ажратиладиган грантлар маблағлари	Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Экология қўмитаси

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 25 мартдаги ПҚ–110-сон қарорига
5-илова

“Science Oasis” тамойилига асосланган яшил трансформация ва иқлим ўзгаришлари бўйича кафедра ёки факультетлар ташкил этиладиган республика олий таълим ташкилотлари
РЎЙХАТИ

Т/р	Олий таълим ташкилоти номи
1.	Ўзбекистон Миллий университети
2.	Андижон давлат университети
3.	Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти
4.	Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети
5.	Бухоро давлат университети
6.	Бухоро давлат техника университети
7.	Геология фанлари университети
8.	Жиззах политехника институти
9.	Фарғона давлат университети
10.	Фарғона давлат техника университети
11.	Гулистон давлат университети
12.	Наманган давлат университети
13.	Наманган давлат техника университети
14.	Нукус давлат техника университети
15.	Қорақалпоғистон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти
16.	Қарши давлат университети
17.	Қарши давлат техника университети
18.	Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети
19.	Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети Тошкент филиали

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

20.	Самарқанд давлат университети
21.	Самарқанд давлат архитектура-қурилиш университети
22.	Термиз давлат университети
23.	Термиз давлат муҳандислик ва агротехнологиялар университети
24.	Тошкент давлат аграр университети
25.	Тошкент давлат техника университети
26.	Тошкент кимё-технология институти
27.	Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти
28.	Тошкент архитектура-қурилиш университети
29.	“Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти” миллий тадқиқот университети

***Изоҳ**. республика олий таълим ташкилотларида кафедра ёки факультет ташкил этиш тегишли олий таълим ташкилотининг ректори томонидан белгиланади.*

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 25 мартдаги ПҚ–110-сон қарорига
6-илова

Экологик маданият, таълим-тарбия ва тарғиботни кучайтириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар
РЕЖАСИ

Т/р	Чора-тадбир номи	Амалга ошириш механизми	Ижро муддати	Молиялаштириш манбалари	Масъул ижрочилар
Нодавлат нотижорат ташкилотлар, экофаолларнинг экологияга оид лойиҳалари, таклифлари ва ташаббусларини қўллаб-қувватлаш					
1.	Нодавлат нотижорат ташкилотлар, экофаолларнинг экологияга оид экостартаплар ва кичик лойиҳалари, таклифлари ва ташаббусларини қўллаб-қувватлаш.	1. Нодавлат нотижорат ташкилотлар, экофаолларнинг экологияга оид экостартаплар ва кичик лойиҳалари, таклифлари ва ташаббусларини кўриб чиқиш. 2. Қўллаб-қувватлаш шаклларини белгилаш ва амалий ёрдам бериш.	2026 йил давомида	Давлат бюджет маблағлари, Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси, тегишли вазирлик ва идоралар, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
2.	“Эко Экспо” халқаро кўргазмасини ташкил этиш.	1. Хорижий компаниялар ва ҳамкорлар, маҳаллий тадбиркорлар иштирокини таъминлаш, таклифномаларни юбориш. 2. Тадбирни ташкил этиш бўйича Ҳукумат фармойиш лойиҳасини ишлаб чиқиш. 3. “Билимлар макони” павильонини ташкил этиш ва унда барча олий таълим ва илмий-тадқиқот	2026 йил апрель 2026 йил май-июнь	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси, Ташқи ишлар вазирлиги, Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Марказий банк,

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

		муассасалари иштирок этишига эришиш. 4. “Яшил молия ва яшил иқтисодиёт” павильонини ташкил этиш ва қатнашувчиларнинг иштирокини таъминлаш. 5. “Яшил қурилиш ва бинолар” павильонини ташкил этиш ва қатнашувчиларнинг иштирокини таъминлаш. 6. Экология қўмитасининг виза талабномаларига мувофиқ халқаро кўргазмада иштирок этувчи чет эллик иштирокчиларга кириш визаларини консуллик йиғимлари ундирилмасдан, зарур ҳолларда, Ислом Каримов номидаги Тошкент ҳамда Самарқанд халқаро аэропортларида белгиланган тартибда расмийлаштириш.	2026 йил апрель ойидан бошлаб		Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги, Маданият вазирлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
3.	Глобал экологик жамғарманинг (ГЭЖ) VIII ассамблеяси ҳамда кенгашининг 71-йиғилишини ташкил этиш.	1. Тадбирни ташкил этиш бўйича фармойиш лойиҳасини ишлаб чиқиш. 2. Тадбирда иштирок этиш учун таклифномаларни юбориш. 3. Иқтисодий ҳамкорлик ташкилотининг (ИҲТ) атроф-муҳит муҳофазаси масалалари бўйича 6-вазирлар йиғилишини Глобал экологик жамғарманинг (ГЭЖ) VIII ассамблеяси доирасидаги ҳамроҳ халқаро тадбирлар рўйхатига	2026 йил апрель 2026 йил апрель 2026 йил май-июнь	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси, Ташқи ишлар вазирлиги, Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Марказий банк, Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги,

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

		киритиш ва 2026 йил 2–3 июнь кунлари Самарқанд шаҳрида ўтказиш. 4. Экология қўмитасининг виза талабномаларига мувофиқ Жамғарма ассамблеясида иштирок этувчи чет эллик иштирокчиларга кириш визаларини консуллик йиғимлари ундирилмасдан, зарур ҳолларда, Ислом Каримов номидаги Тошкент ҳамда Самарқанд халқаро аэропортларида белгиланган тартибда расмийлаштириш.	2026 йил май-июнь		Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги, Маданият вазирлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
4.	Фарғона ва Термиз ҳайвонот боғларининг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш бўйича зарур чора-тадбирларни амалга ошириш.	1. Ҳайвонот боғларининг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш, шунингдек, ёввойи ҳайвонларни сақлаш ва соғломлаштириш ишларига зарур бўладиган сарф-харажатлар сметасини ишлаб чиқиш. 2. Сарф-харажатлар сметасига асосан ҳайвонот боғи учун зарур бўлган қурилиш маҳсулотларини харид қилиш. 3. Қурилиш жараёнларини жадаллаштириш чораларини кўриш.	2026-2027 йиллар	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари	Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Сурхондарё вилояти ҳокимлиги, Фарғона вилояти ҳокимлиги
II. Экологияга оид кўрик-танловларни ташкил этиш					
5.	Умумтаълим мактабларининг юқори синф ҳамда касбий таълим муассасалари ўқувчилари ўртасида **“Сиз экологияга оид қонунларни биласизми?”**	1. Республика кўрик-танловини ташкил этиш. 2. Кўрик-танловни ўтказиш ҳамда ғолиб ва совриндорларни рағбатлантириш.	2026 йил май-июнь	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш	Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси, Бош прокуратура,

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

	республика кўрик-танловини ўтказиш.			давлат мақсадли жамғармаси	Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
6.	Экологияга оид билимлар куни муносабати билан "Ekozakovat" халқаро мусобақасини ўтказиш.	1. "Ekozakovat" халқаро мусобақасини ўтказиш бўйича ишчи гуруҳни шакллантириш. 2. Мусобақа ўтказиш низомини белгилаш. 3. Республикадаги олий таълим муассасалари ўртасида ҳудудий ва республика саралаш босқичини ташкил этиш. 4. Халқаро мусобақани юқори савияда ташкил этиш ҳамда ОАВ ва ижтимоий тармоқларда кенг ёритиш.	2026 йил май-июнь	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси	Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги, Ташқи ишлар вазирлиги, Транспорт вазирлиги, Ёшлар ишлар агентлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
7.	Аҳолининг турли қатламлари, талабалар ва ўқувчи-ёшлар ўртасида "Яшил макон" умуммиллий лойиҳаси доирасида **"Янги дарахт – янги нафас"** республика экочемпионатини ташкил этиш.	1. Экочемпионатни ўтказиш бўйича ишчи гуруҳни шакллантириш. 2. Экочемпионатни ташкил этиш ва ўтказиш.	2026 йил давомида	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси	Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги,

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

					Ўзбекистон маҳаллалари уюшмаси, Ёшлар ишлар агентлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
8.	Мактаб ўқувчилари иштирокида **“Яшиллик ва тозалик кубоги”** республика танловини ўтказиш.	1. “Яшиллик ва тозалик кубоги” республика танлови низомини ишлаб чиқиш. 2. “Яшиллик ва тозалик кубоги” республика танловини ўтказиш.	2026 йил июнь-август	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси	Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги, Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси, Ёшлар ишлар агентлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
9.	**“Табиат болалар нигоҳида”** номли республика расмлар танловини ташкил этиш.	1. “Табиат болалар нигоҳида” номли республика расмлар танловини ўтказиш бўйича ишчи гуруҳни шакллантириш. 2. “Табиат болалар нигоҳида” номли республика расмлар танловини ташкил этиш.	2026 йил август	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси	Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги, Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

III. Республика миқёсида экологик маданиятни ошириш мақсадида оммавий тарғибот тадбирларини ташкил этиш					
10.	Аҳолининг турли қатламлари учун экологик мавзуларда ва “яшил истеъмол” маданиятининг кундалик қоидаларини билишни, табиий ресурсларни исроф қилмаслик каби халқимизнинг миллий удум ва қадриятларини тарғиб қилувчи ижтимоий ахборот, спектакллар, мультипликацион ва бадиий фильмлар яратиш.	1. Ижтимоий ахборот, спектакллар, мультипликацион ва бадиий фильмлар яратиш бўйича ишчи гуруҳни шакллантириш. 2. Яратиладиган ижтимоий ахборот, спектакллар, мультипликацион ва бадиий фильмлар рўйхатини шакллантириш. 3. Ижтимоий ахборот, спектакллар, мультипликацион ва бадиий фильмларни яратиш ва кенг тарғиб қилиш. 4. Спектакллар барча ҳудудларда намойиш этилишини ташкил этиш.	2026 йил давомида	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси	Кинематография агентлиги, Болалар контентини ривожлантириш маркази, Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси, Маданият вазирлиги, Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги
11.	Мактабгача таълим ташкилотлари тарбияланувчилар учун **“Жажжи экологлар”** лойиҳасини ташкил этиш.	1. “Жажжи экологлар” лойиҳасини амалга ошириш чораларини белгилаш. 2. Лойиҳани амалга ошириш	2026 йил давомида	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси	Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси, Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
12.	Табиатни муҳофаза қилиш соҳасида алоҳида ташаббус кўрсатган ёшлар ҳамда экоаълочи мактаб ўқувчиларини рағбатлантириш мақсадида 3 даражали **“Ёш эколог”** кўкрак	1. “Ёш эколог” кўкрак нишони тўғрисидаги низомни ишлаб чиқиш 2.Табиатни муҳофаза қилиш соҳасида фаоллик кўрсатган ёшлар ҳамда экоаълочи мактаб ўқувчилари орасидан таълим муассасалари ва	2026 йил май 2026 йил август	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси	Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги,

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

	нишонини таъсис этиш уларни ва тақдирлаш.	тегишли ташкилотлар билан ҳамкорликда номзодларни шакллантириш. 3. Ғолибларни рағбатлантириш барқарор тизимини йўлга қўйишни таъминлаш.	2026 йил ноябрь		Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
13.	**“Оролбўйи эзгу ният элчилари”** халқаро конференцияси, “10 минг қадам” пиёда акцияси, дарахт экиш, ёшлар эко фестивалларини ташкил этиш.	1. Тадбирларни ўтказиш бўйича низом ишлаб чиқиш. 2. Тадбирларни юқори савияда ташкил этиш ҳамда ОАВ ва ижтимоий тармоқларда ёритиш.	2026 йил апрель-май	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси	Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Ташқи ишлар вазирлиги, Транспорт вазирлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
14.	Экологик муаммолар ва уларнинг ечимларига бағишланган **“Экооромгоҳ – 2026”** экологик ҳафталигини ташкил этиш.	1. Экологик муаммолар ва уларнинг ечимларига бағишланган “Экооромгоҳ – 2026” экологик ҳафталигини ташкил этиш юзасидан вазирлик, идоралар ва ҳамкор ташкилотлар вакилларидан иборат ишчи гуруҳни шакллантириш. 2. Ҳудудлар кесимида маҳалладаги ёшлар етакчилари, волонтёрлар ва экофаоллардан иборат иштирокчиларни шакллантириш.	2026 йил июнь-июль	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси	Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси, Транспорт вазирлиги, Туризм қўмитаси, Ички ишлар вазирлиги, Ёшлар ишлари агентлиги, Ўзбекистон маҳаллалари уюшмаси, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

		3. Оромгоҳ дастурини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш, тадбирларни ташкил этиш ва ўтказиш мақсадида соҳа мутахассислари ва тренерларни шакллантириш. 4. Бўстонлиқ туманидаги “Ёшлар оромгоҳида” “Экооромгоҳ – 2026” экологик ҳафталигини ташкил этиш ва ўтказиш.			Тошкент шаҳар ҳокимликлари
15.	“Eco Fashion Week” халқаро фестивалини ташкил этиш.	1. Халқаро фестиваль ўтказиш бўйича ишчи гуруҳни шакллантириш. 2. Халқаро фестивални юқори савияда ўтказиш ҳамда ОАВ ва ижтимоий тармоқларда кенг ёритиш.	2026 йил июнь	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси	Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси, Маданият вазирлиги, Ташқи ишлар вазирлиги, Транспорт вазирлиги, “Ўзбекипаксаноат” уюшмаси, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
16.	“Eko-biennale” халқаро экологияга оид расмлар ва ҳунармандчилик маҳсулотлари кўргазмасини ташкил этиш.	1. Кўргазмани ташкил этиш бўйича ишчи гуруҳни шакллантириш. 2. Кўргазмани ташкил этиш ҳамда ОАВ ва ижтимоий тармоқларда кенг ёритиш.	2026 йил июнь	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси	Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси, Ўзбекистон бадиий академияси, “Ҳунарманд” уюшмаси, Ўзбекистон Рассомлар ижодий бирлашмаси, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

					Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
17.	**“Дарахтга нафас беринг”** оммавий тадбирини ўтказиш.	1. Дарахтларнинг илдиз тизимларини бетон ва асфальт қопламаларидан, уларни турли чироқ мосламаларидан, реклама баннери ва бошқа ускуналардан бўшатиш. 2. Тадбирга ёшларни кенг жалб қилиш. 3. Амалга оширилаётган ишларни ОАВ ва ижтимоий тармоқларда кенг ёритиб бориш.	2026 йил давомида	Маблағ талаб этилмайди	Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси, Ўзбекистон маҳаллалари уюшмаси, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
18.	“Green Games” республика плогинг мусобақасини ўтказиш.	1. Плогинг мусобақасини ўтказиш жойини белгилаш. 2. Плогинг мусобақасини юқори савияда ташкил этиш чораларини кўриш. 3. Мусобақа ғолибларини тақдирлаш.	2026 йил октябрь	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси	Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги, Ўзбекистон маҳаллалари уюшмаси, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
19.	Республикадаги умумтаълим мактаблари ўртасида “Green school” танловини ўтказиш.	1. Танловни ташкил этиш бўйича ишчи гуруҳ шакллантириш. 2. Танлов низомини ишлаб чиқиш.	2025 йил ноябрь	Умуммиллий экологик муаммоларни	Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси,

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

		3. Танловни юқори савияда ташкил этиш.		бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси	Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги, Ёшлар ишлари агентлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
20.	**“Ёшлар келажак бунёдкорлари!”** V экология халқаро қурултойини ўтказиш.	1. Қурултойни ўтказиш бўйича таклифларни шакллантириш мақсадида ишчи гуруҳларни тузиш. 2. Ишчи гуруҳлар томонидан таклифларни ўз ичига олган қурултой дастурининг лойиҳаларини ишлаб чиқиш. 3. “Ёшлар келажак бунёдкорлари!” V экология халқаро қурултойини ўтказиш.	2026 йил август	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси	Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси, Ёшлар ишлар агентлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
21.	**“Ёшлар ва экология”** халқаро югуриш марафони, **“Экология ва велоспорт”** мусобақасини ташкил этиш.	1. Мусобақа дастурини ишлаб чиқиш. 2. Ёшлар ўртасида 2, 5, 10 кмга югуриш марафони ва велоспорт бўйича мусобақа ҳамда плоггинг акциясини ўтказиш. 3. 22 сентябрь – Халқаро автомобилсиз кун доирасида “Саломатлик сари йўл” веломарафонини ўтказиш.	2026 йил сентябрь	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси	Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси, Спорт вазирлиги, Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

22.	Аҳолининг экологик маданиятини юксалтириш ва улар ўртасида соғлом турмуш тарзини кенг тарғиб қилиш мақсадида **10 000 қадам пиёда** юриш тажрибасини қайта тиклаш ишларини амалга ошириш ҳамда “Соғлом турмуш тарзи” платформаси фаолиятини йўлга қўйиш.	1. “Соғлом турмуш тарзи” платформаси фаолиятини йўлга қўйиш. 2. “10 минг қадам пиёда” акциясини амалга ошириш ва рағбатлантириш тартибини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш. 3. “10 минг қадам пиёда” акциясини ўтказиш ва рағбатлантириш. 4. Ажратилган маблағлари тугагач, лойиҳанинг самарадорлиги ва инсон фаолиятига таъсири юзасидан таҳлилий ҳисоботлар ҳамда натижадорлиги юзасидан ахборот хати тайёрлаш.	2026 йил май 2026 йил давомида	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси	Спорт вазирлиги, Рақамли технологиялар вазирлиги, Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси, Соғлиқни сақлаш вазирлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
23.	Экофаол ёшларнинг халқаро тадбирлар, конференциялар, кўрик-танловларда иштирок этишига кўмаклашиш, йил якуни билан энг фаол **“Ёш экологлар ҳаракати”** ва бошқа нодавлат нотижорат экологик ҳаракат аъзолари, экофаол фуқароларни тақдирлаш.	1. Халқаро конференциялар, кўрик-танловлар ва бошқа халқаро экологик тадбирлар ташкилотчилари таклифига асосан экофаол ёшларнинг иштирок этишига кўмаклашиш. 2. Ташаббускор ва энг фаол “Ёш экологлар ҳаракати” ва бошқа нодавлат нотижорат экологик ҳаракат аъзолари, экофаол фуқароларни тақдирлаш ва рағбатлантириш.	2026 йил декабрь	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси	Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси, Ташқи ишлар вазирлиги, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

24.	Экология йўналишида таҳсил олаётган техникум ўқувчилари ва олий таълим муассасалари талабалари учун экостипендиялар таъсис этиш	1. Экология йўналишида таҳсил олаётган ўқувчи ва талабалар учун экостипендия тўлаш тизимини жорий этиш. 2. Экостипендия учун номзодларни саралаш ва экостипендиялар тўлаш.	2026 йил сентябрь ойидан бошлаб	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси	Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси, Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
IV. “Яшил маҳалла” лойиҳаси ва турли медиалойиҳаларни амалга ошириш					
25.	**“Яшил маҳалла”** лойиҳасини ташкил этиш.	1. “Яшил маҳалла” лойиҳаси амалга ошириладиган маҳаллани танлаб олиш. 2. Танлаб олинган маҳаллани “яшил” маҳаллага айлантириш лойиҳасини ишлаб чиқиш. 3. Танлаб олинган маҳаллани намуна тариқасида “яшил” маҳаллага айлантириш.	2026–2027 йиллар давомида	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси	Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси, Ўзбекистон маҳаллалар уюшмаси, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари
26.	Оммавий ахборот воситалари, экоблогерлардан келиб тушган таклифлар асосида турли медиалойиҳаларни амалга ошириш.	1. ОАВ ва экоблогерлардан келиб тушган таклифлар асосида очиқ танлов (selection) ўтказиш ва устувор лойиҳаларни саралаш. 2. Танлаб олинган медиалойиҳалар учун харажатлар сметасини тасдиқлаш ва молиялаштириш. 3. Лойиҳалар доирасида экологик-маърифий контент ишлаб чиқиш ва тарқатиш.	2026 йил давомида	Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси	Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси

		4. Молиялаштирилган лойиҳаларни KPI ва ҳисоботлар орқали мониторинг қилиш, маблағларнинг мақсадли ва самарали ўзлаштирилишини таъминлаш.			

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
2026 йил 25 мартдаги ПҚ–110-сон қарорига
7-илова

Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим қарорларига киритилаётган ўзгартириш ва қўшимчалар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 31 майдаги “Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги фаолиятини самарали ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ–171-сон қарорида:

(а) 2а-иловада:

1-позиция қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“

Т/р	Янги ташкил қилинаётган тузилманинг тўлиқ (расмий) номи	Қоидалар
1.	Марказий Осиё атроф-муҳит ва иқлим ўзгаришини ўрганиш университети	**1.** Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси тизимидаги қуйидаги таълим ва илмий-тадқиқот муассасаларининг барча вазифа ва функциялари, ҳуқуқлари ҳамда мажбуриятлари, шунингдек, бино-иншоотлари ва бошқа мол-мулклари тўлиқлигича Университет тасарруфига ўтказилади: Оролбўйи халқаро инновация маркази; Атроф-муҳит ва табиатни муҳофаза қилиш технологиялари илмий-тадқиқот институти; Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида фаолият кўрсатаётган ходимларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш маркази; “Эко-энергия” илмий татбиқ этиш маркази; Ўрмон хўжалиги илмий-тадқиқот институти; Чўлланишга қарши курашиш ва чўл иқтисодиётини ривожлантириш илмий-тадқиқот институти; Гидрометеорология илмий-тадқиқот институти; Марказий Осиё Экология ва атроф-муҳит илмий-тадқиқот қўшма маркази.

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

		Бунда Университет тизимига ўтказилаётган ташкилотларнинг амалдаги молиялаштириш манбалари ва шартлари сақлаб қолинади. **2.** Қорақалпоғистон Республикаси вилоятлар ва Тошкент шаҳридаги "яшил" техникумлар (Green Technical College) Университетга бириктирилади. Бунда Университетнинг бюджет ва бюджетдан ташқари маблағлари ҳамда Экология қўмитасининг Умуммиллий экологик муаммоларни бартараф этиш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари ҳисобидан "яшил" техникумларнинг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш ва педагогларни моддий қўллаб-қувватлаш учун молиявий кўмаклашишга рухсат берилади.

";

(б) 4-илованинг 70-позицияси "Чора-тадбирлар номи" устуни еттинчи хатбошиси чиқариб ташлансин".

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 31 майдаги "Марказий Осиё атроф-муҳит ва иқлим ўзгаришини ўрганиш университети (Green University) фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ–174-сон қарорига 1-илованинг матни қуйидагича баён этилсин:

"Марказий Осиё атроф-муҳит ва иқлим ўзгаришини ўрганиш университети Васийлик кенгаши

ТАРКИБИ

1. А.Абдухакимов – Ўзбекистон Республикаси Президентининг экология масалалари бўйича маслаҳатчиси – Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси раиси, *Васийлик кенгаши раиси*
2. *Лавозими бўйича* – Марказий Осиё мамлакатларининг тегишли вазирликлари томонидан тавсия этиладиган номзодлар, *Васийлик кенгаши ҳамраислари (келишув асосида)*
3. А.Туйчиев – Олий Мажлис Сенати Аграр, сув хўжалиги масалалари ва экология қўмитаси раиси *(келишув асосида)*
4. Х. Гаппаров – Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Қонунчилик палатаси, Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш масалалари қўмитаси раиси *(келишув асосида)*

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

5. С. Вахба – Жаҳон банки Европа ва Марказий Осиё учун барқарор ривожланиш бўйича минтақавий директори *(келишув асосида)*

6. С. Ким – Глобал яшил ўсиш институти ижроия директори *(келишув асосида)*

7. М. Мумба – Сувда сузувчи қушларнинг асосий яшаш манзили бўлган халқаро аҳамиятга эга сув-ботқоқ ерлар тўғрисидаги конвенция Бош котиби *(келишув асосида)*

8. И. Кутбиддинов – Ўзбекистон Республикаси экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазири ўринбосари

10. Б. Мамедов – Марказий Осиё минтақавий экологик маркази ижрочи директори *(келишув асосида)*

11. Б.Пулатов – Марказий Осиё атроф-муҳит ва иқлим ўзгаришини ўрганиш университети ректори, *Васийлик кенгаши котиби*"

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 15 майдаги "2030 йилгача бўлган даврда аҳолининг экологик маданиятини юксалтириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПҚ–184-сон қарорига 2-илованинг 12-позицияси қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

"

12.	Аҳолини атроф-муҳит ҳолати юзасидан ишончли ахборот билан таъминлаш.	Ўзбекистон Республикаси атроф-муҳит ҳолати тўғрисидаги Миллий маъруза лойиҳасини тайёрлаш	Ҳар Беш йилда бир маротаба	Масъул ижрочиларнинг бюджетдан ташқари маблағлари	Экология қўмитаси, манфаатдор вазирлик ва идоралар

".

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 18 ноябрдаги "Ўзбекистон Республикаси Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ–343-сон қарорига 1-илованинг матни қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

QMMB: 07/26/110/0287-son
30.03.2026-y.

“Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитасининг ТАШКИЛИЙ ТУЗИЛМАСИ



* Бюджетдан ташқари маблағлар, шунингдек, ажратмалар, хўжалик фаолиятидан ва шартнома асосида хизматлар кўрсатишдан тушадиган тушумлар ҳисобидан молиялаштирилади.

** Юридик шахс мақомига эга бўлмайди”.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI
KANSELYARIYA
1

12 (1240)-сон
273-модда

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

2026 yil « 26 » март № ПҚ–112

Халқаро шартномани тасдиқлаш тўғрисида

“Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 22-моддасига мувофиқ **қарор қиламан**:

1. 2023 йил 18 июль куни Шуша шаҳрида Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан Озарбайжон Республикаси Ҳукумати ўртасида имзоланган 2023 йил 24 февралдаги Ўзбекистон-Озарбайжон инвестиция жамғармасини ташкил этиш тўғрисидаги битимга ўзгартиришлар киритиш ҳақидаги баённома тасдиқлансин.
2. Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги мазкур халқаро шартномани амалга ошириш учун масъул бўлган ваколатли орган этиб белгилансин.
3. Ташқи ишлар вазирлиги Ўзбекистон Республикаси томонидан ушбу халқаро шартноманинг кучга кириши учун зарур бўлган давлат ички тартиб-таомиллари бажарилганлиги ҳамда уни амалга ошириш учун масъул бўлган ваколатли орган тўғрисида Озарбайжон томонига тегишли билдиришнома юборсин.
4. Вазирлар Маҳкамаси ҳамда тегишли вазирлик ва идораларнинг раҳбарлари мазкур халқаро шартнома кучга кирганидан кейин унинг қоидалари амалга оширилиши устидан белгиланган тартибда назоратни таъминласин.
5. Ушбу қарорнинг ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикаси Президенти **Ш. Мирзиёев**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI
KANSELYARIYA
1

Тошкент шаҳри

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

2026 yil « 26 » март № ПҚ–113

Халқаро шартномаларни тасдиқлаш тўғрисида

“Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 22-моддасига мувофиқ **қарор қиламан:**

1. Қуйидагилар:

(а) 2025 йил 28 октябрь куни Тошкент шаҳрида имзоланган Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан Сербия Республикаси Ҳукумати ўртасида инвестицияларни рағбатлантириш ва ўзаро ҳимоя қилиш тўғрисидаги битим;

(б) 2025 йил 28 октябрь куни Тошкент шаҳрида имзоланган Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан Сербия Республикаси Ҳукумати ўртасида иқтисодий ҳамкорлик тўғрисидаги битим тасдиқлансин.

2. Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги мазкур халқаро шартномаларни амалга ошириш учун масъул бўлган ваколатли орган этиб белгилансин.

3. Ташқи ишлар вазирлиги Ўзбекистон Республикаси томонидан мазкур халқаро шартномаларнинг кучга кириши учун зарур бўлган давлат ички тартиб-таомиллари бажарилганлиги ҳамда уларни амалга ошириш учун масъул бўлган ваколатли орган тўғрисида Сербия томонига тегишли билдиришнома юборсин.

4. Вазирлар Маҳкамаси ҳамда тегишли вазирлик ва идораларнинг раҳбарлари мазкур халқаро шартномалар кучга кирганидан кейин уларнинг қоидалари амалга оширилиши устидан белгиланган тартибда назоратни таъминласин.

5. Мазкур қарорнинг ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикаси
Президенти **Ш. Мирзиёев**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI
KANSELYARIYA
1

Тошкент шаҳри

QMMB: 07/26/115/0276-son
27.03.2026-y

12 (1240)-сон
275-модда

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

2026 yil « 27 » март № ПҚ–115

Халқаро шартномани тасдиқлаш тўғрисида

“Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 22-моддасига мувофиқ **қарор қиламан**:

1. 2025 йил 28 октябрда Тошкент шаҳрида имзоланган Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан Сербия Республикаси Ҳукумати ўртасида туризм соҳасида ҳамкорлик тўғрисидаги битим тасдиқлансин.

2. Туризм қўмитаси ушбу халқаро шартномани амалга ошириш учун масъул бўлган ваколатли орган этиб белгилансин.

3. Ташқи ишлар вазирлиги Ўзбекистон Республикаси томонидан ушбу халқаро шартноманинг кучга кириши учун зарур бўлган давлат ички тартиб-таомиллари бажарилганлиги ҳамда уни амалга ошириш учун масъул бўлган ваколатли орган тўғрисида Сербия томонига тегишли билдиришнома юборсин.

4. Вазирлар Маҳкамаси ҳамда тегишли вазирлик ва идораларнинг раҳбарлари ушбу халқаро шартнома кучга кирганидан кейин унинг қоидалари бажарилиши устидан белгиланган тартибда назоратни таъминласин.

QMMB: 07/26/115/0276-son
27.03.2026-y

5. Мазкур қарорнинг ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикаси Президенти **Ш. Мирзиёев**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI
KANSELYARIYA
1

Тошкент шаҳри

QMMB: 07/26/116/0283-son
28.03.2026-y.

12 (1240)-сон
276-модда

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

2026 yil «27» март № ПҚ–116

Халқаро шартномани тасдиқлаш тўғрисида

“Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 22-моддасига мувофиқ **қарор қиламан**:

1. 2024 йил 8 октябрь куни Москва шаҳрида имзоланган Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги иштирокчи-давлатларига юбориладиган делегацияларнинг ҳуқуқий мақоми тўғрисида Конвенция тасдиқлансин.

2. Ташқи ишлар вазирлиги мазкур халқаро шартномани амалга ошириш учун масъул бўлган ваколатли орган этиб белгилансин.

3. Ташқи ишлар вазирлиги Ўзбекистон Республикаси томонидан мазкур халқаро шартноманинг кучга кириши учун зарур бўлган давлат ички тартиб-таомиллари бажарилганлиги ҳамда уни амалга ошириш учун масъул бўлган ваколатли орган тўғрисида депозитарийга тегишли билдиришнома юборсин.

4. Вазирлар Маҳкамаси ҳамда тегишли вазирлик ва идораларнинг раҳбарлари мазкур халқаро шартнома кучга кирганидан кейин белгиланган тартибда унинг қоидаларини амалга ошириш устидан назоратни таъминласин.

5. Мазкур қарорнинг ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикаси Президенти **Ш. Мирзиёев**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI
KANSELYARIYA
1

Тошкент шаҳри

QMMB: 07/26/117/0284-son
28.03.2026-y.

12 (1240)-son
277-modda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

2026 yil « 27 » март № ПҚ–117

Жазони ижро этиш муассасаларидаги ёшларни замонавий касбларга ўқитишга оид чора-тадбирлар тўғрисида

Жазони ижро этиш муассасаларидаги ёш маҳкумларни замонавий рақамли касбларга ўқитиш, озодликка чиққанидан сўнг жамиятда ўз ўрнини топишга ёрдам бериш, бандлигини таъминлаш, келгусида такроран жиноят содир этишларининг олдини олиш ҳамда жамиятга муваффақиятли интеграция қилиш мақсадида **қарор қиламан:**

I. Асосий мақсадлар

1. Қуйидагилар жазони ижро этиш муассасаларида озодликдан маҳрум қилиш тариқасидаги жазони ўтаётган **18–30 ёшдаги маҳкумларни** (кейинги ўринларда – жазони ўтаётган ёшлар) замонавий рақамли касбларга ўқитишнинг **асосий мақсадлари** этиб белгилансин:

(а) жазони ўтаётган ёшларни ўз дунёқарашига эга бўлган ва мустақил фикрлайдиган шахс сифатида шакллантириш;

(б) тасдиқланган ўқув дастурлари доирасида жазони ўтаётган ёшлар **сифатли билим олиши** ва замонавий рақамли касбларга эга бўлишини таъминлаш;

(в) жазони ўтаётган ёшлар замонавий рақамли касбларни эгаллаши учун уларни зарур даражада хорижий тилларга (инглиз, рус, хитой ва бошқалар) ўқитиш;

QMMB: 07/26/117/0284-son
28.03.2026-y.

(г) жазони ўтаётган ёшлар жазодан озод этилганидан сўнг уларни жамиятга интеграция қилиш мақсадида меҳнат бозорида талаб этиладиган касбларни эгаллаши учун уларда меҳнат қилиш кўникмаларини шакллантириш ва мустаҳкамлаш;

(д) жазони ўтаётган ёшларни касбга йўналтириш орқали индивидуал ривожлантириш, уларда жамоада ишлаш ва мулоқот маданиятини шакллантириш ва ривожлантириш.

II. Устувор чора-тадбирлар

2. Ички ишлар вазирлиги, Рақамли технологиялар вазирлиги, Касбий таълим агентлиги ва Ёшлар ишлари агентлигининг жазони ўтаётган ёшларни замонавий касбларга ўқитишга қаратилган **“Иккинчи имкон” ижтимоий реабилитация миллий лойиҳаси** (кейинги ўринларда – Лойиҳа)ни амалга ошириш тўғрисидаги таклифи маъқуллансин.

3. Белгилансинки, Лойиҳа доирасида дастлабки босқичда **2026 йил 1 июндан бошлаб Тошкент**, **Навоий** ва **Қашқадарё вилоятларидаги**, **2027 йил 1 мартдан бошлаб** республиканинг бошқа ҳудудларидаги жазони ижро этиш муассасаларида озодликдан маҳрум қилиш тариқасидаги жазони ўтаётган ёшларни **замонавий рақамли касбларга ўқитиш** (кейинги ўринларда – ўқув курслари) **тизими** йўлга қўйилади. Бунда:

(а) ўқув курслари 8–12 ойлик **интенсив ўқув дастурлари** асосида жазони ижро этиш муассасаларида ташкил этилади;

(б) ўқув курсларига ижтимоий хавфи катта бўлмаган, унча оғир бўлмаган ва оғир жиноятларни содир этган жазони ўтаётган ёшлар жалб қилинади, бундан ахборот технологиялари ёрдамида жиноят содир этган шахслар мустасно;

(в) ўқув курсларига жалб қилинганлар **хорижий тилларни** (инглиз, рус, хитой ва бошқалар) ўрганиш бўйича **ягона интенсив дастурлар** асосида ҳам ўқитилади;

QMMB: 07/26/117/0284-son
28.03.2026-y.

(г) ўқув курслари жазони ўтаётган ёшларнинг қизиқишлари ва истеъдодидан келиб чиққан ҳолда гуруҳларда ташкил этилади;

(д) жазони ўтаётган ёшларнинг қизиқишлари ва истеъдоди Рақамли технологиялар вазирлиги, Касбий таълим агентлиги, Ёшлар ишлари агентлиги вакиллари ҳамда соҳанинг бошқа мутахассисларидан иборат таркибда тузиладиган **ишчи гуруҳнинг ўрганишлари натижасида** аниқланади;

(ж) ўқув курслари якуни бўйича тегишли дастурларни ўзлаштирган жазони ўтаётган ёшларга **электрон шаклдаги сертификатлар** берилади.

4. Лойиҳа доирасида жалб этиладиган мутахассислар ва педагог ходимларнинг меҳнатига ҳақ тўлаш, ўқув хоналарини компьютер жиҳозлари, электрон доскалар, мебель, инвентарь ва бошқа ускуналар билан жиҳозлаш, ўқув дастурлари бўйича кутубхона фондларини зарур ўқув-услубий адабиётлар билан таъминлаш билан боғлиқ барча харажатларни ўз маблағлари ҳисобидан амалга ошириш тўғрисидаги **“Unicon-Soft” МЧЖнинг ташаббуси** қўллаб-қувватлансин.

5. Белгилаб қўйилсинки:

(а) ўқув курсларида интернет тармоғига уланиш ҳамда фойдаланиш билан боғлиқ харажатлар Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги **Рақамли технологияларни ривожлантириш жамғармасидан ажратиладиган маблағлар** ҳисобидан;

(б) ўқув курслари биноларини сақлаш (коммунал хизматлар, жорий таъмирлаш ва бошқа харажатлар) билан боғлиқ харажатлар жазони ижро этиш муассасаларининг бюджет ва бюджетдан ташқари маблағлари ҳамда қонунчиликда тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан молиялаштирилади.

6. Ички ишлар вазирлиги қуйидагиларга **масъул этиб** белгилансин:

(а) сертификатларга эга бўлган иқтидорли ёшларни эгаллаган касблари бўйича жазони ижро этиш муассасаси ва буюртмачилар ўртасида тузиладиган шартномалар асосида хизматлар кўрсатишга жалб қилиш чораларини кўриб бориш;

QMMB: 07/26/117/0284-son
28.03.2026-y.

(б) Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги ва “Unicon-Soft” МЧЖ билан биргаликда сертификатларга эга бўлган иқтидорли ёшларни жазони ижро этиш муассасаларидан озод этилганидан сўнг иш билан таъминлашга кўмаклашиб бориш.

III. Ташкилий чора-тадбирлар

7. Рақамли технологиялар вазирлиги:

(а) Ички ишлар вазирлиги ва бошқа манфаатдор идоралар билан биргаликда ўқув курсларини ташкил этиш учун хавфсиз интернет муҳити ва махсус локал таълим платформаларидан фойдаланилишини ҳамда бошқа ахборот хавфсизлигига оид чора-тадбирлар амалга оширилишини белгиланган тартибда таъминласин;

(б) Касбий таълим агентлиги, Ички ишлар вазирлиги билан биргаликда **икки ой муддатда** ўқув курсларида ўқитиладиган касбларнинг рўйхати ва ўқув курсларининг ўқув дастурларини ишлаб чиқсин ва тасдиқласин.

8. Ички ишлар вазирлиги:

(а) **ўн кун муддатда** ўқув курсларини ташкил этиш учун жазони ижро этиш муассасаларидан санитария қоидалари, нормалари ва гигиена нормативлари, стандартларга мос бинолар (хоналар) ажратилишини таъминласин;

(б) **2026 йил 1 майга қадар “Unicon-Soft” МЧЖга** жазони ижро этиш муассасаларининг ўқув курслари ўтказиладиган бино (хона)ларини тайёрлаш билан боғлиқ барча тадбирлар амалга оширилишини таъминласин ҳамда келгусида ўқув курсларини ўтказиш билан боғлиқ масалаларда ҳар томонлама кўмаклашиб борсин;

(в) Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги ҳамда Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги билан биргаликда **уч ой муддатда** жазони ижро этиш муассасаларидан озод этилган ёлғиз ёшларни жамиятга муваффақиятли интеграция қилишни таъминлаш мақсадида уларнинг ижтимоий муаммоларини, шу жумладан, уй-жойга бўлган эҳтиёжларини ўргансин ҳамда вақтинчалик уй-жой билан таъминлаш бўйича таклифларни Вазирлар Маҳкамасига киритсин;

QMMB: 07/26/117/0284-son
28.03.2026-y.

(г) Адлия вазирлиги ҳамда бошқа манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда **икки ой муддатда** қонунчилик ҳужжатларига ушбу қарордан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар тўғрисида Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритсин.

IV. Қарор ижросини ташкил этиш, таъминлаш ва назорат

9. Мазкур қарор ижросини самарали ташкил қилишга **масъул ва шахсий жавобгар** этиб ички ишлар вазири А.А. Ташпулатов белгилансин.

10. Қарорнинг ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов ва Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси департамент бошлиғи Д.Б. Кадиров зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикаси Президенти — **Ш. Мирзиёев**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI
KANSELYARIYA
1

Тошкент шаҳри

УЧИНЧИ БЎЛИМ

ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИНИНГ ҚАРОРЛАРИ

12 (1240)-son
278-modda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

20 26 yil « 25 » mart № 114 Toshkent sh.

Автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро ташишнинг рухсатнома тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида

Автомобиль транспортида юк ва йўловчиларни халқаро ташиш соҳасида банд бўлган тадбиркорлик субъектларига янада қулай шарт-шароитлар яратиш, ички ва ташқи бозорларда уларнинг рақобатбардошлигини ошириш мақсадида, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг транспорт-логистика тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2025 йил 27 январдаги ПҚ–28-сон қарорига мувофиқ Вазирлар Маҳкамаси **қарор қилади**:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг транспорт-логистика тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2025 йил 27 январдаги ПҚ–28-сон қарорига мувофиқ:

автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро ташишга хорижий ёки кўп томонлама **рухсатномаларни миллий ташувчилар орасида тақсимлаш, бериш ва улардан фойдаланиш тизимини янада такомиллаштириш**;

хорижий ёки кўп томонлама **рухсатномаларни** миллий ташувчиларга босқичма-босқич **чегарада бериш амалиётини йўлга қўйилиши** белгиланганлиги **маълумот учун қабул қилинсин**.

2. Шундай тартиб жорий этилсинки, унга мувофиқ **2026 йил 1 июндан бошлаб**:

автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро ташишга хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни **чегара божхона постларида** чиқиш йўналишида ҳаракатланаётган автотранспорт воситасига **халқаро ташиш йўналиши** бўйича бериш амалиёти йўлга қўйилади;

халқаро йўналишларда қатновни режалаштириш учун автотранспорт воситасига юк ортишдан олдин миллий ташувчиларга Транспорт вазирлигининг **автоматлаштирилган ахборот тизимида** (кейинги ўринларда – ахборот тизими) зарур бўлган барча хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни **10 кун муддатга банд қилиш** имконияти яратилади;

хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни миллий ташувчиларга **бериш, қабул қилиш, сақлаш ва ахборот тизимида қайд этиш** учун чегара божхона постларида **рухсатномаларни бериш пунктлари** ташкил этилади ҳамда уларнинг рўйхати Транспорт вазирлиги ва Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Божхона қўмитаси томонидан тасдиқланади;

ўтган ҳисобот йилида миллий ташувчиларнинг юк ва йўловчи ташиш географиясидан келиб чиққан ҳолда хорижий давлатлар кесимида **халқаро ташиш йўналишлари рўйхати** Транспорт вазирлиги томонидан шакллантирилади;

рухсатномаларни бериш пунктлари ва халқаро ташиш йўналишлари **рўйхатлари** ҳамда хорижий давлатлар кесимида халқаро ташиш тури бўйича **танқис бўлган** хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар тўғрисидаги маълумотлар ахборот тизимида эълон қилиб борилади.

3. Қуйидагиларни назарда тутувчи Автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро ташишга рухсатномаларни айирбошлаш, бериш ва улардан фойдаланиш тартиби тўғрисидаги низом **1-иловага** мувофиқ тасдиқлансин:

хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни чегара божхона постларида чиқиш йўналишида ҳаракатланаётган автотранспорт воситасига халқаро ташиш йўналиши бўйича ахборот тизими орқали бериш тартиби;

автотранспорт воситасига юк ортишдан олдин миллий ташувчиларга ахборот тизимида зарур бўлган барча хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни **белгиланган муддатгача банд қилиш тартиби**;

рухсатномаларнинг электрон шаклини айирбошлаш – "**e-Permit**" тизимининг ҳуқуқий асослари;

миллий ташувчиларнинг рейтингини шакллантириш, юритиш, эълон қилиш ва ундан фойдаланиш тартиби;

хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни ёки улар бўйича ҳуқуқларни бошқа шахсларга берган ҳамда уларни белгиланган муддатларда қайтармаган миллий ташувчиларга нисбатан бундай рухсатномалар берилишини тўхтатиб туриш бўйича **санкцияларни инсон омилисиз автоматик равишда** қўллаш;

Ўзбекистон рухсатномаларини хорижий ташувчиларга бериш, улардан фойдаланиш ҳамда юкларни халқаро ташиш турларини аниқлаш тартиби.

4. 2026 йилги хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни юк ташишга аниқ буюртмаси бўлмаган миллий ташувчилар қўлида тўпланиб, **сунъий танқислик вужудга келишини олдини олиш** мақсадида, **2026 йил 1 июнга қадар** шундай тартиб ўрнатилсинки, унга мувофиқ:

а) 2026 йилги айирбошлаш квотаси доирасида олинган, ташиш тури бўйича **умумий миқдори 1000 та ва ундан кам** бўлган хорижий рухсатномалар фақатгина **халқаро ташиш йўналиши бўйича**:

экспорт товарлари ортилган автотранспорт воситаси учун тегишли божхона декларацияси мавжуд бўлганда **барча миллий ташувчиларга** берилади;

экспорт товарлари билан чиқиб кетаётган автотранспорт воситаси учун бошқа давлатдан импорт ёки учинчи давлатдан/га юкларни ташишга хорижий рухсатномалар қайтиш йўналиши географик яқин бўлганда, 2025 йил якунига кўра **даромад коэффициенти 1,0 ва ундан юқори бўлган миллий ташувчиларга** қўшимча берилади;

б) 2026 йилги айирбошлаш квотаси доирасида олинган, **умумий миқдори 1000 тадан** кўп бўлган учинчи давлатга/дан юк ташишга хорижий рухсатномалар республика ҳудудидан:

экспорт ёки транзит товарлари билан чиқиб кетаётган автотранспорт воситаси учун қайтиш йўналиши географик яқин бўлганда **барча миллий ташувчиларга** берилади;

бўш чиқиб кетаётган автотранспорт воситаси учун 2025 йил якунига кўра **даромад коэффициенти 0,7 ва ундан юқори бўлган миллий ташувчиларга** берилади;

в) қолган барча рухсатномалар – миллий ташувчиларнинг аризасига кўра юкларни халқаро ташишда фойдаланиладиган (тегишли лицензия карточкаси мавжуд бўлган) автотранспорт воситалари сони доирасида халқаро ташиш йўналиши бўйича берилади;

г) барча хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларда ташувчининг номи сиёҳли принтер орқали чоп этилади ҳамда улар олинган кундан бошлаб **90 календарь кун ичида** Транспорт вазирлигига қайтарилади;

д) қуйидаги ҳолатларда **ахборот тизимида автоматик равишда** барча хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар миллий ташувчига берилиши тўхтатиб турилади:

олинган хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар белгиланган муддатларда қайтарилмаганда – **уларни қайтарилгунига қадар** (йўл-транспорт ҳодисаси, ёнғин, табиий офатлар натижасида (ваколатли орган томонидан тасдиқланган ҳужжат асосида) йўқ бўлганлиги ҳолатлардан ташқари);

олинган хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни ёки улар бўйича ҳуқуқлар учинчи шахсларга берилганлиги, шунингдек уларни бузилганлиги (ўчирилган, бўялган, ташувчининг номини ўқиш имконияти мавжуд бўлмагани) аниқланганда – **уч ой муддатга**.

5. Дунёдаги геосиёсий кескинликнинг кучайиши, халқаро юк ташишлар **бозори конъюнктурасининг ўзгариши** ҳамда **хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларнинг ишлатилиш даражасини инобатга олган ҳолда** Транспорт вазирлигига ушбу қарорнинг 4-бандида назарда тутилган миллий ташувчиларнинг даромад коэффициенти қийматларини ўзгартириш ҳуқуқи берилсин.

6. Транспорт вазирлиги:

а) **бир ҳафта муддатда** қуйидаги маълумотларни миллий ташувчилар учун ахборот тизимида эълон қилсин:

Солиқ қўмитаси билан бирга шакллантириладиган миллий ташувчиларнинг **даромад коэффициенти кўрсаткичлари** тўғрисида;

2026 йил учун келиб тушган барча хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар мавжудлиги тўғрисида;

б) **ўн кун муддатда** ахборот тизимида хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларини **10 кун муддатга** банд қилиш имкониятини яратсин;

в) **бир ой муддатда** Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Божхона қўмитаси ҳамда Давлат хавфсизлик хизмати Чегара қўшинлари билан биргаликда миллий ташувчиларга хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар бериладиган **чегара божхона постлари рўйхатини** шакллантириб, рухсатномаларни бериш пунктларини ташкил этишга қаратилган **комплекс чора-тадбирлар дастурини** Вазирлар Маҳкамасига тасдиқлаш учун киритсин.

г) **ўн кун муддатда** пилот лойиҳа сифатида **миллий ташувчилар рейтингини** шакллантириб, натижаларини эълон қилсин.

7. Белгилансинки:

2025 йилги хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни ёки улар бўйича ҳуқуқларни учинчи шахсларга берилишига, шунингдек уларни бузилишига (ўчирилишига, бўялишига) ҳамда йўқолишига йўл қўйган миллий ташувчиларга, айнан шу давлатнинг барча рухсатномаларини берилиши ушбу ҳолатлар аниқланган кундан бошлаб **уч ой муддатга** тўхтатилади;

ушбу қарор билан тасдиқланаётган Автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро ташишга рухсатномаларни айирбошлаш, бериш ва улардан фойдаланиш тартиби тўғрисидаги низом **2026 йил 1 июндан эътиборан кучга киради**;

8. Транспорт вазирлигининг:

миллий ташувчилар эҳтиёжидан келиб чиққан ҳолда, Хитой томони билан учинчи давлатга/дан юк ташишга рухсатномаларни айирбошлашни йўлга қўйиш;

Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан Хитой Халқ Республикаси Ҳукумати ўртасида халқаро автомобиль қатнови тўғрисидаги Битим (2017 йил 12 май Пекин шаҳри) қоидаларини ушбу ташувларга ҳам татбиқ этиш тўғрисидаги **таклифларига розилик берилсин**.

9. Транспорт вазирлиги ҳамда Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Божхона қўмитаси **икки ой муддатда** хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни олиш учун миллий ташувчилар томонидан юбориладиган аризада кўрсатилган маълумотларни белгиланган тартибда расмийлаштирилган божхона декларацияси билан мувофиқлигини автоматик равишда текшириш мақсадида тегишли ахборот тизимлари ўртасида электрон маълумот алмашинувини йўлга қўйсин.

10. Транспорт вазирлиги:

уч ой муддатда Ташқи ишлар вазирлиги билан биргаликда миллий ташувчилар эҳтиёжидан келиб чиққан ҳолда, тегишли хорижий давлатларнинг ваколатли органлари билан жорий ва келгуси йиллар учун танқис рухсатномаларнинг айирбошлаш квотасини **камида 2 баробарга** ошириш чораларини кўрсин;

жорий йил 1 июнга қадар Хитой, Туркманистон, Тожикистон томонлари билан электрон рухсатномаларни айирбошлаш – **"e-Permit"** тизимини жорий этсин;

жорий йил 1 июлга қадар Ўзбекистон халқаро автомобилда ташувчилар уюшмаси билан биргаликда халқаро ва минтақавий бозорларга чиқишни таъминлайдиган ташқи савдо йўналишларидаги асосий транзит давлатлар билан икки томонлама ва/ёки транзит юк ташишларни рухсатномасиз тизимга ўтказиш бўйича музокаралар олиб борсин;

икки ой муддатда манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда ўзлари қабул қилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ушбу қарорга мувофиқлаштирсин;

уч ой муддатда Адлия вазирлиги билан биргаликда илғор хорижий тажрибани ўрганган ҳолда, автомобилда юкларни халқаро ташиш фаолиятини амалга оширишда лицензия талаблари ва шартларини (ҳайдовчиларда малака сертификатининг мавжудлигини) такомиллаштириш юзасидан таклифларни Вазирлар Маҳкамасига киритсин;

Ўзбекистон халқаро автомобилда ташувчилар уюшмаси билан биргаликда ушбу қарорнинг мақсадлари, моҳияти ва амалий аҳамияти миллий ташувчилар ўртасида кенг ёритилишини таъминласин.

11. Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг **2-иловага** мувофиқ айрим қарорлари ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин.

12. Мазкур қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринбосари А.Ж. Раматов ҳамда транспорт вазири И.Р. Махкамов зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикасининг
Бош вазири **А. Арипов**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
UMUMIY BO'LIM
1

Вазирлар Маҳкамасининг
2026 йил “ 25 ” мартдаги 114-сон қарорига
1-илова

Автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро ташишга рухсатномаларни айирбошлаш, бериш ва улардан фойдаланиш тартиби тўғрисида НИЗОМ

1-боб. Умумий қоидалар

1. Ушбу Низом автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро ташишга рухсатномаларни айирбошлаш, бериш ва улардан фойдаланиш тартибини белгилайди.

Мазкур Низомнинг амал қилиши миллий ва хорижий ташувчиларга татбиқ этилади.

Автомобилда йўловчиларни халқаро мунтазам ташишни ташкил этиш тартиби Ўзбекистон Республикасининг автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро ташиш соҳасидаги халқаро шартномалар билан тартибга солинади.

Автомобилда хавфли, катта ҳажмли ва оғир вазнли юкларни ташиш хусусиятлари алоҳида норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар билан белгиланади.

2. Ушбу Низомда қуйидаги асосий тушунчалардан фойдаланилади:

автотранспорт воситаси:

йўловчиларни, багажни халқаро ташишда – йўловчиларни, багажни ташиш учун мўлжалланган ва ҳайдовчи ўриндиғи билан ҳисоблаганда 9 тадан ортиқ ўриндиққа эга бўлган автотранспорт воситаси (автобус, микроавтобус);

юкларни халқаро ташишда – юкларни ташиш учун мўлжалланган автотранспорт воситаси (юк автомобили, тиркамали юк автомобиллари, шатакчи автомобиллари ёки ярим тиркамали шатакчи автомобиллар);

автомобилда йўловчиларни халқаро мунтазам ташиш – олдиндан келишилган йўналиш, жадвал, тарифлар, миллий ташувчи томонидан йўловчилар чиқариладиган ва тушириладиган тўхташ бекатлари бўйича Ўзбекистон Республикаси давлат чегарасидан ташқарига ёки давлат чегараси ташқарисида автотранспорт воситасида йўловчиларни ва багажни мунтазам ташиш;

автомобилда йўловчиларни халқаро номунтазам ташиш – автомобилда йўловчиларни халқаро мунтазам ташишга тегишли бўлмаган, Ўзбекистон Республикаси давлат чегарасидан ташқарига ёки давлат чегараси ташқарисида автотранспорт воситасида йўловчиларни ва багажни ташиш;

автомобилда юк ва йўловчиларни икки томонлама халқаро ташиш (икки томонлама ташиш) – миллий ташувчига тегишли автотранспорт воситасида Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан хорижий давлат ҳудудига ёки хорижий давлат ҳудудидан Ўзбекистон Республикаси ҳудудига ташиш ҳамда хорижий ташувчига тегишли автотранспорт воситасида ва ушбу автотранспорт воситаси рўйхатга олинган хорижий давлат ҳудудидан Ўзбекистон Республикаси ҳудудига ёки Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан ушбу хорижий давлат ҳудудига ташиш;

автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро ташиш (халқаро ташиш) – юк ёки йўловчиларни икки ёки ундан ортиқ давлатлар ҳудудлари бўйлаб автотранспорт воситасида ташиш, шунингдек, юксиз (йўловчисиз) автотранспорт воситасининг икки ёки ундан ортиқ давлатлар ҳудуди бўйлаб ўтиши;

автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро транзит ташиш (транзит ташиш) – автотранспорт воситасининг юк ёки йўловчилар билан маълум бир давлат ҳудудидан ўтиб кетиши, бунда жўнаш ва бориш пунктлари ушбу давлат ҳудудидан ташқарида жойлашган бўлади;

айирбошлаш квотаси – хорижий давлатнинг ваколатли органи билан айирбошлаш учун бир йилга ўзаро келишилган рухсатномалар сони;

АТР битими – 1970 йил 1 сентябрда Женева шаҳрида имзоланган Тез бузиладиган озиқ-овқат маҳсулотларини халқаро ташишлар тўғрисидаги ва ушбу ташишлар учун мўлжалланган махсус транспорт воситалари ҳақидаги битим;

АТР гувоҳномаси – мамлакатнинг АТР битимини амалга ошириш учун масъул бўлган ваколатли органи томонидан бериладиган ва автотранспорт воситаси АТР битими талабларига мослигини тасдиқловчи ҳужжат;

божхона декларацияси – божхона назорати мақсадлари учун зарур бўлган маълумотлар кўрсатилган ҳужжат;

даромад коэффициенти – миллий ташувчининг охирги тўлиқ ўн икки ой мобайнида бир автотранспорт воситаси ҳисобига юкларни халқаро ташиш бўйича хизматлардан олган даромадини республикадаги барча миллий ташувчиларнинг бир автотранспорт воситаси ҳисобига юкларни халқаро ташиш бўйича хизматлардан олган ўртача даромадига бўлган нисбати;

“E-авто рухсатнома” автоматлаштирилган ахборот тизими (ахборот тизими) – рухсатномаларнинг берилиши, ҳисобга олиниши ҳамда мониторинг қилинишини назарда тутувчи Ўзбекистон Республикаси ваколатли органининг “Uztrans” ягона интерактив ахборот тизимининг бир қисми;

e-Permit электрон тизими – хорижий давлатларнинг ваколатли органлари билан рухсатномаларнинг электрон шаклини айирбошлаш имконини берувчи ўзаро интеграциялашган ахборот тизими;

кўп томонлама рухсатнома – бундай рухсатнома эгасига тегишли бўлган автотранспорт воситасининг кўп томонлама рухсат бериш тизимига аъзо бўлган ҳар қандай давлат ҳудуди бўйлаб ўтишига рухсатнома;

масъул ходим – Ўзбекистон Республикаси ваколатли органининг масъул ходими;

миллий ташувчи – Ўзбекистон Республикаси ҳудудида рўйхатга олинган, мулк ҳуқуқи билан ёки бошқа қонуний асосларда унга тегишли автотранспорт воситасидан юк ёки йўловчиларни халқаро ташишда фойдаланувчи ва бунга махсус рухсатномага (лицензияга) эга бўлган юридик ёки жисмоний шахс;

оператор – рухсатномаларни бериш пунктида фаолият олиб борувчи, шартнома асосида жалб этилган Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Божхона қўмитасининг "Божхона-сервис" давлат муассасаси;

рухсатнома – маълум бир давлат ҳудудида халқаро ташишни амалга ошириш учун бошқа давлат ҳудудида рўйхатга олинган автотранспорт воситасидан фойдаланиш ҳуқуқини берувчи ҳужжат (қоғоз ёки электрон шакли);

рухсатномаларни бериш пункти – хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни миллий ташувчиларга бериш, қабул қилиш, сақлаш ва ахборот тизимида қайд этиш учун чегара божхона постларида ташкил этилган пункт;

танқис рухсатномалар – миллий ташувчиларнинг йиллик эҳтиёжини қондирмайдиган миқдорда айирбошланган хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар;

учинчи давлат ҳудудидан ёхуд учинчи давлат ҳудудига автомобилда юкларни халқаро ташиш (учинчи давлатга/дан ташиш) – жўнатувчи мамлакатда юкланган ва қабул қилувчи мамлакатда туширилган, жўнаш ёки қабул қилиш мамлакати ҳисобланмайдиган мамлакатда рўйхатга олинган автотранспорт воситаларида юкларни ташиш;

халқаро товар-транспорт юк хати – халқаро йўлларда юкларни ташиш шартномаси тўғрисидаги конвенцияда назарда тутилган, шу жумладан, ташилаётган юк, унинг жўнатувчиси ва қабул қилувчиси, ташувчиси ва ташувни амалга оширувчи автотранспорт воситаси тўғрисида, шунингдек, уни ортиш ва тушириш жойлари ҳақидаги маълумотлар мавжуд бўлган ҳужжат;

хорижий рухсатнома – хорижий давлат ҳудудида халқаро ташишни амалга ошириш учун Ўзбекистон Республикаси ҳудудида рўйхатга олинган автотранспорт воситасидан фойдаланиш ҳуқуқини берувчи ҳужжат;

хорижий ташувчи – хорижий давлат ҳудудида рўйхатга олинган, мулк ҳуқуқи билан ёки бошқа қонуний асосларда унга тегишли автотранспорт воситасидан юк ёки йўловчиларни халқаро ташишда фойдаланувчи юридик ёки жисмоний шахс;

электрон ишончнома – хўжалик юритувчи субъектлар томонидан товар-моддий бойликларни олиш учун расмийлаштириладиган электрон ҳужжат;

Ўзбекистон Республикасининг ваколатли органи – Ўзбекистон Республикаси Транспорт вазирлиги;

Ўзбекистон рухсатномаси – Ўзбекистон Республикаси ҳудудида халқаро ташишни амалга ошириш учун хорижий давлат ҳудудида рўйхатга олинган автотранспорт воситасидан фойдаланиш ҳуқуқини берувчи ҳужжат.

2-боб. Автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро ташишнинг умумий шартлари

3. Ўзбекистон Республикаси ҳудудида хорижий ташувчилар томонидан автомобилда халқаро ташишлар Ўзбекистон Республикасининг автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро ташиш соҳасидаги халқаро шартномалари қоидаларига ҳамда Ўзбекистон Республикасининг автомобиль транспорти тўғрисидаги қонунчилигига мувофиқ амалга оширилади.

4. Ўзбекистон Республикасининг автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро ташиш соҳасидаги халқаро шартномаларида икки томонлама ва/ёки транзит ташишларни рухсатномасиз амалга ошириш назарда тутилган тақдирда, бундай ташиш ташиш турини тасдиқловчи халқаро товар-транспорт юк хати асосида амалга оширилади.

5. Ўзбекистон рухсатномаларида автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро ташиш турлари ва улардан фойдаланиш шартлари кўрсатилади.

6. Ўзбекистон ва хорижий рухсатномалар қуйидаги асосий турларга бўлинади:

а) икки томонлама/транзит юк ташиш учун;

б) учинчи давлатга/дан юк ташиш учун;

в) универсал (икки томонлама, транзит ва учинчи давлатга/дан юк ташиш);

г) икки томонлама юк ташиш учун;

д) транзит юк ташиш учун;

е) икки томонлама қатновларда йўловчиларни номунтазам ташиш учун;

ж) транзит қатновларда йўловчиларни номунтазам ташиш учун;

Қайд этилган рухсатномалардан ташқари Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари ҳамда автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро ташиш масалалари бўйича қўшма/аралаш комиссияларнинг протокол қарорлари билан рухсатноманинг бошқа турлари назарда тутилиши мумкин.

7. Хорижий ташувчиларга тегишли бўлган, шу жумладан, улар томонидан Ўзбекистон Республикаси ҳудудига вақтинча олиб кирилган автотранспорт воситаларида, агар Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномаларида бошқа ҳолат назарда тутилмаган бўлса, Ўзбекистон Республикаси ҳудудида жойлашган пунктлар орасида йўловчи ва юкларни ташишга йўл қўйилмайди.

8. Автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро ташишларни амалга оширувчи ташувчилар ўз давлатида рўйхатга олинган ва фарқловчи белгиларига эга бўлган автотранспорт воситаларидан фойдаланишлари лозим, бунда тиркамалар ва ярим тиркамалар бошқа давлатда рўйхатга олинган ва фарқловчи белгиларга эга бўлиши мумкин.

9. Автомобилда йўловчиларни халқаро мунтазам ташишлар Ўзбекистон Республикаси ва хорижий давлатнинг ваколатли органлари ўртасидаги келишув бўйича ташкил этилади.

10. Ўзбекистон Республикасининг ваколатли органи Ўзбекистон Республикасининг автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро ташиш соҳасидаги халқаро шартномалари бўйича мажбуриятларини бажариш доирасида:

хорижий давлатларнинг ваколатли органлари билан биргаликда айирбошлаш квотасини аниқлайди;

хорижий давлатларнинг ваколатли органлари билан рухсатномаларни айирбошлашни ташкил этади;

миллий ташувчиларнинг ахборот тизимидаги шахсий кабинетига хорижий давлатларнинг ваколатли органларидан олинган хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар (хорижий давлат ёки кўп томонлама рухсатнома номи, турига қараб миқдори ва амал қилиш муддати, юк ташишнинг алоҳида шартлари) ҳамда хорижий давлатлар ҳудудидаги чекловлар тўғрисидаги маълумотларни мунтазам равишда жойлаштириб боради;

ахборот тизими орқали миллий ташувчиларга хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни беради, қабул қилади ва уларнинг ҳисобини юритади.

11. Хорижий давлатларнинг ваколатли органлари билан рухсатномаларни айирбошлаш, улардан олинган хорижий рухсатномаларни миллий ташувчиларга бериш, фойдаланиш, қабул қилиш, сақлаш ва уларнинг ҳисобини юритиш ушбу Низомга 1-иловадаги схема бўйича амалга оширилади.

3-боб. Рухсатномаларни айирбошлаш тартиби

12. Ўзбекистон Республикасининг ваколатли органи:

а) ҳар йили 1 октябрга қадар қуйидаги маълумотларни чуқур таҳлил қилган ҳолда келгуси йил учун дастлабки айирбошлаш квотасини шакллантиради:

сўнгги уч йилда, шу жумладан жорий йилда миллий ташувчилар томонидан хорижий рухсатномаларни олиш ва ишлатилиш даражаси;

анъанавий транспорт йўлакларида вужудга келаётган чекловлар ва муқобил транспорт йўлакларини ривожлантириш истиқболларини инобатга олган ҳолда келгуси йилда автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро ташишнинг аниқ прогнозлари;

б) ҳар йили 1 декабрга қадар хорижий давлатларнинг ваколатли органлари билан биргаликда айирбошлаш квотасини аниқлайди ва уларни айирбошлаш жараёнини келишиб олади;

в) ҳар йили 31 декабрга қадар хорижий давлатларнинг ваколатли органлари билан рухсатномалари айирбошлашни амалга оширади;

г) йил давомида хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар ишлатилиш даражасидан келиб чиқиб, тури бўйича умумий сони камида 20 фоиз қолганда хорижий давлатнинг ваколатли органлари билан жорий йил учун қўшимча рухсатномалар айирбошлашни ташкил этади.

13. Ушбу Низомга 2-иловадаги рўйхатда келтирилган хорижий рухсатномалар танқис рухсатномалар ҳисобланади ва уларнинг ишлатилиш даражасига қараб ушбу рўйхат ҳар йили қайта кўриб чиқилади.

4-боб. Хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни олиш ва улардан фойдаланиш тартиби

14. Миллий ташувчи хорижий ёки кўп томонлама рухсатномани олиш учун ахборот тизимидаги шахсий кабинетида:

халқаро ташишга жалб қилинадиган автотранспорт воситаси турган давлатни, давлат рақамини, юк ортиладиган (жўнаш пункти) ва тушириладиган (бориш пункти) давлатларни ҳамда халқаро ташиш йўналишини белгилайди;

белгилаган халқаро ташиш йўналиши бўйича зарур бўлган хорижий рухсатномаларни 10 календарь кун муддатга банд қилади;

ушбу муддат тугашидан камида 3 кун олдин хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни олиш учун ушбу Низомга 3-иловага мувофиқ тўлдирган ҳолда ариза юборади.

15. Аризада қуйидагилар кўрсатилади/илова қилинади (юкланади):

автотранспорт воситаси турган давлат ва давлат рақами;

автотранспорт воситасига юк ортилган ҳолда республика ҳудуди бўйлаб ҳаракатланганда – божхона декларацияси (экспорт ва/ёки транзит) рўйхат рақами;

автотранспорт воситасига хорижий давлат ҳудудида юк ортилган бўлса – белгиланган тартибда расмийлаштирилган халқаро товар-транспорт юк хати;

хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни олиб кетиладиган жой (Ўзбекистон Республикасининг ваколатли органи ёки рухсатномаларни бериш пунктларидан бири);

Илова қилинадиган ҳужжатлар PDF, PNG ёки JPEG форматда бўлиши керак.

Ахборот тизимида аризада кўрсатилган автотранспорт воситаси учун ваколатли орган томонидан берилган ATP гувоҳномаси мавжудлиги аниқланса, ушбу ариза автоматик равишда биринчи навбатда кўриб чиқилади.

16. Миллий ташувчидан ушбу Низомнинг 15-бандида кўрсатилмаган бошқа маълумотларни/ҳужжатларни талаб қилишга йўл қўйилмайди.

17. Ариза қуйидаги ҳолларда автоматик равишда қабул қилинмайди:

нотўғри ёки ёлғон маълумотлар киритилганлиги ахборот тизими орқали аниқланганда;

хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар банд қилинмаганда;

ушбу Низомнинг 39 ва 40-бандларида назарда тутилган йиғимлар тўланмаганда;

Ўзбекистон Республикасининг ваколатли органида хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар мавжуд бўлмаганда, бундан ушбу Низомнинг 50-банди иккинчи хатбошисидаги ҳолат мустасно;

ушбу Низомнинг 54-бандига мувофиқ танқис рухсатномаларни беришга оид талаб ва шартларга риоя этилиши тасдиқланмаганда;

ушбу Низомнинг 34-бандига мувофиқ хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар берилиши тўхтатиб турилганда;

миллий ташувчида автотранспорт воситасида юк ва йўловчиларни халқаро ташиш учун лицензия ва (ёки) лицензия карточкалари мавжуд бўлмаганда ёхуд уларнинг амал қилиш муддати тўхтатилганда.

Мазкур бандда кўрсатилганлардан ташқари бошқа асослар билан аризани қабул қилмасликка йўл қўйилмайди.

18. Ариза масъул ходим томонидан ариза олинган кундан бошлаб бир иш куни ичида кўриб чиқилади ва уни қаноатлантириш ёки рад этиш ҳақида қарор қабул қилинади.

Автотранспорт воситасига юк ортилган ҳолда республика ҳудуди бўйлаб ҳаракатланганда – аризада кўрсатилган автотранспорт воситасининг давлат рақами, юк ортилган ва тушириладиган давлатлар номи божхона декларациясида кўрсатилган маълумотларга мувофиқлиги Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Божхона қўмитасининг ва Ўзбекистон Республикасининг ваколатли органи ахборот тизимлари ўртасида маълумот алмашинувини ташкил этиш орқали автоматик равишда текширилади ва тегишли қарор инсон омилисиз қабул қилинади.

Қарор ахборот тизими орқали реал вақт режимида автоматик равишда миллий ташувчининг шахсий кабинети ва электрон почта манзилига юборилади.

19. Хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар ахборот тизими орқали миллий ташувчининг муайян автотранспорт воситасига битта халқаро ташиш йўналиши учун берилади.

Бунда, ушбу автотранспорт воситаси учун навбатдаги халқаро ташиш йўналишига хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар, аввал олинганлари қайтарилгандан ёки ушбу Низомнинг 29-бандига мувофиқ ахборот тизимига юкланган сўнг, банд қилишга рухсат берилади.

20. Аризани қаноатлантириш қуйидаги ҳолатларда рад этилади:

хорижий ёки кўп томонлама рухсатнома(лар)ни олиш учун зарур бўлган ҳужжатларнинг миллий ташувчи томонидан тўлиқ бўлмаган ҳажмда тақдим этилганлиги;

миллий ташувчи томонидан тақдим этилган ҳужжатларда нотўғри ёки бузиб кўрсатилган маълумотлар мавжудлиги.

Бошқа асосларга кўра, шу жумладан мақсадга мувофиқ эмас деган сабаблар билан рад этишга йўл қўйилмайди.

21. Аризани рад этиш миллий ташувчига электрон тарзда ахборот тизими орқали рад этиш сабаблари кўрсатилган ҳолда амалга оширилади.

22. Миллий ташувчи рад этилган кундан бошлаб 24 соат ичида аризани кўриб чиқиш учун йиғимни тўламасдан, рад этиш сабабларини бартараф этган ҳолда аризани қайта юбориш ҳуқуқига эга.

23. Аризани такроран кўриб чиқиш чоғида масъул ходим томонидан ариза берувчи олдин ахборот тизими орқали йўлланган аризада кўрсатилмаган рад этиш сабабларини келтиришга йўл қўйилмайди, илгари қайд этилган сабабларнинг бартараф этилганлигини тасдиқловчи ҳужжатлар билан боғлиқ рад этиш сабабларини келтириш бундан мустасно.

24. Қуйидаги ҳолатларда банд қилинган хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар ахборот тизимида автоматик равишда бекор қилинади:

миллий ташувчи томонидан ахборот тизими орқали бекор қилиш тўғрисида мурожаат қилинганда;

миллий ташувчи томонидан белгиланган муддатда ариза юборилмаганда;

белгиланган муддатда ушбу Низом талабларига мувофиқ хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар аризада кўрсатилган жойдан (Ўзбекистон Республикасининг ваколатли органи, рухсатномаларни бериш пунктларидан биридан) олиб кетилмаганда (почта орқали юборилган ҳолатлардан ташқари).

25. Ушбу Низомнинг 24-бандига мувофиқ банд қилинган хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар бекор қилинганда, ушбу миллий ташувчига айнан шу турдаги хорижий давлатнинг (бундан қўшни давлатларнинг рухсатномалари мустасно) рухсатномаларини банд қилиш 5 кун муддатга, ушбу ҳолат бир ой ичида икки маротаба содир бўлса 10 кун муддатга, уч ва ундан кўп маротаба содир бўлса 15 кун муддатга чекланади.

Бунда, автотранспорт воситасининг божхона назоратини амалга оширишга қўшимча вақт талаб этилса, банд қилинган муддат тегишли муддатга узайтирилади, бундан божхона тўғрисидаги қонунчиликни бузиш билан боғлиқ ҳолатлар мустасно.

26. Ариза қаноатлантирилганда, берилиши лозим бўлган хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар банд қилинган муддат тугашидан аввал аризада кўрсатилган жойдан олиб кетилиши керак.

Республика ҳудудидаги автотранспорт воситаси учун хорижий ва кўп томонлама рухсатномалар фақатгина рухсатномаларни бериш пунктидан олинади, қолган ҳолатларда – миллий ташувчининг ихтиёрига кўра аризада кўрсатилган жойдан.

27. Рухсатномаларни бериш пунктида оператор томонидан хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни берилиши қуйидаги тартибда амалга оширилади:

юк билан келган автотранспорт воситаси учун расмийлаштирилган божхона декларацияси аризадаги маълумотларга мувофиқ бўлганда, ахборот тизими автоматик равишда операторга рухсатномаларни беришга рухсат беради, мувофиқ бўлмаганда – рухсатномаларни беришни рад этади;

юксиз келган автотранспорт воситасининг давлат рақами аризадаги маълумотларга мувофиқ бўлганда, ахборот тизими автоматик равишда операторга рухсатномаларни беришга рухсат беради, мувофиқ бўлмаганда – рухсатномаларни беришни рад этади;

оператор томонидан хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар фақат электрон ишончнома расмийлаштирилган шахсга берилади ва бу ҳақида ахборот тизимида тегишли белги қўйилади.

28. Миллий ташувчига хорижий ёки кўп томонлама рухсатнома берилганда, тегишли катакларда масъул ходим ёки оператор томонидан мажбурий тарзда миллий ташувчининг номи ва берилган сана сиёҳли принтер орқали чоп этилади, Ўзбекистон Республикасининг ваколатли органи муҳри ва мансабдор шахси имзоси қўйилади ҳамда унинг электрон нусхаси ахборот тизимига юкланади.

Хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларга, шу жумладан, ишлатмасдан қайтарилганларга, агар автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро ташиш масалалари бўйича қўшма/аралаш комиссиялар протокол қарорларида бошқа ҳолатлар назарда тутилмаган бўлса, тузатишлар киритишга йўл қўйилмайди.

29. Халқаро ташиш йўналиши бўйича автотранспорт воситаси белгиланган манзилга етиб борганда, фойдаланилган хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар зарур тарзда ва тўғри тўлдирилган ҳолда ҳамда белгиланган тартибда расмийлаштирилган халқаро товар-транспорт юк хатини электрон нусхаси миллий ташувчи томонидан ахборот тизимига юкланади.

Юкланадиган ҳужжатлар PDF, PNG ёки JPEG форматда ва уларда қайд этилган маълумотлар аниқ кўринадиган бўлиши керак.

30. Миллий ташувчи хорижий давлатлар ҳудудига киришдаги тақиқ ва чекловлар мавжуд бўлганда, олинган хорижий ёки кўп томонлама рухсатномадан фойдалана олмаслиги ҳақида дарҳол ахборот тизимига маълумот киритиши лозим.

Бундай чекловлар ва тақиқлар хорижий давлатларнинг ваколатли органлари орқали тасдиқланган тақдирда, бошланган халқаро ташишни якунлаш учун ушбу миллий ташувчига ишлатилмаган транзит юк ташиш учун хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар ўрнига бошқаларини олиш ҳуқуқи берилади.

31. Хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар улар берилган кундан бошлаб 90 календарь кундан кечикмай Ўзбекистон Республикасининг ваколатли органига ёки рухсатномаларни бериш пунктига қайтарилиши лозим. Бунда, ишлатилмаган рухсатномаларнинг электрон шакли автоматик равишда бекор қилинади ва умумий тартибда миллий ташувчиларга берилади.

Фойдаланилган хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар зарур тарзда ва тўғри тўлдирилган ҳолда Ўзбекистон Республикасининг ваколатли органига ёки рухсатномаларни бериш пунктига ушбу бандда назарда тутилган муддатдан илгари қайтарилиши мумкин.

32. Белгиланган тартибда қайтарилган ҳар бир хорижий ёки кўп томонлама рухсатноманинг (олди ва орқа томони) электрон нусхаси масъул ходим ёки оператор томонидан ахборот тизимига 24 соат ичида юкланади.

Ахборот тизимига юкланган ҳар бир хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни учинчи шахсга берилганлиги, шунингдек уларни бузилганлиги (ўчирилгани, бўялгани, ташувчининг номини ўқиш имконияти мавжуд бўлмагани), уларнинг берилган вақтдаги электрон нусхаси билан солиштиришган ҳолда автоматик равишда аниқланади ва жамоатчилик назорати учун бошқа миллий ташувчиларга холисона текшириш имконияти яратилади.

33. Хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни ёки улар бўйича ҳуқуқларни учинчи шахсларга бериш тақиқланади.

34. Қуйидаги ҳолатларда ахборот тизимида автоматик равишда миллий ташувчига унга берилган:

хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар белгиланган муддатларда қайтарилмаганда – уларни қайтарилгунига қадар (йўл-транспорт ҳодисаси, ёнғин, табиий офатлар натижасида (ваколатли орган томонидан тасдиқланган ҳужжат асосида) йўқ бўлганлиги ҳолатлардан ташқари) қайтарилмаган давлатнинг рухсатномалари ва барча танқис рухсатномалар берилиши тўхтатилади;

хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни ёки улар бўйича ҳуқуқлар учинчи шахсларга берилганлиги, шунингдек уларни бузилганлиги (ўчирилгани, бўялгани, ташувчининг номини ўқиш имконияти мавжуд бўлмагани) аниқланганда – олти ой муддатга, йил давомида қайта аниқланганда – ўн икки ой муддатга барча хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар берилиши тўхтатилади.

Бунда, учинчи шахсга берилган, шунингдек бузилган хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар расмийлаштирилган автотранспорт воситаси ахборот тизимида блокланади ва унга ушбу бандда назарда тутилган муддатларда бошқа миллий ташувчи таркибида ҳам рухсатномаларни расмийлаштиришга йўл қўйилмайди.

Тақиққа тушган миллий ташувчилар ва автотранспорт воситалари ахборот тизимида ва Ўзбекистон Республикаси ваколатли органининг расмий веб-сайтида ошкора эълон қилиб борилади.

35. Хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни беришни тўхтатиб туриш тўғрисидаги тақиқни бекор қилиш учун миллий ташувчи томонидан Ўзбекистон Республикаси ваколатли органининг ҳисоб рақамига бундай тақиқни қўйилишига сабаб бўлган ҳар бир рухсатнома учун базавий ҳисоблаш миқдорининг юз баравари миқдорида ихтиёрий равишда (шахсий ҳисоб рақамидан) тўлов амалга оширилиши мумкин.

5-боб. Икки томонлама йўловчи ташиш учун рухсатнома бланкасини олиш тартиби

36. Автотранспорт воситасида йўловчиларни халқаро номунтазам ташишлар Йўловчилар ва багажларни автомобилда халқаро ташиш тўғрисидаги Конвенция билан тартибга солинади.

37. Миллий ташувчи икки томонлама ва/ёки транзит қатновларда йўловчиларни номунтазам ташиш учун хорижий рухсатномаларни олиш учун ахборот тизимидаги шахсий кабинетида:

халқаро ташишга жалб қилинадиган автотранспорт воситаси турган давлатни, йўловчилар чиқадиган ва тушириладиган давлатларни ҳамда халқаро ташиш йўналишларини белгилайди;

белгилаган халқаро ташиш йўналиши бўйича зарур бўлган хорижий рухсатномаларни 15 календарь кунига банд қилади;

ушбу муддат тугашидан камида 5 кун олдин хорижий рухсатномаларни олиш учун ушбу Низомга 3-иловага мувофиқ тўлдирган ҳолда ариза юборади.

38. Ахборот тизими орқали юборилган аризани кўриб чиқиш, рухсатномаларни бериш, улардан фойдаланиш ва қайтариш ушбу Низомда белгиланган тартибда амалга оширилади.

6-боб. Хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни беришда ундириладиган тўловлар

39. Аризани кўриб чиқиш учун базавий ҳисоблаш миқдорининг 10 фоизи миқдорида йиғим ундирилади.

40. Ҳар бир бериладиган хорижий ёки кўп томонлама рухсатнома учун базавий ҳисоблаш миқдорининг 25 фоизи миқдорида йиғим ундирилади.

41. Йиғимлар тўланиши миллий ташувчиларнинг ҳисоб рақамидан, мобил электрон тизимлар орқали электрон тарзда ҳамда қонунчиликда тақиқланмаган бошқа усулларда амалга оширилиши мумкин.

Йиғилган маблағлар Ўзбекистон Республикаси ваколатли органининг бюджетдан ташқари жамғармаси ғазначилик ҳисобварағига ўтказилади.

42. Ундирилган йиғим қайтарилмайди ва қайта ҳисоб-китоб қилинмайди.

7-боб. Миллий ташувчилар рейтингини шакллантириш, натижаларини ҳисоблаш ва эълон қилиш тартиби

43. Миллий ташувчилар рейтинги (кейинги ўринларда – рейтинг) Ўзбекистон Республикасининг ваколатли органи томонидан тегишли вазирлик ва идораларнинг ахборот тизимларидан олинган маълумотлар асосида ушбу Низомга 4-иловага мувофиқ “Uztrans” ягона интерактив ахборот тизимида автоматик равишда шакллантирилади.

44. Қуйидагилар рейтинг юритишнинг асосий вазифалари ҳисобланади:

халқаро ташиш соҳасида ишончли, хавфсиз ва сифатли хизмат кўрсатаётган миллий ташувчилар тўғрисидаги маълумотларнинг очиқлигини таъминлаш ва уларни рағбатлантириш;

соҳада яширин иқтисодиёт улушини камайтириш ва кўрсатилаётган хизматлар шаффофлигини ошириш;

миллий ташувчилар ўртасида соғлом рақобат муҳитини шакллантириш ва хизматлар сифатини ошириш.

45. Маълумотларнинг ҳаққонийлиги, ўз вақтида тақдим этилиши ва белгиланган муддатда ижроси таъминланиши учун тегишли вазирлик ва идораларнинг биринчи раҳбарлари масъул ҳисобланади.

46. Ўзбекистон Республикасининг ваколатли органи вазирлик ва идоралар томонидан тақдим этилган миллий ташувчилар тўғрисидаги маълумотларнинг сир сақланишини белгиланган тартибда таъминлайди.

47. Рейтинг баллари қуйидагилардан шакллантирилади:

тегишли рейтинг кўрсаткичлари бўйича энг юқори кўрсаткичга эга бўлган миллий ташувчилар аниқланади;

ҳар бир мезон бўйича кўрсаткич баллар йиғиндисидан иборат бўлади;

ҳар бир мезон бўйича ҳисобланган баллар йиғиндиси миллий ташувчилар рейтингини ифодалайди.

48. Рейтинг натижалари қуйидаги тоифаларга бўлинади:

ишончлилик даражаси	**умумий баллар**
юқори даража	60 – 100
ўрта даража	40 – 59
паст даража	39 дан паст

49. Рейтинг натижалари ҳар чорак якуни билан кейинги ойнинг 10-санасига қадар Ўзбекистон Республикаси ваколатли органининг расмий веб-сайтида эълон қилинади.

8-боб. Хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни банд қилиш ва танқис рухсатномалардан фойдаланишнинг алоҳида хусусиятлари

50. Халқаро ташиш йўналиши бўйича жўнаш ёки бориш мамлакатининг рухсатномаси мавжуд бўлмаганда, ушбу халқаро ташиш йўналиш бўйича хорижий рухсатномаларни банд қилишга йўл қўйилмайди.

Агар, халқаро ташиш йўналишидаги транзит давлатнинг рухсатномаси мавжуд бўлмаганда, халқаро ташиш йўналишини ўзгартиришга ёки ундаги мавжуд рухсатномаларни ишлатилишини таъминлаш бўйича масъулиятни ўз зиммасига олган ҳолда уларни банд қилишга рухсат берилади.

51. Ишончлилик даражаси юқори бўлган миллий ташувчилар муайян автотранспорт воситаси учун хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни банд қилишда бир вақтнинг ўзида навбатдаги халқаро ташиш йўналиши бўйича барча рухсатномаларни қўшимча банд қилиш ҳуқуқига эга.

52. Ишончлилик даражаси ўрта бўлган миллий ташувчилар муайян автотранспорт воситаси учун хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни банд қилишда бир вақтнинг ўзида навбатдаги халқаро ташиш йўналиши бўйича танқис бўлмаган рухсатномаларни қўшимча банд қилиш ҳуқуқига эга.

53. Ишончлилик даражаси паст бўлган ёки рейтингда мавжуд бўлмаган миллий ташувчилар томонидан муайян автотранспорт воситаси учун хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни банд қилиш умумий тартибда амалга оширилади.

54. Танқис рухсатномалардан фақатгина қуйидаги ҳолатларда берилади:

а) икки томонлама ва/ёки транзит юк ташишда:

барча миллий ташувчилар томонидан – республиканинг экспорт юкларини ташиш учун божхона юк декларацияси мавжуд бўлганда;

ишончлилик даражаси юқори бўлган миллий ташувчилар томонидан – республиканинг импорт юкларини ташиш учун автотранспорт воситаси хорижий давлат ҳудудида турганда;

б) учинчи давлатдан/га юк ташишда:

ишончлилик даражаси юқори бўлган миллий ташувчилар томонидан – барча халқаро ташишда;

ишончлилик даражаси ўрта бўлган миллий ташувчилар томонидан – автотранспорт воситасига хорижий давлат ҳудудида юк ортилганлигини тасдиқловчи, белгиланган тартибда расмийлаштирилган халқаро товар-транспорт юк хати нусхаси илова қилганда.

9-боб. Ўзбекистон рухсатномаларини хорижий ташувчиларга бериш ва улардан фойдаланиш

55. Ўзбекистон рухсатномалари хорижий ташувчиларга тегишли йилга айирбошланган рухсатномалар ҳисобидан берилади.

Ўзбекистон рухсатномалари жорий календарь йилда ва келгуси йилнинг 31 январигача (ушбу сана ҳам шунга киради) амал қилади, агар Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномаларида ёки икки томонлама келишувларда бошқа ҳолат назарда тутилмаган бўлса.

56. Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари ва қонунчилигига мувофиқ автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро ташиш учун талаб этиладиган Ўзбекистон рухсатномалари, халқаро товар-транспорт юк хатлари ва бошқа ҳужжатлар автотранспорт воситаси Ўзбекистон Республикаси ҳудудига кириб келишидан олдин хорижий ташувчи томонидан тўлдирилиши лозим ва ҳайдовчилари ёнида бўлиши ҳамда назорат қилувчи органлар талабларига мувофиқ автотранспорт воситаси ҳайдовчилари томонидан тақдим этилиши лозим.

57. Хорижий ташувчи Ўзбекистон рухсатномасидан фақат бир марта Ўзбекистон Республикасига кириш ва чиқишда ҳамда амалга оширилаётган автотранспорт воситасида юк ва йўловчиларни халқаро ташишнинг бир тури бўйича фойдаланиши мумкин, агар Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномаларида, шунингдек Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари билан тузилган автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро ташиш масалалари бўйича қўшма/аралаш комиссиялар протокол қарорларида бошқа ҳолат назарда тутилмаган бўлса.

Ўзбекистон рухсатномасида ва халқаро товар-транспорт юк хатида кўрсатилган хорижий ташувчи номи бир-бирига мувофиқ бўлиши лозим.

58. Ўзбекистон рухсатномасининг тўлдирилиши зарур бўлган барча бандларида тўлақонли ва аниқ маълумотлар қайд этилиши лозим.

Ҳеч бўлмаганда битта тўлдирилмаган бандниг мавжудлиги Ўзбекистон Республикаси назорат органлари томонидан рухсатноманинг ҳақиқий эмас деб эътироф этилиши учун асос бўлади.

59. Ўзбекистон Республикаси ҳудуди бўйлаб транзит ҳаракатланаётган хорижий юк автотранспорт воситасининг Ўзбекистон Республикаси ҳудудида йўл-йўлакай юк олишига халқаро ташишни амалга ошириш учун Ўзбекистон рухсатномасининг тегишли тури мавжуд бўлган тақдирдагина рухсат этилади.

60. Ўзбекистон Республикаси ҳудудида фойдаланиш учун мўлжалланган рўйхатга олиш ва фарқловчи белгиларига эга бўлмаган, шу жумладан, юкланган автотранспорт воситаларини олиб киришда Ўзбекистон рухсатномаси талаб этилмайди.

10-боб. Рухсатномаларнинг шакли ва ҳисобини юритиш тартиби

61. Рухсатномалар қоғоз ва электрон шаклда бўлади. Рухсатномаларнинг қоғоз шакли қатъий ҳисобда турадиган ҳужжатлар ҳисобланади ҳамда ҳисобга олиш сериясига, тартиб рақамига ва ҳимояланиш даражасига эга.

62. Ўзбекистон рухсатномаларининг қоғоз шакли Ўзбекистон Республикасининг ваколатли органи томонидан ишлаб чиқилади ва тасдиқланади ҳамда унинг буюртмасига кўра “Давлат белгиси” давлат ишлаб чиқариш бирлашмасида босмахона усулида тайёрланади.

63. Электрон рухсатномалар ахборот тизимида сақланади ва ҳисобга олиш сериясига, тартиб рақамига ва QR-кодга (матрик штрихли код) эга.

64. Рухсатномаларни ҳисобга олиш, сақлаш тартиби Ўзбекистон Республикасининг ваколатли органи томонидан белгиланади.

11-боб. Операторнинг мажбуриятлари

65. Операторнинг мажбуриятлари қуйидагилардан иборат:

хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни фақатгина ахборот тизимида қабул қилинган қарорга мувофиқ бериш;

ахборот тизимига тегишли маълумотларни ҳамда белгиларни ўз вақтида ва тўғри киритиш;

рухсатномаларни бериш пунктларини доимий равишда ишловчи кузатув камералари билан жиҳозлаш ва Ўзбекистон Республикасининг ваколатли органи томонидан кузатиб бориш имкониятини яратиш;

ҳар қандай ҳаракат (ҳаракатсизлик) оқибатида юзага келадиган зарарларни тўлиқ қоплаш;

Ўзбекистон Республикасининг ваколатли органига рухсатномаларни бериш пунктлари фаолиятини ўрганиш учун имконият яратиш.

12-боб. Якунловчи қоидалар

66. Миллий ташувчилар хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларнинг зарур тарзда ва тўғри тўлдирилиши, улардан мақсадли фойдаланилиши, ўз вақтида қайтарилиши ҳамда ахборот тизимига киритиладиган/юкланадиган маълумотлар/ҳужжатларни тўғрилиги учун жавоб берадилар.

67. Миллий ташувчи хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни олиш учун юборилган аризани ҳамда рухсатномалар берилишининг рад этилганлиги, шунингдек, масъул ходим ва оператор ҳаракати (ҳаракатсизлиги) устидан белгиланган тартибда шикоят қилиш ҳуқуқига эга бўлади.

68. Ахборот тизимига тегишли маълумотларни ҳамда белгиларни ўз вақтида ва тўғри киритиш учун масъул ходим ва оператор жавоб беради.

69. Ушбу Низом талаблари бузилишида айбдор бўлган шахслар Ўзбекистон Республикаси қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ жавоб берадилар.

Автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро
ташишга рухсатномаларни айирбошлаш,
бериш ва улардан фойдаланиш тартиби
тўғрисидаги низомга
1-илова

Хорижий давлатларнинг ваколатли органлари билан рухсатномаларни айирбошлаш, улардан олинган хорижий рухсатномаларни миллий ташувчиларга бериш, фойдаланиш, қабул қилиш, сақлаш ва уларнинг ҳисобини юритиш СХЕМАСИ

Босқичлар	Субъектлар	Чора-тадбирлар	Бажариш муддатлари
1-босқич	Ўзбекистон Республикасининг ваколатли органи	1. Маълумотларни чуқур таҳлил қилган ҳолда келгуси йил учун дастлабки айирбошлаш квотасини шакллантиради.	ҳар йили 1 октябрга қадар
		2. Хорижий давлатларнинг ваколатли органлари билан айирбошлаш квотасини аниқлайди ва уларни айирбошлаш жараёнини келишиб олади.	ҳар йили 1 декабрга қадар
		3. Хорижий давлатларнинг ваколатли органлари билан рухсатномалари айирбошлашни амалга оширади.	ҳар йили 31 декабрга қадар
		4. Хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар ишлатилиш даражасидан келиб чиқиб, тури бўйича умумий сони камида 20 фоиз қолганда хорижий давлатнинг ваколатли органлари билан жорий йил учун қўшимча рухсатномалар айирбошлашни ташкил этади.	йил давомида
		5. Миллий ташувчиларнинг ахборот тизимидаги шахсий кабинетига хорижий давлатларнинг ваколатли органларидан олинган хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар ҳамда хорижий давлатлар ҳудудидаги чекловлар тўғрисидаги маълумотларни жойлаштиради.	йил давомида доимий равишда
2-босқич	Ахборот тизими	Тегишли вазирлик ва идораларнинг ахборот тизимларидан олинган маълумотлар асосида миллий ташувчилар рейтингини шакллантиради ва натижаларини эълон қилади.	ҳар чорак якуни билан кейинги ойнинг 10-санасига қадар
3-босқич	Миллий ташувчи	1. Ахборот тизимидаги шахсий кабинети орқали зарур маълумотларни киритган ҳолда халқаро ташиш йўналиши бўйича хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни 10 календарь кун муддатга банд қилади.	Ўз хоҳишига кўра
		2. Банд қилинган хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни олиш учун ариза юборади.	банд қилинган муддат тугашидан камида 3 кун олдин

4-босқич	Ўзбекистон Республикасининг ваколатли органи Ахборот тизими	1. Хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни олиш учун берилган аризани кўриб чиқади ва уни қаноатлантириш ёки рад этиш ҳақида қарор қабул қилади. 2. Автотранспорт воситасига республика ҳудудида юк ортилганда – аризани тегишли органларнинг ахборот тизимлари ўртасида маълумот алмашинувини ташкил этиш орқали кўриб чиқади ва тегишли қарорни инсон омилисиз қабул қилади. 3. Тегишли қарор автоматик равишда миллий ташувчининг шахсий кабинетига юборилади.	бир иш кунида автоматик равишда реал вақт режимида
5-босқич	Миллий ташувчи	Ариза қаноатлантирилганда, берилиши лозим бўлган хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни олиб кетиш учун аризада кўрсатилган жойга боради.	рухсатномалар банд қилинган муддат тугашидан аввал
6-босқич	Ўзбекистон Республикасининг ваколатли орган/ рухсатномаларни бериш пункти	Хорижий ёки кўп томонлама рухсатномани белгиланган тартибда беради ва унинг электрон нусхасини ахборот тизимига юклайди.	миллий ташувчи ёки унинг автотранспорт воситаси белгиланган жойга етиб келганидан сўнг дарҳол
7-босқич	Миллий ташувчи	1. Фойдаланилган хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар зарур тарзда ва тўғри тўлдирилган ҳолда ҳамда белгиланган тартибда расмийлаштирилган халқаро товар-транспорт юк хатини электрон нусхасини ахборот тизимига юклайди. 2. Олинган барча хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни Ўзбекистон Республикасининг ваколатли органига ёки рухсатномаларни бериш пунктига қайтарилади.	халқаро ташиш якунлангандан сўнг берилган кундан бошлаб 90 календарь кундан кечикмай
8-босқич	Ахборот тизими	Тақиққа тушган миллий ташувчилар ва автотранспорт воситалари тўғрисидаги маълумотларни ошкора эълон қилиб боради.	Доимий равишда

Автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро
ташишга рухсатномаларни айирбошлаш,
бериш ва улардан фойдаланиш тартиби
тўғрисидаги низомга
2-илова

Танқис бўлган хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар РЎЙХАТИ

Т/р	Хорижий давлат ёки кўп томонлама рухсатнома тизимининг номи	Тури
1.	Австрия	икки томонлама/транзит
2.	Венгрия	барча тури
3.	Италия	икки томонлама (Евро 5, Евро 6)
4.	Латвия	икки томонлама/транзит
		универсал
5.	Литва	транзит
		учинчи давлатга/дан
6.	Монголия	барча тури
7.	Нидерландия	универсал
8.	Польша	универсал
9.	Словакия	барча тури
10.	Финляндия	барча тури
11.	Чехия	барча тури
12.	Эстония	барча тури
13.	ШҲТ	универсал

Изоҳ. *Ушбу рўйхатга Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 21 июлдаги ПФ–111-сон Фармони билан ташкил этилган Инвестицияларни жалб қилиш, саноатни ривожлантириш ва савдони тартибга солиш масалалари бўйича Ҳукумат комиссияси томонидан ўзгартириш киритилиши мумкин.*

Автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро
ташишга рухсатномаларни айирбошлаш,
бериш ва улардан фойдаланиш тартиби
тўғрисидаги низомга
3-илова

Автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро ташиш учун хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар олиш тўғрисида АРИЗА

I. Ариза берувчи миллий ташувчи тўғрисида маълумот*		
1.1	Ариза берувчи ташкилотнинг ёки жисмоний шахснинг тўлиқ номи	
1.2	СТИР ёки жисмоний шахснинг шахсий идентификация рақами ҳамда шахсни тасдиқловчи ҳужжат серияси ва рақами	
1.3	Ҳисоб рақами	
1.4	МФО	
1.5	Телефон рақами	
1.6	Электрон почта манзили	

II. Халқаро ташиш йўналиши, автотранспорт воситаси ва хорижий ёки кўп томонлама рухсатномалар тўғрисида маълумот

Халқаро ташиш йўналиши	Автотранспорт воситаси		Рухсатномалар тури ва сони*	Рухсатномаларни олиб кетиш жой
	турган давлат	давлат рақами		
ЖАМИ				

**) Ушбу маълумотлар вазирлик ва идораларнинг ахборот тизимларидан олинган маълумотлар асосида ахборот тизимида автоматик равишда тўлдирилади.*

Изоҳ.

Автотранспорт воситасига юк ортилган ҳолда республика ҳудуди бўйлаб ҳаракатланганда – божхона декларацияси (экспорт ва/ёки транзит) рўйхат рақами киритилади.

Автотранспорт воситасига хорижий давлат ҳудудида юк ортилган бўлса – белгиланган тартибда расмийлаштирилган халқаро товар-транспорт юк хати юкланади.

Автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро
ташишга рухсатномаларни айирбошлаш,
бериш ва улардан фойдаланиш тартиби
тўғрисидаги низомга
4-илова

Миллий ташувчилар рейтингини ҳисоблаш мезонлари

Т/р	Мезонлар	Кўрсаткичлар	Бериладиган балл
1.	Миллий ташувчининг автомобилда халқаро ташиш соҳасидаги фаолияти[1]	10 йил ва ундан юқори	**5 балл**
		7 йилдан 9 йилгача (9 йил ҳам киради)	4 балл
		4 йилдан 6 йилгача (6 йил ҳам киради)	3 балл
		2 йилдан 3 йилгача (3 йил ҳам киради)	2 балл
		1 йилгача (1 йил ҳам киради)	1 балл
2.	Миллий ташувчининг халқаро ташиш ҳуқуқини берувчи лицензияга эга, ижара ёки текин фойдаланишдаги автотранспорт воситаларининг (M_2, M_3, N_2, N_3, O_3 ва O_4) умумий автотранспорт воситалари сонидаги улуши[2]	ижара ёки текин фойдаланишдаги автотранспорт воситалари бўлмаганда	**25 балл**
		1 фоиздан 10 фоизгача	22 балл
		11 фоиздан 20 фоизгача	21 балл
		21 фоиздан 30 фоизгача	20 балл
		31 фоиздан 40 фоизгача	18 балл
		41 фоиздан 50 фоизгача	16 балл
		51 фоиздан 60 фоизгача	10 балл
		61 фоиздан 70 фоизгача	8 балл
		71 фоиздан 80 фоизгача	6 балл
		81 фоиздан 90 фоизгача	4 балл
		91 фоиздан 100 фоизгача	2 балл
3.	Миллий ташувчининг халқаро ташиш ҳуқуқини берувчи лицензияга эга умумий автотранспорт воситаларининг ўртача ишлаб чиқарилган йили[3]	7 йилгача бўлса (7 йил ҳам киради)	**10 балл**
		8 йилдан 10 йилгача бўлса (10 йил ҳам киради)	7 балл
		11 йилдан 15 йилгача бўлса (15 йил ҳам киради)	5 балл
		16 йилдан 20 йилгача бўлса (20 йил ҳам киради)	3 балл
		21 йилдан ошган бўлса	1 балл
4.	Миллий ташувчининг тадбиркорлик субъектларининг барқарорлик рейтингидаги ўрни[4]	AAA	**15 балл**
		AA	13 балл
		A	11 балл
		BBB	10 балл
		BB	9 балл
		B	8 балл
		CCC	6 балл
		CC	4 балл
		C	2 балл
		D	1 балл
5.	Миллий ташувчининг тегишли лицензия варақаси мавжуд, O_4 тоифадаги ярим тиркамаларнинг жами N_3 тоифадаги шатакчи автомобиллари сонидаги улуши	81 фоиздан 100 фоизгача	**5 балл**
		61 фоиздан 80 фоизгача	4 балл
		41 фоиздан 60 фоизгача	3 балл
		21 фоиздан 40 фоизгача	2 балл
		1 фоиздан 20 фоизгача	1 балл
		мавжуд бўлмаганда	0 балл

6.	Миллий ташувчининг даромад коэффициенти[5]	3,0 ва ундан юқори	**20 балл**
		2,5 дан 2,9 гача	18 балл
		2,0 дан 2,4 гача	16 балл
		1,5 дан 1,9 гача	14 балл
		1,0 дан 1,4 гача	12 балл
		0,75 дан 0,99 гача	10 балл
		0,50 дан 0,74 гача	8 балл
		0,25 дан 0,49 гача	6 балл
		0,10 дан 0,24 гача	3 балл
		0,09 дам кам	1 балл
7.	Миллий ташувчиларнинг халқаро ташиш ҳуқуқини берувчи лицензияга эга автотранспорт воситаларининг (M_2, M_3, N_2 ва N_3) умумий сони[6]	100 ва ундан юқори	**10 балл**
		76 дан 99 гача	9 балл
		61 дан 75 гача	8 балл
		41 дан 60 гача	7 балл
		31 дан 40 гача	6 балл
		21 дан 30 гача	5 балл
		6 дан 20 гача	4 балл
		5 гача	2 балл
8.	Миллий ташувчининг навигация қурилмалари билан жиҳозланган, ахборот тизимига интеграция қилинган ва уларнинг ҳаракати тўғрисидаги маълумотлар реал вақт режимида белгиланган серверга мунтазам узатиладиган, тегишли лицензия варақаси мавжуд автотранспорт воситаларининг умумий автотранспорт воситалари сонидаги улуши[7]	95 фоиздан 100 фоизгача	**10 балл**
		81 фоиздан 94 фоизгача	9 балл
		71 фоиздан 80 фоизгача	8 балл
		61 фоиздан 70 фоизгача	7 балл
		51 фоиздан 60 фоизгача	6 балл
		41 фоиздан 50 фоизгача	5 балл
		31 фоиздан 40 фоизгача	4 балл
		21 фоиздан 30 фоизгача	3 балл
		11 фоиздан 20 фоизгача	2 балл
		1 фоиздан 10 фоизгача	1 балл
		мавжуд бўлмаганда	0 балл
9.	Қонунчилик ҳужжатлари нормаларининг бузилиши (чорак давомидаги қоидабузарликлар сони жами автотранспорт воситаларига нисбати)[8]	20 фоизгача бўлганда – камайтирувчи балл	5 балл
		21 фоиздан 50 фоизгача бўлганда – камайтирувчи балл	10 балл
		50 фоиздан юқори бўлганда – камайтирувчи балл	20 балл
10.	Миллий ташувчи томонидан хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларнинг ишлатилиш даражаси[9]	ҳар бир ишлатмасдан қайтарилган рухсатнома (ҳар бир ишлатилмаган электрон рухсатнома) учун камайтирувчи балл	1 балл
		белгиланган муддатда қайтарилмаган ҳар бир рухсатнома учун камайтирувчи балл	0,5 балл

Изоҳ.

Хорижий ёки кўп томонлама рухсатномаларни ёки улар бўйича ҳуқуқлар учинчи шахсларга берилганлиги, шунингдек уларни бузилганлиги (ўчирилгани, бўялгани) аниқланганда, миллий ташувчи ушбу рейтингдан тегишли муддатга чиқарилади. Бунда, рейтингга қайтган миллий ташувчи автоматик равишда, унинг аввалги ишончлилик даражаси 90 кун муддатга бир поғона пастга туширилади.

1. Автомобиль транспортида юкларни халқаро йўналишлар бўйича ташиш фаолияти учун берилган лицензиянинг муддати орқали аниқланади.

2. Миллий ташувчига ижара ёки текин фойдаланиш шартномаси асосида тегишли бўлган автотранспорт воситаларининг умумий автотранспорт воситаларидаги улуши қуйидаги формула орқали аниқланади:

$$a = \frac{I}{U} * 100\ \%$$

Бу ерда, ***I*** – миллий ташувчига ижара ҳуқуқи ёки текин фойдаланиш шартномаси асосида тегишли бўлган, лицензия варақаси мавжуд автотранспорт воситалари сони, ***U*** – миллий ташувчига тегишли бўлган лицензия варақаси мавжуд жами автотранспорт воситалари сони.

3. Миллий ташувчининг тегишли лицензия варақалари мавжуд автотранспорт воситаларининг ўртача ишлаб чиқарилган йили қуйидаги формула орқали ҳисобланади.

$$A_Y = Y_j - \frac{(Y_1 * A) + (Y_2 * A) + \ldots + (Y_n * A)}{U}$$

Бу ерда, Y_j – жорий йил, Y_1, Y_2, ... Y_n – миллий ташувчига тегишли автотранспорт воситаларининг ишлаб чиқарилган йили, ***A*** – миллий ташувчининг тегишли йилда ишлаб чиқарилган автотранспорт воситалари сони, ***U*** – корхона тегишли жами автотранспорт воситалари сони.

Мисол учун: 2026 йилда (Y_j) корхонадаги автотранспорт воситалари сони 10 та (2017 йилда ишлаб чиқарилгани 3 та, 2019 йилда ишлаб чиқарилгани 2 та, 2020 йилда ишлаб чиқарилгани 5 та).

A_Y = 7,1 – автотранспорт воситасининг ўртача ишлаб чиқарилган йили.

*Бунда миллий ташувчидаги жами автотранспорт воситаларининг ўртача ишлаб чиқарилган йили 7,1 йилни ташкил этган ҳолда, юқоридаги мезонларнинг 4-бандидаги кўрсаткичга асосан (5-7 йилни ташкил этса) – **7 балл** берилади.*

4. Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 30 январдаги 55-сон қарори билан тасдиқланган Тадбиркорлик субъектларининг барқарорлик рейтингини аниқлаш тартиби тўғрисидаги низом талабларига мувофиқ аниқланган Ўзбекистон Республикаси Солиқ қўмитаси маълумотлар базаси маълумотлари асосида автоматик равишда шакллантирилади.

5. Миллий ташувчиларнинг электрон ҳисоб-фактуралар бўйича юкларни халқаро ташишда хизматлардан олинадиган даромадини аниқлаш 10112008001000001, 10107001004000002, 10107002001000003, 10107002011000002, 10107002001000004 маҳсулотлар (товар ва хизматларнинг) идентификация кодлари (МХИК) орқали аниқланади.

Ташкил этилганига 3 ой бўлмаган миллий ташувчилар даромад коэффициенти 0,1 дан кам бўлган тақдирда, унга 3 балл ҳисобланади.

6. Миллий ташувчининг тегишли лицензияга эга жами автотранспорт воситалари (M_2, M_3, N_2 ва N_3) сони қуйидаги формула орқали ҳисобланади:

$$U=A+I*0,25$$

Бу ерда, ***A*** – миллий ташувчининг балансидаги автотранспорт воситалари сони, ***I*** – миллий ташувчига ижара ҳуқуқи ёки текин фойдаланиш шартномаси асосида тегишли бўлган автотранспорт воситалари сони.

7. Навигация қурилмалари Ўзбекистон Республикаси ваколатли органи томонидан белгиланган тартибда тамғаланган бўлиши лозим. Тамғаланмаганда ёки унинг бузилганида, тегишли баллар ҳисобланмайди.

8. Транспорт назорат инспекцияси ҳамда хорижий давлатларнинг ваколатли органларидан олинган маълумотлар асосида шакллантирилади ва бир чорак амал қилади.

*Мисол учун: миллий ташувчининг халқаро ташишда фойдаланиладиган автотранспорт воситаси сони 20 та бўлса, бир чорак давомида жами қоидабузарлик сони 7 та. 7/20*100=35%*

Бунда: 20 та автотранспорт воситаси 100 фоиз бўлса, 7 та қоидабузарлик 35 фоиз бўлади ва ўз-ўзидан 50 фоизгача, яъни "-10" жарима балли қўлланилиб, жами баллар йиғиндисидан 10 балл олиб ташланади.

9. Миллий ташувчи томонидан халқаро ташишда хорижий давлат(лар) ҳудудига киришда чеклов ёки тақиқ қўйилган бўлса ва бу ҳақдаги маълумот ваколатли орган томонидан ўрганилганида ўз тасдиғини топган ҳолатларда, тегишли рухсатномалар учун баллар олиб ташланмайди.

Бунда ушбу бандниng биринчи хатбошидаги ҳолатлардан бошқа сабабларга кўра ишлатмасдан қайтариш ёки қайтармаслик учун олиб ташланадиган баллар 180 кун амал қилади.

Вазирлар Маҳкамасининг
2026 йил “ 25 ” мартдаги 114-сон қарорига
2-илова

Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг ўз кучини йўқотган деб ҳисобланаётган айрим қарорлари
РЎЙХАТИ

1. Вазирлар Маҳкамасининг “Автомобилда юк ва йўловчиларни халқаро ташишнинг рухсатнома тизимини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” 2023 йил 7 июлдаги 277-сон қарори.

2. Вазирлар Маҳкамасининг “Божхона соҳасидаги айрим тартиб-таомилларни янада такомиллаштириш тўғрисида” 2025 йил 6 ноябрдаги 700-сон қарорига 4-илованинг 14-банди.

БЕШИНЧИ БЎЛИМ

ВАЗИРЛИКЛАР, ДАВЛАТ ҚЎМИТАЛАРИ ВА ИДОРАЛАРИНИНГ ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ АДЛИЯ ВАЗИРЛИГИДА ДАВЛАТ РЎЙХАТИДАН ЎТКАЗИЛГАН НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ ҲУЖЖАТЛАРИ

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3796
2026 - yil 27 - Mart

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI,

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ QO‘MITASINING QARORI

Alkogol va tamaki mahsulotlariga yangi namunadagi aksiz markalarini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 7-noyabrdagi PQ–505-son “Alkogolli mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Soliq qo‘mitasi qaror qiladi:

1. Alkogol va tamaki mahsulotlariga yangi namunadagi aksiz markalarini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil hamda Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan.

3. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Vazir

10-Mart 2026-yil

342 son

KUCHKAROV DJAMSHID
ANVAROVICH

Rais
02-Mart 2026-yil
2026-02 son

PULATOV FARRUX
JAXONGIROVICH

Kelishildi:

Tadbirkorlarning huquqlarini
himoya qilish boʻyicha vakil
04-Fevral 2026-yil

BURIYEV ABDUMANNOP
ABDURAXMATOVICH

Rais
30-Yanvar 2026-yil

PULATOV FARRUX
JAXONGIROVICH

Rais
30-Yanvar 2026-yil

VAXABOV DAVRON
ABDUJALALOVICH

Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2026-yil 10-martdagi 342-son va Soliq qoʻmitasining 2026-yil 2-martdagi 2026-02-son qaroriga ILOVA

Alkogol va tamaki mahsulotlariga yangi namunadagi aksiz markalarini joriy etish tartibi toʻgʻrisidagi NIZOM

Mazkur Nizom alkogol (pivodan tashqari) va tamaki mahsulotlariga yangi namunadagi aksiz markalarini joriy etish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Alkogol va tamaki mahsulotlariga yangi namunadagi aksiz markalari Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan belgilangan muddatlarda amalga kiritiladi va har 2 yilda yangilanadi.

Amal qilish muddati tugagan aksiz markalari yopishtirilgan alkogol va tamaki mahsulotlari markalanmagan hisoblanadi hamda ular belgilangan tartibda olib qoʻyilishi va yoʻq qilinishi kerak.

2. Alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar (bundan buyon matnda korxonalar deb yuritiladi) va import qiluvchilarga (bundan buyon matnda importchilar deb yuritiladi) yangi namunadagi aksiz markalarini yopishtirish bilan bir vaqtda alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishda (import qilishda) eski namunadagi aksiz markalaridan foydalanishga hamda ular bilan markalangan mahsulot qoldiqlarini besh oy mobaynida sotishga ruxsat beriladi.

Ulgurji va chakana savdo tarmogʻida eski namunadagi aksiz markalari bilan markalangan mahsulotlar korxonalar va importchilar uchun belgilangan muddatdan keyin oʻn ikki oy oʻtgach markalanmagan deb hisoblanadi va belgilangan tartibda olib qoʻyiladi.

3. Oʻzbekiston Respublikasi hududida yangi namunadagi aksiz markalari joriy etilgan paytdan boshlab eski namunadagi aksiz markalarini xarid qilish va ularga buyurtmalarni joylashtirishga doir buyurtmanomalarni qabul qilish taqiqlanadi.

Eski namunadagi aksiz markali alkogol va tamaki mahsulotlarini Oʻzbekiston Respublikasi hududida sotishga mazkur Nizomning 6 va 14-bandlari talablarini hisobga olgan holda yangi namunadagi aksiz markalari joriy etilgan kundan boshlab oʻn yetti oy mobaynida ruxsat beriladi.

4. Yangi namunadagi aksiz markalari korxonalar va importchilarning nomi yozilgan kod raqamlari bilan birga buyurtiriladi, alkogol mahsuloti uchun aksiz markalarida esa korxonaning nomi va isteʼmol idishining litrdagi hajmi ham koʻrsatiladi.

5. Eski namunadagi aksiz markalarini yoʻq qilish boʻyicha xarajatlarni eski namunadagi aksiz markalari yoki ular bilan markalangan mahsulotga ega boʻlgan korxonalar va importchilar amalga oshiradi.

2-bob. Oʻzbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan alkogol va tamaki mahsulotlariga yangi namunadagi aksiz markalarini joriy etish

6. Yangi namunadagi aksiz markalari joriy etilganidan keyin korxonalar eski namunadagi aksiz markalari yopishtirilgan mahsulotlarni sotishni eski namunadagi aksiz markalari yopishtirilgan tovarlarni sotishning ruxsat etilgan muddati tugashidan oʻn ikki oy oldin toʻxtatadi.

7. Korxonalarda yangi namunadagi aksiz markalari joriy etilgan kunda va eski namunadagi aksiz markalari yopishtirilgan tovarlarni sotishning ruxsat etilgan muddati tugashiga qadar oʻn ikki oy qolgan kunda eski namunadagi aksiz markalari yopishtirilgan mahsulot qoldiqlari, shuningdek, foydalanilmagan eski namunadagi aksiz markalarining qoldiqlari korxonada tashkil etiladigan Aksiz markalarini xatlovdan oʻtkazish va yoʻq qilish komissiyasi tomonidan xatlovdan oʻtkaziladi.

8. Komissiyaga kelishuv asosida soliq organlarining vakillari, korxonalarning xodimlari (maʼmuriyat vakillari, aksiz markalar uchun masʼul shaxslar, buxgalteriya xizmati xodimi) kiritiladi.

Komissiya tarkibi korxona rahbarining buyrugʻi bilan tasdiqlanadi.

9. Komissiya tomonidan xatlovdan oʻtkazish natijalari boʻyicha mazkur Nizomning ilovasiga muvofiq dalolatnoma rasmiylashtiriladi.

10. Xatlovdan oʻtkazish natijalari aksiz markalarini hisobga olish maʼlumotlari bilan solishtiriladi. Aksiz markalari kamomadi uchun mazkur korxona rahbariyati va moddiy javobgar shaxs mas’ul hisoblanadi.

11. Komissiya xatlov toʻgʻri, oʻz vaqtida va belgilangan tartibga rioya qilgan holda oʻtkazilishi, shuningdek, aksiz markalari toʻliq hajmda yoʻq qilinishi uchun mas’ul hisoblanadi.

12. Korxonalarda eski namunadagi aksiz markalari yopishtirilgan alkogol va tamaki mahsulotlari mavjud boʻlganda, eski namunadagi aksiz markalari yopishtirilgan tovarlarni sotishning ruxsat etilgan muddati tugashiga qadar oʻn ikki oy qolgan kunda tayyor mahsulot qoldiqlariga yangi namunadagi aksiz markalari yangidan yopishtirilib, tovarlardan eski namunadagi aksiz markalari olib tashlanishi kerak.

13. Tovarlardan olib tashlangan aksiz markalari va eski namunadagi aksiz markalari yopishtirilgan tovarlarni sotishning ruxsat etilgan muddati tugashiga qadar oʻn ikki oy qolgan kunda qayd etilgan, foydalanilmagan eski namunadagi aksiz markalarining qoldiqlari komissiya tomonidan kuydirish yoʻli bilan yoʻq qilinadi hamda bu haqda dalolatnoma tuziladi.

3-bob. Olib kiriladigan (import qilinayotgan) alkogol va tamaki mahsulotlariga yangi namunadagi aksiz markalarini joriy etish

14. Oʻzbekiston Respublikasi hududida yangi namunadagi aksiz markalarining joriy etilishi bilan uning hududiga eski namunadagi aksiz markalari yopishtirilgan alkogol va tamaki mahsulotlarini olib kirish eski namunadagi aksiz markalari yopishtirilgan tovarlarni sotishning ruxsat etilgan muddati tugashiga oʻn ikki oy qolganda toʻxtatiladi.

Eski namunadagi ishlatilmagan aksiz markalarining qoldiqlari ular aksiz markalari joriy etilgan kunda va eski namunadagi aksiz markalari yopishtirilgan tovarlarni sotishning ruxsat etilgan muddati tugashiga qadar oʻn ikki oy qolgan kunda Aksiz markalarini xatlovdan oʻtkazish va yoʻq qilish boʻyicha komissiya tomonidan xatlovdan oʻtkaziladi.

Komissiya tomonidan xatlovdan oʻtkazish natijalari boʻyicha mazkur Nizomning ilovasiga muvofiq dalolatnoma rasmiylashtiriladi.

15. Komissiya tarkibiga kelishuv asosida bojxona organlari va importchilar vakillari kiritiladi.

Komissiya tarkibi tegishli hududiy bojxona organi rahbarining buyrugʻi bilan tasdiqlanadi.

16. Xatlovdan oʻtkazilgandan soʻng, eski namunadagi aksiz markalarining ishlatilmagan qoldiqlarini importchilar tovarlarni sotishning ruxsat etilgan muddati tugashidan oʻn ikki oy oldin eksportchidan qabul qilib olishi kerak. Talab qilib olingan eski namunadagi aksiz markalari komissiya tomonidan kuydirish yoʻli bilan yoʻq qilinadi hamda bu haqda dalolatnoma tuziladi.

17. Komissiya xatlov toʻgʻri, oʻz vaqtida va belgilangan tartibga rioya qilgan holda oʻtkazilishi, shuningdek, aksiz markalari toʻliq hajmda yoʻq qilinishi uchun mas’ul hisoblanadi.

4-bob. Ulgurji va chakana savdo tarmogʻida sotiladigan alkogol va tamaki mahsulotlari uchun yangi namunadagi aksiz markalarini joriy etish

18. Alkogol va tamaki mahsulotlariga yangi namunadagi aksiz markalari joriy etilgan kundan boshlab ulgurji va chakana savdo tashkilotlari korxonalardan ham yangi, ham eski namunalardagi aksiz markalari yopishtirilgan tovarlarni xarid qilishlari mumkin. Ulgurji va chakana savdo tashkilotlari tomonidan eski namunadagi aksiz markalari yopishtirilgan tovarlarning xarid qilinishi eski namunadagi aksiz markalari yopishtirilgan tovarlarni sotishning ruxsat etilgan muddati tugashiga qadar oʻn ikki oy qolganda toʻxtatiladi.

19. Ulgurji va chakana savdo tashkilotlari eski namunadagi aksiz markalari yopishtirilgan mahsulotni Oʻzbekiston Respublikasi hududida eski namunadagi aksiz markalari yopishtirilgan alkogol va tamaki mahsulotlarini sotishning belgilangan muddati tugashiga qadar sota oladilar.

20. Eski namunadagi aksiz markalari yopishtirilgan tovarlarni sotishning belgilangan muddati tugaydigan ulgurji va chakana savdo tashkilotlarida tashkil etiladigan Aksiz markalarini xatlovdan oʻtkazish va yoʻq qilish boʻyicha komissiya tomonidan eski namunadagi aksiz markalari yopishtirilgan alkogol va tamaki mahsulotlarining qoldiqlari xatlovdan oʻtkaziladi.

21. Komissiyaga soliq organlarining vakillari, savdo tashkilotlarining masʼul xodimlaridan (rahbar, moddiy javobgar shaxs, buxgalteriya xizmati xodimi) kiritiladi.

Komissiya tarkibi savdo tashkiloti rahbarining buyrugʻi bilan tasdiqlanadi.

22. Komissiya tomonidan xatlovdan oʻtkazish natijalari boʻyicha mazkur Nizomning ilovasiga muvofiq dalolatnoma rasmiylashtiriladi.

23. Komissiya xatlov toʻgʻri, oʻz vaqtida va belgilangan tartibga rioya qilgan holda oʻtkazilishi uchun mas’ul hisoblanadi.

24. Xatlovdan oʻtkazish vaqtida savdo tashkilotlarida boʻlgan, amal qilish muddati oʻtib ketgan aksiz markalari bilan markalangan alkogol va tamaki mahsulotlari qonunchilikka muvofiq olib qoʻyilishi va yoʻq qilinishi kerak.

5-bob. “Agrobank” aksiyadorlik tijorat banki mintaqaviy boʻlinmalarida aksiz markalarini yoʻq qilish

25. “Agrobank” aksiyadorlik tijorat bankining mintaqaviy boʻlinmalari yangi namunadagi aksiz markalari joriy qilinishidan bir kun oldin importchilarga eski namunadagi aksiz markalari berishni toʻxtatadilar.

26. “Agrobank” aksiyadorlik tijorat bankining mintaqaviy boʻlinmalarida eski namunadagi aksiz markalari yopishtirilgan tovarlarni sotishga ruxsat etilgan muddatning tugashiga qadar oʻn ikki oy oldin eski namunadagi aksiz markalari Aksiz markalarini xatlovdan oʻtkazish va yoʻq qilish boʻyicha komissiya tomonidan xatlovdan oʻtkaziladi.

27. Komissiyaga soliq organlarining vakillari, korxonalar vakillari va tegishli bankning masʼul xodimlari (rahbariyat, buxgalteriya xizmati xodimi va aksiz markalari uchun moddiy jihatdan masʼul boʻlgan javobgar shaxs) kiritiladi.

28. Eski namunadagi aksiz markalarini xatlovdan oʻtkazish yakunlari aksiz markalarini hisobga olish ma’lumotlari bilan solishtiriladi. Xatlovdan oʻtkazish chogʻida belgilangan aksiz markalarining kamomadi uchun mazkur bank rahbariyati (moddiy javobgar shaxs) mas’ul hisoblanadi.

29. Komissiya tomonidan xatlovdan oʻtkazish natijalari boʻyicha mazkur Nizomning ilovasiga muvofiq dalolatnoma rasmiylashtiriladi.

30. Komissiya xatlov toʻgʻri, oʻz vaqtida va belgilangan tartibga rioya qilgan holda oʻtkazilishi, shuningdek aksiz markalari toʻliq hajmda yoʻq qilinishi uchun mas’ul hisoblanadi.

31. Xatlovdan oʻtkazilgandan soʻng “Agrobank” aksiyadorlik tijorat banki mintaqaviy boʻlinmalarida mavjud boʻlgan eski namunadagi aksiz markalari shu kunning oʻzida kuydirish yoʻli bilan yoʻq qilinadi, bu haqda komissiya tomonidan tegishli dalolatnoma tuziladi.

32. “Agrobank” aksiyadorlik tijorat banki mintaqaviy boʻlinmalarining xatlovdan keyin yoʻq qilingan eski namunadagi aksiz markalarini yetkazib berish va saqlash boʻyicha xarajatlari boʻlinmalarning oʻz mablagʻlari hisobiga qoplanadi.

6-bob. Yakuniy qoida

33. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor boʻlgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javobgar boʻladilar

Alkogol va tamaki mahsulotlariga yangi namunadagi aksiz markalarini
joriy etish tartibi toʻgʻrisidagi nizomga
ILOVA

Eski namunadagi aksiz markalari yopishtirilgan tovarlarning qoldiqlarini xatlovdan oʻtkazish DALOLATNOMASI

Korxona, tashkilot nomi:

Manzil:

STIR:

Komissiya raisi:

lavozim *F.I.O.*

Komissiya aʼzolari:

lavozim *F.I.O.*

lavozim *F.I.O.*

Boshlandi:

soat *sana*

Tugallandi:

soat *sana*

№	Tovar nomi	Aksiz markasidagi kod raqami	Miqdori (dona)	Bir dona aksiz markasi narxi (soʻm)	Jami qiymati (soʻm)	Qoʻshimcha izohlar
Jami						
1						
2						
3						
4						
5						
...						

Komissiya raisi: _____ _____
imzo *F.I.O.*

Komissiya a′zolari: _____ _____
imzo *F.I.O.*

_____ _____
imzo *F.I.O.*

QMMB: 10/26/3797/0298-son
30.03.2026-y.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3797
2026 - yil 27 - Mart

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (1-sonli BHS) “Hisob siyosati, hisob baholaridagi o‘zgarishlar va xatolar”ni tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 161-moddasiga muvofiq va budjet hisobini davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari bilan muvofiqlashtirish maqsadida **buyuraman**:

1. O‘zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (1-sonli BHS) “Hisob siyosati, hisob baholaridagi o‘zgarishlar va xatolar” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2016-yil 12-dekabrdagi 91-son “O‘zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (1-sonli BHS) “Hisob siyosati”ni tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2853, 2016-yil 27-dekabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016-y., 52-son, 610-modda) o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

3. Mazkur buyruq rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Vazir
10-Mart 2026-yil
341 son

KUCHKAROV DJAMSHID
ANVAROVICH

QMMB: 10/26/3797/0298-son
30.03.2026-y.

O‘zbekiston Respublikasi
iqtisodiyot va moliya vazirining
2026-yil 10-martdagi
341-son buyrug‘iga
ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (1-sonli BHS) “Hisob siyosati, hisob baholaridagi o‘zgarishlar va xatolar”

Mazkur O‘zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (1-sonli BHS) “Hisob siyosati, hisob baholaridagi o‘zgarishlar va xatolar” (bundan buyon matnda Standart deb yuritiladi) budjet tashkilotlari, davlat maqsadli jamg‘armalari hamda boshqa budjetdan tashqari jamg‘armalar (bundan buyon matnda tashkilotlar deb yuritiladi) tomonidan hisob siyosatini tanlash va qo‘llash, hisob siyosatidagi o‘zgarishlarni, hisob baholaridagi o‘zgarishlarni va xatolarni tuzatishni hisobga olish tartibini belgilaydi. Mazkur Standart budjet hisobining boshqa standartlari bilan birgalikda qo‘llaniladi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Standartda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

amalga oshirib bo‘lmaydigan holatlar – tashkilotlar budjet hisobi standartlarida belgilangan talabni qo‘llashga qaratilgan barcha sa’y-harakatlarni amalga oshirganidan so‘ng ham ushbu talabni qo‘llay olmasa, mazkur holat amalga oshirib bo‘lmaydigan holat hisoblanadi;

budjet hisobi – budjet tizimi budjetlarini ijro etishda hisobga olinadigan, pulda ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning, shuningdek, mazkur aktivlar va majburiyatlarni o‘zgartiruvchi operatsiyalarning holati to‘g‘risidagi axborotni to‘plash, ro‘yxatdan o‘tkazish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimi;

hisob siyosati – bu tashkilotlar tomonidan budjet hisobini yuritish, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish jarayonida qo‘llaniladigan aniq tamoyillar, asoslar, shartli qoidalar, me’yorlar hamda amaliy usullar majmuasidir;

hisob bahosidagi o‘zgarish – aktivlar va majburiyatlarning joriy holati hamda ular bilan bog‘liq kutilayotgan kelajakdagi foyda va majburiyatlarni baholash natijasida aktivning yoki majburiyatning balans qiymatiga yoki aktivning foydali xizmat davriga kiritilgan tuzatishdir. Hisob bahosidagi o‘zgarishlar aktivlar va majburiyatlarga doir yangi axborot olinishi yoki yangi holatlar yuzaga kelishi natijasida amalga oshiriladi va shu sababli bu o‘zgarishlar xatolarni tuzatish hisoblanmaydi;

oldingi davr xatolari – bu moliyaviy hisobotdagi o‘tkazib yuborishlar yoki noto‘g‘ri ko‘rsatishlar bo‘lib, quyidagi ishonchli ma’lumotlardan noto‘g‘ri foydalanish yoki foydalanmaslik natijasida yuzaga keladi:

a) ko‘rsatilgan davrlar uchun moliyaviy hisobotlar taqdim etishga ruxsat berilganda mavjud bo‘lgan;

QMMB: 10/26/3797/0298-son
30.03.2026-y.

b) moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishda qabul qilinishi va hisobga olinishi asosli bo‘lgan.

Bunday xatolarga matematik xatolar, hisob siyosatini qo‘llashdagi xatolar, faktlarni e’tiborsiz qoldirish yoki noto‘g‘ri talqin qilish va firibgarlik ta’siri kiradi;

perspektiv qo‘llash – hisob siyosati o‘zgargan sanadan keyin sodir bo‘ladigan operatsiyalar, boshqa hodisalar va holatlarga nisbatan yangi hisob siyosatini qo‘llash hamda hisob bahosidagi o‘zgarishning ta’sirini ushbu o‘zgarish ta’sir ko‘rsatadigan joriy va kelgusi davrlarda tan olish;

retrospektiv qo‘llash – bu yangi hisob siyosatiga muvofiq o‘tgan davrlarda sodir bo‘lgan operatsiyalar, boshqa hodisalar va holatlarga ham shu siyosat avvaldan qo‘llanganidek amal qilishdir;

retrospektiv qayta hisoblash – bu oldingi davrdagi xatolarni tuzatish uchun moliyaviy hisobotlar ko‘rsatkichlarining tan olinishi, baholashi va ochib berishini xatolar oldindan bo‘lmaganidek qayta hisoblashdir.

2. Mazkur Standartning maqsadi hisob siyosatidagi o‘zgarishlarni, hisob baholaridagi o‘zgarishlarni va xatolarni tuzatishni hisobga olish va yoritib berish bilan birgalikda hisob siyosatini tanlash va o‘zgartirish mezonlarini belgilashdan iboratdir.

3. Mazkur Standart tashkilotlarning moliyaviy hisobotlariga bo‘lgan ishonchlilik darajasini va ma’lum bir davriylikdagi moliyaviy hisobotlarni, shuningdek, boshqa tashkilotlarning moliyaviy hisobotlarini o‘zaro solishtirish darajasini oshirishga mo‘ljallangan.

2-bob. Hisob siyosati

1-§. Hisob siyosatlarini tanlash va qo‘llash

4. Mazkur Standart tashkilotlarda hisob siyosatini tanlash va qo‘llashda, shuningdek hisob siyosatidagi o‘zgarishlar, hisob baholaridagi o‘zgarishlar va oldingi davr xatolarini tuzatishlarni hisobga olishda qo‘llaniladi.

5. Muayyan operatsiyaga, hodisa yoki holatga nisbatan tegishli budjet hisobi standarti qo‘llanilgan taqdirda, hisobning mazkur obyekti bo‘yicha qo‘llaniladigan hisob siyosati yoki uning qoidalari o‘sha budjet hisobi standartini qo‘llash orqali belgilanadi.

6. Biror kelishuv, hodisa yoki holatga aniq taalluqli bo‘lgan budjet hisobi standarti mavjud bo‘lmaganda, tashkilotning rahbariyati quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lgan axborotni ta’minlaydigan hisob siyosatini ishlab chiqish va qo‘llashda professional mulohazaga tayanishi lozim:

a) foydalanuvchilarning qaror qabul qilish ehtiyojlariga mos kelishi;

b) ishonchli bo‘lishi (tashkilotning moliyaviy holati, moliyaviy faoliyati natijalarini va pul mablag‘lari harakatini haqqoniy aks ettiradigan, kelishuvlar, boshqa hodisalar va holatlarning yuridik shaklini emas, balki iqtisodiy mohiyatini aks ettiradigan, ehtiyotkorlik tamoyiliga muvofiq bo‘ladigan, barcha muhim jihatlar to‘liq bo‘lgan moliyaviy hisobotlar).

QMMB: 10/26/3797/0298-son
30.03.2026-y.

7. Tashkilot rahbariyati mazkur Standartning 6-bandida tavsiflangan qarorni qabul qilishda quyidagi manbalarga e’tibor berishi va ularning qo‘llanishini ko‘rib chiqishi lozim:

a) o‘xshash va aloqador masalalarni qamrab oluvchi budjet hisobi standartlaridagi talablar;

b) budjet hisobi standartlarida keltirilgan aktivlar, majburiyatlar, daromadlar va xarajatlarning ta’riflari, tan olish va baholash mezonlari.

2-§ Hisob siyosatining izchilligi

8. Agar budjet hisobi standarti turli siyosatlar qo‘llanishi mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlarni alohida toifalarga ajratishni maxsus talab qilmasa yoki ruxsat bermasa, tashkilotlar o‘xshash operatsiyalar, boshqa hodisalar va holatlar uchun o‘zining hisob siyosatini izchil ravishda tanlashi va qo‘llashi lozim.

Agar budjet hisobi standarti bunday toifalarga ajratishni talab qilsa yoki ruxsat bersa, har bir toifa uchun tegishli hisob siyosati tanlanishi va izchil ravishda qo‘llanilishi kerak.

9. Hisob siyosati tashkilot rahbari yoki uning o‘rinbosarining buyrug‘i yoki qarori bilan tasdiqlanadi va yildan-yilga izchil qo‘llaniladi.

3-§ Hisob siyosatidagi o‘zgarishlar

10. Tashkilotlar hisob siyosatini faqat quyidagi hollarda o‘zgartirishi mumkin:

yangi budjet hisobi standartlari talab qilganda;

hisob siyosatini o‘zgartirish moliyaviy hisobotda operatsiyalarning, boshqa hodisalarning va holatlarning tashkilotlar moliyaviy holatiga, moliyaviy natijalariga yoki pul oqimlariga ta’siri to‘g‘risida ishonchli va yanada o‘rinli ma’lumotlar aks ettirilishiga olib kelganda.

11. Moliyaviy hisobot foydalanuvchilari tashkilotlarning moliyaviy holati, faoliyati va pul oqimlaridagi o‘zgarishlarni aniqlash maqsadida uning moliyaviy hisobotlarini vaqt o‘tishi bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo‘lishlari lozim. Shu sababli, agar hisob siyosatidagi o‘zgarish mazkur Standartning 10-bandidagi mezonlardan biriga mos kelmasa, har bir hisobot davrida va bir hisobot davridan keyingi hisobot davriga o‘tishda bir xil hisob siyosatlari qo‘llaniladi.

12. Budjet hisobining bir usulidan boshqa usuliga o‘tish hisob siyosatining o‘zgarishi hisoblanadi.

13. Budjet hisobi asosida biror operatsiya, hodisa yoki holatni hisobga olish usuli, tan olish yoki baholash tartibidagi o‘zgarish hisob siyosatining o‘zgarishi sifatida qaraladi.

14. Quyidagilar hisob siyosatidagi o‘zgarishlar hisoblanmaydi:

a) oldin sodir bo‘lgan operatsiyalar, hodisalar yoki holatlardan iqtisodiy mohiyati farq qiladigan yangi operatsiyalar, hodisalar yoki holatlarga nisbatan mavjud hisob siyosatini qo‘llash;

b) oldin sodir bo‘lmagan yoki ahamiyatsiz bo‘lgan operatsiyalar, hodisalar yoki holatlarga nisbatan yangi hisob siyosatini joriy etish.

QMMB: 10/26/3797/0298-son
30.03.2026-y.

15. O‘zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (8-sonli BHS) “Ko‘chmas mulk, bino va jihozlar” (ro‘yxat raqami 3144, 2019-yil 20-mart) yoki O‘zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (9-sonli BHS) “Nomoddiy aktivlar”ga (ro‘yxat raqami 3169, 2019-yil 24-iyun) muvofiq aktivlarni qayta baholash siyosatini dastlab qo‘llash, ushbu Standartga emas, balki mazkur budjet hisobining standartlariga (8 va 9-sonli BHSlar) muvofiq qayta baholash sifatida ko‘rib chiqiladigan hisob siyosatidagi o‘zgarish hisoblanadi.

16. Mazkur Standartning 20-30-bandlari ushbu Standartning 15-bandida bayon etilgan hisob siyosatidagi o‘zgarishga nisbatan qo‘llanilmaydi.

17. Tashkilotlar yillik moliyaviy hisobotga tushuntirish xatida kelgusi moliya yili uchun hisob siyosatidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar haqida ma’lumot beradi.

18. Hisob siyosati moliyaviy hisobotni barcha qo‘llanilayotgan budjet hisobi standartlari asosida shakllantirilishini ta’minlashi kerak.

Moliyaviy hisobot unga nisbatan budjet hisobi standartlarida o‘ziga xos talablar bo‘lmaganda:

a) ahamiyatga ega bo‘lishi – ma’lumot undan foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirishi;

b) ishonchli bo‘lishi – tashkilotlar faoliyatining barcha natijalari va moliyaviy holatini xolisona ko‘rsatishi, hodisalar va operatsiyalarning iqtisodiy mohiyatini aks ettirishi;

d) xolis (beg‘araz) bo‘lishi va majburiy bo‘lmasligi;

e) to‘la (tugallangan) bo‘lishi – tashkilotlar xo‘jalik faoliyatining barcha faktlarini to‘la aks ettirishi lozim.

19. Hisob siyosati o‘z ichiga quyidagilarni olishi lozim:

tashkilotlarda inventarizatsiya o‘tkazishning tartibi va muddatlarini (inventarizatsiya qilish majburiy bo‘lgan hollardan tashqari);

tashkilotlar tomonidan foydalaniladigan va unda sintetik va analitik schyotlar ro‘yxati bo‘lishi lozim bo‘lgan ishchi schyotlar rejasini. Mazkur ma’lumot hisob siyosatiga ilova tarzida taqdim etiladi;

namunaviy shakllari nazarda tutilmagan, xo‘jalik operatsiyalarini qayd qilish uchun qo‘llaniladigan birlamchi hisob hujjatlarining shakllarini;

asosiy fondlarni qayta baholash uslublarini;

inventarizatsiya qilishda (ortiqcha yoki kamomadda) mulkni baholash uslublarini;

tovar (ish, xizmat)lar kalkulyatsiyasini shakllantirish tartibini.

4-§. Hisob siyosatidagi o‘zgarishlarni qo‘llash

20. Mazkur Standartning 24-bandiga muvofiq:

agar yangi budjet hisobi standartining ilk bor qo‘llanilishi natijasida hisob siyosati o‘zgarsa va ushbu standartda o‘zgarishga oid o‘tgan davrlar uchun maxsus qoidalar belgilangan bo‘lsa, tashkilotlar ushbu qoidalarga muvofiq hisob-kitob olib borishi kerak;

QMMB: 10/26/3797/0298-son
30.03.2026-y.

agar yangi budjet hisobi standarti ilk bor qo‘llanilganda hisob siyosati o‘zgarishiga oid o‘tgan davr uchun maxsus qoidalar belgilanmagan bo‘lsa yoki tashkilotlar o‘z ixtiyori bilan hisob siyosatini o‘zgartirsa, ushbu o‘zgarish retrospektiv tarzda qo‘llanishi kerak.

21. Ushbu Standart maqsadlari uchun yangi qabul qilingan budjet hisobi standartini muddatidan oldin qo‘llash hisob siyosatidagi ixtiyoriy o‘zgarish sifatida qaralmaydi.

22. Muayyan operatsiya, hodisa yoki holatga nisbatan aniq qo‘llaniladigan budjet hisobi standarti mavjud bo‘lmaganda, tashkilot rahbariyati mazkur Standartning 7-bandiga muvofiq quyidagilardan hisob siyosatini qo‘llashda foydalanishi mumkin:

a) boshqa standartlarni belgilovchi organlarning so‘nggi bayonotlari va qoidalari;

b) davlat yoki xususiy sektorda qabul qilingan amaliyotlar, biroq bu faqat mazkur Standartning 7-bandiga muvofiqlik darajasida amalga oshiriladi.

5-§ Retrospektiv qo‘llash

23. Mazkur Standartning 24-bandiga muvofiq hisob siyosatidagi o‘zgarishlar ushbu Standartning 20-bandi ikkinchi yoki uchinchi xatboshilariga binoan retrospektiv tarzda qo‘llanilganda, tashkilotlar taqdim etilgan eng avvalgi davr uchun sof aktivlar yoxud kapitalni har bir ta’sir qilgan ko‘rsatkichining boshlang‘ich qoldig‘ini va taqdim etilgan har bir oldingi davr uchun boshqa taqqoslama ma’lumotlarni yangi hisob siyosati doimo qo‘llanilganidek tuzatishi lozim.

6-§ Retrospektiv qo‘llash bo‘yicha cheklovlar

24. Mazkur Standartning 20-bandi ikkinchi yoki uchinchi xatboshisiga muvofiq hisob siyosati o‘zgarishi odatda retrospektiv tarzda qo‘llanadi, ammo agar o‘zgarishning ma’lum bir davrga xos ta’sirini yoki umumiy jamlangan ta’sirini aniqlash imkoni bo‘lmasa, bunday holatda retrospektiv qo‘llash cheklanishi (istisno tariqasida) mumkin.

25. Bir yoki bir nechta oldingi davrlar uchun taqdim etilgan qiyosiy ma’lumotlarga nisbatan hisob siyosatini o‘zgartirishning davrga xos ta’sirini aniqlash imkonsiz bo‘lsa, tashkilotlar yangi hisob siyosatini retrospektiv qo‘llash mumkin bo‘lgan eng dastlabki davrning boshidagi aktivlar va majburiyatlarning balans qiymatlariga nisbatan qo‘llashi lozim.

Bu joriy davr ham bo‘lishi mumkin. Shuningdek, tashkilotlar ushbu davr uchun sof aktivlar yoki xususiy kapitalni har bir ta’sir qilgan tarkibiy qismining boshlang‘ich qoldig‘iga tegishli tuzatish kiritishi kerak.

26. Joriy davr boshida yangi hisob siyosatini barcha o‘tgan davrlarga qo‘llashning umumiy ta’sirini aniqlash imkonsiz bo‘lganda, tashkilotlar qiyosiy ma’lumotlarni yangi hisob siyosatini amalda bo‘lishi mumkin bo‘lgan eng avvalgi sanadan boshlab perspektiv tarzda qo‘llash uchun tuzatishi lozim.

27. Tashkilotlar yangi hisob siyosatini retrospektiv tarzda qo‘llaganda, yangi hisob siyosatini o‘tgan davrlar qiyosiy ma’lumotlariga eng avvalgi davrlardan boshlab qo‘llaydi.

O‘tgan davr uchun retrospektiv qo‘llash, agar ushbu davr uchun moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotning boshi va oxiridagi summalarga umumiy ta’sirini aniqlashning imkoni bo‘lmasa, amalga oshirilmaydi.

QMMB: 10/26/3797/0298-son
30.03.2026-y.

Moliyaviy hisobotlarda keltirilgan davrlardan oldingi davrlarga tegishli tuzatish summasi taqdim etilgan eng oldingi davrning sof aktivlar yoki kapitalni har bir ta’sir qilgan tarkibiy qismining boshlang‘ich qoldig‘iga kiritiladi.

Odatda, tuzatishlar jamg‘arilgan foyda yoki zararga kiritiladi. Biroq tuzatish sof aktivlar yoki kapitalning boshqa tarkibiy qismiga (masalan, budjet hisobi standartiga muvofiq) ham kiritilishi mumkin.

O‘tgan davrlar haqidagi boshqa ma’lumotlar, masalan, moliyaviy ma’lumotlarning oldingi xulosalari ham eng avvalgi davrlardan boshlab tuzatiladi.

28. Agar tashkilotlar uchun yangi hisob siyosatini retrospektiv tarzda qo‘llash imkonsiz bo‘lsa, ya’ni bu siyosatni barcha oldingi davrlarga nisbatan qo‘llashning umumiy ta’sirini aniqlay olmasa, tashkilotlar mazkur Standartning 26-bandiga muvofiq yangi hisob siyosatini iloji boricha eng avvalgi davrning boshidan boshlab perspektiv tarzda qo‘llaydi.

Shu sababli, tashkilotlar ushbu sanadan oldin yuzaga kelgan aktivlar, majburiyatlar va sof aktivlar yoki kapitaldagi umumiy tuzatishning bir qismini e’tiborga olmaydi.

Hisob siyosatini biron-bir oldingi davr uchun perspektiv qo‘llash imkonsiz bo‘lsa ham hisob siyosatini o‘zgartirishga ruxsat etiladi.

7-§ Ma’lumotlarni yoritib berish

29. Muayyan budjet hisobi standartini dastlabki qo‘llash joriy davrga yoki oldingi biror bir davrga ta’sir ko‘rsatsa, biroq tuzatish miqdorini aniqlash imkoni bo‘lmasa yoki kelgusi davrlarga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lsa, tashkilotlar quyidagilarni yoritib berishi lozim:

a) standartning nomi;

b) tegishli bo‘lganda, hisob siyosatidagi o‘zgarish ushbu Standartning o‘tish qoidalariga muvofiq amalga oshirilganligi;

d) hisob siyosatidagi o‘zgarishning tavsifi;

e) tegishli bo‘lganda, o‘tish davri qoidalarining tavsifi;

f) tegishli bo‘lganda, kelgusi davrlarga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan o‘tish davri qoidalari;

g) joriy davr va taqdim etilgan har bir oldingi davr uchun ta’sir qilgan har bir moliyaviy hisobot ko‘rsatkichi bo‘yicha tuzatish miqdori;

h) taqdim etilgan davrlardan oldingi davrlarga tegishli bo‘lgan tuzatish miqdori;

i) agar mazkur Standartning 20-bandi ikkinchi yoki uchinchi xatboshisida talab qilingan retrospektiv qo‘llash ma’lum bir oldingi davr uchun yoki taqdim etilgan davrlardan oldingi davrlar uchun amalga oshirib bo‘lmaydigan holat bo‘lsa, bu holatning yuzaga kelishiga olib kelgan holatlar hamda hisob siyosatidagi o‘zgarish qanday va qachondan boshlab qo‘llanilganligi tavsifi.

Keyingi davrlarning moliyaviy hisobotlarida yuqorida qayd etilgan ma’lumotlarni takrorlash talab etilmaydi.

30. Hisob siyosatidagi ixtiyoriy o‘zgarish joriy davrga yoki oldingi biror bir davrga ta’sir ko‘rsatsa, biroq tuzatish miqdorini aniqlash imkoni bo‘lmasa yoki kelgusi davrlarga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lsa, tashkilotlar quyidagilarni yoritib berishi lozim:

QMMB: 10/26/3797/0298-son
30.03.2026-y.

a) hisob siyosatidagi o‘zgarishning tavsifi;

b) yangi hisob siyosatini qo‘llashdagi ishonchliroq va ahamiyatliroq ma’lumot taqdim etish sabablari;

d) joriy davr va taqdim etilgan har bir oldingi davr uchun ta’sir qilgan har bir moliyaviy hisobot ko‘rsatkichi bo‘yicha tuzatish miqdori;

e) taqdim etilgan davrlardan oldingi davrlarga tegishli bo‘lgan tuzatish miqdori;

f) agar ma’lum bir oldingi davr yoki taqdim etilgan davrlardan oldingi davrlar uchun retrospektiv qo‘llash imkonsiz bo‘lsa, bu holatning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan holatlar hamda hisob siyosatidagi o‘zgarish qanday va qachondan boshlab qo‘llanilganligi tavsifi.

Keyingi davrlarning moliyaviy hisobotlarida yuqorida qayd etilgan ma’lumotlarni takrorlash talab etilmaydi.

3-bob. Hisob baholaridagi o‘zgarishlar

1-§ Hisob baholari va hisob bahosidagi o‘zgarishlarni tan olish

31. Xizmat ko‘rsatish, savdo-sotiq yoki boshqa faoliyatlarni amalga oshirishdagi mavjud noaniqliklar tufayli, moliyaviy hisobotlardagi ko‘plab ko‘rsatkichlarni aniq o‘lchab bo‘lmaydi, balki faqat taxminiy baholash mumkin.

Hisob bahosi eng so‘nggi mavjud va ishonchli ma’lumotlarga asoslangan mulohazalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, quyidagilar uchun taxminlar talab etilishi mumkin:

a) budjetga to‘lanishi kerak bo‘lgan soliqlar;

b) undirilmagan soliqlardan kelib chiqadigan umidsiz qarzlar;

d) tovar-moddiy zaxiralarning jismoniy eskirishi;

e) moliyaviy aktivlar yoki moliyaviy majburiyatlarning haqqoniy qiymati;

f) amortizatsiya qilinadigan aktivlarning foydali xizmat muddati yoki ularda bo‘lgan kelajakdagi iqtisodiy manfaat yoki xizmat ko‘rsatish salohiyatining kutilayotgan iste’mol tavsifi;

g) kafolat majburiyatlari.

32. Moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda asoslangan hisob bahosidan foydalanish muhim jarayon bo‘lib, bu ularning ishonchligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi.

33. Hisob bahosiga asos bo‘lgan holatlarda o‘zgarishlar ro‘y berganda yoki yangi ma’lumotlar yoxud ko‘proq tajriba to‘planishi natijasida hisob bahosini qayta ko‘rib chiqish talab etilishi mumkin. O‘z mohiyatiga ko‘ra, hisob bahosini qayta ko‘rib chiqish o‘tgan davrlarga aloqador bo‘lmaydi va ushbu o‘zgarish xatoni tuzatish bo‘lib hisoblanmaydi.

34. Qo‘llanilayotgan o‘lchov asosining o‘zgarishi hisob siyosatidagi o‘zgarish hisoblanadi va hisob bahosidagi o‘zgarish hisoblanmaydi. Agar hisob siyosatidagi o‘zgarishni hisob bahosidagi o‘zgarishdan farqlash qiyin bo‘lsa, bunday o‘zgarish hisob bahosidagi o‘zgarish sifatida qabul qilinadi.

35. Hisob bahosi o‘zgarishining ta’siri mazkur Standartning 36-bandida ko‘rsatilgan o‘zgarishdan tashqari quyidagi hollarda foyda yoki zararga kiritish orqali perspektiv tarzda tan olinishi lozim:

QMMB: 10/26/3797/0298-son
30.03.2026-y.

a) agar o‘zgarish faqat joriy davrga ta’sir qilsa, o‘zgarish sodir bo‘lgan davrda;

b) agar o‘zgarish ham joriy, ham kelgusi davrlarga ta’sir qilsa, o‘zgarish sodir bo‘lgan davr va kelgusi davrlarda.

36. Hisob bahosidagi o‘zgarish aktivlar va majburiyatlarda o‘zgarishlarni keltirib chiqarsa yoxud sof aktivlar yoki kapital ko‘rsatkichiga aloqador bo‘lsa, bunday o‘zgarish tegishli aktiv, majburiyat yoxud sof aktivlar yoki kapital ko‘rsatkichining qoldiq qiymatini o‘zgarish sodir bo‘lgan davrda tuzatish orqali tan olinishi lozim.

37. Hisob bahosidagi o‘zgarishning ta’sirini perspektiv tan olish deganda ushbu o‘zgarishni operatsiyalar, boshqa hodisalar va holatlarga nisbatan o‘zgarish ro‘y bergan sanadan boshlab qo‘llash tushuniladi.

Hisob bahosidagi o‘zgarish faqat joriy davrning foyda yoki zarariga, yoxud ham joriy, ham kelgusi davrlarning foyda yoki zarariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, umidsiz qarzlar summasi bahosidagi o‘zgarish faqat joriy davrning foydasi yoki zarariga ta’sir qiladi. Shu sababli joriy davrda tan olinadi.

Biroq eskirish hisoblanadigan aktivlarning foydali xizmat muddati yoki ularda mujassamlashgan kelgusi iqtisodiy naflar iste’molidagi o‘zgarish joriy davr uchun va aktivning qolgan foydali xizmat muddati davomida har bir kelgusi davr uchun eskirish xarajatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Har ikki holatda o‘zgarishning joriy davrga tegishli bo‘lgan ta’siri joriy davrda daromad yoki xarajat tarzida tan olinadi.

2-§ Ma’lumotlarni yoritib berish

38. Tashkilotlar joriy davrda ta’sir ko‘rsatadigan yoki kelgusi davrlarga ta’sir ko‘rsatishi kutilayotgan hisob bahosidagi o‘zgarishning xususiyati va miqdorini yoritib berishi lozim.

Bunda kelgusi davrlarga bo‘ladigan ta’sirni baholash imkoni bo‘lmaganda, ushbu ta’sirni yoritib berish talab etilmaydi.

39. Agar kelgusi davrlardagi ta’sir miqdorini baholash imkoni bo‘lmaganligi sababli bu ma’lumot yoritib berilmasa, tashkilotlar ushbu holatni ma’lum qilishi lozim.

4-bob. Xatolar

1-§ Oldingi davr xatolarini aniqlash va retrospektiv tuzatish

40. Xatolar moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarini tan olish, baholash, taqdim etish yoki yoritib berish jarayonida yuzaga kelishi mumkin. Agar moliyaviy hisobotda jiddiy xatolar yoki tashkilotlarning moliyaviy holati, moliyaviy faoliyati yoxud pul oqimlarini muayyan ko‘rinishda qasddan kiritilgan muhim bo‘lmagan xatolar mavjud bo‘lsa, bunday moliyaviy hisobot budjet hisobi standartlariga muvofiq hisoblanmaydi.

Joriy davrda aniqlangan xatolar moliyaviy hisobotlar e’lon qilishga ruxsat berilishidan oldin tuzatiladi. Biroq ba’zi jiddiy xatolar keyingi davrgacha aniqlanmasligi mumkin. Bunday oldingi davr xatolari keyingi davr uchun moliyaviy hisobotlarda taqdim etilgan qiyosiy ma’lumotlarda tuzatiladi.

QMMB: 10/26/3797/0298-son
30.03.2026-y.

41. Tashkilotlar o‘tgan davrning muhim xatolarini ular aniqlangandan keyin e’lon qilish uchun ma’qullangan moliyaviy hisobotning birinchi to‘plamida quyidagicha retrospektiv tarzda tuzatishi lozim (ushbu Standartning 42-bandida ko‘rsatilgan holatlar bundan mustasno):

a) xatolik yuz bergan oldingi davr(lar) uchun qiyosiy ko‘rsatkichlarni qayta hisoblash;

b) agar xato taqdim etilgan eng oldingi davrdan avval sodir bo‘lgan bo‘lsa, taqdim etilgan eng oldingi davr uchun aktivlar, majburiyatlar va sof aktivlar yoki kapitalning boshlang‘ich qoldiqlarini qayta hisoblash.

2-§ Retrospektiv qayta hisoblashning cheklovlari

42. Oldingi davr xatosining biror-bir davrga tegishli ta’sirini yoki umumiy ta’sirini aniqlash imkoni bo‘lmasa, retrospektiv qayta hisoblash amalga oshirilmaydi.

43. Bir yoki bir nechta oldingi davrlar uchun taqdim etilgan qiyosiy ma’lumotlarga xatoning davrga xos ta’sirini aniqlash imkonsiz bo‘lganda, tashkilotlar retrospektiv qayta hisoblashni imkoni bo‘lgan eng oldingi davr boshiga (bu joriy davr ham bo‘lishi mumkin) aktivlarning, majburiyatlarning va sof aktivlar yoki kapitalning qoldiqlarini qayta hisoblashi lozim.

44. Joriy davr boshida barcha oldingi davrlar uchun xatolikning umumiy ta’sirini aniqlash imkoni bo‘lmaganda, tashkilotlar xatolikni tuzatish maqsadida qiyosiy ma’lumotlarni amalda mumkin bo‘lgan eng oldingi sanadan boshlab perspektiv ravishda qayta tayyorlashi lozim.

45. Oldingi davr xatosini tuzatish summasi xato aniqlangan davrning foyda yoki zarari tarkibida aks ettirilmaydi. O‘tgan davrlar to‘g‘risida taqdim etilgan har qanday ma’lumot, shu jumladan, moliyaviy hisobotlar ko‘rsatkichlarining o‘tgan davrlardagi yig‘indisi, amaliy imkoni bo‘lgan eng oldingi davrdan boshlab qayta hisoblanadi.

46. Barcha oldingi davrlar uchun xatolik miqdorini (masalan, hisob siyosatini qo‘llashdagi xato) aniqlash imkoni bo‘lmaganda, tashkilotlar mazkur Standartning 44-bandiga muvofiq qiyosiy ma’lumotlarni imkon qadar eng oldingi sanadan boshlab perspektiv tarzda qayta hisoblaydi.

Shuning uchun u ushbu sanadan oldingi aktivlar, majburiyatlar va sof aktivlar yoki kapitalning jamg‘arilgan qayta hisoblash qismini e’tiborga olmaydi.

47. Xatolarni tuzatish hisob baholaridagi o‘zgarishlardan farq qiladi. Hisob baholaridagi o‘zgarishlar o‘z mohiyatiga ko‘ra aniq hisob-kitob emas, balki mavjud axborotlarga asoslangan taxminiy baholashlar bo‘lib, qo‘shimcha ma’lumotlar ma’lum bo‘lganda qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Masalan, shartli majburiyat natijasi bo‘yicha tan olingan foyda yoki zarar xatoni tuzatish hisoblanmaydi.

3-§. Oldingi davrlardagi xatolarni yoritib berish

48. Mazkur Standartning 41-bandini qo‘llashda tashkilotlar quyidagilarni yoritib berishi lozim:

QMMB: 10/26/3797/0298-son
30.03.2026-y.

a) oldingi davr xatosining mohiyati;

b) taqdim etilgan har bir oldingi hisobot davri bo‘yicha, imkon qadar, ta’sir ko‘rsatilgan har bir moliyaviy hisobot ko‘rsatkichi kesimida tuzatish summasi;

d) taqdim etilgan eng oldingi davr boshidagi qoldiqqa tegishli tuzatish summasi;

e) agar ma’lum bir oldingi davr uchun retrospektiv qayta hisoblashni amalga oshirib bo‘lmasa, bu holatning yuzaga kelishiga olib kelgan holatlar hamda xato qanday va qachondan boshlab tuzatilganligi haqidagi ma’lumot.

Keyingi hisobot davrlari moliyaviy hisobotlarida ushbu ma’lumotlarni takroran yoritib berish talab etilmaydi.

4-§ Retrospektiv qo‘llash va retrospektiv qayta hisoblashning amalga oshirib bo‘lmaydigan holatlari

49. Muayyan o‘tgan davr uchun hisob siyosatidagi o‘zgarishni retrospektiv tarzda qo‘llash yoki xatoni tuzatish uchun retrospektiv tarzda qayta hisoblashni quyidagi hollarda amalga oshirib bo‘lmaydi:

a) retrospektiv qo‘llash yoki retrospektiv qayta hisoblashning ta’sirini aniqlash mumkin bo‘lmasa;

b) retrospektiv qo‘llash yoki retrospektiv qayta hisoblash tashkilot rahbariyatining o‘sha davrdagi qarori qanday bo‘lganligi haqidagi taxminlarni talab qilsa;

d) retrospektiv qo‘llash yoki retrospektiv qayta hisoblash summalarning muhim baholarini talab qilsa va quyidagi hisob baholari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni obyektiv ravishda ajratib bo‘lmasa:

ushbu summalar tan olinishi, baholanishi yoki oshkor etilishi lozim bo‘lgan sana(lar)da mavjud bo‘lgan holatlar bo‘yicha asosli hisob baholari;

ko‘rsatilgan oldingi davr uchun moliyaviy hisobotlarni taqdim etish davrida mavjud bo‘lgan hisob baholari.

50. Ayrim hollarda joriy davr bilan taqqoslash uchun bir yoki bir necha o‘tgan davrlarning qiyosiy ma’lumotlarini moslashtirishning imkoni bo‘lmaydi.

Masalan, oldingi davr(lar)da ma’lumotlar yangi hisob siyosatini retrospektiv qo‘llash (shu jumladan, ushbu Standartning 51–53-bandlari maqsadlari uchun uning o‘tgan davrlarga nisbatan perspektiv qo‘llanilishi) yoki oldingi davrdagi xatoni tuzatish uchun retrospektiv qayta hisoblash imkonini beradigan tarzda to‘planmagan bo‘lishi va bu ma’lumotlarni qayta tiklashning iloji bo‘lmasligi mumkin.

51. Hisob siyosati moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlariga nisbatan qo‘llanilganda, operatsiyalar, boshqa hodisalar yoki holatlar bilan bog‘liq ravishda tan olinadigan yoki ochib beriladigan ko‘rsatkichlar bo‘yicha ko‘p hollarda baholashni amalga oshirish zarur bo‘ladi.

Baholash o‘z mohiyatiga ko‘ra muayyan darajada noaniqlikka ega bo‘lib, bunday baholashlar hisobot sanasidan keyin ham shakllantirilishi mumkin.

Hisob siyosatini retrospektiv qo‘llash yoki oldingi davr xatosini tuzatish uchun retrospektiv qayta hisoblashni amalga oshirishda ta’sir ko‘rsatgan operatsiya, boshqa

QMMB: 10/26/3797/0298-son
30.03.2026-y.

hodisa yoki holat sodir bo‘lganidan buyon uzoqroq vaqt o‘tgan bo‘lishi baholashni ishlab chiqishni murakkablashtirishi mumkin.

Shunday bo‘lsa-da, oldingi davrlarga taalluqli baholashlarning maqsadi joriy davrda amalga oshiriladigan baholashlarning maqsadi bilan bir xil bo‘ladi, ya’ni baholash tegishli operatsiya, hodisa yoki holat yuz bergan paytda mavjud bo‘lgan holatlarni aks ettirishi lozim.

52. Yangi hisob siyosatini retrospektiv qo‘llash yoki oldingi davrdagi xatoni retrospektiv tarzda tuzatish jarayonida quyidagi ma’lumotlarni boshqa ma’lumotlardan farqlash talab etiladi:

a) operatsiya, boshqa hodisa yoki holat sodir bo‘lgan sana(lar)da mavjud bo‘lgan holatlarni tasdiqlovchi dalillarni o‘z ichiga olgan ma’lumotlar;

b) ushbu o‘tgan hisobot davri uchun moliyaviy hisobotlar chiqarilishiga ruxsat berilgan paytda mavjud bo‘lgan yoki mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar.

Ayrim turdagi baholashlarda (masalan, kuzatiladigan bozor narxi yoki kuzatiladigan kirish ma’lumotlariga asoslanmagan adolatli qiymat bahosida) ushbu turdagi ma’lumotlarni bir-biridan ajratish amaliy jihatdan mumkin bo‘lmaydi.

Agar retrospektiv qo‘llash yoki retrospektiv qayta hisoblash shunday muhim baholashni talab qilsa, biroq yuqorida ko‘rsatilgan ikki turdagi ma’lumotlarni ajratishning imkoni bo‘lmasa, yangi hisob siyosatini retrospektiv qo‘llash yoki o‘tgan davrdagi xatoni retrospektiv tarzda tuzatish amaliy jihatdan mumkin emas deb hisoblanadi.

53. O‘tgan hisobot davriga nisbatan yangi hisob siyosatini retrospektiv tarzda qo‘llashda yoki ushbu davrga taalluqli summalarni tuzatishda, shuningdek, tashkilot rahbariyatining o‘tgan davrdagi maqsad va qarorlarini qayta talqin qilishda hamda o‘sha davrda tan olingan, baholangan yoki ochib berilgan ko‘rsatkichlarni hisoblashda keyinchalik shakllangan axborot va holatlardan foydalanilmasligi lozim.

Masalan, agar tashkilotlar o‘tgan davrda davlat binosini noto‘g‘ri ravishda investitsiya sifatida tasniflagan bo‘lsa (aslida ushbu bino asosiy vositalar tarkibida hisobga olinishi lozim edi), ushbu xato tuzatilganda, tashkilot rahbariyati keyinchalik mazkur binodan o‘z ehtiyojlari uchun ofis sifatida foydalanishga qaror qilgan bo‘lsa ham, o‘sha o‘tgan davr uchun tasniflash asosi o‘zgartirilmaydi.

Tashkilotlar O‘zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (16-sonli BHS) “Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar”ga (ro‘yxat raqami 3562, 2024-yil 22-oktabr) muvofiq davlat faoliyati natijasida yuzaga kelgan ifloslanishni tozalash xarajatlari uchun majburiyatni hisoblashdagi oldingi davr xatosini tuzatayotganda, keyingi davrda harbiy ta’minot kemasidan g‘ayrioddiy katta miqdorda neft sizib chiqqani haqidagi ma’lumotni e’tiborga olmaydi (agar bu ma’lumot oldingi davr moliyaviy hisoboti tasdiqlangandan so‘ng ma’lum bo‘lgan bo‘lsa).

Oldingi davrlar uchun taqdim etilgan qiyosiy ma’lumotlarni o‘zgartirishda ko‘pincha muhim baholash talab qilinsa-da, bu qiyosiy ma’lumotlarni ishonchli tarzda tuzatish yoki to‘g‘rilashga to‘sqinlik qilmaydi.

QMMB: 10/26/3798/0288-son
30.03.2026-y.

12 (1240)-сон
281-модда

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3798
2026 - yil 27 - Mart

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRINING
BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-iyuldagi PF–111-son “Davlat boshqaruvi tizimida samaradorlik, proaktivlik va natijadorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son “Mehnatni muhofaza qilish sohasiga oid ayrim nizomlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Vazir
2026-yil 12-mart
6-2026/B-son

ZAXIDOV BOTIR
ERKINOVICH

QMMB: 10/26/3798/0288-son
30.03.2026-y.

O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish
va bandlik vazirining 2026-yil 12-martdagi
6-2026/B-son buyrug‘iga
ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

1. O‘zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2009-yil 12-noyabrdagi 64-B-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2056, 2009-yil 18-dekabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009-y., 50-51-son, 550-modda) bilan tasdiqlangan Tabiiy toshdan buyumlar (plitalar, bloklar) ishlab chiqarishda mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) quyidagi mazmundagi 3^1-band bilan to‘ldirilsin:

“3^1. Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha nazorat O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.”;

2) 7-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish borasidagi ishlarni tashkil qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

3) quyidagi mazmundagi 7^1-band bilan to‘ldirilsin:

“7^1. O‘zbekiston Respublikasi “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasiga muvofiq, ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiruvchi, xodimlarining soni ellik kishi va undan ortiq bo‘lgan har bir tashkilotda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini ta’minlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida mehnatni muhofaza qilish xizmati tashkil etiladi yoki mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha tegishli tayyorgarlikka ega bo‘lgan mutaxassis lavozimi joriy etiladi. Ellikta va undan ortiq transport vositasi mavjud bo‘lgan tashkilotda yo‘l harakati xavfsizligi xizmati ham tashkil etiladi yoki yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi.

QMMB: 10/26/3798/0288-son
30.03.2026-y.

Xodimlarining soni ellik nafardan kam boʻlgan tashkilotda mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish yoki mehnatni muhofaza qilish boʻyicha mutaxassis lavozimini joriy etish toʻgʻrisidagi qaror ish beruvchi tomonidan mazkur tashkilot faoliyatining oʻziga xos xususiyati hisobga olingan holda qabul qilinadi.

Mehnatni muhofaza qilish xizmati va yoʻl harakati xavfsizligi xizmati tashkilotning mustaqil tarkibiy boʻlinmalari boʻlib, ular bevosita tashkilot rahbariga boʻysunadi.”;

4) quyidagi mazmundagi 13^1-band bilan toʻldirilsin:

“13^1. Bevosita ishlab chiqarishda ishlarni tashkillashtirish va bajarish bilan bogʻliq ishchilar, rahbarlar, muhandis-texnik xodimlarning mehnatni muhofaza qilish boʻyicha bilimlarini sinovdan oʻtkazish Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish boʻyicha yoʻl-yoʻriqdan oʻtkazish, oʻqitish va bilimlarni tekshirish, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash toʻgʻrisidagi nizomga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

5) 17-banddagi “mehnat muhofazasi” degan soʻzlar “mehnatni muhofaza qilish” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

2. Oʻzbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2009-yil 28-dekabrdagi 81-B-son buyrugʻi (roʻyxat raqami 2059, 2010-yil 7-yanvar) (Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2010-y., 1-2-son, 8-modda) bilan tasdiqlangan Klinik diagnostika laboratoriyalarida ishlashda mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) quyidagi mazmundagi 3^1-band bilan toʻldirilsin:

“3^1. Mehnatni muhofaza qilish boʻyicha nazorat Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi toʻgʻrisidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.”;

2) 6-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“6. Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish borasidagi ishlarni tashkil qilish Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi toʻgʻrisidagi nizomga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

3) quyidagi mazmundagi 6^1-band bilan toʻldirilsin:

“6^1. Oʻzbekiston Respublikasi “Mehnatni muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi Qonunining 12-moddasiga muvofiq, ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiruvchi, xodimlarining soni ellik kishi va undan ortiq boʻlgan har bir tashkilotda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini taʼminlash, ularning bajarilishi ustidan

QMMB: 10/26/3798/0288-son
30.03.2026-y.

nazoratni amalga oshirish maqsadida mehnatni muhofaza qilish xizmati tashkil etiladi yoki mehnatni muhofaza qilish boʻyicha tegishli tayyorgarlikka ega boʻlgan mutaxassis lavozimi joriy etiladi. Ellikta va undan ortiq transport vositasi mavjud boʻlgan tashkilotda yoʻl harakati xavfsizligi xizmati ham tashkil etiladi yoki yoʻl harakati xavfsizligi boʻyicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi.

Xodimlarining soni ellik nafardan kam boʻlgan tashkilotda mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish yoki mehnatni muhofaza qilish boʻyicha mutaxassis lavozimini joriy etish toʻgʻrisidagi qaror ish beruvchi tomonidan mazkur tashkilot faoliyatining oʻziga xos xususiyati hisobga olingan holda qabul qilinadi.

Mehnatni muhofaza qilish xizmati va yoʻl harakati xavfsizligi xizmati tashkilotning mustaqil tarkibiy boʻlinmalari boʻlib, ular bevosita tashkilot rahbariga boʻysunadi.”;

4) quyidagi mazmundagi 8^1-band bilan to‘ldirilsin:

“8^1. Xodimlarning mehnatni muhofaza qilish boʻyicha bilimlarini sinovdan oʻtkazish Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish boʻyicha yoʻl-yoʻriqdan oʻtkazish, oʻqitish va bilimlarni tekshirish, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash toʻgʻrisidagi nizomga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

5) 10-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“10. Ishlarni texnologik reglament boʻyicha xavfsiz yuritish yoʻriqnomalari Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish boʻyicha yoʻriqnomalarni ishlab chiqish toʻgʻrisidagi nizomga muvofiq ishlab chiqiladi va ishlovchilar hamda ish joylarini shu yoʻriqnomalar bilan taʼminlash tuzilmaviy boʻlinmalar rahbarlari zimmasiga yuklatiladi.”.

3. Oʻzbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2009-yil 10-dekabrdagi 76-B-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2061, 2010-yil 11-yanvar) (Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2010-y., 1-2-son, 10-modda) bilan tasdiqlangan Kitob savdosi tashkilotlari xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) quyidagi mazmundagi 3^1-band bilan to‘ldirilsin:

“3^1. Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha nazorat Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi toʻgʻrisidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.”;

2) 7-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish borasidagi ishlarni tashkil qilish Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda

QMMB: 10/26/3798/0288-son
30.03.2026-y.

mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi toʻgʻrisidagi nizomga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

3) quyidagi mazmundagi 7^1-band bilan toʻldirilsin:

“7^1. Tashkilotlarda quyidagi asosiy hujjatlar ishlab chiqiladi (tasdiqlanadi) va yuritiladi:

mehnat sharoitlari va mehnatni muhofaza qilish ishlarini yaxshilash, sanitariya-sogʻlomlashtirish tadbirlari boʻyicha boʻlimni oʻz ichiga olgan jamoaviy shartnoma;

tasdiqlangan mehnat sharoitlarini baholash va ish oʻrinlarini attestatsiya qilish uslubiga muvofiq ish oʻrinlarini attestatsiya qilish kartalari;

mehnatni muhofaza qilish xizmatining choraklik ish rejalari;

ishchilar va muhandis-texnik xodimlarni oʻqitish, yoʻl-yoʻriq berish va bilimlarini sinovdan oʻtkazish dasturlari;

mehnatni muhofaza qilish boʻyicha maʼmuriy-jamoatchilik nazoratini yuritish jurnali (uch bosqichli nazorat);

ishchi va xizmatchilar bilan yongʻinga qarshi yoʻl-yoʻriq berish va yongʻin-texnikaviy minimum mashgʻulotlarini oʻtkazish dasturi;

har bir kasb va ish turlari boʻyicha mehnatni muhofaza qilish yoʻriqnomalari.”;

4) quyidagi mazmundagi 12^1-band bilan toʻldirilsin:

“12^1. Xodimlarning mehnatni muhofaza qilish boʻyicha bilimlarini sinovdan oʻtkazish Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish boʻyicha yoʻl-yoʻriqdan oʻtkazish, oʻqitish va bilimlarni tekshirish, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash toʻgʻrisidagi nizomga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

5) III-boʻlimning nomi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“III. Mehnatni muhofaza qilish boʻyicha qoidalarni buzganligi uchun javobgarlik”.

4. Oʻzbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2009-yil 10-dekabrdagi 76/1-son buyrugʻi (roʻyxat raqami 2067, 2010-yil 14-yanvar) (Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2010-y., 1-2-son, 17-modda) bilan tasdiqlangan Daryo transporti xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) quyidagi mazmundagi 3^1-band bilan toʻldirilsin:

“3^1. Mehnatni muhofaza qilish boʻyicha nazorat Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi toʻgʻrisidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.”;

QMMB: 10/26/3798/0288-son
30.03.2026-y.

2) 7-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish borasidagi ishlarni tashkil qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

3) quyidagi mazmundagi 7^1-band bilan to‘ldirilsin:

“7^1. Tashkilotlarda quyidagi asosiy hujjatlar ishlab chiqiladi (tasdiqlanadi) va yuritiladi:

mehnat sharoitlari va mehnatni muhofaza qilish ishlarini yaxshilash, sanitariya-sog‘lomlashtirish chora-tadbirlari bo‘yicha bo‘limni o‘z ichiga olgan jamoaviy shartnoma;

tasdiqlangan mehnat sharoitlarini baholash va ish o‘rinlarini attestatsiya qilish uslubiga muvofiq ish o‘rinlarini attestatsiya qilish kartalari;

mehnatni muhofaza qilish xizmatining choraklik ish rejalari;

mehnatni muhofaza qilish mutaxassislarni o‘qitish, yo‘l-yo‘riq berish va bilimlarini sinovdan o‘tkazish dasturlari;

ishchi va xizmatchilar bilan yong‘inga qarshi yo‘l-yo‘riq berish va yong‘in-texnikaviy minimum mashg‘ulotlarini o‘tkazish dasturi;

har bir kasb va ish turlari bo‘yicha mehnatni muhofaza qilish yo‘riqnomalari.”;

4) quyidagi mazmundagi 12^1-band bilan to‘ldirilsin:

“12^1. Xodimlarning mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha bilimlarini sinovdan o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqdan o‘tkazish, o‘qitish va bilimlarni tekshirish, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

5) 14-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“14. Ishlarni texnologik reglament bo‘yicha xavfsiz yuritish yo‘riqnomalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘riqnomalarni ishlab chiqish to‘g‘risidagi nizomga muvofiq ishlab chiqiladi va ishlovchilar hamda ish joylarini shu yo‘riqnomalar bilan ta’minlash tuzilmaviy bo‘linmalar rahbarlari zimmasiga yuklatiladi.”.

5. O‘zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2009-yil 28-dekabrdagi 82-B-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2068, 2010-yil 15-yanvar) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010-y., 1-2-son, 18-modda, 51-son, 494-modda) bilan tasdiqlangan Temir yo‘l transporti ta’mirlash tashkilotlari xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

QMMB: 10/26/3798/0288-son
30.03.2026-y.

1) quyidagi mazmundagi 3^1-band bilan to‘ldirilsin:

“3^1. Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha nazorat O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.”;

2) 7-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish borasidagi ishlarni tashkil qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

3) quyidagi mazmundagi 7^1-band bilan to‘ldirilsin:

“7^1. Tashkilotlarda quyidagi asosiy hujjatlar ishlab chiqiladi (tasdiqlanadi) va yuritiladi:

mehnat sharoitlari va mehnatni muhofaza qilish ishlarini yaxshilash, sanitariya-sog‘lomlashtirish chora-tadbirlari bo‘yicha bo‘limni o‘z ichiga olgan jamoaviy shartnoma;

tasdiqlangan mehnat sharoitlarini baholash va ish o‘rinlarini attestatsiya qilish uslubiga muvofiq ish o‘rinlarini attestatsiya qilish kartalari;

mehnatni muhofaza qilish xizmatining choraklik ish rejalari;

mehnatni muhofaza qilish mutaxassislarni o‘qitish, yo‘l-yo‘riq berish va bilimlarini sinovdan o‘tkazish dasturlari;

mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha ma’muriy-jamoatchilik nazoratini yuritish jurnali (uch bosqichli nazorat);

ishchi va xizmatchilar bilan yong‘inga qarshi yo‘l-yo‘riq berish va yong‘in-texnikaviy minimum mashg‘ulotlarini o‘tkazish dasturi;

har bir kasb va ish turlari bo‘yicha mehnatni muhofaza qilish yo‘riqnomalari.”;

4) quyidagi mazmundagi 12^1-band bilan to‘ldirilsin:

“12^1. Bevosita temir yo‘l transportini ta’mirlash ishlarini tashkillashtirish va bajarish bilan bog‘liq xodimlar, rahbarlar, muhandis-texnik xodimlarning mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha bilimlarini sinovdan o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqdan o‘tkazish, o‘qitish va bilimlarni tekshirish, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

5) 14-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

QMMB: 10/26/3798/0288-son
30.03.2026-y.

“14. Ishlarni texnologik reglament boʻyicha xavfsiz yuritish yoʻriqnomalari Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish boʻyicha yoʻriqnomalarni ishlab chiqish toʻgʻrisidagi nizomga muvofiq ishlab chiqiladi va ishlovchilar hamda ish joylarini shu yoʻriqnomalar bilan taʼminlash tuzilmaviy boʻlinmalar rahbarlari zimmasiga yuklatiladi.”;

6) 20-banddagi “mehnat muhofazasi” degan soʻzlar “mehnatni muhofaza qilish” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

QMMB: 10/26/3799/0289-son
30.03.2026-y.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3799
2026 - yil 27 - Mart

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-iyuldagi PF–111-son “Davlat boshqaruvi tizimida samaradorlik, proaktivlik va natijadorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son “Mehnatni muhofaza qilish sohasiga oid ayrim nizomlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Vazir
2026-yil 12-mart
05-2026/B-son

ZAXIDOV BOTIR
ERKINOVICH

QMMB: 10/26/3799/0289-son
30.03.2026-y.

O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish
va bandlik vazirining 2026-yil 12-martdagi
05-2026/B-son buyrug‘iga
ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

1. O‘zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2012-yil 29-fevraldagi 10-B-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2348, 2012-yil 31-mart) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012-y., 14-son, 159-modda) bilan tasdiqlangan Fizioterapevtik bo‘linmalar (kabinetlar) xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) 6-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“6. Bo‘linmalarda mehnatni muhofaza qilish borasidagi ishlarni tashkil qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshiriladi.”;

2) quyidagi mazmundagi 6^1-band bilan to‘ldirilsin:

“6^1. Bo‘linmalarda quyidagi asosiy hujjatlar yuritiladi:

mehnat sharoitlari va mehnatni muhofaza qilish ishlarini yaxshilash, sanitariya-sog‘lomlashtirish chora-tadbirlari;

tasdiqlangan mehnat sharoitlarini baholash va ish o‘rinlarini attestatsiya qilish uslubiga muvofiq ish o‘rinlarini attestatsiya qilish kartalari;

mehnatni muhofaza qilish xizmatining choraklik ish rejalari;

ishchilar va muhandis-texnik xodimlarni o‘qitish, yo‘l-yo‘riq berish va bilimlarini sinovdan o‘tkazish dasturlari;

mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha ma’muriy-jamoatchilik nazoratini yuritish jurnali (uch bosqichli nazorat);

xodimlar bilan yong‘inga qarshi yo‘l-yo‘riq berish va yong‘in-texnikaviy minimum mashg‘ulotlarini o‘tkazish dasturi;

har bir kasb va ish turlari bo‘yicha mehnatni muhofaza qilish yo‘riqnomalari.”;

QMMB: 10/26/3799/0289-son
30.03.2026-y.

3) quyidagi mazmundagi 7^1 band bilan to‘ldirilsin:

“7^1. Xodimlarning mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha bilimlarini tekshirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqdan o‘tkazish, o‘qitish va bilimlarni tekshirish, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

4) 9-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“9. Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘riqnomalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘riqnomalarni ishlab chiqish to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq ishlab chiqiladi hamda tashkilot xodimlarini va ish joylarini ushbu yo‘riqnomalar bilan ta’minlash tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”;

5) 14-banddagi “mehnat muhofazasi” degan so‘zlar “mehnatni muhofaza qilish” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2013-yil 8-yanvardagi 1-B-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2424, 2013-yil 5-fevral) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 6-son, 77-modda) bilan tasdiqlangan Shahar elektr transportida ishlashda mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) 6-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“6. Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish borasidagi ishlarni tashkil qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshiriladi.”;

2) quyidagi mazmundagi 6^1-band bilan to‘ldirilsin:

“6^1. Tashkilotlarda quyidagi asosiy hujjatlar ishlab chiqiladi (tasdiqlanadi) va yuritiladi:

mehnat sharoitlari va mehnatni muhofaza qilish ishlarini yaxshilash, sanitariya-sog‘lomlashtirish chora-tadbirlari bo‘yicha bo‘limni o‘z ichiga olgan jamoaviy shartnoma;

tasdiqlangan mehnat sharoitlarini baholash va ish o‘rinlarini attestatsiya qilish uslubiga muvofiq ish o‘rinlarini attestatsiya qilish kartalari;

mehnatni muhofaza qilish xizmatining choraklik ish rejalari;

xodimlar va muhandis-texnik xodimlarni o‘qitish, yo‘l-yo‘riq berish va bilimlarini sinovdan o‘tkazish dasturlari;

mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha ma’muriy-jamoatchilik nazoratini yuritish jurnali (uch bosqichli nazorat);

xodimlarga yong‘inga qarshi yo‘l-yo‘riq berish va yong‘in-texnikaviy minimum mashg‘ulotlarini o‘tkazish dasturi;

QMMB: 10/26/3799/0289-son
30.03.2026-y.

har bir kasb va ish turlari boʻyicha mehnatni muhofaza qilish yoʻriqnomalari.”;

3) quyidagi mazmundagi 11^1-band bilan toʻldirilsin:

“11^1. Xodimlarning mehnatni muhofaza qilish boʻyicha bilimlarini tekshirish Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish boʻyicha yoʻl-yoʻriqdan oʻtkazish, oʻqitish va bilimlarni tekshirish, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash toʻgʻrisidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

4) 13-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“13. Mehnatni muhofaza qilish boʻyicha yoʻriqnomalar Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish boʻyicha yoʻriqnomalarni ishlab chiqish toʻgʻrisidagi nizom talablariga muvofiq ishlab chiqiladi hamda tashkilot xodimlarini va ish joylarini ushbu yoʻriqnomalar bilan taʼminlash tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”;

5) 18-banddagi “mehnat muhofazasi” degan soʻzlar “mehnatni muhofaza qilish” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

3. Oʻzbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2013-yil 1-apreldagi 20-B son buyrugʻi (roʻyxat raqami 2454, 2013-yil 1-may) (Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2013-y., 18-son, 237-modda) bilan tasdiqlangan Taʼlim tashkilotlarining oʻquv va oʻquv-ishlab chiqarish ustaxonalari uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) 6-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“6. Ta’lim tashkilotlarida mehnatni muhofaza qilish borasidagi ishlarni tashkil qilish Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi toʻgʻrisidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshiriladi.”;

2) quyidagi mazmundagi 6^1-band bilan toʻldirilsin:

“6^1. Taʼlim tashkilotlarida quyidagi asosiy hujjatlar ishlab chiqiladi (tasdiqlanadi) va yuritiladi:

mehnat sharoitlari va mehnatni muhofaza qilish ishlarini yaxshilash, sanitariya-sogʻlomlashtirish chora-tadbirlari boʻyicha boʻlimni oʻz ichiga olgan jamoaviy shartnoma;

tasdiqlangan mehnat sharoitlarini baholash va ish oʻrinlarini attestatsiya qilish uslubiga muvofiq ish oʻrinlarini attestatsiya qilish kartalari;

mehnatni muhofaza qilish xizmatining choraklik ish rejalari;

xodimlar va muhandis-texnik xodimlarni oʻqitish, yoʻl-yoʻriq berish va bilimlarini sinovdan oʻtkazish dasturlari;

mehnatni muhofaza qilish boʻyicha maʼmuriy-jamoatchilik nazoratini yuritish jurnali (uch bosqichli nazorat);

xodimlarga yongʻinga qarshi yoʻl-yoʻriq berish va yongʻin-texnikaviy minimum mashgʻulotlarini oʻtkazish dasturi;

har bir kasb va ish turlari boʻyicha mehnatni muhofaza qilish yoʻriqnomalari.”;

3) quyidagi mazmundagi 11^1-band bilan toʻldirilsin:

“11^1. Xodimlarning mehnatni muhofaza qilish boʻyicha bilimlarini tekshirish Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish boʻyicha yoʻl-yoʻriqdan oʻtkazish, oʻqitish va bilimlarni tekshirish, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash toʻgʻrisidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

4) 13-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“13. Mehnatni muhofaza qilish boʻyicha yoʻriqnomalar Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish boʻyicha yoʻriqnomalarni ishlab chiqish toʻgʻrisidagi nizom talablariga muvofiq ishlab chiqiladi hamda ta’lim tashkiloti xodimlarini va ish joylarini ushbu yoʻriqnomalar bilan taʼminlash ta’lim tashkiloti rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”;

5) 26-banddagi “mehnat muhofazasi” degan soʻzlar “mehnatni muhofaza qilish” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

4. Oʻzbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2013-yil 14-maydagi 33-B-son buyrugʻi (roʻyxat raqami 2461, 2013-yil 30-may) (Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2013-y., 22-son, 295-modda) bilan tasdiqlangan Oshxonalar, restoranlar hamda boshqa korxonalar va ishlab chiqarishlarda oziq-ovqat tayyorlash va aholiga xizmat koʻrsatishda band boʻlgan xodimlar uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) 6-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“6. Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish borasidagi ishlarni tashkil qilish Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi toʻgʻrisidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshiriladi.”;

2) quyidagi mazmundagi 6^1-band bilan toʻldirilsin:

6^1. Tashkilotlarda quyidagi asosiy hujjatlar ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi lozim:

QMMB: 10/26/3799/0289-son
30.03.2026-y.

mehnat sharoitlari va mehnatni muhofaza qilish ishlarini yaxshilash, sanitariya-sog‘lomlashtirish chora-tadbirlari bo‘yicha bo‘limni o‘z ichiga olgan jamoaviy shartnoma;

tasdiqlangan mehnat sharoitlarini baholash va ish o‘rinlarini attestatsiya qilish uslubiga muvofiq ish o‘rinlarini attestatsiya qilish kartalari;

mehnatni muhofaza qilish xizmatining choraklik ish rejalari;

xodimlar va muhandis-texnik xodimlarni o‘qitish, yo‘l-yo‘riq berish va bilimlarini sinovdan o‘tkazish dasturlari;

mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha ma’muriy-jamoatchilik nazoratini yuritish jurnali (uch bosqichli nazorat);

xodimlarga yong‘inga qarshi yo‘l-yo‘riq berish va yong‘in-texnikaviy minimum mashg‘ulotlarini o‘tkazish dasturi;

har bir kasb va ish turlari bo‘yicha mehnatni muhofaza qilish yo‘riqnomalari.”;

3) quyidagi mazmundagi 11^1-band bilan to‘ldirilsin:

“11^1. Xodimlarning mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha bilimlarini tekshirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqdan o‘tkazish, o‘qitish va bilimlarni tekshirish, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

4) 13-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“13. Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘riqnomalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘riqnomalarni ishlab chiqish to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq ishlab chiqiladi hamda tashkilot xodimlarini va ish joylarini ushbu yo‘riqnomalar bilan ta’minlash tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”;

5) 18 va 335-bandlardagi “mehnat muhofazasi” degan so‘zlar “mehnatni muhofaza qilish” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2013-yil 14-maydagi 34-B-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2466, 2013-yil 7-iyun) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 23-son, 310-modda) bilan tasdiqlangan Elektr priborlari va tashkiliy texnika bilan ishlashda, ularni ta’mirlash va ularga xizmat ko‘rsatishda mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) 6-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“6. Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish borasidagi ishlarni tashkil qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda

QMMB: 10/26/3799/0289-son
30.03.2026-y.

mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshiriladi.”;

2) quyidagi mazmundagi 6^1-band bilan to‘ldirilsin:

“6^1. Tashkilotlarda quyidagi asosiy hujjatlar ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi lozim:

mehnat sharoitlari va mehnatni muhofaza qilish ishlarini yaxshilash, sanitariya-sog‘lomlashtirish chora-tadbirlari bo‘yicha bo‘limni o‘z ichiga olgan jamoaviy shartnoma;

tasdiqlangan mehnat sharoitlarini baholash va ish o‘rinlarini attestatsiya qilish uslubiga muvofiq ish o‘rinlarini attestatsiya qilish kartalari;

mehnatni muhofaza qilish xizmatining choraklik ish rejalari;

xodimlar va muhandis-texnik xodimlarni o‘qitish, yo‘l-yo‘riq berish va bilimlarini sinovdan o‘tkazish dasturlari;

mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha ma’muriy-jamoatchilik nazoratini yuritish jurnali (uch bosqichli nazorat);

xodimlarga yong‘inga qarshi yo‘l-yo‘riq berish va yong‘in-texnikaviy minimum mashg‘ulotlarini o‘tkazish dasturi;

har bir kasb va ish turlari bo‘yicha mehnatni muhofaza qilish yo‘riqnomalari.”;

2) quyidagi mazmundagi 11^1-band bilan to‘ldirilsin:

“11^1. Xodimlarning mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha bilimlarini tekshirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqdan o‘tkazish, o‘qitish va bilimlarni tekshirish, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

4) 13-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“13. Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘riqnomalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘riqnomalarni ishlab chiqish to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq ishlab chiqiladi hamda tashkilot xodimlarini va ish joylarini ushbu yo‘riqnomalar bilan ta’minlash tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”;

5) 18 va 236-bandlardagi “mehnat muhofazasi” degan so‘zlar “mehnatni muhofaza qilish” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2015-yil 25-dekabrdagi 60-B-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2747, 2015-yil 29-dekabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 52-son, 655-modda) bilan

tasdiqlangan Yorugʻlik manbalari va yorugʻlik-texnika asbob-uskunalari ishlab chiqarish xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Qoidalar yorugʻlik manbalari va yorugʻlik-texnika asbob-uskunalari ishlab chiqarish xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalarini belgilaydi.”;

2) 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Qoidalar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablari bajarilishi shart ekanligini istisno etmaydi.”;

3) 5-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish borasidagi ishlarni tashkil qilish Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi toʻgʻrisidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshiriladi.”;

4) 6-bandning sakkizinchi xatboshisidagi “mehnat muhofazasi” degan soʻzlar “mehnatni muhofaza qilish” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

5) 7 va 8-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. Oʻzbekiston Respublikasi “Mehnatni muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi Qonunining 12-moddasiga muvofiq, ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiruvchi, xodimlarining soni ellik kishi va undan ortiq boʻlgan har bir tashkilotda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini ta’minlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida mehnatni muhofaza qilish xizmati tashkil etiladi yoki mehnatni muhofaza qilish boʻyicha tegishli tayyorgarlikka ega boʻlgan mutaxassis lavozimi joriy etiladi. Ellikta va undan ortiq transport vositasi mavjud boʻlgan tashkilotda yoʻl harakati xavfsizligi xizmati ham tashkil etiladi yoki yoʻl harakati xavfsizligi boʻyicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi.

Xodimlarining soni ellik nafardan kam boʻlgan tashkilotda mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish yoki mehnatni muhofaza qilish boʻyicha mutaxassis lavozimini joriy etish toʻgʻrisidagi qaror ish beruvchi tomonidan mazkur tashkilot faoliyatining oʻziga xos xususiyati hisobga olingan holda qabul qilinadi.

8. Mehnatni muhofaza qilish xizmati va yoʻl harakati xavfsizligi xizmati tashkilotning mustaqil tarkibiy boʻlinmalari boʻlib, ular bevosita tashkilot rahbariga boʻysunadi.”;

6) 12 va 13-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“12. Xodimlarning mehnatni muhofaza qilish boʻyicha bilimlarini tekshirish Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish boʻyicha yoʻl-yoʻriqdan oʻtkazish, oʻqitish va bilimlarni tekshirish, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash toʻgʻrisidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

13. Mehnatni muhofaza qilish boʻyicha yoʻriqnomalar Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish boʻyicha yoʻriqnomalarni ishlab chiqish toʻgʻrisidagi nizom talablariga muvofiq ishlab chiqiladi hamda tashkilot xodimlarini va ish joylarini ushbu yoʻriqnomalar bilan taʼminlash tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”;

7) 20 va 275-bandlardagi “mehnat muhofazasi” degan soʻzlar “mehnatni muhofaza qilish” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

8) 36-banddagi “davriy tibbiy koʻrikdan” degan soʻzlar “dastlabki (mehnat shartnomasini tuzayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy koʻrikdan” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

9) 37-banddagi “Tibbiy koʻriklar” degan soʻzlar “Majburiy tibbiy koʻriklar” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

10) 38-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“38. Ish beruvchi majburiy tibbiy koʻrikdan oʻtmagan yoxud majburiy tibbiy koʻrik natijalariga koʻra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarishdan boʻyin tovlagan shaxslarni ishdan chetlashtirishi shart.”;

11) 42-bandning uchinchi xatboshisidagi “QMQ 3.01.05-98 “Tabiiy va sunʼiy yoritish. Loyihalashtirish meʼyorlari”ga” degan soʻzlar “SHNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sunʼiy yoritish” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

12) 43-banddagi “QMQ 2.04.05-97 “Isitish, ventilyatsiya va konditsionerlash” talablariga” degan soʻzlar “SHNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

13) 51-banddagi “QMQ 2.09.04-98 “Tashkilotlarning maʼmuriy va maishiy binolari” talablariga” degan soʻzlar “SHNQ 2.09.02-23 “Korxonalarning ishlab chiqarish hamda maʼmuriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

14) 65-banddagi “QMQ 2.04.05-97 “Isitish, shamollatish va konditsionerlash” talablariga” degan soʻzlar “SHNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

15) 74-banddagi “QMQ 2.01.05-98 “Tabiiy va sunʼiy yoritish” talablariga” degan soʻzlar “SHNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sunʼiy yoritish” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

QMMB: 10/26/3799/0289-son
30.03.2026-y.

16) 85-banddagi “SHNQ 2.09.04-09 “Tashkilotlarning maʼmuriy va maishiy binolari” talablariga” degan soʻzlar “SHNQ 2.09.02-23 “Korxonalarning ishlab chiqarish hamda maʼmuriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

17) 97-banddagi “GOST 12.1.004-91 “Yongʻin xavfsizligi. Umumiy talablar” va GOST 12.1.010-76 “Portlash xavfsizligi. Umumiy talablar”ga” degan soʻzlar “GOST 12.1.033-81 “Mehnat xavfsizligi standartlari tizimi. Yongʻin xavfsizligi. Atamalar va taʼriflar”ga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

18) 107-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“107. Tashkilotlarda elektr qurilmalarini oʻrnatishda va ulardan foydalanishda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 712-son qarori bilan tasdiqlangan Iste’molchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari va Iste’molchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari talablariga rioya qilinishi kerak.”.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3800
2026 - yil 27 - Mart

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT VAZIRLIGI HUZURIDAGI FUQARO AVIATSIYASI AGENTLIGI DIREKTORINING BUYRUG‘I

Fuqaro aviatsiyasida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va tibbiy xulosa berish tartibi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining aviatsiya qoidalarini tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasining Havo kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-oktabrdagi PF–193-son “Fuqaro aviatsiyasi sohasida davlat siyosati yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq **buyuraman:**

1. Fuqaro aviatsiyasida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va tibbiy xulosa berish tartibi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining aviatsiya qoidalari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Direkor
04-Mart 2026-yil
3H son

NAZAROV TAXIR
ALIMJANOVICH

Kelishildi:

Rais 04-Mart 2026-yil		RAFIKOV KUDRATULLA MIRSAGATOVICH
Vazir 17-Fevral 2026-yil		TASHPULATOV AZIZ ANVAROVICH
Vazir 12-Fevral 2026-yil		ZAXIDOV BOTIR ERKINOVICH
Vazir 24-Noyabr 2025-yil		XUDAYAROV ASILBEK ANVAROVICH
Vazir 24-Noyabr 2025-yil		MAXKAMOV ILXOM RUSTAMOVICH

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi
huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi direktorining
2026-yil 4-martdagi 3H-son buyrug‘iga
ILOVA

Fuqaro aviatsiyasida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va tibbiy xulosa berish tartibi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining aviatsiya qoidalari

Mazkur Aviatsiya qoidalari fuqaro aviatsiyasida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va tibbiy xulosa berish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Aviatsiya qoidalarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

nomzod – tibbiy xulosa olishga ariza beruvchi shaxs;

fuqaro aviatsiyasi tashkiloti – havo kemasining ekspluatanti (aviakompaniya), sertifikatlangan ta’lim muassasasi, havo kemalariga texnik xizmat ko‘rsatish, havodagi harakatga xizmat ko‘rsatish yoki O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasida parvozlarni amalga oshirish va ta’minlash bilan shug‘ullanadigan har qanday boshqa tashkilot;

fuqaro aviatsiyasi tashkilotining shifokori – oliy tibbiy ma’lumotga ega, davolash ishi yoki terapiya yo‘nalishi bo‘yicha tegishli mutaxassislik diplomiga ega bo‘lgan, kamida 2 yil amaliy ish stajiga, shuningdek aviatsiya tibbiyoti bo‘yicha sertifikatga ega bo‘lgan shifokor;

vakolatli organ – O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi;

malaka belgisi – aviatsiya xodimining huquq va majburiyatlari, cheklovlari ko‘rsatilgan fuqaro aviatsiyasining aviatsiya xodimi guvohnomasidagi (bundan buyon matnda guvohnoma deb yuritiladi) tegishli yozuvlar;

rasmiy tibbiy xulosa – parvozlarni amalga oshirishga doir masalalarda mutaxassislarni yoki boshqa soha ekspertlarini jalb etgan holda bir yoki bir nechta tibbiy ekspertlar tomonidan muayyan holat bo‘yicha chiqarilgan va vakolatli organ tomonidan qabul qilingan yakuniy tibbiy xulosa;

tibbiy-uchish komissiyasi (bundan buyon matnda TUK deb yuritiladi) – fuqaro aviatsiyasida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va tibbiy xulosa berish faoliyatini amalga oshiruvchi vakolatli organ tomonidan tayinlangan tibbiy-uchish komissiyasi;

tibbiy-uchish komissiya a’zosi (bundan buyon matnda TUK a’zosi deb yuritiladi)– “davolash ishi” bo‘yicha oliy tibbiy ma’lumotga ega bo‘lgan, aviatsiya tibbiyoti sohasi bo‘yicha tayyorgarlikdan o‘tgan, ushbu sohada amaliy ko‘nikmaga va kamida 2 yil ish tajribasiga ega bo‘lgan vakolatli organ tomonidan tayinlanadigan shaxs;

tibbiy xulosa – vakolatli organ tomonidan guvohnoma egasining sog‘lig‘iga ko‘ra yaroqliligiga qo‘yilgan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat;

tibbiy ekspert – faoliyati parvozlar xavfsizligini nazorat qilish va ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan oliy tibbiy ma’lumotga ega, aviatsiya tibbiyoti sohasi bo‘yicha tayyorgarlikdan o‘tgan, ushbu sohada amaliy ko‘nikmaga, fuqaro aviatsiyasi tizimida kamida 5 yil ish stajiga hamda parvozlar xavfsizligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan tibbiy omillarni aniqlash, tahlil qilish va baholash bo‘yicha malakaga ega bo‘lgan shaxs;

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

havodagi harakatni boshqarish dispetcheri (bundan buyon matnda HHB dispetcheri deb yuritiladi) – guvohnoma va malaka belgisiga ega bo‘lgan, havodagi harakatni boshqarishni ta’minlovchi aviatsiya xodimi.

2. Tibbiy xulosa olish uchun nomzodning sog‘lig‘i holatiga ko‘ra yaroqliligiga qo‘yiladigan talablar ushbu Aviatsiya qoidalarining 1 – 3-ilovalariga muvofiq belgilanadi.

3. Nomzodlarga ularning tegishli toifalariga ko‘ra 1-klass, 2-klass yoki 3-klass tibbiy xulosa beriladi.

4. Tibbiy xulosalar quyidagi klasslar bo‘yicha beriladi:

a) 1-klass tibbiy xulosasi – tijorat aviatsiyasi uchuvchisi (samolyot, vertolyot, dirijabl va ko‘tarish kuchini oshirish tizimiga ega boshqa havo kemalari), ko‘p a’zoli ekipaj (samolyot) uchuvchisi, fuqaro aviatsiyasi tashkilotining yo‘nalishdagi uchuvchisi (samolyot, vertolyot, ko‘tarish kuchini oshirish tizimiga ega havo kemasi), sinovchi-uchuvchi, fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlarining mazkur mutaxassisliklar bo‘yicha uchuvchi-kursantlari hamda o‘qishga qabul qilinayotganlar;

b) 2-klass tibbiy xulosasi – shturman, bortmuhandis, havaskor uchuvchi (samolyot, vertolyot, dirijabl va ko‘tarish kuchini oshirish tizimiga ega havo kemalari), uchuvchi, uchuvchi-planerist, erkin aerostat uchuvchisi, kabina ekipaji a’zosi, bortoperator, kichik aviatsiya uchuvchilari, fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlarining mazkur mutaxassisliklar bo‘yicha o‘quvchilari va o‘qishga qabul qilinayotganlar;

v) 3-klass tibbiy xulosasi – HHB dispetcheri, tashqi uchuvchi va fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlarining mazkur mutaxassisliklar bo‘yicha dispetcher-kursantlari va o‘qishga qabul qilinayotganlar.

5. Uchta klass bo‘yicha tibbiy xulosani berish uchun nomzodda parvozlar xavfsizligiga salbiy ta’sir etishi mumkin bo‘lgan yoki xizmat vazifalarini xavfsiz bajarishga monelik qiladigan funksional layoqatsizlikka olib keluvchi tug‘ma yoki orttirilgan nuqsonlar, faol yoki latent, o‘tkir yoki surunkali kasalliklar, shikastlanishlar, tan jarohatlari, jarrohlik amaliyotlari oqibatlari, shuningdek shifokor tomonidan buyurilgan yoki retseptsiz qo‘llaniladigan davolash, diagnostika yoxud profilaktika vositalarining nojo‘ya ta’siri mavjud bo‘lmasligi kerak.

6. Vakolatli organning tibbiy ekspertlari hamda TUK a’zolari nomzodlarni ularning tegishli toifalari va tibbiy xulosa klasslariga muvofiq ushbu Aviatsiya qoidalari hamda Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkilotining (bundan buyon matnda ICAO deb yuritiladi) standartlarida belgilangan talablar asosida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazadi.

7. Nomzodning aviatsiya faoliyati bilan bog‘liq xizmat vazifalarini bajarishga sog‘lig‘i jihatidan yaroqliligini aniqlashda quyidagi asosiy talablar inobatga olinishi lozim:

nomzod o‘zi ega bo‘lgan yoki olishga talabgor bo‘lgan guvohnoma yoxud malaka belgisida nazarda tutilgan vazifalarni xavfsiz bajarish uchun zarur jismoniy va ruhiy layoqatga ega bo‘lishi;

nomzodda kasbiy vazifalarini bajarish jarayonida mehnat qobiliyatini yo‘qotishga olib kelishi mumkin bo‘lgan tibbiy holatlar va ko‘rsatkichlar mavjud bo‘lmasligi.

8. Tibbiy xulosa berishda nomzodda mavjud kasalliklar, ularning kuchayishiga yoki to‘satdan mehnat qobiliyatining yo‘qolishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan holatlar, shuningdek parvozlar xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan xavf omillari (mehnat sharoitining zararli omillari ta’siri, ortiqcha tana vazni (semizlik), tamaki mahsulotlarini iste’mol qilish, mehnat va dam olish rejimining buzilishi, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki alkogolni iste’mol qilish va boshqalar) inobatga olinadi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

9. Nomzod tibbiy tekshiruv yoki tibbiy ko‘rik o‘tishdan bosh tortganda, unga tibbiy xulosa berilmaydi va uning tibbiy hujjatlariga “tibbiy ko‘rik o‘tishdan bosh tortgani sababli tibbiy xulosa berilmadi” degan yozuv kiritiladi.

10. Tabiiy ofatlar yoki texnogen xususiyatga ega avariya hamda boshqa favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda, tibbiy xulosaning amal qilish muddati vakolatli organning tibbiy eksperti tomonidan 45 kungacha bo‘lgan muddatga uzaytirilishiga yo‘l qo‘yiladi.

11. Tibbiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lganda, tibbiy xulosaning amal qilish muddati vakolatli organning tibbiy eksperti tomonidan faqat klinik ko‘rsatmalarga asosan qisqartirilishiga, to‘xtatib turilishiga yoki bekor qilinishiga yo‘l qo‘yiladi.

12. Amaldagi tibbiy xulosa egasining sog‘lig‘i kasallik, jarohat, kuchli charchoq, uyqu buzilishi, soat mintaqalarining almashinuvi, noqulay iqlim sharoitlari, mehnat va dam olish rejimining buzilishi oqibatida yomonlashganda, shuningdek unda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, alkogol yoki dori vositalarining nojo‘ya ta’siri aniqlanganda, u guvohnoma va malaka belgisi bilan berilgan huquqlarni amalga oshirishga haqli emas.

Mazkur holatlar guvohnoma egasining kasbiy majburiyatlarini xavfsiz va to‘liq bajarishiga monelik qilganda hamda parvozlar xavfsizligiga xavf tug‘dirishi mumkinligini inobatga olib, tibbiy ko‘rik natijalariga ko‘ra TUK a’zolari tomonidan u bilan suhbat o‘tkaziladi.

Suhbat davomida nomzodga unda aniqlangan kasalliklar, ularning ehtimoliy oqibatlari, shuningdek mazkur holatlarning kasbiy faoliyat va parvozlar xavfsizligiga salbiy ta’siri yuzasidan profilaktik tavsiyalar hamda ko‘rsatmalar beriladi.

13. Tibbiy xulosa egasiga giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlarini iste’mol qilishi qat’iyan taqiqlanadi.

Mazkur moddalarni iste’mol qilganligi yoki ularning organizmida mavjudligi aniqlanganda, nomzodning amaldagi tibbiy xulosasi tibbiy ekspert tomonidan bekor qilinadi.

14. Quyidagi hollarda nomzodlar va tibbiy xulosa egalari o‘qishni davom ettirishdan, uchish ishiga, HHB ishiga, kabina ekipaji a’zosi vazifalarini bajarishga yoki parvoz faoliyatiga qaytishdan oldin tibbiy ekspert yoki TUK a’zosi maslahatidan o‘tishi lozim:

har qanday jarrohlik amaliyoti o‘tkazilganda;

tibbiy tekshiruv natijalari belgilangan me’yoriy ko‘rsatgichlarga javob bermaganda;

har qanday dori vositalarini muntazam qabul qilish zarurati mavjud bo‘lganda;

har qanday sababga ko‘ra hushdan ketish holati kuzatilganda;

litotripsiya usulida buyrak toshini maydalash amaliyoti o‘tkazilganda;

koronar angiografiya o‘tkazilganda;

tranzitor ishemik xuruj kuzatilganda;

xurujli yurak aritmiyalari, shu jumladan bo‘lmachalar hilpillashi yoki fibrillyatsiyasi aniqlanganda.

2-bob. Nomzodni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish

15. Tibbiy xulosa olish uchun nomzod TUKga ushbu Aviatsiya qoidalarining 4-ilovasiga muvofiq shakldagi arizani taqdim etadi. Arizada nomzod sog‘lig‘i jihatidan yaroqliligini aniqlash uchun muhim bo‘lgan sog‘lig‘i holati, shaxsiy, oilaviy va irsiy anamneziga doir barcha ma’lumotlarni to‘liq qayd etadi hamda ularning to‘g‘riligini imzosi bilan tasdiqlaydi.

Arizaga avval berilgan tibbiy xulosa va o‘tkazilgan tibbiy ko‘rik ma’lumotlari ilova qilinadi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Arizada ko‘rsatilgan sog‘lig‘ining holatiga tegishli yolg‘on ma’lumotlar nomzodga tibbiy xulosa berishni rad etish uchun asos hisoblanadi.

TUK tomonidan arizada ko‘rsatilgan ma’lumotlar hamda nomzodning kasallik tarixi o‘rganib chiqilgandan so‘ng uni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishga ruxsat beriladi.

Tibbiy ko‘rikni o‘tkazishda nomzodning jismoniy va ruhiy holati, ko‘rish, eshitish hamda ranglarni ajrata olish qobiliyati baholanadi.

16. Nomzodning parvozlar xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan kasallik yoki boshqa holatlarni yashirgani yoki yolg‘on ma’lumotlar taqdim etgani aniqlanganda, TUK raisi mazkur holat yuzasidan chora ko‘rish uchun tibbiy ekspertga bildirgi rasmiylashtiradi.

Tibbiy ekspertlar tomonidan mazkur holatlar o‘rganiladi va tahlil qilinadi. Natijalariga ko‘ra nomzodga ogohlantirish berilishi yoki tibbiy xulosa berish rad etilishi mumkin.

Mazkur qaror haqida bildirish xati nomzodga bevosita (elektron shaklda yoki pochta orqali) yuboriladi.

17. Fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlariga qabul qilinayotgan nomzodlar qabul komissiyasining yo‘llanmasi asosida, kursantlar fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkiloti tomonidan berilgan yo‘llanma asosida, aviatsiya xodimlari ish beruvchi tomonidan berilgan yo‘llanma asosida, boshqa shaxslar esa shaxsiy arizasiga muvofiq TUK tomonidan tibbiy ko‘rikdan o‘tkaziladi.

Yo‘llanmada nomzodning egallashi nazarda tutilayotgan yoki egallab turgan mutaxassisligi, lavozimi, umumiy uchish soati, foydalanilgan va foydalanilmagan mehnat ta’tili kunlari soni ko‘rsatiladi. Yo‘llanma mas’ul shaxs tomonidan imzolanadi va muhr bilan tasdiqlanadi.

18. Tibbiy ko‘rikdan o‘tishga sog‘lig‘i holatiga ko‘ra harbiy xizmatga yaroqli deb topilgan shaxslarga ruxsat beriladi.

19. Nomzodning tibbiy ko‘rikdan o‘tish uchun belgilangan muddatda kelishi uni tibbiy ko‘rikdan o‘tish uchun yuborgan tashkilot tomonidan nazorat qilinadi.

20. Tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilayotgan tarkibga xizmat ko‘rsatuvchi fuqaro aviatsiyasi tashkiloti shifokorlari, shuningdek ularning rahbariyati TUK faoliyatida ishtirok etishiga yo‘l qo‘yiladi.

21. Aviatsiya xodimlari tibbiy ko‘rikdan o‘tayotgan kunda, ishdan ozod qilinadi. Tibbiy ko‘rikdan o‘tishdan oldin ularga dam olish uchun 1 kun berilishi lozim.

22. Tibbiy ko‘rikdan o‘tish va tibbiy xulosa berish tibbiy ko‘rik boshlangan paytdan e’tiboran 1 kun davomida amalga oshiriladi.

23. Tibbiy ko‘rsatmalar (kasallik darajasini yoki qo‘shni a’zolar funksiyalarining saqlanganligini aniqlash) mavjud bo‘lganda, qo‘shimcha tibbiy tekshiruvlar tibbiy ko‘rsatmalar aniqlangan kundan e’tiboran uch ish kunidan kechiktirmay o‘tkaziladi.

24. Fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilinayotgan nomzodlar tibbiy ko‘rikdan o‘tishdan avval TUK psixologi tomonidan kasbiy psixologik tekshiruvdan o‘tkaziladi.

Kasbiy psixologik tanlov natijalari asosida nomzodning tanlagan kasbiga muvofiqligi to‘g‘risida TUK psixologining xulosasi rasmiylashtiriladi.

TUK psixologining “fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlarida o‘qishi maqsadga muvofiq” degan xulosasi berilganda nomzod tibbiy ko‘rikdan o‘tkaziladi.

25. Fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilinayotgan nomzodlar uchun TUK tomonidan takroriy psixologik yoki tibbiy tekshiruv faqat zaruriyat yuzaga kelganda (aniqlangan qarama-qarshi ma’lumotlar, shubhali ko‘rsatkichlar yoki qo‘shimcha baholashni talab etuvchi holatlar) o‘tkaziladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

26. Nomzodda tanlagan kasbiga yoki kasbiy faoliyatini xavfsiz bajarishga to‘sqinlik qiluvchi kasallik yoki nuqson aniqlanganda, TUK a’zosi (tibbiy ekspert) mazkur holat bo‘yicha yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa rasmiylashtiradi va nomzodni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish to‘xtatiladi.

Aviatsiya xodimiga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa rasmiylashtirilganda ushbu Aviatsiya qoidalarining 5-ilovasiga muvofiq kasallik haqidagi guvohnoma uni yaroqsiz deb topgan TUK a’zosi tomonidan rasmiylashtiriladi.

27. Kursantlar va aviatsiya xodimlarining navbatdan tashqari tibbiy ko‘rigi quyidagi hollarda o‘tkaziladi:

kasbiy faoliyati (o‘qish) davrida yuzaga kelgan kasallik yoki jarohatlar natijasidagi vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlikda yoki sog‘lig‘i holatidagi o‘zgarishlarning parvozlar xavfsizligiga salbiy ta’sir etish ehtimoli mavjud bo‘lganda;

sog‘lig‘i holati bilan bog‘liq aviatsiya hodisasi yoki insidenti yuzasidan aviatsiya hodisasini tekshirish komissiyasi raisining ko‘rsatmasiga muvofiq;

tibbiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lgan hollarda (yangi aniqlangan kasalliklarning aviatsiya xodimining kasbiy faoliyatga yaroqliligiga ta’sirini baholash zarurati tug‘ilganda, kasallik zo‘rayganda yoki surunkali charchoq belgilari aniqlanganda);

tibbiy xulosaning amal qilish muddati tugashi havo kemasini o‘zlashtirish bo‘yicha o‘qish davriga to‘g‘ri kelgan hollarda o‘qishga yuborishdan avval.

28. Kursantlar va aviatsiya xodimlarida og‘ir kasallik yoki jarohatlar aniqlanganda TUK tomonidan davolash muassasasi taqdim etgan hujjatlar asosida yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa rasmiylashtiriladi.

29. Tibbiy ko‘rikdan o‘tayotgan aviatsiya xodimida kasb kasalligining dastlabki belgilari aniqlanganda TUK tomonidan dispanser kuzatuvi belgilanadi hamda uning sog‘lig‘ini nazorat qilish va kasallik rivojlanishining oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar tavsiya etiladi.

Aviatsiya xodimida kasb kasalligining mavjudligi TUK tomonidan tasdiqlangan taqdirda u kasbiy faoliyatiga yaroqsiz deb topiladi.

3-bob. Rasmiy tibbiy xulosa berish va shikoyat qilish

30. Nomzodning kasallik tarixi o‘rganilib, tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilgandan so‘ng TUK a’zosi quyidagilardan birini amalga oshiradi:

nomzod sog‘lig‘i holatiga ko‘ra yaroqli deb topilganda, tegishli klass bo‘yicha ushbu Aviatsiya qoidalarining 6-ilovasiga muvofiq shaklda tibbiy xulosa (sertifikat) beradi;

nomzod sog‘lig‘i holatiga ko‘ra yaroqsiz deb topilganda, tibbiy xulosa berishni rad etadi;

nomzodning sog‘lig‘i holati ushbu Aviatsiya qoidalarining 1 – 3-ilovalarida belgilangan tibbiy talablarga to‘liq javob bermaganda, biroq TUK a’zosi tomonidan parvozlar xavfsizligiga tahdid soluvchi deb baholanmaganda, tibbiy xulosa berish masalasini ko‘rib chiqish vakolatli organning reviziya komissiyasiga (bundan buyon matnda RK deb yuritiladi) taqdim etiladi.

31. Nomzodning sog‘lig‘i ushbu Aviatsiya qoidalarining 1 – 3-ilovalariga muvofiq belgilangan tibbiy talablarga to‘liq javob bermagan hollarda, biroq mazkur holat parvozlar xavfsizligiga xavf tug‘dirmaganda, TUK tomonidan tibbiy xulosa berish vakolati RKga beriladi.

32. RK vakolatli organning tibbiy ekspertlari hamda uchuvchi-inspektor yoki dispetcher-inspektorlardan iborat tarkibda shakllantiriladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

RK vakolatli organ rahbarining buyrug‘i bilan kamida uch nafar a’zodan, shu jumladan komissiya raisidan iborat tarkibda tuziladi. Tibbiy ekspertlardan biri RK raisi etib tayinlanadi.

RK faoliyatiga O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining mutaxassislari va ekspertlari, shuningdek fuqaro aviatsiyasi tashkilotining shifokorlari jalb etilishi mumkin.

Rasmiy tibbiy xulosa ICAOning moslashuvchanlik prinsipi asosida RK tomonidan rasmiylashtiriladi.

33. TUKning barcha a’zolari nomzodni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazadi va tibbiy xulosalarni rasmiylashtiradi hamda RK tomonidan tibbiy xulosani xolisona va to‘liq baholashni ta’minlash maqsadida TUK RKga nomzodga oid barcha zarur tibbiy ma’lumotlarni to‘liq hajmda taqdim etadi.

34. RK tomonidan nomzodning tibbiy hujjatlari o‘rganib chiqiladi. Bunda uning jismoniy va ruhiy holati, TUK a’zolari tomonidan berilgan tibbiy xulosalar, kasallikning rivojlanish dinamikasi va kechish xususiyatlari, funksional buzilishlar darajasi, mavjud kasalliklar hamda zararli omillarning nomzodning yoshi va kasbiy faoliyatiga ta’siri, ish sharoitidagi zararli omillarning sog‘lig‘iga salbiy ta’siri, mehnat qobiliyatini to‘satdan yo‘qotish ehtimoli, shuningdek kasbiy vazifalarni bajarish qobiliyati, malakasi va tajribasi (ish joyidan berilgan tavsifnoma yoki trenajyor sinovi natijalari asosida) tahlil qilinadi hamda individual tartibda baholanadi.

35. Nomzodning sog‘lig‘i ushbu Aviatsiya qoidalarining 1 – 3-ilovalarida belgilangan talablarga to‘liq javob bermaganda, biroq uning sog‘lig‘i parvozlar xavfsizligiga tahdid solmaydi deb topilganda, ushbu holat rasmiy tibbiy xulosada ko‘rsatiladi.

36. Guvohnoma egasi xizmat vazifalarini bajarishda parvozlar xavfsizligini ta’minlash maqsadida muayyan cheklovlarga (oylik uchish soatini kamaytirish yoki faqat kunduzgi parvozlarni bajarishga ruxsat etish va boshqalar) rioya etishi zarur bo‘lganda, bunday cheklovlar tibbiy xulosada qayd etiladi.

37. Rasmiy tibbiy xulosa quyidagi shakllarda rasmiylashtiriladi:

ikkinchi uchuvchi sifatida uchish ishiga yaroqli;

ko‘p a’zoli ekipaj tarkibida uchish ishiga yaroqli;

o‘zlashtirilgan havo kemasida (havo kemasining turi ko‘rsatilgan holda) uchish (parvoz) ishiga yaroqli;

parvoz vaqtining belgilangan oylik normasini uzaytirishga yaroqli;

faqat yo‘lovchilarsiz uchish ishiga yaroqli;

egallamoqchi bo‘lgan kasbi bo‘yicha o‘qishga yoki o‘qishni davom ettirishga yaroqli;

mutaxassisligi bo‘yicha ishga yoki ishni davom ettirishga yaroqli.

RK tomonidan rasmiy tibbiy xulosa chiqarishda komissiya a’zolarining mustaqilligi va xolisligi ta’minlanishi lozim.

38. Tibbiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lganda, nomzod tibbiyotning ixtisoslashgan sohalari bo‘yicha mutaxassislarga tibbiy maslahat va qo‘shimcha tekshiruvlardan o‘tish uchun yuboriladi.

39. Nomzodning sog‘ligidagi o‘zgarishlarni hamda uning sog‘ligi holatini parvozlar xavfsizligiga xavf tug‘dirmaydigan barqaror jismoniy va ruhiy holatda ekanligini (ma’lum bir organning yo‘qligi yoki funksional zaifligi, ko‘rish yoki eshitish qobiliyatining pasayishi kabi holatlarda), parvoz bilan bog‘liq kasbiy vazifalarni hamda ish sharoitlarida yuzaga keluvchi xavfli vaziyatlarda (masalan, noqulay ob-havo sharoitlari) yetarli darajada xavfsiz bajara olish qobiliyatini aniqlash maqsadida trenajyor sinovi o‘tkaziladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Trenajyor sinovi natijalari, uchuvchi-inspektorning (dispetcher-inspektor) trenajyor sinovi natijalari asosida bergan tavsiyalari bilan birga rasmiylashtiriladi.

40. Uchuvchi-inspektor (dispetcher-inspektor) tavsiyalari tibbiy ekspertlar bilan kelishilgan holda nomzodning kasbiy vazifalari va majburiyatlariga doir ekspluatatsiya cheklov kodlari ushbu Aviatsiya qoidalarining 7-ilovasiga muvofiq qo‘llaniladi.

41. Tibbiy xulosa vakolatli organning tibbiy eksperti, TUK raisi yoki TUK a’zosi tomonidan rasmiylashtiriladi, imzolanadi, TUK muhri bilan tasdiqlanadi, tibbiy xulosalar reyestrida ro‘yxatga olinadi va uning egasiga beriladi.

42. Tibbiy xulosada uning amal qilish muddati, tegishli klassi hamda tibbiy yaroqlilikka doir ushbu Aviatsiya qoidalarining 7-ilovasiga muvofiq cheklovlar (mavjud bo‘lganda) ko‘rsatilishi lozim.

Tibbiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lganda tibbiy xulosada uning egasining sog‘lig‘i holatiga xos alohida belgilar, shu jumladan individual qon bosimi, puls ko‘rsatkichlari va boshqa zarur ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

43. Nomzod yoki guvohnoma egasi TUK tomonidan chiqarilgan tibbiy xulosadan norozi bo‘lgan taqdirda u mazkur xulosa bilan tanishgan kundan e’tiboran 10 kun ichida RKga shikoyat berish huquqiga ega.

44. Nomzod (ariza beruvchi) shikoyatni ko‘rib chiqishda ishtirok etish huquqiga ega.

45. Shikoyat yozma yoki elektron shaklda beriladi va unda quyidagilar ko‘rsatilishi lozim:

ariza beruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi hamda aloqa ma’lumotlari;

nizo qilinayotgan tibbiy xulosa rekvizitlari;

norozilik asoslari va dalillar;

ilova qilinadigan hujjatlar.

46. Shikoyat RK tomonidan u kelib tushgan kundan e’tiboran 10 kun ichida ko‘rib chiqiladi.

RK shikoyatni ko‘rib chiqish sanasi va joyi to‘g‘risida nomzodni kamida 3 ish kuni oldin yozma yoki elektron shaklda xabardor qilishi lozim.

Shikoyatni ko‘rib chiqish jarayonida RK:

barcha tibbiy hujjatlarni o‘rganadi;

zarur hollarda qo‘shimcha tibbiy tekshiruvlarni tayinlaydi;

mustaqil ekspertlarni jalb etadi;

nomzodni tinglaydi.

47. Shikoyatni ko‘rib chiqish natijasiga ko‘ra RK quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

tibbiy xulosani o‘z kuchida qoldirish;

tibbiy xulosani bekor qilish va yangi tibbiy xulosa chiqarish.

48. RK qarori yozma yoki elektron shaklda rasmiylashtiriladi hamda rasmiylashtirilgan kundan e’tiboran 3 ish kuni ichida ariza beruvchiga pochta orqali yuboriladi.

49. Nomzod RK qaroridan norozi bo‘lgan taqdirda u belgilangan tartibda sudga murojaat qilish huquqiga ega.

4-bob. Tibbiy xulosaning muddati va tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirish

50. Tibbiy xulosaning amal qilish muddati uning berilgan sanasidan boshlab hisoblanadi. Tibbiy xulosada uning amal qilish muddatini boshlanishi va tugashi sanalari aniq ko‘rsatilishi zarur.

Tibbiy xulosalarning amal qilish muddatlari quyidagicha belgilanadi:

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlarining uchuvchi-kursanti, shturman-kursanti, bortmuhandis-kursanti, tijorat aviatsiyasi uchuvchisi (samolyot, vertolyot, dirijabl, ko‘tarish kuchini oshirish tizimiga ega havo kemasi), ko‘p a’zoli ekipaj (samolyot) uchuvchisi, fuqaro aviatsiyasi tashkilotining yo‘nalishdagi uchuvchisi (samolyot, vertolyot, ko‘tarish kuchini oshirish tizimiga ega havo kemasi), shturman, bortmuhandis, sinovchi-uchuvchi uchun – 12 oy;

HHB dispetcheri, tashqi uchuvchi (samolyot, dirijabl, planer, vintokril, ko‘tarish kuchini oshirish tizimiga ega havo kemasi yoki erkin aerostat) va fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlarining havo harakati boshqaruvchisi dispetcher-kursanti uchun – 48 oy;

havaskor uchuvchi (samolyot, dirijabl, vertolyot, ko‘tarish kuchini oshirish tizimiga ega havo kemasi), uchuvchi-planerist, erkin aerostat uchuvchisi va fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlarining havaskor uchuvchi-kursanti, uchuvchi-planerist-kursanti, erkin aerostat uchuvchi-kursanti uchun – 60 oy;

bortmexanik, bortradist, kabina ekipaji a’zosi, yuk tashuvchi havo kemasining bortoperatori va fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlarining bortmexanik-kursanti, bortradist-kursanti, kabina ekipaji a’zosi-o‘quvchisi uchun – 36 oy;

bir uchuvchi boshqaruvidagi samolyotlarda fuqaro aviatsiyasi tashkilotining 40 yoshdan oshgan, yo‘lovchilarni tashish bo‘yicha tijorat uchishlarini bajaradigan yo‘nalishdagi (samolyot, vertolyot, ko‘tarish kuchini oshirish tizimiga ega havo kemasi) uchuvchisi va tijorat aviatsiyasi (samolyot, vertolyot, dirijabl, ko‘tarish kuchini oshirish tizimiga ega havo kemasi) uchuvchisi uchun – 6 oy;

fuqaro aviatsiyasi tashkilotining 60 yoshga to‘lgan, havo transportida tijorat tashuvlarini bajarishda band bo‘lgan yo‘nalishdagi (samolyot, vertolyot, ko‘tarish kuchini oshirish tizimiga ega havo kemasi) uchuvchisi va tijorat aviatsiyasi (samolyot, vertolyot, dirijabl, ko‘tarish kuchini oshirish tizimiga ega havo kemasi) uchuvchisi hamda ko‘p a’zoli ekipaj (samolyot) uchuvchisi uchun – 6 oy;

40 yoshdan oshgan havaskor uchuvchi (samolyot, dirijabl, vertolyot, ko‘tarish kuchini oshirish tizimiga ega havo kemasi), uchuvchi-planerist, erkin aerostat uchuvchisi, tashqi uchuvchi (samolyot, dirijabl, planer, vintokril, ko‘tarish kuchini oshirish tizimiga ega havo kemasi yoki erkin aerostat) va HHB dispetcheri uchun – 24 oy;

50 yoshdan oshgan havaskor uchuvchi (samolyot, dirijabl, vertolyot, ko‘tarish kuchini oshirish tizimiga ega havo kemasi), uchuvchi-planerist, erkin aerostat uchuvchisi, tashqi uchuvchi (samolyot, dirijabl, planer, vintokril, ko‘tarish kuchini oshirish tizimiga ega havo kemasi yoki erkin aerostat) va HHB dispetcheri uchun – 12 oy;

Tibbiy xulosaning amal qilish muddati nomzodning tibbiy ko‘rikdan o‘tgan kundagi yoshiga nisbatan belgilanadi.

51. Chet elda shartnoma asosida faoliyat yuritayotgan fuqaro aviatsiyasi aviatsiya xodimlariga tibbiy xulosa ICAO standartlari va tavsiya etilgan amaliyotlari talablarini hisobga olgan holda, ushbu Aviatsiya qoidalari talablariga muvofiq beriladi.

52. Nomzod tibbiy tekshiruv yoki tibbiy ko‘rikdan o‘tishdan bosh tortganda, unga tibbiy xulosa berilmaydi va uning tibbiy hujjatlariga “tibbiy ko‘rikdan o‘tishdan bosh tortgani sababli tibbiy xulosa berilmadi” degan yozuv kiritiladi.

53. Tibbiy xulosalar quyidagi shakllarda rasmiylashtiriladi:

HHB dispetcherligiga yoki o‘qishga (o‘qishni davom ettirishga) yaroqli (yaroqsiz);

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

tijorat aviatsiyasida uchuvchilikka, yo‘nalishdagi uchuvchilikka, sinovchi-uchuvchilikka, shturmanlikka, bortmuhandislikka, bortradistlikka uchish ishiga yaroqli (yaroqsiz) yoki o‘qishga (o‘qishni davom ettirishga) yaroqli (yaroqsiz);

kabina ekipaji a’zoligiga, bortoperatorlikka ishga yoki o‘qishga (o‘qishni davom ettirishga) yaroqli (yaroqsiz);

havaskor uchuvchilikka, uchuvchi-planeristlikka, erkin aerostat uchuvchiligiga parvozga yoki o‘qishga (o‘qishni davom ettirishga) yaroqli (yaroqsiz);

aviatsiya kimyoviy ishlarida (bundan buyon matnda AKI deb yuritiladi) uchuvchilikka, shturmanlikka, bortmuhandislikka, bortradistlikka uchish ishiga yaroqli (yaroqsiz).

54. AKI ishlarini bajaruvchi uchuvchilar tarkibi sog‘ligi jihatidan zaharli kimyoviy moddalar bilan ishlashga yaroqsiz deb topilganda (masalan, AKI o‘ziga xos sharoitlari ta’sirida oshqozon-ichak tizimi yoki nafas olish organlari kasalliklarini zo‘rayishida, ma’lum bir kimyoviy moddaga allergiya mavjud bo‘lganda), ularga “mineral o‘g‘itlar va biopreparatlar bilan ishlashga yaroqli” degan tibbiy xulosa rasmiylashtiriladi.

55. Tibbiy ko‘rik davomida aviatsiya xodimi sog‘lig‘ida salbiy o‘zgarishlar aniqlanganda (masalan, kasallik xuruji yoki surunkali charchoq), shifoxonada, ambulator yoki sanatoriy-kurort sharoitida davolanish hamda reabilitatsiya uchun bosqichli (vaqtinchalik) tibbiy xulosa rasmiylashtiriladi.

Kasbiga qayta tiklanish ehtimoli bo‘lmagan hollarda bosqichli tibbiy xulosa qo‘llanilmaydi.

56. Kasallik, jarohat yoki jarrohlik amaliyotidan keyin tiklanish ehtimoli mavjud bo‘lgan hollarda aviatsiya xodimiga (kursant, o‘quvchi) vaqtincha yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa beriladi.

Tiklanish muddati 1 oydan 6 oygacha bo‘lgan hollarda vaqtincha yaroqsizlik belgilanadi.

Bu davrda aviatsiya xodimi (kursant, o‘quvchi) fuqaro aviatsiyasi tashkilotining shifokori va TUK a’zosi tomonidan dispanser kuzatuvida bo‘ladi.

57. Jismoniy va ruhiy sog‘lig‘i holatiga ko‘ra o‘z kasbiy vazifalarini bajarishga qodir bo‘lgan uchuvchilar xavfsiz uchuvchi deb topiladi va ularga cheklovlarsiz tibbiy xulosa rasmiylashtiriladi. Bunday uchuvchilarga o‘zlashtirgan havo kemasi turidan tashqari boshqa turdagi havo kemalarini o‘zlashtirish uchun o‘qishga ruxsat etiladi.

58. Noqulay iqlim, mehnat va yashash sharoitlarining keskin o‘zgarishi natijasida aviatsiya xodimida mavjud kasalliklarning rivojlanishi yoki kuchayishi ehtimoli mavjud bo‘lganda “iqlimi noqulay hududlar va mamlakatlarda ishlashga yaroqsiz” degan tibbiy xulosa rasmiylashtiriladi.

Mazkur cheklov qo‘llanilganda, aviatsiya xodimi ushbu hududlar yoki mamlakatlarga xizmat safariga yuborilmaydi.

59. Ushbu Aviatsiya qoidalarining 1 – 3-ilovalariga muvofiq tibbiy xulosa tibbiy ekspertlar tomonidan individual yondashuv asosida rasmiylashtiriladi.

Nomzodning sog‘lig‘i holati bo‘yicha tibbiy ekspertiza o‘tkazishda murakkab yoki munozarali holatlar yuzaga kelgan taqdirda quyidagi omillar hisobga olinadi:

nomzodning sog‘lig‘i holatining o‘ziga xos xususiyatlari;

sog‘lig‘i holatining parvozlar xavfsizligiga ta’siri;

kasbiy faoliyatni bajarish jarayonida mehnat qobiliyatini yo‘qotish ehtimoli;

kasbiy faoliyatni davom ettirishda kasallikning rivojlanishi yoki qaytalanish ehtimoli;

kasallikning kompensatsiya darajasi;

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

psixologik tekshiruv natijasida aniqlangan individual psixofiziologik xususiyatlar;

bajariladigan ishning xususiyatlari hamda mehnat sharoitlari;

qo‘shimcha tibbiy tekshiruvlar natijalari va malakali mutaxassislarning maslahatlari.

Mazkur omillar asosida nomzodning individual yaroqliligi to‘g‘risida tibbiy ekspertlarning tibbiy xulosasi rasmiylashtiriladi.

60. Tibbiy hujjatlarda tibbiy xulosa rasmiylashtirilganda uning berilgan sanasi, tibbiy xulosani bergan komissiyaning nomi, nomzodning familiyasi, ismi va otasining ismi, tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish uchun asos, asosiy va yondosh tashxislar hamda ularning asoratlari, mavjud xavf omillari, shuningdek komissiya tomonidan keyingi davr uchun berilgan tavsiyalar qayd etiladi hamda vakolatli organning TUK muhri bilan tasdiqlanadi.

61. Fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlariga qabul qilinayotgan nomzodlarga ushbu Aviatsiya qoidalarining 8-ilovasiga muvofiq bir nusxada tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish varaqasi rasmiylashtiriladi.

62. Fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlari o‘quvchilari, kursantlari va aviatsiya xodimlari uchun vakolatli organ muhri bilan tasdiqlangan tibbiy kitobcha (yoki unga tenglashtirilgan tibbiy hujjat) rasmiylashtiriladi.

Tibbiy ekspertlar va TUK a’zolari tibbiy kitobchaga tibbiy ko‘rik natijalarini qayd etadi. Nomzod o‘z shikoyatlari mavjudligi yoki yo‘qligini, shuningdek o‘zi haqidagi ma’lumotlarning to‘liq va aniq ekanligini tibbiy kitobchada shaxsiy imzosi bilan tasdiqlaydi.

Tibbiy ekspertlar va TUK a’zolari kiritilgan ma’lumotlarning ishonchliligi va to‘g‘riligini shaxsiy imzosi hamda shaxsiy muhri bilan (mavjud bo‘lgan taqdirda) tasdiqlaydi, shuningdek o‘z familiyasi, ismi va otasining ismini qayd etadi.

Tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirishda umumiy qabul qilingan qisqartmalardan tashqari boshqa qisqartirilgan so‘zlar va belgilarni qo‘llashga yo‘l qo‘yilmaydi.

63. TUK a’zolari tomonidan o‘tkazilgan tibbiy ko‘rik natijalari (shaxsiy ko‘rik va tibbiy tekshiruv natijalari, mutaxassislar maslahatlari, tashxis, berilgan tavsiyalar) ushbu Aviatsiya qoidalarining 9 – 13-ilovalariga muvofiq hisobot shaklida rasmiylashtiriladi.

64. TUK a’zolarining tibbiy xulosa berishda hamda shifokorlik faoliyatini amalga oshirishda mazkur aviatsiya qoidalariga rioya etishini, shuningdek aviatsiya tibbiyoti nuqtai nazaridan xavf omillarini baholash qobiliyatini aniqlash hamda ularning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida tibbiy ekspertlar TUK tomonidan rasmiylashtirilgan tibbiy xulosalarni Aviatsiya qoidalarining 14-ilovasiga muvofiq baholab boradi.

65. O‘qishga yaroqli yoki yaroqsiz deb topilgan nomzodlarning tibbiy varaqalari hamda tibbiy tekshiruv ma’lumotlari (qon tahlillari, elektrokardiografiya natijalari va boshqa tibbiy hujjatlar) TUK arxivida 3 yil davomida saqlanadi.

66. Quyidagi hollarda TUK tomonidan aviatsiya xodimlariga rasmiylashtirilgan tibbiy xulosalar ekspert baholash uchun tibbiy ekspertlarga taqdim etilishi lozim:

kasallik yoki jarohatlar sababli yaroqsiz deb topilganda;

ilgari kasallik yoki jarohatlar sababli yaroqsiz deb topilgan aviatsiya xodimi kasbiy faoliyatiga tiklanganda;

fuqaro aviatsiyasi tizimiga ishga qabul qilinayotgan aviatsiya xodimlariga nisbatan;

55 yoshdan 65 yoshgacha bo‘lgan uchuvchi tarkibiga nisbatan.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Bunda TUK tibbiy xulosasi rasmiylashtirilgan kundan e’tiboran 3 ish kuni ichida aviatsiya xodimining so‘nggi 3 yildagi tibbiy hujjatlari hamda tibbiy tekshiruv ma’lumotlari tibbiy ekspertlarga taqdim etiladi.

67. Tibbiy ekspertlar tibbiy hujjatlarni qabul qilgandan so‘ng 3 ish kuni ichida ularni ko‘rib chiqadi va tibbiy xulosani tasdiqlaydi.

Tekshiruv natijalari bo‘yicha bayonnoma yoki elektron shakldagi unga tenglashtirilgan tibbiy hujjat rasmiylashtiriladi hamda ushbu hujjatlar TUKga qaytariladi.

68. Kasallik yoki jarohatlar sababli yaroqsiz deb topilgan, shuningdek ilgari kasallik yoki jarohatlar sababli yaroqsiz deb topilgan, biroq keyinchalik o‘z kasbiy faoliyatiga tiklanayotgan aviatsiya xodimlariga ushbu Aviatsiya qoidalarining 5-ilovasiga muvofiq “Kasallik haqida guvohnoma” rasmiylashtiriladi.

69. Nomzodga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa rasmiylashtirilgan taqdirda, ushbu Aviatsiya qoidalarining 15-ilovasiga muvofiq “Tibbiy xulosa berishni rad etish haqidagi xabarnoma” ish beruvchiga yuboriladi yoxud nomzodga reyestrda qayd etilgan holda, shaxsiy imzosi olinib topshiriladi yoki elektron shaklda yuboriladi.

70. Aviatsiya xodimining vafoti yoki kasbiy faoliyatni bajarish jarayonida to‘satdan mehnat qobiliyatini yo‘qotish holati yuzaga kelganda, bu haqdagi ma’lumotni qabul qilgan TUK a’zosi yoki fuqaro aviatsiyasi tashkilotining shifokori vakolatli organni bu haqda ma’lumot olingan paytdan e’tiboran darhol, biroq ikki soatdan kechiktirmay, telefon, SMS-xabar yoki elektron aloqa vositalari orqali xabardor qilishi zarur.

Holat yuz bergan kundan e’tiboran 5 ish kuni ichida fuqaro aviatsiyasi tashkilotining shifokori ushbu Aviatsiya qoidalarining 16-ilovasiga muvofiq belgilangan shakldagi “Aviatsiya xodimlari orasida o‘lim yoki to‘satdan mehnat qobiliyatini yo‘qotish holatlarini tahlil qilish uchun so‘rovnoma”ni rasmiylashtiradi va vakolatli organga taqdim etadi.

So‘rovnoma taqdim etilgandan so‘ng 5 ish kuni ichida mazkur holat yuzasidan tibbiy ekspertlar, TUK a’zolari hamda holat yuz bergan fuqaro aviatsiyasi tashkilotining shifokori ishtirokida tibbiy kengash o‘tkaziladi. Kengashda holatga doir ma’lumotlar tahlil qilinadi, bajarilishi lozim bo‘lgan tavsiyalar ishlab chiqiladi hamda uning natijalari bo‘yicha bayonnoma rasmiylashtiriladi.

71. Kalendar yili yakunlangandan so‘ng 5 ish kuni ichida TUK hamda fuqaro aviatsiyasi tashkilotining shifokorlari tibbiy ko‘rik natijalari bo‘yicha ushbu Aviatsiya qoidalarining 17 va 18-ilovalariga muvofiq belgilangan shakldagi hisobotlarni tibbiy ekspertlarga taqdim etadi.

Mazkur hisobotlar asosida vakolatli organ tomonidan yakunlangan yil bo‘yicha “O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasida tibbiy ko‘rik natijalarining tahliliy hisoboti” tayyorlanadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra parvozlar xavfsizligini tibbiy ta’minlashga doir tavsiyalar ishlab chiqiladi.

72. Vakolatli organ tomonidan o‘tkaziladigan yakuniy aviatsiya tibbiyoti kengashida barcha hisobotlar muhokama qilinadi, joriy yil uchun tavsiyalar tasdiqlanadi va kengash yakunlari bo‘yicha bayonnoma rasmiylashtiriladi.

Mazkur kengashda TUK a’zolari, fuqaro aviatsiyasi tashkilotining shifokorlari hamda fuqaro aviatsiyasi tashkilotlarining vakillari ishtirok etadi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

5-bob. Tibbiy ma’lumotlarning konfidensialligini ta’minlash

73. Vakolatli organning tibbiy ekspertlari, TUK a’zolari hamda boshqa tashkilotlar o‘rtasidagi yozishmalar, tibbiy ko‘rikka doir barcha hujjatlar, shuningdek nomzodlarning sog‘lig‘i to‘g‘risidagi tibbiy hujjatlar va ma’lumotlar konfidensial ma’lumotlar hisoblanadi.

74. Konfidensial ma’lumotlar (hujjatlar) himoyalangan xonalarda va qulflanadigan javonlarda, tibbiy ekspertlar va TUK rekvizitlari, shuningdek tibbiy xulosa blanklari metall seyflarda saqlanadi hamda ulardan faqat vakolatli organning tibbiy ekspertlari va TUK a’zolari foydalanishi mumkin.

75. Tibbiy ekspertlar, TUK a’zolari hamda fuqaro aviatsiyasi tashkilotining shifokorlari tibbiy hujjatlar va tibbiy ma’lumotlarning saqlanishi hamda ularning maxfiyligini ta’minlash uchun javobgardir.

76. TUK a’zolari nomzodlarga oid tibbiy ma’lumotlarning konfidensialligiga qat’iy rioya etishi va ushbu ma’lumotlarning uchinchi shaxslarga oshkor etilmasligini ta’minlashi shart.

Konfidensial ma’lumotlar bilan ishlash huquqi berilgan tibbiy xodimlar ushbu ma’lumotlarni sir saqlash majburiyatini shaxsiy imzosi bilan tasdiqlaydi.

77. Aviatsiya hodisalari yoki parvozlar xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq holatlarda konfidensial tibbiy ma’lumotlar faqat aviatsiya hodisalarini tekshiruv komissiyasi raisiga taqdim etiladi.

Bunda taqdim etiladigan tibbiy ma’lumotlarning hajmi va mazmuni komissiya tarkibiga kiritilgan tibbiy ekspert (shifokor) tomonidan belgilanadi.

78. Tibbiy ko‘rik o‘tkazish uchun TUK a’zolari (shifokor – mutaxassislar) xonalarini jihozlash uchun kerakli tibbiy texnika va tibbiy buyumlar ushbu Aviatsiya qoidalarining 19-ilovasiga muvofiq belgilanadi.

6-bob. Tibbiy ko‘rikni kechiktirish shartlari

79. Belgilangan tibbiy ko‘rikni o‘tkazish joyidan uzoq hududda parvozlarni amalga oshirayotgan guvohnoma egasining navbatdagi tibbiy ko‘rigini guvohnomalar berish bo‘yicha vakolatli organning qaroriga ko‘ra kechiktirishga yo‘l qo‘yilishi mumkin. Bunda tibbiy ko‘rikni kechiktirish quyidagi muddatlardan oshmasligi lozim:

notijorat operatsiyalarni amalga oshirayotgan havo kemasi uchish ekipaji a’zosi uchun – davomiyligi 6 oydan oshmagan bitta davr;

tijorat operatsiyalarini amalga oshirayotgan havo kemasi uchish ekipaji a’zosi uchun – har biri 3 oy davom etadigan ketma-ket ikki davr (har bir holatda uchish ekipaji a’zosi mazkur hudud uchun tayinlangan shifokorlik komissiyasi a’zosi tomonidan o‘tkazilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tib, ijobiy tibbiy xulosa olishi zarur. Agar bunday shifokorlik komissiyasi a’zosi mavjud bo‘lmasa, mazkur hududda tibbiy amaliyot bilan shug‘ullanish uchun rasmiy ruxsatga ega bo‘lgan shifokor tomonidan tibbiy ko‘rik o‘tkaziladi. Tibbiy ko‘rik natijalari bo‘yicha xulosa mazkur guvohnomani bergan vakolatli organga yuboriladi);

havaskor uchuvchi uchun davomiyligi – 24 oydan oshmagan bitta davr (nomzod vaqtincha bo‘lib turgan hududda ushbu hudud uchun tayinlangan shifokorlik komissiyasi a’zosi tomonidan o‘tkazilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tib, ijobiy tibbiy xulosa olgan bo‘lishi lozim. Tibbiy ko‘rik natijalari bo‘yicha xulosa mazkur guvohnomani bergan vakolatli organga yuboriladi);

tashqi uchish ekipaji a’zosi uchun – har biri 3 oy davom etadigan ketma-ket ikki davr.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

7-bob. Komissiya oraliq davrida tibbiy kuzatuvni tashkil etish

80. Fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlari kursantlari, o‘quvchilari va aviatsiya xodimlarining tibbiy ko‘rikdan o‘tgan kunidan boshlab navbatdagi tibbiy ko‘rikdan o‘tadigan kungacha bo‘lgan davr komissiyalar oralig‘i davri deb hisoblanadi. Ushbu davrda ularning tibbiy kuzatuvi fuqaro aviatsiyasi tashkilotining shifokori tomonidan amalga oshiriladi.

81. Fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlari kursantlari, o‘quvchilari hamda aviatsiya xodimlariga nisbatan tibbiy ekspertlar va TUK tomonidan belgilangan, bajarilishi majburiy bo‘lgan tavsiyalar asosida profilaktika, davolash va sog‘lomlashtirish tadbirlari, shuningdek nazorat maqsadidagi tibbiy tekshiruvlar fuqaro aviatsiyasi tashkilotining shifokori tomonidan amalga oshiriladi.

82. Fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlari kursantlari, o‘quvchilari hamda aviatsiya xodimlari tibbiy ko‘rikdan o‘tishdan avval fuqaro aviatsiyasi tashkiloti shifokorining tibbiy ko‘rigidan o‘tadi.

Fuqaro aviatsiyasi tashkilotining shifokori tibbiy ko‘rik natijalari asosida tibbiy kitobchaga yoki unga tenglashtirilgan tibbiy hujjatga epikriz rasmiylashtiradi hamda tibbiy tekshiruvlar natijalarini qayd etadi. Nomzod epikriz bilan tanishib chiqadi va o‘zining sog‘lig‘iga doir ma’lumotlarning to‘g‘riligini shaxsiy imzosi bilan tasdiqlaydi.

83. Epikrizda nomzodga doir quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi lozim:

shikoyatlarning mavjudligi yoki yo‘qligi, o‘tkazgan kasalliklari hamda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik bilan bog‘liq ma’lumotlar;

umumiy, yillik va tungi uchish soatlari, bajarilgan parvoz turlari, parvoz vaqtining normasi uzaytirilganligi, malaka oshirganligi, havo kemasini o‘zlashtirish bo‘yicha o‘qiganligi, shuningdek aviatsiya hodisalari va insidentlari bilan bog‘liq ma’lumotlar;

mehnat ta’tilidan o‘z vaqtida foydalanganligi, sanatoriy-kurort davolanishidan o‘tganligi, mehnat va dam olish tartibiga rioya etilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar hamda foydalanilmagan mehnat ta’tili kunlari soni;

uchishdan yoki navbatchilikdan oldingi tibbiy ko‘rik natijasida chetlatilganligi va uning sabablari;

TUK shifokorlarining dispanser kuzatuvlari, nomzodda mavjud zararli odatlar (omillar), davolash va sog‘lomlashtirish chora-tadbirlari bo‘yicha berilgan tavsiyalarning bajarilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

shaxsiy ko‘rik ma’lumotlari;

tashxis;

sog‘lig‘i holatidagi o‘zgarishlar, mutaxassislar kuzatuvlari natijalari (sog‘lig‘ining yaxshilanishi, yomonlashishi yoki o‘zgarishsiz qolishi) bo‘yicha fuqaro aviatsiyasi tashkilotining shifokorining xulosasi hamda kasbiy faoliyatni davom ettirishga doir tavsiyasi.

84. Fuqaro aviatsiyasi tashkilotining shifokori nomzodni navbatdan tashqari tibbiy ko‘rikka yuborish uchun epikriz rasmiylashtirganda unda nomzodning kasallik tarixi, kasallik bilan bog‘liq sog‘lig‘i holatidagi o‘zgarishlarning kasbiy faoliyatiga ta’siri, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik davrida kasallikning kechishi, jismoniy va ruhiy holatidagi o‘zgarishlar, maishiy sharoitlari to‘liq ko‘rsatilishi lozim.

Bunda barcha tibbiy hujjatlar muhrlangan holda ko‘rikdan o‘tuvchi shaxsga uning shaxsiy imzosi asosida beriladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

85. Fuqaro aviatsiyasi tashkilotining shifokori tomonidan komissiyalar oralig‘i davrida tibbiy ko‘rik uchuvchi-kursantlar, uchuvchilar va havo harakatini boshqaruvchilarga har 6 oyda, aviatsiya xodimlarining boshqa toifalariga esa har 12 oyda bir marta o‘tkaziladi (“Sog‘lom” tashxisi qo‘yilgan shaxslar bundan mustasno).

Tibbiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lgan taqdirda (qon bosimi yoki puls ko‘rsatkichlarining o‘zgaruvchanligi kuzatilganda) qo‘shimcha tibbiy ko‘riklar individual o‘tkaziladi.

86. Fuqaro aviatsiyasi tashkilotining shifokori tibbiy ko‘rikni o‘tkazadi hamda uning natijalarini tibbiy kitobchaga rasmiylashtiradi. Bunda quyidagi xulosalardan biri qayd etiladi:

o‘qishni davom ettirishga, uchish ishiga, parvozga, havo harakatini boshqarish dispetcherlik ishiga, bortoperatorlik ishiga yoki kabina ekipaji a’zosi vazifalarini bajarishga ruxsat berildi;

navbatdan tashqari dam olish kuni berilsin yoxud navbatdagi yoki navbatdan tashqari mehnat ta’tili berilsin;

mutaxassis maslahatiga yoki davolanishga yuborilsin, bunda davolash turi ko‘rsatiladi.

87. Komissiya oraliq davrida TUK a’zosining dispanser nazorat ko‘rigi o‘tkazilganda, ular ko‘rik natijalarini va xulosasini tibbiy hujjatlarda rasmiylashtiradi. Bunda fuqaro aviatsiyasi tashkilotining shifokori tibbiy hujjatda faqat ruxsat berish haqidagi xulosani qayd etadi.

88. Fuqaro aviatsiyasi tashkilotining shifokori navbatdagi tibbiy ko‘rikni o‘tkazishdan oldin, 30 kun ichida ushbu Aviatsiya qoidalarining 20-ilovasiga muvofiq hamda TUK tavsiyalarini inobatga olgan holda zarur hajmdagi tibbiy tekshiruvlar o‘tkazilishini tashkil etadi.

89. Sog‘liq holati bilan bog‘liq aviatsiya hodisasi sodir bo‘lganidan so‘ng fuqaro aviatsiyasi tashkilotining shifokori tomonidan tibbiy ko‘rik o‘tkaziladi.

90. Fuqaro aviatsiyasi tashkilotining shifokori o‘ziga biriktirilgan tarkibdagi aviatsiya xodimlarining sog‘lig‘i holatini nazorat qilish maqsadida uchishdan, parvozdan, navbatchilikdan yoki ishdan oldingi yoxud keyingi tibbiy ko‘riklarni tanlov asosida davriy ravishda o‘tkazadi.

8-bob. Tibbiy ekspertlar va TUK a’zolariga qo‘yiladigan minimal talablar

91. Tibbiy ekspertlar va TUK a’zolari guvohnoma va malaka belgisi egalarining kasbiy vazifalarini bajarish bilan bog‘liq shart-sharoitlarni bilishi shart.

Tibbiy ekspertlar va TUK a’zolari:

tijorat aviaqatnovlarini amalga oshiruvchi havo kemasi ekipaji faoliyati bo‘yicha – havo kemasi kabinasida yoki trenajyorda;

HHB dispetcherlari faoliyati bo‘yicha – dispetcherlik ish joyida amaliy ish tajribasiga ega bo‘lishi lozim.

92. Tibbiy ekspertlar va TUK a’zolari uchun aviatsiya tibbiyoti bo‘yicha o‘quvni o‘tash majburiy hisoblanadi.

93. TUK a’zolari tibbiy ko‘rik o‘tkazishda tibbiy tekshiruvlarning to‘liq va sifatli o‘tkazilganligiga, berilgan tibbiy xulosalarning asoslantirilganligiga, to‘g‘riligiga va xolisligiga, tibbiy hujjatlarning o‘z vaqtida to‘liq, to‘g‘ri va sifatli rasmiylashtirilganligiga javobgardirlar.

94. TUK a’zolarining aviatsiya tibbiyoti bo‘yicha kasbiy malakalarining tekshirish tibbiy ekspertlar tomonidan amalga oshiriladi va tekshiruv natijalari bayonnomada rasmiylashtiriladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

9-bob. Aviatsiya xodimlarining uchishdan oldingi (keyingi) tibbiy koʻrigini tashkil etish

95. Uchishdan oldingi tibbiy koʻrik parvozlar xavfsizligini tibbiy ta’minlash maqsadida sogʻligʻi holatiga koʻra kasbiy vazifalari va majburiyatlarini bajarishga layoqatsiz boʻlgan aviatsiya xodimlarini oʻz vaqtida aniqlash hamda ularni parvozdan chetlatish uchun oʻtkaziladi.

96. Tibbiy koʻrik aeroport yoki aviatsiya tashkilotlarining navbatchi tibbiyot xodimlari, (shifokor yoki feldsher) tomonidan oʻtkaziladi.

97. Tibbiyot xodimi aviatsiya xodimining tibbiy xulosasi amal qilish muddatining amaldaligini tekshiradi. Tibbiy koʻrikdan faqat amaldagi tibbiy xulosaga ega boʻlgan aviatsiya xodimlari oʻtkaziladi.

98. Tibbiy koʻrik individual oʻtkaziladi. Tibbiy koʻrik oʻtkazilayotgan xonada boshqa aviatsiya xodimlari va begona shaxslarning boʻlishiga yoʻl qoʻyilmaydi.

99. Uchish ekipaji va kabina ekipaji a’zolari belgilangan uchish vaqtidan kamida 2 soat oldin tibbiy koʻrikdan oʻtkaziladi.

100. Oʻta muhim parvozlarni bajaruvchi bortmuhandislar, bortmexaniklar hamda kabina ekipaji a’zolariga uchishdan 3 yarim soat oldin tibbiy koʻrikdan oʻtishga ruxsat etiladi.

101. Uchish vaqti 6 soatdan ortiq muddatga kechiktirilgan taqdirda, tibbiy koʻrik qayta oʻtkaziladi.

102. Bir ish kuni davomida bir nechta parvozlarni amalga oshiruvchi uchish ekipaji a’zolariga tibbiy koʻrik uchishdan oldin bir marta oʻtkaziladi.

103. Zaxiradagi ekipaj a’zolari zaxiraga kirishdan oldin bir marta tibbiy koʻrikdan oʻtkaziladi. Tibbiy koʻrikdan oʻtilgan vaqtdan boshlab 6 soat oʻtgan taqdirda, uchishdan oldin qayta tibbiy koʻrik oʻtkaziladi.

104. Uchishdan oldingi tibbiy koʻrik quyidagi tartibda oʻtkaziladi:

har bir aviatsiya xodimi bilan alohida holda, 1,5-2 daqiqadan oshmagan vaqt davomida erkin va aniq soʻrov hamda tibbiy tekshiruv oʻtkaziladi. Bunda aviatsiya xodimining sogʻligʻi boʻyicha shikoyatlari, uchishdan oldingi dam olish va ovqatlanish tartibiga rioya etganligi, dam olish sharoitlari, uyquning sifati va davomiyligi aniqlanadi. Shuningdek uning nutqi, mimikasi va ruhiy holati (xotirjamligi, sustkashligi, asabiyligi va boshqa holatlar) diqqat bilan kuzatilib baholanadi;

tibbiyot xodimi aviatsiya xodimining fe’l-atvori normada ekanligini, tashqi koʻrinishini, ishchi formasining mavsumga va uchish sharoitlariga muvofiqligini, uchishga ruhan tayyorligini, shuningdek koʻz qorachigʻining yorugʻlikka reaksiyasini, teri qoplamining rangi va koʻrinishini, bodomsimon bezlarini, halqumning orqa devorini, yumshoq va qattiq tanglay shilliq qavatini hamda tilini tekshiradi;

bilak arteriyasi palpatsiyasi oʻtkaziladi va pulsning maromi, keskinligi, toʻlaqonliligi, kattaligi, shakli hamda chastotasi oʻttiz soniya davomida aniqlanib, bir daqiqaga nisbatan hisoblanadi. Puls chastotasi bir daqiqada 55 tadan 96 tagacha boʻlganda va arterial bosim koʻrsatkichlari 100/60 dan 140/90 millimetr simob ustunigacha boʻlganda uchishga ruxsat beriladi.

Aviatsiya xodimining kasbiy faoliyatini bajarishi uchun arterial bosimning eng yuqori ruxsat etilgan darajasi 160/95 millimetr simob ustuni deb hisoblanadi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Fe’l-atvordagi odatdagidan tashqari g‘ayritabiiy holatlar, tomir urishi maromining buzilishi, yuz terisi va shilliq qavatlarning qizarishi, oqarishi, ko‘karishi, akrotsianoz, qovoqlar va yuzning shishishi, teri qoplami va ko‘z oq pardasining sariqlashishi, shuningdek aniqlangan boshqa patologik holatlar batafsil tekshiruv o‘tkazish uchun asos bo‘ladi.

Aviatsiya xodimining arterial bosimi va tana harorati tibbiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lgan taqdirda o‘lchanadi. O‘ta muhim parvozlarni bajaruvchi ekipaj a’zolarida qo‘shimcha ravishda tana harorati hamda arterial bosim o‘lchanadi.

105. Ekipaj a’zolarining uchishdan oldingi tibbiy ko‘rik natijalari ushbu Aviatsiya qoidalarining 21-ilovasiga muvofiq tegishincha “Fuqaro havo kemasi ekipaji a’zolarining uchishdan oldingi (keyingi) tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish jurnali”ga quyidagi tartibda rasmiylashtiriladi:

tibbiyot xodimi jurnalning tegishli ustunlarini to‘ldiradi, aviatsiya xodimining sog‘lig‘i holati yuzasidan shikoyati yo‘qligi hamda mehnat va dam olish tartibiga rioya qilganligini tasdiqlash uchun tegishli ustunga imzo qo‘yadi;

aviatsiya xodimining sog‘lig‘i yuzasidan shikoyatlari, kasallikning obyektiv belgilari va charchoq alomatlari mavjud bo‘lmaganda, shuningdek mehnat va dam olish tartibi buzilishi aniqlanmaganda, tibbiyot xodimi uchishga ruxsat berilganligi haqida jurnalga “ruxsat” deb yozadi va imzo qo‘yadi;

ekipajning barcha a’zolari tibbiy ko‘rikdan o‘tgandan so‘ng tibbiyot xodimi parvoz topshirig‘iga aeroport yoki aviatsiya tashkilotining tibbiy bo‘linmasi nomi ko‘rsatilgan shtampni bosadi, sanani, muvofiqlashtirilgan universal vaqt (UTC) bo‘yicha soat va daqiqalarni, uchishga ruxsat berilgan ekipaj a’zolarining umumiy sonini qayd etadi va imzo qo‘yadi;

Tibbiyot xodimi parvoz topshirig‘iga tuzatishlar yoki qo‘shimcha yozuvlar kiritishga haqli emas.

106. Aviatsiya xodimida parvozlar xavfsizligiga tahdid soluvchi holatlar aniqlanganda, (sog‘lig‘i yuzasidan shikoyatlar mavjud bo‘lganda, charchoq yoki kasallik belgilari kuzatilganda, mehnat va dam olish tartibi buzilganda, shuningdek alkogol, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste’mol qilganda) u uchishdan chetlatiladi.

Bunda tibbiyot xodimi ushbu Aviatsiya qoidalarining 22-ilovasiga muvofiq “Fuqaro havo kemasi ekipaji a’zosini (havo harakatini boshqaruvchi dispetcherni) parvozlardan chetlatish jurnali”ga “chetlatildi” degan yozuvni kiritadi va imzo qo‘yadi.

Aviatsiya xodimini u biriktirilgan fuqaro aviatsiyasi tashkilotining shifokoriga taqdim etish uchun ushbu Aviatsiya qoidalarining 23-ilovasiga muvofiq uchish ishidan chetlatilgani haqidagi ma’lumotnoma beriladi.

107. Ushbu Aviatsiya qoidalarining 24-ilovasiga muvofiq yakunlangan yil uchun uchishdan oldingi tibbiy ko‘rik natijalari haqidagi ma’lumotlar vakolatli organga keyingi yilning 5-sanasiga qadar taqdim etiladi.

108. Jarrohlik ekspertizasida bo‘g‘imlar harakatchanligi ushbu Aviatsiya qoidalarining 25-ilovasiga muvofiq baholanishi, o‘qishga kiruvchilarda tana rivojlanishi mutanosib bo‘lishi kerak.

10-bob. Yakuniy qoida

109. Mazkur Aviatsiya qoidalari talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Fuqaro aviatsiyasida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish
va tibbiy xulosa berish tartibi to‘g‘risidagi
O‘zbekiston Respublikasining
aviatsiya qoidalariga
1-ILOVA

1-klass tibbiy xulosasini olishga nomzodlarning sog‘liq holatiga qo‘yilgan tibbiy talablar
1-bob. Umumiy talablar

1. Nevrologik tibbiy ko‘rikni o‘tkazishda quyidagi holatlarni aniqlashi lozim:

nomzodda nevrologik kasallikning mavjudligi yoki mavjud emasligi;

mavjud nevrologik kasallikning statik holatda funksional jihatdan parvozlar xavfsizligiga tahdid solish ehtimoli;

nevrologik kasallikning monitoring o‘tkazish imkonini beruvchi vaqtinchalik progressivlashuvchi ko‘rinishga egaligi;

nomzodning ahamiyatga ega bo‘lmagan qoldiq funksional nevrologik buzilishlarsiz kasallikdan to‘liq sog‘ayganligi;

aviatsiya xodimining ruhiy holati buzilishlari natijasida ish qobiliyatining to‘satdan yoki yashirin tarzda yo‘qolishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan holatlarning mavjudligi yoki ehtimoli.

Aviatsiya xodimlari va kursantlarning ruhiy holatining nazorat kuzatuvi nevrolog, psixolog va fuqaro aviatsiyasi tashkilotining shifokorlari tomonidan amalga oshiriladi.

2. Uchuvchi tarkibi va kursantlarda ruhiy holat buzilishlari aniqlanganda yoki gumon qilinganda yoxud boshqa tibbiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lganda, ular o‘qishdan yoxud o‘z kasbiy funksional majburiyatlarini bajarishdan chetlatiladi hamda psixiatriya muassasasiga yuboriladi.

Mazkur uchuvchi tarkibi yoki kursantning ruhiy sog‘lig‘i va ijtimoiy moslashuv holati yuzasidan psixiatrlarning xulosasi olingandan keyin tibbiy ko‘rikni davom ettirish masalasi tibbiy-uchish komissiyasi (bundan buyon matnda TUK deb yuritiladi) tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Psixiatr ko‘rigi va tekshiruvlari uchuvchi tarkibi yoki kursantning roziligi bilan amalga oshiriladi.

Uchuvchi tarkibi yoki kursantning psixiatr ko‘rigi, tekshiruvi yoki zarur bo‘lganda davolanishdan bosh tortishi uning tibbiy hujjatlarida qayd etiladi hamda tibbiy xulosa bermaslikka yoki amaldagi tibbiy xulosani bekor qilishga asos bo‘ladi.

3. Kognitiv funksiyalarning amaldagi har qanday susayishi aviatsiyada jiddiy oqibatlar yuzaga keltirishi mumkinligi sababli, funksional buzilishlarga olib keluvchi ruhiy holat buzilishlarining qaytalanish xavfi hisobga olingan holda, tibbiy xulosa chiqariladi.

4. Uchuvchining ruhiy va jismoniy holatini tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishda havo kemasini boshqarish bo‘yicha uning kasbiy yaroqliligini belgilovchi quyidagi talablar hisobga olinishi lozim:

uchish jarayonida havodagi vaziyatni va o‘zining fazoviy holatini to‘g‘ri aniqlashi uchun rivojlangan sezgi organlariga (ko‘rish, eshitish, muvozanat, proprioseptsiya, kinesteziya) ega ekanligi;

uchish sharoitlarini to‘g‘ri baholashi, ma’lumotni o‘z vaqtida va to‘g‘ri qabul qilishi, uni qayta ishlashi va havo kemasini belgilangan manzilga xavfsiz yetib borishi hamda qo‘nishini ta’minlovchi qarorlar qabul qilish qobiliyatiga egaligi;

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

uchish jarayonida belgilangan harakatlar va boshqaruv amallarini bajarish uchun jismoniy va ruhiy jihatdan yetarlicha tayyorligi.

5. Nomzodning ruhiy holati buzilishini tekshirishda quyidagilar aniqlanishi kerak:

tabiiy omillar, tarbiya va hayotiy tajribaning mujassamligida uning ruhiy holatining buzilishiga bo‘lgan moyilligi;

ruhiy holatning buzilishlari, shuningdek inson temperamenti muhim genetik komponentga egaligi;

ruhiy holat buzilishiga genetik moyilligi bo‘lgan nomzodning tarbiya va hayotdagi vaziyatlar bilan bog‘liq stress-faktorlarga psixiatrik simptomlarsiz bardosh berishga qodirligi;

bolalikdagi hodisalar, jamiyatga zid axloq, o‘qishni o‘zlashtirishning pastligi, doimiy ish o‘rnini izlashdagi qiyinchiliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarni iste’mol qilish, kayfiyatning to‘satdan o‘zgarishi va yaqin munosabatlarni o‘rnata olmaslik kabi ruhiy holatning buzilganligi alomatlarining mavjudligi.

6. Nomzodlarda pirsing, implantlar va teridagi tatuirovkalar bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Yo‘qotilgan yoki funksiyasi yo‘qolgan a’zolarning faoliyatini tiklash maqsadida o‘rnatilgan implantlarda (masalan, tish yoki ba’zi bir onkologik kasalliklar sababli) tegishli shifokor mutaxassis maslahatini olib nomzodning yaroqliligi aniqlanadi.

2-bob. Ruhiy holatning buzilishi va asab kasalliklari

7. Shizofreniya, paranoik buzilishlar, affektiv psixozlar (maniakal-depressiv psixoz, siklotimiya) mavjud bo‘lgan nomzodlarga nisbatan tibbiy xulosa faqat psixiatriya muassasada o‘tkazilgan tekshiruv natijalari asosida rasmiylashtiriladi.

Mazkur kasalliklar aviatsiya xodimlarida aniqlangan hollarda, ular o‘z kasbiy funksional vazifalarini bajarishga yaroqsiz deb topiladi va kasbiy faoliyatga qayta tiklanmaydi.

Organik ruhiy holatning buzilishi aniqlangan nomzodlar barcha klasslar bo‘yicha kasbiy faoliyatni amalga oshirishga yaroqsiz deb topiladi hamda kasbiy faoliyatga qayta tiklanmaydi.

8. Nomzodlarga tibbiy xulosani rasmiylashtirishda quyidagi holatlar inobatga olinadi:

ruhiy-hissiyot sohasidagi reaktiv holatlarning o‘tkir yoki surunkali ruhiy jarohatlar ta’siri ostida yuzaga kelishi;

jarohatlovchi omilning psixiatrik simptomlar va klinik belgilar shakllanishiga bevosita sabab bo‘lishi;

ruhiy holatning buzilishlarini keltirib chiqaruvchi omil bartaraf etilganda, reaktiv holatning qisqa muddat ichida barqarorlashishi yoki tugashi.

9. Aviatsiya hodisasi yoki insidenti sodir bo‘lganidan so‘ng uchuvchi ekipaj a’zolarida kuzatilishi mumkin bo‘lgan qisqa muddatli ruhiy holat buzilishini baholashda quyidagi omillar inobatga olinadi:

hodisaning kelib chiqishi, uning sababi va rivojlanish holati;

ko‘rikdan o‘tayotgan nomzodning birlamchi emotsional ta’siri;

komandirlik rahbariyati, dispetcher xizmati va kasbdoshlar tomonidan ko‘rsatilgan psixologik qo‘llab-quvvatlash darajasi;

mehnat va dam olish tartibiga rioya etilishi;

hodisaga oid omillar bilan bog‘liq boshqa psixologik, fiziologik va tashkiliy jihatlar.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

10. Aviatsiya hodisasidan keyingi ruhiy tushkunlik yoki depressiya holatlari uchuvchining parvoz xavfsizligi talablarini bajarishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi inobatga olinishi lozim.

Psixologik ko‘rik faqat tibbiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lganda, tibbiy ekspertlari hamda aviatsiya hodisasini tekshiruv komissiyasi raisining ruxsati bilan o‘tkazilishi kerak.

Tekshiruv jarayonida uchuvchining kasbiy majburiyatlarini bajarishiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan omillar, shaxsiy omillar va inson omili, shu jumladan havo kemasini boshqarishdagi xato harakatlar, tashkiliy omillar, uchuvchining kasbiy faoliyatini davom ettirishga bo‘lgan munosabati, sog‘lig‘i holatida buzilishlarni keltirib chiqaruvchi nizoli vaziyatlar, kasbdoshining og‘ir ahvolga tushishi yoki vafoti kabi holatlar hamda ushbu voqealarga nisbatan subyektiv ta’sirlanishining sabablari aniqlanishi lozim.

11. Uchuvchining yengil darajada ifodalangan ruhiy holatning o‘zgarishlari mavjud bo‘lganda, profilaktik tibbiy chora-tadbirlar va maxsus tavsiyalar talab etilmasa, uning ruhiy va jismoniy sog‘lig‘i holati barqaror deb topilganda hamda parvozlar xavfsizligini ta’minlashga to‘sqinlik qiluvchi omillar aniqlanmaganda, nevrolog ko‘rigi o‘tkazilgandan so‘ng uchuvchilik ishiga ruxsat berilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Uchuvchi tarkibida yoki kursantlarda aviatsiya hodisalaridan keyingi ruhiy holatning buzilishlari va nevrotik holatlar kuzatilganda, ularning davomiyligi, uchuvchi tarkibida yoki kursantlarning kasbini davom ettirishga bo‘lgan munosabati, komandir-instruktorlarning fikri, shuningdek psixofiziologik, fiziologik, jismoniy va kasbiy omillar inobatga olingan holda tibbiy yaroqlilik masalasi hal etiladi.

Kechikib rivojlanadigan nevrozlar, qo‘rquv sindromlari yoki uchuvchilik faoliyatini davom ettirishga to‘sqinlik qiluvchi boshqa psixologik ta’sirlar mavjud bo‘lganda, ularga uchish ishiga yoki o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa rasmiylashtiriladi. O‘tkazilgan reabilitatsiya chora-tadbirlarining ijobiy natijalari kuzatilganda aviatsiya xodimi kasbiy faoliyatiga qayta tiklanishiga yo‘l qo‘yiladi.

Psixopatiyalar ularning shakli va klinik belgilari qanday bo‘lishidan qat’i nazar, shuningdek nomzodning psixik bo‘lmagan buzilishlar (paranoid, affektiv, shizoid, qo‘zg‘aluvchan va boshqa turlari) mavjud bo‘lganda, nomzodlar uchish ishiga yoki o‘qishga yaroqsiz deb topiladi.

12. Quyida keltirilgan tashxislar bo‘yicha uchuvchi tarkibi va kursantlar to‘liq sog‘ayganidan, ruhiy-asab faoliyati to‘liq kompensatsiyalanganidan hamda qo‘shimcha psixotrop terapiyaga ehtiyoj yo‘qligi tasdiqlanganidan so‘ng 4 oydan 6 oygacha muddat o‘tgach, psixiatriya yoki narkologiya muassasalarida psixolog va psixiatr ko‘rigidan o‘tkazilgandan so‘ng tibbiy ko‘rikka qo‘yilishiga yo‘l qo‘yiladi:

a) stress va somatoform buzilishlarga oid tashxislar (XKT-10):

og‘ir stressga javob reaksiyalari va adaptatsiya buzilishlari (F 43);

b) fiziologik va fizik omillar bilan bog‘liq fe’l-atvor sindromlari (XKT-10):

uyqu va bedorlik tartibining buzilishi (organik etiologiyasiz) (F51.2);

bosinqirashlar (F51.5);

organik etiologiya bilan bog‘liq bo‘lmagan jinsiy disfunksiyalar (F52);

tug‘ishdan keyingi davrga oid psixik va xulq-atvor buzilishlari (F53);

boshqa kasalliklar bilan bog‘liq psixologik va xulq-atvor omillari (F54);

aniqlanmagan fiziologik buzilishlar va fizik omillar bilan bog‘liq fe’l-atvor sindromlari (F59).

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Mazkur holatlarda tibbiy xulosa rasmiylashtirilayotganda nomzodning asab-ruhiy faoliyatining kompensatsiya darajasi, psixoz yoki nevroz kechgan davrdagi ruhiy holati buzilishlarining xususiyatlari, chuqurligi, kechish dinamikasi, uning qaytalanish xavfi, psixotrop dori vositalarini doimiy qabul qilish zarurati mavjudligi yoki mavjud emasligi, prognozning ijobiyligi inobatga olinadi.

Nomzodning ruhiy holati buzilishi xususiyatiga koʻra psixotrop dori vositalarini muntazam qabul qilish zarurati mavjud boʻlganda, u aviatsiya faoliyatini amalga oshirishga yoki oʻqishga yaroqsiz deb topiladi hamda uchish ishiga qayta tiklanmaydi.

13. Suitsidal urinishlar mavjud boʻlgan nomzodlarda uchish ishiga (oʻqishga) yaroqsizligi haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Bunda uchuvchi tarkibi (kursant) muammoga adekvat yechim topa olmaydi va ushbu holat ruhiy krizis sifatida tavsiflanadi. Mazkur krizis holatlari quyidagi kasalliklarda uchraydi:

bipolyar affektiv buzilishning depressiv fazasi;

ajitatsiya bilan kechuvchi involyustiya depressiya;

alkogol bilan bogʻliq depressiv holatlar;

shizofreniya;

epilepsiya va boshqa organik ruhiy holatning buzilishlari.

Ushbu holatlarni oʻrganish jarayonida psixiatr hodisa boʻyicha guvohlarning koʻrsatmalarini, suitsidal urinishga sabab boʻluvchi omillarni, shaxsiy va oilaviy anamnezni, autoagressiv harakatlarning mazmuni, shakli va motivlarini aniqlashi lozim.

Mazkur holatlarda psixiatrik tekshiruv oʻtkazilishi hamda psixiatr tomonidan tibbiy xulosa rasmiylashtirilishi zarur.

Anamnezida suitsidal urinishlar aniqlangan nomzodlar barcha klasslar boʻyicha yaroqsiz deb topiladi va uchish ishiga (oʻqishga) qayta tiklanmaydi.

14. Vaziyatga bogʻliq astenik holatlar yoki nevrastenik sindrom kuzatilgan uchuvchi tarkibi (kursantlar), ushbu holatni yuzaga keltirgan sabablar bartaraf etilganda, klinik simptomlar toʻliq yoʻqolganda, psixologik testlar, klinik tekshiruvlar va nevrolog tomonidan olib borilgan dispanser kuzatuvi natijalari ijobiy boʻlganda, 4–6 oydan soʻng qayta tibbiy koʻrikdan oʻtkaziladi.

Jismoniy (somatogen) kasalliklar sababli qisqa muddatli ruhiy holat buzilishlarini boshdan kechirgan uchuvchi tarkibi (kursantlar), asosiy kasallikdan toʻliq sogʻaygandan soʻng doimiy quvvatlovchi (psixotrop) terapiyaga ehtiyoj mavjud boʻlmaganda va asab-ruhiy faoliyati toʻliq kompensatsiya qilinganda ular uchish ishiga (oʻqishga) yaroqli deb topiladilar.

15. Shaxs buzilishlarining mavjudligini aniqlash va ekspert baholash jarayonida TUK a’zosi quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

shaxsni davomli kuzatuvdan oʻtkazish;

ekipaj a’zolari bilan suhbatlar oʻtkazish;

oilaviy va shaxsiy anamnezni oʻrganish;

psixologik testlar va sinovlar oʻtkazish;

jamoa ichidagi psixologik muhitni baholash.

Tekshiruv jarayonida yomon moslashuvchanlik, konfliktlilik va ijtimoiy dezadaptatsiyaga olib keluvchi shaxs buzilishlarini oddiy individual xulq-atvor xususiyatlaridan farqlash lozim.

Psixiatriya muassasasida oʻtkazilgan tekshiruv natijalari va psixiatrning xulosasi asosida yakuniy tibbiy xulosa chiqariladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Tibbiy kuzatuv ma’lumotlari salbiy bo‘lganda, turg‘un va aniq ifodalangan shaxs buzilishlari mavjud nomzodlar uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsiz deb topiladi.

Shaxsning ahamiyatsiz buzilishlarida kasbiy fazilatlarni (ish staji, tajribasi, mahorati, bajarilayotgan vazifaning sifati va boshqalarni hisobga olgan holda, yaroqliligi to‘g‘risidagi xulosa chiqariladi.

16. Uchuvchi tarkibi va kursantlarda kam darajada ifodalangan infantilizm belgilari mavjud bo‘lganda, asab-ruhiy faoliyatining ijtimoiy va kasbiy jihatdan yetarli kompensatsiyalanganligi aniqlansa, nomzodga aksentuatsiyasi yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarish uchun asos bo‘lmaydi.

17. Uchuvchi tarkibining (kursantlar) xulq-atvorida ilgari kuzatilmagan noadekvat ta’sirlar paydo bo‘lganda, ushbu holat psixolog va psixiatr tekshiruvini o‘tkazish uchun asos hisoblanadi.

Psixiatrik tashxis tasdiqlanmaganda, nomzod uchish ishiga (o‘qishga) yaroqli deb topiladi.

Psixolog tomonidan uchuvchi tarkibining (kursantlar) individual-psixologik xususiyatlarida buzilishlar aniqlanganda, nevrologik klinikada qo‘shimcha tekshiruvlar o‘tkaziladi hamda ko‘rsatma mavjud bo‘lganda, psixiatr maslahati tashkil etiladi.

Nomzodda turg‘un va salbiy belgilari bilan yaqqol ifodalangan shaxsiyat buzilishlari mavjud bo‘lganda, yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi. Bunda buzilishlar kam ifodalangan hollarda esa uning kasbiy sifatlari, jumladan mehnat staji, ish tajribasi, bajarilayotgan ish sifatini hisobga olgan holda, unga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqliligi to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

18. Alohida vaziyatga bog‘liq omillar natijasida yuzaga kelgan insomniya, dissoniya yoki sirkad ritmlarining buzilishi aniqlanganda, aviatsiya xodimi o‘z kasbiy vazifalarini bajarishdan chetlatiladi hamda davolanish uchun psixologga yuboriladi.

Davolash jarayonida gipnoz usullaridan, shuningdek aviatsiya faoliyatida qo‘llanishiga yo‘l qo‘yilmaydigan sedativ dori vositalaridan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki alkogol iste’moli bilan bog‘liq turg‘un insomniya yoki dissoniya mavjud bo‘lganda, barcha klasslar bo‘yicha nomzodlar yaroqsiz deb topiladi hamda kasbiy faoliyatga qayta tiklanmaydi.

Mazkur hollarda uchish ishiga (o‘qishga) yaroqli deb topilgan nomzodlar komissiya oralig‘i davrida nevrolog tomonidan har 6 oyda bir marotaba dispanser kuzatuvidan, psixolog tomonidan esa yiliga bir marotaba psixologik tekshiruvdan o‘tkaziladi.

Tibbiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lgan hollarda, psixiatr maslahati o‘tkaziladi hamda psixokorreksiya muolajalari amalga oshiriladi.

Tashxisni bekor qilish muddati (barqaror remissiyani tasdiqlash) nevrolog tomonidan aniqlanadi.

Ma’lum bir somatik kasallik bilan bog‘liq bo‘lgan qisqa muddatli ruhiy holatning buzilishini o‘tkazgan nomzodlar asosiy kasallikdan sog‘aygandan so‘ng doimiy ravishdagi yordamchi davolash usullarini qo‘llash talab qilmaydigan asab-ruhiy faoliyatining to‘liq kompensatsiyasida uchish ishiga (o‘qishga) yaroqli deb topilishlariga yo‘l qo‘yiladi.

19. Alkogol, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste’mol qilish natijasida yuzaga keladigan ruhiy hamda xulq-atvor buzilishlari, shuningdek surunkali alkogolizm, 1 yil va undan ortiq davom etgan muntazam alkogol, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar iste’moli holatlarida barcha nomzodlar uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsiz deb topiladi va kasbiy faoliyatga qayta tiklanmaydi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Alkogol yoki psixotrop moddalarni iste’mol qilish oqibatida yuzaga kelgan jismoniy, psixologik va xulq-atvor buzilishlari inobatga olingan holda nomzodga tegishli tashxis qo‘yiladi.

O‘tkir (o‘tkirosti) alkogolli psixoz alkogolli deliriy, paranoid holatlar, gallyutsinoz, rashk vasvasasi va shu turdagi boshqa holatlarda yoki alkogolizmga gumon bo‘lgan hollarda narkolog ko‘rigi o‘tkaziladi.

Ruhiy holatni o‘zgartirish maqsadida sedativ preparatlar, trankvilizatorlar, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki ularning prekursorlarini notibbiy maqsadda qabul qilish dori vositasiga qaramlik yoki uni iste’mol qilish sifatida baholanadi.

20. Alkogolli qaramlik (alkogolizm) shakllanmagan hollarda alkogolning zararli iste’moli yoki bir martalik alkogol bilan o‘tkir zaharlanish aniqlanganda, aviatsiya xodimi darhol xizmat vazifalaridan chetlatiladi va chuqurlashtirilgan tibbiy hamda psixologik tekshiruvlardan, narkolog maslahati va sog‘lomlashtirish-davolash tadbirlaridan o‘tkaziladi.

Nevrolog tomonidan belgilangan muddat davomida tibbiy kuzatuv olib borilib, 2–4 oydan so‘ng tibbiy tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lganda, narkolog xulosasida ijobiy prognoz qayd etilganda hamda aviatsiya xodimining xizmat tavsifnomasi qoniqarli bo‘lganda, u qayta tibbiy ko‘rikdan o‘tkaziladi.

Qayta tibbiy ko‘rik natijasida yaroqlilik aniqlanganda, aviatsiya xodimining o‘z kasbiy faoliyatiga tiklanishi mumkin.

21. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste’mol qilganlikni aniqlash bo‘yicha tekshiruv quyidagi asoslarda amalga oshiriladi:

nomzodning o‘z arizasiga asosan;

siydik, qon yoki boshqa biologik materiallarning obyektiv laboratoriya tahlillari asosida;

klinik belgilar va simptomlar mavjudligi yoki mazkur masalada xabardor bo‘lgan uchinchi shaxslarning ma’lumotlari asosida.

Tekshiruv natijalari ishonchliligini ta’minlash maqsadida ma’lumotlar bir nechta mustaqil manbalardan olinishi lozim.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni aniqlashga qaratilgan identifikatsiyalovchi laboratoriya tahlillari nomzod tomonidan mazkur moddalarni hozirgi vaqtda, yaqinda yoki o‘tmishda iste’mol qilganligini tasdiqlovchi asosiy obyektiv dalil sifatida qabul qilinadi.

22. Uchuvchi tarkibi (kursantlar) alkogol, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste’mol qilganligi haqida gumon paydo bo‘lganda yoki ushbu mazmunda ma’lumot olinganda aviatsiya tibbiy xodimi uning jismoniy va ruhiy holati, iste’mol qilish ehtimolini ko‘rsatadigan dalillar va sharoitlarni bayon etgan holda dalolatnoma rasmiylashtiradi.

Mazkur holatda uchuvchi tarkibi (kursantlar) aviatsiya tibbiy xodimi kuzatuvida, mavjud tibbiy hujjatlar, klinik belgilari va ashyoviy dalillar (shpris, dori vositalari qoldiqlari va boshqalar) bilan birgalikda narkologik muassasaga yuboriladi.

Uchuvchi tarkibining (kursant) alkogol, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste’mol qilganligini aniqlashga qaratilgan tibbiy tekshiruvlardan bosh tortishi, unga tibbiy xulosa bermaslikka yoki ilgari berilgan tibbiy xulosaning haqiqiy emas deb topilishiga asos bo‘ladi.

Anamnezida toksikomaniya, narkomaniya yoki surunkali alkogolizm holatlari mavjudligi aniqlangan uchuvchi tarkibi (kursantlar), uchish faoliyatidan chetlatilgan davri va o‘tgan muddatidan qat’i nazar barcha klasslar bo‘yicha kasbiy faoliyatni davom ettirishga yaroqsiz deb topiladi va kasbiy faoliyatiga qayta tiklanmaydi.

Uchuvchi tarkibida (kursant) epilepsiya tashxisi aniqlanganda, u barcha klasslar bo‘yicha kasbiy faoliyatga yaroqsiz deb topiladi va uchish ishiga (o‘qishga) qayta tiklanmaydi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

23. Epilepsiya mavjudligiga gumon qilingan uchuvchi tarkibi va kursantlar ixtisoslashtirilgan tibbiy muassasaga chuqurlashtirilgan tibbiy koʻrikdan oʻtish uchun yuboriladi.

Yuborishdan avval tutqanoq holati toʻgʻrisidagi ma’lumotlar bayon etilgan, guvohlar imzolari bilan tasdiqlangan hamda aviatsiya tibbiyot xodimi tomonidan rasmiylashtirilgan dalolatnoma tuziladi.

Tashxis quyidagi majburiy tekshiruvlar asosida qoʻyiladi:

kasallik tarixi (anamnez)ni batafsil oʻrganish;

toʻliq nevrologik koʻrik;

elektroensefalografiya (bundan buyon matnda EEG deb yuritiladi);

kompyuter tomografiyasi (bundan buyon matnda KT deb yuritiladi) yoki magnit-rezonans tomografiya (bundan buyon matnda MRT deb yuritiladi);

psixiatr va epileptolog xulosalari.

24. Birinchi marta EEGda paroksizmal faollik aniqlangan uchuvchi tarkibi (kursant) nevrologiya muassasasida chuqurlashtirilgan tekshiruvdan oʻtkazilishi lozim.

EEGda ilk bor epileptiform faollik (“choʻqqi-sust toʻlqin” turidagi oʻzgarishlar) aniqlanganda va epilepsiya uchun xos klinik belgilar hamda markaziy asab tizimining organik shikastlanishlari mavjud boʻlmaganda, uchuvchi tarkibi (kursant) nevrologiya muassasida tekshiruvdan oʻtkaziladi.

EEGdagi paroksizmal, epileptoid faollik va ahamiyatga ega kuchli ifodalangan oʻzgarishlar aniqlanganda, 3–6 oy davomida takroriy nevrologiya muassasasi tekshiruvlari natijasida tasdiqlanganda, uchuvchi tarkibiga (kursant) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Ongning paroksizmal buzilishlarini (qisqa muddatli paroksizm, hushning oʻzgarishi, epizodik yoʻqotilishi) oʻtkazgan uchuvchi tarkibiga (kursant) tibbiy ekspertlar tomonidan tibbiy xulosa chiqariladi.

25. Turli etiologiyali bosh va orqa miya patologiyalari, bosh va orqa miyaning birlamchi kasalliklari (vaskulitlar, rivojlanish anomaliyalari, anevrizmalar, ateroskleroz, somatogen, vertebrogen va boshqa etiologiyali tomirlarning ikkilamchi shikastlanishlari) mavjud boʻlgan nomzodlarda kasbiy faoliyatni bajarish jarayonida ish qobiliyatini toʻsatdan yoʻqotish xavfini keltirib chiqarishi mumkin boʻlgan omillar birlamchi insult (kriz) rivojlanishi, kasallikning qaytalanishi, tranzitor ishemik epizodlar yoki miya qon aylanishining oʻtkir buzilishlari aniqlanishi hamda tibbiy xulosa chiqarilishi lozim. Tibbiy xulosada quyidagilar inobatga olinadi:

kasallikning etiologiyasi va kechishi;

nevrologik, psixik va funksional buzilishlarning darajasi;

yuklama sinovlarini bajarish qobiliyati;

psixologik tekshiruv natijalari;

bajariladigan kasbiy funksiyalarni xavfsiz bajarishga ta’sir etuvchi boshqa omillar;

yondosh kardiologik kasalliklar (arterial gipertenziya, yurak ritmi buzilishlari), qandli diabet, dislipidemiya, chekish va prognozni yomonlashtiruvchi boshqa xavf omillari.

26. Gemorragik yoki ishemik genezdagi miya qon aylanishining oʻtkir buzilishi, tranzitor ishemik ataka (bundan buyon matnda TIA deb yuritiladi) subaraxnoidal qon quyilishini yoki tomir krizi hamda miya qon aylanishining surunkali buzilishlari mavjud boʻlganda, nomzodlarga barcha klasslar boʻyicha yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi. Biroq quyidagi klinik va instrumental tekshiruvlar natijasida:

markaziy asab tizimining nevrologik va ruhiy funksiyalari saqlanganligi;

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

kasallikning yengil darajada bo‘lishi;

aterosklerotik o‘zgarishlar minimal va barqaror xususiyatga ega ekanligi tasdiqlanganda, uchuvchi tarkibiga uchish ishiga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa berilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Bunda yaroqlilik to‘g‘risidagi tibbiy xulosa barcha klinik, instrumental, psixologik ko‘rsatkichlar asosida chiqariladi.

27. Bosh miya tomirlari kasalliklari mavjud bo‘lgan aviatsiya xodimlariga tibbiy xulosalar quyidagilarni inobatga olgan holda chiqariladi:

bosh miya arteriyalarining dupleks skanerlashida (bundan buyon matnda BMA DS deb yuritiladi) arteriya intimasining 1 mm dan ortiq qalinlashuvi;

ultratovush dopplerografiyasida (bundan buyon matnda UTDG deb yuritiladi) qon oqimi chiziqli tezligining chegaraga yaqin assimetriyalari, qonda giperlipidemiya, ko‘z tubida boshlang‘ich sklerotik o‘zgarishlar, ayrim nevrologik mikrosimptomlar (masalan, yorug‘likka sust reaksiyali qorachiqlar, kaft-engak refleksining sustligi), yengil darajadagi kognitiv o‘zgarishlar va EEGda ahmiyatsiz funksional o‘zgarishlar (boshlang‘ich belgilari bilan asab-ruhiy funksiyalari yetarlicha saqlanganda, bosh miya tomirlarining aterosklerozi tashxisi qo‘yiladi va nomzod uchish ishiga (o‘qishga) yaroqli deb topiladi hamda aterosklerozning rivojlanishiga qarshi profilaktik chora-tadbirlar belgilanadi);

BMA DSda bitta arteriyaning 50 foiz va undan ortiq yashirin stenozining mavjudligi, bir yoki bir nechta arteriyalarda turg‘un bo‘lmaganda, embologen xususiyatga ega aterosklerotik blyashkalari aniqlanganda uchuvchi tarkibi qo‘shimcha nazorat tekshiruvlariga yuboriladi va ma’lumotlar tasdiqlanganda bosh miyada qon aylanishining o‘tkir buzilish xavfi yuqori bo‘lganda, bosh miya tomirlarining aterosklerozi tashxisi qo‘yiladi va yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa rasmiylashtiriladi.

Aterosklerotik o‘zgarishlar mazkur bandning uchinchi va to‘rtinchi xatboshilarida keltirilgan ikki holat orasida bo‘lganda, jumladan gemodinamik jihatdan ahamiyatsiz stenozlarda, turg‘un aterosklerotik blyashkalarda, normaga yaqin xavf tug‘dirmaydigan psixologik, bioximik yoki EEG o‘zgarishlar mavjudligida asab-ruhiy faoliyatlari yetarlicha saqlanganda, bosh miya tomirlarining aterosklerozi tashxisi qo‘yiladi va tibbiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lsa, transkranial BMA DS va MRT-angiografiya o‘tkaziladi hamda individual tartibda tibbiy xulosa chiqariladi.

Tibbiy xulosada arterial gipertoniya, chekish, giperlipidemiya, ortiqcha tana vazni, yosh, nevrologik va psixik funksiyalarning saqlanganligi hisobga olinishi lozim.

Yaroqli deb topilgan uchuvchi tarkibiga 6 oyda 1 marta nevrolog dispanser kuzatuvi belgilanadi.

TIA o‘tkazgan shaxslar bo‘yicha differensial diagnostika (turli genezli behushlik holatlaridan farqlash) majburiy ravishda o‘tkaziladi.

Miya qon aylanishining o‘tkir buzilishini o‘tkazgan yoki miya qon aylanishining surunkali yetishmovchiligi mavjud bo‘lgan uchuvchilar yaroqsiz deb topiladi.

Turli genezli vaskulitlar o‘tkazilganda, davolanish yakunlangandan so‘ng remissiya muddati kamida 2 yil davom etgan barqaror holatda, kasallik turi va sabablari, xavf darajasi hamda bajariladigan kasbiy vazifalar hisobga olingan holda nomzodga individual tibbiy xulosa chiqariladi.

MRTda tomirga oid genezli gliozlar yoki 2-3 mm o‘lchamdagi mayda kistalar aniqlanganda, uchuvchi tarkibi kardiolog, endokrinolog, terapevt yoki neyrojarroh ko‘rigidan o‘tkaziladi.

Kasbiy majburiyatlarni xavfsiz bajarishga to‘sqinlik qiladigan klinik, organik yoki funksional buzilishlar aniqlanmaganda, nomzod uchish ishiga yoki o‘qishga yaroqli deb topiladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

28. Kuchli darajadagi toksik zaharlanishlar, jumladan alkogolli ensefalopatiya, qo‘rg‘oshin bilan zaharlanish aniqlanganda, uchuvchi tarkibi (kursantlar) yaroqsiz deb topiladi.

Uchuvchi tarkibida (kursantlar) birinchi marta nerv tizimining organik shikastlanishi aniqlanganda, nevrologik bo‘limda chuqurlashtirilgan tekshiruv va KT, MRT tekshiruvlari o‘tkaziladi.

Miya faoliyatining buzilishiga olib keluvchi va miya to‘qimasining tuzilmasi qaytmas darajada zararlanishi bilan kechuvchi nerv tizimining organik kasalliklari aniqlangan uchuvchi tarkibi (kursantlar) uchish ishiga yaroqsiz deb topiladi.

Uchuvchi tarkibida nerv tizimining organik shikastlanishi birinchi marta aniqlanganda, shaxs tibbiy muassasaning nevrologiya bo‘limida chuqurlashtirilgan tekshiruvdan o‘tkaziladi. Bunda KT va MRT kabi instrumental tekshiruvlar o‘tkaziladi.

29. Nerv tizimining yuqumli kasalliklari yoki toksik zaharlanishlarini o‘tkazgan nomzodlarga quyidagi shartlar bajarilganda, uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi:

kasallikdan to‘liq sog‘aygan bo‘lsa;

nerv-ruhiy (psixonevrologik) funksiyalar to‘liq tiklangan bo‘lsa;

nerv tizimi faoliyatining buzilishiga olib kelmaydigan, faqat yengil darajadagi organik mikrosimptomlar saqlanib qolgan bo‘lsa;

klinik va instrumental tekshiruvlar natijasida miya to‘qimasining organik shikastlanishi belgilari aniqlanmasa.

Kasbiy faoliyatni bajarish uchun muhim bo‘lgan funksiyalar klinik va funksional jihatdan yetarli darajada saqlanganda, nerv-mushak apparati hamda markaziy yoki periferik nerv tizimining sust progredient kechuvchi, boshlang‘ich bosqichdagi irsiy-degenerativ kasalliklari aniqlangan nomzodlarga kasbiy vazifalarni xavfsiz bajarish qobiliyatiga ta’sir etuvchi omillar mavjud bo‘lmaganda, nomzodga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

30. Grippli ensefalit, o‘tkir ensefalomielit va o‘tkir kana ensefaliti kabi nerv tizimining o‘tkir yuqumli-yallig‘lanish kasalliklarini o‘tkazgan nomzodlar quyidagi minimal muddatlar o‘tgach uchish ishiga yaroqlilikni aniqlash maqsadida tibbiy ko‘rikdan o‘tkaziladi:

grippli ensefalitni o‘tkazgan nomzodlar kasallikdan so‘ng kamida 1 – 2 yil o‘tgach;

o‘tkir ensefalomielitni o‘tkazgan nomzodlar kasallikdan so‘ng kamida 2 yil o‘tgach;

o‘tkir kana ensefalitini o‘tkazgan nomzodlar kasallikdan so‘ng kamida 3 yil o‘tgach.

Epidemik serebrospinal meningitni o‘tkazgan nomzodlar kasallikdan so‘ng kamida 1 yil o‘tgach uchish ishiga yaroqliligini baholash uchun tibbiy ko‘rikdan o‘tkaziladi.

Meningokokli rinit, faringit, uncha bilinmaydigan meningokok infeksiyasini o‘tkazgan nomzodlar terapevt tomonidan tibbiy ko‘rikdan o‘tkaziladilar.

31. Bosh va orqa miya jarohatlari o‘tkazgan nomzodlarda quyidagi holatlar mavjud bo‘lganda, ular uchish ishiga (o‘qishga, parvozga) yaroqsiz deb topiladi:

bosh miyaning ochiq yoki yopiq jarohatlaridan so‘ng markaziy asab tizimining kuchli ifodalangan organik o‘zgarishlari, ruhiy holat buzilishlari (psixotik yoki og‘ir nevrologik simptomlar bilan), gipertenzion sindrom yoki qaltiroq sindrom, posttravmatik epilepsiya, gipersomniya, diqqat yoki kognitiv funksiyalar susayishi, harakat koordinatsiyasi, nutq, sezgi yoki boshqa funksional buzilishlar, nevrologik nuqson bilan kechuvchi harakatlanish yoki tos organlari funksiyalarining buzilishi, bosh miya anevrizmalari, jarohatdan keyingi kistalar, turg‘un likvorodinamik buzilishlar, bosh suyagining 2×3 sm dan katta defektlari mavjud bo‘lganda;

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

orqa miya jarohatlari oqibatida harakat, sezgi, tos organlari funksiyasi yoki boshqa reflektor buzilishlar mavjud bo‘lsa.

32. Bosh miya jarohatini o‘tkazgan nomzodlar to‘liq sog‘aygandan keyin quyidagilar to‘liq bajarilganda tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilishi va yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishiga yo‘l qo‘yiladi:

nevrologik funksiyalarda qoldiq simptomlar mavjud bo‘lmaganda;

jarohatning klinik va instrumental (EEG, MRT, KT) ko‘rsatkichlari bo‘yicha barqarorlik aniqlanganda;

ruhiy holat, diqqat, koordinatsiya va kognitiv funksiyalar to‘liq tiklanganda;

kasbiy vazifalarni bajarishga to‘sqinlik qiluvchi funksional nuqsonlar aniqlanmaganda.

33. Jarohatning mexanizmi va yuzaga kelish sharoitlarini baholashda miyaning kontaktsiz travmatik shikastlanishlari, shu jumladan miyaning siljishi va qon tomirlarining yorilishi, shuningdek atlanto-oksipital birikma tuzilmalarining shikastlanishi ehtimoli inobatga olinishi lozim.

Tibbiy ekspert qarorini qabul qilishda ongning o‘zgargan holati hamda amneziya davrining davomiyligi hisobga olishi kerak.

Tibbiy ekspert tekshiruvda kasallik tarixi, EEG dinamikasi, yo‘qolgan funksiyalar kompensatsiyasi darajasi, stress-sinovlar va psixologik tekshiruv natijalarini hisobga olishi zarur.

Jarohatning xususiyati va og‘irlik darajasidan tashqari, jarohatdan keyingi davrlarda posttravmatik epilepsiya rivojlanishi ehtimoli oldindan baholanishi hamda boshqa xavf omillari ham inobatga olinishi lozim.

Anamnez ma’lumotlari, EEG ko‘rsatkichlarining dinamikasi, yo‘qotilgan funksiyalarning kompensatsiyalanish darajasi, qo‘shimcha yuklama sinovlari natijalari hamda psixologik tekshiruvlar natijalarini hisobga olib tibbiy xulosa chiqariladi.

34. Tibbiy xulosa quyidagilarni inobatga olgan holda chiqarilishi lozim:

amneziya va ongning o‘zgaruvchanlik davrlari davom etish muddati, ularning xususiyati va barqarorligini;

jarohatning turi va og‘irlik darajasi, shuningdek jarohatga oid klinik belgilarni;

sog‘ligiga doir shikoyatlarning mavjudligi, ularning xususiyati va dinamikasini;

nomzodning maishiy faoliyat va kasbiy vazifalarni bajarish qobiliyatini (muhim kasbiy psixologik fazilatlarning saqlanganligi, shaxsiyat va xulq-atvorga oid funksiyalarning yetarli darajada barqarorligi);

jarohatdan oldingi sog‘liq holati va jarohatdan keyingi asoratlarning mavjudligi yoki yo‘qligini (postkommotsion sindrom, fokal nevrologik buzilishlar, kognitiv funksiyalar buzilishining oqibatlari, posttravmatik epilepsiya);

uzoq davom etuvchi parvozlar yoki ishning murakkab jarayonlarida sog‘liqning yomonlashuvi natijasida ish qobiliyatini to‘satdan yo‘qotish xavfini;

parvoz xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan dori vositalarini qabul qilish bilan bog‘liq holatlarni;

kasbiy faoliyat xavfsizligini ta’minlashga ta’sir etuvchi boshqa tibbiy va psixofiziologik omillarni.

35. Asab-ruhiy funksiyalar to‘liq tiklanganda yoki yetarli darajada saqlanganda, uchuvchi tarkibi va kursantlar uchish ishiga yoki o‘qishga yaroqli deb topiladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Asab-ruhiy funksiyalarning turg‘un kompensatsiya holati (yengil vegetativ disfunksiya, yengil nevrologik simptomlar va shunga o‘xshash posttravmatik holatlar) mavjud bo‘lgan uchuvchi tarkibiga nisbatan cheklovlar qo‘llangan holda yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi. Bunda ilgari o‘zlashtirilgan havo kemasi turidan boshqa turdagi havo kemasini o‘zlashtirish uchun qayta o‘qish tavsiya etilmaydi.

Kasbiy faoliyatiga tiklangan uchuvchi tarkibi nevrolog tomonidan 5 yil davomida har 6 oyda dispanser kuzatuviga olinadi.

36. Bosh suyagi gumbazining ichga botgan sinishi, bosh miyaning lat yeyishi, parenximatoz gematoma, 1 kundan ortiq davom etgan posttravmatik amneziya, bosh miya parenximasida qon mavjudligi hamda subdural gematomalar kuzatilganda, posttravmatik epilepsiya rivojlanish xavfi tibbiy tekshiruv o‘tkazishda inobatga olinishi lozim.

Oddiy, asoratsiz va bosh miya parenximasiga qon quyilishi bilan kechmagan epidural gematomalarda 1 yildan 2 yilgacha muddat o‘tgach, intraparenximatoz gematomalarda esa kamida 2 yil o‘tgach tibbiy ko‘rik o‘tkazilishi mumkin.

37. Bosh gumbazining chiziqli sinishi, bosh suyagi tubining likvoreyasiz sinishi yoki subaraxnoidal qon quyilishi bilan kechuvchi bosh miyaning o‘rta va og‘ir darajadagi lat yeyishi holatlarida nomzodlar kamida 1–2 yil o‘tgach, chuqurlashtirilgan tibbiy kuzatuv va diagnostik tekshiruvlar (EEG, MRT/KT, nevrologik va psixologik baholash) natijalari ijobiy bo‘lganda hamda barqaror ijobiy prognoz mavjudligida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Mazkur holatlarda kasbiy faoliyatning xavfsiz bajarilishida funksional cheklovlarni hisobga olgan holda, nomzodlarga OML cheklovi 3 yilgacha bo‘lgan muddatga qo‘llanilgan holda yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishiga yo‘l qo‘yiladi.

38. Parenximada qon quyilmagan oddiy asoratsiz epidural gematoma, subdural gematoma bilan kechuvchi bosh miyaning lat yeyishi, bosh miya chayqalishi, bosh miyaning yengil darajadagi lat yeyishi, qo‘shaloq bosh miya shikastlanishlari hamda postkommotsiya sindrom o‘tkazgan nomzodlar quyidagi muddatlar o‘tgach tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilishiga yo‘l qo‘yiladi:

parenximaga qon quyilmagan oddiy asoratsiz epidural gematoma holatlarida – 1-2 yil o‘tgach;

subdural gematoma bilan kechuvchi bosh miyaning lat yeyishi holatlarida – 2 yil o‘tgach;

bosh miya chayqalishi holatlarida – 1,5–3 oy o‘tgach;

bosh miyaning yengil darajadagi lat yeyishi holatlarida – 3–6 oy o‘tgach;

qo‘shaloq bosh miya shikastlanish holatlarida – 6–24 oy o‘tgach;

postkommotsiya sindrom holatlarida – kamida 3 oy o‘tgach.

Mazkur uchuvchi tarkibi uchun quyidagilar majburiy hisoblanadi:

nevrologik funksiyalarning saqlanganligi klinik tekshiruv bilan tasdiqlangan bo‘lishi;

kognitiv funksiyalarning to‘liq tiklanganligi psixologik testlar bilan tasdiqlanishi;

yuklama sinamalariga (psixofiziologik va funksional testlar) chidamliligi ijobiy baholanishi;

psixolog, psixiatr va oftalmolog ko‘rigidan o‘tkazilishi;

bosh miyaning MRT, EEG hamda qo‘shimcha instrumental tekshiruvlar o‘tkazilishi;

posttravmatik epilepsiya rivojlanish xavfi, organik asoratlar yoki funksional yetishmovchilikning mavjud emasligi aniqlanishi.

Mazkur talablar bo‘yicha o‘tkazilgan tibbiy baholash natijalariga muvofiq individual uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Tashxisni rasmiylashtirish jarayonida tibbiy hujjatlarda quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi lozim:

bosh miya jarohatlarining klinik ko‘rinishi (jarohat turi, darajasi va mavjud asoratlar);

jarohat olingan sana (aniq kun, oy, yil);

tekshiruv vaqtida kasallik jarayonining davri (o‘tkir davr, erta yoki kech reabilitatsiya davri);

posttravmatik sindromning klinik tavsifnomasi;

nerv-ruhiy (psixonevrologik) funksiyalarning holati (kognitiv, vegetativ, psixomotor, affektiv ko‘rsatkichlar).

39. Vegetativ asab tizimining surunkali kasalliklari paroksizmal kechuvchi shakllari, tez-tez qaytalanuvchi zo‘rayishlar, shuningdek krizli reaksiyalar (vazovagal, simpatik, vagoinsulyar, simpatoadrenal, aralash xususiyatdagi, adrenal va diensefal turlari) bilan kechuvchi vegetativ-tomir buzilishlari mavjud bo‘lgan uchuvchi tarkibi aviatsiya faoliyatiga yaroqsiz deb topiladi.

Ushbu guruhga migren, solyarit, Mener sindromi, umurtqa arteriyasi sindromi, diensefal sindromi, angionevrozlar (angiotrofonevrozlar, Reyno kasalligi), qaytalanuvchi angionevrotik shish (Kvinke shishi), ortostatik essensial gipotoniya kasalliklari kiradi.

40. Aniq klinik ma’lumotlarni olish maqsadida quyidagi instrumental tekshiruvlar o‘tkaziladi:

KT – umurtqa tuzilmasining holatini baholash uchun;

MRT – orqa miya, uning ildizlari va paravertebral tuzilmalar holatini aniqlash uchun;

bosh miya tomirlarining BMA DS va ultratovush doplerografiyasi, UTDG – rotatsiya sinamalar davomida paydo bo‘luvchi yoki kuchayuvchi vertebro-bazilyar basseyndagi (VBB) qon oqimining pasayish holatini aniqlash uchun;

bosh miya MRT – serebral to‘qimalardagi morfologik o‘zgarishlar, shikastlanish yoki patologik jarayonlarni baholash uchun;

viziometriya, perimetriya, oftalmoskopiya, shuningdek audiometriya, kalorik sinama va boshqa maxsus tekshiruvlar – tibbiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lgan hollarda.

41. Konstitutsional-irsiy genezli vegetativ-tomir disfunksiyasi mavjud bo‘lgan nomzodlar, shuningdek gormonal o‘zgarishlar fonida yoki somatik kasallikdan keyin kuzatiluvchi vegetativ-tomir buzilishlarida, tekshiruv vaqtida remissiya bosqichi turg‘un bo‘lgan hollarda (asosiy kasallikdan to‘liq sog‘aygandan keyin kamida 2-3 oy o‘tgach) tibbiy xulosa quyidagi talablar asosida chiqariladi:

vegetativ-tomir buzilishlarining og‘irlik darajasi;

klinik tekshiruv natijalari;

ortosinama, vestibulyar sinama va boshqa yuklama sinovlariga chidamlilik darajasi;

psixofiziologik va nevrologik funksiyalarning barqarorligi;

kasbiy faoliyatni bajarishga ta’sir etuvchi xavf omillarining mavjudligi yoki yo‘qligi.

Vegetativ-tomir tizimi buzilishlarining klinik tavsifida funksional kardiovaskulyar simptomlar bo‘lgan hollarda yakuniy tibbiy xulosa klinik tekshiruvlar natijalari asosida terapevt tomonidan chiqariladi.

42. Umurtqalararo disk churrasini jarrohlik yo‘li bilan olib tashlagan nomzodlarda asoratlar mavjud bo‘lmaganda, nevrologik dinamikasi ijobiy bo‘lganda hamda reabilitatsiya davri to‘liq yakunlanganidan so‘ng kamida 3–6 oydan keyin tibbiy ko‘rik o‘tkaziladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Tibbiy ko‘rik jarayonida quyidagilar baholanadi:

nevrologik holatning barqarorligi;

mushak-tonik sindromlar, radikulyar simptomlar va sezgi buzilishlarining mavjudligi yoki yo‘qligi;

yuklama sinovlariga chidamlilik;

og‘riq sindromining qaytalanish ehtimoli;

kasbiy majburiyatlarni xavfsiz bajarishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan cheklovlar mavjudligi.

43. Asab ildizchalari funksional buzilishlari, radikulyar simptomlar, sezgi yoki harakatlanish buzilishlari aniqlanmaganda, biroq umurtqa pog‘onasi harakatchanligining cheklanishi yoki funksional buzilishlari mavjud bo‘lgan hollarda jarroh (vertebrolog yoki neyrojarroh maslahati asosida) tomonidan tibbiy xulosa chiqariladi.

44. Orqa miya ildizlari, nerv ustunlari, nerv chigallari va gangliylarning periferik neyrovaskulyar sindromlar yoki ildizli kompressiyalar bilan kechuvchi surunkali kasalliklari, shuningdek ushbu sohalardagi jarohatlanishlar va o‘tkazilgan jarrohlik amaliyotidan keyingi davrda kasbiy majburiyatlarni bajarishga monelik qilmaydigan darajadagi ahamiyatsiz funksional buzilishlar mavjud bo‘lganda, kursantlar o‘qishga yaroqsiz, biroq uchuvchi tarkibi uchish ishiga yaroqli deb hisoblanadi.

45. Sinkopal (behushlik) holatni o‘tkazgan uchuvchi tarkibi (kursantlar) uchish ishidan (o‘qishdan) chetlatilishi lozim.

Mazkur shaxslar terapevt va nevrolog tomonidan birlamchi tibbiy ko‘rik o‘tkazilgandan so‘ng ular tibbiy muassasaning nevrologiya bo‘limiga yuborilishi hamda tekshiruvdan o‘tkazilishi kerak.

Sinkopal holat yuzasidan dalolatnoma ushbu holat sodir bo‘lgan vaqtda shaxs yonida bo‘lgan birinchi tibbiy xodim (shifokor) rasmiylashtiradi va uni TUKka taqdim etadi.

Dalolatnomada quyidagilar ko‘rsatiladi:

behushlik holatining klinik ko‘rinishi va belgilari;

holat sodir bo‘lgan vaziyat, sharoit va ehtimoliy sabablar;

sinkopal epizodning davomiyligi va dinamikasi.

Dalolatnoma guvohlarning, mazkur holatni o‘tkazgan shaxsning va shifokorning imzolari qo‘yiladi.

Dalolatnomani rasmiylashtirish, sinkopal holatlarning klinik shakllarini klassifikatsiyalash, differensial diagnostika o‘tkazish, shuningdek zarur tibbiy tekshiruvlar hajmini belgilash va aviatsiya xodimining yaroqliligini baholash amalga oshiriladi.

Asab tizimi yoki ichki organlarning organik kasalliklarini davolab, ong paroksizmal buzilishlarini differensial diagnostikasini o‘tkazish, behushlik sababi va xususiyatini aniqlash, organizmning funksional rezervlarini baholash va ong buzilishining takrorlanish ehtimolini aniqlab tibbiy xulosa chiqariladi.

Sinkopal holatni yuzaga keltiruvchi sabablar aniqlanganda, aviatsiya xodimining yaroqliligi asosiy kasallikning holati, uning qaytalanish ehtimoliga hamda parvozlar xavfsizligiga ta’sir darajasiga ko‘ra tibbiy xulosa chiqariladi.

Sog‘lom nomzodda hayajon, og‘riq yoki kuchli gipoksiyaga yuqori sezuvchanlik natijasida kuzatilgan bir martalik vaziyatga bog‘liq sinkopal holatda:

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

patologik mexanizmlar, yashirin yurak-qon tomir yoki nevrologik kasalliklar to‘liq bartaraf etilganda;

holat klinik jihatdan bezarar deb baholansa;

nomzodga uchish ishiga yaroqli deb tibbiy xulosa beriladi.

Sog‘lom shaxsda takroriy, biroq xavfsiz deb baholangan vaziyat sinkopal holat ikki marotaba takrorlanganda:

nomzod 3 oydan 12 oygacha muddatga uchish ishidan chetlatiladi hamda mazkur davrda u nevrologning dispanser kuzatuvida bo‘ladi;

tiklanishdan so‘ng nomzodga faqat cheklovlar qo‘llanib kasbiy faoliyatiga ruxsat beriladi (ko‘p a’zoli ekipaj tarkibida ishlash, parvoz xavfsizligiga bevosita ta’sir ko‘rsatmaydigan vazifalarni bajarish).

Sinkopal holatlarning ko‘p marta takrorlanishi aviatsiya faoliyatida jiddiy xavf tug‘dirishi sababli, bunday shaxslarga uchish ishiga yaroqsizligi haqida nevrolog tomonidan tibbiy xulosa chiqariladi.

2 yil davomida sinkopal epizod takrorlanmaganda va vegetativ-tomir, arterial bosimning barqarorligi, gipotoniya belgilarining yo‘qligi, yuklama sinovlariga (ortosinama, boshqa funksional testlar) chidamliligida nomzodga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa berilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Etiologiyasi aniqlanmagan behushlik holati aniqlanganda, uchuvchi tarkibi (kursantlar)ga nisbatan nevrolog tomonidan uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

3-bob. Ichki kasalliklar

46. Yuqumli va parazitar kasalliklar, jumladan dizenteriya, tif, paratif, malyariya, brusellyoz, gemorragik bezgak, virusli gepatit, gelmintozlar va boshqa shu turdagi kasalliklarning o‘tkir davrida, parvozlar xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hollarda yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Aviatsiya xodimi yuqumli yoki parazitar kasallikdan to‘liq sog‘ayganidan so‘ng quyidagi shartlar mavjud bo‘lgan taqdirda “yaroqli” degan tibbiy xulosa beriladi:

infeksionist shifokorning ijobiy prognozi;

laborator, instrumental va klinik tekshiruvlarning ijobiy natijalari;

kasallikning qaytalanishi, surunkalashuvi yoki rezidual asoratlari yuzaga kelish xavfining pastligi.

47. Virusli gepatit (A, B, C va boshqa turlari) yoki gemorragik bezgakni o‘tkazgan uchuvchilarni baholashda kasallikning og‘irlik darajasi, jigar funksional holati, laborator-biokimyoviy ko‘rsatkichlar hamda rezidual asoratlarning mavjudligi inobatga olinadi.

Baholash natijalariga ko‘ra ushbu toifaga mansub nomzodlarga uchuvchilar uchun 3 oydan 6 oygacha muddatga, aviatsiya-kimyoviy ishlarda qatnashuvchi uchuvchilar uchun esa 12 oygacha muddatga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Virusli gepatit yoki gemorragik bezgakni o‘tkazgan kursantlarga kasallik varaqasi yopilganidan so‘ng infeksionist shifokorning xulosasi, klinik va laborator ko‘rsatkichlar normallashganda, o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa beriladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

48. Klinik prognozi noqulay bo‘lgan qon va qon yaratuvchi a’zolar kasalliklari (turli xil anemiyalar, eritrotsitoz, leykemiya, limfoma, trombotsitopatiyalar va boshqa shunga o‘xshash kasalliklar) aniqlanganda, nomzod uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsiz deb topiladi.

Mazkur kasalliklarda gemoglobin miqdori 105 g/l dan past bo‘lganda, nomzod tibbiy muassasada chuqurlashtirilgan diagnostik tekshiruvdan o‘tkaziladi.

Davolash yakunlari ijobiy bo‘lganda, kasallikning aniqlangan sababi inobatga olinib hamda quyidagi shartlar mavjud bo‘lganda, yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi:

gematologning xulosasi va ijobiy prognoz mavjud bo‘lganda;

laborator va klinik ko‘rsatkichlar normaga qaytganda;

kasallik turi (temir tanqisligi anemiyasi, postgemorragik anemiya va boshqa shu turdagi holatlar), shuningdek remissiya davrining barqarorligi tasdiqlanganda;

kasallik uchish jarayonida gipoksiyaga chidamlilikka salbiy ta’sir ko‘rsatmaganda.

Ushbu kasalliklarda uchish ishiga yoki o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarishda qonning tinch holatda, yerda va balandlikda, shuningdek jismoniy va ruhiy zo‘riqish davrlarida organizmning metabolik ehtiyojlarini qondirish uchun kislorodni yetarli darajada tashish xususiyati inobatga olinadi.

Sog‘lom uchuvchilarda qondagi gemoglobin konsentratsiyasining normasi erkaklarda 130 g/l, ayollarda esa 120 g/l ni tashkil etadi. Mazkur ko‘rsatkichlar pasaygan taqdirda shaxs qo‘shimcha tekshiruvdan o‘tkaziladi va zaruratga ko‘ra davolanish uchun uchishdan chetlatiladi.

49. Aviatsiya xodimlarini baholashda organizmning kislorod tashish qobiliyati (gemoglobin miqdori, eritrotsit massasi, gemodinamik barqarorlik) parvozlar xavfsizligini ta’minlashdagi asosiy mezon sifatida baholanadi.

50. Gemoglobinopatiyalar (talassemiya tashuvchiligi va uning yengil shakllari) xurujlarsiz kechganda hamda funksional imkoniyatlar yetarli darajada saqlangan taqdirda, uchuvchi tarkibi va kursantlarga nisbatan yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishiga yo‘l qo‘yiladi.

51. Vaqtinchalik xususiyatga ega trombotsitopeniyalar (temir tanqisligi sababli kamqonlik yoki dori vositalarini qabul qilish oqibatida suyak iligi faoliyatining pasayishida) bilan bog‘liq hollarda trombotsitlar miqdori va boshqa ko‘rsatkichlar normal darajaga yetgandan so‘ng yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Trombotsitlar miqdori 75 × 10^9/l dan kam bo‘lgan trombotsitopeniyada nomzod uchish ishiga yoki o‘qishga yaroqsiz deb topiladi.

Splenektomiya o‘tkazilgan idiopatik trombotsitopenik purpura holatlarida agar 6 oy davomida trombotsitlar miqdori normada saqlansa, yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Yaroqli deb topilgan nomzodlarda trombotsitlar miqdori har 6 oyda nazorat qilinadi.

52. Uchish ishida antikoagulyantlar (kumarinlar, varfarin) yoki kuchli antitrombotsitar dori vositalarini (masalan, klopidogrel va shunga o‘xshash) qabul qilinishi diskvalifikatsiya omili hisoblanadi (kichik dozadagi aspirin bundan mustasno).

53. Kompensatsiyalangan, a’zolar faoliyati saqlangan gemoglobinopatiyalar va gemorragik diatezda, residivlar mavjud bo‘lmaganda, uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishiga yo‘l qo‘yiladi.

54. O‘roqsimon hujayrali anemiya aniqlanganda, nomzod uchish ishiga hamda o‘qishga yaroqsiz deb topiladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

O‘roqsimon hujayra tashuvchiligi mavjud bo‘lgan nomzodlarda klinik xavf aniqlanmasa, yaroqli deb topilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Chin (haqiqiy) politsitemiya mavjud bo‘lgan nomzodlar trombotik xavf yuqori bo‘lganligi sababli yaroqsiz deb topiladi.

Ikkilamchi politsitemiya holatlarida eritrotsitlar miqdorining oshish sababi (nafas olish tizimi kasalliklari, balandlik sharoitida gipoksiya ta’siri va boshqa omillar) aniqlangandan keyin tibbiy xulosa chiqariladi. Mazkur hollarda OML/TML cheklovlari qo‘llaniladi.

55. Allergik kasallik tashxisi quyidagilar asosida qo‘yiladi:

allergologik anamnez;

fizikal ko‘rik natijalari;

klinik-laborator tekshiruvlar;

teri allergik sinamalari, laborator allergoskrining;

allergolog mutaxassisi xulosasi.

Tashxisni aniqlash jarayonida allergiyaga o‘xshash simptomlar bilan namoyon bo‘luvchi (infeksiya, autoimmun, dermatologik, respirator va boshqa etiologiyalar) kasalliklar differensial diagnostika yo‘li bilan davolanadi.

56. Quyidagi hollarda nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi:

allergiyaning og‘ir klinik ko‘rinishlarida (anafilaksiya, angionevrotik shish, og‘ir bronxial spazm);

yil davomida 2 martadan ko‘p qaytalanuvchi rezidivlarda;

kasallikni chaqiruvchi allergen noma’lum bo‘lganda;

allergik reaksiya kasbiy vazifalarni bajarishda xavfsizlikka bevosita tahdid tug‘dirganda.

57. Turg‘un terapevtik ta’sirga ega bo‘lgan hollarda quyidagi shartlar ta’minlanganda nomzod uchish ishiga (o‘qishga) yaroqli deb topiladi:

allergen aniq belgilangan bo‘lganda;

allergen bilan kontakt to‘liq bartaraf etilgan bo‘lganda;

3 oy davomida allergiya belgilari takrorlanmaganda;

ish joyida (aviatsiya obyektlarida) allergen bilan muloqot ehtimoli bo‘lmaganda.

58. Semizlik darajasi Ketle indeksiga muvofiq aniqlanadi.

Tana vazni indeksi tana vazni (kg)/ bo‘y o‘lchami (m^2) formulasi bo‘yicha hisoblanadi:

Tana vazni indeksining baholash

Tana vazni darajalari	**TVI**	**Yondosh kasalliklar xavfi**
Tana vazni defitsiti	<18,5	Past (boshqa kasalliklar xavfi yuqori)
Normal tana vazni	18,5-24,9	Odatdagi (minimal)
Ortiqcha tana vazni	25,0-29,9	O‘rtacha yuqori
Semizlikning I darajasi	30,0-34,9	Yuqori
Semizlikning II darajasi	35,0-39,9	Juda yuqori
Semizlikning III darajasi	≥40	Haddan ziyod yuqori

59. Ortiqcha tana vazni bo‘lgan shaxslarga semizlikning xususiyatidan va kelib chiqish sabablarini aniqlash maqsadida klinik tekshiruvlar o‘tkaziladi.

Semizlikning simptomatik (ikkilamchi) endokrin yoki serebral genezli semizlikda tibbiy xulosa asosiy kasallikning xususiyati va prognozi asosida chiqariladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Mushak va yog‘ to‘qimalarining nisbati va organizmdagi yog‘ hajmi foizi aniqlanib tana vazni hisoblanadi.

Fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlarida uchuvchilikka o‘qishga nomzodlar uchun TVI 30,0 dan yuqori bo‘lganda, nomzodga o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

60. TVI 35,0 dan yuqori bo‘lgan nomzodlarda quyidagilar inobatga olinadi:

endokrinolog, zaruriyatga ko‘ra boshqa tegishli mutaxassislar xulosalari;

kardiovaskulyar xavf omillari: arterial gipertenziya, qandli diabet, glyukozaga tolerantlikning buzilishi, dislipidemiya, yoshi, zararli odatlar (chekish va boshqalar);

metabolik sindrom rivojlanish xavfi;

psixologik tekshiruvlar;

yurak-qon tomir tizimining funksional rezervlari;

yuklama testlari va boshqa ko‘rsatkichlar.

Mazkur ko‘rsatkichlar bo‘yicha holat individual baholanadi va nomzodning uchish ishiga (o‘qishga) yaroqli yoki yaroqsizligi to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

61. Qandli diabetning I turi, shuningdek insulin yoki boshqa gipoglikemik dori vositalari bilan doimiy davolanishni talab qiluvchi qandli diabetning boshqa turlarida hamda tireotoksikozning barcha shaklida uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

62. Qandli diabetning II turida quyidagi shartlar to‘liq bajarilganda, nomzodga uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi:

uglevod almashuvining to‘liq kompensatsiyasi mavjud bo‘lganda;

EKGning yuklama sinamalariga yukli sinamalariga chidamlilik ko‘rsatilganda;

MSKT yoki boshqa invaziv bo‘lmagan tekshiruv usullarining ijobiy natijalari bo‘lganda;

diabetolog (endokrinolog) xulosasi ijobiy bo‘lganda.

Tibbiy tekshiruvda quyidagi xavf omillarining mavjudligi va darajasi inobatga olinishi lozim:

nomzodning yoshi 60 yoshdan yuqori bo‘lganligi;

buyrak faoliyatining buzilishi;

noto‘g‘ri ovqatlanish holatlari;

ko‘p komponentli dori terapiyasi (polifarmatsiya) hamda diabet oqibatlari rivojlanishiga ta’sir qiluvchi boshqa omillar.

Mazkur ko‘rsatkichlar kompleks baholanganidan so‘ng nomzodning kasbiy majburiyatlarini xavfsiz bajarish qobiliyati aniqlansa, uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

63. Qandli diabetning II turida quyidagi shartlar bajarilganda, nomzodga yuk tashish bilan bog‘liq uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishiga yo‘l qo‘yiladi:

davolash faqat monoterapiya shaklida amalga oshirilayotgan bo‘lsa (alfa-glyukozidaza ingibitori, tiazolidindion, metformin qabul qilinayotgan bo‘lsa);

nomzod parhezga qat’iy rioya qilayotgan bo‘lsa;

uglevod almashuvining kompensatsiyasi barqaror holatda bo‘lsa;

gipoglikemiya xurujlari yoki glyukozaning keskin o‘zgarishlari kuzatilmasa;

tibbiy ko‘rsatkichlar, yuklama sinamalari, shuningdek diabetolog (endokrinolog) xulosasi ijobiy baholangan bo‘lsa.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Bunda uchuvchi tarkibiga EKG nazorati, terapevt va diabetolog (endokrinolog) ko‘riklari har 6 oyda bir marta belgilanishi, navbatdagi rejalashtirilgan tibbiy ko‘rik jarayonida esa EKG sinamalari yoki invaziv bo‘lmagan uslublar bilan koronar arteriyalar tekshiruvi o‘tkazilishi lozim.

64. Aviatsiya amaliyotida sulfonilmochevina hosilalari, biguanidlar (metformin bundan mustasno), turli gipoglikemik preparatlarning birgalikda qabul qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tireotoksikoz holatlarida uchuvchi tarkibiga (kursantga) uchish ishiga (o‘qishga) qayta tiklanish muddatini belgilashda kasallikning sababi, shakli, klinik ko‘rinishlari, og‘irlik darajasi, amalga oshirilgan davolash turi, kasallikning organ va tizimlarga ta’siri hamda bioximik ko‘rsatkichlar natijalari inobatga olinadi.

Diffuz-toksik bo‘qoqda konservativ terapiyaning 2 yilgacha davom etishi mumkinligi inobatga olgan holda dorilar qabul qilinishi to‘xtatilganidan so‘ng kamida 3 oy davomida turg‘un eutireoid holati qayd etilganda, endokrinologning ijobiy xulosasi asosida uchuvchi tarkibining (kursantning) uchish ishiga (o‘qishga) qayta tiklanish masalasi ko‘rib chiqilishi mumkin.

65. Yengil va o‘rta darajadagi toksik buqoqning jarrohlik usulida yoki radioaktiv yod bilan davolangan holatlarda davolash tugaganidan so‘ng kamida 6 oy o‘tganidan keyin bioximik ko‘rsatkichlar turg‘un holatda va endokrinologning ijobiy xulosasi mavjud bo‘lsa, uchuvchi tarkibining (kursantning) uchish ishiga (o‘qishga) qayta tiklanish masalasi ko‘rib chiqiladi.

Og‘ir darajadagi toksik bo‘qoqda esa qalqonsimon bez faoliyatining turg‘un normada bo‘lishi, boshqa organ va tizimlar faoliyatida ushbu kasallik bilan bog‘liq asoratlarning mavjud bo‘lmasligi hamda endokrinologning ijobiy prognozi inobatga olinishi lozim.

Bunda uchuvchi tarkibi (kursant) kamida 12 oy o‘tganidan keyin uchish ishiga (o‘qishga) qayta tiklanishiga yo‘l qo‘yiladi.

Tireotoksik adenoma bo‘yicha jarrohlik davolash o‘tkazilgan nomzodlarda jarrohlik amaliyoti natijalari barqaror bo‘lganda qalqonsimon bez faoliyatining klinik va laborator ko‘rsatkichlari turg‘un eutireoid holatda ekanligi tasdiqlangandan so‘ng kamida 6 oy o‘tgach uchish ishiga (o‘qishga) qayta tiklanish masalasi ko‘rib chiqilishi mumkin.

66. Gipotireoz va autoimmun tireoiditni o‘tkazgan nomzodlarda quyidagi hollarda uchish ishiga (o‘qishga) qayta tiklanishga yo‘l qo‘yiladi:

qalqonsimon bez faoliyati laborator va klinik ko‘rsatkichlar bo‘yicha turg‘un norma darajasiga keltirilgan bo‘lsa;

kasallikning sababi, shakli va kechish xususiyatlari aniqlangan bo‘lsa;

chuqurlashtirilgan tekshiruv natijalari (gormonlar profili, ultratovush tekshiruvi, yurak-qon tomir tizimi bahosi) ijobiy bo‘lsa;

endokrinologning ijobiy prognozi va xulosasi mavjud bo‘lsa.

Mazkur talablar bajarilganda, individual tartibda baholagan holda kamida 3 oy o‘tgach uchish ishiga qayta tiklanish masalasi ko‘rib chiqilishi mumkin.

Uchuvchi tarkibiga (kursantga) yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqarilganda, endokrinologning doimiy dispanser kuzatuvi belgilanishi, doimiy ravishda qabul qilinadigan levotiroksin yoki boshqa antitireoid (gormon o‘rnini bosuvchi) preparatlarni qabul qilishi nazoratga olinishi lozim.

Tireoidit kasalligini zo‘rayishi holatlaridan so‘ng uchish ishiga (o‘qishga) ruxsat berish davolash to‘liq yakunlangandan va euthyroid holat tiklanganidan keyin endokrinolog xulosasi asosida amalga oshiriladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Eutireoid holati saqlangan endemik bo‘qoqda, shuningdek yod preparatlari yoki tireoid gormonlari bilan o‘tkazilayotgan profilaktik terapiya davomida qalqonsimon bezning I va II darajali diffuz eutireoid kattalashishi mavjud bo‘lgan shaxslarda hamda uglevodlar tolerantligining buzilishi kuzatilganda, uchuvchi tarkibi (kursant) uchish ishiga (o‘qishga) yaroqli deb topiladi.

67. Tireotoksikoz yoki gipotireozning subklinik shaklida, T3 va T4 ko‘rsatkichlari normada bo‘lganda, TTG darajasi mos ravishda pasaygan yoki ko‘paygan hollarda uchuvchi tarkibiga (kursantga) endokrinologning dispanser kuzatuvi belgilanishi hamda TTG va tireoid gormonlarining laborator nazorat tekshiruvlari kamida har 3 oyda bir marta o‘tkazilishi zarur.

Endokrin tizimi kasalliklari mavjud bo‘lgan uchuvchi tarkibiga (kursantga) uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqarilganda, tibbiy xavfsizlik talablaridan kelib chiqib, ularga terapevtning tavsiyasi asosida har 6 oyda endokrinologning dispanser kuzatuvi belgilanishi lozim.

68. Sil kasalligining faol (aktiv) shakli aniqlanganda, uchuvchi tarkibi (kursant) uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

O‘pka sili bilan kasallanib, davolash kursini to‘liq yakunlagan nomzodlar davolanish tugaganidan kamida 3 oy o‘tgach qayta ko‘rikdan o‘tkaziladi.

Qayta ko‘rikda klinik simptomlarning mavjud emasligi, o‘pkaning shikastlangan segmentida aktiv yallig‘lanish jarayonining yo‘qligi, nafas olish tizimi funksiyalarining saqlanganligi hamda rentgenologik tekshiruv natijalarining ijobiyligi tasdiqlanganda, uchish ishiga (o‘qishga) qayta tiklanish masalasi individual ko‘rib chiqiladi.

Yaroqlilik to‘g‘risidagi tibbiy xulosa chiqarilgandan so‘ng nomzod 2 yil davomida terapevt dispanseri nazoratida bo‘lishi, ftiziatr maslahati o‘tkazilishi hamda o‘pka qafasining rentgen yoki boshqa invaziv bo‘lmagan uslublarda nazorat tekshiruvlari amalga oshirilishi lozim.

69. Sil kasalligining aktiv bo‘lmagan shakli, to‘liq davolangan sil kasalligi yoki kasallikni o‘tkazgandan keyingi qoldiq o‘zgarishlari (cheklangan fibroz, kalsifikatsiya o‘choqlari, bo‘laklararo yoki plevral bitishmalar) mavjud bo‘lgan nomzodlarda ko‘ks oralig‘i organlarining siljimaganligi, tashqi nafas olish tizimi funksiyalarining buzilmaganligi va patologik jarayonning barqaror remissiyada ekanligi tasdiqlanganda, uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

70. Sil kasalligini o‘tkazgan nomzodlar dispanser kuzatuv guruhi ko‘rsatilgan hamda to‘liq tuzalgani to‘g‘risidagi ftiziatrning xulosasini TUKga taqdim etadilar.

Tashqi nafas olish tizimi funksiyasini baholash maqsadida kardio-respirator tizimi funksional zaxiralari, shuningdek restriktiv yoki obstruktiv turdagi buzilishlarning mavjudligini aniqlovchi klinik-instrumental tekshiruvlar o‘tkaziladi.

Nafas olish va yurak-qon tomir tizimlari faoliyati kasbiy vazifalarni xavfsiz bajarish uchun yetarli darajada saqlangan bo‘lsa, shuningdek sil kasalligini davolash jarayonida qo‘llanilgan kimyoprofilaktik dori vositalarining salbiy oqibatlari aniqlanmasa, nomzodga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Sil kasalligini o‘pkadan tashqari shakllarini o‘tkazgan nomzodlarga, ftiziatrning yakuniy xulosasi va ijobiy klinik-prognoz ko‘rsatkichlari, shuningdek zararlangan a’zolar va tizimlar funksional holatining to‘liq saqlanganligi asosida uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Mazkur shaxslarga 2 yil davomida terapevt tomonidan dispanser kuzatuvi belgilanadi. Ftiziatrning maslahati, shuningdek klinik ko‘rsatmalarga muvofiq qo‘shimcha instrumental va laborator tekshiruvlar o‘tkaziladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

71. Mehnat qobiliyatini yo‘qotish xavfini keltirib chiqaruvchi quyidagi nafas olish tizimi kasalliklari mavjud bo‘lgan hollarda nomzodga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi:

o‘pkaning surunkali obstruktiv kasalliklari (bundan buyon matnda O‘SOK deb yuritiladi);

bronxial astma;

bronxoektatik kasallik;

sarkoidoz;

diffuz pnevmoskleroz va o‘pka emfizemasi;

turli etiologiyali zotiljamning og‘ir yoki qaytalanuvchi shakllari;

surunkali bronxitning tez-tez zo‘rayuvchi shakllari.

72. Quyidagi holatlarda nomzodga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik haqida yoki yaroqlilikka cheklovlar qo‘llangan holda tibbiy xulosa chiqariladi:

nafas olish tizimi funksiyasi to‘liq yoki yetarli darajada saqlangan bo‘lsa;

kardio-respirator funksional zaxiralari normada bo‘lsa;

restriktiv yoki obstruktiv buzilishlar mavjud bo‘lmasa (klinik jihatdan ahamiyatsiz bo‘lsa);

laborator-instrumental tekshiruvlar (spirometriya, arterial gazlar, ko‘krak qafasi rentgenogrammasi) natijalari ijobiy bo‘lsa;

klinik simptomlar mavjud bo‘lmasa yoki yengil darajada bo‘lsa;

chekish faktori mavjud bo‘lmasa;

O‘SOKning boshlang‘ich (yengil) davri, surunkali bronxitning remissiya davri, chegaralangan pnevmoskleroz aniqlanganda;

ko‘krak qafasida o‘tkazilgan jarrohlik aralashuvidan keyin nafas olish va kardio-respirator tizimlari funksiyasi to‘liq tiklangan bo‘lsa.

73. Quyidagi holatlarda nomzodga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik masalasi individual tartibda ko‘rib chiqiladi:

ko‘krak qafasidagi jarrohlik amaliyotidan so‘ng – 4–6 oy o‘tgach (operatsiya sohasining to‘liq bitishi, plevral bo‘shliqda patologik o‘zgarishlar mavjud emasligi, tashqi nafas tizimi funksiyasi norma holatiga qaytgani aniqlanganda);

spontan pnevmotoraksdan so‘ng – 3 oy o‘tgach (plevra bitishlari, restriktiv buzilishlar, rezidual bo‘shliq yoki qaytalash xavfini ko‘rsatadigan belgilar bo‘lmaganda).

74. Surunkali bronxitning zo‘rayish davrida aviatsiya xodimlari kasbiy vazifalarini bajarishdan chetlatiladi.

Aktiv yallig‘lanish jarayoni to‘liq bartaraf etilgach, aviatsiya xodimlari to‘liq sog‘aygach va tashqi nafas olish a’zolari funksional ko‘rsatkichlari norma darajasiga qaytgani chuqurlashtirilgan tekshiruvlar bilan tasdiqlangandan so‘ng ularga uchish ishiga ruxsat beriladi.

Yiringli yoki obstruktiv bronxitning mavjudligida, shuningdek takroriy pnevmotoraks holatlarida aviatsiya xodimlariga 1-klass bo‘yicha tibbiy yaroqlilik xulosasi berilmaydi va ular uchish ishiga qayta tiklanmaydi.

75. Quyidagi yurak ritmi va o‘tkazuvchanligi buzilishlari, shuningdek yurak mushagi va klapan apparatining organik shikastlanishlari mavjud bo‘lgan nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi:

sinus tugunining kuchsizlik (zaiflik) sindromida;

yurak qisqarishlarining takroriy tushib qolishi bilan kechuvchi o‘tkazuvchanlik buzilishlarida (2 va undan ortiq ketma-ket qisqarishlarning yo‘qolishi);

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

takroriy mersal aritmiyalarda (fibrillyatsiya yoki flutter epizodlari);

bo‘lmachalar hilpillashida (fibrillyatsiyasi);

supraventrikulyar taxikardiyada (yurak urish tezligi ≥120 zarba/min, to‘rt va undan ortiq komplekslar bilan qayd etilgan takroriy epizodlar);

qorinchalar ekstrasistoliyasida;

bigeminiya, trigeminiya holatlari takrorlanishida;

juftlashgan ekstrasistolalarning qayta-qayta uchrashida;

qorinchalar taxikardiyasida (yurak urish tezligi ≥120 zarba/min, uch va undan ortiq qorinchalik komplekslardan iborat epizodlar);

spontant supraventrikulyar taxikardiya kuzatilgan Volf–Parkinson–Uayt (WPW) sindromida;

miokard infarktda;

stenokardiyada (har qanday funksional sinf);

yurak kasalliklarining o‘tkir davri va uning oqibatlari bilan kechuvchi hamda ritm va o‘tkazuvchanlik buzilishlari, yurak yetishmovchiligi, og‘riq sindromi mavjudligida;

mo‘tadil va og‘ir darajadagi kombinatsiyalangan yurak nuqsonlarida;

mitral klapanning 6 mm dan ortiq prolapsida;

dilatatsion kardiomiopatiyada;

gipertrofik kardiomiopatiyada;

restriktiv kardiomiopatiyada.

76. Yurak kasalliklarining klinik belgilari aniqlanganda, kasallikning anamnezi batafsil o‘rganilishi, klinik va kardiologik tekshiruvlar o‘tkazilishi lozim.

Olingan natijalar, kasallikning kechishi va prognozi, mavjud yondosh kasalliklar, nomzodning yoshi, individual xavf omillari inobatga olingan holda uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

77. Revmatizmning aktiv fazasini o‘tkazgan nomzodlarda aktiv revmatik jarayon to‘liq bartaraf etilganda va yurakda organik nuqsonlar aniqlanmaganda, kasallikdan so‘ng kamida 1 yil o‘tgach, chuqurlashtirilgan klinik va kardiologik tekshiruv natijalari ijobiy bo‘lsa, uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

78. Miokarditni o‘tkazgan nomzodlarda to‘liq sog‘ayish kuzatilganda yoki miokarditik kardioskleroz shakllangandan so‘ng kamida 3–6 oy o‘tgach, infeksiya o‘chog‘i to‘liq bartaraf etilganda, yurak ritmi va o‘tkazuvchanligining faqat klinik ahamiyatga ega bo‘lmagan yengil o‘zgarishlari mavjud bo‘lganda hamda laboratoriya tahlillari va EKGda yallig‘lanish belgilarining mavjud emasligi tasdiqlanganda, uchish ishiga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

79. Miokardiodistrofiya aniqlanganda, yurakning nasoslik funksiyasi saqlanganda, klinik simptomlar yengil darajada bo‘lganda, kasallikni og‘irlashtiruvchi xavf omillari mavjud bo‘lmaganda uchish ishiga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqarilishi, bunda 3 yil davomida terapevtning dispanser kuzatuvi belgilanishi lozim.

Ushbu davr mobaynida EKG ko‘rsatkichlari normada bo‘lishi va yuklama (stress-test) sinamalari natijalari ijobiy bo‘lishi sharti bilan 3 yil yakunida tashxis bekor qilinadi.

80. Mitral klapanning 3 mm dan 6 mm gacha bo‘lgan prolapsida, klinik jihatdan ahamiyatga ega bo‘lmaganda, izolyatsiyalangan va turg‘un kompensatsiyalangan yurak nuqsonlarida, shuningdek oqim yo‘llarida obstruksiya belgilarisiz kechuvchi qorinchalararo to‘siqning assimetrik gipertrofiyasida hamda yurak faoliyati gipertrofik kardiomiopatiyaning apikal shaklida bo‘lganda nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

81. Yurak yallig‘lanishi bilan bog‘liq kasalliklarni o‘tkazgan uchuvchi tarkibi to‘liq davolanganidan so‘ng 3 oydan keyin takroriy tibbiy ko‘rikdan o‘tishlariga yo‘l qo‘yiladi.

Takroriy ko‘rikda yurakning funksional holati, ritm va o‘tkazuvchanlik ko‘rsatkichlari, laborator va instrumental tekshiruvlar natijalari baholanadi.

Ritmning klinik jihatdan ahamiyatli supraventrikulyar buzilishlari mavjud bo‘lgan hollarda elektrofiziologik tekshiruv o‘tkaziladi hamda uning davomida sun’iy chaqirilgan supraventrikulyar aritmiyalar turg‘un yoki xavfli bo‘lsa uning natijalari salbiy deb hisoblanadi.

Ritm buzilishlarini baholash maqsadida sutkalik EKG-monitoringi (Holter kuzatuvi) o‘tkaziladi.

Holter tekshiruvining natijalari asosida ritmning takrorlanuvchanligi, davomiyligi, klinik ahamiyati hamda yuklamaga nisbatan o‘zgaruvchanligi baholanadi.

Yurak ritmi buzilishlari muvaffaqiyatli davolanganda, shuningdek klinik simptomlar bartaraf etilganda, nomzodlar takroriy chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkaziladi.

82. Ritm va o‘tkazuvchanlik buzilishlari fonida EKGda qorincha kompleksining yakuniy qismi ST segmenti va T tishchasidagi beqaror o‘zgarishlarning beta-blokatorlar terapiyasi ostida to‘liq normaga kelishi, shuningdek aviatsiya xodimida shikoyatlarning yo‘qligida, funksional ko‘rsatkichlar saqlangan bo‘lsa, uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

B. Lown va M. Wolf tasnifi bo‘yicha M. Ryan modifikatsiyasiga muvofiq simptomlarsiz kechuvchi qorinchalar ekstrasistoliyasining 1-gradatsiyasida (EKG ma’lumotlariga ko‘ra bir daqiqada 5 ta ekstrasistoliyadan kam, hamda sutkalik EKG monitoringida bir soatda 30 ta ekstrasistoliyadan kam bo‘lganda) qo‘shimcha kardiologik tekshiruvlar talab etilmaydi va aviatsiya xodimlarga yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqarilmaydi.

83. B. Lown va M. Wolf tasnifi bo‘yicha M. Ryan modifikatsiyasiga muvofiq, simptomlarsiz kechuvchi qorinchalar ekstrasistoliyasining 2, 3 va 4a-gradatsiyalarida nomzodlarga kengaytirilgan kardiologik tekshiruvlar (EKGning sutkalik monitoringi, yuklamali EKG sinamalari, exokardiografiya, zaruriyatga ko‘ra MSKT-koronarografiya) o‘tkaziladi va ularning natijalari asosida yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

84. B. Lown va M. Wolf tasnifi bo‘yicha M. Ryan modifikatsiyasiga ko‘ra simptomlarsiz kechuvchi qorinchalar ekstrasistoliyasining 4b va 5-gradatsiyalarida, shuningdek qorinchalar taxikardiyasi mavjud bo‘lgan hollarda, kengaytirilgan kardiologik tekshiruvlar natijasida tashxis tasdiqlanganda, nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

85. Kardiologik tekshiruvlar natijasida simptomlarsiz kechuvchi sinusli bradikardiya, shuningdek davomiyligi 3,0 soniyagacha bo‘lgan simptomlarsiz sinusli pauzalar aniqlanganda, yurakning kuchli ifodalangan tuzilmaviy kasalliklari va klinik belgilari mavjud bo‘lmasa, uchuvchi tarkibiga uchish ishiga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Ushbu hollarda uchish ishiga ruxsat berish OML yoki OCL cheklovlari qo‘llangan holda amalga oshiriladi.

86. Yurak qon-tomir tizimining funksional buzilishlarida, ularning kelib chiqish sabablari va kasbiy faoliyatni bajarish bilan bog‘liq zararli omillarning sog‘liq holatiga ta’siri aniqlanadi.

Tibbiy xulosa chiqarishda neyrosirkulyator distoniyaga xos simptomlar bilan kechayotgan holatlarda yurakning boshqa organik kasalliklari, yallig‘lanish jarayonlari va ekstrakardial patologiyalar mavjudligi bartaraf etilishi lozim.

Sutka davomida yuzaga keluvchi ritm buzilishlari vegetativ disfunksiyaning asosiy markeri ekanligi inobatga olinib, EKGning 24 soatlik monitoringi (Xolter monitoringi) o‘tkaziladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

87. Mitral klapan yetishmovchiligining turg‘un kompensatsiyasi mavjud bo‘lgan hollarda, miokarditik kardioskleroznin kompensatsiyalangan shaklida, shuningdek chegaralangan va kam ifodalangan yurak nuqsonlari mavjudligida, yurak funksional ko‘rsatkichlari barqaror saqlangan bo‘lsa, nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishiga yo‘l qo‘yiladi.

88. Toj tomirlarining va (yoki) umumiy qon aylanishining yetishmovchiligi bilan kechuvchi yurak, aorta, toj arteriyalari hamda perikardning organik kasalliklari mavjud bo‘lgan nomzodlarda, shuningdek davolashga moyil bo‘lmagan va yurak ritmi hamda o‘tkazuvchanligi buzilishlari aniqlanganda, uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

89. Uchuvchi tarkibida Giss tutami chap oyoqchasining blokadasi birinchi marotaba aniqlanganda, quyidagi talablarga muvofiq holda individual tartibda tibbiy baholash o‘tkaziladi va yaroqlilikka cheklovlar qo‘llangan holda tibbiy xulosa berilishiga yo‘l qo‘yiladi:

chap qorincha funksional holati saqlangan bo‘lmasligi (ExoKG natijalarida chap qorinchaning otilib chiqish fraksiyasi 50 foizdan past bo‘lmasligi);

yuklamali EKG sinamalari (Bryus protokoli) bajarilganda IV bosqichga qadar bajarish imkoniyati mavjud bo‘lishi, miokard ishemiyasiga xos belgilar kuzatilmasligi, klinik ahamiyatga ega ritm buzilishlari aniqlanmasligi, yuklama vaqtida simptomlar (ko‘krak og‘rig‘i, hansirash, bosh aylanishi) bo‘lmasligi;

xolter-monitoring natijalarida yurak ritmi buzilishlari mavjud bo‘lmasligi yoki klinik ahamiyatga ega bo‘lmagan minimal ko‘rinishda bo‘lishi.

Zaruriyat tug‘ilganda koronar angiografiya o‘tkazilishi, koronar arteriyalarda stenoz darajasi yirik tomirlarda 50 foizdan ko‘p bo‘lmasligi hamda proksimal segmentlarda esa 30 foizdan oshmasligi lozim.

Bunda uchuvchi tarkibiga yilda 1 marta kardiolog maslahati o‘tkaziladi.

Yuklama bilan o‘tkazilgan EKG testida ST segmentining 2 mm gorizontal pasayishi kuzatilganda, toj arteriyalari kasalligi har doim ham tasdiqlanmasligi mumkin. Shu sababli baholashda asosiy e’tibor yurish davomiyligiga, klinik simptomlarga (mavjud bo‘lsa) hamda aniqlangan o‘zgarishlarning xususiyatiga qaratiladi.

90. Uchuvchilarda mehnat qobiliyatining yo‘qolish xavfini oshiruvchi yurak qon-tomir kasalliklariga doir jarrohlik amaliyotlari (perkutan koronar aralashuv angioplastika, stent o‘rnatish bilan yoki stentsiz, aorta-koronar shuntlash) o‘tkazilganda, shuningdek anamnezida miokard infarkti og‘ir kardiologik kasalliklar qayd etilganda, tibbiy ko‘rik jarrohlik amaliyot o‘tkazilgandan so‘ng kamida 6–12 oy o‘tgach o‘tkaziladi.

Tibbiy xulosa quyidagilar ta’minlanganda individual tartibda belgilanadi:

jarrohlik aralashuvi muvaffaqiyatli bajarilganda;

jarrohlik amaliyotidan keyingi davr asoratlarsiz yoki ahamiyatsiz klinik ifodalanishda kechganda;

ko‘krak sohasida og‘riq (angina), nafas qisishi yoki aritmiyalar kabi klinik simptomlar mavjud bo‘lmaganda;

antianginal dori vositalarini doimiy qabul qilishga ehtiyoj bo‘lmaganda;

yurak qon-tomir kasalliklari xavf omillari (chekish, ortiqcha tana vazni, arterial gipertenziya xuruji, dislipidemiya) baholanganda va ularning kamaytirilgani yoki nazorat ostiga olinganda;

kengaytirilgan kardiologik tekshiruvlar natijalarining ijobiyligida (kardiolog xulosasi berilgan ExoKG, Bryus protokoli bo‘yicha yuklamali EKGning to‘rtinchi bosqichida).

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Mazkur hollarda uchuvchilarga individual tarzda yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa beriladi va zaruriyatga ko‘ra TML/OSL/OPL cheklovlari qo‘llanadi.

Bunda yaroqli deb topilgan uchuvchi tarkibiga har 6 oyda terapevt tomonidan dispanser kuzatuvi, qondagi glyukoza darajasi, tana vazni va arterial bosim ko‘rsatkichlarining nazorati, navbatdagi tibbiy ko‘rikda takroriy kardiologik tekshiruvlar va kardiolog maslahatidan o‘tishlari lozim.

91. Uchuvchi tarkibi o‘tkir bezarar aseptik perikarditni o‘tkazganidan keyin 3–6 oy o‘tgach, klinik simptomlar to‘liq bartaraf etilgan bo‘lsa, ehokardiografiya (bundan buyon matnda ExoKG deb yuritiladi) ko‘rsatkichlari normada bo‘lsa, 24 soatlik EKG-monitoringida klinik ahamiyatli ritm buzilishlari aniqlanmasa hamda yuklamali EKG sinamasi ijobiy natija bersa, uchuvchi tarkibining uchish ishiga yaroqliligi masalasi individual tartibda ko‘rib chiqiladi va tegishli cheklovlar qo‘llanilgan holda tibbiy xulosa berilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Bunda yaroqli deb topilgan uchuvchi tarkibi 2 yil davomida terapevt va kardiolog tomonidan dispanser kuzatuvidan hamda takroriy ExoKG, EKG-monitoring, yuklamali EKG yoki boshqa ixtisoslashgan tekshiruvlardan o‘tkazilishi lozim.

Kasallik takrorlanishi, og‘riq sindromining qayta yuzaga kelishi yoki yurak faoliyatini izdan chiqaruvchi klinik belgilarning paydo bo‘lishida uchuvchi tarkibi uchish ishiga yaroqsiz deb topilishi va uchish ishiga qayta tiklanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

92. Aviatsiya xodimlari miokarditni o‘tkazganidan keyin 3–6 oy o‘tgach, infeksiya o‘chog‘i to‘liq bartaraf etilgan bo‘lsa, kasallikning klinik simptomlari mavjud bo‘lmasa, uchuvchi tarkibiga quyidagi kardiologik tekshiruvlar o‘tkaziladi:

24 soatlik EKG-monitoring qorinchalarning murakkab ritm buzilishlari, o‘tkazuvchanlik buzilishlari yoki bo‘lmachalar fibrillyatsiyasi ehtimolini aniqlash uchun;

yuklamali EKG sinamasi – jismoniy yuklama ostida yurak yetishmovchiligi yoki ishemik o‘zgarishlarni istisno qilish uchun;

ExoKG chap va o‘ng qorinchalarning tuzilmaviy va funksional holatini baholash uchun.

Tekshiruvlarning barcha natijalari normada bo‘lganda va ExoKGda chap hamda o‘ng qorincha funksiyalarining buzilishi aniqlanmaganda, uchish ishiga yaroqlilik masalasi individual tartibda ko‘rib chiqiladi va OML/TML cheklovlari qo‘llangan holda tibbiy xulosa berilishiga yo‘l qo‘yiladi.

93. Quyidagi ko‘rsatkichlar mavjud bo‘lgan nomzodlarga uchish ishiga yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi:

aorta ildizining diametri > 5,0 sm (≥50 mm) bo‘lganda;

chap qorinchani yakuniy diastolik o‘lchami (KDR LJ) > 6,5 sm bo‘lganda;

chap qorinchani yakuniy sistolik o‘lchami (KSR LJ) > 4,4 sm bo‘lganda;

qorinchalararo parda (septum) qalinligi > 1,4 sm (≥14 mm) bo‘lganda.

94. Qon aylanishi buzilmagan umumiy va toj (koronar) arteriyalar, shuningdek yurak mushaklari kasalliklari mavjud bo‘lganda, uchuvchilarga ambulator yoki chuqurlashtirilgan sharoitda yuklamali EKG sinamasi o‘tkaziladi.

Tekshiruv natijalarida yurak-qon tomir tizimining funksional imkoniyatlari saqlangan bo‘lsa, uchuvchiga uchish ishiga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Miokard distrofiyasi yoki miokarditdan keyingi kardioskleroz aniqlanganda, yurak faoliyatidagi o‘zgarishlarning uchuvchining kasbiy faoliyatiga salbiy ta’siri bo‘lmasa, yurak mushaklarining tuzilmaviy va funksional holati yetarlicha saqlanganda, uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa beriladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Aortaning kam ifodalangan aterosklerotik o‘zgarishlari yoki aorta devorining mo‘tadil qalinlashuvi aniqlanganda, yurak-qon tomir tizimi funksional jihatdan normada bo‘lsa, uchuvchiga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

95. Aortadagi kam ifodalangan aterosklerotik o‘zgarishlar yoki aorta devorining mo‘tadil qalinlashuvi aniqlanganda, agar yurak-qon tomir tizimining funksional holati saqlangan bo‘lsa, uchuvchi tarkibiga uchish ishiga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

96. Asoratlarsiz o‘tgan miokard infarkti bo‘lgan uchuvchi tarkibida uchish ishiga qayta tiklanish masalasi 12 oy o‘tgach quyidagi shartlar bajarilganda ko‘rib chiqiladi:

yurak qon-tomir tizimining funksional ko‘rsatkichlari saqlanganda;

shikoyatlar mavjud bo‘lmaganda;

kasallikni og‘irlashtiruvchi xavfli omillar aniqlanmaganda;

ishemik kasallikni davolashga ehtiyoj bo‘lmaganda (faqat profilaktik maqsadda aspirin, kichik dozadagi beta-blokatorlar yoki ayrim holatlarda APF ingibitorlarini qabul qilinganlik holatlari bundan mustasno);

yuklamali EKG sinamasida jismoniy ish qobiliyati yetarli darajada saqlanganda;

yurak bo‘shliqlari kengaymaganda;

chap qorinchaning otilish fraksiyasi ≥ 50 foiz bo‘lganda;

24 soatlik EKG monitorlashda patologik ritm buzilishlari aniqlanmaganda;

koronaroangiografiya natijalarida miokard infarkti zonasidan tashqari asosiy toj arteriyalaridagi stenoz 30 foizdan oshmaganda (qorinchalararo pardaning old arteriyasi, aylanib o‘tuvchi arteriya, orqa pastga yo‘naluvchi arteriya, o‘ng koronar arteriya).

EKGda patologik Q tishchasi aniqlanganda, biroq miokard infarktining klinik belgilarini tasdiqlovchi ma’lumotlar mavjud bo‘lmaganda, anamnezni so‘rov yo‘li bilan chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish, shuningdek og‘riq sindromi ExoKG o‘tkazilib, chap qorincha funksiyasi, mintaqaviy gipokineziya yoki boshqa ishemik o‘zgarishlar aniqligi tekshiriladi.

Ushbu tekshiruvlarning barchasi ijobiy bo‘lsa hamda yurak mushagi funksiyasi yaxshi saqlanganligida aviatsiya xodimlari uchish ishiga yaroqli deb topiladi.

97. Arterial gipertenziyada arterial qon bosimining turg‘un ravishda >160/95 mm sim. ust. bo‘lganda (takroriy o‘lchovlar bilan tasdiqlangan), kasallikning xurujli kechishi, shu jumladan takroriy gipertonik krizlar, xurujlar bilan kechuvchi barqaror arterial gipertenziya (bir martalik asoratsiz gipertonik kriz bundan mustasno), yurak-qon tomir tizimining 3 – 4 darajali asoratlari (gipertrofik o‘zgarishlar, chap qorincha funksional yetishmovchiligi, koronar perfuziya buzilishlari) mavjud bo‘lgan hollarda uchuvchi tarkibi uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsiz deb topiladi.

Tekshiruv natijalari bilan tasdiqlangan “oq xalat” arterial gipertenziyasi (ABPM va uy o‘lchovlari normada bo‘lganda) mavjud bo‘lgan nomzodlarga uchish ishiga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

98. Dori vositalarisiz arterial qon bosimi norma darajasiga kelganda yoki aviatsiya faoliyatida qo‘llashga ruxsat etilgan dori vositalari yordamida arterial qon bosimi 160/95 mm simob ustuni dan oshmagan hollarda, nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

99. Tibbiy xulosa chiqarishda gipertoniya kasalligi mavjud bo‘lgan uchuvchi tarkibi yurak qon-tomir asoratlarini xavf darajasi (“nishon-a’zolar”, yurak, miya, buyrak, tomirlar shikastlanishi darajasi, shuningdek semizlik, chekish, spirtli ichimliklarga ruju qo‘yish, kamharakatlik va boshqa yurak-qon tomir xavf omillari) asosida xavf darajasiga ko‘ra stratifikatsiya qilinadi.

Xavf darajasi past yoki o‘rta bo‘lgan uchuvchi tarkibi uchish ishiga (o‘qishga) yaroqli deb topiladi.

Xavf darajasi yuqori bo‘lgan uchuvchi tarkibida agar davolash-sog‘lomlashtirish choralarini qo‘llash orqali xavf darajasini past yoki o‘rta darajaga tushirish imkoni mavjud bo‘lsa, 1 oygacha muddatga tibbiy xulosa qabul qilinadi.

Bunda aviatsiya xodimi kasbiy vazifalarini bajarishdan 1 oyga chetlatiladi hamda individual davolash-sog‘lomlashtirish tadbirlari, qon bosimini barqarorlashtirish choralari, kardiolog maslahati va tekshiruvlar amalga oshiriladi.

Davolash tadbirlari samarali bo‘lganda, xavf omillari kamayganda yoki bartaraf etilganda, kardiologning ijobiy xulosasi asosida aviatsiya xodimiga uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

100. Uchuvchilikka o‘qishga qabul qilinadigan uchuvchi tarkibida arterial qon bosimi 140/90 mm sim. ust. dan yuqori bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

101. Kasalliklarning o‘tkir davrida, og‘riq sindromi va klinik belgilarning mavjudligida, shuningdek ish qobiliyatini yo‘qotishga olib keluvchi asoratlar aniqlanganda, uchuvchi tarkibiga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Asoratlari bo‘lmagan oshqozon va o‘n ikki barmoq yarasi kasalligini o‘tkazgan uchuvchi tarkibi davolash natijalari ijobiy bo‘lganda, kasallik qaytalanishi kuzatilmaganda, Helicobacter pylori infeksiyasi bartaraf etilgan bo‘lsa, klinik belgilar yo‘qolganda va endoskopik tekshiruvda yaraning bitgani tasdiqlanganda, shuningdek xavfli o‘smalar bo‘lmaganda, davolash tugaganidan 2 oydan so‘ng uchish ishiga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa berilishiga yo‘l qo‘yiladi.

102. Oshqozon va 12 barmoqli ichak yarasining bir martalik residivida, klinik simptomlar mavjud bo‘lmaganda, parhezga rioya qilinganda va klinik sog‘ayish belgilari tasdiqlanganda, uchuvchi tarkibi uchish ishiga yaroqli deb topiladi.

Oshqozon va 12 barmoqli ichak yarasining qon ketish bilan kechgan bir martalik asoratida, davolashdan keyingi 2 oy davomida klinik simptomlar qayd etilmasa, dori vositalari bilan qo‘shimcha davolanish zarurati bo‘lmasa va endoskopik tekshiruvda to‘liq sog‘ayish tasdiqlansa, uchuvchi tarkibi uchish ishiga yaroqli deb topiladi.

Bunda tibbiy xulosa muddati 3 yil davomida 6 oylik muddatlarga belgilanishi, TUK xulosasi va davolagan jarrohning xulosasi asosida O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi (bundan buyon matnda vakolatli organ deb yuritiladi) tibbiy ekspertlari tomonidan qo‘shimcha baholanishi lozim.

Aviatsiya xodimi fuqaro aviatsiya tashkilotining shifokori tomonidan 3 oyda bir marta dispanser kuzatuviga olinishi hamda yilda bir marta endoskopik tekshiruv o‘tkazilishi zarur.

103. Bittadan ko‘p residiv yoki asorat bilan kechgan holatlar mavjud bo‘lganda, uchuvchi tarkibining yaroqlilik masalasi chuqurlashtirilgan tibbiy tekshiruvlar asosida, vakolatli organning tibbiy ekspertlari tomonidan individual tartibda ko‘rib chiqiladi va tibbiy xulosa chiqariladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Gastrit va kolitlarda, davolash to‘liq yakunlanganda, laborator-instrumental tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lganda hamda klinika-simptomlar mavjud bo‘lmaganda**,** uchuvchi tarkibi uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Oshqozon va o‘n ikki barmoqli ichak yarasiga oid jarrohlik amaliyotlaridan so‘ng aviatsiya xodimining sog‘ligi to‘liq tiklangan bo‘lsa, jarrohlik amaliyoti va kasallik bilan bog‘liq asoratlar uchun xavf omillari bartaraf etilgan bo‘lsa hamda qayd etilgan remissiya davrida asoratlarsiz yara jarayoni tasdiqlansa, endoskopik va boshqa klinik tekshiruvlarning ijobiy natijalari asosida uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Surunkali gastrit va gastroduodenitlarda, kasallikning residivlari kuzatilmaganda, bemorning umumiy ahvoli qoniqarli, ish qobiliyati saqlangan bo‘lsa hamda me’da sekretsiyasida klinik jihatdan ahamiyatli salbiy o‘zgarishlar aniqlanmasa, uchuvchi tarkibi uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

104. Pankreatit va gepatitning organ faoliyati yaqqol yoki mo‘tadil darajada buzilishi bilan kechuvchi faol bosqichlarida, jigar sirrozi mavjud bo‘lgan hollarda, yilda 2 martadan ortiq takrorlanuvchi surunkali xolesistitda, shuningdek o‘t pufagida faoliyati saqlangan bo‘lsa, ko‘p sonli toshlar aniqlanganda, uchuvchi tarkibi (kursant) uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

105. Faol bo‘lmagan organ faoliyatining kam ifodalangan buzilishi bilan kechuvchi surunkali gepatit va pankreatitlarda, shuningdek davolanish natijalari ijobiy bo‘lganda, kam xurujli surunkali xolesistit hollarda, o‘t pufagi xolesterozi, yaxshi sifatli funksional bilirubinemiyalar, og‘riqsiz kechuvchi o‘t chiqarish yo‘llari diskineziyasi mavjud bo‘lganda, uchuvchi tarkibi (kursant)ga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Asoratlar kuzatilmaganda, laparoskopik xolesistektomiya va litotripsiya jarrohlik amaliyotlaridan so‘ng 2–3 oy o‘tib, shikoyatlar yo‘qligida, klinik belgilar bo‘lmaganda va ish qobiliyati saqlanganligida uchuvchi tarkibi uchish ishiga yaroqli deb topiladi.

106. Surunkali, faol bo‘lmagan, klinik alomatlarsiz kechuvchi B va C virusli gepatit tashuvchilik holatida uchuvchi tarkibi kasbiy vazifalarini bajarishga yaroqli deb topiladi.

B yoki C virusli gepatitni o‘tkazgan uchuvchi tarkibida turg‘un remissiya holati tasdiqlangandan so‘ng 6 oy o‘tgach, klinik, laborator va instrumental tekshiruv natijalari normada bo‘lsa, uchish ishiga yaroqli deb topiladi.

O‘t pufagida simptomsiz kechuvchi, yirik bitta tosh aniqlanganda, uchuvchi tarkibiga individual tartibda TML cheklovi qo‘llangan holda, uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Mazkur holatda rejalashtirilgan jarrohlik davolash tavsiya etiladi va jarroh tomonidan dispanser kuzatuvi belgilanadi.

107. A’zo faoliyati buzilishi bilan kechuvchi buyrak va siydik yo‘llari kasalliklarining faol davrida, shuningdek ularning asoratlarida (siydik yo‘llarining torayishi, siqilishi, jarrohlik amaliyotidan keyingi boshqa organik buzilishlar, og‘riq sindromi mavjud bo‘lgan hollar) uchuvchi tarkibi (kursant)ga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Buyrak va siydik yo‘llarining infeksion-yallig‘lanish kasalliklarida, kamida 14 kun davomida individual antibakterial terapiya o‘tkazilgach (ayollardagi oddiy sistit bundan mustasno) quyidagi shartlar to‘liq bajarilganda uchuvchi tarkibining (kursant) yaroqlilik masalasi ko‘rib chiqiladi:

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

urodinamik va gemodinamik turg‘unlik to‘liq tiklangan bo‘lsa;

klinik simptomlar, infeksiya belgilari, qayta yallig‘lanish epizodlari to‘liq bartaraf etilgan bo‘lsa;

siydik, qon va boshqa laborator tahlillar normada bo‘lsa;

nefrolog (urolog) xulosasi hamda prognozi ijobiy bo‘lsa.

Mazkur holatlarda uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risidagi tibbiy xulosa individual tartibda vakolatli organning tibbiy ekspertlari bilan birgalikda yoki TUK tomonidan chiqariladi.

108. O‘tkir glomerulonefritni o‘tkazgan nomzodlar yallig‘lanish jarayonining kechishi, buyrak faoliyatining holati va arterial qon bosimi ko‘rsatkichlari to‘liq baholanganiga qadar 6 oygacha muddatga vaqtincha mehnatga yaroqsiz deb topiladi.

Klinik ko‘rsatkichlar barqarorlashganda va quyidagi talablar bajarilganda 1-klass uchuvchi tarkibi uchun TML yoki OML cheklovlari qo‘llanilgan holda uchish ishiga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqarilishiga yo‘l qo‘yiladi.

arterial qon bosimi normada bo‘lsa;

siydik va qonda proteinuriya, gematuriya va azotemiya kabi o‘zgarishlar bo‘lmaganda;

buyraklarning filtratsiya funksiyasi saqlangan bo‘lganda;

laborator va instrumental tekshiruvlarda yallig‘lanish belgilari aniqlanmaganda.

Ushbu shaxslarda har 3 oyda arterial qon bosimini o‘lchash, siydik umumiy tahlili, qonda kreatinin va boshqa buyrak funksiyasi ko‘rsatkichlari bo‘yicha dispanser nazorat o‘tkaziladi.

Gemodializga tibbiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lgan hollarda, nomzodlarga uchish ishiga yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

109. Surunkali pielonefrit yoki glomerulonefrit bilan kasallangan uchuvchi tarkibi uchun 2 yil davomida fuqaro aviatsiyasi tashkilotining shifokori tomonidan dispanser kuzatuvi belgilanishi, har 3 oyda qonning umumiy tahlili, siydik umumiy tahlili, mochevina va kreatinin kabi biokimyoviy ko‘rsatkichlar aniqlanishi lozim.

Agar tekshirish davomida bakteriuriya va piuriya bir vaqtda aniqlansa, ushbu holatning sabablarini aniqlash maqsadida sil kasalligi (tuberkulyoz), siydik yo‘llaridagi konkrementlar (toshlar) mavjudligini aniqlash hamda buyrak va siydik yo‘llarining xavfli o‘smalarga tekshiruvlar o‘tkaziladi.

110. Kasalliklarning faol davrida, bo‘g‘imlar va ichki organlar faoliyatining buzilishi, og‘riq sindromi va boshqa klinik simptomlar mavjud bo‘lgan hollarda, shuningdek surunkali kasalliklarning 1 yil davomida 2 martadan ko‘p qaytalanuvchi xurujlari kuzatilganda, uchuvchi tarkibi (kursant) uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Tibbiy xulosa chiqarishda quyidagilar inobatga olinadi:

kasallikning og‘irlik darajasi va rivojlanish dinamikasi;

mushak-suyak va tayanch-harakat tizimi funksional imkoniyatlari;

bo‘g‘imlarda harakatchanlik darajasi va uning chegaralanganligi;

uzoq muddatli davolashning salbiy oqibatlari;

xurujlar va kasallikning to‘satdan kuchayishi natijasida ish qobiliyatining yo‘qolishi ehtimoli.

To‘liq davolash kursi va reabilitatsiya choralari o‘tkazilgandan so‘ng sog‘ayish tasdiqlanganda, organlar funksiyalari saqlangan bo‘lsa va turg‘un remissiya qayd etilsa, uchuvchi tarkibi uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa berilishiga yo‘l qo‘yiladi (uchuvchilikka o‘qishga nomzodlar bundan mustasno).

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

4-bob. Jarrohlik kasalliklari

111. Guvohnoma egalari bilan belgilanadigan kasbiy majburiyatlarni bajarishga monelik qilmaydigan suyak-mushak tizimining tug‘ma yoki orttirilgan buzilishlari mavjud bo‘lmaganda, ularga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlariga uchuvchilikka o‘qishga qabul qilinayotgan nomzodlar 160 sm dan past va 190 sm dan baland bo‘lmagan bo‘yga ega bo‘lishi, oyoqning uzunligi 73 sm dan kam bo‘lmasligi, shturmanlikka, bortmuhandislikka o‘qishga qabul qilinayotgan nomzodlar 160 sm dan past va 190 sm dan baland bo‘lmagan bo‘yga ega bo‘lishi kerak.

Tana vazni bo‘yiga mos bo‘lishi kerak.

Bo‘g‘imlar harakatchanligi ushbu Aviatsiya qoidalarining 25-ilovasiga muvofiq baholanishi, o‘qishga kiruvchilarda tana rivojlanishi mutanosib bo‘lishi kerak.

20 yoshgacha bo‘lgan uchuvchilikka o‘qishga kiruvchilarda tana vaznining 25 foizgacha kam bo‘lishi, boshqa jismoniy ko‘rsatkichlar (tana tuzilishining mutanosibligi, mushak tizimining rivojlanganligi, spirometriya va dinamometriya natijalari) yaxshi bo‘lganda jismoniy rivojlanishning yetishmovchiligi sifatida baholanmaydi.

112. Nomzod guvohnoma bilan belgilangan kasbiy majburiyatlarini xavfsiz va to‘liq bajarishi uchun zarur bo‘lgan o‘tirgan holdagi bo‘y uzunligi, qo‘l va oyoqlar uzunligi, shuningdek mushak kuchi va jismoniy imkoniyatlarga ega bo‘lishi lozim.

Jismoniy o‘lchamlar yoki antropometrik ko‘rsatkichlar bo‘yicha bahsli (munozarali) holatlar yuzaga kelganda, uchish trenajyorida amaliy tekshiruv o‘tkaziladi.

Tekshiruv natijalari bo‘yicha trenajyor instruktori xulosasi asos qilib olinadi va yakuniy tibbiy xulosa shunga asosan chiqariladi.

Infantilizm aniqlangan hollarda nomzodning uchish ishiga yaroqliligi, endokrinologning batafsil tibbiy xulosasi asosida aniqlanishi lozim.

113. Nomzodlarda bosh jarohatlari, bosh suyagi va bosh miya sohasida o‘tkazilgan jarrohlik amaliyotlarining asoratlari mavjud bo‘lgan hollarda, ularning uchish ishiga yaroqliligi to‘g‘risidagi tibbiy xulosa nevrolog tomonidan klinik va instrumental tekshiruvlar natijalariga asoslanib chiqariladi.

Nomzodlarda jismoniy rivojlanishdagi nuqsonlar, suyak, mushak, bo‘g‘im, pay va tog‘ay to‘qimalarining surunkali kasalliklari, turli jarohatlar yoki jarrohlik amaliyotlaridan keyingi asoratlar, kuyish va muzlash oqibatida hosil bo‘lgan chandiqlar ularning o‘lchami, kuchayish (zo‘rayish) tendensiyasi, harakatlar hajmi, mushak kuchi hamda qo‘l va oyoqlarning funksional imkoniyatlari darajasiga ko‘ra baholanishi, bunda nomzodning o‘zlashtirgan havo kemasi turi, bajarishi ko‘zda tutilgan kasbiy funksiyalar hajmi ham inobatga olinadi.

Kiyim yoki oyoq kiyim kiyishni qiyinlashtiruvchi yoki amalda to‘sqinlik qiluvchi, og‘riq sindromi mavjud bo‘lgan, kuchayib boruvchi (progrediyent) xususiyatga ega, uchish xavfsizligiga ta’sir etuvchi funksional buzilishlar aniqlangan hollarda nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

114. Nomzodlarda kasallikning sil kasalligi aniqlanganda, shuningdek faoliyat buzilishining darajasidan qat’i nazar sekvestral bo‘shliqlarda bitmaydigan yoki davriy ravishda ochilib turadigan oqma yaralar mavjud bo‘lsa, osteomielit negizida oqma yaralar saqlanib tursa, son suyagi boshchasi osteoxondropatiyasi aniqlansa, yirik bo‘g‘imlarning l deformatsiyalanuvchi osteoartrozida faoliyatning yaqqol yoki mo‘tadil buzilishlari mavjud bo‘lsa, nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Davolashning ijobiy natijalar (oqma yaralarning to‘liq yopilishi, rentgenologik tekshiruvda sekvestrlarning yo‘qligi) bilan tasdiqlangan holatlarda hamda kamida 6 oy davom etgan barqaror remissiya kuzatilganda, uchish ishiga individual tartibda yaroqlilik masalasi ko‘rib chiqilishiga yo‘l qo‘yiladi.

115. Osteomielit bilan kasallangan barcha nomzodlar terapevtik yoki jarrohlik usullar bilan davolanishi lozim.

Davolash natijasida barqaror remissiya kuzatilganda, xurujlar bo‘lmaganda, sekvestral bo‘shliqlar va sekvestrlar aniqlanmaganda, kasallikning xususiyati, joylashuvi, faoliyat buzilishining darajasi, shuningdek nomzodning kasbiy mahorati va ish tajribasi inobatga olingan holda, aviatsiya xodimlariga uchish ishiga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqarilishiga yo‘l qo‘yiladi (uchuvchilikka o‘qishga nomzodlar bundan mustasno).

116. Osteoxondroz, spondiloartroz va umurtqa pog‘onasining degenerativ-distrofik kasalliklarida, og‘riq sindromi mavjud bo‘lmaganda va funksional cheklanishlar kasbiy faoliyatga ta’sir etmaydigan darajada ahamiyatsiz bo‘lsa, nomzodlarga uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Ildizchali sindrom aniqlanganda tibbiy xulosa nevrolog tomonidan chiqariladi.

Bo‘g‘imlar chiqishi bilan kechuvchi shikastlanishlar, umurtqa pog‘onasi tanalarining sinishi, jarayonning istalgan fazasi va funksional buzilish darajasidan qat’i nazar, shuningdek umurtqa pog‘onasining sil kasalligi mavjud bo‘lganda, nomzodlarga o‘qishga, uchish ishiga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Umurtqa pog‘onasi tanalarining kompressiya sinishi bo‘lganda, to‘liq davolanishdan 6 oydan keyin teri osti vertebroplastikasi o‘tkazilgan holatlarda esa 2 oydan keyin jarrohlik davolash natijalari ijobiy bo‘lganda, funksional imkoniyatlar to‘liq tiklangan bo‘lsa, nomzodlarga uchish ishiga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

117. Umurtqa pog‘onasining o‘tkir va ko‘ndalang o‘simtalari sinishlari bo‘lgan holatlarda, harakatchanlik va funksional imkoniyatlar to‘liq tiklanganda hamda og‘riq sindromi mavjud bo‘lmaganda, nomzodlarga o‘qishga va uchish ishiga ruxsat beriladi.

Umurtqalar shaklining o‘zgarishlari (egrilik, qiyshayish) mavjud bo‘lgan hollarda, deformatsiyaning darajasi va etiologiyasi, umurtqa pog‘onasining funksional saqlanganligi, shuningdek uchuvchining kasbiy vazifalarni bajarish qobiliyati hisobga olinib, o‘qishga va uchish ishiga yaroqliligi aniqlanadi.

Laminektomiyadan so‘ng funksional ko‘rsatkichlar to‘liq tiklanganda hamda og‘riq sindromi bo‘lmaganda, 3 oydan keyin nomzodlarga o‘qishga va uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

118. Umurtqa pog‘onasi rentgenologik tekshiruvlarida umurtqalar ventral qirg‘oqlarining o‘tkirlashishi, qalinlashishi, yakka holdagi bigizsimon osteofitlar aniqlangan hollarda, agar klinik simptomlar mavjud bo‘lmasa, nomzodlar uchish ishiga (o‘qishga) yaroqli deb topiladi.

Osteoxondroz aniqlangan nomzodlarga jarroh va nevrolog tomonidan dispanser kuzatuvi belgilanishi hamda profilaktik va davolash choralari o‘tkazilishi lozim.

Dyupyuitren kontrakturasining I darajasida nomzodlarga o‘qishga va uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa berilishi, ularga jarrohning dispanser kuzatuvi belgilanishi, konservativ davolash usullari qo‘llanilishi zarur.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Kasallikning II darajasidasida esa uchuvchilar faqat o‘zlari o‘zlashtirgan havo kemasi bo‘yicha yaroqli deb hisoblanishi, bunda jarrohlik davolash usullari tavsiya etilishi hamda jarrohlik natijalari ijobiy bo‘lsa, qo‘l funksiyalari yetarli darajada saqlanganda, uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

119. Og‘riq sindromi kuzatilmaydigan, tomirlar va ichki a’zolar faoliyatida buzilishlar aniqlanmaganda hamda skoliozning klinik ifodalanmaganda, funksional buzilishlarga olib kelmaydigan darajalarida, V bel umurtqasining sakralizatsiyasi, I dumg‘aza umurtqasining lyumbalizatsiyasida nomzodlar o‘qishga va uchish ishiga yaroqli deb topiladi.

Shmorl churralari aniqlangan hollarda, agar og‘riq sindromi mavjud bo‘lsa, nevrolog xulosasi asosida nomzodlarga o‘qishga va uchish ishiga yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

120. Tos suyaklarining birlashgan (konsolidatsiyalangan) sinishlarida, jarohat olingan vaqtdan kamida 6 oy o‘tgach to‘liq sog‘ayish tasdiqlanganda, og‘riq sindromi mavjud bo‘lmaganda va ichki organlar hamda tayanch-harakat tizimi funksiyalari buzilmaganda, nomzodlarga o‘qishga va uchish ishiga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Tos chanog‘i sohasida alohida suyaklarning chegaralangan sinib o‘sishlarida chanoq aylanasining shakli va simmetriyasi buzilmagan bo‘lsa, nomzodlar uchish ishiga yaroqli deb topiladi.

Umurtqa pog‘onasi va tos suyaklariga oid kasalliklar yoki jarohatlarda yaroqlilik holati jarroh va nevrolog tomonidan birgalikda baholanadi va ular xulosasi asosida tibbiy qaror qabul qilinadi.

121. Infeksion-allergik genezli spondiloartritlarda (Bexterev, Reyter kasalliklari) nomzodlarning uchish ishiga (o‘qishga) yaroqliligi terapevt tomonidan klinik ko‘rsatkichlar, kasallik faolligi, funksional holat va remissiya barqarorligi inobatga olinib aniqlanadi.

Suyaklar, tog‘aylar, mushaklar, pay va bo‘g‘imlarda o‘tkazilgan jarrohlik amaliyotlaridan so‘ng organ va tizimlarning funksional qobiliyati to‘liq tiklanganda, nomzodlarning o‘qishga va uchish ishiga yaroqliligi aniqlanadi.

Jarrohlik amaliyotlari yoki jarohatlar oqibatida qo‘l yoki oyoqning 2 sm dan kam qisqarishi mavjud bo‘lgan hollarda, funksional cheklovlar bo‘lmaganda nomzodlar yaroqli deb topiladilar.

Ahamiyatli funksional nuqsonlar yoki sezilarli anatomik defektlar mavjud bo‘lgan hollarda, nomzodning kasbiy vazifalarni xavfsiz bajarish qobiliyati uchish trenajyorida amaliy tekshiruv asosida baholanadi. Baholash jarayonida qo‘l va oyoqlarning havo kemasining boshqaruv organlariga erkin yetishi, boshqaruvni to‘liq va xavfsiz amalga oshirish qobiliyati, harakatlar koordinatsiyasi va kuchlanishsiz bajarilishi tekshiriladi.

Trenajyor instruktorining xulosasi va tibbiy mutaxassislarning bahosiga asosan yakuniy tibbiy yaroqlilik to‘g‘risida xulosa chiqariladi.

122. Jarrohlik amaliyotiga tibbiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lgan hollarda, nomzod davolanishni rad etganda, unga o‘qishga yoki uchish ishiga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Osteosintezda fiksatsiyalovchi moslamalar o‘rnatilishi, yasama a’zo (protez) qo‘yilganda operatsiyadan keyingi klinik holatning ijobiyligi, shikoyatlarning yo‘qligi yoki ahamiyatsizligi, funksional qobiliyatlarning to‘liq yoki yetarli saqlanganligi, rentgenologik va boshqa instrumental tekshiruvlar natijalarining ijobiyligi inobatga olinadi.

Ushbu ma’lumotlar asosida travmatolog-ortopedning xulosasi va prognozini hisobga olgan holda, nomzodlarga individual tartibda o‘qishga va uchish ishiga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Varus va valgus deformatsiyalari mavjud bo‘lgan hollarda, oyoqlarning qiyshayishida, antropometrik nuqtalar orasidagi masofa 9 sm dan ortiq bo‘lsa, nomzod yaroqsiz deb topiladi.

123. Bo‘g‘imlar kasalliklari va biriktiruvchi to‘qimaning tizimli kasalliklarida, kasallikning turg‘un remissiyasida, organlar faoliyati saqlanganligida, bo‘g‘imlar va organlarning funksional holati aviatsiya kasbiy faoliyatini bajarishga monelik qilmasa, nomzodlarga uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Turli etiologiyali qo‘l va oyoq nuqsonlari mavjud bo‘lgan hollarda, ularning funksional saqlanganlik darajasi, kasbiy majburiyatlarni bajarish imkoniyati, havo kemasi boshqaruv elementlarini xavfsiz boshqarish qobiliyati inobatga olinadi.

Munozarali holatlarda uchish trenajyorida tekshiruv o‘tkazilib, trenajyor instruktorining xulosasi asosida yakuniy tibbiy xulosa chiqariladi.

Oyoq panjasining yo‘qligida, shuningdek yurish, muvozanat, oyoq kiyim kiyish yoki boshqaruv pedalidan foydalanishni qiyinlashtiruvchi (yoki to‘sqinlik qiluvchi) tug‘ma yoki orttirilgan deformatsiyalarda nomzodlarga uchish ishiga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

124. Xavfli o‘smalar aniqlanganda, nomzodlarga o‘qishga va uchish ishiga yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Nomzodlar tibbiy muassasada (jarrohlik, kimyoterapiya, nur terapiyasi yoki ularning kombinatsiyasi orqali) to‘liq davolangandan so‘ng residiv kuzatilmasa, bosh miyada metastaz aniqlanmasa, o‘smaning umumlashuvi (generalizatsiyasi) qayd etilmasa va organizmning umumiy funksional holati turg‘un bo‘lsa (ahamiyatga ega bo‘lmagan o‘zgarishlarga yo‘l qo‘yilgan holda) davolash yakunlanganidan 6 oy o‘tgach tibbiy ko‘rik o‘tkaziladi.

Davolangan nomzodlarga cheklovlar qo‘llangan holda uchish ishiga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi (ularga jarroh va onkolog tomonidan dispanser kuzatuvi belgilanadi).

Tibbiy xulosa chiqarishda quyidagilar hisobga olinadi:

davolash kasallikning ilk bosqichida o‘tkazilganligi;

keng qamrovli patomorfologik xulosa (o‘smaning anatomik turi, morfologik xususiyatlari, regionar limfa tugunlari holati);

davolashdan keyingi klinik dinamikasi (tana vazni, laborator ko‘rsatkichlar, instrumental tekshiruv natijalari);

davolashning asoratlari mavjud emasligi;

residiv va metastazlar qayd etilmaganligi;

gematologik ko‘rsatkichlarning normada bo‘lishi;

organlar va tizimlar faoliyatining buzilish darajasi;

nomzodning mehnatga layoqati va uchish paytida to‘satdan mehnat qobiliyatini yo‘qotish xavfi;

kasbiy majburiyatlarni xavfsiz bajarish qobiliyati.

125. Rak in situ tashxisi bo‘yicha patomorfologik xulosa olinganda, o‘smaning joylashuvidan qat’i nazar, o‘tkazilgan davolashning (operatsiya) turi va hajmiga ko‘ra, onkolog xulosasi va prognozi asosida nomzodlarga tibbiy xulosa berilishi, bunda quyidagi cheklangan yaroqlilik belgilanadi:

tropik mamlakatlarda ishlashga yaroqsiz;

faqat o‘zlashtirgan havo kemasida uchish ishiga yaroqli;

aviatsiya kimyoviy ishlarida ishlashga yaroqsiz.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Yomon sifatli eutireoid tugunli buqoq va tugunli mastopatiya aniqlanganda, onkolog maslahatiga koʻra komissiya oralig‘i davrida jarrohlik usuli bilan davolanish lozim.

Xavfsiz (benign) oʻsmalarda oʻsma toʻliq olib tashlanganda, uning xavfsizligi laborator-patomorfologik tekshiruvlar bilan tasdiqlanganda, organlar funksiyalari saqlanganda, shuningdek jismoniy va ruhiy sog‘liq holati normada boʻlsa, nomzodlarga oʻqishga yoki uchish ishiga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

126. Xavfsiz oʻsmalar jarrohlik yoʻli bilan olib tashlanganidan keyin jarrohlik amaliyotining hajmi, texnik murakkabligi va davolash natijalaridan kelib chiqib, oʻqishga yoki uchish ishiga ruxsat berish muddati jarroh koʻrigidan soʻng aniqlanadi.

Maxsus kiyimlar, anjomlar yoki oyoq kiyim kiyishga toʻsqinlik qilmaydigan, kichik hajmdagi, oʻsishga moyil boʻlmagan xavfsiz oʻsmalarda (lipomatoz, soʻgalli va pigmentli nevuslar, dermoid kistalar, xondromalar) nomzodlar yaroqli deb hisoblanadi va ularga jarrohning dispanser kuzatuvi belgilanadi.

Jarrohlik muolajasi oʻtkazilgan xavfsiz oʻsmalarda, oʻqishga yoki uchish ishiga qabul qilinayotgan barcha nomzodlar oʻsmaning gistologik tekshiruv natijalari hamda oʻtkazilgan jarrohlik amaliyotining tavsifini oʻz ichiga olgan tibbiy hujjatni (koʻchirma) jarrohga taqdim etadilar. Ushbu ma’lumotlar asosida tibbiy xulosa chiqariladi.

127. Oshqozon-ichak yoʻlida (ayniqsa, poliplar) va nafas olish organlarida xavfsiz oʻsmalar mavjud boʻlgan nomzodlarga mineral oʻg‘itlar bilan ishlashga yaroqli, biroq zaharli kimyoviy moddalar bilan ishlashga yaroqsizligi haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Oʻsmani davolash usuli uning joylashuviga koʻra onkolog yoki proktolog tomonidan belgilanadi.

Lipoma va teriosti yog‘ qatlami xavfsiz oʻsmalari jarrohlik yoʻli bilan olib tashlanganidan soʻng, mehnatga layoqatsizlik varaqasi yopilgach va shaxsiy koʻrik natijalari ijobiy boʻlganda, nomzodlarga oʻqishga va uchish ishiga ruxsat beriladi.

Buyrakning kichik va oʻrtacha hajmdagi oddiy kistalarida, shuningdek bir yoki ikki tomonlama joylashgan sinusli kistalarda, klinik belgilarning (og‘riq, arterial bosim oshishi, siydik tahlillarida oʻzgarishlar) mavjud emasligida nomzodlar uchish ishiga yaroqli deb topiladilar.

Ular jarroh va urologning dispanser kuzatuviga olinadi, yilda 1 marta buyraklarning UZT tekshiruvi oʻtkaziladi.

Katta hajmli buyrak kistalarida ixtisoslashtirilgan muassasada kistaning punksion davolash usuli qoʻllanadi.

Asoratlar kuzatilmaganda nomzodga 2-3 haftadan keyin uchish ishiga ruxsat beriladi.

Punksiya uchun koʻrsatmalar boʻlmagan hollarda, nomzod urologning tavsiyasi asosida dispanser kuzatuviga olinadi.

128. Qalqonsimon bezda 1 sm dan kichik tugunlar aniqlanganda, nomzodlar jarroh-endokrinolog tomonidan koʻrikdan oʻtkaziladi hamda ularga har 6 oyda UZT tekshiruvi va dispanser kuzatuvi belgilanadi.

Birinchi marta 1 sm dan katta tugunlar aniqlanganda yoki tugunning 6 oy davomida 0,5 sm va undan koʻproq kattalashishi kuzatilganda, punksion biopsiya oʻtkazilishi zarur.

Qalqonsimon bezning yirik tugunlari (3 sm dan katta), shuningdek rak, adenoma aniqlangan hollarda, shaxslar jarrohlik usuli bilan davolanish lozim.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Tugunli buqoq jarrohlik yo‘li bilan olib tashlanganidan keyin nomzodning uchish ishiga (o‘qishga) yaroqliligi masalasi jarroh va terapevt bilan birgalikda endokrinologning xulosasi va prognozi asosida aniqlanadi.

O‘smaning yaxshi sifatli ekanligi tasdiqlanganda, operativ davolash zarur bo‘lmaganda, shuningdek o‘sma bilan bog‘liq anatomik defektlar mavjud bo‘lmasa, qalqonsimon bez funksiyasi buzilmagan bo‘lsa, o‘smaning o‘sishga moyilligi bo‘lmasa, maxsus aviatsiya anjomlarini (kislorod niqobi) yoki oyoq kiyim kiyishni qiyinlashtirmasa nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

129. Prostata bezining yaxshi sifatli giperplaziyasi mavjud bo‘lgan hollarda, o‘rtacha yoki kuchli ifodalangan simptomatik obstruksiya aniqlanganda**,** aviatsiya xodimlari uchish ishidan chetlatilishi, bunda ularga quyidagi tekshiruvlar o‘tkazilishi lozim:

transabdominal va transrektal exografiya;

qon zardobida prostata spesifik antigeni (PSA) darajasini aniqlash;

urolog tavsiyasiga ko‘ra qo‘shimcha instrumental va laborator tekshiruvlar.

Kam ifodalangan yoki yengil simptomlar bo‘lganda va operativ davolashga ko‘rsatma mavjud bo‘lmaganda, urologning shaxsiy ko‘rigi va xulosasi asosida aviatsiya xodimlariga uchish ishiga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Prostata bezining transuretral rezeksiyasi (TURP) o‘tkazilgan hollarda, jarrohlik amaliyotidan 6 oy o‘tgach obstruktiv simptomlar to‘liq va asoratlarsiz bartaraf etilganda, organlar funksiyasi saqlangan bo‘lsa, urolog xulosasi asosida individual tartibda yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqarilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Tashqi jinsiy a’zolarning o‘smalari aniqlanganda, ularni jarrohlik yo‘li bilan olib tashlash masalasi urolog yoki ginekologning tavsiyasi asosida hal etiladi.

130. Simptomlarsiz kechuvchi bachadon miomasi mavjud bo‘lgan aviatsiya xodimlari dispanser kuzatuviga olinadi.

Miomaning o‘sishi, yondosh a’zolar funksiyasining buzilishi, bachadondan qon ketishi, og‘riq sindromi mavjudligi yoki boshqa tibbiy ko‘rsatmalar aniqlanganda, aviatsiya xodimlari operativ davolanishga yuboriladi.

Jarrohlik amaliyotidan keyin yaroqsizlik muddati 4 oygacha etib belgilanadi.

Uchish ishiga (o‘qishga) qayta tiklash masalasi hal etilganda jarrohlik amaliyotining turi, asoratlarning mavjud emasligi, sog‘liq holatining tiklanganligi, a’zolar funksiyasining saqlanganligi, kasbiy vazifalarni bajarish chog‘ida to‘satdan mehnat qobiliyatini yo‘qotishga olib keluvchi omillarning mavjud emasligi, tekshiruv natijalarining normada ekanligi hamda ginekolog xulosasi inobatga olingan holda yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

131. Nomzodlarda ko‘krak oralig‘i, plevra, bronx ichidagi va bronxdan tashqari joylashgan o‘pkaning yaxshi sifatli o‘smalari operativ davolanganidan keyin 6 oy o‘tgach, nomzodning umumiy sog‘lig‘i tiklanganda, torakotomiyadan keyingi ko‘krak qafasi deformatsiyasi mavjud bo‘lmaganda, rentgenologik va boshqa tekshiruvlarda qo‘pol anatomik nuqsonlar aniqlanmaganda, tashqi nafas olish hamda yurak-qon tomir tizimi funksiyalarida buzilishlar kuzatilmaganda, uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Bunda har bir navbatdagi tibbiy ko‘rikda spirografiya hamda ko‘krak qafasi a’zolarining rentgenografiyasidan o‘tkaziladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

132. Nomzodda tashqi nafas olish funksiyasining yaqqol buzilishlari, uyqudagi obstruktiv apnoe sindromi mavjud bo‘lganda, shuningdek kasalliklar, rivojlanish nuqsonlari yoki jarohatlar sababli ko‘krak qafasi a’zolarida yirik jarrohlik amaliyotlari o‘tkazilganda, shu jumladan pulmonektomiya holatlarida, u uchish ishiga yoki o‘qishga yaroqsiz deb topiladi.

Nomzodda jarrohlik yo‘li bilan davolash o‘tkazilganda, u to‘liq davolanib, sog‘lig‘i tiklangandan so‘ng tashqi nafas olish funksiyasi yetarli darajada tiklanganda, Tiffno indeksi kamida 60 foizni tashkil etganda hamda tekshiruv natijalari ijobiy bo‘lganda, jarroh va terapevt xulosalari asosida uchish ishiga yaroqlilik masalasi ko‘rib chiqiladi.

Nomzodda jarrohlik yo‘li bilan davolashni talab etuvchi patologiyalar yoki nuqsonlar mavjud bo‘lganda, o‘pkaning qoldiq funksional hajmi, yurak-qon tomir tizimining funksional holati, ko‘krak qafasi a’zolarining siljish ehtimoli, uchish davomida bosim tafovuti ta’sirida og‘ir asoratlar rivojlanish xavfi hamda umumiy prognoz inobatga olingan holda uning sog‘lig‘i holati baholanadi va tibbiy xulosa chiqariladi.

133. Nomzodda ko‘krak devori va o‘pka to‘qimasida yirik tomirlar hamda yurakdan uzoqda joylashgan yot jismlar mavjud bo‘lganda, klinik belgilar aniqlanmasa va tashqi nafas olish funksiyasi ko‘rsatkichlari qoniqarli bo‘lsa, unga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Spontan pnevmotoraks holatlarida tibbiy xulosa chiqarishda klinik sog‘ayish bilan bir qatorda residiv xavfi ham inobatga olinadi.

Nomzodda birinchi marta spontan pnevmotoraks kuzatilgandan keyin klinik sog‘ayish holati qayd etilib, tibbiy tekshiruvlar natijasida bullez emfizema yoki nafas olish a’zolari funksiyasining boshqa buzilishlari aniqlanmaganda, unga nisbatan individual tartibdagi cheklovlar qo‘llangan holda uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Nomzodda spontan pnevmotoraks qayta kuzatilganda, jarrohlik amaliyotidan keyin kamida 3 oy o‘tgach, to‘liq sog‘ayish holati mavjud bo‘lganda, maxsus tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lganda, unga nisbatan individual tartibdagi cheklovlar qo‘llangan holda uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishiga yo‘l qo‘yiladi.

134. Nomzodning ichki a’zolar shikastlanmaganda, ko‘krak qafasiga kirib borgan yaralanishlarda to‘liq sog‘aygandan so‘ng tibbiy tekshiruvlar natijalariga ko‘ra unga uchish ishiga yaroqlilik masalasi hal etiladi.

O‘SOK remissiya turg‘unligida tashqi nafas olish funksiyasi saqlanganda, nomzodga uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Tashqi nafas olish funksiyasining yengil darajadagi buzilishlarida, OFV1 va JEL ko‘rsatkichlari 70 foizdan kam bo‘lmaganda hamda nafas olish va yurak-qon tomir tizimlarini tekshirish natijalari ijobiy bo‘lganda, nomzodga individual tartibdagi cheklovlar (TML) qo‘llangan holda uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishi, bunda nomzod jarroh dispanser kuzatuviga olinishi hamda har bir navbatdagi ko‘rikda nafas olish va yurak-qon tomir tizimlari qayta tekshirilishi kerak.

Sarkoidozning o‘tkir fazasida nomzod uchish ishiga yoki o‘qishga yaroqsiz deb topiladi.

Kasallikdan keyin kamida 6 oy o‘tgach, remissiyaning turg‘unligida, tashqi nafas olish funksiyasi saqlanganda, dori vositalari va boshqa davolash usullari to‘liq to‘xtatilganda, nomzodga individual tartibdagi cheklovlar (TML) qo‘llangan holda uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishi mumkin. Bunda nomzod jarroh dispanser kuzatuviga olinadi hamda har bir navbatdagi ko‘rikda nafas olish va yurak-qon tomir tizimlari qayta tekshiriladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Qisilishga moyil bo‘lgan yoki qizilo‘ngach hamda oshqozon faoliyatida funksional buzilishlarni keltirib chiqaruvchi, shuningdek reflyuks-ezofagit asorati bilan kechuvchi diafragmal churralar mavjud bo‘lganda, nomzodga uchish ishiga yoki o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Jarrohlik yo‘li bilan davolash ijobiy natija berganda, 3 oydan 6 oygacha muddat o‘tgach, nomzodda to‘liq sog‘ayish holati mavjud bo‘lsa hamda tibbiy tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lsa, uning uchish ishiga yaroqlilik aniqlanadi.

135. Divertikul jarrohlik yo‘li bilan davolangan va davolash ijobiy natija berganda, nomzodning kasbiy yaroqliligi masalasi ko‘rib chiqiladi.

Qizilo‘ngach (ezofagoskopiya va boshqa tekshiruvlar), tashqi nafas olish hamda yurak-qon tomir tizimi funksiyalarining chuqurlashtirilgan tibbiy tekshiruvlari natijasida a’zolar funksiyalarida buzilishlar va divertikul residivi aniqlanmaganda, nomzodga nisbatan individual tartibda uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Operativ davolanishni talab qilmaydigan qizilo‘ngach divertikullarida nomzodlarga nisbatan individual tartibda uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Qizilo‘ngach venalarining varikoz kengayishi aniqlanganda, uning etiologiyasi va klinik ko‘rinishlaridan qat’i nazar, barcha nomzodlar yaroqsiz deb topiladi. Bunda nomzodlar qayta o‘qishga yoki kasbiy faoliyatga tiklanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Qizilo‘ngachning chandiqli stenozi sababli o‘tkazilgan qizilo‘ngach plastikasi hamda funksional kasalliklar tufayli bajarilgan plastikali ezofagokardiomiotomiya kabi jarrohlik amaliyotlaridan keyin tekshiruvlar natijalari, kasbiy faoliyatni xavfsiz bajarish imkoniyati va boshqa tegishli omillar hisobga olingan holda, jarrohning xulosasi va prognozi asosida nomzodga uchish ishiga yaroqlilik masalasi individual tartibda hal etiladi.

Reflyuks-ezofagit mavjud bo‘lmaganda va diafragmaning qizilo‘ngach teshigi churrasi bilan bog‘liq bo‘lmaganda qizilo‘ngach-oshqozon birikmasi yetishmovchiligi mavjud bo‘lganda, nomzodlar uchish ishiga yaroqli hisoblanadilar.

136. Qorin bo‘shlig‘i a’zolarida o‘tkazilgan jarrohlik amaliyotlaridan keyin nomzodlar jarrohga tashxis, jarrohlik amaliyoti o‘tkazilgan sana, uning to‘liq bayonnomasi, jarrohlik amaliyotidan keyingi davrning kechishi, jarrohlik amaliyotining preparatning patomorfologik tekshiruvi natijalari hamda boshqa tegishli ma’lumotlar ko‘rsatilgan kasallik tarixidan ko‘chirmani TUKga taqdim etadi.

Jarrohlik amaliyoti ijobiy natija berganda, nomzod to‘liq sog‘ayganda, mehnatga layoqatsizlik varaqasi yopilganda, kasbiy majburiyatlarni bajarish jarayonida xavf omillari aniqlanmaganda, a’zolar funksiyasi saqlanganda, gastroenterologik tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lganda, tegishli mutaxassislarning xulosasi va prognozi asosida uning uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik aniqlanadi.

Jarrohlik amaliyotlaridan keyingi asoratlar (pnevmoniya yoki tromboflebit) mavjud bo‘lgan hollarda, shuningdek splenektomiya o‘tkazilganda yoki qorin bo‘shlig‘i a’zolarining ko‘p sonli shikastlanishi sababli laparotomiya bajarilganda, nomzodning uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik muddati individual tartibda aniqlanadi.

Simptomlarsiz kechuvchi, bitta yirik konkrement mavjud bo‘lgan xolesistolitiaz holatlarida komissiyalar oralig‘i davrida rejali jarrohlik yo‘li bilan davolash tavsiya etiladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

137. Oshqozon va 12 barmoqli ichakning yara kasalligi hamda uning asoratlari (residiv, qon ketishi, perforatsiya, penetratsiya) davolangandan so‘ng endoskopik tekshiruv natijasida yaraning bitgani tasdiqlanib, dori vositalarini qabul qilish zaruriyati bo‘lmaganda, 8 hafta o‘tgach nomzodga uchish ishiga yoki o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Bunda nomzodlarga har 6 oyda EFGDS tekshiruvi, gemoglobin miqdorini aniqlash uchun qon tahlili hamda gastroenterolog maslahati o‘tkazish belgilanadi.

Tizimli kasalliklar sababli o‘tkazilgan xolesistektomiya yoki splenektomiyadan keyin tibbiy xulosa jarroh tomonidan terapevt bilan birgalikda chiqariladi.

Tibbiy xulosa chiqarishda kasallik bilan bog‘liq asoratlar xavfi, parhezga rioya qilingan taqdirda simptomlarning yo‘qligi, jarrohlik amaliyotidan keyingi davrning kechishi, dori vositalari bilan davolash zaruriyatining mavjud emasligi, endoskopik tekshiruvlar natijalarining ijobiyligi hamda kasbiy majburiyatlarni bajarishda parvozlar xavfsizligiga tahdid soluvchi omillarning yo‘qligi hisobga olinadi. Tibbiy xulosaning amal qilish muddatiga cheklovlar qo‘yiladi.

Yaroqli deb topilgan aviatsiya xodimlari 3 yil davomida jarrohning dispanser kuzatuvida bo‘lishi kerak.

Chov, son, diafragma, kindik va qorin oq chizig‘i churralari aniqlanganda, og‘riq sindromi mavjud bo‘lsa yoki churraning qisilish xavfi mavjud bo‘lsa, jarrohlik yo‘li bilan davolash tavsiya etiladi.

Jarrohlik amaliyoti ijobiy natija berganda va mehnatga layoqatsizlik varaqasi yopilganda, nomzodning uchish ishiga yoki o‘qishga yaroqlilik masalasi ko‘rib chiqiladi.

Agar churraning qisilish xavfi bo‘lmasa hamda og‘riq sindromi kuzatilmasa, komissiyalar oralig‘i davrida rejali jarrohlik yo‘li bilan davolash tavsiya etiladi.

Bunda nomzodga cheklovlar (OML) qo‘llangan holda uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishi (o‘qishga yaroqli) mumkin.

Jarrohlik yo‘li bilan davolanishdan bosh tortgan nomzod uchish ishiga yoki (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

138. Katta bo‘lmagan, fiziologik halqa chegarasidagi kindik churrasi, qorin parda oldi lipomasi hamda jismoniy zo‘riqish yoki kuchanish vaqtida churra chiqishi kuzatilmaydigan chov halqasi kengayishi aniqlanganda, nomzodlar uchish ishiga (o‘qishga) yaroqli hisoblanadi.

Surunkali kolitlarda remissiya turg‘un bo‘lganda, doimiy dori vositalarini qabul qilish zaruriyati mavjud bo‘lmaganda, asoratlar kuzatilmaganda hamda sog‘liq holati barqaror ijobiy bo‘lganda, nomzodga o‘qishga va uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Bunda 3 yil muddatga TML cheklovi qo‘llaniladi.

Kron kasalligida va yarali kolitlarda nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Kuchli ifodalangan klinik ko‘rinishlar bilan kechuvchi qorin parda bitishmalarida nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Klinik belgilar bilan namoyon bo‘lmagan dolixosigma mavjud bo‘lsa, nomzodga uchish ishiga yoki o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilmaydi.

Ayollarning kichik chanoq a’zolarida o‘tkazilgan jarrohlik amaliyotlaridan keyin tibbiy xulosa ginekolog maslahati asosida jarroh tomonidan chiqariladi.

Radikal jarrohlik amaliyotlaridan keyin nomzodga 2 oydan 3 oygacha muddatga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Asoratlari bo‘lmagan gisterektomiyadan keyin 3 oy o‘tgach, jismoniy va ruhiy holati normada bo‘lgan hamda a’zolar funksiyasi saqlangan taqdirda nomzodning uchish ishiga (o‘qishga) yaroqliligi aniqlanadi.

Endoskopik, shu jumladan laparoskopik jarrohlik amaliyotlaridan keyin 1 yarim oydan 2 oygacha muddat o‘tgach nomzodning uchish ishiga (o‘qishga) yaroqliligi aniqlanadi.

Nomzodning sog‘ligi to‘liq tiklanganda, kasbiy vazifalarni xavfsiz bajarishga to‘sqinlik qiluvchi kasallik asoratlari mavjud bo‘lmaganda hamda mutaxassislarning ijobiy prognozi mavjud bo‘lganda, vakolatli organning tibbiy ekspertlari yaroqsizlik muddatlarini individual tartibda qisqartirishiga yo‘l qo‘yiladi.

139. To‘g‘ri ichak va pararektal biriktiruvchi to‘qimalar kasalliklari tez-tez xurujlar bilan kechganda, yaqqol ifodalangan klinik belgilar mavjud bo‘lganda, anus torayishi, a’zolar funksiyalarining buzilishi, oqma yaralar yoki boshqa patologik holatlar aniqlanganda, nomzodni terapevtik yoki jarrohlik yo‘li bilan davolash tavsiya etiladi.

Tavsiya etilgan davolash usullaridan bosh tortgan nomzod uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Davolash natijalari ijobiy bo‘lganda, shikoyatlar va klinik simptomlar mavjud bo‘lmaganda, turg‘un remissiya holati kuzatilganda, jarrohlik yarasi asoratlarsiz to‘liq bitganda, tibbiy tekshiruvlar natijalari normada bo‘lganda, ich kelishi me’yorlashganda hamda funksiyalar tiklanganda, nomzodga uchish ishiga, o‘qishga esa individual tartibda yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi. Bunda nomzodlarga 2 yil davomida har 6 oyda jarrohning dispanser kuzatuvi belgilanadi hamda zaruratga ko‘ra proktolog maslahati o‘tkaziladi.

Kasallik zo‘rayishi va funksional buzilishlar kuzatilmaganda, to‘g‘ri ichak tushishining boshlang‘ich shakllarida nomzodning uchish ishiga yaroqliligi individual tartibda aniqlanadi.

Chot sohasining kondilomatozida nomzodning uchish ishiga yaroqliligi dermatovenerolog maslahati asosida aniqlanadi.

140. Aorta anevrizmasi tashxisini aniqlash maqsadida aviatsiya xodimlarida transtorakal exokardiografiya, magnit-rezonans tomografiya yoki magnit-rezonans angiografiya o‘tkaziladi, zarur hollarda aortografiya ham amalga oshiriladi.

Aortaning ichki diametri 4,0 sm dan katta, biroq 5,0 sm dan kichik bo‘lganda, nomzodga TML cheklovi qo‘llangan holda 6 oygacha muddatga tibbiy xulosa berilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Aorta diametri 5,0 sm dan katta bo‘lgan hollarda nomzod uchish ishiga yaroqsiz deb topiladi.

Jarrohlik amaliyotidan keyin prognoz inobatga olingan holda, operativ davolash ijobiy natija berganda, xavf darajasi minimal bo‘lganda hamda koronar arteriya kasalligi mavjud bo‘lmaganda, nomzodga TML cheklovi hamda faqat ko‘p a’zoli ekipaj tarkibida uchish cheklovi qo‘llangan holda uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishi mumkin.

Yaroqli deb topilgan nomzodlar doimiy ravishda jarrohning dispanser kuzatuvida bo‘ladi va har 3 oyda nazorat tekshiruvlaridan o‘tkaziladi.

Nomzodda periferik tomirlar kasalliklari aniqlanganda, bosh miya hamda yurak-qon tomir tizimi chuqurlashtirilgan tibbiy tekshiruvdan o‘tkaziladi.

Koronar tomirlar bilan bog‘liq patologiyalarni aniqlash maqsadida farmakologik yuklama testi hamda talliy izotopi yordamida miokard perfuziyasini vizualizatsiya qilish tekshiruvi o‘tkazilishiga yo‘l qo‘yiladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

141. Endarteriit va obliteratsiyalovchi ateroskleroz holatlarida kasallikning bosqichi, klinik simptomlarning mavjudligi hamda o‘tkazilgan tekshiruvlar natijalari inobatga olingan holda nomzodning yaroqliligi aniqlanadi. Arteriyalarning obliteratsiyalovchi kasalliklarida trofik buzilishlar va og‘riq sindromi mavjud bo‘lganda, nomzod uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsiz deb topiladi.

Chuqur venalar trombozida antikoagulyant dori vositalari (varfarin, ksarelto va pradaksa) bilan davolash 3 oydan 6 oygacha davom etishi mumkinligini inobatga olib, mazkur dori vositalarini qabul qilish to‘liq to‘xtatilganidan keyin kamida 1 hafta o‘tgach nomzodning uchish ishiga yaroqliligi aniqlanadi.

Oyoq va qo‘llarning magistral arteriyalari hamda arteriovenoz anevrizmalarida o‘tkazilgan jarrohlik amaliyotlaridan keyin agar davolash natijasi ijobiy bo‘lsa, qo‘l-oyoqlarda qon aylanishi buzilishlari kuzatilmasa va qon aylanishining kompensatsiyalanganligi funksional tekshiruvlar bilan tasdiqlansa, nomzodga tegishli cheklovlar qo‘llangan holda uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Qon aylanishi buzilishining klinik belgilari kuzatilmaganda, biroq funksional tekshiruvlar natijalariga ko‘ra qon aylanishi normada bo‘lmaganda, nomzodga davolanish tavsiya etiladi.

Davolanish yakunlangandan so‘ng angiojarrohning xulosasi va prognozi inobatga olingan holda nomzodning yaroqliligi aniqlanadi, zarur hollarda esa qo‘shimcha tekshiruvlar o‘tkaziladi.

142. Magistral va periferik tomirlarda o‘tkazilgan jarrohlik amaliyotlaridan keyin agar funksiyaning vaqtincha buzilishi kuzatilsa hamda reabilitatsiya va mehnat qobiliyatini tiklash uchun 1 oydan ortiq muddat talab etilsa, nomzod uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsiz deb topiladi.

Venalarning varikoz kengayishida qon aylanishining dekompensatsiyasi, trofik buzilishlar, tugunlar ustidagi terining yupqalashishi hamda tomir yorilishi xavfi mavjud bo‘lganda, nomzod uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsiz deb topiladi.

Oyoq venalarining varikoz kengayishi jarrohlik yo‘li bilan davolanganda va davolash asoratlarsiz ijobiy natija berganda 3 hafta o‘tgach, angiojarrohning xulosasi va prognozi inobatga olingan holda nomzodning uchish ishiga (o‘qishga) yaroqliligi aniqlanadi.

143. Fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan nomzodlarga venalarning varikoz kengayishining faqat kompensatsiyalangan A darajasi mavjud bo‘lgan taqdirda yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Surunkali venoz yetishmovchilik kuzatilmaydigan teri osti yoki chuqur venalarning o‘tkir tromboflebiti, shuningdek Mondor kasalligi aniqlanganda, nomzod vaqtincha uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsiz deb topiladi.

Kasallikning o‘tkir belgilari yo‘qolganda, vena bo‘ylab infiltrat so‘rilganda, qonning umumiy tahlili hamda koagulogramma ko‘rsatkichlari normada bo‘lganda, angijarroh xulosasi asosida jarroh tomonidan nomzodga uchish ishiga (o‘qishga) ruxsat beriladi hamda dispanser kuzatuvi belgilanadi.

Limfa tugunlari shikastlanganda aviatsiya xodimlari tegishli mutaxassislar ko‘rigidan o‘tkazilishi zarur.

Limfa tugunlari tuberkulyozida, to‘liq klinik sog‘ayish kuzatilganda va tuberkulyozga qarshi dispanser nazoratidan chiqarilgandan keyin yoki uchinchi guruhga o‘tkazilganda, aviatsiya xodimining kasbiy faoliyatiga qayta tiklanish masalasi ftiziatr bilan birgalikda ko‘rib chiqiladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Limfa tugunlari tuberkulyozi va aktinomikozini o‘tkazgan uchuvchilar aviatsiya kimyoviy ishlarida uchish ishiga yaroqsiz hisoblanadi.

Nomozdda varikotsele bo‘yicha jarrohlik amaliyoti o‘tkazilgandan keyin mehnatga layoqatsizlik varaqasi yopilgach, jarroh ko‘rigi asosida unga uchish ishiga ruxsat beriladi.

144. Oyoq-qo‘l tomirlarining trombangiiti va aortoarteriitida, obliteratsiyalovchi ateroskleroznin III–IV bosqichlarida, surunkali venoz yetishmovchilik bilan kechuvchi posttrombotik va varikoz kasalliklarida, fil oyoqlilikning II–IV darajalarida, angiotrofonevrozlarning II–III bosqichlarida, shuningdek urug‘ tizimchasi venalarining varikoz kengayishining III darajasida nomzodlar uchish ishiga yoki o‘qishga yaroqsiz deb topiladi.

Og‘riq sindromi va funksional buzilishlar bilan kechuvchi urug‘ tizimchasi venalarining varikoz kengayishida nomzodga jarrohlik yo‘li bilan davolash tavsiya etiladi. Davolash ijobiy natija bergan taqdirda yaroqlilik masalasi ko‘rib chiqiladi.

Urug‘ tizimchasi venalarining varikoz kengayishining I darajasida, venalar konglomerati kam ifodalanganda va qorin mushaklari taranglashganda uning sezilarli kuchayishi kuzatilmaganda, nomzod uchish ishiga (o‘qishga) yaroqli deb topiladi.

Urug‘ tizimchasi venalarining varikoz kengayishining II va III darajalarida nomzod o‘qishga yaroqsiz deb topiladi.

145. Nomzodlarda siydik-tanosil tizimi kasalliklari, rivojlanish anomaliyalari yoki shikastlanishlari bilan bog‘liq bo‘lganda, tegishli guvohnomada nazarda tutilgan kasbiy majburiyatlarni xavfsiz bajarishga monelik qiluvchi organik yoki funksional buzilishlar aniqlanmaganda, ularga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Funksional buzilishlar bilan kechmaydigan I va II darajali nefroptozda nomzodlar uchish ishiga yaroqli deb topiladi, biroq uchuvchilikka o‘qishga kirayotgan nomzodlar o‘qishga yaroqsiz deb topiladi.

III darajali nefroptozda nomzodga uchish ishiga yoki o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Birlamchi gidronefrozda nomzodlar uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsiz deb topiladi.

Jarrohlik yo‘li bilan muvaffaqiyatli davolangan aviatsiya xodimlari gidronefrotik transformatsiya to‘liq bartaraf etilganda va buyraklar funksiyasi yaxshi saqlanganda, ular uchish ishiga yaroqli deb topilishi mumkin.

Ikkilamchi gidronefrozda gidronefrotik transformatsiya sabablari bartaraf etilganda, uning qayta rivojlanishi kuzatilmaganda hamda buyraklar funksiyasining o‘rtacha yoki og‘ir darajadagi buzilishlari aniqlanmaganda, aviatsiya xodimlariga cheklovlar qo‘llangan holda uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

146. Tug‘ma ravishda bitta buyrakning yo‘qligida yoki nefrektomiyadan keyin buyrak funksiyasining saqlanganlik darajasi inobatga olingan holda, nomzodga nisbatan tibbiy xulosa individual tartibda chiqariladi.

Moyakni olib tashlash bo‘yicha jarrohlik amaliyotini, jumladan moyakning qorin bo‘shlig‘ida ushlanib qolishi yoki ektopiyasi sababli o‘tkazgan, shuningdek boshcha gipospadiyasi mavjud bo‘lgan nomzodlar uchish ishiga yoki o‘qishga yaroqli deb hisoblanadi.

Kriptorxizmda moyakni tushirish bilan bog‘liq jarrohlik amaliyotidan keyin davolash natijalari ijobiy bo‘lganda, kamida 3 hafta o‘tgach nomzodga uchish ishiga (o‘qishga) ruxsat beriladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Prostata bezining xavfsiz giperplaziyasida, jarrohlik yo‘li bilan davolashga ko‘rsatmalar mavjud bo‘lmaganda va funksional buzilishlar aniqlanmaganda, nomzodga uchish ishiga, o‘qishga, ishga yoki HHB ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Prostata bezining xavfsiz giperplaziyasi simptomatik obstruksiya bilan kechganda esa, nomzod vaqtincha yaroqsiz deb topiladi.

147. Urologik kasalliklar yoki ular sababli o‘tkazilgan jarrohlik amaliyotlaridan keyin nomzodning xizmatga (yoki faoliyatga) yaroqliligi quyidagi shartlar bajarilganda aniqlanadi:

tegishli mutaxassis tomonidan individual tartibda ishlab chiqilgan antibakterial terapiyaga idiosinkratik reaksiyaning mavjud emasligi;

aktiv davolash bosqichi boshlanganidan keyin gemodinamik holatning to‘liq barqarorlashganligi;

kamida 14 kun davomida individual antibakterial davolash kursi o‘tkazilganligi (ayollarda uchraydigan oddiy sistit holatlari bundan mustasno);

takroriy o‘tkazilgan bakteriologik ekmalar natijalarida patogen mikroorganizmlar aniqlanmaganligi;

infeksiya asoratlar mavjud emasligi;

urologik tekshiruvlar natijasida anatomik yoki boshqa patologik o‘zgarishlarning aniqlanmaganligi;

siydik chiqarish tizimi organlari funksiyalarining saqlanganligi.

Mazkur shartlar bajarilganda nomzodning yaroqliligi urolog shifokorining xulosasi va tibbiy prognozi asosida belgilanadi.

148. Residiv ehtimoli yuqori bo‘lganda, simptomlari tez rivojlanadigan hamda siydik yo‘llari infeksiyasi bilan kechuvchi urologik kasalliklar aniqlanganda nomzodlar uchish ishidan vaqtincha chetlatiladi.

To‘liq davolanish o‘tkazilib, klinik va laborator tekshiruv natijalari ijobiy bo‘lganda nomzodlar uchish ishiga yaroqlilik masalasi tibbiy xulosa asosida qayta ko‘rib chiqiladi.

149. Asoratlarsiz kechuvchi oddiy sistit aniqlanganda ayollar 5 kun muddatga uchish ishidan vaqtincha chetlatiladi.

Buyraklar va siydik-tanosil tizimi organlarining sil kasalligining faol shakli aniqlanganda nomzod uchish ishiga yaroqsiz deb topiladi.

Kasallik to‘liq davolanib, sog‘ayish tasdiqlangandan hamda organlar funksiyasi saqlangan taqdirda nomzodning yaroqlilik masalasi qayta ko‘rib chiqilishiga yo‘l qo‘yiladi.

150. Siydik tutolmaslik (doimiy, stress bilan bog‘liq, urgent yoki siydik pufagining to‘lib ketishi bilan bog‘liq shakllari) aniqlanganda yakuniy tashxis qo‘yilgunga qadar hamda to‘liq davolanish davrida aviatsiya xodimlari uchish ishidan vaqtincha chetlatiladi. Kasallik to‘liq davolanib, uni keltirib chiqaruvchi sabablar bartaraf etilganda uchish ishiga yaroqliligi aniqlanadi.

151. O‘tkir glomerulonefrit yoki pielonefrit aniqlanganda aviatsiya xodimlari 3 oydan 6 oygacha muddatga uchish ishidan vaqtincha chetlatiladi.

To‘liq sog‘ayish tasdiqlangandan keyin, kasallik simptomlarining namoyon bo‘lish darajasi, remissiyaning turg‘unligi, infeksiyaning bartaraf etilganligi hamda boshqa klinik mezonlar hisobga olingan holda uchish ishiga yaroqlilik masalasi tibbiy xulosa asosida aniqlanadi. Tibbiy xulosa chiqarishda TML va OML ekspluatatsiya cheklovlari qo‘llaniladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Mazkur aviatsiya xodimlarini tibbiy kuzatuv maqsadida har 3 oyda qondagi kreatinin miqdori, umumiy peshob tahlili va zaruratga koʻra boshqa qoʻshimcha tekshiruvlar oʻtkaziladi.

Kasallik remissiya bosqichida quyidagi holatlar aniqlanganda aviatsiya xodimlari uchish ishiga yaroqsiz deb topiladi:

arterial qon bosimi 160/95 mm simob ustunidan yuqori boʻlsa;

proteinuriya 2–3 g/l yoki undan yuqori boʻlsa;

buyrak yetishmovchiligining klinik belgilari mavjud boʻlsa;

qondagi kreatinin miqdori 150–200 mkmol/l yoki undan yuqori boʻlsa.

152. Buyrakdan yakka tosh chiqqanda, jarrohlik yoʻli bilan tosh olib tashlanganda yoki konkrementlarning koʻchishi sababli buyrak sanchigʻi kuzatilganda, nomzodlarga toʻliq davolanishdan soʻng navbatdan tashqari tibbiy koʻrikdan oʻtkaziladi.

Tibbiy koʻrik natijalari quyidagi mezonlarga mos boʻlgan taqdirda:

umumiy tibbiy tekshiruv natijalari normada boʻlsa;

umumiy peshob tahlili va sutkalik peshob tahlillari normada boʻlsa;

peshob bakteriologik ekmasida mikroorganizmlar aniqlanmasa;

konkrement turi aniqlangan boʻlsa;

ogʻriq sindromi mavjud boʻlmasa;

buyraklar funksiyasi yaxshi saqlangan boʻlsa, ikki tomonlama boshqariladigan havo kemalari uchuvchilariga 3 yil muddatga OML ekspluatatsion cheklovi qoʻllangan holda uchish ishiga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Buyrakdagi tosh kasalligi residiv qilganda, tijorat aviatsiyasi uchuvchilariga “faqat ikkinchi uchuvchi bilan uchish” yoki “faqat ikkinchi uchuvchi mavjudligida uchish” kabi ekspluatatsion cheklovlar qoʻllanishi mumkin.

Bunday shaxslarga har 6 oyda urolog mutaxassisining dispanser kuzatuvi doimiy ravishda belgilanadi.

Bir tomonlama boshqariladigan havo kemalari uchuvchilari toʻliq davolanib, sogʻayganidan keyin hamda barcha tibbiy tekshiruv natijalari ijobiy boʻlganda, uchish ishiga yaroqli deb topilishi mumkin.

Mazkur shaxslarga ham har 6 oyda urolog dispanser kuzatuvi belgilanadi.

153. Buyrak va peshob chiqarish yoʻllarida mikrolitlar aniqlanishi, oʻz-oʻzidan, peshob tosh kasalligi tashxisini qoʻyish uchun asos boʻlmaydi.

Buyrak va peshob yoʻllarida morfologik hamda funksional oʻzgarishlar aniqlanmaganda, aviatsiya xodimlari uchish ishiga yaroqli deb topiladi.

Asoratlarsiz kechgan ekstrakorporal litotripsiya yoki teri orqali litotomiya oʻtkazilgandan keyin aviatsiya xodimlarining uchish ishiga yaroqliligi kamida 1 oy oʻtgach, klinik, laborator va instrumental tekshiruvlar natijalari asosida aniqlanadi.

Buyrak kosachasi divertikulida, buyrak parenximasida yoki kista ichida joylashgan, klinik belgilarsiz kechuvchi hamda mehnat qobiliyatining toʻsatdan yoʻqolishiga olib kelmaydigan toshlar mavjud boʻlganda, aviatsiya xodimlarining uchish ishiga yaroqlilik individual tartibda aniqlanadi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

5-bob. Teri-tanosil kasalliklari

154. Nomzodlarda tegishli guvohnomada nazarda tutilgan kasbiy majburiyatlarni xavfsiz bajarishga monelik qiladigan teri-tanosil kasalliklari aniqlanmaganda, ularga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Surunkali, qaytalanuvchi ekzema aniqlanganda nomzodlar uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsiz deb topiladi.

Ekzemaning yengil shakllarida, shuningdek teri zamburug‘li shikastlanishlari, parazitar kasalliklar (leyshmanioz, qo‘tir), piodermiya hamda boshqa teri-tanosil kasalliklarining o‘tkir bosqichida nomzodlar davolanishi zarur.

Davolanish yakunlanib, tekshiruv natijalari ijobiy bo‘lganda hamda sog‘ayish tasdiqlangandan keyin dermatolog mutaxassisning xulosasi va prognozi asosida nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Ixtioz va tangachali temiratkining (psoriazning) chegaralanganda va yengil shakllarida, nomzodning umumiy sog‘lig‘i qoniqarli bo‘lganda, unga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Teri va teri osti biriktiruvchi to‘qima kasalliklarining keng tarqalgan shakllari, davolash natijalari qoniqarsiz bo‘lgan holatlarda, shuningdek surunkali og‘ir kechuvchi shakllari aniqlanganda, nomzodlar uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsiz deb topiladi.

Virusli gepatit yoki gemorragik bezgak kasalliklari o‘tkazilgandan keyin nomzodlarning uchish ishiga yaroqliligi kamida 3–6 oy o‘tgach, organlar funksiyalari saqlanganligi, tekshiruv natijalari normada ekanligi hamda sog‘lig‘i tiklanganligi tasdiqlangan taqdirda, tegishli mutaxassis shifokorning xulosasi va prognozi asosida aniqlanadi.

Aviatsiya kimyoviy ishlari bilan bog‘liq uchuvchilikka 12 oydan keyin ruxsat etiladi,(mineral o‘g‘itlar bilan ishlash bundan mustasno).

155. OITS kasalligi tashxisi aniqlanganda barcha nomzodlar uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsiz deb topiladi hamda bu haqda tibbiy xulosa chiqariladi.

Nomzodlarda jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalar yoki yuqumli teri kasalliklari aniqlanganda yoxud ulardan shubha qilinganda ular teri-tanosil kasalliklari dispanserida majburiy tartibda tekshiruvdan o‘tkazilishi va davolanishi lozim.

Tashxis tasdiqlanib, kasallik to‘liq davolangandan, klinik, laborator va instrumental tekshiruv natijalari normada bo‘lgandan keyin nomzodning uchish ishiga (o‘qishga) yaroqliligi dermatovenerolog mutaxassisning xulosasi va prognozi asosida aniqlanadi.

6-bob. Ginekologik kasalliklar va homiladorlik

156. Quyidagi holatlar aniqlanganda barcha nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi:

funksional buzilishlar va og‘riq sindromi bilan kechuvchi anatomik defektlarning asoratlari mavjud bo‘lgan surunkali ginekologik kasalliklarda;

yallig‘lanish jarayonlarining yilda 3 martadan ortiq residivlarida;

qin devori va bachadonning III darajali pastga tushishida;

siydik-tanosil va ichak-tanosil oqma yaralarida;

orqa chiqaruv yo‘li sfinkteri funksiyasining buzilishi bilan kechuvchi chotning yirtilishida;

bachadonning noto‘g‘ri joylashuvi yoki yetilmaganligida;

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

ikki shoxli bachadon mavjud bo‘lib, funksional buzilishlar (bachadondan qon ketishi, og‘riq) kuzatilganda.

157. Surunkali ginekologik kasalliklarning o‘tkir bosqichida nomzodlar davolanishi lozim.

Davolanish natijalari ijobiy bo‘lganda, sog‘ayish tasdiqlangandan keyin nomzodlar uchish ishiga ruxsat etiladi hamda remissiyaning turg‘unligini aniqlash maqsadida ularga 2 hayz davri davomida ginekolog mutaxassisining tibbiy kuzatuvi belgilanadi.

158. Quyidagi holatlar aniqlanganda nomzodlarga yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqarilmaydi:

kichik tos sohasida og‘riq sindromisiz kechuvchi chandiqli bitishmalar;

funksional buzilishlarsiz bachadon, tuxumdon yoki fallopiy naylarining tug‘ma yo‘qligi;

qinning atreziyasi;

bepushtlik.

159. Bachadon bo‘yni kasalliklarida (endotservitsit, eroziya, ektropion eroziyasi), shuningdek trixomonad kolpiti va trixomoniaz aniqlanganda nomzodlar 3 haftagacha muddatga davolanish uchun uchish ishidan vaqtincha chetlatiladi.

Funksional buzilishlarsiz qin devori va bachadonning I–II darajali pastga tushishi aniqlanganda aviatsiya xodimlari uchish ishiga yaroqli deb topiladi hamda ularga ginekolog mutaxassisining dispanser kuzatuvi belgilanadi.

Siydik-tanosil va ichak-tanosil oqma yaralari jarrohlik usuli bilan davolangandan keyin davolash natijalari ijobiy bo‘lganda, aviatsiya xodimlari uchish ishiga yaroqlilik masalasi qayta ko‘rib chiqiladi.

160. Ayollar jinsiy organlarida o‘tkazilgan jarrohlik amaliyotlaridan keyin asoratlar bo‘lmaganda va organlar funksiyalari saqlanganda, aviatsiya xodimining uchish ishiga qayta tiklanish masalasi quyidagi muddatlardan keyin ko‘rib chiqiladi:

laparotomiya operatsiyalaridan keyin – kamida 2 oy o‘tgach;

laparoskopik operatsiyalardan keyin – 4–6 hafta o‘tgach;

total gisterektomiyadan keyin – kamida 6 oy o‘tgach.

Mazkur hollarda postovariektomik, klimakterik va predmenstrual sindromlar, shuningdek ruhiy-emotsional buzilishlar va vegetativ disfunksiya mavjudligi hamda ularning ifodalanish darajasi hisobga olinadi.

Ayollar jinsiy organlarida diametri 5 sm dan katta kista yoki yaxshi sifatli o‘smalar aniqlanganda aviatsiya xodimlari jarrohlik davolanish uchun uchish ishidan vaqtincha chetlatiladi.

Davolanish natijalari ijobiy bo‘lganda, ginekolog-jarrohning xulosasi asosida aviatsiya xodimining uchish ishiga yaroqlilik masalasi aniqlanadi.

161. Klinik belgilarsiz kechuvchi, funksional buzilishlar bilan kechmaydigan kichik hajmdagi bachadon miomasi, endometrioz hamda diametri 5 sm dan oshmaydigan endometriy va follikulyar kistalar aniqlanganda aviatsiya xodimi uchish ishiga yaroqli deb hisoblanadi.

162. Tuxumdonlar disfunksiyasi mavjud bo‘lganda, aviatsiya xodimlari uchish ishidan chetlatilmagan holda tekshiruvdan o‘tkazilishi hamda davolanishi mumkin.

Ushbu holatda uchish ishiga yaroqlilik endokrinolog va ginekolog-endokrinolog mutaxassislarining xulosalari hamda kasallik prognozi hisobga olingan holda belgilanadi.

163. Bachadondan disfunksional qon ketishida aviatsiya xodimlari davolanishi lozim.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Birlamchi algomenoreya va dismenoreyada uchish ishiga yaroqlilik klinik belgilarning ifodalanish darajasi, davomiyligi, funksional majburiyatlarni bajarish imkoniyati hamda boshqa tibbiy mezonlar hisobga olingan holda, ginekolog mutaxassisining xulosasiga koʻra individual tartibda aniqlanadi.

Ikkilamchi dismenoreyada uchish ishiga yaroqlilik har tomonlama tekshiruv natijalari, mutaxassislar xulosalari va kasallik prognozi asosida belgilanadi.

Hayz koʻrish davrida aviatsiya xodimlari tibbiy koʻrikdan oʻtkazilmaydi va uchish ishidan 3 kungacha chetlatiladi.

164. Quyidagi holatlarda aviatsiya xodimlari jarrohlik usuli bilan davolanishga yuboriladi:

hajmi 12 haftalik homiladorlik muddatiga teng yoki undan katta boʻlgan bachadon miomasi mavjud boʻlganda;

mioma tugunining shilliq ostida joylashuvi aniqlanganda;

mioma tugunining sentripetal oʻsishi kuzatilganda;

mioma tugunining qin tomonga joylashuvi aniqlanganda;

bachadondan qon ketish kuzatilganda;

tugunda modda almashinuvi buzilishi belgilari mavjud boʻlganda;

ikkilamchi anemiya rivojlanganda;

yondosh organlar funksiyasining buzilishiga olib keluvchi holatlar mavjud boʻlganda;

peshob chiqarish obstruksiyasi yoki oʻtkir peshob tutilishi xavfi mavjud boʻlganda.

165. Ichki endometrioz klinik belgilar bilan kechganda va anemiya bilan asoratlanganda aviatsiya xodimlari uchish ishiga yaroqsiz deb topiladi.

Ogʻriq sindromisiz kechuvchi, klinik belgilarsiz yoki kam ifodalangan tashqi genital endometriozda aviatsiya xodimining uchish ishiga yaroqlilik individual tartibda belgilanadi.

166. Tuxumdonlarning funksional kistalari residivga moyil boʻlganda, shuningdek follikulyar yoki lyuteinli kistalar 1 yil davomida 2 martadan ortiq kuzatilganda, aviatsiya xodimiga uchish ishiga (oʻqishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Bachadon boʻynining tugʻma eroziyasi, ektropioni yoki ektopiyasi uchish ishidan chetlatish uchun asos hisoblanmaydi.

Bachadon boʻynining IA darajali intraepitelial saratoni boʻlganda, organ saqlovchi jarrohlik amaliyotidan keyin tekshiruv natijalari ijobiy boʻlsa hamda onkologning xulosasi va kasallik prognozi hisobga olingan holda aviatsiya xodimlariga uchish ishiga yaroqlilik individual tartibda belgilanadi.

167. Homiladorlik aniqlanganda aviatsiya xodimlariga uchish ishiga yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Aviatsiya xodimlarini homiladorlik sababli uchish ishidan chetlatish hamda tugʻruqdan keyin uchish ishiga ruxsat berish akusher-ginekologning xulosasiga asosan jarroh tomonidan amalga oshiriladi.

Sun’iy abort (homilani vakuum-aspiratsiya yoki dilatatsiya yoʻli bilan chiqarib tashlash) hamda kyuretaj oʻtkazilgandan keyin kamida 2 hafta oʻtgach, jarrohlik amaliyotidan keyingi asoratlar mavjud boʻlmaganda va aviatsiya xodimlarining umumiy sogʻliq holati normada boʻlganda, shuningdek homiladorlik muddati bilan bogʻliq asoratlar (qon ketishi, kichik tos a’zolarining yallig‘lanish kasalliklari, peritonit va septik holatlar) mavjud emasligi yoki ularning rivojlanish xavfi baholangandan soʻng akusher-ginekologning xulosasi va prognozi asosida jarroh tomonidan ularga uchish ishiga ruxsat beriladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Istalgan homiladorlikda vaqtidan ilgari homila tushishi holatlarida uchish ishiga yaroqlilik masalasi abortdan keyingi ruhiy holat, umumiy klinik ahvol, o‘tkazilgan davolash natijalari hamda akusher-ginekologning xulosasi hisobga olingan holda individual tartibda aniqlanadi.

7-bob. Oftalmologik kasalliklar

168. Nomzodlarda tegishli guvohnoma va malaka belgilari bilan nazarda tutilgan huquqlarni xavfsiz amalga oshirishga monelik qiluvchi tug‘ma yoki orttirilgan nuqsonlar, anomaliyalar, o‘tkir yoki surunkali kasalliklar, shuningdek ko‘z va uning qo‘shimcha apparati jarohatlari, ko‘rish organlarida o‘tkazilgan jarrohlik amaliyotlaridan keyingi asoratlar hamda ko‘rish funksiyasining buzilishlari bo‘lmasligi kerak.

Nomzodlarning ko‘rish maydoni, ko‘z ichki bosimi, binokulyar ko‘rish funksiyasi va ranglarni ajratish qobiliyati normada bo‘lishi yoxud o‘z kasbiy majburiyatlarini xavfsiz bajarish uchun yetarli darajada saqlangan bo‘lishi zarur.

Nomzodlar ko‘zda har qanday jarrohlik davolash usuli qo‘llanishidan oldin, jarrohlik amaliyotlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan asoratlar, uchish ishiga yaroqsizlikka olib kelishi ehtimoli mavjud bo‘lgan omillar, shuningdek uchish ishiga qayta tiklanish muddatlari to‘g‘risida oftalmolog mutaxassis bilan maslahatdan o‘tishi lozim.

169. Nomzodning kasbiy vazifa va majburiyatlarini xavfsiz bajarishiga monelik qiluvchi quyidagi ko‘z kasalliklari, nuqsonlari, jarohatlari va patologik holatlari mavjud bo‘lganda ular uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi:

ko‘zning himoya funksiyasini buzuvchi qovoqlar funksional buzilishlari;

qovoqlarning o‘zaro yoki ko‘z olmasi bilan bitishib ketishi;

ko‘rish maydoni buzilishiga olib keluvchi ptoz, qovoq va ko‘z mushaklarining falaji, shu jumladan ektropion va entropion;

qovoq funksiyasini buzuvchi katta hajmli yoyilgan o‘smalar;

ko‘rish funksiyasining buzilishiga olib keluvchi residivlanuvchi keratit, shox parda yarasi, degeneratsiyasi, chandiqlari, yallig‘lanishlari va vaskulyarizatsiyasi;

funksional buzilish bilan kechuvchi turli etiologiyali keratitlar;

keratokonus;

ko‘zning rangdor pardasi yoki tomir pardasi kolobomasi;

asoratlar bilan kechuvchi uveitlar;

ko‘zning doimiy yoshlanishiga sabab bo‘luvchi ko‘z yoshi nuqtalarining noto‘g‘ri joylashuvi;

ko‘z yoshi yo‘llarining torayishi yoki obstruksiyasi;

ko‘z yoshi bezining yallig‘lanishi yoki jarohatli shikastlanishlari;

pigmentli retinopatiya bilan kechuvchi yoki usiz kuzatiluvchi to‘r pardaning barcha turdagi tapetoretinal degeneratsiyalari;

to‘r pardaning ko‘chishi yoki retinoshizis;

sariq dog‘ (makula) sohasining har qanday etiologiyali buzilishlari;

har qanday etiologiyali retrobulbar nevrit;

patologik nistagm;

ko‘rish nervi atrofiyasi;

ko‘z qorachig‘ining me’yoriy reflekslari yo‘qolishi;

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

ko‘rish o‘tkirligi yoki ko‘rish maydoniga salbiy ta’sir qiluvchi va ko‘rlikka olib keluvchi katarakta;

bir tomonlama yoki ikki tomonlama afakiya;

ko‘z gavharining to‘liq yoki qisman siljishi;

ko‘z, uning qo‘shimcha apparati yoki ko‘z kosasining xavfli o‘smalari;

ko‘z olmasi harakatini qiyinlashtiruvchi yoki ko‘z kosasining burun yondosh bo‘shliqlari yoxud bosh chanog‘i bo‘shlig‘i bilan anatomik bog‘liqligini buzuvchi ko‘z kosasi sinishlari;

ko‘z ichidagi yot jismlar;

tungi ko‘rlik (niktalopiya);

ko‘rish tizimining buzilishiga olib keluvchi boshqa jarohatlar va kasalliklar.

Ko‘z kasalliklari va jarohatlari davolangandan keyin davolash natijalari ijobiy bo‘lganda, atroflicha va puxta o‘tkazilgan oftalmologik tekshiruvlar natijalari qoniqarli bo‘lsa, ko‘rish funksiyasi kasbiy vazifalarni xavfsiz bajarish uchun yetarli darajada saqlanganda, ko‘rish maydoni buzilishlari mavjud bo‘lmaganda hamda ko‘z yoshi apparati funksiyasi tiklanganda, nomzodlarning uchish ishiga yaroqlilik masalasi individual tartibda aniqlanadi.

170. Oddiy blefaritlar, ko‘rish funksiyasi buzilmagan tug‘ma ptozda (nevrolog maslahati olingandan keyin), kichik hajmdagi simptomlarsiz va rivojlanmaydigan xavfsiz o‘smalarda, qovoqlardagi funksional ahamiyatga ega bo‘lmagan chandiqli o‘zgarishlarda, kuchli ifodalanmagan kon’yunktivitlarda, shuningdek residivlari bo‘lmagan va ko‘rish organlari funksiyalari buzilishi bilan kechmaydigan ko‘z kasalliklarida nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqarilmaydi. Ushbu holatlar davolanib, davolash natijalari ijobiy bo‘lganda nomzodlar uchish ishiga (o‘qishga) ruxsat beriladi.

Qovoqlardagi o‘smalar jarrohlik yo‘li bilan davolangandan so‘ng asoratlar, metastazlar va o‘smaning qaytalanishi mavjud bo‘lmaganda, onkologning xulosasi hamda kasallik prognozi ijobiy bo‘lsa, nomzodlarning uchish ishiga yaroqliligi aniqlanadi.

171. Uveitlar, uzoq davom etuvchi va residivlanuvchi iridosiklitlar, keratitlar, xorioretinitlar, nevritlar hamda ko‘z olmasi jarohatlari aniqlanganda nomzodlar davolanadi.

To‘liq klinik sog‘ayish kuzatilgandan keyin maxsus oftalmologik tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lsa, ko‘rish tizimi funksiyalari kasbiy majburiyatlarni xavfsiz bajarish uchun yetarli darajada saqlangan bo‘lsa, shuningdek mutaxassis shifokor xulosasi va kasallik prognozi hisobga olingan holda, nomzodlarga uchish ishiga ruxsat berish to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

172. Markaziy seroz retinopatiya yoki to‘r pardaning ajralishi (yirilishi) aniqlanganda nomzodlarga uchish ishiga yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Mazkur kasalliklar davolangandan keyin ko‘rish funksiyalari kasbiy majburiyatlarni xavfsiz bajarish uchun yetarli darajada saqlanganda, tekshiruv natijalari ijobiy bo‘lganda hamda oftalmologning xulosasi va kasallik prognozi qulay deb topilganda, nomzodlarning uchish ishiga yaroqliligi individual tartibda aniqlanadi.

173. To‘r pardaning ajralishi yoki periferik yorilishi lazer usuli bilan ijobiy davolangandan keyin ko‘rish funksiyalari va periferik ko‘rish maydoni kasbiy majburiyatlarni xavfsiz bajarish uchun yetarli darajada saqlanganda, tekshiruv natijalari ijobiy bo‘lganda, oftalmolog mutaxassisning xulosasi va kasallik prognozi asosida cheklovlar qo‘llangan holda nomzodlar uchish ishiga yaroqlilik aniqlanadi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

174. Ko‘rish funksiyalari kasbiy majburiyatlarni xavfsiz bajarish uchun yetarli darajada saqlanganda, progressiv kechmaydigan boshlang‘ich qarilik kataraktasi, ko‘z gavhari xiralashuvining chegaralangan shakllari, makulodistrofiya, ko‘rish nervining boshlang‘ich va progressiv bo‘lmagan atrofiyasi, shuningdek shishasimon tananing shikastlanishlari aniqlanganda nomzodlarning uchish ishiga yaroqliligi individual tartibda aniqlanadi.

175. Monofokal intraokulyar linza implantatsiyasi o‘tkazilganda, davolanishdan keyin kamida 6–8 hafta o‘tgach, jarrohlik amaliyotidan keyingi asoratlar mavjud bo‘lmaganda, ko‘rish funksiyalari tiklanganda, dori vositalari bilan davolash to‘liq yakunlanganda hamda har tomonlama o‘tkazilgan oftalmologik tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lganda, nomzodlar uchish ishiga yaroqliligi individual tartibda aniqlanadi.

Aviatsiya faoliyatida bir ko‘zga yoki ikki ko‘zga faqat monofokal intraokulyar linza implantatsiyasi o‘tkazilgan hollarda nomzodlarning uchish ishiga yaroqlilik (multifokal sun’iy ko‘z gavhari implantatsiyasi bundan mustasno) aniqlanadi.

Lazerli jarrohlik usullari qo‘llanilganda:

to‘r pardaning lazerli koagulyatsiyasidan keyin – kamida 2 hafta o‘tgach;

lazerli in situ keratomilezdan keyin – 4–6 hafta o‘tgach ko‘rish funksiyalarining saqlanganlik darajasi, tekshiruv natijalari hamda oftalmolog mutaxassisning xulosasi hisobga olingan holda nomzodning uchish ishiga yaroqlilik aniqlanadi.

176. Refraksiya jarrohlik usullari bilan davolash o‘tkazilgandan keyin jarrohlik amaliyotidan keyingi asoratlar mavjud bo‘lmaganda, ko‘rish funksiyalari va ko‘rish o‘tkirligi kasbiy majburiyatlarni xavfsiz bajarish uchun yetarli darajada saqlangan bo‘lsa, muguz parda xiralashuvi aniqlanmasa, shuningdek fotopsiya, oreol effekti, siljib yuruvchi tasvirlar va boshqa shunga o‘xshash ko‘rish buzilishlari bo‘yicha shikoyatlar mavjud bo‘lmasa, qorong‘ilikka adaptatsiya qoniqarli bo‘lsa hamda tekshiruv natijalari ijobiy bo‘lsa, oftalmolog-jarrohning xulosasi va kasallik prognozi hisobga olingan holda nomzodning uchish ishiga yaroqliligi individual tartibda aniqlanadi.

Fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlarida o‘qishga kiruvchi nomzodlarda refraksion jarrohlik usullari qo‘llanilganda, jarrohlik amaliyotigacha bo‘lgan refraksiya ko‘rsatkichlari +4,0 D / -3,0 D dan, silindrik komponent esa ±1,5 D dan oshmaganda, ularga o‘qishga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

177. Refraksion jarrohlik usullari qo‘llanilgandan keyin uchish ishiga qayta tiklanish muddati qo‘llanilgan jarrohlik usuli, ko‘z funksiyalarining tiklanish darajasi, kasallikning residiv ehtimoli hamda prognozi hisobga olingan holda 3 oydan 6 oygacha muddatda vakolatli organ tibbiy ekspertlari tomonidan individual tartibda belgilanadi.

Mazkur shaxslarga oftalmolog mutaxassisning dispanser kuzatuvi belgilanadi va u har 6 oyda o‘tkaziladi.

Ko‘z olmasining yallig‘lanish-degenerativ kasalliklari hamda ko‘z tomir tizimi funksiyasining buzilishlari aniqlanganda, nomzodlarga uchish ishiga yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

178. Quyidagi tug‘ma anatomik xususiyatlar mavjud bo‘lganda fuqaro aviatsiyasi o‘quv tashkilotlariga o‘qishga nomzodlar yaroqli deb topiladilar:

ko‘z gavhari kapsulasidagi mayda pigment nuqtalari;

shishasimon tanadagi arteriya qoldiqlari;

to‘r pardadagi mielin tolalari.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

179. Har bir tibbiy ko‘rik vaqtida nomzodlarda qorong‘ilikka adaptatsiya tekshiriladi.

Agar qorong‘ilikka adaptatsiya pasayishi aniqlansa, qo‘shimcha tekshiruv o‘tkaziladi. Ko‘rsatkichlar qo‘llanilayotgan diagnostik qurilma yo‘riqnomasida belgilangan me’yoriy ko‘rsatkichlarga mos bo‘lishi lozim.

Ko‘rsatkichlar normada bo‘lmaganda, asosiy kasallik aniqlanadi va davolanadi. Davolash natijalari ijobiy bo‘lganda, nomzodlar uchish ishiga yaroqlilik masalasi qayta ko‘rib chiqiladi.

180. Quyidagi kasalliklar aniqlanganda fuqaro aviatsiyasi tashkilotlariga uchuvchilikka o‘qishga nomzodlarga yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi:

ko‘z gavhari kolobomasi;

ko‘z rangdor pardasi kolobomasi;

polikoriya;

tug‘ma katarakta;

ko‘rish nervi diskining kasalliklari.

181. Shikoyatlar hamda tekshiruv natijalari asosida glaukoma gumoni mavjud bo‘lganda ixtisoslashtirilgan muassasada nomzodning tashxisi va kasallik prognozi aniqlanadi.

Impression tonometriya natijalariga ko‘ra Fridenvald jadvali bo‘yicha ko‘z ichki bosimining turg‘un ko‘rsatkichi 24 mm simob ustuniga teng yoki undan yuqori bo‘lganda, yoxud ikki ko‘z orasidagi ko‘z ichki bosimi farqi 5 mm simob ustuniga teng yoki undan yuqori bo‘lganda, nomzodlarga qo‘shimcha oftalmologik tekshiruvlar (gonioskopiya, fundoskopiya, ko‘rish maydonini aniqlash va boshqalar) o‘tkaziladi.

182. Ko‘rish nervi shikastlanmaganda, ko‘rish maydoni saqlangan yaxshi sifatli ko‘z ichki gipertenziyada hamda ko‘z ichki bosimi kompensatsiyalangan birlamchi ochiq burchakli glaukomada, ko‘z ichki bosimi me’yoriy ko‘rsatkichlarga keltirilgan paytdan boshlab aviatsiya xodimlari uchish ishiga yaroqli deb topiladi va ularga doimiy lokal gipotenziv terapiya qo‘llaniladi.

Mazkur tashxis birinchi marta aniqlanganda, tibbiy xulosa vakolatli organning tibbiy ekspertlari tomonidan chiqariladi.

183. Nomzodlarda glaukoma tashxisi aniqlanganda, kasallik uning turi va klinik shakliga ko‘ra davolanadi, glaukoma asosiy kasallikning ikkilamchi ko‘rinishi bo‘lgan hollarda esa birinchi navbatda asosiy kasallik davolanadi.

Dori vositalari yoki lazer usuli bilan davolash natijalari ijobiy bo‘lganda, klinik sog‘ayish kuzatilgandan keyin ko‘rish o‘tkirligi va ko‘rish maydoni normada bo‘lsa, parasentral skotoma ko‘rinishidagi nerv tolalari tutamlari defektlari aniqlanmasa hamda boshqa ko‘z funksiyalarini tekshirish natijalari ijobiy bo‘lsa, aviatsiya xodimining uchish ishiga yaroqliligi aniqlanadi.

184. Glaukoma aniqlangan aviatsiya xodimlarida muntazam tibbiy kuzatuv olib boriladi.

Kuzatuv davomida ko‘z ichki bosimining tonometriyasi, ko‘rish o‘tkirligi va ko‘rish maydoni tekshiriladi, shuningdek ko‘rish nervi diskining holati hamda qabul qilinayotgan dori vositalarining nojo‘ya ta’sirlari baholab boriladi.

185. Trabekulektomiya yoki drenaj tizimlari qo‘llanilgan antiglaukomatoz jarrohlik amaliyotidan keyin kamida 3 oy o‘tgach, shuningdek lazer yoki boshqa usullar bilan davolashdan keyin ko‘rish organi funksiyalari to‘liq tiklangan bo‘lsa, oftalmolog-jarrohning operatsiya va tekshiruvlar bo‘yicha tibbiy ma’lumotlari, xulosasi hamda prognozi hisobga olingan holda aviatsiya xodimining uchish ishiga yaroqliligi belgilanadi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

186. Rang ajratish qobiliyatining buzilishlari aniqlanganda, uning turi, shakli va darajasi qabul qilingan tasnifga muvofiq baholanadi hamda tegishli tashxis qo‘yiladi. VSL cheklovi qo‘llanilishiga yo‘l qo‘yiladi.

187. Nomzodning rang ajratish qobiliyati quyidagi usullar yordamida aniqlanadi:

Ishixara rangli testi;

Rabkinning polixromatik jadvallari;

FALANT-testi;

anomaloskop yoki kompyuterlashtirilgan anomaloskopik tekshiruv.

Tibbiy tekshiruv natijalari qo‘llanilgan usul yoki uskunaning yo‘riqnomasida belgilangan tegishli normativ ko‘rsatkichlarga muvofiq maxsus blankalarda baholanadi.

188. Dori vositalarini qabul qilish yoki kasalliklar asoratlari oqibatida yuzaga kelgan orttirilgan rang ko‘rish buzilishlari mavjud bo‘lganda, ko‘rish funksiyalari yetarli darajada saqlanganda, ko‘rish organining shikastlanish darajasi, davolash va tekshiruvlar natijalari, shuningdek kasallik prognozi hisobga olingan holda, cheklovlar qo‘llanib nomzodning uchish ishiga yaroqliligi individual tartibda aniqlanadi.

Mazkur hollarda tashxisni aniqlashtirish maqsadida anomaloskop yoki FALANT-testi yordamida qo‘shimcha tekshiruv o‘tkazilishi lozim.

Nomzodlarda “C”, “B” turlaridagi deyteranomaliya, “C”, “B” turlaridagi protanomaliya kabi rang ajratish zaifligini mavjudligi, ularga tibbiy xulosa berishni rad etishga asos bo‘lmaydi.

Nomzodlarda anomal trixromaziyaning (protanomaliya, deyteranomaliya, tritanomaliya) “A” turida, dixromaziya (protanopiya, deyteranopiya, tritanopiya), monoxromaziya kabi rang ajratishni buzilishlari mavjudligida, ularga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

189. Nomzodlar o‘z kasbiy majburiyatlarini xavfsiz bajarishlari uchun ularda binokulyar ko‘rish funksiyasi buzilishlari, ko‘rish maydoni nuqsonlari va diplopiya bo‘lmasligi kerak.

Ko‘z olmasi mushaklari muvozanati hamda binokulyar ko‘rishni baholashda foriya va tropiyani farqlash, ko‘rish markazidan og‘ish darajasini, ortoforiya va boshqa holatlarni aniqlash maqsadida Meddoks tayoqchasi, korreksiyalovchi ko‘zoynak yoki kontakt linzalari yordamidagi ko‘zni yopish testlari, ko‘zni navbatma-navbat yopish va yopib-ochish testlari, sinoptofor hamda Uordning to‘rt nuqtali testi qo‘llaniladi.

Oftalmolog mutaxassis tomonidan fuziya amplitudasi aniqlanadi va ortoptik tekshiruvlar o‘tkazilishiga yo‘l qo‘yiladi.

190. Normal holatda manfiy fuzion zaxiralar 5–8 gradusni, musbat fuzion zaxiralar esa 15–20 gradusni tashkil etadi.

191. Quyidagi ko‘rsatkichlardan yuqori bo‘lgan normadan og‘ishlar aniqlanganda nomzodlar oftalmolog mutaxassis tomonidan qo‘shimcha tekshiruvdan o‘tkaziladi:

ezoforiya – 10 prizmatik dioptriy (D);

ekzoforiya – 5 prizmatik D;

giperforiya yoki gipoforiya – 2 prizmatik D;

sikloforiya – 1 prizmatik D.

192. Nomzodlarda diplopiya aniqlanganda ular uchish ishidan vaqtincha chetlatiladi hamda diplopiya sabablari (haddan tashqari ish yuklamasi, charchoq, stress, sedativ dori vositalarini qabul qilish, kasalliklar va boshqa omillar) aniqlanadi va tegishli davolash choralari ko‘riladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Monokulyar diplopiya aniqlanganda, nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Yuqoriga yoki chetga qarashda nigohning eng chekka zonasida diplopiya paydo bo‘lganda tegishli cheklovlar qo‘llanib nomzodning kasbiy yaroqlilik aniqlanadi.

Ko‘z mushaklari muvozanatini va binokulyar ko‘rishni tekshirishda kam ifodalangan o‘zgarishlar aniqlanganda nomzodlar uchish ishiga yaroqli deb topiladi.

193. Quyidagi holatlar aniqlanganda, nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi:

ko‘z mushaklari falaji yoki turg‘un parezi;

qovoq mushaklari falaji;

paralitik yoki birgalikdagi g‘ilaylik;

ko‘z soqqalarining yaqqol ifodalangan ixtiyorsiz tebranuvchi harakatlari (nistagm);

ko‘z kosasi jarohatlari natijasida ko‘z mushaklari shikastlanishi bilan kechuvchi turg‘un diplopiya;

fuzion zaxiralari pasaygan geteroforiya;

geterotropiya;

noturg‘un fiksatsiya sindromi;

binokulyar ko‘rish buzilishlari.

194. Quyidagi ko‘rsatkichlardan yuqori bo‘lgan holatlarda nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi:

a) 6 metr masofada:

vertikal bo‘yicha – 2,0 prizmatik D (1 gradus) dan yuqori;

ezoforiya – 10 prizmatik D (5 gradus) dan yuqori;

ekzoforiya – 8,0 prizmatik D (4 gradus) dan yuqori;

b) 33 sm masofada:

vertikal bo‘yicha – 1,0 prizmatik D dan yuqori;

ezoforiya – 8 prizmatik D (4 gradus) dan yuqori;

ekzoforiya – 12 prizmatik D (6 gradus) dan yuqori.

195. Ko‘zni chetga burishda nistagm aniqlanganda nomzod nevrolog va otorinolaringolog mutaxassislar maslahatidan o‘tkaziladi. Binokulyar ko‘rish buzilmagan taqdirda tibbiy xulosa asosiy kasallik bo‘yicha chiqariladi.

196. Nomzodlarda geteroforiyani aniqlash maqsadida davriy tibbiy ko‘riklarda sinoptofor yordamida ko‘zlarning birgalikdagi harakatlari tekshiriladi.

Tekshiruv natijasida geteroforiyaning turi, darajasi va fuzion zaxiralari aniqlanadi. Fuzion zaxiralari pasayganda, ortoptik davolash mashqlari o‘tkaziladi.

197. Ko‘rish o‘tkirligi yoritilish darajasi xonada 5–6 metr masofadan, korreksiyasiz hamda korreksiya bilan tekshiriladi.

Tibbiy hujjatlarda ko‘rish o‘tkirligining amaldagi ko‘rsatkichlari qayd etiladi.

Fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlarida uchuvchilikka o‘qishga nomzodlarda korreksiyasiz ko‘rish o‘tkirligi har bir ko‘zda alohida kamida 0,7 bo‘lishi, binokulyar ko‘rishda esa korreksiyasiz va korreksiya bilan 1,0 bo‘lishi kerak.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

198. Guvohnoma egalarida kontakt linzalari va (yoki) tegishli korreksiyalovchi linzali koʻzoynaklar yordamida binokulyar koʻrish oʻtkirligi 1,0 ga yetkazilgan hamda koʻrish maydoni normada boʻlganda, ularga korreksiyasiz koʻrish oʻtkirligi boʻyicha cheklov qoʻllanilmaydi.

Nomzod 5 raqamli yoki unga ekvivalent jadvalni 30–50 sm masofadan, shuningdek 14 raqamli yoki unga ekvivalent jadvalni 100 sm masofadan tegishli korreksiya bilan oʻqiy olishi kerak.

199. Nomzodlarda koʻrish oʻtkirligi korreksiyasiz har bir koʻzda alohida 0,7 yoki undan yuqori boʻlishi zarur**.**

Agar korreksiyasiz koʻrish oʻtkirligi bir koʻzda 0,7 dan past boʻlsa, biroq binokulyar koʻrish oʻtkirligi (qorongʻilikka adaptatsiya sharoitida ham) korreksiyasiz 1,0 ga yetadigan boʻlsa, uzoq masofani koʻrishni korreksiyalash talab etilmaydi.

200. Nomzodlarda optimal koʻrish funksiyasini ta’minlaydigan, aviatsiya faoliyatida foydalanishga mos va umumiy foydalanish uchun qulay boʻlgan zaxira koʻzoynak mavjud boʻlishi kerak.

Nomzodlar uzoq masofani koʻrishni ta’minlovchi monofokal, rangsiz va qulay kontakt linzalardan foydalanishlariga yoʻl qoʻyiladi.

Yetarli darajadagi refraksiyaga ega boʻlmagan nomzodlar sindirish koeffitsiyenti yuqori boʻlgan kontakt linzalari yoki koʻzoynak linzalaridan foydalanishlari lozim.

Koʻrishni korreksiyalash uchun zarur boʻlgan hollarda faqat bitta turdagi koʻzoynak qoʻllaniladi.

Koʻrish qobiliyati pasaygan hamda presbiopiya mavjud boʻlgan nomzodlar bifokal korreksiyalovchi koʻzoynaklar yoki kontakt linzalari bilan uchish ishini bajarishlari hamda zaxira koʻzoynak toʻplamini oʻzlari bilan olib yurishlari shart.

Mazkur holatlarda VDL, VML, VNL va CCL cheklovlari qoʻllaniladi.

Nomzodlarda koʻzoynak yoki kontakt linzalarning mavjudligi hamda ularning texnik va optik sifati har bir tibbiy koʻrik vaqtida nazorat qilinadi.

201. Yaqin masofaga koʻrishni ta’minlash uchun qoʻllaniladigan unifokal korreksiya (oʻqish uchun moʻljallangan, bir xil optik kuchga ega yaxlit linzali koʻzoynaklar) katta masofadagi koʻrish oʻtkirligini sezilarli darajada pasaytirishi sababli aviatsiya faoliyatida qoʻllanishiga ruxsat etilmaydi.

202. Nomzodlarda bir koʻzda koʻrishning patologik pasayishi (markaziy koʻrishning pasayishi) aniqlanganda, quyidagi shartlar bajarilganda, ularga uchish ishiga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqarilishi mumkin:

binokulyar koʻrish saqlangan boʻlsa;

ikkinchi koʻzning uzoq masofaga koʻrish oʻtkirligi korreksiya bilan yoki korreksiyasiz 1,0 boʻlsa;

yaqin va oʻrta masofaga koʻrish qobiliyati yetarli boʻlsa;

asosiy kasallik oftalmologik tekshiruv natijalariga koʻra ijobiy baholansa;

ikkinchi koʻzda klinik ahamiyatga ega kasalliklar mavjud boʻlmasa.

Refraksiya anomaliyasi mavjud nomzodlarda koʻrish oʻtkirligi korreksiya bilan yoki korreksiyasiz 0,6 dan past boʻlmasligi zarur.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

203. Miopiya 0,5 D, gipermetropiya 1,0 D va astigmatizm 0,5 D darajasida bo‘lganda, ko‘rish o‘tkirligi korreksiyasiz 1,0 bo‘lganda, tibbiy hujjatlarda tashxis “sog‘lom” deb ko‘rsatiladi hamda “refraksiya” qatorida tegishli yozuv VNL cheklovi bilan qayd etiladi.

204. Quyidagi refraksiya ko‘rsatkichlarida optimal korreksiyaga erishilganda nomzodlarga uchish ishiga va o‘qishga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi:

gipermetropiya – +5,0 D dan yuqori bo‘lmaganda;

miopiya – 6,0 D dan yuqori bo‘lmaganda;

astigmatizm – 2,0 D dan yuqori bo‘lmaganda;

anizometropiya – 2,0 D dan yuqori bo‘lmaganda.

Bunda tashxisda refraksiya turi va xatolik darajasi ko‘rsatiladi.

2,0 D dan 3,0 D gacha bo‘lgan anizometropiya aniqlanganda, kontakt linzalar qo‘llanilishiga yo‘l qo‘yiladi.

205. Refraksiyaning klinik tekshiruvi retinoskopiya (avtomatik refraktometriya hamda sikloplegik preparatlar) qo‘llangan holda o‘tkaziladi.

Fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlariga uchuvchilikka o‘qishga nomzodlarda refraksiya sikloplegiya sharoitida tekshiriladi. Tekshiruv jarayonida 1 foiz siklopentolat yoki 1 foiz atropin qo‘llanilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlariga uchuvchilikka o‘qishga nomzodlarda quyidagi refraksiya ko‘rsatkichlari mavjud bo‘lganda, har bir ko‘zda optimal korreksiya bilan ko‘rish o‘tkirligi 1,0 ga erishilganda, ularga uchuvchilikka o‘qishga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi:

miopiya – 3,0 D dan yuqori bo‘lmaganda;

gipermetropiya – 4,0 D dan yuqori bo‘lmaganda;

astigmatizm – ±1,5 D dan yuqori bo‘lmaganda;

anizometropiya – 2,0 D dan yuqori bo‘lmaganda.

Aviatsiya kimyoviy ishlarni bajarishda uchuvchilarga ko‘rishni kontakt linzalar yordamida korreksiyalashga ruxsat etilmaydi.

206. Presbiopiya darajasi va akkomodatsiya buzilishlari professional faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlash masofasi (60–80 sm) hisobga olingan holda sferik linzaning optik kuchi bo‘yicha aniqlanadi.

Akkomodatsiya buzilishlari aniqlanganda, shuningdek 3,5 D dan yuqori darajadagi presbiopiya mavjud bo‘lganda nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Presbiopiya mavjud bo‘lganda va kontakt linzalardan foydalanuvchi nomzodlar kontakt linzalar ustidan o‘qish uchun ko‘zoynak taqishlari mumkin.

8-bob. Otorinolaringologiya

207. Nomzodlarda guvohnoma bilan nazarda tutilgan kasbiy vazifa va majburiyatlarni xavfsiz bajarishga monelik qiluvchi quloq, tomoq, burun, og‘iz bo‘shlig‘i, tishlar hamda ular bilan bog‘liq a’zolarning tug‘ma yoki orttirilgan nuqsonlari, kasalliklari, obstruksiyalari, jarohatlari, funksional buzilishlari va jarrohlik amaliyotidan keyingi asoratlari mavjud bo‘lmasligi lozim.

208. Radioaloqani olib borishga to‘sqinlik qiluvchi yaqqol ifodalangan nutq buzilishlari va duduqlanish aniqlanganda nomzodlar uchish ishiga yaroqsiz deb topiladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Nutq buzilishi yoki duduqlanish yengil darajada bo‘lganda tijorat aviatsiyasi uchuvchilarida yaroqlilik masalasi individual tartibda aniqlanishiga yo‘l qo‘yiladi.

Nutqi aniq va tushunarli bo‘lgan, ayrim tovushlar talaffuzida nuqsonlari mavjud nomzodlarda logopedning xulosasi asosida yaroqlilik belgilanadi.

209. Yechib qo‘yiladigan tishlar protezi mavjudligida, nutq funksiyasi protezlar yechilgan holda aniqlanadi.

Ko‘plab tishlarning yo‘qligi sababli chaynash funksiyasining kam ahamiyatli buzilishi aniqlanganda, navbatdagi tibbiy ko‘riklar oralig‘ida protezlash tavsiya etiladi.

210. Allergeni aniq ma’lum bo‘lganda va uni bartaraf etish oson bo‘lgan pollinoz, rinokonyunktival sindrom va shunga o‘xshash allergik holatlarda nomzodning uchish ishiga yaroqliligi allergolog mutaxassisning xulosasi va kasallik prognozi asosida individual tartibda aniqlanadi.

211. Maxsus anjomlardan, shu jumladan kislorod niqobidan foydalanishda qiyinchilik tug‘diruvchi, LOR a’zolari funksiyalarining klinik ahamiyatga ega buzilishlari bilan kechuvchi, jumladan nafas olish va nutq funksiyalarini buzuvchi quyidagi holatlar aniqlanganda nomzodlarga uchish ishiga yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi:

yuqori nafas yo‘llari, og‘iz bo‘shlig‘i va quloqlarning tug‘ma yoki orttirilgan turg‘un nuqsonlari;

yuqori nafas yo‘llari, og‘iz bo‘shlig‘i va quloqlarning kasalliklari;

jarrohlik amaliyotlaridan keyingi asoratlar;

jarohatlar;

ko‘plab tishlarning yo‘qligi;

yuqori nafas yo‘llarining distrofik o‘zgarishlari;

kasbiy vazifalarni xavfsiz bajarishga monelik qiluvchi boshqa klinik ahamiyatga ega funksional buzilishlar.

212. Burundan nafas olishni qiyinlashtiruvchi yoki uni to‘liq izdan chiqaruvchi burun to‘sig‘i qiyshayishi, yuqori nafas yo‘llari shilliq qavatining distrofik o‘zgarishlari, shuningdek nafas olish va nutq funksiyalarining buzilishiga olib keluvchi burun chig‘anoqlari gipertrofiyasi, adenoidlar va boshqa shunga o‘xshash kasalliklar aniqlanganda, nomzodlarga nisbatan jarrohlik yoki boshqa davolash usullari qo‘llaniladi.

Davolash natijalari ijobiy bo‘lganda hamda nafas olish va nutq funksiyalari tiklanganda, nomzodlarning o‘qishga va uchish ishiga yaroqliligi aniqlanadi.

Fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kiruvchi nomzodlarda mazkur kasalliklar bo‘yicha jarrohlik amaliyoti ijobiy natija bergan taqdirda, jarrohlik amaliyotidan keyin kamida 2 oy o‘tgach tibbiy ko‘rik o‘tkaziladi.

213. Burundan nafas olishni qiyinlashtiruvchi yoki burundan nafas olishning to‘liq yo‘qligiga olib keluvchi burun to‘sig‘ining qiyshayishi, shuningdek nafas olish va nutq funksiyalarining buzilishiga sabab bo‘luvchi burun chig‘anoqlari gipertrofiyasi, adenoidlar va boshqa shunga o‘xshash patologiyalar mavjud bo‘lganda, davolash o‘tkazilmaguncha yoki davolash natijalari ijobiy baholanmaguncha, nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

214. Gaymor bo‘shliqlari shilliq qavatining qalinlashishi aniqlanganda, fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlariga uchuvchilikka o‘qishga nomzodlar yaroqli deb topiladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Burun bo‘shlig‘i va yondosh bo‘shliqlardagi jarrohlik amaliyotidan 2 hafta o‘tgandan keyin burundan nafas olish funksiyasi to‘liq tiklanganida nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) ruxsat beriladi.

215. Burun bo‘shlig‘i va uning yondosh bo‘shliqlarida o‘tkazilgan jarrohlik amaliyotlaridan keyin kamida 2 hafta o‘tgach, burundan nafas olish funksiyasi to‘liq tiklanganda, nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) ruxsat beriladi.

216. Shamollash belgilari (yo‘tal, burun bitishi, burun yoki tomoqdan yiringli ajralma kelishi va boshqalar) mavjud bo‘lganda, shuningdek nafas olish funksiyasining buzilishi bilan kechuvchi burun bo‘shlig‘i kasalliklari aniqlanganda nomzodlar uchish ishidan (o‘qishdan) vaqtincha chetlatiladi.

Mazkur hollarda nomzodlarga nisbatan to‘liq davolash choralari o‘tkaziladi. To‘liq sog‘ayish tasdiqlangandan keyin otorinolaringolog mutaxassisning xulosasi asosida ularga uchish ishiga (o‘qishga) ruxsat beriladi.

217. Surunkali dekompensatsiyalangan tonzillit jarrohlik usuli bilan asoratlarsiz davolanganda, jarrohlik amaliyotidan keyin kamida 1 oy o‘tgach nomzodlar uchish ishiga (o‘qishga) yaroqli deb topilishi mumkin.

Surunkali kompensatsiyalangan tonzillit aniqlanganda nomzodlarga davolash-profilaktika tadbirlari o‘tkaziladi.

218. Uchish ishiga monelik qilmaydigan peshona bo‘shliqlari osteomalari aniqlanganda nomzodlar uchish ishiga yaroqli deb topiladi.

Yaxshi sifatli o‘smalar (fibroma, polip, gemangioma va boshqalar) aniqlanganda, jarrohlik yoki boshqa davolash usullari natijalari ijobiy bo‘lsa, nafas olish va so‘zlash funksiyalari tiklanganda, shikoyatlar, og‘riq va bosh aylanishi mavjud bo‘lmaganda, shuningdek tibbiy tekshiruv natijalari ijobiy bo‘lganda, nomzodlarning uchish ishiga yaroqliligi aniqlanadi.

219. Gaymor bo‘shliqlarining diametri 2 sm dan katta bo‘lgan kistalari, shuningdek peshona bo‘shliqlarining kistalari va osteomalari sababli o‘tkazilgan rinoplastikadan keyin jarrohlik amaliyotidan so‘ng kamida 2 hafta o‘tgach, burundan nafas olish funksiyasi to‘liq tiklanganda, nomzodlar o‘qishga yaroqli deb topiladi.

Akustik nevrinoma aniqlanganda, nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Organlar funksiyalarining yaqqol buzilishlari bilan kechuvchi xavfli yoki xavfsiz o‘smalar aniqlanganda, nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Xavfli o‘smalar sababli davolanish yakunlangandan keyin to‘liq sog‘ayish kuzatilganda, organlar funksiyalari tiklanganda, tekshiruv natijalari ijobiy bo‘lganda, shuningdek onkolog mutaxassisning xulosasi va kasallik prognozi hisobga olingan holda, nomzodlarning uchish ishiga yaroqliligi individual tartibda aniqlanadi.

220. Quloq nog‘ora pardasining oddiy punksiyasi yoki oddiy mastoidektomiya o‘tkazilgandan keyin bosh aylanishi mavjud bo‘lmaganda hamda eshitish funksiyasi normada bo‘lsa, nomzodlar uchish ishiga yaroqli deb topiladi.

Radikal mastoidektomiya o‘tkazilgandan keyin nomzodning uchish ishiga yaroqliligi to‘liq otologik tekshiruv natijalari asosida aniqlanadi. Bunda quyidagi holatlar alohida hisobga olinadi:

monaural eshitish funksiyasining yo‘qolishi;

infeksiya mavjudligi yoki uning xavfi;

bosh aylanishi;

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

bosh chanog‘i ichki asoratlarining yuzaga kelish ehtimoli.

221. O‘rta quloq uzangichasida o‘tkazilgan jarrohlik amaliyotidan keyin kamida 3 oy o‘tgach, davolash natijalari ijobiy bo‘lsa, quloq, tomoq va burun a’zolari bo‘yicha to‘liq tekshiruv natijalari normada bo‘lsa, Yevstaxiy nayining o‘tkazuvchanligi saqlanganda, bosh aylanishi kuzatilmaganda, shuningdek Valsalva sinamasi va kuchli burun puflash vaqtida barmoq bilan noto‘g‘ri ko‘rsatish, nistagm va noturg‘unlik aniqlanmaganda, nomzodga uchish ishiga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Jarrohlik amaliyotidan keyingi 3 oy davomida bosh aylanishi kuzatilmasa hamda eshitish funksiyasi normada bo‘lsa, nomzodga 2 yil muddatga faqat ikkinchi uchuvchi mavjudligida uchish yoki kafolatlovchi yana bir uchuvchi mavjudligida uchish cheklovi bilan uchish ishiga yaroqlilik belgilanishi mumkin. Mazkur hollarda nomzodga otorinolaringolog mutaxassisning dispanser kuzatuvi belgilanadi.

O‘rta quloq ventilyatsiyasining buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan yuqori nafas yo‘llari infeksiyalarining profilaktikasi muntazam ravishda olib boriladi.

222. Nomzodlarning vestibulyar funksiyasi (statokinetik barqarorligi) vestibulyar anamnez, vestibulometriya natijalari, jumladan aylanuvchi kreslo testi va Barani kreslosi yordamida o‘tkazilgan tekshiruvlar, shuningdek uzoq muddatli uchishlarga chidamlilik darajasi hisobga olingan holda aniqlanadi.

Vestibulometriya davomida yengil vestibulovegetativ reaksiyalar, jumladan teri rangining biroz oqarishi va kam ifodalangan gipergidroz aniqlanganda, sog‘liq holatida boshqa patologik o‘zgarishlar mavjud bo‘lmasa hamda nomzod uchish ishiga chidamli deb topilsa, mazkur holat mustaqil tashxis qo‘yish uchun asos bo‘lmaydi.

223. Xavfsiz paroksizmal bosh aylanishi aniqlanganda nomzodlarga uchish ishiga yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Mazkur kasallik to‘liq davolangandan keyin kamida 4 oy o‘tgach hamda klinik belgilar qayta kuzatilmaganda, nomzod qayta tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilishi mumkin.

Quyidagi holatlar aniqlanganda nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi va ular qayta tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilmaydi:

Menyer kasalligi;

konservativ yoki jarrohlik usullari bilan davolash qiyin bo‘lgan vestibulyar funksiyaning tug‘ma yoki orttirilgan anomaliyalari;

surunkali vestibulyar buzilishlar;

statokinetik ta’sirchanlikning yuqori darajasi.

224. Poliplar, granulyatsiyalar, nog‘ora bo‘shlig‘i devorlarining kariyesi bilan kechuvchi surunkali yiringli epitimpanit va mezotimpanit aniqlanganda, shuningdek jarrohlik amaliyoti bo‘shliq epidermizatsiyasi tugallanmagan hollarda, jumladan yiring, polip, granulyatsiya yoki xolesteatoma mavjud bo‘lganda, hamda jarrohlik amaliyotidan keyingi asoratlar aniqlanganda, nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

225. Granulyatsiyalarsiz, poliplarsiz, nog‘ora bo‘shlig‘i devorlarining kariyesisiz, labirintda yallig‘lanish belgilari kuzatilmaydigan, surunkali xavfsiz kechuvchi bir tomonlama epitimpanit va mezotimpanit aniqlanganda, davolash natijalari ijobiy bo‘lsa hamda eshitish o‘tkirligi hisobga olingan holda, nomzodlarning uchish ishiga (o‘qishga) yaroqliligi aniqlanadi.

226. Barofunksiya va eshitishning kam ifodalangan buzilishlari mavjud bo‘lganda, uchish faoliyati davomida barotravmatik o‘zgarishlar kuzatilmagan hamda nomzod uchish ishiga chidamli deb topilganda, uchuvchilar uchish ishiga yaroqli deb topiladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Mazkur hollarda yaroqli deb topilgan uchuvchilarga otorinolaringolog mutaxassisning dispanser kuzatuvi 1 yil muddatga, har 3 oyda bir marta belgilanadi.

Shuningdek, ularga har 6 oyda bir marta audiometriya tekshiruvi o‘tkaziladi.

227. Havo bosimining o‘zgarishi sharoitida Yevstaxiy nayining o‘tkazuvchanligi buzilishi yoki quloqning baroakkomodatsion mexanizmlari yetishmovchiligi sababli quloq barofunksiyasi buzilganda, davolash o‘tkazilgandan keyin barofunksiya buzilishining organik yoki funksional shakliga ko‘ra tibbiy xulosa chiqariladi.

Nog‘ora pardaning harakatchanligi yaxshi bo‘lsa, eshitish funksiyasi audiogramma bilan tasdiqlangan normada hamda barofunksiya saqlangan bo‘lsa, perforatsiya joyida yupqalashmagan kichik chandiqlar, quruq perforatsiya yoki nog‘ora pardada kalsifikatlar mavjudligi tashxis qo‘yish uchun asos bo‘lmaydi.

Tashqi eshitish yo‘lining ekzostozlari, quloq atrofi sohasidagi osteomalar va surunkali yiringli mezotimpanit hamda epitimpanitlar sababli o‘tkazilgan radikal jarrohlik amaliyotlaridan keyin quloq funksiyasi to‘liq tiklangan va tekshiruv natijalari ijobiy bo‘lsa uchish ishiga yaroqlilik aniqlanadi. Quloq barofunksiyasi buzilishining turg‘unligi va ifodalanish darajasi quloq manometriyasi, otoskopiya hamda quloqqa havo oqimini o‘tkazish yoki kateterizatsiya usullari bilan tasdiqlanishi kerak.

228. Nomzodlar o‘z guvohnomasi va malaka belgilari bilan nazarda tutilgan kasbiy majburiyat hamda vazifalarni xavfsiz bajarishlari uchun ularning eshitish qobiliyati yetarli darajada saqlangan bo‘lishi, bunda eshitish qobiliyati kamida 6 metr masofadan bas va diskant guruhdagi so‘zlarni shivirlab talaffuz qilish usuli (akumetriya) hamda kalibrlangan tonal audiometriya yordamida aniqlanadi.

Eshitish funksiyasini aniqlashtirish maqsadida ultratovush va kamertonlar yordamida qo‘shimcha tekshiruvlar o‘tkazilishga yo‘l qo‘yiladi.

Akumetriya va kamertonlar yordamida tekshiruvlar tajribali otorinolaringolog mutaxassis tomonidan o‘tkazilishi yoki mazkur tekshiruvlar natijalari audiometriya natijalari bilan tasdiqlanishi kerak.

229. Eshitish funksiyasini baholashda, bas yoki diskant guruhdagi so‘zlarga mansubligidan qat’i nazar, eshitish qobiliyatining eng noqulay ko‘rsatkichlari asos qilib olinadi.

Nutq audiometriyasida nomzodning so‘zlarni to‘g‘ri eshitishi va takrorlashi 95–100 foizini tashkil etganda eshitish qobiliyati normada deb hisoblanadi.

Ushbu ko‘rsatkich 80 foizdan kam bo‘lganda, nomzodga yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

230. Audiometriyada shovqinni qabul qilish intensivligi –20 dB dan +100 dB gacha hamda 125 Gs dan 8000 Gs gacha bo‘lgan diapazonda qayd etiladi.

Nomzodlarda kalibrlangan (tiniq tonal) audiometriyada har bir quloq alohida tekshiriladi. Bunda 500, 1000 yoki 2000 Gs chastotalardan birida 35 dB dan yuqori, yoki 3000 Gs chastotada 50 dB dan yuqori eshitish chegarasi aniqlanganda, eshitish funksiyasi yetarli deb hisoblanmaydi.

231. Tinch xonada 2 metr masofada nomzod tekshiruv o‘tkazayotgan shifokorga teskari turgan holda, o‘rtacha balandlikdagi so‘zlashuv nutqini ikkala quloqda eshita olmasa, unga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

232. Eshitish qobiliyatini tiklash maqsadida o‘tkazilgan radikal jarrohlik amaliyotlaridan (timpanoplastika, stapedoplastika) keyin jarrohlik amaliyoti bo‘shlig‘ining to‘liq va turg‘un epidermizatsiyasi ta’minlanganda, eshitish funksiyasi tiklanganda hamda maxsus eshitish moslamasini qo‘llash qoniqarli bo‘lganda, nomzodning uchish ishiga yaroqliligi aniqlanadi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

233. Uchuvchining eshitish qobiliyati yuqorida belgilangan talablarga to‘liq javob bermaganda, biroq havo kemasi kabinasidagi shovqin foniga o‘xshash sharoitda (imitatsiya qilingan yoki qayta tiklangan shovqin fonida) so‘zlashuv va radiomayak signallarini aniq qabul qila olsa, OAL cheklovi qo‘llanilgan holda uchish ishiga yaroqli deb topilishi mumkin.

Bunda shovqin foni nomzodga ruxsat etilgan havo kemasi turining shovqin darajasiga mos bo‘lishi zarur.

234. Shovqinli sharoitda o‘tkaziladigan tekshiruvlarda qo‘llaniladigan nutq materiallari aviatsiya aloqasida qo‘llaniladigan so‘zlashuvga mos va fonetik jihatdan muvofiqlashtirilgan bo‘lishi lozim.

Tekshiruvlar trenajyorda o‘tkazilishiga yo‘l qo‘yiladi.

235. Eshitishning neyrosensor pasayishida eshitish organining boshqa kasalliklari bilan differensial tashxis o‘tkaziladi hamda nevritning etiologiyasi (zaharlanish, jarohatdan keyingi asoratlar, ateroskleroz yoki gipertoniya fonida rivojlanishi, infeksiya, shovqin ta’siri va boshqalar) aniqlanib tashxisda ko‘rsatiladi.

236. 4000–8000 Gs chastotalarda ayrim chegaralarning 30–40 dB gacha bo‘lishi klinik tashxis qo‘yish uchun asos bo‘lmaydi. Bunda nomzodlarga otorinolaringolog tomonidan dispanser kuzatuvi belgilanadi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Fuqaro aviatsiyasida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish
va tibbiy xulosa berish tartibi to‘g‘risidagi O‘zbekiston
Respublikasining aviatsiya qoidalariga
2-ILOVA

2-klass tibbiy xulosasini olishga nomzodlarning sog‘liq holatiga qo‘yilgan tibbiy talablar
1-bob. Umumiy talablar

1. Nevrologik tibbiy ko‘rikni o‘tkazishda quyidagi holatlarni aniqlashi lozim:

guvohnoma egasida nevrologik kasallik mavjudligi;

mavjud nevrologik kasallikning statik holatda funksional jihatdan parvozlar xavfsizligiga tahdid solish ehtimoli;

nevrologik kasallikning monitoring o‘tkazish imkonini beruvchi vaqtinchalik progressivlashuvchi ko‘rinishga egaligi;

nomzodning ahamiyatga ega bo‘lmagan qoldiq funksional nevrologik buzilishlarsiz kasallikdan to‘liq sog‘ayganligi;

aviatsiya xodimining ruhiy holati buzilishlari natijasida ish qobiliyatining to‘satdan yoki yashirin tarzda yo‘qolishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan holatlarning mavjudligi yoki ehtimoli.

Aviatsiya xodimlari va kursantlarning ruhiy holatini nazorat kuzatuvi nevrolog, psixolog va fuqaro aviatsiyasi tashkilotining shifokorlari tomonidan amalga oshiriladi.

2. Nomzodda ruhiy holat buzilishlari aniqlanganda, ruhiy holatning buzilishi gumon qilingan yoki boshqa tibbiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lganda, u o‘qishdan yoxud kasbiy-funksional majburiyatlarini bajarishdan chetlatiladi hamda psixiatriya muassasasiga yuboriladi.

Nomzodning ruhiy sog‘ligi va ijtimoiy adaptatsiya holati ruhiy sog‘lig‘i va ijtimoiy moslashuv holati yuzasidan psixiatrlarning xulosasi olingandan keyin tibbiy ko‘rikni davom ettirish masalasi tibbiy-uchish komissiyasi (bundan buyon matnda TUK deb yuritiladi) tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Nomzodning psixiatr ko‘rigi, tekshiruvi yoki zarur bo‘lganda davolanishdan bosh tortishi uning tibbiy hujjatlarida qayd etiladi hamda tibbiy xulosa bermaslikka yoki amaldagi tibbiy xulosani bekor qilishga asos bo‘ladi.

3. Kognitiv funksiyalarning amaldagi har qanday susayishi aviatsiyada jiddiy oqibatlar yuzaga keltirishi mumkinligi sababli, funksional buzilishlarga olib keluvchi ruhiy holat buzilishlarining qaytalanish xavfi hisobga olingan holda, tibbiy xulosa chiqariladi.

4. Uchuvchining ruhiy va jismoniy holatini tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishda havo kemasini boshqarish bo‘yicha uning kasbiy yaroqliligini belgilovchi quyidagi talablar hisobga olinishi lozim. Bunda:

uchish jarayonida havodagi vaziyatni va o‘zining fazoviy holatini to‘g‘ri aniqlashi uchun rivojlangan sezgi organlariga (ko‘rish, eshitish, muvozanat, proprioseptsiya, kinesteziya) ega ekanligi;

uchish sharoitlarini to‘g‘ri baholashi, ma’lumotni o‘z vaqtida va to‘g‘ri qabul qilishi, uni qayta ishlashi va havo kemasini belgilangan manzilga xavfsiz yetib borishi hamda qo‘nishini ta’minlovchi qarorlar qabul qilish qobiliyatiga egaligi;

uchish jarayonida belgilangan harakatlar va boshqaruv amallarini bajarish uchun jismoniy va ruhiy jihatdan yetarlicha tayyorligi.

5. Nomzodning ruhiy holati buzilishini tekshirishda quyidagilar aniqlanishi kerak:

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

tabiiy omillar, tarbiya va hayotiy tajribaning mujassamligida uning ruhiy holatini buzilishiga bo‘lgan moyilligi;

ruhiy holatning buzilishlari, shuningdek inson temperamenti ham muhim genetik komponentga egaligi;

ruhiy holat buzilishiga genetik moyilligi bo‘lgan nomzodning tarbiya va hayotdagi vaziyatlar bilan bog‘liq stress-faktorlarga psixiatrik simptomlarsiz bardosh berishga qodirligi;

bolalikdagi hodisalar, jamiyatga zid axloq, o‘qishni o‘zlashtirishni pastligi, doimiy ish o‘rnini izlashdagi qiyinchiliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarni iste’mol qilish, kayfiyatning to‘satdan o‘zgarishi va yaqin munosabatlarni o‘rnata olmaslik kabi ruhiy holatni buzilganligi alomatlarining mavjudligi.

6. Nomzodlarda pirsing, implantlar va teridagi tatuirovkalar bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Yo‘qotilgan yoki funksiyasi yo‘qolgan a’zolarning faoliyatini tiklash maqsadida o‘rnatilgan implantlarda (masalan, tish yoki ba’zi bir onkologik kasalliklar sababli) tegishli shifokor mutaxassis maslahatini olib nomzodning yaroqliligi aniqlanadi.

2-bob. Ruhiy holatning buzilishi va asab kasalliklari

7. Shizofreniya, paranoik buzilishlar, affektiv psixozlar (maniakal-depressiv psixoz, siklotimiya) mavjud bo‘lgan nomzodlarga nisbatan tibbiy xulosa faqat psixiatriya muassasasida o‘tkazilgan tekshiruv natijalari asosida rasmiylashtiriladi.

Mazkur kasalliklar aviatsiya xodimlarida aniqlangan hollarda, ular o‘z kasbiy funksional vazifalarini bajarishga yaroqsiz deb topiladi va kasbiy faoliyatga qayta tiklanmaydi.

Organik ruhiy holatning buzilishi aniqlangan nomzodlar barcha klasslar bo‘yicha kasbiy faoliyatni amalga oshirishga yaroqsiz deb topiladi hamda kasbiy faoliyatga qayta tiklanmaydi.

8. Nomzodlarga tibbiy xulosani rasmiylashtirishda quyidagi holatlar inobatga olinadi:

ruhiy-hissiyot sohasidagi reaktiv holatlarning o‘tkir yoki surunkali ruhiy jarohatlar ta’siri ostida yuzaga kelishi;

jarohatlovchi omilning psixiatrik simptomlar va klinik belgilar shakllanishiga bevosita sabab bo‘lishi;

ruhiy holatning buzilishlarini keltirib chiqaruvchi omil bartaraf etilganda, reaktiv holatning qisqa muddat ichida barqarorlashishi yoki tugashi.

9. Aviatsiya hodisalari (insidentlar)dan keyin yuzaga keladigan qisqa muddatli ruhiy holat buzilishlari bilan bog‘liq hollarda tibbiy ko‘rik o‘tkazish va uchuvchi ekipaj a’zolarining yaroqliligini baholashda quyidagi holatlar hisobga olinadi:

hodisaning kelib chiqishi, uning sababi va rivojlanish holati;

ko‘rikdan o‘tayotgan shaxsning birlamchi emotsional ta’siri;

komandirlik rahbariyati, dispetcher xizmati va kasbdoshlar tomonidan ko‘rsatilgan psixologik qo‘llab-quvvatlash darajasi;

mehnat va dam olish tartibiga rioya etilishi;

hodisaga oid omillar bilan bog‘liq boshqa psixologik, fiziologik va tashkiliy jihatlar.

10. Aviatsiya hodisalaridan (insidentlar) keyingi ruhiy tushkunlik yoki depressiya holatlari aviatsiya xodimining kasbiy faoliyatni davom ettirishga salbiy ta’siri ko‘rsatishi mumkinligi inobatga olinishi lozim.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Psixologik ko‘rik faqat tibbiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lganda, tibbiy ekspertlari hamda aviatsiya hodisasini tekshiruv komissiyasi raisining ruxsati bilan o‘tkazilishi kerak.

Tekshiruv jarayonida uchuvchining kasbiy majburiyatlarini bajarishiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan omillar, shaxsiy omillar va inson omili, shu jumladan havo kemasini boshqarishdagi xato harakatlar, tashkiliy omillar, uchuvchining kasbiy faoliyatini davom ettirishga bo‘lgan munosabati, sog‘lig‘i holatida buzilishlarni keltirib chiqaruvchi nizoli vaziyatlar, kasbdoshining og‘ir ahvolga tushishi yoki vafoti kabi holatlar hamda ushbu voqealarga nisbatan subyektiv ta’sirlanishining sabablari aniqlanishi lozim.

11. Aviatsiya xodimining yengil darajada ifodalangan ruhiy holatning o‘zgarishlari mavjud bo‘lganda, profilaktik tibbiy chora-tadbirlar va maxsus tavsiyalar talab etilmasa, uning ruhiy va jismoniy sog‘lig‘i holati barqaror deb topilganda hamda parvozlar xavfsizligini ta’minlashga to‘sqinlik qiluvchi omillar aniqlanmaganda, nevrolog ko‘rigi o‘tkazilgandan so‘ng kasbiy faoliyatni davom ettirishga yo‘l qo‘yiladi.

Aviatsiya xodimining aviatsiya hodisalaridan keyingi ruhiy holatning buzilishlari va nevrotik holatlar kuzatilganda, ularning davomiyligi, uning kasbini davom ettirishga bo‘lgan munosabati, komandir-instruktorlarning fikri, shuningdek psixofiziologik, fiziologik, jismoniy va kasbiy omillar inobatga olingan holda tibbiy yaroqlilik masalasi aniqlanadi.

Kechikib rivojlanadigan nevrozlar, qo‘rquv sindromlari yoki uchuvchilik faoliyatini davom ettirishga to‘sqinlik qiluvchi boshqa psixologik ta’sirlar mavjud bo‘lganda, ularga uchish ishiga yoki o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa rasmiylashtiriladi.

O‘tkazilgan reabilitatsiya chora-tadbirlarining ijobiy natijalari kuzatilganda aviatsiya xodimi kasbiy faoliyatiga qayta tiklanishiga yo‘l qo‘yiladi.

Psixopatiyalar ularning shakli va klinik belgilari qanday bo‘lishidan qat’i nazar, shuningdek nomzodning psixik bo‘lmagan buzilishlar (paranoid, affektiv, shizoid, qo‘zg‘aluvchan va boshqa turlari) mavjud bo‘lganda, nomzodlar uchish ishiga yoki o‘qishga yaroqsiz deb topiladi.

12. Quyida keltirilgan tashxislar bo‘yicha nomzodlar to‘liq sog‘ayganidan, ruhiy-asab faoliyati to‘liq kompensatsiyalanganidan hamda qo‘shimcha psixotrop terapiyaga ehtiyoj yo‘qligi tasdiqlanganidan so‘ng 4 oydan 6 oygacha muddat o‘tgach, psixiatriya yoki narkologiya muassasalarida psixolog va psixiatr ko‘rigidan o‘tkazilgandan so‘ng tibbiy ko‘rikka qo‘yilishiga yo‘l qo‘yiladi:

a) stress va somatoform buzilishlarga oid tashxislar (XKT-10):

og‘ir stressga javob reaksiyalari va adaptatsiya buzilishlari (F 43);

b) fiziologik va fizik omillar bilan bog‘liq fe’l-atvor sindromlari (XKT-10):

uyqu va bedorlik tartibining buzilishi (organik etiologiyasiz) (F51.2);

bosinqirashlar (F51.5);

organik etiologiya bilan bog‘liq bo‘lmagan jinsiy disfunksiyalar (F52);

tug‘ishdan keyingi davrga oid psixik va xulq-atvor buzilishlari (F53);

boshqa kasalliklar bilan bog‘liq psixologik va xulq-atvor omillari (F54);

aniqlanmagan fiziologik buzilishlar va fizik omillar bilan bog‘liq fe’l-atvor sindromlari (F59).

Mazkur holatlarda tibbiy xulosa rasmiylashtirilayotganda nomzodning asab-ruhiy faoliyatining kompensatsiya darajasi, psixoz yoki nevroz kechgan davrdagi ruhiy holati buzilishlarining xususiyatlari, chuqurligi, kechish dinamikasi, uning qaytalanish xavfi, psixotrop dori vositalarini doimiy qabul qilish zarurati mavjudligi yoki mavjud emasligi, prognozning ijobiyligi inobatga olinadi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Nomzodning ruhiy holati buzilishi xususiyatiga koʻra psixotrop dori vositalarini muntazam qabul qilish zarurati mavjud boʻlganda, u aviatsiya faoliyatini amalga oshirishga yoki oʻqishga yaroqsiz deb topiladi hamda uchish ishiga qayta tiklanmaydi.

13. Suitsidal urinishlar mavjud boʻlgan nomzodlarda uchish ishiga (oʻqishga) yaroqsizligi haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Bunda nomzod muammoga adekvat yechim topa olmaydi va ushbu holat ruhiy krizis sifatida tavsiflanadi.

Ushbu holatlarni oʻrganish jarayonida psixiatr hodisa boʻyicha guvohlarning koʻrsatmalarini, suitsidal urinishga sabab boʻluvchi omillarni, shaxsiy va oilaviy anamnezni, autoagressiv harakatlarning mazmuni, shakli va motivlarini aniqlashi lozim.

Mazkur holatlarda psixiatrik tekshiruv oʻtkazilishi hamda psixiatr tomonidan tibbiy xulosa rasmiylashtirilishi zarur.

Anamnezida suitsidal urinishlar aniqlangan nomzodlar barcha klasslar boʻyicha yaroqsiz deb topiladi va uchish ishiga, oʻqishga, parvozga yoki tegishli kasbiy faoliyatga qayta tiklanmaydi.

14. Vaziyatga bogʻliq astenik holatlar yoki nevrastenik sindrom kuzatilgan uchuvchi tarkibi (kursantlar), ushbu holatni yuzaga keltirgan sabablar bartaraf etilganda, klinik simptomlar toʻliq yoʻqolganda, psixologik testlar, klinik tekshiruvlar va nevrolog tomonidan olib borilgan dispanser kuzatuvi natijalari ijobiy boʻlganda, 4–6 oydan soʻng qayta tibbiy koʻrikdan oʻtkaziladi.

Jismoniy (somatogen) kasalliklar sababli qisqa muddatli ruhiy holat buzilishlarini boshdan kechirgan uchuvchi tarkibi (kursantlar), asosiy kasallikdan toʻliq sogʻaygandan soʻng doimiy quvvatlovchi (psixotrop) terapiyaga ehtiyoj mavjud boʻlmaganda va asab-ruhiy faoliyati toʻliq kompensatsiya qilinganda, ular uchish ishiga (oʻqishga) yaroqli deb topiladilar.

15. Shaxs buzilishlarining mavjudligini aniqlash va ekspert baholash jarayonida TUK a’zosi quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

shaxsni davomli kuzatuvdan oʻtkazish;

ekipaj a’zolari bilan suhbatlar oʻtkazish;

oilaviy va shaxsiy anamnezni oʻrganish;

psixologik testlar va sinovlar oʻtkazish;

jamoa ichidagi psixologik muhitni baholash.

Tekshiruv jarayonida, yomon moslashuvchanlik, konfliktlilik va ijtimoiy dezadaptatsiyaga olib keluvchi shaxs buzilishlarini oddiy individual xulq-atvor xususiyatlaridan farqlash lozim.

Psixiatriya muassasasida oʻtkazilgan tekshiruv natijalari va psixiatrning xulosasi asosida yakuniy tibbiy xulosa chiqariladi.

Tibbiy kuzatuv ma’lumotlari salbiy boʻlganda, turgʻun va aniq ifodalangan shaxs buzilishlari mavjud nomzodlar uchish ishiga (oʻqishga) yaroqsiz deb topiladi.

Shaxsning ahamiyatsiz buzilishlarida, kasbiy fazilatlarni (ish staji, tajribasi, mahorati, bajarilayotgan vazifaning sifati va boshqalarni hisobga olgan holda, yaroqliligi toʻgʻrisidagi xulosa chiqariladi.

16. Nomzodlarda kam darajada ifodalangan infantilizm belgilari mavjud boʻlganda, asab-ruhiy faoliyatining ijtimoiy va kasbiy jihatdan yetarli kompensatsiyalanganligi aniqlansa, nomzodga aksentuatsiyasi yaroqsizlik toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqarish uchun asos boʻlmaydi.

17. Nomzodning xulq-atvorida ilgari kuzatilmagan noadekvat ta’sirlar paydo boʻlganda, ushbu holat psixolog va psixiatr tekshiruvini oʻtkazish uchun asos hisoblanadi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Psixolog tomonidan nomzodning individual-psixologik xususiyatlarida buzilishlar aniqlanganda, nevrologik klinikada qo‘shimcha tekshiruvlar o‘tkaziladi hamda ko‘rsatma mavjud bo‘lganda, psixiatr maslahati tashkil etiladi.

Nomzodda turg‘un va salbiy belgilari bilan yaqqol ifodalangan shaxsiyat buzilishlari mavjud bo‘lganda, yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi. Bunda buzilishlar kam ifodalangan hollarda esa, uning kasbiy sifatlari, jumladan mehnat staji, ish tajribasi, bajarilayotgan ish sifatini hisobga olgan holda, unga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqliligi to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

18. Alohida vaziyatga bog‘liq omillar natijasida yuzaga kelgan insomniya, disomniya yoki sirkad ritmlarining buzilishi aniqlanganda, aviatsiya xodimi o‘z kasbiy vazifalarini bajarishdan chetlatiladi hamda davolanish uchun psixologga yuboriladi.

Davolash jarayonida gipnoz usullaridan, shuningdek aviatsiya faoliyatida qo‘llanishiga yo‘l qo‘yilmaydigan sedativ dori vositalaridan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki alkogol iste’moli bilan bog‘liq turg‘un insomniya yoki disonmiya mavjud bo‘lganda, barcha klasslar bo‘yicha nomzodlar yaroqsiz deb topiladi hamda kasbiy faoliyatga qayta tiklanmaydi.

Mazkur hollarda uchish ishiga (o‘qishga) yaroqli deb topilgan nomzodlar komissiya oralig‘i davrida nevrolog tomonidan har 6 oyda bir marotaba dispanser kuzatuvidan, psixolog tomonidan esa yiliga bir marotaba psixologik tekshiruvdan o‘tkaziladi.

Tibbiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lgan hollarda, psixiatr maslahati o‘tkaziladi hamda psixokorreksiya muolajalari amalga oshiriladi.

Tashxisni bekor qilish muddati (barqaror remissiyani tasdiqlash) nevrolog tomonidan aniqlanadi.

Ma’lum bir somatik kasallik bilan bog‘liq bo‘lgan qisqa muddatli ruhiy holatning buzilishini o‘tkazgan nomzodlar asosiy kasallikdan sog‘aygandan so‘ng doimiy ravishdagi yordamchi davolash usullarini qo‘llash talab qilmaydigan asab-ruhiy faoliyatining to‘liq kompensatsiyasida uchish ishiga (o‘qishga) yaroqli deb topilishlariga yo‘l qo‘yiladi.

19. Alkogol, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste’mol qilish natijasida yuzaga keladigan ruhiy hamda xulq-atvor buzilishlari, shuningdek surunkali alkogolizm, 1 yil va undan ortiq davom etgan muntazam alkogol, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar iste’moli holatlarida barcha nomzodlar uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsiz deb topiladi va kasbiy faoliyatga qayta tiklanmaydi.

Alkogol yoki psixotrop moddalarni iste’mol qilish oqibatida yuzaga kelgan jismoniy, psixologik va xulq-atvor buzilishlari inobatga olingan holda nomzodga tegishli tashxis qo‘yiladi.

O‘tkir (o‘tkir osti) alkogolli psixoz alkogolli deliriy, paranoid holatlar, gallyusinoz, rashk vasvasasi va shu turdagi boshqa holatlarda yoki alkogolizmga gumon bo‘lgan hollarda narkolog ko‘rigi o‘tkaziladi.

20. Alkogolli qaramlik (alkogolizm) shakllanmagan hollarda, alkogolning zararli iste’moli yoki bir martalik alkogol bilan o‘tkir zaharlanish aniqlanganda, aviatsiya xodimi darhol xizmat vazifalaridan chetlatiladi va chuqurlashtirilgan tibbiy hamda psixologik tekshiruvlardan, narkolog maslahati va sog‘lomlashtirish-davolash tadbirlaridan o‘tkaziladi.

Nevrolog tomonidan belgilangan muddat davomida tibbiy kuzatuv olib borilib, 2–4 oydan so‘ng tibbiy tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lganda, narkolog xulosasida ijobiy prognoz qayd etilganda hamda aviatsiya xodimining xizmat tavsifnomasi qoniqarli bo‘lganda, u qayta tibbiy ko‘rikdan o‘tkaziladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Qayta tibbiy ko‘rik natijasida yaroqlilik aniqlanganda, aviatsiya xodimining o‘z kasbiy faoliyatiga tiklanishi mumkin.

21. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste’mol qilganlikni aniqlash bo‘yicha tekshiruv quyidagi asoslarda amalga oshiriladi:

nomzodning o‘z arizasiga asosan;

siydik, qon yoki boshqa biologik materiallarning obyektiv laboratoriya tahlillari asosida;

klinik belgilar va simptomlar mavjudligi yoki mazkur masalada xabardor bo‘lgan uchinchi shaxslarning ma’lumotlari asosida.

Tekshiruv natijalari ishonchliligini ta’minlash maqsadida ma’lumotlar bir nechta mustaqil manbalardan olinishi lozim.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni aniqlashga qaratilgan identifikatsiyalovchi laboratoriya tahlillari nomzod tomonidan mazkur moddalarni hozirgi vaqtda, yaqinda yoki o‘tmishda iste’mol qilganligini tasdiqlovchi asosiy obyektiv dalil sifatida qabul qilinadi.

22. Uchuvchi tarkibi (kursantlar) alkogol, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste’mol qilganligi haqida gumon paydo bo‘lganda yoki ushbu mazmunda ma’lumot olinganda, aviatsiya tibbiy xodimi uning jismoniy va ruhiy holati, iste’mol qilish ehtimolini ko‘rsatadigan dalillar va sharoitlarni bayon etgan holda dalolatnoma rasmiylashtiradi.

Mazkur holatda uchuvchi tarkibi (kursantlar) aviatsiya tibbiy xodimi kuzatuvida, mavjud tibbiy hujjatlar, klinik belgilari va ashyoviy dalillar (shpris, dori vositalari qoldiqlari va boshqalar) bilan birgalikda narkologik muassasaga yuboriladi.

Uchuvchi tarkibining (kursant) alkogol, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste’mol qilganligini aniqlashga qaratilgan tibbiy tekshiruvlardan bosh tortishi, unga tibbiy xulosa berilmaslikka yoki ilgari berilgan tibbiy xulosani haqiqiy emas deb topilishiga asos bo‘ladi.

Anamnezida toksikomaniya, narkomaniya yoki surunkali alkogolizm holatlari mavjudligi aniqlangan uchuvchi tarkibi (kursantlar), uchish faoliyatidan chetlatilgan davri va o‘tgan muddatidan qat’i nazar, barcha klasslar bo‘yicha kasbiy faoliyatni davom ettirishga yaroqsiz deb topiladi va kasbiy faoliyatiga qayta tiklanmaydi.

Nomzodda epilepsiya tashxisi aniqlanganda, u barcha klasslar bo‘yicha kasbiy faoliyatga yaroqsiz deb topiladi va uchish ishiga (o‘qishga) qayta tiklanmaydi.

23. Epilepsiya mavjudligiga gumon qilingan uchuvchi tarkibi va kursantlar ixtisoslashtirilgan tibbiy muassasaga chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tish uchun yuboriladi.

Yuborishdan avval tutqanoq holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar bayon etilgan, guvohlar imzolari bilan tasdiqlangan hamda aviatsiya tibbiyot xodimi tomonidan rasmiylashtirilgan dalolatnoma tuziladi.

Tashxis quyidagi majburiy tekshiruvlar asosida qo‘yiladi:

kasallik tarixi (anamnez)ni batafsil o‘rganish;

to‘liq nevrologik ko‘rik;

elektroensefalografiya (bundan buyon matnda EEG deb yuritiladi);

kompyuter tomografiyasi (bundan buyon matnda KT deb yuritiladi) yoki magnit-rezonans tomografiya (bundan buyon matnda MRT deb yuritiladi);

psixiatr va epileptolog xulosalari.

24. Birinchi marta EEGda paroksizmal faollik aniqlangan uchuvchi tarkibi (kursant) nevrologiya muassasada chuqurlashtirilgan tekshiruvdan o‘tkazilishi lozim.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

EEGda ilk bor epileptiform faollik (“cho‘qqi-sust to‘lqin” turidagi o‘zgarishlar) aniqlanganda va epilepsiya uchun xos klinik belgilar hamda markaziy asab tizimining organik shikastlanishlari mavjud bo‘lmaganda, uchuvchi tarkibi (kursant) nevrologiya muassasida tekshiruvdan o‘tkaziladi.

EEGdagi paroksizmal, epileptoid faollik va ahamiyatga ega kuchli ifodalangan o‘zgarishlar aniqlanganda, 3–6 oy davomida takroriy nevrologiya muassasasi tekshiruvlari natijasida tasdiqlanganda, uchuvchi tarkibiga (kursant) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Ongning paroksizmal buzilishlarini (qisqa muddatli paroksizm, hushning o‘zgarishi, epizodik yo‘qotilishi) o‘tkazgan uchuvchi tarkibiga (kursant) tibbiy ekspertlar tomonidan tibbiy xulosa chiqariladi.

25. Turli etiologiyali bosh va orqa miya patologiyalari, bosh va orqa miyaning birlamchi kasalliklari (vaskulitlar, rivojlanish anomaliyalari, anevrizmalar, ateroskleroz, somatogen, vertebrogen va boshqa etiologiyali tomirlarning ikkilamchi shikastlanishlari) mavjud bo‘lgan nomzodlarda kasbiy faoliyatni bajarish jarayonida ish qobiliyatini to‘satdan yo‘qotish xavfini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan omillar birlamchi insult (kriz) rivojlanishi, kasallikning qaytalanishi, tranzitor ishemik epizodlar yoki miya qon aylanishining o‘tkir buzilishlari aniqlanishi hamda tibbiy xulosa chiqarilishi lozim. Tibbiy xulosada quyidagilar inobatga olinadi:

kasallikning etiologiyasi va kechishi;

nevrologik, psixik va funksional buzilishlarning darajasi;

yuklama sinovlarini bajarish qobiliyati;

psixologik tekshiruv natijalari;

bajariladigan kasbiy funksiyalarni xavfsiz bajarishga ta’sir etuvchi boshqa omillar;

yondosh kardiologik kasalliklar (arterial gipertenziya, yurak ritmi buzilishlari), qandli diabet, dislipidemiya, chekish va prognozni yomonlashtiruvchi boshqa xavf omillari.

26. Gemorragik yoki ishemik genezdagi miya qon aylanishining o‘tkir buzilishi, tranzitor ishemik ataka (bundan buyon matnda TIA deb yuritiladi) subaraxnoidal qon quyilishini yoki tomir krizi hamda miya qon aylanishining surunkali buzilishlari mavjud bo‘lganda, nomzodlarga barcha klasslar bo‘yicha yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi. Biroq, quyidagi klinik va instrumental tekshiruvlar natijasida:

markaziy asab tizimining nevrologik va ruhiy funksiyalari saqlanganligi;

kasallikning yengil darajada bo‘lishi;

aterosklerotik o‘zgarishlar minimal va barqaror xususiyatga ega ekanligi tasdiqlanganda, uchuvchi tarkibiga uchish ishiga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa berilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Bunda yaroqlilik to‘g‘risidagi tibbiy xulosa barcha klinik, instrumental, psixologik ko‘rsatkichlar asosida chiqariladi.

27. Bosh miya tomirlari kasalliklari mavjud bo‘lgan aviatsiya xodimlariga tibbiy xulosalar quyidagilarni inobatga olgan holda chiqariladi:

bosh miya arteriyalarining dupleks skanerlashida (bundan buyon matnda BMA DS deb yuritiladi) arteriya intimasining 1 mm dan ortiq qalinlashuvi;

ultratovush dopplerografiyasida (bundan buyon matnda UTDG deb yuritiladi) qon oqimi chiziqli tezligining chegaraga yaqin assimetriyalari, qonda giperlipidemiya, ko‘z tubida boshlang‘ich sklerotik o‘zgarishlar, ayrim nevrologik mikrosimptomlar (masalan, yorug‘likka sust reaksiyali qorachiqlar, kaft-engak refleksining sustligi), yengil darajadagi kognitiv o‘zgarishlar va EEGda ahamiyatsiz funksional o‘zgarishlar (boshlang‘ich belgilari bilan asab-ruhiy funksiyalari

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

yetarlicha saqlanganda, bosh miya tomirlarining aterosklerozi tashxisi qo‘yiladi va nomzod uchish ishiga (o‘qishga) yaroqli deb topiladi hamda ateroskleroznng rivojlanishiga qarshi profilaktik chora-tadbirlar belgilanadi);

BMA DSda bitta arteriyaning 50 foiz va undan ortiq yashirin stenozining mavjudligi, bir yoki bir nechta arteriyalarda turg‘un bo‘lmaganda, embologen xususiyatga ega aterosklerotik blyashkalari aniqlanganda uchuvchi tarkibi qo‘shimcha nazorat tekshiruvlariga yuboriladi va ma’lumotlar tasdiqlanganda bosh miyada qon aylanishining o‘tkir buzilish xavfi yuqori bo‘lganda, bosh miya tomirlarining aterosklerozi tashxisi qo‘yiladi va yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa rasmiylashtiriladi.

Aterosklerotik o‘zgarishlar mazkur bandning uchinchi va to‘rtinchi xatboshilarida keltirilgan ikki holat orasida bo‘lganda, jumladan gemodinamik jihatdan ahamiyatsiz stenozlarda, turg‘un aterosklerotik blyashkalarda, normaga yaqin xavf tug‘dirmaydigan psixologik, bioximik yoki EEG o‘zgarishlar mavjudligida asab-ruhiy faoliyatlari yetarlicha saqlanganda, bosh miya tomirlarining aterosklerozi tashxisi qo‘yiladi va tibbiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lsa, transkranial BMA DS va MRT-angiografiya o‘tkaziladi hamda individual tartibda tibbiy xulosa chiqariladi.

Tibbiy xulosada arterial gipertoniya, chekish, giperlipidemiya, ortiqcha tana vazni, yosh, nevrologik va psixik funksiyalarning saqlanganligi hisobga olinishi lozim.

Yaroqli deb topilgan uchuvchi tarkibiga 6 oyda 1 marta nevrolog dispanser kuzatuvi belgilanadi.

TIA o‘tkazgan shaxslar bo‘yicha differensial diagnostika (turli genezli behushlik holatlaridan farqlash) majburiy ravishda o‘tkaziladi.

Miya qon aylanishining o‘tkir buzilishini o‘tkazgan yoki miya qon aylanishining surunkali yetishmovchiligi mavjud bo‘lgan uchuvchilar yaroqsiz deb topiladi.

Turli genezli vaskulitlar o‘tkazilganda, davolanish yakunlangandan so‘ng remissiya muddati kamida 2 yil davom etgan barqaror holatda, kasallik turi va sabablari, xavf darajasi hamda bajariladigan kasbiy vazifalar hisobga olingan holda nomzodga individual tibbiy xulosa chiqariladi.

MRTda tomirga oid genezli gliozlar yoki 2-3 mm o‘lchamdagi mayda kistalar aniqlanganda, uchuvchi tarkibi kardiolog, endokrinolog, terapevt yoki neyrojarroh ko‘rigidan o‘tkaziladi.

Kasbiy majburiyatlarni xavfsiz bajarishga to‘sqinlik qiladigan klinik, organik yoki funksional buzilishlar aniqlanmaganda, nomzod uchish ishiga yoki o‘qishga yaroqli deb topiladi.

28. Kuchli darajadagi toksik zaharlanishlar, jumladan alkogolli ensefalopatiya, qo‘rg‘oshin bilan zaharlanish aniqlanganda, ko‘rikdan o‘tuvchilar yaroqsiz deb topiladi.

Miya faoliyatining buzilishiga olib keluvchi va miya to‘qimasining tuzilmasi qaytmas darajada zararlanishi bilan kechuvchi nerv tizimining organik kasalliklari aniqlangan shaxslar mutlaqo yaroqsiz deb topiladi.

Aviatsiya xodimlarida nerv tizimining organik shikastlanishi birinchi marta aniqlanganda, shaxs tibbiy muassasaning nevrologiya bo‘limida chuqurlashtirilgan tekshiruvdan o‘tkaziladi. Bunda KT va MRT kabi instrumental tekshiruvlar o‘tkaziladi.

29. Nerv tizimining yuqumli kasalliklari yoki toksik zaharlanishlarini o‘tkazgan nomzodlarga quyidagi shartlar bajarilganda, uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi:

kasallikdan to‘liq sog‘aygan bo‘lsa;

nerv-ruhiy (psixonevrologik) funksiyalar to‘liq tiklangan bo‘lsa;

nerv tizimi faoliyatining buzilishiga olib kelmaydigan, faqat yengil darajadagi organik mikrosimptomlar saqlanib qolgan bo‘lsa;

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

klinik va instrumental tekshiruvlar natijasida miya to‘qimasining organik shikastlanishi belgilari aniqlanmasa.

Kasbiy faoliyatni bajarish uchun muhim bo‘lgan funksiyalar klinik va funksional jihatdan yetarli darajada saqlanganda, nerv-mushak apparati hamda markaziy yoki periferik nerv tizimining sust progredient kechuvchi, boshlang‘ich bosqichdagi irsiy-degenerativ kasalliklari aniqlangan nomzodlarga kasbiy vazifalarni xavfsiz bajarish qobiliyatiga ta’sir etuvchi omillar mavjud bo‘lmaganda, nomzodga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

30. Grippli ensefalit, o‘tkir ensefalomielit va o‘tkir kana ensefaliti kabi nerv tizimining o‘tkir yuqumli-yallig‘lanish kasalliklarini o‘tkazgan nomzodlar quyidagi minimal muddatlar o‘tgach uchish ishiga yaroqlilikni aniqlash maqsadida tibbiy ko‘rikdan o‘tkaziladi:

grippli ensefalitni o‘tkazgan nomzodlar kasallikdan so‘ng kamida 1 – 2 yil o‘tgach;

o‘tkir ensefalomielitni o‘tkazgan nomzodlar kasallikdan so‘ng kamida 2 yil o‘tgach;

o‘tkir kana ensefalitini o‘tkazgan nomzodlar kasallikdan so‘ng kamida 3 yil o‘tgach.

Epidemik serebrospinal meningitni o‘tkazgan nomzodlar kasallikdan so‘ng kamida 1 yil o‘tgach uchish ishiga yaroqliligini baholash uchun tibbiy ko‘rikdan o‘tkaziladi.

Meningokokli rinit, faringit, uncha bilinmaydigan meningokok infeksiyasini o‘tkazgan shaxslar terapevt tomonidan tibbiy ko‘rikdan o‘tkaziladilar.

31. Bosh miya jarohatini boshdan kechirgan nomzodlar to‘liq davolanish yakunlangandan keyin nevrologik buzilishlar aniqlanmaganda, chuqurlashtirilgan klinik tekshiruv natijalari asosida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilishi mumkin.

Bunda jarohatning mexanizmi va yuz berish sharoitlari baholanishi, shu jumladan kontaktsiz bosh miya jarohati, miya siljishi, qon tomirlar yorilishi, shuningdek jarohat oqibatida atlant-oksipital birikma tuzilmalarining shikastlanishi ehtimoli inobatga olinishi lozim.

Jarohatning xususiyati va og‘irlik darajasidan tashqari, jarohatdan keyingi davrda posttravmatik epilepsiya rivojlanishi ehtimoli bilan bog‘liq boshqa xavf ham hisobga olinadi.

Jarohatning xususiyati va og‘irlik darajasiga qo‘shimcha ravishda, jarohatdan keyingi davrda posttravmatik epilepsiya rivojlanishi ehtimoli bilan bog‘liq xavf omillari ham baholanishi shart.

Mazkur holatda tibbiy xulosa anamnez ma’lumotlari, EEG natijalarining dinamikasi, yo‘qotilgan funksiyalarning kompensatsiyalanish darajasi, qo‘shimcha yuklama sinovlari natijalari hamda psixologik tekshiruv xulosalari asosida chiqariladi.

32. Bosh miya jarohatlaridan keyin tibbiy ekspert xulosasi quyidagi holatlarda kompleks baholangan holda chiqariladi:

amneziya va ongning o‘zgaruvchanlik davrlari davom etish muddati, ularning xususiyati va barqarorligini;

jarohatning turi va og‘irlik darajasi, shuningdek jarohatga oid klinik belgilarni;

sog‘ligiga doir shikoyatlarning mavjudligi, ularning xususiyati va dinamikasini;

nomzodning maishiy faoliyat va kasbiy vazifalarni bajarish qobiliyatini (muhim kasbiy psixologik fazilatlarning saqlanganligi, shaxsiyat va xulq-atvorga oid funksiyalarning yetarli darajada barqarorligi);

jarohatdan oldingi sog‘liq holati va jarohatdan keyingi asoratlarning mavjudligi yoki yo‘qligini (postkommotsion sindrom, fokal nevrologik buzilishlar, kognitiv funksiyalar buzilishining oqibatlari, posttravmatik epilepsiya);

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

uzoq davom etuvchi parvozlar yoki ishning murakkab jarayonlarida sog‘liqning yomonlashuvi natijasida ish qobiliyatini to‘satdan yo‘qotish xavfini;

parvoz xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan dori vositalarini qabul qilish bilan bog‘liq holatlarni;

kasbiy faoliyat xavfsizligini ta’minlashga ta’sir etuvchi boshqa tibbiy va psixofiziologik omillarni.

33. Asab-ruhiy funksiyalarning turg‘un kompensatsiya holati (posttravmatik holatlarda yengil vegetativ disfunksiya yoki yengil nevrologik simptomatika) mavjud bo‘lganda, nomzodlarga o‘zlari o‘zlashtirgan aviatsiya texnikasidan boshqa turdagi aviatsiya texnikasiga qayta o‘qish tavsiya etilmaydi.

Kasbiy faoliyatga tiklangan nomzodlar tiklangan kundan boshlab 5 yil davomida nevrolog tomonidan dispanser kuzatuvida bo‘lishi lozim.

34. Bosh suyagi gumbazining ichga botgan sinishi, bosh miyaning lat yeyishi, parenximatoz gematoma, 1 kundan ortiq davom etgan posttravmatik amneziya, bosh miya parenximasida qon mavjudligi hamda subdural gematomalar kuzatilganda, posttravmatik epilepsiya rivojlanish xavfi tibbiy tekshiruv o‘tkazishda inobatga olinishi lozim.

35. Bosh gumbazining chiziqli sinishi, bosh suyagi tubining likvoreyasiz sinishi yoki subaraxnoidal qon quyilishi bilan kechgan bosh miyaning o‘rta va og‘ir darajadagi lat yeyishidan keyin 1 - 2 yil o‘tgach, tibbiy kuzatuv hamda tekshiruv natijalari ijobiy bo‘lganda va ijobiy prognoz bo‘laganda, nomzod kasbiy faoliyatga qayta tiklash masalasini ko‘rib chiqish uchun tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilishi mumkin.

36. Nomzodda parenximada qon quyilishi kuzatilmaganda, asoratlarsiz kechgan oddiy epidural gematomadan keyin 1-2 yil o‘tgach, subdural gematoma bilan kechgan bosh miya lat yeyishidan keyin 2 yil o‘tgach, bosh miya chayqalishidan keyin 1,5 – 3 oy o‘tgach, bosh miyaning yengil darajadagi lat yeyishidan keyin 3 – 6 oy o‘tgach, qo‘shaloq bosh miya shikastlanishlaridan keyin 6 – 24 oy o‘tgach, postkommotsion sindromda esa kamida 3 oy o‘tgach, nevrologik va kognitiv funksiyalar saqlangan, yuklama sinamalariga chidamlilik ijobiy bo‘lgan hollarda psixolog, psixiatr va oftalmolog ko‘rigi, bosh miyaning MRTsi, EEG hamda zaruratga ko‘ra boshqa qo‘shimcha tekshiruvlar o‘tkaziladi.

Mazkur tekshiruvlar natijalariga ko‘ra nomzodning yaroqliligi to‘g‘risidagi tibbiy xulosa individual tartibda chiqariladi.

37. Tashxisni rasmiylashtirish jarayonida tibbiy hujjatlarda quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi lozim:

bosh miya jarohatlarining klinik ko‘rinishi (jarohat turi, darajasi va mavjud asoratlar);

jarohat olingan sana (aniq kun, oy, yil);

tekshiruv vaqtida kasallik jarayonining davri (o‘tkir davr, erta yoki kech reabilitatsiya davri);

posttravmatik sindromning klinik tavsifnomasi;

nerv-ruhiy (psixonevrologik) funksiyalarning holati (kognitiv, vegetativ, psixomotor, affektiv ko‘rsatkichlar).

38. Vegetativ asab tizimining surunkali kasalliklari paroksizmal kechuvchi shakllari, tez-tez qaytalanuvchi zo‘rayishlar, shuningdek krizli reaksiyalar (vazovagal, simpatik, vagoinsulyar, simpatoadrenal, aralash xususiyatdagi, adrenal va diensefal turlari) bilan kechuvchi vegetativ-tomir buzilishlari mavjud bo‘lgan nomzodlar aviatsiya faoliyatiga yaroqsiz deb topiladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Ushbu guruhga migren, solyarit, Mener sindromi, umurtqa arteriyasi sindromi, diensefal sindromi, angionevrozlar (angiotrofonevrozlar, Reyno kasalligi), qaytalanuvchi angionevrotik shish (Kvinke shishi), ortostatik essensial gipotoniya kasalliklari kiradi.

39. Aniq klinik ma’lumotlarni olish maqsadida quyidagi instrumental tekshiruvlar o‘tkaziladi:

KT – umurtqa tuzilmasining holatini baholash uchun;

MRT – orqa miya, uning ildizlari va paravertebral tuzilmalar holatini aniqlash uchun;

bosh miya tomirlarining BMA DS va ultratovush doplerografiyasi, UTDG – rotatsiya sinamalar davomida paydo bo‘luvchi yoki kuchayuvchi vertebro-bazilyar basseyndagi (VBB) qon oqimining pasayish holatini aniqlash uchun;

bosh miya MRT – serebral to‘qimalardagi morfologik o‘zgarishlar, shikastlanish yoki patologik jarayonlarni baholash uchun;

viziometriya, perimetriya, oftalmoskopiya, shuningdek audiometriya, kalorik sinama va boshqa maxsus tekshiruvlar – tibbiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lgan hollarda.

40. Konstitutsional-irsiy genezli vegetativ-tomir disfunksiyasi mavjud bo‘lgan nomzodlar, shuningdek gormonal o‘zgarishlar fonida yoki somatik kasallikdan keyin kuzatiluvchi vegetativ-tomir buzilishlarida, tekshiruv vaqtida remissiya bosqichi turg‘un bo‘lgan hollarda (asosiy kasallikdan to‘liq sog‘aygandan keyin kamida 2-3 oy o‘tgach) tibbiy xulosa quyidagi talablar asosida chiqariladi:

vegetativ-tomir buzilishlarining og‘irlik darajasi;

klinik tekshiruv natijalari;

ortosinama, vestibulyar sinama va boshqa yuklama sinovlariga chidamlilik darajasi;

psixofiziologik va nevrologik funksiyalarning barqarorligi;

kasbiy faoliyatni bajarishga ta’sir etuvchi xavf omillarining mavjudligi yoki yo‘qligi.

Vegetativ-tomir tizimi buzilishlarining klinik tavsifida funksional kardiovaskulyar simptomlar bo‘lgan hollarda, yakuniy tibbiy xulosa klinik tekshiruvlar natijalari asosida terapevt tomonidan chiqariladi.

41. Umurtqaaro disk churrasini jarrohlik yo‘li bilan olib tashlagan nomzodlarda asoratlar mavjud bo‘lmaganda, nevrologik dinamikasi ijobiy bo‘lganda hamda reabilitatsiya davri to‘liq yakunlanganidan so‘ng kamida 3–6 oydan keyin tibbiy ko‘rik o‘tkaziladi.

Tibbiy ko‘rik jarayonida quyidagilar baholanadi:

to‘satdan va oldindan prognoz qilib bo‘lmaydigan o‘tkir og‘riq xurujlarining yuzaga kelishi;

kasallikning qaytalanish xavfi;

funksional tiklanish darajasi;

uzoq muddat davomida analgetiklar va mushak relaksantlarini qabul qilish bilan bog‘liq oqibatlar.

42. Asab ildizchalari funksional buzilishlari aniqlanmaganda, biroq umurtqa pog‘onasi harakatchanligining cheklanishi yoki funksional buzilishlari mavjud bo‘lgan hollarda, jarroh (vertebrolog yoki neyrojarroh maslahati asosida) tomonidan tibbiy xulosa chiqariladi.

43. Umurtqa pog‘onasining orqa miya ildizlari, nerv ustunlari, nerv chigallari va gangliylarining periferik neyrovaskulyar sindromlar yoki ildizli kompressiyalar bilan kechuvchi surunkali kasalliklari hamda jarohatlari, shuningdek ushbu holatlar bo‘yicha

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

o‘tkazilgan jarrohlik amaliyotidan keyin kasbiy majburiyatlarni bajarishga to‘sqinlik qilmaydigan ahamiyatsiz funksional buzilishlar mavjud bo‘lgan hollarda nomzodlar o‘qishga yaroqsiz, biroq ish faoliyatini bajarishga yaroqli deb topiladi.

44. Sinkopal (behushlik) holatni o‘tkazgan nomzodlar ishdan (o‘qishdan) chetlatilishi lozim.

Mazkur shaxslar terapevt va nevrolog tomonidan birlamchi tibbiy ko‘rik o‘tkazilgandan so‘ng ular tibbiy muassasaning nevrologiya bo‘limiga yuborilishi hamda tekshiruvdan o‘tkazilishi kerak.

Sinkopal holat yuzasidan dalolatnoma ushbu holat sodir bo‘lgan vaqtda nomzodning yonida bo‘lgan birinchi tibbiy xodim (shifokor) rasmiylashtiradi va uni TUKka taqdim etadi.

Dalolatnomada quyidagilar ko‘rsatiladi:

behushlik holatining klinik ko‘rinishi va belgilari;

holat sodir bo‘lgan vaziyat, sharoit va ehtimoliy sabablar;

sinkopal epizodning davomiyligi va dinamikasi.

Dalolatnoma guvohlarning, mazkur holatni o‘tkazgan shaxsning va shifokorning imzolari qo‘yiladi.

45. Dalolatnomani rasmiylashtirishda, sinkopal holatlarni tasniflashda, differensial diagnostika o‘tkazish, tekshiruvlar hajmini belgilash hamda yaroqlilikni aniqlash amalga oshiriladi.

Asab tizimi yoki ichki organlarning organik kasalliklarini davolab, ong paroksizmal buzilishlarini differensial diagnostikasini o‘tkazish, behushlik sababi va xususiyatini aniqlash, organizmning funksional rezervlarini baholash va ong buzilishini takrorlanish ehtimolini aniqlab tibbiy xulosa chiqariladi.

Sinkopal holatni yuzaga keltiruvchi sabablar aniqlanganda, aviatsiya xodimining yaroqliligi asosiy kasallikning holati, uning qaytalanish ehtimoliga hamda parvozlar xavfsizligiga ta’sir darajasiga ko‘ra tibbiy xulosa chiqariladi.

46. Sog‘lom aviatsiya xodimida hayajon, og‘riq yoki kuchli gipoksiya ta’siriga yuqori sezuvchanlik tufayli yuzaga kelgan bir martalik behushlik holatida, ushbu holatni keltirib chiqaruvchi yashirin muhim mexanizmlar bo‘lmaganda va uning kelib chiqishi bezarar deb topilganda, unga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Sog‘lom aviatsiya xodimida ma’lum bir vaziyatda xavfsiz deb topilgan behushlik holati 2 marta takrorlanganda, aviatsiya xodimi 3 oydan 12 oygacha bo‘lgan muddatga davolanish yoki dam olish uchun ishdan chetlatiladi hamda nevrologning dispanser kuzatuviga olinadi.

Behushlik holatlari ko‘p marotaba (3 va undan ortiq) takrorlanganda, nomzod uchish ishiga, o‘qishga yoki parvozga yaroqsiz deb topiladi. Bunda 2 yil o‘tgach, vegetativ-tomir labiliteti, arterial gipotenziya va yuklama sinamalariga chidamsizlik belgilari mavjud bo‘lmaganda, unga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa individual tartibda chiqarilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Etiologiyasi aniqlanmagan behushlik holatlarida nomzodga uchish ishiga, parvozga yoki o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

3-bob. Ichki kasalliklar

47. Aviatsiya xodimida infeksiya va parazitar kasalliklardan sog‘ayganidan keyin infeksionistning ijobiy xulosasi va chuqurlashtirilgan tekshiruvlarning ijobiy natijalari asosida ularning yaroqliligi to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Virusli gepatit hamda gemorragik bezgakni o‘tkazgan nomzodlarning uchish ishiga, o‘qishga, ishga yoki parvozga yaroqliligi vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi yopilgandan so‘ng aniqlanadi.

48. Klinik prognozi salbiy bo‘lgan qon va qon yaratuvchi a’zolar kasalliklari aniqlangan nomzodlarga uchish ishiga, o‘qishga, ishga yoki parvozga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Qon va qon yaratuvchi a’zolar kasalliklari aniqlanganda hamda gemoglobin konsentratsiyasi 105 g/l dan past bo‘lganda, nomzod ixtisoslashtirilgan tibbiy muassasada chuqurlashtirilgan tekshiruvdan o‘tkaziladi.

Tekshiruv natijalari va davolash yakunlari ijobiy bo‘lganda, gematolog xulosasi hamda prognozi asosida, kasallikning aniqlangan sababi, laborator-klinik ko‘rsatkichlarning me’yoriy holati, kasallikning remissiya bosqichi va turi (postgemorragik, temir tanqisligi anemiyasi va boshqalar) hisobga olingan holda, nomzodga uchish ishiga, o‘qishga, ishga yoki parvozga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Mazkur kasalliklarni baholashda organizmning metabolik ehtiyojlarini qondirish uchun qonning kislorodni yetarli darajada tashish xususiyati, shuningdek yerda va balandlik sharoitida, tinch holatda hamda jismoniy va ruhiy zo‘riqish davrlarida organizmning funksional imkoniyatlari inobatga olinadi.

49. Sog‘lom uchuvchilarda qondagi gemoglobin konsentratsiyasining normasi erkaklarda 130 g/l, ayollarda esa 120 g/l ni tashkil etadi. Mazkur ko‘rsatkichlar pasaygan taqdirda, shaxs qo‘shimcha tekshiruvdan o‘tkaziladi va zaruratga ko‘ra davolanish uchun uchishdan chetlatiladi.

Gemoglobinopatiyalar mavjud bo‘lgan hollarda kasallik xurujlarsiz kechsa va nomzod to‘liq hajmdagi funksional qobiliyatlarga ega bo‘lsa, u yaroqli deb topilishiga yo‘l qo‘yiladi.

50. Vaqtinchalik xususiyatga ega trombotsitopeniyalar (temir tanqisligi sababli kamqonlik yoki dori vositalarini qabul qilish oqibatida suyak iligi faoliyatining pasayishida) bilan bog‘liq hollarda trombotsitlar miqdori va boshqa ko‘rsatkichlar normal darajaga yetgandan so‘ng yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Trombotsitlar miqdori 75×10^9/l dan kam bo‘lgan trombotsitopeniyada nomzod uchish ishiga yoki o‘qishga yaroqsiz deb topiladi.

Splenektomiya o‘tkazilgan idiopatik trombotsitopenik purpura holatlarida, agar 6 oy davomida trombotsitlar miqdori normada saqlansa, yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Yaroqli deb topilgan nomzodlarda trombotsitlar miqdori har 6 oyda nazorat qilinadi.

51. Uchish ishida antikoagulyantlar (kumarinlar, varfarin) yoki kuchli antitrombotsitar dori vositalarini (masalan, klopidogrel va shunga o‘xshash) qabul qilinishi diskvalifikatsiya omili hisoblanadi (kichik dozadagi aspirin bundan mustasno).

52. Kompensatsiyalangan, a’zolar faoliyati saqlangan gemoglobinopatiyalar va gemorragik diatezda, residivlar mavjud bo‘lmaganda, uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishiga yo‘l qo‘yiladi.

53. O‘roqsimon hujayra kasalligi aniqlangan nomzodlar kasbiy faoliyatga yaroqsiz deb topiladi.

O‘roqsimon hujayra tashuvchiligi mavjud bo‘lgan nomzodlarda klinik xavf aniqlanmasa, yaroqli deb topilishiga yo‘l qo‘yiladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Chin (haqiqiy) politsitemiya mavjud bo‘lgan nomzodlar trombotik xavf yuqori bo‘lganligi sababli yaroqsiz deb topiladi.

Ikkilamchi politsitemiya holatlarida eritrotsitlar miqdorining oshish sababi (nafas olish tizimi kasalliklari, balandlik sharoitida gipoksiya ta’siri va boshqa omillar) aniqlangandan keyin tibbiy xulosa chiqariladi.

54. Quyidagi hollarda nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi:

allergiyaning og‘ir klinik ko‘rinishlarida (anafilaksiya, angionevrotik shish, og‘ir bronxial spazm);

yil davomida 2 martadan ko‘p qaytalanuvchi rezidivlarda;

kasallikni chaqiruvchi allergen noma’lum bo‘lganda;

allergik reaksiya kasbiy vazifalarni bajarishda xavfsizlikka bevosita tahdid tug‘dirganda.

55. Turg‘un terapevtik ta’sirga ega bo‘lgan hollarda quyidagi shartlar ta’minlanganda nomzod uchish ishiga (o‘qishga) yaroqli deb topiladi:

allergen aniq belgilangan bo‘lganda;

allergen bilan kontakt to‘liq bartaraf etilgan bo‘lganda;

3 oy davomida allergiya belgilari takrorlanmaganda;

ish joyida (aviatsiya obyektlarida) allergen bilan muloqot ehtimoli bo‘lmaganda.

56. Semizlik darajasi Ketle indeksiga muvofiq aniqlanadi.

Tana vazni indeksi tana vazni (kg)/ bo‘y o‘lchami (m^2) formulasi bo‘yicha hisoblanadi:

TVI baholash jadvali

Tana vazni darajalari	**TVI**	**Yondosh kasalliklar xavfi**
Tana vazni defitsiti	<18,5	Past (boshqa kasalliklar xavfi yuqori)
Normal tana vazni	18,5-24,9	Odatdagi (minimal)
Ortiqcha tana vazni	25,0-29,9	O‘rtacha yuqori
Semizlikning I darajasi	30,0-34,9	Yuqori
Semizlikning II darajasi	35,0-39,9	Juda yuqori
Semizlikning III darajasi	≥40	Haddan ziyod yuqori

57. Ortiqcha tana vazni bo‘lgan shaxslarga semizlikning xususiyatidan va kelib chiqish sabablarini aniqlash maqsadida klinik tekshiruvlar o‘tkaziladi.

Semizlikning simptomatik (ikkilamchi) endokrin yoki serebral genezli semizlikda tibbiy xulosa asosiy kasallikning xususiyati va prognozi asosida chiqariladi.

Mushak va yog‘ to‘qimalarining nisbati va organizmdagi yog‘ hajmi foizi aniqlanib tana vazni hisoblanadi.

Fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlarida uchuvchilikka o‘qishga nomzodlar uchun TVI 30,0 dan yuqori bo‘lganda, nomzodga o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Kabina ekipaji a’zoligiga o‘qishga qabul qilinadigan nomzodlar hamda kabina ekipaji a’zolari uchun bo‘y va tana vazniga doir talablar ish beruvchi tomonidan belgilanadi.

58. TVI 35,0 dan yuqori bo‘lgan nomzodlarda quyidagilar inobatga olinadi:

endokrinolog, zaruriyatga ko‘ra boshqa tegishli mutaxassislar xulosalari;

kardiovaskulyar xavf omillari: arterial gipertenziya, qandli diabet, glyukozaga tolerantlikning buzilishi, dislipidemiya, yoshi, zararli odatlar (chekish va boshqalar);

metabolik sindrom rivojlanish xavfi;

psixologik tekshiruvlar;

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

yurak-qon tomir tizimining funksional rezervlari;

yuklama testlari va boshqa ko‘rsatkichlar.

Mazkur ko‘rsatkichlar bo‘yicha holat individual baholanadi va nomzodning uchish ishiga (o‘qishga) yaroqli yoki yaroqsizligi to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

59. Qandli diabetning I turi, shuningdek insulin yoki boshqa gipoglikemik dori vositalari bilan doimiy davolanishni talab qiluvchi qandli diabetning boshqa turlarida hamda tireotoksikozning barcha shaklida uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

60. Qandli diabetning II turida quyidagi shartlar to‘liq bajarilganda, nomzodga uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi:

uglevod almashuvining to‘liq kompensatsiyasi mavjud bo‘lganda;

EKGning yuklama sinamalariga yukli sinamalariga chidamlilik ko‘rsatilganda;

MSKT yoki boshqa invaziv bo‘lmagan tekshiruv usullarining ijobiy natijalari bo‘lganda;

diabetolog (endokrinolog) xulosasi ijobiy bo‘lganda.

Tibbiy tekshiruvda quyidagi xavf omillarining mavjudligi va darajasi inobatga olinishi lozim:

nomzodning yoshi 60 yoshdan yuqori bo‘lganligi;

buyrak faoliyatining buzilishi;

noto‘g‘ri ovqatlanish holatlari;

ko‘p komponentli dori terapiyasi (polifarmatsiya) hamda diabet oqibatlari rivojlanishiga ta’sir qiluvchi boshqa omillar.

Mazkur ko‘rsatkichlar kompleks baholanganidan so‘ng nomzodning kasbiy majburiyatlarini xavfsiz bajarish qobiliyati aniqlansa, uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

61. Qandli diabetning II turida monoterapiya sifatida alfa-glyukozidaza ingibitori (glyukobay), tiazolidindion yoki metformin qabul qilinishi zarur bo‘lsa hamda parhezga rioya qilinsa, uchuvchilarga yuk tashish bilan bog‘liq uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishi mumkin.

62. Qandli diabetning II turida quyidagi shartlar bajarilganda, nomzodga yuk tashish bilan bog‘liq uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishiga yo‘l qo‘yiladi:

davolash faqat monoterapiya shaklida amalga oshirilayotgan bo‘lsa (alfa-glyukozidaza ingibitori, tiazolidindion, metformin qabul qilinayotgan bo‘lsa);

nomzod parhezga qat’iy rioya qilayotgan bo‘lsa;

uglevod almashuvining kompensatsiyasi barqaror holatda bo‘lsa;

gipoglikemiya xurujlari yoki glyukozaning keskin o‘zgarishlari kuzatilmasa;

tibbiy ko‘rsatkichlar, yuklama sinamalari, shuningdek diabetolog (endokrinolog) xulosasi ijobiy baholangan bo‘lsa.

Bunda uchuvchi tarkibiga EKG nazorati, terapevt va diabetolog (endokrinolog) ko‘riklari har 6 oyda bir marta belgilanishi, navbatdagi rejalashtirilgan tibbiy ko‘rik jarayonida esa EKG sinamalari yoki invaziv bo‘lmagan uslublar bilan koronar arteriyalar tekshiruvi o‘tkazilishi lozim.

63. Aviatsiya amaliyotida sulfonilmochevina hosilalari, biguanidlar (metformin bundan mustasno), turli gipoglikemik preparatlarning birgalikda qabul qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tireotoksikoz holatlarida aviatsiya xodimini qayta tiklanish muddatini belgilashda kasallikning sababi, shakli, klinik ko‘rinishlari, og‘irlik darajasi, amalga oshirilgan davolash turi, kasallikning organ va tizimlarga ta’siri hamda bioximik ko‘rsatkichlar natijalari inobatga olinadi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Diffuz-toksik buqoqda konservativ terapiyaning 2 yilgacha davom etishi mumkinligini inobatga olgan holda, dori vositalari qabul qilinishi to‘xtatilganidan so‘ng kamida 3 oy davomida turg‘un eutireoid holati qayd etilganda, endokrinologning ijobiy xulosasi asosida uchuvchi tarkibining (kursantning) uchish ishiga (o‘qishga) qayta tiklanish masalasi ko‘rib chiqilishi mumkin.

64. Yengil va o‘rta darajadagi toksik buqoqning jarrohlik usulida yoki radioaktiv yod bilan davolangan holatlarda, davolash tugaganidan so‘ng kamida 6 oy o‘tganidan keyin bioximik ko‘rsatkichlar turg‘un holatda va endokrinologning ijobiy xulosasi mavjud bo‘lsa, nomzodning (o‘qishga, ishga, parvozga) qayta tiklanish masalasi ko‘rib chiqiladi.

Tireotoksik adenomada jarrohlik amaliyotidan keyin 6 oy o‘tgach aviatsiya xodimining uchish ishiga qayta tiklanish masalasi ko‘rib chiqilishi mumkin.

65. Gipotireoz va autoimmun tireoiditni o‘tkazgan nomzodlarda quyidagi hollarda uchish ishiga (o‘qishga) qayta tiklanishga yo‘l qo‘yiladi:

qalqonsimon bez faoliyati laborator va klinik ko‘rsatkichlar bo‘yicha turg‘un norma darajasiga keltirilgan bo‘lsa;

kasallikning sababi, shakli va kechish xususiyatlari aniqlangan bo‘lsa;

chuqurlashtirilgan tekshiruv natijalari (gormonlar profili, ultratovush tekshiruvi, yurak-qon tomir tizimi bahosi) ijobiy bo‘lsa;

endokrinologning ijobiy prognozi va xulosasi mavjud bo‘lsa.

Mazkur talablar bajarilganda, individual tartibda baholagan holda kamida 3 oy o‘tgach uchish ishiga qayta tiklanish masalasi ko‘rib chiqilishi mumkin.

Tireoidit kasalligini zo‘rayishi holatlaridan so‘ng uchish ishiga (o‘qishga) ruxsat berish davolash to‘liq yakunlangandan va euthyroid holat tiklanganidan keyin endokrinolog xulosasi asosida amalga oshiriladi.

Eutireoid holati saqlangan endemik buqoqda, shuningdek yod preparatlari yoki tireoid gormonlari bilan o‘tkazilayotgan profilaktik terapiya davomida qalqonsimon bezning I va II darajali diffuz eutireoid kattalashishi mavjud bo‘lgan nomzodlarda hamda uglevodlar tolerantligining buzilishi kuzatilganda, u uchish ishiga (o‘qishga) yaroqli deb topiladi.

66. Tireotoksikoz yoki gipotireozning subklinik shaklida, T3 va T4 ko‘rsatkichlari normada bo‘lganda, TTG darajasi mos ravishda pasaygan yoki ko‘paygan hollarda aviatsiya xodimalari endokrinologning dispanser kuzatuvi belgilanishi hamda TTG va tireoid gormonlarining laborator nazorat tekshiruvlari kamida har 3 oyda bir marta o‘tkazilishi zarur.

Endokrin tizimi kasalliklari mavjud bo‘lgan nomzodlarga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilganda, terapevt tavsiyasi asosida har 6 oyda endokrinolog tomonidan dispanser kuzatuvi o‘tkazilishi belgilanadi.

67. Sil kasalligining aktiv shakli aniqlangan nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga, ishga, parvozga) yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

O‘pka sili bilan kasallanib, tegishli davolash kursi to‘liq yakunlanganidan keyin kamida 3 oy o‘tgach, klinik simptomlar mavjud bo‘lmasa, o‘pkaning zararlangan qismida aktiv jarayon aniqlanmasa, nafas olish tizimi funksiyasi saqlangan bo‘lsa hamda rentgen tekshiruv natijalari ijobiy bo‘lsa, nomzod uchish ishiga (o‘qishga, ishga, parvozga) qayta tiklanish masalasi ko‘rib chiqiladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Nomzod yaroqli deb topilgan taqdirda, 2 yil davomida terapevt dispanser kuzatuvi belgilanadi, zaruratga ko‘ra ftiziatr maslahati o‘tkaziladi hamda o‘pka qafasining rentgenografiyasi yoki boshqa nazorat tekshiruvlari amalga oshiriladi.

68. Aktiv bo‘lmagan yoki davolangan sil kasalligi mavjud bo‘lganda, shuningdek kasallikdan keyingi qoldiq o‘zgarishlar (cheklangan fibroz, kalsifikatsiya o‘choqlari, bo‘laklararo yoki plevral bitishmalar) aniqlanganda, biroq ko‘ks oralig‘i organlarining siljishi kuzatilmaganda hamda tashqi nafas olish funksiyasi buzilmaganda nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga, ishga, parvozga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

69. Sil kasalligini o‘tkazgan nomzodlar dispanser kuzatuv guruhi ko‘rsatilgan hamda to‘liq tuzalgani to‘g‘risidagi ftiziatrning xulosasini TUKga taqdim etadilar.

Tashqi nafas olish tizimi funksiyasini baholash maqsadida kardio-respirator tizimi funksional zaxiralari, shuningdek restriktiv yoki obstruktiv turdagi buzilishlarning mavjudligini aniqlovchi klinik-instrumental tekshiruvlar o‘tkaziladi.

Nafas olish va yurak-qon tomir tizimlari faoliyati kasbiy vazifalarni xavfsiz bajarish uchun yetarli darajada saqlangan bo‘lsa, shuningdek sil kasalligini davolash jarayonida qo‘llanilgan kimyoprofilaktik dori vositalarining salbiy oqibatlari aniqlanmasa, nomzodga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

70. Sil kasalligini o‘pkadan tashqari shakllarini o‘tkazgan nomzodlarga, ftiziatrning yakuniy xulosasi va ijobiy klinik-prognoz ko‘rsatkichlari, shuningdek zararlangan a’zolar va tizimlar funksional holatining to‘liq saqlanganligi asosida uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Mazkur shaxslarga 2 yil davomida terapevt tomonidan dispanser kuzatuvi belgilanadi. ftiziatrning maslahati, shuningdek klinik ko‘rsatmalarga muvofiq qo‘shimcha instrumental va laborator tekshiruvlar o‘tkaziladi.

71. Mehnat qobiliyatini yo‘qotish xavfini keltirib chiqaruvchi quyidagi nafas olish tizimi kasalliklari mavjud bo‘lgan hollarda nomzodga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi:

o‘pkaning surunkali obstruktiv kasalliklari (bundan buyon matnda O‘SOK deb yuritiladi);

bronxial astma;

bronxoektatik kasallik;

sarkoidoz;

diffuz pnevmoskleroz va o‘pka emfizemasi;

turli etiologiyali zotiljamning og‘ir yoki qaytalanuvchi shakllari;

surunkali bronxitning tez-tez zo‘rayuvchi shakllari.

72. Quyidagi holatlarda nomzodga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik yoki yaroqlilikka haqida tibbiy xulosa chiqariladi:

nafas olish tizimi funksiyasi to‘liq yoki yetarli darajada saqlangan bo‘lsa;

kardio-respirator funksional zaxiralari normada bo‘lsa;

restriktiv yoki obstruktiv buzilishlar mavjud bo‘lmasa (klinik jihatdan ahamiyatsiz bo‘lsa);

laborator-instrumental tekshiruvlar (spirometriya, arterial gazlar, ko‘krak qafasi rentgenogrammasi) natijalari ijobiy bo‘lsa;

klinik simptomlar mavjud bo‘lmasa yoki yengil darajada bo‘lsa;

chekish faktori mavjud bo‘lmasa;

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

O‘SOKning boshlang‘ich (yengil) davri, surunkali bronxitning remissiya davri, chegaralangan pnevmoskleroz aniqlanganda;

ko‘krak qafasida o‘tkazilgan jarrohlik aralashuvidan keyin nafas olish va kardio-respirator tizimlari funksiyasi to‘liq tiklangan bo‘lsa.

73. Quyidagi holatlarda nomzodga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik masalasi individual tartibda ko‘rib chiqiladi:

ko‘krak qafasidagi jarrohlik amaliyotidan so‘ng – 4–6 oy o‘tgach (operatsiya sohasining to‘liq bitishi, plevral bo‘shliqda patologik o‘zgarishlar mavjud emasligi, tashqi nafas tizimi funksiyasi norma holatiga qaytgani aniqlanganda);

spontan pnevmotoraksdan so‘ng – 3 oy o‘tgach (plevra bitishlari, restriktiv buzilishlar, rezidual bo‘shliq yoki qaytalash xavfini ko‘rsatadigan belgilar bo‘lmaganda).

74. Surunkali bronxitning zo‘rayish davrida aviatsiya xodimlari kasbiy vazifalarini bajarishdan chetlatiladi.

Aktiv yallig‘lanish jarayoni to‘liq bartaraf etilgach, aviatsiya xodimlari to‘liq sog‘aygach va tashqi nafas olish a’zolari funksional ko‘rsatkichlari norma darajasiga qaytgani chuqurlashtirilgan tekshiruvlar bilan tasdiqlangandan so‘ng ularga uchish ishiga ruxsat beriladi.

75. Yiringli yoki obstruktiv bronxitda, shuningdek takroriy pnevmotoraks holatlarida shturmanlar, bort muhandislari, havaskor uchuvchilar (samolyot va vertolyot), fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlari o‘quvchilari hamda kabina ekipaji a’zolariga uchish ishiga (o‘qishga, ishga) yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi va ular kasbiy faoliyatga qayta tiklanmaydi.

76. Havaskor uchuvchilar, planer uchuvchilari, erkin aerostat uchuvchilari hamda o‘ta yengil havo kemasi (O‘EHK) uchuvchilari uchun nafas olish va yurak-qon tomir tizimlarining chuqurlashtirilgan tekshiruvlari natijalari ijobiy bo‘lganda, individual tartibda parvozga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

77. Quyidagi yurak ritmi va o‘tkazuvchanligi buzilishlari, shuningdek yurak mushagi va klapan apparatining organik shikastlanishlari mavjud bo‘lgan nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi:

sinus tugunining kuchsizlik (zaiflik) sindromida;

yurak qisqarishlarining takroriy tushib qolishi bilan kechuvchi o‘tkazuvchanlik buzilishlarida (ketma-ket 2 yoki undan ortiq qisqarishning tushib qolishi);

mersal aritmiya xurujlari hamda yurak bo‘lmachalarining hilpillashida;

supraventrikulyar taxikardiyada (yurak urish tezligi ≥120 zarba/min, to‘rt va undan ortiq komplekslar bilan qayd etilgan takroriy epizodlar);

qorinchalar ekstrasistoliyasining bi- yoki trigeminiya ko‘rinishida takrorlanib turishida;

juftlashgan qorinchalar ekstrasistoliyalarining takroriy epizodlarida;

qorinchalar taxikardiyasi epizodlarida (yurak urish tezligi daqiqasiga 120 zarba va undan ko‘p bo‘lib, uchtadan yoki undan ortiq kompleks bilan);

spontan supraventrikulyar taxikardiya bilan kechuvchi Volf–Parkinson–Uayt sindromida;

miokard infarkti yoki stenokardiyada;

yurak kasalliklarining sust kechuvchi o‘tkir davri hamda kasallik oqibatlari bilan bog‘liq aniq ifodalangan ritm va o‘tkazuvchanlik buzilishlarida;

yurak yetishmovchiligi yoki og‘riq sindromining mavjudligida;

mo‘tadil va og‘ir darajadagi kombinatsiyalangan yurak nuqsonlarida;

mitral klapanning 6 mm dan ortiq prolapsida;

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

dilatatsion, gipertrofik yoki restriktiv kardiomiopatiyalarda.

Mazkur holatlar aniqlanganda nomzodlar uchish ishiga (o‘qishga, ishga, parvozga) yaroqsiz deb topiladi.

78. Yurak kasalliklarining klinik belgilari aniqlanganda, kasallikning anamnezi batafsil o‘rganilishi, klinik va kardiologik tekshiruvlar o‘tkazilishi lozim.

Olingan natijalar, kasallikning kechishi va prognozi, mavjud yondosh kasalliklar, nomzodning yoshi, individual xavf omillari inobatga olingan holda uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

79. Revmatizmning aktiv fazasini o‘tkazgan nomzodlarda aktiv revmatik jarayon to‘liq bartaraf etilganda va yurakda organik nuqsonlar aniqlanmaganda, kasallikdan so‘ng kamida 1 yil o‘tgach, chuqurlashtirilgan klinik va kardiologik tekshiruv natijalari ijobiy bo‘lsa, uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Miokarditni o‘tkazgan nomzodlarda to‘liq sog‘ayish kuzatilganda yoki miokarditik kardioskleroz shakllangandan so‘ng kamida 3–6 oy o‘tgach, infeksiya o‘chog‘i to‘liq bartaraf etilganda, yurak ritmi va o‘tkazuvchanligining faqat klinik ahamiyatga ega bo‘lmagan yengil o‘zgarishlari mavjud bo‘lganda hamda laboratoriya tahlillari va EKGda yallig‘lanish belgilarining mavjud emasligi tasdiqlanganda, nomzodga uchish ishiga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

80. Miokardiodistrofiya aniqlanganda, yurakning nasoslik funksiyasi saqlanganda, klinik simptomlar yengil darajada bo‘lganda, kasallikni og‘irlashtiruvchi xavf omillari mavjud bo‘lmaganda uchish ishiga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqarilishi, bunda 3 yil davomida terapevtning dispanser kuzatuvi belgilanishi lozim.

Ushbu davr mobaynida EKG ko‘rsatkichlari normada bo‘lishi va yuklama (stress-test) sinamalari natijalari ijobiy bo‘lishi sharti bilan 3 yil yakunida tashxis bekor qilinadi.

81. Mitral klapanning 3 mm dan 6 mm gacha bo‘lgan prolapsida, klinik jihatdan ahamiyatga ega bo‘lmaganda, izolyatsiyalangan va turg‘un kompensatsiyalangan yurak nuqsonlarida, shuningdek oqim yo‘llarida obstruksiya belgilarisiz kechuvchi qorinchalararo to‘siqning assimetrik gipertrofiyasida hamda yurak faoliyati gipertrofik kardiomiopatiyaning apikal shaklida bo‘lganda nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

82. Yurak yallig‘lanishi bilan bog‘liq kasalliklarni o‘tkazgan aviatsiya xodimlar davolanganlaridan keyin 3 oydan so‘ng, uchish ishiga (ishga) terapevt tibbiy ko‘rigi o‘tkazilib ishga ruxsat beriladi, boshqa nomzodlarga esa mehnatga layoqatsizlik varaqasi yopilgandan so‘ng, terapevt tibbiy ko‘rigi o‘tkazilib o‘qishga va parvozga ruxsat beriladi.

83. Supraventrikulyar ritm buzilishlari aniq ifodalangan hollarda elektrofiziologik tekshiruv o‘tkaziladi.

Tekshiruv davomida klinik ahamiyatga ega ritm buzilishlari sun’iy ravishda chaqirilganda, uning natijalari salbiy deb baholanadi.

Ritm buzilishlarining ifodalanish darajasini aniqlash maqsadida EKGning sutkalik monitoringi o‘tkaziladi.

Yurak ritmi buzilishlari muvaffaqiyatli davolangandan keyin nomzod qayta tibbiy ko‘rikdan o‘tkaziladi.

84. Nomzodning yurak ritmi va o‘tkazuvchanligi buzilishlarida, EKGda qorincha kompleksining yakuniy qismidagi (ST va T) beqaror o‘zgarishlar beta-blokatorlar ta’sirida me’yorlashganda va sog‘liq holati yuzasidan shikoyatlar bo‘lmaganda, nomzodlarga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

B. Lown va M. Wolf tasnifi bo‘yicha M. Ryan modifikatsiyasiga muvofiq simptomlarsiz kechuvchi qorinchalar ekstrasistoliyasining 1-gradatsiyasida (EKG ma’lumotlariga ko‘ra bir daqiqada 5 ta ekstrasistoliyadan kam, hamda sutkalik EKG monitoringida bir soatda 30 ta ekstrasistoliyadan kam bo‘lganda) qo‘shimcha kardiologik tekshiruvlar talab etilmaydi va aviatsiya xodimlarga yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqarilmaydi.

Mazkur tasnifga ko‘ra simptomlarsiz qorinchalar ekstrasistoliyasining 2 – 4a-gradatsiyalarida nomzodlarga kardiologik tekshiruvlar o‘tkaziladi.

Ushbu tasnifga ko‘ra simptomlarsiz qorinchalar ekstrasistoliyasining 4b va 5-gradatsiyalarida, shuningdek qorinchalar taxikardiyasi mavjud bo‘lganda, kardiologik tekshiruvlar natijasida tashxis tasdiqlansa, nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

85. Kardiologik tekshiruvlar natijasida simptomatik bo‘lmagan sinusli bradikardiya va 3,0 soniyadan kam davom etuvchi simptomlarsiz sinusli pauzalar aniqlanib, yurakning og‘ir strukturaviy kasalliklari va klinik alomatlari mavjud bo‘lmasa, nomzodga cheklovlar qo‘llagan holda uchish ishiga (parvozga, ishga) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

86. Yurak qon-tomir tizimining funksional buzilishlarida, ularning kelib chiqish sabablari va kasbiy faoliyatni bajarish bilan bog‘liq zararli omillarning sog‘liq holatiga ta’siri aniqlanadi.

Tibbiy xulosa chiqarishda neyrosirkulyator distoniyaga xos simptomlar bilan kechayotgan holatlarda yurakning boshqa organik kasalliklari, yallig‘lanish jarayonlari va ekstrakardial patologiyalar mavjudligi bartaraf etilishi lozim.

Sutka davomida yuzaga keluvchi ritm buzilishlari vegetativ disfunktsiyaning asosiy markeri ekanligi inobatga olinib, EKGning 24 soatlik monitoringi (Xolter monitoringi) o‘tkaziladi.

Yuklamali EKG, VEM, miokard ssintigrafiyasi va koronarografiya tekshiruvlari ham o‘tkazilishiga yo‘l qo‘yiladi.

87. Mitral klapan yetishmovchiligining turg‘un kompensatsiyalangan shaklida, miokarditik kardiosklerozda, turg‘un kompensatsiyalangan, cheklangan va kam ifodalangan yurak nuqsonlarida hamda gipertrofik kardiomiopatiyaning apikal shaklida individual tartibda nomzodga uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishiga yo‘l qo‘yiladi.

88. Toj tomirlarining va (yoki) umumiy qon aylanishining yetishmovchiligi bilan kechuvchi yurak, aorta, toj arteriyalari hamda perikardning organik kasalliklari mavjud bo‘lgan nomzodlarda, shuningdek davolashga moyil bo‘lmagan va yurak ritmi hamda o‘tkazuvchanligi buzilishlari aniqlanganda, uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

89. Nomzodlarda, (fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kiruvchilar va o‘quvchilar bundan mustasno) Giss tutami chap oyoqchasining blokadasi birinchi marta aniqlanganda, quyidagi shartlar asosida cheklovlar qo‘llangan holda individual tartibda yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishi mumkin:

chap qorincha funksional holati saqlangan bo‘lmasligi (ExoKG natijalarida chap qorinchaning otilib chiqish fraksiyasi 50 foizdan past bo‘lmasligi);

yuklamali EKG sinamalari (Bryus protokoli) bajarilganda IV bosqichga qadar bajarish imkoniyati mavjud bo‘lishi, miokard ishemiyasiga xos belgilar kuzatilmasligi, klinik ahamiyatga ega ritm buzilishlari aniqlanmasligi, yuklama vaqtida simptomlar (ko‘krak og‘rig‘i, hansirash, bosh aylanishi) bo‘lmasligi;

xolter-monitoring natijalarida yurak ritmi buzilishlari mavjud bo‘lmasligi yoki klinik ahamiyatga ega bo‘lmagan minimal ko‘rinishda bo‘lishi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Zaruriyat tug‘ilganda koronar angiografiya o‘tkazilishi, koronar arteriyalarda stenoz darajasi yirik tomirlarda 50 foizdan ko‘p bo‘lmasligi hamda proksimal segmentlarda esa 30 foizdan oshmasligi lozim.

Bunda aviatsiya xodimiga yilda 1 marta kardiolog maslahati o‘tkaziladi.

Yuklama bilan o‘tkazilgan EKG testida ST segmentining 2 mm gorizontal pasayishi kuzatilganda, toj arteriyalari kasalligi har doim ham tasdiqlanmasligi mumkin. Shu sababli baholashda asosiy e’tibor yurish davomiyligiga, klinik simptomlarga (mavjud bo‘lsa) hamda aniqlangan o‘zgarishlarning xususiyatiga qaratiladi.

90. Nomzodlarda (fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kiruvchilar va o‘quvchilar bundan mustasno) mehnat qobiliyatining yo‘qolish xavfini oshiruvchi yurak qon-tomir kasalliklariga doir jarrohlik amaliyotlari (perkuton koronar aralashuv angioplastika, stent o‘rnatish bilan yoki stentsiz, aorta-koronar shuntlash) o‘tkazilganda, shuningdek anamnezida miokard infarkti og‘ir kardiologik kasalliklar qayd etilganda, tibbiy ko‘rik jarrohlik amaliyot o‘tkazilgandan so‘ng kamida 6–12 oy o‘tgach o‘tkaziladi.

Tibbiy xulosa quyidagilar ta’minlanganda individual tartibda belgilanadi:

jarrohlik aralashuvi muvaffaqiyatli bajarilganda;

jarrohlik amaliyotidan keyingi davr asoratlarsiz yoki ahamiyatsiz klinik ifodalanishda kechganda;

ko‘krak sohasida og‘riq (angina), nafas qisishi yoki aritmiyalar kabi klinik simptomlar mavjud bo‘lmaganda;

antianginal dori vositalarini doimiy qabul qilishga ehtiyoj bo‘lmaganda;

yurak qon-tomir kasalliklari xavf omillari (chekish, ortiqcha tana vazni, arterial gipertenziya xuruji, dislipidemiya) baholanganda va ularning kamaytirilgani yoki nazorat ostiga olinganda;

kengaytirilgan kardiologik tekshiruvlar natijalarining ijobiyligida (kardiolog xulosasi berilgan ExoKG, Bryus protokoli bo‘yicha yuklamali EKGning to‘rtinchi bosqichida).

kengaytirilgan kardiologik tekshiruvlar natijalarining ijobiyligida (kardiolog xulosasi berilgan ExoKG, Bryus protokoli bo‘yicha yuklamali EKGning to‘rtinchi bosqichida).

Mazkur hollarda uchuvchilarga individual tarzda yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa beriladi va zaruriyatga ko‘ra cheklovlar qo‘llanadi.

Bunda yaroqli deb topilgan nomzodlar har 6 oyda terapevt tomonidan dispanser kuzatuvi, qondagi glyukoza darajasi, tana vazni va arterial bosim ko‘rsatkichlarining nazorati, navbatdagi tibbiy ko‘rikda takroriy kardiologik tekshiruvlar va kardiolog maslahatidan o‘tishlari lozim.

91. Aviatsiya xodimi o‘tkir bezarar aseptik perikarditni boshdan kechirganidan keyin 3 oydan 6 oygacha muddat o‘tgach, kasallik simptomlari bo‘lmasa, ExoKG natijalari normada bo‘lsa, 24 soatlik EKG monitoringi va yuklamali EKG natijalari ijobiy bo‘lsa, qo‘shimcha chuqurlashtirilgan tekshiruvlar asosida individual tartibda yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishi mumkin.

Bunda 2 yil davomida terapevt va kardiologning dispanser kuzatuvi belgilanadi.

Kasallik qaytalanganda yoki og‘riq sindromi saqlanganda nomzodlar uchish ishiga (ishga, parvozga) yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi va ular qayta tiklanmaydi.

92. Aviatsiya xodimi miokarditni boshdan kechirganidan keyin 3 oydan 6 oygacha muddat o‘tgach, infeksiya o‘chog‘i bartaraf etilganda, klinik simptomlar mavjud bo‘lmaganda, 24 soatlik EKG monitoringi, yuklamali EKG va ExoKG o‘tkaziladi. MRT va xolter monitoringi ham amalga oshirilishi mumkin.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Tekshiruv natijalari normada bo‘lsa, ExoKGda chap va o‘ng qorincha funksiyalarining buzilish belgilari aniqlanmasa, nomzodga individual tartibda yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishiga yo‘l qo‘yiladi. Bunda yiliga 1 marta ExoKG tekshiruvi o‘tkaziladi.

93. Nomzodda quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlanganda, tibbiy xulosa yurakning tuzilmaviy kasalliklari va nomzodning kasbiy funksional majburiyatlarini bajarish qobiliyati hisobga olingan holda individual tartibda tibbiy xulosa chiqariladi:

aorta ildizi diametri 5,0 sm dan ortiq bo‘lganda;

chap qorinchaning yakuniy diastolik o‘lchami 6,5 sm dan ortiq bo‘lganda;

chap qorinchaning yakuniy sistolik o‘lchami 4,4 sm dan ortiq bo‘lganda;

qorinchalararo to‘siq qalinligi 1,4 sm dan ortiq bo‘lganda.

94. Umumiy va toj tomirlar hamda yurak mushaklari kasalliklarida, agar qon aylanishi buzilishi kuzatilmasa, uchuvchilarga (samolyot, vertolyot) yuklamali EKG tekshiruvi o‘tkaziladi va yurak-qon tomir tizimining funksional saqlanganligi aniqlanganda, ularga kasbiy yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

95. Miokard distrofiyasi va miokarditdan keyingi kardiosklerozda, yurakdagi o‘zgarishlarning kasbiy faoliyatga salbiy ta’siri aniqlanmasa va yurak mushagining funksiyasi saqlangan bo‘lsa, nomzodlarga kasbiy yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

96. Aortadagi kam ifodalangan aterosklerotik o‘zgarishlar va aorta devorining qalinlashishi aniqlangan hollarda, yurak-qon tomir tizimining funksional holati saqlangan bo‘lsa, nomzodlarga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

97. Asoratlarsiz miokard infarktini boshdan kechirgan nomzodlar 6 oy o‘tgach, yurak-qon tomir tizimining funksional holati yaxshi bo‘lganda, shikoyatlar va xavf omillari bo‘lmasa, ishemik kasallikni faol davolashga ehtiyoj qolmagan bo‘lsa, yuklama sinamalarida jismoniy ish qobiliyati saqlanganda, ExoKGda yurak bo‘shliqlari kengaymaganda, chiqarish fraksiyasi 50 foizdan kam bo‘lmaganda, sutkalik EKG monitoringida klinik ahamiyatli o‘zgarishlar aniqlanmaganda hamda koronaroangiografiyada infarkt zonasidan tashqaridagi toj arteriyalarida stenoz 50 foizdan oshmaganda, individual tartibda nomzod uchish ishiga (parvozga, ishga) yaroqli deb topiladi.

98. EKGda patologik Q tishchasi aniqlanganda, biroq miokard infarkti klinik jihatdan tasdiqlanmaganda, anamnez batafsil o‘rganiladi hamda ExoKG va ssintigrafiya o‘tkaziladi.

Tekshiruv natijalari ijobiy bo‘lganda, yurak funksiyasi yaxshi saqlanganda, nomzod uchish ishiga (parvozga, ishga) yaroqli deb topilishi mumkin.

99. Arterial gipertenziyada qon bosimi 160/95 mm simob ustunidan yuqori darajada turg‘un bo‘lganda, kasallik xurujli kechganda (bir martalik asoratsiz xuruj bundan mustasno) hamda yurak-qon tomir tizimining 3 va 4-darajali asoratlari mavjud bo‘lganda, nomzod uchish ishiga (parvozga, ishga) yaroqsiz deb topiladi.

Bunda chuqurlashtirilgan tekshiruv o‘tkazilib, yurak-qon tomir tizimining funksional saqlanganligi va davolash natijalarining ijobiyligi aniqlanganda, nomzodning yaroqlilik masalasi individual tartibda ko‘rib chiqilishi mumkin.

100. Tekshiruv natijalari bilan tasdiqlangan “oq xalat”ga bo‘lgan arterial gipertenziyada nomzodga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Qon bosimining dori-darmonlarsiz normaga kelishida yoki aviatsiyada ruxsat etilgan dori vositalari yordamida qon bosimi 160/95 mm sim ustunidan yuqori bo‘lmasa, nomzodlarga uchish ishiga (parvozga, ishga, o‘qishga) yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Tibbiy koʻrsatmalar mavjudligida QB-monitoringi va boshqa tekshiruvlar oʻtkaziladi.

101. Gipertoniya kasalligi mavjud boʻlgan aviatsiya xodimlarini baholashda yurak-qon tomir asoratlari xavfi boʻyicha stratifikatsiya prinsipi qoʻllanadi. Bunda nishon a'zolarning zararlanishi, semizlik, chekish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, kamharakatlik va boshqa xavf omillari hisobga olinadi.

Xavf darajasi past yoki oʻrta boʻlgan aviatsiya xodimlari kasbiy faoliyatga yaroqli deb topiladi.

Xavf darajasi yuqori boʻlgan aviatsiya xodimlariga nisbatan xavf darajasini davolash-sogʻlomlashtirish tadbirlari orqali pasaytirish mumkin boʻlsa, 1 oygacha muddatga bosqichli tibbiy xulosa chiqariladi. Mazkur davrda aviatsiya xodimlari kasbiy faoliyatdan chetlatiladi va kardiolog maslahati bilan birga tegishli davolash-sogʻlomlashtirish tadbirlari oʻtkaziladi.

Ushbu tadbirlar natijasida xavf omillari kamayganda yoki bartaraf etilganda, kardiologning ijobiy xulosasi asosida aviatsiya xodimlariga uchish ishiga (parvozga, ishga) yaroqlilik toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqariladi.

102. Uchish ishiga (samolyot, vertolyot) oʻqishga nomzodlarning QB 140/90 mm sim ustunidan yuqori boʻlishiga yoʻl qoʻyilmaydi.

103. Oshqozon va ichak kasalliklarining (oshqozon va 12 ikki barmoq ichak yara kasalligi, gastritlar, kolitlar va boshqalar) oʻtkir davrida, ogʻriq sindromi, kasallikning klinik belgilari hamda ish qobiliyatini yoʻqotishga olib keluvchi asoratlar mavjud boʻlganda, nomzodlarga yaroqsizlik toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqariladi.

104. Asoratlar bilan kechmagan oshqozon yarasi kasalligi oʻtkazilganda, davolash natijalari ijobiy boʻlsa, Helicobacter pylori infeksiyasi va kasallikning klinik belgilari bartaraf etilganda, endoskopik tekshiruvda yara bitgani tasdiqlanganda hamda xavfli oʻsmalar mavjud emasligi aniqlanganda, nomzodga 2 oy oʻtgach yaroqlilik toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqarilishiga yoʻl qoʻyiladi.

Oshqozon va 12 ikki barmoqli ichak yarasining bir martalik residivi kuzatilganda, oddiy yoki belgilangan parhezga rioya qilingan holda kasallik simptomlari mavjud boʻlmasa hamda klinik sogʻayish belgilari aniqlansa, nomzod uchish ishiga (parvozga, ishga) yaroqli deb topiladi.

Oshqozon va 12 ikki barmoqli ichak yarasining qon ketish bilan kechgan bir martalik asoratida 2 oy davomida kuzatuv natijasida kasallik simptomlari aniqlanmasa, dori vositalari bilan davolanishga ehtiyoj boʻlmasa hamda endoskopik tekshiruvda sogʻayish belgilari tasdiqlansa, aviatsiya xodimi ishga yaroqli deb topiladi.

Bunda 3 yil davomida tibbiy xulosa muddati 6 oy etib belgilanadi. Har bir navbatdagi tibbiy xulosa davolovchi jarrohning xulosasi asosida Oʻzbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi (bundan buyon matnda vakolatli organ deb yuritiladi) tibbiy ekspertlari tomonidan ekspert baholovidan oʻtkaziladi.

Aviatsiya xodimi fuqaro aviatsiya tashkilotining shifokori tomonidan 3 oyda bir marta dispanser kuzatuviga olinishi hamda yilda bir marta endoskopik tekshiruv oʻtkazilishi zarur.

105. Bittadan koʻp residiv yoki asorat bilan kechgan holatlar mavjud boʻlganda, uchuvchi tarkibining yaroqlilik masalasi chuqurlashtirilgan tibbiy tekshiruvlar asosida, vakolatli organning tibbiy ekspertlari tomonidan individual tartibda koʻrib chiqiladi va tibbiy xulosa chiqariladi.

Gastrit va kolitlarda, davolash toʻliq yakunlanganda, laborator-instrumental tekshiruvlar natijalari ijobiy boʻlganda hamda klinika-simptomlar mavjud boʻlmaganda, nomzodlar uchish ishiga (oʻqishga) yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

106. Oshqozon va 12 ikki barmoqli ichak yarasiga oid jarrohlik amaliyotlaridan so‘ng aviatsiya xodimining sog‘ligi to‘liq tiklangan bo‘lsa, jarrohlik amaliyoti va kasallik bilan bog‘liq asoratlar uchun xavf omillari bartaraf etilgan bo‘lsa hamda qayd etilgan remissiya davrida asoratlarsiz yara jarayoni tasdiqlansa, endoskopik va boshqa klinik tekshiruvlarning ijobiy natijalari asosida uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishiga yo‘l qo‘yiladi.

12 barmoqli ichakda birinchi marta chandiqli deformatsiya aniqlanganda va klinik belgilar kuzatilmagan taqdirda, nomzodlar kasbiy vazifalarini bajarishdan chetlatilmaydi.

107. Oshqozon-ichak kasalliklari mavjud bo‘lganda, tibbiy xulosa chiqarishda aviatsiya xodimlarining ish jadvali va ovqatlanish tartibining nomuntazamligi, kasallikni og‘irlashtiruvchi boshqa tashqi omillar hamda to‘satdan ish qobiliyatini yo‘qotishga olib kelishi mumkin bo‘lgan holatlar hisobga olinadi.

Nomzodlarda surunkali gastrit va gastroduodenitda residivlar kuzatilmaganda, umumiy ahvoli qoniqarli bo‘lganda, ish qobiliyati saqlanganda hamda me’da sekresiyasida aniq ifodalangan salbiy o‘zgarishlar aniqlanmagan taqdirda nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga, parvozga) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

108. Pankreatit va gepatitlarning organ funksiyasining yaqqol yoki mo‘tadil darajada buzilishi bilan kechuvchi faol bosqichida, jigar sirrozida, tez-tez xuruj qiluvchi (yiliga 2 martadan ortiq) surunkali xolesistitda, shuningdek o‘t pufagi funksiyasi saqlangan holda ko‘p sonli toshlar aniqlanganda, nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga, ishga, parvozga) yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Faol bo‘lmagan hamda organ funksiyasining kam ifodalangan buzilishi bilan kechuvchi surunkali gepatit va pankreatitlarda, davolanish natijalari ijobiy bo‘lganda va kam xurujlar bilan kechuvchi surunkali xolesistitda, o‘t pufagining xolesterozida, yaxshi sifatli funksional bilirubinemiyada hamda og‘riqsiz kechuvchi o‘t chiqarish yo‘llari diskineziyasida nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga, ishga, parvozga) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

109. Asoratlarsiz o‘tkazilgan laparoskopik xolesistektomiya yoki litotripsiyadan so‘ng 2-3 oy o‘tgach, shikoyatlar mavjud bo‘lmaganda, klinik belgilar aniqlanmaganda hamda ish qobiliyati saqlanganda, aviatsiya xodimlari ishga yaroqli deb topiladi.

Surunkali, faol bo‘lmagan, klinik alomatlarsiz kechuvchi B va C virusli gepatit tashuvchilik holatida aviatsiya xodimlari kasbiy vazifalarini bajarishga yaroqli deb topiladi.

B yoki C virusli gepatitni o‘tkazgan aviatsiya xodimlarida turg‘un remissiya holati tasdiqlangandan so‘ng 6 oy o‘tgach, klinik, laborator va instrumental tekshiruv natijalari normada bo‘lsa, uchish ishiga yaroqli deb topiladi.

110. O‘t pufagida simptomsiz kechuvchi yirik, yakka tosh aniqlanganda aviatsiya xodimlarga individual tartibda TML cheklovini qo‘llangan holda, uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishi mumkin. Bunda reja asosida jarrohlik usulida davolanish tavsiya etiladi hamda jarroh tomonidan dispanser kuzatuvi belgilanadi.

111. A’zo faoliyati buzilishi bilan kechuvchi buyrak va siydik yo‘llari kasalliklarining faol davrida, shuningdek ularning asoratlarida (siydik yo‘llarining torayishi, siqilishi, jarrohlik amaliyotidan keyingi boshqa organik buzilishlar, og‘riq sindromi mavjud bo‘lgan hollar) nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

112. Buyrak va siydik yo‘llarining infeksion-yallig‘lanish kasalliklarida, kamida 14 kun davomida individual antibakterial terapiya o‘tkazilgach (ayollardagi oddiy sistit bundan mustasno) quyidagi shartlar to‘liq bajarilganda nomzodlarning yaroqlilik masalasi ko‘rib chiqiladi:

urodinamik va gemodinamik turg‘unlik to‘liq tiklangan bo‘lsa;

klinik simptomlar, infeksiya belgilari, qayta yallig‘lanish epizodlari to‘liq bartaraf etilgan bo‘lsa;

siydik, qon va boshqa laborator tahlillar normada bo‘lsa;

nefrolog (urolog) xulosasi hamda prognozi ijobiy bo‘lsa.

Mazkur holatlarda uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risidagi tibbiy xulosa individual tartibda vakolatli organning tibbiy ekspertlari bilan birgalikda yoki TUK tomonidan chiqariladi.

113. O‘tkir glomerulonefrit bilan kasallangan nomzodlar 6 oygacha muddatga vaqtincha mehnatga yaroqsiz deb topiladi.

Keyingi tibbiy xulosa yallig‘lanish jarayonining kechishi, arterial qon bosimi ko‘rsatkichlari, klinik tekshiruv natijalari hamda buyrak funksiyasining saqlanganligi hisobga olingan holda chiqariladi.

Ushbu davrda har 3 oyda arterial qon bosimi, siydik tahlili va qondagi kreatinin ko‘rsatkichlari nazorat qilinadi.

Gemodializga tibbiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lganda, nomzodlarga yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

114. Surunkali pielonefrit yoki glomerulonefrit bilan kasallangan aviatsiya xodimlariga 2 yil davomida fuqaro aviatsiyasi tashkilotining shifokori tomonidan dispanser kuzatuvi belgilanadi.

Ushbu davrda har 3 oyda qon, siydik va biokimyoviy (mochevina, kreatinin) tahlillari o‘tkaziladi hamda zaruriyatga ko‘ra boshqa qo‘shimcha tekshiruvlar amalga oshiriladi.

Agar tekshirish davomida bakteriuriya va piuriya bir vaqtda aniqlansa, ushbu holatning sabablarini aniqlash maqsadida sil kasalligi, siydik yo‘llaridagi konkrementlar (toshlar) mavjudligini aniqlash hamda buyrak va siydik yo‘llarining xavfli o‘smalarga tekshiruvlar o‘tkaziladi.

115. Kasalliklarning faol davrida, bo‘g‘imlar va boshqa organlar funksiyasi buzilishi bilan kechganda, og‘riq sindromi va boshqa klinik simptomlar mavjud bo‘lganda, shuningdek surunkali kasalliklar 1 yil davomida 2 martadan ortiq zo‘rayganda, nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Tibbiy xulosa chiqarishda kasallikning og‘irlashish darajasi, rivojlanish sur’ati, mushak-suyak va tayanch-harakat tizimi funksiyalarining saqlanganligi, bo‘g‘imlar harakatchanligining cheklanganlik darajasi, uzoq muddatli davolanishning salbiy oqibatlari, xurujlar ehtimoli hamda to‘satdan ish qobiliyatini yo‘qotishga olib kelishi mumkin bo‘lgan omillar hisobga olinadi.

To‘liq davolash kursi va reabilitatsiya choralari o‘tkazilgandan so‘ng sog‘ayish tasdiqlanganda, organlar funksiyalari saqlangan bo‘lsa va turg‘un remissiya qayd etilsa, nomzodlarga individual tartibda uchish ishiga hamda ishga, shuningdek o‘qishga va parvozga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Bunda uchish ishiga va kabina ekipaji a’zoligiga o‘qishga nomzodlarga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Mazkur nomzodlarga fuqaro aviatsiyasi tashkilotining shifokori tomonidan dispanser kuzatuvi belgilanadi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

4-bob. Jarrohlik kasalliklari

116. Nomzodlarda tegishli guvohnoma bilan belgilanadigan kasbiy majburiyatlarini bajarishga to‘sqinlik qilmaydigan suyak-mushak tizimining tug‘ma yoki orttirilgan buzilishlari mavjud bo‘lmagan taqdirda ularga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Kabina ekipaji a’zoligiga o‘qishga va ishga nomzodlarning bo‘yi va tana vazniga qo‘yiladigan talablar ish beruvchi tomonidan belgilanadi.

Bo‘g‘imlar harakatchanligi mazkur Aviatsiya qoidalarining 25-ilovasiga muvofiq baholanadi. Nomzodlarda tananing mutanosib rivojlanganligi yetarli deb hisoblanadi.

20 yoshgacha bo‘lgan fuqaro aviatsiyasi uchish ishiga o‘qishga kiruvchi (uchuvchilar tarkibiga) nomzodlarda tana vaznining 25 foizgacha kamligi, boshqa jismoniy ko‘rsatkichlar yaxshi bo‘lganda (tana tuzilishining mutanosibligi, mushak tizimining rivojlanganligi, spirometriya va dinamometriya ko‘rsatkichlari) jismoniy rivojlanish yetishmovchiligi sifatida baholanmaydi. Bunda organizm rivojlanishining intensiv davrida tana vazni bo‘y o‘sishidan ortda qolishi mumkinligi hisobga olinadi.

Nomzod tegishli guvohnoma bilan belgilanadigan kasbiy majburiyatlarni xavfsiz bajarish uchun yetarli bo‘lgan o‘tirgan holdagi bo‘y uzunligiga, qo‘l va oyoq uzunligiga hamda mushak kuchiga ega bo‘lishi lozim.

Munozarali hollarda uchish trenajyorida sinov tekshiruvi o‘tkaziladi va trenajyor instruktori xulosasi asosida tibbiy xulosa chiqariladi.

Infantilizm aniqlangan hollarda yaroqlilik masalasi endokrinolog maslahati xulosasi asosida belgilanadi.

117. Nomzodlarda bosh jarohatlari, bosh suyagi va bosh miya sohasida o‘tkazilgan jarrohlik amaliyotlarining asoratlari mavjud bo‘lgan hollarda, ularning uchish ishiga yaroqliligi to‘g‘risidagi tibbiy xulosa nevrolog tomonidan klinik va instrumental tekshiruvlar natijalariga asoslanib chiqariladi.

118. Nomzodlardagi jismoniy rivojlanish nuqsonlari, suyak, mushak, bo‘g‘im, pay va tog‘aylarning surunkali kasalliklari, jarohatlar va jarrohlik amaliyotlarining asoratlari, kuyish va muzlash oqibatidagi chandiqlar mushak-suyak tizimining funksional holati hisobga olingan holda baholanadi.

Bunda harakatlar hajmi, mushak kuchi, qo‘l va oyoqlar funksiyasining cheklanish darajasi, uchuvchining o‘zlashtirgan havo kemasi turi hamda boshqa funksional mezonlar inobatga olinadi.

Kiyim va oyoq kiyim kiyishni qiyinlashtiruvchi yoki unga to‘sqinlik qiluvchi deformatsiyalar mavjud bo‘lsa, og‘riq sindromi kuzatilsa yoki funksional buzilishlar sezilarli darajada ifodalangan bo‘lsa, nomzodlarga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

119. Nomzodlarda kasallikning spesifik (sil) etiologiyasi aniqlanganda, faoliyatining buzilish darajasidan qat’iy nazar sekvestral bo‘shliqlarda bitmaydigan va davriy ravishda ochilib turadigan oqma yaralar mavjudligida, osteomielit negizida oqma yaralarda, son suyagi boshchasi osteoxondropatiyasida, yirik bo‘g‘imlarning yaqqol deformatsiyalanuvchi osteoartroz kasalliklarida faoliyatining yaqqol va mo‘tadil ifodalangan buzilishida ularga yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Davolashning ijobiy natijalarida (oqma yaraning yopilishi, rentgenologik tekshiruvda sekvestrlarning yo‘qligida) va 6 oy kam bo‘lmagan remissiyada nomzodlarning uchish ishiga yaroqlilik aniqlanadi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Bunda kabina ekipaji a’zoligiga o‘qishga va ishga nomzodlar yaroqsiz deb topiladi.

120. Osteomielit bilan kasallangan barcha nomzodlar terapevtik yoki jarrohlik usullari bilan davolanadi.

Remissiya davrida xurujlar kuzatilmasa, sekvestral bo‘shliqlar aniqlanmasa hamda funksional buzilishlar ahamiyatsiz bo‘lsa, kasallikning joylashuvi va kasbiy faoliyatga ta’siri hisobga olinib, nomzodlarga uchish ishiga (parvozga, ishga) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Bunda kabina ekipaji a’zoligiga o‘qishga va ishga nomzodlar esa yaroqsiz deb topiladi.

121. Osteoxondroz va spondiloartroz kabi umurtqa pog‘onasining degenerativ-distrofik jarayonlari og‘riq sindromisiz va funksional buzilishlar ahamiyatsiz darajada bo‘lsa, nomzodlar yaroqli deb topiladi.

Kabina ekipaji a’zoligiga o‘qishga nomzodlar esa yaroqsiz deb topiladi. Ildizchali sindrom mavjud bo‘lganda, tibbiy xulosa nevrolog tomonidan chiqariladi.

Umurtqa pog‘onasi sil kasalligida, jarayon fazasidan qat’i nazar, nomzodlarga uchish ishiga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Umurtqa pog‘onasi tanalarining kompressiya sinishida 6 oy o‘tgach, teri osti vertebroplastikasidan keyin esa 2 oy o‘tgach, davolash natijalari ijobiy bo‘lsa va funksiyalar to‘liq tiklansa, nomzodlarning yaroqlilik masalasi ko‘rib chiqiladi.

Umurtqaning o‘tkir va ko‘ndalang o‘simtalari sinishida funksiyalar to‘liq tiklanib, og‘riq sindromi bo‘lmasa, nomzodlarga uchish ishiga ruxsat berilishi mumkin. Kabina ekipaji a’zoligiga o‘qishga va ishga nomzodlar esa yaroqsiz deb topiladi.

Umurtqa pog‘onasi shaklining o‘zgarishida (egrilik, qiyshayish) etiologiyasi, funksional holati va kasbiy faoliyatni bajarish imkoniyati hisobga olinib nomzodning yaroqliligi aniqlanadi.

Laminektomiyadan keyin funksiyalar tiklanganda va og‘riq sindromi bo‘lmaganda, nomzodlarga uchish ishiga 3 oydan keyin ruxsat berilishi mumkin.

Nomzodlarda umurtqa rentgenogrammasida morfologik o‘zgarishlar aniqlanganda, biroq klinik belgilar kuzatilmasa, u yaroqli deb topiladi.

Nomzodlarda osteoxondroz aniqlanganda, ularga jarroh va nevrolog tomonidan dispanser kuzatuvi belgilanadi.

Dyupyuitren kontrakturasining I darajasida nomzodlar uchish ishiga yaroqli deb topiladi va jarroh kuzatuvida bo‘ladi.

II darajada uchuvchilar esa faqat o‘zlari boshqarayotgan havo kemasi turiga yaroqli deb topiladi.

Og‘riqsiz kechuvchi, tomir va organlar funksiyasini buzmaydigan I darajali skoliozda, shuningdek umurtqa pog‘onasining ayrim tug‘ma anomaliyalarida nomzodlar yaroqli deb topiladi, biroq kabina ekipaji a’zoligiga o‘qishga nomzodlar yaroqsiz deb topiladi.

Nomzodlarda shmorl churralarida og‘riq sindromi mavjud bo‘lsa, nevrolog tomonidan unga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Tos suyaklarining konsolidatsiyalangan sinishida, jarohatdan 6 oy o‘tgach, funksiyalar to‘liq tiklangan va og‘riq sindromi kuzatilmasa nomzod yaroqli deb topilishi mumkin.

Suyaklar, tog‘aylar, mushaklar, paylar va bo‘g‘imlarda jarrohlik amaliyotlaridan so‘ng yaroqlilik organ funksiyalari tiklangandan keyin aniqlanadi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Qo‘l yoki oyoq uzunligining jarrohlik amaliyoti yoki jarohat natijasida 2 sm dan kam qisqarishi yaroqlilikka to‘sqinlik qilmaydi (bortkuzatuvchilikka nomzodlar bundan mustasno).

Munozarali hollarda uchish trenajyorida sinov o‘tkazilib, trenajyor instruktorining xulosasi asosida tibbiy xulosa chiqariladi.

Jarrohlik amaliyotiga tibbiy ko‘rsatma mavjud bo‘lsa va nomzod davolanishdan bosh tortsa, u yaroqsiz deb topiladi.

Osteosintez yoki protezlash amaliyotidan keyin funksiyalar saqlanganda va tekshiruv natijalari ijobiy bo‘lsa, travmatolog-ortoped xulosasi asosida individual tartibda nomzodlarning uchish ishiga yaroqliligi aniqlanishi mumkin. Biroq, kabina ekipaji a’zoligiga nomzodlar yaroqsiz deb topiladi.

Bo‘g‘im kasalliklari va biriktiruvchi to‘qimaning tizimli kasalliklarida turg‘un remissiya kuzatilsa va organ funksiyalari saqlangan bo‘lsa, nomzodning yaroqlilik masalasi individual tartibda ko‘rib chiqiladi.

Qo‘l yoki oyoq nuqsonlari mavjud bo‘lgan nomzodlarda yaroqlilik funksional holat va kasbiy vazifalarni bajarish imkoniyatiga ko‘ra aniqlanadi.

Oyoq panjasi yo‘qligida yoki yurishni va oyoq kiyim kiyishni qiyinlashtiruvchi deformatsiyalar mavjud bo‘lsa, nomzodlarga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

122. Xavfli o‘smalar aniqlanganda barcha nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga, ishga, parvozga) yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Nomzodlar ixtisoslashtirilgan tibbiy muassasada davolanish (jarrohlik usuli, kimyoterapiya, nur terapiyasi yoki ularning kombinatsiyasi) yakunlangandan keyin residiv kuzatilmaganda, bosh miyada metastazlar aniqlanmaganda, o‘sma jarayonining organizm bo‘ylab tarqalishi mavjud bo‘lmaganda hamda organizmning funksional holati to‘liq va turg‘un saqlanganda, ahamiyatga ega bo‘lmagan qoldiq o‘zgarishlar mavjud bo‘lishi mumkinligini hisobga olib, kamida 6 oy o‘tgach nomzodning yaroqlilik masalasi ko‘rib chiqiladi.

Xavfli o‘smalar sababli davolangan nomzodlarga individual tartibda cheklovlar qo‘llangan holda uchish ishiga (samolyot, vertolyot) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishi mumkin.

Boshqa tarkibdagi nomzodlarga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilganda cheklovlar qo‘llanilmaydi.

Mazkur hollarda nomzodlarga jarroh va onkolog tomonidan dispanser kuzatuvi belgilanadi.

123. Xavfli o‘smalarda tibbiy xulosa chiqarishda davolash kasallikning ilk bosqichida o‘tkazilganligi, patomorfologik xulosa mavjudligi (o‘smaning anatomik turi va morfologik tavsifi, regionar limfa tugunlarining holati), davolashdan keyingi klinik holat dinamikasining ijobiyligi, jumladan tana vazni, laborator va boshqa tekshiruvlar natijalari, davolash asoratlari hamda residivlarning mavjud emasligi, o‘sma jarayonining rivojlanish xususiyatlari, gematologik ko‘rsatkichlarning normadaligi, organlar funksiyasi buzilishining darajasi, mehnatga layoqatning tiklanish muddatlari, kasbiy majburiyatlarni bajarish qobiliyati hamda to‘satdan ish qobiliyatini yo‘qotish xavfi hisobga olingan holda baholanadi.

124. Patomorfologik xulosaga ko‘ra rak in situ aniqlanganda, o‘smaning joylashgan o‘rnidan qat’i nazar, o‘tkazilgan davolash turi va jarrohlik aralashuvining xususiyati hisobga olingan holda, onkologning xulosasi va prognozi asosida tegishli cheklovlar (“tropik mamlakatlarda ishlashga yaroqsiz”, “faqat o‘zlashtirgan havo kemasida uchish ishiga yaroqli”,

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

“aviakimyoviy ishlarda ishlashga yaroqsiz”) qo‘llanib, nomzodning o‘qishga hamda uchish ishiga (samolyot, vertolyot) yaroqliligi to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishi mumkin.

Boshqa tarkibdagi nomzodlarga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilganda cheklovlar qo‘llanilmaydi.

Mazkur hollarda nomzodlarga jarroh va onkolog tomonidan dispanser kuzatuvi belgilanadi.

125. Yomon sifatli eutireoid tugunli buqoqda va tugunli mastopatiyada onkolog maslahatiga ko‘ra komissiya oraligi davrida jarrohlik usuli bilan davolanish lozim.

Nomzodlarda xavfsiz o‘smalar mavjud bo‘lgan hollarda, o‘sma to‘liq olib tashlanganda, uning xavfsiz xususiyati laborator tekshiruvlar bilan tasdiqlanganda, organlar funksiyasi saqlanganda hamda jismoniy va ruhiy sog‘liq holati normada bo‘lganda, ularga uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Kabina ekipaji a’zoligiga o‘qishga nomzodlarga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi, ishga yaroqlilik masalasi esa individual tartibda ko‘rib chiqiladi.

126. Xavfsiz o‘smalar jarrohlik yo‘li bilan olib tashlangandan keyin jarrohlik amaliyoti hajmi va uning natijalari hisobga olingan holda, nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) ruxsat berish muddati jarroh tomonidan belgilanadi.

Maxsus liboslar, anjomlar va oyoq kiyimdan foydalanishga monelik qilmaydigan, kichik hajmli, o‘sishga moyilligi bo‘lmagan xavfsiz o‘smalar, shu jumladan lipomatoz, so‘galli va pigmentli nevuslar, dermoid kistalar, xondromalar hamda boshqa shunga o‘xshash holatlar aniqlanganda, nomzodlarga jarrohning dispanser kuzatuvi belgilanadi.

127. Jarrohlik usulida davolangan xavfsiz o‘smalari mavjud bo‘lgan uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) qabul qilinayotgan barcha nomzodlar jarrohga o‘smaning gistologik tekshiruvi natijalari hamda o‘tkazilgan jarrohlik amaliyotining xususiyati ko‘rsatilgan tibbiy ko‘chirmani (ma’lumotnoma) TUKga taqdim etishi lozim.

128. Oshqozon-ichak yo‘lida (poliplar), shuningdek nafas olish organlarida xavfsiz o‘smalar aniqlanganda, nomzodlarga uchish ishiga (parvozga) mineral o‘g‘itlar bilan ishlashga yaroqlili, zaharli kimyoviy moddalar bilan ishlashga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Bunda davolash o‘smaning joylashuviga ko‘ra onkolog yoki proktolog tomonidan belgilanadi.

Lipoma va teriosti yog‘ qavatining boshqa xavfsiz o‘smalari olib tashlangandan keyin, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi yopilgach, uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) ruxsat berish masalasi jarrohning shaxsiy ko‘rigi asosida hal etiladi.

129. Buyrakning kichik va o‘rtacha hajmdagi oddiy kistalarida, shuningdek bir yoki ikki tomonlama joylashgan sinusli kistalarda, klinik belgilarning (og‘riq, arterial bosim oshishi, siydik tahlillarida o‘zgarishlar) mavjud emasligida nomzodlar uchish ishiga yaroqli deb topiladilar.

Ular jarroh va urologning dispanser kuzatuviga olinadi, yilda 1 marta buyraklarning UZT tekshiruvi o‘tkaziladi.

Katta hajmli buyrak kistalarida ixtisoslashtirilgan muassasada kistaning punksion davolash usuli qo‘llanadi.

Asoratlar kuzatilmaganda nomzodga 2-3 haftadan keyin uchish ishiga ruxsat beriladi.

Punksiya uchun ko‘rsatmalar bo‘lmagan hollarda, nomzod urologning tavsiyasi asosida dispanser kuzatuviga olinadi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

130. Qalqonsimon bezda birinchi marta 1 sm dan katta tugunlar aniqlanganda, shuningdek 6 oy davomida tugun hajmi 0,5 sm ga kattalashganda, punksiya biopsiya o‘tkazilishi lozim.

Rak, adenoma yoki diametri 3 sm dan katta tugunlar aniqlanganda, jarrohlik usulida davolash o‘tkazilishi kerak.

Tugunli buqoq olib tashlangandan keyin nomzodning uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqlilik masalasi jarroh tomonidan terapevt va endokrinolog maslahati hamda prognozi asosida aniqlanadi.

131. O‘smaning yaxshi sifatli ekanligi tasdiqlanganda, operativ davolash zarur bo‘lmaganda, shuningdek o‘sma bilan bog‘liq anatomik defektlar mavjud bo‘lmasa, qalqonsimon bez funksiyasi buzilmagan bo‘lsa, o‘smaning o‘sishga moyilligi bo‘lmasa, maxsus aviatsiya anjomlarini (kislorod niqobi) yoki oyoq kiyim kiyishni qiyinlashtirmasa nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

132. Prostata bezining yaxshi sifatli giperplaziyasi mavjud bo‘lgan hollarda, o‘rtacha yoki kuchli ifodalangan simptomatik obstruksiya aniqlanganda, aviatsiya xodimlari uchish ishidan chetlatilishi, bunda ularga quyidagi tekshiruvlar o‘tkazilishi lozim:

transabdominal va transrektal exografiya;

qon zardobida prostata spesifik antigeni (PSA) darajasini aniqlash;

urolog tavsiyasiga ko‘ra qo‘shimcha instrumental va laborator tekshiruvlar.

Kam ifodalangan yoki yengil simptomlar bo‘lganda va operativ davolashga ko‘rsatma mavjud bo‘lmaganda, urologning shaxsiy ko‘rigi va xulosasi asosida aviatsiya xodimlariga uchish ishiga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

133. Prostata bezining transuretral rezektsiyasi (TURP) o‘tkazilgan hollarda, jarrohlik amaliyotidan 6 oy o‘tgach obstruktiv simptomlar to‘liq va asoratlarsiz bartaraf etilganda, organlar funksiyasi saqlangan bo‘lsa, urolog xulosasi asosida individual tartibda yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqarilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Tashqi jinsiy a’zolarning o‘smalari aniqlanganda, ularni jarrohlik yo‘li bilan olib tashlash masalasi urolog yoki ginekologning tavsiyasi asosida hal etiladi.

134. Simptomlarsiz kechuvchi bachadon miomasi mavjud bo‘lgan aviatsiya xodimlari dispanser kuzatuviga olinadi.

Miomaning o‘sishi, yondosh a’zolar funksiyasining buzilishi, bachadondan qon ketishi, og‘riq sindromi mavjudligi yoki boshqa tibbiy ko‘rsatmalar aniqlanganda, aviatsiya xodimlari operativ davolanishga yuboriladi.

Jarrohlik amaliyotidan keyin yaroqsizlik muddati 4 oygacha etib belgilanadi.

Uchish ishiga (o‘qishga) qayta tiklash masalasi hal etilganda jarrohlik amaliyotining turi, asoratlarning mavjud emasligi, sog‘liq holatining tiklanganligi, a’zolar funksiyasining saqlanganligi, kasbiy vazifalarni bajarish chog‘ida to‘satdan mehnat qobiliyatini yo‘qotishga olib keluvchi omillarning mavjud emasligi, tekshiruv natijalarining normada ekanligi hamda ginekolog xulosasi inobatga olingan holda yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

135. Nomzodlarda ko‘krak oralig‘i, plevra, bronx ichidagi va bronxdan tashqari joylashgan o‘pkaning yaxshi sifatli o‘smalari operativ davolanganidan keyin 6 oy o‘tgach, nomzodning umumiy sog‘lig‘i tiklanganda, torakotomiyadan keyingi ko‘krak qafasi deformatsiyasi mavjud bo‘lmaganda, rentgenologik va boshqa tekshiruvlarda qo‘pol anatomik nuqsonlar aniqlanmaganda, tashqi nafas olish hamda yurak-qon tomir tizimi funksiyalarida buzilishlar kuzatilmaganda, uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Bunda har bir navbatdagi tibbiy ko‘rikda spirografiya hamda ko‘krak qafasi a’zolarining rentgenografiyasidan o‘tkaziladi.

136. Nomzodda tashqi nafas olish funksiyasining yaqqol buzilishlari, uyqudagi obstruktiv apnoe sindromi mavjud bo‘lganda, shuningdek kasalliklar, rivojlanish nuqsonlari yoki jarohatlar sababli ko‘krak qafasi a’zolarida yirik jarrohlik amaliyotlari o‘tkazilganda, shu jumladan pulmonektomiya holatlarida, u uchish ishiga yoki o‘qishga yaroqsiz deb topiladi.

Nomzodda jarrohlik yo‘li bilan davolash o‘tkazilganda, u to‘liq davolanib, sog‘lig‘i tiklangandan so‘ng tashqi nafas olish funksiyasi yetarli darajada tiklanganda, Tiffno indeksi kamida 60 foizni tashkil etganda hamda tekshiruv natijalari ijobiy bo‘lganda, jarroh va terapevt xulosalari asosida uchish ishiga yaroqlilik masalasi ko‘rib chiqiladi.

137. Jarrohlik usulida davolashni talab etuvchi patologiyalar (nuqsonlar) mavjud bo‘lganda, o‘pkaning qoldiq funksional hajmi, yurak-qon tomir tizimining funksional holati, ko‘krak qafasi organlarining siljish ehtimoli, parvoz vaqtida bosim tafovuti ta’sirida og‘ir asoratlar kelib chiqish xavfi hamda umumiy prognoz hisobga olingan holda nomzodning sog‘lig‘i holati baholanadi va tibbiy xulosa chiqariladi.

138. Nomzodda ko‘krak devori va o‘pka to‘qimasida yirik tomirlar hamda yurakdan uzoqda joylashgan yot jismlar mavjud bo‘lganda, klinik belgilar aniqlanmasa va tashqi nafas olish funksiyasi ko‘rsatkichlari qoniqarli bo‘lsa, unga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Spontan pnevmotoraks holatlarida tibbiy xulosa chiqarishda klinik sog‘ayish bilan bir qatorda residiv xavfi ham inobatga olinadi.

Nomzodda birinchi marta spontan pnevmotoraks kuzatilgandan keyin klinik sog‘ayish holati qayd etilib, tibbiy tekshiruvlar natijasida bullez emfizema yoki nafas olish a’zolari funksiyasining boshqa buzilishlari aniqlanmaganda, unga nisbatan individual tartibdagi cheklovlar qo‘llangan holda uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishiga yo‘l qo‘yiladi.

139. Nomzodlarda spontan pnevmotoraksning qayta xuruji kuzatilganda, jarrohlik amaliyotidan keyin kamida 3 oy o‘tgach, to‘liq sog‘ayish qayd etilgan hamda har tomonlama o‘tkazilgan maxsus tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lganda, nomzodga individual tartibda cheklovlar qo‘llangan holda uchish ishiga (parvozga) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishi mumkin.

Ichki organlar shikastlanishi bilan kechmagan ko‘krak qafasining ichiga kirib borgan yaralanishlarda, to‘liq sog‘ayishdan keyin tibbiy tekshiruvlar natijalari asosida nomzodning uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqlilik masalasi aniqlanadi.

140. O‘SOK remissiya turg‘unligida tashqi nafas olish funksiyasi saqlanganda, nomzodga uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Tashqi nafas olish funksiyasining yengil darajadagi buzilishlarida, OFV1 va JEL ko‘rsatkichlari 70 foizdan kam bo‘lmaganda hamda nafas olish va yurak-qon tomir tizimlarini tekshirish natijalari ijobiy bo‘lganda, nomzodga individual tartibdagi cheklovlar (TML) qo‘llangan holda samolyot va vertolyotda uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishi mumkin. Bunda nomzod jarroh dispanser kuzatuviga olinishi hamda har bir navbatdagi ko‘rikda nafas olish va yurak-qon tomir tizimlari qayta tekshirilishi kerak.

Boshqa tarkibdagi nomzodlarga nisbatan tibbiy xulosa individual tartibda chiqariladi.

141. Qisilishga moyil bo‘lgan yoki qizilo‘ngach hamda oshqozon faoliyatida funksional buzilishlarni keltirib chiqaruvchi, shuningdek reflyuks-ezofagit asorati bilan kechuvchi diafragmal

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

churralar mavjud bo‘lganda, nomzodga uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Jarrohlik yo‘li bilan davolash ijobiy natija berganda, 3 oydan 6 oygacha muddat o‘tgach, nomzodda to‘liq sog‘ayish holati mavjud bo‘lsa hamda tibbiy tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lsa, uning uchish ishiga yaroqlilik aniqlanadi.

142. Divertikul jarrohlik yo‘li bilan davolangan va davolash ijobiy natija berganda, nomzodning kasbiy yaroqliligi masalasi ko‘rib chiqiladi.

Qizilo‘ngachning chuqurlashtirilgan tibbiy tekshiruvlari, shu jumladan ezofagoskopiya va boshqa zarur tekshiruvlar, shuningdek tashqi nafas olish organlari hamda yurak-qon tomir tizimi funksional holatini baholash natijasida organlar funksiyasining buzilishlari va divertikulning residivi aniqlanmaganda, nomzodga samolyot va vertolyot uchish ishiga individual tartibda yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Boshqa tarkibdagi nomzodlarga tibbiy xulosa ularning kasbiy majburiyatlarini bajarish qobiliyati hisobga olingan holda chiqariladi.

143. Operativ davolashni talab qilmaydigan qizilo‘ngach divertikullari mavjud bo‘lgan hollarda, nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Qizilo‘ngach venalarining varikoz kengayishi aniqlanganda, etiologiyasi va klinik ko‘rinishidan qat’i nazar, barcha nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi hamda ular qayta o‘qishga yoki kasbiy faoliyatga tiklanmaydi.

144. Qizilo‘ngachning chandiqli stenozi sababli o‘tkazilgan qizilo‘ngach plastikasi, shuningdek funksional kasalliklar munosabati bilan bajarilgan plastikali ezofagokardiomiotomiya kabi jarrohlik amaliyotlaridan keyin tekshiruvlar natijalari, nomzodning kasbiy faoliyatini xavfsiz bajarish qobiliyati hamda boshqa ahamiyatli holatlar hisobga olingan holda, jarrohning xulosasi va prognozi asosida uning uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqlilik masalasi hal etiladi.

Reflyuks-ezofagit mavjud bo‘lmaganda va diafragmaning qizilo‘ngach teshigi churrasi bilan bog‘liq bo‘lmaganda qizilo‘ngach-oshqozon birikmasi yetishmovchiligi mavjud bo‘lganda, nomzodlar uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqli hisoblanadilar.

145. Qorin bo‘shlig‘i a’zolarida o‘tkazilgan jarrohlik amaliyotlaridan keyin nomzodlar jarrohga tashxis, jarrohlik amaliyoti o‘tkazilgan sana, uning to‘liq bayonnomasi, jarrohlik amaliyotidan keyingi davrning kechishi, jarrohlik amaliyotining preparatning patomorfologik tekshiruvi natijalari hamda boshqa tegishli ma’lumotlar ko‘rsatilgan kasallik tarixidan ko‘chirmani TUKga taqdim etadi.

146. Jarrohlik amaliyoti ijobiy natija berganda, nomzod to‘liq sog‘ayganda, mehnatga layoqatsizlik varaqasi yopilganda, kasbiy majburiyatlarni bajarish jarayonida xavf omillari aniqlanmaganda, a’zolar funksiyasi saqlanganda, gastroenterologik tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lganda, tegishli mutaxassislarning xulosasi va prognozi asosida uning uchish ishiga (o‘qishga) yaroqlilik aniqlanadi.

Jarrohlik amaliyotlaridan keyingi asoratlar (pnevmoniya yoki tromboflebit) mavjud bo‘lgan hollarda, shuningdek splenektomiya o‘tkazilganda yoki qorin bo‘shlig‘i a’zolarining ko‘p sonli shikastlanishi sababli laparotomiya bajarilganda, nomzodning uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik muddati individual tartibda aniqlanadi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Simptomlarsiz kechuvchi, bitta yirik konkrement mavjud bo‘lgan xolesistolitiaz holatlarida komissiyalar oralig‘i davrida rejali jarrohlik yo‘li bilan davolash tavsiya etiladi.

147. Oshqozon va 12 barmoqli ichakning yara kasalligi hamda uning asoratlari (residiv, qon ketishi, perforatsiya, penetratsiya) davolangandan so‘ng endoskopik tekshiruv natijasida yaraning bitgani tasdiqlanib, dori vositalarini qabul qilish zaruriyati bo‘lmaganda, 8 hafta o‘tgach nomzodga uchish ishiga yoki o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Kabina ekipaji a’zoligiga o‘qishga nomzodlarga o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi, ishga yaroqlilik masalasi esa individual tartibda aniqlanadi.

Mazkur shaxslarga har 6 oyda ezofagogastroduodenoskopiya (EFGDS), qonda gemoglobin miqdorini aniqlash bo‘yicha tahlil hamda gastroenterolog maslahati belgilanadi.

148. Tizimli kasalliklar sababli o‘tkazilgan xolesistektomiya yoki splenektomiyadan keyin tibbiy xulosa jarroh tomonidan terapevt bilan birgalikda chiqariladi.

Tibbiy xulosa chiqarishda kasallik bilan bog‘liq asoratlar xavfi, tegishli parhezga rioya qilinganda simptomlarning mavjud emasligi, operatsiyadan keyingi davrning kechishi, dori vositalari bilan davolanishga ehtiyojning yo‘qligi, endoskopik tekshiruvlar natijalarining ijobiyligi, kasbiy majburiyatlarni bajarishda parvozlar xavfsizligiga tahdid tug‘diruvchi omillarning mavjud emasligi hamda boshqa ahamiyatli holatlar hisobga olinadi.

Tibbiy xulosa chiqarishda kasallik bilan bog‘liq asoratlar xavfi, parhezga rioya qilingan taqdirda simptomlarning yo‘qligi, jarrohlik amaliyotidan keyingi davrning kechishi, dori vositalari bilan davolash zaruriyatining mavjud emasligi, endoskopik tekshiruvlar natijalarining ijobiyligi hamda kasbiy majburiyatlarni bajarishda parvozlar xavfsizligiga tahdid soluvchi omillarning yo‘qligi hisobga olinadi. Tibbiy xulosaning amal qilish muddatiga cheklovlar qo‘yiladi.

Yaroqli deb topilgan nomzodlarga 3 yil muddatga jarrohning dispanser kuzatuvi belgilanadi.

149. Chov, son, diafragma, kindik va qorin oq chizig‘i churralari aniqlanganda, og‘riq sindromi mavjud bo‘lsa yoki churraning qisilish xavfi mavjud bo‘lsa, jarrohlik yo‘li bilan davolash tavsiya etiladi.

Jarrohlik amaliyoti ijobiy natija berganda va mehnatga layoqatsizlik varaqasi yopilganda, nomzodning uchish ishiga yoki o‘qishga yaroqlilik masalasi ko‘rib chiqiladi.

Churraning qisilish xavfi mavjud bo‘lmaganda va og‘riq sindromi kuzatilmagan hollarda, komissiyalar oralig‘i davrida rejali jarrohlik davolash tavsiya etiladi.

Bunda nomzodga cheklovlar qo‘llangan holda samolyot va vertolyotda uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Boshqa tarkibdagi nomzodlar esa o‘qishga, parvozga va ishga yaroqli deb topiladi, kabina ekipaji a’zoligiga o‘qishga va ishga nomzodlar bundan mustasno.

Jarrohlik yo‘li bilan davolanishdan bosh tortgan nomzod uchish ishiga yoki (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

150. Katta bo‘lmagan, fiziologik halqa chegarasidagi kindik churrasi, qorin parda oldi lipomasi hamda jismoniy zo‘riqish yoki kuchanish vaqtida churra chiqishi kuzatilmaydigan chov halqasi kengayishi aniqlanganda, nomzodlar uchish ishiga (o‘qishga) yaroqli hisoblanadi.

Surunkali kolitlarda remissiya turg‘un bo‘lganda, doimiy dori vositalarini qabul qilish zaruriyati mavjud bo‘lmaganda, asoratlar kuzatilmaganda hamda sog‘liq holati barqaror ijobiy bo‘lganda, nomzodga o‘qishga va uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Bunda samolyot va vertolyot uchuvchilari uchun 3 yil muddatga TML cheklovi qo‘llanadi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

151. Kron kasalligi, yarali kolit hamda qorin parda bitishmalarining yaqqol ifodalangan klinik koʻrinishlar bilan kechuvchi shakllarida nomzodlarga uchish ishiga (oʻqishga, parvozga, ishga) yaroqsizlik toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqariladi.

Klinik belgilar bilan namoyon boʻlmagan dolixosigma mavjud boʻlsa, nomzodga uchish ishiga yoki oʻqishga yaroqsizlik toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqarilmaydi.

Ayollarning kichik chanoq aʼzolarida oʻtkazilgan jarrohlik amaliyotlaridan keyin tibbiy xulosa ginekolog maslahati asosida jarroh tomonidan chiqariladi.

152. Radikal jarrohlik amaliyotlaridan keyin nomzodga 2 oydan 3 oygacha muddatga uchish ishiga (oʻqishga) yaroqsizlik toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqariladi.

Asoratlari boʻlmagan gisterektomiyadan keyin 3 oy oʻtgach, jismoniy va ruhiy holati normada boʻlgan hamda aʼzolar funksiyasi saqlangan taqdirda nomzodning uchish ishiga (oʻqishga) yaroqliligi aniqlanadi.

153. Endoskopik, shu jumladan laparoskopik jarrohlik amaliyotlaridan keyin 1 yarim oydan 2 oygacha muddat oʻtgach nomzodning uchish ishiga (oʻqishga) yaroqliligi aniqlanadi.

Nomzodning sogʻligi toʻliq tiklanganda, kasbiy vazifalarni xavfsiz bajarishga toʻsqinlik qiluvchi kasallik asoratlari mavjud boʻlmaganda hamda mutaxassislarning ijobiy prognozi mavjud boʻlganda, vakolatli organning tibbiy ekspertlari yaroqsizlik muddatlarini individual tartibda qisqartirishiga yoʻl qoʻyiladi.

154. Toʻgʻri ichak va pararektal biriktiruvchi toʻqimalar kasalliklari tez-tez xurujlar bilan kechganda, yaqqol ifodalangan klinik belgilar mavjud boʻlganda, anus torayishi, aʼzolar funksiyalarining buzilishi, oqma yaralar yoki boshqa patologik holatlar aniqlanganda, nomzodni terapevtik yoki jarrohlik yoʻli bilan davolash tavsiya etiladi.

Tavsiya etilgan davolash usullaridan bosh tortgan nomzod uchish ishiga (oʻqishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Davolash natijalari ijobiy boʻlganda, shikoyatlar va klinik simptomlar mavjud boʻlmaganda, turgʻun remissiya holati kuzatilganda, jarrohlik yarasi asoratlarsiz toʻliq bitganda, tibbiy tekshiruvlar natijalari normada boʻlganda, ichak faoliyati meʼyorlashgan hamda organ funksiyalari tiklanganda, nomzodlarga uchish ishiga (oʻqishga, parvozga) yaroqlilik toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqariladi.

Kabina ekipaji aʼzolariga nisbatan esa ishga va oʻqishga yaroqlilik masalasi individual tartibda koʻrib chiqiladi.

Bunda nomzodlarga 2 yil davomida har 6 oyda jarrohning dispanser kuzatuvi belgilanadi hamda zaruratga koʻra proktolog maslahati oʻtkaziladi.

Kasallik zoʻrayishi va funksional buzilishlar kuzatilmaganda, toʻgʻri ichak tushishining boshlangʻich shakllarida nomzodning samolyot va vertolyotda uchish ishiga yaroqliligi individual tartibda aniqlanadi.

Chot sohasining kondilomatozida nomzodning uchish ishiga yaroqliligi dermatovenerolog maslahati asosida aniqlanadi.

155. Aorta anevrizmasi tashxisini aniqlash maqsadida aviatsiya xodimlarida transtorakal exokardiografiya, magnit-rezonans tomografiya yoki magnit-rezonans angiografiya oʻtkaziladi, zarur hollarda aortografiya ham amalga oshiriladi.

Aortaning ichki diametri 4,0 sm dan katta, biroq 5,0 sm dan kichik boʻlgan hollarda, nomzodlarga TML cheklovi qoʻllangan holda 6 oy muddatga tibbiy xulosa chiqarilishi mumkin.

Aortaning ichki diametri 5,0 sm dan katta boʻlganda, nomzodga uchish ishiga yaroqsizlik toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqariladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Jarrohlik amaliyotidan keyin prognoz, operativ davolash natijalarining ijobiyligi, xavf darajasining minimal ekanligi hamda koronar arteriyalar kasalliklari mavjud bo‘lmaganda, nomzodlarga uchish ishiga TML cheklovi qo‘llangan holda tibbiy xulosa chiqarilishi mumkin.

Yaroqli deb topilgan nomzodlarga doimiy ravishda har 3 oyda jarrohning dispanser kuzatuvi belgilanadi. Tegishli mutaxassislar maslahati hamda boshqa qo‘shimcha tekshiruvlar zaruratga ko‘ra o‘tkaziladi.

156. Nomzodda periferik tomirlar kasalliklari aniqlanganda, bosh miya hamda yurak-qon tomir tizimi bo‘yicha tibbiy tekshiruvlar o‘tkaziladi.

Koronar tomirlar bilan bog‘liq patologiyalarni aniqlash maqsadida, farmakologik yuklama sinovi hamda talliy yordamida miokard perfuziyasini vizualizatsiya qilish tekshiruvi o‘tkazilishi mumkin.

157. Endarterit va obliteratsiyalovchi aterosklerozda nomzodlarning yaroqliligi kasallikning bosqichi, klinik simptomlarning mavjudligi hamda tibbiy tekshiruvlar natijalari hisobga olingan holda aniqlanadi.

Arteriyalarning obliteratsiyalovchi kasalliklarida trofik buzilishlar va og‘riq sindromi mavjud bo‘lganda, nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

158. Chuqur venalar trombozida antikoagulyant dori vositalari (varfarin, rivaroksaban (Ksarelto), dabigatran (Pradaksa) bilan davolash 3 – 6 oygacha davom etishi mumkinligini hisobga olib, mazkur dori vositalarini qabul qilish to‘liq to‘xtatilganidan keyin kamida 1 hafta o‘tgach, uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqlilik masalasi ko‘rib chiqiladi (kabina ekipaji a’zoligiga o‘qishga va ishga nomzodlar bundan mustasno).

159. Oyoq va qo‘llarning magistral arteriyalari hamda arteriovenoz anevrizmalari bo‘yicha o‘tkazilgan jarrohlik amaliyotlaridan keyin ushbu amaliyot natijalari ijobiy bo‘lganda, qo‘l-oyoqlarda qon aylanishi buzilishlari aniqlanmaganda hamda qon aylanishining kompensatsiyalanganligi funksional tekshiruvlar bilan tasdiqlanganda, nomzodlarga tegishli cheklovlar qo‘llangan holda samolyot va vertolyot uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Boshqa tarkibdagi nomzodlarga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi (kabina ekipaji a’zoligiga o‘qishga va ishga nomzodlar bundan mustasno).

Qon aylanishi buzilishining klinik belgilari mavjud bo‘lmaganda, biroq funksional tekshiruvlar natijalariga ko‘ra qon aylanishi normada emasligi aniqlangan hollarda, nomzodga davolanish tavsiya etiladi.

Davolanish yakunlangandan keyin yaroqlilik masalasi angiojarrohning xulosasi va prognozi hisobga olingan holda aniqlanadi. Zaruratga ko‘ra qo‘shimcha tekshiruvlar o‘tkaziladi.

160. Magistral va periferik tomirlarda o‘tkazilgan jarrohlik amaliyotlaridan keyin agar funksiyaning vaqtincha buzilishi kuzatilsa hamda reabilitatsiya va mehnat qobiliyatini tiklash uchun 1 oydan ortiq muddat talab etilsa, nomzod uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqsiz deb topiladi.

Venalarning varikoz kengayishida qon aylanishining dekompensatsiyasi, trofik buzilishlar, tugunlar ustidagi terining yupqalashishi hamda tomir yorilishi xavfi mavjud bo‘lganda, nomzod uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqsiz deb topiladi.

Oyoq venalarining varikoz kengayishi jarrohlik yo‘li bilan davolanganda va davolash asoratlarsiz ijobiy natija berganda 3 hafta o‘tgach, angiojarrohning xulosasi va prognozi inobatga

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

olingan holda nomzodning uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqliligi aniqlanadi (kabina ekipaji a’zoligiga o‘qishga va ishga nomzodlar bundan mustasno).

161. Fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan nomzodlarga (kabina ekipaji a’zoligiga o‘qishga nomzodlar bundan mustasno) venalarning varikoz kengayishining faqat kompensatsiyalangan A va B darajalari mavjud bo‘lganda, ularga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

162. Surunkali venoz yetishmovchilik kuzatilmaydigan teri osti yoki chuqur venalarning o‘tkir tromboflebiti, shuningdek Mondor kasalligi aniqlanganda, nomzod vaqtincha uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsiz deb topiladi.

Kasallikning o‘tkir belgilari yo‘qolganda, vena bo‘ylab infiltrat so‘rilganda, qonning umumiy tahlili hamda koagulogramma ko‘rsatkichlari normada bo‘lganda, angiojarroh xulosasi asosida jarroh tomonidan nomzodga uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) ruxsat beriladi hamda dispanser kuzatuvi belgilanadi (kabina ekipaji a’zoligiga o‘qishga va ishga nomzodlar bundan mustasno).

Limfa tugunlari shikastlanganda aviatsiya xodimlari tegishli mutaxassislar ko‘rigidan o‘tkazilishi zarur.

Limfa tugunlari tuberkulyozida, to‘liq klinik sog‘ayish kuzatilganda va tuberkulyozga qarshi dispanser nazoratidan chiqarilgandan keyin yoki uchinchi guruhga o‘tkazilganda, aviatsiya xodimining kasbiy faoliyatiga qayta tiklanish masalasi ftiziatr bilan birgalikda ko‘rib chiqiladi.

163. Limfa tugunlari tuberkulyozi va aktinomikozini o‘tkazgan uchuvchilar aviatsiya kimyoviy ishlarida uchish ishiga yaroqsiz hisoblanadi.

Nomzodda varikotsele bo‘yicha jarrohlik amaliyoti o‘tkazilgandan keyin mehnatga layoqatsizlik varaqasi yopilgach, jarroh ko‘rigi asosida unga uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) ruxsat beriladi.

164. Oyoq-qo‘l tomirlarining trombangiiti va aortoarteriitida, obliteratsiyalovchi ateroskleroznin III–IV bosqichlarida, surunkali venoz yetishmovchilik bilan kechuvchi posttrombotik va varikoz kasalliklarida, fil oyoqlilikning II–IV darajalarida, angiotrofonevrozlarning II–III bosqichlarida, shuningdek urug‘ tizimchasi venalarining varikoz kengayishining III darajasida nomzodlar uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqsiz deb topiladi.

165. Urug‘ tizimchasi venalarining varikoz kengayishining (varikotsele) klinik ahamiyatga ega shaklida, shu jumladan og‘riq sindromi, spermogramma ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlar yoki moyak hajmining kamayishi kuzatilganda, nomzodlarga jarrohlik usulida davolanish tavsiya etiladi.

Urug‘ tizimchasi venalari varikoz kengayishining II–III darajalarida, bunda varikoz kengaygan venalar moyak sohasida shaxs tinch holatda bo‘lganida palpatsiya yo‘li bilan va vizual tarzda aniqlanadigan hollarda, fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlariga o‘qishga nomzodlarga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

166. Nomzodlarda siydik-tanosil tizimi kasalliklari, rivojlanish anomaliyalari yoki shikastlanishlari bilan bog‘liq bo‘lganda, tegishli guvohnomada nazarda tutilgan kasbiy majburiyatlarni xavfsiz bajarishga monelik qiluvchi organik yoki funksional buzilishlar aniqlanmaganda, ularga uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

167. Funksional buzilishlar bilan kechmaydigan I va II darajali nefroptozda nomzodlar uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqli deb topiladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Funksional buzilishlar bilan kechmaydigan I va II darajali nefroptozda nomzodlar uchish ishiga yaroqli deb topiladi, biroq samolyot va vertolyot uchuvchiligi hamda bortkuzatuvchilik bo‘yicha o‘qishga nomzodlarga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Nefroptozning III darajasida barcha nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

168. Birlamchi gidronefroz aniqlanganda, barcha nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Jarrohlik yo‘li bilan muvaffaqiyatli davolangan aviatsiya xodimlari gidronefrotik transformatsiya to‘liq bartaraf etilganda va buyraklar funksiyasi yaxshi saqlanganda, ular uchish ishiga yaroqli deb topilishi mumkin.

Ikkilamchi gidronefrozda gidronefrotik transformatsiyani keltirib chiqargan sabablar bartaraf etilganda, uning qayta rivojlanishi kuzatilmaganda hamda buyraklar funksiyasining o‘rtacha yoki og‘ir darajadagi buzilishlari aniqlanmaganda, uchuvchilar (samolyot, vertolyot) va bortmuhandislarga cheklovlar qo‘llangan holda uchish ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi (kabina ekipaji a’zoligiga o‘qishga va ishga nomzodlar bundan mustasno).

169. Tug‘ma ravishda bitta buyrak mavjud bo‘lmaganda yoki nefrektomiyadan keyin saqlanib qolgan buyrakning funksional holati hisobga olingan holda, nomzodlarga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa individual tartibda chiqariladi (kabina ekipaji a’zoligiga o‘qishga va ishga nomzodlar bundan mustasno).

170. Moyakni olib tashlash bo‘yicha jarrohlik amaliyotini, jumladan moyakning qorin bo‘shlig‘ida ushlanib qolishi yoki ektopiyasi sababli o‘tkazganda, shuningdek boshcha gipospadiyasi mavjud bo‘lgan nomzodlar uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqli deb topiladi.

Moyak va urug‘ naychasi istisqosi, urug‘ tizimchasi venalarining varikoz kengayishi hamda kriptorxizmda moyakni tushirish bilan bog‘liq jarrohlik amaliyotlaridan keyin ushbu amaliyotning turi va qo‘llanilgan zamonaviy tibbiy texnologiyalar hisobga olingan holda, davolash natijalari ijobiy bo‘lsa kamida 3 hafta o‘tgach uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) ruxsat beriladi.

171. Prostata bezining yaxshi sifatli giperplaziyasida, jarrohlik usulida davolashga ko‘rsatmalar mavjud bo‘lmaganda hamda funksional buzilishlar aniqlanmaganda, nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Prostata bezining yaxshi sifatli giperplaziyasining simptomatik obstruksiya bilan kechuvchi shakllarida nomzodlar vaqtincha yaroqsiz deb topiladi.

Prostata bezining transuretral rezeksiyasini boshdan kechirganda, shuningdek alfa-adrenoretseptor antagonistlari, shu jumladan terazozin, prazozin, doksazozin va tamsulozin yoki 5-alfa-reduktaza ingibitorlari bilan davolanayotgan nomzodlar 3 oydan 6 oygacha muddatga yaroqsiz deb topiladi.

Jarrohlik usulida yoki dori vositalari bilan davolash to‘liq yakunlangandan keyin buyraklar va siydik yo‘llari funksiyalarida buzilishlar mavjud emasligi laborator hamda boshqa tekshiruvlar bilan tasdiqlanganda, siydik tahlili natijalari normada bo‘lganda, nomzodlarning uchish ishiga yaroqliligi masalasi individual tartibda ko‘rib chiqiladi.

Mazkur nomzodlarga jarrohning doimiy dispanser kuzatuvi belgilanadi va u har 6 oyda o‘tkaziladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

172. Urologik kasalliklar yoki ular sababli o‘tkazilgan jarrohlik amaliyotlaridan keyin nomzodning xizmatga (yoki faoliyatga) yaroqliligi quyidagi shartlar bajarilganda aniqlanadi:

tegishli mutaxassis tomonidan individual tartibda ishlab chiqilgan antibakterial terapiyaga idiosinkratik reaksiyaning mavjud emasligi;

aktiv davolash bosqichi boshlanganidan keyin gemodinamik holatning to‘liq barqarorlashganligi;

kamida 14 kun davomida individual antibakterial davolash kursi o‘tkazilganligi (ayollarda uchraydigan oddiy sistit holatlari bundan mustasno);

takroriy o‘tkazilgan bakteriologik ekmalar natijalarida patogen mikroorganizmlar aniqlanmaganligi;

infeksiya asoratlar mavjud emasligi;

urologik tekshiruvlar natijasida anatomik yoki boshqa patologik o‘zgarishlarning aniqlanmaganligi;

siydik chiqarish tizimi organlari funksiyalarining saqlanganligi.

Mazkur shartlar bajarilganda nomzodning yaroqliligi urolog shifokorining xulosasi va tibbiy prognozi asosida belgilanadi.

Residiv ehtimoli yuqori bo‘lganda, simptomlari tez rivojlanadigan hamda siydik yo‘llari infeksiyasi bilan kechuvchi urologik kasalliklar aniqlanganda nomzodlar uchish ishidan (o‘qishdan, parvozdan, ishdan) chetlatiladi.

To‘liq davolanish o‘tkazilib, klinik va laborator tekshiruv natijalari ijobiy bo‘lganda nomzodlar uchish ishiga yaroqlilik masalasi tibbiy xulosa asosida qayta ko‘rib chiqiladi.

Asoratlarsiz kechuvchi oddiy sistit aniqlanganda ayollar 5 kun muddatga uchish ishidan (o‘qishdan, parvozdan, ishdan) vaqtincha chetlatiladi.

173. Buyraklar va siydik-tanosil tizimi organlarining sil kasalligining faol shaklida nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Kasallik to‘liq davolanib, klinik sog‘ayish kuzatilganda hamda organlar funksiyalari yetarli darajada saqlanganda, nomzodning yaroqliligi aniqlanadi.

174. Siydik tutolmaslik holatlarida uning turi, shu jumladan doimiy, stress bilan bog‘liq, urgent yoki siydik pufagining to‘lib ketishi bilan bog‘liq shakli bo‘yicha yakuniy tashxis aniqlanadi hamda aviatsiya xodimlari to‘liq davolanish davrida uchish ishidan (o‘qishdan, parvozdan, ishdan) chetlatiladi.

Nomzod kasallikdan sog‘aygan so‘ng hamda uni keltirib chiqargan sabablar to‘liq bartaraf etilgan taqdirda, yaroqlilik aniqlanadi.

Buyrak va siydik yo‘llarining sil kasalligida, kasallik to‘liq davolangandan keyin ixtisoslashtirilgan dispanser mutaxassis shifokorining xulosasi va prognozi asosida uchish ishiga yaroqlilik masalasi ko‘rib chiqiladi.

175. O‘tkir glomerulonefrit va pielonefritlarda nomzodlar 3 – 6 oy muddatga uchish ishidan (o‘qishdan, parvozdan, ishdan) chetlatiladi.

To‘liq sog‘ayish kuzatilgandan keyin kasallik simptomlarining ifodalanish darajasi, remissiyaning turg‘unligi, infeksiyaning bartaraf etilganligi hisobga olingan holda uchish ishiga yaroqlilik aniqlanadi va tibbiy xulosa chiqarishda tegishli cheklovlar qo‘llaniladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Mazkur nomzodlarga har 3 oyda qondagi kreatinin miqdori, siydik tahlili hamda zaruratga koʻra boshqa qoʻshimcha tekshiruvlar oʻtkaziladi.

Kasalliklarning remissiya davrida arterial qon bosimi 160/95 mm simob ustuniga teng yoki undan yuqori boʻlganda, proteinuriya 2 – 3 g/l ga yetganda, buyrak yetishmovchiligining klinik belgilari mavjud boʻlganda yoki qondagi kreatinin miqdori 150 – 200 mkmol/l dan yuqori boʻlganda, nomzodlarga uchish ishiga yaroqsizlik toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqariladi.

176. Buyrakdan yakka tosh mustaqil ravishda chiqqanda, jarrohlik usuli bilan olib tashlanganda yoki konkrementning koʻchishi sabablar tufayli buyrak sanchigʻi kuzatilganda, davolash yakunlanib, toʻliq sogʻayish qayd etilgandan soʻng nomzodlar navbatdan tashqari tibbiy koʻrikdan oʻtkaziladi.

Tibbiy koʻrik va tekshiruvlar natijalari normada boʻlganda, siydik va sutkalik siydik tahlillari, shuningdek boshqa zarur tekshiruvlar koʻrsatkichlari normada boʻlsa, siydik ekmasida mikroorganizmlar aniqlanmasa, konkrementning turi ma’lum boʻlsa, ogʻriq sindromi mavjud boʻlmasa hamda buyraklar funksiyasi yetarli darajada saqlangan taqdirda, ikki tomonlama boshqariladigan havo kemalari uchuvchilariga 3 yil muddatga OML cheklovi qoʻllangan holda tibbiy xulosa chiqariladi.

Buyrak tosh kasalligi residivida tijorat aviatsiyasi uchuvchilariga “faqat ikkinchi uchuvchi” yoki “faqat ikkinchi uchuvchi mavjud boʻlganda” degan ekspluatatsiya cheklovlar qoʻllanishi mumkin. Bunda nomzodlarga doimiy muddatga har 6 oyda urologning dispanser kuzatuvi belgilanadi.

Bir tomonlama boshqariladigan havo kemalari uchuvchilari toʻliq davolanib, sogʻaygandan keyin davolash va tekshiruv natijalari ijobiy boʻlgan taqdirda, uchish ishiga yaroqli deb topiladi.

Mazkur nomzodlarga ham doimiy muddatga har 6 oyda urologning dispanser kuzatuvi belgilanadi.

177. Buyrak va siydik chiqarish yoʻllarida mikrolitlarning aniqlanishi siydik-tosh kasalligi tashxisini qoʻyish uchun asos boʻlmaydi.

Buyrak va siydik chiqarish yoʻllarida morfologik hamda funksional oʻzgarishlar aniqlanmaganda, nomzodlar yaroqli deb topiladi.

Asoratlarsiz oʻtkazilgan ekstrakorporal litotripsiya yoki teri orqali litotomiya amaliyotidan keyin kamida 1 oy oʻtgach nomzodlarning yaroqliligi individual tartibda aniqlanadi.

178. Klinik belgilari mavjud boʻlmaganda hamda ish qobiliyatining toʻsatdan yoʻqolishiga olib kelmaydigan buyrak kosachasi divertikulida, shuningdek buyrak parenximasi yoki kista ichida joylashgan toshlar mavjud boʻlganda, uchish ishiga yaroqlilik masalasi individual tartibda aniqlanadi.

5-bob. Teri-tanosil kasalliklari

179. Nomzodlarda tegishli guvohnomada nazarda tutilgan kasbiy majburiyatlarni xavfsiz bajarishga monelik qiluvchi teri-tanosil kasalliklari mavjud boʻlmaganda, ularga uchish ishiga (oʻqishga, parvozga, ishga) yaroqlilik toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqariladi.

180. Surunkali va qaytalanuvchi ekzema aniqlangan nomzodlar yaroqsiz deb topiladi.

Ekzemaning yengil shakllarida, terining zamburugʻli shikastlanishlarida, parazitar kasalliklarda, shu jumladan leyshmanioz va qoʻtirda, piodermiyalarda hamda boshqa teri-tanosil kasalliklarining oʻtkir davrida nomzodlar majburiy tartibda davolanadi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Davolash va tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lganda, to‘liq sog‘ayishdan keyin, dermatologning xulosasi va prognozi asosida uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

181. Ixtioz va tangachali temiratkining chegaralangan yengil shakllarida, nomzodning umumiy ahvoli qoniqarli bo‘lsa, uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Teri va teri osti biriktiruvchi to‘qima kasalliklarining keng tarqalgan, davolash natijalari salbiy bo‘lgan yoki surunkali og‘ir kechuvchi shakllarida barcha nomzodlarga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

182. Virusli gepatit va gemorragik bezgak boshdan kechirilgandan keyin 3 oydan 6 oygacha muddat o‘tgach, organlar funksiyalari saqlanganda, tekshiruvlar natijalari normada bo‘lganda va sog‘liq holati tiklangan taqdirda, tegishli mutaxassis shifokorning xulosasi va prognozi asosida nomzodning yaroqliligi aniqlanadi.

Aviatsiya kimyoviy ishlari bilan bog‘liq uchuvchilik faoliyatiga esa 12 oy o‘tgach ruxsat etiladi (mineral o‘g‘itlar bilan ishlash bundan mustasno).

183. OITS tashxisi aniqlanganda barcha nomzodlarga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalar hamda yuqumli teri kasalliklari aniqlanganda yoki ularga shubha qilinganda, nomzodlar teri-tanosil kasalliklari dispanserida tekshiruvdan o‘tishi va davolanishi shart.

Tashxis tasdiqlanganda, kasallik to‘liq davolangandan keyin tekshiruvlar natijalari normada bo‘lganda, dermatovenerologning xulosasi va prognozi asosida yaroqlilik masalasi ko‘rib chiqiladi.

6-bob. Ginekologik kasalliklar va homiladorlik

184. Quyidagi holatlar aniqlanganda barcha nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi:

funksional buzilishlar va og‘riq sindromi bilan kechuvchi anatomik defektlarning asoratlari mavjud bo‘lgan surunkali ginekologik kasalliklarda;

yallig‘lanish jarayonlarining yilda 3 martadan ortiq residivlarida;

qin devori va bachadonning III darajali pastga tushishida;

siydik-tanosil va ichak-tanosil oqma yaralarida;

orqa chiqaruv yo‘li sfinkteri funksiyasining buzilishi bilan kechuvchi chotning yirtilishida;

bachadonning noto‘g‘ri joylashuvi yoki yetilmaganligida;

ikki shoxli bachadon mavjud bo‘lib, funksional buzilishlar (bachadondan qon ketishi, og‘riq) kuzatilganda.

185. Surunkali ginekologik kasalliklarning o‘tkir bosqichida nomzodlar davolanishi lozim.

Davolash natijalari ijobiy bo‘lib, sog‘ayish qayd etilgandan keyin uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) ruxsat beriladi.

Davolanish natijalari ijobiy bo‘lganda, sog‘ayish tasdiqlangandan keyin nomzodlar uchish ishiga ruxsat etiladi hamda remissiyaning turg‘unligini aniqlash maqsadida ularga 2 hayz davri davomida ginekolog mutaxassisining tibbiy kuzatuvi belgilanadi.

186. Quyidagi holatlar aniqlanganda nomzodlarga yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqarilmaydi:

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

kichik tos sohasida og‘riq sindromisiz kechuvchi chandiqli bitishmalar;

funksional buzilishlarsiz bachadon, tuxumdon yoki fallopiy naylarining tug‘ma yo‘qligi;

qinning atreziyasi;

bepushtlik.

Bachadon bo‘yni kasalliklarida (endotservitsit, eroziya, ektropion eroziyasi), shuningdek trixomonad kolpiti va trixomoniaz aniqlanganda nomzodlar 3 haftagacha muddatga davolanish uchun uchish ishidan vaqtincha chetlatiladi.

187. Funksional buzilishlarsiz qin devori va bachadonning I–II darajali pastga tushishi aniqlanganda aviatsiya xodimlari uchish ishiga yaroqli deb topiladi kabina ekipaji a’zoligiga o‘qishga va ishga nomzodlar bundan mustasno) hamda ularga ginekolog mutaxassisining dispanser kuzatuvi belgilanadi.

Siydik-tanosil va ichak-tanosil oqma yaralari jarrohlik usuli bilan davolangandan keyin davolash natijalari ijobiy bo‘lganda, aviatsiya xodimlari uchish ishiga yaroqlilik masalasi qayta ko‘rib chiqiladi.

188. Ayollar jinsiy a’zolarida o‘tkazilgan, asoratlar bilan kechmagan va organlar funksiyalarining buzilishiga olib kelmagan jarrohlik amaliyotlaridan keyin laparotomiya o‘tkazilganda 2 oy o‘tgach, laparoskopik amaliyotidan keyin 4 – 6 hafta o‘tgach, total gisterektomiyadan keyin esa 6 oy o‘tgach uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) qayta tiklanish masalasi aniqlanadi.

Kabina ekipaji a’zoligiga o‘qishga nomzodlarga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Mazkur hollarda tibbiy xulosa chiqarishda postovariektomik, klimakterik va premenstrual sindromlar, shuningdek ruhiy-emotsional buzilishlar hamda vegetativ disfunksiya mavjudligi va ularning ifodalanish darajasi hisobga olinadi.

189. Ayollar jinsiy a’zolarida diametri 5 sm dan katta bo‘lgan kistasimon o‘smalar aniqlanganda, kabina ekipaji a’zoligiga o‘qishga nomzodlarga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Aviatsiya xodimlari esa jarrohlik usulida davolanish uchun uchish ishidan (o‘qishdan, parvozdan, ishdan) chetlatiladi.

Davolash natijalari ijobiy bo‘lganda, ginekolog va jarrohning xulosasi asosida yaroqlilik masalasi ko‘rib chiqiladi.

190. Simptomlarsiz kechuvchi, klinik belgilari va funksional buzilishlari mavjud bo‘lmaganda, kichik hajmdagi bachadon miomasida, endometriozda, shuningdek diametri 5 sm dan oshmaydigan endometriy va follikulyar kistalarda aviatsiya xodimlar uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqli deb topiladi.

Tuxumdonlar disfunksiyasida aviatsiya xodimlari ishdan chetlatilmagan holda tekshiruvdan o‘tkazilishi va davolanishi mumkin.

Mazkur hollarda tibbiy xulosa endokrinolog hamda ginekolog-endokrinologning xulosalari, shuningdek kasallik prognozi hisobga olingan holda chiqariladi.

191. Bachadondan disfunksional qon ketishlarida aviatsiya xodimlari majburiy tartibda davolanishi shart.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Birlamchi algomenoreya va dismenoreyada tibbiy xulosa klinik belgilarining ifodalanish darajasi, ularning davomiyligi, aviatsiya xodimining o‘z funksional majburiyatlarini yetarli darajada bajara olish qobiliyati hamda boshqa ahamiyatli holatlar hisobga olingan holda, ginekolog maslahati asosida individual tartibda chiqariladi.

Ikkilamchi dismenoreyada aviatsiya xodimining yaroqliligi tekshiruvlar natijalari, tegishli mutaxassis xulosasi va kasallik prognozi hisobga olingan holda aniqlanadi.

Hayz ko‘rish davrida aviatsiya xodimlari tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilmaydi va uchish ishidan 3 kungacha chetlatiladi.

192. Homiladorlikning 12 haftasiga teng yoki undan katta hajmdagi bachadon miomasida, shuningdek mioma tugunining shilliq ostida joylashuvi, tugunning sentripetal o‘sishi, tugunning qin sohasida joylashuvi kabi holatlar mavjud bo‘lganda, klinik ko‘rinishlaridan qat’i nazar, bachadondan qon ketishi, tugunda modda almashinuvi buzilishi, ikkilamchi anemiya, yondosh a’zolar funksiyasining buzilishi, siydik ajralishining obstruksiyasi yoki o‘tkir siydik tutilishi xavfi mavjud bo‘lsa, aviatsiya xodimlari jarrohlik usulida davolanadi.

Davolash natijalari ijobiy bo‘lganda, a’zolar funksiyalari saqlanganda hamda tegishli tekshiruvlar natijalari normada bo‘lganda, ginekolog-jarrohning xulosasi va prognozi hisobga olingan holda tibbiy xulosa chiqariladi.

Ichki endometrioz klinik belgilar bilan kechganda hamda anemiya rivojlanganda, barcha nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Og‘riq sindromisiz, simptomlarsiz yoki kam ifodalangan simptomlar bilan kechuvchi tashqi genital endometriozda uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqlilik masalasi individual tartibda ko‘rib chiqiladi.

Tuxumdonlarning funksional kistalarining residivga moyil shakllarida, shuningdek follikulyar yoki lyuteinli kistalar 1 yil davomida 2 martadan ortiq qayta paydo bo‘lganda, uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

193. Bachadon bo‘ynining tug‘ma eroziyasi, ektropioni yoki ektopiyasi nomzodni uchish ishidan (o‘qishdan, parvozdan, ishdan) chetlatish uchun asos bo‘lmaydi.

Bachadon bo‘ynining IA darajali intraepitelial raki bo‘lganda, organ saqlovchi jarrohlik amaliyotidan keyin tekshiruv natijalari ijobiy bo‘lsa hamda onkologning xulosasi va kasallik prognozi hisobga olingan holda aviatsiya xodimlariga uchish ishiga yaroqlilik individual tartibda belgilanadi.

Kabina ekipaji a’zoligiga o‘qishga nomzodlarga o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

194. Homiladorlik aniqlanganda nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Aviatsiya xodimlarini homiladorlik sababli uchish ishidan chetlatish hamda tug‘ruqdan keyin uchish ishiga ruxsat berish akusher-ginekologning xulosasiga asosan jarroh tomonidan amalga oshiriladi.

Asoratlarsiz kechgan tug‘ruqdan keyingi davrda va sog‘liq holati to‘liq tiklangan taqdirda, tug‘ruqdan keyin 4 – 6 hafta o‘tgach, ishga qayta tiklash masalasi ko‘rib chiqiladi (bortkuzatuvchilikka ishga va o‘qishga nomzodlar bundan mustasno).

195. Sun’iy abort (homilani vakuum-aspiratsiya yoki dilatatsiya yo‘li bilan chiqarib tashlash) hamda kyuretaj o‘tkazilgandan keyin kamida 2 hafta o‘tgach, jarrohlik amaliyotidan

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

keyingi asoratlar mavjud bo‘lmaganda va aviatsiya xodimlarining umumiy sog‘liq holati normada bo‘lganda, shuningdek homiladorlik muddati bilan bog‘liq asoratlar (qon ketishi, kichik tos a’zolarining yallig‘lanish kasalliklari, peritonit va septik holatlar) mavjud emasligi yoki ularning rivojlanish xavfi baholangandan so‘ng akusher-ginekologning xulosasi va prognozi asosida jarroh tomonidan ularga uchish ishiga ruxsat beriladi.

Istalgan homiladorlikda vaqtidan ilgari homila tushishi holatlarida uchish ishiga yaroqlilik masalasi abortdan keyingi ruhiy holat, umumiy klinik ahvol, o‘tkazilgan davolash natijalari hamda akusher-ginekologning xulosasi hisobga olingan holda individual tartibda aniqlanadi.

7-bob. Oftalmologik kasalliklar

196. Nomzodlarda guvohnoma hamda malaka belgilari bilan bog‘liq huquqlarni amalga oshirishga monelik qiluvchi tug‘ma yoki orttirilgan nuqsonlar, rivojlanish anomaliyalari, o‘tkir yoki surunkali kasalliklar, ko‘z va uning qo‘shimcha apparati jarohatlari, shuningdek ularda o‘tkazilgan jarrohlik operatsiyalaridan keyingi asoratlar hamda ko‘rish funksiyasining buzilishlari mavjud bo‘lmasligi kerak.

Nomzodlarning ko‘rish maydoni, ko‘z ichi bosimi, binokulyar ko‘rish funksiyasi hamda ranglarni ajratish qobiliyati normada bo‘lishi yoki kasbiy majburiyatlarni xavfsiz bajarish uchun yetarli darajada saqlangan bo‘lishi shart.

Nomzodlar ko‘zga har qanday jarrohlik aralashuvi o‘tkazilishidan oldin oftalmolog maslahatidan o‘tishi lozim.

Mazkur maslahat davomida jarrohlik amaliyotining ehtimoliy asoratlari, uchish ishiga yaroqsizlikka olib kelishi mumkin bo‘lgan omillar hamda uchish ishiga qayta tiklanish muddatlari tushuntiriladi.

197. Nomzodlarda guvohnoma hamda malaka belgilari bilan bog‘liq huquqlarni amalga oshirishga monelik qiluvchi ko‘z va uning qo‘shimcha apparatining tug‘ma yoki orttirilgan nuqsonlari, rivojlanish anomaliyalari, o‘tkir yoki surunkali kasalliklari, jarohatlari, shuningdek o‘tkazilgan jarrohlik amaliyotlaridan keyingi asoratlari va ko‘rish funksiyasining buzilishlari mavjud bo‘lmasligi kerak.

198. Nomzodning kasbiy vazifa va majburiyatlarini xavfsiz bajarishiga to‘sqinlik qiluvchi ko‘rish tizimi kasalliklari, nuqsonlari, jarohatlari va ularning asoratlari mavjud bo‘lganda, uchish ishiga (o‘qishga, parvozga, ishga) yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Bunday holatlarga quyidagilar kiradi:

ko‘z himoyasini yomonlashtiruvchi qovoqlar funksiyasi buzilishlari;

qovoqlarning o‘zaro yoki ko‘z olmasi bilan bitishib qolishi;

ko‘rish maydonining buzilishiga olib keluvchi ptoz;

qovoq va ko‘z mushaklarining falaji, shu jumladan ektropion va entropion;

qovoqlar funksiyasini buzuvchi katta hajmli va yoyilgan o‘smalar;

ko‘rish funksiyasini buzuvchi residivli keratitlar;

shox pardaning yaralari, degeneratsiyasi, chandiqlari, yallig‘lanishlari, vaskulyarizatsiyasi va funksional buzilishlari;

turli etiologiyali keratitlar;

keratokonus;

rangdor parda yoki tomir pardasining kolobomasi;

asoratlar bilan kechuvchi uveitlar;

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

koʻzning doimiy yoshlanishiga sabab boʻluvchi koʻz yoshi nuqtalarining notoʻgʻri joylashuvi;

koʻz yoshi yoʻllarining torayishi yoki obstruksiyasi;

koʻz yoshi bezining yalligʻlanishi va jarohatlari;

pigmentli retinopatiyalar bilan birga kechuvchi toʻr pardaning barcha turdagi tapetoretinal degeneratsiyasi;

toʻr pardaning koʻchishi yoki retinoshizis;

har qanday etiologiyali sariq dogʻ sohasidagi buzilishlar;

har qanday etiologiyali retrobulbar nevrit;

patologik nistagm;

koʻrik nervining atrofiyasi;

koʻz qorachigʻining normativ reflekslari yoʻqolishi;

koʻrish oʻtkirligi yoki koʻrish maydoniga salbiy ta’sir koʻrsatib, koʻrlikka olib keluvchi katarakta;

bir tomonlama yoki ikki tomonlama afakiya;

koʻz gavharining toʻliq yoki qisman siljishi;

koʻz, uning qoʻshimcha apparati hamda koʻz kosasining xavfli oʻsmalari;

koʻz olmasi harakatini cheklovchi yoki koʻz kosasining burun yondosh boʻshliqlari yoxud bosh chanogʻi boʻshligʻi bilan anatomik munosabatini buzuvchi koʻz kosasi sinishlari;

koʻz ichidagi yot jismlar;

tungi koʻrlik (niktalopiya);

koʻrish tizimi faoliyatini buzuvchi boshqa kasalliklar va jarohatlar.

Koʻz kasalliklari va jarohatlarining davolash natijalari ijobiy boʻlganda, atroflicha oʻtkazilgan oftalmologik tekshiruvlar natijalari normada boʻlsa, koʻrish funksiyasi yetarli darajada saqlanganda, koʻrish maydoni buzilishlari aniqlanmaganda hamda koʻz yoshi apparati funksiyasi tiklangan taqdirda, nomzodning uchish ishiga (parvozga, ishga) yaroqlilik masalasi koʻrib chiqiladi.

199. Oddiy blefaritlar, koʻrish funksiyasi buzilmaganda, tugʻma ptoz, nevrolog maslahati olingandan keyin kichik hajmli, simptomlarsiz va oʻsishga moyil boʻlmagan xavfsiz oʻsmalar, qovoqlardagi ahamiyatga ega boʻlmagan chandiqli oʻzgarishlar, kuchli ifodalanmagan konyunktivitlar, shuningdek residivlari kuzatilmaydigan va koʻrish organlari funksiyalarini buzmaydigan koʻz kasalliklarida nomzodga yaroqsizlik toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqarilmaydi.

Mazkur kasalliklar davolanib, davolash natijalari ijobiy boʻlgan taqdirda, nomzodga uchish ishiga (parvozga, ishga, oʻqishga) ruxsat beriladi.

200. Qovoqlardagi oʻsmalar jarrohlik usulida davolangandan keyin asoratlar, metastazlar va oʻsmaning residivi aniqlanmaganda hamda onkologning xulosasi va prognozi ijobiy boʻlgan taqdirda, nomzodlarga uchish ishiga (parvozga, ishga, oʻqishga) yaroqlilik toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqariladi.

Uveitlar, uzoq muddat davom etuvchi va residivlanuvchi iridosiklitlar, keratitlar, xorioretinitlar, nevritlar hamda koʻz olmasining jarohatlarida nomzodlar majburiy tartibda davolanadi.

Toʻliq klinik sogʻayish kuzatilgandan keyin maxsus tekshiruvlar natijalari ijobiy boʻlsa, koʻrish tizimi funksiyalari yetarli darajada saqlangan boʻlsa hamda mutaxassisning xulosasi

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

va prognozi ijobiy bo‘lsa, nomzodga uchish ishiga (parvozga, ishga, o‘qishga) ruxsat berish to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

201. Markaziy serozli retinopatiyada, shuningdek to‘r pardaning ajralishi yoki yorilishida nomzodlarga uchish ishiga (parvozga, ishga) yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Kasallik davolangandan keyin ko‘rish funksiyalari kasbiy majburiyatlarni bajarish uchun yetarli darajada saqlanganda, tekshiruv natijalari ijobiy bo‘lganda hamda oftalmologning xulosasi va prognozi ijobiy bo‘lgan taqdirda, nomzodning uchish ishiga (parvozga, ishga) yaroqliligi aniqlanadi.

To‘r pardaning ajralishi yoki periferik yorilishi lazer usulida ijobiy davolanganda, ko‘rish funksiyasi va periferik ko‘rish maydoni kasbiy majburiyatlarni bajarish uchun yetarli darajada saqlanganda, tekshiruv natijalari ijobiy bo‘lganda hamda oftalmologning xulosasi va prognozi ijobiy bo‘lgan taqdirda, cheklovlar qo‘llangan holda nomzodga uchish ishiga (parvozga, ishga) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

202. Ko‘rish funksiyasi yetarli darajada saqlanganda, progressiyaga moyil bo‘lmagan boshlang‘ich qarilik kataraktasida, ko‘z gavhari xiralashishining chegaralangan shakllarida, makulodistrofiyada, ko‘rish nervining boshlang‘ich va progressiv bo‘lmagan atrofiyasida, shuningdek shishasimon tana shikastlanishlarida nomzodlarga uchish ishiga (parvozga, ishga) yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa individual tartibda chiqariladi.

Mazkur nomzodga oftalmologning dispanser kuzatuvi belgilanadi.

203. Monofokal intraokulyar linza implantatsiyasi o‘tkazilgandan keyin 6 – 8 hafta o‘tgach, jarrohlik amaliyotidan keyingi asoratlar mavjud bo‘lmaganda, ko‘rish funksiyasi tiklanganda, dori vositalari bilan davolash to‘liq yakunlanganda hamda tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lgan taqdirda, nomzodning uchish ishiga (parvozga, ishga, o‘qishga) yaroqliligi individual tartibda aniqlanadi.

Aviatsiya faoliyatida uchish ishiga yaroqlilik faqat bir yoki ikki ko‘zga monofokal intraokulyar linza implantatsiyasi o‘tkazilgan hollarda aniqlanadi (multifokal sun’iy ko‘z gavhari implantatsiyasi bundan mustasno).

204. Lazerli jarrohlik aralashuvlaridan, shu jumladan to‘r pardaning lazerli koagulyatsiyasidan keyin 2 hafta o‘tgach, lazerli in situ keratomilezdan keyin esa 4 – 6 hafta o‘tgach, ko‘rish funksiyasining saqlanganlik darajasi hisobga olingan holda nomzodning yaroqlilik masalasi ko‘rib chiqiladi.

205. Refraksiya jarrohlik usullari bilan davolangandan keyin jarrohlik amaliyotidan keyingi asoratlar mavjud bo‘lmaganda, ko‘rish funksiyasi va ko‘rish o‘tkirligi kasbiy majburiyatlarni bajarish uchun yetarli darajada saqlanganda, muguz parda xiralashuvi aniqlanmaganda, fotopsiya, oreol effekti, siljib yuruvchi tasvirlar va boshqa shunga o‘xshash shikoyatlar mavjud bo‘lmaganda, qorong‘ilikka adaptatsiya qoniqarli bo‘lgan hamda tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lgan taqdirda, oftalmolog-jarrohning xulosasi va prognozi hisobga olingan holda nomzodning yaroqliligi to‘g‘risida tibbiy xulosa individual tartibda chiqariladi.

Fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlarida o‘qishga kiruvchi nomzodlarda refraksiya jarrohlik usullari qo‘llanilganda, operatsiyadan oldingi refraksiya ko‘rsatkichlari sfera bo‘yicha +4,0 D yoki −3,0 D dan, silindr bo‘yicha esa ±1,5 D dan oshmaganda, ularga o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

206. Refraksion jarrohlik usullari qo‘llanilganda, qo‘llanilgan usulning turi, ko‘z funksiyalarining tiklanish darajasi, residiv ehtimoli, prognoz hamda boshqa ahamiyatli holatlar hisobga olingan holda, uchish ishiga qayta tiklanish muddati vakolatli organning tibbiy ekspertlari tomonidan individual tartibda 3 oydan 6 oygacha muddatda belgilanadi.

Mazkur nomzodlarga oftalmologning dispanser kuzatuvi belgilanadi hamda u har 6 oyda doimiy asosda o‘tkaziladi.

207. Ko‘z olmasining yallig‘lanish va degenerativ kasalliklarida, shuningdek ko‘z tomirlari funksiyasining buzilishlarida nomzodlarga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Ko‘z gavhari kapsulasidagi bir yoki ikki mayda pigmentli o‘zgarishlar, shishasimon tanadagi arteriya qoldiqlari, to‘r pardadagi mielin tolalari kabi tug‘ma xususiyatlar mavjud bo‘lganda, fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlarida o‘qishga kiruvchi nomzodlar yaroqli deb topiladi.

208. Har bir navbatdagi tibbiy ko‘rikda nomzodlarning qorong‘ilikka adaptatsiya ko‘rsatkichi tekshiriladi.

Organik kasallik bilan bog‘liq funksional xususiyatdagi qorong‘ilikka adaptatsiya pasayishi aniqlanganda, qayta tekshiruv o‘tkaziladi.

Bunda olingan ko‘rsatkichlar qo‘llanilayotgan diagnostik qurilma yo‘riqnomasida belgilangan me’yoriy ko‘rsatkichlarga mos bo‘lishi lozim.

Ko‘rsatkichlar normada bo‘lmaganda, asosiy kasallik aniqlanadi va davolanadi. Davolash natijalari ijobiy bo‘lganda, nomzodlar uchish ishiga yaroqlilik masalasi qayta ko‘rib chiqiladi.

209. Ko‘z gavhari va ko‘z rangdor pardasining kolobomalari, polikoriya, tug‘ma katarakta hamda ko‘rish nervi diskining kasalliklari mavjud bo‘lgan hollarda, fuqaro aviatsiyasi tashkilotlariga uchuvchilikka (samolyot, vertolyot), bortmuhandislikka va shturmanlikka o‘qishga nomzodlarga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

210. Nomzodda shikoyatlar va tibbiy tekshiruv natijalari asosida glaukoma gumon qilinganda, tashxisni aniqlashtirish va kasallik prognozini baholash uchun u ixtisoslashtirilgan tibbiy muassasada qo‘shimcha tekshiruvdan o‘tkaziladi.

Impression tonometriya natijalariga ko‘ra Fridenvald jadvali bo‘yicha ko‘z ichi bosimining turg‘un ko‘rsatkichi 24 mm simob ustuniga teng yoki undan yuqori bo‘lganda yoki ikkala ko‘zdagi ko‘z ichi bosimi o‘rtasidagi farq 5 mm simob ustuniga teng bo‘lganda, nomzodlarga gonioskopiya, fundoskopiya, ko‘rish maydonini aniqlash va boshqa zarur qo‘shimcha tekshiruvlar o‘tkaziladi. Zarur hollarda nomzod davolanadi.

211. Ko‘rish nervi shikastlanmagan va ko‘rish maydoni saqlangan ko‘z ichi bosimining yaxshi sifatli normadan yuqori holatida (ko‘z ichi gipertenziyasi), shuningdek ko‘z ichi bosimi kompensatsiyalangan birlamchi ochiq burchakli glaukoma mavjud bo‘lganda, ko‘z ichi bosimi normalashgan paytdan boshlab aviatsiya xodimlari yaroqli deb topiladi.

Mazkur hollarda ularga doimiy mahalliy gipotenziv terapiya qo‘llaniladi.

212. Glaukoma tashxisi aniqlanganda, uning turiga ko‘ra tegishli davolash o‘tkaziladi. Glaukoma asosiy kasallikning ikkilamchi ko‘rinishi bo‘lsa, asosiy kasallik davolanadi.

Dori vositalari yoki lazer usuli bilan davolash natijalari ijobiy bo‘lganda, klinik sog‘ayish kuzatilgandan keyin ko‘rish o‘tkirligi va ko‘rish maydoni normada bo‘lsa, parasentral skotoma ko‘rinishidagi nerv tolalari tutami nuqsonlari aniqlanmasa hamda ko‘z funksiyalarini baholovchi boshqa tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lsa, aviatsiya xodimining yaroqliligi aniqlanadi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

213. Glaukoma mavjud bo‘lgan aviatsiya xodimlarida muntazam ravishda ko‘z ichi bosimini tonometriya qilish, ko‘rish o‘tkirligi va ko‘rish maydonini tekshirish o‘tkaziladi, shuningdek ko‘rish nervi diskining holati hamda qabul qilinayotgan dori vositalarining nojo‘ya ta’siri doimiy baholab boriladi.

Trabekulektomiya yoki drenaj tizimlari qo‘llanilgan antiglaukomatoz jarrohlik amaliyotidan keyin kamida 3 oy o‘tgach, shuningdek lazer yoki boshqa usullar bilan davolashdan keyin ko‘rish organi funksiyalari to‘liq tiklangan bo‘lsa, oftalmolog-jarrohning operatsiya va tekshiruvlar bo‘yicha tibbiy ma’lumotlari, xulosasi hamda prognozi hisobga olingan holda aviatsiya xodimining uchish ishiga yaroqliligi belgilanadi.

214. Barcha nomzodlar kasbiy majburiyatlarini xavfsiz bajarish uchun ranglarni to‘g‘ri ajratish qobiliyatiga ega bo‘lishi shart.

Rang ajratish qobiliyati buzilgan hollarda, buzilishning turi, shakli va darajasiga muvofiq qabul qilingan tasnif asosida tashxis qo‘yiladi hamda VSL cheklovi qo‘llaniladi.

215. Nomzodning rang ajratish qobiliyati quyidagi usullar yordamida aniqlanadi:

Ishixara rangli testi;

Rabkinning polixromatik jadvallari;

FALANT-testi;

anomaloskop yoki kompyuterlashtirilgan anomaloskopik tekshiruv.

Tibbiy tekshiruv natijalari qo‘llanilgan usul yoki uskunaning yo‘riqnomasida belgilangan tegishli normativ ko‘rsatkichlarga muvofiq maxsus blankalarda baholanadi.

216. Dori vositalarini qabul qilish yoki kasalliklar asoratlari oqibatida yuzaga kelgan orttirilgan rang ko‘rish buzilishlari mavjud bo‘lganda, ko‘rish funksiyalari yetarli darajada saqlanganda, ko‘rish organining shikastlanish darajasi, davolash va tekshiruvlar natijalari, shuningdek kasallik prognozi hisobga olingan holda, nomzodning uchish ishiga yaroqliligi individual tartibda aniqlanadi. Bunda zarur hollarda tegishli cheklovlar qo‘llanilishi mumkin.

Mazkur hollarda tashxisni aniqlashtirish maqsadida anomaloskop yoki FALANT-testi yordamida qo‘shimcha tekshiruv o‘tkazilishi lozim.

217. Nomzodlarda “C” va “B” turdagi deyteranomaliya, shuningdek “C” va “B” turdagi protanomaliya kabi rang ajratish zaifliklarining mavjudligi ularga tibbiy xulosa berishni rad etish uchun asos hisoblanmaydi.

Nomzodlarda anomal trixromaziyaning “A” turi, jumladan protanomaliya, deyteranomaliya ва tritanomaliya, shuningdek dixromaziya, jumladan protanopiya, deyteranopiya ва tritanopiya, yoki monoxromaziya kabi rang ajratish buzilishlari aniqlangan taqdirda, ularga uchish ishiga va o‘qishga, shuningdek kabina ekipaji a’zoligiga o‘qishga va ishga yaroqsizligi to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

218. Nomzodlarning o‘z kasbiy majburiyatlarini xavfsiz bajarishi uchun ularda binokulyar ko‘rish funksiyasi va ko‘rish maydoni buzilishlari, shuningdek diplopiya mavjud bo‘lmasligi kerak.

Ko‘z olmasi muskullari balansi va binokulyar ko‘rish holatini baholashda foriya va tropiyani farqlash, ko‘rish markazidan og‘ish darajasini, ortoforiya hamda boshqa holatlarni aniqlash maqsadida Meddoks tayoqchasi bilan tekshiruv, tegishli korreksiyalovchi ko‘zoynak yoki kontakt linzalari yordamida ko‘zni yopish testi, ko‘zni navbatma-navbat yopish, ko‘zni yopib-ochish, sinoptofor hamda Uordning to‘rt nuqtali testi yordamida tekshiruvlar o‘tkaziladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Zaruratga ko‘ra, mutaxassis oftalmolog tomonidan fuziya amplitudasi aniqlanadi va ortoptik tekshiruvlar o‘tkaziladi.

219. Normal holatda manfiy fuzion zaxiralar 5–8 gradusni, musbat fuzion zaxiralar esa 15–20 gradusni tashkil etadi.

Quyidagi ko‘rsatkichlardan yuqori bo‘lgan normadan og‘ishlar aniqlanganda nomzodlar oftalmolog mutaxassis tomonidan qo‘shimcha tekshiruvdan o‘tkaziladi:

ezoforiya – 10 prizmatik dioptriy (D);

ekzoforiya – 5 prizmatik D;

giperforiya yoki gipoforiya – 2 prizmatik D;

sikloforiya – 1 prizmatik D.

220. Nomzodlarda diplopiya aniqlanganda ular uchish ishidan vaqtincha chetlatiladi hamda diplopiya sabablari (haddan tashqari ish yuklamasi, charchoq, stress, sedativ dori vositalarini qabul qilish, kasalliklar va boshqa omillar) aniqlanadi va tegishli davolash choralari ko‘riladi.

Monokulyar diplopiya aniqlanganda, nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Yuqoriga yoki chetga qarashda nigohning eng chekka zonasida diplopiya paydo bo‘lganda tegishli cheklovlar qo‘llanib nomzodning kasbiy yaroqlilik aniqlanadi.

Ko‘z mushaklari muvozanatini va binokulyar ko‘rishni tekshirishda kam ifodalangan o‘zgarishlar aniqlanganda nomzodlar uchish ishiga yaroqli deb topiladi.

221. Quyidagi holatlar aniqlanganda, nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi:

ko‘z mushaklari falaji yoki turg‘un parezi;

qovoq mushaklari falaji;

paralitik yoki birgalikdagi g‘ilaylik;

ko‘z soqqalarining yaqqol ifodalangan ixtiyorsiz tebranuvchi harakatlari (nistagm);

ko‘z kosasi jarohatlari natijasida ko‘z mushaklari shikastlanishi bilan kechuvchi turg‘un diplopiya;

fuzion zaxiralari pasaygan geteroforiya;

geterotropiya;

noturg‘un fiksatsiya sindromi;

binokulyar ko‘rish buzilishlari.

222. Quyidagi ko‘rsatkichlardan yuqori bo‘lgan holatlarda nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi:

a) 6 metr masofada:

vertikal bo‘yicha – 2,0 prizmatik D (1 gradus) dan yuqori;

ezoforiya – 10 prizmatik D (5 gradus) dan yuqori;

ekzoforiya – 8,0 prizmatik D (4 gradus) dan yuqori;

b) 33 sm masofada:

vertikal bo‘yicha – 1,0 prizmatik D dan yuqori;

ezoforiya – 8 prizmatik D (4 gradus) dan yuqori;

ekzoforiya – 12 prizmatik D (6 gradus) dan yuqori.

GEteroforiya jarrohlik usulida davolangan hollarda, jarrohlik amaliyotidan keyin 3 oydan 6 oygacha bo‘lgan muddat o‘tgach, binokulyar ko‘rish funksiyasi va ko‘rish maydonida buzilishlar

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

mavjud bo‘lmasa, diplopiya aniqlanmasa hamda oftalmologik tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lsa, oftalmolog-jarrohning xulosasi va kasallik prognozi asosida nomzodning kasbiy yaroqliligi individual tartibda aniqlanadi.

223. Ko‘zni chetga burishda nistagm aniqlanganda, nomzod nevrolog va otorinolaringolog mutaxassislar maslahatidan o‘tkaziladi. Binokulyar ko‘rish buzilmagan taqdirda tibbiy xulosa asosiy kasallik bo‘yicha chiqariladi.

Tekshiruv natijasida geteroforiyaning turi, darajasi va fuzion zaxiralari aniqlanadi. Fuzion zaxiralari pasayganda, ortoptik davolash mashqlari o‘tkaziladi.

Fuzion zaxiralari pasayganda, ortoptik davolash mashqlari o‘tkaziladi.

224. Ko‘rish o‘tkirligi yoritilish darajasi xonada 5–6 metr masofadan, korreksiyasiz hamda korreksiya bilan tekshiriladi.

Fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlarida uchuvchilikka o‘qishga nomzodlarda korreksiyasiz ko‘rish o‘tkirligi har bir ko‘zda alohida kamida 0,7 bo‘lishi, binokulyar ko‘rishda esa korreksiyasiz va korreksiya bilan 1,0 bo‘lishi kerak.

225. 2-klass nomzodlarida kontakt linzalari va (yoki) tegishli korreksiyalovchi linzali ko‘zoynaklar yordamida binokulyar ko‘z o‘tkirligi 1,0 ga yetkazilganda hamda ko‘rish maydoni normada bo‘lgan taqdirda, ularga korreksiyalanmagan ko‘z o‘tkirligi bo‘yicha cheklovlar qo‘yilmaydi.

Nomzod 5 raqamli yoki unga ekvivalent bo‘lgan jadvalni 30–50 sm masofadan, ko‘z o‘tkirligi 0,6 darajasida, shuningdek 14 raqamli yoki 8 raqamli yoki ularga ekvivalent bo‘lgan jadvalni 100 sm masofadan, ko‘z o‘tkirligi 0,3 darajasida o‘qiy olishi kerak.

Zarur hollarda tegishli korreksiya qo‘llaniladi.

Nomzodlarda ko‘z o‘tkirligi korreksiya bilan har bir ko‘zda 0.8 yuqori bo‘lishida va ko‘rish maydoni normadaligida korreksiyasiz ko‘rish o‘tkirligiga talablar qo‘yilmaydi.

Binokulyar ko‘rish o‘tkirligi korreksiyasiz (qorong‘ilikka adaptatsiya sharoitida ham) 0.7 va undan yuqori bo‘lganda uzoqni korreksiyalash (ko‘zoynak yoki linzalar) talab qilinmaydi.

Agar refraksiya xatosi tufayli korreksiya qilinmagan ko‘rish o‘tkirligi ikki ko‘zda 0.7 dan past bo‘lsa yoki astenopiya simptomlari paydo bo‘lsa refraksiya korreksiya qilinadi.

Nomzodlarda turg‘un binokulyar ko‘rish mavjud bo‘lishi kerak.

Nomzod uchun qulay bo‘lganda multifokal linzalar (ko‘zoynaklar) yordamidagi korreksiyaning barcha turlari qo‘llanilishi mumkin.

226. Nomzodlarda ko‘z o‘tkirligi korreksiya bilan har bir ko‘zda alohida 0,8 va undan yuqori bo‘lgan hamda ko‘rish maydoni normada bo‘lgan hollarda, korreksiyasiz ko‘rish o‘tkirligiga nisbatan talablar qo‘yilmaydi.

Binokulyar ko‘rish o‘tkirligi korreksiyasiz, shu jumladan qorong‘ilikka adaptatsiya sharoitida ham, 0,7 va undan yuqori bo‘lgan taqdirda, uzoq masofaga ko‘rishni korreksiyalash, jumladan ko‘zoynak yoki kontakt linzalaridan foydalanish talab etilmaydi.

Refraksiya xatosi tufayli korreksiya qilinmagan ko‘rish o‘tkirligi har ikkala ko‘zda 0,7 dan past bo‘lgan yoki astenopiya simptomlari kuzatilgan hollarda, refraksiya korreksiyasi qo‘llaniladi.

Nomzodlarda turg‘un binokulyar ko‘rish mavjud bo‘lishi kerak.

Nomzod uchun qulay bo‘lgan hollarda, multifokal linzalar yoki multifokal ko‘zoynaklar yordamidagi korreksiyaning barcha turlarini qo‘llashga yo‘l qo‘yiladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

227. Nomzodlarda optimal ko‘rish funksiyasini ta’minlaydigan, qulay, aviatsiyadagi ish faoliyatiga mos hamda umumiy foydalanish uchun yaroqli zaxira ko‘zoynak bo‘lishi kerak.

Nomzodlar uzoq masofani ko‘rishni ta’minlovchi, monofokal, rangsiz va qulay kontakt linzalardan foydalanishi lozim.

Yetarli darajadagi refraksiyaga ega bo‘lmagan nomzodlar sindirish koeffitsiyenti yuqori bo‘lgan kontakt linzalari yoki ko‘zoynak linzalaridan foydalanishi kerak.

Ko‘rishni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan shartlarga muvofiq faqat bitta turdagi ko‘zoynak taqiladi.

Ko‘rish qobiliyati pasaygan va presbiopiya mavjud bo‘lgan hollarda, nomzodlar korreksiyalovchi bifokal ko‘zoynaklar yoki kontakt linzalari bilan uchish ishlarini bajarishi, shuningdek yonida zaxira ko‘zoynak to‘plamini olib yurishi shart. Bunda VDL, VML, VNL va CCL cheklovlari qo‘llaniladi.

Nomzodlarda ko‘zoynaklar yoki linzalarning mavjudligi hamda ularning sifati tibbiy ko‘riklar davomida nazorat qilinadi.

228. Yaqin masofaga ko‘rishni unifokal korreksiyasi (o‘qish uchun qo‘llaniladigan bir xil optik kuchga ega yaxlit linzali ko‘zoynaklar) uzoq masofaga ko‘rish o‘tkirligini pasaytirishi sababli qo‘llashga ruxsat etilmaydi.

229. Nomzodlarda bir ko‘zda ko‘rishning patologik pasayishi, shu jumladan markaziy ko‘rishning pasayishi aniqlangan hollarda, binokulyar ko‘rish saqlanganda, ikkinchi ko‘zning uzoqqa ko‘rish o‘tkirligi korreksiya bilan yoki korreksiyasiz 1,0 bo‘lganda hamda yaqin va o‘rta masofadagi ko‘rish o‘tkirligi yetarli darajada ta’minlanganda, asosiy kasallik oftalmologik tekshiruv natijalariga ko‘ra ijobiy baholansa, shuningdek ikkinchi ko‘zda ahamiyatga ega kasalliklar mavjud bo‘lmasa, nomzodlarga uchish ishiga, o‘qishga, parvozga va ishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Refraksiya anomaliyasi mavjud bo‘lgan nomzodlar uchun ko‘rish o‘tkirligi korreksiya bilan yoki korreksiyasiz 0,6 dan past bo‘lmasligi kerak.

230. Miopiyaning 0,5 D darajasida, gipermetropiyaning 1,0 D darajasida, astigmatizmning 0,5 D darajasida hamda ko‘z o‘tkirligi korreksiyasiz 1,0 bo‘lgan hollarda, tibbiy hujjatlarda tashxis “sog‘lom” deb ko‘rsatiladi. Bunda “refraksiya” qatorida tegishli yozuv VNL cheklovi bilan qayd etiladi.

Refraksiya gipermetropiyada +5,0 D dan, miopiyada -6,0 D dan, astigmatizmda 2,0 D dan va anizometropiyada 2,0 D dan yuqori bo‘lmaganda hamda optimal korreksiyaga erishilgan hollarda, nomzodlarga tashxisda refraksiyaning turi va xatolik darajasi ko‘rsatilgan holda uchish ishiga, o‘qishga, parvozga va ishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Anizometropiya 2,0 D dan 3,0 D gacha bo‘lgan hollarda kontakt linzalaridan foydalanish talab etiladi.

231. Refraksiyaning klinik tekshiruvi retinoskopiya (avtomatik refraktometriya hamda sikloplegik preparatlar) qo‘llangan holda o‘tkaziladi.

Fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlariga uchuvchilikka o‘qishga nomzodlarda refraksiya sikloplegiya sharoitida tekshiriladi. Tekshiruv jarayonida 1 foiz siklopentolat yoki 1 foiz atropin qo‘llanilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlariga uchuvchilikka o‘qishga nomzodlarda quyidagi refraksiya ko‘rsatkichlari mavjud bo‘lganda, har bir ko‘zda optimal korreksiya bilan ko‘rish

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

o‘tkirligi 1,0 ga erishilganda, ularga uchuvchilikka o‘qishga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi:

miopiya – 3,0 D dan yuqori bo‘lmaganda;

gipermetropiya – 4,0 D dan yuqori bo‘lmaganda;

astigmatizm – ±1,5 D dan yuqori bo‘lmaganda;

anizometropiya – 2,0 D dan yuqori bo‘lmaganda.

Aviatsiya kimyoviy ishlarni bajarishda uchuvchilarga ko‘rishni kontakt linzalar yordamida korreksiyalashga ruxsat etilmaydi.

232. Presbiopiya darajasi va akkomodatsiya buzilishlari professional faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlash masofasi (60–80 sm) hisobga olingan holda sferik linzaning optik kuchi bo‘yicha aniqlanadi.

Akkomodatsiya buzilishlari aniqlanganda, shuningdek 3,5 D dan yuqori darajadagi presbiopiya mavjud bo‘lganda nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Presbiopiya mavjud bo‘lganda va kontakt linzalardan foydalanuvchi nomzodlar kontakt linzalar ustidan o‘qish uchun ko‘zoynak taqishlari mumkin.

8-bob. Otorinolaringologik kasalliklar

233. Nomzodlarda guvohnoma bilan nazarda tutilgan kasbiy vazifa va majburiyatlarni xavfsiz bajarishga monelik qiluvchi quloq, tomoq, burun, og‘iz bo‘shlig‘i, tishlar hamda ular bilan bog‘liq a’zolarning tug‘ma yoki orttirilgan nuqsonlari, kasalliklari, obstruksiyalari, jarohatlari, funksional buzilishlari va jarrohlik amaliyotidan keyingi asoratlari mavjud bo‘lmasligi lozim.

Radioaloqani olib borishga to‘sqinlik qiluvchi yaqqol ifodalangan nutq buzilishlari va duduqlanish aniqlanganda nomzodlar uchish ishiga yaroqsiz deb topiladi.

Nutq buzilishi yoki duduqlanish yengil darajada ifodalangan hollarda, tijorat aviatsiyasi uchuvchisi, jumladan samolyot, vertolyot, dirijabl va ko‘tarish kuchini oshirish tizimiga ega havo kemasi uchuvchisi sifatida yaroqlilik masalasi ijobiy hal etilishi mumkin.

Aniq va ravon so‘zlashuv nutqi saqlanganda, ayrim tovushlar talaffuzida buzilishlar mavjud bo‘lgan hollarda, nomzodlar yaroqli deb topiladi.

234. Ko‘plab tishlarning yo‘qligi oqibatida chaynash funksiyasi kam darajada buzilgan hollarda, komissiyalar oralig‘idagi davrda protezlash tavsiya etiladi.

Allergeni ma’lum bo‘lgan va uni bartaraf etish oson bo‘lgan pollinoz, rinokonyunktival sindrom kabi allergik holatlarda, nomzodning yaroqliligi allergologning xulosasi hamda kasallik prognozi asosida aniqlanadi.

Maxsus anjomlardan, shu jumladan kislorod niqobidan foydalanishda qiyinchilik tug‘diruvchi, LOR a’zolari funksiyalarining klinik ahamiyatga ega buzilishlari bilan kechuvchi, jumladan nafas olish va nutq funksiyalarini buzuvchi quyidagi holatlar aniqlanganda nomzodlarga uchish ishiga yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi:

yuqori nafas yo‘llari, og‘iz bo‘shlig‘i va quloqlarning tug‘ma yoki orttirilgan turg‘un nuqsonlari;

yuqori nafas yo‘llari, og‘iz bo‘shlig‘i va quloqlarning kasalliklari;

jarrohlik amaliyotlaridan keyingi asoratlar;

jarohatlar;

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

ko‘plab tishlarning yo‘qligi;

yuqori nafas yo‘llarining distrofik o‘zgarishlari;

kasbiy vazifalarni xavfsiz bajarishga monelik qiluvchi boshqa klinik ahamiyatga ega funksional buzilishlar.

Mazkur kasalliklar va nuqsonlar jarrohlik yoki boshqa davolash usullari qo‘llanilganidan keyin davolash natijalari ijobiy bo‘lgan hamda organ funksiyasi tiklangan hollarda, nozmodga uchish ishiga, parvozga, ishga va o‘qishga yaroqlilik belgilanadi.

Gaymor bo‘shliqlari shilliq qavatining qalinlashishi aniqlangan hollarda, nomzodlar yaroqli deb hisoblanadi.

Burun bo‘shlig‘i va yondosh bo‘shliqlarda o‘tkazilgan jarrohlik amaliyotidan keyin 2 hafta o‘tgach, burun orqali nafas olish funksiyasi to‘liq tiklanganda, nomzodlarning yaroqliligi aniqlanadi.

Shamollash belgilari, jumladan yo‘tal, burun bitishi, burun yoki tomoqdan yiringli ajralma kelishi mavjud bo‘lgan hollarda, shuningdek nafas olish funksiyasining buzilishi bilan kechuvchi burun patologiyalarida, nomzodlar majburiy tartibda davolanishi kerak.

Surunkali kompensatsiyalangan tonzillit mavjud bo‘lgan hollarda, nomzodlarga davolash-profilaktika tadbirlari o‘tkaziladi.

235. Uchish ishiga to‘sqinlik qilmaydigan peshona bo‘shliqlari osteomalari mavjud bo‘lgan hollarda, nomzodlar uchish ishiga yaroqli deb hisoblanadi.

Yaxshi sifatli o‘smalar (fibroma, polip, gemangioma va boshqalar) aniqlanganda, jarrohlik yoki boshqa davolash usullari natijalari ijobiy bo‘lsa, nafas olish va so‘zlash funksiyalari tiklanganda, shikoyatlar, og‘riq va bosh aylanishi mavjud bo‘lmaganda, shuningdek tibbiy tekshiruv natijalari ijobiy bo‘lganda, nomzodlarning uchish ishiga yaroqliligi aniqlanadi.

Rinoplastikadan keyin burun orqali nafas olish funksiyasi to‘liq tiklangan hollarda, nomzodlarga uchish ishiga, parvozga, ishga va o‘qishga ruxsat etiladi.

Xavfli o‘smalar sababli davolanish o‘tkazilgandan keyin to‘liq sog‘ayish kuzatilganda, organlar funksiyalari tiklanganda, tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lganda hamda onkolog xulosasi va prognozi inobatga olinganda, nomzodning uchish ishiga, parvozga, ishga va o‘qishga yaroqlilik belgilanadi.

236. Quloq nog‘ora pardasining oddiy punksiyasi va oddiy mastoidektomiyadan keyin bosh aylanishi kuzatilmasa hamda eshitish o‘tkirligi qoniqarli bo‘lsa, nomzodlar uchish ishiga yaroqli deb hisoblanadi.

Radikal mastoidektomiyadan keyin monaural eshitish funksiyasining yo‘qolishi, infeksiya, bosh aylanishi hamda bosh chanog‘i ichida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan asoratlar inobatga olingan holda, to‘liq otologik tekshiruv o‘tkazilgandan so‘ng nomzodning uchish ishiga yaroqliligi aniqlanadi.

O‘rta quloq uzangichasida o‘tkazilgan jarrohlik amaliyotidan keyin tekshiruv natijalari ijobiy bo‘lganda, Yevstaxiy nayining o‘tkazuvchanligi saqlanganda hamda bosh aylanishi kuzatilmagan hollarda, nomzodlarga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Bunda nomzod otorinolaringologning dispanser kuzatuviga olinadi hamda o‘rta quloq ventilyatsiyasining buzilishiga olib keluvchi yuqori nafas yo‘llari infeksiyalarining profilaktikasi amalga oshiriladi.

237. Nomzodlarning vestibulyar funksiyasi, statokinetik ta’sirchanligi, vestibulyar anamnez hamda vestibulometriya natijalari asosida aniqlanadi.

Yengil vestibulovegetativ reaksiyalar mavjud bo‘lgan hollarda tashxis qo‘yilmaydi.

Mener kasalligi, konservativ yoki jarrohlik usullar bilan davolash qiyin bo‘lgan yoxud davolab bo‘lmaydigan vestibulyar funksiyaning tug‘ma yoki orttirilgan anomaliyalari, surunkali vestibulyar buzilishlar, shuningdek statokinetik ta’sirchanlikning yuqori darajasi aniqlangan taqdirda, nomzodlarga uchish ishiga, parvozga, ishga va o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Nog‘ora pardaning yaxshi harakatlanishida, eshitish funksiyasini me’yordaligi audiogramma bilan tasdiqlanganda va barofunksiya saqlanganligida, perforatsiya joyida yupqalashmagan kichik chandiqlarni mavjudligida, quruq perforatsiya, nog‘ora pardada kalsifikatlar borligi tashxis qo‘yishga asos bo‘lmaydi.

Radikal jarrohlik amaliyotidan keyin, quloq funksiyasi to‘liq tiklanganida va tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lganda, nomzod uchish ishiga (parvozga, ishga, o‘qishga) yaroqliligi aniqlanadi.

238. Surunkali epitimpanit va mezotimpanitlarda davolash natijalari ijobiy bo‘lganda, eshitish funksiyasi kasbiy majburiyatlarni bajarish uchun yetarli darajada saqlanganda, nomzodlarga uchish ishiga, parvozga, ishga va o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi. Yaroqli deb topilgan nomzodlarga otorinolaringologning dispanser kuzatuvi belgilanadi.

Havo bosimining o‘zgarishi sharoitida Yevstaxiy nayining o‘tkazuvchanligi buzilishi yoki quloqning baroakkomodatsion mexanizmlari yetishmovchiligi sababli quloq barofunksiyasi buzilganda, davolash o‘tkazilgandan keyin barofunksiya buzilishining organik yoki funksional shakliga ko‘ra tibbiy xulosa chiqariladi.

Nog‘ora pardaning harakatchanligi yaxshi bo‘lsa, eshitish funksiyasi audiogramma bilan tasdiqlangan normada hamda barofunksiya saqlangan bo‘lsa, perforatsiya joyida yupqalashmagan kichik chandiqlar, quruq perforatsiya yoki nog‘ora pardada kalsifikatlar mavjudligi tashxis qo‘yish uchun asos bo‘lmaydi.

Radikal jarrohlik amaliyotidan keyin quloq funksiyasi to‘liq tiklanganda va tekshiruv natijalari ijobiy bo‘lganda, nomzodning uchish ishiga, parvozga, ishga va o‘qishga yaroqliligi aniqlanadi.

239. Nomzodlar o‘z guvohnomasi va malaka belgilari bilan nazarda tutilgan kasbiy majburiyat hamda vazifalarni xavfsiz bajarishlari uchun ularning eshitish qobiliyati yetarli darajada saqlangan bo‘lishi, bunda eshitish qobiliyati kamida 6 metr masofadan bas va diskant guruhdagi so‘zlarni shivirlab talaffuz qilish usuli (akumetriya) hamda kalibrlangan tonal audiometriya yordamida aniqlanadi.

240. Nutq audiometriyasida nomzodning so‘zlarni to‘g‘ri eshitishi va takrorlashi 95–100 foizni tashkil etganda, eshitish qobiliyati normada deb hisoblanadi.

Mazkur ko‘rsatkich 80 foizdan kam bo‘lgan hollarda, nomzodga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Audiometriyada tovushni qabul qilish intensivligi -20 dB dan +100 dB gacha, chastota diapazoni esa 125 Gs dan 8000 Gs gacha bo‘lgan oraliqda qayd etiladi.

Kalibrlangan (tiniq tonal) audiometriyada nomzodlarda har bir quloq alohida baholanadi hamda 500, 1000 yoki 2000 Gs chastotalardan birida eshitish chegarasi 35 dB dan, 3000 Gs chastotada esa 50 dB dan oshmasligi kerak.

Tinch xonada 2 metr masofada, nomzod tekshiruv o‘tkazayotgan shifokorga teskari turgan holda o‘rtacha balandlikdagi so‘zlashuv nutqini har ikkala qulog‘i bilan eshita olmasa, unga uchish ishiga, parvozga, ishga va o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

241. Eshitish qobiliyatini tiklashga qaratilgan radikal jarrohlik amaliyotlaridan, jumladan timpanoplastika va stapedoplastikadan keyin, operatsion bo‘shliqning to‘liq va turg‘un epidermizatsiyasi ta’minlangan, eshitish funksiyasi tiklangan, maxsus moslamadan foydalanish qoniqarli bo‘lgan hamda unda eshitish qobiliyati saqlangan taqdirda, nomzodning uchish ishiga, parvozga, ishga va o‘qishga yaroqliligi aniqlanadi.

242. Uchuvchining, jumladan samolyot yoki vertolyot uchuvchisining, eshitish qobiliyati ushbu bobda belgilangan talablarga to‘liq javob bermaganda, biroq havo kemasi kabinasidagi so‘zlashuv va radiomayak signallariga mos oddiy shovqin fonida, shu jumladan imitatsiya qilingan yoki qayta tiklangan shovqin fonida eshitish qobiliyati normada bo‘lgan hollarda, OAL cheklovi qo‘llangan holda uchish ishiga yaroqli deb topilishi mumkin.

Bunda qo‘llaniladigan shovqin foni nomzodning guvohnomasi va malaka belgilari bilan ruxsat etilgan havo kemasi turining shovqin sharoitiga mos bo‘lishi kerak.

Shovqinli sharoitda o‘tkaziladigan tekshiruvlarda qo‘llaniladigan nutq materiallari aviatsiya faoliyati bilan bog‘liq bo‘lishi hamda fonetik jihatdan muvofiqlashtirilgan holda tanlanishi lozim.

Zaruratga ko‘ra, bunday tekshiruvlar trenajyorda o‘tkaziladi.

Eshitishning neyrosensor yo‘qolishi aniqlangan hollarda, u eshitish organining boshqa kasalliklaridan differensial tashxis qilinishi, shuningdek nevritning etiologiyasi, jumladan zaharlanish, jarohatdan keyingi asoratlar, ateroskleroz, gipertoniya, infeksiya, shovqin ta’siri va boshqa omillar aniqlanib, tashxisda ko‘rsatilishi kerak.

4000–8000 Gs chastotalarda ayrim eshitish chegaralarining 30–40 dB gacha bo‘lishi o‘z-o‘zicha klinik tashxis qo‘yish uchun asos bo‘lmaydi.

243. Eshitish qobiliyatining pasayishi aniqlangan hollarda, ko‘rikdan o‘tayotgan uchuvchi, jumladan samolyot yoki vertolyot uchuvchisi, ikki tomonlama radioaloqani olib borish bo‘yicha ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan uchish faoliyatiga doir tavsifnomani otorinolaringologga taqdim etishi kerak.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Fuqaro aviatsiyasida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish
va tibbiy xulosa berish tartibi to‘g‘risidagi O‘zbekiston
Respublikasining aviatsiya qoidalariga
3-ILOVA

3-klass tibbiy xulosasini olishga nomzodlarning sog‘liq holatiga qo‘yilgan tibbiy talablar

1-bob. Umumiy talablar

1. Nevrologik tibbiy ko‘rikni o‘tkazishda quyidagi holatlarni aniqlashi lozim:

nomzodda nevrologik kasallikning mavjudligi yoki mavjud emasligi;

mavjud nevrologik kasallikning statik holatda funksional jihatdan parvozlar xavfsizligiga tahdid solish ehtimoli;

nevrologik kasallikning monitoring o‘tkazish imkonini beruvchi vaqtinchalik progressivlashuvchi ko‘rinishga egaligi;

nomzodning ahamiyatga ega bo‘lmagan qoldiq funksional nevrologik buzilishlarsiz kasallikdan to‘liq sog‘ayganligi;

aviatsiya xodimining ruhiy holati buzilishlari natijasida ish qobiliyatining to‘satdan yoki yashirin tarzda yo‘qolishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan holatlarning mavjudligi yoki ehtimoli.

2. Nomzodda ruhiy holat buzilishlari aniqlanganda yoki gumon qilinganda yoxud boshqa tibbiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lganda, ular o‘qishdan yoxud o‘z kasbiy funksional majburiyatlarini bajarishdan chetlatiladi hamda psixiatriya muassasasiga yuboriladi.

Mazkur nomzodning ruhiy sog‘lig‘i va ijtimoiy moslashuv holati yuzasidan psixiatrlarning xulosasi olingandan keyin tibbiy ko‘rikni davom ettirish masalasi tibbiy-uchish komissiyasi (bundan buyon matnda TUK deb yuritiladi) tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Psixiatrik tibbiy ko‘rik yoki tekshiruvlar ko‘rikdan o‘tuvchining roziligi bilan amalga oshiriladi.

Nomzodning psixiatr ko‘rigi, tekshiruvi yoki zarur bo‘lganda davolanishdan bosh tortishi uning tibbiy hujjatlarida qayd etiladi hamda tibbiy xulosa bermaslikka yoki amaldagi tibbiy xulosani bekor qilishga asos bo‘ladi.

3. Kognitiv funksiyalarning amaldagi har qanday susayishi aviatsiyada jiddiy oqibatlar yuzaga keltirishi mumkinligi sababli, funksional buzilishlarga olib keluvchi ruhiy holat buzilishlarining qaytalanish xavfi hisobga olingan holda, tibbiy xulosa chiqariladi.

4. Nomzodning ruhiy holati buzilishining tekshirishda quyidagilar aniqlanadi:

tabiiy omillar, tarbiya va hayotiy tajribaning mujassamligida uning ruhiy holatini buzilishiga bo‘lgan moyilligi;

ruhiy holatning buzilishlari, shuningdek inson temperamenti ham muhim genetik komponentga egaligi;

ruhiy holat buzilishiga genetik moyilligi bo‘lgan nomzodning tarbiya va hayotdagi vaziyatlar bilan bog‘liq stress-faktorlarga psixiatrik simptomlarsiz bardosh berishga qodirligi;

bolalikdagi hodisalar, jamiyatga zid axloq, o‘qishni o‘zlashtirishni pastligi, doimiy ish o‘rnini izlashdagi qiyinchiliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarni iste’mol qilish, kayfiyatning to‘satdan o‘zgarishi va yaqin munosabatlarni o‘rnata olmaslik kabi ruhiy holatni buzilganligi alomatlarining mavjudligi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

5. Nomzodlarda pirsing, implantlar va teridagi tatuirovkalar bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

6. Yo‘qotilgan yoki funksiyasi yo‘qolgan a’zolarning faoliyatini tiklash maqsadida o‘rnatilgan implantlarda (masalan, tish yoki ba’zi bir onkologik kasalliklar sababli) tegishli shifokor mutaxassis maslahatini olib nomzodning yaroqliligi aniqlanadi.

2-bob. Ruhiy holatning buzilishi va asab kasalliklari

7. Shizofreniya, paranoik buzilishlar, affektiv psixozlar (maniakal-depressiv psixoz, siklotimiya) mavjud bo‘lgan nomzodlarga nisbatan tibbiy xulosa faqat psixiatriya muassasada o‘tkazilgan tekshiruv natijalari asosida rasmiylashtiriladi.

Mazkur kasalliklar aviatsiya xodimlarida aniqlangan hollarda, ular o‘z kasbiy funksional vazifalarini bajarishga yaroqsiz deb topiladi va kasbiy faoliyatga qayta tiklanmaydi.

Organik ruhiy holatning buzilishi aniqlangan nomzodlar barcha klasslar bo‘yicha kasbiy faoliyatni amalga oshirishga yaroqsiz deb topiladi hamda kasbiy faoliyatga qayta tiklanmaydi.

8. Nomzodlarga tibbiy xulosani rasmiylashtirishda quyidagi holatlar inobatga olinadi:

ruhiy-hissiyot sohasidagi reaktiv holatlarning o‘tkir yoki surunkali ruhiy jarohatlar ta’siri ostida yuzaga kelishi;

jarohatlovchi omilning psixiatrik simptomlar va klinik belgilar shakllanishiga bevosita sabab bo‘lishi;

ruhiy holatning buzilishlarini keltirib chiqaruvchi omil bartaraf etilganda, reaktiv holatning qisqa muddat ichida barqarorlashishi yoki tugashi.

9. Aviatsiya hodisasi yoki insidenti sodir bo‘lganidan so‘ng uchuvchi ekipaj a’zolarida kuzatilishi mumkin bo‘lgan qisqa muddatli ruhiy holat buzilishini baholashda quyidagi omillar inobatga olinadi:

hodisaning kelib chiqishi, uning sababi va rivojlanish holati;

ko‘rikdan o‘tayotgan nomzodning birlamchi emotsional ta’siri;

komandirlik rahbariyati, dispetcher xizmati va kasbdoshlar tomonidan ko‘rsatilgan psixologik qo‘llab-quvvatlash darajasi;

mehnat va dam olish tartibiga rioya etilishi;

hodisaga oid omillar bilan bog‘liq boshqa psixologik, fiziologik va tashkiliy jihatlar.

10. Aviatsiya hodisalaridan keyingi ruhiy tushkunlik va depressiv holatlarning havodagi harakatni boshqarish dispetcheri (bundan buyon matnda HHB dispetcheri deb yuritiladi) faoliyatini davom ettirishga salbiy ta’siri, shuningdek uzoq davom etuvchi tekshiruv, qidiruv va surishtiruv jarayonlarining turg‘un ruhiy holat buzilishlarga olib kelishi ehtimoli hisobga olinib, yaroqlilik to‘g‘risidagi xulosa chiqarilishi lozim.

Psixologik ko‘rik faqat tibbiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lganda, tibbiy ekspertlari hamda aviatsiya hodisasini tekshiruv komissiyasi raisining ruxsati bilan o‘tkazilishi kerak.

Tekshiruv jarayonida aviatsiya xodimining kasbiy majburiyatlarini bajarish chog‘ida qiyinchilik tug‘dirgan omillar, shaxsiy omillar va inson omiliga bog‘liq xato harakatlar, tashkiliy omillar, uning kasb faoliyatini davom ettirishga bo‘lgan munosabati, surishtiruv jarayonida sog‘lig‘ida buzilishlarni keltirib chiqaruvchi nizoli vaziyatlar, kasbdoshining og‘ir ahvolga tushib qolishi yoki vafot etishi bilan bog‘liq holatlar, shuningdek mazkur voqealarga nisbatan subyektiv ta’sirchanligining sabablari aniqlanishi lozim.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

11. Yengil darajada ifodalangan ruhiy holat o‘zgarishlar aniqlangan hollarda, profilaktik tibbiy chora-tadbirlar va tavsiyalarni qo‘llash zarurati bo‘lmasa nevrolog ko‘rigi o‘tkazilib HHB dispetcherligi ishini davom ettirishga ruxsat beriladi.

12. Aviatsiya xodimlarida aviatsiya hodisalaridan keyin yuzaga kelgan ruhiy holat buzilishlari va nevrozlarda, ularning davomiyligi, shaxsning kasbini davom ettirishga bo‘lgan munosabati, instruktorlarning fikri, shuningdek psixofiziologik, fiziologik, jismoniy va kasbiy omillar inobatga olingan holda yaroqlilik aniqlanadi.

Kechikib rivojlanadigan nevrozlar, qo‘rquv holatlari va kasbiy faoliyatni davom ettirishga qiyinchilik tug‘diruvchi boshqa psixologik reaksiyalarga moyillik aniqlangan hollarda, yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Bunda aviatsiya xodimiga nisbatan o‘tkazilgan reabilitatsiya chora-tadbirlari ijobiy natija bergan taqdirda, u ish faoliyatiga tiklanishi mumkin.

13. Psixopatiyalar (shakli va klinik ifodalanish darajasidan qat’i nazar), shuningdek nomzodning psixotik bo‘lmagan buzilishlari (paranoyal, affektiv, shizoid, qo‘zg‘aluvchan va boshqa turlari) aniqlangan hollarda yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

14. Quyida keltirilgan tashxislar bo‘yicha uchuvchi tarkibi va kursantlar to‘liq sog‘ayganidan, ruhiy-asab faoliyati to‘liq kompensatsiyalanganidan hamda qo‘shimcha psixotrop terapiyaga ehtiyoj yo‘qligi tasdiqlanganidan so‘ng 4 oydan 6 oygacha muddat o‘tgach, psixiatriya yoki narkologiya muassasalarida psixolog va psixiatr ko‘rigidan o‘tkazilgandan so‘ng tibbiy ko‘rikka qo‘yilishiga yo‘l qo‘yiladi:

a) stress va somatoform buzilishlarga oid tashxislar (XKT-10):

og‘ir stressga javob reaksiyalari va adaptatsiya buzilishlari (F 43);

b) fiziologik va fizik omillar bilan bog‘liq fe’l-atvor sindromlari (XKT-10):

uyqu va bedorlik tartibining buzilishi (organik etiologiyasiz) (F51.2);

bosinqirashlar (F51.5);

organik etiologiya bilan bog‘liq bo‘lmagan jinsiy disfunksiyalar (F52);

tug‘ishdan keyingi davrga oid psixik va xulq-atvor buzilishlari (F53);

boshqa kasalliklar bilan bog‘liq psixologik va xulq-atvor omillari (F54);

aniqlanmagan fiziologik buzilishlar va fizik omillar bilan bog‘liq fe’l-atvor sindromlari (F59).

Mazkur holatlarda tibbiy xulosa rasmiylashtirilayotganda nomzodning asab-ruhiy faoliyatining kompensatsiya darajasi, psixoz yoki nevroz kechgan davrdagi ruhiy holati buzilishlarining xususiyatlari, chuqurligi, kechish dinamikasi, uning qaytalanish xavfi, psixotrop dori vositalarini doimiy qabul qilish zarurati mavjudligi yoki mavjud emasligi, prognozning ijobiyligi inobatga olinadi.

Nomzodning ruhiy holati buzilishi xususiyatiga ko‘ra psixotrop dori vositalarini muntazam qabul qilish zarurati mavjud bo‘lganda, u aviatsiya faoliyatini amalga oshirishga yoki o‘qishga yaroqsiz deb topiladi hamda uchish ishiga qayta tiklanmaydi.

15. Anamnezida suitsidal xatti-harakatlar yoki suitsidal urinishlar mavjud bo‘lgan nomzodlar barcha klasslar bo‘yicha yaroqsiz deb topiladi hamda ishga yoki o‘qishga qayta tiklanmaydi.

Bunda nomzodning ruhiy holati, individual va oilaviy anamnezi, shuningdek mazkur holatning kelib chiqishiga sabab bo‘lgan omillar o‘rganiladi. Zarur hollarda psixiatrik ekspertiza o‘tkaziladi va psixiatr xulosasi olinadi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

16. Vaziyatga bog‘liq astenik holatlar yoki nevrastenik sindromlarda 4–6 oydan keyin, ushbu holatni yuzaga keltirgan omillar va klinik belgilar bartaraf etilganda, psixologik testlar, klinik tekshiruvlar hamda nevrolog dispanser kuzatuvi natijalari ijobiy bo‘lgan taqdirda, nomzod qayta ko‘rikdan o‘tkaziladi.

Somatogen kasalliklar sababli yuzaga kelgan qisqa muddatli ruhiy holat buzilishlarini o‘tkazgan nomzodlar, asosiy kasallikdan sog‘aygach, asab-ruhiy faoliyati to‘liq kompensatsiyalangan va doimiy quvvatlovchi davolash zarurati bo‘lmagan hollarda, ishga yoki o‘qishga yaroqli deb topiladi.

17. Shaxs buzilishlari mavjud bo‘lgan hollarda shaxsning hissiy, intellektual va ijtimoiy moslashuvchanligi pasayadi hamda uning HHB dispetcheri sifatida xavfsiz, barqaror va samarali faoliyat yuritishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Bunda nomzodlarda atrofdagilar bilan ziddiyatli munosabatlarga moyillik, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor qoidalariga rioya etmaslik qo‘shimcha stress omili sifatida namoyon bo‘lib, aviatsiya faoliyatida talab etiladigan kasbiy vazifalarni bajarishda diqqatni jamlashning pasayishiga hamda e’tiborsizlikka olib kelishi mumkin.

Shaxs buzilishlarining ko‘rinishlarini aniqlash va ekspert baholash maqsadida nevrolog tomonidan tibbiy kuzatuv olib boriladi, so‘rov o‘tkaziladi, ekipaj a’zolari bilan suhbat tashkil etiladi, oilaviy va shaxsiy anamnez o‘rganiladi, psixologik testlar o‘tkaziladi hamda jamoadagi psixologik muhit baholanadi.

Tekshirish o‘tkazishda yomon moslashuvga va ziddiyatli holatlarga olib keluvchi shaxs buzilishlari mavjud bo‘lgan nomzodni, xulq-atvor modeli atrofdagilar tomonidan maqbul deb topilmaydigan, biroq tibbiy mezonlarga ko‘ra shaxs buzilishi sifatida baholanmaydigan shaxsdan farqlash lozim.

Psixiatriya muassasasida o‘tkazilgan tekshiruv natijalari va psixiatrning xulosasi asosida yakuniy tibbiy xulosa chiqariladi

Tibbiy kuzatuv ma’lumotlari salbiy bo‘lganda, turg‘un va aniq ifodalangan shaxs buzilishlari mavjud nomzodlar uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsiz deb topiladi.

18. Nomzodning ahamiyatsiz darajadagi buzilishlari mavjud bo‘lgan hollarda, kasbiy fazilatlar, jumladan ish staji, tajribasi, malakasi, bajarilayotgan vazifalarning sifati va boshqa tegishli ko‘rsatkichlar inobatga olingan holda, unga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

19. Ayrim, kam ifodalangan infantilizm belgilari mavjud bo‘lgan hamda asab-ruhiy faoliyati ijtimoiy va kasbiy jihatdan maqbul kompensatsiyalangan nomzodlardagi shaxs aksentuatsiyasi yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarish uchun asos bo‘lmaydi.

Nomzodning xulq-atvorida ilgari kuzatilmagan noadekvat reaksiyalar paydo bo‘lgan hollarda, psixolog va psixiatr tekshiruvi o‘tkaziladi. Bunda tashxis tasdiqlanmagan taqdirda yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishi mumkin.

20. Psixolog tomonidan nomzodning individual-psixologik xususiyatlarida buzilishlar aniqlanganda, nevrologik klinikada qo‘shimcha tekshiruvlar o‘tkaziladi hamda ko‘rsatma mavjud bo‘lganda, psixiatr maslahati tashkil etiladi.

Nomzodda turg‘un va salbiy belgilari bilan yaqqol ifodalangan shaxsiyat buzilishlari mavjud bo‘lganda, yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi. Bunda buzilishlar kam ifodalangan hollarda esa, uning kasbiy sifatlari, jumladan mehnat staji, ish tajribasi, bajarilayotgan ish sifatini hisobga olgan holda, unga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqliligi to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Alohida vaziyatga bog‘liq omillar natijasida yuzaga kelgan insomniya, dissoniya yoki sirkad ritmlarining buzilishi aniqlanganda, aviatsiya xodimi o‘z kasbiy vazifalarini bajarishdan chetlatiladi hamda davolanish uchun psixologga yuboriladi.

Davolash jarayonida gipnoz usullaridan, shuningdek aviatsiya faoliyatida qo‘llanishiga yo‘l qo‘yilmaydigan sedativ dori vositalaridan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki alkogol iste’moli bilan bog‘liq turg‘un insomniya yoki dissoniya mavjud bo‘lganda, barcha klasslar bo‘yicha nomzodlar yaroqsiz deb topiladi hamda kasbiy faoliyatga qayta tiklanmaydi.

21. Mazkur hollarda uchish ishiga (o‘qishga) yaroqli deb topilgan nomzodlar komissiya oralig‘i davrida nevrolog tomonidan har 6 oyda bir marotaba dispanser kuzatuvidan, psixolog tomonidan esa yiliga bir marotaba psixologik tekshiruvdan o‘tkaziladi.

Tashxisni bekor qilish muddati (barqaror remissiyani tasdiqlash) nevrolog tomonidan aniqlanadi.

Ma’lum bir somatik kasallik bilan bog‘liq bo‘lgan qisqa muddatli ruhiy holatning buzilishini o‘tkazgan nomzodlar asosiy kasallikdan sog‘aygandan so‘ng doimiy ravishdagi yordamchi davolash usullarini qo‘llash talab qilmaydigan asab-ruhiy faoliyatining to‘liq kompensatsiyasida uchish ishiga (o‘qishga) yaroqli deb topilishlariga yo‘l qo‘yiladi.

22. Alkogol, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste’mol qilish natijasida yuzaga keladigan ruhiy hamda xulq-atvor buzilishlari, shuningdek surunkali alkogolizm, 1 yil va undan ortiq davom etgan muntazam alkogol, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar iste’moli holatlarida barcha nomzodlar uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsiz deb topiladi va kasbiy faoliyatga qayta tiklanmaydi.

Alkogol yoki psixotrop moddalarni iste’mol qilish oqibatida yuzaga kelgan jismoniy, psixologik va xulq-atvor buzilishlari inobatga olingan holda nomzodga tegishli tashxis qo‘yiladi.

O‘tkir (o‘tkirosti) alkogolli psixoz alkogolli deliriy, paranoid holatlar, gallyusinoz, rashk vasvasasi va shu turdagi boshqa holatlarda yoki alkogolizmga gumon bo‘lgan hollarda narkolog ko‘rigi o‘tkaziladi.

Ruhiy holatni o‘zgartirish maqsadida sedativ preparatlar, trankvilizatorlar, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki ularning prekursorlarini notibbiy maqsadda qabul qilish dori vositasiga qaramlik yoki uni iste’mol qilish sifatida baholanadi.

23. Alkogolli qaramlik (alkogolizm) shakllanmagan hollarda, alkogolning zararli iste’moli yoki bir martalik alkogol bilan o‘tkir zaharlanish aniqlanganda, aviatsiya xodimi darhol xizmat vazifalaridan chetlatiladi va chuqurlashtirilgan tibbiy hamda psixologik tekshiruvlardan, narkolog maslahati va sog‘lomlashtirish-davolash tadbirlaridan o‘tkaziladi.

Nevrolog tomonidan belgilangan muddat davomida tibbiy kuzatuv olib borilib, 2–4 oydan so‘ng tibbiy tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lganda, narkolog xulosasida ijobiy prognoz qayd etilganda hamda aviatsiya xodimining xizmat tavsifnomasi qoniqarli bo‘lganda, u qayta tibbiy ko‘rikdan o‘tkaziladi.

Qayta tibbiy ko‘rik natijasida yaroqlilik aniqlanganda, aviatsiya xodimi o‘z kasbiy faoliyatiga tiklanishi mumkin.

24. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va alkogolga qaramlik nomzodning ratsional fikrlashi, idrok etishi, kognitiv hamda boshqa psixofiziologik faoliyati va reaksiyalarini zaiflashtiradi, shuningdek jiddiy kasbiy, tibbiy, ijtimoiy va huquqiy oqibatlarni yuzaga keltiradi.

Mazkur holatlar aviatsiya bilan bog‘liq o‘qish va mehnat faoliyatini bajarish uchun mutlaqo nomuvofiq deb baholanadi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

25. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste’mol qilganlikni aniqlash bo‘yicha tekshiruv nomzodning yozma arizasi, siydik, qon va boshqa biologik materiallarning obyektiv laboratoriya tahlillari asosida amalga oshiriladi.

Bunday ma’lumotlarga mazkur moddalarning mavjudligi, klinik belgilar va simptomlar, shuningdek uchinchi shaxslardan olingan xabardor ma’lumotlar kiradi.

Tekshiruv uchun ma’lumotlar bir necha mustaqil manbadan olinishi kerak.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni identifikatsiya qiluvchi, shuningdek nomzodning mazkur moddalarni hozirgi vaqtda, yaqin o‘tmishda yoki o‘tmishda iste’mol qilganligini aniqlashga imkon beruvchi obyektiv laboratoriya tahlillari muhim dalil sifatida qabul qilinadi.

26. Nomzodning alkogol, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste’mol qilganligi haqida gumon tug‘ilganda yoxud bu haqda ma’lumot kelib tushganda, shifokor uning jismoniy va ruhiy holati, iste’mol qilishga oid dalillar, mazkur holatning ehtimoliy sabablari hamda boshqa ahamiyatga ega ma’lumotlarni bayon etgan holda dalolatnoma rasmiylashtiradi.

Tashxisni aniqlash uchun nomzod tibbiy xodim kuzatuvi ostida, tegishli tibbiy hujjatlar va ashyoviy dalillar bilan birga narkolog ko‘rigiga yuborilishi lozim.

Alkogol, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni iste’mol qilganlikni aniqlash bo‘yicha tekshiruvlardan bosh tortish tibbiy xulosa bermaslikka yoxud amaldagi tibbiy xulosani bekor qilishga asos hisoblanadi.

Anamnezida toksikomaniya, narkomaniya yoki alkogolizm mavjud bo‘lgan nomzodlarni, ular ishdan yoki o‘qishdan qaysi muddatga chetlatilganidan qat’i nazar, ishga yoki o‘qishga qayta tiklashga yo‘l qo‘yilmaydi.

27. Epilepsiya kasalligi aniqlangan nomzodlar barcha klasslar bo‘yicha yaroqsiz deb topiladi va ular ishga yoki o‘qishga qayta tiklanmaydi.

Epilepsiya mavjudligiga gumon qilingan nomzod ixtisoslashtirilgan tibbiy muassasaga chuqurlashtirilgan tekshiruvga yuboriladi.

Bunda nomzodni yuborishdan oldin tutqanoq holatining xususiyatlari bayon etilgan, guvohlar imzosi bilan tasdiqlangan hamda tibbiy xodim tomonidan rasmiylashtirilgan dalolatnoma tuziladi.

Tashxis kasallik tarixini o‘rganish, to‘liq nevrologik tekshiruv, elektroensefalografiya, (bundan buyon matnda EEG deb yuritiladi), kompyuter tomografiyasi, (bundan buyon matnda KT deb yuritiladi), magnit-rezonans tomografiya, (bundan buyon matnda MRT deb yuritiladi) shuningdek psixiatr va epileptolog xulosalari asosida qo‘yiladi.

EEGda epileptoid faollik aniqlanishi epilepsiya tashxisini tasdiqlovchi talablardan biri hisoblanadi, biroq uning aniqlanmaganligi mazkur tashxisni inkor etish uchun asos bo‘lmaydi.

Tekshiruv o‘tkazishda EEGdagi epileptiform ko‘rsatkichlar hech qachon epileptik tutqanoq kuzatilmagan nomzodlarda ham uchrashi mumkinligi inobatga olinishi, biroq mazkur holat asossiz tibbiy xulosa chiqarilishiga olib kelishi mumkin.

Simptomatik epilepsiya aniqlangan hollarda tibbiy xulosa asosiy kasallik bo‘yicha chiqariladi.

Tekshiruv o‘tkazishda bosh miya o‘smalari, tomir patologiyalari, ekzogen zaharlanishlar, gijja invaziyalari va boshqa ehtimoliy sabablar mavjud bo‘lmasligi lozim.

EEGda birinchi marta paroksizmal aktivlik aniqlangan nomzodlar ixtisoslashtirilgan tibbiy muassasaning nevrologiya bo‘limida tekshiruvdan o‘tkazilishi kerak.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

EEGda birinchi marta epileptoid faollik, jumladan “cho‘qqi – sust to‘lqin” turidagi o‘zgarishlar aniqlanganda, biroq epilepsiyaning boshqa klinik belgilari yoki markaziy asab tizimining organik kasalliklari mavjud bo‘lmagan hollarda ham nomzod ixtisoslashtirilgan tibbiy muassasaning nevrologiya bo‘limida tekshiruvdan o‘tkaziladi.

EEGdagi mazkur o‘zgarishlarning turg‘unligi 3 oydan 6 oygacha bo‘lgan muddat davomida takroriy chuqurlashtirilgan tekshiruvda tasdiqlangan taqdirda, yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

EEGda paroksizmal va epileptoid faollik, shuningdek klinik ahamiyatga ega kuchli ifodalangan o‘zgarishlar aniqlangan hollarda, barcha nomzodlar yaroqsiz deb topiladi.

Ongning paroksizmal buzilishlari kuzatilgan nomzodlarning tibbiy hujjatlari nazorat uchun tibbiy-uchish komissiyasining (bundan buyon matnda TUK deb yuritiladi) tibbiy ekspertlariga taqdim etiladi.

28. Turli etiologiyali bosh va orqa miya patologiyalari, shuningdek bosh va orqa miyaning birlamchi tomir kasalliklari, jumladan vaskulitlar, rivojlanish anomaliyalari, anevrizmalar, ateroskleroz va boshqa holatlar, shuningdek somatogen, vertebrogen hamda boshqa etiologiyali ikkilamchi tomir kasalliklari mavjud bo‘lgan nomzodlarda ish qobiliyatini yo‘qotishga olib kelishi mumkin bo‘lgan xavf omillari (birinchi xuruj, kriz, qaytalanish yoki insult rivojlanish ehtimoli) aniqlanishi lozim.

Bunda yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa kasallikning etiologiyasi va kechishi, nevrologik, ruhiy, funksional hamda boshqa buzilishlarning darajasi, yuklama sinovlarini bajarish natijalari, psixologik tekshiruv xulosalari, kasbiy funksional majburiyatlarni xavfsiz bajarishga ta’sir etuvchi boshqa omillar, shuningdek yondosh kardiologik kasalliklar, jumladan gipertenziya, yurak ritmi buzilishlari, diabet, giperlipidemiya, chekish va kasallik prognozini yomonlashtiruvchi boshqa xavf omillari inobatga olingan holda chiqariladi.

29. Gemorragik yoki ishemik genezli miya qon aylanishining o‘tkir buzilishi, tranzitor ishemik ataka, subaraxnoidal qon quyilishi yoxud tomir krizini o‘tkazgan, shuningdek miya qon aylanishining surunkali buzilishi aniqlangan nomzodlar HHB ishiga va o‘qishga yaroqsiz deb topiladi.

Bosh yoki orqa miya tomirlarining aterosklerotik zararlanishi mavjud bo‘lganda, klinik belgilari yengil darajada ifodalanganda, markaziy nerv tizimining nevrologik hamda ruhiy funksiyalari saqlanganligi klinik va instrumental tekshiruvlar bilan tasdiqlangan hollarda, HHB ishiga va o‘qishga yaroqlilik masalasi hal etiladi.

30. Bosh miya tomirlari kasalliklari mavjud bo‘lgan aviatsiya xodimlariga tibbiy xulosalar quyidagicha chiqariladi:

shikoyatlar mavjud bo‘lmaganda, BMA DSda arteriya intimasi qalinligining 1 mm dan ortishi va UTDGda qon oqimining chiziqli tezligida chegaraviy assimetriyalar aniqlanganda, shuningdek qonda giperlipidemiya, ko‘z tubida boshlang‘ich sklerotik o‘zgarishlar, ayrim nevrologik mikrosimptomlar, jumladan ko‘z qorachiqlarining yorug‘likka sust reaksiyasi, kaft-engak refleksining sustligi, psixologik jihatdan yengil kognitiv o‘zgarishlar hamda EEGda klinik jihatdan kam ahamiyatli o‘zgarishlar mavjud bo‘lgan hollarda, “Boshlang‘ich belgilari mavjud bo‘lgan, asab-ruhiy funksiyalari yetarli darajada saqlangan bosh miya tomirlarining aterosklerozi” tashxisi qo‘yiladi va ular yaroqli deb topiladi (mazkur shaxslarga ateroskleroz rivojlanishining oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar belgilanadi);

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

BMA DSda bitta arteriyaning klinik jihatdan yashirin kechuvchi 50 foiz va undan ortiq stenozi yoki bir yoxud bir necha tomirlarda turg‘un bo‘lmagan embologen aterosklerotik blyashka aniqlangan hollarda, nomzod ixtisoslashtirilgan qo‘shimcha tibbiy tekshiruvdan o‘tkaziladi hamda tegishli mutaxassislarning maslahati olinadi, mazkur ma’lumotlar tasdiqlangan taqdirda, “Bosh miyada qon aylanishining o‘tkir buzilishi xavfi yuqori bo‘lgan bosh miya tomirlarining aterosklerozi” tashxisi qo‘yiladi va nomzodlar yaroqsiz deb topiladi;

aterosklerotik o‘zgarishlar mazkur bandning birinchi va ikkinchi xatboshilarida keltirilgan holatda bo‘lganda, BMAning gemodinamik jihatdan kam ahamiyatga ega stenozlari, turg‘un aterosklerotik blyashkalar, shuningdek klinik xavf tug‘dirmaydigan psixologik, biokimyoviy va EEG ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlar aniqlanganda, “Asab-ruhiy funksiyalari yetarli darajada saqlangan bosh miya tomirlarining aterosklerozi” tashxisi qo‘yiladi.

Tibbiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lganda, transkranial dupleks skanerlash va MRT-angiografiya tekshiruvlari o‘tkaziladi.

Mazkur holatda arterial gipertoniya, chekish, giperlipidemiya, ortiqcha tana vazni va boshqa xavf omillari mavjudligi, nevrologik hamda ruhiy funksiyalarning saqlanganlik darajasi, shuningdek nomzodning yoshi inobatga olingan holda tibbiy xulosa individual tartibda chiqariladi.

Yaroqli deb topilgan nomzodlarga nevrologning dispanser kuzatuvi har 6 oyda bir marta belgilanadi hamda tibbiy ko‘rsatmalarga ko‘ra nazorat tekshiruvlari o‘tkaziladi.

Bosh miya qon aylanishining tranzitor ishemik atakasini o‘tkazganda turli genezli behushlik holatlari bilan differensial diagnostika o‘tkazilishi lozim.

Miya qon aylanishining o‘tkir buzilishini o‘tkazgan yoki miya qon aylanishining surunkali yetishmovchiligi bo‘lgan nomzodlarda tibbiy tekshiruvlar va tibbiy baholash natijasida, o‘z guvohnomalari va malaka belgilari orqali beriladigan vazifalarini xavfsiz bajarishga monelik aniqlanmaganda, ularga individual tartibda yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqarilishi mumkin.

Turli genezli vaskulitlarni o‘tkazgan nomzodlarga, davolanish yakunlangandan so‘ng, kasallik turi, darajasi, remissiyasi, kasbiga doir bajaradigan ishini hisobga olib tibbiy xulosa chiqariladi.

31. MRT natijalarida tomir genezli glioz o‘choqlari yoki 2-3 mm gacha bo‘lgan mayda kistoz o‘zgarishlar aniqlanganda, tegishli mutaxassislar (kardiolog, endokrinolog, terapevt yoki neyrojarroh) maslahati o‘tkaziladi.

Mazkur holat kasbiy majburiyatlarni xavfsiz bajarishga monelik qiluvchi klinik, organik yoki funksional belgilar bilan kechmasa, nomzod ishga yoki o‘qishga yaroqli deb topiladi.

32. Kuchli zaharlanishlar, jumladan alkogolli ensefalopatiya yoki qo‘rg‘oshin bilan zaharlanish holatlarida, nomzodlar yaroqsiz deb topiladi.

Miya faoliyati buzilishiga olib keluvchi, miya to‘qimasining tuzilmaviy buzilishlari qaytmas xususiyatga ega bo‘lgan nerv tizimining organik kasalliklarida aviatsiya xodimlar mutlaqo yaroqsiz deb topiladi.

Aviatsiya xodimlarda nerv tizimining organik shikastlanishi birinchi marta aniqlanganda, ular nevrologiya bo‘limida chuqurlashtirilgan tekshiruvdan o‘tkaziladi hamda KT va MRT tekshiruvlari amalga oshiriladi.

Nerv tizimining yuqumli kasalliklari va zaharlanishlarini o‘tkazgan nomzodlarga to‘liq sog‘ayish kuzatilganidan keyin asab-ruhiy funksiyalari to‘liq tiklanganda yoki funksional buzilishlar bilan kechmaydigan organik mikrosimptomlar ko‘rinishidagi yengil qoldiq belgilar

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

mavjud bo‘lganda hamda miya zararlanishi belgilari aniqlanmaganda, yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Kasbiy muhim funksiyalari yetarli saqlanganda, nerv-mushak apparati va nerv tizimining sust progrediyent kechuvchi boshlang‘ich irsiy-degenerativ kasalliklari mavjud bo‘lgan nomzodlarga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Grippli ensefalitdan keyin 1-2 yil o‘tgach, o‘tkir ensefalomielitdan keyin 2 yil o‘tgach, o‘tkir kana ensefalitidan keyin esa 3 yil o‘tgach, nomzod uchish ishiga tiklanish yuzasidan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilishi mumkin.

Epidemik serebrospinal meningitdan keyin 1 yil o‘tgach, dispetcherlik ishiga yoki o‘qishga yaroqlilikni aniqlash uchun tibbiy ko‘rik o‘tkaziladi.

Meningokokkli rinit, faringit hamda kam ifodalangan meningokokk infeksiyasini o‘tkazgan nomzodlar terapevt ko‘rigidan o‘tkaziladi.

33. Bosh miya jarohatini o‘tkazgan nomzodlar to‘liq davolanish yakunlangach va nevrologik nuqsonlar aniqlanmagan hollarda, chuqurlashtirilgan klinik tekshiruv natijalariga ko‘ra tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilishi mumkin.

Jarohatning mexanizmi va yuz berish sharoitlarini baholashda, kontaktsiz bosh miya jarohati, jumladan miya siljishi va qon tomirlar yorilishi, shuningdek jarohat oqibatida atlant-oksipital birikma tuzilmalarining shikastlanishi ehtimoli inobatga olinishi lozim.

Jarohatning turi va og‘irlik darajasidan tashqari, keyingi bosqichlarda posttravmatik epilepsiya rivojlanish xavfi hamda boshqa ahamiyatli xavf omillari ham inobatga olinadi.

Tibbiy xulosa anamnestik ma’lumotlar, EEGdagi o‘zgarishlar dinamikasi, yo‘qotilgan funksiyalarning kompensatsiya darajasi, qo‘shimcha yuklama sinovlari natijalari va psixologik tekshiruv xulosalari asosida chiqariladi.

Asab-ruhiy funksiyalari to‘liq tiklanganda yoki yetarli darajada saqlangan nomzodlarga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Asab-ruhiy funksiyalarining turg‘un kompensatsiya holati mavjud bo‘lganda, jumladan posttravmatik holatlardan keyingi yengil vegetativ disfunksiya, yengil nevrologik simptomatika va boshqa shunga o‘xshash buzilishlari bo‘lgan nomzodlarga nisbatan, kasbiy faoliyatiga tiklanganidan keyin 5 yilgacha bo‘lgan davrda nevrologning dispanser kuzatuvi o‘tkaziladi.

Tekshiruv o‘tkazishda bosh suyagi gumbazining ichga botgan sinishi, bosh miya lat yeyishi, parenximatoz gematoma, 1 kundan ortiq davom etgan posttravmatik amneziya, bosh miya parenximasida qon mavjudligi va subdural gematomalarda posttravmatik epilepsiya rivojlanishi xavfi hisobga olinishi lozim.

Oddiy asoratsiz, bosh miya parenximasiga qon quyilishi bilan kechmagan epidural gematomada 1-2 yildan keyin intraparenximatoz gematomada esa 2 yildan keyin tibbiy ko‘rik o‘tkazilishi mumkin.

Bosh suyagi gumbazining chiziqli sinishi, bosh suyagi tubining likvoreyasiz sinishi yoxud subaraxnoidal qon quyilishi bilan kechgan bosh miyaning o‘rta va og‘ir darajadagi lat yeyishidan keyin 1-2 yil o‘tgach, tibbiy kuzatuv va tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lganda hamda prognoz maqbul deb baholangan taqdirda, nomzod kasbiy faoliyatiga qayta tiklanish masalasini hal etish uchun tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilishi mumkin.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Parenximaga qon quyilmagan va oddiy asoratlarsiz kechgan epidural gematomadan keyin 1-2 yil o‘tgach, subdural gematoma bilan kechgan bosh miya lat yeyishidan keyin 2 yil o‘tgach, bosh miya chayqalishidan keyin 1,5–3 oy o‘tgach, bosh miyaning yengil darajada lat yeyishidan keyin 3–6 oy o‘tgach, qo‘shaloq bosh miya shikastlanishlaridan keyin 6–24 oy o‘tgach, shuningdek postkommottsion sindromdan keyin kamida 3 oy o‘tgach, nevrologik va kognitiv funksiyalar saqlanganda hamda yuklama sinovlariga chidamlilik ijobiy baholangan taqdirda, nomzod psixolog, psixiatr va oftalmolog ko‘rigidan o‘tkaziladi.

Tashxisni rasmiylashtirishda bosh miya jarohatining klinik ko‘rinishi, yuz bergan sanasi, tekshiruv o‘tkazilayotgan paytdagi davri, posttravmatik sindromning klinik tavsifi hamda asab-ruhiy funksiyalar holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

34. Vegetativ asab tizimining surunkali kasalliklari paroksizmal ko‘rinishda kechgan, tez-tez takrorlanuvchi zo‘rayishlar va kriz reaksiyalar, jumladan vazovagal, simpatik, vagoinsulyar, simpatoadrenal, aralash xususiyatdagi, adrenal hamda diensefal turlari bilan namoyon bo‘luvchi vegetativ-tomir buzilishlari mavjud bo‘lgan nomzodlarga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

35. Migren, solyarit, Mener sindromi, umurtqa arteriyasi sindromi, diensefal sindrom, angionevrozlar, jumladan angiotrofonevrozlar va Reyno kasalligi, qaytalanuvchi angionevrotik shish, shuningdek ortostatik essensial gipotoniya holatlarida aniqlashtiruvchi ma’lumotlar olish maqsadida, umurtqa pog‘onasining KT tekshiruvi, orqa miya va uning ildizlari holatini baholash uchun esa umurtqa pog‘onasining MRT tekshiruvi o‘tkaziladi.

Rotatsion sinamalarni o‘tkazish vaqtida paydo bo‘ladigan yoki kuchayadigan vertebro-bazilyar basseyndagi qon oqimi pasayishini aniqlash maqsadida bosh miya tomirlarining dupleks skanerlashi va ultratovush dopplerografiyasi (bundan buyon matnda UTDG deb yuritiladi) o‘tkaziladi.

Serebral to‘qimalardagi morfologik o‘zgarishlarning xususiyatini aniqlash uchun bosh miya MRT tekshiruvi o‘tkaziladi.

Viziometriya, perimetriya, oftalmoskopiya, audiometriya, kalorik sinama hamda boshqa tekshiruvlar tibbiy ko‘rsatmalar mavjudligida o‘tkaziladi.

36. Konstitutsional-irsiy genezli vegetativ-tomir disfunksiyasi mavjud bo‘lgan nomzodlar, shuningdek gormonal o‘zgarishlar fonida yoki somatik kasallikdan keyin kuzatiluvchi vegetativ-tomir buzilishlarida, tekshiruv vaqtida remissiya bosqichi turg‘un bo‘lgan hollarda (asosiy kasallikdan to‘liq sog‘aygandan keyin kamida 2-3 oy o‘tgach) tibbiy xulosa quyidagi talablar asosida chiqariladi:

vegetativ-tomir buzilishlarining og‘irlik darajasi;

klinik tekshiruv natijalari;

ortosinama, vestibulyar sinama va boshqa yuklama sinovlariga chidamlilik darajasi;

psixofiziologik va nevrologik funksiyalarning barqarorligi;

kasbiy faoliyatni bajarishga ta’sir etuvchi xavf omillarining mavjudligi yoki yo‘qligi.

Vegetativ-tomir tizimi buzilishlarining klinik tavsifida funksional kardiovaskulyar simptomlar bo‘lgan hollarda, yakuniy tibbiy xulosa klinik tekshiruvlar natijalari asosida terapevt tomonidan chiqariladi.

37. Umurtqalararo disk churrasi olib tashlanganidan keyin asoratlar kuzatilmaganda, kasallik dinamikasi ijobiy bo‘lganda va reabilitatsiya davri yakunlangan taqdirda, 3–6 oy o‘tgach nomzod tibbiy ko‘rikdan o‘tkaziladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Umurtqa pog‘onasining orqa miya ildizchalari, nerv stvollari, nerv chigallari va gangliylarining surunkali kasalliklari hamda jarohatlarida, shuningdek periferik neyrovaskulyar sindromlar va ildizcha kompressiyalari bilan kechuvchi holatlarda, ular bo‘yicha o‘tkazilgan jarrohlik amaliyotlaridan keyin kasbiy majburiyatlarni bajarishga monelik qilmaydigan, klinik jihatdan ahamiyatsiz buzilishlar mavjud bo‘lgan taqdirda, nomzodlar o‘qishga yaroqsiz, biroq aviatsiya xodimlari ishiga yaroqli deb topiladi.

Surunkali radikulitda tibbiy xulosa mehnat qobiliyatini yo‘qotishga olib kelishi mumkin bo‘lgan muhim omillar, jumladan to‘satdan va oldindan aniqlab bo‘lmaydigan o‘tkir og‘riq xurujlari, kasallikning qaytalanish xavfi, funksional tiklanish darajasi, shuningdek uzoq muddat analgetiklar va mushak relaksantlarini qabul qilish oqibatlari inobatga olingan holda chiqariladi.

Asab ildizchalari funksiyalarining buzilishi belgilari mavjud bo‘lmaganda, umurtqa pog‘onasining harakatchanligi buzilgan hollarda, umurtqa pog‘onasi kasalliklari bo‘yicha nomzodga tibbiy xulosa jarroh tomonidan chiqariladi.

38. Sinkopal holatlarni o‘tkazgan nomzodlar o‘qishdan hamda ishdan chetlatiladi va terapevt-ekspert hamda nevrolog-ekspert tibbiy ko‘rigidan o‘tkazilgandan so‘ng nevrologiya bo‘limida chuqurlashtirilgan tekshiruvga yuboriladi.

Sinkopal holat to‘g‘risidagi dalolatnoma mazkur nomzod yonida bo‘lgan birinchi shifokor tomonidan rasmiylashtiriladi va tekshirish uchun taqdim etiladi.

Dalolatnomada behushlik holatining klinik ko‘rinishi, belgilari va yuzaga kelgan vaziyatlar to‘liq hamda batafsil bayon etiladi, shuningdek guvohlar, nomzodning o‘zi va shifokorning imzolari qo‘yiladi.

Dalolatnomani rasmiylashtirish, sinkopal holatlarni klassifikatsiyalash, differensial diagnostika o‘tkazish, zarur tekshiruvlar hajmini belgilash hamda yaroqlilikni aniqlash amalga oshiriladi.

Tibbiy xulosa chiqarishda asab tizimi yoki ichki organlarning organik kasalliklarini davolash, ongning paroksizmal buzilishlari bilan differensial diagnostika o‘tkazish, behushlikning sababi va xususiyatini aniqlash, organizmning funksional rezervlarini baholash hamda ong buzilishining takrorlanish ehtimolini belgilash inobatga olinadi.

Sinkopal holatni yuzaga keltirgan sabab aniqlangan taqdirda, behushlikning takrorlanish ehtimoli hisobga olingan holda tibbiy xulosa asosiy kasallik bo‘yicha chiqariladi.

Sog‘lom nomzodda hayajon, og‘riq yoki kuchli gipoksiya ta’sirchanligi bilan bog‘liq bir martalik sinkopal holat kuzatilganda, mazkur holatning yashirin klinik ahamiyatga ega sabablari mavjud bo‘lganda hamda uning kelib chiqishi xavfsiz deb topilgan taqdirda, nomzodga ishiga yoki o‘qishga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

39. Sog‘lom aviatsiya xodimida muayyan vaziyatda yuzaga kelgan, xavfsiz xususiyatga ega deb baholangan behushlik holati 2 marta takrorlangan taqdirda, u 3 oydan 12 oygacha bo‘lgan muddatga davolanish yoki dam olish maqsadida ishdan chetlatiladi hamda nevrologning dispanser kuzatuvida bo‘ladi.

Mazkur davrda ish faoliyatini bajarishga faqat ma’lum muddatga cheklangan tarzda, ikkinchi dispetcher tarkibida yoki faoliyati parvozlar xavfsizligiga bevosita bog‘liq bo‘lmagan hollarda ruxsat etiladi.

Behushlik holatlari ko‘p marotaba (3 va undan ortiq) takrorlangan taqdirda, aviatsiya xodimalari ishga yaroqsiz deb topiladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Bunda ish faoliyatini bajarishga faqat muayyan muddat davomida cheklangan tartibda, ikkinchi dispetcher tarkibida yoki faoliyati parvozlar xavfsizligiga bevosita bog‘liq bo‘lmagan sharoitlarda ruxsat etiladi.

2 yil o‘tgach, vegetativ-tomir labilligi, arterial gipotenziya va yuklama sinamalariga chidamsizlik aniqlanmagan hollarda, ishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishi mumkin.

Etiologiyasi aniqlanmagan behushlik holatlarida nomzodga HHB ishiga yoki o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

3-bob. Ichki kasalliklar

40. Aviatsiya xodimlari infeksiya va parazitar kasalliklardan davolanib sog‘ayganidan keyin infeksionistning ijobiy prognozi hamda chuqurlashtirilgan tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lgan taqdirda, ularga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Virusli gepatit va gemorragik bezgakni boshdan kechirgan HHB dispetcherlariga kasallik varaqasi yopilgandan keyin ishga yoki o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

41. Klinik prognozi salbiy bo‘lganda qon va qon yaratuvchi a’zolar kasalliklari aniqlangan nomzodlar o‘qishga yoki kasbiy faoliyatga yaroqsiz deb topiladi.

Mazkur kasalliklar mavjud bo‘lgan hollarda, shu jumladan gemoglobin konsentratsiyasi 105 g/l dan past bo‘lganda, ixtisoslashtirilgan tibbiy muassasada o‘tkazilgan chuqurlashtirilgan tekshiruv natijalari va davolash yakunlari ijobiy bo‘lsa, gematolog xulosasi hamda prognozi, kasallikning aniqlangan sababi, laborator-klinik tekshiruv ko‘rsatkichlarining normallashgani, kasallikning remissiya holati hamda turi, jumladan postgemorragik, temir tanqisligi anemiyasi va boshqa turlari inobatga olingan holda, ishga yoki o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Mazkur kasalliklarda ishga yoki o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risidagi tibbiy xulosa chiqarishda, organizmning yerda, tinch holatda, shuningdek jismoniy va ruhiy zo‘riqish davrlarida metabolik ehtiyojlarini qondirish uchun qonning kislorodni yetarli darajada tashish va yetkazib berish xususiyati inobatga olinadi.

42. Sog‘lom aviatsiya xodimlarida qondagi gemoglobin konsentratsiyasining normativ darajasi erkaklarda 130 g/l, ayollarda esa 120 g/lni tashkil etadi.

Mazkur ko‘rsatkichlar normadan past bo‘lgan hollarda, zaruratga ko‘ra qo‘shimcha tekshiruvlar o‘tkazish va davolanish uchun aviatsiya xodimi ishdan chetlatiladi.

Gemoglobinopatiyalar mavjud bo‘lgan hollarda, kasallik xurujsiz kechsa va aviatsiya xodimining funksional qobiliyatlari to‘liq hajmda saqlangan bo‘lsa, yaroqlilik to‘g‘risida ijobiy tibbiy xulosa chiqarilishi mumkin.

Vaqtinchalik xususiyatga ega trombotsitopeniyalarda (temir tanqisligi bilan bog‘liq anemiya yoki dori vositalarini qabul qilish oqibatida suyak iligi faoliyati pasaygan hollarda), trombotsitlar miqdori hamda boshqa laborator ko‘rsatkichlar me’yoriy darajaga tiklangandan keyin yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishi mumkin.

Trombotsitlar miqdori 75×10^9/l dan past bo‘lgan trombotsitopeniyada nomzodga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Splenektomiya o‘tkazilgan idiopatik trombotsitopenik purpura holatlarida, trombotsitlar miqdori 6 oy davomida normada saqlangan taqdirda, yaroqlilik masalasi ko‘rib chiqilishi mumkin.

Aviatsiya xodimi yaroqli deb topilgan hollarda, undagi trombotsitlar miqdori har 6 oyda nazorat qilinadi.

43. Antikoagulyantlar (kumarin, varfarin va shunga o‘xshash preparatlar), shuningdek antitrombotsitar dori vositalari (klopidogrel va shunga o‘xshash preparatlar) faqat terapevt tavsiyasiga ko‘ra qo‘llaniladi.

Kompensatsiyalangan, organlar funksiyasi saqlangan gemoglobinopatiyalar va gemorragik diatezlarda, residivlar kuzatilmagan taqdirda, nomzod ishga yaroqli deb topiladi.

O‘roqsimon hujayrali kasallik aniqlangan hollarda, nomzodlar kasbiy faoliyatga yaroqsiz deb hisoblanadi.

O‘roqsimon hujayra belgisini tashuvchilik holatida esa, yaroqlilik masalasi ijobiy hal etilishi mumkin.

Haqiqiy politsitemiyada asoratlar rivojlanish xavfi mavjudligi sababli, nomzodlar yaroqsiz deb topiladi.

Ikkilamchi politsitemiyada eritrotsitlar miqdorining oshish sababi, jumladan nafas olish organlari kasalliklari, balandlik sharoitidagi gipoksiya va boshqa omillar aniqlangandan keyin nomzodga tibbiy xulosa chiqariladi.

44. Allergologik anamnez, fizik tekshiruv, klinik-laborator ma’lumotlar hamda allergologik sinamalar natijalari asosida, allergolog xulosasi inobatga olingan holda allergik kasallik tashxisi aniqlanadi.

Tashxis qo‘yishda allergiyaga o‘xshash simptomlarni yuzaga keltiruvchi boshqa kasalliklar turli tekshiruv usullarini qo‘llash orqali istisno qilinadi.

Allergiyaning og‘ir shakllari mavjud bo‘lganda, kasallik yil davomida 2 martadan ortiq qaytalangan yoki allergen aniqlanmagan hollarda, yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

45. Turg‘un terapevtik ta’sir kuzatilgan allergiyalarda, allergen aniqlangan va bartaraf etilgan, 3 oy davomida allergiya belgilari takrorlanmaganda hamda ish joyida allergen bilan aloqa mavjud bo‘lmagan taqdirda, HHB ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

46. Semizlik darajasi Ketle indeksiga muvofiq aniqlanadi.

Tana vazni indeksi tana vazni (kg)/ bo‘y o‘lchami (m^2) formulasi bo‘yicha hisoblanadi:

Tana vazni indeksining baholash

Tana vazni darajalari	**TVI**	**Yondosh kasalliklar xavfi**
Tana vazni defitsiti	<18,5	Past (boshqa kasalliklar xavfi yuqori)
Normal tana vazni	18,5-24,9	Odatdagi (minimal)
Ortiqcha tana vazni	25,0-29,9	O‘rtacha yuqori
Semizlikning I darajasi	30,0-34,9	Yuqori
Semizlikning II darajasi	35,0-39,9	Juda yuqori
Semizlikning III darajasi	≥40	Haddan ziyod yuqori

47. Ortiqcha tana vazni mavjud bo‘lgan shaxslarda semizlikning xususiyatini aniqlash maqsadida klinik tekshiruvlar o‘tkaziladi.

Simptomatik, ikkilamchi endokrin yoki serebral genezli semizlik aniqlangan hollarda, tibbiy xulosa asosiy kasallik bo‘yicha chiqariladi.

Tana vaznini baholashda mushak va yog‘ to‘qimalarining o‘zaro nisbati hamda organizmdagi yog‘ to‘qimasining foizdagi hajmi aniqlanadi.

Fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlarida uchuvchilikka o‘qishga nomzodlar uchun TVI 30,0 dan yuqori bo‘lganda, nomzodga o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

TVI 35,0 dan yuqori bo‘lgan hollarda, endokrinolog va zaruratga ko‘ra boshqa tegishli mutaxassislar maslahati olinadi hamda arterial gipertenziya, qandli diabet, glyukozaga tolerantlikning buzilishi, yosh, dislipidemiya, zararli odatlar va boshqa kardiovaskulyar xavf omillari mavjudligi, metabolik sindrom rivojlanish xavfi, psixologik va kardiovaskulyar rezerv ko‘rsatkichlari, shuningdek boshqa tekshiruvlar natijalari inobatga olingan holda tibbiy xulosa individual tartibda chiqariladi.

48. Qandli diabetning I turi, shuningdek insulin yoki boshqa gipoglikemik dori vositalarini doimiy ravishda qo‘llashni talab qiluvchi diabet shakllari hamda tireotoksikozning barcha shakllari mavjud bo‘lgan hollarda, yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Qandli diabetning II turida, uglevod almashinuvi to‘liq kompensatsiyalangan, EKGning yuklama sinamalariga chidamlilik ijobiy baholanganda, koronar arteriyalar MSKT yoki boshqa invaziv bo‘lmagan usullar bilan tekshirilgan va natijalari, shuningdek diabetolog yoki endokrinolog xulosasi ijobiy bo‘lgan taqdirda, diabet bilan bog‘liq xavf omillari, jumladan 60 yoshdan katta yosh, buyrak funksiyasining buzilishi, noto‘g‘ri ovqatlanish, ko‘p komponentli dori terapiyasiga ehtiyoj va boshqa omillar inobatga olingan holda, ishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Qandli diabetning II turida, agar monoterapiya sifatida alfa-glukozidaza ingibitori, jumladan Glyukobay yoki tiazolidindion yoxud metformin qabul qilish talab etilsa va parhezga rioya qilinsa, ikkinchi HHB dispetcheri mavjud bo‘lgan taqdirda, ishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

49. Insulin yoki boshqa gipoglikemik dori vositalarini qabul qilishni talab qilmaydigan qandli diabetning II turida, kardiorespirator tizim va boshqa organlar funksiyalari saqlanganda, parhezga rioya etilgan hamda ikkinchi HHB dispetcheri mavjud bo‘lgan taqdirda, ishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Bunda aviatsiya xodimlariga EKG, terapevt hamda diabetolog, endokrinolog, tomonidan nazorat ko‘riklari har 6 oyda belgilanadi.

Navbatdagi tibbiy ko‘rikda esa yuklama EKG sinamalari yoki invaziv bo‘lmagan usullar yordamida koronar arteriyalar tekshiruvi o‘tkaziladi.

50. Aviatsiya faoliyatida sulfonilmochevina hosilalari, biguanidlar, metformindan tashqari, shuningdek turli gipoglikemik preparatlarni birgalikda qo‘llash maqbul deb topilmaydi.

Tireotoksikozda aviatsiya xodimining ishga qayta tiklanish muddati kasallikning sababi, shakli, klinik ko‘rinishlari, og‘irlik darajasi, davolash turi, kasallik oqibatlari hamda biokimyoviy ko‘rsatkichlar natijalari inobatga olingan holda belgilanadi.

Diffuz-toksik buqoqda konservativ terapiyaning 2 yilgacha davom etishi mumkinligi hisobga olinib, dori vositalarini qabul qilish bekor qilingan sharoitda kamida 3 oy davomida turg‘un eutireoid holat saqlanganda, ishga qayta tiklanish masalasi ko‘rib chiqiladi.

51. Og‘irligi yengil va o‘rta darajadagi toksik buqoqda jarrohlik usuli yoki radioaktiv yod bilan davolashdan keyin 6 oy o‘tgach, og‘ir darajadagi toksik buqoqda esa qalqonsimon bez funksiyasi turg‘un me’yoriy holatga kelganda, boshqa organlar va tizimlarda asoratlar aniqlanmagan taqdirda, 12 oy o‘tgach, endokrinologning ijobiy prognozi hamda xulosasi asosida nomzodning ishga yoki o‘qishga qayta tiklanish masalasi ko‘rib chiqiladi.

Tireotoksik adenoma bo‘yicha o‘tkazilgan jarrohlik amaliyotidan keyin 6 oy o‘tgach, aviatsiya xodimining ishga qayta tiklanish masalasi ko‘rib chiqilishi mumkin.

52. Gipotireoz va autoimmun tireoiditni boshdan kechirgan nomzodlarda, qalqonsimon bez funksiyasi normada bo‘lganda, kasallik sababi aniqlanganda hamda tekshiruv natijalari

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

va endokrinolog xulosasi ijobiy bo‘lganda, individual tartibda 3 oy o‘tgach ishga yoki o‘qishga qayta tiklanish masalasi ko‘rib chiqilishi mumkin.

Nomzodga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilganda, endokrinologning dispanser kuzatuvi belgilanadi hamda doimiy ravishda qabul qilinadigan antitireoid preparatlar nazoratga olinadi.

Tireoidit kasalligi zo‘rayganidan keyin davolash natijalari ijobiy bo‘lganda, ishga yoki o‘qishga ruxsat beriladi.

53. Eutireoid holati saqlangan endemik buqoqda, shuningdek yod preparatlari yoki tireoid gormonlar bilan profilaktik terapiya o‘tkazilayotgan hollarda, qalqonsimon bezning I va II darajali diffuz eutireoid kattalashuvi hamda uglevodlarga tolerantlikning buzilishi mavjud bo‘lgan nomzodlar ishga yoki o‘qishga yaroqli deb topiladi.

Tireotoksikoz yoki gipotireozning subklinik shakllarida, T3 va T4 ko‘rsatkichlari me’yorida bo‘lib, TTG mos ravishda pasaygan yoki oshgan taqdirda, aviatsiya xodimlari endokrinologning dispanser kuzatuviga olinadi hamda har 3 oyda bir marta TTG va tireoid gormonlar bo‘yicha nazorat tekshiruvi o‘tkaziladi.

54. Sil kasalligining faol shakli aniqlangan nomzodlarda HHB ishiga yoki o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

O‘pka sili bilan kasallangan nomzodlarda tegishli davolash kursi to‘liq yakunlangandan keyin kamida 3 oy o‘tgach, klinik simptomlar aniqlanmaganda, o‘pkaning zararlangan qismida faol jarayon mavjud bo‘lmaganda, nafas olish tizimi funksiyasi saqlanganda hamda rentgenologik tekshiruv natijalari ijobiy bo‘lganda, ishga yoki o‘qishga qayta tiklanish masalasi ko‘rib chiqiladi.

Nomzodga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilgan hollarda, 2 yil davomida terapevtning dispanser kuzatuvi belgilanadi, ftiziatr maslahati olinadi hamda ko‘krak qafasining rentgenologik yoki boshqa nazorat tekshiruvlari o‘tkaziladi.

55. Aktiv bo‘lmagan yoki davolangan sil kasalligi, shuningdek kasallikdan keyingi qoldiq belgilar, jumladan cheklangan fibroz, kalsifikatsiya o‘choqlari, bo‘laklararo va plevral bitishmalar mavjud bo‘lganda, ko‘ks oralig‘i organlari siljimagan hamda tashqi nafas funksiyasi buzilmagan nomzodlarga HHB ishiga yoki o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Sil kasalligini boshdan kechirgan nomzodlar dispanser kuzatuv guruhi ko‘rsatilgan, to‘liq sog‘ayganligi haqidagi ftiziatr xulosasini TUKga taqdim etishi shart.

Tashqi nafas funksiyasini baholash maqsadida ularda kardiorespirator tizimning funksional zaxiralari, shuningdek restriktiv yoki obstruktiv buzilishlar mavjudligini aniqlashga qaratilgan tekshiruvlar o‘tkaziladi.

Nafas olish va yurak-qon tomir tizimlari funksiyalari kasbiy faoliyatni bajarish uchun yetarli darajada saqlanganda, sil kasalligini davolashda qo‘llanilgan kimyoprofilaktik dori vositalarining salbiy oqibatlari aniqlanmaganda, nomzodga ishga yoki o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Sil kasalligining o‘pkadan tashqari shakllarida, ftiziatr xulosasi va ijobiy prognozi, shuningdek organlar funksiyasining saqlanganlik darajasi asosida ishga yoki o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Mazkur nomzodlarga 2 yil davomida terapevtning dispanser kuzatuvi belgilanadi.

56. Mehnat qobiliyatining yo‘qolishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan O‘SOK bronxial astma, bronxoektatik kasallik, sarkoidoz, diffuz pnevmoskleroz, o‘pka emfizemasi, turli etiologiyali zotiljam, surunkali bronxit hamda boshqa o‘pka kasalliklarining tez-tez zo‘rayishi, kasalliklarning faol davri yoki nafas olish organlari funksiyalarining yaqqol buzilishlari

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

aniqlangan hollarda, nomzodlarning ishga yoki o‘qishga yaroqsizligi to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

57. Nafas olish tizimi funksiyasi to‘liq saqlanganda, kardiorespirator funksiyalar yetarli darajada saqlanganda, restriktiv va obstruktiv buzilishlar aniqlanmaganda yoki ularning darajasi hisobga olinib qoniqarli deb baholanganda, laborator tekshiruvlar natijalari ijobiy, ko‘krak qafasi rentgenogrammasi normada bo‘lganda, klinik simptomlari mavjud bo‘lmaganda yoki kam ifodalanganda, chekmaydigan normalarda, O‘SOKning boshlang‘ich davrida, surunkali bronxitning remissiya bosqichida, chegaralangan pnevmosklerozda, shuningdek ko‘krak qafasi a’zolarida o‘tkazilgan jarrohlik amaliyotlaridan keyin uzoq davom etuvchi va murakkab parvozlar jarayonida kasbiy majburiyatlarni bajarish qobiliyati inobatga olingan holda, ishga yoki o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

58. Ko‘krak qafasi a’zolarida o‘tkazilgan jarrohlik amaliyotlaridan keyin 4–6 oy o‘tgach, spontan pnevmotoraksdan keyin esa 3 oy o‘tgach, chuqurlashtirilgan tekshiruvlar natijalari asosida ishga yaroqlilik masalasi individual tartibda ko‘rib chiqilishi mumkin.

Surunkali bronxitning zo‘rayish davrida aviatsiya xodimlari kasbiy vazifalarini bajarishdan chetlatiladi.

Faol yallig‘lanish jarayoni bartaraf etilib, to‘liq davolanish va sog‘ayishdan keyin tashqi nafas funksiyasi tekshiruvlari natijalari normada bo‘lganda, nomzodga ishga ruxsat beriladi.

Yiringli va obstruktiv bronxitda, shuningdek takroriy pnevmotoraksda HHB dispetcherlariga nisbatan, nafas olish hamda yurak-qon tomir tizimlarining chuqurlashtirilgan tekshiruvlari natijalari ijobiy bo‘lgan taqdirda, individual tartibda ishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

59. Yurak ritmi va o‘tkazuvchanligining aniq ifodalanganda, asoratli buzilishlari, sinus tugunining zaiflik sindromi, yurak qisqarishlarining takroriy tushib qolishi bilan kechuvchi o‘tkazuvchanlik buzilishlari (ikki va undan ortiq qisqarishning tushib qolishi), mersal aritmiya xurujlari, yurak bo‘lmachalarining hilpillashi, supraventrikulyar taxikardiya, daqiqasiga 120 zarba va undan yuqori, to‘rtta va undan ortiq kompleks bilan, qorinchalar ekstrasistoliyasining bi- va trigeminiya davrlarining takrorlanishi, juftlashgan qorinchalar ekstrasistolalarining takroriy epizodlari, qorinchalar taxikardiyasi epizodlari, daqiqasiga 120 zarba va undan yuqori, uchta va undan ortiq kompleks bilan, spontan supraventrikulyar taxikardiya bilan kechuvchi Volf–Parkinson–Uayt sindromi, miokard infarkti, stenokardiya, yurak kasalliklarining sust kechuvchi o‘tkir davri va kasallik oqibatlari bilan bog‘liq aniq ifodalangan ritm va o‘tkazuvchanlik buzilishlari, yurak yetishmovchiligi va og‘riq sindromi, mo‘tadil va aniq ifodalangan kombinatsiyalangan yurak nuqsonlari, mitral klapan prolapsining 6 mm dan ortiq bo‘lishi, shuningdek dilyatatsion, gipertrofik va restriktiv kardiomiopatiyalar mavjud bo‘lgan hollarda, nomzodlarning ishga yoki o‘qishga yaroqsizligi to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

60. Yurak kasalliklarining klinik alomatlari mavjud bo‘lgan hollarda, kasallik anamnezi o‘rganilib, har tomonlama o‘tkazilgan klinik va kardiologik tekshiruvlarning ijobiy natijalari, kasallikning rivojlanish xususiyati va prognozi, yondosh kasalliklar, nomzodning yoshi, xavf omillari hamda boshqa ahamiyatli holatlar inobatga olingan holda tibbiy xulosa chiqariladi.

Revmatizmning faol fazasi boshdan kechirilganidan keyin faol revmatik jarayon va yurak nuqsonlari aniqlanmaganda, 1 yil o‘tgach ishga yoki o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

61. Miokardit o‘tkazilgandan keyin to‘liq sog‘ayish kuzatilgan yoki miokarditik kardioskleroz rivojlangan hollarda, 3–6 oy o‘tgach, infeksiya o‘chog‘i bartaraf etilganda, yurak ritmi va o‘tkazuvchanligi buzilishlarining kam ifodalangan o‘zgarishlari mavjud bo‘lganda, laboratoriya tekshiruvlari hamda EKGda yallig‘lanish belgilari aniqlanmaganda, aviatsiya xodimiga ishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

62. Miokardiodistrofiya aniqlangan hollarda, asosiy kasallik belgilangan, yurak funksiyasi saqlangan, klinik simptomlar kam ifodalangan hamda kasallikni og‘irlashtiruvchi zararli omillar mavjud bo‘lmaganda, aviatsiya xodimiga HHB ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi va 3 yil muddatga terapevtning dispanser kuzatuvi belgilanadi.

3 yil davomida EKG ko‘rsatkichlari normada bo‘lganda va yuklama sinamalari natijalari ijobiy baholanganda, nomzoddan tashxis olib tashlanadi.

63. Mitral klapan prolapsining 3 mm dan 6 mm gacha bo‘lgan holatlarida, klinik jihatdan ahamiyatga ega bo‘lmagan, izolyatsiyalangan va turg‘un kompensatsiyalangan yurak nuqsonlarida, oqim yo‘llarida obstruksiya belgilari kuzatilmaydigan qorinchalararo to‘siqning assimetrik gipertrofiyasida, shuningdek gipertrofik kardiomiopatiyaning apikal shaklida yurak funksiyasi yaxshi saqlanganda, ishga yoki o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Yurakning yallig‘lanish kasalliklarini boshdan kechirgan aviatsiya xodimlarga mehnatga layoqatsizlik varaqasi yopilgandan keyin terapevt tibbiy ko‘rigi o‘tkaziladi va uning natijalariga ko‘ra ishga ruxsat beriladi.

64. Kuchli ifodalangan supraventrikulyar ritm buzilishlarida elektrofiziologik tekshiruv o‘tkaziladi.

Mazkur tekshiruv davomida ritm buzilishlari sun’iy ravishda chaqirilganda, uning natijalari salbiy deb baholanadi.

Ritm buzilishlarining ifodalanish darajasini baholash uchun sutkalik EKG monitoringi o‘tkaziladi.

Yurak ritmi buzilishlari muvaffaqiyatli davolangan hollarda, nomzodlar qayta tibbiy ko‘rikdan o‘tkaziladi.

Yurak ritmi va o‘tkazuvchanligi buzilishlarida, EKGda qorincha kompleksining yakuniy qismi, ST va T segmentlaridagi beqaror o‘zgarishlar beta-blokatorlar yordamida me’yorlashgan hamda sog‘liq holati yuzasidan shikoyatlar mavjud bo‘lmagan taqdirda, aviatsiya xodimlari HHB ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

65. B. Lown va M. Wolf bo‘yicha M. Ryan modifikatsiyasiga ko‘ra, simptomlarsiz qorinchalar ekstrasistoliyasining 1 gradatsiyasida, EKG ma’lumotlariga ko‘ra bir daqiqada 5 tadan kam hamda sutkalik EKG monitoringida bir soatda 30 tadan kam ekstrasistoliya aniqlanganda, kardiologik tekshiruv o‘tkazilmaydi va yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilmaydi.

B. Lown va M. Wolf bo‘yicha M. Ryan modifikatsiyasiga ko‘ra, simptomlarsiz qorinchalar ekstrasistoliyasining 2, 3 va 4a-gradatsiyalarida nomzodlar kardiologik tekshiruvdan o‘tkaziladi.

B. Lown va M. Wolf bo‘yicha M. Ryan modifikatsiyasiga ko‘ra, simptomlarsiz qorinchalar ekstrasistoliyasining 4b va 5 gradatsiyalarida, shuningdek qorinchalar taxikardiyasi mavjud bo‘lgan hollarda, kardiologik tekshiruv natijalari asosida tashxis aniqlansa, nomzodlarning ishga yoki o‘qishga yaroqsizligi to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

66. Kardiologik tekshiruvlar natijalariga ko‘ra, simptomatik bo‘lmagan sinusli bradikardiya hamda 3,0 sekunddan kam davom etuvchi simptomlarsiz sinusli pauzalar mavjud bo‘lganda,

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

yurakning aniq ifodalangan tuzilmaviy kasalliklari va klinik belgilar aniqlanmagan taqdirda, tegishli cheklovlar qo‘llangan holda ishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Yurak-qon tomir tizimining funksional buzilishlarida ularning kelib chiqish sabablari hamda kasbiy faoliyat bilan bog‘liq zararli omillarning sog‘liqqa ta’siri aniqlanadi, neyrosirkulyator distoniyaga xos simptomlar bilan kechuvchi yurakning boshqa organik kasalliklari, yallig‘lanish jarayonlari va boshqa ekstrakardial patologiyalar mavjud bo‘lmaganda tibbiy xulosa chiqariladi.

Sutka davomida kuzatiladigan ritm buzilishlari vegetativ disfunksiyaning asosiy belgilaridan biri ekanligi inobatga olinib, EKGning sutkalik monitoringi (Xolter monitoringi) o‘tkaziladi.

Zaruratga ko‘ra EKG-sinovlari, VEM, miokard ssintigrafiyasi, yuklama sinovlari va koronarografiya tekshiruvlari o‘tkaziladi.

67. Mitral klapan yetishmovchiligining turg‘un kompensatsiyasi, miokarditik kardioskleroz, turg‘un kompensatsiyalangan, chegaralangan va kam ifodalangan yurak nuqsonlari, shuningdek gipertrofik kardiomiopatiyaning apikal shakli mavjud bo‘lgan hollarda, individual tartibda HHB ishiga yoki o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishi mumkin.

68. Toj tomirlar va (yoki) umumiy qon aylanishi yetishmovchiligi bilan kechuvchi yurak, aorta, toj arteriyalari, perikard va yurak mushagining organik kasalliklarida, shuningdek davolashga bo‘ysunmaydigan hamda yurak ritmi va o‘tkazuvchanligining turg‘un buzilishlari mavjud bo‘lgan hollarda, HHB ishiga yoki o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

69. Aviatsiya xodimida Giss tutami chap oyoqchasining blokadasi birinchi marta aniqlanganda, quyidagi talablar bajarilganda yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishi mumkin:

individual tartibda, tegishli cheklovlar qo‘llangan holda chap qorincha funksiyasi normada bo‘lganda;

ExoKGda otilib chiqish fraksiyasi 50 foizdan yuqori bo‘lishganda;

yuklama EKGda Bryus protokolining IV bosqichi bajarilganda miokard ishemiyasi, yaqqol ritm buzilishlari va klinik simptomlar aniqlanmaganda (Xolter monitoringida ritm buzilishlari mavjud bo‘lmasligi yoki kam ifodalangan bo‘lishi lozim).

Zaruratga ko‘ra koronar angiografiya o‘tkaziladi.

Bunda uning natijalariga ko‘ra yirik tomirlarda stenoz 50 foizdan, proksimal tomirlarda esa 30 foizdan kam bo‘lganda, yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Mazkur hollarda aviatsiya xodimlariga yiliga 1 marta kardiolog maslahati belgilanadi.

Yuklama EKG testida ST segmentining 2 mm gacha gorizontal pasayishi kuzatilganda, toj arteriyalari kasalligi har doim ham tasdiqlanmasligi mumkin.

Shu bois, baholashda yurish davomiyligi, klinik simptomlarning mavjudligi hamda o‘zgarishlarning xususiyati asosiy mezon sifatida inobatga olinadi.

70. Nomzodlar (FA o‘quv yurtlariga o‘qishga nomzodlar va o‘quvchilar bundan mustasno) mehnat qobiliyatini yo‘qotishga olib kelishi mumkin bo‘lgan angioplastika, stent o‘rnatish bilan yoki stentsiz, yoxud aorta-koronar shuntlash kabi jarrohlik amaliyotlaridan keyin, shuningdek anamnezida miokard infarkti yoki boshqa shunga o‘xshash kardiologik kasalliklar mavjud bo‘lgan hollarda, 6 oydan 12 oygacha muddat o‘tgach, jarohlik amaliyoti muvaffaqiyatli o‘tkazilgan, jarrohlik amaliyotidan keyingi davr asoratlarsiz kechgan yoki asoratlar klinik jihatdan ahamiyatsiz bo‘lganda, chekish, ortiqcha tana vazni, arterial gipertenziyaning xurujli kechishi kabi yurak-qon

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

tomir kasalliklari xavf omillari baholanganda, klinik simptomlar mavjud bo‘lmaganda, antianginal dori vositalarini qabul qilishga ehtiyoj kuzatilmaganda hamda kengaytirilgan kardiologik tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lganda, individual tartibda tibbiy xulosa chiqariladi.

Bunda ExoKG, kardiolog xulosasi, IKAO talablariga muvofiq Bryus protokoli bo‘yicha yuklama EKGning IV bosqichi natijalari hamda koronar angiografiya ma’lumotlari inobatga olinadi.

Mazkur nomzodlarga har 6 oyda bir marta terapevtning dispanser kuzatuvi belgilanadi, shuningdek qondagi glyukoza miqdori va tana vazni nazorat qilinadi.

Navbatdagi tibbiy xulosa chiqarishda kardiologik tekshiruvlar o‘tkaziladi hamda kardiolog maslahati olinadi.

71. Aviatsiya xodimi o‘tkir bezarar aseptik perikarditni boshdan kechirganidan keyin 3–6 oy o‘tgach, kasallik simptomlari aniqlanmaganda, ExoKG ko‘rsatkichlari normada bo‘lganda, ritm buzilishlarini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan 24 soatlik EKG monitoringi hamda yuklama EKG natijalari ijobiy bo‘lganda, qo‘shimcha chuqurlashtirilgan tekshiruvlar o‘tkazilib, individual tartibda tegishli cheklovlar qo‘llangan holda yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishi mumkin.

Mazkur hollarda 2 yil davomida terapevt va kardiologning dispanser kuzatuvi belgilanadi hamda zaruratga ko‘ra tegishli tekshiruvlar o‘tkaziladi.

Kasallik qaytalangan yoki og‘riq sindromi saqlanganda, HHB ishiga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi va qayta HHB ishiga tiklashga yo‘l qo‘yilmaydi.

72. Aviatsiya xodimi miokarditni boshdan kechirganidan keyin 3–6 oy o‘tgach, infeksiya o‘chog‘i bartaraf etilganda va kasallik simptomlari aniqlanmaganda, qorinchalarning murakkab ritm buzilishlari, o‘tkazuvchanlik buzilishlari va (yoki) bo‘lmachalar fibrillyatsiyasi mavjudligini aniqlash maqsadida 24 soatlik EKG monitoringi, yuklama EKG hamda ExoKG tekshiruvlari o‘tkaziladi.

Zaruratga ko‘ra MRT tekshiruvi va Xolter monitoringi ham o‘tkazilishi mumkin.

Tekshiruv natijalari normada bo‘lganda, shuningdek ExoKGda chap va o‘ng qorinchalar funksiyalarining buzilish belgilari aniqlanmaganda, individual tartibda tibbiy xulosa chiqarilishi mumkin.

Mazkur hollarda ExoKG tekshiruvi doimiy ravishda yiliga bir marta o‘tkaziladi.

73. Aorta ildizi diametri 5,0 sm dan ortiq bo‘lganda, chap qorinchaning yakuniy diastolik o‘lchami (bundan buyon matnda KDR LJ deb yuritiladi) 6,5 sm dan ortiq bo‘lganda, chap qorinchaning yakuniy sistolik o‘lchami, (bundan buyon matnda KSR LJ deb yuritiladi) 4,4 sm dan ortiq bo‘lganda, shuningdek yurak qorinchalari orasidagi pardaning qalinligi 1,4 sm dan ortiq bo‘lgan hollarda, aviatsiya xodimlariga yurakning tuzilmaviy kasalliklari hamda kasbiy-funksional majburiyatlarini bajarish qobiliyati inobatga olingan holda, individual tartibda tibbiy xulosa chiqariladi.

74. Qon aylanishi buzilishi kuzatilmaydigan umumiy va toj tomirlar, shuningdek yurak mushagi kasalliklarida, aviatsiya xodimlariga yuklama EKG tekshiruvi, zaruratga ko‘ra chuqurlashtirilgan sharoitda o‘tkaziladi va yurak-qon tomir tizimi funksiyalarining saqlanganlik darajasi asosida kasbiy yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

75. Miokard distrofiyasi va miokarditdan keyingi kardiosklerozlarda, yurakdagi o‘zgarishlarning kasbiy faoliyatga salbiy ta’siri aniqlanmaganda, yurak mushagi funksiyasi saqlanganda, kasbiy yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

76. Aortadagi kam ifodalangan aterosklerotik o‘zgarishlar, shuningdek aorta devorlarining qalinlashuvi aniqlangan hollarda, yurak-qon tomir tizimi funksiyalari saqlangan taqdirda, nomzodga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

77. Asoratlarsiz miokard infarktini o‘tkazgan aviatsiya xodimlari 12 oy o‘tgach, yurak-qon tomir tizimining funksional holati yaxshi saqlanganda, shikoyatlari mavjud bo‘lmaganda, kasallik kechishini og‘irlashtiruvchi xavf omillari aniqlanmaganda, yurak ishemik kasalligini davolashga ehtiyoj bo‘lmaganda (profilaktik maqsadda qabul qilinadigan aspirin, kichik dozadagi beta-blokatorlar va ayrim hollarda APF ingibitorlari bundan mustasno) yuklama sinamalarida jismoniy ish qobiliyati saqlangan, ExoKGda yurak bo‘shliqlari kengaymagan va chiqarib yuborish fraksiyasi 50 foizdan kam bo‘lmaganda, sutkalik EKG monitoringida klinik jihatdan ahamiyatli o‘zgarishlar aniqlanmaganda, koronaroangiografiyada esa miokard infarkti zonasidan tashqaridagi toj tomirlarida, jumladan oldingi qorinchalararo arteriya, aylanma arteriya, orqa qorinchalararo arteriya va o‘ng koronar arteriyada stenoz 50 foizdan ortiq bo‘lmagan taqdirda, nozmod individual tartibda ishga yaroqli deb topilishi mumkin.

78. EKGda patologik Q tishchasi aniqlanganda, biroq miokard infarkti klinik jihatdan tasdiqlanmagan hollarda, anamnez so‘rov yo‘li bilan o‘rganiladi hamda ExoKG va ssintigrafiya tekshiruvlari o‘tkaziladi.

Tekshiruv natijalari ijobiy bo‘lganda va yurak funksiyasi yaxshi saqlanganda, nomzodlar ishga yaroqli deb topiladi.

79. Gipertoniya kasalligida arterial qon bosimi 160/95 mm simob ustunidan yuqori darajada turg‘un saqlanganda, kasallik xurujli kechganda (bir martalik asoratlarsiz xuruj bundan mustasno) shuningdek yurak-qon tomir tizimining 3 va 4-darajali asoratlari mavjud bo‘lgan hollarda, yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Bunda statsionar tekshiruvlar o‘tkazilib, yurak-qon tomir tizimi funksiyalari saqlangan hamda davolash natijalari ijobiy bo‘lgan taqdirda, individual tartibda, tegishli cheklovlar qo‘llangan holda HHB ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa berilishi mumkin.

Tekshiruv natijalari bilan tasdiqlangan “oq xalat” arterial gipertenziyasida HHB ishiga yoki o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

80. Dori vositalarisiz arterial qon bosimi normalashgan yoki aviatsiyada qo‘llashga ruxsat etilgan dori vositalari yordamida arterial qon bosimi 160/95 mm simob ustunidan yuqori bo‘lmaganda nomzodlarga ishga yoki o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa beriladi.

Zaruratga ko‘ra sutkalik qon bosimi monitoringi hamda boshqa qo‘shimcha tekshiruvlar o‘tkaziladi.

81. Ekspert xulosasini chiqarishda, gipertoniya kasalligi mavjud bo‘lgan aviatsiya xodimlari yurak-qon tomir asoratlari xavfi darajasiga ko‘ra (“nishon a’zolar”ning zararlanishi, semizlik, chekish, spirtli ichimliklarni iste’mol qilish, kamharakat turmush tarzi va boshqa omillar) hisobga olingan holda guruhlarga ajratiladi.

Xavf darajasi past yoki o‘rta bo‘lgan aviatsiya xodimlari kasbiy faoliyatini bajarishga yaroqli deb topiladi.

Xavf darajasi yuqori bo‘lgan aviatsiya xodimiga nisbatan, davolash-sog‘lomlashtirish tadbirlarini qo‘llash orqali xavf darajasini past yoki o‘rta darajaga tushirish imkoniyati mavjud bo‘lsa, bir oygacha muddatga etapli tibbiy xulosa chiqariladi.

Bunda aviatsiya xodimi bir oy muddatga kasbiy vazifalarini bajarishdan chetlatiladi hamda unda davolash-sog‘lomlashtirish tadbirlari bilan bir qatorda kardiolog maslahati o‘tkaziladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Mazkur tadbirlar samarali va barqaror bo‘lib, xavf omillari kamaygan yoki bartaraf etilgan taqdirda, kardiologning ijobiy xulosasi asosida yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

82. HHB dispetcherligiga o‘qishga nomzodlarda arterial qon bosimi 140/90 mm simob ustunidan yuqori bo‘lmasligi kerak.

83. Kasalliklarning o‘tkir davrida, og‘riq sindromi, klinik belgilar hamda mehnat qobiliyatini yo‘qotishga olib kelishi mumkin bo‘lgan asoratlar mavjud bo‘lganda, nomzodlarda yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Asoratlarsiz kechgan oshqozon yarasi kasalligini boshdan kechirgan nomzodlarga davolash natijalari ijobiy bo‘lganda, 2 oydan so‘ng, H. pylori infeksiyasi va klinik belgilar bartaraf etilganda, endoskopik tekshiruvda yaraning bitgani tasdiqlangan hamda xavfli o‘smalar bo‘lmaganda, yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishi mumkin.

84. Oshqozon va o‘n ikki barmoqli ichak yarasining bir martalik residivi kuzatilgan hollarda, oddiy yoki tegishli parhezga rioya qilingan, kasallik simptomlari mavjud bo‘lmaganda hamda klinik sog‘ayish belgilari aniqlanganda, aviatsiya xodimi ishga yaroqli deb topiladi.

Oshqozon va o‘n ikki barmoqli ichak yarasida qon ketish bilan bog‘liq bir martalik asorat kuzatilgan hollarda, 2 oy davom etgan kuzatuv davrida kasallik simptomlari aniqlanmaganda, dori vositalari bilan davolanishga ehtiyoj bo‘lmaganda va endoskopik tekshiruvda sog‘ayish belgilari tasdiqlanganda, aviatsiya xodimi ishga yaroqli deb topiladi.

Mazkur hollarda 3 yil davomida tibbiy xulosaning amal qilish muddati 6 oy etib belgilanadi hamda har safargi TUK tibbiy xulosasi davolovchi jarroh xulosasi asosida vakolatli organning tibbiy ekspertlari tomonidan ekspert baholashdan o‘tkaziladi.

Bunda aviatsiya xodimiga nisbatan fuqaro aviatsiyasi tashkilotining shifokori tomonidan dispanser kuzatuvi har 3 oyda bir marta belgilanadi va yiliga bir marta endoskopik tekshiruv o‘tkaziladi.

85. Bittadan ortiq residivlar yoki asoratli holatlar mavjud bo‘lganda, tibbiy xulosa tibbiy tekshiruvlar natijalari asosida, individual tartibda, vakolatli organning tibbiy eksperti tomonidan chiqariladi.

Gastrit va kolitlarda davolash natijalari hamda tegishli tibbiy tekshiruvlar ko‘rsatkichlari ijobiy bo‘lganda, klinik simptomlar aniqlanmaganda, ishga yoki o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

86. Oshqozon va o‘n ikki barmoqli ichak yarasi bo‘yicha o‘tkazilgan jarrohlik amaliyotlaridan keyin aviatsiya xodimi to‘liq sog‘ayganda, asoratlar bilan bog‘liq xavf bartaraf etilganda, keyingi remissiya davrida yara kasalligi asoratlarsiz kechayotgan deb baholanganda hamda endoskopik va boshqa tibbiy tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lganda, yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishi mumkin.

O‘n ikki barmoqli ichakda birinchi marta chandiqli deformatsiya aniqlanganda, biroq klinik belgilar mavjud bo‘lmagan hollarda, aviatsiya xodimi kasbiy vazifalarini bajarishdan chetlatilmaydi.

87. Oshqozon-ichak kasalliklarida tibbiy xulosa chiqarishda aviatsiya xodimlarining ish jadvali va ovqatlanish tartibining nomuntazamligi, kasallik kechishini og‘irlashtiruvchi boshqa tashqi omillar hamda to‘satdan ish qobiliyatini yo‘qotishga olib kelishi mumkin bo‘lgan holatlar inobatga olinadi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Surunkali gastrit va gastroduodenitda residivlar kuzatilmaganda, umumiy ahvol qoniqarli bo‘lganda, ish qobiliyati saqlangan hamda me’da sekretsiyasida aniq ifodalangan salbiy o‘zgarishlar aniqlanmaganda, nomzodlarga ishga yoki o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

88. Pankreatit va gepatitlarning organ funksiyasining yaqqol yoki mo‘tadil darajada buzilishi bilan kechuvchi faol bosqichida, jigar sirrozida, tez-tez xuruj qiluvchi (yiliga ikki martadan ortiq) qaytalanuvchi surunkali xolesistitda, shuningdek o‘t pufagi funksiyasi saqlangan holda ko‘p miqdorda toshlar aniqlanganda, nomzodlarga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Faol bo‘lmagan, organ funksiyasining kam ifodalangan buzilishi bilan kechuvchi surunkali gepatit va pankreatitlarda, davolash natijalari ijobiy bo‘lganda, kam xuruj qiluvchi surunkali xolesistitda, o‘t pufagining xolesterozida, yaxshi sifatli funksional bilirubinemiyalarda hamda og‘riqsiz kechuvchi o‘t chiqarish yo‘llari diskineziyasida nomzodlarga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Asoratlar bilan kechmagan laparoskopik xolesistektomiya yoki litotripsiyadan keyin 2-3 oy o‘tgach, shikoyatlar mavjud bo‘lmaganda, klinik belgilar aniqlanmaganda va ish qobiliyati saqlanganda aviatsiya xodimlari ishga yaroqli deb topiladi.

89. Surunkali, klinik alomatlarsiz va faol bo‘lmagan gepatitning B va C turlarida virus tashuvchilik holati mavjud bo‘lgan aviatsiya xodimlari kasbiy vazifalarini bajarishga yaroqli deb hisoblanadi.

Gepatitning B va C turlarini boshdan kechirgan aviatsiya xodimlari turg‘un remissiya kuzatilganidan keyin 6 oy o‘tgach ishga yaroqli deb topiladi.

O‘t pufagida simptomsiz kechuvchi, yirik va yakka tosh aniqlangan taqdirda, aviatsiya xodimlariga individual tartibda ODL cheklovi qo‘llangan holda ishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi, komissiyalar oralig‘idagi davrda reja asosida jarrohlik usulida davolanish tavsiya etiladi hamda jarrohning dispanser kuzatuvi belgilanadi.

90. A’zo funksiyasining buzilishi bilan kechuvchi buyrak va siydik yo‘llari kasalliklarining faol davrida, ularning asoratlari mavjud bo‘lgan hollarda, shuningdek jarrohlik amaliyotlaridan keyingi asoratlar, jumladan siydik yo‘llarining torayishi, siqilishi va boshqa holatlar hamda og‘riq sindromi aniqlanganda, nomzodlarga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

91. Buyrak va siydik yo‘llarining infeksiya-yallig‘lanish kasalliklarida (ayollardagi oddiy sistitni davolash bundan mustasno) kamida 14 kun davomida individual antibakterial terapiya o‘tkazilgandan keyin urodinamik va gemodinamik barqarorlik to‘liq saqlangan, klinik simptomlar, infeksiya, qayta yallig‘lanish va boshqa xavf omillari bartaraf etilgan, siydik, qon va boshqa tegishli laborator tahlillar ko‘rsatkichlari normada bo‘lgan, nefrolog yoki urologning xulosasi hamda prognozi ijobiy bo‘lganda, yaroqlilik to‘g‘risidagi tibbiy xulosa individual tartibda vakolatli organning tibbiy ekspertlari bilan birgalikda chiqariladi yoki TUK mazkur vakolatni tibbiy ekspertlarga beradi.

92. O‘tkir glomerulonefrit bilan kasallangan shaxslar vaqtincha mehnatga yaroqsiz deb topiladi.

Tibbiy xulosa yallig‘lanish jarayonining kechishi, arterial qon bosimi ko‘rsatkichlari, klinik tekshiruv natijalari hamda buyraklar funksiyasining saqlanganlik darajasi inobatga olingan holda chiqariladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Mazkur shaxslarda har 6 oyda bir marta arterial qon bosimi, siydik tahlili va qondagi kreatinin koʻrsatkichlari nazorat qilinadi.

Gemodializ oʻtkazish uchun tibbiy koʻrsatmalar mavjud boʻlganda, shaxslarga yaroqsizlik toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqariladi.

93. Surunkali pielonefrit yoki glomerulonefrit bilan kasallangan aviatsiya xodimlariga bir yil davomida fuqaro aviatsiyasi tashkilotining shifokori tomonidan dispanser kuzatuvi belgilanadi, har 6 oyda bir marta qon va siydikning biokimyoviy tahlillari, jumladan mochevina va kreatinin koʻrsatkichlari boʻyicha tekshiruvlar oʻtkaziladi.

Bir vaqtning oʻzida bakteriuriya va piuriya aniqlanganda, tuberkulyoz, konkrementlar va xavfli oʻsmalarni istisno etish maqsadida qoʻshimcha tekshiruvlar oʻtkaziladi.

94. Kasalliklarning faol davrida, boʻgʻimlar va boshqa a’zolar funksiyalarining buzilishi bilan kechganda, ogʻriq sindromi va boshqa klinik simptomlar mavjud boʻlganda, shuningdek surunkali kasalliklar yil davomida ikki martadan ortiq xuruj qilganda, nomzodlarga ishga yoki oʻqishga yaroqsizlik toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqariladi.

Tibbiy xulosa chiqarishda kasallikning ogʻirlik darajasi va rivojlanish xususiyati, mushak-skelet va tayanch-harakat tizimi funksiyalarining saqlanganlik darajasi, boʻgʻimlardagi harakatchanlikning cheklanishi, uzoq muddatli davolanishning salbiy oqibatlari, xurujlar va toʻsatdan ish qobiliyatini yoʻqotishga olib kelishi mumkin boʻlgan omillar inobatga olinadi.

Toʻliq davolash kursi va reabilitatsiya muolajalari yakunlangandan keyin sogʻayish kuzatilganda, organlar funksiyalari saqlanganda va turgʻun remissiya mavjud boʻlgan hollarda, nomzodlarga ishga yaroqlilik toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqariladi. Oʻqishga nomzodlarga nisbatan esa tibbiy xulosa individual tartibda chiqariladi.

Aviatsiya xodimlariga fuqaro aviatsiyasi tashkilotining shifokori tomonidan dispanser kuzatuvi belgilanadi.

4-bob. Jarrohlik kasalliklari

95. Nomzodlarda tegishli guvohnoma bilan belgilanadigan kasbiy majburiyatlarni bajarishga toʻsqinlik qilmaydigan suyak-mushak tizimining tugʻma va orttirilgan buzilishlari mavjud emasligida, ularga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi. Boʻgʻimlar harakatchanligi Aviatsiya qoidalarining 25-ilovasiga muvofiq aniqlanadi. Nomzodlarda tananing proporsional rivojlanganligi yetarli hisoblanadi.

Nomzod guvohnoma bilan belgilanadigan kasbiy majburiyatlarini xavfsiz bajarish uchun yetarli boʻy uzunligiga, qoʻl va oyoqlar uzunligiga ega boʻlishi lozim.

Infantilizmda endokrinolog maslahati xulosasiga koʻra yaroqlilik aniqlanadi.

96. Nomzodlarda tegishli guvohnoma bilan belgilanadigan kasbiy majburiyatlarni bajarishga toʻsqinlik qilmaydigan suyak-mushak tizimining tugʻma yoki orttirilgan buzilishlari mavjud boʻlmaganda, ularga yaroqlilik toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqariladi.

Boʻgʻimlar harakatchanligi Aviatsiya qoidalarining 25-ilovasiga muvofiq aniqlanadi.

Nomzodlarda tananing proporsional rivojlanganligi yetarli deb hisoblanadi.

Nomzod tegishli guvohnoma bilan belgilanadigan kasbiy majburiyatlarni xavfsiz bajarish uchun yetarli boʻy uzunligi, shuningdek qoʻl va oyoqlar uzunligiga ega boʻlishi lozim.

97. Bosh jarohatlarida, shuningdek bosh suyagi va bosh miyada oʻtkazilgan jarrohlik amaliyotlari asoratlarida tibbiy xulosa nevrolog tomonidan chiqariladi.

98. Nomzodlardagi jismoniy rivojlanish nuqsonlari, suyak, mushak, boʻgʻim, pay va togʻaylarning surunkali kasalliklari, jarohatlar hamda jarrohlik amaliyotlari asoratlari, kuyish

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

va muzlash oqibatidagi chandiqlar ularning kuchayish dinamikasi, harakat hajmi, mushak kuchi, qo‘l va oyoqlar funksiyasining cheklanish darajasi hamda funksional buzilishlar og‘irligiga ko‘ra baholanadi.

Kiyim va oyoq kiyim kiyishni qiyinlashtiruvchi yoki bunga to‘sqinlik qiluvchi, og‘riq sindromi bilan kechuvchi, progressiv xususiyatga ega bo‘lgan va funksional buzilishlar klinik jihatdan ahamiyatli darajada ifodalangan hollarda, nomzodlarga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

99. Nomzodlarda kasallikning spesifik, jumladan tuberkulyoz etiologiyasi aniqlanganda, funksional buzilish darajasidan qat’i nazar sekvestral bo‘shliqlarda bitmaydigan va davriy ravishda ochilib turadigan oqma yaralar mavjud bo‘lganda, osteomielit negizidagi oqma yaralar, son suyagi boshchasining osteoxondropatiyasi, yirik bo‘g‘imlarning yaqqol deformatsiyalovchi osteoartrozi hamda funksiyaning yaqqol yoki mo‘tadil darajada buzilishi kuzatilganda, yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Davolash natijalari ijobiy bo‘lganda, jumladan oqma yara yopilgan, rentgenologik tekshiruvda sekvestrlar aniqlanmaganda va kamida 6 oy davomida remissiya saqlangan hollarda, aviatsiya xodimining ishga yaroqlilik masalasi ko‘rib chiqiladi.

100. Osteomielitda barcha nomzodlar terapevtik yoki jarrohlik usullari bilan davolanadi.

Remissiya davrida xurujlar kuzatilmaganda, sekvestral bo‘shliqlar va sekvestrlar aniqlanmaganda, kasallikning xususiyati, joylashishi, funksional buzilish darajasi, nomzodning kasbiy mahorati va ish tajribasi inobatga olingan holda HHB ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

101. Osteoxondroz, spondiloartroz va shu kabi umurtqa pog‘onasining degenerativ-distrofik kasalliklarida, og‘riq sindromi mavjud bo‘lmaganda va funksional cheklanishlar klinik jihatdan ahamiyatsiz bo‘lganda, nomzodlarga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Ildizcha sindromi mavjud bo‘lgan hollarda esa tibbiy xulosa nevrolog tomonidan chiqariladi.

Bo‘g‘im chiqishi bilan kechuvchi umurtqa pog‘onasi tanalari sinishlarida, shuningdek jarayon bosqichi va funksional holatidan qat’i nazar umurtqa tuberkulyozida, nomzodlarga o‘qishga va ishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Umurtqa pog‘onasi tanalarining kompressiya sinishlarida 6 oy o‘tgach, teri osti vertebroplastikasidan keyin esa 2 oy o‘tgach, jarrohlik davolash natijalari ijobiy bo‘lganda va funksiyalar to‘liq tiklangan taqdirda, yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

102. Umurtqa pog‘onasining o‘tkir va ko‘ndalang o‘simtalari sinishlarida, funksiyalar to‘liq tiklangan va og‘riq sindromi mavjud bo‘lmaganda, o‘qishga va ishga ruxsat beriladi.

Umurtqa shaklining o‘zgarishlarida, shu jumladan egrilik va qiyshayishlarda, deformatsiyaning ifodalanish darajasi va etiologiyasi, umurtqa funksiyalarining saqlanganlik darajasi, shuningdek uchuvchining kasbiy faoliyatni bajarish qobiliyati inobatga olingan holda, o‘qishga va ishga yaroqliligi aniqlanadi.

103. Laminektomiyadan keyin funksiyalar to‘liq tiklanganda, og‘riq sindromi mavjud bo‘lmaganda va mehnatga layoqatsizlik varaqasi yopilganda, nomzodlarga ishga yoki o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Umurtqa rentgenogrammasida umurtqalar ventral qirg‘og‘ining o‘tkirlashuvi, qalinlashuvi, yakka bigizsimon o‘simtalar hamda boshqa morfologik o‘zgarishlar aniqlanib, klinik belgilar mavjud bo‘lmagan hollarda, nomzodlar ishga yoki o‘qishga yaroqli deb hisoblanadi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

104. Nomzodlarda osteoxondroz aniqlangan hollarda, ularga jarroh va nevrologning dispanser kuzatuvi belgilanadi hamda davolash-profilaktika tadbirlari o‘tkaziladi.

Dyupyuitren kontrakturasining I darajasida nomzodlarga o‘qishga va ishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi, ularga jarrohning dispanser kuzatuvi belgilanadi hamda konservativ davolash usullari qo‘llaniladi.

Kasallikning II darajasida esa davolashning jarrohlik usullari tavsiya etiladi.

Davolash natijalari ijobiy bo‘lgan va funksiyalar saqlangan taqdirda, ishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

105. Og‘riq sindromi mavjud bo‘lmaganda, qon tomirlar va a’zolar funksiyalarida buzilishlar aniqlanmaganda, o‘spirinlik davriga xos I darajali skolioz mavjud bo‘lganda va jismoniy rivojlanish normada bo‘lganda, shuningdek V bel umurtqasining sakralizatsiyasi, I dumg‘aza umurtqasining lyumbalizatsiyasi hamda ko‘rsatilgan umurtqalar yoylarining bitmay qolishi aniqlangan taqdirda, nomzodlar o‘qishga va ishga yaroqli deb topiladi.

106. Shmorl churralari og‘riq sindromi bilan kechgan hollarda, nomzodlarga o‘qishga va ishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa nevrolog tomonidan chiqariladi.

Tos suyaklarining birlashgan (konsolidatsiyalangan) sinishlarida, jarohatdan keyin 6 oy o‘tgach, to‘liq sog‘ayish kuzatilganda, og‘riq sindromi va a’zolar funksiyalarining buzilishlari aniqlanmaganda, o‘qishga va ishga yaroqlilik masalasi hal etiladi.

Tos chanog‘i sohasida alohida suyaklarning chegaralangan sinib bitishida, chanoq halqasining shakli deformatsiyalanmagan bo‘lsa, nomzodlar o‘qishga va ishga yaroqli deb topiladi.

Umurtqa pog‘onasi va tos suyaklari kasalliklari hamda jarohatlarida yaroqlilik to‘g‘risidagi tibbiy xulosa jarroh tomonidan nevrolog bilan birgalikda chiqariladi.

107. Tos chanog‘i sohasida alohida suyaklarning chegaralangan sinib bitishida, chanoq halqasi shaklining deformatsiyasi aniqlanmagan taqdirda, nomzodlar o‘qishga va ishga yaroqli deb topiladi.

Umurtqa pog‘onasi va tos suyaklari kasalliklari hamda jarohatlarida yaroqlilik to‘g‘risidagi tibbiy xulosa jarroh tomonidan nevrolog bilan birgalikda chiqariladi.

Infeksion-allergik genezli spondiloartritlarda, jumladan Bexterev va Reyter kasalliklarida, yaroqlilik to‘g‘risidagi tibbiy xulosa terapevt tomonidan chiqariladi.

108. Suyaklar, tog‘aylar, mushaklar, paylar va bo‘g‘imlarda o‘tkazilgan jarrohlik amaliyotlaridan keyin o‘qishga va ishga yaroqlilik organlar funksiyalari tiklanganidan so‘ng aniqlanadi.

Jarrohlik amaliyotlari yoki jarohatlar oqibatida qo‘l yoki oyoqning 2 sm dan kam qisqarishi aniqlanganda, nomzodlar yaroqli deb hisoblanadi.

Jarrohlik amaliyotlari yoki jarohatlar oqibatidagi yaqqol ifodalangan defektlarda a’zolarning funksional holati trenajyor tekshiruvi o‘tkazilgan holda, trenajyor instruktori xulosasi asosida baholanadi.

109. Jarrohlik amaliyotiga tibbiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lganda, nomzod mazkur davolanishdan bosh tortsa, unga o‘qishga yoki ishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Osteosintezda turli fiksatsiyalovchi moslamalarni o‘rnatish yoki protezlash bilan bog‘liq jarrohlik usullari qo‘llanilgan hollarda, operatsiyadan keyingi holat ijobiy bo‘lganda, funksiyalar saqlanganda, rentgenologik va boshqa tekshiruvlar natijalari ijobiy baholanganda, travmatolog-

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

ortoped xulosasi hamda prognozi inobatga olingan holda, nomzodlarga individual tartibda o‘qishga va ishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

110. Bo‘g‘imlar kasalliklarida va biriktiruvchi to‘qimaning tizimli kasalliklarida, remissiya turg‘un bo‘lganda, a’zolar funksiyalari saqlangan hamda bo‘g‘imlar va a’zolarning funksional holati qoniqarli deb baholanganda, HHB ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

111. Turli sabablarga ko‘ra qo‘l va oyoq nuqsonlari mavjud bo‘lganda, yaroqlilik ularning funksional saqlanganlik darajasi va kasbiy majburiyatlarni bajarish qobiliyatidan kelib chiqib aniqlanadi.

Munozarali hollarda trenajyor tekshiruvi o‘tkaziladi hamda tibbiy xulosa trenajyor instruktori tomonidan berilgan xulosa asosida chiqariladi.

Oyoq panjasi mavjud bo‘lmagan hollarda, shuningdek oyoq panjasining funksional buzilish bilan kechuvchi, yurishni va oyoq kiyim kiyishni qiyinlashtiruvchi yoki bunga to‘sqinlik qiluvchi tug‘ma yoki orttirilgan deformatsiyalarida, yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

112. Xavfli o‘smalar aniqlanganda, nomzodlarga o‘qishga va ishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Nomzodlar ixtisoslashtirilgan tibbiy muassasada jarrohlik, kimyoterapiya, nur terapiyasi yoki ularning kombinatsiyasi qo‘llanilgan holda davolangandan keyin residiv kuzatilmaganda, bosh miyada metastazlar aniqlanmaganda, o‘sma jarayonining organizm bo‘ylab umumlashuvi mavjud bo‘lmaganda hamda organizmning funksional holati to‘liq va turg‘un saqlanganda (ahamiyatga ega bo‘lmagan o‘zgarishlar bundan mustasno) kamida 6 oy o‘tgach tibbiy xulosa berish masalasi ko‘rib chiqiladi.

Xavfli o‘smalar sababli davolangan nomzodlarga nisbatan tibbiy xulosa individual tartibda, zaruratga ko‘ra tegishli cheklovlar qo‘llangan holda chiqariladi hamda ularga jarroh va onkologning dispanser kuzatuvi belgilanadi.

113. Xavfli o‘smalarda tibbiy xulosa chiqarishda davolashning kasallikning ilk bosqichida o‘tkazilganligi, keng qamrovli patomorfologik xulosa (o‘smaning anatomik turi va morfologik tavsifi, regionar limfa tugunlarining holati) davolashdan keyingi klinik holat dinamikasining ijobiyligi (tana vazni, laborator va boshqa tekshiruv natijalari, davolash asoratlari va residivning mavjud emasligi, o‘sma jarayonining rivojlanish xususiyati, gematologik ko‘rsatkichlarning me’yoriyligi, a’zolar funksiyalarining buzilish darajasi, mehnat qobiliyatining tiklanish muddati, kasbiy majburiyatlarni bajarish imkoniyati hamda to‘satdan ish qobiliyatini yo‘qotish xavfi kabi omillar inobatga olinadi.

114. Rak in situ patomorfologik xulosasida, o‘smaning joylashuvidan qat’iy nazar, o‘tkazilgan davolash turi (operatsiyasi) xususiyatidan kelib chiqib, onkolog xulosasi va prognozi asosida cheklovlar qo‘llanilib o‘qishga va HHB ishiga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

115. Yomon sifatli eutireoid tugunli buqoqda hamda tugunli mastopatiyada, onkolog maslahati asosida, komissiyalararo davrda jarrohlik usuli bilan davolash amalga oshirilishi lozim.

Xavfsiz o‘smalarda, o‘sma to‘liq bartaraf etilganda, uning xavfsiz xususiyati laborator tekshiruvlar bilan tasdiqlanganda, organ va tizimlar funksiyalari saqlanganda, shuningdek

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

jismoniy va ruhiy sog‘liq holati normada bo‘lgan taqdirda, o‘qishga va mehnat faoliyatini bajarishga yaroqliligi to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

116. Xavfsiz o‘smalar jarrohlik yo‘li bilan olib tashlanganidan keyin, operatsiya hajmi hamda uning natijalari inobatga olingan holda, ishga yoki o‘qishga ruxsat berish muddati jarrohning shaxsiy ko‘rigi asosida belgilanadi.

Maxsus liboslar, anjomlar va oyoq kiyimlardan foydalanishga monelik qilmaydigan, kichik hajmli, o‘sishga moyilligi bo‘lmagan xavfsiz o‘smalar, shu jumladan lipomatoz, so‘galli va pigmentli nevuslar, dermoid kistalar, xondromalar hamda boshqa shunga o‘xshash holatlar mavjud bo‘lganda, nomzodlar uchun jarroh tomonidan dispanser kuzatuvi belgilanadi.

Jarrohlik usulida davolangan xavfsiz o‘smalarda ishga yoki o‘qishga qabul qilinayotgan barcha nomzodlar jarrohga o‘smaning gistologik tekshiruvi natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotni hamda o‘tkazilgan operatsiyaning xususiyati tavsiflangan ko‘chirmani (tibbiy ma’lumotnomani) taqdim etishi shart.

117. Lipoma va teriosti yog‘ qatlami boshqa xavfsiz o‘smalari olib tashlangandan keyin, mehnatga layoqatsizlik varaqasi yopilgach, ishga yoki o‘qishga ruxsat berish jarrohning shaxsiy ko‘rigi asosida amalga oshiriladi.

Buyrakning kichik va o‘rtacha hajmdagi oddiy kistalarida, shuningdek bir tomonlama yoki ikki tomonlama joylashgan sinusli kistalarda klinik belgilar, jumladan og‘riq, arterial bosimning oshishi hamda siydik tahlilidagi o‘zgarishlar aniqlanmagan taqdirda, nomzodlar ishga yoki o‘qishga yaroqli deb topiladi.

Bunda shaxslarga jarroh, zaruratga ko‘ra esa urologning dispanser kuzatuviga olinadi hamda yiliga bir marta buyraklarning ultratovush tekshiruvidan o‘tkaziladi.

Buyrakning katta hajmdagi kistalarida ixtisoslashtirilgan tibbiyot muassasasida kista punksiyasi o‘tkaziladi va asoratlar kuzatilmagan taqdirda, ikki-uch hafta o‘tgach ishga yoki o‘qishga ruxsat beriladi.

Kista punksiyasini o‘tkazish uchun ko‘rsatmalar mavjud bo‘lmagan hollarda, urolog tavsiyasiga asosan dispanser kuzatuvi belgilanadi.

118. Qalqonsimon bezda 1 sm.dan kichik tugunlar aniqlanganda, jarroh-endokrinolog maslahati olinishi, har 6 oyda ultratovush tekshiruvi o‘tkazilishi hamda dispanser kuzatuvi yo‘lga qo‘yilishi lozim.

Qalqonsimon bezda birinchi marta 1 sm.dan katta tugunlar aniqlanganda, shuningdek ularning 6 oy davomida 0,5 sm.ga kattalashishi qayd etilganda, punksion biopsiya o‘tkazilishi shart.

Rak, adenoma hamda 3 sm.dan katta tugunlar aniqlanganda, operativ jarrohlik usuli bilan davolash amalga oshirilishi lozim.

Tugunli buqoq olib tashlangandan keyin, ishga yoki o‘qishga yaroqlilik masalasi jarroh tomonidan terapevt bilan birgalikda, endokrinolog maslahati hamda kasallik prognozi asosida aniqlanadi.

O‘smaning yaxshi sifatli xususiyatga egaligi tasdiqlanganda, operativ davolash zarurati mavjud bo‘lmaganda, o‘sma bilan bog‘liq anatomik nuqsonlar yoki funksional buzilishlar aniqlanmaganda, o‘sishga moyillik kuzatilmaganda hamda uning kiyim va oyoq kiyim kiyishga to‘sqinlik qilmaydigan hollarda, nomzodlarga ishga yoki o‘qishga yaroqliligi to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

119. Prostata bezining yaxshi sifatli giperplaziyasida o‘rtacha darajada yoki yaqqol ifodalangan simptomatik obstruksiya mavjud bo‘lganda, aviatsiya xodimlari xizmat vazifalarini bajarishdan chetlatiladi.

Bunda ularda transabdominal va transrektal exografiya, qon zardobida prostata spesifik antigeni miqdorini aniqlash hamda urolog tavsiyasiga ko‘ra tekshiruvlar o‘tkazilishi lozim.

Kam ifodalangan yoki yengil simptomlar mavjud bo‘lganda, shuningdek operativ davolash uchun ko‘rsatmalar bo‘lmagan taqdirda, urolog xulosasi asosida ishlarni bajarishga yaroqliligi to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

120. Prostataning transuretral rezeksiyasidan keyin 6 oy o‘tgach, obstruktiv simptomlar asoratlarsiz bartaraf etilganda, organlar faoliyati buzilishlari aniqlanmaganda, urolog xulosasi asosida individual tartibda ishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishi mumkin.

Tashqi jinsiy organlarning yaxshi sifatli o‘smalarini jarrohlik usuli bilan olib tashlash to‘g‘risidagi qaror ginekolog yoki urolog maslahati asosida qabul qilinadi.

121. Simptomlarsiz kechuvchi bachadon miomasi mavjud bo‘lgan aviatsiya xodimlari dispanser kuzatuviga olinadi.

Miomaning o‘sishi, qo‘shni joylashgan organlar faoliyatining buzilishi, bachadondan qon ketishi, og‘riq sindromining mavjudligi, shuningdek boshqa tibbiy ko‘rsatmalar aniqlanganda, aviatsiya xodimlari operativ davolanishga yuboriladi.

Operatsiyadan keyingi yaroqsizlik muddati 4 oygacha etib belgilanadi.

Ishga yoki o‘qishga tiklash masalasi operatsiya turi, asoratlarning mavjud emasligi, sog‘liqning tiklanganligi, organlar funksiyalarining saqlanganligi, kasbiy vazifalarni bajarish jarayonida mehnat qobiliyatining to‘satdan yo‘qolishiga olib keluvchi omillarning mavjud emasligi, tekshiruv natijalarining normada ekanligi hamda ginekolog xulosasi inobatga olingan holda hal etiladi va shu asosda tibbiy xulosa chiqariladi.

122. Nomzodlarda ko‘krak oralig‘i, plevra, bronxlar ichidagi, shuningdek bronxlardan tashqarida joylashgan o‘pkaning yaxshi sifatli o‘smalari operativ davolangandan keyin, 6 oy o‘tgach, umumiy sog‘lig‘i tiklanganda, torakotomiyadan keyingi ko‘krak qafasi deformatsiyasi aniqlanmaganda, rentgenologik va boshqa tekshiruvlarda qo‘pol anatomik nuqsonlar mavjud bo‘lmaganda, tashqi nafas olish hamda yurak-qon tomir tizimi funksiyalarida buzilishlar kuzatilmaganda, HHB ishiga yaroqliligi to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Bunda nomzodlar har navbatdagi tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilganda spirografiya hamda ko‘krak qafasi organlarining rentgenografiyasi tekshiruvlaridan o‘tkaziladi.

123. Tashqi nafas olish funksiyasining kuchli ifodalangan buzilishlari, uyqudagi obstruktiv apnoe sindromi mavjud bo‘lganda, shuningdek kasalliklar, rivojlanish nuqsonlari va jarohatlar sababli ko‘krak qafasi organlarida yirik jarrohlik operatsiyalari o‘tkazilgan hollarda, shu jumladan pulmonektomiyadan keyin nomzodlarga HHB ishiga yoki o‘qishga yaroqsizligi to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Jarrohlik usuli bilan davolangan shaxslarda to‘liq davolanish va sog‘liq holati tiklanganidan keyin, tashqi nafas olish funksiyasi yetarli darajada tiklangan, bunda Tiffno indeksi 60 foizdan kam bo‘lmagan, shuningdek tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lgan taqdirda, jarroh terapevt bilan birgalikda ishga yaroqlilik masalasini aniqlaydi.

124. Ko‘krak devori va o‘pka to‘qimasida yirik tomirlar hamda yurakdan uzoqda joylashgan yot jismlar mavjud bo‘lganda, klinik belgilar aniqlanmaganda va tashqi nafas olish funksiyasi ko‘rsatkichlari yaxshi bo‘lgan taqdirda, ishga yoki o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Spontan pnevmotoraksda tibbiy xulosa chiqarishda klinik sog‘ayish bilan bir qatorda residiv xavfi ham inobatga olinadi.

Birinchi marta spontan pnevmotoraks kuzatilganidan keyin klinik sog‘ayish holati mavjud bo‘lsa hamda tibbiy tekshiruvlar natijasida bullez emfizema yoki nafas olish organlari funksiyalarining boshqa buzilishlari aniqlanmasa, nomzodga individual tartibdagi cheklovlar qo‘llangan holda ishga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqarilishi mumkin.

Spontan pnevmotoraks qayta xuruj qilgan hollarda, operatsiyadan keyin 3 oy o‘tgach, to‘liq sog‘ayish holati kuzatilganda va maxsus tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lsa, nomzodga individual tartibdagi cheklovlar qo‘llangan holda ishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilishi mumkin.

125. Ichki organlar shikastlanmagan holda ko‘krak qafasiga kirib borgan yaralanishlarda, to‘liq sog‘aygandan keyin, tibbiy tekshiruvlar natijalariga ko‘ra ishga yoki o‘qishga yaroqlilik aniqlanadi.

O‘SOK, remissiya turg‘un bo‘lgan va nafas olish funksiyasi saqlangan hollarda, nomzodlarga ishga yoki o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Nafas olish funksiyasining kam ifodalangan buzilishlarida, OFV1 va JEL ko‘rsatkichlari 70 foizdan kam bo‘lmaganda, shuningdek nafas olish hamda yurak-qon tomir tizimlari bo‘yicha tekshiruv natijalari ijobiy bo‘lgan taqdirda, nomzodga individual tartibda ishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Bunda jarrohning dispanser kuzatuvi belgilanadi hamda har galgi tibbiy ko‘rikda nafas olish va yurak-qon tomir tizimlari bo‘yicha tekshiruvlar o‘tkaziladi.

126. Sarkoidozning o‘tkir fazasida nomzodlarga ishga yoki o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Kasallik boshlanganidan 6 oy o‘tgach, remissiya turg‘un bo‘lganda, nafas olish funksiyasi saqlanganda, dori vositalari va boshqa davolash usullari to‘liq to‘xtatilgan taqdirda, nomzodga individual tartibda HHB ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Bunda jarrohning dispanser kuzatuvi belgilanadi hamda har navbatdagi tibbiy ko‘rikda nafas olish va yurak-qon tomir tizimlari bo‘yicha tekshiruvlar o‘tkaziladi.

Qisilishga moyil bo‘lgan yoki qizilo‘ngach va oshqozonning funksional buzilishlarini keltirib chiqaruvchi, shuningdek reflyuks-ezofagit asorati bilan kechuvchi diafragma churralarida ishga yoki o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Jarrohlik usulida davolash ijobiy natija bergan taqdirda, 3 oydan 6 oygacha muddat o‘tgach, to‘liq sog‘ayish holati kuzatilganda, tibbiy tekshiruvlar natijalariga ko‘ra ishga yoki o‘qishga yaroqlilik aniqlanadi.

127. Divertikulni jarrohlik usuli bilan davolash ijobiy natija bergan taqdirda, nomzodning kasbiy yaroqliligi aniqlanadi.

Qizilo‘ngachni ezofagoskopiya va boshqa usullar bilan, shuningdek tashqi nafas olish organlari hamda yurak-qon tomir tizimi funksiyalarini chuqurlashtirilgan tibbiy tekshiruvlar natijasida organlar funksiyalarida buzilishlar va divertikul residivi aniqlanmagan hollarda, nomzodga ishga yoki o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Operativ davolashni talab qilmaydigan qizilo‘ngach divertikullari mavjud bo‘lganda, nomzodlarga ishga yoki o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Qizilo‘ngach venalarining varikoz kengayishi mavjud bo‘lganda, uning etiologiyasi va klinik ko‘rinishlaridan qat’i nazar, barcha nomzodlarga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi va ular ishga yoki o‘qishga qayta tiklanmaydi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

128. Qizilo‘ngachning chandiqli stenozi sababli bajarilgan qizilo‘ngach plastikasi hamda funksional kasalliklar tufayli o‘tkazilgan plastikali ezofagokardiomiotomiya kabi jarrohlik amaliyotlaridan keyin har tomonlama o‘tkazilgan tekshiruvlar natijalari, kasbiy faoliyatni xavfsiz bajarish imkoniyati va boshqa tibbiy ahamiyatga ega holatlar inobatga olingan holda, jarroh maslahati hamda prognozi asosida individual tartibda ishga yoki o‘qishga yaroqlilik aniqlanadi.

Reflyuks-ezofagit bilan kechmaydigan hamda diafragmaning qizilo‘ngach teshigi churrasi bilan bog‘liq bo‘lmagan qizilo‘ngach-oshqozon yo‘lagi yetishmovchiligi mavjud bo‘lganda, nomzodlar ishga yoki o‘qishga yaroqli deb topiladi.

129. Qorin bo‘shlig‘idagi jarrohlik operatsiyalaridan keyin nomzodlar jarrohga tashxis, operatsiya o‘tkazilgan sana, operatsiyaning to‘liq bayoni, operatsiyadan keyingi davrning kechishi, operatsiya materialning patomorfologik tekshiruvi natijalari hamda shunga oid boshqa ma’lumotlar ko‘rsatilgan kasallik tarixidan ko‘chirmani taqdim etishi shart.

130. Jarrohlik operatsiyalari ijobiy natija berganda, to‘liq sog‘ayish kuzatilganda va mehnatga layoqatsizlik varaqasi yopilganidan keyin kasbiy majburiyatlarni bajarishda xavf omillari mavjud bo‘lmaganda, organlar funksiyalari saqlanganda, gastroenterologik tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lganda, tegishli mutaxassislar maslahati hamda prognozi asosida ishga yoki o‘qishga yaroqlilik aniqlanadi.

Jarrohlik operatsiyalaridan keyingi asoratlar (pnevmoniya, tromboflebit va boshqa shu kabi holatlar mavjud bo‘lganda), shuningdek splenektomiya o‘tkazilganda yoki qorin bo‘shlig‘idagi bir nechta organlarning shikastlanishi sababli laparotomiya bajarilganda, nomzodlarning ishga yoki o‘qishga yaroqsizlik muddati individual tartibda belgilanadi.

Simptomlarsiz kechuvchi, bitta yirik konkrement mavjud bo‘lgan xolesistolitiaz holatlarida, komissiyalararo davrda rejali tartibda jarrohlik usuli bilan davolanish tavsiya etiladi.

131. Oshqozon va o‘n ikki barmoqli ichakning yara kasalligi hamda uning asoratlari (residiv, qon ketishi, perforatsiya va penetratsiya) davolangandan keyin endoskopik tekshiruv orqali yaraning bitgani tasdiqlangan va dori vositalarini qabul qilishga ehtiyoj qolmagan taqdirda, 8 hafta o‘tgach ishga yoki o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Bunday shaxslarga har 6 oyda EFGDS, gemoglobin miqdorini aniqlash uchun qon tahlili hamda gastroenterolog maslahati belgilanadi.

Tizimli kasallik sababli o‘tkazilgan xolesistektomiya va splenektomiyadan keyin tibbiy xulosa jarroh tomonidan terapevt bilan birgalikda chiqariladi.

Bunda kasallik bilan bog‘liq asoratlar xavfining mavjudligi yoki mavjud emasligi, belgilangan parhezga rioya qilinganda simptomlarning kuzatilmasligi, operatsiyadan keyingi davrning kechishi, dori vositalari bilan davolashga ehtiyojning yo‘qligi, endoskopik tekshiruvlar natijalarining ijobiyligi, kasbiy majburiyatlarni bajarishda parvozlar xavfsizligiga xavf tug‘diruvchi omillarning mavjud emasligi hamda boshqa tibbiy ahamiyatga ega holatlar inobatga olinadi.

Mazkur holatlar asosida amal qilish muddatiga cheklovlar belgilangan holda tibbiy xulosa chiqariladi.

Yaroqli deb topilgan aviatsiya xodimlariga 3 yil muddatga jarrohning dispanser kuzatuvi belgilanadi.

132. Chov, son, diafragma, kindik va qorin oq chizig‘i churralari mavjud bo‘lganda, og‘riq sindromi hamda qisilish xavfi aniqlansa, jarrohlik usuli bilan davolash tavsiya etiladi.

Jarrohlik operatsiyasi ijobiy natija berganda va mehnatga layoqatsizlik varaqasi yopilganidan keyin ishga yoki o‘qishga yaroqlilik aniqlanadi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Churraning qisilish xavfi mavjud bo‘lmaganda va og‘riq sindromi kuzatilmagan hollarda, tibbiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lsa, komissiyalararo davrda rejali tartibda jarrohlik usuli bilan davolash tavsiya etiladi.

Bunda nomzodga ishga yoki o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Jarrohlik usulida davolanishdan bosh tortgan nomzodlarga ishga yoki o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

133. Katta bo‘lmagan, fiziologik halqa chegarasidagi kindik churrasi, qorin pardasi oldi lipomasi, shuningdek jismoniy zo‘riqish va kuchanish vaqtida churra chiqishi kuzatilmaydigan chov halqasining kengayishi mavjud bo‘lganda, nomzodlar ishga yoki o‘qishga yaroqli deb topiladi.

Surunkali kolitlarda remissiya turg‘un bo‘lganda, doimiy ravishda dori vositalarini qabul qilishga ehtiyoj bo‘lmaganda, asoratlar kuzatilmagan hamda sog‘liq holati barqaror ijobiy bo‘lgan taqdirda, nomzodlarga ishga yoki o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

134. Kron kasalligi va yarali kolitlar mavjud bo‘lganda, nomzodlarga ishga yoki o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Kuchli ifodalangan klinik belgilar bilan kechuvchi qorin parda bitishmalarida nomzodlarga ishga yoki o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Klinik belgilarsiz kechuvchi dolixosigma mavjud bo‘lganda, ishga yoki o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

135. Ayollarning kichik chanoq organlarida o‘tkazilgan jarrohlik operatsiyalaridan keyin tibbiy xulosa ginekolog maslahati asosida jarroh tomonidan chiqariladi.

Radikal jarrohlik operatsiyalaridan keyin nomzodlarga 3 oydan 6 oygacha muddatga ishga yoki o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Asoratlarsiz o‘tgan gisterektomiyadan keyin 3 oy o‘tgach, jismoniy va ruhiy holat normada bo‘lganda, organlar funksiyalari saqlangan taqdirda, nomzodlarning ishga yoki o‘qishga yaroqliligi aniqlanadi.

Endoskopik, shu jumladan laparoskopik jarrohlik operatsiyalaridan keyin bir yarim oydan ikki oygacha muddat o‘tgach HHB ishiga yoki o‘qishga yaroqlilik aniqlanadi.

136. Nomzodning sog‘lig‘i to‘liq tiklangan, kasbiy vazifalarni xavfsiz bajarishiga monelik qiluvchi kasallik asoratlari mavjud bo‘lmaganda hamda mutaxassis xulosasidagi ijobiy prognoz inobatga olingan taqdirda, vakolatli organning tibbiy ekspertlari tomonidan individual tartibda yaroqsizlik muddati qisqartirilishi mumkin.

137. Tez-tez xuruj qiluvchi, kuchli ifodalangan klinik belgilar bilan kechuvchi to‘g‘ri ichak va pararektal biriktiruvchi to‘qimalar kasalliklari, anus stenozi, organlar funksiyalarining buzilishlari, oqma yaralar hamda boshqa patologik holatlar aniqlanganda, terapevtik yoki jarrohlik usulida davolash tavsiya etiladi.

138. Davolash natijalari ijobiy bo‘lganda, shikoyatlar va klinik belgilar aniqlanmaganda, turg‘un remissiya holati kuzatilganda, jarrohlik yarasi asoratlarsiz to‘liq bitganda, tibbiy tekshiruvlar natijalari norma doirasida bo‘lganda, ich kelishi me’yorlashgan hamda organ funksiyalari tiklanganda, nomzodlarga ishga, o‘qishga esa individual tartibda yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Mazkur shaxslarga 2 yil muddatga, har 6 oyda jarrohning dispanser kuzatuvi belgilanadi hamda zaruratga ko‘ra proktolog maslahati o‘tkaziladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Kasallik zo‘rayishi va funksional buzilishlar kuzatilmaganda, to‘g‘ri ichak tushishining boshlang‘ich shakli mavjud bo‘lgan hollarda, nomzodlarning ishga yaroqliligi individual tartibda aniqlanadi.

Chotning kondilomatozida nomzodlarning HHB ishiga yaroqliligi dermatovenerolog maslahati asosida aniqlanadi.

139. Aortaning ichki diametri 4,0 sm.dan katta, biroq 5,0 sm.dan kichik bo‘lganda, nomzodlarga TML cheklovi qo‘llangan holda 6 oy muddatga tibbiy xulosa berilishi mumkin.

Aortaning ichki diametri 5,0 sm.dan katta bo‘lganda, ishga yoki o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Jarrohlik operatsiyalaridan keyin prognoz inobatga olingan holda, operativ davolash ijobiy natija berganda, xavf darajasi eng kam bo‘lganda va koronar arteriya kasalliklari mavjud bo‘lmaganda ishga yaroqlilik to‘g‘risida cheklovlar qo‘llangan holda tibbiy xulosa chiqarilishi mumkin.

Yaroqli deb topilgan shaxslarga doimiy muddatga jarrohning dispanser kuzatuvi belgilanadi va har 3 oyda kuzatuv o‘tkaziladi.

Tegishli mutaxassislar maslahati hamda boshqa qo‘shimcha tekshiruvlar zaruratga ko‘ra o‘tkaziladi.

Aorta anevrizmi tashxisini aniqlash maqsadida aviatsiya xodimlarida transtorakal exokardiografiya, magnit-rezonans tomografiya yoxud magnit-rezonans angiografiya (bundan buyon matnda MRA deb yuritiladi), shuningdek zaruratga ko‘ra aortografiya tekshiruvlari o‘tkaziladi.

140. Periferik tomirlar kasalliklari aniqlanganda, bosh miya hamda yurak-qon tomir tizimi bo‘yicha tibbiy tekshiruvlar o‘tkaziladi.

Koronar tomirlar bilan bog‘liq patologiyalarni aniqlash maqsadida, zaruratga ko‘ra farmakologik yuklama ostida talliy qo‘llanilgan holda miokard perfuziyasini vizualizatsiya qilish testi o‘tkazilishi mumkin.

Endarterit va obliteratsiyalovchi aterosklerozda kasallikning bosqichi, klinik simptomlarning mavjudligi hamda tibbiy tekshiruvlar natijalari inobatga olingan holda nomzodlarning ishga yoki o‘qishga yaroqliligi aniqlanadi.

Arteriyalarning obliteratsiyalovchi kasalliklarida trofik buzilishlar va og‘riq sindromi mavjud bo‘lganda, nomzodlarga ishga yoki o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

141. Chuqur venalar trombozida antikoagulyant dori vositalari (varfarin, ksarelto va pradaksa) bilan davolash 3 oydan 6 oygacha davom etishi mumkinligi inobatga olinib, mazkur dori vositalarini qabul qilish to‘liq to‘xtatilganidan keyin bir hafta o‘tgach ishga yaroqlilik aniqlanadi.

Oyoq va qo‘llarning magistral arteriyalari hamda arteriovenoz anevrizmalarida o‘tkazilgan jarrohlik operatsiyalaridan keyin operatsiya natijasi ijobiy bo‘lganda, qo‘l-oyoqlarda qon aylanishi buzilishlari kuzatilmagan va qon aylanishining kompensatsiyalanganligi funksional tekshiruvlar bilan tasdiqlangan taqdirda, nomzodlarga cheklovlar qo‘llangan holda ishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Qon aylanishi buzilishining klinik belgilari aniqlanmaganda, biroq funksional tekshiruvlar natijalariga ko‘ra qon aylanishi norma darajasida bo‘lmagan hollarda, nomzodga davolanish tavsiya etiladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Davolanish yakunlangandan keyin angiojarroh xulosasi va prognozi inobatga olingan holda ishga yaroqlilik aniqlanadi, zaruratga koʻra esa qoʻshimcha tekshiruvlar oʻtkaziladi.

Magistral va periferik tomirlarda vaqtinchalik funksional buzilishlar bilan kechgan jarrohlik operatsiyalaridan keyin reabilitatsiya hamda ish qobiliyatini tiklash uchun 1 oydan ortiq muddat talab etilganda, nomzodlarga HHB ishiga yoki oʻqishga yaroqsizlik toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqariladi.

142. Venalarning varikoz kengayishini kompensatsiyalangan darajalarida FA ta’lim tashkilotlarida oʻqishga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Qon aylanishining dekompensatsiyasi, trofik buzilishlar, shuningdek tugunlar ustidagi terining yupqalashuvi va tomir yorilishi xavfi mavjud boʻlgan venalarning varikoz kengayishida nomzodlarga ishga yoki oʻqishga yaroqsizlik toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqariladi.

Oyoq venalarining varikoz kengayishini jarrohlik usulida davolash ijobiy natija bergan va asoratlar kuzatilmagan hollarda, 3 hafta oʻtgach, angiojarroh xulosasi hamda prognozi inobatga olingan holda ishga yoki oʻqishga yaroqlilik aniqlanadi. Zaruratga koʻra qoʻshimcha tekshiruvlar oʻtkaziladi.

FA ta’lim tashkilotlariga oʻqishga kirayotgan nomzodlarga venalarning varikoz kengayishining kompensatsiyalangan darajalarida yaroqlilik toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqariladi.

143. Surunkali venalar yetishmovchiligi bilan kechmaydigan teriosti yoki chuqur venalarning oʻtkir tromboflebitida, shuningdek Mondor kasalligida, nomzodlar vaqtincha uchish ishiga yoki oʻqishga yaroqsiz deb topiladi.

Kasallikning oʻtkir belgilari bartaraf etilgan, vena yoʻli boʻylab infiltrat soʻrilgan, qonning umumiy tahlili hamda koagulogramma koʻrsatkichlari norma doirasida boʻlgan taqdirda, angiojarroh xulosasi asosida jarroh tomonidan uchish ishiga ruxsat beriladi va dispanser kuzatuvi belgilanadi.

144. Limfa tugunlarining shikastlanishlari aniqlanganda, aviatsiya xodimlari tegishli mutaxassislar tomonidan tekshiruvdan oʻtkazilishi shart.

Limfa tugunlari tuberkulyozida, toʻliq klinik sogʻayish holati kuzatilganda, silga qarshi dispanser nazoratidan chiqarilgan yoki III guruhga oʻtkazilgan taqdirda, aviatsiya xodimlarining kasbiy faoliyatga qayta tiklanishi masalasi ftiziatr bilan birgalikda koʻrib chiqiladi.

Varikotsele boʻyicha oʻtkazilgan jarrohlik operatsiyasidan keyin mehnatga layoqatsizlik varaqasi yopilgach, jarroh koʻrigi asosida ishga yoki oʻqishga ruxsat beriladi.

145. Oyoq-qoʻl tomirlarining trombangiiti va aortoarteriitida, obliteratsiyalovchi ateroskleroznin III–IV bosqichlarida, surunkali venoz yetishmovchilik bilan kechuvchi posttrombotik va varikoz kasalliklarida, fil oyoqlilikning II–IV darajalarida, angiotrofonevrozlarning II–III bosqichlarida, shuningdek urugʻ tizimchasi venalarining varikoz kengayishining III darajasida barcha nomzodlarga ishga yoki oʻqishga yaroqsizlik toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqariladi.

Urugʻ tizimchasi venalari varikozining (varikotsele) klinik ahamiyatga ega shakllarida, jumladan ogʻriq sindromi, urugʻ tahlilidagi oʻzgarishlar yoki moyak hajmining kamayishi kuzatilganda, nomzodlarga jarrohlik usulida davolanish tavsiya etiladi.

Davolash ijobiy natija bergan taqdirda, ishga yoki oʻqishga yaroqlilik aniqlanadi.

Urugʻ tizimchasi venalari varikozining I darajasida, varikoz kengaygan venalar moyakda faqat Valsalva sinamasi vaqtida aniqlanganda, nomzodlarga uchish ishiga yoki oʻqishga yaroqlilik toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqariladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

146. Urug‘ tizimchasi venalari varikozining II–III darajalarida, varikoz kengaygan venalar moyak sohasida shaxsning tinch holatida palpatsiya va vizual tekshiruvda aniqlanganda, FA ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan nomzodlarga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

147. Nomzodlarda tegishli guvohnomada nazarda tutilgan kasbiy majburiyatlarni xavfsiz bajarishga monelik qiluvchi siydik-tanosil tizimi kasalliklari va anomaliyalari, shuningdek ushbu tizimga oid organik hamda funksional buzilishlar yoki shikastlanishlar mavjud bo‘lmagan taqdirda, ularga ishga yoki o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Funksional buzilishlar bilan kechmaydigan nefroptozning I va II darajalarida nomzodlar ishga yaroqli deb topiladi. Biroq, HHB dispetcherligiga o‘qishga kirayotgan nomzodlarga o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

148. Birlamchi gidronefroz aniqlanganda, barcha nomzodlarga ishga yoki o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Jarrohlik usulida muvaffaqiyatli davolangan aviatsiya xodimlari gidronefrotik transformatsiya to‘liq bartaraf etilgan va buyraklar funksiyasi yaxshi saqlangan taqdirda ishga yaroqli deb topiladi.

Ikkilamchi gidronefrozda gidronefrotik transformatsiyaning sabablari bartaraf etilgan, uning qayta rivojlanishi kuzatilmagan hamda buyraklar funksiyalarining o‘rtacha yoki og‘ir darajadagi buzilishlari aniqlanmagan hollarda, aviatsiya xodimlariga cheklovlar qo‘llangan holda HHB ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

149. Tug‘ma bir buyrakni yo‘qligida yoki nefrektomiyadan keyin buyrak funksiyasini saqlanganlik darajasini hisobga olib nomzodlarga individual tartibda tibbiy xulosa chiqariladi.

Moyakni olib tashlash bo‘yicha jarrohlik operatsiyasini (qorinda ushlanib qolishi, ektopiya) o‘tkazganlar va boshcha gipospadiyasida nomzodlar HHB ishiga (o‘qishga) yaroqli deb hisoblanadi.

Kriptorxizmda moyakni tushirish bilan bog‘liq jarrohlik amaliyotidan keyin davolash natijalari ijobiyligida kamida 3 haftadan keyin HHB ishiga (o‘qishga) ruxsat beriladi.

150. Prostata bezining xavfsiz giperplaziyasida, jarrohlik usulida davolashga ko‘rsatmalar mavjud bo‘lmagan va funksional buzilishlar aniqlanmagan taqdirda, nomzodlarga HHB ishiga yoki o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Prostata bezining xavfsiz giperplaziyasi simptomatik obstruksiya bilan kechganda, nomzodlar vaqtincha HHB ishiga yoki o‘qishga yaroqsiz deb topiladi.

151. Urologik kasalliklar va ular sababli o‘tkazilgan jarrohlik operatsiyalaridan keyin tegishli holat bo‘yicha individual ravishda tanlangan antibakterial terapiyaga idiosinkratik reaksiya mavjud bo‘lmaganda, faol davolash boshlanganidan keyin to‘liq gemodinamik turg‘unlikka erishilganda (ayollardagi oddiy sistit bundan mustasno), kamida 14 kun davomida individual antibakterial davolash o‘tkazilganda, takroriy bakteriologik ekmalar natijalarida mikroorganizmlar aniqlanmaganda, infeksiya asoratlari kuzatilmaganda, urologik tekshiruvlar bilan barcha anatomik yoki boshqa nuqsonlar to‘liq aniqlanganda hamda organlar funksiyalari saqlanganda, urolog xulosasi va prognozi asosida yaroqlilik aniqlanadi.

152. Residiv rivojlanish xavfi yuqori bo‘lganda, simptomlari tez sur’atda kuchayadigan hamda siydik yo‘llari infeksiyasi bilan kechuvchi urologik kasalliklarda nomzodlar ishdan yoki o‘qishdan chetlatiladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

To‘liq davolanishga erishilib, davolash natijalari ijobiy deb topilgandan keyin parvozga, ishga yoki o‘qishga ruxsat beriladi.

Asoratlarsiz kechuvchi oddiy sistitda ayollar 5 kun muddatga parvozdan, ishdan yoki o‘qishdan chetlatiladi.

153. Buyraklar va siydik-tanosil organlaridagi sil kasalligini faol shaklida yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi, to‘liq davolanib, sog‘aygandan keyin organlar faoliyati yaxshi saqlanganligida yaroqlilik aniqlanadi.

154. Siydik tutolmaslikda uning turi (doimiy, stress bilan bog‘liq, urgent yoki siydik pufagining to‘lib ketishi) bilan bog‘liq shakllari bo‘yicha yakuniy tashxis aniqlanadi hamda to‘liq davolanish maqsadida aviatsiya xodimlari ishdan yoki o‘qishdan chetlatiladi.

Sog‘aygandan keyin, kasallikni keltirib chiqargan sabablar to‘liq bartaraf etilgan taqdirda ishga yoki o‘qishga yaroqlilik aniqlanadi.

Buyrak va siydik yo‘llarining sil kasalligida, to‘liq davolanishga erishilgandan keyin, mutaxassis shifokorining xulosasi hamda prognozi asosida ishga yaroqlilik aniqlanadi.

155. O‘tkir glomerulonefrit va pielonefritlarda aviatsiya xodimlari 3 oydan 6 oygacha muddatga ishdan chetlatiladi.

To‘liq sog‘ayish holati kuzatilgandan keyin kasallik simptomlarining ifodalanish darajasi, remissiyaning turg‘unligi, infeksiyaning bartaraf etilganligi hamda boshqa tibbiy mezonlar inobatga olingan holda ishga yaroqlilik aniqlanadi va tibbiy xulosa chiqarishda tegishli cheklovlar qo‘llaniladi.

Mazkur shaxslarga har 3 oyda qondagi kreatinin miqdori, siydik tahlili hamda zaruratga ko‘ra boshqa qo‘shimcha tekshiruvlar o‘tkaziladi.

Kasalliklarning remissiya davrida arterial qon bosimi 160/95 mm simob ustuniga teng yoki undan yuqori bo‘lganda, proteinuriya 2–3 g/l gacha yoki undan ortiq bo‘lganda, buyrak yetishmovchiligining klinik belgilari mavjud bo‘lganda yoxud qondagi kreatinin miqdori 150–200 mkmol/l.dan yuqori bo‘lganda, nomzodlarga ishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

156. Buyrakdan yakka tosh chiqqanida, jarrohlik yo‘li bilan tosh olinganda, konkrementlarni ko‘chishi yoki boshqa sabablarga ko‘ra buyrak sanchig‘i paydo bo‘lganda, davolanib, to‘liq sog‘aygandan so‘ng, nomzodlarga navbatdan tashqari tibbiy ko‘rik o‘tkaziladi.

Tibbiy ko‘rik va tekshiruvlar natijalarining me’yordaligida, peshob va sutka davomida yig‘ilgan peshob tahlillari va boshqa tekshiruv natijalari normada bo‘lganda, peshob ekmasida mikroorganizmlarning yo‘qligida, konkrement turi ma’lum ekanligida, og‘riq sindromi bo‘lmaganda, buyraklar faoliyati yaxshi saqlanganligida tibbiy xulosa chiqariladi. Buyrakdagi tosh kasalligini residivida, cheklovlar qo‘llanib, nomzodlarga har 6 oyda urolog dispanser kuzatuvi doimiy muddatga belgilanadi.

Buyrak va peshob chiqarish yo‘llarda mikrolitlar aniqlanishi peshob tosh kasalligi tashxisini qo‘yishga asos bo‘lmaydi.

Buyrak va peshob yo‘llarida morfologik va funksional o‘zgarishlar bo‘lmasa, nomzodlar yaroqli deb topiladilar.

Asoratlarsiz ekstrakorporal litotripsiya va teri orqali litotomiyada, mehnatga yaroqsizlik varaqasi yopilgandan keyin nomzodlarning yaroqliligi aniqlanadi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Klinik koʻrinishlari boʻlmagan, ish qobiliyatini toʻsatdan yoʻqolishiga olib kelmaydigan buyrak kosachasi divertikulida yoki buyrak parenximasi yoki kista ichida joylashgan toshlarda ishga (oʻqishga) yaroqlilik individual tartibda aniqlanadi.

5-bob. Teri-tanosil kasalliklari

157. Nomzodlarda tegishli guvohnomada nazarda tutilgan kasbiy majburiyatlarni xavfsiz bajarishga monelik qiluvchi teri-tanosil kasalliklari mavjud boʻlmagan taqdirda, ularga ishga yoki oʻqishga yaroqlilik toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqariladi.

Surunkali, qaytalanuvchi ekzema mavjud boʻlganda, nomzodlar ishga yoki oʻqishga yaroqsiz deb topiladi.

Ekzemaning yengil shakllarida, terining zamburugʻli shikastlanishlari, parazitar kasalliklari, jumladan leyshmanioz va qoʻtir, piodermiyalar hamda boshqa teri-tanosil kasalliklarining oʻtkir davrida nomzodlar davolanishi shart.

158. Ixtioz va tangachali temiratkining joylashuvi chegaralangan yengil shakllarida, nomzodning umumiy ahvoli yaxshi boʻlgan taqdirda, ishga yoki oʻqishga yaroqlilik toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqariladi.

Teri va teri osti biriktiruvchi toʻqima kasalliklari badanda keng tarqalgan, davolash natijalari salbiy boʻlgan yoki kasallik surunkali ogʻir shaklda kechgan hollarda, barcha nomzodlarga ishga yoki oʻqishga yaroqsizlik toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqariladi.

Virusli gepatit va gemorragik bezgak oʻtkazilgandan keyin, mehnatga layoqatsizlik varaqasi yopilgach, organlar funksiyalari saqlangan, tekshiruvlar natijalari me’yor doirasida boʻlgan, sogʻliq holati tiklangan hamda tegishli mutaxassis shifokor xulosasi va prognozi ijobiy boʻlgan taqdirda, nomzodlarning ishga yoki oʻqishga yaroqliligi aniqlanadi.

159. OITS kasalligi tashxisi aniqlanganda, barcha nomzodlarga ishga yoki oʻqishga yaroqsizlik toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqariladi.

Jinsiy yoʻl bilan yuqadigan infeksiyalar hamda yuqumli teri kasalliklari aniqlanganda yoki ulardan gumon qilinganda, nomzodlar teri-tanosil kasalliklari dispanserida tekshiruvdan oʻtishi va davolanishi shart.

Tashxis tasdiqlangan, kasallik toʻliq davolanganda, tekshiruvlar natijalari norma doirasida boʻlgan taqdirda, dermatovenerolog xulosasi hamda prognozi asosida ishga yoki oʻqishga yaroqlilik aniqlanadi.

6-bob. Ginekologik kasalliklar va homiladorlik

160. Funksional buzilishlar va ogʻriq sindromi bilan kechuvchi anatomik nuqsonlar hamda asoratlar bilan namoyon boʻladigan surunkali ginekologik kasalliklarda, yalligʻlanish jarayoni yil davomida uch martadan ortiq residiv qilganda, qin devori va bachadonning III darajali pastga tushishida, siydik-tanosil va ichak-tanosil oqma yaralari mavjud boʻlganda, orqa chiqaruv yoʻli sfinkteri funksiyasining buzilishi bilan kechuvchi chot yirtilishlarida, bachadonning notoʻgʻri joylashuvi yoki yetilmaganligi holatlarida, shuningdek ikki shoxli bachadonda bachadondan qon ketishi va ogʻriq kabi funksional buzilishlar mavjud boʻlsa, barcha nomzodlarga ishga yoki oʻqishga yaroqsizlik toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqariladi.

Surunkali ginekologik kasalliklarning oʻtkir davrida nomzodlar davolanishi shart.

Davolash natijalari ijobiy boʻlib, sogʻayish holati tasdiqlanganda, ishga ruxsat etiladi hamda remissiyaning turgʻunligini aniqlash maqsadida ikki hayz sikli davomida ginekolog kuzatuvi belgilanadi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

161. Kichik chanoq sohasida og‘riq sindromisiz kechuvchi chandiqli bitishmalar mavjud bo‘lganda, shuningdek funksional buzilishlarsiz bachadon, tuxumdon va fallopiy naylarining tug‘ma mavjud emasligi, qin atreziyasi hamda bepushtlik holatlarida, nomzodlarga ishga yoki o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarilmaydi.

Bachadon bo‘yni va qin kasalliklarida (endotservitsit, eroziya, ektropion eroziyasi, trixomonad kolpiti va trixomoniazda) nomzodlar uch haftagacha muddatga davolanish uchun ishdan yoki o‘qishdan chetlatiladi.

Funksional buzilishlarsiz qin devori va bachadonning I–II darajali pastga tushishida aviatsiya xodimlari ishga yoki o‘qishga yaroqli deb topiladi hamda ularga ginekologning dispanser kuzatuvi belgilanadi.

Siydik-tanosil va ichak-tanosil oqma yaralarida yaroqlilik masalasi faqat jarrohlik usulida davolash ijobiy natija bergan taqdirda ko‘rib chiqiladi.

Ayollar jinsiy organlarida o‘tkazilgan, asoratlarsiz kechgan va organlar funksiyalarining buzilishi bilan kechmagan jarrohlik operatsiyalaridan keyin, laparotomiyadan so‘ng 2 oy o‘tgach, laparoskopik operatsiyalardan keyin 4 haftadan 6 haftagacha muddat o‘tgach, total gisterektomiyadan keyin esa 6 oy o‘tgach ishga qayta tiklanish masalasi ko‘rib chiqiladi.

Mazkur hollarda postovariektomik, klimakterik va predmenstrual sindromlarning, ruhiy-emotsional buzilishlar hamda vegetativ disfunksiyaning mavjudligi va ularning ifodalanish darajasi inobatga olingan holda tibbiy xulosa chiqariladi.

Ayollar jinsiy organlarida 5 sm.dan katta kistasimon o‘smalar mavjud bo‘lganda, aviatsiya xodimlari jarrohlik usulida davolanish uchun uchish ishidan chetlatiladi.

Davolash natijasi ijobiy bo‘lgan taqdirda ginekolog va jarroh xulosasi asosida yaroqlilik aniqlanadi.

162. Simptomlarsiz, klinik ko‘rinishlari va funksional buzilishlar bo‘lmagan kichik hajmdagi bachadon miomasida, endometriozda, 5 sm.dan katta bo‘lmagan endometriy va follikullyar kistalarda aviatsiya xodimlari HHB ishiga yaroqli deb hisoblanadi.

Tuxumdonlar disfunksiyasida, aviatsiya xodimlari ishdan chetlatilmagan holda tekshiruvlardan o‘tishlari va davolanishlari mumkin, endokrinolog va ginekolog-endokrinolog maslahatlari va kasallik prognozini hisobga olib aviatsiya xodimlariga tibbiy xulosa chiqariladi.

Bachadondan disfunksional qon ketishida aviatsiya xodimlari davolanishi shart.

Birlamchi algomenoreya va dismenoreyada klinik belgilarning ifodalanish darajasi, ularning davomiyligi, o‘z funksional majburiyatlarini yetarli darajada bajara olishi va boshqalarni hisobga olib, ginekolog maslahatiga ko‘ra, aviatsiya xodimlariga individual tartibda tibbiy xulosa chiqariladi.

Ikkilamchi dismenoreyada, har tomonlama o‘tkazilgan tekshiruv natijalari, mutaxassis maslahati va kasallik prognozini hisobga olib aviatsiya xodimlarining yaroqliligi aniqlanadi.

Hayz ko‘rish davrida aviatsiya xodimlari tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilmaydi.

163. Bachadon miomasi 12 haftadan ortiq hajmga yetganda, mioma shilliq ostida joylashganda, tugunning sentripetal o‘sishi yoki qin sohasida joylashuvi aniqlanganda, shuningdek bachadondan qon ketish, tugunda modda almashinuvining buzilishi, ikkilamchi anemiya, yondosh organlar funksiyalarining buzilishi, siydik ajralishining obstruksiyasi yoki o‘tkir siydik tutilishi xavfi mavjud bo‘lgan hollarda, klinik ko‘rinishlaridan qat’i nazar, aviatsiya xodimlari jarrohlik usulida operativ davolanishga yuboriladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Davolash natijalari ijobiy bo‘lganda, organlar funksiyalari saqlanganda, tegishli tekshiruvlar natijalari qoniqarli bo‘lgan taqdirda, ginekolog va jarroh xulosasi hamda prognozi asosida tibbiy xulosa chiqariladi.

164. Ichki endometriozda klinik belgilar mavjud bo‘lganda hamda anemiya rivojlanganda, ishga yoki o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Og‘riqsiz, simptomlarsiz yoki kam ifodalangan simptomlar bilan kechuvchi tashqi genital endometriozda ishga yoki o‘qishga yaroqlilik individual tartibda aniqlanadi.

Tuxumdonlarning funksional kistalari residivga moyil shaklda kechganda, shuningdek follikulyar yoki lyutein kistalar bir yil davomida 2 martadan ortiq paydo bo‘lganda, ishga yoki o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Bachadon bo‘ynining tug‘ma eroziyasi, ektropioni yoki ektopiyasi ishdan yoki o‘qishdan chetlatish uchun asos bo‘lmaydi.

Bachadon bo‘ynining IA darajali intraepitelial raki aniqlanganda, organni saqlovchi operatsiyadan keyin, onkolog xulosasi va prognozi, shuningdek tekshiruv natijalarining ijobiyligi inobatga olingan holda, aviatsiya xodimlariga HHB ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

165. Xavf-xatarga mayl bo‘lmagan asoratlarsiz normal homiladorlikda homiladorlikning 34 haftasigacha aviatsiya xodimlari HHB ishiga yaroqli hisoblanadi.

Homiladorlik sababli ishdan chetlatish va tug‘ruqdan so‘ng ishga ruxsat berish, akusher-ginekolog xulosasiga ko‘ra jarroh tomonidan amalga oshiriladi.

Asoratlari bo‘lmagan tug‘ruqdan keyingi davrda va to‘liq sog‘ligi tiklangandan keyin tug‘ruqdan 4–6 haftadan keyin ishga tiklanish masalasi ko‘rib chiqilishi mumkin.

Sun’iy abortda (homilani vakuum yordamida yoki dilatatsiya yo‘li bilan chiqarib tashlash) va kyuretajda, 2 haftadan so‘ng, operatsiya asoratlari bo‘lmaganda va umumiy sog‘ligi me’yordaligida, homiladorlik muddati bilan bog‘liq asoratlar (qon ketishi, kichik tos organlarini yallig‘lanishi, peritonit va septik holatlar) mavjudligini yoki paydo bo‘lish xavfini hisobga olib, akusher-ginekolog xulosasi va prognozi asosida, jarroh tomonidan ishga (o‘qishga) ruxsat beriladi.

Istalgan homiladorlikda vaqtidan ilgari bolani tushishida, nomzodning abortdan keyingi ruhiy holatini hisobga olib yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

7-bob. Oftalmologik kasalliklar

166. Nomzodlarda guvohnoma va malaka belgilari bilan nazarda tutilgan huquqlarni amalga oshirishga monelik qiluvchi tug‘ma yoki orttirilgan nuqsonlar, anomaliyalar, o‘tkir yoki surunkali kasalliklar, ko‘z va uning yordamchi apparati shikastlanishlari, shuningdek ularda o‘tkazilgan jarrohlik operatsiyalaridan keyingi asoratlar hamda ko‘rish funksiyasi buzilishlari mavjud bo‘lmasligi kerak.

Nomzodlarning ko‘rish maydoni, ko‘z ichki bosimi, binokulyar ko‘rish funksiyasi va rang ajratish qobiliyati norma doirasida bo‘lishi yoki kasbiy majburiyatlarni xavfsiz bajarish uchun yetarli darajada saqlangan bo‘lishi shart.

Nomzodlar ko‘zda har qanday jarrohlik usulida davolanishdan oldin, operatsiyadan keyingi ehtimoliy asoratlar, HHB ishiga yaroqsizlikka olib kelishi mumkin bo‘lgan xavf omillari hamda HHB ishiga qayta tiklanish muddatlari to‘g‘risida oftalmolog bilan maslahatdan o‘tishi lozim.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

167. Koʻzning himoya funksiyasini yomonlashtiruvchi qovoqlar funksiyasi buzilishlari, qovoqlarning oʻzaro yoki koʻz olmasi bilan bitishib qolishi, koʻrish maydonining buzilishiga olib keluvchi ptoz, qovoqlar va koʻz muskullarining falaji (ektropion va entropion), qovoqlar funksiyasini buzuvchi katta hajmdagi tarqalgan oʻsmalar, koʻrish funksiyasining buzilishiga sabab boʻluvchi residivlovchi keratitlar, shox pardaning yaralari, degenerativ oʻzgarishlari, chandiqlari, yalligʻlanishlari va vaskulyarizatsiyasi, funksional buzilishlar bilan kechuvchi turli etiologiyali keratitlar, keratokonus, koʻzning rangdor pardasi yoki tomir pardasining kolobomasi, asoratlar bilan kechuvchi uveitlar, koʻzning doimiy yoshlanishiga sabab boʻluvchi koʻz yoshi nuqtalarining notoʻgʻri joylashuvi, koʻz yoshi yoʻllarining torayishi yoki obstruksiyasi, koʻz yoshi bezining yalligʻlanishi, uning jarohatli shikastlanishlari, pigmentli retinopatiyalar bilan birga kechuvchi toʻr pardaning barcha turdagi tapetoretinal degeneratsiyasi, toʻr pardaning koʻchishi yoki retinoshizis, har qanday sababli sariq dogʻ sohasidagi buzilishlar, har qanday etiologiyali retrobulbar nevrit, patologik nistagm, koʻrish nervi atrofiyasi, koʻz qorachigʻining normativ reflekslari yoʻqolishi, koʻrish oʻtkirligi yoki koʻrish maydoniga salbiy ta’sir koʻrsatuvchi hamda koʻrlikka olib keluvchi katarakta, bir tomonlama yoki ikki tomonlama afakiya, koʻz gavharining toʻliq yoki qisman siljishi, koʻz va uning yordamchi apparati hamda koʻz kosasining xavfli oʻsmalari, koʻz olmasi harakatini qiyinlashtiruvchi yoki koʻz kosasining burun yondosh boʻshliqlari yoxud bosh chanogʻi boʻshligʻi bilan anatomik bogʻliqligini buzuvchi koʻz kosasi sinishlari, koʻz ichidagi yot jismlar, tungi koʻrlik (niktalopiya) hamda nomzodning oʻz kasbiy vazifa va majburiyatlarini xavfsiz bajarishiga monelik qiluvchi koʻrish tizimi buzilishiga olib keluvchi boshqa har qanday jarohatlar va kasalliklar mavjud boʻlganda, nomzodlarga yaroqsizlik toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqariladi.

Koʻz kasalliklari va jarohatlari davolanishining natijalari ijobiy boʻlganda, atroflicha hamda puxta oʻtkazilgan oftalmologik tekshiruvlar natijalari ijobiy deb topilganda, koʻrish funksiyasi yetarli darajada saqlanganda, koʻrish maydoni buzilishlari aniqlanmaganda va koʻz yoshi apparati funksiyasi tiklangan taqdirda, HHB ishiga yaroqlilik aniqlanadi.

168. Oddiy blefaritlar, koʻrish funksiyasi buzilishi bilan kechmaydigan tugʻma ptoz, nevrolog maslahati olinganidan keyin, kichik hajmdagi, simptomlarsiz va rivojlanishga moyil boʻlmagan xavfsiz oʻsmalar, qovoqlardagi klinik ahamiyatga ega boʻlmagan chandiqli oʻzgarishlar, kuchli ifodalanmagan konyunktivitlar, shuningdek residivlari kuzatilmaydigan va koʻrish organlari funksiyalarini buzmaydigan koʻz kasalliklarida yaroqsizlik toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqarilmaydi.

Mazkur kasalliklar davolanib, davolash natijalari ijobiy boʻlgan taqdirda, ishga yoki oʻqishga ruxsat beriladi.

169. Qovoqlardagi oʻsmalar jarrohlik usulida davolangandan keyin asoratlar, metastazlar va oʻsmaning residivi aniqlanmaganda, shuningdek onkolog xulosasi hamda prognozi ijobiy boʻlgan taqdirda, nomzodlarga HHB ishiga yaroqlilik toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqariladi.

Uveitlar, uzoq davom etuvchi residivlovchi iridotsiklitlar, keratitlar, xorioretinitlar, nevritlar hamda koʻz olmasi jarohatlarida nomzodlar davolanishi shart.

Toʻliq klinik sogʻayishdan keyin har tomonlama oʻtkazilgan maxsus tekshiruvlar natijalari ijobiy boʻlganda, koʻrish tizimi funksiyalari yetarli darajada saqlangan taqdirda, mutaxassis xulosasi va prognozi inobatga olingan holda, HHB ishiga ruxsat berish toʻgʻrisida tibbiy xulosa chiqariladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

170. Markaziy seroz retinopatiyada hamda to‘r pardaning ajralishi yoki yorilishi holatlarida nomzodlarga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Kasallik davolangandan keyin ko‘rish funksiyasi kasbiy majburiyatlarni bajarish uchun yetarli darajada saqlanganda, tekshiruv natijalari ijobiy bo‘lganda hamda oftalmolog xulosasi va prognozi ijobiy deb topilgan taqdirda, HHB ishiga yaroqlilik aniqlanadi.

To‘r pardaning ajralishi yoki periferik yorilishi lazer usulida ijobiy davolanganda, ko‘rish funksiyasi va periferik ko‘rish maydoni kasbiy majburiyatlarni bajarish uchun yetarli darajada saqlanganda, tekshiruv natijalari ijobiy bo‘lganda hamda oftalmolog xulosasi va prognozi asosli deb topilgan taqdirda, cheklovlar qo‘llangan holda HHB ishiga yaroqlilik aniqlanadi.

171. Ko‘rish funksiyasi yetarlicha saqlangan kuchayib bormaydigan boshlang‘ich qarilik kataraktasida, ko‘z gavhari xiralashishini chegaralanganligida, makulodistrofiyada, ko‘rish nervining boshlang‘ich kuchayib bormaydigan atrofiyasida, shishasimon tananing shikastlanishida nomzodlarga individual tartibda HHB ishiga yaroqlilik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

Ularga oftalmologning dispanser kuzatuvi belgilanadi.

172. Monofokal intraokulyar linza implantatsiyasidan keyin davolanishdan 6 haftadan 8 haftagacha muddat o‘tgach, operatsiya asoratlari aniqlanmaganda, ko‘rish funksiyasi tiklanganda, dori vositalari bilan davolash to‘liq yakunlanganda hamda har tomonlama o‘tkazilgan tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lgan taqdirda, individual tartibda uchish ishiga yaroqlilik aniqlanadi.

Aviatsiya faoliyatida bir yoki ikki ko‘zga faqat monofokal intraokulyar linza implantatsiyasi o‘tkazilgan hollarda HHB ishiga yaroqlilik aniqlanishi mumkin (multifokal sun’iy ko‘z gavhari implantatsiyasi bundan mustasno).

173. Lazer qo‘llanilgan jarrohlik amaliyotlaridan keyin (to‘r pardaning lazer koagulyatsiyasida) 2 hafta o‘tgach, lazerli in situ keratomilezdan keyin esa 4 haftadan 6 haftagacha muddat o‘tgach, ko‘rish funksiyasining saqlanganlik darajasi inobatga olingan holda yaroqlilik aniqlanadi.

174. Refraksiya jarrohlik usullari bilan davolangandan keyin operatsiyadan keyingi asoratlar aniqlanmaganda, ko‘rish funksiyasi va ko‘rish o‘tkirligi kasbiy majburiyatlarni bajarish uchun yetarli darajada saqlanganda, muguz parda xiralashuvi kuzatilmaganda, fotopsiya, oreol effekti, siljib yuruvchi tasvirlar va boshqa shunga o‘xshash shikoyatlar mavjud bo‘lmaganda, qorong‘ilikka adaptatsiya qoniqarli bo‘lgan hamda tekshiruvlar natijalari ijobiy deb topilgan taqdirda, oftalmolog-jarroh xulosasi va prognozi asosida individual tartibda yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

FA ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan nomzodlarda refraksiya jarrohlik usullari qo‘llanilgan hollarda, faqat operatsiyadan oldingi refraksiya ko‘rsatkichlari sfera bo‘yicha +4,0 D dan va -3,0 D dan, silindr bo‘yicha esa ±1,5 D dan oshmagan taqdirdagina o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

175. Refraksion jarrohlik usullari qo‘llanilganda, qo‘llanilgan usulning xususiyati, ko‘z funksiyalarining tiklanish darajasi, residiv ehtimoli, prognoz hamda boshqa tibbiy ahamiyatga ega omillar inobatga olingan holda, ishga qayta tiklanish muddati individual tartibda 3 oydan 6 oygacha etib belgilanadi.

Mazkur shaxslarga oftalmologning har 6 oyda o‘tkaziladigan dispanser kuzatuvi belgilanadi va u doimiy muddatga amal qiladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

176. Ko‘z olmasining yallig‘lanuvchi-degenerativ kasalliklarida hamda ko‘z tomirlari funksiyalarining buzilishlarida nomzodlarga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Ko‘z gavhari kapsulasidagi mayda bir yoki ikki pigment dog‘lari, shishasimon tanadagi arteriya qoldiqlari, to‘r pardadagi mielin tolalari kabi tug‘ma xususiyatlarda FA ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan nomzodlar yaroqli deb topiladi.

177. Har navbatdagi tibbiy ko‘rikdan o‘tishda nomzodlarda qorong‘ilikka adaptatsiya tekshiriladi.

Organik kasallik sababli qorong‘ilikka adaptatsiyaning funksional pasayishi aniqlanganda, qayta tekshiruv o‘tkaziladi.

Bunda ko‘rsatkichlar qo‘llanilgan uskunaning yo‘riqnomasida belgilangan normativ talablarga mos bo‘lishi kerak.

Ko‘rsatkichlar norma doirasida bo‘lmaganda, asosiy kasallik aniqlanadi, davolanadi va davolash natijalari ijobiy bo‘lgan taqdirda yaroqlilik aniqlanadi.

Ko‘z gavhari va ko‘z rangdor pardasining kolobomalari, polikoriya, tug‘ma katarakta hamda ko‘rish nervi diski kasalliklari mavjud bo‘lganda, FA ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan nomzodlarga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

178. Shikoyatlar hamda tekshiruv natijalari asosida glaukoma gumoni yuzaga kelganda, ixtisoslashtirilgan tibbiyot muassasasida nomzodning tashxisi va kasallik prognozi aniqlanadi.

Impression tonometriyada Fridenvald jadvali bo‘yicha ko‘z ichki bosimining turg‘un ko‘rsatkichi 24 mm simob ustuniga teng yoki undan yuqori bo‘lganda yoxud ikkala ko‘z ichki bosimi ko‘rsatkichlari orasidagi farq 5 mm simob ustuniga teng bo‘lganda, nomzodlarga gonioskopiya, fundoskopiya, ko‘rish maydonini aniqlash va boshqa qo‘shimcha tekshiruvlar o‘tkaziladi hamda davolash belgilanadi.

Ko‘rish nervi shikastlanmagan va ko‘rish maydoni saqlangan ko‘z ichki gipertenziyasida ko‘z ichki bosimining yaxshi sifatli me’yordan yuqori holatida, shuningdek ko‘z ichki bosimi kompensatsiyalangan birlamchi ochiq burchakli glaukomada, ko‘z ichki bosimi norma darajasiga keltirilgan paytdan boshlab aviatsiya xodimlari yaroqli deb topiladi hamda ularga doimiy mahalliy gipotenziv terapiya qo‘llaniladi.

Mazkur tashxis birinchi marta aniqlanganda, tibbiy xulosa vakolatli organning tibbiy ekspertlari tomonidan chiqariladi.

179. Glaukoma tashxisi aniqlanganda, uning turi va klinik kechishidan kelib chiqib davolash belgilanadi.

Glaukoma asosiy kasallikning ikkilamchi ko‘rinishi bo‘lsa, asosiy kasallik davolanadi.

Dori vositalari yoki lazer usuli bilan davolash ijobiy natija berganda, klinik sog‘ayish holati kuzatilganda, ko‘rish o‘tkirligi va ko‘rish maydoni norma doirasida bo‘lganda, parasentral skotoma ko‘rinishidagi nerv tolalari tutami nuqsonlari aniqlanmaganda hamda ko‘z funksiyalarini tekshirish natijalari ijobiy bo‘lgan taqdirda, aviatsiya xodimining yaroqliligi aniqlanadi.

Glaukoma mavjud bo‘lgan aviatsiya xodimlarida ko‘z ichki bosimining tonometriyasi, ko‘rish o‘tkirligi va ko‘rish maydoni ko‘rsatkichlari muntazam ravishda tekshiriladi, shuningdek ko‘rish nervi diskining holati hamda qabul qilinayotgan dori vositalarining nojo‘ya ta’sirlari baholab boriladi.

Trabekulektomiya yoki drenaj tizimlari qo‘llanilgan antiglaukomatoz jarrohlik amaliyotidan keyin uch oy o‘tgach, lazer yoki boshqa usullar qo‘llanilgan hollarda esa ko‘rish

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

organi funksiyalari to‘liq tiklangan taqdirda, oftalmolog-jarrohning operatsiya va o‘tkazilgan tekshiruvlar haqidagi tibbiy ma’lumotlari, xulosasi hamda prognozi asosida aviatsiya xodimining yaroqliligi aniqlanadi.

180. Barcha nomzodlar o‘z kasbiy majburiyatlarini xavfsiz bajarishlari uchun ranglarni to‘g‘ri ajrata olish qobiliyatiga ega bo‘lishi shart.

Rang ajratish buzilishlari mavjud bo‘lganda, ularning turi, shakli va darajasiga ko‘ra qabul qilingan tasnif asosida tashxis qo‘yiladi.

Rang ajratish qobiliyati Ishixara rangli testi, Rabkinning polixromatik jadvallari, FALANT-testi hamda anomaloskop yordamidagi kompyuter tekshiruvlari orqali aniqlanadi.

Tibbiy tekshiruv natijalari qo‘llanilgan usul yoki uskkunaning yo‘riqnomasida nazarda tutilgan tegishli normlarga muvofiq maxsus blankalarda baholanadi.

Dori vositalarini qabul qilish yoki kasallik asoratlari oqibatida yuzaga kelgan orttirilgan rang ko‘rish buzilishlarida, ko‘rish funksiyasi saqlanganda, ko‘rish organining shikastlanish darajasi, davolash va tekshiruv natijalari hamda kasallik prognozi inobatga olingan taqdirda, individual tartibda cheklovlar qo‘llangan holda HHB ishiga yaroqlilik aniqlanadi.

Bunda tashxisni aniqlashtirish uchun anomaloskop yoki FALANT-testi yordamida tekshiruv o‘tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Nomzodlarda “C” va “B” turdagi deyteranomaliya, shuningdek “C” va “B” turdagi protanomaliya kabi rang ajratish zaifliklari mavjudligi ularga tibbiy xulosa berishni rad etish uchun asos bo‘lmaydi.

Nomzodlarda anomal trixromaziyaning “A” turi (protanomaliya, deyteranomaliya va tritanomaliya), shuningdek dixromaziya, protanopiya, deyteranopiya va tritanopiya, yoxud monoxromaziya kabi rang ajratish buzilishlari mavjud bo‘lganda, ularga ishga yoki o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

181. Nomzodlar o‘z kasbiy majburiyatlarini xavfsiz bajarishlari uchun ularda binokulyar ko‘rish funksiyasi va ko‘rish maydoni buzilishlari, shuningdek diplopiya mavjud bo‘lmasligi kerak.

Ko‘z olmasi muskullari muvozanatini hamda binokulyar ko‘rishni baholashda foriya va tropiyani farqlash, ko‘rish markazidan og‘ish darajasini, ortoforiya va boshqa holatlarni aniqlash maqsadida Meddoks tayoqchasi bilan tekshiruv, tegishli korreksiyalovchi ko‘zoynak yoki kontakt linzalari yordamida ko‘zni yopish testi, ko‘zni navbatma-navbat yopish, ko‘zni yopib-ochish sinamalari, sinoptofor hamda Uordning to‘rt nuqtali testi qo‘llaniladi.

Zaruratga ko‘ra mutaxassis oftalmolog tomonidan fuziya amplitudasi aniqlanadi va ortoptik tekshiruvlar o‘tkaziladi.

182. Normada manfiy fuzion zaxiralar 5 gradusdan 8 gradusgacha, musbat fuzion zaxiralar esa 15 gradusdan 20 gradusgacha bo‘lishi kerak.

Ezoforiya 10 prizmatik dioptriydan (bundan buyon matnda D deb yuritiladi), ekzoforiya 5 Ddan, giperforiya yoki gipoforiya 2 Ddan, sikloforiya esa 1 Ddan yuqori bo‘lgan normadan og‘ishlar aniqlanganda, nomzodlar tegishli mutaxassis oftalmolog tekshiruvidan o‘tkazilishi shart.

183. Nomzodlarda diplopiya aniqlanganda, ular uchish ishidan chetlatiladi hamda diplopiyaning sabablari, jumladan ortiqcha zo‘riqish, charchoq, stress, sedativ dori vositalarini qabul qilish, kasalliklar va boshqa holatlar aniqlanadi hamda tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Monokulyar diplopiya aniqlanganda, uning kelib chiqish sababidan qat’i nazar, barcha nomzodlarga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Yuqoriga va chetga qaraganda nigohning eng chekka zonasida diplopiya yuzaga kelganda, cheklovlar qo‘llangan holda kasbiy yaroqlilik aniqlanadi.

Ko‘z mushaklari muvozanatini va binokulyar ko‘rishni tekshirishda kam ifodalangan o‘zgarishlar aniqlangan hollarda, nomzodlar uchish ishiga yaroqli deb topiladi.

Ko‘z soqqasi falaji yoki turg‘un parezida, qovoq muskullarini falajida, paralitik va birgalikdagi g‘ilaylikda, 10 gradusdan oshgan hamkor g‘ilaylikda, ko‘z soqqalarining yaqqol ifodalangan ixtiyorsiz tebranuvchi harakatlari borligida, ko‘z kosasini jarohatida ko‘z muskullarini shikastlanishi sababli yuzaga kelgan turg‘un diplopiyada, fuzion zaxiralari pasaygan geteroforiyada, geterotropiyada, noturg‘un (o‘zgaruvchanlik) fiksatsiya sindromida, binokulyar ko‘rishni buzilishida nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

6 metr masofada - vertikal bo‘yicha 2,0 prizmatik D (1 gradus), ezoforiyada 10 prizmatik D (5 gradus), ekzoforiyada 8,0 prizmatik D (4 gradus) va 33 sm. masofada - vertikal bo‘yicha 1,0 prizmatik D (0 gradus), ezoforiyada 8 prizmatik D (4 gradus), ekzoforiyada 12 prizmatik D (6 gradus)dan yuqori ko‘rsatkichlarda nomzodlarga uchish ishiga (o‘qishga) yaroqsizlik haqida tibbiy xulosa chiqariladi.

G‘ilaylik jarrohlik usuli bilan davolanganda, operatsiyadan 3 oydan keyin, binokulyar ko‘rish funksiyasini va ko‘rish maydonining buzilishlari bo‘lmaganda, diplopiya mavjud emasligida, oftalmologik tekshiruvlar natijalari ijobiyligida oftalmolog-jarroh xulosasi va prognozi asosida kasbiga yaroqliligi aniqlanadi.

Ko‘zni chetga burishda nistagm bor bo‘lganda, nevrolog va otorinolaringolog maslahati olinadi, binokulyar ko‘rish buzilmaganda tibbiy xulosa asosiy kasallik bo‘yicha chiqariladi.

Nomzodlardagi g‘ilaylikni (geteroforiya) aniqlash uchun, davriy tibbiy ko‘riklarda sinoptofor yordamida ko‘zlarning birgalikdagi harakatlarini tekshiruvlari o‘tkaziladi. Geteroforiyani turi, darajasi va fuzion zaxiralar aniqlanadi, fuzion zaxiralarni kamayishida davolash mashqlari o‘tkaziladi.

184. Ko‘z soqqasi falaji yoki turg‘un parezida, qovoq muskullari falajida, paralitik yoki birgalikdagi g‘ilaylikda, 10 gradusdan ortiq hamkor g‘ilaylikda, ko‘z soqqalarining yaqqol ifodalangan ixtiyorsiz tebranuvchi harakatlari mavjud bo‘lganda, ko‘z kosasi jarohati oqibatida ko‘z muskullarining shikastlanishi sababli yuzaga kelgan turg‘un diplopiyada, fuzion zaxiralari pasaygan geteroforiyada, geterotropiyada, noturg‘un fiksatsiya sindromida hamda binokulyar ko‘rish buzilishlarida nomzodlarga uchish ishiga yoki o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Olti metr masofada vertikal bo‘yicha 2,0 prizmatik Ddan, 1 gradusdan, ezoforiyada 10 prizmatik Ddan, ya’ni 5 gradusdan, ekzoforiyada 8,0 prizmatik Ddan, ya’ni 4 gradusdan, shuningdek 33 sm masofada vertikal bo‘yicha 1,0 prizmatik Ddan, ezoforiyada 8 prizmatik Ddan va ekzoforiyada 12 prizmatik Ddan yuqori ko‘rsatkichlar aniqlanganda, nomzodlarga uchish ishiga yoki o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

G‘ilaylik jarrohlik usulida davolanganda, operatsiyadan keyin uch oy o‘tgach, binokulyar ko‘rish funksiyasi va ko‘rish maydoni buzilishlari aniqlanmagan, diplopiya mavjud bo‘lmaganda hamda oftalmologik tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lgan taqdirda, oftalmolog-jarroh xulosasi va prognozi asosida kasbiy yaroqlilik aniqlanadi.

Ko‘zni chetga burishda nistagm aniqlanganda, nevrolog va otorinolaringolog maslahati olinadi.

Binokulyar ko‘rish buzilmagan hollarda, tibbiy xulosa asosiy kasallik bo‘yicha chiqariladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Nomzodlardagi g‘ilaylikni, shu jumladan geteroforiyani aniqlash maqsadida, davriy tibbiy ko‘riklarda sinoptofor yordamida ko‘zlarning birgalikdagi harakatlari tekshiriladi.

Bunda geteroforiyaning turi va darajasi, shuningdek fuzion zaxiralar aniqlanadi. Fuzion zaxiralar pasayganda, davolovchi mashqlar belgilanadi.

185. Ko‘rish o‘tkirligi yoritilish darajasi belgilangan talablarga javob beradigan xonada 5–6 metr masofadan turib, korreksiyasiz va korreksiya bilan tekshiriladi hamda haqiqiy ko‘rish o‘tkirligi ko‘rsatiladi.

3-klass nomzodlarida korreksiyasiz ko‘rish o‘tkirligiga nisbatan cheklovlar qo‘yilmaydi.

Har bir ko‘zda korreksiya bilan ko‘rish o‘tkirligi 0,8 va undan yuqori bo‘lgan hamda ko‘rish maydoni norma doirasida saqlangan taqdirda, ularga HHB ishiga yoki o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

FA ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan nomzodlarda, abituriyentlarda, korreksiyasiz ko‘rish o‘tkirligi 0,1 dan kam bo‘lmasligi kerak.

Bunda korreksiyalovchi kontakt linzalari yoki ko‘zoynaklar yordamida ko‘rish o‘tkirligi 0,8 va undan yuqori darajaga yetkazilishi hamda ko‘rish maydoni norma doirasida bo‘lishi shart.

Binokulyar ko‘rish o‘tkirligi korreksiyasiz, shu jumladan qorong‘ilikka adaptatsiya sharoitida ham, 0,7 va undan yuqori bo‘lganda, uzoq masofaga ko‘rishni korreksiyalash uchun ko‘zoynak yoki kontakt linzalari talab etilmaydi.

Refraksiya xatolari tufayli korreksiyasiz ko‘rish o‘tkirligi ikki ko‘zda 0,7 dan past bo‘lganda yoki astenopiya simptomlari paydo bo‘lganda, refraksiya korreksiya qilinadi.

186. Nomzod 5 raqamli yoki unga ekvivalent jadvalni 30–50 sm masofadan, bu ko‘rish o‘tkirligi 0,6 ga to‘g‘ri keladi, shuningdek 14 raqamli, 8 raqamli yoki ularga ekvivalent jadvalni 100 sm masofadan, bu ko‘rish o‘tkirligi 0,3 ga to‘g‘ri kelishi hamda nomzodlar o‘qiy olishi kerak.

Zaruratga ko‘ra ko‘rish korreksiyasi qo‘llaniladi.

Nomzodlarda har bir ko‘zning korreksiyasiz ko‘rish o‘tkirligi 0,7 va undan yuqori bo‘lganda, shuningdek bir ko‘zda korreksiyasiz ko‘rish o‘tkirligi 0,7 dan past bo‘lsada, binokulyar ko‘rish o‘tkirligi, shu jumladan qorong‘ilikka adaptatsiya sharoitida ham korreksiyasiz 1,0 ga yetganda, uzoq masofaga ko‘rishni korreksiyalash talab etilmaydi.

Nomzodlarda turg‘un binokulyar ko‘rish mavjud bo‘lishi shart.

Nomzodlarda optimal ko‘rish funksiyasini ta’minlaydigan, qulay, aviatsiya faoliyatiga mos hamda umumiy foydalanish uchun yaroqli zaxira ko‘zoynak bo‘lishi shart.

Ular uzoq masofaga ko‘rishni ta’minlovchi, monofokal, rangsiz va qulay kontakt linzalardan foydalanishi lozim.

Refraksiya darajasi yetarli bo‘lmagan nomzodlar sindirish koeffitsiyenti yuqori bo‘lgan kontakt linzalari yoki ko‘zoynak linzalaridan foydalanishi kerak.

Ko‘rishni ta’minlash zarur bo‘lgan hollarda faqat bitta ko‘zoynakdan foydalaniladi.

Ko‘rish qobiliyati pasaygan va presbiopiya mavjud bo‘lgan nomzodlar korreksiyalovchi bifokal ko‘zoynaklar yoki kontakt linzalari bilan uchish ishlarini bajarishi hamda yonida zaxira ko‘zoynak to‘plamini olib yurishi shart.

Bunda VDL, VML, VNL va CCL cheklovlari qo‘llaniladi.

Nomzodlarda ko‘zoynaklar yoki linzalarning mavjudligi hamda ularning sifati har navbatdagi tibbiy ko‘riklarda nazorat qilinadi.

187. Yaqin masofaga ko‘rishni ta’minlovchi unifokal korreksiya, o‘qish uchun qo‘llaniladigan bir xil optik kuchga ega yaxlit linzali ko‘zoynaklardan foydalanish katta masofaga ko‘rish o‘tkirligini sezilarli darajada pasaytirishi sababli, ulardan foydalanishga ruxsat etilmaydi.

Nomzodlarda bir ko‘zda ko‘rishning patologik pasayishi, shu jumladan markaziy ko‘rishning pasayishi mavjud bo‘lganda, binokulyar ko‘rish saqlanganda, ikkinchi ko‘zning uzoq masofaga ko‘rish o‘tkirligi korreksiya bilan yoki korreksiyasiz 1,0 bo‘lgan, yaqin va o‘rta masofadagi ko‘rish o‘tkirligi yetarli darajada ta’minlanganda, asosiy kasallik oftalmologik tekshiruv natijalariga ko‘ra ijobiy baholanganda, refraksiya anomaliyasi mavjud shaxslarda esa ikkinchi ko‘zning ko‘rish o‘tkirligi korreksiya bilan yoki korreksiyasiz 0,6 dan past bo‘lmaganda hamda ikkinchi ko‘zda klinik ahamiyatga ega kasalliklar aniqlanmagan taqdirda, nomzodlarga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Miopiya 0,5 D darajasida, gipermetropiya 1,0 D darajasida, astigmatizm 0,5 D darajasida bo‘lib, ko‘rish o‘tkirligi korreksiyasiz 1,0 ni tashkil etgan hollarda, tibbiy hujjatlarda tashxis “sog‘lom” deb ko‘rsatiladi va “refraksiya” qatorida tegishli qayd VNL cheklovi bilan yoziladi.

Refraksiya ko‘rsatkichlari +5,0 D dan yuqori bo‘lmagan gipermetropiya, -6,0 D dan yuqori bo‘lmagan miopiya, 2,0 D dan yuqori bo‘lmagan astigmatizm hamda 2,0 D dan yuqori bo‘lmagan anizometropiya doirasida bo‘lib, optimal korreksiyaga erishilgan taqdirda, nomzodlarga tashxisda refraksiya turi va xatolik darajasi ko‘rsatilgan holda ishga yoki o‘qishga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Anizometropiya 2,0 D dan 3,0 D gacha bo‘lgan hollarda kontakt linzalar taqilishi shart.

Refraksiyaning klinik tekshiruvi retinoskop, avtomatik refraktometr yoki sikloplegik dori vositalari yordamida o‘tkaziladi.

FA ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan nomzodlarda, abituriyentlarda, refraksiya turi va darajasini aniqlash maqsadida sikloplegiya sharoitida, shu jumladan 1 foizli siklopentolat yoki 1 foizli atropin qo‘llanilgan holda tekshiruv o‘tkaziladi.

188. Presbiopiya darajasi hamda akkomodatsiya buzilishlari professional faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlash masofasi, 60–80 sm, inobatga olingan holda sferik linza kuchi asosida aniqlanadi.

Akkomodatsiya buzilishlari mavjud bo‘lganda, shuningdek presbiopiya darajasi 3,5 D dan yuqori bo‘lsa, ishga yoki o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Presbiopiyasi mavjud bo‘lganda va kontakt linzalardan foydalanuvchi nomzodlarga, zaruratga ko‘ra, linzalar ustidan o‘qish uchun mo‘ljallangan ko‘zoynaklardan foydalanishga ruxsat etiladi.

8-bob. Otorinolaringologiya

189. Nomzodlarda guvohnomasiga muvofiq kasbiy vazifalar va majburiyatlarni xavfsiz bajarishga to‘sqinlik qiluvchi quloq, tomoq, burun, og‘iz bo‘shlig‘i, tishlar hamda ular bilan bog‘liq a’zolarning anomaliyalari, kasalliklari, obstruksiyalari, shikastlanishlari, jarohatlari, disfunksiyalari, jarrohlik amaliyotlaridan keyingi asoratlari va organlar funksiyalarining buzilishlari mavjud bo‘lmasligi lozim.

190. Radioalmashuvni amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi yaqqol ifodalangan nutq buzilishlari hamda duduqlanish mavjud bo‘lganda, nomzodlar yaroqsiz deb topiladi.

Aniq va tushunarli nutqqa ega bo‘lgan, ayrim tovushlar talaffuzida nuqsonlari mavjud nomzodlar yaroqli deb topiladi.

Yechib qo‘yiladigan tish protezlari mavjud bo‘lganda, nutq funksiyasi protezlar yechilgan holda baholanadi.

Ko‘p sonli tishlarning yo‘qligi sababli chaynash funksiyasining kam ahamiyatli buzilishlari mavjud bo‘lganda, komissiyalararo davrda protezlash tavsiya etiladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Allergeni ma’lum bo‘lgan va uni bartaraf etish oson bo‘lgan pollinoz, rinokonyunktival sindrom kabi allergik holatlarda, allergolog xulosasi va prognozi asosida nomzodning yaroqliligi aniqlanadi.

LOR a’zolari funksiyalarining klinik ahamiyatga ega buzilishlari, jumladan nafas olish va nutq funksiyalarining buzilishlari bilan kechuvchi yuqori nafas yo‘llari, og‘iz bo‘shlig‘i va quloqlarning tug‘ma yoki orttirilgan turg‘un nuqsonlari, kasalliklari, jarrohlik amaliyotlaridan keyingi asoratlari, jarohatlari, ko‘p sonli tishlarning yo‘qligi hamda yuqori nafas yo‘llarining distrofik o‘zgarishlari mavjud bo‘lganda, nomzodlarga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

191. Burundan nafas olishni qiyinlashtiruvchi yoki to‘liq buzuvchi burun to‘sig‘i qiyshayishida, yuqori nafas yo‘llari shilliq qavatining distrofik o‘zgarishlarida, nafas olish va nutq funksiyalarining buzilishiga olib keluvchi burun chig‘anoqlari gipertrofiyasi, adenoidlar hamda boshqa shunga o‘xshash kasalliklarda, jarrohlik yoki boshqa davolash usullari qo‘llanilib, davolash natijalari ijobiy bo‘lgan va organlar funksiyalari tiklangan taqdirda, ishga yoki o‘qishga yaroqlilik aniqlanadi.

192. Burundan nafas olishni qiyinlashtiruvchi yoki burun orqali nafas olishning to‘liq buzilishiga olib keluvchi burun to‘sig‘i qiyshayishi, shuningdek nafas olish va nutq funksiyalarining buzilishiga sabab bo‘luvchi kasalliklar mavjud bo‘lganda, nomzodlarga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

193. Gaymor bo‘shliqlari shilliq qavatining qalinlashishi aniqlanganda, nomzodlar ishga yoki o‘qishga yaroqli deb topiladi.

194. Burun bo‘shlig‘i va yondosh bo‘shliqlarda o‘tkazilgan jarrohlik operatsiyalaridan keyin burundan nafas olish funksiyasi to‘liq tiklangan taqdirda, nomzodlarning yaroqliligi aniqlanadi.

Shamollash belgilari, jumladan yo‘tal, burun bitishi, burun yoki tomoqdan yiringli ajralma kelishi mavjud bo‘lganda, shuningdek nafas olish funksiyasining buzilishi bilan kechuvchi burun patologiyalarida nomzodlar davolanishi shart.

Jarrohlik usulida davolangan surunkali dekompensatsiyalangan tonzillitda, asoratlar mavjud bo‘lmagan taqdirda, nomzodlar ishga yoki o‘qishga yaroqli deb topiladi.

Surunkali kompensatsiyalangan tonzillitda nomzodlarga davolash-profilaktika tadbirlari o‘tkaziladi.

195. Yaxshi sifatli o‘smalarda (fibroma, polip va gemangioma), jarrohlik yoki boshqa davolash usullari ijobiy natija berganda, nafas olish va so‘zlash funksiyalari tiklanganda, shikoyatlar, og‘riq hamda bosh aylanishi kuzatilmagan va tibbiy tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lgan taqdirda, ishga yoki o‘qishga yaroqlilik aniqlanadi.

Rinoplastikadan keyin 2 hafta o‘tgach, burundan nafas olish funksiyasi to‘liq tiklangan hollarda, nomzodlar ishga yoki o‘qishga yaroqli deb topiladi.

Organlar funksiyalarining yaqqol buzilishlari bilan kechuvchi xavfli yoki xavfsiz o‘smalar mavjud bo‘lganda, ishga yoki o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Xavfli o‘smalar munosabati bilan davolanishdan keyin to‘liq sog‘ayish holati kuzatilganda, organlar funksiyalari tiklanganda, tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lganda hamda onkolog xulosasi va prognozi ijobiy deb topilgan taqdirda, uchish ishiga yaroqlilik aniqlanadi.

196. Quloq nog‘ora pardasining oddiy punksiyasi va oddiy mastoidektomiyadan keyin bosh aylanishi kuzatilmagan hamda eshitish o‘tkirligi saqlangan taqdirda, nomzodlar HHB ishiga yaroqli deb topiladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Radikal mastoidektomiyadan keyin monaural eshitish funksiyasining yo‘qolishi, infeksiya, bosh aylanishi hamda bosh chanog‘i ichida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan asoratlar inobatga olingan holda, to‘liq otologik tekshiruvdan so‘ng nomzodning HHB ishiga yaroqliligi aniqlanadi.

O‘rta quloq uzangichasida o‘tkazilgan jarrohlik operatsiyasidan keyin uch oy o‘tgach, tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lgan, yevstaxiy nayining o‘tkazuvchanligi saqlangan va bosh aylanishi kuzatilmagan taqdirda, nomzodga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Mazkur nomzodga otorinolaringologning dispanser kuzatuvi belgilanadi hamda o‘rta quloq ventilyatsiyasining buzilishiga olib keluvchi yuqori nafas yo‘llari infeksiyalarining profilaktikasi olib boriladi.

197. Menyer kasalligida, konservativ yoki jarrohlik usullari bilan davolashga qiyin bo‘ysunuvchi vestibulyar funksiyaning tug‘ma yoki orttirilgan anomaliyalarida, surunkali vestibulyar buzilishlarda hamda statokinetik ta’sirchanlikning yuqori darajasida nomzodlarga o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

198. Poliplar, granulyatsiyalar, nog‘ora bo‘shlig‘i devorlari kariyesi bilan kechuvchi surunkali yiringli epitimpanit va mezotimpanitlarda, shuningdek operatsion bo‘shliq epidermizatsiyasi tugallanmagan (yiring, polip, granulyatsiya yoki xolesteatoma mavjudligi) bo‘lgan jarrohlik amaliyotlaridan keyingi asoratlarda, nomzodlarga ishga yoki o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Granulyatsiyalarsiz, poliplarsiz, nog‘ora bo‘shlig‘i devorlari kariyesisiz kechuvchi, labirintda yallig‘lanish belgilari kuzatilmaydigan, surunkali xavfsiz bir tomonlama epitimpanit va mezotimpanitlarda, davolash natijalari hamda eshitish qobiliyati ijobiy bo‘lgan taqdirda, nomzodlarga HHB ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Biroq dispetcherlikka o‘qishga kirayotgan nomzodlar yaroqsiz deb topiladi.

Nog‘ora pardaning harakatchanligi yaxshi bo‘lganda, eshitish funksiyasining me’yoriyligi audiogramma bilan tasdiqlanganda va barofunksiya saqlangan taqdirda, perforatsiya joyida yupqalashmagan kichik chandiqlarning mavjudligi, quruq perforatsiya hamda nog‘ora pardadagi kalsifikatlar mustaqil tashxis qo‘yish uchun asos bo‘lmaydi.

Tashqi eshitish yo‘lining ekzostozlarida, quloq atrofi sohasidagi osteomalarda, shuningdek radikal operatsiyadan keyin quloq funksiyasi to‘liq tiklangan va tekshiruvlar natijalari ijobiy bo‘lgan taqdirda, HHB ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Biroq, dispetcherlikka o‘qishga kirayotgan nomzodlar yaroqsiz deb topiladi.

199. Nomzodlar o‘z guvohnomalari va malaka belgilarida nazarda tutilgan majburiyat hamda vazifalarni xavfsiz bajarishlari uchun eshitish qobiliyati yetarli darajada saqlangan bo‘lishi shart.

Eshitish qobiliyati kamida 6 metr masofadan bas va diskant guruhlarga mansub so‘zlarni shivirlab aytish usuli (akumetriya) hamda kalibrlangan tiniq tonal audiometriya yordamida aniqlanadi.

Eshitish funksiyasini baholashda, bas yoki diskant guruhdagi so‘zlarga mansubligidan qat’i nazar, eshitish qobiliyatining eng noqulay ko‘rsatkichlari asos qilib olinadi.

200. Nutq audiometriyasida nomzodning so‘zlarni to‘g‘ri eshitishi va takrorlashi 95–100 foizni tashkil etganda, eshitish qobiliyati me’yorida deb hisoblanadi.

Mazkur ko‘rsatkich 80 foizdan kam bo‘lganda, yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqarish uchun asos bo‘ladi.

201. Audiometriyada shovqinni qabul qilish intensivligi minus 20 dBdan plus 100 dBgacha hamda 125 Gsdan 8000 Gsgacha bo‘lgan diapazonda qayd etiladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Nomzodlarda kalibrlangan (tiniq tonal) audiometriyada, har bir quloq alohida tekshirilganda, 500, 1000 yoki 2000 Gs chastotalardan kamida birida eshitish chegarasi 35 dBdan, 3000 Gs chastotada esa 50 dBdan oshmasligi kerak.

Tinch xonada 2 metr masofada nomzod tekshiruv o‘tkazayotgan shifokorga teskari turgan holda o‘rtacha balandlikdagi so‘zlashuv nutqini ikkala quloq bilan eshita olmasa, unga HHB ishiga yoki o‘qishga yaroqsizlik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

202. Eshitish qobiliyatini tiklash maqsadida o‘tkazilgan radikal jarrohlik amaliyotlaridan, jumladan timpanoplastika va stapedoplastikadan keyin operatsiya bo‘shliqning to‘liq va turg‘un epidermizatsiyasi ta’minlanganda, eshitish funksiyasi tiklanganda hamda maxsus moslamani taqish qoniqarli bo‘lganda, unda eshitish qobiliyati yetarli darajada saqlanganda, HHB ishiga yaroqlilik to‘g‘risida tibbiy xulosa chiqariladi.

Biroq dispetcherlikka o‘qishga kirayotgan nomzodlar yaroqsiz deb topiladi.

203. HHB dispetcherlarida eshitish qobiliyati yuqorida belgilangan talablarga to‘liq javob bermaganda, biroq ish joyidagi odatiy shovqin fonida, jumladan imitatsiya qilingan yoki qayta tiklangan shovqin sharoitida, eshitish qobiliyati norma doirasida bo‘lgan taqdirda, ular HHB ishiga yaroqli deb topiladi.

Shovqinli sharoitda o‘tkaziladigan tekshiruvlarda qo‘llaniladigan nutq materiallari aviatsiya faoliyatiga oid so‘zlashuvga mos va fonetik jihatdan muvofiqlashtirilgan bo‘lishi lozim.

Zaruratga ko‘ra bunday tekshiruvlar trenajyorda o‘tkaziladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Fuqaro aviatsiyasida tibbiy ko‘rikdan
o‘tkazish va tibbiy xulosa berish tartibi
to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining
aviatsiya qoidalariga
4-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi
Tibbiy xulosa olish uchun ariza

(ko‘rikdan o‘tishdan avval nomzod tomonidan to‘ldiriladi)

Konfidensial tibbiy ma’lumot

<table>
<tr><td>1. Familiya</td><td>2. Avvalgi familiyasi(lari)</td><td colspan="2">3. Milliy identifikatsiya raqami
(agar mavjud bo‘lsa):</td></tr>
<tr><td>4. Ismi, otasining ismi</td><td>5. Tug‘ilgan kun, oy, yili</td><td>6. Jinsi:
Erkak ☐
Ayol ☐</td><td>7. Ariza:
birinchi marta ☐
uzaytirishga ☐</td></tr>
<tr><td>8. Guvohnoma bergan davlat</td><td>9. So‘ralayotgan tibbiy xulosa klassi:
1- ☐
2- ☐
3- ☐</td><td colspan="2">10. Havodagi harakatni boshqarish dispetcherining operatorlik soati</td></tr>
<tr><td>11. Tug‘ilgan joyi va mamlakati</td><td>12. Millati</td><td colspan="2">13. Kasbi (asosiysi)</td></tr>
<tr><td>14. Yashash manzili:

Pochta indeksi:

Mamlakat:

Telefon raqami:
uy:
mobil:

elektron pochta manzili:</td><td>15. Ish joyi (asosiysi)</td><td colspan="2">16. Eng oxirgi tibbiy tekshiruvdan o‘tgan

sanasi:

joyi:</td></tr>
<tr><td>17. Egalik qilayotgan aviatsiya xodimi guvohnomasining (turi):

Guvohnoma raqami:

Guvohnoma bergan davlat:</td><td>18. Umumiy amaliyot shifokorining familiyasi ismi otasining ismi:

telefon raqami:</td><td colspan="2">19. Guvohnoma/tibbiy xulosada cheklovlar mavjudmi:
Yo‘q ☐ Ha ☐

“Ha” bo‘lsa,
Sababini ko‘rsating (guvohnoma/tibbiy xulosadagi har qanday cheklov haqida ma’lumotni ko‘rsating, masalan korreksiya linzalari yoki faqat ko‘p a’zoli ekipaj tarkibida yoki qon bosimiga oid va boshqalar):</td></tr>
<tr><td>20. Tibbiy xulosa berish rad etilgan to‘xtatib turilgan yoki bekor qilingan</td><td>21. Umumiy uchish soati:</td><td colspan="2">22. Yillik uchish soati:</td></tr>
</table>

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

<table>
<tr><td rowspan="2">holatlar mavjudmi (vaqtinchalik bo‘lsa ham)
Yo‘q □ Ha □
“Ha” bo‘lsa,
Kuni, sababi:</td><td rowspan="2">23. Uchish (parvoz) turi, (masalan tijorat tashuvlari, o‘quv uchishlari, havaskor – uchuvchi):</td><td>24. Havo kemasi turi:</td></tr>
<tr><td>25. Uchish (parvoz) turi:
Bir a’zoli ekipaj □
ko‘p a’zoli ekipaj □</td></tr>
<tr><td rowspan="2">26. Yil davomida aviahodisa yoki insidentlar bo‘lganmi:
Yo‘q □ Ha □
“Ha” bo‘lsa,
Kuni:
Joyi:
Batafsil:</td><td>27. Spirtli ichimliklar iste’mol qilasizmi?
Yo‘q □ Ha □
“Ha” bo‘lsa, bir hafta davomida iste’mol qilishning o‘rtacha miqdorini grammlarda ko‘rsating (pivo, vino yoki boshqalar):</td><td>28. Tamaki mahsulotlari iste’mol qilasizmi (“Ha” bo‘lsa, turi va bir kundagi miqdorini ko‘rsating)?
Yo‘q □ Ha □</td></tr>
<tr><td colspan="2">29. Shifokor tomonidan belgilangan dori-darmon vositalarini (jumladan, retseptsiz beriladigan va dorivor o‘tlar asosidagi preparatlar ham) qabul qilasizmi? Yo‘q □ Ha □
“Ha” bo‘lsa, dori-darmon nomi, miqdori, qachondan beri qabul qiladi va qabul qilish sababini ko‘rsating:</td></tr>
</table>

30. Kasallik tarixi va umumiy ma’lumotlar: (“Ha” yoki “Yo‘q” so‘zlari grafasida “×” belgisini qo‘yib savollarga javob bering. “Ha” bo‘lganda batafsil izoh bering va Tibbiy-uchish komissiyasi a’zosi bilan muhokama qiling).

	Ha	**Yo‘q**		**Ha**	**Yo‘q**		**Ha**	**Yo‘q**
31. Ko‘rishning buzilishi, illyuziyalar /ko‘z jarrohligi			32. Tomoq, burun kasalligi, nutqning buzilishi			33. Malyariya yoki boshqa tropik kasalliklar		
34. Ko‘zoynak va/yoki kontakt linzalar taqish			35. Bosh jarohati yoki miya chayqalishi			36. Anemiya/o‘roqsimon-hujayrali anemiya/qonning boshqa kasalliklari		
37. Jinsiy yo‘l bilan o‘tuvchi kasalliklar			38. Tez-tez yoki kuchli bosh og‘riqlari			39. Avvalgi ko‘rikdan keyin o‘tgan vaqt ichida ko‘zoynak va/yoki kontakt linzalar taqish retseptida o‘zgarishlar bormi?		
40. Allergik reaksiya, allergiya turlari, allergen			41. Bosh aylanishi yoki turli sabablarga ko‘ra hushdan ketish			42. Shifoxonada tekshirilgani yoki davolangani haqida ma’lumot		
43. Astma yoki o‘pka kasalliklari			44. Diabet, gormonal buzilishlar			45. Nevrologik buzilishlar, insult, epilepsiya, paralich, konvulsiya va boshqalar		
46. Yurak va qon-tomir kasalliklari			47. Har qanday jarohatlar va kasalliklar			48. Umumiy amaliyot shifokori qabulida bo‘lganligi (ambulator tekshiruv va davolanish)		
49. Qon bosimi pasayishi yoki ko‘tarilishi			50. Har qanday psixologik/ psixiatrik muammolar			51. Qulog‘i og‘irlik (karlik) yoki quloq kasalliklari		

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

52. Buyrakda tosh mavjudligi yoki peshobda qon borligi			53. Alkogol/ narkotik/ giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar iste'mol qilishi			54. Aviatsiya xodimi guvohnomasini berish rad etilganmi, bekor qilinganmi		
55. O'z joniga qasd qilish			56. Oshqozon, jigar yoki ichak faoliyatini buzilishi			57. Harbiy xizmatga yaroqsizlik haqida tibbiy ko'rsatmalar mavjudmi?		
58. Odam immuniteti tanqisligi tahlilining natijasi			59. Dori qabul qilishni talab qiluvchi chayqalishdan behuzurlik			60. **Faqat ayollar uchun:** Ginekologik kasalliklar (hayz ko'rishni buzilishi ham kiradi) 61. Siz homiladormisiz?		

Oilaviy anamnez:

	Ha	**Yo'q**		**Ha**	**Yo'q**		**Ha**	**Yo'q**
62. Yurak qon-tomir kasalliklari			63. Ruhiy holati buzilishlari			64. Irsiy kasalliklar		
65. Qon bosimini oshishi, gipertoniya			66. Diabet			67. Glaukoma		
68. Xolesterin miqdorini oshishi			69. Tuberkulyoz			70. Qo'shimcha ma'lumotlar:		
71. Epilepsiya			72. Allergiya/ astma/ ekzema					

Izoh. Agar yuqorida keltirilgan ma'lumotlar avval ma'lum qilingan bo'lsa va o'zgarishsiz qolgan bo'lsa, ko'rsating.

73. **Tibbiy ma'lumotlarni taqdim etish uchun roziligi:** arizada bayon etilgan barcha ma'lumotlar va javoblarning to'liqligi hamda ishonchliligini tasdiqlayman. Ma'lumotlarni yashirish, noto'g'ri yoki yolg'on ma'lumot taqdim etish tibbiy xulosa chiqarishda xatoliklarga sabab bo'lishi mumkinligi menga ma'lum. Tibbiy ko'rikdan o'tish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni yashirganlik yoki yolg'on ma'lumot berganlik holatlarida tibbiy xulosa berilmasligi va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgarlik yuzaga kelishi haqida ogohlantirilganman.

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligining tibbiy uchish komissiyasi a'zolariga va ekspertlariga mening tibbiy ko'rikdan o'tishimga tegishli bo'lgan barcha ma'lumotlarni taqdim etilishiga rozilik bildiraman.

Nomzodning ariza to'ldirgan sanasi_____ imzosi _____

Tibbiy uchish komissiyasi raisining F.I.O., imzosi_____

Izoh:
tibbiy ma'lumotlarning konfidensialligini saqlashga qat'iy rioya qilinadi;
nomzod turli laborator va boshqa tekshiruvlarni rad etish va O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligiga murojaat qilish huquqiga ega, biroq Tibbiy uchish komissiyasi tomonidan tibbiy xulosa berish vaqtincha to'xtatib turiladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Fuqaro aviatsiyasida tibbiy ko‘rikdan
o‘tkazish va tibbiy xulosa berish tartibi
to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining
aviatsiya qoidalariga
5-ILOVA

_____- sonli KASALLIK HAQIDA GUVOHNOMA

20___y. “___” _____tibbiy uchish komissiyasi tomonidan

Tibbiy-uchish komissiyasining to‘liq nomi

F.I.O. _____ ko‘rikdan o‘tdi

(to‘liq yoziladi)

Tug‘ilgan yili, oy,sana_____fuqaro aviatsiyasi tashkiloti_____

Lavozimi _____ Havo kemasi turi _____umumiy uchgan vaqti_____

Yashash manzili _____

Qachondan beri fuqaro aviatsiyasida _____

Qachon va qaysi fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlarini tugatgan _____

Tibbiy uchish komissiyasining avvalgi tibbiy xulosasi va ko‘rik sanasi _____

Bo‘yi_____Tana vazni_____Ko‘krak aylanasi_____

Shikoyatlar_____

Anamnez_____

(qanday sharoitda va qachon mazkur jarohat yoki kasallik orttirilganligi ko‘rsatilsin)

O‘tkazgan kasalliklari_____

_____davolashda (tekshiruvda) bo‘lgan

(davolash muassasasi va unda bo‘lgan muddati ko‘rsatilsin)

Qo‘llanilgan davolash chora-tadbirlari _____

Komissiya oralig‘i davrida sanatoriyda davolanganligi_____

_____

(qayerda, qachon va davolanish natijalari ko‘rsatilsin)

Komissiya oraligi davrida mehnatga layoqatsizlik varaqasida bo‘lgan _____

(kasallik yoki jarohat tashxisi va kunlari soni ko‘rsatilsin)

Obyektiv tekshiruv ma’lumotlari (barcha a’zolar va tizimlar bo‘yicha)_____

_____

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

(aviatsiya xodimini ko‘rikdan o‘tishida yaroqlilik darajasini o‘zgartirgan shifokor tomonidan to‘ldiriladi)

Tahliliy, uskunaviy, rentgenologik va boshqa tekshiruvlar natijalari_____
_____

Asosiy va yondosh tashxis (asoslash lozim) _____

Tibbiy uchish komissiyaning xulosasi:

“Fuqaro aviatsiyasida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va tibbiy xulosa berish tartibi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining aviatsiya qoidalari asosida _____

(Tibbiy-uchish komissiyasining xulosasi to‘liq ko‘rsatilsin)

Tibbiy-uchish komissiyasining davolash-profilaktika va boshqa tavsiyalari _____
_____
_____

M.O‘. Tibbiy-uchish komissiyasining raisi_____

(F.I.O. imzo)

O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligining manzili _____

O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligining tibbiy ekspertlari xulosasi va tavsiyalari: _____

_____

M.O‘. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligining tibbiy eksperti _____

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Fuqaro aviatsiyasida tibbiy ko‘rikdan
o‘tkazish va tibbiy xulosa berish tartibi
to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining
aviatsiya qoidalariga
6-ILOVA

“O‘zaviatsiya” agentlig‘i **CAA of Uzbekistan**
TIBBIY SERTIFIKAT *MEDICAL CERTIFICATE* № **0000000**
Klass/*class* ☐1 ☐2 ☐3
Ismi va familiyasi *First and Last name*
Tug‘ilgan sanasi, oy, yil: *Date of birth:*
Fuqaraligi: *Nationality*:
Kasbi: *Occupation:*
O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan **talablarga javob beradi** ***Meets the requirements*** *of the legislation of the Republic of Uzbekistan*
Cheklovlar / *Limitations*:
Berilgan sana / *Date of issue:* Amal qilish muddati / *Expire date*:
Xulosa beruvchining ismi va familiyasi: *Name of medical examiner*:
Imzo, muhr/*signature, stamp*

orqa tomoni

Davriy tekshiruvlar **Periodical check**		
Keyingi tekshiruv sanasi *Date of next check*	Oraliq tibbiy nazorat *intermediate medical check-up*	Tashkilot shifokorining imzosi *Signature of the organization's doctor*
Sertifikat egasi faoliyatni amalga oshirish vaqtida ushbu sertifikatni aviatsiya xodimi guvohnomasi bilan birga olib yurishi shart. *Holder must carry this certificate with license when carrying out activities.*		
Sertifikat egasining imzosi *Signature of holder:*		

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Fuqaro aviatsiyasida tibbiy ko‘rikdan
o‘tkazish va tibbiy xulosa berish tartibi
to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining
aviatsiya qoidalariga
7-ILOVA

Ekspluatatsiya cheklov kodlari va ularning tavsiflari

1. Ekspluatatsiya cheklov kodlari:

TXCh/TML – tibbiy xulosa amal qilish muddatining cheklanishi/restriction of the period of validity of the medical certificate;

UMK/VDL – uzoqdan ko‘rish qobiliyati buzilishini korreksiyalash/correction for defective distant vision;

UO‘YaK/VML – uzoq, o‘rta va yaqindan ko‘rish qobiliyati buzilishini korreksiyalash/correction for defective distant, intermediate and near vision;

YaKK/VNL – yaqindan ko‘rish qobiliyati buzilishini korreksiyalash/correction for defective near vision;

IUK/VXL – ish sharoitidan kelib chiqqan holda uzoqni ko‘rish qobiliyati buzilishini korreksiyalash (faqat 3-klass tibbiy xulosasi uchun, havodagi harakatga xizmat ko‘rsatuvchi dispetcherlar uchun) /correction for defective distant vision depending on the working environment (for 3 class only, ATCOs);

KFKK/CCL – faqat kontakt linzalaridan foydalangan holda ko‘rish qobiliyatini korreksiyalash /correction by means of contact lenses only;

KU/VCL – faqat kunduzgi vaqtdagi parvozlar (kunduzgi parvozlar) uchun haqiqiy/ valid by day only;

IMU/OML – faqat ikkinchi uchuvchi sifatida yoki malakali ikkinchi uchuvchi bilan haqiqiy/valid only as or with qualified co pilot;

IUYa/OCL – faqat ikkinchi uchuvchi sifatida haqiqiy/valid only as co pilot;

YU/OPL – faqat yo‘lovchilarsiz uchish uchun haqiqiy/valid only with out passengers;

YaIX/OSL – faqat xavfsiz uchuvchi bilan birgalikda va kabina ekipaji yagona bo‘lmagan, ikki tomonlama boshqaruvga ega bo‘lgan havo kemasi uchun haqiqiy/valid only with safety pilot and in aircraft with dual controls, not for solo cabin crew;

KHK/OAL – ko‘rsatilgan turdagi havo kemasi uchun yaroqli/restricted to demonstrated aircraft type;

TQB/AHL – faqat tasdiqlangan qo‘lda boshqaruv uchun haqiqiy/valid only with approved hand controls;

SIA/ODL – smenada ikkinchi aviadispetcher bo‘lganda haqiqiy/valid only with second ATCOs.

2. Ekspluatatsiya cheklov kodlarining tavsiflari:

TML – tibbiy xulosa amal qilish muddatining cheklanishi (tibbiy xulosaning amal qilish muddati xulosada ko‘rsatilgan muddat bilan cheklanadi, mazkur muddat tibbiy ko‘rikdan o‘tilgan kundan e’tiboran hisoblanadi, ilgari berilgan tibbiy xulosaning amal qilish muddatidan qolgan qismi haqiqiy emas deb topiladi, tibbiy xulosa egasi belgilangan tartibda navbatdagi tibbiy ko‘rikdan o‘tishi hamda barcha tibbiy tavsiyalarga rioya qilishi shart);

VDL – korreksiyalovchi linzalar taqish va zaxira juft ko‘zoynakning mavjud bo‘lishi;

a) uzoqdan ko‘rish qobiliyati buzilishini korreksiyalash:

guvohnoma egasi guvohnoma orqali berilgan huquq va majburiyatlarini amalga oshirishda tibbiy ko‘rik natijalari bilan tasdiqlangan va Tibbiy-uchish komissiyasi (bundan buyon matnda TUK deb yuritiladi) oftalmologi tomonidan foydalanish uchun ruxsat berilgan uzoqdan ko‘rishni korreksiyalovchi ko‘zoynaklar yoki kontakt linzalar taqadi;

kontakt linzalaridan foydalanishga TUK oftalmologi tomonidan ruxsat beriladi;

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

kontakt linzalaridan foydalanganda TUK oftalmologi tomonidan tavsiya etilgan zaxira juft ko‘zoynak mavjud bo‘lishi kerak;

VML – multifokal ko‘zoynak taqish va zaxira juft ko‘zoynakning mavjud bo‘lishi;

b) uzoq, o‘rta va yaqindan ko‘rish qobiliyati buzilishini korreksiyalash:

guvohnoma egasi guvohnoma orqali berilgan huquq va majburiyatlarini amalga oshirishda tibbiy ko‘rik natijalari bilan tasdiqlangan va TUK oftalmologi tomonidan foydalanish uchun ruxsat berilgan uzoqdan, o‘rta va yaqindan ko‘rish qobiliyati buzilishini korreksiyalovchi ko‘zoynaklar yoki kontakt linzalar taqadi;

faqat yaqindan ko‘rishni korreksiyalovchi kontakt linzalari va to‘liq gardishli ko‘zoynaklardan foydalanilishiga yo‘l qo‘yilmaydi;

VNL – yonida ko‘rish qobiliyatini korreksiyalovchi ko‘zoynak va zaxira juft ko‘zoynaklar mavjud bo‘lishi;

v) yaqindan ko‘rish qobiliyati buzilishini korreksiyalash:

guvohnoma egasi guvohnoma orqali berilgan huquq va majburiyatlarini amalga oshirishda tibbiy ko‘rik natijalari bilan tasdiqlangan va TUK oftalmologi tomonidan foydalanish uchun ruxsat berilgan yaqindan ko‘rish qobiliyati buzilishini korreksiyalovchi ko‘zoynaklardan bevosita foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak;

faqat yaqindan ko‘rishni korreksiyalovchi kontakt linzalari va to‘liq gardishli ko‘zoynaklardan foydalanilishiga yo‘l qo‘yilmaydi;

VXL – ish sharoiti bilan bog‘liq zaruriyatga ko‘ra uzoqni ko‘rish qobiliyati buzilishini korreksiyalash (agar havodagi harakatga xizmat ko‘rsatuvchi dispetcherning ish maydoni 100 sm gacha bo‘lgan masofada bo‘lsa, uzoq masofani ko‘rish qobiliyati buzilishini korreksiyalovchi linzalardan foydalanilmaydi, uzoq masofaga korreksiyasiz ko‘rish o‘tkirligi belgilangan talablarga muvofiq bo‘lmaganda, biroq o‘rta va yaqin masofaga korreksiyasiz ko‘rish o‘tkirligi belgilangan talablarga javob beradigan talabgorlar, agar ularning ish faoliyati sohasi ko‘rish maydoni doirasida o‘rta va yaqin masofada (100 sm gacha) joylashgan bo‘lsa, korreksiyalovchi linzalarsiz ishlashi mumkin, mazkur cheklov faqat 3-klass tibbiy xulosaga ega bo‘lgan havo harakatiga xizmat ko‘rsatish dispetcherlariga nisbatan qo‘llaniladi);

CCL – faqat kontakt linzalaridan foydalangan holda ko‘rish qobiliyatini korreksiyalash (tibbiy ko‘rik natijalari bilan tasdiqlangan va TUK oftalmologi bilan kelishilgan ko‘rish qobiliyati buzilishini barcha masofalar uchun korreksiyalash, bunda TUK oftalmologi tomonidan tayinlangan zaxira juft ko‘zoynaklari mavjud bo‘ladi, cheklov faqat kabina ekipajining tibbiy xulosalari uchun qo‘llaniladi);

VCL – faqat kunduzgi vaqtdagi parvozlar uchun haqiqiy (cheklov turli darajadagi ranglarni idrok etish qobiliyati buzilgan xususiy uchuvchilarga, ularning guvohnomasi orqali berilgan huquq va majburiyatlarni faqat kunduzgi vaqtda amalga oshirishga ruxsat beradi);

OML – faqat ikkinchi uchuvchi sifatida yoki malakali ikkinchi uchuvchi bilan haqiqiy (bir ekipajli havo kemalarini boshqaruvchi uchuvchilar uchun belgilangan talablarga javob bermaydigan, biroq ko‘p ekipajli havo kemalarini boshqaruvchi uchuvchilar uchun belgilangan talablarga javob beradigan uchish ekipaji a’zolariga nisbatan qo‘llaniladi);

OCL – faqat ikkinchi uchuvchi sifatida haqiqiy.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Fuqaro aviatsiyasida tibbiy ko‘rikdan
o‘tkazish va tibbiy xulosa berish tartibi
to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining
aviatsiya qoidalariga
8-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi
Fuqaro aviatsiyasi agentligi
Fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotiga o‘qishga kiruvchi nomzodning tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish
VARAQASI

Fotosurat 3×4

1. Familiyasi, ismi, otasining ismi (to‘liq)_____

2. Tug‘ilgan sanasi_____3. Millati_____
4. Ma’lumoti_____5. Asosiy kasbi_____
6. Yashash joyi (shahar, tuman, viloyat) _____
_____

7. **Jismoniy va jarrohlik tekshiruvlar natijalari:**
8. Shikoyatlari:_____
_____
9. Anamnez (o‘tkazgan kasalliklari, jarohatlar va operatsiyalar):_____
_____
_____
_____
10. Tana vazni_____11. Bo‘yi _____12. Bo‘yi o‘tirgan holda_____
13. Qo‘l uzunligi_____14. Oyoq uzunligi_____
15. Ko‘krak qafasini aylanasi tinch holda_____nafas olganda_____nafas chiqarganda_____
16. Stenli kuchi_____17. Dinamometriya chap qo‘l_____ o‘ng qo‘l_____
18. Spirometriya_____
19. Limfa tugunlari_____
20. Qalqonsimon bez_____
21. Teri qoplamlari_____
22. Ovqatlanishi:_____
23. Mushak tizimining rivojlanganligi_____
_____
_____
24. Suyaklar, mushak tizimi nuqsonlari, churra, venalar varikoz kengayishi mavjudligi va boshqalar_____
_____
_____
25. Tanosil a’zolari_____
26. Anus va yo‘g‘on ichak_____
27. Tashxis:_____
_____
_____
28. Sana:_____jarroh xulosasi, F.I.O., imzo:_____
_____
_____
_____

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

29. **Ichki a’zolar tekshiruvi natijalari:**
30.
Shikoyatlari:_____
_____
31. Yurak chegaralari:_____
yurak tonlari:_____puls xususiyati_____
32. Periferik tomirlar:_____
33. Funksional sinovlar:_____
_____
34. Arterial qon bosimi:_____
35. Endokrin tizimi:_____
_____
36. O‘pka perkussiya va auskultatsiyasi tekshiruvlari:_____
_____

37. Oshqozon-ichak tizimi: ishtahasi:_____til:_____ich kelishi:_____
qorin auskultatsiyasi va palpatsiyasi:_____
38. Jigar:_____
39. Qorataloq:_____
40. Buyraklar:_____ siydik chiqarish:_____
41. Qon tekshiruvi _____sanasi_____me’yorda; o‘zgarishlar mavjud bo‘lsa ko‘rsating_____
42. Siydik tekshiruvi _____sanasi_____ me’yorda; o‘zgarishlar mavjud bo‘lsa ko‘rsating_____
43. Ko‘krak qafasini rentgeni (flyurografiyasi):_____
44. Elektrokardiogramma va qo‘shimcha laborator tekshiruvlar natijalari:_____
_____
_____
45. Tashxis:_____
_____
_____
46. Sana:_____terapevt xulosasi, F.I.O., imzo:_____
_____
_____

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

47. **Asab tizimi tekshiruvi natijalari:**
Shikoyatlari: bosh og‘rig‘i, bosh aylanishi, hushdan ketish, tutqanoq, ko‘p terlash, serzardalik, uyqu buzilishlari va hokazo (mavjud bo‘lsa tagiga chizing va tavsiflang) _____
_____
_____
48. Irsiy kasalliklar_____
49. Anamnez: a) bolalikdagi nevrotik (nevroz) alomatlar, tutqanoqlar:_____
_____
b) jarohatlar va ruhiy jarohatlar:_____
_____
v) o‘tkazgan yuqumli kasalliklari sanalari bilan:_____
_____
g) o‘tkazgan asab kasalliklari sanalari bilan:_____
_____
50. Vazomotor buzilishlar:_____
_____
51. Dermografizm (qizil, oq, o‘zgaruvchan, shish bilan, urtikar) turg‘un:_____
_____
52. Ashner simptomi_____53. Pilomotor refleksi_____
54. Terlash_____55. Qovoq titrashi_____56. Barmoqlar titrashi _____
57. Oyoq-qo‘llar: quruq, nam, sianotik (tagiga chizing, tavsiflang)_____
_____
58. Psixolog xulosasi:_____
_____
59. Markaziy va periferik nerv tizimi: ko‘z qorachig‘i_____
60. Chanoq nervlari:_____
_____61. Xvostek simptomi_____
62. Harakatlantiruvchi soha:_____
_____
63. Mushak qo‘zg‘aluvchanligi:_____
64. Reflektor sohalari: qo‘llar: o‘ng:_____chap:_____
tizza: o‘ng:_____chap:_____axilles to‘pig’i: o‘ng:_____chap:_____
patologik:_____65. Romberg:_____
66. Koordinatsiya:_____67. Teri reflekslari:_____
68. Periferik nervlar:_____
_____
_____
69. Sezgi sohasi:_____
_____
70. **Psixologik tekshiruvlar**: Ruhiy holati: a) emotsional soha_____
_____
b) fe’l-atvori:_____
v) psixofiziologik chidamlilik (tez charchash)_____
71. Maxsus tekshiruvlar: kasbiy psixologik tanlov: ballar yig‘indisi_____
72. Kasbiy psixologik fazilatlari (KPF), asab psixikasini turg‘unligi (APT), asab psixikasini o‘zgaruvchanligi (APO‘) aniqlandi; aniqlanmadi (tagiga chiziladi); KPF yetuklik darajasini baholash, mazkur mutaxassislikka o‘qitishning muvaffaqiyatliligini prognozi _____
_____
I guruh KPF – yuqori, prognoz ijobiy □
II guruh KPF – o‘rtacha, prognoz noaniq □
III guruh KPF – past, prognoz salbiy □

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

73. Psixolog xulosasi: _____
_____
(mutaxassislikka)
tavsiya etiladi; tavsiya etilmaydi, _____

sana_____Psixolog F.I.O., imzo:_____

74. Sana:_____nevrolog xulosasi, F.I.O., imzo:_____
_____
_____
_____

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

75. **Lor-a’zolari tekshiruvlari natijalari:** shikoyatlari va lor-a’zolarini holati, nutqi, Yevstaxiev naychasini o‘tkazish qobiliyati: _____

_____

_____

76. Burun yo‘li: chap tomon:_____ o‘ng tomon:_____

hid bilish (I, II, III, IV darajalar): chap tomon:_____

o‘ng tomon:_____

77. Akusticheskaya impedansometriya (timpanometriya): “A”, “S”, “B, “D”, “E” turlari _____

_____

78. Barofunksiya (darajalarda):

BF 1, 2, 3, 4 dar. 1 daraja – oddiy yutinishda YeN o‘tkazish qobiliyati BF 1, 2, 3, 4 dar.

2 daraja – Toynbi sinovida YeN o‘tkazish qobiliyati

3 daraja – Valsalva sinovida YeN o‘tkazish qobiliyati

4 daraja – Valsalva sinovida YeN o‘tkazish qobiliyati yo‘qligi

79. Eshitish o‘tkirligi:

m._____m.	diskant guruhidagi so‘zlarga eshit. o‘tkir.	m._____m.
m._____m.	bas guruhidagi so‘zlarga eshit. o‘tkir.	m._____m.
m._____m.	so‘zlashuv nutqidagi eshit. o‘tkir.	m._____m.

80. Vestibulyar faoliyatning tekshiruvlari:

_____Aylanishga qarshi illyuziyani his qilish davomiyligi _____

_____Nistagmga qarshi davomiylik_____

	O‘ngga aylantirishdan so‘ng	Chapga aylantirishdan so‘ng
	0, I, II, III darajalar	0, I, II, III darajalar
Vegetativ reaksiya:		
a) yurak urishining tezlashuvi		a) yurak urishining tezlashuvi
rangining oqarishi		rangining oqarishi
ter chiqishi		ter chiqishi
b) ko‘ngil aynishi		b) ko‘ngil aynishi
qayt qilish		qayt qilish

81. Ovoz xususiyati_____

82. Qo‘shimcha tekshiruvlar (burun yondosh bo‘shliqlari rentgenografiyasi va boshqalar):_____

_____

_____

83. Tashxis:_____

84. Sana:_____otorinolaringolog xulosasi, F.I.O., imzo:_____

_____

_____

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

85. **Ko‘rish a’zolari tekshiruvlari natijalari:** shikoyatlari va ko‘rish a’zolarining holati:_____
_____
_____
_____

86. Rang ajratish (Rabkin jadvali, XFAT (ICAO) standartlari asosidagi polixromatik jadvallar, anomaloskop tekshiruvi):_____
_____

87. Ko‘rish o‘tkirligi: korreksiyasiz: chap ko‘z:_____o‘ng ko‘z:_____
88. Ko‘rish o‘tkirligi: korreksiya bilan: chap ko‘z:_____o‘ng ko‘z:_____
89. Refraksiya (skiaskopiya): chap ko‘z:_____o‘ng ko‘z:_____
90. Tungi ko‘rish:_____
91. Ko‘z qorachiqlari: chap ko‘z:_____o‘ng ko‘z:_____ Qovoqlar: chap:_____o‘ng:_____
Ko‘z qorachiqlarining reflektor reaksiyasi_____
Konyuktiva:_____
Muguz parda: chap ko‘z:_____o‘ng ko‘z:_____ Ko‘z yosh apparati: chap ko‘z:_____o‘ng ko‘z:_____
92. Aniq g‘ilaylik (geterotropiya): hamkor:_____paralitik: _____
Meddoks shkalasi bo‘yicha: yaqindan: gorizontal_____vertikal:_____
uzoqdan: gorizontal_____vertikal:_____
Yo‘naltirish harakati: yaqindan: gorizontal_____vertikal:_____
uzoqdan: gorizontal_____vertikal:_____
Ko‘z olmasining harakatchanligi: chap ko‘z:_____o‘ng ko‘z:_____
Birgalikda harakatda konvergensiya yaqin nuqtasi_____birlashgan (assotsiyalangan)_____
93. Yaqqol ko‘rishning turg‘unligi:_____yetakchi ko‘z:_____
94. Ko‘rish maydoni: perimetriya, obyekt-5mm: chap ko‘z:_____o‘ng ko‘z:_____
95. Ko‘z tubi: chap ko‘z:_____o‘ng ko‘z:_____
96. Binokulyar ko‘rish:_____
97. Stereoskopik ko‘rish (fazoni idrok qilish)_____
98. Qo‘shimcha tekshiruvlar:_____
_____
_____
99. Tashxis:_____
100. Sana:_____oftalmolog xulosasi, F.I.O., imzo:_____
_____
_____

101. **Tishlar va og‘iz bo‘shlig‘ining tekshiruv natijalari:** shikoyatlari va anamnez:_____
_____
Tishlam (tish qisishi)**:**_____ Milklar:_____
Og‘iz bo‘shlig‘ining shilliq qavati_____
102. Tishlar_____
103. Tashxis:_____
Sana:_____stomatolog F.I.O., imzo:_____

104. **Teri-tanosil tekshiruv natijalari:**_____
_____
_____
105. Tashxis:_____
Sana:_____dermatovenerolog F.I.O., imzo:_____

106. **Tashxis (asosiysidan boshlab):** _____
_____

“Fuqaro aviatsiyasida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va tibbiy xulosa berish tartibi to‘g‘risidagi O‘zbekiston

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Respublikasining aviatsiya qoidalari”ga asosan _____ fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlarida o‘qishga yaroqli (yaroqsiz). (mutaxassislik ko‘rsatilsin)

Sana:_____Tibbiy-uchish komissiyasi raisi, F.I.O., imzo:_____

M.O‘.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Fuqaro aviatsiyasida tibbiy ko‘rikdan
o‘tkazish va tibbiy xulosa berish tartibi
to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining
aviatsiya qoidalariga
9-ILOVA

NEVROLOGIK TEKSHIRUV HISOBOTI
(konfidentsial tibbiy ma’lumot)

Nevrologik tekshiruv natijalari:

1. Shikoyatlar (bosh og‘rig‘i, bosh aylanishi, asabiylashish, terlash, hushidan ketish, talvasalar, tirishish, uyqu buzilishi va boshqalar – tagini chizish, tavsiflash), sanasi va ko‘rikdan o‘tuvchining imzosi_____
_____
_____
2. Irsiy kasalliklari_____
3. Nevrologik anamnez (bolalikdagi nevrotik hodisalar, konvulsiyalar travmalar va psixotravmalar) nerv tizimining o‘tmishdagi kasalliklari _____
_____
4. Vazomotor buzilishlar_____
_____
5. Dermografizm (qizil, oq, o‘zgaruvchan, shish), turg‘un_____
_____
6. Ashner simptomi_____7. Terlash _____
8. Pilomotor refleks_____
9. Qovoqlar titrashi_____Barmoqlar titrashi_____
10. Oyoq-qo‘llarning quruqligi, namligi, ko‘karganligi_____
11. Ko‘z qorachig‘i _____
12. Bosh miya nervlari_____
13. Xvostek simptomi_____
14. Harakatlanish a’zolari_____
_____
15. Mushaklar qo‘zg‘aluvchanligi_____
_____
16. Reflektor sohalar: qo‘llar – chap _____ o‘ng _____
Tizzalar refleksi: – chap _____ o‘ng _____
Axill refleksi – chap _____ o‘ng _____
Patologik reflekslar_____
17. Romberg pozasi – oddiy _____murakkablashgani_____
18. Koordinatsiya_____19. Teri reflekslari_____
20. Periferik nervlar_____
_____
21. Sezgi sohasi_____

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

22. Tekshiruv natijalarini tahlil qilish_____
_____
23. Boshqa tekshiruvlar_____
_____
24. Psixologik tekshiruvlar_____
_____
25. Tashxis_____
_____
26. Nevrolog shifokor tavsiyalari_____
27. Nevrolog shifokorning bayonoti:
Men ushbu ekspertiza hisobotida ismi ko‘rsatilgan arizachini shaxsan nevrologik ko‘rikdan o‘tkazib, tekshirganimni va ushbu hisobotda barcha tekshiruv natijalari to‘liq va aniq etib belgilanganligini tasdiqlayman.
28. Joy va sana:_____
Nevrologning F.I.O._____
_____imzosi_____
manzili:_____

telefon/faks:_____

shaxsiy muhri:

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Fuqaro aviatsiyasida tibbiy ko‘rikdan
o‘tkazish va tibbiy xulosa berish tartibi
to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining
aviatsiya qoidalariga
10-ILOVA

JARROH TEKSHIRUVINING HISOBOTI

(konfidensial tibbiy ma’lumot)

Jarrohlik va jismoniy tekshiruv natijalari:

1. Shikoyatlar, sanasi va ko‘rikdan o‘tuvchining imzosi_____
_____

2. Tana vazni_____ 3. Bo‘yi_____ 4. Oyoq uzunligi_____

5. Ko‘krak qafasi aylanasi: tinch holda _____, nafas olish _____, nafas chiqarish ____

6. Teri va teri osti yog‘ qatlami _____
_____
_____

7. Mushaklar tizimini rivojlanishi _____
_____

8. Suyak tizimi nuqsonlari, muskullar, tomirlarning varikoz kengayishi, churralar mavjudligi, qomati, yurish-turish va boshqalar._____
_____

9. Tashqi jinsiy a’zolar holati_____
_____

10. Limfa tugunlari_____

11. Qalqonsimon bez_____

12. Qorin bo‘shlig‘i a’zolari _____

13. Tekshiruv natijalarini tahlil qilish (rentgenografiya, spirometriya va boshqalar) _____
_____
_____
_____
_____
_____
_____

14. Tashxis:_____
_____
_____
_____

15. Tavsiyalar:
_____
_____
_____
_____

16. Jarroh shifokorning bayonoti:

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Men ushbu ekspertiza hisobotida ismi ko‘rsatilgan arizachini shaxsan jarrohlik ko‘rigidan o‘tkazib, tekshirganimni va ushbu hisobotda barcha tekshiruv natijalari to‘liq va aniq etib belgilanganligini tasdiqlayman.

17. Joy va sana:_____

Jarrohning F.I.O._____

_____imzosi_____

manzili:_____

telefon:_____

shaxsiy muhri:

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Fuqaro aviatsiyasida tibbiy ko‘rikdan
o‘tkazish va tibbiy xulosa berish tartibi
to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining
aviatsiya qoidalariga
11-ILOVA

OFTALMOLOGIK TEKSHIRUV HISOBOTI

(konfidensial tibbiy ma’lumot)

1. Ariza topshirilgan davlat: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
2. Murojaat qilingan tibbiy xulosa klassi: 1; 2; 3.
3. Familiyasi, ismi, otasining ismi:_____
4. Birlamchi ariza □ Uzaytirish uchun □ Qaytadan tiklash □ Tibbiy ko‘rik
5. Tug‘ilgan sana: _____
6. Jinsi: Erkak □ Ayol □
7. Ro‘yxatdan o‘tish raqami: _____
8. Tug‘ilgan joyi va mamlakati: _____
9. Fuqaroligi_____
10. So‘ralgan guvohnoma turi _____
11. Tibbiy ma’lumotlarning berilishiga rozilik: Men ushbu hisobotda mavjud bo‘lgan barcha ma’lumotlar, shuningdek har qanday yoki barcha ilova qilingan hujjatlar vakolatli organning tibbiy eksperti, aviatsiya inspektoriga taqdim etilishini tasdiqlayman. Ushbu hujjatlar va elektron shaklda saqlanadigan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish uchun foydalaniladigan ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligining aviatsiya inspektori va tibbiy ekspertining egalik mulki bo‘lib qoladi, men shuningdek ularga mening shaxsiy ma’lumotlarimni, shu jumladan sog‘lig‘imga tegishli ma’lumotlarni jamlashga va tahlil qilishga rozilik beraman.

Sana_____Arizachining imzosi: _____

Oftalmolog shifokorning imzosi _____

12. Tekshiruv toifasi: birlamchi; kengaytirilgan; qayta tiklash uchun; uzaytirish uchun; ixtisoslashtirilgan tekshiruv.
13. Oftalmologik anamnez:_____
_____
_____
14. Klinik tekshiruv: ko‘rish o‘tkirligi har bir ko‘z uchun belgilang: normal; buzilishlar:____
_____
15. Uzoq masofadan ko‘rish 5m/6m ko‘zoynak kontaktli linzalar o‘ng ko‘z korreksiya bilan. Chap ko‘z korreksiya bilan. Ikkala ko‘z korr. bilan._____
_____
16. Ko‘zlarning tashqi tekshiruvi_____
17. Ko‘zining tashqi ko‘rinishi (yoriqli lampa (chiroq) bilan)_____
18. Ko‘z olmasining holati_____

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

19. O‘rta masofada ko‘rish - 1 m O‘ng ko‘z korreksiya bilan. Chap ko‘z korreksiya bilan. Ikkala ko‘z korreksiya bilan_____
20. Ko‘rish maydonlari_____
21. Ko‘z qorachig‘i reflekslari_____
22. Ko‘z tubi_____
23. Konvergensiya sm_____
24. Akkomodatsiya D_____
25. Ko‘z mushaklarining muvozanati (prizmatik D):
Uzoq masofa 5 – 6 m Orto Ichki Tashqi Giper Siklo Tropiya Ha Yo‘q;
30 – 50 sm masofada Orto Ichki Tashqi Giper Siklo Foriya Ha Yo‘q.
26. Qisqa masofani ko‘rish 30 – 50 sm O‘ng ko‘z korr. bilan. Chap ko‘z korr bilan. Ikkala ko‘z korr. bilan._____
27. Fuzion zaxirasi sinovdan o‘tkazilmagan o‘ng ko‘z_____ chap ko‘z_____
28. Refraksiya: Sferalar Silind O‘qi Yaqin chap ko‘z_____o‘ng ko‘z_____
Haqiqiy refraksiya_____
29. Rangni ko‘rish Rabkinning psevdoizoxromatik jadvali Jadvallar soni:_____
Xatolar soni_____ Rang ko‘rish qobiliyatining kuchayishi
Rang XAVFLI Ha Yo‘q Turi:_____
Rang XAVFSIZ Ha Yo‘q Turi:_____
30. Ko‘zoynak_____ 31. Kontakt linzalar_____
32. Ko‘z ichki bosimi (mm.rt.st.) Uslub_____o‘ng ko‘z_____ chap ko‘z_____
33. Oftalmolog izohlari va maslahatlari:_____
_____

34. Oftalmolog shifokorning bayonoti:
Men ushbu oftalmologik ekspertiza hisobotida ismi-sharifi ko‘rsatilgan arizachini shaxsan oftalmologik ko‘rikdan o‘tkazib, tekshirganimni va ushbu hisobotda barcha tekshiruv natijalari to‘liq va aniq etib belgilanganligini tasdiqlayman.
35. Joy va sana:_____
Oftalmologning F.I.O._____
_____imzosi_____
manzili:_____

telefon:_____

shaxsiy muhri:

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Fuqaro aviatsiyasida tibbiy ko‘rikdan
o‘tkazish va tibbiy xulosa berish tartibi
to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining
aviatsiya qoidalariga
12-ILOVA

OTORINOLARINGOLOGIK TEKSHIRUV HISOBOTI
(konfidensial tibbiy ma’lumot)

1. Ariza topshirilgan davlat: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
2. Murojaat qilingan tibbiy xulosa klassi: 1; 2; 3.
3. Familiyasi, ismi, otasining ismi:_____
_____
4. Birlamchi ariza □ Uzaytirish uchun □ Qaytadan tiklash □ Tibbiy ko‘rik
5. Tug‘ilgan sana, oy, yil:
_____
6. Jinsi: Erkak □ Ayol □
7. Ro‘yxatdan o‘tish raqami: _____
8. Tug‘ilgan joyi va mamlakati: _____
9. Fuqaroligi_____
10. So‘ralgan guvohnoma turi_____
11. Tibbiy ma’lumotlarning berilishiga rozilik: Men ushbu hisobotda mavjud bo‘lgan barcha ma’lumotlar, shuningdek har qanday yoki barcha ilova qilingan hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligining tibbiy eksperti, aviatsiya inspektoriga taqdim etilishini tasdiqlayman. Ushbu hujjatlar va elektron shaklda saqlanadigan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish uchun foydalaniladigan ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligining aviatsiya inspektorini va tibbiy ekspertining egalik mulki bo‘lib qoladi, men shuningdek ularga mening shaxsiy ma’lumotlarimni, shu jumladan sog‘lig‘imga tegishli ma’lumotlarni jamlashga va tahlil qilishga rozilik beraman.
Sana_____Arizachining imzosi: _____
Otorinolaringolog shifokorning imzosi _____
12. Tekshiruv toifasi: birlamchi; kengaytirilgan; qayta tiklash uchun; uzaytirish uchun; ixtisoslashtirilgan tekshiruv.
13. Otorinolaringologik anamnez:_____
_____
_____
14. Klinik tekshiruv, har bir a’zo tekshiriladi:

T/r	Tana a’zolari	normal	Buzilishlar
15.	Bosh, yuz, bo‘yin, bosh terisi		
16.	Og‘iz bo‘shlig‘i, tishlar		
17.	Tomoq (halqum)		
18.	Burun yo‘llari va burunhalqum qismi (shu jumladan oldingi rinoskopiya)		
19.	Vestibulyar tizim, shu jumladan Romberg testi		

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

20.	Nutq		
21.	Sinuslar		
22.	Tashqi eshitish yo‘llari, quloq pardasi		
23.	Pnevmatik otoskopiya		
24.	Impedanstimpanometriya, Valsalva sinovi (faqat birlamchi tekshiruvda)		
25.	Qo‘shimcha testlar (tibbiy ko‘rsatmalar mavjudligida) Qo‘llanilmadi		
26.	Nutq audiometriyasi		
27.	Orqa rinoskopiya		
28.	Spontan va kalorik sinovlar		
29.	Differensial kalorik sinovi yoki aylanish vestibulyar sinovi		
30.	Bilvosita yoki fibrooptik laringoskopiya		
31.	Tonal audiometriya va audiogramma, A4 shaklidagi audiometr qurilmasida o‘tkazilgan tekshiruv hisoboti biriktirilgan		

32. Otorinolaringolog shifokorning izohlari va tavsiyalari:_____
_____
_____

33. Otorinolaringolog shifokorning bayonoti:

Men ushbu otorinolaringologik ekspertiza hisobotida ismi ko‘rsatilgan arizachini shaxsan otorinolaringologik ko‘rikdan o‘tkazib, tekshirganimni va ushbu hisobotda barcha tekshiruv natijalari to‘liq va aniq etib belgilanganligini tasdiqlayman.

34. Joy va sana:_____

Otorinolaringolog shifokorning F.I.O._____

_____imzosi_____

manzili:_____

Telefon:_____

Otorinolaringolog shifokorning muhri:

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Fuqaro aviatsiyasida tibbiy ko‘rikdan
o‘tkazish va tibbiy xulosa berish tartibi
to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining
aviatsiya qoidalariga
13-ILOVA

TERAPEVTIK TEKSHIRUV HISOBOTI

(konfidensial tibbiy ma’lumot)

1. Ismi, familiyasi va otasini ismi, tug‘ilgan yili_____
_____

2. Tekshiruv toifasi: birlamchi; kengaytirilgan; qayta tiklash uchun; uzaytirish uchun; ixtisoslashtirilgan yo‘nalish_____

3. Bo‘yi (sm)_____4. Tana vazni (kg)_____

5. Ko‘z rangi_____6. Soch rangi_____

7. Qon bosimi (mm. sim.ust.) sistolik _____diastolik_____

8. Tin holda puls_____Chastotasi (daqiqada)_____ Ritm_____

Klinik tekshiruv: _____

T/r	Tana sohasi	Norma	Buzilishlar
1.	Bosh, yuz, bo‘yin, bosh terisi		
2.	Og‘iz bo‘shlig‘i, tomoq, tishlar		
3.	Burun, burun bo‘shliqlari		
4.	Quloqlar, o‘rta quloq, nog‘ora pardaning harakatchanligi		
5.	Ko‘zlar, shilliq parda		
6.	O‘pka, ko‘krak qafasi, nafas olish chastotasi		
7.	Yurak		
8.	Qon tomir tizimi		
9.	Qorin, churra, jigar, qorataloq		
10.	Endokrin tizimi		
11.	Qo‘l-oyoqlar, bo‘g‘imlar		
12.	Umurtqa pog‘onasi va harakat-tayanch tizimi		
13.	Teri va limfatik tugunlar		
14.	Qon bosimi		
15.	Puls, ritm xususiyatlari		
16.	Identifikatsiya belgilari, tatuirovka, chandiqlar va boshqalar		

17. Buzilishlar va normadan og‘ishlarni tavsiflash, har bir izoh oldidan tegishli raqam ko‘rsatiladi._____
_____
_____

18. Umumiy terapevtik tekshiruv:_____
_____
_____

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

_____

19. Terapevt shifokorning izohlari va tavsiyalari:_____
_____
_____

20. Terapevt shifokorning bayonoti:

Men ushbu terapevtik ekspertiza hisobotida ismi ko‘rsatilgan arizachini shaxsan terapevtik ko‘rikdan o‘tkazib, tekshirganimni va ushbu hisobotda barcha tekshiruv natijalari to‘liq va aniq etib belgilanganligini tasdiqlayman.

21. Joy va sana:_____

Terapevt shifokorning F.I.O._____

_____imzosi_____

manzili:_____

Telefon/faks:_____

Terapevt shifokorning muhri

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Fuqaro aviatsiyasida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish
va tibbiy xulosa berish tartibi to‘g‘risidagi
O‘zbekiston Respublikasining
aviatsiya qoidalariga
14-ILOVA

AVIATSIYA TIBBIY EKSPERTINING TIBBIY KO‘RIK HAQIDA HISOBOTI

(konfidensial tibbiy ma’lumot)

1. Ismi, familiyasi va otasining ismi, tug‘ilgan yili_____

_____

2. Tekshiruv toifasi: birlamchi; kengaytirilgan; qayta tiklash uchun; uzaytirish uchun; ixtisoslashtirilgan yo‘nalish_____

3. Bo‘yi (sm)_____4. Tana vazni (kg)_____

5. Ko‘z rangi_____ 6. Soch rangi_____

7. Qon bosimi (mm. sim.ust.) sistolik _____diastolik_____

8. Tin holda puls_____Chastotasi (daqiqada)_____ Ritm_____

Klinik tekshiruv: _____

T/r	Tana sohasi	Norma	Buzilishlar
1.	Bosh, yuz, bo‘yin, bosh terisi		
2.	Og‘iz bo‘shlig‘i, tomoq, tishlar		
3.	Burun, burun bo‘shliqlari		
4.	Quloqlar, o‘rta quloq, nog‘ora pardaning harakatchanligi		
5.	Ko‘zlar – ko‘z kosasi va qo‘shimchalari: ko‘rish maydoni		
6.	Ko‘zlar – ko‘z qorachig‘i, rangi, ko‘z tubi		
7.	Ko‘zlar – ko‘z olmasining harakatchanligi, nistagm, ko‘z mushaklarining muvozanati		
8.	O‘pka, ko‘krak qafasi, sut bezlari		
9.	Yurak		
10.	Qon tomir tizimi		
11.	Qorin, churra, jigar, qorataloq		
12.	Anus, to‘g‘ri ichak		
13.	Tanosil a’zolari		
14.	Endokrin tizimi		
15.	Qo‘l-oyoqlar, bo‘g‘imlar		
16.	Umurtqa pog‘onasi va harakat-tayanch tizimi		
17.	Nevrologiya - reflekslar va boshqalar		
18.	Ruhiy-asab tizimi		
19.	Teri va limfatik tugunlar		
20.	Identifikatsiya belgilari, tatuirovka, chandiqlar va boshqalar		

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

21. Buzilishlar va normadan og‘ishlarni tavsiflash, har bir izoh oldidan tegishli raqam ko‘rsatiladi._____
_____
_____

22. Umumiy terapevtik tekshiruv:_____
_____
_____

23. Ko‘rish o‘tkirligi 5 m/6m masofada				
	Korreksiyasiz	Korr. bilan	Ko‘zoynak	Kontakt linzalar
O‘ng ko‘z				
Chap ko‘z				
Ikkala ko‘z				

24. O‘rta masofada ko‘rish 4-sonli 100 sm ga				
	Korreksiyasiz □		Korreksiya bilan □	
	Ha	Yo‘q	Ha	Yo‘q
O‘ng ko‘z				
Chap ko‘z				
Ikkala ko‘z				

25. Yaqin masofada ko‘rish 5-sonli 30-50 sm ga				
	Korreksiyasiz □		Korreksiya bilan □	
	Ha	Yo‘q	Ha	Yo‘q
O‘ng ko‘z				
Chap ko‘z				
Ikkala ko‘z				

26. Ko‘zoynak Ha □ Yo‘q □ Turi:	27. Kontakt linzalar Ha □ Yo‘q □ Turi:
28. Rang ko‘rish: Normada □ Anormal □	
Psevdoizoxromatik jadvallar	Turi
Jadvallar soni	Xatolar soni

29. Eshitish qobiliyati		
	O‘ng quloq	Chap quloq
Tekshiruvchiga orqa o‘girib 2 m masofada oddiy ovoz balandligi bilan suhbat	Ha □ Yo‘q □	Ha □ Yo‘q □

30. Audiometrik tekshiruv				
Gs	500	1000	2000	3000
O‘ng quloq				
Chap quloq				

31. Peshob tahlili Norma □ Anormal □			
Glyukoza	Oqsil	Qon	Boshqalar
32. Ruhiy salomatlik muammolari muhokama qilindi Ha □ Yo‘q □			

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

33. Xulq-atvor bilan muammolar muhokama qilindi Ha □ Yo‘q □			
34. Jismoniy sog‘liqni saqlashga qaratilgan tadbirlar muhokama qilindi Ha □ Yo‘q □			
35. Profilaktik va sog‘lomlashtirish tadbirlari ishlab chiqilgan Ha □ Yo‘q □			
36. Tekshiruvlar	Normada	Anormal/izohlar	Bajarilmagan
37. EKG			
38. Audiogramma			
39. Boshqa tekshiruvlar			

40. Tibbiy uchish komissiyasi a’zolarining tavsiyalari:_____

_____

41. Nomzodning F.I.O.:_____

Tug‘ilgan sanasi, oy, yil.:_____

Yaroqli □ klass

Quyida imzo chekuvchi tibbiy xulosani berdi (nusxasi ilova qilinadi)

Yaroqsiz □ klass

Asos:_____

_____

Qo‘shimcha tekshiruvlar belgilangan Ha □ Yo‘q □ Agar ha bo‘lsa tekshiruvni asoslantiring, kim tomonidan va qachon o‘tkaziladi._____

_____

42. Cheklovlar, izohlar:_____

_____

43. Aviatsiya tibbiy eksperti bayonoti: Tayinlangan tibbiy uchish komissiyasi a’zolaridan iborat guruhimni ushbu hisobotda ko‘rsatilgan nomzod (F.I.O)._____ni shaxsan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazganligini va barcha tibbiy ko‘rik va tibbiy tekshiruvlar natijalari ilovalari bilan to‘liq, to‘g‘ri va aniq rasmiylashtirilganligini tasdiqlayman. Men, O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi tomonidan belgilangan talablarning buzilishida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra jazo choralari ko‘rilishi bilan tanishman.		
44. Joy va sana	46. Aviatsiya tibbiy eksperti (F.I.O., imzo) Adres: El. pochta: Telefon:	TUK nomi, muhri
45. Komissiya a’zolarining F.I.O. va imzosi		

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Fuqaro aviatsiyasida tibbiy koʻrikdan
oʻtkazish va tibbiy xulosa berish tartibi
toʻgʻrisidagi Oʻzbekiston Respublikasining
aviatsiya qoidalariga
15-ILOVA

Oʻzbekiston Respublikasi Transport vazirligi
huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi

_____
(fuqaro aviatsiyasi tashkiloti nomi)
xodimlar boʻlimiga

“Tibbiy xulosa” berish rad etilganligi toʻgʻrisida

XABARNOMA _____-sonli

Nomzod _____
(F.I.O.)

Aviatsiya qoidalariga asosan _____ga yaroqsiz deb
(kasbi)
topilgani sababli tibbiy xulosa (sertifikat) berish rad etildi.
Tavsiyalar:
qayta koʻrikdan oʻtish tavsiya etilmaydi_____ keyin
qayta koʻrikdan oʻtish tavsiya etiladi_____
20 __ y. “____” _____.

_____
(tibbiy ekspert F.I.O., imzosi)

M. O.‘

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Fuqaro aviatsiyasida tibbiy ko‘rikdan
o‘tkazish va tibbiy xulosa berish tartibi
to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining
aviatsiya qoidalariga
16-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi
Fuqaro aviatsiyasi agentligining
Aviatsiya tibbiyoti bo‘limiga
taqdim etish uchun

Aviatsiya xodimlari orasida o‘lim yoki to‘satdan ish qobiliyatini yo‘qotish holatlarini tahlil qilish uchun
SO‘ROVNOMA

1. Aviatsiya xodimining F.I.O._____
2. Tug‘ilgan sanasi_____3. Oilaviy holati: oilali; ajrashgan; yolg‘iz.
4. Mansabi: komandir; 2-uchuvchi; shturman; bortmuhandis; uchuvchi-instruktor; bortradist; bortmexanik; dispetcher, bortoperator; bortkuzatuvchi; planerchi.
5. Havo kemasi turi_____6. Mehnat staji_____
7. Uchuvchining klassi_____8. Umumiy uchish soati_____
9. Mazkur turdagi havo kemasida uchgan soati_____
10. Holat sodir bo‘lgan sana_____
11. Kasallik (kasallanish)ning ilk belgilari paydo bo‘lgan joy: aeroportda; aeroportdan tashqarida; uchish (parvoz, ish) vaqtida; uchish (parvoz, ish)dan keyin, noaniq.
12. Holat bo‘yicha kimga, qachon, qayerda va kim orqali ma’lumot berilgan_____
_____
13. Holat bo‘yicha hududiy tibbiy muassasaga murojaat qilinganmi_____
_____
14. Holat yakuni: qisqa muddatli ish qobiliyatini yo‘qotish (1 sutkagacha); uzoq muddatli ish qobiliyatini yo‘qotish (1 sutkadan ko‘p); o‘lim.
15. Holat yakuni sodir bo‘lgan joy: havo kemasida, tibbiy punktda; boshqa joy (ko‘rsating)
_____
16. Holatning havo xavfsizligiga ta’siri: ta’siri yo‘q; aerodromga majburiy qo‘nish; aerodromdan tashqariga majburiy qo‘nish; avariya; katastrofa.
17. Oxirgi yil davomida tibbiy muassasa shifokori qabulida bo‘lgani_____
18. Anamneziga oid o‘tkazgan kasalliklari, operatsiya, jarohatlar va hokazo:_____
_____
_____
_____
19. Oxirgi uchishdan oldingi tibbiy ko‘rik _____
_____

20. Ish qobiliyati yo‘qolishining yoki o‘limning bevosita sabablari (taxmin qilinayotganlari + belgisi bilan belgilanadi, boshqa sabablar bo‘lsa bo‘sh ustunda ko‘rsatiladi).

Infeksiyalar		Qon ketishi	
Intoksikatsiya		Jarohatlar	

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Yurak qon-tomir yetishmovchiligi		Ovqat hazm qilish a’zolari faoliyatining buzilishi	
Nafas faoliyatining buzilishi			
Miyada qon aylanishining buzilishi			

21. Oxirgi 3 yil davomida tibbiy ko‘rikdan o‘tish natijalari haqida ma’lumotlar:

Yil	**20____y.**	**20____y.**	**20____y.**
Tana vazni			
Bo‘yi			
Qon bosimi			
Yurak qisqarishlari soni			
EKG xulosasi			
Terapevt			
Nevrolog			
Jarroh			
Oftalmolog			
Otorinolaringolog			
Psixolog			
Tibbiy ko‘rik sanasi, tashxis, tavsiyalar			

22. Kasallikning (kasallanishning) xuruj davridagi klinik belgilari (tibbiy xodimlar, ekipaj a’zolari, kasbdoshlar yoki o‘zining ma’lumotlari asosida) (+ belgisi bilan belgilanadi, boshqa sabablar bo‘sh ustunlarda ko‘rsatiladi):

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Keskin holsizlik		Bachadondan qon ketishi	
Bosh aylanishi		Gavdaning majburiy (noiloj) holati	
Og‘riq		Gemiparez	
So‘lak oqishi		Tutqanoq	
Ko‘ngil aynishi		Yon-atrofning dezoriyentatsiyasi	
Qayt qilish		Asablarning qo‘zg‘alishi	
Ich ketishi		Hushdan ketish	
Tez-tez siyish		Eshitishning yo‘qolishi (pasayishi)	
Beto‘xtov yo‘tal		Ko‘rishning yo‘qolishi (pasayishi)	
Bezgak holati			
Nafas siqishi (bo‘g‘ilish)			
Gematuriya			
Qon tuflash			

23. To‘satdan ish qobiliyatini yo‘qotishga olib kelgan kasallikning (kasallanishning) tekshiruvidan yoki davolashdan keyingi yakuniy tashxis:_____

_____

_____

_____

24. Patalogoanatom yoki sud-tibbiyot ekspertizasi xulosasi (o‘likni yorib ko‘rishga doir ma’lumotlar bilan birga):_____

_____

_____

_____

_____

Sana_____Biriktirilgan shifokor (F.I.O., imzo)_____

25. O‘lim yoki to‘satdan ish qobiliyatini yo‘qotish holatining tahlili bo‘yicha tibbiy uchish komissiyasi bayonnomasi:

_____

_____

_____

_____

_____

tibbiy uchish komissiyasi xulosasi:_____

_____

_____

M.O‘. Sana_____ tibbiy uchish komissiyasi raisi (F.I.O., imzo)_____

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Fuqaro aviatsiyasida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish
va tibbiy xulosa berish tartibi to‘g‘risidagi
O‘zbekiston Respublikasining
aviatsiya qoidalariga
17-ILOVA

20_____yilda Fuqaro aviatsiyasi xodimlariga komissiya oralig‘i davrida o‘tkazilgan tibbiy kuzatuv natijalari bo‘yicha
HISOBOT

Uchuvchilar otryadi (dispetcherlar, bortkuzatuvchilar xizmati)
(keragini tagiga chizing)
Jami shaxslar _____

Fuqaro aviatsiyasi tashkiloti shifokori
F.I.O._____
Ulardagi jami kasalliklar (XKK - A00-T98 shifri bo‘yicha)___

T/r	Klasslar va kasalliklarning nomi	XKK –X - shifri	Hisobot yili boshlangunga qadar dispanser nazoratida bo‘lgan	Hisobot davrida					Hisobot yili oxirida dispanser nazoratida bo‘lgan	Ulardan ayollar
				dispanser nazoratiga olindi		dispanser nazoratidan chiqarildi				
				jami	ulardan birinchi marta tashxis qo‘yilganlar	jami	shu jumladan			
							sog‘ayishi bilan	o‘lim bilan		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
1.	Ba’zi bir yuqumli va parazitar kasalliklar	A00–V99								
2.	O‘smalar, ulardan: xavfsizi	S00–D48 D10–D36								
3.	Endokrin tizimi kasalliklari, ovqatlanishning buzilishi, modda almashinuvining buzilishi, ulardan: tireotoksikoz qandli diabet	E00–Ye90 Ye05 Ye10–Ye14								
4.	Asab tizimi kasalliklari, ulardan: epilepsiya periferik asab tizimi kasalliklari	G00–G99 G 40–41 G50–73								
5.	Ko‘z va uning yondosh apparati kasalliklari, ulardan: glaukoma uzoqni ko‘ra olmaslik	N00–N59 N40–N42 N52.1								
6.	Quloq va so‘rg‘ichsimon o‘simta kasalliklari	N60–N95								

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

7.	Qon aylanish tizimi kasalliklari, ulardan: qon bosimi ko‘tarilishi bilan kasalliklar serebrovaskulyar kasalliklar	I00-I99 I10-I13 I60-I69								
8.	Nafas olish a’zolari kasalliklari, ulardan: surunkali faringit, nazofaringit, rinit, sinusit surunkali bodomsimon bezlar, adenoidlar kasalliklari, peritonzillyar abssessi allergik rinit surunkali va aniqlanmagan bronxit	J00-J99 J31-J32 J35 J30 J40-43								
9.	Ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklari, ulardan: oshqozon va o‘n ikki barmoq ichak yara kasalligi gastrit, duodenit surunkali gepatit o‘t pufagini tosh kasalligi o‘t pufagi va o‘t chiqarish yo‘llari kasalliklari	K00-K93 K25-26 K29 K73 K80 K81-83								
10.	Siydik tanosil tizimi kasalliklari, ulardan: glomerulyar, tubulointerstitsial va boshqa buyrak va siydik yo‘llari kasalliklari; buyrak tosh kasalligi; prostata bezi kasalliklari; salpingit, ooforit endometrioz; bachadon eroziyasi va ektropioni; hayz ko‘rishning buzilishi	N00-N 99 N00-N16 N25-28 N20-23 N40-42 N70 N80 N86 N91-94								
11.	Homiladorlik, tug‘ish, tug‘ishdan keyingi davr	O00-O99								

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

12.	Teri va teri osti yog‘ qatlami kasalliklari	L00-L99								
13.	Suyak-mushak tizimi va biriktiruvchi to‘qima kasalliklari	M00-M99								
14.	Jarohatlar, zaharlanishlar va tashqi sabablar ta’siridagi ba’zi bir oqibatlar	S00-T98								
15.	Boshqa kasalliklar (X-XKK muvofiq ko‘rsatilsin)									

Hisobotga ilova qilinadi:

1) 30 kundan ortiq bo‘lgan vaqtincha mehnat layoqatini yo‘qotgan shaxslar ro‘yxati (F.I.O., tug‘ilgan sanasi, tashxis, mehnatga layoqatsiz bo‘lgan kunlarining umumiy soni);

2) 55 yoshdan katta bo‘lgan shaxslar ro‘yxati;

3) o‘tkazilgan davolash-sog‘lomlashtirish tadbirlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar (sog‘lomlashtirish turi, har bir tur bo‘yicha shaxslar soni);

4) hisobot davrida ishga yaroqsiz deb topilgan shaxslar ro‘yxati (F.I.O., lavozim, “yaroqsiz” deb topilgan tashxis ko‘rsatilsin);

5) hisobot yilida o‘lgan shaxslar ro‘yxati (F.I.O., tug‘ilgan sanasi, lavozimi, o‘lim sanasi, tibbiy - sud ekspertizasi xulosasi, o‘lim sababi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Fuqaro aviatsiyasida tibbiy ko‘rikdan
o‘tkazish va tibbiy xulosa berish tartibi
to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining
aviatsiya qoidalariga
18-ILOVA

Fuqaro aviatsiyasi tashkiloti nomi
20____y. “__”_____

20_____y. uchun fuqaro aviatsiyasi havo kemalari ekipaj a’zolarini uchishdan oldin o‘tkazilgan tibbiy ko‘rik natijalari to‘g‘risida
MA’LUMOTLAR

Ko‘rsatkich nomi	**Uchuvchi rahbarlar tarkibi**	**Samolyot**		**Vertolyot**		**Shturman**	**Bortmuhandis, bortmexanik, bortradist**	**Jami uchuvchilar tarkibi**	**Bortkuzatuvchi**	**Bortoperator**
		HK komandiri	**2-uchuvchi**	**HK komandiri**	**2-uchuvchi**					
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
Jami ko‘rikdan o‘tgan										
Jami ko‘rikdan chetlatildi										
Ulardan quyidagi sabablarga ko‘ra:										
O‘tkir kasallik										
Surunkali kasallikning xuruji										
Uchishdan oldingi dam olish tartibiga rioya qilmaganligi										
Davriy tibbiy ko‘rikdan o‘tmaganligi										
Alkogol iste’mol qilganligi										
Boshqa sabablar										

Fuqaro aviatsiyasi tashkiloti shifokori (F.I.O., imzo)

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Fuqaro aviatsiyasida tibbiy koʻrikdan
oʻtkazish va tibbiy xulosa berish tartibi
toʻgʻrisidagi Oʻzbekiston Respublikasining
aviatsiya qoidalariga
19-ILOVA

Tibbiy uchish komissiyasi a’zolari (shifokor – mutaxassislar)ning xonalarini jihozlash uchun kerakli tibbiy texnika va tibbiy buyumlar

1. Terapevt xonasi uchun: sfigmomanometr (tonometr), stetofonendoskop, shpatellar (bir martalik), termometrlar, tibbiy kushetka.

2. Jarroh xonasi uchun: boʻy oʻlchagich, tibbiy tarozi, qoʻl va oyoq kuchini oʻlchovchi dinamometrlar, santimetrli oʻlchov tasmasi, burchak oʻlchagich, stetofonendoskop, negataskop, spirometr, jarrohlik qoʻlqoplari, tibbiy kushetka, sfigmomanometr.

3. Nevrolog xonasi uchun: sfigmomanometr (tonometr), stetofonendoskop, sekundomer, nevrologik tekshiruv uchun bolgʻacha, tibbiy kushetka.

4. Otorinolaringolog xonasi uchun: egiluvchan shtativli stol chirogʻi, vestibulyar analizatorni tekshirish uchun aylanadigan kreslo (Barani kreslosi), audiometr blanklari bilan, peshona reflektori, til uchun shpatellar (bir martalik), quloq voronkalari, burun oynalari, otoskoplar, qovurgʻasimon egik quloq pinsetlari, buyraksimon lotoklar, katta yigʻiluvchi lupa, kamertonlar yigʻmasi, tibbiy kushetka.

5. Oftalmolog xonasi uchun: jadvalni yoritish uchun uskuna (Rota), Golovin – Sivsev jadvallari, Rabkinning polixromatik jadvali (8, 9-nashrlar), optik oynalar toʻplami, refraktometr, skiaskopik chizgʻich, oftalmoskop (oynali), elektrik oftalmoskop, sharli perimetr (stol perimetri yoritgichi bilan), binokulyar koʻrishni aniqlash uchun asbob (svetotest PBI-1, sinoptofer kabi), tungi koʻrish oʻtkirligi va qorongʻilikka moslashuvchanlikni aniqlash uchun uskuna, egiluvchan shtativli stol lampasi, tirqishli chiroq transformator bilan, Maklakov tonometri, gonioskop, Meddoks shkalasi, ekzoftalmometr, akkomodograf, koʻz yosh yoʻllarini yuvish uchun toʻplam, kampimetr, tibbiy kushetka, anomaloskop.

6. Psixolog xonasi uchun: sekundomer, “Abituriyent” apparati, testlar (blanklar) toʻplami, kompyuterlar va psixologik tekshiruv uchun avtomatlashtirilgan dasturlar toʻplami.

7. Zamonaviy talablarga javob bermaydigan, eskirgan, yaroqsiz holga kelgan tibbiy texnika va tibbiy buyumlar mukammallashtirilgan, zamonaviylariga almashtiriladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Fuqaro aviatsiyasida tibbiy ko‘rikdan
o‘tkazish va tibbiy xulosa berish tartibi
to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining
aviatsiya qoidalariga
20-ILOVA

Tibbiy ko‘rik o‘tkazish uchun tekshiruvlar hajmi

1. Terapevt tekshiruvida: og‘iz bo‘shlig‘i, halqum, teri qoplamlari, ko‘rinarli shilliq qavatlar, limfa tugunlari va qalqonsimon bez, shaxsning yoshiga mos umumiy ko‘rinishi hamda nafas olish, qon aylanish, ovqat hazm qilish va siydik ajratish organlari tekshiruvlari o‘tkaziladi va ularning funksional imkoniyatlari (qobiliyati) aniqlanadi va baholanadi.

2. Jarroh tekshiruvida: tana tuzilishi, mushaklar va teri osti yog‘ qatlamlarini rivojlanishi, qomati, yurishi tekshiriladi.

Teri, limfa tugunlari, periferik tomirlar, suyaklar, qalqonsimon bez, sut bezi, bo‘g‘imlar, qorin bo‘shlig‘i organlari, tashqi jinsiy a’zolar va orqa chiqaruv teshigi sohalarining holatlari sinchiklab tekshirib, baholanadi.

To‘g‘ri ichak va prostata bezlarining barmoq yordamida tekshiruvi shikoyatlari mavjud bo‘lgan erkaklarda va 50 yoshdan boshlab hamma erkaklarda o‘tkaziladi.

Antropometriya (bo‘yi, tana vazni, ko‘krak aylanasi, qo‘l dinamometriyasi, spirometriya) ko‘rsatkichlari aniqlanadi.

3. Nevrolog tekshiruvida: tashqi ko‘rikda teri chandiqlari, atrofiya, fibrillyar va fassikulyar titrashlar tekshiriladi.

Chanoq, miya nervlari, harakatlantiruvchi, reflektor va sezuvchanlik sohalari, statika va koordinatsiya, vegetativ-nerv tizimi (dermografizm, akrotsianoz, gipergidroz, tremor, ortoklinostatik sinov), emotsional-ruhiy holatlari tekshiruvlari o‘tkaziladi va baholanadi.

4. Otorinolaringolog tekshiruvida: tashqi ko‘rik, endoskopiya, oldingi va ortki rinoskopiya, otoskopiya, faringoskopiya, laringoskopiya, quloq barofunksiyasi tekshiruvlari o‘tkaziladi, burun orqali nafas olish va hid sezish aniqlanadi.

Vestibulometriya (statokinetik chidamlilikni aniqlash) Koriolis tezlanishining uzluksiz kumulyatsiyasi uslubida 3 daqiqa davomida yoki Koriolis tezlanishining uzlukli kumulyatsiyasi uslubida 2 daqiqa davomida o‘tkaziladi.

Vestibulometriya fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan barcha nomzodlarga o‘tkaziladi (dispetcherlikka o‘qishga nomzodlar bundan mustasno), uchuvchilar tarkibi va kabina ekipaji a’zolariga tibbiy ko‘rsatmalar mavjudligida o‘tkaziladi.

Sof tonal audiometriyada 125 – 8000 Gs diapazondagi chastotalar qo‘llaniladi, tibbiy hujjatga faqat 500, 1000, 2000 i 3000 Gs chastota natijalariga tegishli ma’lumotlar kiritiladi.

Tonal audiometriya: fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan barcha nomzodlarda; fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlarining uchuvchilar tarkibiga kiruvchi bitiruvchilarida, 1-klass nomzodlarida – har 5 yilda, 40 yoshga to‘lganda har 2 yilda, eshitish qobiliyatini buzilishi bilan tashxis qo‘yilganda, yilda 1 marta o‘tkaziladi, 2-klass nomzodlar – 50 yoshga to‘lganda har 2 yilda, 3-klass nomzodlarga har 4 yilda, 40 yoshga to‘lganda har 2 yilda o‘tkaziladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Shivirlash va so‘zlashuv nutqi yordamida o‘tkaziladigan tekshiruv xonasida tashqi shovqin 35 dB (A) dan past bo‘lishi lozim.

Eshitishni tekshirish maqsadida o‘tkaziladigan o‘rtacha so‘zlashuvda, so‘zlayotganning pastki labidan 1 m oraliqda ovoz intensivligi 60 dB(A), shivirlashda – 45 dB(A)ni tashkil qiladi, 2 m oraliqda ovoz intensivligi 6 dB(A)ga past.

5. Oftalmolog tekshiruvida: ko‘rish o‘tkirligi, rangli ko‘rish, binokulyar ko‘rish, tunda ko‘rish, konvergensiyaning eng yaqin nuqtasi, aniq ko‘rishning eng yaqin nuqtasi, ko‘rish a’zosining anatomik holati hamda skioskopiya yoki refraktometriya natijalari aniqlanadi.

Ko‘rish o‘tkirligi tekshiriladigan xona yorug‘ligi 30-60 kd/m^2 bo‘lishi lozim.

Ko‘zining ichki bosimi, 1 va 3-klass nomzodlari 40 yoshga to‘lganda har 3 yilda 1 marta, 50 yoshga to‘lganda 2 yilda 1 marta, 2-klass nomzodlari esa 40 yoshda va 50 yoshda 1 marta, hamda tibbiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lganda o‘lchanadi.

Ko‘z ichki bosimi tekshiruvi o‘tkazilgan nomzodlar bir kun mobaynida ishdan va boshqa tekshiruvlardan ozod qilinadi.

6. Psixologik tekshiruvlar:

fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilinayotgan barcha nomzodlarda;

uchuvchi tarkibidagilar 50 yoshda, 1-klass tibbiy xulosasiga nomzodlar 55 yoshdan keyin har 2 yilda 1 marta, 60 yoshdan keyin har yili;

3-klass tibbiy xulosasiga nomzodlar 50 yoshda, 55 yoshda, keyinchalik har 2 yilda;

bosh havodagi harakatni boshqarish dispetcheri (bundan buyon matnda HHB dispetcheri deb yuritiladi) va parvozlar rahbari lavozimlariga tavsiya etilganda hamda HHB dispetcheriga “instruktor”, uchuvchilarga “instruktor” yoki “havo kemasi komandiri” malaka belgilari berilishidan oldin;

1 va 3-klass tibbiy xulosasiga nomzodlarning kasbiy faoliyatidagi uzilish 4 oydan ortiqligida;

birinchi marta yo‘nalish bo‘yicha uchuvchilikka guvohnoma olishdan avval (samolyot, vertolyot);

tibbiy ekspertlar yoki tibbiy-uchish komissiyasi (bundan buyon matnda TUK dispetcheri deb yuritiladi) nevrologining asoslantirilgan tibbiy ko‘rsatmasi mavjudligida o‘tkaziladi.

Psixologik tekshiruv, ko‘z qorachig‘ini kengaytiruvchi preparatlar tomizilgandan keyin 3 kun o‘tgandan so‘ng o‘tkaziladi.

7. Stomatologik tekshiruvda: tibbiy ko‘rikda tishlar, milklar va og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatining holati, tishlar jipsligi, tish formulasi, qoplama tishlar, yasama tishlar yoki sun’iy milklar mavjudligi tekshiriladi.

8. Dermatovenerolog ko‘rigi: fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlarida kabina ekipaji a’zoligiga o‘qishga qabul qilinayotgan nomzodlarda, kabina ekipaji a’zolarida yilda 2 marta o‘tkaziladi.

9. Ginekolog ko‘rigi – yilda 1 marta o‘tkaziladi.

10. Laborator-funksional tekshiruvlar:

barcha nomzodlarda kengaytirilgan umumiy qon tahlili, umumiy peshob tahlili, qondagi qand miqdori;

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

zaharli ximikatlar bilan aviatsiya kimyoviy ishlarini bajarayotgan uchuvchilar tarkibi uchun: bilirubin va uning fraksiyalari, aspartataminotransferaza (AST), alaninaminotransferaza (ALT), gammaglutamiltranspeptidaza (GGTP), immunofermentlar tahlili;

ayollarda yilda 1 marta mazok (surtma)ning sitologik tekshiruvi;

barcha nomzodlarda tibbiy ko‘rikdan o‘tishidan avval qonning orttirilgan immun tanqisligi tekshiruvi;

fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlarida kabina ekipaji a’zoligiga o‘qishga nomzodlarga va kabina ekipaji a’zolarida qonning RW (Vasserman reaksiyasi) tahlili, najasning ichak infeksiyalari va gelmintlarga tekshiruvi yilda 1 marta o‘tkaziladi.

11. Rentgenologik tekshiruvlar:

fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilinayotgan barcha nomzodlarda ko‘krak qafasining rentgenografiyasi;

aviatsiya xodimlarida 4 yilda 1 marta, kabina ekipaji a’zolarida yilda 1 marta yirik kadrli flyurografiya;

fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlariga uchuvchilikka, shturmanlikka, bortmuhandislikka, kabina ekipaji a’zoligiga o‘qishga qabul qilinayotgan nomzodlarda burun yondosh bo‘shliqlarining rentgenografiyasi o‘tkaziladi.

12. Elektroensefalografiya: fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilinayotgan nomzodlarda o‘tkaziladi. 1-klass va 3-klass tibbiy xulosasiga nomzodlarda 50 yoshga to‘lganda va 55 yoshdan keyin har 3 yilda 1 marta o‘tkaziladi.

13. Bosh va bo‘yin arteriyalarning ultratovush diagnostikasi, exokardiografiya, rektoromanoskopiya asoslantirilgan tibbiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lganda o‘tkaziladi.

14. Elektrokardiografiya:

fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilinayotgan nomzodlarda;

1-klass tibbiy xulosasiga nomzodlarda yilda 1 marta;

HHB dispetcherlariga navbatdagi tibbiy ko‘rikdan o‘tishda;

fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlari kursantlari, bortkuzatuvchilar, bortoperatorlar, erkin aerostat uchuvchilari, havaskor-uchuvchilar, uchuvchi-planeristlar, o‘ta yengil uchish apparatlarining uchuvchilarida 4 yilda 1 marta o‘tkaziladi.

15. Tredmiltest:

avval yaroqsiz deb topilgan 1-klass tibbiy xulosasiga nomzodlarga (samolyot, vertolyot) uchuvchilik ishiga qayta tiklanishida;

1-klass tibbiy xulosasiga nomzodlarga 40, 50, 55 va 60 yoshda;

tibbiy ekspertlar yoki TUK terapevtining asoslantirilgan tibbiy ko‘rsatmalari mavjud bo‘lganda o‘tkaziladi.

Bryus standart yugurish yo‘lakchasidan foydalanish jadvali

Bosqich	1	2	3	4	5	6	7
mil/s	1,7	2,5	3,4	4,2	5,0	5,5	6,0
%	10,0	12,0	14,0	16,0	18,0	20,0	22,0

Test natijalarini to‘g‘ri talqin qilish muhim hisoblanadi. Sekundiga 60 mm tezlikda yozilgan EKGda J nuqtasidan keyin S tishchasi bilan ST segmenti tutashgan sohada o‘lchanadigan ST segmentining pasayishi yoki ko‘tarilishiga alohida e’tibor qaratilishi lozim.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

ST segmenti tinch holatda, jismoniy zo‘riqishning dastlabki bosqichida, yozuv jarayonida, ayniqsa tiklanishning ilk bosqichida sinchiklab o‘rganiladi, EKGning tiklanish bosqichi esa 10 daqiqa davomida qayd etib boriladi. ST segmentining 2 mm gorizontal pasayishi har doim ham “musbat natija”, ya’ni koronar arteriyalar kasalligi mavjudligini anglatmaydi. Bunda o‘zgarishlar koronar arteriyalar kasalligi bo‘lmagan hollarda ham kuzatilishi mumkin.

Yozuvni talqin qilishda yuklamaning davomiyligi, mavjud bo‘lsa klinik simptomlar hamda qayd etilgan o‘zgarishlarning xususiyati inobatga olinadi.

16. Glyukozotolerantli test: yurak qon-tomir kasalliklarida, semizlikda, qondagi qand miqdorining ko‘tarilishida va boshqa tibbiy ko‘rsatmalar mavjudligida o‘tkaziladi.

17. Ortostatik sinov: yurak qon-tomir va asab tizimlari holatining diagnostikasida o‘tkaziladi.

Tibbiy ko‘rsatmalar mavjudligida (gavda holatining keskin o‘zgarishi yoki qon bosimining pasayib ketishi tufayli fiziologik buzilishlarda, bosh aylanishi va hushdan ketish holatlari mavjudligida) o‘tkaziladi.

18. Fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilinayotgan nomzodlarga, uchuvchi tarkibiga (samolyot, vertolyot) 45 yoshga to‘lganda va keyinchalik 3 yilda 1 marta; bortoperator, bortkuzatuvchi, HHB dispetcheri, uchuvchi-planeristlar 50 yoshga to‘lganda quyidagi tekshiruvlar o‘tkaziladi:

umumiy oqsil va bilirubin fraksiyalari bilan xolesterin, alfa-xolesterin, triglitseridlar, S-reaktiv oqsil, AST, ALT fermentlar;

ezofagogastroduodenoskopiyasi (EFGDS) yoki oshqozon va o‘n ikki barmoqli ichak rentgenoskopiyasi;

jigar, o‘t pufagi, oshqozon osti bezi, qora taloq, buyraklarning ultratovush tekshiruvlari.

19. Mammografiya ayollarga 40 yoshda va tibbiy ko‘rsatmalar mavjudligida o‘tkaziladi.

20. Nomzodlarda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar hamda ularning metabolitlari mavjudligini aniqlash maqsadida tibbiy ko‘rik va skrining-test (biokimyoviy tahlil) tibbiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lganda yoki asosli gumon tug‘ilgan hollarda, shuningdek ishga qabul qilish chog‘ida tanlov asosida o‘tkaziladi. Shuningdek aviatsiya xodimlari sog‘lig‘i bilan bog‘liq aviatsiya hodisasi yoki insidenti sodir bo‘lgan hollarda, mazkur tekshiruv aviatsiya hodisasini tekshiruv bo‘yicha komissiya raisining ko‘rsatmasiga muvofiq amalga oshiriladi.

21. Tibbiy ekspertlar yoki TUK mutaxassislarining asoslantirilgan tibbiy ko‘rsatmalari mavjudligida nomzodlarga qo‘shimcha tekshiruvlar o‘tkaziladi.

22. Kichik aviatsiya xodimlari va tashqi uchuvchilarga tibbiy ko‘rik o‘tkazish uchun tekshiruvlar hajmi:

a) laborator-funksional tekshiruvlar:

barcha nomzodlarga kengaytirilgan umumiy qon tahlili, umumiy peshob tahlili, qondagi qand miqdori;

barcha nomzodlarga tibbiy ko‘rik o‘tishdan avval qonning orttirilgan immun tanqisligi tekshiruvi;

rentgenologik tekshiruvlar aviatsiya xodimlariga 4 yilda 1 marta;

b) elektroensefalografiya:

fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilinayotgan nomzodlarga;

barcha nomzodlarga tibbiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lganda o‘tkaziladi.

Bosh va bo‘yin arteriyalarning ultratovush diagnostikasi, exokardiografiya, rektoromanoskopiya asoslantirilgan tibbiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lganda o‘tkaziladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Elektrokardiografiya fuqaro aviatsiyasi ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilinayotgan nomzodlar va barcha nomzodlar tibbiy ko‘rikdan o‘tishidan avval o‘tkaziladi.

Ortostatik sinov yurak-qon tomir va asab tizimlari holatini diagnostika qilish maqsadida o‘tkaziladi.

Mazkur sinov tibbiy ko‘rsatmalar mavjud bo‘lganda, jumladan gavda holati keskin o‘zgarganda yoki arterial qon bosimi pasayishi bilan bog‘liq fiziologik buzilishlar, bosh aylanishi hamda hushdan ketish holatlari kuzatilganda o‘tkaziladi.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Fuqaro aviatsiyasida tibbiy ko‘rikdan
o‘tkazish va tibbiy xulosa berish tartibi
to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining
aviatsiya qoidalariga
21-ILOVA

Jurnalning ustki tomoni:

Aeroport:_____

Tashkilot:_____

Tuzilmaviy bo‘linma:_____

Fuqaro havo kemasi ekipaji a’zolarining uchishdan oldingi (keyingi)
tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish
JURNALI

Jurnal yuritish boshlangan sana_____ Jurnal yuritish tugagan sana_____

Jurnalning ichki tomoni:

T/r	Ko‘rik sanasi va vaqti (soat, min.)	F.I.O.	Lavozimi	Reys raqami, vaqti aviakorxona	Uchib kelgan vaqti (ekipaj a’zolarining so‘zlaridan)	Shikoyatlar	Ekipaj a’zosining imzosi	Puls maromi	Ko‘rinadigan va halqum shilliq qavatlarining holati	Ko‘rsatmalar mavjud bo‘lganda aniqlanadi			Xulosa	Fuqaro aviatsiyasi tibbiy xodimining imzosi
										Burundan nafas olishi	Tana harorati	Arterial bosimi		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15

Mazkur jurnal raqamlangan _____varaq, tibbiyot tashkiloti rahbarining F.I.O., imzosi, muhri.

20 _____yil “__”_____ M.O‘.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Fuqaro aviatsiyasida tibbiy ko‘rikdan
o‘tkazish va tibbiy xulosa berish tartibi
to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining
aviatsiya qoidalariga
22-ILOVA

Jurnalning ustki tomoni:

Aeroport:_____

Tashkilot:_____

Tuzilmaviy bo‘linma:_____

Fuqaro havo kemasi ekipaji a’zosini parvozlardan chetlatish
JURNALI

Jurnal yuritish boshlangan sana_____ Jurnal yuritish tugagan sana_____

Jurnalning ichki tomoni:

T/r	**Ko‘rik sanasi va vaqti (soat, min.)**	**F.I.O.**	**Lavozimi**	**Ishlash joyi**	**Shikoyatlari, parvozdan chetlatish sabablari/tashxis**	**Fuqaro aviatsiyasi tibbiy xodimining imzosi**	**Chetlashtirgan shaxs qayerga yuborilgan**	**Chetlatish to‘g‘risida kimga va qachon xabar berilgan**	**Uchish ishiga qachon va kim tomonidan ruxsat berilgan**
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

Mazkur jurnal raqamlangan _____varaq, tibbiyot tashkiloti rahbarining F.I.O., imzosi, muhri.
20 _____yil “__”_____ M.O‘.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Fuqaro aviatsiyasida tibbiy ko‘rikdan
o‘tkazish va tibbiy xulosa berish tartibi
to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining
aviatsiya qoidalariga
23-ILOVA

Uchish ishidan chetlatilgani haqida
MA’LUMOTNOMA

_____

(F.I.O., lavozimi, ish joyi)

20____yil “__”_____ soat_____daqiqada uchish ishidan/ navbatchilikdan
(keragini tagiga chizing)
oldingi tibbiy ko‘rikda, uchish ishidan/ navbatchilikdan chetlatildi.

Dastlabki tashxis_____
_____

_____
_____

Qisqacha obyektiv ma’lumotlar_____
_____

_____
_____

_____
_____

Biriktirilgan shifokoriga uchrashish sanasi 20____yil “____”_____

_____
_____
(Ko‘rik o‘tkazgan tibbiy xodim F.I.O., lavozimi, imzosi)
20____yil “___”_____
M.O‘.

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Fuqaro aviatsiyasida tibbiy ko‘rikdan
o‘tkazish va tibbiy xulosa berish tartibi
to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining
aviatsiya qoidalariga
24-ILOVA

20_____y. uchun Fuqaro aviatsiyasi havo kemalari ekipaj a’zolarining uchishidan oldin o‘tkazilgan tibbiy ko‘rik natijalari to‘g‘risida
MA’LUMOTLAR

Fuqaro aviatsiyasi tashkilotining tibbiyot bo‘linmasi 20____y. “__”_____

Ko‘rsatkich nomi	**Uchuvchi rahbarlar tarkibi**	**Samolyot**		**Vertolyot**		**Shturman**	**Bortmuhandis, bortmexanik, bortradist**	**Jami uchuvchilar tarkibi**	**Bortkuzatuvchi**	**Bortoperator**
		Havo kemasi komandiri	**2-uchuvchi**	**Havo kemasi komandiri**	**2-uchuvchi**					
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
Jami ko‘rikdan o‘tgan										
Jami ko‘rikdan chetlatildi										
Ulardan quyidagi sabablarga ko‘ra:										
O‘tkir kasallik										
Surunkali kasallikning xuruji										
Uchishdan oldingi dam olish tartibiga rioya qilmaganligi										
Davriy tibbiy ko‘rikdan o‘tmaganligi										
Alkogol iste’mol qilganligi										
Boshqa sabablar										

Bo‘linma rahbari _____
(F.I.O., imzo)

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Fuqaro aviatsiyasida tibbiy koʻrikdan
oʻtkazish va tibbiy xulosa berish tartibi
toʻgʻrisidagi Oʻzbekiston Respublikasining
aviatsiya qoidalariga
25-ILOVA

Boʻgʻimlardagi harakatlar hajmini oʻlchash jadvali

Boʻgʻim nomi	**Harakatning yoʻnalishi**	**Oʻlchash uchun dastlabki holat, hisoblash boshlanadigan burchak**	**Harakat hajmi (burchak, gradus)**	
			Normada	**Kam ahamiyatga ega deb tavsiflanuvchi cheklov**
Yelka	Bukish (oldinga harakat) yelka boʻgʻimi ishtirokida	Tik turganda qoʻl tana boʻylab yonga tushirilgan, tekis turgan holda, supinatsiya va pronatsiya oʻrtasida (0)	175 – 180	120 gacha
	Yozish (harakat - orqaga)	Tik turganda qoʻl tana boʻylab yonga tushirilgan, tekis turgan holda, supinatsiya va pronatsiya oʻrtasida (0)	45 – 50	20 gacha
	Uzoqlashtirish (yelka sohasi ishtirokida)	Tik turganda, qoʻl toʻgʻrilangan, supinatsiyada (0)	180	120 gacha
Tirsak	Bukish	Tik turganda, qoʻl tushirilgan, yozilgan, oʻrta holatda (180)	27 – 30	80 gacha
	Yozish	Tik turganda, qoʻl tushirilgan, yozilgan, oʻrta holatda (180)	180	160 gacha
Bilak-tirsak	Pronatsiya	Tik turganda yoki oʻtirgan holda, qoʻl 90° burchagi ostida bukilgan, bilak oʻrta holda, kaft va barmoqlar bilak bilan bir tekislikda (0)	90	60 gacha
	Supinatsiya	Tik turganda yoki oʻtirgan holda, qoʻl 90° burchagi ostida bukilgan, bilak oʻrta holda, kaft va barmoqlar bilak bilan bir tekislikda (0)	90	60 gacha
Bilak-kaft	Bukish	Tik turganda, qoʻl koʻkrak oldida, tirsak boʻgʻimida toʻgʻri burchak ostida bukilgan, bilak pronatsiyada (180)	80	30 gacha

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

	Yozish	Tik turganda, qo‘l ko‘krak oldida, tirsak bo‘g‘imida to‘g‘ri burchak ostida bukilgan, bilak pronatsiyada (180)	70	15 gacha
	Uzoqlashtirish	Bilak supinatsiya holatida, kaft bilak bilan bir qatorda (180)	160 – 135	175 gacha
	Yaqinlashtirish	Bilak supinatsiya holatida, kaft bilak bilan bir qatorda (180)	140	165 gacha
Tovon-panja-	Bukish	O‘tirgan holda, tirsakka tayanib, bilak vertikal holatda, barmoqlar to‘g‘ri yozilgan (180)	I barmoqdan 135 gacha, qolgani 90 – 95	I barmoqdan 155 gacha, qolgani 60 gacha
	Yozish	O‘tirgan holda, tirsakka tayanib, bilak vertikal holatda, barmoqlar to‘g‘ri yozilgan (180)	180 – 210	165 – 170
Panja bo‘g‘imlarida harakatlar chegaralangan bo‘lsa, panjalarning ushlab qolish funksiyasi va boshqa barmoqlarning I barmoqqa nisbatan qarama-qarshi turish holati saqlangan bo‘lishi lozim.				
Chanoq-son	Bukish	Chalqancha yotganda, tizza bukiladi, tos - fiksatsiyada (0)	120	100
	Yozish	Qoringa yoki sog‘lom yonboshga yotganda, tizza yoziladi, tos - fiksatsiyada (0)	15 – 20	10
	Uzoqlashtirish (yonga)	Chalqancha yotganda, tos – fiksatsiyada, tovon boldirga 90° burchak ostida, o‘rta holatda (0)	50 – 90	30
	Yaqinlashtirish	Chalqancha yotganda, tos – fiksatsiyada, tovon boldirga 90° burchak ostida, o‘rta holatda (0)	20 – 30	10
	Supinatsiya (tashqariga rotatsiya)	Chalqancha yotganda, tos – fiksatsiyada, tovon boldirga 90° burchak ostida, o‘rta holatda (0) tizza yozilgan (0)	60	40
	Pronatsiya (ichkariga rotatsiya)	Chalqancha yotganda, tos – fiksatsiyada, tovon boldirga 90° burchak ostida, o‘rta holatda (0)	40	20 gacha

QMMB: 10/26/3800/0285-son
30.03.2026-y.

Tizza	Bukish	Chalqancha yotganda, tizza bo‘g‘imi yozilgan, tana bilan bir tekislikda, tizza ko‘zi oldinga qaraganda (180)	40	90 gacha
	Boldirni yozish	Chalqancha yotganda, tizza bo‘g‘imi yozilgan, tana bilan bir tekislikda, tizza ko‘zi oldinga qaraganda (180)	180	170
Boldir-tovon	Tovonni bukish	Chalqancha yoki yonboshga yotganda, tovon boldirga 90° burchak ostida	130	110
	Tovonni yozish	Chalqancha yoki yonboshga yotganda, tovon boldirga 90° burchak ostida	70	80
Chakka-jag‘	Vertikal harakat	Og‘iz katta ochilganda, yuqori va pastki kurak tishlar orasidagi masofa sm. da o‘lchanadi	normal og‘iz ochilishi 3 dan 6 sm gacha	3 sm

12 (1240)-сон
284-модда

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3801
2026 - yil 27 - Mart

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRINING BUYRUG’I

Ихтирога патент бериш учун талабномани тузиш, топшириш ва кўриб чиқиш қоидаларини тасдиқлаш тўғрисида

Ўзбекистон Республикасининг “Ихтиролар, фойдали моделлар ва саноат намуналари тўғрисида”ги Қонунига мувофиқ **буюраман:**

1. Ихтирога патент бериш учун талабномани тузиш, топшириш ва кўриб чиқиш қоидалари иловага мувофиқ **тасдиқлансин**.

2. Мазкур буйруқ расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

Vazir
27-Mart 2026-yil
12-mh-son

TASHKULOV AKBAR
DJURABAYEVICH

QMMB: 10/26/3801/0292-son
30.03.2026-y.

- Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг
- 2026 йил 27 мартдаги
- 12-мҳ-сон буйруғига
- ИЛОВА

Ихтирога патент бериш учун талабномани тузиш,
топшириш ва кўриб чиқиш
ҚОИДАЛАРИ

Мазкур Қоидалар ихтирога патент бериш учун талабномани (бундан буён матнда талабнома деб юритилади) тузиш, топшириш ва кўриб чиқиш тартибини белгилайди.

1-боб. Умумий қоидалар

1. Мазкур Қоидаларда қуйидаги асосий тушунча ва қисқартмалар қўлланилади:

ваколатли орган – Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги;

Марказ – Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги “Интеллектуал мулк маркази” давлат **муассасаси**;

ХПТ – Халқаро патент таснифи;

БИМТ – Бутунжаҳон интеллектуал мулк ташкилоти;

РСТ – Патент кооперацияси тўғрисидаги шартнома;

миллий фаза – Ўзбекистон Республикасининг “Ихтиролар, фойдали моделлар ва саноат намуналари тўғрисида”ги Қонунига (бундан буён матнда Қонун деб юритилади) мувофиқ халқаро талабномани кўриб чиқиш.

2. Ваколатли орган томонидан талабнома кўриб чиқиш учун қабул **Қилинади** ва ушбу талабнома Марказ томонидан давлат экспертизасидан **ўтказилади**.

3. Талабнома бериш муаллиф, иш берувчи ёки уларнинг ҳуқуқий вориси (бундан буён матнда талабнома берувчи деб юритилади) томонидан ваколатли органга **берилади**. Талабнома шахсан, патент вакили ёки ишончли шахс орқали топширилиши **мумкин**.

4. Ихтирони рўйхатга олиш ваколатли орган томонидан амалга **оширилади**.

2-боб. Ихтиронинг патентга лаёқатлилик шартлари

5. Қонуннинг 6-моддасига мувофиқ агар ихтиро сифатида кўрсатилган объект янги, ихтирочилик даражасига эга ва уни саноатда қўллаш мумкин бўлса, у ҳуқуқий муҳофаза **Қилинади**.

6. Ихтиро техника тараққиёти даражасидан маълум бўлмаса, у янги деб **ҳисобланади**.

7. Ихтиро техника тараққиёти даражаси ҳақидаги маълумотлардан яққол аён бўлмаса, у ихтиролик даражасига эга **бўлади**.

8. Техника тараққиёти даражаси ихтиро устуворлиги санасига қадар жаҳонда оммага ошкор бўлган ҳар қандай маълумотларни ўз ичига **олади**.

9. Ихтиродан саноат, қишлоқ хўжалиги, соғлиқни сақлаш ва бошқа соҳаларда фойдаланиш мумкин бўлса, у саноатда қўллаш мумкин деб **ҳисобланади**.

10. Қонуннинг 6-моддаси саккизинчи қисмига мувофиқ ҳар қандай соҳада маҳсулот ёки усулга тааллуқли бўлган техник ечим ихтиро сифатида эътироф **этилади**.

11. Ихтиро сифатида маҳсулотга қурилма, модда, микроорганизм штамми, ўсимлик ёки ҳайвон ҳужайраларининг турлари кабилар **киради**.

12. Қурилмаларга конструкциялар, конструктив элементлар ёки конструктив элементлар мажмуи бўлган ҳамда функционал-конструктив бирликни ташкил қилган буюмлар, машиналар, асбоблар, аппаратлар, ускуналар, инструментлар, маҳкамловчи буюмлар, машина деталлари, алоқа воситалари, қурилиш конструкциялари ва бошқалар киради.

13. Моддаларга:

кимёвий бирикмалар, шунингдек шартли равишда юқори молекуляр бирикмалар ва ген инженерияси маҳсулотлари бўлган рекомбинант нуклеин кислоталар, векторлар ва бошқалар;

композициялар (таркиблар, аралашмалар, қотишмалар, эритмалар ва бошқалар);

ядровий парчаланиш маҳсулотлари киради.

14. Микроорганизмлар штаммлари, ўсимлик ёки ҳайвон ҳужайраларининг турларига:

бактериялар, вируслар, бактериофаглар, микросувўтлари, микроскопик замбуруғлар ва бошқаларнинг штаммлари;

ўсимлик ёки ҳайвон ҳужайраларининг турлари, шу жумладан ҳужайраларнинг клонлари;

микроорганизмлар, ўсимлик ёки ҳайвон ҳужайралари турларининг консорциумлари;

микроорганизмлар, ўсимлик ёки ҳайвоннинг плазмидлари, векторлари, барқарор трансформацияланган ҳужайраларини ўз ичига олган генетик конструкциялар, трансген ўсимликлар ва ҳайвонлар киради.

15. Ихтиро сифатида усулга моддий воситалар ёрдамида моддий объект устида хатти-ҳаракатларни амалга ошириш жараёни **киради**.

16. Қуйидагилар ихтиро сифатида эътироф **этилмайди**:

илмий назариялар ва математика усуллари;

ташкил этиш ва бошқариш усуллари;

шартли белгилар, жадваллар, қоидалар;

ақлий операцияларни бажариш қоидалари ва усуллари;

электрон ҳисоблаш машиналари учун алгоритмлар ва дастурлар;

бинолар, иншоотлар, ҳудудларни режалаштириш лойиҳалари ва чизма тарҳлари;

эстетика талабларини қаноатлантиришга йўналтирилган, буюмларнинг фақат ташқи кўринишига оид ечимлар;

интеграл микросхемаларнинг топологиялари;

ўсимлик навлари ва ҳайвон зотлари;

жамоат манфаатлари, инсонпарварлик ва ахлоқ қоидаларига зид ечимлар.

3-боб. Талабномага доир талаблар

17. Қонуннинг 15-моддаси биринчи қисмига мувофиқ талабнома битта ихтирога ёки ягона ихтирочилик фикрини (ихтиро бирлиги талабини) ташкил этган тарзда бир-бири билан узвий боғланган ихтиролар гуруҳига тааллуқли бўлиши **керак**.

18. Ихтиро формуласида битта ихтиро тавсифланганда ихтиро бирлиги талабига риоя этилган деб ҳисобланади.

19. Ихтиро формуласида қуйидаги бир гуруҳдаги ихтиролар тавсифланганда ихтиро бирлиги талабига риоя этилган деб ҳисобланади:

ихтиро формуласида бир турдаги (бир қанча қурилмалар, бир қанча турлар ва бошқалар), бир хил мақсадда фойдаланишга мўлжалланган, тубдан айнан бир хил йўл (вариантлар) билан айнан бир хил техник натижани олишни таъминлайдиган объектларга тааллуқли ихтиролар гуруҳи;

бири иккинчисини олиш (тайёрлаш) учун мўлжалланган ихтиро (масалан, қурилма ёки модда ва қурилма ёки моддани бутунлай ёки уларнинг бир қисмини олиш усули);

QMMB: 10/26/3801/0292-son
30.03.2026-y.

бири иккинчисини амалга ошириш учун мўлжалланган ихтиро (масалан, усул ва усулни бутунлай ёки унинг ҳаракатларидан бирини амалга ошириш учун қурилма);

бири иккинчисидан ёки бирини иккинчисида фойдаланиш учун мўлжалланган ихтиро (масалан, усулда фойдаланиш учун мўлжалланган усул ва қурилма, усул ёки қурилма ва унинг бир қисми, қурилма ёки моддани улардан янги мақсадда фойдаланиш учун қўллаш ва ушбу мақсадга мувофиқ улардан фойдаланиш усули, қурилма ёки моддадан янги мақсадда фойдаланиш ва таркибий қисми бўлган қурилма ёки композиция).

20. Талабнома:

ихтиронинг муаллифи (ҳаммуаллифлари) ва кимнинг номига патент бериш сўралаётган бўлса, ана шу шахс, шунингдек уларнинг яшаш жойи ёки жойлашган манзили кўрсатилган патент бериш ҳақидаги аризани;

ихтиронинг уни амалга ошириш учун етарли бўлган даражада тўлиқ очиб берилган тавсифини;

ихтиронинг моҳиятини ифодаловчи ҳамда унинг тавсифига тўла мувофиқ бўлган формуласини;

агар ихтиронинг моҳиятини тушуниш учун зарур бўлса, чизмалар ва бошқа материалларни;

ихтиро рефератини ўз ичига олиши **лозим**.

21. Агар талабнома ҳужжатлари бошқа тилда тақдим этилган бўлса, у ҳолда талабномага уларнинг таржимаси илова қилинади, улар талабнома Вазирликка топширилган санадан бошлаб икки ой ичида тақдим этилиши керак, акс ҳолда ҳужжатлар уларнинг таржималари келиб тушган санадан бошлаб топширилган деб ҳисобланади.

22. Конвенция устуворлиги сўралган талабномага талабнома берувчи томонидан Саноат мулкини муҳофаза қилиш бўйича Париж конвенцияси иштирокчиси бўлган бошқа давлатда (конвенция устуворлиги) топширилган биринчи талабноманинг (бундан буён матнда биринчи талабнома деб юритилади) тасдиқланган нусхаси ва унинг таржимаси илова қилинади.

Бунда ушбу талабноманинг тасдиқланган нусхаси ва унинг таржимаси конвенция устуворлиги сўралган талабнома ваколатли органга келиб тушган санадан бошлаб уч ой муддатдан кечиктирилмай топширилади.

Биринчи талабнома нусхасининг таржимаси талабнома берувчи томонидан имзоланади.

Биринчи талабнома топширилган санадан ўн икки ой ўтгандан кейин, лекин икки ойдан кечиктирмай топширилган талабнома бўйича конвенция устуворлиги сўралганда тегишли патент божи **тўланади**.

23. Талабнома берувчи томонидан конвенция устуворлигини белгилаш бўйича илтимоснома ваколатли органга талабнома топшириш вақтида (аризанинг тегишли графасида келтирилади) ёки ваколатли органга талабнома келиб тушган санадан бошлаб икки ой муддат давомида топширилиши мумкин.

24. Янги микроорганизм штамми, ўсимлик ва ҳайвон ҳужайраларининг турларига (линиялари) оид патент бериш ҳақидаги талабномага штаммнинг расмий ваколатга эга бўлган депозитарийда сақланаётганлиги тўғрисидаги ҳужжат илова қилинади.

25. Нуклеотидлар ва аминокислоталар кетма-кетлиги рўйхатини ўз ичига олган талабномага айнан ушбу рўйхат ёзилган ва БИМТга мувофиқ тайёрланган ахборот (.pdf ва .docx форматларида) илова қилинади.

26. Ихтирога патент олиш учун ариза мазкур Қоидаларнинг 1-иловасига мувофиқ шаклда топширилади.

27. Аризанинг 21-кодли “Талабноманинг қайд рақами”, 22-кодли “Талабноманинг келиб тушган санаси”, 85-кодли “Халқаро талабномани миллий фазага ўтказиш санаси” графалари ариза ваколатли органга келиб тушгандан кейин реквизитларни киритиш учун мўлжалланган.

28. Аризанинг “Ёзишмалар учун манзил” графасида хат олувчининг номи (юридик шахслар учун) ёки исми (жисмоний шахслар учун), шунингдек, жойлашган ери (почта манзили), телефон рақами, электрон почтасидан камида бири кўрсатилади.

29. Аризанинг 86-кодли ва 87-кодли графалари РСТга мувофиқ топширилган халқаро талабнома миллий фазага ўтказилган ҳолларда талабнома берувчи томонидан тўлдирилади.

86-кодли графада ихтирога халқаро талабноманинг қабул қилувчи идора томонидан белгиланадиган қайд рақами ва халқаро топшириш санаси келтирилади.

87-кодли графада ихтирога халқаро талабноманинг халқаро эълон қилиш рақами ва санаси келтирилади.

30. Аризанинг 54-кодли “Ихтиронинг номи” графасида талабнома берилган ихтиронинг (ихтиролар гуруҳининг) номи келтирилади ва ушбу ном ихтиронинг тавсифидаги номга мос бўлиши керак.

31. Аризанинг 71-кодли “Талабнома берувчи” графасида талабнома берувчи тўғрисида қуйидаги маълумотлар келтирилади:

QMMB: 10/26/3801/0292-son
30.03.2026-y.

юридик шахснинг расмий номи (таъсис ҳужжати бўйича) ёки жисмоний шахснинг тўлиқ исми, шунингдек:

резидентлар учун СТИР ёки ЖШШИР, жойлашган ери ёки турар жойи манзили;

норезидентлар учун исм ва номларнинг транслитерацияси ҳамда БИМТ ST.3 стандарти бўйича мамлакат коди (агар у ўрнатилган бўлса).

Патент бир неча шахс номига сўралаётганда юқорида келтирилган маълумотлар уларнинг ҳар бири учун алоҳида келтирилади.

32. Аризанинг устуворликни белгилаш тўғрисидаги илтимоснома кўрсатилган графаси ваколатли органга талабнома келиб тушган санадан олдин устуворлик сўралаётганда тўлдирилади.

Конвенция устуворлиги сўралаётганда аризанинг 33-кодли “БИМТ ST.3 стандарти бўйича талабнома топширилган мамлакат коди” графасида биринчи талабнома топширилган мамлакат коди кўрсатилади.

33. Талабнома берувчи томонидан иш олиб бориш унинг вакили орқали амалга оширилганда аризанинг 74-кодли “Вакил” графасида қуйидаги маълумотлар келтирилади: вакилнинг тўлиқ номи ёки исми, рўйхат рақами (патент вакили бўлса), жойлашган ери (почта манзили), телефон рақами.

34. Аризанинг “Илова қилинган ҳужжатлар” графасида талабномага алоқадор ҳужжатлар бириктирилади.

Ихтиро тавсифида “Нуклеотидлар ва аминокислоталар кетма-кетлиги рўйхати” бўлими мавжуд бўлганида тегишли графаларда саҳифаларнинг умумий миқдори кўрсатилади.

Талабномада кўрсатилган нуклеотидлар ва аминокислоталар кетма-кетлиги рўйхати мазкур Қоидаларнинг 25-бандига мувофиқ тақдим этилади.

35. Аризанинг 72-кодли “Муаллиф” графасида қуйидаги маълумотлар келтирилади:

муаллифнинг фамилияси, исми, отасининг исми ва фуқаролиги, шунингдек:

резидентлар учун ЖШШИР, иш жойи, лавозими ва илмий даражаси, БИМТ ST.3 стандарти бўйича мамлакат коди;

норезидентлар учун БИМТ ST.3 стандарти бўйича мамлакат коди (агар код белгиланган бўлса).

36. Ихтиро номи аниқ, қисқа бўлиб ихтиро моҳиятига мос келиши, ихтиро тегишли бўлган объектнинг умумий тушунчасини аниқлаши ва объектнинг вазифасини тавсифлаши (унинг бажарадиган функциясини ёки техниканинг қайси соҳасига оид эканлигини кўрсатиши) керак.

37. Ихтиро номи, қоида тариқасида, ХПТ маълум рубрикасига мос келиши керак. Ихтиро моҳиятига мос рубрикани аниқлаш мумкин бўлмаганда ихтиронинг номи умумқабул қилинган терминологияга мувофиқ кўрсатилади.

38. Ихтиро номида “масалан” ва “хусусан” каби сўзлар қўлланилмайди.

39. Ихтиро номи атамага хос ёки тавсифловчи бўлиши мумкин.

Атамага хос номлаш техниканинг шу соҳа мутахассисига маълум бўлган объектнинг муҳим белгилари мажмуини улар санаб ўтилганлиги ёки санаб ўтилмаганлигидан қатъий назар тавсифлаши керак.

Тавсифловчи ном объектнинг вазифаси ва унинг техникага оид бир ёки турли хил соҳаларда бажарадиган функцияси ҳақида тасаввур бериши керак.

40. Ихтиро номи бирликда ифодаланади, бирликда ишлатилмайдиган номлар, умумий структура формуласи билан аниқланадиган кимёвий бирикмаларга оид ихтироларнинг номлари бундан мустасно.

41. Индивидуал кимёвий бирикмага оид ихтиро номига кимёда қабул қилинган номенклатура бўйича номи киритилади, шунингдек унинг қандай аниқ вазифада ишлатилишига доир кўрсатмаси, биологик фаол бирикмалар учун биологик фаоллик тури келтирилади.

Тузилиши аниқланмаган юқори молекуляр бирикмаларни олиш усулларига оид ихтиро номига бирикманинг номи ва зарур бўлганда унинг вазифаси тўғрисида кўрсатма киритилади.

Аниқланмаган таркибли модда-аралашмани олиш усулига оид ихтиро номига вазифаси тўғрисида кўрсатма ёки ушбу модданинг биологик фаоллик хусусиятларини кўрсатувчи тушунчалар киритилади.

42. Микроорганизм штамми, ўсимлик ёки ҳайвон ҳужайралари турларига (линиялари) оид ихтиролар номига биологик объектнинг лотин тилидаги оила туркуми ва турига оид номи, штамм тури ва вазифаси кўрсатилган ҳолда киритилади.

Генетик конструкцияга тааллуқли ихтиро номига унинг вазифаси кўрсатилган ҳолда номланиши киритилади.

43. Аввалдан маълум бўлган қурилма, усул, модда, штаммни янги мақсадда қўлланилишига оид бўлган ихтиро номи тегишли объект учун қабул қилинган қоидаларга биноан тузилади ва аввалдан маълум бўлган объектнинг янги вазифасини тавсифлайди.

44. Бири иккинчисини олиш (тайёрлаш), амалга ошириш ёки фойдаланиш учун мўлжалланган объектларга оид ихтиролар гуруҳининг номи битта ихтиронинг тўлиқ номи ва иккинчисининг қисқартирилган номини ўз ичига олади. Бири бошқасида фойдаланиш учун мўлжалланган объектларга оид ихтиролар

гуруҳининг номи гуруҳга кирган ихтироларнинг тўлиқ номи билан аталади. Вариантларга оид ихтиролар гуруҳининг номи битта ихтиронинг номидан иборат бўлиб, “вариантлар” деган сўз билан тўлдирилади.

45. Ихтиро номи зарур бўлганда лотин алифбоси символларини ва араб рақамларини ўз ичига олади.

Ихтиро номига атоқли отлар, норасмий иборалар, аббревиатуралар, реклама, товар белгилари ва хизмат кўрсатиш белгилари, географик кўрсаткичлар, товар келиб чиққан жой номлари, фирма номлари, географик номлар, “ва бошқалар” сўзлари ҳамда ихтирони аниқлаш мақсадларига хизмат қилмайдиган бошқа сўзлар киритилмайди.

46. Тавсиф ихтиро номини келтириш билан бошланади. Талабнома берилаётган ихтиро тегишли бўлган ХПТ амалдаги таҳрири рубрикаси белгиланганда ушбу рубриканинг индекси ихтиро номи олдида келтирилади.

Тавсиф қуйидаги бўлимларни ўз ичига олади:

ихтиро оид бўлган техника соҳаси;

техника даражаси;

ихтиро моҳияти;

чизмалар ва бошқа материаллар рўйхати (агар улар бўлса);

ихтирони амалга ошириш мумкинлигини тасдиқловчи маълумотлар;

нуклеотидлар ва аминокислоталар кетма-кетлиги рўйхати (агар ихтирони тавсифлаш учун бундай кетма-кетликдан фойдаланилган бўлса).

Тавсиф бўлими ўрнига манбаларда (адабиёт, аввал топширилган талабномадаги ихтиро тавсифи, муҳофаза ҳужжатидаги ихтиро тавсифи ва бошқаларда) келтирилган маълумотларга ҳавола қилиниши мумкин эмас.

47. Тавсифнинг “Ихтиро оид бўлган техника соҳаси” бўлимида ихтиро қўлланиладиган соҳа кўрсатилади. Бундай соҳалар бир нечта бўлганда улар орасидан қайси бирида кўпроқ қўлланилиши кўрсатилади.

48. Тавсифнинг “Техника даражаси” бўлимида талабнома берувчига маълум бўлган ихтиро аналоглари келтирилади.

Ихтиронинг аналоги сифатида ихтиронинг устуворлик санасигача оммавий тарзда ошкор этилган ахборот манбаидан маълум бўлган, ихтиронинг муҳим белгилари мажмуига ўхшаш белгилар билан тавсифланган ва ихтиро бажарадиган вазифани амалга оширадиган восита кўрсатилади.

49. Аналогни таърифлашда у очиб берилган ахборот манбаларининг библиографик маълумотлари, аналогнинг белгилари талабнома берилаётган

ихтиронинг муҳим белгилари билан мос келадиганлари ажратиб кўрсатилган ҳолда келтирилади, шунингдек техникавий натижа олишга тўсқинлик қилувчи сабаблар кўрсатилади.

50. Ихтиро аналоглари орасидан ихтирога муҳим белгилар мажмуи бўйича энг яқин бўлган аналог ажратиб кўрсатилади.

51. Ихтиро аниқ вазифага ёки биологик фаол хусусиятларга эга бўлган, аниқланмаган таркибли аралашмани олиш усулига оид бўлганда аналог сифатида худди шундай вазифага ва биологик фаол хусусиятга эга бўлган аралашмалар олиш усули кўрсатилади.

Ихтиро янги индивидуал кимёвий, шунингдек юқори молекуляр бирикма олиш усулига ёки ген инженерияси объектига оид бўлганда унга ўхшаш аналогни олиш усули ҳақида маълумотлар келтирилади.

Модда продуцентига (микроорганизм штамми, ўсимлик ва ҳайвон ҳужайралари турлари (линиялари)) оид бўлган ихтиронинг энг яқин аналогини тавсифлашда ҳосил бўладиган модда ҳақида маълумотлар келтирилади.

Ихтиро аввал маълум бўлган маҳсулот ёки усулни янги мақсадда қўллашга оид бўлганда унинг аналогларига худди шу вазифада ишлатиладиган маълум маҳсулот ёки усул киритилади.

Ихтиролар гуруҳини тавсифлашда аналоглар ҳақидаги маълумотлар ҳар бир ихтиро учун алоҳида келтирилади.

52. “Ихтиро моҳияти” бўлимида ихтиро техник натижага эришиш учун муҳим бўлган белгилар мажмуи орқали ифодаланиб, уни амалга ошириш тўлиқ очиб берилиши керак.

Белгилар эришиладиган техник натижага таъсир кўрсатадиган (техник натижа билан сабаб-оқибат боғланишига эга) бўлганда муҳим белгилар ҳисобланади.

“Ихтиро моҳияти” бўлимида ихтиро ҳал қилиши керак бўлган вазифа ихтиро амалга оширилганда эришиладиган техник натижа кўрсатилган ҳолда очиб берилади, шунингдек ихтирони тавсифловчи барча муҳим белгилар келтирилади, энг яқин аналогдан фарқланувчи белгилар ажратилади, бунда сўралаётган ҳуқуқий муҳофаза ҳажми татбиқ қилинадиган барча ҳолатларда техник натижани олишни таъминлайдиган белгилар йиғиндиси ва ихтирони фақат аниқ ҳолатларда, бажарилишининг аниқ шаклларида ёки ундан фойдаланишнинг алоҳида шароитларида тавсифловчи белгилар кўрсатилади.

53. Нуклеотидлар ёки аминокислоталар кетма-кетлигидан белгини тавсифлаш учун фойдаланилганда уларнинг кетма-кетликлари “SEQ ID NO …”нинг рўйхатидаги рақами кўринишида тақдим этилади.

54. Белгининг тавсифини ушбу белги очиб берилган ахборот манбаига ҳавола қилинган ҳолда алмаштиришга йўл қўйилмайди.

55. Техник натижа ўзи билан ихтирони намоён қилувчи воситани амалга оширишда (тайёрлашда) ёки ундан фойдаланишда олиниши мумкин бўлган техник самара, хусусият, ҳодисалар ва бошқаларнинг тавсифини ифодалайди.

Ихтиро бир неча техник натижани олишни таъминлаганда уларни кўрсатиш тавсия этилади.

Техник натижа, жумладан: ишқаланиш коэффициентини камайтириш (ошириш); қисилиб қолишининг олдини олиш; вибрацияни камайтириш; бирор органда қон айланишини яхшилаш; дори-препарат таъсирини тўплаш ёки унинг заҳарлилигини камайтириш; ишчи органнинг муҳит билан алоқасини яхшилаш; сигнал шаклининг ўзгаришини камайтириш; суюқлик сизиб ўтиб кетишини камайтириш; ёрилишни олдини олиш; вакцинанинг иммуногенлигини ошириш орқали ифодаланиши мумкин.

56. Ихтиро яратилишида маълум вазифага эга бўлган техник воситалар кўламини кенгайтириш ёки биринчи марта шундай техник воситалар олиш вазифаси ҳал қилинаётганда техник натижа шу вазифани амалга оширишдан иборат бўлади ва буни махсус таъкидлаш талаб қилинмайди.

57. Ихтиролар гуруҳи учун мазкур Қоидаларнинг 52, 53 ва 55-бандларида кўрсатилган маълумотлар ҳар бир ихтиро учун алоҳида келтирилади.

58. Микроорганизм штамми, ўсимлик ва ҳайвон ҳужайралари турларини тавсифлашда уларнинг ўзлари келиб чиққан ёки энг яқин штаммдан фарқ қилувчи белгилари кўрсатилади.

59. Аввал маълум бўлган маҳсулот ёки усулни янги мақсадда қўллашга оид ихтирони тавсифлашда маълум объектнинг тавсифи келтирилади ва улар кўрсатилган адабиётнинг библиографик маълумотлари берилади ҳамда унинг маълум бўлган ва янги вазифаси кўрсатилади.

60. Қурилмани тавсифлаш учун қуйидаги белгилар ишлатилади:

конструктив элемент мавжудлиги;

элементлар орасидаги боғлиқлик мавжудлиги;

элементларнинг ўзаро жойлашганлиги;

элементнинг ёки умуман қурилманинг бажарилиш шакли, хусусан, геометрик шакли;

элементнинг параметрлари ва бошқа тавсифлари ҳамда улар ўртасидаги ўзаро боғлиқлик;

элемент ёки умуман қурилма тайёрланган материал;

QMMB: 10/26/3801/0292-son
30.03.2026-y.

элемент функциясини бажарувчи муҳит.

Қурилмани таърифлаш учун умуман қурилмада ёки унинг бирор элементида қурилманинг ишлаши ёки вазифасини бажариши учун таъсир этмайдиган (сўзли, тасвирий ёки аралаш) белгилардан фойдаланиш мумкин эмас.

61. Усулни тавсифлаш учун қуйидаги белгилар ишлатилади:

ҳаракат ёки ҳаракатлар мажмуининг мавжудлиги;

ҳаракатларни вақт бўйича бажариш тартиби (кетма-кет, бир вақтда, ҳар хил комбинацияларда ва бошқаларда);

ҳаракатларнинг бажарилиш шартлари, режими, моддалар, бирламчи хомашё, реагентлар, катализаторлар, қурилмалар, микроорганизм штаммлари, ўсимлик ва ҳайвон ҳужайраларининг турлари ва бошқалар.

62. Кимёвий бирикмаларни тавсифлаш учун қуйидаги белгилар ишлатилади:

белгиланган тузилмага эга бўлган қуйи молекуляр бирикмалар учун сифат жиҳатидан таркиби (маълум элементлар атомлари), миқдорий таркиби (ҳар бир элементнинг атомлар сони), атомлар орасидаги боғланиш ва ушбу атомларнинг кимёвий тузилиш формуласи кўринишида ифодаланган молекуладаги ўзаро жойлашганлиги;

белгиланган тузилмага эга бўлган юқори молекуляр бирикмалар учун кимёвий таркиб ва макромолекуланинг бир бўғиминиг тузилиши, макромолекуланинг умуман тузилиши, бўғимларнинг даврийлиги, молекуляр масса, молекуляр массанинг тақсимланиши, макромолекуланинг геометрия ва стереометрияси, унинг учидаги ва ёнидаги гуруҳлари;

аниқланмаган тузилишга эга бўлган индивидуал бирикмалар учун физик-кимёвий хусусиятлари, олиш усули ва ушбу бирикмани бошқалардан фарқлаш учун зарур бўлган бошқа тавсифлари;

ген инженерияси маҳсулотларига тааллуқли бўлган индивидуал бирикмалар учун нуклеотидлар кетма-кетлиги (нуклеин кислоталар фрагментлари ҳолларида) ёки табиий харитаси (рекомбинант нуклеин кислоталар ва векторлар ҳолларида), аминокислоталар кетма-кетлиги ҳамда ушбу бирикмани бошқалардан фарқлаш учун зарур бўлган бошқа физик-кимёвий тавсифлари.

63. Композицияларни тавсифлаш учун қуйидаги белгилар ишлатилади:

сифат жиҳатдан таркиби (ингредиентлар);

миқдорий таркиб (ингредиентлар миқдори);

композиция тузилиши;

ингредиентлар тузилиши.

QMMB: 10/26/3801/0292-son
30.03.2026-y.

Таркиби аниқланмаган композицияларни тавсифлаш учун уларнинг физик-кимёвий ва фойдалилик кўрсаткичлари ҳамда уларни олиш усулининг белгилари ишлатилиши мумкин.

64. Ядровий парчаланиш йўли билан олинган моддаларни тавсифлаш учун қуйидаги белгилар ишлатилади:

сифат жиҳатидан таркиби (элемент изотопи), миқдорий таркиб (протон ва нейтронлар сони);

асосий ядровий тавсифлари, яъни ярим парчаланиш даври, нурланиш энергияси ва кўриниши (радиоактив изотоплар учун).

65. Микроорганизм штаммларини тавсифлаш учун қуйидаги белгилар ишлатилади:

штамм оиласи ва турининг номи (лотин тилида);

келиб чиқиши (ажратиб олиниш манбаси, насли);

генотаксономик ва хемотаксономик тавсифлари;

морфологик, физиологик, шу жумладан маданий етиштириш жиҳатлари;

биотехнологик тавсифи (етиштириш шароитлари, штаммдан ҳосил қилинадиган фойдали модданинг номи ва хусусияти, фаоллик (маҳсулдорлик) даражаси);

тиббиёт ва ветеринария соҳасидаги микроорганизмлар штаммлари учун вирулентлик, антиген тузилиши, серологик хусусиятлари;

гибрид микроорганизмлар штаммлари учун гибридлаш принципи.

66. Ўсимлик ёки ҳайвон ҳужайралари турларини (линиялари) тавсифлаш учун қуйидаги белгилар ишлатилади:

пассажлар миқдори;

кариологик тавсифи;

ўсиш (кинетик) тавсифлари;

ҳайвон организмида ўстириш тавсифи (гибридлар учун);

морфогенезга қобилияти (ўсимлик ҳужайралари учун).

67. Микроорганизмлар, ўсимлик ёки ҳайвон ҳужайралари (линиялари) консорциумларини тавсифлаш учун мазкур Қоидаларнинг 65 ва 66-бандларида қайд этилган белгиларга қўшимча равишда қуйидаги белгилар ишлатилади:

селекция ва мослаштириш факторлари ва шароитлари;

таксономик таркиби, миқдори ва устун бўлган компонентлар;

умуман консорциумнинг типи ва физиологик хусусиятлари;

ушбу консорциумни бошқасидан фарқлаш учун имкон берадиган бошқа белгилар.

68. Генетик конструкцияларни тегишли равишда тавсифлаш учун мазкур Қоидаларнинг 60-бандида назарда тутилган белгилардан фойдаланилади, бунда конструктив элементлар бўлиб энхансер, промотор, терминатор, ташаббускор кодон, линкер, ўзга ген фрагменти, маркер, фланкирловчи қисм бўлиши мумкин.

69. Трансформацияланган ҳужайрани тавсифлаш учун қуйидаги белгилардан фойдаланилади:

трансформацияловчи элемент;

ҳужайра томонидан ўзлаштириб олинадиган белгилар (хусусиятлар);

ҳужайра келиб чиқишига доир маълумотлар (прокариотик ҳужайра учун уруғ, оила туркуми ва тури);

таксономияга хос белгилар;

табиий геном мутацияси;

ҳужайрани маданийлаштириш шароитлари ва ушбу ҳужайрани бошқасидан фарқлаш учун етарли бўлган бошқа тавсифлар.

70. Трансген ўсимликни тавсифлаш учун қуйидаги белгилардан фойдаланилади:

геномда модификацияланган элементнинг мавжудлиги;

ўсимлик томонидан ўзлаштириб олинадиган белгилар;

ўсимликнинг келиб чиқиши;

таксономияга тегишлилиги ва ушбу ўсимликни бошқасидан фарқлаш учун етарли бўлган бошқа тавсифлар.

71. Трансген ҳайвонни тавсифлаш учун қуйидаги белгилардан фойдаланилади:

ҳайвон геномига трансформацияланган ген ва ДНК ҳамда кодловчи ёки экспресс мақсадли маҳсулот;

ҳайвон томонидан ўзлаштириб олинадиган белгилар (хусусиятлар);

ҳайвон томонидан ҳосил қилинадиган модификацияланган маҳсулот;

ҳайвоннинг тегишлилиги (типи, зоти ва бошқалар) ва ушбу ҳайвонни бошқасидан фарқлаш учун етарли бўлган бошқа тавсифлар.

72. Аввал маълум бўлган қурилма, усул, модда, штаммни янги мақсадда қўллашни тавсифлаш учун янги мақсадда қўлланаётган объектнинг идентификациялаш учун етарли бўлган қисқа тавсифи ва унинг янги вазифасига доир кўрсатмасидан фойдаланилади.

73. Тавсифнинг “Чизмалар ва бошқа материаллар рўйхати” бўлимида тасвирланган чизма фигуралари ва бошқа материалларнинг қисқача таърифи келтирилади.

74. “Ихтирони амалга ошириш мумкинлигини тасдиқловчи маълумотлар” бўлимида ихтирони талабнома берувчи томонидан кўрсатилган вазифада амалга ошириш мумкинлиги ифодаланади.

Моҳияти умумий тушунча билан ифодаланган, хусусан, функционал умумлаштириш даражасида келтирилган белгидан фойдаланиш билан тавсифланувчи ихтирони амалга ошириш имконияти бевосита талабнома материалларида бундай белгини ҳосил қилиш учун воситаларни ёки уни олиш усуллари ёхуд бундай восита ва усулларнинг маълум эканлиги тўғрисидаги кўрсатмани ифодалаш билан тасдиқланади.

Тавсифнинг ушбу бўлимида ихтирони амалга оширганда олиниши мумкин бўлган, ҳал қилинаётган вазифа тавсифланаётганда “Ихтиро моҳияти” бўлимида кўрсатилган техник натижага эришиш имкониятини тасдиқловчи маълумотлар ҳам келтирилади. Ихтирони тавсифлаш учун миқдорлар оралиғи кўринишида ифодаланган миқдорий белгилардан фойдаланилганда техник натижага шу оралиқда эришиш мумкинлиги кўрсатилади.

75. Қурилмага оид ихтирога унинг конструкциясининг (статик ҳолатдаги) тавсифи чизма фигураларига изоҳ берилган ҳолда келтирилади. Конструктив элементларнинг тавсифдаги рақамли белгилари чизма фигураларидаги рақамли белгиларига мос келиши керак ва уларни кетма-кет таърифлаш давомида бирдан бошлаб ўсиш тартибида келтирилади.

Қурилма конструкциясини тавсифлашдан кейин унинг ҳаракати ёки ундан фойдаланиш усули конструктив элементлар ва чизма фигураларига, зарур ҳолларда эса бошқа изоҳ берувчи материалларга (эпюралар, вақт бўйича диаграммалар ва бошқалар) рақам билан изоҳ берилган ҳолда берилади.

Қурилма функционал даражада тавсифланган бўлиб, кўрсатилган амалга ошириш шакли дастурланган кўп функцияли мосламадан фойдаланишни назарда тутганда унда қурилмадаги аниқ бириктирилган функцияни бажариши мумкинлигини тасдиқловчи маълумотлар берилади. Бундай маълумотлар сифатида алгоритм, хусусан, ҳисоблаш алгоритми келтирилганда уни кўпинча блоксхема ёки агар мумкин бўлса, тегишли математик ифода кўринишида берилади.

76. Усулга оид ихтирони тавсифлаш учун моддий объект устида бажариладиган ҳаракатлар кетма-кетлиги, шунингдек ҳаракатлар олиб бориладиган шарт-шароитлар, агар зарур бўлса, аниқ режимлар (ҳарорат, босим ва бошқалар), ишлатиладиган қурилмалар, моддалар, штаммлар кўрсатилади. Усул бирор устуворлик санасигача маълум бўлган воситалар – қурилма, модда ва штаммлардан фойдаланиш орқали тавсифланганда ихтирони амалга ошириш мумкин бўлган ҳолда ушбу воситаларни изоҳлаш етарлидир. Номаълум воситалардан фойдаланилганда уларнинг тавсифлари келтирилади, зарур ҳолларда график тасвирлар илова қилинади.

Усулда янги моддалардан фойдаланилганда уларни олиш усули очиб берилади.

77. Умумий тузилиш формуласи билан тавсифланган кимёвий бирикмалар гуруҳини олиш усулига оид ихтиролар учун шу усул билан гуруҳдаги бирикмаларни олиш мисоллари келтирилади. Гуруҳ кимёвий боғланиш табиати ҳар хил радикаллардан иборат бирикмаларни ўз ичига олганда ушбу бирикмаларни олишни тасдиқлаш учун етарли бўлган мисоллар келтирилади. Гуруҳга кирган бирикмаларни олиш учун маълум усуллар билан тасдиқланган тузилиш формулалари ва физик-кимёвий тавсифлари келтирилади. Тавсифда янги бирикмаларнинг вазифаси ва биологик фаол хусусиятлари ҳақида маълумотлар ҳам келтирилади.

Тузилиши аниқланмаган кимёвий бирикмаларни, таркиби ва тузилиши аниқланмаган аралашмаларни олиш усулига оид ихтиролар учун ушбу бирикма ёки аралашмани бошқалардан фарқлаш учун зарур бўлган маълумотлар келтирилади. Бирикма ёки аралашмаларни олиш учун бошланғич реагентлар ҳақида маълумотлар, шунингдек бирикма ёки аралашманинг талабнома берувчи томонидан кўрсатилган вазифасини амалга ошириш мумкинлигини тасдиқловчи маълумотлар, хусусан, бу вазифани келтириб чиқарувчи хусусиятлар келтирилади.

78. Инсон ёки ҳайвонлардаги касалликларни даволаш, ташхис қўйиш ёки олдини олиш усулига оид ихтиролар учун касаллик этиопатогенезига таъсир кўрсатадиган аниқланган факторлар ёки этиопатогенез ва ташхис кўрсаткичлари орасидаги боғланишни келтириб чиқарувчи факторлар ҳақида маълумотлар келтирилади. Бундай маълумотлар бўлмаганда усулнинг кўрсатилган ҳолат ёки касалликни даволаш, ташхис ёки олдини олишга яроқлилигини тасдиқловчи ҳақиқий маълумотлар келтирилади.

79. Тузилиши аниқланган янги индивидуал кимёвий бирикмага оид ихтиро учун маълум услублар билан исботланган тузилиш формуласи, физик-кимёвий константалар келтирилади ва янги бирикма биринчи марта олинган усул очиб берилади.

80. Ген инженерияси маҳсулотларига тааллуқли бўлган индивидуал бирикмалар учун кетма-кетликлар рўйхатидаги нуклеотидлар кетма-кетлигининг

QMMB: 10/26/3801/0292-son
30.03.2026-y.

рақамига доир кўрсатма (нуклеин кислоталар фрагментларида) ёки табиий харита (рекомбинант нуклеин кислоталар ва векторлар ҳолатида), кетма-кетликлар рўйхатидаги аминокислоталар кетма-кетлигининг рақамига доир кўрсатма ҳамда ушбу бирикмани бошқаларидан фарқлаш учун зарур бўлган физик-кимёвий ва бошқа тавсифлар келтирилади. Янги бирикма биринчи марта олинган усул сифатида тавсифланади ва ушбу бирикмадан маълум вазифа бўйича фойдаланиш имконияти кўрсатилади.

Нуклеотидлар ёки аминокислоталар кетма-кетлигидан белгини тавсифлаш учун фойдаланилганда уларнинг кетма-кетликлари рўйхатидаги рақами “SEQ ID NO …” кўринишида эркин матнда тақдим этилади.

81. Биологик фаол бирикмага оид тавсифда фаоллик ва заҳарлилик миқдори тавсифларининг кўрсаткичлари, зарур бўлганда эса танлаб таъсир қилиш ва бошқа кўрсаткичлари келтирилади.

82. Ихтиро инсонлар ёки ҳайвонлардаги маълум ҳолатлар ёки касалликларни даволаш, ташхис қўйиш ёки профилактика қилиш воситасига оид бўлганда тавсифда унинг ишлатилиши натижасида касаллик этиопатогенезига кўрсатадиган таъсирини тушунтирадиган омиллар ҳақида маълумотлар келтирилади. Бундай маълумотлар бўлмаганда кўрсатилган касалликларни даволаш, ташхис қўйиш ёки профилактика қилиш учун яроқлилигини тасдиқловчи маълумотлар келтирилади.

83. Ихтиро тузилиши аниқланган кимёвий бирикмага тааллуқли бўлганда маълум бўлган услублар билан исботланган тузилиш формуласи, физик-кимёвий константалар келтирилади, бирикма олинган усул тавсифланади ва ихтиродан кўрсатиб ўтилган вазифаси бўйича фойдаланиш имконияти келтирилади.

84. Янги кимёвий бирикма микроорганизмлар штамми, ўсимлик ёки ҳайвон ҳужайралари турларидан (линиялари) фойдаланиш орқали олинганда ушбу штамм ва тур (линия) иштирокида янги кимёвий бирикмани олиш усули, штамм ва тур (линия) ҳақида маълумот, шунингдек штамм ва тур (линия) сақлаш учун топширилганлиги ҳақида маълумотнома тақдим этилади.

85. Ихтиро оралиқ бирикмага оид бўлганда уни аввалдан маълум бўлган охирги маҳсулотга айлантириш учун қайта ишлаш имконияти ёки ундан аниқ вазифада ишлатиладиган ёки биологик фаол хусусиятга эга бўлган янги маҳсулот олиш мумкинлиги келтирилади.

86. Ихтиро нуклеин кислоталар ёки оқсилларга тааллуқли бўлганда кетма-кетлик рўйхатидаги кетма-кетлик рақами (нуклеин кислоталар учун – нуклеотидлар, оқсиллар учун – аминокислоталар) ҳамда ушбу маҳсулотни бошқалардан фарқлашга имкон берадиган физик-кимёвий ва бошқа тавсифлар келтирилади. Бунда маҳсулот олинган усул баён қилинади ва ушбу маҳсулотдан белгиланган вазифа бўйича фойдаланиш имконияти кўрсатилади.

QMMB: 10/26/3801/0292-son
30.03.2026-y.

87. Ихтиро композицияга (таркиблар, аралашмалар, қотишмалар, эритмалар ва бошқаларга) оид бўлганда композиция таркибига кирган ингредиентлар, уларнинг хусусиятлари ва миқдорий нисбатлари кўрсатилган мисоллар келтирилади. Бунда композицияни олиш усули тавсифланади. Композицияда бирор ингредиент сифатида янги модда қўлланилганда уни олиш усули ҳам тавсифланади.

Келтирилган мисолларда ҳар бир ингредиентнинг миқдори ихтиро формуласида келтирилган чегараларда бўлган бирликларда берилади (ихтиро формуласида ингредиентлар нисбати фоизларда ифодаланганда (масса ёки ҳажми бўйича) кўрсатилган барча ингредиентлар йиғиндиси 100 фоизга тенг бўлади).

88. Штаммга тааллуқли бўлган ихтиро учун штаммнинг номенклатура маълумотлари ва келиб чиқиши, озуқа (экиладиган ва ферментацияланадиган) муҳитининг миқдорий ва сифат жиҳатидан таркиби, маданий етиштириш шароитлари (ҳарорат, pH, O_2 нинг солиштирма масса ўтказилиши, ёритилганлиги ва бошқалар), ферментация вақти, биосинтез тавсифи, фойдали (мақсадли) маҳсулот, маҳсулот чиқиши, штаммнинг фаоллик (маҳсулдорлик) даражаси ва уни аниқлаш усуллари тўғрисида маълумотлар кўрсатилади. Мақсадли маҳсулотни (янги мақсадли маҳсулот продуцентлари, масалан, антибиотиклар, ферментлар, моноклонал антитаначалар ва бошқалар учун) ажратиб олиш ва тозалаш усули очиб берилади.

89. Микроорганизмлар консорциумлари, ўсимлик ва ҳайвон ҳужайралари учун қуйидаги маълумотлар кўрсатиб ўтилади:

компонентлар мавжудлигини текшириш усули;

ажратиб олиш (селекция) усули ва селекция олиб борилган белгилар;

узоқ муддат давомида етиштирилаётганда консорциумнинг барқарорлиги;

ўзга микроорганизмлар томонидан зарарланишга чидамлилиги.

90. Штамм, ўсимлик ёки ҳайвон ҳужайралари турларига (линиялари) ёхуд улар ишлатиладиган усулга тааллуқли ихтирони амалга ошириш имконияти штамм ёки турни (линия) олиш усулини тавсифлаш билан тасдиқланганда, агар штаммни олиш усулининг тавсифи етарли бўлмаса, штамм ёки турнинг (линия) сақлаш учун топширилганлиги (депозитарий номи ва объектни рўйхатдан ўтказиш рақами) тўғрисидаги маълумотлар тақдим этилади.

Бунда сақлаш учун топшириш санаси ихтиро устуворлиги санасигача бўлиши керак.

91. Штамм, ўсимлик ёки ҳайвон ҳужайралари тури (линия) ёки консорциум объекти энг камида патент амал қилиши муддати ичида ҳаётийлигини таъминлашни кафолатлайдиган халқаро депозитарийга ёки миллий депозитарийга

жойлаштирилганда патентлаш жараёни учун сақлашга топшириш амалга оширилган деб ҳисобланади.

92. Нуклеотидлар ва аминокислоталар кетма-кетлиги рўйхати тўртта ва ундан кўп аминокислоталардан иборат ёки ўнта ва ундан кўп нуклеотидлардан иборат тармоқланган бўлмаганда тавсифнинг “Ихтиро моҳияти” бўлимида ушбу кетма-кетликлар батафсил очиб берилади. Бунда ҳар бир кетма-кетликка алоҳида рақам берилади. Кетма-кетликлар рақамлари бирдан бошланиши ва тартиб билан бутун сонга ошиб бориши керак.

Нуклеотидлар ва аминокислоталар кетма-кетлиги рўйхатидаги ҳар бир кетма-кетликнинг рақами ихтиро тавсифи, формуласи ёки график тасвирларда кўрсатилган унинг рақамига мувофиқ бўлиши керак.

93. Нуклеотидлар ва аминокислоталар кетма-кетлиги ҳеч бўлмаганда қуйидаги имкониятларнинг бири ёрдамида тақдим этилиши керак:

фақат нуклеотидлар кетма-кетлиги билан;

фақат аминокислоталар кетма-кетлиги билан;

нуклеотидлар кетма-кетлигининг тегишли аминокислоталар кетма-кетлиги билан.

Мазкур банднинг тўртинчи хатбошисида назарда тутилган ҳолатда аминокислоталар кетма-кетлиги алоҳида рақамга эга бўлган аминокислоталарнинг алоҳида кетма-кетлиги сифатида тақдим этилиши керак. Нуклеотидлар ва аминокислоталар кетма-кетлигининг рўйхати ўзи билан ихтиро тавсифининг бевосита таркибий қисмини намоён қилганлиги боис, мазкур кетма-кетликлар тавсифнинг бирон-бир жойида батафсил келтирилмайди.

Нуклеотидлар ва аминокислоталар кетма-кетлиги рўйхати ўзининг баён қисмида эркин матн – нейтрал тил лексикаси фойдаланилмаган кетма-кетликлар тавсифини баён қилувчи жумлаларни ўз ичига олганда ушбу эркин матн ихтиро тавсифининг кетма-кетликлар рўйхатидаги кетма-кетлик рақамини айнан ўша кўринишда ўз ичига олган бошқа бўлимларида такрорланиши керак.

94. Аввал маълум бўлган қурилма, усул, модда, штамм ва ҳужайралар турини (линияси) янги вазифада қўлланилишига тааллуқли ихтирода ушбу вазифани амалга ошириш имкониятларини тасдиқловчи маълумотлар келтирилади.

95. Ихтиронинг формуласи тавсиф ва чизмаларга тўлиқ асосланган бўлиши керак, яъни ихтиро унинг тавсифида мавжуд бўлган ва чизмаларда келтирилган тушунчалар билан таърифланади.

96. Ихтиронинг формуласи унинг моҳиятини ифодалаши керак, яъни талабнома берувчи томонидан кўрсатилган техник натижага эришиш учун етарли даражада ихтиронинг муҳим белгилари мажмуини ўз ичига олади.

97. Ихтиро белгиларининг ихтиро формуласида ифода этилиши уларни идентификация қилиши, яъни маълум бўлган техника тараққиёти даражаси асосида уларнинг маъноси ва мазмуни мутахассислар томонидан бир хил маънода тушунилиши имкониятини таъминлаши керак.

98. Ихтиро формуласидаги белги таърифини ахборот манбаига ҳавола қилиш билан алмаштириш мумкин эмас. Белгини тавсиф ёки чизмаларга ҳавола қилмасдан таърифлашнинг имкони бўлмаганда ва мазкур Қоидаларнинг 97-бандига асосан белги таърифи бундай ҳавола қилиш билан алмаштирилиши мумкин.

99. Нуклеотидлар ва аминокислоталарнинг кетма-кетлигидан ихтиро формуласидаги белгини тавсифлаш учун фойдаланилганда кетма-кетликлар рўйхатидаги унинг рақами “SEQ ID NO...” кўринишида келтирилади.

100. Ихтиро формуласи умумий тушунчадаги белгилар билан таърифланганда ушбу белгилар доирасидаги аниқ ҳолларда кўрсатилган техник натижани берганда ихтиронинг белгиси умумий тушунчалар билан тавсифланиши мумкин.

Кўрсатилган муқобилидан танлаб олинган ҳар бир белги ихтиронинг бошқа белгилари билан биргаликда бир хил техник натижани олишни таъминлаганда белги муқобил тушунчалар кўринишида ифода этилиши мумкин.

101. Ихтиронинг формуласи бир звеноли ва кўп звеноли бўлиши ҳамда тегишлича бир ёки бир неча бандларни ўз ичига олиши мумкин.

102. Бир звеноли формула ихтиронинг тайёрланиши ёки ундан фойдаланишнинг аниқ ҳолларида ривожлантиришлар ва аниқлаштиришларга эга бўлмаган муҳим белгилар мажмуи билан битта ихтирони тавсифлаш учун қўлланилади.

103. Ихтиронинг кўп звеноли формуласи ихтиронинг тайёрланиши ва ундан фойдаланишнинг аниқ ҳолатларида ривожлантиришлар ҳамда аниқлаштиришларга эга бўлган муҳим белгилар мажмуи билан битта ихтирони ёки ихтиролар гуруҳини тавсифлаш учун қўлланилади.

Битта ихтирони тавсифловчи кўп звеноли формула бир мустақил бандга ва ундан кейин келувчи унга боғлиқ бандларга эга бўлади.

Ихтиролар гуруҳини тавсифловчи кўп звеноли формула бир неча мустақил бандларга эга бўлиб, улардан ҳар бири гуруҳнинг ихтироларидан бирини тавсифлайди. Гуруҳнинг ҳар бир ихтироси тегишли мустақил бандга бўйсунувчи боғлиқ бандларни жалб этиш билан тавсифланган бўлиши мумкин.

Кўп звеноли формула бандлари бирдан бошлаб уларни баён этиш тартибида кетма-кет араб рақамлари билан рақамланади.

104. Ихтиролар гуруҳини тавсифловчи формулани баён этишда қуйидаги қоидаларга амал қилинади:

QMMB: 10/26/3801/0292-son
30.03.2026-y.

алоҳида ихтироларни тавсифловчи мустақил бандларда формуланинг бошқа бандларига ҳавола қилинмайди, агар бандга ҳавола қилинса, ҳавола қилинаётган банднинг мазмуни тўлиқ такрорланмасдан баён этилади;

боғлиқ бандлар ўзлари бўйсунган мустақил бандлар билан бирга гуруҳларга бирлаштирилади, шу жумладан гуруҳдаги турли ихтироларни таърифлаш учун бир хил мазмундаги боғлиқ бандлар киритилади.

105. Формуланинг банди энг яқин аналогнинг белгилари билан мос келувчи, жумладан, ихтиронинг вазифасини кўрсатувчи умумлаштирувчи тушунчани ўз ичига оладиган муҳим белгиларга эга бўлган чекловчи қисмдан ва ихтирони энг яқин аналогидан фарқлайдиган муҳим белгиларни ўз ичига оладиган фарқловчи қисмдан иборат.

Формула банди чекловчи ва фарқловчи қисмларга бўлиб тузилганда чекловчи қисм баён этилгандан сўнг “шу билан фарқланадики” сўз бирикмаси киритилади ва бундан кейин бевосита фарқловчи қисм баён этилади.

106. Қуйидаги ҳолатларда ихтиро формуласи банди чекловчи ва фарқловчи қисмларга бўлинмасдан тузилади:

кимёвий бирикма;

микроорганизм штамми, ўсимлик ва ҳайвон ҳужайралари тури (линияси);

аввал маълум бўлган қурилма, усул, модда, штаммни янги мақсадда қўлланилиши;

аналогларга эга бўлмаган ихтиро.

107. Формуланинг банди битта жумла кўринишида баён этилади.

108. Ихтиро формуласининг мустақил банди фақат битта ихтирога тааллуқли бўлади ва битта жумла кўринишида баён этилади. Ихтиролар – вариантлар фақат муқобил кўринишда ифодаланган белгилар билан фарқланганда формуланинг битта мустақил бандида бир қанча ихтироларни – вариантларни тавсифлашга йўл қўйилади.

Формуланинг мустақил бандида муқобил кўринишда фақат функционал мустақил бўлмаган (яъни, қурилманинг бўғими ёки детали, усул операцияси, усулда қўлланиладиган модда, материал, мослама, композиция ингредиенти ҳисобланмаган) белгилар ифодаланганда бундай мустақил банд фақат битта ихтирога тааллуқли деб ҳисобланади.

109. Формуланинг мустақил банди ундаги мавжуд белгилар мажмуи турли объектларга ёки ҳар бири ўз вазифасига эга бўлган воситалар мажмуига оид бўлган ихтироларнинг тавсифини умумий вазифадаги воситаларнинг кўрсатилган

QMMB: 10/26/3801/0292-son
30.03.2026-y.

мажмуини амалга оширилмаган ҳолда таърифини ўз ичига олганда бир ихтирога тааллуқли деб эътироф этилмайди.

110. Ихтиронинг боғлиқ банди мустақил бандда келтирилган ихтирони фақат уни бажариш ёки фойдаланишнинг аниқ ҳолатларида тавсифлайдиган белгилар билан ихтиро белгилари мажмуининг ривожланиши ва аниқланишини ўз ичига олади.

111. Ихтиронинг формуласидаги боғлиқ банднинг чекловчи қисми у боғлиқ бўлган мустақил банднинг қўлланилишини акс эттирувчи умумлашган тушунчага нисбатан қисқартирилган шакл билан мустақил ва боғлиқ бандга тегишлилиги бўйича ҳавола қилинади.

Боғлиқ банд формуланинг бир неча бандларига бўйсунганда уларга ҳавола қилиш муқобилидан фойдаланилган ҳолда кўрсатилади, сўнг ихтиронинг бажарилиши ёки ундан фойдаланишнинг аниқ ҳолатларида ихтирони тавсифловчи белгилар келтирилади.

112. Ихтирони тавсифлаш учун унинг бажарилиши ёки фойдаланилишининг аниқ ҳолатларида боғлиқ банднинг белгилари билан бир қаторда мустақил банднинг белгилари ва бу боғлиқ банднинг мустақил бандга бўйсунишидан фойдаланилади.

Ихтирони тавсифлаш учун формуланинг бошқа бир ёки бир неча боғлиқ бандларининг белгилари зарур бўлганда ушбу боғлиқ банднинг мустақил бандга тегишли боғлиқ бандлари орқали бўйсунишидан фойдаланилади. Бунда ушбу боғлиқ бандда у бевосита бўйсунган боғлиқ бандгагина ҳаволалар келтирилади.

113. Ихтиро формуласининг боғлиқ банди формуланинг ўзи бўйсунган ўша бандининг белгиларини алмаштирадиган ёки чиқариб ташлайдиган ҳолда баён этилмаслиги керак.

Ихтиро формуласининг боғлиқ банди мустақил банднинг белгилари алмаштирилган ёки чиқариб ташланган ҳолда шакллантирилганда ушбу боғлиқ банд ўзи буйсунган мустақил банд билан бирга битта ихтирони тавсифлайди деб эътироф этилиши мумкин эмас.

114. Қурилма белгилари формулада статик ҳолатда тавсифланади. Қурилманинг конструктив элементи бажарилишини тавсифлашда унинг ҳаракатланувчанлиги у томонидан маълум бир функция (айланиш имконияти, силжиш имконияти) ва бошқаларни амалга ошириш имкониятини кўрсатишга йўл қўйилади.

Талабнома чизмаларни ўз ичига олганда формулада эслатиб ўтилган ва эквивалент конструктив элементларни ифодалайдиган белгилар уларга тааллуқли бўлган ҳаволаки белгилар билан бирга берилиши мумкин. Ҳаволаки белгилар сўралаётган ҳуқуқий муҳофаза ҳажмига таъсир этмайди ва фақат формулани тўлиқроқ ва аниқроқ тушуниш мақсадларида келтирилади.

115. Усул белги сифатида ҳаракатни (усул, операция) тавсифлашда феъллардан фойдаланилганда улар аниқлик нисбатида, аниқлик майлида, учинчи шахсда баён қилинади (қиздирилади, намланади, куйдирилади ва бошқалар).

116. Келиб чиқиш тузилмаси аниқ бўлган кимёвий бирикмани тавсифловчи ихтиро формуласига бирикманинг номланиши ёки белгиланиши киритилади. Ген инженерия маҳсулотларига тааллуқли бирикмалар учун ихтиро формуласига кетма-кетликлар рўйхатидаги нуклеотидлар кетма-кетлиги (нуклеин кислоталар фрагменти ҳолатида) рақамига кўрсатма ва табиий хаританинг (рекомбинант нуклеин кислоталар ва векторлар ҳолатида) сўзли тавсифи, кетма-кетликлар рўйхатидаги аминокислоталар кетма-кетлиги рақамига кўрсатма ҳамда физик-кимёвий ва ушбу бирикмани бошқалардан фарқлаш учун зарур бўлган бошқа тавсифлар киритилади. Тузилмаси аниқланмаган бирикмалар учун ихтиро формуласига номланиши, физик-кимёвий ва ушбу бирикмани фарқлаш учун зарур бўлган бошқа тавсифлар, масалан уни олиш усулининг белгилари киритилади.

117. Композицияни тавсифлайдиган ихтиро формуласига композицияга кирадиган ингредиентлар ва зарур бўлганда ингредиентларнинг миқдорий қийматларига тегишли белгилари киритилади.

Композицияни тавсифлайдиган формулага ингредиентларнинг миқдорини кўрсатадиган белгилар киритилганда улар бир хил бирликларда, одатда иккита қийматларда, энг кўп ва энг кам (қуйи ва юқори) миқдорларда ифодаланади.

Композиция элементлари биттасининг миқдори битта қиймат орқали, бошқалари эса унинг қийматига нисбатан интервал кўринишида берилиши мумкин (масалан, ингредиентлар миқдори композиция асосий ингредиентининг 100 масса қисмига ёки 1 литр эритмага нисбатан келтирилади).

Композиция таркибидаги антибиотиклар, ферментлар, анатоксинлар ва бошқалар миқдори композициянинг бошқа компонентлари бирликларидан ўзгача бирликларда кўрсатилиши мумкин (масалан, бошқа компонентлар масса сонига нисбатан минг бирликларда).

118. Композицияга оид ихтиро қўшимча ингредиент киритиш билан тавсифланганда формуланинг фарқловчи белгиси “қўшимча равишда ўз ичига олади” деган иборани қўллаган ҳолда тузилади.

Вазифаси янги фаол компонент билан белгиланадиган бошқа компонентлар анъанавий қўлланиладиган нейтрал қисмлар бўлганда формулада шу фаол компонентни ва унинг миқдорини “самарали миқдор” кўринишида келтириш мумкин.

Бундай композицияларни тавсифлайдиган яна бир вариант ундаги фаол компонентдан ташқари бошқа компонентларни (нейтрал қисмларни) умумлаштирма тушунча “мақсадли қўшимчалар” кўринишида ифодаланади. Бунда

фаол компонентлар ва мақсадли қўшимчаларнинг миқдорий нисбатлари кўрсатилади.

119. Ихтиро белгиси сифатида мураккаб таркибли маълум модда кўрсатилганда шу модданинг функциясини ва хусусиятини кўрсатиб махсус номини келтириш мумкин. Бунда ихтиро тавсифида шу модда тавсифланадиган адабиёт кўрсатилади.

120. Микроорганизм штамми, ўсимлик ва ҳайвон ҳужайралари турларини (линиялари) тавсифлайдиган формула депозитарийнинг бош ҳарфлари, сақлаш учун топширилган объектга берилган рўйхат рақами ва штамм вазифаси кўрсатилган ҳолда биологик объектнинг оила туркумлари ва турларига оид лотин тилидаги номини ўз ичига олади.

121. Ихтиро аввалдан маълум бўлган ихтирони янги мақсадда қўллашга оид бўлганда қуйидаги тузилишдаги формула ишлатилади: “(аввал маълум бўлган ихтиро номи ёки тавсифи келтирилади) (кўрсатилган ихтиронинг янги вазифаси келтирилади) сифатида ишлатилиши”.

122. Ихтиро моҳиятини тушунтирадиган материаллар график тасвир (чизма, схема, графика, эпюра, расм, осцилограмма кабилар) ва жадвал кўринишида бажарилиши мумкин.

Ихтирони чизма ва схемалар орқали очиб беришнинг иложи бўлмаганда тасвирлар тақдим этилади. Фотосуратлар тасвирларга қўшимча қилиниши мумкин.

123. Реферат ихтиро тавсифининг қисқартирилган баёни бўлиб, ихтиро ҳақида маълумот олиш учун хизмат қилади. Унда ихтиро номи, фойдаланиш соҳаси, қуйилган вазифа, ихтиро моҳиятининг тавсифи келтирилади.

Рефератдаги ихтиро моҳияти мустақил бандниг барча муҳим белгиларини сақлаб қолган ҳолда ихтиро формуласини эркин тарзда баён этиш орқали таърифланади.

Зарур ҳолларда ихтиро рефератига чизма ёки кимёвий формула киритилиши мумкин. Рефератга киритилаётган чизмалар билан тавсифга илова қилинадиган чизмалар бир-бирига мос келишидан қатъий назар алоҳида саҳифада берилади.

124. Рефератда қўшимча маълумотлар, хусусан, боғлиқ бандлар, график тасвирлар, жадваллар мавжудлиги ва сони кўрсатилиши мумкин.

125. Реферат матнининг ҳажми 1000 та белгидан ошмаслиги керак.

126. Талабномага одоб-аҳлоқ ва ижтимоий тартибга зид иборалар, чизмалар, расмлар, фотосуратлар ва бошқа материаллар; ўзга шахсларнинг маҳсулотлари ёки технологик жараёнларига, шунингдек талабномалари ва муҳофаза ҳужжатларига нисбатан баён қилинган камситувчи фикрлар; ихтирога очиқдан-очиқ тааллуқли бўлмаган ёхуд талабнома материалларини мазкур Қоидаларнинг талабларига

мувофиқ деб эътироф этиш учун зарур бўлмаган маълумотлар ва фикрлар киритилмайди.

“Техника даражаси” бўлимида маълум маҳсулот ёки усулни таърифлашда унинг камчилигини кўрсатиш йўл қўйиб бўлмайдиган элемент деб ҳисобланмайди.

127. Ихтиронинг формуласи, тавсифи, тушунтириб берувчи материалларида ва рефератида стандартлаштирилган атама ва қисқартмалар, улар мавжуд бўлмаганда илмий-техникавий адабиётда умумқабул қилинган атама ва қисқартмалар қўлланилади.

Илмий-техникавий адабиётда кенг қўлланилмайдиган атама ва қисқартмалар ишлатилганда уларнинг маъноси матнда биринчи марта қўлланилганда изоҳлаб берилади.

Тавсиф ва формулада атамаларнинг ягоналигига риоя қилинади. Ушбу талаб физикавий бирликлар ва фойдаланиладиган шартли белгиларга ҳам тааллуқлидир.

Физикавий миқдорлар имкон қадар амалдаги Халқаро бирликлар тизими бирликлари билан ифода этилади.

128. Барча материаллар репродукция қилиниб, чекланмаган миқдорда нусха кўчириш имконияти бўлган тарзда расмийлаштирилади.

129. Талабноманинг ҳар бир ҳужжати алоҳида саҳифадан бошланади ва А4 форматда тақдим этилади.

130. Талабноманинг ҳар бир ҳужжати бир-бирига боғлиқ бўлмаган бирдан бошланадиган рақамга эга бўлади. Саҳифаларнинг рақамлари иккинчи саҳифадан бошлаб араб рақамлари билан қўйилади.

131. Ҳужжатда график белги, лотинча ном, лотин ва юнонча ҳарф, математик ва кимёвий формула ҳамда символлар ёзилиши мумкин.

132. Кимёвий бирикманинг тузилиш формуласи одатда алоҳида фигура сифатида (график материаллар каби) рақамланиб, изоҳли белгилар кўрсатилган ҳолда алоҳида саҳифада берилади.

Кимёвий тузилиш формуласини ёзишда умумий қўлланишдаги белгилар ишлатилади, элементлар ва радикаллар ўртасидаги боғланиш аниқ кўрсатилади.

Нуклеотидлар ва аминокислоталар кетма-кетлиги рўйхатини БИМТнинг тегишли стандартига мувофиқ расмийлаштириш керак.

133. Ихтиронинг тавсифи, формуласи ва рефератида математик формулалар мавжуд бўлганда барча ҳарфли белгиларга формулада қўлланилган тартиб бўйича изоҳ берилади.

Математик белгилар математик формулаларда қўлланилади, матнда эса улар сўзлар билан ёзилади.

134. График тасвирлар (чизмалар, схемалар, графиклар, расмлар ва ҳ.к.) махсус график дастурларда ёки чизмачилик асбоблари ёрдамида ўчирилмайдиган, қора, аниқ чизиқлар ва штрихлар билан чизилмасдан ва бўялмасдан бажарилади.

Объектнинг моҳиятини қўшимча тушунтириш учун талабнома берувчи рақамли уч ўлчовли моделни тақдим этиш ҳуқуқига эга.

Рақамли уч ўлчовли модель – объектнинг сиртини (қурилма, қурилма деталлари, структуравий кимёвий формулалар ва бошқалар) уч ўлчовда геометрик тасвирлаш учун махсус дастурий таъминот ёрдамида тайёрланган, объектни умумий тасаввур қилиш учун ишлатиладиган электрон файл бўлиб, унинг барча элементларининг жойлашуви ва боғлиқлигини кўрсатади.

Электрон шаклда тақдим этилган рақамли уч ўлчовли модель мазмунан қоғозда топширилган талабномага мос келиши керак. Талабнома фақат электрон шаклда тақдим этиладиганда рақамли уч ўлчовли модель бўлиши мумкин.

Рақамли уч ўлчовли модел махсус дастурий таъминот ёрдамида тайёрланиб, 3D PDF форматида қайта сақланган электрон файл кўринишида топширилади.

3D PDF форматидаги файлнинг максимал ҳажми 50 МБ дан ошмаслиги керак.

135. Тасвирларнинг масштаби ва аниқлиги репродукция қилиш пайтида ўлчамлар 2/3 гача чизиқли кичрайтирилганда ҳамма деталларни фарқлаб, аниқлаш мумкин бўладиган тарзда танланади.

136. Ҳар бир график тасвир араб рақамлари ва “фигура” сўзи билан (1-фигура, 2-фигура ва бошқалар), уларнинг тавсиф матнида келтирилиши кетма-кетлигига мувофиқ алоҳида рақамланади. График тасвири битта фигура билан тавсифланганда у рақамланмайди.

137. Икки ва ундан ортиқ саҳифаларда жойлашган фигуралар битта фигуранинг бўлакларини ташкил этганда, ҳар хил саҳифаларда тасвирланган фигуралардан бирортаси тушириб қолдирилмай бирлаштириш мумкин бўлган ҳолда жойлаштирилади.

138. Чизмалар мазкур Қоидаларнинг 135, 136, 141 ва 142-бандлари ва техник чизмаларни тайёрлаш қоидаларига мувофиқ бажарилади.

139. Чизмадаги ҳар бир элемент бошқа элементларга нисбатан пропорционал ҳолда бажарилади, бундан элементни аниқ тасвирлаш учун пропорцияларнинг бир-биридан фарқланиши зарур бўлган ҳоллар мустасно.

140. Чизмалар ёзувларсиз бажарилади, бундан “сув”, “буғ”, “очиқ”, “ёпиқ”, “А-А” (кесимни кўрсатиш учун) каби тушуниш учун ўта зарур бўлган сўзлар мустасно.

141. Чизмаларда ўлчамлар кўрсатилмайди, зарур бўлган ҳолларда улар тавсифда келтирилади.

142. Чизмаларда тасвирланган элементлар ихтиронинг тавсифига мувофиқ араб рақамлари билан белгиланади.

Бир неча фигураларда келтирилган бир элемент бир хил рақам билан белгиланади. Тавсифда келтирилмаган элемент чизмага киритилмайди.

143. График тасвир схема шаклида келтирилганда уни бажаришда шартли график белгилари қўлланилади.

144. Схема тўғри бурчаклар кўринишида элементларнинг график белгиланиши сифатида тақдим этилганда бевосита тўғри бурчакка рақамли белгидан ташқари элементнинг номи келтирилади.

145. Чизма, схема, тасвирлар ихтиро тавсифи ва формуласида келтирилмайди.

146. Ахборот манбаларининг библиография маълумотлари улар бўйича ахборот манбаини топиш мумкин бўлган ҳолда кўрсатилади.

147. Вакил орқали топширилган талабномага унга талабнома берувчи томонидан берилган ва унинг ваколатларини тасдиқлайдиган ишончнома илова қилинади. Ишончнома оддий ёзма шаклда расмийлаштирилади.

Ишончнома талабнома билан бир вақтнинг ўзида ёки талабнома топширилган санадан икки ойдан кечиктирилмай тақдим этилади.

4-боб. Ҳужжатларни топшириш

148. Талабнома ваколатли органнинг махсус ахборот тизими (бундан буён матнда ахборот тизими деб юритилади) орқали топширилади.

Талабнома ваколатли органга почта алоқаси орқали ҳам топширилиши мумкин. Бунда талабнома ваколатли орган томонидан шу куннинг ўзида ахборот тизимига киритилади.

149. Талабнома топширилгандан кейинги босқичлардаги барча ҳаракатлар ахборот тизими орқали амалга оширилади.

150. Аризани ахборот тизими орқали топширишда ариза шакли тўлдирилганидан сўнг талабнома берувчи маълумотларнинг тўғрилигини текшириб, аризани тасдиқлайди.

Юридик шахс номидан ариза ташкилот раҳбари ёки бошқа ваколатли шахс томонидан тасдиқланади.

Аризани почта алоқаси орқали топширишда у имзолаш йўли билан тасдиқланади. Бунда тегишли маълумотлар қўшимча варақларда келтирилганда

QMMB: 10/26/3801/0292-son
30.03.2026-y.

уларнинг ҳар бири имзоланади.

151. Талабномани топширишда Ўзбекистон Республикасининг “Давлат божи тўғрисида”ги Қонунида назарда тутилган миқдорда патент божи тўланади ва қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда тақсимланади.

152. Патент божи тўлови ягона биллинг тизими орқали электрон шаклда амалга оширилади.

153. Талабнома берувчи томонидан аризани тасдиқлашнинг рад этилиши, шунингдек талабномани топшириш учун патент божини тўламаслик талабномани топширишни рад этиш учун асос бўлиб ҳисобланади.

Талабномани қабул қилишни бошқа асослар бўйича рад этиш тақиқланади.

154. Ваколатли орган талабномани қабул қилиб, рўйхатга олгандан сўнг талабнома берувчига талабноманинг қайд рақами, келиб тушган санаси кўрсатилган хабарномани тегишли равишда ахборот тизими орқали автоматик тарзда ёхуд почта алоқаси бўйича юборади.

5-боб. Талабнома бўйича ишларни олиб бориш

155. Талабнома топширилгандан кейин юбориладиган материалларда талабнома рақами кўрсатилиши шарт. Талабнома рақами кўрсатилмаган материаллар кўриб чиқилмайди.

156. Талабларга жавоб бермайдиган тарзда материаллар топширилганда Марказ томонидан тузатилган ва етишмаган материалларни тақдим этиш тўғрисида сўровнома талабнома берувчига юборилади.

157. Қонуннинг 20-моддасига кўра талабнома берувчи талабнома топширилган санадан эътиборан икки ой мобайнида талабномада кўрсатилган ихтиронинг моҳиятини ўзгартирмаган ҳолда унга тузатишлар, аниқликлар ва қўшимчалар (бундан буён матнда тузатишлар деб юритилади) киритиш ҳуқуқига эга.

158. Талабнома бўйича тузатишлар, аниқликлар ёки қўшимча материаллар патент божи тўланган тақдирда, мазкур Қоидаларнинг 157-бандида кўрсатилган муддат ўтганидан кейин, лекин Марказ патент бериш ҳақида қарор қабул қилгунига қадар тақдим этилиши мумкин.

159. Патент божи тўланмаганда тегишли ҳаракатлар амалга оширилмайди ва бу ҳақида талабнома берувчига хабар берилади. Тўланган патент божи белгиланган миқдорга мос бўлмаганда талабнома берувчи Марказ томонидан божнинг етишмаган қисмини тўлаш ҳақидаги хабарнома юборилган санадан эътиборан уч ой ичида керакли суммани тўлаши керак.

160. Талабнома материалларига мазкур Қоидаларнинг 165-бандида назарда тутилган ўзгартиришлардан бошқа тузатишлар киритиш талабнома берувчи

томонидан мазкур Қоидаларнинг 2-иловасига мувофиқ ариза бериш йўли билан амалга оширилади.

161. Талабнома материалларидаги яққол кўриниб турган ва техник хатолар ихтиро рўйхатдан ўтказилгунга қадар тўғриланиши мумкин. Таклиф қилинган тузатишдан бошқача бўлиши мумкин эмаслиги соҳа мутахассиси учун умумий билимлардан маълум бўлганда тузатиш яққол кўриниб турган деб ҳисобланади.

162. Тузатиш имловий хатога, библиография маълумотини кўрсатишдаги хатоликка ва бошқа шу каби хатоларга оид бўлганда тузатиш киритиш зарурлиги алмаштириладиган саҳифани тақдим этмасдан талабнома берувчининг хатида баён қилиниши мумкин.

163. Мазкур Қоидаларнинг 25-бандига мувофиқ нуклеотидлар ва аминокислоталар кетма-кетлиги рўйхати ўзгартирилганда рўйхат (.pdf ва .docx форматларда) қайтадан тақдим этилади.

164. Ушбу Қоидалар талабларига риоя қилинмаганда талабнома берувчи тақдим этилган талабнома материалларига тузатишлар киритиш лозимлиги ёки тегишли сабабларни кўрсатиб талабнома материалларига тузатиш киритиш мумкин эмаслиги ҳақида ушбу камчиликлар аниқланган кундан бошлаб ўн кун муддат ичида хабардор қилинади.

165. Талабнома материалларига талабнома берувчини ўзгартириш тўғрисидаги ёзувларни киритиш талабнома берувчи томонидан ариза топшириш йўли билан амалга оширилади. Аризада ҳуқуқ ўзга шахсга ўтказилиши кўрсатилишида мазкур Қоидаларнинг 28 ва 31-бандларида кўрсатилган маълумотлар бўлиши керак.

Ушбу ариза билан бирга ҳуқуқни топширувчи ва ҳуқуқни қабул қилиб олувчи томонидан имзоланган ҳуқуқ ўтказилганлигини тасдиқловчи далолатнома мазкур Қоидаларнинг 3-иловасига мувофиқ шаклда тақдим қилинади.

Ушбу Қоидалар талабларига риоя қилинганда талабнома берувчига талабнома материалларига талабнома берувчининг ўзгартирилганлиги тўғрисида қайд киритилганлиги ҳақида ушбу қайд киритилган кундан бошлаб ўн кун муддат ичида хабар берилади. Кейинги барча ёзишмалар янги талабнома берувчи билан олиб борилади.

Талабнома берувчига талабнома материалларига ўзгартириш киритилганлиги тўғрисидаги хабарнома юборилган сана ҳуқуқ янги талабнома берувчига ўтган сана деб ҳисобланади.

Ушбу Қоидалар талабларига риоя қилинмаганда талабнома берувчи ва ҳуқуқни қабул қилиб олувчига тақдим этилган ҳужжатларга тузатишлар киритиш зарурлиги ёки талабнома материалларига талабнома берувчини ўзгартириш

ҳақидаги қайдни киритиш мумкин эмаслиги тўғрисида тегишли сабаблар кўрсатилган ҳолда хабарнома ўн кун муддат ичида юборилади.

166. Патент олиш ҳуқуқи бошқа шахсга ўтказилиши натижасида талабнома берувчини ўзгартириш ёки талабнома берувчининг номини (исмини) ўзгартириш ихтиро давлат рўйхатидан ўтказилгунга қадар амалга оширилиши мумкин.

167. Ихтиро бирлиги талаби бузилганда топширилган талабнома талабнома берувчининг илтимосига асосан икки ёки бир неча талабномаларга ажратилиши мумкин (бундан буён матнда ажратилган алоҳида талабнома деб юритилади).

Ажратилган алоҳида талабномалар бўйича биринчи талабноманинг топшириш санаси, ихтирога топширилаётган талабноманинг устуворлик санаси ёки биринчи талабнома бўйича олдинроқ устуворликни белгилаш ҳуқуқи мавжуд бўлганда ушбу устуворлик сақлаб қолинади.

Илтимоснома эркин шаклда берилади ва мазкур Қоидаларнинг 3-бобига мувофиқ расмийлаштирилган материаллар илова қилинади ва белгиланган миқдорда патент божи тўланади.

Мазкур банд талабларига риоя қилинганда талабномани ажратиш тўғрисидаги илтимоснома қаноатлантирилади ва талабнома берувчи бу ҳақида илтимоснома қаноатлантирилган кундан бошлаб ўн кун муддат ичида хабардор қилинади.

168. Талабнома ҳақидаги маълумотлар расмий ахборотномада эълон қилингандан сўнг ихтиро тавсифи, формуласи, чизмалари ва график материаллари танишиб чиқиш учун очиқ ҳисобланади.

169. Талабнома билан боғлиқ саволларни талабнома берувчи иштирокида кўриб чиқиш, қоида тариқасида, талабнома материаллари бўйича экспертиза томонидан қўшимча тушунтиришлар олиш зарурати пайдо бўлган ҳолатда ҳамда ихтиронинг патентга лаёқатлилик шартларига мувофиқлиги тўғрисида экспертизанинг ва талабнома берувчининг позициясини аниқлаш учун ўтказилади.

170. Саволларни талабнома берувчи иштирокида кўриб чиқиш томонлар саволлар билан танишиб чиққандан сўнг Марказ таклифига ёки талабнома берувчининг эркин шаклдаги илтимосномасига биноан ўтказилади. Экспертизанинг саволлари қўшимча равишда учрашувнинг мақсадга мувофиқлиги хабар қилинган сўровномада, талабнома берувчининг саволлари эса бундай кўриб чиқишни ўтказиш ҳақидаги илтимосномада баён этилади.

Сўровнома юборилганда талабнома берувчи талабномани кўриб чиқишда қатнашиш ниятидан қатъий назар сўровномага белгиланган муддатда жавоб бериши шарт.

171. Талабнома берувчи иштирокида талабномани кўриб чиқиш санаси ва вақти олдиндан келишиб олинади.

172. Талабнома берувчи иштирокида талабномани кўриб чиқиш музокаралар йўли билан ёки эксперт кенгашида амалга оширилади.

Саволлар бевосита экспертиза ва талабнома берувчи томонидан ҳал қилиниши мумкин бўлганда улар ўртасида музокаралар олиб борилади. Музокаралар Марказнинг тегишли таркибий бўлинмаси раҳбари ёки Марказ раҳбари тайинлаган масъул ходим иштирокида ўтказилади.

Саволларни ҳал қилиш учун мутахассислар иштироки талаб қилинганда эксперт кенгаши ўтказилади.

173. Музокаралар ёки эксперт кенгаши натижалари бўйича икки нусхада баённома тузилади ва унда қатнашчилар, томонлар келтирган далил ва таклифлар ҳақидаги маълумотлар ҳамда кейинги иш юритиш ҳақида хулосалар келтирилади.

Саволларни кўриб чиқишда қатнашувчиларнинг барчаси баённомани имзолайди. Баённоманинг бир нусхаси талабнома материалларига қўшиб қўйилади, иккинчиси талабнома берувчига топширилади.

174. Муҳокама қилинаётган масалалар бўйича бир хулосага келинмаганда кўриб чиқишда қатнашувчиларнинг алоҳида фикрлари баённомада қайд этилади. Баённома нусхасининг талабнома берувчига топширилиши иш юритиш тўхтатилганлиги тўғрисидаги хабарноманинг (талабнома чақириб олинганда) ёки сўровноманинг ўрнини босиши мумкин (жавоб беришнинг белгиланган муддатлари бузилмаганда) ва бу ҳолат баённомада тегишли ёзув билан расмийлаштирилади.

175. Талабнома берувчи талабномани чақириб олиш ҳуқуқига эга.

Талабномани чақириб олиш тўғрисидаги ариза, талабномани кўриб чиқишнинг исталган босқичида, лекин ихтиро давлат рўйхатидан ўтказилгунга қадар топширилиши мумкин. Ариза инобатга олинганлиги ҳақида хабарнома юборилган санадан бошлаб талабнома чақириб олинган деб ҳисобланади.

176. Чақириб олинган талабнома бўйича ҳуқуқий аҳамиятга эга ҳаракатлар амалга оширилмайди. Бошқа талабномаларнинг экспертизасини ўтказишда чақириб олинган талабнома материаллари расмий ахборотномада нашр этилмаганда ушбу чақириб олинган талабнома техника даражасига киритилмайди.

6-боб. Талабномани кўриб чиқиш

177. Талабномага ахборот тизимида автоматик равишда икки ҳарфли ва тўққиз хонали рўйхат рақами берилади, бунда ҳарфлар (IO) саноат мулки объекти – ихтирони, талабнома рақамидаги дастлабки тўртта сон – талабнома топширилган йилни, кейинги бешта сон – шу йилдаги ҳар йили бирдан бошланадиган тартиб рақамни билдиради.

178. Талабномани давлат экспертизасидан ўтказиш расмий экспертизадан ўтказиш ҳамда ихтирога талабноманинг моҳияти бўйича илмий-техника

QMMB: 10/26/3801/0292-son
30.03.2026-y.

экспертизасидан (бундан буён матнда моҳияти бўйича экспертиза деб юритилади) ўтказишдан иборат бўлиб, Марказ томонидан амалга оширилади.

179. Расмий экспертизанинг вазифаси талабнома материаллари таркиби, зарур ҳужжатлар мавжудлиги ва уларнинг белгиланган талабларга мувофиқлигини текширишдан иборат.

180. Расмий экспертиза натижалари бўйича талабнома берувчига Марказнинг талабномани кўриб чиқиш учун қабул қилинганлиги ёки кўриб чиқиш учун қабул қилиш рад этилганлиги ҳақидаги қарори юборилади.

181. Расмий экспертиза талабнома ахборот тизимида қабул қилинган санадан бошлаб икки ой ўтгандан сўнг бир ой давомида ўтказилади.

182. Талабнома берувчининг ёзма илтимосномасига кўра расмий экспертиза белгиланган муддат ўтмасдан бошланиши мумкин.

Бунда талабнома берувчи илтимоснома берилган пайтдан бошлаб талабнома материалларига белгиланган миқдорда қўшимча патент божи тўламасдан ўз ташаббусига кўра тузатишлар киритиш имкониятидан маҳрум бўлади.

Талабнома берувчи томонидан расмий экспертизани белгиланган муддат ўтмасдан бошлаш ҳақидаги илтимосномаси чақириб олинмайди.

183. Талабнома келиб тушган санадан икки ой ўтгандан кейин ёки талабнома берувчининг ташаббусига кўра талабнома расмий экспертизасини муддатидан олдин бошлаш ҳақидаги илтимоснома берилгандан сўнг талабнома материалларига тузатиш ва ўзгартиришлар киритишда белгиланган миқдорда патент божи тўланади.

Патент божи тўланмаганлиги аниқланганда талабномани кўриб чиқишда тузатиш ва ўзгартиришлар эътиборга олинмайди ва бу ҳақида ўн кун муддат ичида талабнома берувчига хабар берилади.

Талабнома материаллари бошқа тилда топширилиб, талабнома материалларида расмий экспертизани муддатдан илгари бошлаш ҳақидаги илтимоснома мавжуд бўлганда талабнома берувчи талабнома материалларининг таржимаси олинмагунга қадар расмий экспертизани ўтказиш мумкин эмаслиги ҳақида ўн кун муддат ичида хабардор қилинади.

184. Расмий экспертиза ўтказиш давомида қуйидагилар текширилади:

талабнома таркибида мазкур Қоидаларнинг 20–25-бандларида назарда тутилган ҳужжатларнинг мавжудлиги;

талабномани расмийлаштиришга оид талабларга риоя қилинганлиги;

Қонуннинг 14-моддаси тўртинчи қисмида назарда тутилган ҳолларда талабнома топшириш тартибига, жумладан, вакилнинг ваколатларини

тасдиқлайдиган ишончноманинг мавжудлиги ва тўғри расмийлаштирилишига риоя Қилинганлиги;

талабнома ихтиро сифатида муҳофазаланадиган объектларга оид техник ечимга берилганлиги;

олдинроқ устуворликни сўраш асосланганлиги;

ихтирони ХПТнинг амалдаги таҳрири бўйича тўғри таснифланганлиги (агар талабнома берувчи томонидан таснифланмаган бўлса, таснифланади);

талабномани топшириш учун белгиланган миқдорда патент божи тўланганлиги.

185. Патент божи белгиланган миқдордан кам тўланганда талабнома берувчига уч ой ичида талабномани топшириш учун тўланган патент божини ҳамда формуланинг мустақил ва боғлиқ бандлари сонини мувофиқлаштириш ҳақида хабарнома юборилади.

186. Белгиланган миқдордаги патент божи мазкур Қоидаларнинг 185-бандида назарда тутилган муддатда тўланмаганда ихтиролар гуруҳи учун талабнома юзасидан экспертиза талабнома берувчи томонидан танлаб олинган бандлар бўйича ёки танланган бандлар ҳақида кўрсатилган муддатда хабар берилмаганда формулада биринчи бўлиб кўрсатилган бандлар бўйича ўтказилади.

187. Талабномани расмий экспертизадан ўтказишда талабнома ҳужжатлари бузилган ҳолда расмийлаштирилганлиги аниқланганда талабнома берувчига камчиликлар кўрсатилган ва ҳуқуқий асослар келтирилган сўровнома юборилади.

188. Сўровнома юбориш учун қуйидагилар асос бўлади:

талабномада мазкур Қоидаларнинг 20-бандида назарда тутилган ҳужжатлар ёки улардан бирининг мавжуд эмаслиги;

талабнома вакил орқали топширилганда ишончноманинг мавжуд эмаслиги ёки уни расмийлаштириш қоидалари бузилганлиги;

аризани тўлдиришда мазкур Қоидаларнинг 26 – 35-бандлари талабларига риоя этилмаганлиги;

патент божлари тўғри тўланганлиги билан боғлиқ саволларни аниқлаш зарурати;

бошқа тилда топширилган материалларнинг таржимаси мавжуд эмаслиги;

микроорганизм штамми, ўсимлик ва ҳайвон ҳужайралари тури (линияси) сақлаш учун топширилгани ҳақидаги ҳужжат мавжуд эмаслиги;

материаллардан бевосита нусха кўчиришга, уларни сақлашга тўсқинлик қиладиган ва тавсифни нашр этишга тайёрлаш имкониятини бермайдиган

камчиликлар аниқланлиги;

тавсифда мазкур Қоидаларда назарда тутилган бирон-бир бўлимнинг мавжуд эмаслиги (агар тегишли бўлимда баён қилиниши керак бўлган маълумотлар бошқа бўлимда келтирилган бўлса, сўровнома юборилмайди), шунингдек формула ёки тавсифда бирон-бир белгининг хусусиятини ушбу белги очиб берилган адабиёт манбаига ҳавола қилиш билан алмаштирилганлиги;

талабномада ҳамма таниша олмайдиган ахборот манбаига берилган изоҳлар ёки ундаги баъзи маълумотларни нашр этиш мумкин эмаслиги ҳақида кўрсатмалар мавжудлиги;

формула бандини битта жумла кўринишида баён қилиш талаби бузилганлиги;

формулада ҳуқуқий муҳофаза сўралаётган ихтиро тури кўрсатилмаганлиги;

формулада тегишли объект белгилари ўрнига унинг ишлатишдаги кўрсаткичлари ва истеъмол хусусиятлари, уни амалга ошириш ва ундан фойдаланишда келиб чиқадиган самара ва ҳодисалар ҳақида маълумотлар келтирилганлиги;

талабнома материалларининг бир-бирига мос эмаслиги;

талабнома ихтиро сифатида эътироф этилмайдиган объектларга берилганлиги;

талабнома бўйича устуворлик сўраш билан боғлиқ саволлар пайдо бўлганлиги.

189. Талабнома берувчи тақдим этган жавобда сўралган барча ҳужжатлар ва маълумотлар бўлмаганда сўровнома такроран юборилиши мумкин.

190. Расмий экспертиза сўровномасига тўлиқ жавоб тақдим этилмаганда, жавоб бериш учун белгиланган муддат бузилганда ёки бу муддат ичида уни узайтириш ҳақида илтимоснома келиб тушмаганда талабнома чақириб олинган деб ҳисобланади. Бунда талабнома бўйича иш юритиш тўхтатилади ва бу ҳақида талабнома берувчига ўн кун муддат ичида хабарнома юборилади.

191. Талабнома материаллари белгиланган талабларга зид эмаслиги ҳақидаги хулосага келинганда талабнома топширилган санани белгилаш ва талабномани кўриб чиқишга қабул қилиш тўғрисидаги расмий экспертизанинг қарори қабул қилинади ва талабнома берувчига юборилади.

192. Расмий экспертиза томонидан талабнома материалларининг Қонун ва мазкур Қоидалар қоидаларига зид эканлигининг аниқланиши талабномани кўриб чиқиш учун қабул қилишни рад этиш тўғрисида қарор қабул қилишга асос бўлади.

193. Талабномани кўриб чиқишга қабул қилиш ёки талабномани кўриб чиқишга қабул қилишни рад этиш тўғрисидаги қарорда тегишли қарорни қабул қилиш асослари келтирилади.

194. Талабнома моҳияти бирон-бир техника соҳасига оидлигини аниқлаш мақсадида ихтиро ХПТнинг амалдаги таҳрири бўйича таснифланади.

Таснифлаш расмий экпертиза ва моҳияти бўйича экспертиза ўтказиш босқичларида амалга оширилади.

195. Формула тасниф индексларини танлаш учун асос бўлади. Талабнома ХПТнинг турли рубрикаларига тегишли бир неча объектларни ичига олганда барча мос тасниф индекслари аниқланади. Бунда биринчи индекс ихтиро номи билан аниқланади. Расмий экспертиза босқичида аниқланган тасниф индекслари моҳияти бўйича экспертиза жараёнида ўзгартирилиши мумкин.

196. Патент божи формуладаги бандлар учун белгиланган миқдордан кам тўланганда патент божи ва формуланинг мустақил бандлари сонини мувофиқлаштириш натижасида дастлаб формула таркибида бўлган баъзи бандлар чиқариб ташланиши мумкин. Бунда қарорда талабнома фақат тузатилган формулага нисбатан кўриб чиқишга қабул қилинганлиги кўрсатилади.

197. Давлат экспертизаси давомида формулага киритилган тузатишлар бошқа ихтирога оид алоҳида бандлар пайдо бўлишига олиб келмаслиги керак, талабноманинг дастлабки материалларида мавжуд ихтиро моҳиятини ўзгартирмаган ҳолда киритилган бандлар бундан мустасно.

198. Моҳияти бўйича экспертиза талабнома берувчи ёки исталган бошқа шахс томонидан берилган илтимосномага биноан ва белгиланган миқдордаги патент божи тўланганда ўтказилади.

199. Моҳияти бўйича экспертизани ўтказиш тўғрисидаги илтимоснома талабнома билан бирга ёки талабнома топширилган санадан эътиборан уч йил мобайнида топширилиши мумкин.

Мазкур бандниng биринчи хатбошисида белгиланган муддат икки ойга узайтирилиши мумкин. Ушбу муддатни узайтириш тўғрисидаги илтимоснома талабнома топширилган санадан эътиборан уч йил ўтмасдан топширилади ва муддатни узайтириш учун белгиланган миқдорда патент божи тўланади.

200. Талабнома берувчи илтимоснома келиб тушганлиги ва патент божи тўланганлиги тўғрисида хабардор қилинади.

Илтимоснома ва патент божи тўлови бошқа шахс томонидан амалга оширилганда бу ҳақида талабнома берувчи хабардор қилинади.

201. Илтимоснома уч йиллик муддатда келиб тушмаганда талабнома чақириб олинган деб ҳисобланади ва талабнома берувчига бу тўғрисида хабарнома юборилади.

QMMB: 10/26/3801/0292-son
30.03.2026-y.

202. Моҳияти бўйича экспертизани ўтказиш учун патент божи белгиланган миқдордан кам тўланганда патент божини формуланинг мустақил ва боғлиқ бандлари сонига уч ой ичида мувофиқлаштириш зарурлиги хақида хабарнома юборилади. Бунда талабнома берувчи экспертиза ўтказилиши керак бўлган ихтироларга тегишли формула бандларини кўрсатади ёки экспертиза ўтказилмайдиган бандлар чиқариб ташланган формулани тақдим этади ёхуд қўшимча патент божини тўлайди.

Илтимоснома талабнома берувчидан бошқа шахс томонидан топширилиб патент божи белгиланганидан кам миқдорда тўланганда илтимоснома қаноатлантирилмайди ва бу ҳақида талабнома берувчига хабар қилинади.

Бир нечта шахсдан илтимоснома тушганда ваколатли орган томонидан кейинроқ келиб тушган илтимоснома эгаси олдинроқ келиб тушган илтимосномалар хақида хабардор қилинади.

203. Талабнома ихтиролар гуруҳига оид бўлганда моҳияти бўйича экспертиза мазкур Қоидаларнинг 202-банди биринчи хатбошиси бўйича талабнома берувчи томонидан тегишли формуланинг танланган бандлари ёки бандлар танланмаганда формулада биринчи бўлиб кўрсатилган бандлар юзасидан ўтказилади.

204. Илтимоснома билан мурожаат қилган талабнома берувчи бўлмаган бошқа шахс талабномани кўриб чиқишда қатнашмайди. Талабнома бўйича ёзишма талабнома берувчи билан олиб борилади.

Илтимоснома билан мурожаат қилган шахсга талабномани кўриб чиқиш натижалари буйича қабул қилинган қарор юборилади.

205. Талабнома кўриб чиқиш учун қабул қилинганда моҳияти бўйича экспертиза талабнома топширилган санадан ўн саккиз ой ўтгандан сўнг олти ой давомида ўтказилади.

206. Моҳияти бўйича экспертиза доирасида қуйидагилар амалга оширилади:

ихтиро устуворлигини белгилаш, агар у Қонуннинг 18-моддаси иккинчи – тўртинчи қисмларига кўра сўралса;

ихтиро формуласини мазкур Қоидаларнинг 95 – 121-бандларида келтирилган талабларга мувофиқлигини текшириш;

қўшимча материалларни мазкур Қоидаларнинг 282 – 289-бандларига мувофиқ текшириш;

талабноманинг дастлабки материалларида ёки талабномани кўриб чиқишда эътиборга олинган қўшимча материалларда келтирилган формулада таърифланган ихтиронинг патентга лаёқатлилик шартларига мувофиқлигини текшириш.

207. Талабноманинг устуворлиги талабнома ваколатли органга топширилган сана бўйича белгиланади.

Талабномада ихтиронинг устуворлиги Қонуннинг 18-моддаси иккинчи – тўртинчи қисмларига кўра сўралмаганда устуворлик таркибида ариза, тавсиф, формула ва чизма (агар улар ихтиро моҳиятини тушуниш учун зарур бўлса) бўлган талабнома ваколатли органга топширилган сана бўйича белгиланади.

208. Талабнома берувчи томонидан конвенция устуворлиги сўралаётганда қуйидагилар текширилади:

Саноат мулкини муҳофаза қилиш бўйича Париж конвенциясига аъзо давлатда топширилган биринчи талабноманинг нусхаси мавжудлиги, агар кўрсатилган нусха талабнома ваколатли органга топширилган санадан кейин топширилган бўлса, биринчи талабноманинг нусхаси тақдим этилиши керак бўлган уч ойлик муддатга риоя қилинганлиги (биринчи талабномалар бир нечта бўлганда кўрсатилган шарт ҳар бир талабноманинг нусхаси учун бажарилади);

конвенция устуворлиги сўралаётган талабнома биринчи талабнома топширилган санадан эътиборан ўн икки ойлик муддатда топширилишига риоя қилинганлиги, агар талабнома кўрсатилган муддатдан кечиктириб топширилган бўлса, у тугаган санадан бошлаб икки ойлик муддатга риоя қилинганлиги;

конвенция устуворлигини белгилаш тўғрисидаги ариза талабнома ваколатли органга келиб тушган санадан эътиборан уч ойдан кечиктирмай тақдим этилганлиги;

талабнома берилган ихтиро биринчи талабномада очиб берилганлиги.

209. Талабнома берувчи томонидан ихтиро устуворлигини ўзининг олдин топширган талабномасига нисбатан берилган қўшимча материаллар бўйича устуворликни белгилаш сўралганда қуйидаги талабларга риоя қилинганлиги текширилади:

ваколатли органга талабномада берилган ихтиро моҳиятини ўзгартириши мумкин бўлган қўшимча материаллар келиб тушганлиги сабабли эътиборга олиниши мумкин эмаслиги ҳақидаги хабарнома юборилган санадан эътиборан уч ой ичида келиб тушганлиги;

олдин топширилган талабноманинг мазмунини ҳисобга олган ҳолда келиб тушган санаси бўйича устуворлик сўралаётганда қўшимча материалларда ихтиро моҳияти очиб берилганлиги.

210. Ихтиро устуворлигини олдин топширилган талабнома топширилган санадан белгилаш сўралганда қуйидаги талабларга риоя қилинганлиги текширилади:

QMMB: 10/26/3801/0292-son
30.03.2026-y.

бундай устуворлик сўралаётган талабнома худди ўша аввалги талабномани топширган талабнома берувчи томонидан топширилганлиги;

бундай устуворлик сўралаётган талабнома ваколатли органга олдинги талабнома топширилган санадан 12 ой мобайнида келиб тушганлиги;

ихтиро моҳияти олдин топширилган талабномада очиб берилганлиги;

211. Олдин топширилган бир нечта талабномалар бўйича устуворлик сўралганда мазкур Қоидаларнинг 210-банди талабларига риоя қилинганлиги уларнинг ҳар бирига нисбатан текширилади.

212. Топширилаётган талабномага олдин топширилган талабноманинг устуворлиги белгиланганда олдин топширилган талабнома чақириб олинади ва бу ҳақида талабнома берувчига хабар берилади.

213. Ихтиро устуворлигини ажратилган талабнома бўйича белгилаш сўралганда қуйидаги талабларга риоя қилинганлиги текширилади:

олдин топширилган талабнома бўйича ундан илгарироқ устуворлик сўралмаганлиги.

ажратилган талабнома ваколатли органга ихтирога ёки фойдали моделга биринчи талабнома устидан шикоят бериш имконияти қолмаган патент беришни рад этиш тўғрисидаги қарор қабул қилингунга қадар ёхуд биринчи талабнома бўйича патент бериш тўғрисидаги қарор қабул қилинганда ихтиро ёки фойдали моделни Ўзбекистон Республикасининг тегишли давлат реестрида рўйхатдан ўтказиш санасигача келиб тушганлиги;

ажратилган талабномадаги ихтиро моҳияти олдинги талабномада, агар талабнома Саноат мулкини муҳофаза қилиш бўйича Париж конвенциясига мувофиқ топширилган талабномадан ажратиб олинган ва устуворлик унинг устуворлик санаси бўйича сўралаётган бўлса, биринчи талабномада очиб берилганлиги.

214. Мазкур Қоидаларнинг 208 – 213-бандларига мувофиқ ихтиро устуворлигини белгилаш шартларига риоя қилинганлигини текширишда устуворлик сўралаётган талабнома ёки устуворлик сўраш учун асос бўлган қўшимча материаллар берилган талабнома чақириб олинмаганлигига эътибор қаратилади.

215. Ихтиронинг моҳиятини очишда олдин топширилган талабнома ёки унга келиб тушган қўшимча материаллар асосида устуворлик сўралганда қуйидагилар текширилади:

ушбу материалларда (олдин топширилган талабноманинг тавсифи, формуласи, қўшимча материалларнинг матнли қисми) талабнома берилган ихтиронинг формуласига киритилган барча белгилар кўрсатилганлиги;

216. Конвенция устуворлиги сўралганда мазкур Қоидаларнинг 215-бандидаги шартлар бажарилганлигини текширишда Париж конвенциясига аъзо давлатда берилган биринчи талабноманинг таржимаси тақдим этилади.

217. Мазкур Қоидаларнинг 208 – 213-бандларида кўрсатилган талаблар бажарилганда талабноманинг устуворлиги белгиланади.

устуворлик санаси сўралаётган материалларда ихтиро моҳияти уни амалга ошириш учун етарли даражада очиб берилганлиги.

218. Мазкур Қоидаларнинг 208 – 213-бандларида кўрсатилган талабларнинг бирортаси бажарилмаганда талабнома устуворлиги Қонуннинг 18-моддаси биринчи қисмига мувофиқ белгиланади.

219. Устуворлик белгилангандан сўнг ихтиронинг ўзгартирилган фомуласи тақдим этилганда сўралаётган устуворликни белгилашга асослар мавжудлигини аниқлаш учун такроран текшириш ўтказилади.

220. Текшириш ихтиро формуласининг охирги вариантига нисбатан ўтказилади. Бунда ихтиро бирлиги талабига риоя этилганлиги аниқланади.

221. Ихтиро бирлиги талаби бузилганлиги аниқланганда талабнома берувчига сўровномада битта ихтирога ёки ягона ихтирочилик фикрини ташкил этган ихтиролар гуруҳига тегишли аниқликлар киритилган тавсиф ва формулани тақдим этиш таклиф қилинади.

Тузатилган формула таркибига янги бандлар киритилганда қўшимча патент божи тўланади.

222. Ихтиро формуласини текширишда талабномадаги ихтиронинг муҳим белгилари мажмуи талабномада кўрсатилган техник натижага эришиш учун етарли эканлиги аниқланади.

Бирон-бир муҳим белги формулага киритилмаганда, лекин тавсифда ёки формуланинг боғлиқ бандида келтирилганда ва ушбу муҳим белгисиз техник натижага эришиб бўлмаслиги аниқланганда талабнома берувчига бундай белгини формуланинг тегишли мустақил бандига киритиш таклиф этилади. Бунда техник натижага эришиш учун формулага ушбу белгини киритиш зарурлигини тасдиқлайдиган далиллар келтирилади. Бундай далиллар тавсифда очиб берилган белги ва техник натижа орасидаги сабаб-оқибат боғланишига ёки экспертиза томонидан ўтказилган илмий-назарий таҳлилга асосланиши мумкин.

223. Ихтиро формуласини текшириш ундаги белгиларни мазкур Қоидаларнинг 114 – 121-бандларига мувофиқ идентификация қилиш мумкинлигини аниқлашдан иборат.

Белгини идентификация қилиш мумкин бўлиши учун унинг таърифини ихтиро тавсифига асосан тузатиш зарур бўлганда талабнома берувчига бундай

QMMB: 10/26/3801/0292-son
30.03.2026-y.

тузатишни амалга ошириш таклиф этилади.

224. Белгини идентификация қилиш мумкин бўлганда, лекин уни таърифлаш учун маълум бир техника соҳасида қабул қилинган атамаларга мос бўлмаган ёки эскирган атамалар қўлланилганда формулага тегишли тузатишларни киритиш тавсия қилинади.

225. Формуладаги белгини текшириш жараёнида техник натижага эришиш учун етарли бўлган белги ёки электрон ҳисоблаш машиналари учун дастурни ҳамда бундай дастурда ишлатиладиган алгоритмларни жалб қилган ҳолда таърифланадиган ихтиро формуласининг белгилари мазкур Қоидаларнинг 52 – 59-бандларида келтирилган талабларга мувофиқ бўлиши керак.

Формулада техник натижага эришилмайдиган ёки ихтирони акс эттирадиган воситага оид бўлмаган белги мавжуд бўлганда бундай белгини формуладан олиб ташлаш учун тегишли тузатишни амалга ошириш таклиф этилади. Бунда ихтирочилик даражасини текширишда бундай белги эътиборга олинмаслиги ва шу билан бирга патент берилган ҳолатда уни формулада сақлаб қолиш ҳуқуқий муҳофаза ҳажмини қисқаришига олиб келиши мумкинлиги ҳақида хабар қилинади.

226. Товар белгилари, географик кўрсаткичлар ва бошқа хусусий аломатларни акс эттирувчи воситалар формулага киритилмайди.

227. Формулада умумий тушунча билан ифодаланган белги мавжуд бўлганда мазкур Қоидаларнинг 103-бандига мувофиқ ундан фойдаланиш тўғрилиги аниқланади.

228. Талабномада кўрсатилган техник натижага эришиш фақатгина экспериментал маълумотлар билан тасдиқланганида тавсифда керакли маълумотларни ўз ичига олган мисоллар келтирилади. Ушбу мисоллар асосидаги хулосаларга таянган ихтиро белгисини тавсифлашда аниқ ҳолатлар ва умумлаштиришнинг ўринлилиги текширилади.

229. Экспертиза томонидан умумий тушунчалар билан ифодаланган белгидаги бирор аниқ ҳолатда талабнома берувчи томонидан кўрсатилган техник натижага эришилмаслиги аниқланганда тегишли далиллар келтирилиб, уларни рад этиш ёки тузатиш киритиш таклиф этилади.

230. Формуланинг мазкур Қоидаларнинг 114-банди талабига мувофиқлигини текширишда ихтирони таърифлайдиган тушунча унинг тавсифида келтирилганлиги ёки чизмада ифодаланганлиги аниқланади.

231. Талабномада бир звеноли ёки битта мустақил бандли кўп звеноли формула келтирилганда бундай формулада (мазкур Қоидаларнинг 17 – 19-бандлари талабларига мувофиқ) битта ихтиро таърифланганлиги текширилади.

QMMB: 10/26/3801/0292-son
30.03.2026-y.

232. Мазкур Қоидаларнинг 17 – 19-бандларининг талаблари бузилганлиги аниқланганда юбориладиган сўровномада бу ҳақида маълум қилинади ва тегишли патент божини тўлаб, формулани тузатиш таклиф қилинади. Бунда тузатилган формулада ихтиро бирлиги талаби бажарилиши ва тузатилган формулага аввал мустақил банд сифатида кўрсатилмаган янги мустақил бандлар киритилганда тегишли патент божини тўлаш ёки талабнома берувчи формулани тузатишни рад этганда кейинги кўриб чиқишда эътиборга олинадиган ихтирони кўрсатиш зарурлиги келтирилади.

Белгини таърифлашда талабнома берувчи муқобил тушунчадан ноўрин фойдаланганда юзага келган хато кўрсатилади.

233. Бир нечта мустақил бандли кўп звеноли формула таклиф қилинганда уларнинг ҳар бири мазкур Қоидаларнинг 103-банди талабларига мувофиқлиги текширилади.

234. Формулани текширишда қўшимча равишда қуйидагилар эътиборга олинади:

кўп звеноли формуланинг боғлиқ бандларида ихтиронинг аниқ ҳолларда амалга оширилиши;

формулада мустақил банднинг белгиларини чиқариб ташлашни ёки алмаштиришни назарда тутадиган боғлиқ банднинг мавжудлиги.

235. Формуланинг мустақил бандларида таърифланган ихтиролар ўзаро ягона ихтирочилик фикрини ташкил қилган ҳолда боғлиқ бўлганда ягона ихтирочилик фикри шарти бажарилган деб эътироф этилади.

236. Мустақил бандларда таърифланган ихтироларни вариантларга тегишлилигини текширишда ихтироларнинг кўрсатилган вазифаси ва техник натижалар мослиги текширилади.

237. Формулани текширишда унинг тузилиши ва баён қилиниши белгиланган талабларга мувофиқ эмаслиги аниқланганда формулани тузатиш таклиф қилинади.

238. Ўзгартирилган формулага нисбатан мазкур Қоидаларнинг 222 – 236-бандларига мувофиқ текшириш ўтказилади.

Ихтиронинг патентга лаёқатлилигини текшириш учун талабнома берувчи томонидан ўзгартирилган формула қабул қилинади.

239. Бир звеноли ёки битта мустақил бандли кўп звеноли формулада биттадан ортиқ ихтиро борлиги аниқланганда талабнома берувчига кўриб чиқилиши керак бўлган ихтирони кўрсатиш таклиф этилади ва экспертиза талабнома берувчи томонидан кўрсатилган ихтиронинг патентга лаёқатлилигини текширишни давом эттиради.

QMMB: 10/26/3801/0292-son
30.03.2026-y.

240. Формулада муқобил тушунча билан ифодаланган белги мавжуд бўлганда патентга лаёқатлиликни текшириш бундай тушунчани ичига олган белгиларнинг ҳар бир мажмуига нисбатан ўтказилади.

Ихтиронинг патентга лаёқатли эмаслиги тахмин қилинганда кейинги кўриб чиқиш мазкур Қоидаларнинг 262 – 266-бандларига мувофиқ амалга оширилади.

241. Муаллиф ёки талабнома берувчи ўз ихтиросига тааллуқли ахборотни ошкор этган санадан эътиборан олти ойлик муддатда ваколатли органга ушбу ихтирога талабнома топширганда ошкор этилган ахборот техника тараққиёти даражасига киритилмайди.

242. Техник ечимнинг таърифланиши бўйича уни тушуниш мумкин бўлмаганда талабнома берувчига аниқланган камчиликларни кўрсатиб, ҳуқуқий асосга эга далиллар келтирилган, етишмаган ёки тузатилган ҳужжатларни тақдим этиш таклиф этилган сўровнома юборилади.

243. Ихтиродан фойдаланиш мумкинлигини аниқлашда талабнома материалларида ихтиронинг вазифаси кўрсатилганлиги текширилади.

244. Формула бандларидаги таърифларни амалга ошириш учун талабноманинг унинг устуворлик санасида топширилган материалларида воситалар ва усуллар баён қилинганлиги текширилади. Талабнома материалларида бундай воситалар ва усуллар бўлмаганда улар ҳақидаги маълумотлар ихтиро устуворлиги санасигача оммавий тарзда ошкор бўлган ахборот манбаларидан маълум бўлиши керак.

245. Формуладаги белгида келтирилган тушунчалар ихтирони амалга ошириш ва кўрсатилган вазифани бажариш учун фақат экспериментал маълумотлар орқали тасдиқланганда ихтиро тавсифида келтирилган мисоллар етарлилиги (мазкур Қоидаларнинг 74-банди) текширилади.

246. Ихтиронинг устуворлик санасига мазкур Қоидаларнинг 243 – 245-бандлари талабларга риоя қилинганда формуланинг мустақил бандида таърифланган ихтиро саноатда қўллаш мумкин деб эътироф этилади.

Кўрсатилган талабларнинг бирортаси бажарилмаганда талабнома берувчига экспертизанинг тегишли далилларига нисбатан ўз фикрини билдириш ва ихтиро формуласини тузатиш тўғрисидаги сўровнома юборилади.

247. Саноатда қўллаш шартига мувофиқ эмаслиги аниқланган ихтирога нисбатан янгилик шарти ва ихтирочилик даражасига мувофиқлиги текширилмайди.

248. Қонуннинг 6-моддаси иккинчи қисмига асосан агар ихтиро техника тараққиёти даражасидан маълум бўлмаса, у янги деб ҳисобланади.

Бунда ихтиронинг янгилигини текшириш ихтиро формуласининг мустақил бандидаги барча белгилар мажмуига нисбатан ўтказилади.

QMMB: 10/26/3801/0292-son
30.03.2026-y.

249. Ахборот излаш формула, тавсиф ва чизма асосида ўтказилади.

250. Моҳияти бўйича экспертиза ўтказиш ҳақидаги илтимоснома келиб тушган санагача талабнома берувчи ихтиро бирлиги талаби бузилганлиги ҳақидаги сўровномага белгиланган муддатда жавоб бермаганда ахборотни излаш формулада биринчи кўрсатилган ихтиро (ягона ихтирочилик фикрини ташкил қилган ихтиролар гуруҳи) бўйича ўтказилади.

251. Техника тараққиёти даражасини аниқлашда оммавий тарзда ошкор этилган ахборот манбаидаги маълумотлардан фойдаланилади.

Қуйидагилар ахборот манбаини техника тараққиёти даражасига киритишни белгилайдиган сана ҳисобланади:

муҳофаза ҳужжатларига нашр қилинган тавсифлар учун – уларда кўрсатилган нашр этиш санаси;

миллий ва бошқа босма нашрлар учун – уларда кўрсатилган нашр этишга имзо қўйилган сана;

нашр этишга имзо қўйилган сана кўрсатилмаган миллий босма нашрлар ва бошқа босма нашрлар учун – улар эълон қилинган кун, нашр қилиниши йил ва ой билан белгиланганда – ойнинг охирги куни, нашр қилиниши йил билан белгиланганда – 31 декабрь;

сақлаш учун топширилган мақола, шарҳлар, монография ва бошқа материаллар учун – уларни депозитарийга топшириш санаси;

илмий-тадқиқот ишлари ҳақидаги ҳисоботлар, тажриба-конструкторлик ишларига тушунтириш хатлар ва ташкилотларда бўлган конструкторлик, технологик ва лойиҳа ҳужжатлардаги ахборотлар учун – улар тегишли ташкилотларга келиб тушган санаси;

техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасидаги норматив ҳужжатлар учун – улар ваколатли ташкилотда ҳисобга олинган сана;

қўлёзма ҳуқуқида чоп этилган диссертация материаллари ва диссертация авторефератлари учун – уларнинг тарқатилган санаси;

танловга қабул қилинган ишлар учун – улар танишиш учун очиқ намойиш қилинган ва танлов ўтказишга оид ҳужжатлар билан тасдиқланган сана;

интернет тармоғи маълумотлари, визуал ахборот манбалари (плакат, модель, электрон ахборот ташувчи восита, маҳсулот ва шу кабилар) учун – уларни кўриш мумкин бўлган сана;

кўргазмага қўйилган экспонатлар учун – уларни кўрсатиш бошланган ва ҳужжат билан тасдиқланган сана;

оғзаки маърузалар, сўзга чиқишлар учун – маърузалар, сўзга чиқишлар санаси;

радио, телевидение, кино орқали маълумотлар учун – оммага ошкор этилган сана;

252. Ихтиронинг янгилигини аниқлаш чоғида бирмунча олдин устуворликка эга бўлган ҳолда Ўзбекистон Республикасида топширилган ва чақириб олинмаган патент бериш ҳақидаги талабномалар ҳам ҳисобга олинади.

техника воситасидан фойдаланиш натижасида маълум бўлган маълумотлар учун – оммага ошкор этилган сана.

253. Текширишда аниқланган талабнома чақириб олинмаганда ёки чақириб олиш муддати ўтмаганда талабнома берувчига шундай талабнома мавжудлиги ҳақида (талабнома берувчини кўрсатмасдан ва мазмунини очмасдан) ва моҳияти бўйича экспертиза аввалроқ устуворликка эга бўлган талабнома бўйича бир қарорга келингунга қадар тўхтатиб турилиши ҳақида маълум қилинади.

Талабнома берувчи моҳияти бўйича экспертиза тўхтатиб турилишидан норози бўлганда ихтиро янгилик шартига мувофиқ эмас деб топилади.

254. Ўзбекистон Республикасида муҳофазага олинган барча ихтиролар ва фойдали моделлар устуворлик санасидан эътиборан техника тараққиёти даражасига киритилади.

255. Ахборотни излаш жараёнида худди шундай вазифани бажарадиган ихтиро белгиларига ўхшаш бўлган белгилар билан таърифланадиган восита топилганда ахборотни излаш тўхтатилмайди ва охиригача тўлиқ ҳажмда олиб борилади.

Ихтиро бошқа ихтиро ёки фойдали модель формулаларидаги мустақил бандларнинг мазмунларига мос тушганда ўхшаш деб эътироф этилади.

256. Техника тараққиёти даражасидан ихтиро формуласидаги барча белгилари билан айнан бир хил белгилардан иборат маҳсулот ёки усул аниқланганда ихтиро янгилик шартига мувофиқ эмас деб эътироф этилади.

257. Боғлиқ бандларга эга бўлган формуланинг мустақил бандида таърифланган ихтиро янгилик шартига мувофиқ бўлганда боғлиқ бандларга нисбатан техника тараққиёти даражаси таҳлили ўтказилмайди.

258. Боғлиқ бандларга эга бўлган формуланинг мустақил бандида таърифланган ихтиронинг янгилик шартига мувофиқ эмаслиги аниқланганда талабнома мазкур Қоидаларнинг 269-банди ва 272-бандининг иккинчи хатбошисига мувофиқ кўриб чиқилади.

259. Ихтиронинг янгилик шартига мувофиқ эмаслиги аниқланганда талабнома берувчига экспертиза далиллари баён қилинган ва бу далилларга нисбатан ўз фикрини ҳамда зарур ҳолларда талабноманинг дастлабки

QMMB: 10/26/3801/0292-son
30.03.2026-y.

материаллари асосида ихтиронинг тузатилган формуласини тақдим этиш таклиф қилинган сўровнома юборилади.

260. Янгилик шартига мувофиқ эмаслиги аниқланган ихтирога нисбатан ихтирочилик даражасига мувофиқлиги бўйича текшириш ўтказилмайди.

261. Қонуннинг 6-моддаси учинчи қисмига асосан агар ихтиро техника тараққиёти даражаси ҳақидаги маълумотлардан яққол аён бўлмаса, у ихтиролик даражасига эга бўлади.

Ихтирочилик даражасини текшириш формуланинг мустақил бандида келтирилган ихтирога нисбатан ўтказилади ва қуйидагиларни ўз ичига олади:

мазкур Қоидаларнинг 48–51-бандларига мувофиқ энг яқин аналогни аниқлаш;

талабнома берилган ихтиро энг яқин аналогдан фарқланадиган белгиларни аниқлаш;

техника тараққиёти даражасидан ихтиронинг фарқланувчи белгилари билан мос бўлган техник ечимларни аниқлаш.

262. Ихтиронинг фарқланувчи белгилари мавжуд техник ечимлар билан мос бўлмаганда ёки бундай ечимлар талабномада кўрсатилган техник натижага эришишга таъсир этиши тасдиқланмаганда ихтирочилик даражасига мувофиқ деб эътироф этилади.

263. Қуйидагилар, хусусан, ихтирочилик даражасига мувофиқ деб эътироф этилади:

белгиланган структурали янги кимёвий бирикмани (синф, гуруҳ) олиш усули;

маълум кимёвий бирикмани (синф, гуруҳ) олиш усули, у ушбу синф ёки гуруҳ бирикмаси учун янги реакцияга ёки ушбу синф ёки гуруҳ бирикмаси учун маълум бўлиб, лекин реакцияни ўтказиш шартлари маълум бўлмаган реакцияга асосланганда техника тараққиёти даражаси имкониятидан келиб чиқмайдиган синергетик самарани таъминлайдиган камида иккита ингредиентдан ташкил топган композиция (яъни, иккита ингредиентнинг хусусиятларини намоён қиладиган, лекин шу хусусиятлардан камида биттасининг миқдорий кўрсаткичлари алоҳида ингредиент хусусиятларининг кўрсаткичларидан юқори бўлганда);

эришиш имконияти техника тараққиёти даражасидан келиб чиқмайдиган синергетик самарани таъминлайдиган камида иккита маълум ингредиентдан ташкил топган композиция (яъни, иккита ингредиентнинг хусусиятларини намоён қиладиган, лекин шу хусусиятлардан камида биттасининг миқдорий кўрсаткичлари алоҳида ингредиент хусусиятларининг кўрсаткичларидан юқори бўлганда);

QMMB: 10/26/3801/0292-son
30.03.2026-y.

маълум бирикмалар гуруҳининг умумий структурали формуласига мос, лекин махсус олинган ва текширилган ҳамда ушбу гуруҳ учун сифат ва миқдорий жиҳатдан янги маълум бўлмаган кимёвий бирикмалар.

264. Боғлиқ бандларга эга бўлган кўп звеноли формула билан таърифланган ихтиро мустақил бандга нисбатан ихтирочилик даражаси шартига мувофиқ деб топилганда формуланинг боғлиқ бандларига нисбатан кейинги текшириш ўтказилмайди.

265. Ихтиро, жумладан, қуйидагиларга асосланганда ихтирочилик даражаси шартига мувофиқ деб эътироф этилмайди:

техник натижага эришиш учун маълум восита унга маълум қоидалар асосида бириктириладиган бирон-бир маълум қисм билан тўлдирилганда ва бунда ушбу натижага нисбатан худди шундай тўлдиришлар таъсири аниқланганда;

техник натижага эришиш учун маълум воситанинг бирон-бир қисмини бошқа маълум қисм билан алмаштирилганда ва бунда ушбу натижага нисбатан худди шундай алмаштириш таъсири аниқланганда;

воситанинг (элемент, ҳаракат) бирон-бир қисмини ушбу қисм мавжудлиги ҳисобига ҳосил бўладиган функцияси билан бир вақтда чиқариб ташлаш ва шу билан бирга бундай чиқариб ташлаш учун хос бўлган натижага эришилганда (конструкцияни соддалаштириш, масса, ўлчамлар, материал сарфини камайтириш, ишончлиликни ошириш, жараён вақтини қисқартириш кабилар);

воситада худди шундай элементлар мавжудлиги ҳисобига ҳосил бўладиган техник натижани кучайтириш учун бир хил типдаги элементлар, ҳаракатлар сони ўзгартирилганда;

техник натижага эришиш учун хусусиятлари аниқ бўлган материаллардан мавжуд воситани ёки унинг қисмини ҳосил қилишда фойдаланилганда;

тури ва улар орасидаги муносабатлар маълум қоидалар, тавсияномалар асосида амалга оширилган маълум қисмлардан ташкил топган воситани яратишга бу ҳолда техник натижа фақат ушбу восита қисмларининг маълум хусусиятлари ва улар орасидаги муносабатлари натижасида ҳосил бўлганда;

хусусиятлари маълум бўлган мавжуд маҳсулот ёки усул янги вазифада қўлланилганда уларнинг хусусиятлари, структураси, бажарилиши натижасида олинадиган ечимлар аввалдан маълум бўлганда ва эришиладиган ечимлар натижаси аниқ бўлганда;

миқдорий белгиларнинг ўзгаришига бундай белгиларни ўзаро боғлиқликда тақдим этиш ёки унинг шаклини ўзгартиришга асосланганда уларнинг ҳар бирининг техник натижага таъсир этиши маълум бўлиб, бу белгиларнинг янги қийматлари ёки уларнинг ўзаро боғланиши маълум боғланишлар, қонуниятлардан келиб чиққан ҳолда олиниши мумкин бўлганда.

266. Ихтиронинг фарқланувчи белгиси техник натижага таъсирининг маълумлиги ахборот манбаи билан тасдиқланиши мумкин. Бирон соҳадаги умумэътироф этилган билимларга асосланган далилларни ахборот манбаини кўрсатмасдан келтириш мумкин.

Техника тараққиёти даражасидан ихтиронинг фарқланувчи белгилари билан мос белгилари бўлган ечимлар аниқланганда, агар улар талабнома берувчи томонидан аниқланмаган бўлса ёки талабнома берувчи томонидан кўрсатилган техник натижага эришилмагани аниқланса, уларнинг техник натижага таъсири маълумлигини тасдиқлаш талаб қилинмайди.

267. Боғлиқ бандларга эга бўлган мустақил бандли ихтиро ихтирочилик даражаси шартига мувофиқ эмаслиги аниқланганда талабномани кейинги кўриб чиқиш мазкур Қоидаларнинг 274 – 276-бандига мувофиқ ўтказилади.

268. Боғлиқ бандларга эга бўлмаган формула билан таърифланган ихтиро ихтирочилик даражасига эга эмаслиги аниқланганда талабнома берувчига тегишли далиллар келтирилган сўровнома юборилади ва ушбу далилларга нисбатан ўз фикрини билдириш таклиф этилади.

269. Боғлиқ бандлар бўлган кўп звеноли формуланинг мустақил банди янгилик ёки ихтирочилик даражаси шартига жавоб бермаслиги сабабли патентга лаёқатли эмаслиги аниқланганда талабнома берувчига бу ҳақида маълум қилинади ва ихтиронинг тузатилган формуласини тақдим этиш таклиф этилади.

270. Боғлиқ бандларга эга бўлган мустақил бандга нисбатан ихтиронинг патентга лаёқатлилиги аниқланганда ушбу боғлиқ бандлардаги ихтиро белгиларининг таърифи ихтирони амалга оширишга ёки вазифасини бажаришга тўсқинлик қилмаслиги текширилади.

271. Боғлиқ бандларга эга бўлган кўп звеноли формула билан таърифланган ихтирони патентга лаёқатлилик шартларига нисбатан текшириш натижаси ижобий бўлган ҳолда, у патентга лаёқатли деб тан олинади.

272. Ихтиролар гуруҳига оид талабнома топширилганда патентга лаёқатлиликни текшириш гуруҳдаги ҳар бир ихтирога нисбатан ўтказилади. Гуруҳнинг патентга лаёқатлилиги ундаги барча ихтиролар патентга лаёқатли бўлганда тасдиқланади.

Ихтиролардан бири патентга лаёқатли эмаслиги аниқланганда талабнома берувчига бу ҳақида маълум қилинади ва келтирилган далиллар ҳақида ўз фикрини билдириш ҳамда зарур ҳолда патентга лаёқатли бўлмаган ихтиро бандини формуладан чиқариб ташлаш ёки бу бандларни тузатилган ҳолда тақдим этиш таклиф этилади.

273. Мазкур Қоидаларнинг 272-бандига мувофиқ талабнома берувчи томонидан ихтиронинг ўзгартирилган формуласи тақдим этилганда талабномани

кўриб чиқишни давом эттириш ушбу формулада таърифланган ихтирога нисбатан мазкур Қоидаларнинг 219 – 239-бандларига мувофиқ ўтказилади.

Талабнома берувчи экспертиза сўровномасидаги фикрларни рад этувчи далилларни ва ўзгартирилган формулани келтирмасдан аввалги формула билан патент беришни талаб қилганда патент беришни рад этиш тўғрисида қарор қабул қилинади.

274. Қўшимча материалларни тақдим этиш сўралган сўровнома бундай материалларсиз моҳияти бўйича экспертизани ўтказиш мумкин бўлмаганда юборилади.

275. Сўровнома юбориш учун қуйидагилар асос бўлиши мумкин:

ихтиро формуласини мазкур Қоидаларнинг 219 – 239-бандларига мувофиқ текшириш натижалари бўйича аниқлаш зарурати;

ихтиронинг патентга лаёқатлилигини мазкур Қоидаларнинг 240 – 273-бандларига мувофиқ текшириш билан боғлиқ саволларни ҳал қилиш зарурати;

бир хил устуворлик санасига эга бўлган айнан ўхшаш саноат мулки объектларига талабномаларни кўриб чиқиш билан боғлиқ саволларни ҳал қилиш зарурати.

276. Талабномани кўриб чиқишда юзага келадиган бошқа турдаги саволлар мазкур Қоидаларнинг 275-бандидаги асосларга қўшимча равишда юбориладиган сўровномага киритилади.

277. Сўровнома ёки хабарномада келтириладиган фикр ва мулоҳазалар илмий-техникавий ёки ҳуқуқий характердаги далиллар билан асосланади.

278. Талабнома берувчи патентга лаёқатлилиги ҳақида хулоса олинган ихтиро формуласига идентификация қилинмаган ёки талабноманинг дастлабки материалларида бўлмаган белгини ёхуд таърифи ахборот манбаига ҳавола қилиш билан алмаштирилган белгини киритишни ёки талабнома топширилгандан кейин талабнома берувчи томонидан таклиф этилган ва мазкур Қоидаларнинг 219–239-бандларига мувофиқ эътиборга олинмаган янги мустақил бандни киритишни талаб қилганда талабнома берувчига ушбу белгини (банд) ўз таркибига киритмаган формулани тақдим этиш таклиф қилинган сўровнома юборилади. Ушбу сўровномада белгиланган муддатда сўралаётган материаллар ёки уларни тақдим этиш муддатини узайтириш ҳақида илтимоснома тақдим этилмаганда талабнома чақириб олинган деб ҳисобланиши юзасидан ҳам хабар қилинади.

279. Сўровномада ахборот манбаи келтирилганда ушбу манбани топиш учун зарур бўлган барча библиографик маълумотлар, шунингдек талабномани кўриб чиқишда эътиборга олинган маълумотлар, ушбу манбадан топиш учун керак бўладиган бошқа маълумотлар кўрсатилади.

280. Сўровномани юбориш учун ихтиронинг патентга лаёқатлилигини текшириш натижалари бўйича формула, тавсиф ва чизмаларга тузатишлар киритиш орқали аниқлаштириш зарурияти асос бўлганда уларнинг тузатилган варақларини тақдим этиш таклиф қилинади. Бунда сўровномада талабнома материалларини тузатишга оид тўлиқ тушунтиришлар келтирилади.

281. Ўзгартирилган формула асосида патент бериш тўғрисидаги қарор қабул қилиш учун формулани ўзгартириш тавсифга ва чизмага тузатишлар киритишни тақозо этса (шу жумладан, экспертиза томонидан аввал кўрсатилган лекин тузатилмаган камчиликлар мавжуд бўлганда), материалларни тузатиш тўғрисидаги таклифни ўз ичига олган сўровнома юборилади.

282. Қўшимча материаллар билан бирга тузатилган формула бўлганда дастлабки формулада мустақил банд сифатида ажратиб кўрсатилмаган бир ёки бир неча мустақил бандларни киритиш билан тузатилганлиги ва патент божи тўланганлиги текширилади.

283. Қўшимча материаллар таркибида талабноманинг дастлабки материалларида бўлмаган ва формулага киритиш талаб этилган белгилар мавжуд бўлганда қўшимча материаллар ихтиро моҳиятини ўзгартиради деб эътироф этилади.

284. Қўшимча материалларда келтирилган ва формулага киритилиши сўралаётган белгилар талабнома ваколатли органга келиб тушган санада формулада ёки тавсифда очиб берилмаганда талабноманинг дастлабки материалларида бўлмаган деб эътироф этилади.

285. Талабноманинг дастлабки материалларида белгини бажаришнинг аниқ ҳолатлари очилмасдан умумий тушунча билан берилганда формулага киритилиши керак бўлган белги деб ҳисобланган бундай аниқ ҳолатларнинг қўшимча материалларда тақдим этилиши ихтиронинг моҳиятини ўзгартиради деб эътироф этилади.

286. Қуйидаги қўшимча материаллар ихтиро моҳиятини ўзгартирмайди:

ихтирони амалга ошириш шароитлари ҳақидаги янги маълумотлар;

қўшимча техник натижа олиш имкониятлари;

аниқликлар киритилган график материаллар;

формулага киритилмайдиган ва ундаги белгиларга тааллуқли бўлмаган бошқа материаллар.

ихтирони амалга оширишдаги мисоллар;

287. Қўшимча материаллар ихтиронинг моҳиятини ўзгартиради деб эътироф этилганда талабнома берувчига бундай фикр келиш учун қўшимча материаллардаги қайси маълумотлар асос бўлганлиги ҳақида маълум қилинади.

Талабномани кейинги кўриб чиқиш қўшимча материалларда берилган ихтиро формуласига нисбатан, лекин талабнома топширилган устуворлик санасидаги ихтиро тавсифида ва формуласида очиб берилган белгилар бўйича давом эттирилади.

288. Ихтиронинг вазифасини ифодалайдиган дастлабки умумий тушунча формулада бошқаси билан алмаштирилганда улар бир хил маънода ва бир-бирига боғлиқ бўлганда, яъни улар тўлиқ ёки қисман мос келганда ихтирога тегишли деб эътироф этилади.

289. Қуйидаги ҳолларда ихтиро формуласини ўзгартириш талабномадаги ихтирога тааллуқли деб ҳисобланади:

ихтиро объектининг тури ўзгартирилганда, бунда янгидан кўрсатилган объект тури дастлабки формулада келтирилган белгиларга нисбатан кўпроқ мос келганда;

биринчи талабномадаги ихтиро объекти “янги вазифада қўллаш” кўрсатилган янги вазифадаги объект билан алмаштирилганда, агар объект тўғрисидаги маълумотлар устуворлик санасигача оммага маълум бўлмаган ҳолларда объектни қўллашга доир талабнома берилса;

дастлабки кўрсатилган ихтиро объектини “янги вазифада қўллаш” ихтиро объектига алмаштирилганда, агар устуворлик санасигача оммага маълум бўлган маълумотлардан талабнома берилган объектдан фақат вазифаси билан фарқланувчи восита маълумлиги аниқланса.

290. Қонуннинг 19-моддасига мувофиқ талабнома берувчи патент бериш ҳақидаги қарор қабул қилингунга қадар ихтиро ҳақидаги талабномани фойдали модель ҳақидаги талабнома қилиб ўзгартиришга ҳақлидир.

Бундай ўзгартиришлар чоғида биринчи талабноманинг устуворлиги сақланиб қолади.

291. Ихтиронинг патентга лаёқатлилик шартларига мувофиқлиги аниқланганда талабнома берувчига таклиф қилинган формула билан ихтирога патент берилиши мумкинлиги ҳақида сўровнома юборилади ва экспертиза хулосаларига нисбатан ўз фикрини маълум қилиш таклиф этилади.

Сўровнома юборилган санадан бошлаб уч ой ичида талабнома берувчи ўз фикрини маълум қилмаганда ёки экспертизанинг фикрига розилиги келиб тушганда сўровномада баён қилинган формула билан патент бериш тўғрисидаги қарор қабул қилинади ва нашр этишда биринчи берилган ихтиро тавсифидан фойдаланилади.

292. Талабнома материаллари белгиланган талабларга зид эмаслиги ҳақидаги хулосага келинганда ихтирога патент бериш тўғрисидаги қарор қабул қилинади ва талабнома берувчига юборилади.

293. Экспертиза томонидан талабнома материалларининг Қонун ва мазкур Қоидалар қоидаларига зид эканлигининг аниқланиши ихтирога патент беришни рад этиш тўғрисидаги қарор қабул қилишга асос бўлади.

294. Битта мустақил банд ва боғлиқ бандларга эга бўлган кўп звеноли формулада таърифланган ихтиронинг мустақил банди патентга лаёқатлиликнинг биронта шартига мувофиқ эмаслиги аниқланганда патент беришни рад этиш тўғрисида қарор қабул қилинади.

295. Ихтиролар гуруҳидан иборат бўлган кўп звеноли формуланинг мустақил бандларида таърифланган ихтироларнинг бири ёки ҳар хил муқобил белгиларни ўз ичига олган белгилар мажмуида патентга лаёқатлиликнинг шартларидан бирига мувофиқ эмаслиги аниқланиб, талабнома берувчи формулани тузатишдан ёки ушбу ихтиро белгисини формуладан чиқариб ташлашдан бош тортганда кўрсатилган белгилар мажмуига патент беришни рад этиш тўғрисида қарор қабул қилинади ва унда патентга лаёқатли деб аниқланган бошқа ихтироларнинг патентга лаёқатли эканлиги эътироф этилади.

296. Ихтирога патент бериш ёхуд патент беришни рад этиш тўғрисидаги қарорда тегишли қарорни қабул қилиш асослари келтирилади.

297. Талабнома берувчининг хоҳишига кўра давлат экспертизаси Марказ томонидан тезкор тартибда, яъни талабнома кўриб чиқишга қабул қилинганлиги тўғрисида қарор чиқарилган кундан эътиборан уч ой ичида ўтказилиши мумкин.

Давлат экспертизасини тезкор тартибда ўтказиш талабнома берувчининг бу ҳақидаги илтимосномасига асосан амалга оширилади. Бунда экспертизани тезкор тартибда ўтказиш ҳақидаги илтимоснома ваколатли органга талабнома билан бир пайтда ёки у топширилган санадан эътиборан уч ой ичида тақдим қилиниши керак.

298. Давлат экспертизасини тезкор тартибда ўтказишда ахборотни излаш талабнома берувчи ва Марказ ўртасида тузиладиган шартнома асосида ўтказилади.

299. Давлат экспертизасини тезкор тартибда ўтказишда ахборотни излаш расмий экспертиза якунланган кундан бошлаб бир ой ичида амалга оширилади.

Давлат экспертизасини тезкор тартибда ўтказиш ҳақидаги илтимоснома расмий экспертиза якунлангандан сўнг келиб тушганда ахборотни излаш илтимоснома келиб тушган санадан эътиборан бир ой ичида ўтказилади.

300. Ахборотни излаш натижалари бўйича ҳисобот тузилади ва ҳисобот қуйидаги маълумотларни ўз ичига олади:

талабнома рақами;

талабноманинг топширилган санаси;

ихтиронинг номи;

ахборот излаш соҳаларини таснифловчи ХПТ рубрикасининг индекси, ХПТ рубрикасига боғлиқ ҳолда излаш кўламига киритилиши зарур бўлган мамлакатлар патент ҳужжатларининг рўйхати, тегишли мавзу бўйича ахборот манбалари;

ахборот излаш мавзуси бўйича ҳужжатлар ва уларнинг аниқ қисмларига библиографик маълумотлар кўринишидаги ҳаволалар (талабнома бўйича илгарироқ устуворлик сўралганда талабнома топшириш санасидан олдин лекин талабнома устуворлиги санасидан кейин нашр қилинган маълумотлар алоҳида белгилаб қўйилади);

илгарироқ устуворликка эга бўлган, бироқ эълон қилинмаган талабномалар;

ахборот излашнинг тугатилган санаси.

Ахборот излашнинг ҳажмига ҳамма фойдалана оладиган ҳар қандай ахборот манбалари киритилиши мумкин.

301. Ахборот излаш якунлангандан сўнг унинг натижалари асосида мазкур Қоидаларнинг 198 – 204 ҳамда 206 – 296-бандларига мувофиқ ихтиронинг патентга лаёқатлилиги текширилади.

302. Белгиланган патент божи тўланганда ваколатли орган ихтирони мазкур Қоидаларнинг 4-иловасига мувофиқ шаклдаги Ихтиролар давлат реестрида автоматик тарзда рўйхатдан ўтказади. Бунда ихтирога берилган патент ва унинг иловаси электрон шаклда ахборот тизими орқали талабнома берувчига юборилади.

Ихтиро рўйхатга олинганлиги тўғрисидаги маълумотлар ваколатли орган томонидан расмий ахборотномада эълон қилинади.

Талабнома берувчининг хоҳишига кўра ихтирога берилган патент ва унинг иловаси почта алоқаси орқали кўрсатилган манзилга юборилиши мумкин.

7. Халқаро талабномани топшириш ва кўриб чиқиш

303. РСТга мувофиқ ваколатли орган Ўзбекистон Республикасида халқаро талабномани қабул қилувчи идора, халқаро талабномада кўрсатилган ва танланган идора функциясини бажаради. Ваколатли орган халқаро талабнома бўйича иш юритишда РСТ, РСТнинг Йўриқномаси (бундан буён матнда Йўриқнома деб юритилади), БИМТ Халқаро бюроси томонидан чоп этиладиган тегишли қўлланмалар, шунингдек Қонун ва мазкур Қоидаларга амал қилади.

304. Халқаро талабномани кўриб чиқиш бошланадиган сана сифатида халқаро талабноманинг устуворлик санасидан эътиборан ўттиз бир ойлик муддатдан кейинги сана ҳисобланади.

Халқаро талабноманинг давлат экспертизасини кўрсатилган муддатдан аввал бошлаш ҳақидаги илтимоснома халқаро чоп этиш санасигача берилганда талабноманинг таржимаси билан бирга халқаро талабномани қабул қилувчи идора

QMMB: 10/26/3801/0292-son
30.03.2026-y.

томонидан тасдиқланган ва халқаро топшириш санаси белгиланган нусхаси тақдим этилади.

305. Халқаро талабномани миллий фазага ўтказиш учун талабнома берувчи томонидан халқаро талабноманинг устуворлик санасидан эътиборан ўттиз бир ойлик муддатда бошқа тилда топширилган халқаро талабнома аризасининг таржимаси, халқаро талабноманинг нашр варағи, формуланинг таржимаси тақдим этилади ва бунда патент божи тўланади. Халқаро талабнома аризасининг таржимаси ўрнига мазкур Қоидаларда назарда тутилган Ўзбекистон Республикасида ихтирога патент бериш ҳақидаги ариза топширилиши мумкин.

306. Халқаро талабнома аризасининг таржимасига талабнома материалларининг таржималари халқаро талабномани топшириш санасида топширилган кўринишда илова қилинади.

Ўзгартирилган формулали халқаро талабнома миллий фазага ўтказилганда ўзгартирилган формуланинг таржимаси киритилган ўзгартиришларга нисбатан тушунтиришларнинг таржимаси билан бирга берилади.

307. Халқаро талабнома ихтиро формуласи, тавсиф ва чизмаларга PCTнинг 34(2b)-моддасига мувофиқ киритилган ўзгартиришларни ҳисобга олган ҳолда миллий фазага ўтказилганда Халқаро дастлабки экспертиза органи томонидан қабул қилинган ўзгартиришлар ҳисобга олинган халқаро талабноманинг таржимаси тақдим этилади.

308. Мазкур Қоидаларнинг 304 – 307-бандларида кўрсатилган материаллар белгиланган муддатда тақдим этилмаганда халқаро талабнома бўйича иш юритиш тўхтатилади.

309. Миллий фазага ўтиш муддати ўтказиб юборилгандан сўнг ўн икки ой ичида тақдим этилган материаллар белгиланган патент божи тўланганда кўриб чиқишга қабул қилинади.

310. Халқаро талабноманинг расмий экспертизасини ўтказишда мазкур Қоидаларнинг 179 – 197-бандлари талабларига риоя қилинганлиги ҳамда қуйидагилар текширилади:

аризада келтирилган маълумотлар халқаро талабноманинг нашр варағида кўрсатилган библиография маълумотларига мослиги;

талабнома берувчининг номи ўзгарганлиги, муаллифлар, сўралаётган устуворлик ҳақидаги ҳужжатларнинг мавжудлиги;

халқаро патент излаш ҳисоботининг мавжудлиги;

халқаро дастлабки экспертиза хулосасининг мавжудлиги (агар у ўтказилган бўлса).

QMMB: 10/26/3801/0292-son
30.03.2026-y.

311. Халқаро патент излаш ҳисоботи ва халқаро дастлабки экспертиза хулосасида ихтиро бирлиги талаби бузилгани ҳақида хулоса ва уларнинг асосланиши берилганда ҳамда талабнома берувчи томонидан РСТнинг 17(3а) ва 34(3а)-моддаларида назарда тутилган қўшимча божлар тўланмагани сабабли халқаро талабноманинг бирон-бир қисмлари бўйича халқаро патент излаш ҳисоботи ва халқаро дастлабки экспертиза хулосаси бўлмаганда ушбу қисмлар бўйича патент божини тўлаш шарти билан экспертиза томонидан кўриб чиқишга қабул қилинади.

Патент божи тўланмаганда халқаро талабноманинг фақат халқаро патент излаш ҳисоботида берилган ва халқаро дастлабки экспертиза ўтказилган қисмлари кўриб чиқишга қабул қилинади.

8-боб. Якунловчи қоидалар

312. Қонуннинг 20-моддасига мувофиқ белгиланган талаблар бузилган ҳолда расмийлаштирилган патент бериш ҳақидаги талабнома юзасидан талабнома берувчига сўров юборилиб, унда шу сўров йўлланган санадан эътиборан уч ой ичида тузатишлар киритилган ёки етишмаётган материалларни тақдим этиш таклиф қилинади. Агар талабнома берувчи сўралган материалларни ёки белгиланган муддатни узайтириш тўғрисидаги илтимосномани кўрсатилган муддатда тақдим этмаса, патент бериш ҳақидаги талабнома чақириб олинган ҳисобланади. Белгиланган муддат талабнома берувчининг илтимосномасига кўра шу муддат ўтган санадан кейин кўпи билан ўн икки ойга узайтирилиши мумкин.

Муддатни узайтириш тўғрисидаги илтимоснома тақдим этилганда белгиланган миқдорда патент божи тўланади. Мазкур бандда назарда тутилган шартларга риоя этилганда муддат узайтирилади ва бу ҳақида ўн кун муддат ичида хабарнома юборилади.

313. Сўровномага белгиланган муддатда тўлиқ жавоб берилмаганда ёки жавобни топшириш муддатини узайтириш шартларига риоя этилмаганда талабнома чақириб олинган деб ҳисобланади ва бу ҳақида талабнома берувчига ўн кун муддат ичида хабарнома юборилади.

314. Экспертизанинг сўровномасига жавоб хатини тақдим этишнинг ўтказиб юборилган муддатлари талабнома берувчининг илтимосномасига кўра тикланиши мумкин. Илтимоснома талабнома чақириб олинган санадан бошлаб ўн икки ой ичида топширилади.

Илтимоснома билан биргаликда сўровномага тўлиқ жавоб хати тақдим этилади ва белгиланган миқдорда патент божи тўланади.

Мазкур банднинг шартларига риоя этилганда талабнома иш жараёнига тикланади ва бу ҳақида хабарнома юборилади.

315. Талабнома берувчи талабномага алоқадор иш юритиш билан Ахборот тизими орқали танишиши мумкин.

QMMB: 10/26/3801/0292-son
30.03.2026-y.

316. Сўровнома, хабарнома, давлат экспертизаси қарорлари ва ихтирога бериладиган патент QR-код (матрик штрихли код) қўйиш билан тасдиқланиб юборилади.

317. Мазкур Қоидалар талаблари бузилишида айбдор бўлган шахслар қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ жавоб беради.

- Ихтирога патент бериш учун талабномани тузиш,
- топшириш ва кўриб чиқиш қоидаларига
- 1-илова

Ихтирога патент бериш ҳақида АРИЗА

<table>
<tr><td>(21) Талабноманинг қайд рақами:
_____</td><td>(22) Талабноманинг келиб тушган санаси:
_____</td><td>Ёзишмалар учун манзил:
_____</td></tr>
<tr><td></td><td>(85) Халқаро талабномани миллий фазага ўтказиш санаси:
_____</td><td>Телефон:_____</td></tr>
<tr><td colspan="2">(86) _____
(халқаро талабноманинг қабул қилувчи идора томонидан белгиланадиган қайд рақами ва халқаро топшириш санаси)</td><td>(87) _____
(халқаро талабномани халқаро эълон қилиш рақами ва санаси)</td></tr>
<tr><td colspan="2">Ихтирога патент бериш ҳақида
АРИЗА</td><td>Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги</td></tr>
<tr><td colspan="3">(54) Ихтиронинг номи:
_____</td></tr>
<tr><td colspan="2">(71) Талабнома берувчи:
_____
_____
(жисмоний шахслар учун Ф.И.О. ёки юридик шахснинг тўлиқ номи)</td><td>СТИР ёки ЖШШИР (миллий талабнома берувчилар учун):
_____

БИМТ ST.3 стандарти бўйича мамлакат коди (агар у ўрнатилган бўлса):
_____</td></tr>
<tr><td colspan="3">Ихтиро устуворлигини қуйидаги санадан белгилашингизни сўраймиз:
☐ биринчи талабнома топширилган санадан (“Ихтиролар, фойдали моделлар ва саноат намуналари тўғрисида”ги Қонуннинг (бундан буён матнда Қонун деб юритилади) 18-моддаси иккинчи Қисми иккинчи хатбошиси);
☐ ваколатли органга олдиндан топширилган талабноманинг келиб тушиш санасидан (Қонуннинг 18-моддаси иккинчи Қисми учинчи хатбошиси);
☐ олдиндан топширилган талабномага Қўшимча материалларнинг келиб тушиш санасидан (Қонуннинг
18-моддаси иккинчи Қисми тўртинчи хатбошиси);
☐ ажратилган аломда талабномага биринчи талабноманинг устуворлик санасидан.</td></tr>
</table>

(31) Биринчи (олдин топширилган, дастлабки) талабнома рақами	(32) Сўралаётган устуворлик санаси	(33) БИМТ ST.3 стандарти бўйича талабнома топшираётган томоннинг мамлакат коди *(конвенция устуворлиги сўралганда)*

☐ (74) Вакил (*Ф.И.О. ёки номи, патент вакилининг рўйхат рақами, почта манзили*)

Телефон:_____

Илова қилинган ҳужжатларнинг рўйхати:	Саҳифалар сони
☐ тавсиф	
Нуклеотидлар ва аминокислоталар кетма-кетлиги рўйхати	
☐ формула (мустақил бандлар сони)	
☐ чизмалар ва бошқа материаллар	
☐ реферат	
☐ патент вакили ваколатларини тасдиқловчи ишончнома	
☐ биринчи талабноманинг нусхаси (*конвенция устуворлиги сўралганда*)	
☐ талабноманинг таржимаси	
Бошқа ҳужжатлар (*кўрсатилсин*)	

(72) Муаллиф *(Ф.И.О., резидентлар учун иш жойи, лавозими ва илмий даражаси кўрсатилади)*	Турар жой манзили, БИМТ ST.3 стандарти бўйича мамлакат коди *(агар у ўрнатилган бўлса)*	ЖШШИР *(резидентлар учун)*

_____ _____ *талабнома берувчи ёки вакил*	QR-код	

QMMB: 10/26/3801/0292-son
30.03.2026-y.

- Ихтирога патент бериш учун талабномани тузиш,
- топшириш ва кўриб чиқиш қоидаларига
- 2-илова

Талабномага тузатишлар, аниқликлар ва қўшимчалар киритиш тўғрисида
АРИЗА

QMMB: 10/26/3801/0292-son
30.03.2026-y.

Келиб тушган санаси _____	Қайд рақами _____
Талабномага тузатишлар, аниқликлар ва қўшимчалар киритиш тўғрисида АРИЗА	**Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги**
(21) Талабноманинг қайд рақами	
(22) Талабноманинг келиб тушган санаси	

Мазкур аризани тақдим этган ҳолда талабнома материалларига қуйидаги тузатиш, аниқлик ва қўшимчалар киритишингизни сўрайман:

_____

_____

_____

_____

_____

Тузатиш, аниқлик ва қўшимчалар киритилган маълумотлар:

_____

_____

Аризага иловалар:

QR-код

_____

_____

талабнома берувчи ёки вакил

QMMB: 10/26/3801/0292-son
30.03.2026-y.

- Ихтирога патент бериш учун талабномани тузиш,
- топшириш ва кўриб чиқиш қоидаларига
- 3-илова

Ихтирога патент бериш ҳақидаги талабномага ҳуқуқни топшириш
ДАЛОЛАТНОМАСИ

Ихтирога патент бериш ҳақидаги талабномага ҳуқуқни топшириш ДАЛОЛАТНОМАСИ	**Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги**
Талабноманинг қайд рақами	
Талабноманинг келиб тушган санаси	
Қуйида ҳуқуқ топшираётган шахс ҳуқуқни олувчи шахсга ихтирога патент бериш ҳақидаги талабномага бўлган ҳуқуқни имзо чеккан ҳолда топширади.	
Ҳуқуқни топшираётган шахс: СТИР ёки ЖШШИР *(резидентлар учун)*: _____ БИМТ ST. 3 стандарти бўйича мамлакат коди (*агар у ўрнатилган бўлса*): _____ Номи (исми): _____ Почта манзили: _____ Телефон: _____	
Ҳуқуқни олувчи шахс: СТИР ёки ЖШШИР *(резидентлар учун)*: _____ БИМТ ST. 3 стандарти бўйича мамлакат коди (*агар у ўрнатилган бўлса*): _____	

QMMB: 10/26/3801/0292-son
30.03.2026-y.

Номи (исми): _____ Почта манзили: _____ Телефон: _____
Ҳуқуқни топшираётган шахс имзоси* _____ Имзоланган сана _____ Ҳуқуқни олувчи имзоси* Имзоланган сана

*Юридик шахс номидан ташкилот раҳбари томонидан унинг лавозими ва исми кўрсатилган ҳолда имзоланади.

- Ихтирога патент бериш учун талабномани тузиш,
- топшириш ва кўриб чиқиш қоидаларига
- 4-илова

Ихтиролар давлат реестри

(11) Патент рақами

(12) Ҳужжат турининг сўзли шакли

(13) БИМТнинг ST. 16 стандарти бўйича ҳужжат турининг коди

(15) Рўйхатдан ўтказилган сана

(18) Патент амал қилиш муддатининг тугаши

(19) Нашр қилаётган давлатнинг коди

(21) Талабноманинг қайд рақами

(22) Талабноманинг келиб тушган санаси

(23) Бошқа саналар, шу жумладан олдин топширилган талабномага қўшимча материаллар келиб тушган сана

(31) Устуворлик сўралган талабноманинг қайд рақами

(32) Устуворлик сўралган талабноманинг келиб тушган санаси

(33) Устуворлиги белгиланган давлат коди

(45) Эълон қилинган сана ва расмий ахборотнома рақами

(51) ХПТ индекслари

(54) Ихтиро номи

(56) Экспертиза жараёнида инобатга олинган манбаларга ҳаволалар

(57) Ихтиронинг реферати

(62) Ажратиб олинган талабнома бўйича биринчи талабноманинг қайд рақами ва санаси

(63) Олдин топширилган талабноманинг қайд рақами ва санаси

(71) Талабнома топширувчиларнинг исми (номи)

(72) Муаллиф

(73) Ҳуқуқ эгаси

(74) Вакил

(85) РСТ шартномасининг 23 (1) ёки 40 (1)-моддаларига мувофиқ халқаро талабнома миллий босқичга ўтган санаси

(86) РСТ шартномаси орқали топширилган талабноманинг маълумотлари, шу жумладан халқаро талабнома топширилган санаси, рўйхатдан ўтказиш рақами ҳамда ихтиёрий равишда эълон қилинган халқаро талабнома дастлаб қайси тилда топширилганлиги (халқаро талабномалар асосида берилган Ўзбекистон Республикаси патентлари учун)

87) РСТ шартномаси халқаро талабномасини нашр этишга оид маълумотлар, шу жумладан халқаро нашр санаси, халқаро нашр рақами ва ихтиёрий равишда халқаро талабноманинг нашр этилган тили (халқаро талабномалар асосида берилган Ўзбекистон Республикаси патентлари учун)

(98) Ёзишмалар учун манзил

Изоҳ: мазкур реестрда ишлатилаётган кодлар Бутунжаҳон интеллектуал мулк ташкилотининг стандартлари билан белгиланган.

12 (1240)-son
285-модда

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3802
2026 - yil 27 - Mart

FOYDALI MODELGA PATENT BERISH UCHUN TALABNOMANI TUZISH, TOPSHIRISH VA KO‘RIB CHIQISH QOIDALARINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA

Фойдали моделга патент бериш учун талабномани тузиш, топшириш ва кўриб чиқиш қоидаларини тасдиқлаш тўғрисида

Ўзбекистон Республикасининг “Ихтиролар, фойдали моделлар ва саноат намуналари тўғрисида”ги Қонунига мувофиқ **буюраман:**

1. Фойдали моделга патент бериш учун талабномани тузиш, топшириш ва кўриб чиқиш қоидалари иловага мувофиқ тасдиқлансин.

2. Ушбу буйруқ расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

Vazir
27-Mart 2026-yil
13-mh son

TASHKULOV AKBAR
DJURABAYEVICH

Ўзбекистон Республикаси
адлия вазирининг
2026 йил 27 мартдаги
13-мҳ-сон буйруғига
ИЛОВА

Фойдали моделга патент бериш учун талабномани тузиш, топшириш ва кўриб чиқиш ҚОИДАЛАРИ

Мазкур Қоидалар фойдали моделга патент бериш учун талабномани (бундан буён матнда талабнома деб юритилади) тузиш, топшириш ва кўриб чиқиш тартибини белгилайди.

1-боб. Умумий қоидалар

1. Мазкур Қоидаларда қуйидаги асосий тушунча ва қисқартмалар қўлланилади:

ваколатли орган – Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги;

Марказ – Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги “Интеллектуал мулк маркази” давлат муассасаси;

ХПТ – Халқаро патент таснифи;

БИМТ – Бутунжаҳон интеллектуал мулк ташкилоти;

РСТ – Патент кооперацияси тўғрисида шартнома;

миллий фаза – Ўзбекистон Республикасининг “Ихтиролар, фойдали моделлар ва саноат намуналари тўғрисида”ги Қонунига (бундан буён матнда Қонун деб юритилади) мувофиқ халқаро талабномани кўриб чиқиш.

2. Ваколатли орган томонидан талабнома кўриб чиқиш учун Қабул қилинади ва ушбу талабнома Марказ томонидан давлат экспертизасидан ўтказилади.

3. Талабнома бериш муаллиф, иш берувчи ёки уларнинг ҳуқуқий вориси (бундан буён матнда талабнома берувчи деб юритилади) томонидан ваколатли органга берилади. Талабнома шахсан, патент вакили ёки ишончли шахс орқали топширилиши мумкин.

4. Фойдали моделни рўйхатга олиш ваколатли орган томонидан амалга оширилади.

2-боб. Фойдали моделнинг патентга лаёқатлилик шартлари

5. Қонуннинг 7-моддасига мувофиқ агар фойдали модель сифатида кўрсатилган объект янги бўлса ва уни саноатда қўллаш мумкин бўлса, у ҳуқуқий муҳофаза қилинади.

6. Фойдали моделнинг муҳим белгилари мажмуи техника тараққиёти даражасидан маълум бўлмаса, у янги деб ҳисобланади.

7. Техника тараққиёти даражаси фойдали модель устуворлиги санасига қадар жаҳонда оммага ошкор бўлган ҳар қандай маълумотларни ўз ичига олади.

8. Агар фойдали моделдан амалда фойдаланиш мумкин бўлса, уни саноатда қўллаш мумкин деб ҳисобланади.

9. Қонуннинг 7-моддаси олтинчи қисмига мувофиқ ҳар қандай соҳада маҳсулот ёки усулга тааллуқли бўлган техник ечим фойдали модель сифатида эътироф этилади.

10. Фойдали модель сифатида маҳсулотга қурилма, модда, микроорганизм штамми, ўсимлик ёки ҳайвон ҳужайраларининг турлари киради.

11. Қурилмаларга конструкциялар, конструктив элементлар ёки конструктив элементлар мажмуи бўлган ҳамда функционал-конструктив бирликни ташкил қилган буюмлар, машиналар, асбоблар, аппаратлар, ускуналар, инструментлар, маҳкамловчи буюмлар, машина деталлари, алоқа воситалари, қурилиш конструкциялари ва бошқалар киради.

12. Моддаларга:

кимёвий бирикмалар, шунингдек шартли равишда юқори молекуляр бирикмалар ва ген инженерияси маҳсулотлари бўлган рекомбинант нуклеин кислоталар, векторлар ва бошқалар;

композициялар (таркиблар, аралашмалар, қотишмалар, эритмалар ва бошқалар);

ядровий парчаланиш маҳсулотлари киради.

13. Микроорганизмлар штаммлари, ўсимлик ёки ҳайвон ҳужайраларининг турларига:

бактериялар, вируслар, бактериофаглар, микросувўтлари, микроскопик замбуруғлар ва бошқаларнинг штаммлари;

ўсимлик ёки ҳайвон ҳужайраларининг турлари, шу жумладан ҳужайраларнинг клонлари;

микроорганизмлар, ўсимлик ёки ҳайвон ҳужайралари турларининг консорциумлари;

микроорганизмлар, ўсимлик ёки ҳайвоннинг плазмидлари, векторлари, барқарор трансформацияланган ҳужайраларини ўз ичига олган генетик конструкциялар, трансген ўсимликлар ва ҳайвонлар киради.

14. Фойдали модель сифатида усулга моддий воситалар ёрдамида моддий объект устида хатти-ҳаракатларни амалга ошириш жараёни киради.

15. Қуйидагилар фойдали модель сифатида эътироф этилмайди:

илмий назариялар ва математика усуллари;

ташкил этиш ва бошқариш усуллари;

шартли белгилар, жадваллар, қоидалар;

ақлий операцияларни бажариш қоидалари ва усуллари;

электрон ҳисоблаш машиналари учун алгоритмлар ва дастурлар;

бинолар, иншоотлар, ҳудудларни режалаштириш лойиҳалари ва чизма тарҳлари;

эстетика талабларини қаноатлантиришга йўналтирилган, буюмларнинг фақат ташқи кўринишига оид ечимлар;

интеграл микросхемаларнинг топологиялари;

ўсимлик навлари ва ҳайвон зотлари;

жамоат манфаатлари, инсонпарварлик ва ахлоқ қоидаларига зид ечимлар.

3-боб. Талабномага доир талаблар

16. Қонуннинг 16-моддаси биринчи қисмига мувофиқ талабнома битта фойдали моделга ёки ягона ижодкорлик фикрини (фойдали модель бирлиги талабини) ташкил этган тарзда бир-бири билан узвий боғланган фойдали моделлар гуруҳига тааллуқли бўлиши керак.

17. Фойдали модель формуласида битта фойдали модель тавсифланганда фойдали модель бирлиги талабига риоя этилган деб ҳисобланади.

18. Фойдали модель формуласида қуйидаги бир гуруҳдаги фойдали моделлар тавсифланганда фойдали модель бирлиги талабига риоя этилган деб ҳисобланади:

фойдали модель формуласида бир турдаги (бир қанча қурилмалар, бир қанча турлар ва бошқалар), бир хил мақсадда фойдаланишга мўлжалланган, тубдан айнан бир хил йўл (вариантлар) билан айнан бир хил техник натижани олишни таъминлайдиган объектларга тааллуқли фойдали моделлар гуруҳи;

бири иккинчисини олиш (тайёрлаш) учун мўлжалланган фойдали модель (масалан, қурилма ёки модда ва қурилма ёки моддани бутунлай ёки уларнинг бир қисмини олиш усули);

бири иккинчисини амалга ошириш учун мўлжалланган фойдали модель (масалан, усул ва усулни бутунлай ёки унинг ҳаракатларидан бирини ошириш учун қурилма);

бири иккинчисидан (иккинчисида) фойдаланиш учун мўлжалланган фойдали модель (масалан, усулда фойдаланиш учун мўлжалланган усул ва қурилма, усул ёки қурилма ва унинг бир қисми, қурилма ёки моддани улардан янги мақсадда фойдаланиш учун қўллаш ва ушбу мақсадга мувофиқ улардан фойдаланиш усули, қурилма ёки моддадан янги мақсадда фойдаланиш ва таркибий қисми бўлган қурилма ёки композиция).

19. Талабнома:

фойдали моделнинг муаллифи (ҳаммуаллифлари) ва кимнинг номига патент бериш сўралаётган бўлса, ана шу шахс, шунингдек уларнинг турар жойи ёки жойлашган манзили кўрсатилган патент бериш ҳақидаги аризани;

фойдали моделнинг уни амалга ошириш учун етарли бўлган даражада тўлиқ очиб берилган тавсифини;

фойдали моделнинг моҳиятини ифодаловчи ҳамда унинг тавсифига тўла мувофиқ бўлган формуласини;

агар фойдали моделнинг моҳиятини тушуниш учун зарур бўлса, чизмалар ва бошқа материалларни;

фойдали модель рефератини ўз ичига олиши лозим.

20. Бошқа тилда топширилган ҳужжатлар уларнинг таржималари бошқа тилда топширилган ҳужжатлар келиб тушган санадан бошлаб икки ой муддат ичида топширилганда ваколатли органга келиб тушган санадан бошлаб топширилган деб ҳисобланади, акс ҳолда ҳужжатлар уларнинг таржималари келиб тушган санадан бошлаб топширилган деб ҳисобланади.

21. Конвенция устуворлиги сўраб топширилган талабномага талабнома берувчи томонидан Саноат мулкини муҳофаза қилиш бўйича Париж конвенцияси қатнашчиси бўлган давлатда топширилган биринчи талабноманинг (бундан буён матнда биринчи талабнома деб юритилади) тасдиқланган нусхаси ва унинг таржимаси илова қилинади.

Бунда ушбу талабноманинг тасдиқланган нусхаси ва унинг таржимаси конвенция устуворлиги сўралган талабнома ваколатли органга келиб тушган санадан бошлаб уч ой муддатдан кечиктирилмай топширилади.

Биринчи талабнома нусхасининг таржимаси талабнома берувчи томонидан имзоланади.

Биринчи талабнома топширилган санадан ўн икки ой ўтгандан кейин, лекин икки ойдан кечиктирмай топширилган талабнома бўйича конвенция устуворлиги

сўралганда тегишли патент божи тўланади.

22. Талабнома берувчи томонидан конвенция устуворлигини белгилаш бўйича илтимоснома ваколатли органга талабнома топшириш вақтида (аризанинг тегишли графасида келтирилади) ёки ваколатли органга талабнома келиб тушган санадан бошлаб икки ой муддат давомида топширилиши мумкин.

23. Янги микроорганизм штамми, ўсимлик ва ҳайвон ҳужайраларининг турларига (линиялари) оид патент бериш ҳақидаги талабномага штаммнинг расмий ваколатга эга бўлган депозитарийда сақланаётганлиги тўғрисидаги ҳужжат илова қилинади.

24. Нуклеотидлар ва аминокислоталар кетма-кетлиги рўйхатини ўз ичига олган талабномага айнан ушбу рўйхат ёзилган ва БИМТга мувофиқ тайёрланган ахборот (.pdf ва .docx форматларида) илова қилинади.

25. Фойдали моделга патент бериш ҳақидаги ариза мазкур Қоидаларнинг 1-иловасига мувофиқ шаклда топширилади.

26. Аризанинг 21-кодли “Талабноманинг қайд рақами”, 22-кодли “Талабноманинг келиб тушган санаси”, 85-кодли “Халқаро талабномани миллий фазага ўтказиш санаси” графалари ариза ваколатли органга келиб тушгандан кейин реквизитларни киритиш учун мўлжалланган.

27. Аризанинг “Ёзишмалар учун манзил” графасида хат олувчининг номи (юридик шахслар учун) ёки исми (жисмоний шахслар учун), шунингдек, жойлашган ери (почта манзили), телефон рақами, электрон почтасидан камида бири кўрсатилади.

28. Аризанинг 86-кодли ва 87-кодли графалари РСТга мувофиқ топширилган халқаро талабнома миллий фазага ўтказилган ҳолларда талабнома берувчи томонидан тўлдирилади.

86-кодли графада фойдали моделга халқаро талабноманинг қабул қилувчи идора томонидан белгиланадиган қайд рақами ва халқаро топшириш санаси келтирилади.

87-кодли графада фойдали моделга халқаро талабноманинг халқаро эълон қилиш рақами ва санаси келтирилади.

29. Аризанинг 54-кодли “Фойдали моделнинг номи” графасида талабнома берилган фойдали моделнинг (фойдали моделлар гуруҳининг) номи келтирилади ва ушбу ном фойдали моделнинг тавсифидаги номга мос бўлиши керак.

30. Аризанинг 71-кодли “Талабнома берувчи” графасида талабнома берувчи тўғрисида қуйидаги маълумотлар келтирилади:

юридик шахснинг расмий номи (таъсис ҳужжати бўйича) ёки жисмоний шахснинг тўлиқ исми, шунингдек:

резидентлар учун СТИР ёки ЖШШИР, жойлашган ери ёки турар жойи манзили;

норезидентлар учун исм ва номларнинг транслитерацияси ҳамда БИМТ ST.3 стандарти бўйича мамлакат коди (агар у ўрнатилган бўлса).

Патент бир неча шахс номига сўралаётганда юқорида келтирилган маълумотлар уларнинг ҳар бири учун алоҳида келтирилади.

31. Аризанинг устуворликни белгилаш тўғрисидаги илтимоснома кўрсатилган графаси ваколатли органга талабнома келиб тушган санадан олдинроқ устуворлик сўралаётганда тўлдирилади.

Конвенция устуворлиги сўралаётганда аризанинг 33-кодли “БИМТ ST.3 стандарти бўйича талабнома топширилган мамлакат коди” графасида биринчи талабнома топширилган мамлакат коди кўрсатилади.

32. Талабнома берувчи томонидан иш олиб бориш унинг вакили орқали амалга оширилганда аризанинг 74-кодли “Вакил” графасида қуйидаги маълумотлар келтирилади: вакилнинг тўлиқ номи ёки исми, рўйхат рақами (патент вакили бўлса), жойлашган ери (почта манзили), телефон рақами.

33. Аризанинг “Илова қилинган ҳужжатлар” графасида талабномага алоқадор ҳужжатлар бириктирилади.

Фойдали модель тавсифида “Нуклеотидлар ва аминокислоталар кетма-кетлиги рўйхати” бўлими мавжуд бўлганида тегишли графаларда саҳифаларнинг умумий миқдори кўрсатилади.

Талабномада кўрсатилган нуклеотидлар ва аминокислоталар кетма-кетлиги рўйхати мазкур Қоидаларнинг 24-бандига мувофиқ тақдим этилади.

34. Аризанинг 72-кодли “Муаллиф” графасида қуйидаги маълумотлар келтирилади:

муаллифнинг фамилияси, исми, отасининг исми, фуқаролиги, шунингдек:

резидентлар учун ЖШШИР, иш жойи, лавозими ва илмий даражаси, БИМТ ST.3 стандарти бўйича мамлакат коди;

норезидентлар учун БИМТ ST.3 стандарти бўйича мамлакат коди (агар код белгиланган бўлса).

35. Фойдали модель номи аниқ, қисқа бўлиб фойдали модель моҳиятига мос келиши, фойдали модель тегишли бўлган объектнинг умумий тушунчасини аниқлаши ва объектнинг вазифасини тавсифлаши (унинг бажарадиган функциясини ёки техниканинг қайси соҳасига оид эканлигини кўрсатиши) керак.

36. Фойдали модель номи, қоида тариқасида, ХПТнинг маълум рубрикасига мос келиши керак. Фойдали модель моҳиятига мос рубрикани аниқлаш мумкин бўлмаганда фойдали моделнинг номи умумқабул қилинган терминологияга мувофиқ кўрсатилади.

37. Фойдали модель номида “масалан” ва “хусусан” каби иборалар қўлланилмайди.

38. Фойдали модель номи атамага хос ёки тавсифловчи бўлиши мумкин.

Атамага хос номлаш техниканинг шу соҳа мутахассисига маълум бўлган объектнинг муҳим белгилари мажмуини улар санаб ўтилганлиги ёки санаб ўтилмаганлигидан қатъий назар тавсифлаши керак.

Тавсифловчи ном объектнинг вазифаси ва унинг техникага оид бир ёки турли хил соҳаларда бажарадиган функцияси ҳақида тасаввур бериши керак.

39. Фойдали модель номи бирликда ифодаланади, бирликда ишлатилмайдиган номлар, умумий структура формуласи билан аниқланадиган кимёвий бирикмаларга оид фойдали моделларнинг номлари бундан мустасно.

40. Индивидуал кимёвий бирикмага оид фойдали модель номига кимёда қабул қилинган номенклатура бўйича номи киритилади, шунингдек унинг қандай аниқ вазифада ишлатилишига доир кўрсатмаси, биологик фаол бирикмалар учун биологик фаоллик тури келтирилади.

Тузилиши аниқланмаган юқори молекуляр бирикмаларни олиш усулларига оид фойдали модель номига бирикманинг номи ва зарур бўлганда унинг вазифаси тўғрисида кўрсатма киритилади.

Аниқланмаган таркибли модда-аралашмани олиш усулига оид фойдали модель номига вазифаси тўғрисида кўрсатма ёки ушбу модданинг биологик фаоллик хусусиятларини кўрсатувчи тушунчалар киритилади.

41. Микроорганизм штамми, ўсимлик ёки ҳайвон ҳужайралари турларига (линиялари) оид фойдали моделлар номига биологик объектнинг лотин тилидаги оила туркуми ва турига оид номи, штамм тури ва вазифаси кўрсатилган ҳолда киритилади.

Генетик конструкцияга тааллуқли фойдали моделга унинг вазифаси кўрсатилган ҳолда номланиши киритилади.

42. Аввалдан маълум бўлган қурилма, усул, модда, штаммни янги мақсадда қўлланилишига оид бўлган фойдали модель номи тегишли объект учун қабул қилинган қоидаларга биноан тузилади ва аввалдан маълум бўлган объектнинг янги вазифасини тавсифлайди.

43. Бири иккинчисини олиш (тайёрлаш), амалга ошириш ёки фойдаланиш учун мўлжалланган объектларга оид фойдали моделлар гуруҳининг номи битта

фойдали моделнинг тўлиқ номи ва иккинчисининг қисқартирилган номини ўз ичига олади. Бири бошқасида фойдаланиш учун мўлжалланган объектларга оид фойдали моделлар гуруҳининг номи гуруҳга кирган фойдали моделларнинг тўлиқ номи билан аталади. Вариантларга оид фойдали моделлар гуруҳининг номи битта фойдали моделнинг номидан иборат бўлиб, “вариантлар” деган сўз билан тўлдирилади.

44. Фойдали модель номи зарур бўлганда лотин алифбоси символларини ва араб рақамларини ўз ичига олади.

Фойдали модель номига атоқли отлар, норасмий иборалар, аббревиатуралар, реклама, товар белгилари ва хизмат кўрсатиш белгилари, географик кўрсаткичлар, товар келиб чиққан жой номлари, фирма номлари, географик номлар, “ва бошқалар” сўзлари ҳамда фойдали моделни аниқлаш мақсадларига хизмат қилмайдиган бошқа сўзлар киритилмайди.

45. Тавсиф фойдали модель номини келтириш билан бошланади. Талабнома берилаётган фойдали модель тегишли бўлган ХПТ амалдаги таҳрири рубрикаси белгиланганда ушбу рубриканинг индекси фойдали модель номи олдида келтирилади.

Тавсиф қуйидаги бўлимларни ўз ичига олади:

фойдали модель оид бўлган техника соҳаси;

техника даражаси;

фойдали модель моҳияти;

чизмалар ва бошқа материаллар рўйхати (агар улар бўлса);

фойдали моделни амалга ошириш мумкинлигини тасдиқловчи маълумотлар;

нуклеотидлар ва аминокислоталар кетма-кетлиги рўйхати (агар фойдали моделни тавсифлаш учун бундай кетма-кетликдан фойдаланилган бўлса).

Тавсиф бўлими ўрнига манбаларда (адабиёт, аввал топширилган талабномадаги фойдали модель тавсифи, муҳофаза ҳужжатидаги фойдали модель тавсифи ва бошқаларда) келтирилган маълумотларга ҳавола қилиниши мумкин эмас.

46. Тавсифнинг “Фойдали модель оид бўлган техника соҳаси” бўлимида фойдали модель қўлланиладиган соҳа кўрсатилади. Бундай соҳалар бир нечта бўлганда улар орасидан қайси бирида кўпроқ қўлланилиши кўрсатилади.

47. Тавсифнинг “Техника даражаси” бўлимида талабнома берувчига маълум бўлган фойдали модель аналоглари келтирилади.

Фойдали моделнинг аналоги сифатида фойдали моделнинг устуворлик санасигача оммавий тарзда ошкор этилган ахборот манбаидан маълум бўлган, фойдали моделнинг муҳим белгилари мажмуига ўхшаш белгилар билан тавсифланган ва фойдали модель бажарадиган вазифани амалга оширадиган восита кўрсатилади.

48. Аналогни таърифлашда у очиб берилган ахборот манбаларининг библиографик маълумотлари, аналогнинг белгилари талабнома берилаётган фойдали моделнинг муҳим белгилари билан мос келадиганлари ажратиб кўрсатилган ҳолда келтирилади, шунингдек техник натижа олишга тўсқинлик қилувчи сабаблар кўрсатилади.

49. Фойдали модель аналоглари орасидан фойдали моделга муҳим белгилар мажмуи бўйича энг яқин бўлган аналог ажратиб кўрсатилади.

50. Фойдали модель аниқ вазифага ёки биологик фаол хусусиятларга эга бўлган, аниқланмаган таркибли аралашмани олиш усулига оид бўлганда аналог сифатида худди шундай вазифага ва биологик фаол хусусиятга эга бўлган аралашмалар олиш усули кўрсатилади.

Фойдали модель янги индивидуал кимёвий, шунингдек юқори молекуляр бирикма олиш усулига ёки ген инженерияси объектига оид бўлганда унга ўхшаш аналогни олиш усули ҳақида маълумотлар келтирилади.

Модда продуцентига (микроорганизм штамми, ўсимлик ва ҳайвон ҳужайралари турлари (линиялари)) оид бўлган фойдали моделнинг энг яқин аналогини тавсифлашда ҳосил бўладиган модда ҳақида маълумотлар келтирилади.

Фойдали модель аввал маълум бўлган маҳсулот ёки усулни янги мақсадда қўллашга оид бўлганда унинг аналогларига худди шу вазифада ишлатиладиган маълум маҳсулот ёки усул киритилади.

Фойдали моделлар гуруҳини тавсифлашда аналоглар ҳақидаги маълумотлар ҳар бир фойдали модель учун алоҳида келтирилади.

51. “Фойдали модель моҳияти” бўлимида фойдали модель техник натижага эришиш учун муҳим бўлган белгилар мажмуи орқали ифодаланиб, уни амалга ошириш етарли равишда тўлиқ очиб берилиши керак.

Белгилар эришиладиган техник натижага таъсир кўрсатадиган (техник натижа билан сабаб-оқибат боғланишига эга) бўлганда муҳим белгилар ҳисобланади.

“Фойдали модель моҳияти” бўлимида фойдали модель ҳал қилиши керак бўлган вазифа фойдали модель амалга оширилганда эришиладиган техник натижа кўрсатилган ҳолда очиб берилади, шунингдек фойдали моделни тавсифловчи барча муҳим белгилар келтирилади, энг яқин аналогдан фарқланувчи белгилар ажратилади, бунда сўралаётган ҳуқуқий муҳофаза ҳажми татбиқ қилинадиган

барча ҳолатларда техник натижани олишни таъминлайдиган белгилар йиғиндиси ва фойдали моделни фақат аниқ ҳолатларда, бажарилишининг аниқ шаклларида ёки ундан фойдаланишнинг алоҳида шароитларида тавсифловчи белгилар кўрсатилади.

52. Нуклеотидлар ёки аминокислоталар кетма-кетлигидан белгини тавсифлаш учун фойдаланилганда уларнинг кетма-кетликлари “SEQ ID NO …”нинг рўйхатидаги рақами кўринишида тақдим этилади.

53. Белгининг тавсифини ушбу белги очиб берилган ахборот манбаига ҳавола қилинган ҳолда алмаштиришга йўл қўйилмайди.

Бирон соҳадаги умумэътироф этилган билимларга асосланган далилларни ахборот манбаини кўрсатмасдан келтириш мумкин.

54. Техник натижа ўзи билан фойдали моделни намоён қилувчи воситани амалга оширишда (тайёрлашда) ёки ундан фойдаланишда олиниши мумкин бўлган техник самара, хусусият, ҳодиса ва бошқаларнинг тавсифини ифодалайди.

Фойдали модель бир нечта техник натижани олишни таъминлаганда уларни кўрсатиш тавсия этилади.

Техник натижа, жумладан: ишқаланиш коэффициентини камайтириш (ошириш); қисилиб қолишини олдини олиш; вибрацияни камайтириш; бирор органда қон айланишини яхшилаш; дори-препарат таъсирини тўплаш ёки унинг заҳарлилигини камайтириш; ишчи органнинг муҳит билан алоқасини яхшилаш; сигнал шаклининг ўзгаришини камайтириш; суюқлик сизиб ўтиб кетишини камайтириш; ёрилишини олдини олиш; вакцинанинг иммуногенлигини ошириш орқали ифодаланиши мумкин.

55. Фойдали модель яратилишида маълум вазифага эга бўлган техник воситалар кўламини кенгайтириш ёки биринчи марта шундай техник воситалар олиш вазифаси ҳал қилинаётганда техник натижа шу вазифани амалга оширишдан иборат бўлади ва буни махсус таъкидлаш талаб қилинмайди.

56. Фойдали моделлар гуруҳи учун мазкур Қоидаларнинг 51, 52 ва 54-бандларида кўрсатилган маълумотлар ҳар бир фойдали модель учун алоҳида келтирилади.

57. Микроорганизм штамми, ўсимлик ва ҳайвон ҳужайралари турларини тавсифлашда уларнинг ўзлари келиб чиққан ёки энг яқин штаммдан фарқ қилувчи белгилари кўрсатилади.

58. Аввал маълум бўлган маҳсулот ёки усулни янги мақсадда қўллашга оид фойдали моделни тавсифлашда маълум объектнинг тавсифи келтирилади ва улар кўрсатилган адабиётнинг библиографик маълумотлари берилади ҳамда унинг маълум бўлган ва янги вазифаси кўрсатилади.

59. Қурилмани тавсифлаш учун қуйидаги белгилар ишлатилади:

конструктив элемент мавжудлиги;

элементлар орасидаги боғлиқлик мавжудлиги;

элементларнинг ўзаро жойлашганлиги;

элементнинг ёки умуман қурилманинг бажарилиш шакли, хусусан, геометрик шакли;

элементнинг параметрлари ва бошқа тавсифлари ҳамда улар ўртасидаги ўзаро боғлиқлик;

элемент ёки умуман қурилма тайёрланган материал;

элемент функциясини бажарувчи муҳит.

Қурилмани таърифлаш учун умуман қурилмада ёки унинг бирор элементида қурилманинг ишлаши ёки вазифасини бажариши учун таъсир этмайдиган (сўзли, тасвирий ёки аралаш) белгилардан фойдаланиш мумкин эмас.

60. Усулни тавсифлаш учун қуйидаги белгилар ишлатилади:

ҳаракат ёки ҳаракатлар мажмуининг мавжудлиги;

ҳаракатларни вақт бўйича бажариш тартиби (кетма-кет, бир вақтда, ҳар хил комбинациялар ва бошқаларда);

ҳаракатларнинг бажариш шартлари, режим, моддалар, бирламчи хомашё, реагентлар, катализаторлар, қурилмалар, микроорганизм штаммлари, ўсимлик ва ҳайвонлар ҳужайраларининг турлари ва бошқалар.

61. Кимёвий бирикмаларни тавсифлаш учун қуйидаги белгилар ишлатилади:

белгиланган тузилмага эга бўлган қуйи молекуляр бирикмалар учун сифат жиҳатидан таркиби (маълум элементлар атомлари), миқдорий таркиби (ҳар бир элементнинг атомлар сони), атомлар орасидаги боғланиш ва ушбу атомларнинг кимёвий тузилиш формуласи кўринишида ифодаланган молекуладаги ўзаро жойлашганлиги;

белгиланган тузилмага эга бўлган юқори молекуляр бирикмалар учун кимёвий таркиби ва макромолекуланинг бир бўғимининг тузилиши, макромолекуланинг умуман тузилиши, бўғимларнинг даврийлиги, молекуляр масса, молекуляр массанинг тақсимланиши, макромолекуланинг геометрия ва стереометрияси, унинг учидаги ва ёнидаги гуруҳлари;

аниқланмаган тузилишга эга бўлган индивидуал бирикмалар учун физик-кимёвий хусусиятлари, олиш усули ва ушбу бирикмани бошқалардан фарқлаш учун зарур бўлган бошқа тавсифлари;

ген инженерияси маҳсулотларига тааллуқли бўлган индивидуал бирикмалар учун нуклеотидлар кетма-кетлиги (нуклеин кислоталар фрагментлари ҳолларида) ёки табиий харитаси (рекомбинант нуклеин кислоталар ва векторлар ҳолларида), аминокислоталар кетма-кетлиги ҳамда ушбу бирикмани бошқалардан фарқлаш учун зарур бўлган бошқа физик-кимёвий тавсифлари.

62. Композицияларни тавсифлаш учун қуйидаги белгилар ишлатилади:

сифат жиҳатидан таркиби (ингредиентлар);

миқдорий таркиб (ингредиентлар миқдори);

композиция тузилиши;

ингредиентлар тузилиши.

Таркиби аниқланмаган композицияларни тавсифлаш учун уларнинг физик-кимёвий ва фойдалилик кўрсаткичлари ҳамда уларни олиш усулининг белгилари ишлатилиши мумкин.

63. Ядровий парчаланиш йўли билан олинган моддаларни тавсифлаш учун қуйидаги белгилар ишлатилади:

сифат жиҳатидан таркиби (элемент изотопи), миқдорий таркиб (протон ва нейтронлар сони);

асосий ядровий тавсифлари, яъни ярим парчаланиш даври, нурланиш энергияси ва кўриниши (радиоактив изотоплар учун).

64. Микроорганизм штаммларини тавсифлаш учун қуйидаги белгилар ишлатилади:

штаммнинг оиласи ва турининг номи (лотин тилида);

келиб чиқиши (ажратиб олиниш манбаси, насли);

генотаксономик ва хемотаксономик тавсифлари;

морфологик, физиологик, шу жумладан маданий етиштириш жиҳатлари;

биотехнологик тавсифи (етиштириш шароитлари, штаммдан ҳосил қилинадиган фойдали модданинг номи ва хусусияти, фаоллик (маҳсулдорлик) даражаси;

тиббиёт ва ветеринария соҳасидаги микроорганизмлар штаммлари учун вирулентлик, антиген тузилиши, серологик хусусиятлари;

гибрид микроорганизмлар штаммлари учун гибридлаш принципи.

65. Ўсимлик ёки ҳайвонлар ҳужайралари турларини (линиялари) тавсифлаш учун қуйидаги белгилар ишлатилади:

пассажлар миқдори;

кариологик тавсифи;

ўсиш (кинетик) тавсифлари;

ҳайвон организмида ўстириш тавсифи (гибридлар учун);

морфогенезга қобилияти (ўсимлик ҳужайралари учун).

66. Микроорганизмлар, ўсимлик ёки ҳайвон ҳужайралари (линиялари) консорциумларини тавсифлаш учун мазкур Қоидаларнинг 64 ва 65-бандларида қайд этилган белгиларга қўшимча равишда қуйидаги белгилар ишлатилади:

селекция ва мослаштириш факторлари ва шароитлари;

таксономик таркиби, миқдори ва устун бўлган компонентлар;

умуман консорциумнинг типи ва физиологик хусусиятлари;

ушбу консорциумни бошқасидан фарқлаш учун имкон берадиган бошқа белгилар.

67. Генетик конструкцияларни тегишли равишда тавсифлаш учун мазкур Қоидаларнинг 59-бандида назарда тутилган белгилардан фойдаланилади, бунда конструктив элементлар бўлиб энхансер, промотор, терминатор, ташаббускор кодон, линкер, ўзга ген фрагменти, маркер, фланкирловчи қисм бўлиши мумкин.

68. Трансформацияланган ҳужайрани тавсифлаш учун қуйидаги белгилардан фойдаланилади:

трансформацияловчи элемент;

ҳужайра томонидан ўзлаштириб олинадиган белгилар (хусусиятлар);

ҳужайра келиб чиқишига доир маълумотлар (прокариотик ҳужайра учун уруғ, оила туркуми ва тури);

таксономияга хос белгилар;

табиий геном мутацияси;

ҳужайрани маданийлаштириш шароитлари ва ушбу ҳужайрани бошқасидан фарқлаш учун етарли бўлган бошқа тавсифлари.

69. Трансген ўсимликни тавсифлаш учун қуйидаги белгилардан фойдаланилади:

геномда модификацияланган элементнинг мавжудлиги;

ўсимлик томонидан ўзлаштириб олинадиган белгилар;

ўсимликнинг келиб чиқиши;

таксономияга тегишлилиги ва ушбу ўсимликни бошқасидан фарқлаш учун етарли бўлган бошқа тавсифлари.

70. Трансген ҳайвонни тавсифлаш учун қуйидаги белгилардан фойдаланилади:

ҳайвон геномига трансформацияланган ген ва ДНК ҳамда кодловчи ёки экспресс мақсадли маҳсулот;

ҳайвон томонидан ўзлаштириб олинадиган белгилар (хусусиятлар);

ҳайвон томонидан ҳосил қилинадиган модификацияланган маҳсулот;

ҳайвоннинг тегишлилиги (типи, зоти ва бошқалар) ва ушбу ҳайвонни бошқасидан фарқлаш учун етарли бўлган бошқа тавсифлари.

71. Аввал маълум бўлган қурилма, усул, модда, штаммни янги мақсадда қўллашни тавсифлаш учун янги мақсадда қўлланаётган объектнинг идентификациялаш учун етарли бўлган қисқа тавсифи ва унинг янги вазифасига доир кўрсатмасидан фойдаланилади.

72. Тавсифнинг “Чизмалар ва бошқа материаллар рўйхати” бўлимида тасвирланган чизма фигуралари ва бошқа материалларнинг қисқача таърифи келтирилади.

73. “Фойдали моделни амалга ошириш мумкинлигини тасдиқловчи маълумотлар” бўлимида фойдали моделни талабнома берувчи томонидан кўрсатилган вазифада амалга ошириш мумкинлиги ифодаланади.

Моҳияти умумий тушунча билан ифодаланган, хусусан, функционал умумлаштириш даражасида келтирилган белгидан фойдаланиш билан тавсифланувчи фойдали моделни амалга ошириш имконияти бевосита талабнома материалларида бундай белгини ҳосил қилиш учун воситаларни ёхуд уни олиш усуллари ёки бундай восита ва усулларнинг маълум эканлиги тўғрисидаги кўрсатмани ифодалаш билан тасдиқланади.

Тавсифнинг ушбу бўлимида фойдали моделни амалга оширганда олиниши мумкин бўлган ва ҳал қилинаётган вазифа тавсифланаётганда “Фойдали модель моҳияти” бўлимида кўрсатилган техник натижага эришиш имкониятини тасдиқловчи маълумотлар ҳам келтирилади.

Фойдали моделни тавсифлаш учун миқдорлар оралиғи кўринишида ифодаланган миқдорий белгилардан фойдаланилганда техник натижага шу оралиқда эришиш мумкинлиги кўрсатилади.

74. Қурилмага оид фойдали моделга унинг конструкциясининг (статик ҳолатдаги) тавсифи чизма фигураларига изоҳ берилган ҳолда келтирилади. Конструктив элементларнинг тавсифдаги рақамли белгилари чизма

фигураларидаги рақамли белгиларига мос келиши керак ва уларни кетма-кет таърифлаш давомида бирдан бошлаб ўсиш тартибида келтирилади.

Қурилма конструкциясини тавсифлашдан кейин унинг ҳаракати ёки ундан фойдаланиш усули конструктив элементлар ва чизма фигураларига, зарур ҳолларда эса бошқа изоҳ берувчи материалларга (эпюралар, вақт бўйича диаграммалар ва бошқалар) рақам билан изоҳ берилган ҳолда берилади.

Қурилма функционал даражада тавсифланган бўлиб, кўрсатилган амалга ошириш шакли дастурланган кўп функцияли мосламадан фойдаланишни назарда тутганда унда қурилмадаги аниқ бириктирилган функцияни бажариши мумкинлигини тасдиқловчи маълумотлар берилади. Бундай маълумотлар сифатида алгоритм, хусусан, ҳисоблаш алгоритми келтирилганда уни кўпинча блоксхема ёки агар мумкин бўлса, тегишли математик ифода кўринишида берилади.

75. Усулга оид фойдали моделни тавсифлаш учун моддий объект устида бажариладиган ҳаракатлар кетма-кетлиги, шунингдек ҳаракатлар олиб бориладиган шарт-шароитлар, агар зарур бўлса, аниқ режимлар (ҳарорат, босим ва бошқалар) ишлатиладиган қурилмалар, моддалар, штаммлар кўрсатилади. Усул бирор устуворлик санасигача маълум бўлган воситалар – қурилма, модда ва штаммлардан фойдаланиш орқали тавсифланганда фойдали моделни амалга ошириш мумкин бўлган ҳолда ушбу воситаларни изоҳлаш етарлидир. Номаълум воситалардан фойдаланилганда уларнинг тавсифлари келтирилади, зарур ҳолларда график тасвирлар илова қилинади.

Усулда янги моддалардан фойдаланилганда уларни олиш усули очиб берилади.

76. Умумий тузилиш формуласи билан тавсифланган кимёвий бирикмалар гуруҳини олиш усулига оид фойдали моделлар учун шу усул билан гуруҳдаги бирикмаларни олиш мисоллари келтирилади. Гуруҳнинг кимёвий боғланиш табиати ҳар хил радикаллардан иборат бирикмаларни ўз ичига олганда ушбу бирикмаларни олишни тасдиқлаш учун етарли бўлган мисоллар келтирилади. Гуруҳга кирган бирикмаларни олиш учун маълум усуллар билан тасдиқланган тузилиш формулалари ва физик-кимёвий тавсифлари келтирилади. Тавсифда янги бирикмаларнинг вазифаси ва биологик фаол хусусиятлари ҳақида маълумотлар ҳам келтирилади.

Тузилиши аниқланмаган кимёвий бирикмаларни, таркиби ва тузилиши аниқланмаган аралашмаларни олиш усулига оид фойдали моделлар учун ушбу бирикма ёки аралашмани бошқалардан фарқлаш учун зарур бўлган маълумотлар келтирилади. Бирикма ёки аралашмаларни олиш учун бошланғич реагентлар ҳақида маълумотлар, шунингдек бирикма ёки аралашманинг талабнома берувчи томонидан кўрсатилган вазифасини амалга ошириш мумкинлигини тасдиқловчи маълумотлар, хусусан, бу вазифани келтириб чиқарувчи хусусиятлар келтирилади.

77. Инсон ёки ҳайвонлардаги касалликларни даволаш, ташҳис қўйиш ёки олдини олиш усулига оид фойдали моделлар учун касаллик этиопатогенезига таъсир кўрсатадиган аниқланган факторлар ёки этиопатогенез ва ташҳис кўрсаткичлари орасидаги боғланишни келтириб чиқарувчи факторлар ҳақида маълумотлар келтирилади. Бундай маълумотлар бўлмаганда усулнинг кўрсатилган ҳолат ёки касалликни даволаш, ташҳис ёки олдини олишга яроқлилигини тасдиқловчи ҳақиқий маълумотлар келтирилади.

78. Тузилиши аниқланган янги индивидуал кимёвий бирикмага оид фойдали модель учун маълум услублар билан исботланган тузилиш формуласи, физик-кимёвий константалар келтирилади ва янги бирикма биринчи марта олинган усул очиб берилади.

79. Ген инженерияси маҳсулотларига тааллуқли бўлган индивидуал бирикмалар учун кетма-кетликлар рўйхатидаги нуклеотидлар кетма-кетлигининг рақамига доир кўрсатма (нуклеин кислоталар фрагментларида) ёки табиий харита (рекомбинант нуклеин кислоталар ва векторлар ҳолатида), кетма-кетликлар рўйхатидаги аминокислоталар кетма-кетлигининг рақамига доир кўрсатма ҳамда ушбу бирикмани бошқаларидан фарқлаш учун зарур бўлган физик-кимёвий ва бошқа тавсифлар келтирилади. Янги бирикма биринчи марта олинган усул тавсифланади ва ушбу бирикмадан маълум вазифа бўйича фойдаланиш имконияти кўрсатилади.

Нуклеотидлар ёки аминокислоталар кетма-кетлигидан белгини тавсифлаш учун фойдаланилганда уларнинг кетма-кетликлари рўйхатидаги рақами “SEQ ID NO …” кўринишида эркин матнда тақдим этилади.

80. Биологик фаол бирикмага оид тавсифда фаоллик ва заҳарлилик миқдори тавсифларининг кўрсаткичлари, зарур бўлганда эса танлаб таъсир қилиш ва бошқа кўрсаткичлари келтирилади.

81. Фойдали модель инсонлар ёки ҳайвонлардаги маълум ҳолатлар ёки касалликларни даволаш, ташҳис қўйиш ёки профилактика қилиш воситасига оид бўлганда тавсифда унинг ишлатилиши натижасида касаллик этиопатогенезига кўрсатадиган таъсирини тушунтирадиган омиллар ҳақида маълумотлар келтирилади. Бундай маълумотлар бўлмаганда кўрсатилган касалликларни даволаш, ташҳис қўйиш ёки профилактика қилиш учун яроқлилигини тасдиқловчи маълумотлар келтирилади.

82. Фойдали модель тузилиши аниқланган кимёвий бирикмага тааллуқли бўлганда маълум бўлган услублар билан исботланган тузилиш формуласи, физик-кимёвий константалар келтирилади, бирикма олинган усул тавсифланади ва фойдали моделдан кўрсатиб ўтилган вазифаси бўйича фойдаланиш имконияти келтирилади.

83. Янги кимёвий бирикма микроорганизмлар штамми, ўсимлик ёки ҳайвон ҳужайралари турларидан (линиялари) фойдаланиш орқали олинганда ушбу штамм ва тур (линия) иштирокида янги кимёвий бирикмани олиш усули, штамм ва тур (линия) ҳақида маълумот, шунингдек штамм ва тур (линия) сақлаш учун топширилганлиги ҳақида маълумотнома тақдим этилади.

84. Фойдали модель оралиқ бирикмага оид бўлганда уни аввалдан маълум бўлган охирги маҳсулотга айлантириш учун қайта ишлаш имконияти ёки ундан аниқ вазифада ишлатиладиган ёки биологик фаол хусусиятга эга бўлган янги маҳсулот олиш мумкинлиги келтирилади.

85. Фойдали модель нуклеин кислоталар ёки оқсилларга тааллуқли бўлганда кетма-кетлик рўйхатидаги кетма-кетлик рақами (нуклеин кислоталар учун – нуклеотидлар, оқсиллар учун – аминокислоталар) ҳамда ушбу маҳсулотни бошқалардан фарқлашга имкон берадиган физик-кимёвий ва бошқа тавсифлар келтирилади. Бунда маҳсулот олинган усул баён қилинади ва ушбу маҳсулотдан белгиланган вазифа бўйича фойдаланиш имконияти кўрсатилади.

86. Фойдали модель композицияга (таркиблар, аралашмалар, қотишмалар, эритмалар ва бошқаларга) оид бўлганда композиция таркибига кирган ингредиентлар, уларнинг хусусиятлари ва миқдорий нисбатлари кўрсатилган мисоллар келтирилади. Бунда композицияни олиш усули тавсифланади. Композицияда бирор ингредиент сифатида янги модда қўлланилганда уни олиш усули ҳам тавсифланади.

Келтирилган мисолларда ҳар бир ингредиентнинг миқдори фойдали модель формуласида келтирилган чегараларда бўлган бирликларда берилади (фойдали модель формуласида ингредиентлар нисбати фоизларда ифодаланганда (масса ёки ҳажми бўйича) кўрсатилган барча ингредиентлар йиғиндиси 100 фоизга тенг бўлади).

87. Штаммга тааллуқли бўлган фойдали модель учун штаммнинг номенклатура маълумотлари ва келиб чиқиши, озуқа (экиладиган ва ферментацияланадиган) муҳитининг миқдорий ва сифат жиҳатидан таркиби, маданий етиштириш шароитлари (ҳарорат, pH, O_2 нинг солиштирма масса ўтказилиши, ёритилганлиги ва бошқалар), ферментация вақти, биосинтез тавсифи, фойдали (мақсадли) маҳсулот, маҳсулот чиқиши, штаммнинг фаоллик (маҳсулдорлик) даражаси ва уни аниқлаш (тестлаш) усуллари тўғрисида маълумотлар кўрсатилади. Мақсадли маҳсулотнинг (янги мақсадли маҳсулот продуцентлари, масалан, антибиотиклар, ферментлар, моноклонал антитаначалар ва бошқалар учун) ажратиб олиш ва тозалаш усули очиб берилади.

88. Микроорганизмлар консорциумлари, ўсимлик ва ҳайвон ҳужайралари учун қуйидаги маълумотлар кўрсатиб ўтилади:

компонентлар мавжудлигини текшириш усули;

ажратиб олиш (селекция) усули ва селекция олиб борилган белгилар;

узоқ муддат давомида етиштирилаётганда консорциумнинг барқарорлиги;

ўзга микроорганизмлар томонидан зарарланишга чидамлилиги.

89. Штамм, ўсимлик ёки ҳайвон ҳужайралари турларига (линиялари) ёхуд улар ишлатиладиган усулга тааллуқли фойдали моделни амалга ошириш имконияти штамм ёки турни (линия) олиш усулини тавсифлаш билан тасдиқланганда, агар штаммни олиш усулининг тавсифи етарли бўлмаса, штамм ёки турнинг (линия) сақлаш учун топширилганлиги (депозитарий номи ва объектни рўйхатдан ўтказиш рақами) тўғрисидаги маълумотлар тақдим этилади.

Бунда сақлаш учун топшириш санаси фойдали модель устуворлиги санасигача бўлиши керак.

90. Штамм, ўсимлик ёки ҳайвон ҳужайралари тури (линия) ёки консорциум объекти энг камида патент амал қилиши муддати ичида ҳаётийлигини таъминлашни кафолатлайдиган халқаро депозитарийга ёки миллий депозитарийга жойлаштирилганда патентлаш жараёни учун сақлаш учун топшириш амалга оширилган деб ҳисобланади.

91. Нуклеотидлар ва аминокислоталар кетма-кетлиги рўйхати тўртта ва ундан кўп аминокислоталардан иборат ёки ўнта ва ундан кўп нуклеотидлардан иборат тармоқланмаган бўлса, тавсифнинг “Фойдали модель моҳияти” бўлимида ушбу кетма-кетликлар батафсил очиб берилади. Бунда ҳар бир кетма-кетликка алоҳида рақам берилади. Кетма-кетликлар рақамлари бирдан бошланиши ва тартиб билан бутун сонга ошиб бориши керак.

Нуклеотидлар ва аминокислоталар кетма-кетлиги рўйхатидаги ҳар бир кетма-кетликнинг рақами фойдали модель тавсифи, формуласи ёки график тасвирларда кўрсатилган унинг рақамига мувофиқ бўлиши керак.

92. Нуклеотидлар ва аминокислоталар кетма-кетлиги ҳеч бўлмаганда қуйидагиларнинг бири ёрдамида тақдим этилиши керак:

фақат нуклеотидлар кетма-кетлиги билан;

фақат аминокислоталар кетма-кетлиги билан;

нуклеотидлар кетма-кетлигининг тегишли аминокислоталар кетма-кетлиги билан.

Мазкур банднинг тўртинчи хатбошисида назарда тутилган ҳолатда аминокислоталар кетма-кетлиги алоҳида рақамга эга бўлган аминокислоталарнинг алоҳида кетма-кетлиги сифатида тақдим этилиши керак. Нуклеотидлар ва аминокислоталар кетма-кетлигининг рўйхати ўзи билан фойдали модель

тавсифининг бевосита таркибий қисмини намоён қилганлиги боис мазкур кетма-кетликлар тавсифнинг бирон-бир жойида батафсил келтирилмайди.

Нуклеотидлар ва аминокислоталар кетма-кетлиги рўйхати ўзининг баён қисмида эркин матн – нейтрал тил лексикаси фойдаланилмаган кетма-кетликлар тавсифини баён қилувчи жумлаларни ўз ичига олганда ушбу эркин матн фойдали модель тавсифининг кетма-кетликлар рўйхатидаги кетма-кетлик рақамини айнан ўша кўринишда ўз ичига олган бошқа бўлимларида такрорланиши керак.

93. Аввалдан маълум бўлган қурилма, усул, модда, штамм ва ҳужайралар турини (линияси) янги вазифада қўлланилишига тааллуқли фойдали модель учун ушбу вазифани амалга ошириш имкониятларини тасдиқловчи маълумотлар келтирилади.

94. Фойдали моделнинг формуласи тавсиф ва чизмаларга тўлиқ асосланган бўлиши керак, яъни фойдали моделни унинг тавсифида мавжуд бўлган ва чизмаларда кўрсатилган тушунчалар билан таърифланади.

95. Фойдали моделнинг формуласи унинг моҳиятини ифодалаши керак, яъни талабнома берувчи томонидан кўрсатилган техник натижага эришиш учун етарли даражада фойдали моделнинг муҳим белгилари мажмуини ўз ичига олади.

96. Фойдали модель белгиларининг фойдали модель формуласида ифода этилиши уларни идентификация қилиши, яъни маълум бўлган техника тараққиёти даражаси асосида уларнинг маъноси ва мазмуни мутахассислар томонидан бир хил маънода тушунилиши имкониятини таъминлаши керак.

97. Фойдали модель формуласидаги белги таърифини ахборот манбаига ҳавола қилиш билан алмаштириш мумкин эмас. Агар белгини тавсиф ёки чизмаларга ҳавола қилмасдан таърифлашнинг иложи бўлмаса, мазкур Қоидаларнинг 96-бандига асосан белги таърифи бундай ҳавола қилиш билан алмаштирилиши мумкин.

98. Нуклеотидлар ва аминокислоталарнинг кетма-кетлигидан фойдали модель формуласидаги белгини тавсифлаш учун фойдаланилганда кетма-кетликлар рўйхатидаги унинг рақами “SEQ ID NO...” кўринишида келтирилади.

99. Фойдали модель формуласи умумий тушунчадаги белгилар билан таърифланганда ушбу белгилар доирасидаги аниқ ҳолларда кўрсатилган техник натижани берганда фойдали моделнинг белгиси умумий тушунчалар билан тавсифланиши мумкин.

Кўрсатилган муқобилидан танлаб олинган ҳар бир белги фойдали моделнинг бошқа белгилари билан биргаликда бир хил техник натижани олишни таъминлаганда белги муқобил тушунчалар кўринишида ифода этилиши мумкин.

100. Фойдали моделнинг формуласи бир звеноли ва кўп звеноли бўлиши ҳамда тегишлича бир ёки бир неча бандларни ўз ичига олиши мумкин.

101. Бир звеноли формула фойдали моделнинг тайёрланиши ёки ундан фойдаланишнинг аниқ ҳолларида ривожлантиришлар ва аниқлаштиришларга эга бўлмаган муҳим белгилар мажмуи билан битта фойдали моделни тавсифлаш учун қўлланилади.

102. Фойдали моделнинг кўп звеноли формуласи фойдали моделнинг тайёрланиши ва ундан фойдаланишнинг аниқ ҳолатларида ривожлантиришлар ҳамда аниқлаштиришларга эга бўлган муҳим белгилар мажмуи билан битта фойдали моделни ёки фойдали моделлар гуруҳини тавсифлаш учун қўлланилади.

Битта фойдали моделни тавсифловчи кўп звеноли формула битта мустақил бандга ва ундан кейин келувчи унга боғлиқ бандларга эга бўлади.

Фойдали моделлар гуруҳини тавсифловчи кўп звеноли формула бир неча мустақил бандларга эга бўлиб, улардан ҳар бири гуруҳнинг фойдали моделларидан бирини тавсифлайди. Гуруҳнинг ҳар бир фойдали модели тегишли мустақил бандга бўйсунувчи боғлиқ бандларни жалб этиш билан тавсифланган бўлиши мумкин.

Кўп звеноли формула бандлари бирдан бошлаб уларни баён этиш тартибида кетма-кет араб рақамлари билан рақамланади.

103. Фойдали моделлар гуруҳини тавсифловчи формулани баён этишда қуйидаги қоидаларга амал қилинади:

алоҳида фойдали моделларни тавсифловчи мустақил бандларда формуланинг бошқа бандларига ҳавола қилинмайди, агар бандга ҳавола қилинса, ҳавола қилинаётган банднинг мазмуни тўлиқ такрорланмасдан баён этилади;

боғлиқ бандлар ўзлари бўйсунган мустақил бандлар билан бирга гуруҳларга бирлаштирилади, шу жумладан гуруҳдаги турли фойдали моделларни таърифлаш учун бир хил мазмундаги боғлиқ бандлар киритилади.

104. Формуланинг банди, қоида тариқасида, энг яқин аналогнинг белгилари билан мос келувчи, шу жумладан, фойдали моделнинг вазифасини кўрсатувчи умумлаштирувчи тушунчани ўз ичига оладиган муҳим белгиларга эга бўлган чекловчи қисмдан ва фойдали моделни энг яқин аналогидан фарқлайдиган муҳим белгиларни ўз ичига оладиган фарқловчи қисмдан иборат.

Формула банди чекловчи ва фарқловчи қисмларга бўлиб тузилганида чекловчи қисм баён этилганидан сўнг “шу билан фарқланадики” сўз бирикмаси киритилади ва бундан кейин бевосита фарқловчи қисм баён этилади.

105. Қуйидаги ҳолатларда фойдали модель формуласи банди чекловчи ва фарқловчи қисмларга бўлинмасдан тузилади:

кимёвий бирикма;

микроорганизм штамми, ўсимлик ва ҳайвон ҳужайралари тури (линияси);

аввал маълум бўлган қурилма, усул, модда, штаммни янги мақсадда қўлланилиши;

аналогларга эга бўлмаган фойдали модель.

106. Формуланинг банди битта жумла кўринишида баён этилади.

107. Фойдали модель формуласининг мустақил банди фақат битта фойдали моделга тааллуқли бўлади ва битта жумла кўринишида баён этилади. Фойдали моделлар – вариантлар фақат муқобил кўринишда ифодаланган белгилар билан фарқланганда формуланинг битта мустақил бандида бир қанча фойдали моделларни – вариантларни тавсифлашга йўл қўйилади.

Формуланинг мустақил бандида муқобил кўринишда фақат функционал мустақил бўлмаган (яъни қурилманинг бўғими ёки детали, усул операцияси, усулда қўлланиладиган модда, материал, мослама, композиция ингредиенти ҳисобланмаган) белгилар ифодаланганда бундай мустақил банд фақат битта фойдали моделга тааллуқли деб ҳисобланади.

108. Формуланинг мустақил банди ундаги мавжуд белгилар мажмуи турли объектларга ёки ҳар бири ўз вазифасига эга бўлган воситалар мажмуига оид бўлган фойдали моделларнинг тавсифини умумий вазифадаги воситаларнинг кўрсатилган мажмуини амалга оширилмаган ҳолда таърифини ўз ичига олганда, бир фойдали моделга тааллуқли деб эътироф этилмайди.

109. Фойдали моделнинг боғлиқ банди мустақил бандда келтирилган фойдали моделни фақат уни бажариш ёки фойдаланишнинг аниқ ҳолатларида тавсифлайдиган белгилар билан фойдали модель белгилари мажмуининг ривожланиши ва аниқланишини ўз ичига олади.

110. Фойдали моделнинг формуласидаги боғлиқ банднинг чекловчи қисми у боғлиқ бўлган мустақил банднинг қўлланилишини акс эттирувчи умумлашган тушунчага нисбатан қисқартирилган шакл билан мустақил ва боғлиқ бандга тегишлилиги бўйича ҳавола қилинади.

Боғлиқ банд формуланинг бир неча бандларига бўйсунганда уларга ҳавола қилиш муқобилидан фойдаланилган ҳолда кўрсатилади, сўнг фойдали моделнинг бажарилиши ёки ундан фойдаланишнинг аниқ ҳолатларида фойдали моделни тавсифловчи белгилар келтирилади.

111. Фойдали моделни тавсифлаш учун унинг бажарилиши ёки фойдаланилишининг аниқ ҳолатларида боғлиқ банднинг белгилари билан бир қаторда мустақил банднинг белгилари ва бу боғлиқ банднинг мустақил бандга бўйсунишидан фойдаланилади.

Фойдали моделни тавсифлаш учун формуланинг бошқа бир ёки бир неча боғлиқ бандларининг белгилари зарур бўлганда шу боғлиқ банднинг мустақил бандга тегишли боғлиқ бандлари орқали бўйсунишидан фойдаланилади. Бунда ушбу боғлиқ бандда у бевосита бўйсунган боғлиқ бандгагина ҳаволалар келтирилади.

112. Фойдали модель формуласининг боғлиқ банди формуланинг ўзи бўйсунган ўша бандининг белгиларини алмаштирадиган ёки чиқариб ташлайдиган ҳолда баён этилмаслиги керак.

Фойдали модель формуласининг боғлиқ банди мустақил банднинг белгилари алмаштирилган ёки чиқариб ташланган ҳолда шакллантирилганда, ушбу боғлиқ банд ўзи буйсунган мустақил банд билан бирга битта фойдали моделни тавсифлайди деб эътироф этилиши мумкин эмас.

113. Қурилма белгилари статик ҳолатда тавсифланади. Қурилманинг конструктив элементи бажарилишини тавсифлашда унинг ҳаракатланувчанлиги у томонидан маълум бир функция (айланиш имконияти, силжиш имконияти) ва бошқаларни амалга ошириш имкониятини кўрсатишга йўл қўйилади.

Талабнома чизмаларни ўз ичига олганда формулада эслатиб ўтилган ва эквивалент конструктив элементларни ифодалайдиган белгилар уларга тааллуқли бўлган ҳаволаки белгилар билан бирга берилиши мумкин. Ҳаволаки белгилар сўралаётган ҳуқуқий муҳофаза ҳажмига таъсир этмайди ва фақат формулани тўлиқроқ ва аниқроқ тушуниш мақсадларида келтирилади.

114. Усул белгиси сифатида ҳаракатни (усул, операция) тавсифлашда феъллардан фойдаланилганда улар аниқлик нисбатида, аниқлик майлида, учинчи шахсда баён қилинади (қиздирилади, намланади, куйдирилади ва бошқалар).

115. Келиб чиқиш тузилмаси аниқ бўлган кимёвий бирикмани тавсифловчи фойдали модель формуласига бирикманинг номланиши ёки белгиланиши киритилади. Ген инженерия маҳсулотларига тааллуқли бирикмалар учун фойдали модель формуласига кетма-кетликлар рўйхатидаги нуклеотидлар кетма-кетлиги (нуклеин кислоталар фрагменти ҳолатида) рақамига кўрсатма ва табиий хаританинг (рекомбинант нуклеин кислоталар ва векторлар ҳолатида) сўзли тавсифи, кетма-кетликлар рўйхатидаги аминокислоталар кетма-кетлиги рақамига кўрсатма ҳамда физик-кимёвий ва ушбу бирикмани бошқалардан фарқлаш учун зарур бўлган бошқа тавсифлар киритилади. Тузилмаси аниқланмаган бирикмалар учун фойдали модель формуласига номланиши, физик-кимёвий ва ушбу бирикмани фарқлаш учун зарур бўлган бошқа тавсифлар, масалан уни олиш усулининг белгилари киритилади.

116. Композицияни тавсифлайдиган фойдали модель формуласига композицияга кирадиган ингредиентлар ва зарур бўлганда ингредиентларнинг миқдорий қийматларига тегишли белгилари киритилади.

Композицияни тавсифлайдиган формулага ингредиентларнинг миқдорини кўрсатадиган белгилар киритилганда улар бир хил бирликларда, одатда иккита қийматларда, энг кўп ва энг кам (қуйи ва юқори) миқдорларда ифодаланади.

Композиция элементлари биттасининг миқдори битта қиймат орқали, бошқалари эса унинг қийматига нисбатан интервал кўринишида берилиши мумкин (масалан, ингредиентлар миқдори композиция асосий ингредиентининг 100 масса қисмига ёки 1 литр эритмага нисбатан келтирилади).

Композиция таркибидаги антибиотиклар, ферментлар, анатоксинлар ва бошқалар миқдори композициянинг бошқа компонентлари бирликларидан ўзгача бирликларда кўрсатилиши мумкин (масалан, бошқа компонентлар масса сонига нисбатан минг бирликларда).

117. Композицияга оид фойдали модель қўшимча ингредиент киритиш билан тавсифланганда формуланинг фарқловчи белгиси “қўшимча равишда ўз ичига олади” деган иборани қўллаган ҳолда тузилади.

Вазифаси янги фаол компонент билан белгиланадиган бошқа компонентлар анъанавий қўлланиладиган нейтрал қисмлар бўлганда формулада шу фаол компонентни ва унинг миқдорини “самарали миқдор” кўринишида келтириш мумкин.

Бундай композицияларни тавсифлайдиган яна бир вариант ундаги фаол компонентдан ташқари бошқа компонентларни (нейтрал қисмларни) умумлаштирма тушунча “мақсадли қўшимчалар” кўринишида ифодаланади. Бунда фаол компонентлар ва мақсадли қўшимчаларнинг миқдорий нисбатлари кўрсатилади.

118. Фойдали модель белгиси сифатида мураккаб таркибли маълум модда кўрсатилганда шу модданинг функциясини ва хусусиятини кўрсатиб махсус номини келтириш мумкин. Бунда фойдали модель тавсифида шу модда тавсифланадиган адабиёт кўрсатилади.

119. Микроорганизм штамми, ўсимлик ва ҳайвон ҳужайралари турларини (линиялари) тавсифлайдиган формула депозитарийнинг бош ҳарфлари, сақлаш учун топширилган объектга берилган рўйхат рақами ва штамм вазифаси кўрсатилган ҳолда биологик объектнинг оила туркумлари ва турларига оид лотин тилидаги номини ўз ичига олади.

120. Фойдали модель аввалдан маълум бўлган фойдали моделни янги мақсадда қўллашга оид бўлганда қуйидаги тузилишдаги формула ишлатилади: “(аввал маълум бўлган фойдали модель номи ёки тавсифи келтирилади) (кўрсатилган фойдали моделнинг янги вазифаси келтирилади) сифатида ишлатилиши”.

121. Фойдали модель моҳиятини тушунтирадиган материаллар график тасвир (чизма, схема, графика, эпюра, расм, осцилограмма кабилар) ва жадвал кўринишида бажарилиши мумкин.

Фойдали моделни чизмалар ёки схемалар билан очиб беришнинг иложи бўлмаганда тасвирлар топширилади. Фотосуратлар тасвирларга қўшимча сифатида топширилиши мумкин.

122. Реферат фойдали модель тавсифининг қисқартирилган баёни бўлиб, фойдали модель ҳақида маълумот олиш учун хизмат қилади. Унда фойдали модель номи, фойдаланиш соҳаси, қуйилган вазифа, фойдали модель моҳиятининг тавсифи келтирилади.

Рефератдаги фойдали модель моҳияти мустақил банднинг барча муҳим белгиларини сақлаб қолган ҳолда фойдали модель формуласини эркин тарзда баён этиш орқали таърифланади.

Зарур ҳолларда фойдали модель рефератига чизма ёки кимёвий формула киритилиши мумкин. Рефератга киритилаётган чизмалар билан тавсифга илова қилинадиган чизмалар бир-бирига мос келишидан қатъий назар алоҳида саҳифада берилади.

123. Рефератда қўшимча маълумотлар, хусусан, боғлиқ бандлар, график тасвирлар, жадваллар мавжудлиги ва сони кўрсатилиши мумкин.

124. Реферат матнининг ҳажми 1000 та белгидан ошмаслиги керак.

125. Талабномага одоб-аҳлоқ ва ижтимоий тартибга зид иборалар, чизмалар, расмлар, фотосуратлар ва бошқа материаллар; ўзга шахсларнинг маҳсулотлари ёки технологик жараёнларига, шунингдек талабномалари ва муҳофаза ҳужжатларига нисбатан баён қилинган камситувчи фикрлар; фойдали моделга очиқдан-очиқ тааллуқли бўлмаган ёхуд талабнома материалларини мазкур Қоидаларнинг талабларига мувофиқ деб эътироф этиш учун зарур бўлмаган маълумотлар ва фикрлар киритилмайди.

“Техника даражаси” бўлимида маълум маҳсулот ёки усулни таърифлашда унинг камчилигини кўрсатиш йўл қўйиб бўлмайдиган элемент деб ҳисобланмайди.

126. Фойдали моделнинг формуласи, тавсифи, тушунтириб берувчи материаллари ва рефератида стандартлаштирилган атамалар ва қисқартмалар, улар мавжуд бўлмаганда эса илмий-техникавий адабиётда умумқабул қилинган атама ва қисқартмалар қўлланилади.

Илмий-техникавий адабиётда кенг қўлланилмайдиган атама ва қисқартмалар ишлатилганда уларнинг маъноси матнда биринчи марта қўлланилганда изоҳлаб берилади.

Тавсиф ва формулада атамаларнинг ягоналигига риоя қилинади. Ушбу талаб физикавий бирликлар ва фойдаланиладиган шартли белгиларга ҳам тааллуқлидир.

Физикавий миқдорлар имкон қадар амалдаги Халқаро бирликлар тизими бирликлари билан ифода этилади.

127. Барча ҳужжатлар бевосита репродукция қилиниб, чекланмаган миқдорда нусха кўчириш имконияти бўлган тарзда расмийлаштирилади.

128. Талабноманинг ҳар бир ҳужжати алоҳида саҳифадан бошланади. Ҳужжатлар қора рангли матнда А4 форматда тақдим этилади.

129. Талабноманинг ҳар бир ҳужжати бир-бирига боғлиқ бўлмаган бирдан бошланадиган рақамга эга бўлади. Саҳифаларнинг рақамлари иккинчи саҳифадан бошлаб араб рақамлари билан қўйилади.

130. Ҳужжатда график белги, лотинча ном, лотин ва юнонча ҳарф, математик ва кимёвий формула ҳамда символлар ёзилиши мумкин.

131. Кимёвий бирикманинг тузилиш формуласи одатда алоҳида фигура сифатида (график материаллар каби) рақамланиб, изоҳли белгилар кўрсатилган ҳолда алоҳида саҳифада берилади.

Кимёвий тузилиш формуласини ёзишда умумий қўлланишдаги белгилар ишлатилади, элементлар ва радикаллар ўртасидаги боғланиш аниқ кўрсатилади.

Нуклеотидлар ва аминокислоталар кетма-кетлиги рўйхатини БИМТнинг тегишли стандартига мувофиқ расмийлаштириш керак.

132. Фойдали моделнинг тавсифи, формуласи ва рефератида математик формулалар мавжуд бўлганда барча ҳарфли белгиларга формулада қўлланилган тартиб бўйича изоҳ берилади.

Математик белгилар математик формулаларда қўлланилади, матнда эса улар сўзлар билан ёзилади.

133. График тасвирлар (чизмалар, схемалар, графиклар, расмлар кабилар) чизмачилик асбоблари ёрдамида ёки махсус график чизмалар чизиш дастурларида аниқ чизиқлар ва штрихлар билан бажарилади, бунда бўяшга йўл қўйилмайди.

Объектнинг моҳиятини қўшимча тушунтириш учун талабнома берувчи рақамли уч ўлчовли моделни тақдим этиш ҳуқуқига эга.

Рақамли уч ўлчовли модель – объектнинг сиртини (қурилма, қурилма деталлари, структуравий кимёвий формулалар ва бошқалар) уч ўлчовда геометрик тасвирлаш учун махсус дастурий таъминот ёрдамида тайёрланган, объектни умумий тасаввур қилиш учун ишлатиладиган электрон файл бўлиб, унинг барча элементларининг жойлашуви ва боғлиқлигини кўрсатади.

Электрон шаклда тақдим этилган рақамли уч ўлчовли модель мазмунан қоғозда топширилган талабномага мос келиши керак. Истисно тариқасида талабнома фақат электрон шаклда тақдим этиладиганда рақамли уч ўлчовли модель бўлиши мумкин.

Рақамли уч ўлчовли модел махсус дастурий таъминот ёрдамида тайёрланиб, 3D PDF форматида қайта сақланган электрон файл кўринишида топширилади.

3D PDF форматидаги файлнинг максимал ҳажми 50 МБ дан ошмаслиги керак.

134. Тасвирларнинг масштаби ва аниқлиги репродукция қилиш пайтида ўлчамлар 2/3 гача чизиқли кичрайтирилганда ҳамма деталларни фарқлаб, аниқлаш мумкин бўладиган тарзда танланади.

135. Ҳар бир график тасвир араб рақамлари ва “фигура” сўзи билан (1-фигура, 2-фигура ва бошқалар), уларнинг тавсиф матнида келтирилиши кетма-кетлигига мувофиқ алоҳида рақамланади. График тасвир битта фигура билан тавсифланганда у рақамланмайди.

136. Икки ва ундан ортиқ саҳифаларда жойлашган фигуралар битта фигуранинг бўлакларини ташкил этганда, ҳар хил саҳифаларда тасвирланган фигуралардан бирортаси тушириб қолдирилмай бирлаштириш мумкин бўлган ҳолда жойлаштирилади.

137. Чизмалар мазкур Қоидаларнинг 134, 135, 140 ва 141-бандлари ва техник чизмаларни тайёрлаш қоидаларига мувофиқ бажарилади.

138. Чизмадаги ҳар бир элемент бошқа элементларга нисбатан пропорционал ҳолда бажарилади, бундан элементни аниқ тасвирлаш учун пропорцияларнинг бир-биридан фарқланиши зарур бўлган ҳоллар мустасно.

139. Чизмалар ёзувларсиз бажарилади, бундан “сув”, “буғ”, “очиқ”, “ёпиқ”, “А-А” (кесимни кўрсатиш учун) каби тушуниш учун ўта зарур бўлган алоҳида ёки бир нечта сўзлар мустасно.

140. Чизмаларда ўлчамлар кўрсатилмайди, зарур бўлган ҳолларда улар тавсифда келтирилади.

141. Чизмаларда тасвирланган элементлар фойдали моделнинг тавсифига мувофиқ араб рақамлари билан белгиланади.

Бир неча фигураларда келтирилган бир элемент бир хил рақам билан белгиланади. Тавсифда келтирилмаган элемент чизмага киритилмайди.

142. График тасвир схема шаклида келтирилганда уни бажаришда стандартлаштирилган шартли график белгилар қўлланилади.

143. Схема тўғри бурчаклар кўринишида элементларнинг график белгиланиши сифатида тақдим этилганда, бевосита тўғри бурчакка рақамли белгидан ташқари элементнинг номи келтирилади.

144. Чизмалар, схемалар, тасвирлар фойдали модель тавсифи ва формуласида келтирилмайди.

145. Ахборот манбаларининг библиография маълумотлари улар бўйича ахборот манбаини топиш мумкин бўлган ҳолда кўрсатилади.

146. Вакил орқали топширилган талабномага унга талабнома берувчи томонидан берилган ва унинг ваколатларини тасдиқлайдиган ишончнома илова қилинади. Ишончнома оддий ёзма шаклда расмийлаштирилади.

Ишончнома талабнома билан бир вақтнинг ўзида ёки талабнома топширилган санадан икки ойдан кечиктирилмай тақдим этилади.

4-боб. Ҳужжатларни топшириш

147. Талабнома ваколатли органнинг махсус ахборот тизими (бундан буён матнда ахборот тизими деб юритилади) орқали топширилади.

Талабнома ваколатли органга почта алоқаси орқали ҳам топширилиши мумкин. Бунда талабнома ваколатли орган томонидан шу куннинг ўзида ахборот тизимига киритилади.

148. Талабнома топширилгандан кейинги босқичлардаги барча ҳаракатлар ахборот тизими орқали амалга оширилади.

149. Аризани ахборот тизими орқали топширишда ариза шакли тўлдирилганидан сўнг талабнома берувчи маълумотларнинг тўғрилигини текшириб, аризани тасдиқлайди.

Юридик шахс номидан ариза ташкилот раҳбари ёки бошқа ваколатли шахс томонидан тасдиқланади.

Аризани почта алоқаси орқали топширишда у имзолаш йўли билан тасдиқланади. Бунда тегишли маълумотлар қўшимча варақларда келтирилганда уларнинг ҳар бири имзоланади.

150. Талабномани топширишда Ўзбекистон Республикасининг “Давлат божи тўғрисида”ги Қонунида назарда тутилган миқдорда патент божи тўланади ва қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда тақсимланади.

151. Патент божи тўлови ягона биллинг тизими орқали электрон шаклда амалга оширилади.

152. Талабнома берувчи томонидан аризани тасдиқлашнинг рад этилиши, шунингдек талабномани топшириш учун патент божини тўламаслик талабномани топширишни рад этиш учун асос бўлиб ҳисобланади.

Талабномани қабул қилишни бошқа асослар бўйича рад этиш тақиқланади.

153. Ваколатли орган талабномани қабул қилиб, рўйхатга олгандан сўнг талабнома берувчига талабноманинг қайд рақами, келиб тушган санаси кўрсатилган хабарномани тегишли равишда ахборот тизими орқали автоматик тарзда ёхуд почта алоқаси бўйича юборади.

5-боб. Талабнома бўйича ишларни олиб бориш

154. Талабнома топширилгандан кейин юбориладиган материалларда талабнома рақами кўрсатилиши шарт. Талабнома рақами кўрсатилмаган материаллар кўриб чиқилмайди.

155. Талабларга жавоб бермайдиган материаллар топширилганда Марказ томонидан тузатилган ва етишмаган материалларни тақдим этиш тўғрисида сўровнома талабнома берувчига юборилади.

156. Қонуннинг 20-моддасига кўра талабнома берувчи талабнома топширилган санадан эътиборан икки ой мобайнида талабномада кўрсатилган фойдали моделнинг моҳиятини ўзгартирмаган ҳолда унга тузатишлар, аниқликлар ва қўшимчалар (бундан буён матнда тузатишлар деб юритилади) киритиш ҳуқуқига эга.

157. Талабнома бўйича тузатишлар, аниқликлар ёки қўшимча материаллар патент божи тўланган тақдирда, мазкур Қоидаларнинг 156-бандида кўрсатилган муддат ўтганидан кейин, лекин Марказ патент бериш ҳақида қарор қабул қилгунига қадар тақдим этилиши мумкин.

158. Патент божи тўланмаганда тегишли ҳаракатлар амалга оширилмайди ва бу ҳақида талабнома берувчига хабар берилади. Тўланган патент божи белгиланган миқдорга мос бўлмаганда талабнома берувчи Марказ томонидан божнинг етишмаган қисмини тўлаш ҳақидаги хабарнома юборилган санадан эътиборан уч ой ичида керакли суммани тўлаши керак.

159. Талабнома материалларига мазкур Қоидаларнинг 164-бандида назарда тутилган ўзгартиришлардан бошқа тузатишлар киритиш талабнома берувчи томонидан мазкур Қоидаларга 2-иловага мувофиқ ариза бериш йўли билан амалга оширилади.

160. Талабнома материалларидаги яққол кўриниб турган ва техник хатолар фойдали модель рўйхатдан ўтказилгунга қадар тўғриланиши мумкин. Таклиф қилинган тузатишдан бошқача бўлиши мумкин эмаслиги соҳа мутахассиси учун умумий билимлардан маълум бўлганда тузатиш яққол кўриниб турган деб ҳисобланади.

161. Тузатишлар имловий хатога, библиография маълумотларини кўрсатишдаги хатоликка ва бошқа шу каби хатоларга оид бўлганда тузатиш

киритиш зарурлиги алмаштириладиган саҳифаларни тақдим этмасдан талабнома берувчининг хатида баён қилиниши мумкин.

162. Мазкур Қоидаларнинг 24-бандига мувофиқ нуклеотидлар ва аминокислоталар кетма-кетлиги рўйхати ўзгартирилганда рўйхат (.pdf ва .docx форматларда) қайтадан тақдим этилади.

163. Ушбу Қоидалар талабларига риоя қилинмаганда талабнома берувчи тақдим этилган талабнома материалларига тузатишлар киритиш лозимлиги ёки тегишли сабабларни кўрсатиб талабнома материалларига тузатиш киритиш мумкин эмаслиги ҳақида ушбу камчиликлар аниқланган кундан бошлаб ўн кун муддат ичида хабардор қилинади.

164. Талабнома материалларига талабнома берувчини ўзгартириш тўғрисидаги ёзувларни киритиш талабнома берувчи томонидан ариза топшириш йўли билан амалга оширилади. Аризада ҳуқуқ ўзга шахсга ўтказилиши кўрсатилишида мазкур Қоидаларнинг 27 ва 30-бандларида кўрсатилган маълумотлар бўлиши керак.

Ушбу ариза билан бирга ҳуқуқни топширувчи ва ҳуқуқни қабул қилиб олувчи томонидан имзоланган ҳуқуқ ўтказилганлигини тасдиқловчи далолатнома мазкур Қоидаларнинг 3-иловасига мувофиқ шаклда тақдим қилинади.

Ушбу Қоидалар талабларига риоя қилинганда талабнома берувчига талабнома материалларига талабнома берувчининг ўзгартирилганлиги тўғрисида қайд киритилганлиги ҳақида ушбу қайд киритилган кундан бошлаб ўн кун муддат ичида хабар берилади. Кейинги барча ёзишмалар янги талабнома берувчи билан олиб борилади.

Талабнома берувчига талабнома материалларига ўзгартириш киритилганлиги тўғрисидаги хабарнома юборилган сана ҳуқуқ янги талабнома берувчига ўтган сана деб ҳисобланади.

Ушбу Қоидалар талабларига риоя қилинмаганда талабнома берувчи ва ҳуқуқни қабул қилиб олувчига тақдим этилган ҳужжатларга тузатишлар киритиш зарурлиги ёки талабнома материалларига талабнома берувчини ўзгартириш ҳақидаги қайдни киритиш мумкин эмаслиги тўғрисида тегишли сабаблар кўрсатилган ҳолда хабарнома ўн кун муддат ичида юборилади.

165. Патент олиш ҳуқуқи бошқа шахсга ўтказилиши натижасида талабнома берувчини ўзгартириш ёки талабнома берувчининг номини (исмини) ўзгартириш фойдали модель давлат рўйхатидан ўтказилгунга қадар амалга оширилиши мумкин.

166. Фойдали модель бирлиги талаби бузилганда топширилган талабнома талабнома берувчининг илтимосига асосан икки ёки бир неча талабномаларга

ажратилиши мумкин (бундан буён матнда ажратилган алоҳида талабнома деб юритилади).

Ажратилган алоҳида талабномалар бўйича биринчи талабноманинг топшириш санаси, фойдали моделга топширилаётган талабноманинг устуворлик санаси ёки биринчи талабнома бўйича олдинроқ устуворликни белгилаш ҳуқуқи мавжуд бўлганда ушбу устуворлик сақлаб қолинади.

Илтимоснома эркин шаклда топширилади ва мазкур Қоидаларнинг 3-бобига мувофиқ расмийлаштирилган материаллар илова қилинади ва белгиланган миқдорда патент божи тўланади.

Мазкур банд талабларига риоя қилинганда талабномани ажратиш тўғрисидаги илтимоснома қаноатлантирилади ва талабнома берувчи бу ҳақида илтимоснома қаноатлантирилган кундан бошлаб ўн кун муддат ичида хабардор қилинади.

167. Талабнома билан боғлиқ саволларни талабнома берувчи иштирокида кўриб чиқиш, қоида тариқасида, талабнома материаллари бўйича экспертиза томонидан қўшимча тушунтиришлар олиш зарурати пайдо бўлган ҳолатда ҳамда фойдали моделнинг патентга лаёқатлилик шартларига мувофиқлиги тўғрисида экспертизанинг ва талабнома берувчининг позициясини аниқлаш учун ўтказилади.

168. Саволларни талабнома берувчи иштирокида кўриб чиқиш томонлар саволлар билан танишиб чиққандан сўнг Марказ таклифига ёки талабнома берувчининг эркин шаклдаги илтимосномасига биноан ўтказилади. Экспертизанинг саволлари қўшимча равишда учрашувнинг мақсадга мувофиқлиги хабар қилинган сўровномада, талабнома берувчининг саволлари эса бундай кўриб чиқишни ўтказиш ҳақидаги илтимосномада баён этилади.

Сўровнома юборилганда талабнома берувчи талабномани кўриб чиқишда қатнашиш ниятидан қатъий назар сўровномага белгиланган муддатда жавоб бериши шарт.

169. Талабнома берувчи иштирокида талабномани кўриб чиқиш санаси ва вақти олдиндан келишиб олинади.

170. Талабнома берувчи иштирокида талабномани кўриб чиқиш музокаралар йўли билан ёки эксперт кенгашида амалга оширилади.

Саволлар бевосита экспертиза ва талабнома берувчи томонидан ҳал қилиниши мумкин бўлганда улар ўртасида музокаралар олиб борилади. Музокаралар Марказнинг тегишли таркибий бўлинмаси раҳбари ёки Марказ раҳбари тайинлаган масъул ходим иштирокида ўтказилади.

Саволларни ҳал қилиш учун мутахассислар иштироки талаб қилинганда эксперт кенгаши ўтказилади.

171. Музокаралар ёки эксперт кенгаши натижалари бўйича икки нусхада баённома тузилади ва унда қатнашчилар, томонлар келтирган далил ва таклифлар ҳақидаги маълумотлар ҳамда кейинги иш юритиш ҳақида хулосалар келтирилади.

Саволларни кўриб чиқишда қатнашувчиларнинг барчаси баённомани имзолайди. Баённоманинг бир нусхаси талабнома материалларига қўшиб қўйилади, иккинчиси талабнома берувчига топширилади.

172. Муҳокама қилинаётган масалалар бўйича бир хулосага келинмаганда кўриб чиқишда қатнашувчиларнинг алоҳида фикрлари баённомада қайд этилади. Баённома нусхасининг талабнома берувчига топширилиши иш юритиш тўхтатилганлиги тўғрисидаги хабарноманинг (талабнома чақириб олинганда) ёки сўровноманинг ўрнини босиши мумкин (жавоб беришнинг белгиланган муддатлари бузилмаганда) ва бу ҳолат баённомада тегишли ёзув билан расмийлаштирилади.

173. Талабнома берувчи талабномани чақириб олиш ҳуқуқига эга.

Талабномани чақириб олиш тўғрисидаги ариза, талабномани кўриб чиқишнинг исталган босқичида, лекин фойдали модель давлат рўйхатидан ўтказилгунга қадар топширилиши мумкин. Ариза инобатга олинганлиги ҳақида хабарнома юборилган санадан бошлаб талабнома чақириб олинган деб ҳисобланади.

174. Чақириб олинган талабнома бўйича ҳуқуқий аҳамиятга эга ҳаракатлар амалга оширилмайди. Бошқа талабномаларнинг экспертизасини ўтказишда чақириб олинган талабнома материаллари расмий ахборотномада нашр этилмаганда ушбу чақириб олинган талабнома техника даражасига киритилмайди.

6-боб. Талабномани кўриб чиқиш

175. Талабномага ахборот тизимида автоматик равишда икки ҳарфли ва тўққиз хонали рўйхат рақами берилади, бунда ҳарфлар (FM) саноат мулки объекти – фойдали моделни, талабнома рақамидаги дастлабки тўртта сон – талабнома топширилган йилни, кейинги бешта сон – шу йилдаги ҳар йили бирдан бошланадиган тартиб рақамини билдиради.

176. Талабномани давлат экспертизасидан ўтказиш расмий экспертиза ҳамда фойдали модель ҳақидаги талабнома экспертизасини (бундан буён матнда моҳияти бўйича экспертиза деб юритилади) ўтказишдан иборат бўлиб, Марказ томонидан амалга оширилади.

177. Расмий экспертизанинг вазифаси талабнома материаллари таркиби, зарур ҳужжатлар мавжудлиги ва уларнинг белгиланган талабларга мувофиқлигини текширишдан иборат.

178. Расмий экспертиза натижалари бўйича талабнома берувчига Марказнинг талабномани кўриб чиқиш учун қабул қилинганлиги ёки кўриб чиқиш учун қабул қилиш рад этилганлиги ҳақидаги қарори юборилади.

179. Расмий экспертиза талабнома ахборот тизимида қабул қилинган санадан бошлаб икки ой ўтгандан сўнг бир ой давомида ўтказилади.

180. Талабнома берувчининг ёзма илтимосномасига кўра расмий экспертиза белгиланган муддат ўтмасдан бошланиши мумкин.

Бунда талабнома берувчи илтимоснома берилган пайтдан бошлаб талабнома материалларига белгиланган миқдорда қўшимча патент божи тўламасдан ўз ташаббусига кўра тузатишлар киритиш имкониятидан маҳрум бўлади.

Талабнома берувчининг расмий экспертизани белгиланган муддат ўтмасдан бошлаш ҳақидаги илтимосномаси чақириб олинмайди.

181. Талабнома келиб тушган санадан икки ой ўтгандан кейин ёки талабнома берувчининг ташаббусига кўра талабнома расмий экспертизасини муддатидан олдин бошлаш ҳақидаги илтимоснома берилгандан сўнг талабнома материалларига тузатиш ва ўзгартиришлар киритишда белгиланган миқдорда патент божи тўланади.

Патент божи тўланмаганлиги аниқланганда талабномани кўриб чиқишда тузатиш ва ўзгартиришлар эътиборга олинмайди ва бу ҳақида ўн кун муддат ичида талабнома берувчига хабар берилади.

Талабнома материаллари бошқа тилда топширилиб, талабнома материалларида расмий экспертизани муддатдан илгари бошлаш ҳақидаги илтимоснома мавжуд бўлганда талабнома берувчи талабнома материалларининг таржимаси олинмагунга қадар расмий экспертизани ўтказиш мумкин эмаслиги ҳақида ўн кун муддат ичида хабардор қилинади.

182. Расмий экспертиза ўтказиш давомида қуйидагилар текширилади:

талабнома таркибида мазкур Қоидаларнинг 19 – 24-бандларида назарда тутилган ҳужжатларнинг мавжудлиги;

талабномани расмийлаштиришга оид талабларга риоя қилинганлиги;

Қонуннинг 14-моддаси тўртинчи қисмида назарда тутилган ҳолларда талабнома топшириш тартибига, жумладан, вакилнинг ваколатларини тасдиқлайдиган ишончноманинг мавжудлиги ва тўғри расмийлаштирилишига риоя қилинганлиги;

талабнома фойдали модель сифатида муҳофазаланадиган объектларга оид техник ечимга берилганлиги;

олдинроқ устуворликни сўраш асосланганлиги;

фойдали моделни ХПТнинг амалдаги таҳрири бўйича тўғри таснифланганлиги (талабнома берувчи томонидан таснифланмаган бўлса, таснифланади);

талабномани топшириш учун белгиланган миқдорда патент божи тўланганлиги.

183. Патент божи белгиланган миқдордан кам тўланганда талабнома берувчига уч ой ичида талабномани топшириш учун тўланган патент божини ва формуланинг мустақил бандлари сонини мувофиқлаштириш ҳақида хабарнома юборилади.

184. Белгиланган миқдордаги патент божи мазкур Қоидаларнинг 183-бандида назарда тутилган муддатда тўланмаганда фойдали моделлар гуруҳи учун талабнома юзасидан экспертиза талабнома берувчи томонидан танлаб олинган бандлар бўйича ёки танланган бандлар ҳақида кўрсатилган муддатда хабар берилмаганда формулада биринчи бўлиб кўрсатилган бандлар бўйича ўтказилади.

185. Талабномани расмий экспертизадан ўтказишда талабнома ҳужжатлари талаблар бузилган ҳолда расмийлаштирилгани аниқланганда талабнома берувчига камчиликлар кўрсатилган ва ҳуқуқий асослар келтирилган сўровнома юборилади.

186. Сўровнома юбориш учун қуйидагилар асос бўлади:

талабномада мазкур Қоидаларнинг 19-бандида назарда тутилган ҳужжатлар ёки улардан бирининг мавжуд эмаслиги;

талабнома вакил орқали топширилганда ишончноманинг мавжуд эмаслиги ёки уни расмийлаштириш қоидалари бузилганлиги;

аризани тўлдиришда мазкур Қоидаларнинг 25 – 34-бандлари талабларига риоя этилмаганлиги;

патент божлари тўғри тўланганлиги билан боғлиқ саволларни аниқлаш зарурати;

бошқа тилда топширилган материалларнинг таржимаси мавжуд эмаслиги;

микроорганизм штамми, ўсимлик ва ҳайвон ҳужайралари тури (линияси) сақлаш учун топширилгани ҳақидаги ҳужжат мавжуд эмаслиги;

талабнома материалларидан бевосита нусха кўчиришга, уларни сақлашга тўсқинлик қиладиган ва тавсифни нашр этишга тайёрлаш имкониятини бермайдиган камчиликлар аниқланлиги;

тавсифда мазкур Қоидаларда назарда тутилган бирон-бир бўлимнинг мавжуд эмаслиги (агар тегишли бўлимда баён қилиниши керак бўлган маълумотлар бошқа бўлимда келтирилган бўлса, сўровнома юборилмайди), шунингдек формула ёки тавсифда бирон-бир белги хусусиятини ушбу белги очиб берилган адабиёт манбаига ҳавола қилиш билан алмаштирилганлиги;

талабномада ҳамма таниша олмайдиган ахборот манбаига берилган изоҳлар ёки ундаги баъзи маълумотларни нашр этиш мумкин эмаслиги ҳақида кўрсатмалар

мавжудлиги;

формула бандини битта жумла кўринишида баён қилиш талаби бузилганлиги;

формулада ҳуқуқий муҳофаза сўралаётган фойдали модель тури кўрсатилмаганлиги;

формулада тегишли объект белгилари ўрнига унинг ишлатишдаги кўрсаткичлари ва истеъмол хусусиятлари, уни амалга ошириш ва ундан фойдаланишда келиб чиқадиган эффект ва ҳодисалар ҳақида маълумотлар келтирилганлиги;

талабнома материалларининг бир-бирига мос эмаслиги;

талабнома фойдали модель сифатида эътироф этилмайдиган объектларга берилганлиги;

талабнома бўйича устуворлик сўраш билан боғлиқ саволлар пайдо бўлганлиги.

187. Талабнома берувчи тақдим этган жавобда сўралган барча ҳужжатлар ва маълумотлар бўлмаганда сўровнома такроран юборилиши мумкин.

188. Расмий экспертиза сўровномасига тўлиқ жавоб тақдим этилмаганда, жавоб бериш учун белгиланган муддат бузилганда ёки бу муддат ичида уни узайтириш ҳақида илтимоснома келиб тушмаганда талабнома чақириб олинган деб ҳисобланади. Бунда талабнома бўйича иш юритиш тўхтатилади ва бу ҳақида талабнома берувчига ўн кун муддат ичида хабарнома юборилади.

189. Талабнома материаллари белгиланган талабларга зид эмаслиги ҳақидаги хулосага келинганда талабнома топширилган санани белгилаш ва талабномани кўриб чиқишга қабул қилиш тўғрисидаги расмий экспертизанинг қарори қабул қилинади ва талабнома берувчига юборилади.

190. Расмий экспертиза томонидан талабнома материалларининг Қонун ва мазкур Қоидалар қоидаларига зид эканлигининг аниқланиши талабномани кўриб чиқиш учун қабул қилишни рад этиш тўғрисида қарор қабул қилишга асос бўлади.

191. Талабномани кўриб чиқишга қабул қилиш ёки талабномани кўриб чиқишга қабул қилишни рад этиш тўғрисидаги қарорда тегишли қарорни қабул қилиш асослари келтирилади.

192. Талабнома моҳияти бирон-бир техника соҳасига оидлигини аниқлаш мақсадида фойдали модель ХПТнинг амалдаги таҳрири бўйича таснифланади.

Таснифлаш расмий экпертиза ва талабнома экспертизасини ўтказиш босқичларида амалга оширилади.

193. Формула тасниф индексларини танлаш учун асос бўлади. Талабнома ХПТнинг турли рубрикаларига тегишли бир неча объектларни ичига олганда барча мос тасниф индекслари аниқланади. Бунда биринчи индекс фойдали модель номи билан аниқланади. Расмий экспертиза босқичида аниқланган тасниф индекслари талабнома экспертизасини ўтказиш жараёнида ўзгартирилиши мумкин.

194. Патент божи формуладаги бандлар учун белгиланган миқдордан кам тўланганда патент божи ва формуланинг мустақил бандлари сонини мувофиқлаштириш натижасида дастлаб формула таркибида бўлган баъзи бандлар чиқариб ташланиши мумкин. Бунда қарорда талабнома фақат тузатилган формулага нисбатан кўриб чиқишга қабул қилинганлиги кўрсатилади.

195. Давлат экспертизаси давомида формулага киритилган тузатишлар бошқа фойдали моделга оид алоҳида бандлар пайдо бўлишига олиб келмаслиги керак, талабноманинг дастлабки материалларида мавжуд фойдали модель моҳиятини ўзгартирмаган ҳолда киритилган бандлар бундан мустасно.

196. Талабнома кўриб чиқиш учун қабул қилинганда талабнома экспертизаси талабнома топширилган санадан ўн икки ой ўтгандан сўнг икки ой давомида ўтказилади.

Патент божи белгиланган миқдорда тўланганда талабнома берувчи патент божи келиб тушганлик факти ҳақида хабардор қилинади.

Патент божи расмий экспертизанинг талабнома кўриб чиқишга қабул қилингани тўғрисидаги қарори талабнома берувчига юборилган санадан эътиборан уч ой ичида тўланади. Кўрсатилган муддат ўтказиб юборилган тақдирда талабнома чақириб олинган деб ҳисобланади.

197. Патент божи расмий экспертизанинг талабнома кўриб чиқишга қабул қилингани тўғрисидаги қарори талабнома берувчига юборилган санадан эътиборан уч ой ичида тўланади. Кўрсатилган муддат ўтказиб юборилган тақдирда талабнома чақириб олинган деб ҳисобланади ва талабнома берувчига бу тўғрисида хабарнома юборилади.

198. Талабнома экспертизасини ўтказиш учун патент божи белгиланган миқдордан кам тўланганда патент божини формуланинг мустақил ва боғлиқ бандлари сонига уч ой ичида мувофиқлаштириш зарурлиги ҳақида хабарнома юборилади. Бунда талабнома берувчи экспертиза ўтказилиши керак бўлган фойдали моделларга тегишли формула бандларини кўрсатади ёки экспертиза ўтказилмайдиган бандлар чиқариб ташланган формулани тақдим этади ёхуд қўшимча патент божи тўловини амалга оширади.

199. Талабнома фойдали моделлар гуруҳига оид бўлганда талабнома экспертизаси талабнома берувчи томонидан танланган бандлар юзасидан ёки танланган бандлар ҳақида белгиланган муддатда хабар берилмаганда формуланинг биринчи бўлиб кўрсатилган бандлари юзасидан ўтказилади.

200. Талабнома берувчи фойдали модель учун талабномани ихтиро учун талабномага ўзгартирганда талабноманинг фойдали модель учун талабнома сифатида кўриб чиқилиши тўхтатилади.

201. Талабнома экспертизаси доирасида қуйидагилар амалга оширилади:

фойдали модель устуворлигини белгилаш, агар у Қонуннинг 18-моддаси иккинчи – тўртинчи қисмларига кўра сўралса;

фойдали модель формуласини мазкур Қоидаларнинг 94 – 120-бандларида келтирилган талабларга мувофиқлигини текшириш;

қўшимча материалларни мазкур Қоидаларнинг 268 – 275-бандларига мувофиқ текшириш;

талабноманинг дастлабки материалларида ёки талабномани кўриб чиқишда эътиборга олинган қўшимча материалларда келтирилган формулада таърифланган фойдали моделнинг патентга лаёқатлилик шартларига мувофиқлигини текшириш.

202. Талабноманинг устуворлиги талабнома ваколатли органга топширилган сана бўйича белгиланади.

Талабномада фойдали моделнинг устуворлиги Қонуннинг 18-моддаси иккинчи – тўртинчи қисмларига кўра сўралмаганда устуворлик таркибида ариза, тавсиф, формула ва чизмалар (агар улар фойдали модель моҳиятини тушуниш учун зарур бўлса) бўлган талабнома ваколатли органга топширилган сана бўйича белгиланади.

203. Талабнома берувчи томонидан конвенция устуворлиги сўралаётганда қуйидагилар текширилади:

Париж конвенциясига аъзо давлатда топширилган биринчи талабноманинг нусхаси мавжудлиги, агар кўрсатилган нусха талабнома ваколатли органга топширилган санадан кейин топширилган бўлса, биринчи талабноманинг нусхаси тақдим этилиши керак бўлган уч ойлик муддатга риоя қилинганлиги (биринчи талабномалар бир нечта бўлганда кўрсатилган шарт ҳар бир талабноманинг нусхаси учун бажарилади);

конвенция устуворлиги сўралаётган талабнома биринчи талабнома топширилган санадан эътиборан ўн икки ойлик муддатда топширилишига риоя қилинганлиги, агар талабнома кўрсатилган муддатдан кечикиб топширилган бўлса, у тугаган санадан бошлаб икки ойлик муддатга риоя қилинганлиги;

конвенция устуворлигини белгилаш тўғрисидаги ариза талабнома ваколатли органга келиб тушган санадан эътиборан уч ойдан кечиктирмай тақдим этилганлиги;

талабнома берилган фойдали модель биринчи талабномада очиб берилганлиги.

204. Талабнома берувчи томонидан фойдали модель устуворлигини ўзининг олдин топширган талабномасига нисбатан берилган қўшимча материаллар бўйича устуворликни белгилаш сўралганда қуйидаги талабларга риоя қилинганлиги текширилади:

ваколатли органга талабномада берилган фойдали модель моҳиятини ўзгартириши мумкин бўлган қўшимча материаллар келиб тушганлиги сабабли эътиборга олиниши мумкин эмаслиги ҳақидаги хабарнома юборилган санадан эътиборан уч ой ичида келиб тушганлиги;

олдин топширилган талабноманинг мазмунини ҳисобга олган ҳолда келиб тушган санаси бўйича устуворлик сўралаётган қўшимча материалларда фойдали модель моҳияти очиб берилганлиги.

205. Фойдали модель устуворлигини олдин топширилган талабнома топширилган санадан белгилаш сўралганда қуйидаги талабларга риоя қилинганлиги текширилади:

бундай устуворлик сўралаётган талабнома худди ўша аввалги талабномани топширган талабнома берувчи томонидан топширилганлиги;

бундай устуворлик сўралаётган талабнома ваколатли органга олдинги талабнома топширилган санадан 12 ой мобайнида келиб тушганлиги;

фойдали модель моҳияти олдин топширилган талабномада очиб берилганлиги;

олдин топширилган талабнома бўйича ундан илгарироқ устуворлик сўралмаганлиги.

206. Олдин топширилган бир нечта талабномалар бўйича устуворлик сўралганда мазкур қоидаларнинг 205-банди талабларига риоя қилинганлиги уларнинг ҳар бирига нисбатан текширилади.

207. Топширилаётган талабномага олдин топширилган талабноманинг устуворлиги белгиланганда олдин топширилган талабнома чақириб олинади ва бу ҳақида талабнома берувчига хабар берилади.

208. Фойдали модель устуворлигини ажратилган талабнома бўйича белгилаш сўралганда қуйидаги талабларга риоя қилинганлиги текширилади:

ажратилган талабнома ваколатли органга фойдали моделга ёки ихтирога биринчи талабнома устидан шикоят бериш имконияти қолмаган патент беришни рад этиш тўғрисидаги қарор қабул қилингунга қадар ёхуд биринчи талабнома бўйича патент бериш тўғрисидаги қарор қабул қилинганда фойдали модель ёки

ихтирони Ўзбекистон Республикасининг тегишли давлат реестрида рўйхатдан ўтказиш санасигача келиб тушганлиги;

ажратилган талабномадаги фойдали модель моҳияти олдинги талабномада, агар талабнома конвенция талабномасидан ажратиб олинган ва устуворлик унинг устуворлик санаси бўйича сўралаётган бўлса, биринчи талабномада очиб берилганлиги.

209. Мазкур Қоидаларнинг 203 – 208-бандларига мувофиқ фойдали модель устуворлигини белгилаш шартларига риоя қилинганлигини текширишда устуворлик сўралаётган талабнома ёки устуворлик сўраш учун асос бўлган қўшимча материаллар берилган талабнома чақириб олинмаганлигига эътибор қаратилади.

210. Фойдали моделнинг моҳиятини очишда олдин топширилган талабнома ёки унга келиб тушган қўшимча материаллар асосида устуворлик сўралганда қуйидагилар текширилади:

ушбу материалларда (олдин топширилган талабноманинг тавсифи, формуласи, қўшимча материалларнинг матнли қисми) талабнома берилган фойдали моделнинг формуласига киритилган барча белгилар кўрсатилганлиги;

устуворлик санаси сўралаётган материалларда фойдали моделнинг моҳияти уни амалга ошириш учун етарли даражада очиб берилганлиги.

211. Конвенция устуворлиги сўралганда мазкур Қоидаларнинг 210-бандидаги шартлар бажарилганлигини текширишда Париж конвенциясига аъзо давлатда берилган биринчи талабноманинг таржимаси тақдим этилади.

212. Мазкур Қоидаларнинг 203 – 208-бандларида кўрсатилган талаблар бажарилганда талабноманинг устуворлиги белгиланади.

213. Мазкур Қоидаларнинг 203 – 208-бандларида кўрсатилган талабларнинг бирортаси бажарилмаганда талабнома устуворлиги Қонуннинг 18-моддаси биринчи қисмига мувофиқ белгиланади.

214. Устуворлик белгилангандан сўнг фойдали моделнинг ўзгартирилган формуласи тақдим этилганда сўралаётган устуворликни белгилашга асослар мавжудлигини аниқлаш учун такроран текшириш ўтказилади.

215. Текшириш фойдали модель формуласининг охирги вариантига нисбатан ўтказилади. Бунда фойдали модель бирлиги талабига риоя этилганлиги аниқланади.

216. Фойдали модель бирлиги талаби бузилганлиги аниқланганда талабнома берувчига сўровномада битта фойдали моделга ёки ягона ижодкорлик фикрини ташкил этган фойдали моделлар гуруҳига тегишли аниқликлар киритилган тавсиф ва формулани тақдим этиш таклиф қилинади.

Тузатилган формула таркибига янги бандлар киритилганда қўшимча патент божи тўланади.

217. Фойдали модель формуласини текширишда талабномадаги фойдали моделнинг муҳим белгилари мажмуи кўрсатилган техник натижага эришиш учун етарли эканлиги аниқланади.

Бирон-бир муҳим белги формулага киритилмаганда, лекин тавсифда ёки формуланинг боғлиқ бандида келтирилганда ва ушбу муҳим белгисиз техник натижага эришиб бўлмаслиги аниқланганда талабнома берувчига бундай белгини формуланинг тегишли мустақил бандига киритиш таклиф этилади. Бунда техник натижага эришиш учун формулага ушбу белгини киритиш зарурлигини тасдиқлайдиган далиллар келтирилади. Бундай далиллар тавсифда очиб берилган белгилар ва техник натижа орасидаги сабаб-оқибат боғланишига ёки экспертиза томонидан ўтказилган илмий-назарий таҳлилга асосланиши мумкин.

218. Фойдали модель формуласини текшириш ундаги белгиларни мазкур Қоидаларнинг 113 – 120-бандларига мувофиқ идентификация қилиш имкониятини аниқлашдан иборат.

Белгини идентификация қилиш имкониятини таъминлаш учун унинг таърифини фойдали модель тавсифига асосан тузатиш зарур бўлганда талабнома берувчига бундай тузатишни амалга ошириш таклиф этилади.

219. Белгини идентификация қилиш имконияти таъминланганда, лекин уни таърифлаш учун маълум бир техника соҳасида қабул қилинган атамаларга мос бўлмаган ёки эскирган атамалар қўлланилганда талабнома берувчига формулага тегишли тузатишларни киритиш тавсия қилинади.

220. Формуладаги белгини текшириш жараёнида техник натижага эришиш учун етарли бўлган белгилар ёки электрон ҳисоблаш машиналари учун яратилган дастурни ҳамда бундай дастурда ишлатиладиган алгоритмларни жалб қилган ҳолда таърифланадиган фойдали модель формуласининг белгилари мазкур Қоидаларнинг 51 – 58-бандида келтирилган талабларга мувофиқ бўлиши керак.

Формулада техник натижага эришилмайдиган ёки фойдали моделни акс эттирадиган воситага оид бўлмаган белгилар мавжуд бўлганда бундай белгини формуладан олиб ташлаш учун тегишли тузатишни амалга ошириш таклиф этилади.

221. Товар белгилари, географик кўрсаткичлар ва бошқа хусусий аломатларни акс эттирувчи воситалар фойдали модель формуласига киритилмайди.

222. Формулада умумий тушунча билан ифодаланган белги мавжуд бўлганда мазкур Қоидаларнинг 102-бандига мувофиқ ундан фойдаланиш тўғрилиги аниқланади.

Белги функция ва хусусият билан таърифланганда белги формуланинг мустақил бандига киритилган бошқа муҳим белгилар билан биргаликда

талабномада кўрсатилган техник натижага эришиш учун етарлилиги текширилади.

223. Талабномада кўрсатилган техник натижага эришиш фақатгина экспериментал маълумотлар билан тасдиқланганида тавсифда керакли маълумотларни ўз ичига олган мисоллар келтирилади. Ушбу мисоллар асосидаги хулосаларга таянган фойдали модель белгисини тавсифлашда аниқ ҳолатлар ва умумлаштиришнинг ўринлилиги текширилади.

224. Экспертиза томонидан умумий тушунчалар билан ифодаланган белгидаги бирор аниқ ҳолатда талабнома берувчи томонидан кўрсатилган техник натижага эришилмаслиги аниқланганда тегишли далиллар келтирилиб, уларни рад этиш ёки тузатиш киритиш таклиф этилади.

225. Формулани мазкур Қоидаларнинг 113-банди талабига мувофиқлигини текширишда фойдали моделни таърифлайдиган тушунча унинг тавсифида келтирилганлиги ёки чизмада ифодаланганлиги аниқланади.

226. Талабномада бир звеноли ёки битта мустақил бандли кўп звеноли формула келтирилганда бундай формулада (мазкур Қоидаларнинг 16 – 18-бандлари талабларига мувофиқ) битта фойдали модель таърифланганлиги текширилади.

227. Мазкур Қоидаларнинг 16 – 18-бандлари талаблари бузилганлиги аниқланганда юбориладиган сўровномада бу ҳақида маълум қилинади ва тегишли патент божини тўлаб, формулани тузатиш таклиф қилинади. Бунда тузатилган формулада фойдали модель бирлиги талаби бажарилиши ва тузатилган формулага аввал мустақил банд сифатида кўрсатилмаган янги мустақил бандлар киритилганда тегишли патент божини тўлаш ёки талабнома берувчи формулани тузатишни рад этганда кейинги кўриб чиқишда эътиборга олинадиган фойдали моделни кўрсатиш зарурлиги келтирилади.

Белгини таърифлашда талабнома берувчи муқобил тушунчадан ноўрин фойдаланганда юзага келган хато кўрсатилади.

228. Бир нечта мустақил бандли кўп звеноли формула таклиф қилинганда уларнинг ҳар бири мазкур Қоидаларнинг 102-банди талабларига мувофиқлиги текширилади.

229. Формулани текширишда қўшимча равишда қуйидагилар эътиборга олинади:

кўп звеноли формуланинг боғлиқ бандларида фойдали моделнинг аниқ ҳолларда амалга оширилиши;

формулада мустақил банднинг белгиларини чиқариб ташлашни ёки алмаштиришни назарда тутадиган боғлиқ банднинг мавжудлиги.

230. Формуланинг мустақил бандларида таърифланган фойдали моделлар ўзаро ягона ижодкорлик фикрни ташкил қилган ҳолда боғлиқ бўлганда ягона

ижодкорлик фикри шарти бажарилган ҳисобланади.

231. Мустақил бандларда таърифланган фойдали моделларни вариантларга тегишлилигини текширишда фойдали моделларнинг кўрсатилган вазифаси ва техник натижалар мослиги текширилади.

232. Фойдали модель формуласини текширишда формуланинг тузилиши ва баён қилиниши белгиланган талабларга мувофиқ эмаслиги аниқланганда формулани тузатиш таклиф қилинади.

233. Ўзгартирилган формулага нисбатан мазкур Қоидаларнинг 217 – 231-бандларига мувофиқ текшириш ўтказилади.

Фойдали моделнинг патентга лаёқатлилигини текшириш учун талабнома берувчи томонидан ўзгартирилган формула қабул қилинади.

234. Бир звеноли ёки битта мустақил бандли кўп звеноли формулада биттадан ортиқ фойдали модель борлиги аниқланганда талабнома берувчига кўриб чиқилиши керак бўлган фойдали моделни кўрсатиш таклиф этилади ва экспертиза талабнома берувчи томонидан кўрсатилган фойдали моделнинг патентга лаёқатлилигини текширишни давом эттиради.

235. Формулада муқобил тушунча билан ифодаланган белги мавжуд бўлганда патентга лаёқатлиликни текшириш бундай тушунчани ичига олган белгиларнинг ҳар бир мажмуига нисбатан ўтказилади.

236. Муаллиф ёки талабнома берувчи фойдали моделга тааллуқли ахборотни ошкор этган санадан эътиборан олти ойлик муддатда ваколатли органга ушбу фойдали моделга талабнома топширганда ошкор этилган ахборот техника тараққиёти даражасига киритилмайди.

237. Техник ечимнинг таърифланиши бўйича уни тушуниш мумкин бўлмаганда талабнома берувчига аниқланган камчиликларни кўрсатиб, ҳуқуқий асосга эга далиллар келтирилган, етишмаган ёки тузатилган ҳужжатларни тақдим этиш таклиф этилган сўровнома юборилади.

238. Фойдали моделдан фойдаланиш мумкинлигини аниқлашда талабнома материалларида фойдали моделнинг вазифаси кўрсатилганлиги текширилади.

239. Формула бандларидаги таърифларни амалга ошириш учун талабноманинг унинг устуворлик санасида топширилган материалларида воситалар ва усуллар баён қилинганлиги текширилади. Талабнома материалларида бундай воситалар ва усуллар бўлмаганда улар ҳақидаги маълумотлар фойдали модель устуворлиги санасигача оммавий тарзда ошкор бўлган ахборот манбаларидан маълум бўлиши керак.

240. Формуладаги белгида келтирилган тушунчалар фойдали моделни амалга ошириш ва кўрсатилган вазифани бажариш учун фақат экспериментал

маълумотлар орқали тасдиқланганда фойдали модель тавсифида келтирилган мисоллар етарлилиги (мазкур Қоидаларнинг 73-банди) текширилади.

241. Фойдали моделнинг устуворлик санасида мазкур Қоидаларнинг 238 – 240-бандлари талабларига риоя қилинганда формуланинг мустақил бандида таърифланган фойдали модель саноатда қўллаш мумкин деб эътироф этилади.

Кўрсатилган талабларнинг биронтаси бажарилмаганда талабнома берувчига экспертизанинг тегишли далилларига нисбатан ўз фикрини билдириш ва формулани тузатиш тўғрисидаги сўровнома юборилади.

242. Саноатда қўллаш шартига мувофиқ эмаслиги аниқланган фойдали моделга нисбатан янгилик шартига мувофиқлик юзасидан текширув ўтказилмайди.

243. Қонуннинг 7-моддаси иккинчи қисмига асосан агар фойдали моделнинг муҳим белгилари мажмуи техника тараққиёти даражасидан маълум бўлмаса, у янги деб ҳисобланади.

Бунда фойдали моделнинг янгилигини текшириш фойдали модель формуласининг мустақил бандидаги барча белгилар мажмуига нисбатан ўтказилади.

244. Ахборот излаш формула, тавсиф ва чизма асосида ўтказилади.

245. Талабнома экспертизасини ўтказиш учун патент божи тўланган санагача талабнома берувчи фойдали модель бирлиги талаби бузилганлиги ҳақидаги хабарномага белгиланган муддатда жавоб бермаганда ахборотни излаш формулада биринчи кўрсатилган фойдали модель (ягона ижодкорлик фикрини ташкил қилган фойдали моделлар гуруҳи) бўйича ўтказилади.

246. Техника тараққиёти даражасини аниқлашда оммавий тарзда ошкор этилган ахборот манбаидаги маълумотлардан фойдаланилади.

Қуйидагилар ахборот манбаини техника тараққиёти даражасига киритишни белгилайдиган сана ҳисобланади:

муҳофаза ҳужжатларига нашр қилинган тавсифлар учун – уларда кўрсатилган нашр этиш санаси;

миллий ва бошқа босма нашрлар учун – уларда кўрсатилган нашр этишга имзо қўйилган сана;

нашр этишга имзо қўйилган сана кўрсатилмаган миллий босма нашрлар ва бошқа босма нашрлар учун – улар эълон қилинган кун, нашр қилиниши йил ва ой билан белгиланганда – ойнинг охирги куни, нашр қилиниши йил билан белгиланганда – 31 декабрь;

сақлаш учун топширилган мақола, шарҳлар, монография ва бошқа материаллар учун – уларни депозитарийга топшириш санаси;

илмий-тадқиқот ишлари ҳақидаги ҳисоботлар, тажриба-конструкторлик ишларига тушунтириш хатлар ва ташкилотларда бўлган конструкторлик, технологик ва лойиҳа ҳужжатлардаги ахборотлар учун – улар тегишли ташкилотларга келиб тушган санаси;

техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасидаги норматив ҳужжатлар учун – улар ваколатли ташкилотда ҳисобга олинган сана;

қўлёзма ҳуқуқида чоп этилган диссертация материаллари ва диссертация авторефератлари учун – уларнинг тарқатилган санаси;

танловга қабул қилинган ишлар учун – улар танишиш учун очиқ намойиш қилинган ва танлов ўтказишга оид ҳужжатлар билан тасдиқланган сана;

интернет тармоғи маълумотлари, визуал ахборот манбалари (плакат, модель, электрон ахборот ташувчи восита, маҳсулот ва шу кабилар) учун – уларни кўриш мумкин бўлган сана;

кўргазмага қўйилган экспонатлар учун – уларни кўрсатиш бошланган ва ҳужжат билан тасдиқланган сана;

оғзаки маърузалар, сўзга чиқишлар учун – маърузалар, сўзга чиқишлар санаси;

радио, телевидение, кино орқали маълумотлар учун – оммага ошкор этилган сана;

техника воситасидан фойдаланиш натижасида маълум бўлган маълумотлар учун – оммага ошкор этилган сана.

247. Фойдали моделнинг янгилигини аниқлаш чоғида бирмунча олдин устуворликка эга бўлган ҳолда Ўзбекистон Республикасида топширилган ва чақириб олинмаган патент бериш ҳақидаги талабномалар ҳам ҳисобга олинади.

248. Текширишда аниқланган талабнома чақириб олинмаганда ёки чақириб олиш муддати ўтмаганда талабнома берувчига шундай талабнома мавжудлиги ҳақида (талабнома берувчини кўрсатмасдан ва мазмунини очмасдан) ва талабнома экспертизаси аввалроқ устуворликка эга бўлган талабнома бўйича бир қарорга келингунга қадар тўхтатиб турилиши ҳақида маълум қилинади.

Талабнома берувчи талабнома экспертизаси тўхтатиб турилишидан норози бўлганда фойдали модель янгилик шартига мувофиқ эмас деб топилади.

249. Ўзбекистон Республикасида муҳофазага олинган барча фойдали модель ва ихтиролар устуворлик санасидан эътиборан техника тараққиёти даражасига киритилади.

250. Ахборотни излаш жараёнида худди шундай вазифани бажарадиган фойдали модель белгиларига ўхшаш бўлган белгилар билан таърифланадиган

восита топилганда ахборотни излаш тўхтатилмайди ва охиригача тўлиқ ҳажмда олиб борилади.

Фойдали модель бошқа фойдали модель ёки ихтиро формулаларидаги мустақил бандларнинг мазмунларига мос тушганда ўхшаш деб эътироф этилади.

251. Техника тараққиёти даражасидан фойдали модель формуласидаги барча белгилар билан айнан бир хил белгилардан иборат маҳсулот ёки усул аниқланганда фойдали модель янгилик шартига мувофиқ эмас деб эътироф этилади.

252. Боғлиқ бандларга эга бўлган формуланинг мустақил бандида таърифланган фойдали моделнинг янгилик шартига мувофиқ эмаслиги аниқланганда талабномани кейинги кўриб чиқиш мазкур Қоидаларнинг 255-банди ва 258-банди иккинчи хатбошисига амалга оширилади.

253. Боғлиқ бандларга эга бўлган формуланинг мустақил бандида таърифланган фойдали моделнинг янгилик шартига мувофиқ эмаслиги аниқланганда талабномани кейинги кўриб чиқиш мазкур Қоидаларнинг 255-банди ва 258-банди иккинчи хатбошисига амалга оширилади.

254. Фойдали моделнинг янгилик шартига мувофиқ эмаслиги аниқланганда талабнома берувчига экспертиза далиллари баён қилинган ва бу далилларга нисбатан ўз фикр-мулоҳазаларини ҳамда зарур ҳолларда талабноманинг дастлабки материаллари асосида фойдали моделнинг тузатилган формуласини тақдим этиш таклиф қилинган сўровнома юборилади.

255. Фойдали модель боғлиқ бандларга эга кўп звеноли формула билан таърифланганда ва мустақил банднинг янгилик шартига жавоб бермаслиги сабабли патентга лаёқатли эмаслиги аниқланганда талабнома берувчига бу ҳақида маълум қилинади ва талабномани кўриб чиқишни давом эттиришда фойдали моделнинг тузатилган формуласини тақдим этиш таклиф этилади.

256. Боғлиқ бандларга эга бўлган мустақил бандга нисбатан фойдали моделнинг патентга лаёқатлилиги аниқланганда ушбу боғлиқ бандлардаги фойдали модель белгиларининг таърифи фойдали моделни амалга оширишга ёки вазифасини бажаришига тўсқинлик қилмаслиги текширилади.

257. Боғлиқ бандларга эга бўлган кўп звеноли формула билан таърифланган фойдали моделни патентга лаёқатлилик шартларига нисбатан текшириш натижаси ижобий бўлган ҳолда, у патентга лаёқатли деб тан олинади.

258. Фойдали моделлар гуруҳига оид талабнома топширилганда патентга лаёқатлиликни текшириш гуруҳга кирган ҳар бир фойдали моделга нисбатан ўтказилади. Гуруҳнинг патентга лаёқатлилиги ундаги барча фойдали моделлар патентга лаёқатли бўлганда тасдиқланади.

Фойдали моделлардан бири патентга лаёқатли эмаслиги аниқланганда талабнома берувчига бу ҳақида маълум қилинади ва келтирилган далиллар ҳақида

ўз фикрини билдириш ҳамда зарур ҳолда патентга лаёқатли бўлмаган фойдали модель бандини формуладан чиқариб ташлаш ёки бу бандларни тузатилган ҳолда тақдим этиш таклиф этилади.

259. Мазкур Қоидаларнинг 258-бандига мувофиқ талабнома берувчи томонидан фойдали моделнинг ўзгартирилган формуласи тақдим этилганда талабномани кўриб чиқишни давом эттириш ушбу формулада таърифланган фойдали моделга нисбатан мазкур Қоидаларнинг 214 – 234-бандларига мувофиқ ўтказилади.

Талабнома берувчи экспертиза сўровномасидаги фикрларни рад этувчи далилларни ва ўзгартирилган формулани келтирмасдан аввалги формула билан патент беришни талаб қилганда патент беришни рад этиш тўғрисида қарор қабул қилинади.

260. Қонуннинг 20-моддасига кўра қўшимча материалларни тақдим этиш сўралган сўровнома бундай материалларсиз талабнома экспертизасини ўтказиш мумкин бўлмаганда юборилади.

261. Сўровнома юбориш учун қуйидагилар асос бўлиши мумкин:

фойдали модель формуласини мазкур Қоидаларнинг 214 – 234-бандларига мувофиқ текшириш натижалари бўйича аниқлаш зарурати;

фойдали моделнинг патентга лаёқатлилигини мазкур Қоидаларнинг 235 – 259-бандларига мувофиқ текшириш билан боғлиқ саволларни ҳал қилиш зарурати;

бир хил устуворлик санасига эга бўлган айнан ўхшаш саноат мулки объектларига талабномаларни кўриб чиқиш билан боғлиқ саволларни ҳал қилиш зарурати.

262. Талабномани кўриб чиқишда юзага келадиган бошқа турдаги саволлар мазкур Қоидаларнинг 261-бандидаги асосларга қўшимча равишда юбориладиган сўровномага киритилади.

263. Сўровнома ёки хабарномада келтириладиган фикр ва мулоҳазалар илмий-техникавий ёки ҳуқуқий характердаги далиллар билан асосланади.

264. Талабнома берувчи патентга лаёқатлилиги ҳақида хулоса олинган фойдали модель формуласига идентификация қилинмаган ёки талабноманинг дастлабки материалларида бўлмаган белгини ёхуд таърифи ахборот манбаига ҳавола қилиш билан алмаштирилган белгини киритишни ёки талабнома топширилгандан кейин талабнома берувчи томонидан таклиф этилган ва мазкур Қоидаларнинг 214 – 234-бандларига мувофиқ эътиборга олинмаган янги мустақил бандни киритишни талаб қилганда талабнома берувчига ушбу белгини (банд) ўз таркибига киритмаган формулани тақдим этиш таклиф қилинган сўровнома юборилади.

265. Сўровномада ахборот манбаи келтирилганда ушбу манбани топиш учун зарур бўлган барча библиографик маълумотлар, шунингдек талабномани кўриб чиқишда эътиборга олинган маълумотлар, ушбу манбадан топиш учун керак бўладиган бошқа маълумотлар кўрсатилади.

266. Сўровномани юбориш учун фойдали моделнинг патентга лаёқатлилигини текшириш натижалари бўйича формула, тавсиф ва чизмаларга тузатишлар киритиш орқали аниқлаштириш зарурати асос бўлганда уларнинг тузатилган саҳифаларини тақдим этиш таклиф қилинади. Бунда сўровномада талабнома материалларини тузатишга оид тўлиқ тушунтиришлар келтирилади.

267. Ўзгартирилган формула асосида патент бериш тўғрисидаги қарор қабул қилиш учун формулани ўзгартириш тавсифга ва чизмага тузатишлар киритишни тақозо этса (шу жумладан, экспертиза томонидан аввал кўрсатилган лекин тузатилмаган камчиликлар мавжуд бўлганда), материалларни тузатиш тўғрисидаги таклифни ўз ичига олган сўровнома юборилади.

268. Қўшимча материаллар билан бирга тузатилган формула бўлганда дастлабки формулада мустақил банд сифатида ажратиб кўрсатилмаган бир ёки бир неча мустақил бандларни киритиш билан тузатилганлиги ва патент божи тўланганлиги текширилади.

269. Қўшимча материаллар таркибида талабноманинг дастлабки материалларида бўлмаган ва формулага киритиш талаб этилган белгилар мавжуд бўлганда қўшимча материаллар фойдали модель моҳиятини ўзгартиради деб эътироф этилади.

270. Қўшимча материалларда келтирилган ва формулага киритилиши сўралаётган белгилар талабнома ваколатли органга келиб тушган санада формулада ёки тавсифда очиб берилмаганда талабноманинг дастлабки материалларида бўлмаган деб эътироф этилади.

271. Талабноманинг дастлабки материалларида белгини бажаришнинг аниқ ҳолатлари очилмасдан умумий тушунча билан берилганда формулага киритилиши керак бўлган белги деб ҳисобланган бундай аниқ ҳолатларнинг қўшимча материалларда тақдим этилиши фойдали моделнинг моҳиятини ўзгартиради деб эътироф этилади.

272. Қуйидаги қўшимча материаллар фойдали модель моҳиятини ўзгартирмайди:

фойдали моделни амалга ошириш шароитлари ҳақидаги янги маълумотлар;

фойдали моделни амалга оширишдаги мисоллар;

қўшимча техник натижа олиш имкониятлари;

аниқликлар киритилган график материаллар;

формулага киритилмайдиган ва ундаги белгиларга тааллуқли бўлмаган бошқа материаллар.

273. Қўшимча материаллар фойдали моделнинг моҳиятини ўзгартиради деб эътироф этилганда талабнома берувчига бундай хулосага келиш учун қўшимча материаллардаги қайси маълумотлар асос бўлганлиги ҳақида маълум қилинади. Талабномани кейинги кўриб чиқиш қўшимча материалларда берилган формулага нисбатан, лекин талабнома топширилган устуворлик санасидаги тавсифда ва формулада очиб берилган белгилар бўйича давом эттирилади.

274. Фойдали моделнинг вазифасини ифодалайдиган дастлабки умумий тушунча формулада бошқаси билан алмаштирилганда улар бир хил маънода ва бир-бирига боғлиқ бўлганда, яъни улар тўлиқ ёки қисман мос келганда фойдали моделга тегишли деб эътироф этилади.

275. Қуйидаги ҳолларда формулани ўзгартириш талабномадаги фойдали моделга тааллуқли деб ҳисобланади:

фойдали модель объектининг тури (қурилма, усул, модда) ўзгартирилганда, бунда янгидан кўрсатилган объект тури дастлабки фойдали модель формуласида келтирилган белгиларга нисбатан кўпроқ мос келганда;

биринчи талабномадаги фойдали модель объекти “янги вазифада қўллаш” кўрсатилган янги вазифадаги объект билан алмаштирилганда, агар объект тўғрисидаги маълумотлар устуворлик санасигача оммага маълум бўлмаган ҳолларда объектни қўллашга доир талабнома берилса;

дастлабки кўрсатилган фойдали модель объектини “янги вазифада қўллаш” фойдали модель объектига алмаштирилганда, агар устуворлик санасигача оммага маълум бўлган маълумотлардан талабнома берилган объектдан фақат вазифаси билан фарқланувчи восита маълумлиги аниқланса.

276. Қонуннинг 19-моддасига мувофиқ талабнома берувчи патент бериш ҳақидаги қарор қабул қилингунга қадар фойдали модель ҳақидаги талабномани ихтиро ҳақидаги талабномага ўзгартириши мумкин.

Фойдали моделга бўлган талабнома ихтирога патент бериш ҳақидаги талабномага ўзгартирилганда уни фойдали моделга талабнома сифатида кўриб чиқиш тўхтатилади ва бу ҳақида талабнома берувчига ўн кун муддат ичида хабар берилади.

Бундай ўзгартиришда фойдали модель талабномасининг устуворлиги сақланиб қолади ва кейинги иш юритиш ихтирога патент бериш тартибига мувофиқ олиб борилади.

277. Фойдали моделнинг патентга лаёқатлилик шартларига мувофиқлиги аниқланганда талабнома берувчига таклиф қилинган формула билан фойдали

моделга патент берилиши мумкинлиги ҳақида сўровнома юборилади ва экспертиза хулосаларига нисбатан ўз фикрини маълум қилиш таклиф этилади.

Сўровнома юборилган санадан бошлаб уч ой ичида талабнома берувчи ўз фикрини маълум қилмаганда ёки экспертизанинг фикрига розилиги келиб тушганда сўровномада баён қилинган формула билан патент бериш тўғрисидаги қарор қабул қилинади ва нашр этишда биринчи берилган фойдали модель тавсифидан фойдаланилади.

278. Талабнома материаллари белгиланган талабларга зид эмас ҳақидаги хулосага келинганда фойдали моделга патент бериш тўғрисидаги қарор қабул қилинади ва талабнома берувчига юборилади.

279. Экспертиза томонидан талабнома материалларининг Қонун ва мазкур Қоидалар қоидаларига зид эканлигининг аниқланиши фойдали моделга патент беришни рад этиш тўғрисидаги қарор қабул қилишга асос бўлади.

280. Битта мустақил банд ва боғлиқ бандларга эга бўлган кўп звеноли формулада таърифланган фойдали моделнинг мустақил банди патентга лаёқатлиликнинг биронта шартига мувофиқ эмаслиги аниқланганда патент беришни рад этиш тўғрисида қарор чиқарилади.

281. Фойдали моделлар гуруҳидан иборат бўлган кўп звеноли формуланинг мустақил бандларида таърифланган фойдали моделларнинг бири ёки ҳар хил муқобил белгиларни ўз ичига олган белгилар мажмуида патентга лаёқатлиликнинг шартларидан бирига мувофиқ эмаслиги аниқланиб, талабнома берувчи формулани тузатишдан ёки ушбу фойдали модель белгисини формуладан чиқариб ташлашдан бош тортганда кўрсатилган белгилар мажмуига патент беришни рад этиш тўғрисида қарор чиқарилади ва унда патентга лаёқатли деб аниқланган бошқа фойдали моделларнинг патентга лаёқатли эканлиги эътироф этилади.

282. Талабнома берувчининг хоҳишига кўра давлат экспертизаси Марказ томонидан тезкор тартибда, яъни талабнома кўриб чиқишга қабул қилинганлиги тўғрисида қарор чиқарилган кундан эътиборан бир ой ичида ўтказилиши мумкин.

Давлат экспертизасини тезкор тартибда ўтказиш талабнома берувчининг бу ҳақидаги илтимосномасига асосан амалга оширилади. Бунда экспертизани тезкор тартибда ўтказиш ҳақидаги илтимоснома ваколатли органга талабнома билан бир пайтда ёки у топширилган санадан эътиборан уч ой ичида тақдим қилиниши керак.

283. Давлат экспертизасини тезкор тартибда ўтказишда ахборотни излаш талабнома берувчи ва Марказ ўртасида тузиладиган шартнома асосида ўтказилади.

284. Давлат экспертизасини тезкор тартибда ўтказишда ахборотни излаш расмий экспертиза якунланган кундан бошлаб ўн кун ичида амалга оширилади.

Давлат экспертизасини тезкор тартибда ўтказиш ҳақидаги илтимоснома расмий экспертиза якунлангандан сўнг келиб тушганда ахборотни излаш

илтимоснома келиб тушган санадан эътиборан ўн кун ичида ўтказилади.

285. Ахборотни излаш натижалари бўйича ҳисобот тузилади ва ҳисобот қуйидаги маълумотларни ўз ичига олади:

талабнома рақами;

талабноманинг топширилган санаси;

фойдали моделнинг номи;

ахборот излаш соҳаларини таснифловчи ХПТ рубрикасининг индекси, ХПТ рубрикасига боғлиқ ҳолда излаш кўламига киритилиши зарур бўлган мамлакатлар патент ҳужжатларининг рўйхати, тегишли мавзу бўйича ахборот манбалари;

ахборот излаш мавзуси бўйича ҳужжатлар ва уларнинг аниқ қисмларига библиографик маълумотлар кўринишидаги ҳаволалар (талабнома бўйича илгарироқ устуворлик сўралганда талабнома топшириш санасидан олдин лекин талабнома устуворлиги санасидан кейин нашр қилинган маълумотлар алоҳида белгилаб қўйилади);

илгарироқ устуворликка эга бўлган, бироқ эълон қилинмаган талабномалар;

ахборот излашнинг тугатилган санаси.

Ахборот излашнинг ҳажмига ҳамма фойдалана оладиган ҳар қандай ахборот манбалари киритилиши мумкин.

286. Ахборот излаш якунлангандан сўнг унинг натижалари асосида мазкур Қоидаларнинг 197 – 281-бандларига мувофиқ фойдали моделнинг патентга лаёқатлилиги текширилади.

287. Белгиланган патент божи тўланганда ваколатли орган фойдали моделни мазкур Қоидаларга 4-иловага мувофиқ шаклдаги Фойдали моделлар давлат реестрида автоматик тарзда рўйхатдан ўтказади. Бунда фойдали моделга берилган патент ва унинг иловаси электрон шаклда ахборот тизими орқали талабнома берувчига юборилади.

Фойдали модель рўйхатга олинганлиги тўғрисидаги маълумотлар ваколатли орган томонидан расмий ахборотномада эълон қилинади.

Талабнома берувчининг хоҳишига кўра фойдали моделга берилган патент ва унинг иловаси почта алоқаси орқали кўрсатилган манзилга юборилиши мумкин.

7-боб. Халқаро талабномани топшириш ва кўриб чиқиш

288. РСТга мувофиқ ваколатли орган Ўзбекистон Республикасида халқаро талабномани қабул қилувчи идора, халқаро талабномада кўрсатилган ва танланган идора функциясини бажаради. Ваколатли орган халқаро талабнома бўйича иш юритишда РСТ, РСТнинг Йўриқномаси, БИМТ Халқаро бюроси томонидан чоп

этиладиган тегишли қўлланмалар, шунингдек Қонун ва мазкур Қоидаларга амал қилади.

289. Халқаро талабномани кўриб чиқиш бошланадиган сана сифатида халқаро талабноманинг устуворлик санасидан эътиборан ўттиз бир ойлик муддатдан кейинги сана ҳисобланади.

Халқаро талабноманинг давлат экспертизасини кўрсатилган муддатдан аввал бошлаш ҳақидаги илтимоснома халқаро чоп этиш санасигача берилганда талабноманинг таржимаси билан бирга халқаро талабномани қабул қилувчи идора томонидан тасдиқланган ва халқаро топшириш санаси белгиланган нусхаси тақдим этилади.

290. Халқаро талабномани миллий фазага ўтказиш учун талабнома берувчи томонидан халқаро талабноманинг устуворлик санасидан эътиборан ўттиз бир ойлик муддатда бошқа тилда топширилган халқаро талабнома аризасининг таржимаси, халқаро талабноманинг нашр варағи, формуланинг таржимаси тақдим этилади ва бунда патент божи тўланади. Халқаро талабнома аризасининг таржимаси ўрнига мазкур Қоидаларда назарда тутилган Ўзбекистон Республикасида фойдали моделга патент бериш ҳақидаги ариза топширилиши мумкин.

291. Халқаро талабнома аризасининг таржимасига талабнома материалларининг таржималари халқаро талабномани топшириш санасида топширилган кўринишда илова қилинади.

Ўзгартирилган формулали халқаро талабнома миллий фазага ўтказилганда ўзгартирилган формуланинг таржимаси киритилган ўзгартиришларга нисбатан тушунтиришларнинг таржимаси билан бирга берилади.

292. Халқаро талабнома фойдали модель формуласи, тавсиф ва чизмаларга РСТнинг 34(2b)-моддасига мувофиқ киритилган ўзгартиришларни ҳисобга олган ҳолда миллий фазага ўтказилганда Халқаро дастлабки экспертиза органи томонидан қабул қилинган ўзгартиришлар ҳисобга олинган халқаро талабноманинг таржимаси тақдим этилади.

293. Мазкур Қоидаларнинг 289 – 292-бандларида кўрсатилган материаллар белгиланган муддатда тақдим этилмаганда халқаро талабнома бўйича иш юритиш тўхтатилади.

294. Миллий фазага ўтиш муддати ўтказиб юборилгандан сўнг ўн икки ой ичида тақдим этилган материаллар белгиланган патент божи тўланганда кўриб чиқишга қабул қилинади

295. Халқаро талабноманинг расмий экспертизасини ўтказишда мазкур Қоидаларнинг 177 – 195-бандлари талабларига риоя қилинганлиги ҳамда қуйидагилар текширилади:

аризада келтирилган маълумотлар халқаро талабноманинг нашр вараҒида кўрсатилган библиография маълумотларига мослиги;

талабнома берувчининг номи ўзгарганлиги, муаллифлар, сўралаётган устуворлик ҲаҚидаги ҳужжатларнинг мавжудлиги;

халқаро патент излаш ҳисоботининг мавжудлиги;

халқаро дастлабки экспертиза хулосасининг мавжудлиги (агар у ўтказилган бўлса).

296. Халқаро патент излаш ҳисоботи ва халқаро дастлабки экспертиза хулосасида фойдали модель бирлиги талаби бузилгани ҲаҚида хулоса ва уларнинг асосланиши берилганда ҳамда талабнома берувчи томонидан РСТнинг 17(3а) ва 34(3а)-моддаларида назарда тутилган Қўшимча божлар тўланмагани сабабли халқаро талабноманинг бирон-бир Қисмлари бўйича халқаро патент излаш ҳисоботи ва халқаро дастлабки экспертиза хулосаси бўлмаганда ушбу Қисмлар бўйича патент божини тўлаш шарти билан экспертиза томонидан кўриб чиҚишга Қабул Қилинади.

Патент божи тўланмаганда халқаро талабноманинг фаҚат халқаро патент излаш ҳисоботида берилган ва халқаро дастлабки экспертиза ўтказилган Қисмлари кўриб чиҚишга Қабул Қилинади.

8-боб. Якунловчи Қоидалар

297. Қонуннинг 20-моддасига мувофиҚ белгиланган талаблар бузилган ҳолда расмийлаштирилган патент бериш ҲаҚидаги талабнома юзасидан талабнома берувчига сўров юборилиб, унда шу сўров йўлланган санадан эътиборан уч ой ичида тузатишлар киритилган ёки етишмаётган материалларни таҚдим этиш таклиф Қилинади. Агар талабнома берувчи сўралган материалларни ёки белгиланган муддатни узайтириш тўҒрисидаги илтимосномани кўрсатилган муддатда таҚдим этмаса, патент бериш ҲаҚидаги талабнома чаҚириб олинган ҳисобланади. Белгиланган муддат талабнома берувчининг илтимосномасига кўра шу муддат ўтган санадан кейин кўпи билан ўн икки ойга узайтирилиши мумкин.

Муддатни узайтириш тўҒрисидаги илтимоснома таҚдим этилганда белгиланган миҚдорда патент божи тўланади. Мазкур бандда назарда тутилган шартларга риоя этилганда муддат узайтирилади ва бу ҲаҚида ўн кун муддат ичида хабарнома юборилади.

298. Сўровномага белгиланган муддатда тўлиҚ жавоб берилмаганда ёки жавобни топшириш муддатини узайтириш шартларига риоя этилмаганда талабнома чаҚириб олинган деб ҳисобланади ва бу ҲаҚида талабнома берувчига ўн кун муддат ичида хабарнома юборилади.

299. Экспертизанинг сўровномасига жавоб хатини таҚдим этишнинг ўтказиб юборилган муддатлари талабнома берувчининг илтимосномасига кўра тикланиши

мумкин. Илтимоснома талабнома чақириб олинган санадан бошлаб ўн икки ой ичида топширилади.

Илтимоснома билан биргаликда сўровномага тўлиқ жавоб хати тақдим этилади ва белгиланган миқдорда патент божи тўланади.

Мазкур бандниng шартларига риоя этилганда талабнома иш жараёнига тикланади ва бу ҳақида хабарнома юборилади.

300. Талабнома берувчи талабномага алоқадор иш юритиш билан ахборот тизими орқали танишиши мумкин.

301. Сўровнома, хабарнома, давлат экспертизаси қарорлари ва фойдали моделга бериладиган патент QR-код (матрик штрихли код) қўйиш билан тасдиқланиб юборилади.

302. Мазкур Қоидалар талаблари бузилишида айбдор бўлган шахслар қонунчиликда белгиланган тартибда жавоб беради.

Фойдали моделга патент бериш учун
талабномани тузиш, топшириш
ва кўриб чиқиш
қоидаларига 1-илова

Фойдали моделга патент бериш ҳақида АРИЗА

(21) Талабноманинг Қайд рақами: _____	(22) Талабноманинг келиб тушган санаси: _____ (85) Халқаро талабномани миллий фазага ўтказиш санаси: _____	Ёзишмалар учун манзил: _____ Телефон:_____
(86) _____ *(халқаро талабноманинг қабул қилувчи идора томонидан белгиланадиган қайд рақами ва халқаро топшириш санаси)*		**(87)** _____ *(халқаро талабномани халқаро эълон қилиш рақами ва санаси)*
Фойдали моделга патент бериш ҳақида АРИЗА		**Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги**
(54) Фойдали моделнинг номи: _____		
(71) Талабнома берувчи: _____ _____ *(жисмоний шахслар учун Ф.И.О. ёки юридик шахснинг тўлиқ ҳужжатга биноан тўлиқ номи)*		СТИР ёки ЖШШИР *(миллий талабнома берувчилар учун)*: _____ БИМТ ST.3 стандарти бўйича мамлакат коди *(агар у ўрнатилган бўлса)*: _____
Фойдали модель устуворлигини қуйидаги санадан белгилашингизни сўрайман: ☐ биринчи талабнома берилган санадан ("Ихтиролар, фойдали моделлар ва саноат намуналари тўғрисида"ги Қонуннинг (кейинги ўринларда – Қонун) 18-моддаси иккинчи қисми иккинчи хатбошиси); ☐ ваколатли органга олдиндан топширилган талабноманинг келиб тушиш санасидан (Қонуннинг 18-моддаси иккинчи қисми учинчи хатбошиси); ☐ олдин топширилган талабномага қўшимча материалларнинг келиб тушиш санасидан (Қонуннинг 18-моддаси иккинчи қисми тўртинчи хатбошиси); ☐ ажратилган алоҳида талабномага биринчи талабноманинг устуворлик санасидан.		
(31) Биринчи (олдин топширилган, дастлабки) талабнома рақами	(32) Сўралаётган устуворлик санаси	(33) БИМТ ST.3 стандарти бўйича талабнома топшираётган томоннинг мамлакат коди *(конвенция устуворлиги сўралганда)*

☐ (74) Вакил (*Ф.И.О. ёки номи, патент вакилининг рўйхат рақами, почта манзили*)

_____

Телефон:_____

Илова қилинган ҳужжатларнинг рўйхати:	Саҳифалар сони
☐ тавсиф	
☐ формула (мустақил бандлар сони, боғлиқ бандлар сони)	
☐ чизмалар ва бошқа материаллар	
☐ реферат	
☐ ишончнома	
☐ биринчи талабноманинг нусхаси (*конвенция устуворлиги сўралганда*)	
☐ талабноманинг таржимаси	
Бошқа ҳужжатлар (*кўрсатилсин*)	

(72) Муаллиф *(Ф.И.О., резидентлар учун яшаш жойи, паспорти ва унинг даражаси кўрсатилади)*	Турар жой манзили, ЁИМТ ST.3 стандарти бўйича мамлакат коди *(агар у ўрнатилган бўлса)*	ЖШШИР *(резидентлар учун)*
_____	_____	_____

QR-код

_____

_____

талабнома берувчи ёки вакил

Фойдали моделга патент бериш учун талабномани тузиш,
топшириш ва кўриб чиқиш қоидаларига 2-илова

Талабномага тузатишлар, аниқликлар ва Қўшимчалар киритиш тўғрисида АРИЗА

Келиб тушган санаси _____	Қайд рақами _____
Талабномага тузатишлар, аниқликлар ва қўшимчалар киритиш тўғрисида АРИЗА	**Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги**
(21) Талабноманинг қайд рақами	
(22) Талабноманинг келиб тушган санаси	
Мазкур аризани тақдим этган ҳолда талабнома материалларига қуйидаги тузатиш, аниқлик ва қўшимчалар киритишингизни сўрайман: _____ _____ _____ _____ _____ Тузатиш, аниқлик ва қўшимчалар киритилган маълумотлар: _____ _____	
Аризага иловалар:	
QR-код _____ _____ *талабнома берувчи ёки вакил*	

Фойдали моделга патент бериш учун талабномани тузиш,
топшириш ва кўриб чиқиш қоидаларига 3-илова

Фойдали моделга патент бериш ҳақидаги талабномага ҳуқуқни топшириш
ДАЛОЛАТНОМАСИ

Фойдали моделга патент бериш ҳақидаги талабномага ҳуқуқни топшириш ДАЛОЛАТНОМАСИ	**Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги**
Талабноманинг қайд рақами	
Талабноманинг келиб тушган санаси	

Қуйида ҳуқуқ топшираётган шахс ҳуқуқни олувчи шахсга фойдали моделга патент бериш ҳақидаги талабномага бўлган ҳуқуқни имзолаган ҳолда топширади.

Ҳуқуқни топшираётган шахс:

СТИР ёки ЖШШИР *(резидентлар учун)*:

_____

БИМТ ST. 3 стандарти бўйича мамлакат коди (*агар у ўрнатилган бўлса*):

_____

Номи (исми):

_____

Почта манзили:

_____

Телефон: _____

Ҳуқуқни олувчи шахс:

СТИР ёки ЖШШИР *(резидентлар учун)*:

_____

БИМТ ST. 3 стандарти бўйича мамлакат коди (*агар у ўрнатилган бўлса*):

_____

Номи (исми):

_____

Почта манзили:

_____

Телефон: _____	
Ҳуқуқни топшираётган шахс имзоси* _____ _____ Имзоланган сана	Ҳуқуқни олувчи шахс имзоси* Имзоланган сана

*Юридик шахс номидан ташкилот раҳбари томонидан унинг лавозими ва исми кўрсатилган ҳолда имзоланади.

Фойдали моделга патент бериш учун талабномани тузиш, топшириш ва кўриб чиқиш қоидаларига 4-илова

Фойдали моделлар давлат реестри

(11) Патент рақами

(15) Рўйхатдан ўтказилган сана

(18) Патент амал қилиш муддатининг тугаши

(19) Нашр қилаётган давлатнинг коди

(21) Талабноманинг қайд рақами

(22) Талабноманинг келиб тушган санаси

(23) Бошқа саналар, шу жумладан олдин топширилган талабномага қўшимча материаллар келиб тушган сана

(31) Устуворлик сўралган талабноманинг қайд рақами

(32) Устуворлик сўралган талабноманинг келиб тушган санаси

(33) Устуворлиги белгиланган давлат коди

(45) Эълон қилинган сана ва расмий ахборотнома рақами

(46) Муҳофаза ҳужжатини чоп этиш санаси

(51) ХПТ индекслари

(54) Фойдали модель номи

(62) Ажратиб олинган талабнома бўйича биринчи талабноманинг қайд рақами ва санаси

(63) Олдин топширилган талабноманинг қайд рақами ва санаси

(71) Талабнома топширувчиларнинг исми (номи), мамлакат коди

(72) Муаллиф исми, мамлакат коди

(73) Ҳуқуқ эгаси

(74) Вакил

(85) РСТ шартномасининг 23 (1) ёки 40 (1)-моддаларига мувофиқ халқаро талабнома миллий босқичга ўтган санаси

(86) РСТ шартомаси орқали топширилган талабноманинг маълумотлари, шу жумладан халқаро талабнома топширилган санаси, рўйхатдан ўтказиш рақами ҳамда ихтиёрий равишда эълон қилинган халқаро талабнома дастлаб қайси тилда топширилганлиги (халқаро талабномалар асосида берилган Ўзбекистон Республикаси патентлари учун)

(87) РСТ шартномаси халқаро талабномасини нашр этишга оид маълумотлар, шу жумладан халқаро нашр санаси, халқаро нашр рақами ва ихтиёрий равишда халқаро талабноманинг нашр этилган тили (халқаро талабномалар асосида берилган Ўзбекистон Республикаси патентлари учун)

(98) Ёзишмалар учун манзил

Изоҳ: мазкур реестрда ишлатилаётган кодлар Бутунжаҳон интеллектуал мулк ташкилотининг стандартлари билан белгиланган.